The public model of education management is implemented, in particular, through a mechanism of trust and coordination, which must be present in all levels of education, at all levels of management. Thus, at the municipal level of government, a number of collegial public bodies have recently been formed. Such organizations include: boards and councils of municipal educational authorities, councils of heads of educational institutions, certification commissions, expert councils, scientific and methodological, educational and methodological councils and centers, conflict, medical pedagogical commissions. All these public organizations perform much needed work for their territories.

At the same time, the work especially emphasizes that in a post-industrial society, hierarchical subject-object relationships lose their

meaning, and social networks built on the principles of mutual understanding and mutual learning begin to occupy the main place. Network forms of interaction in the management and self-government of the economy, social sphere, including education, are acquiring an important role, that is, self-organization comes to the fore. The power-dependence relationship also loses its significance in education itself, since it is unable to provide the necessary motivation to the main subjects of the educational process.

It is no longer possible to learn once and for the rest of your life. A person will have to learn to learn and relearn. Instead of mechanical submission, the main role will be played by the ability to make the right decisions in conditions of uncertainty. A self-developing person and a self-developing society are the prototype of the future. In a post-industrial society, space opens up for self-education (informal), as well as non-formal and non-state education within the formal system (partly public, partly private). In these conditions, non-state education is already one of the elements in the education system of the new society. In addition, in the dissertation the author substantiates the position that the highest, middle and lowest thresholds of accessibility to higher education should be institutionally structured. For example, this could be postgraduate, master's and bachelor's degrees.

Analyzing the data on the coverage level of HEIs, according to the Ministry of Preschool and School Education, 295, 393 out of a total of 385, 437 school graduates in 2022, or 77 percent, will enter higher education institutions. participated in entrance exams. 85, 869 of them, or 23%, were admitted to public higher education institutions, which increased by +4% compared to 2021 and +12% compared to 2020.



Figure 2. Forecasting of enrollment to HEI

But, as you can see, there is still a high need to cover graduates in higher education institutions, including plans to increase the coverage of graduates by 50% by 2030, which means increasing from 782, 993 students to 1, 174 million.

At the same time, the work examines property relations and corresponding approaches to financing within the framework of a mixed model of education management, which are very important for organizing the management of a non-state university. The main sources of formation of university property are the following: purchase and sale, rent, transfer for free use (loan), mortgage (pledge). The property is replenished from budgets at various levels, state extra-budgetary funds, from material and monetary contributions from founders, voluntary donations and targeted contributions from legal entities and individuals, from funds received from paid educational, entrepreneurial and other activities, through privatization, changes in the bundle of property rights. A non-state university, as a non-profit organization, is the owner of the property transferred by the founder, and is also the owner of property acquired during the activities of the non-profit organization.

The institutes and universities of Uzbekistan are tasked with bringing the level of education in line with world standards, entering and gaining a foothold in authoritative international rankings of higher educational institutions. And this is impossible without comprehensive cooperation with foreign universities.

Over the past six years, international cooperation in the field of higher education has reached unprecedented proportions in Uzbekistan. More than six thousand professors and teachers of domestic universities have completed training and internships at foreign universities and research centers in Europe, the USA, Asia and the CIS countries. At the same time, 6, 279 foreign professors and experts have been attracted to local higher education institutions since 2017.

The number of branches of foreign universities in the country has increased from seven to 31. Prestigious universities from the USA, Great Britain, the Republic of Korea, Turkey, Italy, Japan, Belarus, Russia and other countries have entered the higher education market in Uzbekistan. The number of joint educational programs of "double diplomas" goes into the hundreds.

An important role in the integration of higher education in Uzbekistan into the global educational space belongs to cooperation with universities of the Russian Federation. The first and second Russian-Uzbek educational forum were held in 2018 and 2021. Hundreds of rectors, vice-

rectors and professors of leading universities of the two countries took part in the events. Last November, speaking at the second forum, the rector of Moscow State University, head of the Russian Union of Rectors Viktor Sadovnichy spoke about the implementation of 63 "road maps" of scientific and educational partnership between Uzbekistan and the Russian Federation. He emphasized that 115 universities in our countries are implementing 240 cooperation agreements. On the sidelines of the second forum, about 30 more documents were signed.

CONCLUSION

What I have to say in this section, and my conclusion includes the following, is that a country that pays attention to education will go over to rule a country that does not pay much attention to education. Therefore, by expanding the scope of education in our higher education institutions, by occupying a new market, by making wide use of the scientific and innovative potential, in the future, regularly reforming science, forming highly qualified personnel with modern knowledge and thinking in a new way, the work of modernizing the scientific infrastructure will be qualitatively new. We doubt that we will be promoted to the next level.

Literature of use

1. Aucoin, P. 1990. Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums. Governance 3(2): 115–137.

2. Leitner, K. H. , Elena, S. , Fazlagic, J. , Kalemis, K. , Marinaitis, Z. , Secundo, G. , Sicilia, M. A. , and Zaksa, K. 2014. A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series

3. Florez, J. M. , M. V. Lopez, and A. Lopez. 2014. Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking. Revista de Educacio´n 364: 170–196.

4. Trakman, L. 2008. Modelling university governance. Higher Education Quarterly 62(1/2): 63–83.

5. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, https://edu. uz/uz/pages/sss

6. Ministry of preschool and school education https://t. me/uzedu/18612

7. Author's development based on the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030

NAVOIY VILOYATINING BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Iqtisod fanlari doktori, professor Sodiqov Avazbek Madaminovich

ORCID:0000-0002-9120-2656

Nazarov Nazirjon Narzilloevich

Annotatsiya

Maqolada Navoiy viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra viloyatda iqtisodiy ahvol yaxshi bo'lgani bilan ekologik vaziyatning xavf ostida ekanligi asoslangan. Bunga koʻra, hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishishda yalpi ichki mahsulotning oʻsishida sanoatda ishlab chiqarishini oshirish, qishloq xoʻjaligi, transport va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ishlab chiqarishining dinamik oʻsishi, uy xoʻjaliklari daromadlarini sezilarli darajada oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vazifalarini bajarish bilan bir vaqtda ijtimoiy soha rivojlanishi va ekologik barqarorlikni ta'minlangan holda erishish mumkinligi maqolada keltirilgan. Bundan tashqari sanoat salohiyati; qishloq xo'jaligi salohiyati, investitsiya salohiyati, eksport salohiyati, mineral resurslar salohiyati, mehnat resurslari kabi salohiyatlar ham tahlil qilingan. Viloyatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturida turli tumanlar ham tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy shahrida, hamda Xatirchi, Qiziltepa, Karmana va Nurota tumanlarida dasturlar barqaror rivojlanish maqsadlariga mos asosda metodologiyada o`z aksini topgan. Viloyatda import oʻrnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ushbu mahsulot turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar viloyatda yoʻqligini inobatga olib, bunday mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil qilish maqsadida tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish masalasini koʻrib chiqish lozim. Shu bilan birga barqaror rivojlanishni strategik rejalashtirish hamda bu borada turli taklif va tavsiyalar maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivolanish, strategik rejalashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyat.

TRENDS IN SUSTAINABLE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF NAVOI REGION

professor, doctor of economical sciences Avazbek Sadikov

ORCID:0000-0002-9120-2656

Nazirjan Nazarov

ORCID:0000-0002-9100-5645

Annotation

The article analyzes the stable socio-economic development of Navoi region from economic, social and ecological points of view. According to the results of the analysis, it is based on the fact that the economic situation in the region is good, but the ecological situation is in danger. Accordingly, in order to achieve the sustainable development of the region's economy, the growth of the gross domestic product, the increase in industrial production, the dynamic growth of the production of agriculture, transport and other sectors of the economy, the significant increase in household incomes, the rational use of natural resources It is presented in the article that it is possible to achieve social sphere development and ecological stability while fulfilling the tasks of use. In addition, industrial potential; Agricultural potential, investment potential, export potential, mineral resources potential, and labor resources were also analyzed. In the program of measures developed to deepen economic reforms in the region, various districts were also analyzed. Also, in the city of Navoi, as well as in Khatirchi, Kiziltepa, Karmana and Nurota districts, the programs are reflected in the methodology based on the goals of sustainable development. Taking into account the fact that there are no production of import-substituting food products and enterprises producing these types of products in the region, it is necessary to consider the issue of preferential loans to entrepreneurs in order to establish enterprises producing such products. At the same time, sustainable development.

Keywords: sustainable narration, strategic planning, economic, social and environmental situation.

Kirish

Mintaqada iqtisodiy o'sish sur'atlari, uning asosiy omillari, iqtisodiyot tarkibini shakllanishida tarmoqlarning o'rnini chuqur tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlash va barqaror rivojlanish sharoitlarini belgilab olish muhimdir.

Eng avvalo barqaror rivojlanishga ta'rif beradigan bo'lsak, "Barqaror rivojlanish" – rivojlanishning tiklanadigan tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat omillari bilan ta'minlangan YAIMning miqdoriy va sifat jihatdan o'sishidir. Bunda rivojlanishning barqarorligini vaqt davrlarida – rivojlanishning joriy, o'rta va uzoq muddatli davrlarida ko'rib chiqish lozim. Joriy davrda iqtisodiyotning o'sishi vazifalaridan kelib chiqib, YAIM o'sishining yuqori sur'atlariga erishish mumkin. Biroq iqtisodiyot rivojlanishining, uning barqaror rivojlanishini ta'minlashning o'rta va uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda rivojlanish, YAIMning o'sish sur'atlari, asosan iqtisodiyotni jadal rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqib, ya'ni ko'proq rivojlanishning intensiv omillari hisobidan yuzaga kelishi kerak (Usmanov A., 2017:14).

Barqaror rivojlanish iqtisodiyotni rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik normalarga tayanishni nazarda tutadi. Ular ichida Brundtland komissiyasi ma'ruzasida keltirilgan ta'rif, atama mohiyatini to'liqroq ochib beradi. "Barqaror rivojlanish- bu shunday rivojlanishki, bugungi kun ehtiyojlarini qondirish hisobiga, kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini tahdid ostiga qo'ymaslikni nazarda tutadi" (Молочникова Н. Р., 2002:200).

Adabiyotlar sharhi

O'zbekistondagi BMT taraqqiyot dasturi doirasida olib borilgan ilmiy ishlarda, xususan, E. F. Gadoev ta'rifiga binoan, Barqaror rivojlanish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim zamonaviy tamoyillaridan hisoblanib, unga binoan jamiyatning eng muhim maqsadi – rivojlanishning uzluksizligi, uning barqaror xarakterini ta'minlashdir. Barqaror rivojlanish o'z ichiga iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, demografik va boshqa komponentlarni qamrab oladi va nafaqat hozirgi kunda yashovchilar, balki kelajak avlodlarning munosib turmush darajasini ta'minlashni ko'zda tutadi (O'zbekiston: Amaliy qo'llanma 2011).

2015 yilda O'zbekiston hukumati 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida global kun tartibini amalga oshirish bo'yicha vazifalarni qabul qildi. 2018 yilning oktyabr oyida barqaror rivojlanish sohasida 16 ta Milliy maqsad va 125 ta vazifa qabul qilindi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 83-sonli qaror qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi № 841).

Metodologiya

Bunga ko'ra, barcha hududlarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlariga erishishda vazifalar belgilanib olindi.

Shu jihatdan, Navoiy viloyatining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlash, ishlab chiqarish salohiyatini baholash, iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlarini ishlab chiqish va mamlakat miqiyosidagi o'rni va jihatlari bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Yalpi hududiy maxsuloti. Navoiy viloyatini barqaror rivojlanish nuqtai nazardan tadqiqot davri sifatida 2010-2022 yillarda YAHMning o'sish sur'atlarini tahliljarayoni shuni ko'rsatdiki, dastlabki besh yilda (103, 8 foiz) YAHMning o'sish sur'atlarida katta o'zgarishlar ro'y bermagan. Buning asosiy sababi, viloyatda YAHM ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoatning ulushi yuqoriligi hamda yangi ochilgan korxonalarning ulushi pastligi bilan asoslanadi. Shunga qaramay, tadqiqot davrining keyingi yetti yilida viloyatning o'sish sur'atlaridagi o'zgarishlar kuzatildi. Viloyatda YAHMning o'sish sur'ati ushbu davrga kelib (105, 5 foizga) oshgan va respublika YAIMning o'sish sur'atlari (105, 7 foiz)ga deyarli tenglashgan.

Demak, oxirgi yetti yil davomida viloyatda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir nechta yirik loyihalar tizimli ravishda amalga oshirilganligi tufayli YAHM o'sish sur'atlarida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Shunga ko'ra, Navoiy viloyati 2022 yilda YAHM hajmi jihatdan respublikada 3-o'rinni egallagan. Aholi jon boshiga YAHM hajmi bo'yicha respublika mintaqalari ichida yetakchilik qiladi. Buning asosiy sababi viloyatda aholi soni (1033, 9 ming kishi) respublika hududlari aholi soniga nisbatan past bo'lib, 13-o'rinni egallaydi.

Mintaqada iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishi bilan bir qatorda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida islohotlar keng miqyosda amalga oshirildi. Shunga asosan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar natijasida mintaqada 2010-

2022 yillar oralig'ida YAHM indeksi 1, 854 dan 2, 561 ga, ya'ni 0, 707 ga ko'tarildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Navoiy viloyatining yalpi ichki (hududiy) mahsuloti ko'rsatkichlari dinamikasi (5)

Yillar	O'zbekiston Respublikasi			Navoiy viloyati			
	Mlrd. so`m	O`sish sur`ati foizda	Aholi jon boshiga, ming so`m	Mlrd. so`m	O`sish sur`ati foizda	Aholi jon boshiga, ming so`m	YAHM indeksi
2010	78, 936. 6	107. 1	2, 763. 7	4, 325. 6	103. 9	5, 016. 3	1, 815
2011	103, 232. 6	107. 5	3, 518. 6	5, 285. 4	107. 0	6, 026. 1	1, 712
2012	127, 590. 2	107. 1	4, 285. 2	6, 528. 8	104. 7	7, 378. 8	1, 721
2013	153, 311. 3	107. 3	5, 069. 3	7, 708. 5	104. 4	8, 614. 8	1, 699
2014	186, 829. 5	106. 9	6, 074. 2	9, 181. 7	105. 5	10, 120. 9	1, 666
2015	221, 350. 9	107. 2	7, 072. 2	10, 545. 2	103. 8	11, 454. 7	1, 619
2016	317, 476. 4	105. 9	8, 020. 1	11, 959. 3	103. 7	12, 786. 6	1, 594
2017	738, 425. 2	104. 4	9, 802. 1	14, 681. 5	101. 5	15, 447. 7	1, 575
2018	255, 421. 9	105. 5	12, 945. 7	22, 573. 3	104. 8	23, 240. 3	1, 795
2019	426, 641. 0	106. 0	15, 863. 8	36, 224. 3	105. 2	36, 653. 1	2, 310
2020	532, 712. 5	102. 0	17, 688. 5	49, 780. 4	106. 6	49, 513. 0	2, 799

2021	605, 514. 9	107. 4	21, 149. 2	58, 730. 3	107. 3	57, 370. 6	2, 712
2022	888, 341. 7	105. 7	24, 919. 7	66, 685. 4	105. 5	63, 832. 1	2, 561

Shu jumladan, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati (105, 5 foiz) (respublika 106, 2 foiz), mahsulotlarga sof soliqlar (106, 2 foiz) (respublika 99, 2 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (104, 0 foizga) (respublika 103, 6 foiz), sanoat (105, 7 foiz) (respublika 105, 2 foiz) hamda xizmatlar (105, 2 foiz) (respublika 108, 5 foiz) o'sganligini ko'rish mumkin. Demak Navoiy viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari respublika yalpi ichki mahsulotining o'tgan yilga nisbatan o'rtacha o'sish sur'atlariga qaraganda faqatgina qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga o'sish kuzatilgan. Eng katta foizda o'sish sur'ati mahsulotlarga sof soliqlarda kuzatildi. Soliqlarni oshishi barqaror rivojlanishga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatining YAHM tarmoq tarkibi ya'ni qishloq (o'rmon va baliq) xo'jaligi, sanoat, qurilish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari (2010-2022 yillar) davomida sifat jihatdan ijobiy siljishlar kuzatildi. Xususan, Navoiy viloyati YAHM tarmoq tarkibida sanoat ulushining yuqoriligini ko'rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval.

Navoiy viloyatida YAHM tarmoq tarkibining o'zgarishi (foizda) (6).

Yillar	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
2010	15	51	6, 2	27, 8
2011	15, 5	50, 8	6	27, 7
2012	15, 9	49, 7	6, 8	27, 6
2013	15, 5	51. 5	7	26
2014	16, 7	50	5, 7	27, 6
2015	16, 8	51, 8	6, 1	25, 3
2016	16, 2	52, 1	5, 7	26, 0
2017	18, 5	53, 4	5, 3	22, 8
2018	23, 6	55, 8	4, 6	16, 0
2019	16, 5	66, 5	4, 2	12, 8
2020	13, 8	71, 1	3, 4	11, 7
2021	15	69	3, 7	12, 3
2022	13, 9	69, 3	4, 0	12, 8

Sanoat salohiyati. Navoiy viloyati sanoat salohiyatining asosiy o'zagini tog'-kon sanoati tashkil etadi, u umumiy sanoat mahsulotining 56, 5 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Iqtisodiyotning asosini xomashyo va kapital ko'p talab qiluvchi tarmoqlar – rangli metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va elektr-energetika tashkil etadi, bu esa asosiy va strategik ahamiyatga ega ob'ektlarning xomashyo yaqinida joylashganligi bilan bog'liq. Bunday mahsulotlar o'z navbatida, jahon bozorida yuqori baho va talabga ega. Asosiy sanoat ob'ektlari qatoriga Navoiy IES (viloyat umumiy sanoat mahsulotining 8, 9 foizi), Navoiy kon-metallurgiya kombinati (60 foizga yaqin), "Navoiyazot" AJ (7, 5 foiz),

“Qizilqumtsement” AJ (11, 2 foiz) kiradi. Viloyat sanoat mahsulotlarining 85% dan ortig'i yirik korxonalar hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu strategik ahamiyatga ega korxonalarning rivojlanish dinamikasi nafaqat viloyat, balki butun mamlakatimiz iqtisodiy o'sish sur'atlariga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatmoqda.

YAHM ishlab chiqarish tarkibida sanoatning ulushi 45, 0% ni tashkil etadi. Viloyat ammiakli selitra (umumiy respublika ishlab chiqarishining 42, 4 foizi), azotli o'g'itlar (77, 3 foiz), suvli eritmadagi ammiak (100 foiz), sirka kislotasi (100 foiz), formaldegid (100 foiz) ishlab chiqarish bo'yicha respublikada yetakchi o'rinni egallaydi. 100%, Portlend sement (42, 6%), sement klinkerlari (45, 4) (3-jadval).

3-jadval

Navoiy viloyatining ulushi O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishida (%) (7)

Ko'rsatkichlar nomi	**2022 yil**
Hudud	24. 7
Aholi	2. 9
Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni	3. 2
Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)	5. 3
Sanoat mahsulotlari	9. 6
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	4. 5
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	5. 0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	5. 7
Chakana savdo aylanmasi	4. 2
Xizmatlar	3. 0

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy turlari:	
suvli eritmada ammiak	100
sirka kislotasi	100
metanol	100
ammoniy nitrat	42. 4
azotli o'g'itlar	77. 3
Portlend sement	42. 6
sement klinkerlari	45. 4

Navoiy viloyatining respublika iqtisodiyotidagi ya'ni YAIM, sanoat, iste'mol tovarlari, qishloq xo'jaligi, investitsiya, chakana savdo, xizmatlar, eksport va importdagi ulushini hisoblaganda hamda uning o'zgarib borishini foizda ko'rganimizda quyidagicha o'zgarishlarga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin (3-jadval). 2022 yilda Navoiy viloyatiga mamlakat YAIMning 7, 5 foiziga to'g'ri keldi. Respublika YAIMdagi ulushining tushishiga sabablardan biri Toshkent shahri va Toshkent viloyati YAIMdagi ulushi yuqori darajada o'sganligida bo'ldi.

Navoiy viloyatining respublikadagi sanoat ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada ham o'zgarishlar kuzatilganini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash lozimki, pandemiya holatida ham tadqiqot olib borilayotgan mintaqaning deyarli barcha sohalarida jadal rivojlanish jarayoni davom etgan, biroq investitsiya, import va chakana savdo tovar aylanmasi bilan bog'liq ko'rsatkichlarda biroz pasayishlar kuzatilgan. Shuni inobatga olgan holda viloyatda qolgan sohalarni ham rivojlantirish uchun ko'proq e'tibor qaratish lozim. (4-jadval).

4-jadval

Navoiy viloyatining respublika iqtisodiyotidagi ulushi va uning o'zgarib borishi, foizda (8)

Yillar	YAIM	Sanoat	Iste`mol tovarlari	Qishloq xo`jaligi	Investitsiya	Chakana savdo	Xizmatlar	Export	Import
2000	4, 5	11, 2	2, 0	3, 5	6, 2	2, 4	2, 2	6, 8	2, 6
2005	5, 7	15, 0	2, 2	4, 0	5, 5	3, 0	2, 9	7, 8	2, 5
2010	5, 6	10, 6	3, 3	4, 4	10, 6	3, 9	2, 4	4, 2	4, 0
2015	4, 9	9, 5	4, 2	4, 2	4, 0	4, 2	2, 6	4, 1	2, 9
2017	4, 7	8, 8	3, 7	4, 4	5, 5	4, 1	2, 6	2, 2	3, 3
2018	5, 4	9, 7	3, 0	4, 5	8, 5	4, 1	2, 6	2, 1	6, 6
2019	7, 2	13, 8	2, 9	4, 4	9, 0	4, 1	2, 6	2, 0	6, 1
2020	8, 4	17, 7	3, 2	4, 6	7, 9	4, 0	2, 6	2, 8	4, 2
2021	8, 4	17, 7	3, 1	4, 5	7, 8	4, 1	2, 6	3, 1	4, 5
2022	7, 5	16, 1	3, 3	4, 4	7, 3	3, 8	2, 6	3, 6	2, 5

Viloyat iqtisodiyoti asosan sanoat sohasiga ixtisoslashgan bo‘lib, bu tarmoq viloyatning iqtisodiy rivojlanish darajasini hamda mamlakatdagi o‘rnini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Navoiy viloyati respublika hududlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari tadqiqot davri (2010-2022 yillar) mobaynida o‘sish kuzatilgan bo‘lib, 2022 yilda (84144. 6 mlrd. so‘m)ga yetdi, respublikada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari o‘rtacha ko‘rsatkichi esa (551050, 9 mlrd. so‘m)ga yetgan. Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 80546, 7 ming so‘mni tashkil etib, respublikada yetakchilik qildi. Viloyatning ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari o‘sish sur’atlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2022 yilda (105, 7 foiz)ni tashkil etgan.

Navoiy viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududiy tarkibi bir-biridan keskin farq qiladi. Viloyat jami sanoat mahsulotining 84, 5 foizni Navoiy shahrida ishlab chiqariladi. Viloyatning aholi jon boshiga iste’mol mollari ishlab chiqarish ko‘rsatkichi respublika o‘rtacha

koʻrsatkichidan yuqori. Viloyatning ichki hududlari orasida Navoiy shahri hamda Karmana tumanidan tashqari barcha hududlarda aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarish viloyat oʻrtacha koʻrsatkichidan past. Navoiy shahrida ushbu soha indeksi 2, 057 ga teng, ya'ni viloyatda ishlab chiqarilayotgan xalq iste'mol mollarining 29, 8 foizi Navoiy shahriga toʻgʻri keladi. Tumanlar orasida nisbatan yuqoriroq koʻrsatkichni Karmana (17, 8 %), Xatirchi (14, 2 %) hamda Qiziltepa (12, 4 %) tumanlari tashkil etadi. Qolgan hududlarning, ayniqsa, Tomdi, Konimex va Uchquduq tumanlarining ushbu sohadagi ulushi past. Nisbatan Karmana (10, 7%), Qiziltepa (1, 7%) va Xatirchi (0, 9%) tumanlarida rivojlangan.

Navoiy viloyati iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish koʻrsatkichlari dinamikasini tadqiqot davrida respublika hududlari koʻrsatkichlari bilan solishtirganda 12 yil davomida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi boʻyicha oʻsishga erishgan boʻlib 2022 yilda 4 676, 5 mlrd. soʻmni tashkil qildi va respublikada 9- oʻrinnni egalladi. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishning oʻsish sur'atlari boʻyicha Navoiy viloyatida oxirgi yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilib 104, 2 foizni tashkil qilmoqda. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari 12 yil vaqt mobaynida 3947, 9 ming soʻmga koʻpayib 2022 yilda kelib 4 476, 5 ming soʻmni tashkil qilgan.

Qishloq xoʻjaligi salohiyati. Navoiy viloyatida qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining barqaror oʻsishi chorva mollari sonini koʻpaytirish va mahsuldorligini oshirish asosida chorvachilikni jadal rivojlantirish hisobidan ta'minlanmoqda.

Navoiy viloyatida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining respublika tarkibidagi ulushi qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti umumiy hajmining 5 foizini tashkil etadi. Viloyat respublika yalpi ekin maydonining 3 foizini egallaydi.

Viloyat qishloq xoʻjaligi salohiyati asosan qorakoʻl qoʻy va echki boqish hisobiga rivojlangan chorvachilik (viloyat qishloq xoʻjaligi umumiy hajmining 52, 4%) bilan ajralib turadi. Shunday qilib, qoʻy va echkilar soni boʻyicha viloyat respublikada 6-oʻrinda (10%), goʻsht yetishtirish boʻyicha 7-oʻrinda (6, 5%). Ayni paytda oʻsimlikchilik, jumladan, meva-sabzavotchilik, polizchilik, uzumchilik rivojlanmoqda. Viloyatda kartoshka yetishtirish yalpi respublika hajmining 2, 5 foizini, sabzavot yetishtirishning 2, 3 foizini, meva yetishtirishning 3, 8 foizini va uzumning 5 foizini tashkil etadi.

Navoiy viloyatini qishloq xo‘jaligi mahsulotini tumanlar kesimida tahlil qilganda viloyatda yetakchilikni Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor hamda Karmana tumanlari egallaydi. Eng past ko‘rsatkich (shaharlardan tashqari) Uchquduq, Tomdi va Konimex tumanlari ulushiga teng.

Investitsion salohiyat. Mintaqaning investitsiya salohiyati boy mineral-xom ashyo bazasi, rivojlangan sanoat salohiyati, strategik ahamiyatga ega ishlab chiqarish quvvatlarining joylashuvi mavjudligi bilan belgilanadi. Oxirgi 5-6 yilda Navoiy viloyatida infratuzilmani shakllantirish tufayli katta loyihalarni amalga oshirishda imkoniyat yaratildi. Jumladan “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi, shuningdek, rivojlangan temir yo‘l, avtomobil yo‘llari tarmog‘i va mintaqada xalqaro intermodal logistika markazining mavjudligini aytish mumkin. Hududiy tuzilmada 2022-yilda Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 5, 7 foizni, 2010-2022-yillarda esa umumiy hajmida o‘rtacha 6, 6 foizni (respublika bo‘yicha 6-o‘rin) tashkil etdi. 2010-2015 yillarga qaramay, viloyatga yo‘naltirilgan investitsiyalar o‘sish sur’ati mos ravishda 96, 9, 87, 2 va 96, 8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, bu ko‘rsatkich keskin o‘sib, 118, 2 foizga yetdi. Natijada 2022-yilda aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi 18, 5 million so‘mdan ortiqni tashkil etdi (respublikada Toshkent shahri va Buxoro viloyatidan keyin 3-o‘rin). 2010-2022 yillarda Navoiy viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar ulushi o‘rtacha 28, 5%ni (2022-yilda 26, 9%) tashkil etdi, bu respublika darajasidan (24%) yuqori. Viloyatda katta zahira va ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, 2021-2022 yillarga xorijiy sarmoya va kreditlar ulushi. (2, 9% va 4, 8% mos ravishda) milliy darajadan ancha past bo‘lib qoldi (2022 yilda 21, 9%).

Ayni paytda viloyatda 17 sanoat korxonasida yirik sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyazot”, “Qizilqumsement”, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi”, Navoiy “Elektrokimyo zavodi” korxonalari shular jumlasidandir. Navoiy viloyatida ham qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Masalan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyazot” AJ va qishloq xo‘jaligidagi iste’molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash imkoniyatini yaratuvchi quvvati 450 MVt bo‘lgan ikkinchi bug‘-gaz qurilmasi qurildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki krediti hisobidan Navoiy shahridagi “Baxt tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyati, Navoiy shahridagi “Baxt Navoiy” mas’uliyati cheklangan jamiyati, Qiziltepa tumanida “Toshrabot tekstil” va Navbahor tumanida “Navbahor tekstil” korxonalari ishga tushirildi. Zamonaviy va energiya tejovchi texnologik

uskunada yuqori sifatli kalava ip ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, qariyb 70 million dollarlik ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar ham jalb etildi.

Natijalar

Eksport salohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida hududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifa etib belgilangan. 2022 yilda viloyatda eksport hajmi 595, 4 mln. AQSH dollariga teng bo‘lib, u 2021 yilga nisbatan oshdi.

Viloyatning mamlakat eksport salohiyatidagi ulushi 2022 yilda 2, 8 foizni tashkil etdi. Vaholanki, ushbu ko‘rsatkich 2010 yilda 6, 8 foizga, 2015 yilda 6, 3 foizga teng bo‘lgan. Tahlillarga ko‘ra, 2010-2015 yillar orasida viloyatda aholi jon boshiga eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish 2, 2 martaga oshdi. Biroq, 2010-2022 yillarda bu ko‘rsatkich, aksincha, birmuncha kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holatni jahon bozorida mahsulotlarga bo‘lgan talab va taklifning keskin o‘zgarishi, narxlarning tushib ketishi hamda oxirgi yildagi pandemiya oqibatlari bilan izohlash mumkin. Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyati aholi jon boshiga eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan keyingi o‘rinni egallaydi.

Navoiy viloyatining eksport tovar tarkibi o‘ziga xosdir. Ushbu o‘ziga xoslik shundan iboratki, uning jami eksportining yarmini kimyo mahsulotlari tashkil qiladi. Undan keyingi o‘rinda paxta tolasi, hamda xizmatlar turadi. Mintaqada eksport mahsulotlari va xizmatlarining 74, 7 foizi Navoiy shahriga hamda 8, 2 foizi Karmana tumaniga to‘g‘ri keldi. Qolgan barcha hududlarning eksportdagi ulushi deyarli sezilmaydi.

Viloyatning eksport salohiyatida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 2022 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 238 tani tashkil etdi. Ular iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 145 tasi sanoat, 27 tasi savdo, 29 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 3 tasi tashish va saqlash, 13 tasi qurilishda, 3 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 1 tasi axborot va aloqa, 2 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 15 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 148 tasi qo‘shma korxonalar, 90 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanib, ular tomonidan 104, 2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan hamda xizmatlar ko‘rsatilgan, shu jumladan 33, 8 mln. AQSH dollari qiymatida mahsulotlar va xizmatlar eksporti amalga oshirilgan.

Viloyatda 2022 yil mobaynida 180 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 559 turdagi tovar va mahsulotlarni 38 ta mamlakatga eksport qilindi. Eng ko‘p Kanada, Fransiya, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Turkiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Singapur, Litva, Afg‘oniston, Ukraina, Tojikiston, BAA, Ozarbayjon, Polsha, Belarus, Buyuk Britaniya, Pokiston, Gongong va boshqa mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatning eksport salohiyatini oshirishda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi alohida o‘rin tutadi. Hozirgi vaqtda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Singapur va Rossiya bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Umumiy investitsiya miqdori 124 million dollar bo‘lib, korxonalarda 100 dan ortiq turdagi eksport mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Mineral resurs salohiyati. Ma’lumki, Navoiy viloyati respublikada mineral xomashyo resurslari bilan yaxshi ta’minlangan mintaqalardan biri sanaladi. Shu bois sanoatning shakllanishi va rivojlanishida tabiiy resurslar alohida o‘rin egallaydi. Chunki, tabiiy resurslar, bir tomondan, sanoat ishlab chiqarishi uchun xomashyo vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarishi uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi.

Mineral xomashyo resurslari mintaqa sanoati qudratining asosiy o‘lchovlaridan biri hisoblanadi. Mineral xomashyo zahiralarining ayrim turlari bo‘yicha viloyatning ulushi juda yuqori. Navoiy viloyati mineral xomashyo resurslari qiymati bo‘yicha respublikada o‘ziga xos o‘ringa ega.

Navoiy viloyati mintaqalar orasida xomashyo zahiralari bo‘yicha respublikada beshinchi o‘rinni egallaydi. Viloyatda rangli, noyob, qimmatbaho metallarni zahiralari mavjud bo‘lib, bu borada u mintaqalar orasida Toshkent viloyatidan keyingi o‘rinda turadi.

Biroq, oltin zahiralarining yirik konlari esa, aynan ushbu mintaqada tarkib topgan. Shuningdek, viloyatda tog‘-texnika xomashyosi zaxirasining 16 foizi, qurilish materiallari zaxiralarining esa, 15, 7 foizi joylashgan.

Viloyatda yuqorida qayd etilgan xomashyo resurslarining sezilarli zahiralari mavjudligi, bu mintaqada rangli metallurgiya, kimyo va qurilish sanoatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vioyatda oltin konlarining yirik zahiralari mavjud bo‘lib, ular asosan Tomdi tumanida joylashgan Muruntov, Omontoytov va Dogustov konlari, shuningdek, Uchquduq tumanida joylashgan Ko‘kpatos konlaridan iboratdir.

Keyingi yillarda jahondagi eng yirik oltin rudali mintaqalardan biri bo‘lmish Qizilqumda Ajibugut, Balpantov, Aristontov, To‘rboy singari yangi konlar qidirib topilmoqda va o‘rganilmoqda, Bu konlardan qazib olinayotgan oltin sifati jihatidan dunyoda oldingi o‘rinda turadi. Viloyat hududida 100 dan ortiq foydali qazilma konlari joylashgan bo‘lib, ayniqsa oltin, kumush, polimetal, uran, fosfat, kaolin, bentonit, marmar, granit, dolomit, keramzit, bazalt, kvars qumi, gips, ohaktosh, yarim qimmatbaho toshlar (feruza, kaxolong, opal) va boshqa xomashyolar. Foydali qazilma konlarining mintaqa iqtisodiyotidagi jalb etilishi 50 foizdan kam emas. Shu bilan birga, Navoiy viloyati boy xomashyolardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish uchun salmoqli salohiyatga ega.

Ta’kidlash joizki, Navoiy viloyati mamlakatimiz uchun eng muhim va noyob “strategik” ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan. Viloyatda jami 3273 ta sanoat korxonalari mavjud bo‘lib, shundan 28 tasi yirik, qolganlari esa kichik sanoat korxonalari tarkibiga kiradi. Keyingi yillarda viloyatda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi o‘ziga xos tarzda kechmoqda. Iqtisodiyotning asosini jahon bozorida qimmatli hisoblangan rangli metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish materiallari va energetika sanoati uchun xomashyo yetkazib beruvchi unduruvchi sanoat tarmoqlari tashkil etadi.

Viloyatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturida turli quvvat bilan ishlaydigan 7 ta, jumladan, Navoiy shahrida 3ta, Karmana, Tomdi, Uchquduq va Qiziltepa tumanlarida 1 tadan yangidan go‘sht maxsulotlarini qayta ishlash va tayyorlash korxonalari tashkil etildi. Shuningdek, Navoiy shahrida, hamda Xatirchi, Qiziltepa, Karmana va Nurota tumanlarida 6 ta sutni qayta ishlash sanoat obyektlari faoliyat olib bormoqda. Viloyatda import o‘rnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ushbu mahsulot turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar viloyatda yo‘qligini inobatga olib, bunday mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkil qilish maqsadida tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish masalasini ko‘rib chiqish lozim.

Ma’lumki, sanoatni maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaning boy tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Mintaqada kimyo sanoatining istiqbollari keng. Jumladan, Navoiydagi fosforit konlari negizida fosforit o‘g‘itlari ishlab chiqaradigan, Navoiy TKKni qayta ishlash majmuasi asosida esa, kimyo sanoatining yangi tarmoqlarini rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. Keyingi yillarda viloyatda to‘qimachilik sanoatiga katta e’tibor berilmoqda. 2006 yil viloyat markazida “Baxt-tekstil” qo‘shma korxonasi o‘z faoliyatini boshladi. Korxonaning to‘liq

quvvati yiliga 7500 tonna paxta tolasini qayta ishlashga va har xil turdagi to‘qimachilik mahsulotlari tayyorlashga mo‘ljallangan. Eng muhimi, hozirgi kunda bu korxonada jami 700 nafar ishchi-xodimlar mehnat qilmoqda.

Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan yangi loyiha poligarskit oqartiruvchi gil mahsulotini chetdan olib kelinishini (import) kamaytirish maqsadida import qilinayotgan mahsulotlardan sifati bilan tenglashadigan, hamda arzon bo‘lgan poligarskit oqartiruvchi gilini ishlab chiqarayotgan “Bentonit” QKga respublikadagi korxonalar bilan (yog‘-moy ishlab chiqarish korxonalari va h. k.) shartnomalar tuzish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sifati yuqori bo‘lgan bazalt tolasini ishlab chiqarayotgan “Tizol-N” MCHJ bilan respublikadagi korxonalarni (masalan NKMK, “Navoiy IES” AJ, “O‘zbekenergo” DAK, “O‘zbekkimyosanoat” DAK, “O‘zavtosanoat” va h. k.) mahsulotni xarid qilishini ta’minlash bazalt tolasini chetdan olib kelinishini (import) kamaytirishga xizmat qiladi.

Sanoatning rivojlanishini unda mavjud jami resurslar majmuasi va qulay sharoitlardan to‘liq foydalangan holda amalga oshiriladi. Sanoatni maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaning tabiiy resurslaridan oqilona va to‘la foydalanishga imkon beradi. Viloyatda hududlararo sanoat rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirish izchil chora-tadbirlar olib borishni talab etadi.

Mintaqaning tabiiy, mehnat hamda moliyaviy resurslarining bugungi kundagi holati viloyat sanoati rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar borligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan murojaatnomasida mamlakatimizda qisqa mudadatda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirilganini qayd etdi. Masalan, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug‘-gaz qurilmasi, Qizilqum bag‘ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

Bizning fikrimizcha, viloyat sanoat ishlab chiqarishning respublikadagi mavqeini yanada oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

-mineral xomashyo resurslarining yangi zahiralarini izlab topish, hamda ishlab chiqarishga jalb qilish;

-mintaqada sanoat ishlab chiqarishiga xorijiy kapital kirib kelishini yanada rag‘batlantirish;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida mehnat-talab, resurs-talab va ilm-talab ishlab chiqarish turlarining oqilona nisbatiga erishish;

-qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini xomashyoga yaqin bo‘lgan qishloq joylarida barpo etish;

-tog‘-kon va qishloq xo‘jaligi resurslarining cheklanganligini nazarda tutib, ularni chuqur qayta ishlash darajasini oshirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mamlakatning barqaror rivojlanishida mintaqa sanoati va mineral-xomashyo salohiyatining o‘rni sezilarli. So‘ngi yillarda uning respublika YAIMdagi sanoat mahsulotlari ulushining o‘sib borayotganligi ham sir emas. Chunonchi, 2022 yilda mazkur ko‘rsatkichning 17, 7 foizni tashkil etganligi bunda yaqqol misoldir. Shu bilan birga yangi izlab topilgan konlarni ishga tushirilishi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi mintaqa iqtisodiyotini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mehnat resurslari. Navoiy viloyatini 2022 yil davomida aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha (1-rasm) mehnat resurslar balansiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Jumladan, 2022 yil yanvar-dekabr oylarining mehnat resurslari balansiga ko‘ra Navoiy viloyatida o‘rtacha doimiy aholi 1 044 668 nafarni tashkil etib, shundan mehnat resurslari 570 239 nafar, iqtisodiy faol aholi 450 315 nafar, band bo‘lgan aholi 414 067 nafar (shundan, rasmiy sektorda bandlar 289 825 nafar, norasmiy sektorda bandlar 97 291 nafar va chetga ketganlar 26 951 nafar)ni tashkil etdi. Bundan kelib chiqib, ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan ishsizlar 36 248 nafarni va ishsizlik darajasi 8, 0%ni tashkil etdi.

1-rasm. Navoiy viloyatida mehnat resurslari balansi (11)

Ishsizlik darajasi hududlar kesimida qaralganda, Xatirchi tumanida bu ko‘rsatkich 9, 3%, Nurota t. – 9, 3%, Tomdi t. – 9, 1%, Navbahor t. – 8, 9%, Qiziltepa t. – 8, 8%, Konimex t. – 8, 7%, Karmana t. – 8, 5% va Uchquduq t. – 8, 2%ni tashkil etib, viloyat ko‘rsatkichidan yuqori hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytish lozimki, ishsizlik darajasi foizda barcha tumanlarda deyarli katta farq qilmasada aholi ko‘p yashaydigan tumanlari Xatirchi, Qiziltepa va Karmana tumanlarida ish bilan bandlikni ta’minlashga e’tibor qaratish kerak.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Navoiy viloyati respublikada dirayver hududlardan bo‘lsada, viloyatda yetarlicha muammolar bor. Bu muammolarni bartaraf etish, aholini farovon yashash sharoitini ta’minlash uchun har tomonlama puxta ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Tadqiqot davri (2010-2022 yillar) shuni ko‘rsatmoqdaki, viloyatda nomutanosib rivojlanish mavjud ya’ni viloyat sanoatlashgan, chorvachilik va dehqonchilikka ixtisoslashgan tumanlardan iborat. Buning asosiy sababi hududdagi geografik joylashuv bo‘lib, sanoatlashgan joylar birinchi navbatda resurslarga va aholi yashash joylariga yaqin joylarda joylashganligi, chorvachilikda esa viloyatda 50 ming gektardan ortiq yaylovlar mavjudligi uchun ham cho‘l hududlarida bu soha rivojlangan. Dehqonchilik sug‘oriladigan hududlarda rivojlangan bo‘lib asosan Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor hamda Karmana tumanlarini aytish mumkin.

Barqaror rivojlanishning yuqori darajasiga chiqishda hudud oldida turgan ko‘p muammolarga yechim topishga to‘g‘ri keladi. Bunga ko‘ra, hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishishda yalpi ichki mahsulotning o‘sishida sanoatda ishlab chiqarishini oshirish, qishloq xo‘jaligi, transport va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ishlab chiqarishining dinamik o‘sishi, uy xo‘jaliklari daromadlarini sezilarli darajada oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vazifalarini bajarish bilan bir vaqtda ijtimoiy soha rivojlanishi va ekologik barqarorlikni ta’minlangan holda erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Usmanov A. Ichki zaxira va imkoniyatlarni safarbar qilish strategiyasining konseptual asoslari. Monografiya. B. 14. -T., 2017.

Современная экономика: Российская модель: Под. ред. Н. Р. Молочникова, М. : Московский психолого-социальный институт: Изд. “Модэк” – 2002, - с. 200

O‘zbekiston: Amaliy qo‘llanma. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta’minlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining O‘zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. Toshkent-2011.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori, https://lex. uz/docs/4013356.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli Qarori

Qayumov A. A. Zarafshon mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi va urbanistik salohiyati. ”Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2015 yil. http://iqtisodiyot. tsue. uz/sites/files/maqolalar/19_A_A_Qayumov. pdf.

https://review. uz/oz/post/navoiy-viloyatida-2022-yil-yakunlari-hamda-2023-yilga-aholi-bandligini-taminlash-boyicha-belgilangan-vazifalar-ijrosi

TRENDS IN SUSTAINABLE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF NAVOI REGION

Extended abstract

industrial potential;

agricultural potential;

investision potential;

export potential;

mineral resource potential;

labor resources.

KORXONANING INSON RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH KONSEPSIYASI

Xasanova Nafisa Shavkatovna

O'zbekiston Milliy universiteti magistri

Annotatsiya

Inson resurslarini strategik boshqarish konsepsiyasida boshqarishning eng dolzarb zamonaviy usullari hamda boshqarish sifatini oshirish yo'llari maqolada o'z aksini topgan. Strategik boshqarishning tizimli tamoyillari aniqlangan. Inson resurslarini strategik boshqarish konsepsiyasi strategik boshqarish tamoyillari va darajalarining uchta guruhi asosida shakllangan. Inson resurslarini strategik boshqarishda ta'lim dasturlarining roli ko'rib chiqilgan. inson kapitalining qarshi talablariga va texnologik imkoniyatlarni rivojlantirishga, ya'ni ishlarni yanada samarali bajarish imkoniyatlariga taalluqlidir. Strategik HRM firmani raqobatchilardan ajratib turadigan harakatlarga qaratilganligi hamda firma maqsadlarga erishish vositalarini belgilaydigan maqsadlarni ishlab chiqadi va bu kompaniyaga muhim resurslarni taqsimlash, shuningdek ushbu resurslar va imkoniyatlarning tashqi muhitga muvofiqligi bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Inson resurslarini boshqarishning strategik tamoyillarini qo'llashda turli operatsiyalar yoki marketing kabi boshqa vertikallardan alohida bo`lmasdan aksincha, ular o'z maqsadlari haqida tushuncha yaratish uchun boshqa bo'limlar bilan kompaniyaning umumiy maqsadlariga yaxshi mos keladigan strategiyalarni yaratishda yordam beradi. Bunday integratsiyalashgan kadrlar boshqaruvi orqali inson resurslari bo'limi nafaqat xodimlarni yo`llash va topish bilan cheklangan majburiy xizmat emas, balki biznes o'sishining asosiy omiliga aylanadi. Bundan tashqari, inson resurslarini strategik boshqarish, shuningdek, boshqa bo'limlarga foyda keltirish uchun bo'lim ichida mavjud bo'lgan iste'dod va imkoniyatlardan yaxshiroq foydalanishga qaratilganligi maqolada o`z aksini topgan. Muallif tomonidan korxonaning inson resurslarini strategik boshqarish konsepsiyasini tadqiq qilishning kelgusi rivojlanish yo'nalishlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: strategik boshqarish, strategik rejalashtirish, inson resurslari, tamoyillar, usullar, konsepsiya, "yumshoq" strategiya, "qattiq" strategiya.

THE CONCEPT OF STRATEGIC HR MANAGEMENT

Khasanova Nafisa Shavkatovna

Annotation

The most relevant modern methods of management in the concept of strategic management of human resources and ways to improve the quality of management are reflected in the article. The systematic principles of strategic management are defined. The concept of strategic management of human resources is formed on the basis of three groups of strategic management principles and levels. The role of educational programs in the strategic management of human resources is considered. refers to the counter-requirements of human capital and the development of technological capabilities, that is, the ability to do things more efficiently. It is analyzed that strategic HRM focuses on actions that distinguish the firm from its competitors, and that the firm develops goals that determine the means of achieving the goals, and that it is related to the allocation of important resources to the company, as well as the compatibility of these resources and opportunities with the external environment. In applying the strategic principles of human resource management, rather than being isolated from other verticals such as operations or marketing, they work with other departments to create an understanding of their goals and help create strategies that align well with the company's overall goals. Through such integrated personnel management, the human resources department is not only a mandatory service limited to recruiting and finding employees, but becomes the main factor of business growth. In addition, the strategic management of human resources, as well as the better use of talents and opportunities within the department to benefit other departments, is reflected in the article. The author proposed the future development directions of researching the concept of strategic management of human resources of the enterprise.

Keywords: strategic management, strategic planning, human resources, principles, methods, concept, "soft" strategy, "hard" strategy.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda inson resurslariga qo‘yiladigan muhim talab turli sohalarda hamkorlik qilish qobiliyatidir, bu bizga yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon beradi.

Umuman olganda bizning fikrimizcha, baliqchilik xo‘jaliklarida investitsiya dasturini pul ko‘rinishida ijro qilish indikatori, quvvatlarni ishga tushirish parametrlarini bajarish indikatori hamda eksport parametrlarini bajarish ko‘rsatkichlari ham muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Ma’lumki, mamlakatimizda “hovuz xo‘jaliklari ishlab chiqarish usuliga qarab: ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarga bo‘linadi”[48].

a) ekstensiv yo‘l o‘zgarmas ishlab chiqarish vositalariga asoslanib, bunda bir birlik ishlab chiqarish resurslariga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi asosan, texnologiya, texnik daraja va ishlab chiqari tuzilmasini o‘zgartirmasdan, ularning miqdor o‘sishi natijasida (suv havzalarini ko‘paytirish hisobiga) erishiladi.

b) intensiv yo‘l yangi, zamonaviy va samarali ishlab chiqarish vositalari, innovatsion texnologiyalar, shu jumladan asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan asosiy to‘dadagi baliqlarni (yangi zotlar, turlar va b.) qo‘llash, hamda mavjudlarini takomillashtirish va yangi baliq zotlarini yaratish, baliqlarni oziqlantirish, parvarishlash va saqlash darajasi takomillashtirishga asoslanadi.

Ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarda baliq etishtirish b. f. d., professor B. G. Komilov tomonidan batafsilroq tasniflangan (1-jadval).

48

Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish, “HILOL MEDIA” MChJ, Toshkent-2010, – B. 26.

1-jadval

Intensiv usuldagi baliq etishtirish texnologiyaning tasnifi[49]

№	Texnologiya	Tavsif	Samaradorlik
1	*Ekstensiv usulda*	Baliqlar asosan o‘g‘itlar bilan ta’minlab turiladigan tabiiy ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	0, 13 kg/m^3
2	*Yarim intensiv usulda*	Baliqlar ham tabiiy, ham qo‘shimcha ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	0, 2 kg/m^3
3	*Intensiv usul*	Baliqlar faqat sun’iy, to‘yimliligi yuqori bo‘lgan ozuqa hisobiga ulg‘ayadi.	40 kg/m^3 va undan ko‘proq

**b. f. d. , professor Komilov B. G. O‘simliklar va hayvonot olami genofondi instituti, ixtiologiya, gidrobioliya va akvakultura laboratoriya.*

Demak, ishlab chiqarishning ekstensiv va intensiv usuli bir vaqtda mavjud bo‘lib, o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ma’lum bir davrlar oralig‘ida u yoki bu yo‘lning oshishi kuzatiladi. Ishlab chiqarish miqdor jihatdan o‘sib borgani sayin, uning zamirida asosiy omillar rivojlanishining sifatini o‘zgartirish manbalari vujudga keladi. Bunda ishlab chiqarish asosiy omillarining sifat o‘zgarishi jarayoni faollashadiki, birinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi yuqori, ikkinchidan, ishlab chiqarish resurslari (mehnat, moddiy, moliyaviy va tabiiy, eng avvalo hovuz fondi) balansining yo‘naltirilganligi yuqori.

Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining bu bosqichi o‘tish davri bo‘lib, bu davr davomida iqtisodiy o‘sishning ekstensiv manbalari o‘rnini intensivlari egallashi sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, baliqchilikni intensivlashtirish – bu ishlab chiqarish ob’ekti sifatida baliqning o‘zini, xo‘jalikning moddiy-texnika bazasini, yangi ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlanganligini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni hamda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va bir birlik ishlab chiqarish resurslari hisobiga yuqori

[49]Komilov B. G. , Xalilov I. I. Daryo forelini etishtirish – O‘zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01. 12. 2014 y. , – B. 24.

sifatli mahsulotlar chiqishini ko‘paytirish maqsadida inson omilini faollashtirish asosida rivojlanib boruvchi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni.

Intensivlashtirishdan asosiy maqsad – bir gektar suv havzasidan minimal xarajat evaziga yuqori daromad olishdan iborat. Baliqchilik xo‘jaliklarida intensivlashtirish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi: ishlab chiqarishni tashkil etishni va biotexnikani takomillashtirish; sun’iy ozuqalardan foydalanish; baliqlarni oziqlantirish, hovuzlar meliorativ holatini yaxshilash va o‘g‘itlashning yangi texnologiyalarini qo‘llash; havzani baliqlantirish zichligini oshirish hisobiga baliq mahsuldorligini oshirish, har xil tur va yoshdagi baliqlarni birgalikda parvarishlash, biostimulyatorlarni qo‘llash, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va boshqalar.

Aytish joizki, intensivlashtirish bir gektar suv havzasiga qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi, ammo ular faqat, agar baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning qo‘shimcha o‘sishi qo‘shimcha xarajatlarning o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lsagina samarali hisoblanadi. Ushbu maqsadda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish muhim bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ya’ni:

a) mehnat resurslarini tejovchi intensivlashtirish – ishchilar sonini kamaytirishga qaratiladi;

b) fondlarni tejovchi intensivlashtirish – (hovuz fondi, unga biriktirilgan er maydoni, asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar va h. k.) unumdorligi yuqoriroq mashinalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan;

v) material tejovchi intensivlashtirish – mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, elekr energiyasi va boshqa resurslarni tejashga yo‘naltirilgan.

Intensivlashtirish darajasi parvarishlanayotgan ob’ektga (iliq suv baliqlari, sovuq suv baliqlari), joylashgan eriga, xo‘jalik yuritish tizimiga (ekstensiv, yarimintensiv, intensiv) bog‘liq. Baliqlarni yaylov texnologiyalari (ko‘l tovar baliqchiligi, ayrim hovuz xo‘jaliklari va b.) asosida parvarishlash ekstensiv yo‘l, maxsus ozuqalar va moslamalar (industrial-iliq suvli xo‘jaliklar) yordamida amalga oshirish esa intensiv yo‘l hisoblanadi.

Umuman olganda, bizningcha baliqchilikni intensivlashtirish ko‘rsatkichlarini quyidagi uchta guruhga bo‘lib tavsiflash mumkin (2-rasmga qarang):



2-rasm. Baliqchilikda intensivlashtirish darajasiga baho berishda ko‘rsatkichlar tizimi[50]

1-guruh. **Intensivlashtirish darajasi ko‘rsatkichlari.** Ular intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya’ni hovuzlar maydonining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mablag‘lar va mehnat sarfining konsentratsiyalashuvi hisoblanadi.

2-guruh. **Natijaviy ko‘rsatkichlari.** Bular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilansolishtirmasdan tavsiflaydi. Natijaviy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: havzaga baliq qo‘yish zichligi, baliq mahsuldorligi, baliqlar bosh sonining saqlab qolinishi.

3-guruh. **Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari.** Bular intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi va mablag‘ va mehnat sarflarining qaytimi (qoplanishi) to‘g‘risida xulosa chiqarishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, mahsulotlarnig o‘sish sur’atlari, ularni ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishiga qaraganda yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Shundan kelib chiqqan holda tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini asosiy mezon

[50]Mualliflarning tadqiqotlari asosida tuzilgan

bajarilishini e’tiborga olgan holda quyidagi uchta pog‘onaga bo‘lish asosida baholashni tavsiya etamiz (3-rasmga qarang).



3-rasm. Baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasi[51]

1-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo‘ladi. Ya’ni, QS>QX. Bunda sarflangan mablag‘lar baliqchilikda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Ammo, keng tarmoqda tovar baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda biznesni kengaytirish imkoniyati past darajada bo‘ladi.

2-pog‘ona. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo‘ladi. QS>QX. Bunda sarflangan mablag‘lar baliqchilik biznesini kengaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi;

[51] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

3-pog‘ona. QS<QX. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan kam bo‘ladi va intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi.

Ma’lumki, baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlashtirish darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilish uslublarini ishlab chiqish muhim masalalardan sanaladi. Ular hovuz baliqchiligida intensivlashtirishning mohiyatini tavsiflaydi va quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

a) Foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan baliqchilikka mo‘ljallangan asosiy vositalarning yillik o‘rtacha qiymati va joriy ishlab chiqarish xarajatlari (eskirishsiz) , ming so‘m/ga:

$$I = (F_o + P_{za}) : S_v, \quad (1)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, so‘m/ga;

F_o – asosiy vositalarning yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m;

P_{za} – joriy ishlab chiqarish xarajatlari (eskirishsiz), ming so‘m/ga;

S_v – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkich butun baliqchilik xo‘jaligining intensivlik darajasini tavsiflaydi va ishlatilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan moddiy va mehnat resurslarining konsentratsiyalashuv darajasini ko‘rsatadi. Chunki hovuzlar maydonidan foydalanish darajasi ularning ushbu resurlar bilan ta’minlanganligiga bog‘liq.

b) qo‘shimcha, samaraliroq ishlab chiqarish resurslari qiymatining ishlatilayotgan hovuzlar maydoniga nisbati , ming so‘m/ga:

$$I = DR_p : S_v, \quad (2)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;

DR_p – qo‘shimcha ishlab chiqarish resurslari, ming so‘m;

S_v – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

Fermer xo‘jaligida foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha mahsulotlar o‘sishi (joriy yildagi 1 ga hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati (eskirishsiz) va joriy ishlab chiqarish xarajatlari qiymati bilan oldingi yildagi xuddi shunday ko‘rsatkich o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi).

Fikrimizcha, intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham hisob-kitob qilinishi zarur. Bu ko‘rsatkichlar intensivlik darajasi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarining mohiyatini chuqurroq ochib beradi:

a) 1 ga ishlatilayotgan hovuz maydoniga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m/ga:

$$I = F_o : S_v, \quad (3)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;

F_o – asosiy vositalar yillik o‘rtacha qiymati, ming so‘m;

S_v – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkich intensivlik darajasini xo‘jalikning asosiy vositalar bilan jihozlanganligiga bog‘liq holda ifodalaydi. Hovuz maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar qiymatining o‘sishi bilan ulardan foydalanishning intensivlik darajasi ham oshadi. Asosiy vositalar aylanma mablag‘larning oqilona ishlatilishini ham ta’minlaydi, chunki ular bilan ishlab chiqarish jarayonida ajralmas bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatadi.

b) buyumlashgan va jonli mehnatning joriy ishlab chiqarish xarajatlari umumiy summasining ishlatilayotgan hovuz maydoniga nisbati, ming so‘m/ga;

$$I = P_z : S_v, \quad (4)$$

Bunda, I – baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha intensivlik darajasi, ming so‘m/ga;

P_z – baliqlarni parvarishlash uchun qilingan joriy ishlab chiqarish xarajatlari, ming so‘m;

S_v – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Shuningdek, intensivlashtirishning mohiyatini chuqurroq ochib beradigan hamda intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo‘shimcha ko‘rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: baliqlarning 1 s. qo‘shimcha o‘sishiga to‘g‘ri keladigan ozuqa xarajatlari; 1 s. mahsulotga to‘g‘ri keladigan jonli mehnat xarajatlari.

Hovuz baliqchiligida natijadorlik ko‘rsatkichlari aniqlash ham muhim hisoblanadi. Ular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan taqqoslamasdan tavsiflaydi.

Umuman olganda intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi hisob-kitob qilishda: joriy ishlab chiqarish xarajatlarining 100 so‘miga va yillik o‘rtacha bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan yalpi va tovar mahsulot, fond qaytimi va mahsulotning fond sig‘imi, ishlab chiqarish rentabelligi, foyda, mehnat unumdorligi, mahsulot birligining tannarxi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Baliqchilik tarmog‘ining biologik, tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini o‘rganish shuni tasdiqladiki, tarmoq samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri baliq mahsuldorligi hisoblanadi.

Demak, baliq mahsuldorligi – bu bitta vegetatsiya davrida baliqlarni tabiiy va sun’iy ozuqalar (omuxta em va b.) bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo‘shimcha o‘sish og‘irligi bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi baliq mahsulotidan baliqlantirish materiallari (lichinkalar yoki chavoqlar, bir yilliklar, ikki yilliklar) og‘irligini chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi tabiiy ozuqa bazasi va sun’iy ozuqalar hisobiga olinadigan mahsuldorlikka bo‘linadi. *Tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik* – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni faqat tabiiy ozuqalar bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo‘shimcha o‘sish og‘irligi hisoblanadi.

Hovuzlarning tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorligi bo‘yicha hozirgacha tasdiqlangan normativlar mavjud emas. Shu bois, soha mutaxassislarining ma’lumotlariga tayanamiz. Xususan, sohaning etakchi olimlari va mutaxassislari B. G. Kamilov, R. B. Kurbanov va T. V. Salixovlar yozishicha: “sun’iy hovuzlarda hech qanday tadbir olib borilmagan taqdirda ham unda xuddi ko‘ldagidek tabiiy jarayonlar kechaveradi. Baliq ovlasa ham bo‘ladi. Natijalar ham xuddi ko‘ldagidek – yiliga 15-40 kg/ga tashkil etadi”[52]. Shuningdek, S. Q. Xusenov, D. S. Niyozov va G‘. M. Sayfullaevlar yozishicha: “o‘rtacha tabiiy baliq mahsuldorligi, karp bo‘yicha 70-260 kg/ga”[53].

[52] Kamilov B. G. , Kurbanov R. B. , Salixov T. V. Baliqchilik (O‘zbekistonda karp baliqlarini ko‘paytirish), Toshkent, “Chinor” ENK, 2003, – B. 13.

[53] Xusenov S. Q. , Niyozov D. S. va Sayfullaev G‘. M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari alablari uchun o‘quv qo‘llanma), “Buxoro” nashriyoti, 2010, – B. 99.

Shuningdek, sun'iy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni sun'iy ozuqalar (omuxta em va b.) bilan oziqlantirish hisobiga 1 ga hovuzdan olinadigan jami qo'shimcha o'sish og'irligi bo'lib, bu ko'rsatkich, yuqorida sanab o'tilgan, baliqlarning tabiiy mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (vegetatsiya davrining qancha davom etishi; baliqlarning turlari; baliqlarning yoshiga; tabiiy ozuqa bazasining holati va undan baliqlarning oziqlanish darajasi; suv va tuproqning sifati hisobi) bilan birga, omuxta ozuqalarning miqdori va sifati; ozuqalarni tarqatish texnikasi va boshqa omillarning umumiy ta'siriga bog'liq.

Shuningdek, texnologik jihatdan havuzga baliq qo'yish zichligi ko'rsatkichi ham muhim sanaladi. Baliq ishlab chiqarishning ma'lum darajada intensivlashtirilgan (meliorativ tadbirlar, ozuqa organizmlarining introduksiyasi, hovuzlarni o'g'itlash, baliqlarga oqsilga boy ozuqalar berilishi va b.) sharoitida hovuzning eng yuqori baliq mahsuldorligi va baliqning standart og'irligiga erishiladigan baliq qo'yilishi zichlashtirilgan deb ataladi. Hovuzga baliq qo'yish zichligi intensivlashtirish darajasiga qarab normal holatdan 2-5 marta yuqori bo'lishi mumkin.

Umuman olganda hovuz baliqchiligida qo'llanilayotgan intensivlashtirish tadbirlari bilan birga, havzaga bitta turdagi va yoshdagi baliqlarni qo'yishni zichlashtirish, havzaga baliqlarni aralashtirib qo'yish, qo'shimcha baliqlar qo'yish va polikultura hisobiga baliq mahsuldorligini oshirishga erishish mumkin.

Baliqchilik tarmog'i iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqni qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridan tubdan farq qiluvchi

1. Baliqchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan sanalib, uni samaradorligini baholash tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tarmoqning ushbu xususiyatlarini nazariy jihatdan mahalliy olimlarimizlarning tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilgan. Bizning fikrimizcha, hovuz baliqchiligi muhim manba sanalgani holda, baliqchilikning maxsus hovuzlar yoki inshootlar (qafas va b.)da baliqlarning tez o'sadigan turlarini ko'paytirish bilan shug'ullanadigan quyi tarmog'i hisoblanadi.

ovuz fondidan foydalanishning samaradorligi umumiy baliq mahsuldorligi va inshootlar qiymatining bir birligiga to'g'ri keladigan

1 ga yaylov hovuziga to‘g‘ri keladigan inshootlar qiymati ulushining

aliqchilikni intensivlashtirish ko‘rsatkichlarini uchta guruhga bo‘lib bo‘lib, intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya’ni hovuzlar maydonining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mablag‘lar va mehnat sarfining

tadqiqot natijalariga ko‘ra tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini uchta pog‘onaga bo‘lish asosida qo‘shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo‘ladi. Ya’ni, QS > QX. *2-pog‘ona*. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo‘ladi. QS > QX. Hamda *3-pog‘ona*. QS < QX. Bunda qo‘shimcha samara qo‘shimcha xarajatlardan kam bo‘ladi va

1. B. A. Sarsenboev. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida), Monografiya, T. : “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2021. – B. 141.

2. R. X. Ergashev, S. R. Xalikov, U. X. Beglaev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik, – T. , “Navro`z” nashriyoti, 2020. – 298 b.

3. I. A. Yunusov. Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. i. f. f. d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T. : 2020. – 136 b.

4. Komilov B. G. , Xalilov I. I. Daryo forelini etishtirish – O‘zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01. 12. 2014 y. , – B. 24.

va Sayfullaev G‘. M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o‘quv yurtlari talablari uchun o‘quv qo‘llanma), “Buxoro” nashriyoti, 2010, – B. 99.

“HILOL MEDIA” MChJ, Toshkent-2010, – B. 26.

8. В. И. Радюк. Прудовый фонд рыбоводного предприятия. Главное управление образования, наука и кадров. https://refdb. ru/look/2680869. html

KEY ISSUES IN THE PRODUCTION OF FISH PRODUCTS AND ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF THE FISHING INDUSTRY

EXTENDED ABSTRACT

The fish farming industry, which is an important component of the agricultural sector of the world, is of great importance in providing the population with environmentally friendly and high-quality food products, including fish and fish products. Industry products are traditionally one of the most valuable sources of nutrients that the population includes in their daily diet. "... in developed countries, fish meat consumed per capita per year averages 25-45 kilograms, and the world average is 22 kilograms. According to the World Health Organization, each person should consume an average of 12-16 kilograms of fish meat per year"[54]. Accordingly, there is a tendency for the development of the industry of growing and processing fish products, as well as an annual increase in demand for fish products.

The globalization processes taking place in the world have a significant negative impact on the socio-economic, political and cultural aspects of life in any country, in particular on the world economy in the context of a pandemic caused by a sharp increase in the world population and the food problem. This development of the situation is largely explained by the high level of globalization processes, which increases the interdependence of states and their dependence on the state of the world economy. We can also see this in rising prices and shortages of fish products consumed. In this regard, scientists around the world pay great attention to scientific research aimed at providing the population with safe and high-quality food, including fish and fish products, in the quantities necessary for an active and healthy life.

There are great opportunities for the fishing industry of the Republic of Uzbekistan to meet the needs of consumers for fish products, and processing enterprises for raw materials. In this regard, a number of regulations have been adopted aimed at attracting foreign investment in the industry, large-scale technical re-equipment of enterprises based on innovative technologies and modern equipment, and improving the

[54] https://yuz. uz/news/baliqchilik-kooperatsiya--samaradorlik-va-istiqbol-rivojini-belgilaydi

supply of raw materials to processing enterprises. In particular, ". . . a gradual intensification of 31 thousand hectares of artificial reservoirs with low fish productivity was noted, as well as an increase in fish productivity by 4-5 times"[55]. This necessitates further improvement of organizational and economic relations between producers of raw materials and processing enterprises in the matter of further increasing the volume of products produced in fisheries.

In conditions of increasing demand of the population of the republic for food products, especially fish, the introduction of intensive technologies in the fishing industry, the cultivation of fish and fish products in the regions based on world standards, and the creation of enterprises for their processing are among the primary tasks requiring urgent decisions. leadership of this industry.

In connection with the above, this article analyzes in detail the features of the fishing industry of the Republic of Uzbekistan, as well as the scientific activities of some scientists and researchers to improve this industry, and indicators for assessing production efficiency. Ponds in fish farms were also studied by dividing them into different groups depending on the service provided.

The organization of production in pond farms depends on the level of technical equipment of the pond stock on a scientific basis. In the context of climate change, specific characteristics of the fishing industry are grouped, important issues of fish production and assessment of the efficiency of this industry are considered.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYALAR HISOBINI TASHKIL ETISH

[55] https://ishonch. uz/archives/8365

Phd. , Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna

Annotatsiya

Jahonda iqtisodiyot tarmoq va sohalari hamda aholining elektr energiyasi ta'minotiga ehtiyojini to'liq qondirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etilishi va undan foydalanish hisobini yuritishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Enerdata» agentligi tahlillariga ko'ra, «2021 yilda 2020 yilga nisbatan elektr energiyasi tizimiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 27 foizga oshdi, qayta tiklanuvchi elektr energiyasi manbalariga kiritilgan investitsiyalar 755 milliard AQSh dollarini tashkil etdi» . Elektr energetikasi tarmog'i korxonalarida sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hisobini to'g'ri yuritishga erishishda ta'sir ostidagi korxonalar, sho''ba korxonalarda xo'jalik muomalalarini yuritishni talab etmoqda.

Jahonda energetika sohasiga investitsiyalarni jalb etishni keskin kengaytirish, investitsiyalar hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida muvofiqlashtirish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishni takomillashtirish va uning samadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektr energetikasi tizimida aktsiyadorlik jamiyatlari hisob siyosatining tarkibiy tuzilishini bozor tamoyillari asosida baholash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari deskriptiv modellar orqali tahlil qilish singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda elektr energiyasi tizimiga investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, aholining elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash masalalariga ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. «Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, 2026 yilga kelib, elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt. soatga oshirib, jami 100 milliard kVt. soatga yetkazish» vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiyalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Jahonda har yili jami 15 mlrd. t. shartli yoqilg'i energiya resurslari sifatida ishlatiladi. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida butun dunyodagi elektr stantsiyalarining jamlanma quvvati 2, 5 mlrd. kVt dan ortiq bo'lgan, elektr energiyasini ishlab chiqarish esa yiliga 12 trln. kVt/s darajasiga ko'tarilgan. So'nggi o'n yillikning o'zida dunyo bo'yicha elektr energiyasini ishlab chiqarish deyarli 1, 5 baravarga o'sgan. Sezilarli o'zgarishlar, asosan, ishlatilayotgan yoqilg'i turlariga nisbatan, shuningdek, global energetika bozorining geografik tuzilishida yuz bergan. Barcha elektr energiyasining 3/5 qismidan ortig'i sanoati rivojlangan mamlakatlar, asosan, bu sohada alohida ajralib turuvchi AQSh, MDH (Rossiya), Yaponiya, Germaniya, Kanada, Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar. Konsolidatsiya, tayyorlash, taqdim etish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, guruh, biznesning birlashishi, energiya resurslari.

ORGANIZATION OF AN INVESTMENT ACCOUNT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Phd. , Acting Associate Professor, Khasanova Khusnorakhan Fakhriddinovna

xusnora4843@gmail. com

Abstract

In the world, special attention is being paid to fully satisfying the needs of the population for electricity supply, attracting investments to the production of renewable energy sources and improving accounting for its use. According to the analyzes of the "Enerdata" agency, "in 2021, compared to 2020, the volume of investments in the electricity system increased by 27%, investments in renewable energy sources amounted to 755 billion US dollars. " In order to achieve the correct accounting of investments made in the field in the enterprises of the electric energy network, the enterprises under the influence require the management of economic transactions in the subsidiaries.

In the world, special attention is being paid to scientific research aimed at dramatically expanding the attraction of investments in the energy sector, coordinating investment accounting based on international standards of financial accounting, improving the presentation of consolidated financial reports and increasing its effectiveness. In the electric power system, scientific research is being carried out in areas such as the evaluation of the structural structure of the accounting policy of joint-stock companies based on market principles, the analysis of the consolidated financial report through the descriptive models of the international standards of financial reporting.

In Uzbekistan, expansion of investments in the electricity system, continuous supply of electricity to the population is considered as a priority. "On the basis of public-private partnership, to attract investments equal to 14 billion US dollars in energy, communal services, water management and other sectors, to continuously provide the economy with electricity and to increase the energy efficiency of the economy by 20%, by 2026, the indicator of electricity production will be increased by 30 the task of increasing it to a billion kWh and bringing it to 100 billion kWh" In the implementation of these tasks, improving the investment environment, substantiating proposals and

recommendations aimed at improving investment accounting, and preparing consolidated financial statements based on international standards of financial reporting are among the current issues.

A total of 15 billion annually in the world. t. Conventional fuels are used as energy resources. In the early 90s of the last century, the total capacity of power plants around the world was 2. 5 billion. kW, and the production of electricity is 12 trillion per year. increased to kW/s. In the last decade alone, the world's electricity production has increased by almost 1. 5 times. Significant changes have occurred mainly in relation to the types of fuel used, as well as in the geographical structure of the global energy market. More than 3/5 of all electricity is contributed by industrialized countries, mainly the USA, CIS (Russia), Japan, Germany, Canada, and China, which stand out in this field.

Keywords: Consolidation, preparation, presentation, international standards of financial reporting, group, business merger, energy resources.

KIRISh

O'zbekiston Respublikasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish, shu jumladan, konsolidatsiyalashgan guruh tarkibini belgilash tartibi quyidagi ro'yxatda keltirilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi:

1) O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-404-son Qonuni (yangi tahrirda);

2) O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyundagi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-387-son Qonuni (yangi tahrirda);

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori;

4) MHXS (IFRS) 10 «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot»;

5)MHXS (IAS) 28 «Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalarga investitsiyalar»;

6) MHXS (IFRS) 3 «Biznes birlashuvlari»;

7) MHXS (IFRS) 11 «Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar»;

8) MHXS (IFRS) 12 «Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish».

Bizningcha, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o'zida birlashgan bosh, sho''ba, ta'sir ostidagi tashkilot va qo'shma nazorat qilinadigan korxonalar shaxslar guruhining hisobot topshirish sanasiga mulkiy va moliyaviy holati hamda hisobot davri holatiga moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning ma'lum qoidalar bo'yicha birlashgan tizimini ifodalaydi.

METODOLOGIYA.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot- bu bosh korxona va uning sho''ba korxonalarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari, pul mablag'lari oqimlari yagona iqtisodiy faoliyat sub'ektining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromad va xarajatlari, pul mablag'lari oqimlari sifatida taqdim etiladigan kompaniyalar guruhining moliyaviy hisobotidir. Aynan shunday ta'rif MHXS (IFRS) 10 «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot»da keltirilgan(1).

Xalqaro savdoning rivojlanishi, turli xil kompaniyalarning paydo bo'lishi, kapital bozorining globallashuvi, iqtisodiy jarayonlar va axborot texnologiyalarining globallashuvi turli mamlakatlar kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini uyg'unlashtirish zaruratini uyg'otdi. Keyingi yillarda moliyaviy hisobotlar hisobini xalqaro darajada uyg'unlashtirish jarayonlari sezilarli darajada tezlashdi. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni joriy etish va qo'llashga qiziqish tobora oshib bormoqda. Bu korporativ boshqaruv va investitsiyaviy jozibadorlik samaradorligini oshirish, biznes raqobatbardoshliligi va shaffofligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. So'nggi oylarda koronavirus pandemiyasi munosabati bilan, ko'pgina mamlakatlar hukumatlari barcha korxonalarning faoliyati va moliyaviy hisobotiga u yoki bu tarzda ta'sir etadigan cheklov chora-tadbirlarini qabul qildilar. Ushbu tadqiqot ishida biz moliyaviy hisobotni MHXSning amaldagi qoidalari asosida tayyorlash uchun pandemiyaning ta'siri va oqibatlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori qabul qilindi (2). Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida MHXSga o'tish tarixida yangi bosqichning boshlanishiga zamin yaratdi. Qabul qilingan hujjat tadbirkorlik sub'ektlarining MHXSga o'tish jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi, ya'ni:

1. 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida majburiy tartibda tayyorlaydigan shaxslar ro'yxati aniqlandi. Unga aktsiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar kiradi. Ular quyidagilarni bajarishlari lozim:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish;

MHXSni sifatli qo'llash uchun buxgalteriya xizmati xodimlari bilan yetarlicha ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishini hamda 1 iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlaydi.

2. MHXSni joriy qilish bo'yicha vakolatli organ sifatida Moliya vazirligi belgilandi. Tegishli funktsiyalarning bajarilishi uchun vazirlik tarkibida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishni muvofiqlashtirish va e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi nazorati bo'limi tashkil etildi.

Ushbu hujjatda zarur bilim va ko'nikmalarga ega malakali mutaxassislarning yetarlicha sonini tayyorlashni e'tiborga olgan holda, milliy kadrlarni tayyorlashga qat'iyan yangicha majmuaviy yondashuv nazarda tutilgan(3).

Birgalikdagi faoliyatni hisobga olish va konsolidatsiya uslubiyoti masalalariga daxldor bo'lgan yagona standartlar talablarining, shuningdek, kompaniya investitsiyalari to'g'risidagi axborotlarning ochiqlanishi bo'yicha talablarning o'rnatilishi moliyaviy hisobot globallashuvi jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ichida amal qiladigan buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotdan foydalanish xorijiy investorlar tomonidan O'zbekistondagi kompaniyalarning moliyaviy-ishlab chiqarish faoliyatiga doir barcha jihatlarni yetarlicha tushunishlarini to'liq kafolatlay olmaydi.

Moliyaviy axborot – bu iqtisodiy qarorlarni qabul qilishning eng muhim vositasi bo'lib, kompaniya uchun investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatidan tashqari, jalb qilingan kapital qiymati ham uning sifatiga bog'liq. Bugungi kunda axborot eng qimmat resursga aylangan. Moliyaviy resurslar bo'yicha raqobat kurashida investorlarga o'zining moliyaviy

holati to'g'risida keng, to'liq, tushunarli va ishonchli axborotlarni taqdim eta oladigan kompaniyalargina ustunlikka ega bo'ladi (4).

Hozirgi vaqtda ushbu maqsadlar uchun BHMSga nisbatan MHXS yaxshiroq xizmat qiladi. MHXSning alohida qismlaridan biri – bu investitsiyalar hisobidir.

Investitsiyalar hisobi – zamonaviy xalqaro buxgalteriya va moliya hisobining eng murakkab, shuningdek, milliy va shu jumladan, xalqaro standartlarning tartibga solinmagan jihatlaridan biridir.

Yu. V. Klimovning maqolasida «investitsiyalar hisobi» tushunchasi quyidagicha ifodalangan: «Birgalikdagi faoliyatni hisobga olish va konsolidatsiya uslubiyoti masalalariga daxldor bo'lgan yagona standartlar talablarining, shuningdek, kompaniya investitsiyalari to'g'risidagi axborotlarning ochiqlanishi bo'yicha talablarning o'rnatilishi moliyaviy hisobotning globallashuvi jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. MHXS (IAS) 27* va PKR (SIC) 12* sharhida keltirilgan mavjud jamlanmaga yondashuvlarning nomuvofiqligini, shuningdek, qo'shma korxonalardagi ulushlarni MHXS (IAS) 31*ga muvofiq hisobga olishdagi farqlarni bartaraf etish maqsadida, MHXS Kengashi tomonidan MHXS (IFRS) 10 «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot», MHXS (IFRS) 11 «Birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi kelishuv», MHXS (IFRS) 12 «Boshqa kompaniyalarda ulushbay ishtirok etish to'g'risidagi axborotlarni ochiqlash» standartlari qabul qilindiki, bu o'zida tashkilotning boshqa kompaniyalar (sho''ba korxonalari, qo'shma korxonalar, ta'sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va boshqa birlashmaydigan birliklar) bilan munosabatlari to'g'risidagi axborotlarning ochiqlanishi bo'yicha talablarni o'z ichiga olgan yangi yagona standartni ifodalaydi»(5).

Inqirozli holatlar sharoitida ishonchli axborotni shakllantirish vazifalaridan kelib chiqib, umumiy muammolar orasidan MHXS (IFRS) 3, MHXS (IFRS) 10, MHXS (IFRS) 11, MHXS (IFRS) 12, MHXS (IAS) 24, MHXS (IAS) 27, MHXS (IAS) 28, MHXS (IAS) 36 talablarining bajarilishi bilan bog'liq muammolar ustuvor sifatida ajratib olindi va qisqacha yoritib berildi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Iqtisodchi olim S. Tashnazarov ta'kidlashicha, bugungi kunda kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) asosida tuzishga ob'ektiv zaruratlar mavjud. Qonunda ko'zda tutilgan tartibda MHXSlarini qo'llash tartibi joriy etildi. Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo'yicha tuzish maqsadga

muvofiqdir. Mamlakatimizda MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXSlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi (6).

Iqtiodchi olim O. Avazov qo'yidagicha ta'rif bergan: Iqtisodiyotni jadal rivojlanib borish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan iktisodiy munosabatlarda ular to'g'risidagi axborotlarning to'g'ri va ob'ektivligi muhim ahamiyatga ega. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iktisodiy munosabatda bo'ladigan sub'ektlar to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotdan oladilar. Bir nechta filiallari yoki sho''ba korxonalari bo'lgan xujalik yurituvchi sub'ektlar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tayyorlaydi va takdim etadilar (7).

Fikrimizcha, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot (consolidated financial statements) – bu shunday hisobotki, unda bosh korxona va u tomonidan nazorat qilinadigan korxonalarning daromadlari, xarajatlari, mulki va majburiyatlari yagona korxonaning daromadlari, xarajatlari, mulki va majburiyatlari sifatida ifodalanadi.

NATIJALAR.

«Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarorga muvofiq, rasman e'lon qilingan BHMS va MHXS muvofiqlashuviga qaramasdan, ular o'rtasida katta farqlar mavjud (8). Bu farqlar hisob yuritishning nafaqat ma'lum standartlari bo'yicha, balki moliyaviy hujjatlarni tuzish kontseptsiyalarining o'ziga ham tegishli. MHXS va BHMS o'rtasidagi asosiy farqlar moliyaviy hisobotni tuzish maqsadlaridadir. MHXSga muvofiq, hisobotni tuzish maqsadi investorlar va kreditorlar uchun buxgalteriya hamda boshqaruvga oid axborotlarni ochiqlashdan iborat. Ushbu ma'lumotlar tashkilotning boshqaruv hisobini yuritish va investitsiyaga oid qarorining sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Sho'ba kompaniyalarini nazorat qiladigan bosh kompaniyalarga tegishli guruhda hisobotni tayyorlash uchun qo'llaniladigan MHXS standartlarining soni 8 ta, ular:



1-rasm. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiyaviy faoliyatlarini ifodalovchi MHXS standartlari(9).

BHMSga muvofiq tuzilgan hisobotning maqsadi - nazorat qiluvchi organlar tomonidan soliq hujjatlarini tekshirish. Maqsadlar va foydalanuvchilar doirasi orasidagi farqlar muqarrar ravishda o‘z ortidan moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillariga oid tizimli farqlarni yuzaga keltiradi. Quyida biz investitsiyalarni hisobga olishda MHXS va BHMS o‘rtasidagi farqlarning solishtirma jadvalini keltiramiz.

1-jadval

Investitsiyalarni hisobga olishda MHXS va BXMS o'rtasidagi farqlarning solishtirma jadvali(10).

	Qisqacha ta'rifi	
	Sotib olish usuli bo'yicha	
	moliyaviy hisobotning tarkibiy tuzilishi va mazmuni bo'yicha	8 «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik
faoliyat bo'yicha	Birgalikda nazorat qilinadigan tadbirkorlik faoliyatida (ya'ni, qo'shma tadbirkorlikda) ishtirok	
	Ulushbay ishtirokka ega tashkilot tomonidan qo'llaniladi	
MHXS (IAS) 24 «Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib	Bog'liq tomonlar o'rtasidagi bog'liq tomonlarning bunday amaliyotlar bo'yicha qoldiqlari, jalb qilinganlik darajasi to'g'risidagi axborotlarning bog'liq tomonlar va ular o'rtasidagi amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni ochiqlash bo'yicha	
	Tashkilot tomonidan alohida moliyaviy hisobotning tayyorlanishida sho'ba va ta'sir ostidagi	

«Ta’sir ostidagi tashkilotlarga va qo‘shma korxonalarga	Ta’sir ostidagi tashkilotlar, qo‘shma korxonalarga ulushbay ishtirok etish usuli bo‘yicha o‘z hisobotlarida shu kabi ma’lumotlarni ochib berishlari shart bo‘lgan kompaniyalar	
	Tashkilotlar aktivlarni hisobga olishda va ularni hisob-kitoblarda aks ettirishda aktivlarning balans qiymati qaytariladigan summadan oshib ketmasligi uchun qo‘llashlari shart bo‘lgan tartibni belgilaydi.	

Shunday qilib, yuqoridagi jadvaldan MHXS va BHMS o’rtasidagi farqlarni yaqqol ko’rish mumkin. O’zbekiston Respublikasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ko’plab qoida va yo’riqnomalarga asoslangan rasmiy yondashuv hanuzgacha saqlanib qolgan. Bu qoida va yo’riqnomalar hisobchiga kompaniyada bo’layotgan ishlarni baholashda qayishuvchanlikni namoyon qilishiga yo’l qo’ymaydi (1-jadval).

O’zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi O’RQ-404-con Qonuni, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil

24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ-4611-son qaroridagi asosiy qoidalarni e’tiborga olgan holda, O’zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi sohasini isloh etishning hozirgi bosqichida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisob va hisobotni tartibga solishni alohida ajratish imkoni yo’q (11), (12).

Boshqa kompaniyalarga kiritilgan investitsiyalarda yuqorida keltirilgan hisob-kitob qoidalarining ta’rifi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda qo’llaniladi.

Mazkur ilmiy ishda ko’rib chiqilganlarni qo’llash deyarli barcha kompaniyalarning moliyaviy hisobotlariga tegishli.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ta’kidlashicha: «Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish

quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz»(13).

Standartlarga taalluqli asosiy o'zgarishlarni tahlil qilinar ekan, quyidagi xulosalarni chiqarish zarur:

a) «Hisobga olish talablari» bandi shunday talabga aniqlik kiritadiki, bunda bosh tashkilot o'xshash amaliyotlar va shunga o'xshash sharoitlardagi boshqa holatlarda yagona hisob siyosatidan foydalangan holda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlashi shart (14).

b) MHXS (IAS) 27 standartining «Alohida moliyaviy hisobot» bandida sho''ba korxonalari, ta'sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalarga investitsiyalar hisobi alohida moliyaviy hisobotlar orqali ochib beriladi;

v) qachonki bosh kompaniya (yuqorida ko'rsatilgan kompaniyadan farqli ravishda) birgalikda nazorat qilinadigan korxona yoki ta'sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyaga investitsiyalar bo'yicha alohida moliyaviy hisobotni tayyorlayotganda, quyidagi ma'lumotlarni yoritib berishi lozim bo'ladi:

- hisobot alohida bo'lgani fakti, shuningdek, bunday hisobotning nima uchun tuzilishi sabablari, agarki qonunchilik organlari tomonidan talab etilmasa;

- sho''ba korxonalari, ta'sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalarga kiritilgan yirik investitsiyalar ro'yxati va uni hisobga olish usuli, shu jumladan, nomi, ro'yxatdan o'tgan yoki joylashgan mamlakati, egalik ulushi yoki ovozlar ulushini yoritish.

Yuqorida keltirilgan standartlar sho''ba korxonalari, ta'sir ostidagi tashkilotlarga kompaniyalar va qo'shma korxonalarga investitsiyalarni hisobga olish tartibini belgilaydi, bunda kompaniya o'z ixtiyoriy tanlovi yoki kuzatuv organlarining talablariga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini taqdim etadi.

XULOSA.

Fikrimizcha, moliyaviy hisobotlar konsolidatsiyasi – bu majmuaviy tartib-taomil bo'lib, yagona guruhning alohida korxonalari tomonidan berilayotgan hisobotni kelgusida birlashtirish va uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Bunday tartib-taomil konsolidatsiyalashgan tashkilotlarning moliyaviy holati to'g'risida har tomonlama ma'lumotlarni olish talab etilgan hollarda o'tkaziladi. Hisobotlar paketi birlashtirilgan shaklda bitta butun holda taqdim etiladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tayyorlashda ishlatiladigan bosh korxona va uning sho''ba

korxonalarining moliyaviy hisobotlari bir xil sanada tayyorlangan bo'lishi shart. Agar bosh va sho''ba korxonalarning hisobot davrining oxirgi sanasi bir-biriga mos kelmasa, konsolidatsiya maqsadlari uchun sho''ba korxonasi bosh korxonaning sanasiga mos ravishda qo'shimcha moliyaviy hisobotni tayyorlaydi (amalda umuman mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno). «Guruh» to'g'risidagi xalqaro standartlarni aniqlashda tushunchalarning torligiga doim urg'u bermaslik uchun, xorijiy olimlar va amaliyotchilar «konsolidatsiya perimetri» atamasini ishlatishadi.

Yuqorida biz konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda investitsiyalar hisobining ba'zi qismlarini ko'rdik.

Quyida esa xorijiy olimlarning fikrlari bilan tanishamiz.

L. P. Krasnov, N. G. Bolьshakov, L. G. Kuznetsov, S. I. Puchkov, O. B. Lixachev kabi rossiyalik mualliflarning tadqiqotlarida asosan chet elda konsolidatsiyalashgan hisobotlar tuzilmasligi va ularda «Investitsiyalar hisobi» hisobga olinmasligi to'g'risida eslatma bor edi. Shuningdek, ularning ishlarida nazariya, uslub va uslubiyotning ko'plab savollari yoritilmagan, konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzish savollari esa yuzaki ko'rib chiqilgan.

Bugungi kunda energetika yo'nalishidagi aktsiyadorlik kompaniyalarida nazariya, uslubiyot va hisobot ta'minotini tashkillashtirish savollari tahlil qilinmasdan qolmoqda, konsolidatsiyalashgan hisobotning predmeti, vazifalari, taqdim etish mazmunining ilmiy asosi yo'q.

Avvalambor, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning tavsiflanishiga, uning mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tushunilishiga, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning farqlari bilan aniq qaror qabul qilinishiga e'tibor qaratish zarur.

Z. M. Aliev o'zining ilmiy tadqiqotida quyidagicha ta'kidlaydi: «MHXS Kengashi o'zining qarorini shu bilan izohlaydiki, hisobot (shu jumladan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot) asosli iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni kompaniya (kompaniyalar guruhi)ning moliyaviy holati, faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarda keng doiradagi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi shart. Bundan tashqari, agar faoliyati guruh ichidagi boshqa kompaniyalar faoliyatidan ajralib turadigan kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada katta bo'lsa, bunday kompaniyaning konsolidatsiya perimetridan chiqarilishi moliyaviy hisobot foydalanuvchilari tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ya'ni

buning oqibati – konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot maqsadlarining buzilishi bo'lishi mumkin»(15).

V. M. Golikovning fikricha, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o'zining hajmi, tarkibi, mazmuni va ahamiyati jihatidan mulkdorlar soni cheklangan, boshqaruv tizimi sodda, faoliyati hajmi tor bo'lgan yakka tashkilotlarning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotiga nisbatan ancha keng tushuncha. Konsolidatsiyalashgan hisobot ko'p hollarda transmilliy xarakter kasb etadi va aynan shuning uchun uni xalqaro darajada tartibga solish talab etiladi(16).

Ye. Yu. Volkova o'z ilmiy ishida konsolidatsiyalashgan hisobot – bu xalqaro standartlar tamoyillari, talablari, taxminlari asosida guruh a'zolarining moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarini birlashtirish yordamida shakllantirilgan, moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotlarni ochiqlaydigan va korxonalarning konsolidatsiyalashgan guruhini yagona xo'jalik sub'ekti sifatida tasavvur qilish imkonini beradigan moliyaviy hisobot ekanligini ta'kidlaydi(17).

Iqtisodchi olim O. Sobirov ta'kidlashicha, respublikamizdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarni (MHXS) talablar darajasida yuritish iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar olib kirish hajmining oshishiga olib keladi(18).

«Moliyaviy hisobot» tushunchasi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobotining guruh, xo'jalik sub'ektlari nazorat munosabatlariga asoslangan faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini tavsiflash uchun mo'ljallangan bir turi sifatida baholanadi.

Bizningcha, ilmiy tadqiqotlarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirish bo'yicha ko'plab amaliy masalalar hali ochiqligicha qolmoqda yoki ko'rib chiqilmagan, jumladan, energetika tarmog'ida investitsiyalarni hisobga olish xususiyatlari ham yetarlicha tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz investitsiyalar hisobini energetika sohasidagi juda katta va dolzarb masala sifatida baholaymiz. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda konsolidatsiyaning barcha usullari aniq-ravshan aks ettirilishi lozim. Va albatta, MHXSga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda investitsiyalarni hisobga olishda ishlatiladigan hisoblarni yoddan chiqarish mumkin emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. MSFO (IFRS) 10 Consolidated Financial Statements. Konsolidirovannaya finansovaya otchetnostь. https://fin-accounting. ru/ifrs/ifrs10.

Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlari shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirishni samarali tashkil etish orqali arzon kapital jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xalqchil IPO tashkil etish va o'tkazishda ko'zlangan maqsadga erishishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar, ya'ni aholini aksiyadorga aylantirish orqali daromadlarini oshirishda, biznesning arzon kapital jalb qilishida xususiylashtirishning samarali kechishida, iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozoriga raqobatchi institut sifatida fond bozori rivojlanishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, Davlat tasarrufidagi aksiyalar paketini xususiy investorlarga sotish orqali kapital jalb qilish, keng jamoatchilik uchun o'z jamg'armalarini aksiyalarga investitsiya qilish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

Tayanch so'z va iboralar. aksiya, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti, kapital jalb qilish, davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat aktivlarini xususiylashtirish, fond bozori.

POSSIBILITIES OF ACHIEVING ECONOMIC STABILITY THROUGH PUBLIC PLACEMENT OF SHARES

Akmaljon Anvarjonovich Mamatov,

Annotation

This article analyzes the scientific views of domestic and foreign scientists on the subject, as well as the possibilities of attracting cheap capital through the effective organization of public placement of shares. The issues that should be paid attention to in order to achieve the intended goal in organizing and conducting a democratic IPO, i. e. , in increasing the income by turning the population into shareholders, in the effective passage of privatization in attracting cheap capital of business, in financing the economy, the development of the stock market as a competitive institution to the credit market, were shown. Also, scientific conclusions and practical suggestions are given on ways to attract capital by selling a package of shares owned by the State to private investors, and ways for the general public to invest their savings in shares.

Key words. Shares, public offering of shares, capital raising, state-owned enterprises, privatization of state assets, stock market.

KIRISH

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish biznes uchun arzon kapital jalb qilish orqali yuqori samaradorlikka xizmat qilsa, investorlar va aholi uchun daromad manbalarini diversifikatsiyalash hamda oshirishga xizmat qiladi. Bugungi iqtisodiyotning faol tarzda raqamlashuvi sharoitida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti globallik kasb etmoqda. Ya'ni IPO amaliyotlariga global amaliyot sifatida yondashilmoqda. Bunga bugungi texnologik rivojlanish to'la-to'kis imkon bermoqda. Mamlakatimizda ham bu borada Kvarts, Qo'qon mexanika zavodi, Jizzax plastmassa, Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyatlari misolida ma'lum bir ijobiy yoki salbiy tajribalar olindi. Lekin aynan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlari orqali erishish mumkin bo'lgan imkoniyatlardan etarlicha foydalanilmoqda, deya olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning (Murojaatnoma. Toshkent, 2022:6) "Mening katta niyatim –

yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'lsin. Odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo'lsin. Shuning uchun topshiriq berdim: kelgusi yilda engyirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o'z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinakam xalqchil IPO bo'lishiga ishonaman", deya alohida qayd etgan edilar.

Shuningdek, 2023 yil 24 mart kuni o'tkazilgan davlat mulkini xususiylashtirish ishlarining ijrosi va bu borada joriy yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig'ilishda prezidentimiz "40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi "xalqchil IPO" orqali sotiladilishi, jumladan, ilk bor Navoiyva Olmaliq kombinatlari, Metallurgiya kombinati, "O'ztelekom", Milliy bank, Sanoatqurilishbank kabi yirik korxonalarning o'rtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etiladi. Bunda aholiga aksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish imkoniyati yaratiladi. Aksiyalari sotilgan korxonalar besh yil davomida sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltiradi", deya ta'kidlandi. Keltirilgan ijobiy jihatlarga qaramasdan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotining o'ziga xos printsiplari mavjud bo'lib, ularga rioya qilish bunday amaliyotlarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Shu boisdan bu borada alohida tadqiqotlar muhim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyalarni ommaviy joylashtirishni samarali tashkil etish orqali arzon kapital jalb qilish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e'tiboridagi tadqiqot mavzularidan biridir. J. Qurbonov, S. Omonov, D. Nuralievalar (Toshkent, 2021:53) tomonidan xalqaro IPO amaliyotlari tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, unda aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishning tashkiliy bosqichlari, aksiyalar bo'yicha narx diapazonlarini belgilash, bu boradagi eng yirik amaliyotlar, institutsiyaonlar investorlar va anderrayterlarning faolligi kabilarga e'tibor qaratilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borayotgan Q. Chinqulov (Toshkent, 2021:243) "Ustav kapitalida davlat yoki xo'jalik boshqaruv organlarining ulushi (aksiya paketi) mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushlari (aksiya paketlari)ni birlamchi ommaviy taklif (IPO) o'tkazish orqali joylashtirish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar orqali moliyalashtirishni samarali tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga qo'shimcha mablag' hamda xususiy investorlarni jalb etish imkoniyatlari yaratiladi", deya ta'kidlaydi.

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlariga doir monografik tadqiqotlarni amalga oshirgan B. Boevga (Toshkent, 2021:56) fikriga ko'ra"aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan individual investorlarga aksiyalarni ommaviy taklif qilish davri sifatida aholi daromadliligiva xarid quvvati nisbatan yuqori bo'ladigan davrni belgilash, shuningdek rentabelligi va bozordagi nufuzi yuqori davlatishtirokidagiaksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalidagi davlat ulushini SPO amaliyoti orqali bozor bahosida sotish hamda xususiylashtirishning keyingi bosqichlarini samarali tashkil etish lozim". Mazkur jihatga bugungi kunga qadar mamlakatimizda samarali foydalanilmoqda, deya olmaymiz. A. Karimovning (Toshkent 2022:16) mamlakatimizda amalga oshirilgan aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyoti tahlillariga doir tadqiqotlarida aksiyalarni joylashtirish bahosini har tomonlama asosli belgilashlozimligi qayd etilgan. Haqiqatda bu borada muammolar mavjud bo'lib, birgina Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyati aksiyalari nominalga nisbatan 14, 5 baravar yuqori belgilanganligi bunga misol bo'la oladi.

METODOLOGIYA

Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induktsiya va deduktsiya metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan IPO amaliyotini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganda bosh maqsad arzon va yuqori miqdorda moliyaviy resurs jalb qilishni maqsad qilgan bo'ladi. Kutilayotgan IPO amaliyotlarining samarali kechishini ta'minlash orqali qo'yilgan maqsadga erishish uchun esa bu borada e'tibor qaratish lozim bo'lgan ma'lum bir jihatlar mavjud. IPO amaliyotida bu borada muhim hisoblangan va e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'ziga xos muhim bosqichlar shular jumlasidandir. Tahlillarga ko'ra ma'lumki, muvaffaqiyatli IPO amaliyoti uchta bosqichda namoyon bo'ladi. Bular quyidagilardir:

1-jadval. Muvaffaqiyatli IPO amaliyoti bosqichlari va ularda e'tibor qaratiladigan jihatlar

	E'tibor qaratiladigan jihatlar va qilinadigan ishlar
bosqichi yo'nalishlari	- IPO o'tkazish bo'yicha korporativ strategiya qabul qilish; - investitsion jozibadorlikka intilish nuqtai nazaridan muntazam dividendlarga o'tish orqali aksiyalar bozor IPOtestidan o'tish; -IPO tushgan mablag'larloyihalarning istiqbolli ekanligini
o'tkazish bosqichi	- potentsial investorlar uchun road-showlar o'tkazish-narx - aksiyalarga ariza berish bo'yicha miqdor chegarasini - muvaffaqiyatli IPO o'tkazish.
IPO dan keyin investorlar bilan o'zaro manfaatli	- investitsion jozibadorlik davomiyligini ta'minlash; holda dividendlar muntazamligini ta'minlash; -kurs ko'tarilishi orqali daromadga ega bo'lishni ta'minlash.

Manba: *Iqtisodiy adabiyotlar asosisada muallif tomonidan tuzildi*

IPO amaliyotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korporativ moliyaviy strategiyaning to'g'ri ishlab chiqilganligi va unga amal qilinishiga bevosita bog'liq. IPO bo'yicha korporativ strategiya bevosita uzoq muddatli tayyorgarlik rejasini belgilab olishni talab etadi. Uzoq muddatli tayyorgarlikdan asosiy maqsad investitsion jozibadorlikni oshirib borishdir. Buning uchun esa yuqori rentabellikka erishish asosida muntazam dividendlarga o'tish, ichki hujjatlarni jozibadorlik nuqtai nazaridan takomillashtirish (dividendga yo'naltiriladigan sof foyda miqdorini, dividend to'lash shaklini, ustav kapitalida ulushga egalik qilishning yuqori chegarasini aniq belgilash kabilar) talab etiladi. Shu bilan birga IPO tushgan mablag'lar yo'naltiriladigan loyihalarning istiqbolli ekanligini asoslash orqali rentabellik yanada oshirish hisobiga aksiyalar daromadliligi o'sishi prognozlariga ishontira olish ham muhim.

Milliy amaliyotda mazkur jihatga etarlicha e'tibor qaratilmoqda, deya olmaymiz. Ma'lum bir holatlarda birinchi chorakda IPO o'tkazilishi to'g'risida qaror davlat boshqaruviorganlari tomonidan qabul qilinmoqda va yil yakuni arafasida IPO o'tkazilmoqda.

Natijada investitsion jozibadorlik bilan bog'liq muammolar sabab kutilgan kapitallashuvga erishish imkoniyati keskin pasaymoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168 sonli qaroriga asosan "2022 yil 1 oktyabrga qadar «Qishloq qurilish bank» ATBning aksiyalarini ommaviy joylashtirishni (IPO) ta'minlasin", deya belgilangan. Olti oy ichida investitsion jozibadorlik nuqtai nazaridan dividend siyosati yuritilishini ta'minlash imkonsiz. Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyati faqatgina 2019 yil yakuni bo'yicha aksiya nominaliga nisbatan 36 foiz dividend to'lagan, 2020-2021 yillar yakunlari bo'yicha hech qanday dividend to'lamagan holda IPO ga chiqqanligi qo'yilgan maqsadni inkor qiladi. Natijada esa IPO o'tkazishi belgilangan aksiyadorlik jamiyatlari bu amaliyotni o'tkazmayapti yoki muvaffaqiyatli kechmayapti. Umuman davlat nazoratidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish (IPO, SPO) o'tkazish to'g'risidagi qarorlar davlat tomonidan qabul qilingan holatlarda aksiyadorlik jamiyatining bu boradagi tayyorlik darajasi etarlicha inobatga olinmayotganligini ta'kidlashimiz lozim. 2023 yilda davlat nazoratidagi tijorat banklari tomonidan IPO o'tkazishi kutilayotgan bir vaqtda fond birjasi listingidagi ular aksiyalari nominaldan past savdo qilinmoqda. Mazkur jihat qayd etilgan tijorat banklari investitsion jozibadorligi IPO o'tkazish uchun tayyor emasligini ko'rsatadi.

Bu borada Uzum market aksiyadorlik jamiyatining global IPOga chiqish bo'yicha 3 yillik strategiyasi qabul qilinganligi va strategiya asosida ishlar boshlanganligini alohida e'tirof etishimiz lozim. Ta'kidlash lozimki, IPO aksiyadorlik jamiyati bir yilda tayyor bo'lib, bir yil ichida o'tkaziladigan amaliyotemas. Buning uchun kamida 3-4 yil tayyorgarlik ko'rish orqali investorlar ishonchi qozonilishi, investitsion jozibadorlik ta'minlanishi lozim. Puxta tayyorgarlik muvaffaqiyatli IPO uchun har tomonlama asos vazifasini o'tab beradi. Ichki tayyorgarlik ta'minlanib, tegishli hamkorlar bilan kelishilgach, qaysi birjaga chiqish tanlangan holda har tomonlama asosli aksiyalar narx diapazonini belgilashga e'tibor qaratiladi. aksiyalarga bitta investor tomonidan ariza berish bo'yicha miqdor chegarasini belgilash ham mazkur jarayonda muhimdir.

Shuningdek arizalar qabul qilish vaqtini iqtisodiyotning joriy holatidan kelib chiqqan holda belgilash lozimligini shu o'rinda alohida

ta'kidlash lozim. Chunki, Kvarts, Qo'qon mexanika zavodi, Uzauto Motors aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini ommaviy joylashtirish amaliyotlari qishda tashkil etilganligi ham talabning past bo'lishiga sabablardan biridir. Chunki aynan qish faslida aholi daromadlari nisbatan pasayishi va xarajatlarning esa ortishi sharoitida ularga aksiya taklif qilish o'z natijasini etarli darajada bermaydi. aksiyalarni ommaviy joylashtirish yakunlanganligi, IPO amaliyoti tugaganligini o'zida namoyon qilmaydi. IPOdan keyingi bosqich ham mavjud bo'lib, unga ko'ra investorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni davom ettirish lozimdir. Buning uchun esa bozor daromadliligidan kelib chiqqan holda dividendlar muntazamligini ta'minlash orqali investitsion jozibadorlikni saqlab turish lozim bo'ladi.

Mazkur jihat aksiyalar kursi ko'tarilishi hisobigi bir tomondan investorlar aktiv daromadi ortishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan keyingi qo'shimchaaksiyalar emissiyasi joylashtirish uchun tekin reklama vazifasini o'tab beradi. Milliy amaliyotda bu borada ham muammolar mavjud. Masalan, aksiyalari ikki marta ommaviy joylashtirilgan "Kvarts" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2018 yil yakunlari bo'yicha dividend to'lanmagan, 2019 yil yakunlari bo'yicha aksiyalar nominal qiymatiga nisbatan 6, 1 foiz, 2020 yil yakuni bo'yicha esa 14, 2 foiz dividend to'lagan. Mazkur ko'rsatkichlar investorlarni qanoatlantirmaydi va o'z-o'zidan IPOdan keyingi bosqich yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi.

Davlat ishtirokidagi qaysi milliy aksiyadorlik jamiyatlari IPO ga chiqishga tayyor, degan savol ham tug'ilishi tabiiy. Bunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev (2022:12) ta'kidlaganlaridek, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston metallurgiya kombinati kabilar mazkur amaliyotga haqiqatda tayyor. Shuningdek, "Toshkent" RFBda premium klassdagi yagona emitent – O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi aksiyalarini IPOga olib chiqish haqiqatda bozor rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan bo'lardi. Tovar-xom ashyo birjasi aksiyalari o'ta jozibadorligini ta'kidlashimiz lozim. Jamiyat aksiyalari nominal qiymati 630 so'm bo'lsada, 2023 yil 28 mart holatiga 18500 so'mdan savdo qilinayotganligi buni isbotlab turibdi. Bunday natijaga erishish sabablaridan biri sifatida shubhasiz aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati va dividend amaliyotidir (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi dividend to'lovlari tahlili

To'lov yili	Divident to'langan payti	Oddiy aksiya uchun divident (so'm)	Dividentlarni to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda %	Dividentlarni to'lash uchun yo'naltirilgan sof foyda summasi	Muomaladagi aksiyalar soni	Dividentlar taqsimlangan aksiyanerlar umumiy yig'ilishining sanasi
2021	2020	1100,0	86,95%	82 454 262 000,00	74 958 420	20.03.2021
2020	2019	2490,0	76,135%	62 215 488 600,00	24 986 140	22.05.2020
2019	2018	550,0	52,23%	13 742 377 000,00	24 986 140	24.05.2019
2018	2017	230,0	65,07%	5 746 812 200,00	24 986 140	25.05.2018
2017	2016	200,0	61,99%	4 997 228 000,00	24 986 140	26.05.2017
2016	2015	160,00	60,61 %	3 997 782 400,00	24 986 140	27.05.2016
2015	2014	190,00	51,68%	4 747 366 600,00	24 986 140	15.05.2015
2014	2013	180,00	52,01%	4 497 505 200,00	24 986 140	20.06.2014
2013	2012	160,01	51,20%	3 998 212 100,00	24 986 140	21.06.2013
2012	2011	99,51	52,00%	2 486 322 000,00	24 986 140	22.06.2012
2011	2010	50,70	51,00%	1 266 818 070,00	24 986 140	10.06.2011
2010	2009	31,61	70,00%	789 701 900,00	24 986 140	11.06.2010
2009	2008	43,81	90,00%	1 094 742 700,00	24 986 140	12.06.2009

Manba: *https://uzex. uz sayti ma'lumotlari asosida muallaif tomonidan tayo'rlandi*

Ko'rib turibmizki, 14 yillik dividend tahlillari haqiqatda investorlar uchun qiziq va bu davr mobaynida muntazam ravishda sof foydaning 50 foizdan ortiq qismi dividendga yo'naltirilgan. 2021 yil yakuni bo'yicha 88, 31 foiz sof foyda dividend yo'naltirilgan va bittaaksiyaga 1650 so'mdan dividend to'lab berilgan bo'lsa, 2022 yil yakuni bo'yicha kuzatuv kengashi tomonidan bitta aksiyaga 2300 so'mdan dividend to'lash tavsiya qilingan. O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi investitsion jozibadorligiga yana bir sabab sof korporativ boshqaruv amal qilayotanligidir. Ya'ni hech bir aksiyador nazorat paketiga egalik qilmaydi va davlat ulushi 26, 43 foizga teng (1-rasm).

1-rasm. O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi aksiyadorlar tarkibi (09. 11. 2022 yil holatiga)



Manba: *https://uzex. uz sayti ma'lumotlari asosida muallaftomonidan tayo'rlandi*

Yana shuni ham ta'kidlashimiz lozimki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati va O'zbekiston metallurgiya kombinati tashabbusi asosida O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasidagi 12 foizlik aksiyalarni SPOga chiqarish to'g'risida 2019 yilda qaror qabul qilingan edi. Mazkur qaror ijrosi ta'minlanmadi. Va endi O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi 2 foiz aksiyasini ommaviy joylashtirishi belgilandi. Mazkur amaliyotni joriy yilda o'tkazish bozor uchun tom ma'noda ijobiy signal bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Trastbank, Ipak yo'li banki aksiyadorlik tijorat banklari rentabelligi yuqoriligi bois ham ulardagi davlat ulushini to'liq ommaviy joylashtirishga chiqarish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yuqori rentabellik asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan uyali aloqa kompaniyalarini ham aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish orqali IPOga chiqishini ta'minlash, sug'urta kompaniyalarini bozorga olib kirish muhim, deb hisoblaymiz.

XULOSA

Umuman olganda xalqchil IPO tashkil etish va o'tkazishda yuqoridagilarga e'tibor qaratish ko'zlangan maqsadga erishishda, ya'ni aholini aksiyadorga aylantirish orqali daromadlarini oshirishda, biznesning arzon kapital jalb qilishida, xususiylashtirishning samarali kechishida, iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozoriga raqobatchi institut sifatida fond bozori rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Navoiy kon-metallurgiya kombinati kabilardan tashqari davlat nazorati yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarni ommaviy joylashtirishga tayyorgarlik darajasi nisbatan past holatda. IPO o'tkazishi kutilayotgan davlat nazoratidagi tijorat banklari aksiyalari fond birjasida nominaldan past sotilmoqda. Bunday holatda aksiyalarni ommaviy joylashtirishga chiqishlari maqsadga muvofiq emas. Chunki aksiyalar nominaldan past

joylashtirilmaydi va taklif nominal qiymat bo'yicha bo'lganda ham investor bozordan olishni afzal ko'radi. IPOga chiqish uchun jiddiy tayyorgarlikdan o'tishni talab qilinishi bois uzoq muddatli korporativ strategiya asosida ish olib borilishi, aksiyadorlik jamiyatlarining tayyorgarlik darajasi IPO testidan o'tkazilishi lozim. Ustav kapitalida xususiy sektor ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining birinchi navbatda IPOga chiqishlari maqsadga muvofiq va bozor uchun o'ziga xos signal vazifasini o'tab beradi. Bozor uchun ijobiy signalligi bois, bozor daromadliligi asosida dividendlarni belgilab borish lozim. Mazkur jihat istiqboldagi IPOlar uchun muhim. IPOdan keyingi bosqich, ya'ni amaliyot o'tkazilgach investorlar bilan munosabatlar manfaatli bo'lish shartligi bois, aksiyadorlik jamiyatlari ichki hujjatlarida, xususan ustavda dividendga yo'naltiriladigan sof foyda ko'rsatkichi jozibali tarzda belgilanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 18. 03. 2022 yildagi PQ-168-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishningqo'shimchachora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 24. 03. 2023 yildagi PQ-102-son. https:G'G'lex. uzG'docsG'6417192

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fond birjasida aksiyalarning birlamchi va ikilamchi ommaviy takliflarini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida" qarori, 26. 04. 2019 yildagi 358-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

QurbonovJ. , Omonov S. , Nuralieva D. Xalqaro IPO amaliyotlari tahlili: tashkiliy xususiyatlari va institutsional investorlar ishtiroki. G'G' Iqtisod va moliya, 2021. No1. –B. 53-61.

Chinqulov Q. aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish. G'G' Iqtisodiyot va ta'lim, 2021. No5. -B. 243-250.

Boev B. aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2021. –56 b.

Karimov A. Improving Mechanisms of Attracting Free MoneyofThePopulationintheSecuritiesMarket Development. G'G'International Finance and Accounting. –2022. –T. 2022. –No. 1. –P. 16.

Xususiylashtirish borasidagi vazifalar belgilandi –https:G'G'president. uzG'uz G'lists G'viewG'6081

https:G'G'openinfo. uzG'uzG'factsG'?org_name q %22UzAuto Q Motors%22 Q aksiyadorlik Q jamiyati&typeq32&date_fromq&date_toq

https:G'G'openinfo. uzG'uzG'factsG'?org_nameq%22Kvarts%22QaksiyadorlikQ jamiyati & typeq32&date_fromq&date_toq

https:G'G'uzex. uzG'frG'pagesG'public-data-on-accrued-dividends

https:G'G'uzex. uzG'frG'pagesG'Equity-structure#

http:G'G'openinfo. uzG'ruG'factsG'67221G'

EXTENDED ABSTRACT

This article analyzes the scientific views of local and foreign scientists on the subject, as well as the possibilities of attracting cheap capital through the effective organization of public placement of shares. The issues that should be paid attention to in order to achieve the intended goal in organizing and conducting a democratic IPO, i. e. , in increasing the income by turning the population into shareholders, in the effective passage of privatization in attracting cheap capital of business, in financing the economy, the development of the stock market as a competitive institution to the credit market, were shown.

Also, scientific conclusions and practical suggestions are given on ways to attract capital by selling a package of shares owned by the State to private investors, and ways for the general public to invest their savings in shares.

Public placement of shares serves to increase efficiency by attracting cheap capital for businesses, and serves to diversify and increase sources of income for investors and citizens. In the context of today's actively digitized economy, the practice of mass placement of shares is becoming global. That is, IPO practices are being approached as a global practice. Today's technological development makes it possible.

Special importance is attached to this field in Uzbekistan. There are specific principles of the practice of public placement of shares, adherence to which guarantees the success of such practices. Therefore, special studies in this regard are important.

According to the analysis, it is known that successful IPO practice is manifested in three stages. Also, the corporate strategy for the IPO requires the determination of a long-term preparation plan. Also, this

article analyzed the economic indicators of some enterprises and organizations in Uzbekistan. As a result of the analysis, the following conclusions were drawn:

- focusing on the above when organizing and holding a national IPO is important in achieving the intended goal, i. e. increasing income by turning the population into shareholders, attracting cheap capital for business, effective privatization, development of the stock market as a competitive institution to the credit market in financing the economy;

- Since serious preparation is required for the IPO, work should be carried out on the basis of a long-term corporate strategy, the level of preparation of joint-stock companies should be tested for IPO;

- Joint-stock companies with a high share of the private sector in the charter capital should first go to IPO and serve as a unique signal for the market. As it is a positive signal for the market, it is necessary to set dividends on the basis of market profitability. This aspect is important for prospective IPOs;

- Since the post-IPO stage, i. e. , the relationship with investors should be beneficial after the implementation, the internal documents of joint-stock companies, in particular, the charter, should set the indicator of net profit allocated to dividends in an attractive way.

O’ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHTIRISH MUAMMOLARINI YECHISHNING REAL OMILI

Professor A. Mutalov

THE REAL FACTOR IN SOLVING PROBLEMS OF DEVELOPMENT SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN

Prof. A. Mutalov

Kalit so'zlar: kichik biznes, kriteriy, soliq, soliqqa tortish, to'sqinlik qilish, byudjet daromadlari, takomillashtirish

uning yangi Soliq Konsepsiyasi joriy qilingandan keyin kichik biznes rivojlanish o'rniga orqaga ketib qoldi va byudjet daromadlaridagi ulushi

b
a
l
k
i
r
a
g
j

Annotation

In this article the concept of small business, its advantages, role in the formation of the state budget, after implementation of new tax concept, the small business developing went down instead of increasing and its share budjet revenues decreased from 56, 2 % in 2018 till 52, 6 % in 2020. It is necessary to remove restictions on the solution of this problem, taking into account the taxes should not limit the development of the economy but it should stimulate the process.

O'zbek xalqi o'zining asriy orzusi - mustaqillikka erishgach barcha soxalarda mustaqil siyosat va shu jumladan soliq siyosatini yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Sobiq SSSR tarkibida bo'lgan paytda O'zbekistonda Ittifoq soliq siyosati asosida ish yuritilar edi va shu yerda 2 hil soliq, ya'ni jismoniy shaxslar daromadiga soliq va yuridik shaxslar oborot solig'i to'lanar edi va aloxida aytilish muxim bo'lgan narsa - oborot solig'ining deyarli teng yarmi Ittifoq byudjetiga yuborilar edi, xozir esa to'laligicha O'zbekistonda qoladi.

Afsuski, oxirgi paytlarda gurkirab rivojlanayotgan O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari "Fors Major" xolatlar, ya'ni "Kovid"

pandemiyasining va O'zbekistonning asosiy iqtisodiy xamkori bo'lgan Rossiyaga qarsi sanktsiyalar salbiy ta'siri natijasida keskin pasayib ketdi.

Yuqoridagi sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotini tezkor sur'atlarda tiklash hamda yanada yuksaltirish yo'llarini izlash lozimligi muammosi paydo bo'ldi va mamlkatiiz raxbariyati yagona to'g'ri yo'lni, ya'ni xo'jalik yuritishning eng samarali shakli - kichik biznesni tanlab oldi, chunki kichik biznes quyidagi afzalliklarga egadir:

- bozor talablariga tez va aniq moslasha oladi. Buning uchun ular shu paytda bozorda talab katta bo'lgan maxsulot ishlab chiqarishga tez va kam xarajatlar bilan o'taoladilar;

- bozorni katta biznes chiqarmaydigan turli - tuman "mayda-chuyda" ro'zg'or uchun zaruriy maxsulotlar bilan ta'minlaydilar;

- kichik biznes subyektlarini barcha va xattoki eng kichik axoli punktlarida ham joylashtirish mumkin, chunki u juda katta miqdorda ishchi kuchi talab qilmaydi;

- maxalliy va ikkilamchi xomashyodan maksimal darajada foydalanadi;

- ularni boshqarish oson;

- tez muddatlarda va kam xarajatlar bilan yangi ish joylari yaratadilar va shu yo'l bilan ishsizlarni ish bilan ta'minlash kabi qiyin ijtimoiy masalalarrni hal qilishga yordam beradi;

- byudjetni ishsizlikka to'lanadigan "posobiya"ni to'lashdan ozod etadlar;

- mamlakatimizda sog'lom raqobatni faollashtiridhga yordam beradi va boshqalar.

Kichik biznesning yuqori samaradorligini e'tiborga olib. mamlakatimiz raxbariyati doimiy ravishda uni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora - tadbirlarni katta e'tibor bilan amalga oshlrib kelmoqda.

Ma'lumki, kichik biznesning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi va ularning ichida yetakchi o'rinni soliqqa tortishni takomillashtirish jarayonlari egallaydi, chunki O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, davlat byudjeti daromadlarini asosan soliq tushimlari beradi (1 - jadval).

1 – jadval O'zbekiston davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari, (ja'miga nisbatan % da)[56]

№	Ko'satkichlar	2018	2022
	Давlatning byudjetdan tashqari jamg'armalaridan tashqari	100, 0	100, 0
1	To'g'ri soliqlar	25, 2	28, 4
2	Egri soliqlar	54, 3	45, 8
3	Pecypc to'lovlari va mol-mulk solig'i	13, 8	16, 6
4	Ustama foyda solig'i	1, 5	-
5	Soliqsiz to'lovlar	5, 2	9, 2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pandemiyadan oldin byudjet daromadlarining 94, 8 foizini soliq tushumlari berar edi, psndemiya sharoitida ko'p korxonalar to'xtab qoldi, natijada ijtimoiy davlat bo'lgan O'zbekiston o'z xalqini moddiy qo'llash maqsadida byudjet daromadlarini yetarli darajada ushlab turish uchun soliqsiz to'lovlar xisobiga to'ldirib turish choralarini ko'rishga majbur bo'ldi (oltin sotish, chetdan qarz olish kabilar). Pandemiyadan keyin mamlakatimiz iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan tiklash, uning tarkibini takomillashtirish xamda yuksaltirish maqsadida ularning moddiy asosi bo'lgan byudjet daromadlarini tez sur'atlar bilan ko'paytirishning asosiy omili soliq tushumlarini ko'paytirish maqsadida davlatimiz doimiy ravishda chora tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Kontseptsiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq yangi Soliq Kontseptsiyasi ishlab chiqildi va uning asosida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi taxriri ishlab chiqilldi va 2019 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritildi.

Adabiyotlar sharxi

[56] Ozbekiston Moliya vazirligi ma'lumotlaridan

Soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi axamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, soliqlar va soliqqa tortish masalalariga doimiy ravishda katta axamiyat berib kelinmoqda. Masalan, professor S. Xudoyqulovning "Soliq nazariyasi"[3] va A. Vahobov xamda A. Jo`rayevlarning "Soliq va soliqqa tortish"[2] darsliklari asosan didaktik xususiyatga

ega bo'lib , ularda soliqlar va soliqqa tortish va ularga tegishli nazariy va umumiy

tushunchalar berilgan.

B. Raxmatullayevning "Soliqqa tortish tamoyillari" [1] va I. Niyazmetovning "Soliq

tizimi"[4] nomli monografiyalari tor doiradagi masalalarni, ya'ni soliqqa tortish

tamoyillari va soliq tizimi masalalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Faqatgina A. Mutalov va D. Mytalovalarning "Kichik biznes va tadbirkorlikni

soliqqa tortish"[5] kitobi maqolamiz obyekti bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni

soliqqa tortishni takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilishga bag'ishlangan, ammo xozirda

amalda bo'lgan yangi Soliq Konsepsiyasi sharoitida emas, balki eski Konsepsiya sharoitida tadqiq qilinganligi uchun o'z dolzarbligini yo'qotgan.

Shunday qilib, xozirgacha yangi Soliq Konsepsiyasi sharoitida kichik biznesni soliqqa tortishni takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan, chunki biz tadqiq qilayotgan muammoni yangi Soliq Konsepsiyasining o'zi keltirib chidargan.

To'g'ri, yangi Soliq Konsepsiyasi olimlar tomonidan o'rganilib, uni asosan yutuqli taraflari, ya'ni xozirgi kunda butun dunyoda katta samara berayotgan soliq tizimini "qog'oz aylanmasi" dan to'liq ozod etish, xisobot shakllarini qisqartirish va soddalashtirish, soliq ma'murchiligi mexanizmlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi soliq tizimini raqamlashtirishni keng joriy qilish nixoyatda katta samara berishiga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazganlar.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq Konsepsiyasini tanqidiy o'rganib, uning ayrim jixatlarini

takomillashtirishga qaratilgan qiziqarli ilmiy asoslangan kiritdilar. Jumladan, iqtisod fanlari nomzodi Farxod Qurbonboyev jismoniy shaxslarni daromad solig'iga tortishda kuchli ijtimoit siyosatga amal qiluvchi O'zbekiston Respublikasida "Jismoniy shaxslar daromad solig'i" bo'yicha "soliqqa tortishning odillik" tamoyili talabi xisobga olinmasdan ishlab chiqilganini tandid qilgan. Xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida barcha uchun barobar 12 foizli stavka qilingan va bu "odillilik" xamda "kuchli ijtimoiy siyosat" tamoyillari talablariga zid ekanligini asoslab bergan.

O'z navbatida biz xam ilgari ehop etgan maqolalarimizda Kontsepsiyaning ayrim jixatlari iqtisodiyotimizning rivojlantirishni rag'batlantirishga emas, balki unga to'siq bo'layotganini ilmiy asoslab berishga xarakat qildik.

Metodologiya va qo'llanilgan tadqiqot usullari

Yangi Soliq konsepsiyasi amal qilayotgan sharoitda kichik biznesni soliqqa tortishni takomillashtirish maqsadida maqola oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- kichik biznesning afzallik tomonlarini ochib berish;

- kichik biznesning byudjet daromadlarini to'ldirishdagi rolini ko'rsatib berish;

- kichik biznesning soliqqa tortishni takomillashtirish yo'llarini aniqlab, asoslab berish;

- kichik biznesning soliqqa tortishni takomillashtirishning iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sirini ko;rsatib berish.

Ushbu maqolada tadqiqot qilishning guruxlash, solishtirish va umumlashtirish

statistik usullaridan foydalanilgan

Olingan natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 22 avgustda tadbirkorlar bilan o'tkazgan uchrashuvida quyidagi fikrlarni bildirib o'tdi:

1. Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarga mikrobiznes, kichik biznes va o'rta biznes maqomini beruvchi kriteriy (ko'rsatkich) lar belgilab berildi.

2. Mamlakayda kichik va o'rta biznes subyektlai soni ko'paydi. Ammo son ko'payishi maxsulot ko'payishiga ta'sir qildimi yoki yo'qmi ko'rsatilmadi.

3. Barcha mamlakatlardagidek bizda xam kichik va o'rta biznes subyektlai sonini ko'paytirish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Ammo bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, maxalliy investorlarning ko'pchiligining o'rta biznts subyektlarini ochishga mablag'lari yetmaydi va ular, agar davlat kichik biznesni soliqqa tortishning xozirgi paytdagi muammolarini ijobiy xal qilib bersa, ular soni tez kopa'yadi va ishlab turganlari o'z maxsulotlarini ishlab chiqarishni keskin oshirishga erishadilar. Bu muammolarni quyida ko'rsatib o'tamiz.

Fikrimizcha, xozir amalda bo'lgan yangi Soliq Kontseptsiyasi va Soliq Kodeksi yangi matnida bir qator samarali yutuqlar bilan birga, xal qiluvchi axamiyatga ega bo'lgan, zudlik bilan tuzatish lozim bo'lgan muxim printsipial xatolar mavjud. Masalan, yuqoridagi ikkala xujjatda yirik va kichik biznes subyektlarining soliq yukining miqdorini tenglashtirish talab etiladi. Natijada, xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida qollaniladigan soliq turi biznes yuritishning maqomiga (yirik, o'rta yoki kichik) emas, balki sotilgan maxsulotning yillik aylanmasi miqdoriga bog'liq bo'lib qolmoqda (2-jadval).

2-jadval Xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yillik aylanma miqdoriga qarab qollanilaigan soliq turlari[57]

№	Yillik aylanma miqdori	Soliq turlari
1	300 million so'mgacha	Qat'iy belgilangan soliq
2	300 million so'mdan 1 milliard so'mgacha	Aylanma (oborot) solig'i
3	1 milliard so'mdan ko'p	Umumbelgilangan barcha soliqlar

[57] "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Kontseptsiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida tuzilgan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yillik aylanma (oborot) miqdori o'sgan sari qo'llaniladigan soliq turlari xam o'zgarib borayotir, ya'ni qo'llaniladigan soliq turi subyekt maqomiga qarab emas, balki fikrimizcha, bu xol to'g'ri emas, chunki:

- xattoki 3-5 kishi ishlsydigan qimmatbaxo xomashyo ishlatuvchi (zebu - ziynat buyumlari ishlab chiqaruvchi) xo'jalik yurituvchi subyekt 1 milliard so'mlik maxsulotni 1 -10 kun ichida ishlab chiqarishi mumkin;

- doimiy o'zgarib turuvchi inflyatsiya natijasida 1 milliard so'mning zalvari (qiymati) ni to'g'ri aniqlab bo'lmaydi.

Undan tashqari maxalliy` investorlarning joylarda "o'z ishlari" ni ochishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi, chunki yangi Soliq Kontseptsiyasida soliqqa tortish soxasida kichik biznesga xech qanday imtiyoz berishni ko'zda tutilmagan;

Ma'lumki, xarqanday mamlakatlar o'z iqtisodiyotini maksimal darajada rivojlantirishga xarakat qiladi, ammo O'zbekiston Respublikasida soliq turlarini qo'llashning xozirgi usuli ishlab chiqarishni tobora rivojlanib borishini rag'batlantirishga emas, balki "tormozlash" ga sabab bo'lmoqda. Natijada kichik biznes subyektlari o'z ishlab chiqarishlari xajmini ko'paytirib borishni xoxlamaydilar, chunki ishlab chiqarishning xar qanday ko'payishi soliqqa tortishning bir tizimidan soliq yuki ko'proq bo'lgan va xisob-kitob ishlari murakkabroq bo'lgan tizimiga o'tishni ko'zda tutadi (2 jadvalga qarang). Bu yerda yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqoridagi sharoitda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari aylanma (oboroti) lari miqdori oshishi natijasida miqyosi (razmeri) va ishlovchilaru soni oshmasa ham "kichik biznss subyekti" maqomini yo'qotadi.

Soliq yukini oshirmaslik maqsadida quyidagi qonunchilikda ko'zda tutilmagan faoliyat bilan shug'ullanishga, ya'ni o'z aylanma (oborot) larining xaqiqiy miqdorini turli yo'llar bilan yashirishga majbur bo'lmoqdalar:

- aylanma (oborot) ning bir qismini keyingi xisob davriga ko'chirish;

- maxsulot sotishdan tushadigan aylanmaning kassa apparati yoki bank orqali rasmiylashtirmaslik (naqd pulga sotish);

- agar xozir qat'iy belgilangan soliq to'lab turgan kichik korxona quvvati 300 million so'mdan oshib ketsa, uni quvvati 300 million so'mdan kam bo'lgan birnecha korxonalarga parchalab tashlash yo'li bilan, yoki xozir aylanmadan soliq to'lovchi quvvati 1 milliardgacha bo'lgan korxonaning quvvati 1 milliarddan oshib ketsa, bu korxona quvvatini 1 millliarddan kam bo'lgan birnecha korxonalarga parchalab tashlash yo'li bilan.

Amalda shunday usul qo'llanilganligini misol orqali isbotlab berishimiz mumkin. Statistik ma'lumotga ko'ra yangi Soliq Kontseptsiyasi kuchga kirgan 2019 yilda O'zbekiston Respublikasida 93 ming dona, ya'ni oldingi yilga nisbatan 2 baravar ko'p yangi kichik biznes subyektlari barpo etilgan. Ammo, yuqorida keltirilgan yangi korxonalarnung bir qismi yangidan qurilgan bo'lmay, balki ishlab turgan korxonalarni parchalab tashlash natijasida paydo bo'lgan. Bu fikrni isbotlash uchun quyidagi raqamlarni keltjrishimiz mumkin. Yangi Soliq Kontseptsieasi kuchga kirmagan 2018 yilda kichik tadbirkorlikning O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 56, 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda esa 54, 2 foizni tashkil etgan, ya'ni yangi tashkil kichik biznes subyektlari sonining deyarli 2 baravar o'sishi, ularning yalpi icki maxsulotdagi ulushini tegishli ravishda o'sishiga olib kelmadi, balki o'sish o'rniga 2, 7 foizga pasayishiga olib keldi. Undan tashqari 2018 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiotda barcha ishlovchilarning 77 foizini tashkil etardi, ishlab chiqarilgan barcha sanoat maxsulotining uchdan bir qismi va qishloq xo'jalik maxsulotimimg 98 foizini ishlab chiqargan edilar. 2019 yilda soxada ishlovchilar soni 2018 yilga nisbatan deyarli o'zgarmay, ya'ni kamaymagan bo'lsa xam kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 2, 7 foizga hasaygan. Bu ko'rsatkich yuqorida keltirilgan fikrimizning to'g'riligini isbotlab turibdi.

To'g'ri mamlakatimiz raxbariyati kichik biznes subyektlarini xar tomonlama qollash maqsadida turli imtiyozlar berish yo'li bilan katta yordam ko'rsatib kelmoqda, ammo bu choralar muammoni xal qiluvchi choralar bo'lmay, balki birinchidan vaqtinchalik bo'lib, ikkinchidan o'zi tobora taqchil bo'lib borayotgan davlat byudjeti axvolini yanada og'irlashtirib bormoqda.

Masalan, 2023 yil 22 avgustda mamlakatimiz Prezidentining tadbirkorlar bilan bo'lgan ochiq uchrashuvida quyidagi vaqtinchalik choralar xaqida e'lon qilingan edi:

- yillik aylanmasi (oboroti) miqdori 1 milliard so'mdan oshgandan so'ng soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tkazilgan korxonalar bir yil davomida foyda solig'ini 2 baravar kam to'laydilar;

- kichik biznesdan o'rta biznesga o'tgan korxonalar 2023 yil 1 yanvardan boshlab 2 yil davomida foyda solig'ining yarmisini to'laydilar;

- 2023 yil 1 iyuldan boshlab qurilishi o'z vaqtida tugallanmagan qurilish obyektlarining mol-mulk va foydalanilmayotgan yer uchastkalaridan olinadugan yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilinadi;

- 19 ming tadbirkorlarning ilgari oshirilgan stavkalar bilan 2 trillion so'mlik ortiqcha xisoblab chiqilgan qarz to'liq kechirib yubotildi.

Bu yerda shuni aytish lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaqtinchalik yordam choralari xozir taqchilligi juda baland bo'lgan davlat byudjetiga og'ir qo'shimcha yuk bo'lib tushmoqda.

Shu bilan birga, soliqqa tortish muammolarini xal qilishga qaratilgan bir qator ijobiy chora-tadbirlar xam qabul qilinganini ko'rsatib o'tilish lozim. Masalan:

- 2023 yil 1 yanvardan boshlab aylanma (oborot) solig'ining ilgarigi 4 dan 25 foizgacha bo'lgan stavkalar o'rniga yagona 4 foizlik stavka qo'llanishi ko'zda tutilgan;

- uzoq tumanlarda istiqomat qiluvchi va aloxida kategoriyadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizlik stavkalar saqlab qolinadi.

Fikrimizcha, iiqtisodiyotimizning yetakchi soxasi bo'lgan - kichik biznesni soliqqa tortishdagi muammolarni tubdan xal qilish uchun kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlariga chuqur axamiyat beradigan soliqqa tortish tartibini joriy qilish lozim.

Agar, tadbirkor deb maksimal foyda olish maqsadida qonunchilik tomonidan man qilinmagan biror - bir faoliyat olib boruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tushunilishiga e'tibor qilsak, xarbir tadbirkorlik subyekti maksimal foyda olish maqsadida doimiy ravishda o'z ishlab chiqarishini rivojlantirishga xarakat qiladi, ammo bunga xozir O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan Soliq Kodeksi tomonidan kichik biznes aylanmasi bo'yicha qo'yilgan cheklovlar yo'l qo'ymaydi.

Shuning uchun, agar kichik biznesni va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishni xoxlar ekanmiz, xo'jalik yurituvchi subyektlarga "kichik biznes subyekti" maqomini beruvchi kriteriy sifatida faqat "ishlovchilar soni" ko'rsatkichining o'zini saqlab qoldirib, ikkinchi ko'rsatkichni, ya'ni ishlab chiqarilgan "aylanma miqdori" ko'rsatkichini olib tashlash lozimligini taklif etamiz. Shunda kichik biznes subyekti surunkali ravishda o'z ishlab chiqarishining miq'yosiini tobora kengaytirib borishga, ya'ni xarqanday aylanmadan cheklovlarsiz rivojlanishga intiladi. Bu esa iqtisodiyotimiz yuksalishini tezlashtirishga va axolimiz farovonligi oshirishga muxim asos bo'ladi. Bunday ishonch bilan aytishimga ishonchli asos bor. Xozir amalda bo'lgan Soliq Kontseptsiyasi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan Kontseptsiyada faoliyat yurituvchi subyektlar 2 xil maqomga, ya'ni "biznes" va "kichik biznes" ga bo'linar edi. O'sha paytda kichik biznes subyektlari faqat bitta "yagona soliq to'lovi"ni to'lar edilar va maxsulot miqdori xarqancha oshsa xam boshqa soliq tizimiga o'tmas

edilar. Shunday qilib aytish mumkinki, yuqoridagi kichik biznes subyektining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga oluvchi yagona soliq to'lovini qo'llash natijasida kichik biznes subyektlarining soni jadal sur'atlar bilan o'sdi va ularning byudjet daromadlaridagi ulushi nol foizdan 2018 yilda 56, 2 foizgacha ko'tarildi (xozir 52, 6 foiz). Xozirgi sharoitda kichik biznes subyektlari aylanma miqdori 1 milliardgacha bo'lgan xolda aylama solig'i to'laydilar. O'z navbatida aytish lozimki, yagona soliq to'lovi xam aylanma (oborot) dan soiig'i to'lar edilar.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, xozirgi sharoitda kichik biznes subyektlari uchun qo'llaniladigan soliq turi ayianma miqdoriga qarab o'zgarmasligi lozim. Shunda biznes maqomlari soni 3 tadan 2 taga, ya'ni "biznes" va "kichik biznes" maqomlariga bo'linadi va "o'rta biznes" maqomiga xojat qolmaydi.

Shunday qilib, qo'llaniladigan soliq turlarini tanlash aylanma miqdoriga qarab emas, balki biznes maqomiga qarab tanlanishi lozim, ya'ni kichik biznes subyektlari uchun aylanma miqdoridan qat'iy nazar faqat aylanma solig'i to'lashlari lozim. Shunday bo'lganda qo'llanilgan soliq turi iqtisodiyotimiz rivojlanishiga to'sqinlikdan rag'batlantiruvchi omilga aylanadi va iqtisodiyotimizning yuksalishiga xamda xalqimiz farovonligining oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. A. Raxmatullayev. Soliqqa tortish tamoyillari. -T. : Innovatsion rivojlanish nashriyo-matbaa uyi. -228 b. 2021 y.

2. Vahobov. A. V, Jo`rayev. A. S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T. : Iqtisodiyot - Moliya. 2019.

3. Xudoyqulov S. Soliq nazariyasi. Darslik. T: Iqtisodiyot. 2019. -320 b.

4. Niyazmetov I. M. Soliq tizimi. T: Akademiya. 2018. -162 b.

5. A. Mutalov, D. Mytalova. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. T. : Iqtisodiyot, 2013

Axborot manbalari

1. www. gov. uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

2. www. mf. uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

3. www. soliq. uz– O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti

4. www. stat. uz – O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo’mitasining rasmiy sayti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes tushunchasi, uning afzalliklari, davlat byudjetini shakllantirishdagi roli, uning yangi Soliq Konsepsiyasi joriy qilingandan keyin kichik biznes rivojlanish o’rniga orqaga ketib qoldi va uning byudjet daromadlaridagi ulushi 2018 yildagi 56, 2 dan 2020 yilda 52, 6 foizgacha pasayib ketdi. Soliqlar iqtisodiyot rivojlanishini cheklashi emas, balki rag’batlantirishi lozimligini etiborga olib, shu muammoni yechishdagi cheklashlarni olib tashlash lozimligi asoslab berilgan. Buning uchun xo’jalik yurituvchi subyektlarga kichik biznes subyekti maqomini berish uchun qollaniladigan hozir qo’llanilayotgan “ishlovchilar soni” va “yillik aylanma (оборот)” kriteriylardan faqat “ishlovchilar soni” ko’rsatkichini qoldirish lozimligi asoslab berilgan.

EXTENDED ABSTRACT

2. OTURUM

CURRENT CHANGES IN THE FIELD OF TOURISM AND MODERN TRANSPORTATION FEATURES THAT HAVE A POSITIVE EFFECT ON TOURIST MOTIVATION: CASE STUDY OF INTERNATIONAL TOURISTS WHO ARE TRAVELLING TO TASHKENT, UZBEKISTAN

Doctor of philosophy in geography Muhammadismoil MAXMUDOV

Dostonbek TILOVMURODOV

TURIZM SOHASIDAGI HOZIRGI O'ZGARISHLAR VA TURISTIK MOTIVATSIYAGA IJOBIY TA'SIR KO'RSATADIGAN ZAMONAVIY TRANSPORT XUSUSIYATLARI: TOSHKENT, O'ZBEKISTONGA SAYOHAT QILAYOTGAN XALQARO SAYYOHLARNING AMALIY TADQIQOTLARI

geografiya fanlar doktori Muhammadismoil MAXMUDOV

Xalqaro turizm fakulteti o‘qituvchisi Dostonbek TILOVMURODOV

Annotatsiya

Global iqtisodiy yaxshilanish sharoitida mahalliy va xorijiy yo‘nalishlarga sayohat qilish global iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shayotgan edi. Bu bir necha yil oldin turizm industriyasidagi rivojlanish holati tadqiq qilingan; ammo turizmning qiyofasi COVID-19 pandemiyasi tomonidan keskin o‘zgartirildi, xususan turizm sanoati mahalliy iqtisodiyotga, odamlarning turmush tarziga, davlat va xususiy xizmatlarga, transportga va boshqa ko‘plab jamiyat imkoniyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan eng katta zararlardan biri bo‘ldi. Bu guruh sayohatining tugashiga olib keldi shuningdek sayyohlar uchun faqat ichki va tashqi motivatsiya asosida yakka tartibda sayohat qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, turizm sohasi mutaxassislari turizm mahsus turlarining mahsulotlarini (TMTm) ishlab chiqishni va yangi transport turlarini sinab ko‘rishni boshladilar. Shu orqali, sayyohlik bozori o‘z yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytirishga olib keldi va turizm sektorida O‘zbekiston iqtisodiyotiga hissa qo‘shayotgan eng muhim o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Hozirgi dunyoda rivojlanayotgan mamlakatlarda tur, muqobil yo‘nalishlar va transport vositalarini individual tanlash o‘sib bormoqda. Bu zamonaviy transport xususiyatlari va jamoat tranzitiga qo'shimcha qoshimcha imkonyatlar kelitirb chiqarishiga olib kelmoqda, bu esa turistlarni qabul qiluvchi mamlakatning transport infratuzilmasi imkoniyatlarini baholashda hisobga olinishi kerak bo‘lgan omillardan biri bo‘lib. Turistik xulq-atvorni tushunish turizm motivini tushunishni orqali

olib boriladi. Turtki va tortish motive faktorlari turli senariylarda turistik motivatsiyani tushunish uchun oddiy asosni taklif qilib turtki-tortish motive faktorlari turizmda kamdan-kam hollarda sifat parameter taqiqi tarzda sinovdan o'tgan. Ushbu keys tadqiqotining maqsadi turizm industriyasidagi COVID-19 pandemiyasidan keyingi oʻzgarishlarni va Oʻzbekistonga sayohat qilayotgan turistlarning motivatsiyasiga ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi transportning zamonaviy xususiyatlarini oʻrganish va tadqiqotdaOʻzbekistonning Toshkent shahriga tashrif buyurgan 20 nafar xorijiy turistlarning intervyusidan maʼlumot toʻplash uchun sifat parametrlarini oʻrganish tadqiqot usulidan foydalanildi.

Kalit soʻzlar: turizmdagi oʻzgarishlar, turizm sanoati, turizmda transport xususiyatlari, turist motivatsiyasi, xalqaro turist, sayohat

Abstract

3. Madaniy merosni saqlash: mas’uliyatli turizm mahalliy jamoalarning madaniy merosi va an’analarini hurmat qiladi va saqlashga intiladi. Bu tarixiy va madaniy obyektlarni, diqqatga sazovor joylarni, hunarmandchilik va xalq urf-odatlarini saqlash va targ‘ib qilishga hissa qo‘shadi.

4. Madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish: mas'uliyatli turizm sayyohlar va mahalliy aholining o'zaro ta'siri orqali o'zaro hurmat, bag'rikenglik va madaniyatlararo aloqalarni rivojlantiradi. Bu turli madaniyatlar o'rtasida bilim, tajriba va qadriyatlar almashinuvini rag'batlantiradi.

5. Mas'uliyatli turizm global muammolarni hal qilish vositasiga aylanish imkoniyatiga ega, chunki u barqaror rivojlanish, tabiat va madaniy merosni asrab-avaylash, shuningdek, madaniyatlararo muloqot va hamkorlik uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi.

Mas'uliyatli turizm davlat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sayyohlar mamlakatga tashrif buyurganida, ular mehmonxonalar, restoranlar, transport va ekskursiyalar kabi turli xil tovarlar va xizmatlarga pul sarflashadi, bo'sh ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

Bundan tashqari, mas'uliyatli turizm mamlakatning tabiiy boyliklari va madaniy merosini saqlashga hissa qo'shishi mumkin, bu esa o'z navbatida ko'proq sayyohlarni jalb qilishi va turizm daromadlarini oshirishi mumkin. Ammo mas'uliyatli turizm tamoyillariga rioya qilinmasa, bu iqtisodiyot uchun atrof-muhitga zarar yetkazish va xizmatlar sifatining yomonlashishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatdagi mas'uliyatli turizm turizm sanoatining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan va atrof-muhitga, madaniy merosga va mahalliy aholiga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni va amalga oshirilishini nazarda tutadi. Mas'uliyatli turizmni turli yo'nalishlarda qay darajada turizmni barqarorligiga ta'sir qilish mumkinligini kuzatish mumkin.

Tabiiy resurslarni tejash sohasida: sanoat obyektlari va mehmonxonalar energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanishi, shuningdek suv va elektr energiyasini iste'mol qilishni kamaytirishi mumkin. Sayyohlar ekologik xatti-harakatlar zarurligini ham bilishlari mumkin, masalan, qo'riqxonalarga axlat tashlamaslik.

Madaniy merosni saqlash sohasida: mahalliy madaniyat va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish, masalan, an'anaviy bozorlarga tashrif buyurish yoki mahorat darslarida qatnashish orqali. Sayyohlar mahalliy urf-odatlar va an'analarga hurmat ko'rsatishlari kerak.

Mahalliy aholining ishtiroki sohasida: mahalliy aholiga turizm sohasida imkoniyatlar yaratish, masalan, mehmonxonalarda ishlash yoki

ekskursiya gidlari bilan ta'minlash. Bu turizm daromadlarini teng taqsimlashga yordam beradi.

Ijtimoiy javobgarlik sohasida: mahalliy jamoalardagi ijtimoiy loyihalar va xayriya tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, masalan, xayr-ehson yoki ko'ngilli sifatida ishlash orqali.

Mas'uliyatli turizmni joriy etish mamlakatda turizm sanoatini rivojlantirishga, ko'proq sayyohlarni jalb qilishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

Mas'uliyatli turizmni rivojlantirish zamonaviy turizm sanoatida muhim yo'nalish hisoblanadi. Mas'uliyatli turizmni rivojlantirishga quyidagi bir necha omillar ta'sir etadi:

- ta'lim va xabardorlik: sayyohlar, sayyohlik kompaniyalari va mahalliy jamoalarning mas'uliyatli turizm tamoyillari va uning afzalliklari to'g'risida xabardorligini oshirish soha rivojlanishining asosiy omilidir. Bu jarayonda ta'lim dasturlari, treninglar va axborot kampaniyalari yordam berishi mumkin.

- hamkorlik va sheriklik: mas'uliyatli turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan hukumat, sayyohlik tashkilotlari, mahalliy aholi va nodavlat tashkilotlarning hamkorligini talab qiladi. Hamkorlik umumiy maqsadlarga erishish uchun kuch va resurslarni birlashtirishga imkon beradi.

- boshqarish me'yorlari va standartlarni ishlab chiqish: mas'uliyatli turizmni rivojlantirish tegishli siyosat, qoidalar va standartlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi. Bunga sayyohlar uchun xulq-atvor kodekslarini ishlab chiqish, mehmonxonalar va turistik kompaniyalarni sertifikatlash, shuningdek boshqarish va nazorat mexanizmlarini yaratish kiradi.

- infratuzilma va resurslar: mas'uliyatli turizmni rivojlantirish tegishli infratuzilma va resurslarni rivojlantirishga sarmoya kiritishni talab qiladi. Bunga ekologik barqaror turar joylarni yaratish, jamoat transportini rivojlantirish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish kiradi.

- rag'batlantirish va marketing: mas'uliyatli turizmni samarali targ'ib qilish barqaror amaliyotni qadrlaydigan ko'proq sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi. Marketing kampaniyalari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, reklama kabi vositalar xabardorlikni oshirish va mas'uliyatli turizmga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi.

Mas’uliyatli turizmni rivojlantirish birgalikdagi sa’y-harakatlarni va uzoq muddatli rejalashtirishni talab qiladi shuningdek, turizm sohasi va mahalliy aholi uchun barqaror va qulay muhit yaratishga imkon beradi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, mamlakat milliy iqtisodiyotida mas’uliyatli turizm alohida o‘ringa ega va bu yo‘nalishni rivojlanishi turizmning barqaror rivojlanishiga olib kelishini ta’kidlash mumkin. Turizm sohasi nafaqat sayyohlarning farovonligiga, balki boradigan mamlakatdagi atrof-muhit, jamiyat va iqtisodiyotining farovonligiga ham bog‘liq. Agar turistik maskanlar sayyohlar uchun o‘z jozibadorligini yo‘qotsa, kompaniya uchun noqulay vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin yoki moliyaviy yo‘qotishlarga ham olib kelishi mumkin.

Mas’uliyatli turizm barqaror rivojlanishning uchta ustunini, ya’ni atrof-muhit, mahalliy jamoa va iqtisodiyotni hisobga oladigan barqaror turizm yo‘nalishi bo‘yicha barcha manfaatdor tomonlarning harakatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu turizm manfaatdor tomonlar o‘rtasida kuchli birlashtiruvchi vosita bo‘lib kelgan va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish yo‘llaridan biri sifatida qaraladi. Mas’uliyatli turizmning tajribasidan ko‘rish mumkinki, bu mahalliy jamoalarga maksimal foyda keltiradi va mahalliy aholiga o‘z madaniyati va yashash joylarini tabiiy holatda saqlashga yordam beradi

Turizmni barqaror rivojlantirish barcha tegishli manfaatdor tomonlarning keng ishtirokini va o‘zaro konsensusga erishishini ta’minlash uchun kuchli siyosiy yetakchilikni talab qiladi. Mas’uliyatli turizmga erishish – bu turizmni barqaror rivojlanishini doimiy nazorat qilishni va kerak bo‘lganda zarur tuzatish choralarini ko‘rishni talab qiladigan doimiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Sanjana Mondal & Kaushik Samaddar. Responsible tourism towards sustainable development: literature reviyew and research agenda. Asia Pacific Business Reviyew, DOI: 10. 1080/13602381. 2021. 1857963

T. N. Prokopes. Otvetstvenniy turizm kak sposob resheniya globalnix problem chelovechestva. Jurnal Turizm i gostepriimstvo. ISSN 2410-3810. 2022. № 1

Ye. N. Trofimov. Otvetstvenniy turizm: noviy vzglyad na podgotovku kadrov. 2019 g. otvetstvennyy-turizm-novyy-vzglyad-na-podgotovku-kadrov. pdf

Keyptaunskaya deklaratsiya (2015) [Elektronniy resurs] / International Federation of Library Associations and Institutions. – Rejim dostupa: https://cdn. ifla. org/wp-content/uploads/2019/05/assets/wlic/2015/documents/cape-town-declaration-of-ministers-ru. pdf.

Tanja Mihalic. Sustainable-responsible tourism discourse – Towards 'responsustable' tourism. Journal of Cleaner Production Volume 111, Part B, 16 January 2016, Pages 461-470

Nezdoyminov S. G. Ekologizatsiya turizma kak faktor ustoychivogo razvitiya turistskix regionov. Regionalnie issledovaniya No1 (43), str: 133-139. 2014.

Hamidov O. X. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2017. - 67 b.

EXTENDED ABSTRACT

RESPONSIBLE TOURISM AS A FACTOR OF TOURISM DEVELOPMENT

Currently, significant changes in the tourist business are taking place, and new forms of tourism are emerging. Tourism has several beneficial and bad effects on society and areas. Responsible tourism is one of the new tourist development paths that has been presented as a strategy to maximize the beneficial impacts of tourism while minimizing the negative consequences. The essential components and concepts of responsible tourism are examined in this article. It should be mentioned that a new approach to tourism aims to preserve the environment, human habitats, tourist sites, and historical monuments, as well as to give tourism features of sustainability and durability. It is stressed in responsible tourism that travelers, tourism enterprises, hotels, the state, local inhabitants, and other tourism-related parties are accountable for the growth of the tourism sector. Tourist’s contributions to responsible tourism have a specific place in the literature, nevertheless they are typically viewed as part of the issue rather than part of the solution. This essay also addresses visitor behavior and seeks to explain what determines or limits appropriate recreation activity. The paper also examines effective communication and visitor behavior research. The author provides broad definitions of responsible tourism and responsible visitors in the article. Researchers have identified several tourist behaviors throughout their journey, including values and attitudes; ethics

and motivation; marketing; visitor management; information and communication. In general, responsible tourism seeks to increase the good influence of tourism on host communities by fostering mutually advantageous social conditions, avoiding environmental harm, and caring for and supporting people and their cultures. These criteria are guidelines that can be followed throughout the formation stage of a tourism-related organizations. As a result of the development of market relations and cooperative relations, favorable conditions are created for the development of the tourism sector, the importance of the tourism sector in the economy of the countries is increasing. The tourism sector serves to provide the necessary currency income for the country's treasury, to create new jobs and, at the same time, to raise the standard of living of the population.

In today's new scientific and technological revolution, as well as the development of society and the world economy, in the process of overpopulation of the planet, the responsibility of people, society and the state to protect the environment is increasing more than ever.

It can be observed that the tourism sector is developing rapidly, as a result, the flow of tourists around the world is increasing, the transport system is being improved, the hospitality system is being improved, but the increase in the number of tourist destinations is not keeping up with this process, the problem of overloading leisure and tourism facilities appears. And it is important to consider this factor.

Tourism has changed the way people see the world, and tour operators are making hard-to-reach areas of the world accessible to tourists, allowing local people to showcase their culture and traditions, and bringing economic benefits to regions with limited resources. contribute to the development of their regions. The World Tourism Market adopted the Cape Town Declaration (Cape Town Declaration 2015) on the occasion of the World Responsible Tourism Day, which calls on the representatives of the tourism industry to take responsibility and demonstrate their responsibility in order to make tourism more sustainable.

Responsible tourism is the use of tourism to create better places for people to live and better places for people to visit. At the same time, responsible tourism requires tour operators, hotel companies, governments, local residents and tourists to take responsibility and take measures to make tourism more sustainable.

This type of tourism allows tourists to visit a place that offers unique culture, heritage and history. Tourists visit destinations of their choice to

learn about and learn about the culture of local communities. This type of experience can include participating in events and festivals that are important for local communities to experience different cultures.

In the research, the methodology of taking into account the innovative changes expected in the coming years and studying the sustainable development of tourism as a single system in determining the development of responsible tourism is used. and a method of determining the directions of development of the components of the tourism industry through methods such as comparative analysis is proposed.

O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Katta o‘qituvchi Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich

“Alfraganus university”
fayzula2023@mail.ru

Annotatsiya

Ijtimoiy hayotga XXI asr axborotlar asri bo‘lib kirib keldi. Mamlakatlar o‘rtasida axborotlar almashinuvi yuqori darajada tezlashti, iqtisodiy rivojlanish oxirgi yigirma yillikda oldingi yillarga qaraganda bir necha bor tezlashti. Bunday tezlikda rivojlanish turizm sohasini ham chetta qoldirmadi. Turizm sohasida texnologik innovatsiyalarni qo‘llash orqali etakchi mamlakatlar yuqori darajada daromad olishmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida turoperator tashkilotlari bir biri bilan o‘zaro integratsiyalashuvsiz hech qanday rivojlanishga erish olmaydi. Mamlakatimizda turistik imkoniyatlarni kengaytirishda turoperator tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida bo‘lgani kabi turizm sohasida ham etakchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda jahondagi keskin o‘zgarishlarga moslasha oladigan zamonaviy turizm sohasini rivojlantirishda xususiy tashkilotlar sub’ektlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday islohatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, dunyo mamlakatlari bilan mustaqil yurtimiz o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda rivojlangan turizm sohasidan samarali foydalanishdir. Ushbu keys tadqiqotining maqsadi mamlakatimiz turizmi sohasidagi o‘zgarishlarni hamda tashrif buyurayotgan turistlarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi turoperatorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan turistik firmalarning zamonaviy faoliyatlarini o‘rganish va tadqiqotda mamlakatimizga tashrif buyurgan 30 nafar xorijiy turistlarning intervyularidan ma’lumot to‘plash uchun sifat parametrlarini o‘rganish tadqiqot usulidan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: turoperator, turagent, turmarshrut, turistik resurslar, joylashtirish ob’ektlari, transport xususiyatlari, motivatsiya, turist, sayohat

USING THE EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN ORGANIZING TOUR OPERATOR ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

Fayzullo Sadulayevich

"Alfraganus university",
fayzula2023@mail.ru

Abstract

The 21st century is known as age of information to the social life. The exchange of information between countries has accelerated significantly. Over the last two decades, development has been several times more rapid than in previous years. The industry of tourism has not been left behind by such rapid development. Developed countries and earn a lot of money by using technical improvements in the sphere of tourism. Tour operator organizations cannot progress in today's globalized world unless they collaborate with one another. The growth of tour operator classes is critical to developing tourism prospects in our country, as well as in other areas of the economy. Private organization themes are vitally significant in the establishment of a contemporary tourist sector in Uzbekistan that is capable of adapting to rapid changes in the globe. The goal of such changes is to make better use of the established tourist industry in order to stabilize mutual socioeconomic connections between countries across the world and our country. The primary objective of this case is to investigate changes in our country's tourism industry as well as the present operations of travel organizations involved in tour operator activities that positively impact the motivation of visiting visitors. Using a qualitative parametric research approach, the study collected data from interviews with 30 international visitors who visited our country.

Key words: tour operator, travel agent, product itinerary, tourism resources, accommodation facilities, transport features, motivation, tourist, travel

KIRISH

Ijtimoiy hayotga XXI asr axborotlar asri bo'lib kirib keldi. Mamlakatlar o'rtasida axborotlar almashinuvi yuqori darajada tezlashdi, iqtisodiy rivojlanish oxirgi yigirma yillikda oldingi yillarga qaraganda bir necha bor

tezlashdi. Bunday tezlikda rivojlanish turizm sohasini ham chetlab o'tmadi. Turizm sohasida texnologik innovatsiyalarni qo'llash orqali etakchi mamlakatlar yuqori darajada daromad olishmoqda. Keng miqyosda internet tizimining rivojlanish bilan birga nafaqat tirizm biznesida ishtirok etuvchi turistik tashkilotlarning o'rni va roli, balki ular o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarida xo'jalik yuritishning butun falsafasi – turizm marketingi qayta ko'rib chiqilmoqda, butunjahon axborot tizimining ananaviy marketing usullarini samarasiz qilib qo'ymoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan marketologlar yangi elektron aloqa vositalari imkoniyatlaridan to'la qonli foydalanishni istasalar tarmoqning ushbu xususiyatlarini e'tiborga olishlari zarur.

Hozirgi globallashuv sharoitida turoperator tashkilotlari bir biri bilan o'zaro integratsiyalashuvsiz hech qanday rivojlanishga erisha olmaydi. Turizm sohasida faoliyat olib borayotgan turistik biznes syb'ektlari ham bir biri bilan o'zaro aloqalarda bo'lishlari turizn industriyasining istiqbolli rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda turistik imkoniyatlarni kengaytirishda turoperator tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida bo'lgani kabi turizm sohasida ham etakchi ro'l o'ynaydi. O'zbekistonda jahondagi keskin o'zgarishlarga moslasha oladigan zamonaviy turizm sohasinirivojlantirishda xususiy tashkilotlar sub'ektlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, dunyo mamlakatlari bilan mustaqqil yurtimiz o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda rivojlangan turizm sohasidan samarali foydalanishdir. O'z o'zidan ma'lumku, takomillashgan turizm sohasini samarali tashkil etish va rivojlantirishning asosi turoperatorlik tashkilotlari aloqalarining qay darajada rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Turoperator tashkilotlari o'rtasidagi aloqalar o'z rivojini topsa, tabiiy ravishda raqobat muhiti shakllanadi, bu esa, *birinchidan*, mamlakatimizda mavjud turizm imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, *ikkinchidan*, tashkilotlar o'rtasida turistlar oqimiga xizmat ko'rsatish borasida o'ziga xos raqobat muhitining shakllanishi natijasida sifatli xizmatlar ko'rsatilishi, *uchinchidan*, aholining katta qismini turistlarga bevosita va bilvosita xizmat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lish va boshqa shu kabi omillarga olib keladi. Umuman olganda, turizm sohasini rivojlantirishda turoperatorlar faoliyatini tashkil etish va

takomillashtirishning asosini kichik va xususiy biznes sub'ektlari tashkil etadi[59].

METODOLOGIYA

Maqolada respublikamizda hamda jaxon turizmidagi turoperatorlar faoliyatining mavjud va potentsial imkoniyatlari tahlil qilindi. Mavjud adabiyotlarni o'rganib, muvaffaqiyatli ozgarishlar va turizm biznesi tendentsiyalari misollari keltirildi. Globallashuv sharoitida turoperarorlik biznesining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlanib takliflar berildi. Insonlarning xohish-istaklarining o'zgarishi, texnologik taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar kabi omillar turimga ta'sir qilishi mumkinligini aniqlandi. Turizmda turopereator va turagentlik faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'rganib chiqildi. Turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqaror turizmni rivojlantirish va boshqalar kabi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1975 yildan boshlab Evropadagi turoperatorlar katta hajmdagi turmarshrut ishlab chiqish faoliyatini turagentlarga berib, o'zlari esa ushbu marshrutlarni ayrboshlashga o'tishdi. Dunyoda turoperatorlarning faoliyatiga ikkita omil ta'sir qiladi va natijada taraqqiyot cho'qqisiga erishadi. Birinchisi, an'anaviy turoperatorlar faoliyatining tushunilish va salohiyatining oshishi bilan firma kengaydi, hamda turoperator darajasiga erishdi. Turoperator turmarshrutni rejalashtirish, ishlab chiqish, buyurtma berish, hisob kitoblarni amalga oshirish kabi faoliyatni yuritadi. Ayirboshlash masalasi turoperatorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri turistlarga taqdim etiladi. Masalan, Angliyada turoperatorlar tomonidan ishlab chiqilgan turmarshrutlarning 85 % i chakana savdo qiluvchi turagentlar vositachiligida sotiladi. Angliyada xorijliklar uchun turistik ob'ektlarni namoyish qilish keng yo'lga qo'yilgan. Ular o'zlarining milliy an'ana va tarixiy ob'ektlarini xorijiy turistlarga reklama va targ'ibot qilishda eng yuqori darajaga erishganlar. Bizning respublikamizda ham ana shunday ob'ektlar Angliyadagiga qaraganda ko'proq joylashgan, lekin ularni keng ommaga targ'ib qilishda turoperator va turagent ro'lini bajaruvchi tashkilotlar etarli darajada faoliyat olib borishmayapti.

Maqola mavzusiga oid bir qancha mualliflarning turoperatorlik biznesini rivojlantirishda innovatsion tendentsiyalar muhim o'rni va

[59] Muallifning ilmiy izlanish tahlili.

turizmda mijoz tanlashda axborot texnologiyalarining rolini o‘rganlib, sohaga oid ma`lumotlardan foydalanildi.

NATIJALAR

Turoperatorlar turagentlarga qaraganda farqli tartib qoida va faoliyat dasturiga ega bo‘ladi. Turoperatorning faoliyat dasturi 2-2, 5 yil davomida ishlab chiqilib, keyin hayotga tadbiq etiladi. Chunki turoperatorlar bir tomondan turmahsulotlar ishlab chiqruvchi korxonalarni topib, ular bilan kerakli bo‘lgan shartnomalarni tuzib, turmarshrutlar ishlab chiqish vazifasi tursa, ikkinci tomondan esa turmarshrutlarni sotib oluvchi doimiy iste’molchiga guruhlarni aniqlash vazifasi qo’yiladi.

Turagentlar turizm, sayohat, mehmonxona, rekreatsiya va boshqa xizmat industriyasi tomonidan ishlab chiqarilgan turmahsulot, turizmda foydalaniladigan texnik vositalarni va xizmatlarni mamlakat turizmiga va iqtisodiyotiga uyg‘unlashtirib, iste’molchining moliyaviy ahvolidan, an’analaridan kelib chiqqan holda dasturlash, ularni taqdim etuvchi va realizatsiya (ayirboshlash) qiluvchi turistik korxonadir. Turagentlar turistlarga tijorat maqsadida avtomobil transporti, dengiz va havo yo‘llarining biletlarini sotish, avtomobil, avtobus, mikroavtobus, yaxtalar kabi vositalarni ijaraga berish kabi xizmatlarni ham amalga oshiradilar.

O‘zbekiston turizmining 2020-2023 yillardagi iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, (1-jadval) ushbu sohada kichik va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining sezilarli ta’siri bo‘layotganligining guvohi bo‘lamiz. 2020 yil (pandemiya sharoiti tufayli) mamlakatimiz bo‘ylab sayohat qilgan jami turistlarning soni 4 mln 700 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 16 mln 700 ming kishini, 2023 yilning yarim yilligida 3 mln 700 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar soni yildan yilga oshib bormoqda.

1-jadval

O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlaroqimi

			834 (6 ойда)

Manba: Statistika agenligi, 2023

2022 yilda O‘zbekistonga sayyohlar asosan Qozog‘iston (1551, 1 ming kishi, 2017 yilda 1783, 8 ming kishi), Tojikiston (1447, 8 ming kishi, 2017 yildagiga nisbatan 5, 5 barobar ko‘p) va Qirg‘iziston (1356, 9 ming kishi, 2017-yildagiga nisbatan 3, 6 barobar ko‘p) dan kelgan.

Xorijlik sayyohlarning asosiy qismi, aniqrog‘i 89, 1 foizi O‘zbekistonga o‘z qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida kelgan. Ularning aksariyati Qozog‘iston (31, 8%), Qirg‘iziston (29, 2%) va Tojikiston (27, 9%) fuqarolaridir. Dam olish va hordiq chiqarish maqsadida O‘zbekistonga eng ko‘p chet ellik fuqarolar Rossiya (37, 6%), Qozog‘iston (11, 2%) va Turkiyadan (6, 3%) kelgan. Ma’lumot uchun: Dunyodagi 91 ta mamlakat fuqarolari O‘zbekistonga kelish uchun vizasiz tartibdan foydalanishi mumkin. Taqqoslaydigan bo‘lsak, Qozog‘istonga 26 ta, Turkiyaga 41 ta, Gruziyaga esa 56 ta mamlakat fuqarolari vizasiz kela oladi.

2022 yilda O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 2021 yildagiga nisbatan 3, 4 million kishiga ko‘p bo‘ldi va o‘sish 2, 8 barobardan ham ortiqni tashkil etdi. Buning natijasida turizm xizmatlari eksporti sezilarli darajada oshdi. 2017 yilda turizm xizmatlari eksporti 546, 9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 2, 9 barobar oshib, 1610, 5 million dollarni tashkil etdi[60].

O‘zbekistonga 2023 yilning yanvar—iyul oylarida jami 3, 7 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurdi. Qayd etilishicha, O‘zbekistonga 7 oyda eng ko‘p Tojikiston fuqarolari turistik maqsadda tashrif buyurgan — 1 million 151, 4 ming nafar. Undan keyingi o‘rinda Qirg‘iziston (912, 8 ming) va Qozog‘iston (879 ming) turibdi. Shuningdek, quyidagi davlatlardan ham mamlakatga xorij fuqarolari turistik maqsadda kelgan:

[60] Statistika agentligi. 2023

Rossiya — 417, 4 ming nafar;

Turkiya — 58 ming nafar;

Turkmaniston — 39, 6 ming nafar;

Janubiy Koreya — 20, 2 ming nafar;

Hindiston — 20 ming nafar;

Xitoy — 17, 7 ming nafar;

Germaniya — 14, 1 ming nafar.

Hisob-kitoblarga koʻra, 2019 yilda respublikaga kirib kelgan sayyohlar soni 2016 yilga nisbatan 3, 3 baravarga oshgan. Oʻsha yili qariyb 6, 7 million nafar turist Oʻzbekistonda sayohat qilgan. Buning natijasida 1, 6 milliard dollarlik turistik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan. Mazkur koʻrsatkich 2016 yilda 430, 7 million dollarga teng boʻlgan.

2020 yilda mamlakatga 7 million nafardan ortiq xorijiy sayyoh tashrifi kutilgandi. Biroq ogʻir pandemiya sharoitida barcha sohalar qatori turizm ham qattiq zarbaga uchradi, sayyohlar soni sezilarli darajaga kamaydi. Ya'ni 2020 yilda respublikaga 1, 5 million nafar sayyoh kelgan, 261 million dollarlik turizm xizmatlari eksport qilingan.

Umuman olganda mamlakatimiz turizmi rivojlanishida xususiy, ya'ni asosan kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga nihoyatda muhim e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Mamlakatamiz turizmida xususiy mulkchilik salmogiʻni oshirish borasida olib borilayotgan islohatlardan koʻrinib turganidek, yaqin kelajakda bu borada faoliyat koʻrsatayotgan biznes sub'ektlarining salmogʻi yanada ortib bormoqda. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, xususiy turistik tashkilotlarning mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiga koʻrsatayotgan ijobiy ta'siriga xalaqit beruvchi bir qancha muammolar mavjud boʻlib, ular hukumatimiz tomonidan asta sekinlik bilan bartaraf etib borilmoqda. Turizm sohasida zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarning etishmasligi, ish faoliyatiga mahalliy organ vakillarining aralashuvi, turistlarni ehtiyoji boʻlgan koʻplab turistik mahsulotlarni etishtirish borasidagi tadbirkorlik etishmasligi, ayrim turistik korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari etarli darajada emasligi va boshqa shu kabi muammolarni hal etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab oʻtganimizdek, turizm sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar bevosita va bilvosita guruhlarga ajratiladi. *Bevosita* tadbirkorlik sub'ektlari turizm sohasiga toʻgʻridan toʻgʻri aloqasi boʻlgan har xil turistik sayohatlarni uyushtiruvchi

agentliklar, turizm operatorlari, xususiy mehmonxonalar, kempinglar, sanatiriyalar va pansionatlar, xususiy ijara uylari hamda turistik xizmat koʻrsatuvchi barcha tashkilotlarni oʻz ichiga oladi. *Bilvosita* tadbirkorlik sub'ektlari esa, mamlakatimiz ichki bozorlarida xorijiy turistlar ehtiyojini qondiradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tashkilotlarni oʻz ichiga oladi.

Ma'lumki, Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining koʻplab tarixiy qadamjolari va ziyoratgohlari, koʻhna va navqiron buyuk shaharlari bilan birga goʻzal va xushmanzara tabiyati, serjilo daryolari va koʻplab koʻllari, ajoyib hayvonot olami, dashtu-choʻllari, bepayon tekisliklari-yu togʻu toshlari, oʻrmonzorlari kabi boyliklariga egadir. Hozirgi kunda mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning sayohatlarini tashkil etish borasida faoliyat koʻrsatayotgan turistik agentliklar oʻz faoliyatini mana shunday turizm resurslari hisobidan kengaytirishga harakat qilishmoqda. Biroq bu borada turistik agentliklar bilan boshqa shu sohaga taalluqli korxonalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning zamon talablariga mos ravishda shakllanmaganligi natijasida koʻplab toʻsiqlarga duch kelinmoqda. Buning uchun, *birinchidan*, marketing tadqiqotlarini amalga oshiradigan kichik xususiy korxonalar bilan turistik agentliklar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni qaror toptirish kerak. Turistik firma va agentlikar yangi tashkil etilganligi bois ularga xizmat koʻrsatuvchi personal miqdorining kamligi va bundan tashqari tajribali marketologlarning etishmasligi tufayli ular turistlarning qanday turmahsulotlarga ehtiyoji borligini, shuningdek, ushbu turmahsulotlarni reklama qilish borasidagi muammolarga duch kelishmoqda. *Ikkinchidan*, turfirma va agentliklar bilan dam olish sanatoriyalari, mehmonxonalar hamda kempenglar bilan bevosita aloqa oʻrnatilishi kerak.

Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatinizga bir kunda tashrif buyuradigan turistlarning oʻrtacha yigirmadan bir qismi qimmat narxdagi mehmonxonalar xizmatidan, koʻpchiligi esa, uch yulduzli mehmonxonalar xizmatidan foydalanish istagini bildirishgan. Toshkent shahri bunday xizmatlar tizimini turistlarga taklif etishi mumkun, biroq, poytaxtdan uzoqda joylashgan koʻplab hududlarda, ayniqsa, Termiz Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijonda faoliyat koʻrsatayotgan davlat mehmonxonalari hali ham asosiy turistik oqimlarni oʻzlariga jalb eta olishmayapti. Chunki bunday mehmonxonalar xorijiy turistlarni qabul qilishga toʻlaligicha tayyor emas. Mahalliy darajada xususiy investitsiyani rag'batlantirish, ya'ni umumiy turistik xizmat ko'rsatish tizimiga birlashgan xususiy mehmon uylarini ochish bunday muammoni ijobiy hal etilish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun xususiy tadbirkorlarga turistik trassada joylashgan har qanday shaharda 19-20 kishiga

mo‘ljallangan xususiy mehmon uylarni ko‘proq qurishgava uni yanada rivojlantirishga keng imkoniyat berish kerak. Shunday qilingandagina yuqorida aytib o‘tilgan muammolar o‘z echimini topadi.

O‘zbekiston turizmi sanoatida hali ham ovqatlanish bilan bog‘liq masalalar muammoligicha qolmoqda. Masalan, Yevropaliklar standart usullarda tayyorlangan oddiy va xushta’m taomlarni ma’qul ko‘radilar. Buning uchun esa, xorijiy mamlakatlardagi mehmonxona komplekslarida foydalaniladigan maxsus asbob-uskunalar va tegishli taom texnologiyalarini o‘rnatish zarur. Mamlakatimizdagi mahalliy mehmonxonalar 20-25 ga yaqin taomlarni taklif qilishlari mumkin. Biroq G‘arbiy andozalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan turistik komplekslar 200 ga yaqin taomlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Bu muammoni hal etilishining birdan - bir yo‘li xususiy restoranlar va kafolar sonini oshirish va ulardagi xizmat ko‘rsatish sifatini jahon andozalariga mos ravishda tashkil etishdir. O‘zbekistonda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan turistlar bilan muloqat qilinganda, ularning 25 foizini ovqatlanish xizmatlaridan qanoatlanganliklarini bildirishdi, 41 foizi esa taomlar sifatiga baho berishni o‘zlariga ma’qul topishmadi. Bunday muammoni hal etish uchun xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatadigan umumiy ovqatlanish ob’yektlarini sertifikatlash va nazorat qilish juda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, turistlar mahalliy taomning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida reklama bukletlari orqali xabar topishlari kerak. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, so‘rovda ishtirok etgan horijiy turistlarning 65 foizi ovqatlanish muassasalarining taomnoma (menyu) ro‘yxati to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaganliklaridan shikoyat qilishgan.

Ma’lumki, mamlakatga tashrif buyuradigan turistlar oddiy taomdan boshlab qimmatbaho suvenerlargacha bo‘lgan mahsulot va xizmatlarning ma’lum miqdoriga talab bildirishadi. Bu tabiiy ravishda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan xususiy biznes tashkilotlariga o‘z imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun yo‘l ochadi. Fermerlar turistlar istiqomat qiladigan mehmonxonalarda toza mahsulotlarni yetishtirib turishadi, to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida faoliyat ko‘rsatadigan xususiy korxonalar turistlar uchun zarur bo‘lgan yotoqhona jihozlari, xalatlar va boshqa shu kabilarni ishlab chiqishadi, kosmetika sanoati tashkilotlari shampun, sovun va dezdorantlarni ishlab chiqarishadi. Hunarmandchilik ustaxonalari va an’anaviymilliy mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tashkilotlar ham turistlar uchun buyurtmalar tayyorlashadi. Umuman olganda, hozirgi kunda respublika turizm sanoatida xususiy turistik tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishi

sezilarli darajada emas. Buning asosiy sabablari quyida o‘z ifodasini topgan[61]:

Birinchidan, respublika turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim kompaniyalarning monopollashganlik xarakteriga ega ekankligi. Bundan tashqari, yangi tashkil qilinayotgan kichik turistik firmalarning ayrimlari hali ham yirik turistik kompaniyalarda mavjud bo‘lgan imkoniyatlarningko‘pchiligiga ega emas;

Ikkinchidan, turizm sohasida yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi oqibatida yangidan-yangi kichik turistik korxonalarning tashkil etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishi ancha dolzarb muammoga aylanmoqda;

Uchinchidan, respublika viloyatlariva tumanlarinig ko‘pchiligida mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan amaldorlarning turizmni iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini to‘g‘ri baholay olmasligi natijasida va ularning ishga eskicha tafakkurda yondashishlari, turistik tashkilotlarning tashkil etilishi, shunigdek, turizm bozoriga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan xususiy biznes bilanshug‘ullanuvchi turistik tashkilotlarning ochilishiga beparvorlik bilan qaralmoqda;

To‘rtinchidan, yangi tashkil etilgan turistik korxonalar tor faoliyat doirasi bilan cheklanib qolishmoqda. Buning natijasida, bu tashkilotlarning xorijiy turistlar tamonidan qiziqish bilan e’tirof etilishiga yetarlichi imkon yaratilmayapti. Agarda turistik tashkilotlar no an’anaviy xizmat turlari, masalan, mamlakatimizning go‘zal va serjilo tabiatiga ajoyib sayohatlarni uyushtirish, turistlar uchun, mahalliy qishloqlar va ovullarda xalq milliy urf odatlari bilan tanishtirish ekskursiyalarini tashkil etish, shunigdek, turistlar uchun milliy ruhdagi konsert va tomoshalarni uyushtirish kabi xizmat turlarini tashkil etishsa ular o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishlari mumkin.

Beshinchidan, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini, milliy ruxdagi kiyim-kechaklarni, milliy taomlarni va boshqa shu kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tamonidan turistlar uchun maxsus reklama vositalaridan foydalana bilmaslik. Buning uchun, ular turistlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ular uchun tushunarli tegishli chet tilida reklama bukletlarini ishlab chiqarishlari kerak va hokazo.

Turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning rivojlantirilishi boshqa sohalardagi kabi mamlakatimiz iqtisodiyotini har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, turizm

[61] Muallifning ilmiy izlanish tahlili

xizmatlari bozorida kuchli raqobat muhitini rivojlantirish orqaligina turistik sanoatining rivojlanishiga erishish mumkin. Buning natijasida, sifatli turistik xizmatlarni ko‘rsatish bilan xorijiy turistlarning e’tiborini yanada jalb etishga erishiladi. Bularga erishish uchun esa, tabiiy ravishda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan turistik tashkilotlarning ro‘lini oshirish kerak.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, turizm, bozor tizimidagi boshqa har qanday iqtisodiyot tarmog‘i kabi alohida segment hisoblanadi. Shuning uchun ham turizm faoliyatini talab va taklif omillarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki talab va taklif omillari bozormunosabatlari sharoitida xususiy mulkchilik munosabatlarini har jihatdan rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy tayanch hisoblanadi. Har qanday mamlakatdagi turistik xizmatlar bozorida xususiy turistik tashkilotlar mavjud talab va ehtiyojlarni atroflicha hisobga olmay turib, o‘z xizmatlari taklifini kutilganidek amalga oshirisha olmaydi. Ko‘rinib turganidek, xususiy turistik tashkilotlar bozordagi talab va taklif omillarini to‘liq hisobga olgan holda harakat qilganda, ularning respublika turizm iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz turistik tashkilotlarning turizm iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o‘rni to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishdan oldin talab va taklif omillari xususida ayrim fikr va mulohazalarimizni bildirib o‘tmoqchimiz.

Talab omillari o‘zida asosan xalqaro (hududiy) va ichki (milliy) turistik bozorlarni namoyon etadi. Bunday bozorlarda chet ellik sayyohlar bilan birgalikda mahalliy aholi ham turistik diqqatga sazovorlik ob’ektlar va turistik xizmatlardan keng miqyosda foydalanishadi. Taklif omillar bo‘lsa o‘z ichiga chet ellik sayyohlarni jalb etishi mumkin bo‘lgan turistik diqqatga sazovorliklar va turli hil faoliyat turlari (milliy hunarmandchilik, musiqa va mahalliy xalq urf-odatlari-yu marosimlari,) mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish vositalari, shuningdek boshqa turistik ob’ektlar va xizmat kabilarni o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joiozki, turizm sohasidagi ekspert mutaxassislarning ta’kidlashlaricha diqqatga sazovorliklar degandatematik xiyobonlar, xayvonot bog‘lari va akvariumlar kabi tabiiy, madaniy va maxsus ob’ektlar, shuningdek ushbu ob’ektlar bilan bog‘liq bo‘lganbarcha faoliyat turlari tushuniladi. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) tasnifiga muvofiq ravishda tashrif buyurgan sayyohlarni joylashtirish vositalariga turli xil shakldagi mehmonxonalar, motellar, mehmonxona shaklidagi uylar shaxsiy honadonlar va boshqa turdagi turistlar to‘xtaydigan ob’ektlarbo‘ladi.

Umuman olganda barcha turistik xizmatlar va ob'ektlardan samarali foydalanish uchun zamon talablariga to'liq javob bera oladigan turizm infratuzilmasini shakllantirish talab etiladi. Bunday infratuzilma o'z ichigatransport, (havo yo'llari transporti, avtomobil yo'llari transporti, temir yo'l transporti, suv transporti va boshqalar) xizmatini, suv va elektr ta'minot, kanalizatsiya va telekommunikatsiya kabi sohalarni qamrab olishi kerak. Hozirgi kunga kelib, dunyodagi ko'plab mamlakatlar o'zlarining turizmini rivojlantirish bo'yicha strategiyalarida sanitar-ekologik omilga ham infratuzilma rivojini ta'minlovchi omil sifatida baho berishmoqda. Chunki zamonaviy turizmni atrof-muhitning muhofazalanishi va ekologik tozaliksiz tasavvur etish qiyin. Ana shunday jihatlarga ega infratuzilmaning jahon andozalariga mos ravishda rivojlanishi, ya'ni turistlarga imkon qadar sifatli xizmat ko'rsatishning tashkil etilishi har jihatdan xususiy tashkilotlarning samarali faoliyat ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi.

XULOSA

Hozirgi kunda turoperatorlar faoliyatini rivojlantirish mamlakatlar iqtisodiyoti va madaniyatida g'oyat muhim bo'lib, uni o'rganish, tadqiq etish, undan samarali foydalanish jamiyat oldidagi zarur bo'lgan vazifalardan biridir. Tirizmda turoperatorlik faoliyati, muammolari, eng kam o'rganilgan yo'nalish bo'lib, bu sohaning qaysi turlariga e'tibor berish, sayohat qiluvchilar uchun ularning xohish-istaklarini bilish, ularni eng foydali va qulay turistik ob'ektlarga chorlash, xavfsizligini ta'minlash, ularning talabini qondirish va yana ko'plab turlarini bilish ushbu faoliyat turning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad ham, jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish sifati va hajmini kengaytirgan holda dunyo standartlari darajasida turizm bozoriga kirib borishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi2019 yil 13 avgustdagiPF-5781-sonli qarori.

Turoperatorlik faoliyati. O'quv qo'llanma. Sh. S. Sayfutdinov. , M. Z. Nurfayziyeva. Toshkent-«Iqtisodiyot» -2021 y.

Илина Е. Н. Туроперейтинг: организация деятельности: Учебник. - М. : Финансы и статистика, 2005. - г.

Osnovi turizma: uchebnik / kollektiv avtorov; pod red. Ye. L. Pisarevskogo. G' M. : Fedyeralnoye agentstvo po turizmu, 2014.

https://stat. uz/uz/ - Statistika agentligi: O‘zbekistonga 2020 - 2023 yillarda tashrif buyurgan xorijiy turistlaroqimi

EXTENDED ABSTRACT

USING THE EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN ORGANIZING TOUR OPERATOR ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

The 21st century is known as age of information to the social life. The exchange of information between countries has accelerated significantly. Over the last two decades, development has been several times more rapid than in previous years. The industry of tourism has not been left behind by such rapid development. Developed countries and earn a lot of money by using technical improvements in the sphere of tourism. Tour operator organizations cannot progress in today's globalized world unless they collaborate with one another. The growth of tour operator classes is critical to developing tourism prospects in our country, as well as in other areas of the economy. Private organization themes are vitally significant in the establishment of a contemporary tourist sector in Uzbekistan that is capable of adapting to rapid changes in the globe. The goal of such changes is to make better use of the established tourist industry in order to stabilize mutual socioeconomic connections between countries across the world and our country. The primary objective of this case is to investigate changes in our country's tourism industry as well as the present operations of travel organizations involved in tour operator activities that positively impact the motivation of visiting visitors. Using a qualitative parametric research approach, the study collected data from interviews with 30 international visitors who visited our country. In the current globalization, tour operator organizations cannot achieve any development without mutual integration with each other. The fact that tourist business entities operating in the field of tourism also interact with each other will lead to the promising development of the tourism industry. The development of tour operator organizations plays a leading role in the expansion of tourist opportunities in our country, as well as in other sectors of the economy, in the field of tourism. The subjects of private organizations are extremely important in the development of the modern tourism sector in Uzbekistan, which can adapt to sudden changes in the world. The main goal of such reforms is the effective use of the developed tourism sector in the stabilization of mutual social and economic relations between the countries of the world and our independent country. It goes without saying that the basis of effective organization and development of

the improved tourism sector depends on the level of development of the relations of tour operator organizations. If the relations between tour operator organizations develop, a competitive environment is naturally formed, which, firstly, is the full use of the available tourism opportunities in our country, and secondly, a unique competition between organizations in terms of serving the flow of tourists. providing quality services as a result of the formation of the environment, thirdly, employment of a large part of the population in business entities that directly and indirectly provide services to tourists and other similar factors. In general, small and private business entities form the basis of organizing and improving the activities of tour operators in the development of tourism. Since 1975, tour operators in Europe have outsourced the development of large-scale itineraries to travel agents, and themselves switched to the exchange of these itineraries. Two factors affect the activity of tour operators in the world, and as a result, they reach the peak of development. First, with the increase in understanding and capacity of traditional tour operators, the firm expanded and reached the level of a tour operator. The tour operator performs activities such as planning, developing, ordering, and accounting of the tour itinerary. The issue of exchange is offered directly to tourists by tour operators. For example, in England, 85% of tour itineraries developed by tour operators are sold through retail travel agents. Demonstration of tourist objects for foreigners is widely established in England. They have reached the highest level in advertising and promotion of their national traditions and historical objects to foreign tourists. In our republic, there are more such facilities than in England, but organizations that play the role of tour operators and travel agents are not sufficiently active in promoting them to the general public. The important role of innovative trends in the development of the tour operator business and the role of information technologies in choosing a customer in tourism were studied by several authors related to the topic of the article, and information related to the industry was used.

THE IMPORTANCE OF CULTURAL HERITAGE TOURISM IN TOURIST MOTIVATION AND HOLIDAY DECISION-MAKING IN UZBEKISTAN

Shokhrux ABDURAKHMONOV

Abstract

A significant number of theorists and practitioners from many disciplines, as well as from recently established heritage studies, have theorized, defined, reinterpreted, negotiated and renegotiated the idea of cultural heritage. Cultural heritage tourism is the concept that a region's cultural perspective is valuable enough to make it a travel destination. Communities with a high level of cultural development typically have a high level of contentment with their living circumstances and wealth. In recent years, a considerable number of research in the tourism industry have been devoted to the relationship between cultural heritage and tourist motivation as well as the holiday decision-making process. This field of research has attracted the attention of many disciplines including economics, geography, sociology, history as well as ethnology, sociocultural anthropology, museology and cultural studies. The study intends to establish the value of cultural heritage in tourist motivation and holiday decision-making processes using a qualitative study approach and to reflect their application within a specific national and regional context using a case study of Uzbekistan.

Key words: tourism, cultural heritage tourism, tourist motivation, holiday decision-making process, holiday in Uzbekistan, importance of cultural heritage

SAYYOHLARNI RAG'BATLANTIRISH HAMDA O'ZBEKISTONDA DAM OLISH TO'G'RISIDAGI QARORNI QABUL QILISHDA MADANIY MEROS BILAN TURIZMNING AHAMIYATI

Abduraxmonov Shoxrux Abdujabbarovich

turizm menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ko'pgina oldigi ilmiy izlanishlar shuningdek yaqinda tashkil etilgan merosshunoslikdan ko'plab nazariyotchilar va amaliyotchilar madaniy meros g'oyasini tahlil qildilar, aniqladilar, qayta talqin qildilar, muzokaralar olib bordilar va qayta muhokama qildilar. Madaniy meros turizmi - Madaniy meros turizmi - bu mintaqaning madaniy istiqboli va ushbu manzilni sayohat uchun qulay dargohga aylantirish uchun qiymatli ekanligi haqidagi tushuncha hisoblanadi. Madaniy meros turizmning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda odatda o‘zlarining yashash sharoitlari qisqa muddatda yaxshilab olishga imkonyatga ega bo‘lishadi. So‘nggi yillarda turizm sohasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar madaniy meros va sayyohlarni rag`batlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlik shuningdek ta’til qarorlarini qabul qilish jarayoni haqida olib borilgan. Ushbu tadqiqot iqtisodiyot, geografiya, sotsiologiya, tarix, shuningdek etnologiya, ijtimoiy-madaniy antropologiya, muzeyshunoslik va madaniyatshunoslik kabi ko‘plab fanlarning e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Tadqiqot turistik motivatsiya va ta’til qarorlarini qabul qilish jarayonlarida madaniy merosning qadr-qimmatini sifat parametrlarini o‘rganish tadqiqot usulidan foydalangan holda aniqlash va O‘zbekiston misolidan foydalangan holda ularning muayyan milliy va mintaqaviy kontekstda qo‘llanilishini aks ettirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: turizm, madaniy meros turizmi, turist motivatsiyasi, ta’til qarorlarini qabul qilish jarayoni, O‘zbekistonda dam olish, madaniy merosning ahamiyati

INTRODUCTION

takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi esa turistik korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash, xalqaro tajribalar va tamoyillar asosida milliy turizm tarmog'i boshqaruvi samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. Shulardan kelib chiqqan holda ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda va uning mintaqalarida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish, turizm industriyasini boshqarishni zamonaviy menejment tamoyillari va usullari orqali amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm — milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi tarmoq bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar yechimida alohida o'rin egallaydi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi bandligini barqaror sur'atlar bilan oshirish, xalq farovonligini yuksaltirishda turistik xizmatlar eksportining ham o'rni beqiyos. Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda turizm industriyasini tartibga solish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash, madaniy meros obyektlarini tiklash va ta'mirlash borasida keng ko'lamli amaliy chora-tadbirlar kompleksi tizimli va izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, mehmondo'stlik hamda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xorij mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan turistlar oqimi jadal ortmoqda. O'zbekiston boy tarixiy ildizlarga va noyob madaniy merosga ega hudud. Bu esa mamlakatimizda hali ulkan salohiyati to'liq ishga solinmagan turizm industriyasini taraqqiy ettirish, davlatimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Turistik xizmatlar eksportining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi nazariy va amaliy masalalar tadqiqotlarda batafsil ochib berilmagan. Eksportga oid tadqiqot mavzulari esa chet el va mahalliy iqtisodchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Avvalo, eksport kategoriyasining etimologiyasiga to'xtalsak. Bu so'z inglizcha "export", lotincha "exporto" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "olib chiqmoq", "chetga chiqarmoq" ma'nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqib, turistik xizmatlar eksportiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Turistik xizmatlar eksporti deganda xizmat ko'rsatuvchi tomonidan o'z mamlakatida chet el fuqarolariga yoki xorijiy mamlakatlarda aholining va mehnat jamoasining turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi. Ushbu tushuncha mazmuni kirish turizmi bilan bevosita bog'liq. Kirish turizmi esa O'zbekiston

Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatidir.

Fikrimizcha, ushbu ta’rifda turistik xizmatlar eksportini to‘liq ifoda etish uchun tegishli jihatlar o‘z o‘rnini topgan. Mazkur ta’rifning nazariy asoslari quyida keltirilgan.

Birinchidan, turistik xizmatlar eksporti xizmat ko‘rsatuvchi subyekt tomonidan ham o‘z mamlakatida, ham xorijiy mamlakatda amalga oshirilishi mumkin. Turistik xizmatlar eksportining shu jihati uni tovarlar eksportidan farqlaydi.

Ikkinchidan, servisning o‘ziga xosliklarini turistik xizmatlar eksportiga aniqlik kiritishda inobatga olish mazkur iqtisodiy kategoriyani chuqur anglashga yordam beradi, ya’ni:

- xizmatlar moddiy ne’mat tariqasida ko‘zga ko‘rinmaydi;

- xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning aksariyati jismoniy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi;

- xizmat ko‘rsatuvchilar alohida shaxs sifatida har biri o‘ziga xos;

- xizmatlarni taqdim etuvchilardan ajratib olish yoki ajratib sotish imkoniyati mavjud emas;

- xizmatlar oldi-sotdi jarayonida predmet ko‘rinishida ko‘zga tashlanmaydi;

- xizmat sifati barqaror emas, chunki inson omili ta’sirida u turli zamon va makonda aynan bir xil bo‘lishi qayd etilmaydi;

- xizmatni zaxiraga olib qo‘yish yoki kelgusida foydalanish uchun saqlab qo‘yish imkoni yo‘q;

- xizmatni bir joydan ikkinchi joyga taqdim etuvchisidan ajratgan holda ko‘chirib bo‘lmaydi;

- xizmat faqat taqdim etilayotgan jarayondagina iste’mol qilinadi;

- ayrim xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kutilgan natija yoki naf keyinchalik namoyon bo‘ladigan hollar ham mavjud;

- xizmatning taqdim etilishi va iste’mol qilinishi bir paytda sodir bo‘ladi;

- xizmat sifatiga baho berishda asosiy ustuvorlik iste’molchida ekanligi, o‘z o‘rnida, bunga nisbatan munosabatning subyektiv sabablarga ko‘ra turlicha bo‘lishi ehtimoli mavjudligini anglatadi.

Uchinchidan, turistik xizmatlar eksporti muayyan ehtiyojni qondirish uchun koʻrsatiladigan har qanday xizmat natijasi kabi namoyon boʻluvchi daromad koʻrinishida hisobga olinadi.

Oʻz navbatida, umumiy eksportda xizmatlar ulushining moddiy neʼmatlar eksporti darajasida boʻlishi yoki undan yuqoriligi oʻrganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishi xususida muayyan xulosalar chiqarishga asos boʻladi. Bunday mamlakat iqtisodiyotida:

turistik xizmatlar eksporti umumiy eksportning, odatda, 25-30 foizini tashkil etadi;

xizmat koʻrsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-80 foizdan iborat boʻladi;

xizmat koʻrsatish sohasida ish bilan band aholining qariyb 70 foizi mehnat qiladi;

aholining isteʼmol xarajatlari tarkibida turistik xizmatlar uchun moliyaviy ajratmalar 25-35 foizni tashkil etadi.

Keltirilgan maʼlumotlardan foydalanib shuni aytish joizki, umumiy eksportda xizmatlar ulushining moddiy neʼmatlar eksporti darajasidan past yoki deyarli eʼtiborga molik boʻlmagan hajmdaligi ham oʻrganilayotgan mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishi xususida muayyanxulosalar chiqarishga asos boʻladi. Bundan mamlakat iqtisodiyotida esa:

agrar sohaga va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni birlamchi qayta ishlashga nisbatan bogʻliqlik kuchli boʻladi;

ish bilan band aholining koʻpchiligi qoʻl mehnatiga asoslangan va modernizatsiyalashmagan ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat qiladi;

aholining isteʼmol xarajatlari tarkibida turistik xizmatlar uchun moliyaviy ajratmalar deyarli mavjud boʻlmaydi.

Jahonda turizm xizmatlarining oʻsish surʼatlari esa quyidagi jadvalda oʻz aksini topgan (1-jadval).

1-jadval

Jahonda turizm xizmatlarining 1990-2022-yillardagi o‘rtacha yillik o’sish sur’atlari (% larda)

Yillar	Jahon	Afrika	Amerika	Osiyo va Tinch okeani havzasi	Yevropa	Yaqin Sharq
1990-2000	4. 6	6. 4	3. 3	7. 0	4. 1	9. 6
1990-1995	4. 2	6. 1	3. 3	8. 0	3. 5	7. 3
1995-2000	4. 9	6. 7	3. 3	6. 0	4. 7	12. 0
2000-2005	3. 3	5. 7	0. 8	7. 1	2. 2	10. 0
2006-2010	3, 26	6, 98	3, 34	6, 02	1, 46	10, 62
2010-2022	4, 73	4, 5	7, 41	5, 89	2, 2	-0, 52

org – Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy sayti ma’lumotlari

Shu o‘rinda aniq misolni keltirib o‘tamiz. 2008 yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirlaridan avval Gretsiya va Italiya davlatlari eksporti tarkibida turistik xizmatlar yetakchi o‘rinlardan birini egallar edi. Boisi, sanab o‘tilgan davlatlar turizm salohiyati yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida ushbu davlatlar milliy iqtisodiyotida sodir bo‘lgan retsessiya va defolt holatlari oqibatida kirish turizmi hajmi keskin kamayish tendensiyasini namoyon etdi. Natijada ushbu davlatlarda budjet taqchilligi, ishsizlik darajasining oshishi kabi ijtimoiy muammolar kuzatildi. Demak, xizmatlar eksporti tarkibini diversifikatsiyalash milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlarga nisbatan bardoshliligini oshiradi.

O‘zbekistonda ham turistik xizmatlar eksporti bilan faol shug‘ullanib kelayotgan biznes subyektlariga ko‘maklashishning noyob tizimi yaratilgan. Unga ko‘ra turistik xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanib

kelayotgan mahalliy biznes subyektlariga ko‘maklashish quyidagi yo‘llar asosida amalga oshirilmoqda:

- tashqi bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlarini tizimli o‘rganish;

- potensial tashqi bozorlarning chuqur marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;

- turistik xizmatlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasini aniqlash shular jumlasidandir.

Turistik xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanib kelayotgan mahalliy biznes subyektlariga ko‘maklashish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish ishonchli hamkorlar topish, mijozlar talabini to‘laroq qondirish, milliy turistik mahsulotning jahon bozoridagi o‘rnini yanada mustahkamlash, eksport geografiyasini kengaytirish kabi imkoniyatlarni taqdim etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, O‘zbekiston milliy turistik mahsulotining jahon bozoridagi mavqei yildan-yilga tobora mustahkamlanib bormoqda.

O‘zbekistonda turistik xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanib kelayotgan mahalliy biznes subyektlari xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirishning quyidagi iqtisodiy dastaklari faol qo‘llanilmoqda:

soliq to‘lovlari masalasidagi yengilliklar;

tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonidagi ma’muriy tartib-taomillarning soddalashtirilganligi;

aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratilayotgan imtiyozli bank kreditlari;

milliy va xalqaro miqyosdagi turistik yarmarkalarda imtiyozli ekspozitsiya maydonlarining taqdim etilishi;

investitsion forumlar doirasida turizm sohasiga oid loyihalarga ustuvorlik berilishi;

yuqori servis darajasiga ega mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda davlat subsidiyalarining manzilli yo‘naltirilishi kabi amaliy choralar.

Bundan tashqari, turistik xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanib kelayotgan mahalliy biznes subyektlari xalqaro bozorning to‘laqonli ishtirokchisi sifatida kuchli raqobat muhitida ish ko‘radi. Xalqaro turizm bozorida talab hajmi, taklif tuzilmasi, narx shakllanishining o‘ziga xosliklarini inobatga olish ham muhim hisoblanadi. Turistik xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanib kelayotgan mahalliy biznes subyektlari xo‘jalik

faoliyatiga viza tartibotining me'yoriy-huquqiy asoslari, davlatning fiskal va monetar siyosati kabi jihatlar ham bevosita o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Shundan kelib chiqib, turistik xizmatlar eksporti bilan shug'ullanib kelayotgan mahalliy biznes subyektlari doirasida marketing tadqiqotlarini tizimli tashkil etish alohida diqqatni tortuvchi jarayondir. Asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mikroiqtisodiy darajada rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini tanlab olish, talab o'zgarishlarini o'rganish orqali taklif hajmini prognozlash xorijiy turistlarni qabul qilish bilan shug'ullanib kelayotgan turoperatorlik firmalarida marketing tadqiqotlari jarayoni sifatli tashkil etilishiga borib taqaladi. Professional mutaxassislarning jalb etilganligi, barcha amaliy sa'y-harakatlarning strategik missiyaga yo'naltirilganligi, sarf-xarajatlar moliyaviy ta'minotining aniq shakllantirilganligi bunda muvaffaqiyat garovi bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy turistlarni qabul qilish bilan shug'ullanib kelayotgan turoperatorlik firmalari xalqaro bozor kon'yunkturasi o'zgarishlarini muntazam monitoring qilib borishi taqozo etiladi. Turpaketlar assortimentini ishlab chiqish, ularga narx o'rnatish, sotuv kanallarini maqsadga muvofiq tanlash ayni shu monitoring natijalari asosida yo'lga qo'yiladi. Birlamchi axborot to'plash usullaridan ekspress-intervyu, fokus-guruhlar bilan muloqot, tanlama kuzatuv va eksperiment bozor kon'yunkturasi monitoringida yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi. Ikkilamchi axborot to'plashning esa turistik portallar tahlili, ixtisoslashgan ilmiy jurnallar xulosalariga asoslanuvchi usullari sarf-xarajatlarning maqbul darajada bo'lishiga xizmat qiladi.

Xorijiy turistlarni qabul qilish bilan shug'ullanib kelayotgan turoperatorlik firmalari xalqaro bozorda narx kategoriyasi, sifat parametrlari va kommunikatsiya vositalari orqali raqobat kurashida ishtirok etadi. Turoperatorlik firmasi mikroiqtisodiy subyekt sifatida, xizmatlar majmui esa xo'jalik faoliyati natijasi sifatida raqobatbardoshlik mezonlari talablariga javob berishi lozim. Xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlik mezonlari sirasiga iste'molchi xohish-istaklari va to'lov qobiliyatiga mos mahsulotni taklif qilish, unga maqbul narx o'rnatish va ushbu mahsulotni potensial xaridorlar auditoriyasida tizimli targ'ib qilish kabilarni kiritish o'rinli bo'ladi. Xorijiy turistlarni qabul qilish bilan shug'ullanib kelayotgan turoperatorlik firmalarining ayni mezonlar doirasida tashkil etilgan tijorat faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy samaralar qo'lga kiritilishini kafolatlaydi.

Mahalliy turoperatorlar xorijiy mamlakatlarning importi tarkibini puxta o‘rganib chiqib, so‘ngra ular uchun sifat va narx bo‘yicha eng qulay sharoitlarni taklif etmoqda. Ayni yo‘nalishdagi dolzarb vazifa esa mamlakatimizda turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirish yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rishdan iborat. Boshqacha aytganda, turistik xizmatlar eksportini rag‘batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish davr talabi sifatida yuzaga chiqmoqda. O‘z navbatida, turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirishga bir nechta sifat ko‘rsatkichlari faol ta’sir etishini inobatga olish lozim. Bir so‘z bilan aytganda, turistik xizmatlar eksporti davlatlar milliy daromadi shakllanishida muhim manbalardan biri sanaladi. Shunday ekan, turistik xizmatlar eksportini chuqur tadqiq etish bu borada yechimini kutayotgan masalalarga ilmiy asoslangan tartibda javob topishga olib keladi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, xizmatlar eksportini qo‘llab-quvvatlashning marketing texnologiyalarini maqsadli yo‘naltirish ayni sohada faoliyat yurituvchi biznes-tuzilmalari iqtisodiy o‘sishi kafolatlarini mustahkamlaydi. Natijada xizmat ko‘rsatish sohasi eksport imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning tashkiliy-uslubiy platformasi yaratiladi. Xizmatlarning umumiy eksportdagi ahamiyatini kuchaytirish hamda salmog‘ini oshirish milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sur’ati bilan barobar olib borilmoqda. Innovatsion marketing texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash esa xizmatlar eksportida sifat jihatidan o‘zgarishlarni chuqurlashtirish imkonini beradi. Zero, innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish xizmatlar eksportiga tashkiliy-uslubiy yondashuvlarni uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Shundagina tashqi bozorlar geografiyasini kengaytirish intensiv asosda kechadi. Ta’kidlash joizki, turistik xizmatlar eksportini tashkil etishning ilg‘or xorijiy tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash kelgusida milliy turistik mahsulot diversifikatsiyasini ta’minlaydi. Qolaversa, turistik xizmatlar eksportini tashkil etishning ilg‘or xorijiy tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash o‘zining iqtisodiy afzalliklariga ham ega. Ya’ni, yuqorida sanab o‘tilgan davlatlar tajribasi asosida iqtisodiy-texnik jihatdan chuqur asoslangan investitsion loyihalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu, o‘z navbatida, turistik xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Natijada O‘zbekistonning global turistik bozordagi mavqei ortadi hamda mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimi barqaror jalb etilishiga erishiladi.

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklarini aniqlash yuzasidan ko‘riladigan chora-tadbirlar quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

birinchidan, milliy turizm tarmog‘ida talabni shakllantirish va sotuvni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy sa’y-harakatlar faol ro‘yobga chiqariladi;

ikkinchidan, turistik mahsulotlarga optimal narx belgilash kafolatlari mustahkamlanadi;

uchinchidan, turistik korxonalar tomonidan o‘zlashtirilmagan bozor segmentlarining ehtiyojlari qulay makon va sharoitlar kontekstida qanoatlantiriladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

Madrid 8 №4, 2018. India, ISSN-2249-9512 (08. 00. 00; №6).

Azar V. I. “Рекреацион география”. Monografiya. Moskva, 2017-y. , qayta nashr – 89-124 b.

Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy- –

Eshtayev A. A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). – 18-24 b.

Amonboyev M. , Xalilov S. Turizm industriyasi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”

EXTENDED ABSTRACT

METHODOLOGICAL ISSUES OF EXPORT OPERATIONS IN THE NATIONAL TOURISM SECTOR

This article assesses the national tourism sector's export potential. The research looked into the methodological elements of implementing export operations in the national tourism sector. There was also scientific advice on how to improve the implementation of export operations in the national tourism sector. Specific aspects of tourism service export are systematized. The study of the organizational and economic elements of focused development of export activities in the service industry. Proposals for strengthening the strategic management of the national tourism sector have been created as a result of empirical study. The experience of sophisticated foreign nations with a fast rising tourism sector is cited. There was also discussion of the practical concerns of educating highly skilled individuals for the national tourism business. This article includes a bibliographic examination of scientific materials relevant to the methodological concerns of export operations in the national tourism sector. Innovative methods are given for guaranteeing socioeconomic efficiency in the national tourism sector. The ideal distribution of the tourist flow into the nation across areas was particularly examined. The benefits of contemporary technology are centered on the national tourism sector. The advantages of using modern technologies are based on the national tourism sector. Problems in this direction are identified and methods of solving them are explained. Methodical approaches to sustainable development of the national tourism sector in the medium and long term are described. In Uzbekistan, large-scale reforms have been carried out in order to increase the volume of services in the field of services, in particular, the provision of tourism services. In particular, in order to improve the quality of tourism services, legal documents, regulations and new requirements were developed, management structures were improved. Instead, to further develop the national tourism industry and expand the flow of foreign tourists and export of tourist services, increase the employment level of the population based on the creation of new jobs in the network, increase the number of hotels, other means of tourist accommodation, and the number of entities engaged in tourism activities. increasing and improving the research of economic aspects of management in them is one of the urgent tasks of today. The effective performance of these tasks requires the improvement of the scientific and methodological foundations of ensuring the competitiveness of tourist enterprises,

increasing the efficiency of the management of the national tourism network based on international experiences and principles. Based on this, it is worth noting that the development of the market of tourism services in Uzbekistan and its regions, the improvement of the scientific and methodological foundations of the implementation of the management of the tourism industry through modern management principles and methods are of great importance. At present, there is a need to scientifically substantiate the characteristics of the export of tourist services and the conceptual directions of diversification in Uzbekistan, to create an optimal system that ensures the effective use of the export potential of the regions in the field of tourism. Although some theoretical and methodological results on these issues have been obtained in the existing studies, diversification of the export of tourist services has not been comprehensively covered in them. This, in its place, is considered an urgent issue, and conducting scientific research in this field remains the demand of the time. It was this situation that served as the basis for choosing the topic of this research, defining its goals and tasks. In order to take a strong position in the global economic system, countries are emphasizing on identifying competitive advantages and gradually improving them. The presence of interstate competition is characterized by positive aspects. Implements practical efforts to generate competitive demand and promote sales. Competitors also play a role in determining the optimal price. Competitors can identify and satisfy the needs of untapped market segments. Most importantly, as a result of the activities of competitors, the costs of promotion of the promoted tourist product will be reduced. The financial resources allocated by the competitors to the advertising campaign ensure recognition of other tourist products with functional similarities. The 21st century, with the intensification of competition on a global scale, gives impetus to the rapid development of national economic sectors. Each country differs from other countries in its geographical location, climatic conditions, natural and mineral resources, transportation facilities, and investment attractiveness. Based on this, the socio-economic development model successfully implemented by a certain country may not be exactly suitable for another country.

MILLIY TURIZMNI RIVOJLANISHIDA ZIYORATGOHLARNING O‘RNI

dotsent, falsafa doktori Shaxnoza Tursunkulova

ORCID: 0009-0002-8931-1341

NNOTATSIYA

hududimizda mavjud bo‘lgan tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar, ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan tarixiy aziz avliyolar deb ulug‘lanadigan qadamjolarni turistik imkoniyatlari o‘rganilgan. Qadim Samarqandning

Hozirda madaniy qimmatga ega bo‘lgan me’moriy obidalar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomchilik haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati adabiyot va san’at asarlari, arxiv hujjatlari, qadimgi qo‘lyozma kitoblar barkamol avlod tarbiyasini shakllantirishda ma’naviy asos sifatida amaliy ulug‘lanadigan tasavvuf allomalari qadamjolarini turistik imkoniyatlarini

Tasavvuf ahli asosan yetti tabaqaga bo‘lingan va ular quyidagilardir: Xalifa, Shayx, Murshid, Naqib, Vali va Qutb. Tasavvufda eng oliy tabaqa “Qutb” bo‘lib, G‘avsul-A’zam, Bahovaddin Naqshband, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A’zami Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Maxdumi Xorazmiy, Imomi Rabboni va Musoxonxoja Dahbediylar zamonalarida qutbul-aqtob hisoblanganlar.

Tasavvuf namoyandalari oxirgi o‘nlab yillar davomida yozganlaridek, ilmu ma’rifat dushmanlari bo‘lmay, balkim, ular yurt ravnaqi uchun

xizmat qilgan, ular ilgari surgan “Ma’rifat” yo‘li (tasavvuf asosi) ham buni isbotlaydi.

Tayanch so‘zlar. Tasavvuf, san’at, turizm, tasavvuf allomalari, qadamjolar, ziyoratgoh, axloqiylik, odob, tarbiya.

Jombo y tumanidagi “Vali Bobo” lariga va ko‘

va

THE ROLE OF SHRINES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURIZM

Shakhnoza Tursunkulova

ORCID: 0009-0002-8931-1341

ABSTRACT

The article examines the tourism opportunities of historical monuments, architectural monuments, places revered as historical saints, unknown to many people. The forms of beliefs associated with visiting the famous shrines of the Islamic world, such as Khoja Ahror Vali, Makhdumi Azami Dahbedi, Sheikh Khudoydodi Vali of ancient Samarkand, are also analyzed.

Currently, architectural monuments of cultural value, associated paintings, sculptures, works of decorative and applied art, historically constituting the territory of architectural monuments, as well as memorial houses, monumental works of art, anthropology, ethnography, numismatics, epigraphy, cartography, photographic materials, films, audio-video recordings, works of literature and art, archival documents, ancient manuscripts and archaeological sites, protection, study and formation of a mature generation. There are comments about its practical use as a spiritual basis. In addition, they can be effective in developing tourism, especially increasing the tourism potential of the shrines of Sufi scholars, revered as historical saints unknown to many. It was said that the further development of regions which are familiar to the local population is necessaryin domestic tourism.

The people of Sufism are mainly divided into seven classes: Khalifa, Sheikh, Murshid, Naqib, Wali and Qutb. The highest class in Sufism are the “Qutbs”, and they were considered Qutbul-Aktabs during the times of Ghavsul-Azam, Bahawaddin Nakshband, Khoja Ahrori Vali, Makhdumi Azami Dahbedi, Sheikh Khudoydadi Vali, Makhdumi Khorezmi, Imami Rabbani and Musa Khankhoja Dakhbedi.

As representatives of Sufism have written in recent decades, science is not the enemy of enlightenment, but perhaps they served the development of the country, and the path of “Enlightenment” (the basis of Sufism) that they promoted proves this.

As part of the study, visits were made to the mausoleum of Khoja Akhror Vali in Samarkand, historical monuments of Shakhizinda, the shrine of “Vali Baba” in Jambay region and interviews with many pilgrims and tourists. Do you know the shrines of Sufism scholars?, Why do you visit these shrines?, Whose grave is in this shrine, do you have information about his personality and what kind of person he was? My first visit", "I don't know what he did", "I heard that he is a saint", "now I know", "I came with intention", "I wanted to have a child", "I want to study" , “I think it’s a relief, ” etc. similar answers were analyzed that they gave

Key words. Sufism, art, tourism, mysticism, places of pilgrimage, morality, manners, education.

KIRISH

Hozirda madaniy qimmatga ega bo‘lgan me’moriy obidalar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomchilik haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari, me’moriy yodgorliklarning tarixan tarkib topgan hududlari, ya’ni, memorial uylar, monumental san’at asarlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografika, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-video yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv hujjatlari, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish, o‘rganish va barkamol avlod tarbiyasini shakllantiruvchi ma’naviy omillar sifatida yuqori baholash mumkin. Turizmni rivojlantirishda ayniqsa, ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan tarixiy aziz avliyolar deb ulug‘lanadigan tasavvuf allomalari qadamjolarini turistik imkoniyatlarini oshirish, . ichki turizmda mahalliy aholiga ma’lum bo‘lgan hududlarni ham yanada taraqqiy ettirish lozim.

Dunyo mamlakatlari vatanimizni yaqindan tanishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishini istasak, aynan turizm imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. Turizm sohasini rivojlantirish, yangi bosqichga ko‘tarishda avvalo ko‘hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Termiz kabi shaharlar o‘rni beqiyos. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini o‘ziga jalb qiluvchi qadimiy yodgorliklari bor. Registon maydonidagi madrasalar va qadimgi inshootlardagi naqshlar Buyuk ipak yo‘lining ko‘hna shahri bo‘lgan Samarqandni jahon Islom me’morchiligining eng go‘zal namunalaridan

biriga aylantirgan. Samarqandda nafaqat Registon maydoni bor, balki juda ko‘p tarixiy obidalar, qadamjolar, ziyoratgohlar borki, ularning ayrimlari ancha mashhur bo‘lsada, ba’zilari faqat mahalliy aholiga ma’lumdir.

Mamlakatimizda, turizm – O‘zbekiston iqtisodiyotining drayveri deb e’tirof etilmoqda. Prezident SH. M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Katta salohiyatga ega bo‘lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo‘lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an’anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo‘lgan marshrutlardagi obyektlar sonini 800 taga yetkazish bo‘yicha choralar ko‘rishimiz kerak. Shu asosda, “respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish” dolzarbligicha qolmoqda. (Mirziyoyev, Sh. 2021. B. 174.)

ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi O‘zbekiston strategiyasi (Mirziyoyev, Sh. 2021, B. 174.), yurtimizning o‘ta buyuk allomalari Imom Ali Sug`diy va Kumushkent tarixi (Kattayev, K. 2020, B. 4-15.), Samarqandnoma (Kattayev, K. 2017, B. 16-17), Mahdumi A’zam tarixi va mukammal Dahbediylar sulolasi (Kattayev, K. 2016, B. 158-163), tasavvuf allomalari (Kattayev, K. 2017.), Kitobul-ansob (Sam’oniy. 1993, B. 17.), Xudododi Vali (Valixo‘jayev, B, O‘rinboyev, B. 1995, B. 30.), Mahdumi A’zam (2018, sentyabr 24), tasavvuf (Komilov, N. 1996, B. 9.), Bahouddin Naqshband yoki yetti pir (Buxoriy, S. 2017, B. 8.), Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar) (Rahimov, K. 2020, B. 127.), Naqshbandiy tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi (Navro‘zova, G. 2002, B. 29.), qabr ziyorati va va vasila (Tojiboyev, B. 2013, B. 7.), Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi (Jo‘rayeva, S. 2021.)ga e’tibor qaratilgan.

METODOLOGIYA

Samarqand zaminida minglab taniqli shaxslar, yuzlab allomalar va o‘nlab eng buyuk imom-allomalar o‘tishgan. Hozirgacha birgina Samarqand zaminida dunyo miqyosidagi eng buyuk allomalardan 25 nafarining tarixlari va qabrjoylari aniqlagan. Bu chegara bo‘lmay, kelgusi tadqiqotlar natijasida ularning soni kengayishi aniq. Eng buyuk allomalarning aksariyatlari fiqh, hadis, kalom allomalari bo‘lishib, qolganlari tasavvuf tariqati peshvolari va davlat arboblari bo‘lishgan. Ushbu buyuklarning 9 nafarini qabrjoylari ma’lum; 13 nafarining qabrjoylari esa mustaqillikdan so‘ng aniqlanib, tarixi kitoblarda

yoritilgan; 3 nafari o‘zga yurt va qo‘shni viloyatlarda dafn etilgan. (Kattayev, K. 2020. B. 4) “Al-Buxoriy, ad-Doramiy, al-Moturidiy, al-Hakim Samarqandiy, Abu Laysiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, ar-Rastug‘foniy, al-Kindiy, al-Foris, al-Usmandiy, an-Nasafiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A’zam Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Shayx Maxdumi Xorazmiy va Bobur mirzo kabi yurtimiz shuhratini butun dunyoga yoygan Samarqandiylar (yoki shu yerda ko‘milib, bu nomga erishganlar) ilmu fan, tasavvuf va siyosat bobida muqaddas zaminimizga teng keladigan boshqa yurt yo‘qligiga o‘zgalarni imonga keltirganlar. (Kattayev, K, 2017. B. 15.)

Qadimiy tarixchi Yoqutining yozishicha, Xudo asragan shahar Samarqandda yashash va vafot topib ko‘milish juda katta sharaf hisoblangan; kimki Samarqandda vafot etsa, go‘yo yettinchi osmonda vafot etgani kabi hisoblanar va maloikalar qatorida jannatga kirar ekan. Albatta, bu rivoyatu naqllar Samarqanddagi ulug‘ ziyoratgohlarga ko‘milgan buyuk imomlar, mutasavvuf allomalar hamda ularning izdoshlari haqida aytilgandir. (Sam’oniy. 1993, B. 78.)

Movarounnahr olimlari oltin silsilasini boshlab bergan eng avvalgi imomlar ad-Doramiy as-Samarqandiy; keyinchalik ul zotdan ilm bobida o‘zib ketgan shogirdi va butun dunyo imomi nomi ila sharaflangan al-Buxoriy; islom olamining aksariyatini tashkil etgan sunnat ahli va jamoasining raisi, kalom-aqoid (e’tiqod) ilmining asoschisi Imom al-Moturidiy as-Samarqandiy; ilmi hikmat va haqiqat asoschisi buyuk Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiy; kalom va fiqh ilmining buyuk davomchisi Imom Abu Lays as-Samarqandiy; islom olamidagi eng ulug‘ mazhab bo‘lgan Hanafiya mazhabining buyuk fiqhshunos olimi Imom Burhoniddin Marg‘inoniy as-Samarqandiylardan nafaqat islom ahli, balkim dunyodagi barcha ilm ahllari rozidirlar hamda ilmiy jasoratlaridan abadul-abad minnatdorlar. (Kattayev, K. 2017, B. 16.)

Qadimdan Samarqandning Shohizinda, Banni nojiya, Hazrati Xizr, Xoja Abdu Darun, Chokardiza kabi dunyoga mashhur va eng qadimiy mozorotlari, Go‘ri Amir, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A’zami Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Xoja Ishoqi Vali nomli islom olamida mashhur qabristonlari hamda hozirga kelib nomlari o‘chib ketgan Hubob, Fotfar, Xon Sayid Imom, Qutbi Chahordahum, Ruhobod, Radrad (Razroz), Sangrason, Jurjoniya atalmish o‘nlab tarixlari ma’lum noma’lum mozorot-oxiratgohlari bor. (Kattayev, K. 2017, B. 17.)

O‘rta asrlarda zaminimiz hududida islom dini va madaniyati zamirida buyuk allomalar, buyuk insonlar, ilm peshvolari dovrug‘ taratdilar. Chunonchi, tasavvuf ta’limotida Yassaviy, G‘ijduvoniy, Kubraviy,

Naqshbandiy, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A'zami Dahbediylar, shuningdek, Navoiy va Bobur mirzolar she'riyat va tarix sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritib, yurtimiz shuhratini dunyoga tarannum etishadi. Bu davrda ilmlar ichida fiqh, hadis, kalom, tafsir, falsafa, tasavvuf ta'limotlari taraqqiy etadi. Tadqiqotimiz doirasida, Samarqand shahridagi Xoja Ahror Valiy mavzoleyiga, Shoxizinda tarixiy obidalariga, Jomboy tumanidagi "Vali Bobo" ziyoratgohiga tashrif buyurganimizda, ko‘pchilik ziyoratchilar, turistlar bilan suhbatlashildi. Tasavvuf allomalari qadamjolari-ziyoratgohlarini bilasizmi?, Mazkur qadamjolarga nima maqsadda tashrif buyurasiz?, Bu ziyoratgohda kimning qabri borligini, uning shaxsi va qanday inson bo‘lgani to‘g‘risida ma'lumotingiz bormi?, mazmunida berilgan savollarga ziyoratchilar tomonidan "xa bilaman", "birinchi kelishim", "nima ishlar qilganini bilmayman", "avliyo bo‘lgan deb eshitganman", "endi bilamanda", "niyat qilib keldim", "farzandli bo‘lmoqchi edim", "o‘qishga kirmoqchiman", "yengillik deb o‘ylayman" va xk. shu kabi javoblarni berishdi.

Xoja Ahror Valiy vafotidan 140 yil o‘tib, hukmdor Nodir Divonbegi buyuk ma'naviyat peshvosiga hurmat va ehtirom belgisi sifatida uning sharafiga maqbara qurdiradi. Yo'lbarslar tasvirlangan inshoot naqsh va bezaklar bilan bo‘yalgan, o'yilgan mozaikalar yotqizilgan. Maqbarada qishki va yozgi jome masjidi, ayvon va minorasi bo‘lib, u yerdan yilning istalgan faslida muazzinlar dunyoning turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilarni yig‘ib, namoz o‘qib, ko‘ngli orom va yo‘lini topadi.

Xudododi Valining adabiy faoliyati jabrlanib, hayotdan bezib, umidsizlangan jamiyat hayotini aks ettirgan. Xudododi foyda qilgan beklar, oqsuyaklar, askar boshliqlari hamda ularning dumlari bo‘lib yashagan mulla, eshonlar qatorida bo‘lmadi, aksincha mazlum xalqning orasida bo‘ldi. Mehnatkashlarning qayg‘ulari bilan yig‘lashga majbur bo‘ldi va yig‘ladi. Men bu vaqtga qadar she'r aytishga va risolaning yozilishiga bu qadar g‘ayrat qilmagan edim. Hozirda bunga alohida e'tibor berishimning sababai shundaki, istardimki mendan Sizga bir esdalik qolsa, toki mening she'rlarim va risolamni o‘qiganlar o‘zlari uchun saboq olgaylar". (Valixo‘jayev, B, O‘rinboyev, B. 1995. B. 13.) Xudododi Vali Samarqand viloyati Jomboy tumani G‘azira qishlog‘ida milodiy 1532-yilda 71 yoshda vafot etgan. Hozirgi kunda bu tabarruk maskan Samarqand ziyoratgohlaridan biri sanaladi. Xalq ichida mashhur bo‘lgan bu hududga tashrif buyuruvchilar soni ko‘payib bormoqda. Allomaning turkiy va forsiy tillardagi g‘azallari, hikmatlari, fardlari mazmuniga ko‘ra orifona, nasihatomuzdir. Xudododi Valining qarashlarida tasavvufiy yondashuv kuchli bo‘lgan. Ilm, ma'rifat, poklik, halollik, Alloh go‘zalligi, insoniy go‘zallik to‘g‘risida hayotiy hikmatlar yozadi:

Bu namozu ro‘za hech maqsud emasdur bandaga,

Juz magar andin tonib haqdin yuz o‘girgay tangriga.

Odamini qoyil etdi, qildi xush orif sifat,

Xusnini yaxshi tanitib, qildi oshiq o‘ziga. (Valixo‘jayev, B, O‘rinboyev, B. 1995, B. 30.)

Xudododi Valining aytgan so‘zlari, hikmatlari insonlarni o‘z hayotlarini o‘ylashga, insoniylik, odamiylikdan chiqib ketmaslikka chorlaydi. Shu sababli, uning qabri joylashgan joy ziyoratgohga aylangan. Mazkur qadamjoga insonlar toat ibodat qilish bilan birga o‘z ajdodlari xoki poyiga hurmat bajo keltiradilar, ularga munosib bo‘lishga intiladilar. Qalblarini ma’naviy poklaydilar, yomonlik, isrofgarchilik, yolg‘onchilikdan o‘zlarini tiyish uchun o‘zlariga va’dalar berishadi.

Samarqand viloyatidagi ziyoratgohlardan biri Mahdumi A’zam ziyoratgohi bo‘lib, Maxdumi A’zamning obru-e’tibori nafaqat Movarounnahr, balki, Xuroson va Hindistonda ham mashhur bo‘lgan. Minglab musulmonlar Maxdumi A’zamni o‘zlariga pir deb bilganlar.

Samarqand shahrining Miyonqol hududida joylashgan Dahbed qo‘rg‘oni tabarruk ziyoratgohlardan, ko‘pchilik sayyohlar uchun serqatnov manzildir. Dahbeddagi Mahdumi A’zam ziyoratgohida jami 47 ta qabr-tosh saqlangan bo‘lib ularni ko‘pchiligining shaxsiyatlari aniqlangan. Hozirgi kunda Mahdumi A’zam tarixiy ziyoratgohiga kiruvchi dahma, masjid va xonaqohlar ta’mirlanib, atroflari obodonlashtirildi. Mah-dumi A’zam qoldirgan boy ma’naviy meros bugungi kunda keng miqyosda o‘rganilmoqda va bu ulug‘ zotning ayrim asarlari katta nusxada chop etilmoqda**. (Xudoyorov, I. 2018, sentyabr 24.)**

Xalq orasida shunday rivoyat yuradi: Mahdumi A’zam o‘quvchilarini ibodat vaqti ko‘zlarini ochmasliklariga buyruq beradi. Shunday bo‘lsada, bir o‘quvchi itoat qilmaydi. Ko‘zini ochib qarasa, Eronning zimiston qamoqxonasida bo‘lib qoladi. Mahbusning baqirig‘idan soqchilar qochib ketishadi va tentaknamo bu asirni eroniy shoh huzuriga olib kelishadi. O‘quvchi bo‘lib o‘tayotgan hodisani podishohga tushuntirishga harakat qiladi, lekin bu voqea eron hukmdorini kulguga qo‘yadi, halos. Shunda podshox “yolg‘onchi”ni daraxtga bog‘lab, kulimsirab, “Agar shayxing shunchalik qudratli ersa, seni orqaga olib ketsin. . . ” deydi. Ertasiga bu joyda na murid, na daraxt ko‘rinmaydi - faqat daraxt ildizining o‘rnigina qoladi.

Aytishlaricha, hayratda qolgan eroniy shoh o‘limidan so‘ng Hazratning oyog‘i ostiga ko‘milishni istashiga buyruq beradi. Bu qabrni ko‘rish ham mumkin. Eron tut daraxti esa hanuz o‘sib, o‘zining g‘ayritabiiy shakli va o‘lchami bilan atrofdagilarni hayratga solishda davom etmoqda.

Samarqand zaminida ulug‘ mozorotlar juda ko‘p, ularning ko‘pchiligi tasavvuf allomalariga mansub bo‘lib, Dahbed qabristoni ham shular jumlasidandir. 1993 yilda Maxdumi A’zam qadriyatiga hurmat bilan Samarqand ko‘chalaridan biriga nomi berildi. Maxdumi A’zamning farzandlaridan qolgan avlodlar aksariyat qismi hozirda Dahbed mavzeida yashaydilar va ularning aniq yozilgan shajaralari ham bor.

Mahdumi A’zam to‘g‘risidan tarixchi shoir Kattaxon xojai Muznibiy-Dahbediy o‘zining “Risolai tarixi Dahbediya” asarida shunday yozadi:

Hazrati Maxdumi A’zam dunyoda qutbi zamon

Ravzasi (jannat bog‘i) ahli tariqatga erur dorul-omon.

Marqadi (qabri) pokin ziyorat aylangiz, ey do‘ston

Toki bo‘lgaysiz ikki olamda har g‘amdin omon. (Kattayev, K. 2017, B. 88-89.)

NATIJALAR

Yoshlarni sog‘lom e’tiqodi, to‘g‘ri dunyoqarashini shakllantirishga, shuningdek allomalarimiz ma’naviy merosi va ibratli hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar targ‘iboti asosida vatanparvar, bag‘rikeng va jonkuyar saxovatli, diyonatli shaxs sifatida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Tasavvuf ilmi shakllangan davrda, dunyodan ko‘ngil uzgan, ammo zohidlarga o‘xshamaydigan, “bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan” (Hofiz Sheroziy) zehnu zakovat, aql-farosatda tengsiz, ammo o‘zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini bilgan, ibodatda mustahkam, oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo‘lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bularni ahtulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga oladilar. Ammo bu toifaga “so‘fiy” nomi qo‘llanilgan”. Tariqat pirlari, so‘fiylar hozirgi til bilan aytganda, fidoyi muallimlar bo‘lib, bir necha avlodni asr-asrlardan beri tarbiyalab kelmoqda. (Buxoriy, S. 2017, B. 8.)

“…sufiylar o‘z uy-joylari va yashash manzillarinitashlab, boshqa yurtlarga chiqib ketganliklari sababidan “g‘arib’ (“musofir”), ko‘p yurtlarga sayohat qilganliklari jihatida “sayyoh’, g‘orlarda yashaganlari uchun “shikaftiy” (“g‘orda yashovchi”), doimo och yurganliklari sababli

“ju’iy” (“och”), mol-dunyoga ega bo‘lmaganliklari jihatidan “faqir” (“qashshoq”) hamda qalblari nurga to‘la bo‘lganligi uchun “nuriy” (“nurli”) deb ham atalganlar”. (Rahimov, K, 2002, B. 127.)

G. Navro‘zovaning fikricha, “tasavvufiy qarashlarda komil inson va akmal kishilar bir-biridan farqlanadilar. Bularni avliyo va anbiyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: ba’zilari komil, ba’zilari akmal, bir qismi esa fozil, yana bir qismi afzal, yana biri afzalu akmaldir”. (Navro‘zova, G. 2002, B. 29.)

Pokiza axloq bo‘l har vaqt hama hol,

Pokiza xislatli zot ahli kamol.

Haqning rizosidin ne bor ortiqroq?

Haq rozidur, bo‘lsang pokiza xisol (xislat). (Buxoriy, S. 2017, B. 13.)

Tasavvuf allomalari to‘g‘risida turli qarashlar mavjud, yillar davomida ularning ilm-ma’rifat yo‘lidagi mehnatlari munosib qadrlanib kelinmoqda. Qabrlari esa muqaddas qadamjolarga aylangan. Odamlar ziyoratgohlarga nima uchun borishadi?, Qabrlargachi? Ahli sunna val jamoa nomi bilan mashhur bo‘lgan to‘rt mazhab olimlarining barchasi qabr ziyorati foydali va savobli ekanligini aytib o‘tilgan. . . . Qorilar shayxi Hofiz Jazariy “Hisnul hasiyn” kitobida shunday deb yozadi: “Solih insonlarning qabrlari duo ijobat bo‘ladigan joylardir”.

Inson gunohlarini tan olib, o‘ziga nisbatan Allohga yaqinroq bo‘lgan avliyolarning qabrini ziyorat qilib, u yerda Allohga yolvorar ekan, Alloh taolo o‘sha avliyolar haqqi hurmati uning duosini ijobat qiladi. Bu e’tiqod ko‘rinishi islomda “vasila” ya’ni Allohdan hojatini so‘rashda banda o‘zi va Alloh orasiga bironta avliyoni vosita qilishidir. (Tojiboyev, B. 2013, B. 7.) Qabrlar tarixiy xotira, muqaddas maskan, milliy va ma’naviy qadriyatning ruhiy bekati hisoblanadi. Qabr ahli barcha moddiy ehtiyojdan mosuvodir. Agar hayotliklarida amalga oshirgan ishlari vafotlaridan keyin ham eliga va xalqiga nafli, namunali hisoblansa, ularning xotiralarida yashab, milliy timsolga aylanadi. Muxlislari ixlosdan fayz, faxrdan muxabbat hosil etganlar. Ular avliyo, azizlik martabasiga yetib, qabrlari tabarruk ziyoratgohlarga aylangan. (Jo‘rayeva, S. 2021, B. 7.)

Ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan bu an’ana, ya’ni buyuk, aziz deya ulug‘lanadigan go‘zal qalb va ijod sohiblarining qabrlariga tashrif buyurib, ularning ruhlari shod bo‘lishlarini tilab, duolar qilib, shu asnoda, odamlar ham o‘zlarini qalblarini mehr va g‘ururga, ishonch va umidga to‘ldirib, ma’naviy poklanadilar. Shu sababli, o‘z tarixiy makon va

zamonida ilm, din borasida mashhur bo‘lgan tasavvuf allomalarning mamlakatimiz bo‘ylab joylashgan qadamjolaridan diniy turizmni rivojlantirishda o‘rni kattadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, davlatimizda turizm istiqbollaridan muvaffaqiyatli natijalar kutilayotgan keng islohotlar davrida tasavvuf allomalari qabrlariga e’tibor qaratish, ularni yirik ziyoratgohlarga aylantirish hamda ularning ijodi va faoliyati bilan tanishish imkoniyatini beruvchi muzeylar tashkil etish, obodonlashtirish va homiylarni jalb qilish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish zarur, ikkinchidan, kelajak avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning ibratli hayoti, e’tiqodi, dunyoqarashini har tomonlama o‘rganish, asarlarini tub mohiyatini tushunish maqsadga muvofiqdir, uchinchidan, yoshlarni vatanparvar, bag‘rikeng va jonkuyar, saxovatli, diyonatli shaxs sifatida tarbiyalashda ajdodlarimizning tajribalari metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Мирзиёев, Ш. (2021, В. 174.) Янги Ўзбекистон стратегияси. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

Каттаев, К. (2020, В. 4-15.) Юртимизнинг ўта буюк алломалари, Имом Али Суғдий ва Кумушкент тарихи. Тошкент: НАВРЎЗ.

Каттаев, К. (2017, В. 16-17.) Самарқанднома. Тошкент: Mashhur-press”.

Самъоний. (1993, В. 17.) Китабул-ансоб (тадқ. Ш. Камолиддинов). Тошкент.

Каттаев, К. (2017, В. 16-17.) Самарқанднома. Тошкент: Mashhur-press.

Валихўжаев, Б. Ўринбоев, Б. (1995, В. 30.) Худододи Вали. Самарқанд: СамКИ.

Худоёров, И. (2018, sentyabr 24) Маҳдуми Аъзам зиёратгоҳи http://old. muslim. uz/index. php/-maqolalar/item/10686

Каттаев, К, (2017, В. 88.) Тасаввуф алломалари. Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи nashriyoti.

Комилов, Н. (1996, В. 9) Тасаввуф. Тошкент: Ёзувчи.

Бухорий, С. (2017, В. 8.) Баҳоуддин Нақшбанд ёки етти пир. Тошкент: Наврўз.

Раҳимов, К. (2002, В. 127.) Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). Тошкент: Akademnashr.

Наврўзова, Г. (2002, В. 29.) Нақшбандий тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: фалс. фан. доктори дис. автореф. Тошкент:

Тожибоев, Б. (2013, В. 7.) Қабр зиёрати ва васила// Имом ал-Бухорий сабоқлари. Самарқанд.

Жўраева, С. (2021) Сурхондарё вилояти зиёратгоҳлари тарихи. Тошкент: O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mirziyoyev, Sh. (2021, B. 174.) Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.

Kattayev, K. (2020, B. 4-15.) Yurtimizning o‘ta buyuk allomalari, Imom Ali Sug‘diy va Kumushkent tarixi. Toshkent: NAVRO‘Z.

Kattayev, K. (2017, B. 16-17.) Samarqandnoma. Toshkent: Mashhur-press.

Sam’oniy. (1993, B. 17.) Kitabul-ansob (tadq. SH. Kamoliddinov). Toshkent.

Kattayev, K. (2017, B. 16-17.) Samarqandnoma. Toshkent: Mashhur-press.

Valixo‘jayev, B. O‘rinboyev, B. (1995, B. 30.) Xudododi Vali. Samarqand: SamKI.

Xudoyorov, I. (2018, sentyabr 24) Mahdumi A’zam ziyoratgohi http://old. muslim. uz/index. php/-maqolalar/item/10686

Kattayev, K, (2017, B. 88.) Tasavvuf allomalari. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Komilov, N. (1996, B. 9) Tasavvuf. Toshkent: Yozuvchi.

Buxoriy, S. (2017, B. 8.) Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. Toshkent: Navro‘z.

Rahimov, K. (2002, B. 127.) Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). Toshkent: Akademnashr.

Navro‘zova, G. (2002, B. 29.) Naqshbandiy tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi: fals. fan. doktori dis. avtoref. Toshkent.

Tojiboyev, B. (2013, B. 7.) Qabr ziyorati va vasila// Imom al-Buxoriy saboqlari. Samarqand.

Jo‘rayeva, S. (2021) Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. Toshkent: O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi.

EXTENDED ABSTRACT

THE ROLE OF SHRINES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURIZM

Currently, architectural monuments of cultural significance, associated painting, sculpture, decorative and applied arts, historically established territories of architectural monuments, memorial houses, monumental works of art, anthropology, conservation and the study of ethnography, numismatics, epigraphy, cartography, photographic materials, films, audio-video recordings, works of literature and art, archival documents, ancient manuscripts, archaeological sites are very relevant.

In particular, with the development of tourism, it is necessary to increase the tourism opportunities of the places of mystics, revered as historical saints, and the further development of territories known to the local population in domestic tourism.

Since we want the countries of the world to get to know our Motherland, to see with their own eyes the rich history and culture of our people, they say that these desires can be realized through tourism.

Cities such as Samarkand, Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, Margilon, Termez have ancient historical monuments that attract people from all over the world.

The madrasah on Registan Square and the patterns of ancient buildings have made Samarkand, the old city of the Great Silk Road, one of the most beautiful examples of Islamic architecture in the world.

Samarkand has not only Registan Square, but also many historical monuments, shrines, shrines, some of which are quite famous, while others are known only to local residents.

It is noted that there are important reasons for recognizing tourism as a driver of the country’s economy.

The tourism industry has become the most profitable industry of the 21st century. The development of pilgrimage tourism, as well as other

sectors of tourism, plays an important role in strengthening the national and regional economy of our country.

The potential of our country in terms of pilgrimage tourism is very high, and now a visa-free regime has been created for Muslim countries.

In Uzbekistan, major reforms are being implemented at the state level to create the legal and institutional framework for pilgrimage tourism and tourism development.

Thousands of famous people, hundreds of scientists and dozens of the greatest imams passed through Samarkand. At the moment, we have been able to determine the stories and graves of 25 of the world's greatest scientists only on the soil of Samarkand. This is not the limit, and as a result of future research, their number will increase.

It should be noted that the places where historical monuments are located, belonging to great devotees of science and great artists, experts in Sufism, are known to local residents, and there is little advertised information about them.

Al-Bukhari, ad-Dorami, al-Moturidi, al-Hakim Samarkandi, Abu Laisi, Burkhoniddin Marginani, ar-Rastughfani, al-Kindi, al-Faris, al-Usmandi, an-Nasafi, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Khoja Ahrori Vali, Makhdumi Azam Dahbedi, Sheikh Khudoydodi Vali, Sheikh Makhdumi Khorezmi and Mirza Babur, scientists from Samarkand who spread the glory of our country to the whole world (or those who were buried here and deserved this name) science, mystics and those who made others to believe that there is no other country equal to our holy land in terms of politics.

Since ancient times, the world famous and ancient shrines of Samarkand, such as Shahizinda, Banni Nojia, Hazrat Khizr, Khoja Abdu Darun, Chokardiza, Gori Amir, Khoja Ahrori Vali, Makhdumi Azami Dahbedi, Sheikh Khudoydodi Vali, Khoja Isaki Vali and the famous Islamic cemeteries in Samarkand the world, as well as dozens of unknown cemeteries with a known history, such as Khubab, Fatfar, Khan Sayed Imam, Qutbi Chakhordahum, Rukhabad, Radrad (Razroz), Sangrason, Jurjaniya, the names of which have now disappeared as tourist sites definite.

Educating young people as patriots, tolerant and enthusiastic, generous, pious people based on the formation of a healthy faith, a correct worldview, as well as promoting information about the spiritual heritage and exemplary life of our scientists is appropriate.

Aytishimiz lozimki, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni koʻrib chiqish orqali xar bir inson nafaqat Oʻzbekistonda, balki butun dunyoda "Ommaviy ilmiy turizm" konsepsiyasining asoslarini mohiyati nimadan iboratligini bilib oladi. Shu bilan birga, mualliflarning ilmiy-ommabop turizmni ta'riflashdagi yondashuvlaridan xabardor boʻladilar.

NATIJALAR

Misol qilib, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oʻqish va malakasini oshirish uchun boradigan turistlar ilmiy turizm bilan shugʻullanadi. Yoki bir tilni oʻrganish uchun tashkil qilinadigan tashrif xam ilmiy turizm deyiladi. Turizmning ushbu turi Buyuk Britaniyada rivojlangan (Oʻquv – uslubiy majmua, 2020 йил).

Ilmiy turizmda qiyosiy va tizimli tahlil usullari qoʻllaniladi.

Ilmiy-ommabop turizm nimani anglatishini, soha qanday rivojlanayotgani va qanday qilib ilmiy turizm boʻlish mumkinligini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin.

Ilmiy-ommabop turizm - bu sayohat va ilm-fan sintezi, bu ilgʻor laboratoriyalar va noyob ilmiy inshootlarga tashrif buyurish, ilmiy kashfiyotlar qilgan odamlar bilan shaxsan tanishishdir xam. Ilmiy-ommabop turizm oʻziga xos, ixtisoslashgan. Odatda uni maqsadli auditoriya, kompaniyalar, davlat idoralari vakillari, shuningdek, olimlar tomonidan olib boriladigan konferensiyalar, simpoziumlar, ilmiy sayohatlar yoki ekspeditsiyalarga yuboriladigan tadqiqotchilar va talabalar bunga kiradi.

Ilmiy-ommabop turizm iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish va tegishli ilmiy izlanishlarni ommalashtirishga qaratilgan. Bugungi sayyoh ertaga olim boʻlishi mumkin. Qiziqish boʻlsa, turizmning ushbu yoʻnalishi kengroq auditoriyani jalb qiladi - maktab oʻquvchilari va talabalardan tortib, ilmiy-ommabop tadbirlar muxlislarigacha.

Ushbu yoʻnalishning rivojlanishi xususiy va davlat sektorlari oʻrtasidagi samarali hamkorlikdan iborat boʻlishi mumkin. Oʻzbekistonda mashhur ilmiy sayohatlar institutlari, universitetlar va boshqa muassasalar bilan birgalikda ishlab chiqilishi va shu bilan mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qoʻshishi mumkin. Turizm biznesining yangi yoʻnalishi sifatida boʻlgan ilmiy-ommabop turizmni rivojlantirishning koʻlami va istiqbollari juda yaqqol koʻrinib turibdi.

Bugun biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ushbu turizm industriyasining holati – “Ommaviy ilmiy turizm” faqat butun dunyo bo‘ylab tarqalgan tarqoq tashabbuslarni ifodalaydi.

Bular Google, Yandex va boshqa qidiruv tizimlari, onlayn sayyohlik agentliklari, ularning ishlashini ta’minlovchi IT sektori, oflayn sayohat kompaniyalari, aviakompaniyalar, konsolidatorlar (avia va temir yo‘l chiptalarini qidirish va bron qilish agregatorlari), transport sohasi vakillari va yo‘lovchilarni tashish (avtobuslar, temir yo'l transporti), shaxsiy transportni ijaraga berish xizmatlari, mahalliy diqqatga sazovor joylar, restoranlar, ko‘ngilochar dasturlar haqida ma’lumot tayyorlaydigan tur tashkilotchilari (ekskursiya byurolari, sayyohlik agentliklari); ko‘ngilochar va dam olish, muzeylar va ko‘rgazma zallari; savdo sohasi; turist sayohatga chiqadigan joyda mehmonxonani bron qilish va mijozga xizmat ko‘rsatuvchi agentliklarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatning ulkan ilmiy, ta’lim va turistik salohiyatini hisobga olgan holda, biz ushbu yo‘nalishni O‘zbekistonda ilm-fan va turizm sohasida alohida yangi yo‘nalish sifatida rivojlantirishimiz lozim. Bugun biz dunyoga Birinchi va Ikkinchi Renessans vakillarini namoyon etdik: Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy va ayniqsa, insoniyat tarixidailk Uyg‘onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, Yevropada Al Fraganus nomi bilan mashxur - Axmad Farg‘oniydir, uning ilm fan rivojidagi nufuzi shu qadaryuksak ediki, Oydagi kraterlardan biri uning nomi bilan ataladi, allomadan, uning ilmu fanga qilganxissasini inobatga olib, Koxirada unga haykal qo‘yilgan. Bunday donishmandlarni hayotini, ilmu fandagi hissasini, biz, tabiyki ilmiy ommabop turizm orqali zamondoshlarga yetkazishimiz kerak (Султанов Ф. Х. , Султанова Э. С. 2023).

Bugungi kunda ilmiy-ommabop turizm rivojlantirish yo‘lida biz quyidagi omillarga diqqatni qaratishimiz lozim. Xar bir inson:

-O‘z-o‘zini tarbiyalash va atrofdagi dunyoni bilish orqali shaxsiy rivojlanish;

-sayohat bloglari uchun qiziqarli kontentni olish;

-noyob tarixiy, madaniy va tabiiy ob’ektlar haqida foto va video materiallar ishlab chiqarish;

-kolleksiyalar yig‘ish (minerallar, fotoalbomlar va boshqalar);

-ilmiy bilimlarni ommalashtirish va yoshlar e’tiborini muayyan kasblarga jalb etish;

-ilmiy va o‘quv ekskursiyalarini o‘tkazish;

-yosh mutaxassislarni ilmiy ekspeditsiyalarga tayyorlash bo‘yicha treninglar tashkil qilish.

Bularning barchasi ilmiy-ommabop turizmni PR qiluvchi yosh olimlariga ilmiy ekspeditsiyalarni masalasini hal etishda yordam beradi. Fan va sayohatning bunday simbiozining foydasi shundaki, olim o‘z tadqiqot obyektiga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, sayyoh esa dunyoning noyob ilmiy nuqtai nazariga ega bo‘ladi, sayyoramizning eng qiziqarli joylariga kirish va albatta, qoniqish hosil qiladi.

Shulardan kelib chiqib ilmiy-ommabob turizm yo‘nalishlarini 3 turga bo‘lishimiz mumkin:

1. Talabalar uchun ekskursiyalar va amaliyotlar shaklida o‘quv va amaliy turizm;

2. Arxeologik yodgorliklar, madaniy-tarixiy meros yodgorliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi va boshqa narsalarni o‘rganish uchun kasb-hunar va ilmiy turizm;

3. Universitetlar, ma’ruzalar zallari, muzeylar va ilmiy markazlarga tashrif buyurish.

Ilmiy-ommabop turizm, ilmiy turizm va ijtimoy fanlar bir birlari bilan chambarchas bog‘liq, bir biriga ta’sir etadi.

Ilmiy-ommabop turizm iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etish va tegishli ilmiy izlanishlarni ommalashtirishga qaratilgan.

Turizm biznesining yangi yo‘nalishi sifatida ilmiy-ommabop turizmni rivojlantirishning ko‘lami va istiqbollari juda yaqqol ko‘rinib turibdi. Bugun biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ushbu turizm industriyasining holati – “Ommaviy ilmiy turizm” butun dunyo bo‘ylab tarqalib kelinmoqda.

Mamlakatning ulkan ilmiy, ta’lim va turistik salohiyatini hisobga olgan holda, biz ushbu yo‘nalishni O‘zbekistonda ilm-fan va turizm sohasida alohida yangi yo‘nalish sifatida rivojlantirishni taklif qilamiz.

Ilmiy ommabop Turizm siyosiy marketing, imidjmeyking, tashqi siyosat va ta’lim uchun muhim bo‘lgan ilmiy-ma’rifiy vositasi, u orqali ilmiy bilimlarni talqin qilish, turist qayerga taklif qilingani va u yerda nimani ko‘rishini aniq va qiziqarli tushuntirishdir.

Ilmiy ommabop turizni turli yo‘l bilan rivojlantirish mumkin.

Birinchi navbatda, yoshlar turizmi dasturini ishga tushirish lozim .

U orqali yoshlar malaka oshirishi, ishlab chiqarishda amaliyot o‘tashi, ilmiy tadbirlar va ilmiy maqolalar yozishi, shuningdek, O‘zbekistonning turli hududlariga sayohat qilishlari mumkin. Dasturda talabalar, ilmiy faoliyatda qatnashayotgan yosh olimlar, turli xildagi tanlov g‘oliblari bo‘lgan maktab o‘quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

Masalan, joriy yilning 7-11 avgust kunlari Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi “Lochin” oromgohida “Yoshlar turizmi” II xalqaro hamda ilk marotaba “Yosh ekologlar” harakati qurultoylari o‘tkazildi. Qurultoylar doirasida Yosh turizm elchilari va “Yosh ekologlar” harakati Respublika Kengashlariga saylovlar o‘tkazib, eng faol yoshlar saralanib olindi. Mazkur Kengashlar a’zolarining 2023-2024 yiillar davomidagi faoliyatiga muvaffaqiyat tilab, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va Turizm qo‘mitasi tomonidan ularga kelgusida yirik loyihalarni amalga oshirishda zaruriy sharoitlar yaratib berilishi qayd etildi (uzbektourism. uz, 2023).

Ikkinchi yo‘nalish deb tabiiy sharoitlarda dala hodisalari uchun xos bo‘lgan faoliyat arxeologiya, ekologiya, etnografiya, geologiya, biologiya va boshqa fanlar doirasida amalga oshiriladi.

Turli artefaktlarni qidirish va o‘rganish bo‘yicha tadbirlar o‘tkaziladi, sayohatlar, yozgi dala amaliyotlari va ekspeditsiyalari tashkil qilinib, olimlar, talabalar, gidlar va ko‘ngillilarni jalb qilinadi.

Bugungi kunda Andijon viloyatida turizmning istiqbolli sohalaridan biri arxeologiya turizmi hisoblanadi. Miloddan avvalgi V-IV va milodning IV asrlarda hukm surgan “Dovon” davlatining poytaxti bo‘lgan “Ershi” shahrining tarixi joylashgan “Mingtepa” arxeologiya yodgorligi noyob turizm obektlaridan biridir. Forum Turizm qo‘mitasi, Madaniyat va turizm boshqarmasi, Marhamat tumani hokimligi, Andijon davlat universiteti hamkorligida o‘tkazildi.

Mazkur yodgorlik tarixi bilan keng jamoatchilik, soha mutaxassislari, olimlar tomonidan ushbu obyektni ilmiy jihatdan o‘rganilganda aniqlangan yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida, Marhamat tumanida I-arxeologiya turizmi forumi o‘tkazildi.

Forum doirasida “Mingtepa” tarixi va uning ahamiyati, viloyatda turizm sohasining rivojida o‘rni va yodgorlik bilan bog‘liq ilmiy yangiliklar muhokama etildi (uzbektourism. uz, 2023).

Uchinchi yo‘nalish - buekskursiya. Uning ajralib turadigan xususiyati tematik yo‘nalish bo‘lib, u o‘quv, ilmiy va boshqa kasbiy muassasalarga, laboratoriyalarga, rasadxonalarga tashrif buyurish, o‘zbekistonlik olimlar va mutaxassislar bilan uchrashuvlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Misol sifatida Samarqand shahrida joylashgan “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universitetida Xitoyning Shensi provinsiyasi bilan hamkorlikda “Inson va atrof-muhitni o‘rganish bo‘yicha “Bir makon, bir yo‘l” Xitoy — Markaziy Osiyo qo‘shma laboratoriyasi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu yirik ilmiy loyiha Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-g‘arbiy universiteti tashabbusi bilan Butunjahon turizm tashkiloti (UNVTO) shafeligida Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi binosida tashkil etildi. Laboratoriya hayvon suyaklarini o‘rganish va ular ustida biokimyoviy tadqiqotlar olib borishga ixtisoslashgan 2 ta qismdan iborat bo‘lib, ushbu laboratoriyada O‘zbekiston hududida topilgan har qanday arxeologik qazishma materiallarini tadqiq qilish imkoniyati mavjud bo‘ldi. Qo‘shma laboratoriyani qurish uchun Xalqaro turizm akademiyasining 8-qavatida jami 395 kvadrat metr maydon ajratilgan (uzbektourism. uz, 2023).

Bulardan ko‘rinib turibtiki ilmiy turizm sohasi turli yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek, millionlab kichik biznes va ish o‘rinlari bog’liq bo‘lgan turizm sohasini tiklashni qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va xususiy sektor bilan yaqindan hamkorlik qilinyapti. Turizmning global inqirozi allaqachon milliy iqtisodiyotlarga, odamlarning turmush tarziga va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan sa’y-harakatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jahon sayyohlik tashkiloti a’zo davlatlar uchun iqtisodiyotni tiklash, marketing va rag‘batlantirish, institutlarni mustahkamlash va ularni yanada chidamli qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘plamini e’lon qildi.

Endi o‘ylab ko‘raylik-chi , yana qanday ilmiy turizm loyihalari yaratish mumkin?

Ilmiy turizm salohiyatini ochib beruvchi muvaffaqiyatli loyihalar qatorida meteor yomg‘irlari va shimoliy yorug‘liklarni kuzatish uchun astronomik ekspeditsiyalar o‘tkazuvchi “Astroturizm” ilmiy sayohat klubini tashkil etish, u orqali ko‘pchilikni o‘ziga jalb qilish mumkin. Turizmning bu turi har bir ekspeditsiyada olim-gidlar ma’ruzalar o‘qiydilar, mahorat darslari o‘tkazadilar, yulduzli osmonda oriyentatsiya, astrofotografiya va qiziqarli arxeologik obyektlaro‘rganiladi. Ushbu loyihaning qiziqarli jihati ilmiy turizmning interaktiv xaritasini yaratishdir. Bunda ilmiy nuqtai nazardan tashrif buyurish uchun qiziqarli obyektlar haqida hamda sayyohlar tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan turli ilmiy joylarni (muzeylar, qo‘riqxonalar, rasadxonalar, laboratoriyalar va h. k.) o‘z ichiga olgan interaktiv xaritani yaratishdur.

Ushbu loyihaning o‘ziga xosligi shundaki, har bir obyektga qisqacha ma’lumotnoma, tashrif shartlari va ekskursiya imkoniyatlari, shuningdek tashrif buyuruvchilarning sharhlari qo‘shiladi. Loyiha doirasida, dastlabki bosqichda O‘zbekistonning kamida 40 ta subyekti joylashgan joylarni qamrab olish va kamida 200 ta nuqtani xaritaga tushirish rejalashtiriladi. Masalan, Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent arxeologik yodgorlik majmuasi.

Axsikent eradan avvalgi III asrda tashkil topgan bo‘lib, qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, “Boburnoma”da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Qadimdan bu yerda yerosti suv inshooti bo‘lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shaharlardan iborat bo‘lib, bu yerda o‘z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari yaxshi rivojlangan. Bugungi kunda Axsikentning 100 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir (kun. uz. 2023, iyun 4).

Bunday joylarni tanlashda turist nafaqat qimmatli ilmiy bilimlarga ega bo‘lishi, balki maxsus tayyorgarlikdan o‘tmasdan ham mini-kuzatish yoki tadqiqot olib borishi mumkin. Sayohatning bir qismi sifatida sayyohlar xaritada harakat qilishlari va tashrif buyurishni qiziqtirgan nuqtalarni tanlashlari mumkin. Shu bilan birga, ular o‘z ishlari haqida gapirishga tayyor bo‘lgan turli olimlar bilan tanishishlari mumkin bo‘ladi.

Loyiha doirasida ekspeditsiyalar ikki turga bo‘linadi. Tadqiqot ekspeditsiyasiga qo‘shilishlari va olimga na’muna olish va na’munalarni qidirishda yordam berishlari va shu bilan uning dala ishlarini moliyalashtirish masalasini hal qilishlari mumkin. Shuningdek, ma’ruzalar kursini tinglash, yangi malakalarga ega bo‘lish va qiziqarli joylarga kirish uchun fan ommaboplari va olimlari boshchiligidagi ilmiy-ommabop ekspeditsiyaga borishlari mumkin.

Qo‘llanma ekspeditsiya ishtirokchilarini tanlashni loyihaning asosiy o‘ziga xos xususiyati deb hisoblaydi. Ishtirok etish uchun ishtirokchilar anketa to‘ldirishlari yoki shaxsiy suhbatdan keyin qabul qilinishlari kerak. Bu mas’uliyat va “xato qilish huquqi” yo‘qligi bilan bog‘liq - qisqa o‘n kunlik sayohat uchun guruh puxta shakllangan va ma’naviy va jismoniy qiyinchiliklarga tayyor bo‘lishi kerak degani.

Marshrutni qanday tashkil qilish kerak? Har qanday turizm loyihasini amalga oshirish eng yaxshi marshrutni qurishdan boshlanadi. Ilmiy turizmda diqqatga sazovor joylarning kelajakdagi marshrutga

qanday kiritilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, tadbir turizmi yordamida ilmiy-ommabop yo‘nalishlarni targ‘ib qilish foydali.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va universitetlar ilmiy turizm amaliyotining drayveri va tashkilotchisi bo‘ladigan tuzilmalardir. Biznes va davlat bu turdagi loyihalarning mijozlari va benefitsiarlari hisoblanadi. Ishtirokchilar, birinchi navbatda, maktab va universitet yoshidagi faol yoshlardir. Masalan, talabalar loyiha sifatida maxsus turistik yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llanmalar yaratishi va ularning dizaynini ishlab chiqishlari, tarixiy ahamiyatga ega joylar, universitetlar yoki ekspeditsiyalarning ilmiy yutuqlari uchun strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Ekspeditsiyani tashkil etishda eng muhimi, puxta rejalashtirilgan va puxta o‘ylangan marshrut, shuningdek, to‘g‘ri tanlangan jamoadir.

XULOSA

Mutaxassislarning fikricha, mamlakatimizni ilmiy o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlar va sayoxatchilar tomonidan qiziqish mavjud. Ilmiy-tadqiqot faoliyati tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy faoliyatga qiziqishni oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Turizmda ilmiy yo‘nalishning tiklanishi nisbatan yaqinda boshlangan, bu tendensiyaning paydo bo‘lishiga ekologik kun tartibiga qiziqishning kuchayishi va ekoturizmning rivojlanishi ham yordam berdi.

Turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan “Ommaviy ilmiy turizm” ning o‘ziga xos konsepsiyasi va loyihasini ishlab chiqish fan va turizm sohalarini birlashtirish, ichki va tashqi xalqaro turizmning yangi yo‘nalishlarini taklif etishi bilan katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalish O‘zbekiston hududlarida ilm-fan va o‘qishning jozibadorligini oshirish shakllaridan biri va maktab o‘quvchilari uchun kelajakdagi kasbiy yo‘l-yo‘riq sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Loyihaning ijtimoiy ta’siri ham katta. Ommabop ilmiy turizm O‘zbekiston aholisi va mehmonlariga uning noyob joylari va odamlari bilan tanishish imkonini beradi, sayyohni kelajakdagi olim yoki olim sifatida sayyoh qilib taqdim etadi, yangi joylarni ochadi, akademik hamjamiyatni va turizmni birlashtiradi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda, maqolaning ilmiy yangiligi ushbu yo‘nalishni O‘zbekistonning yangi turistik yo‘nalishi sifatida taqdim etishi, uning tematik sayohat sifatida ta’riflanishi, shu jumladan nafaqat ilmiy, ta’lim va boshqa muassasalarga tashriflar, balki mamlakatimizning diqqatga sazovor joylari, tarixi, madaniy yodgorliklari dasturlarini targ‘ib qilishdan iboratdur. Ilmiy-ommabop turizm rivojlanishi orqali davlatimiz imidji dunyoda yanada

betakror bo‘ladi. Shahrimiz va mamlakatimizning ulkan ilmiy, ta’lim va sayyohlik salohiyatini hisobga olgan holda va amaliy tajribaga asoslanib, O‘zbekistonda turizm va ilm-fan sohasida yangi yo‘nalish sifatida ilmiy turizmni rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mirziyoev, Sh. (2016, dekabr 6). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/oz/lists/view/64

Turizm: nazariya va amaliyot. TOSHKENT-2018. 20. 2. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojiantirish holati B. 327 https://e-library. namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Turizm. %20nazariya%20va%20amaliyot. %20Boltaboyev%20M.R%20va%20boshqalar. pdf

Крылова Е. А. Развитие научного туризма в Северо-Западном регионе РФ // Будущее науки в Санкт-Петербурге: Сборник трудов Региональной молодежной научной конференции. Санкт-Петербург, 2021 http://www. spsl. nsc.ru/FullText/KONFE/elibrary_48052766_89790627. pdf

Научный туризм на Полярном Урале как пример возможного сотрудничества в Арктическом регион // Полярные чтения на Ледоколе «Красин». – 2020. – с. 392–400. https://cyberleninka.ru/article/n/nauchnyy-turizm-na-polyarnom-urale-kak-primer-vozmozhnogo-sotrudnichestva-v-arkticheskom-regione

Slocum S. , Kline C. , Holden A. Scientic Tourism. Researchers as Travellers. / 1st Edition. – London: Routledge, 2015. – 212 p. https://www. researchgate. net/publication/360290423_Naucno-popularnyj_turizm_kak_novoe_turisticeskoe_napravlenie_v_ekonomike_Rossii_Popular_science_tourism_as_a_new_tourist_destination_in_the_Russian_economy

Vialette Y. , Mao P. , Bourlon F. Le tourisme scientifique dans les Alpes françaises: un laboratoire pour la médiation scientifique et la recherche // Journal of Alpine Research | Revue de géographie alpine. 2021. Iss. 109-2. https://journals. openedition. org/rga/9337

TURIZM GEOGRAFIYASI fanidan O‘quv – uslubiy majmua 2020 йил. file:///C:/Users/User/Downloads/16shriftqollanmausmonovtipografiya uchun. pdf

Султанов Ф. Х. , Султанова Э. С. Шарқ тафаккур нурини дунёга танитган юртимизнинг буюк алломалари. -Т, 2023

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi. “Yoshlar turizmi” va “Yosh ekologlar” harakati qurultoylari yoshlarni birlashtirishda muhim platformaga aylanmoqda. 11 avgust, 2023 yil. https://uzbektourism. uz/news/view?id=2850

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi. Qashqadaryo “turizm xabi” ga aylanish yo‘lida. 4 sentabr 2023 yil.

https://uzbektourism. uz/news/view?id=2867

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi. Samarqandda xalqaro qo‘shma laboratoriya tashkil qilindi. 5 sentabr 2023 yil. https://uzbektourism. uz/

Axsikent yodgorligida to‘rtta ochiq osmon ostidagi muzey quriladi. 4 iyun 2023 yil https://kun. uz/uz/news/2023/07/04/axsikent-yodgorligida-tortta-ochiq-osmon-ostidagi-muzey-quriladi

EXTENDED ABSTRACT

This article substantiates its role as a priority direction of the state development of popular scientific tourism. Analysis of the current development, policy aimed at the development of tourism, the role of scientific tourism as a business, its impact on the state's external position and economy, the development and establishment of scientific popular tourism, which is considered a new direction of tourism, the rational use of existing resources, the development and promotion of new projects to the public the prospects of making are discussed. By developing this type of tourism, it is possible to show its attractiveness not only to foreigners, but also to the Uzbek people, to arouse interest, including citizens' attention to the scientific organizations and scientific researches of their country, to strengthen the sense of patriotism and pride in their country, as well as to form a reserve of personnel, results aimed at increasing the country's personnel potential among young people will be discussed.

It is known that in the conditions of the changing international processes in the world, the financial crisis, and the closure of borders due to the pandemic, representatives of the tourism industry, politicians and economists of many countries are thinking about which areas of tourism should be developed in the conditions of unrest, and what new products the business can produce. Undoubtedly, tourism is an important economic factor that serves to increase the economy and employment of

people all over the world. Therefore, the types, directions and perspectives of the scientific-popular tourism project as a new project of tourism are mentioned in the article. According to experts, there are necessary conditions for the scientific study of our country and the interest of travelers. Scientific research activities are an important step towards preserving natural and cultural heritage and increasing interest in scientific activities. The revival of the scientific direction in tourism began relatively recently, the emergence of this trend was helped by the increased interest in the ecological agenda and the development of ecotourism.

The development of a unique concept and project of "Public scientific tourism", which can be of great importance for the development of tourism, is of great practical importance as it combines the fields of science and tourism and offers new directions of domestic and foreign international tourism. . This course is one of the forms of increasing the attractiveness of science and study in the regions of Uzbekistan and can be considered as a future professional guidance for schoolchildren. The social impact of the project is also great. Popular scientific tourism allows residents and visitors of Uzbekistan to get to know its unique places and people, presents the tourist as a future scientist or scientist, opens up new places, unites the academic community and tourism.

Thus, summarizing the above, the scientific novelty of the article is the presentation of this route as a new tourist destination of Uzbekistan, its description as a thematic trip, including visits to not only scientific, educational and other institutions, but also is to promote programs of attractions, history, cultural monuments. Through the development of popular scientific tourism, the image of our country will become more unique in the world. Taking into account the huge scientific, educational and tourist potential of our city and country and based on practical experience, we believe that it is necessary to develop scientific tourism as a new direction in the field of tourism and science in Uzbekistan.

O’ZBEKISTONDA TARMOQLARARO TURISTIK-REKREATSIYA KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH

Dotsenti Olimjanova Sh. O. ,

O’ zbekiston milliy universiteti,

“Alfraganus universiti” universiteti

Magistranti Xayrullaev S. I. ,

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik

siyovushxayrullayev91@gmail. com

“Xabar. uz” axborot-tahliliy portali muharriri

Polat

Annotatsiya

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida turizm aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar milliy daromadining asosiy manbai hisoblanadi. Turistik mahsulotlarni eksportini oshirish har bir milliy iqtisodiyotda qo’shimcha talabni paydo qiladi va aholining ish bilan bandligi darajasi oshishi va xorijiy valyuta tushumlari ko’payishini ta’minlaydi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirish qo’shimcha qiymat zanjirining oshishini, iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. COVID-19 pandemiyasidan keyin dunyo miqyosida ichki turizmni rivojlantirish hisobiga turizm xizmatlari bozorida pasayib ketgan turistik oqimni tiklash uchun mamlakatimizda ham keng sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu esa, aholini turistik-rekreatsiya xizmatlariga bo’lgan talabining ortishiga va ushbu

xizmatlarning samarali taklifini shakllantirish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Mamlakatimiz mintaqalarida turistik-rekreatsiya faoliyatini tashkil etishning samarali yo'nalishlaridan biri bo'lgan tarmoqlararo rekreatsion xizmatlar ko'rsatish klasterlarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Maqolada mamlakatimizda turistlar tomonidan talab etiladigan rekreatsion-turistik xizmatlar masalalari yoritilgan. Shuningdek, turizm va rekreatsiya sohasida klasterli yondashuv cheklangan hududda sayyohlar va boshqa iste'molchilar (mahalliy aholi, rekreantlar)ning ehtiyojlarini qondiradigan turli korxona va tashkilotlarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlarini ta'minlash chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, turistik mahsulotlar, xizmat ko'rsatish, rekreatsion-turistik xizmatlar, klaster, rekreatsion salohiyati, mehmonxona, motel, kemping, rekreatsion obyekt, rekreantlar.

THE DEVELOPMENT OF INTERBRANCH TOURISM-RECREATION CLUSTERS IN UZBEKISTAN

Associate professor Olimjanova Sh. O. ,

Alfraganus University

ORCID: 0000-0001-9600-6009

Graduate student Xayrullaev S. I.

siyovushxayrullayev91@gmail. com

Pulatova M. Yu. ,

maftuna. yusupovna@gmail. com

KIRISH

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida turizm aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar milliy daromadining asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi. Turistik mahsulotlarni eksportini oshirish har bir milliy iqtisodiyotda qo‘shimcha talabni paydo qiladi va aholining ish bilan bandligi darajasi oshishi va xorijiy valyuta tushumlari ko‘payishini ta'minlaydi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirish

qo‘shimcha qiymat zanjirining oshishini, iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization (UNWTO)) ma'lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda jahonda turistlar soni 2020 yilga nisbatan 4%ga, ya'ni 400 mln. kishidan 450 mln. kishiga qadar oshdi. 2021 yilda xalqaro turizm xizmatlari qiymati 1, 9 trln dollar baholanmoqda. Ushbu ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan 1, 6 trln. dollarga yuqori bo‘lishiga qaramasdan pandemiya inqiroziga qadar erishilgan 3, 5 trln. dollarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichligicha qolmoqda [https://www. unwto. org/news/tourism-grows-4-in-2021].

Jahon amaliyoti milliy iqtisodiyotning alohida tarmoq yoki sohalarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish samarali usullardan ekanligini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz mintaqalarida turistik-rekreatsiya faoliyatini tashkil etishning samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tarmoqlararo rekreatsion xizmatlar ko‘rsatish klasterlarini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Pandemiya sharoitida jahonda turizm xizmatlari bozorida pasayib ketgan turistik oqimni ichki turizmni rivojlantirish hisobiga tiklash muammosi dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanib bormoqda. Bu o‘z navbatida aholini turistik-rekreatsiya xizmatlariga bo‘lgan talabining ortishi va ushbu xizmatlarning samarali taklifini shakllantirish masalasini kun tartibi tartibiga qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish vazifasi belgilangan[https://strategy. uz/index.]. Ushbu vazifani hayotga tatbiq etishning muhim omillaridan biri mamlakatimiz turistik-rekreatsion salohiyatini klaster usulida rivojlantirish hisoblanadi. Klasterlar, jumladan, turistik klasterlar o‘ziga xos innovatsiontizim bo‘lib, butun mintaqa iqtisodiyotining samarali rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshirish, fan, kadrlar tayyorlash tizimi va biznes o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Shu sababdan turistik klasterlarni shakllantirishning ilmiy va amaliy jihatlarini o‘rganish, bu masala bo‘yicha jahon tajribasini tahlil etish asosida mamlakatimizda turizm klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Turizm sohasini rirojlantirish va tartibga solish mexanizmlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha turli xil qarash va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bu boradagi tadqiqot ishlari keng qamrovliligi va tadqiqot mavzularining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar asosiy etiborni xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlariga qaratishgan [International Journal December 2018]

Alimova M. T. , Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini [Samarqand – 2017], Ibragimov, N. S. turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, Tuxliev N. , T. Abdullaevalar turizmni rivojlantirishning milliy modellarini yoritishgan [“O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006].

Martin va Sanli ma'lumotlariga ko‘ra, klasterlar konsepsiyasi borasida turli mavhumliklar mavjud bo‘lib, bu mualliflar uchun “kosmosdagi klasterlarni aniqlash osonroq” degan fikrga kelishgan. Soun va Prevezer uni oddiy tarzda aniqladilar, ya'ni klaster – ma'lum geografik makonda joylashgan bir guruh kompaniyalar yig‘indisidir. “Klaster” tushunchasini birinchi bo‘lib fanga Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter kiritgan bo‘lib, uning e'tirof etishicha, “klaster – bu bir-biri bilan raqobatlashuvchi, lekin shu bilan birga, butun klasterning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida o‘zaro hamkorlikda faoliyat yurituvchi, geografik jihatdan yaqin joylashgan tashkilotlarning o‘zaro bog‘langan guruhlari, ular faoliyatiga ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatish tashkilotlari, jihozlar yetkazib beruvchi tashkilotlar, ularga hamroh tarmoq tashkilotlari, shuningdek, ularning faoliyati bilan bog‘liq turli soha tashkilotlari va boshqa bir qator tashkilotlar guruhidir”[Turistik hudud raqobatbardoshligi 2017].

M. Porter fikricha, mamlakat, hudud va tarmoq raqobatbardoshligini ta'minlashda alohida korxonalar emas, balki klasterlar belgilovchi ahamiyat kasb etadi [Porter M. E. 1998. # 76 (6)]. Jekson va Murfi klasterlar tushunchasini turizm sohasiga tadbiq etish, mahsulotning mahalliy bazalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi va o‘zaro bog‘liq kompaniyalarning aglomeratlarning shakllanishiga olib keladigan qo‘shma harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan holda mos kelishini ta'kidlaydi. M. Porter turizm klasteriga tegishli elementlarning

muhimligini ta'kidlab, sayyohlar extiyojini qondirish nafaqat joyning diqqatga sazovorligi balki mexmonxonalar, restoranlar, savdo markazlari va transportning samaradorligi va sifatiga bog‘liqligini ko‘zda tutgan. T. A. Lavrovaning fikricha, “turistik-rekreatsion klasterlar o‘zaro bog‘liq rekreatsion va madaniy ob'ektlar majmuini tashkil etadi.

Bunda zarur infratuzilma bilan ta'minlangan ovqatlanish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning mablag‘lari hamkorlikda sohani rivojlantirishga yo‘naltiriladi [Вестник Национальной академии туризма. – №3 (19), июль-сентябрь], O. M. Kalchenko esa “turistik klaster turistik xizmatlar tarkibiga kiruvchi asosiy va qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning texnologik va axborot nuqtai nazaridan o‘zaro intensiv bog‘lanishdagi tizim”, deya ta'rif beradi [Кальченко О. М. 2009].

O‘zbekiston Repsublikasining «Turizm to‘g‘risidagi» Qonunida esa turistik klasterga quyidagi ta'rif berilgan «. kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui turistik klasterdir. Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshliligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ‘ib etadi va realizatsiya qiladi»

[O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risidagi» Qonuni].

Ko‘rib o‘tilgan mutaxassislarning fikriga ko‘ra, xozirgi kunda mamlakat turizmsalohiyatini dunyoga namoyon qilishda turizm xizmatlarini, turistik-rekreatsion salohiyatini tarmoqlararo turistik-rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Demak, iqtisodiy nuqtai nazardan klaster muayyan hududda o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlari va kapitalning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi, umumiy raqobat ustunliklarining mavjudligi, kuchli raqobat muhiti bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda turizmni rivojlanishini tahlil qilish natijasida mamlakatimizning turistik-rekreatsiyasohasidagi klasterlarniaholash monografik tadqiqot asosida nazariy jihatdan o‘rganib chiqildi. Rasmiy statistik ma'lumotlari asosida Stata va R-Studio dasturi tahlildan foydalangan holda, asosiyko‘rsatkichhisoblangan rekreatsiya xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi resurs komponent ko‘rsatkichlari vaqtliqatorlari negizida ekonometrik model aniqlandi. Modeldan mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari sonining 1

donaga ko‘payishi, mamlakat hududi bo‘ylab sayohatga chiqqan O‘zbekiston fuqarolarining soni 2. 6594martaga o‘sishiga olib kelar ekan.
.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, korrelyasion-regression tahlil, tahlilva sintez usullaridanfoydalanildi.

Tahlil va natijalar

Turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Mintaqalarning turistik salohiyatidan samarli foydalanish iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bu borada turistik-rekreatsion klasterlar doirasida kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Chunki, ular iqtisodiy sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Shu bilan bir vaqtda O‘zbekistonda turizm tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat va yalpi ichki mahsulotningmamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi pastligicha qolmoqda. Jumladan, ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2019 yildagi 4, 6 va 4, 3 foizdan pandemiya inqirozining salbiy ta'siri natijasida 2021 yilga kelib 2, 6 va 0, 7 foizgacha qisqargan. Mamlakat ichidagi turizmga oid iste'molning iqtisodiy tarmoqlarning ichki taklifidagi ulushi ham bor yo‘g‘i 0, 6 foizni tashkil etadi (1-rasm)



1-rasm. Turizm tarmoqlarining mamlakat yalpi ichki

mahsulotidagi ulushi, jamiga nisbatan foizda

Tahlillar O‘zbekiston turizm tarmoqlarida band bo‘lganlar sonining ham pandemiya inqirozi tufayli 2019-2021 yillarda 231 431 kishidan 208 053 kishiga qadar qisqarganligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda turizm tarmoqlarida band bo‘lganlarning salmoqli qismi umumiy

ovqatlanish korxonalari xizmatlari (32, 7%), tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar (24, 8%) va quruqlikdagi yo‘lovchi transporti (23, 2%) xizmatlariga to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rsatmoqda. Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari (2, 5%), madaniyat sohasidagi xizmatlar (6, 0), sport va dam olish bo‘yicha xizmatlari (8, 2%) kabi mintaqalarning rekreatsion salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi yo‘nalishlar ulushi pastligicha qolmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston turizm tarmoqlarida bandlik, jamiga nisbatan foizda

Turizm tarmoqlari	**2019**	**2020**	**2021**
1. Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar	23, 6	26, 1	24, 8
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari	28, 8	28, 4	32, 7
3. Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari	2, 3	2, 2	2, 5
4. Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari	30, 6	26, 3	23, 2
5. Havo yo‘li yo‘lovchi transporti xizmatlari	0, 9	0, 8	1, 0
6. Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	0, 8	0, 6	0, 7
7. Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo‘yicha boshqa xizmatlar	1, 4	1, 3	1, 2
8. Madaniyat sohasidagi xizmatlar	4, 8	6, 1	6, 0
9. Sport va dam olish bo‘yicha xizmatlari	6, 9	8, 2	8, 2
Jami:	**100**	**100**	**100**

Turizm sohasini klaster asosida rivojlantirishmahalliy rekreatsion resurslardan yanada samarali foydalanish, ishsizlik muammosini hal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to‘ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Mintaqalarning turistik-rekreatsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil, tizimli islohotlar 2010-2022 yillarda ichki turizmning jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda mintaqalarning turistik-rekreatsion salohiyatidan ustun darajada ichki turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq. Sohani klasterli yondashuv asosida rivojlantirish istiqbollarini baholash uchun ichki turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar, turistik ob'ektlar soni, jumladan mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari kabi omillar olindi. Ushbu bog‘liqlikni aniqlash maqsadida aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar miqdori, jami turistik ob'ektlar, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari sonini aniqlab olamiz (2-jadval)

2-jadval

Ichki turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar dinamikasi

Yillar	Ichki sayyohlar soni, ming kishi	Jami joylashtirish vositalari soni	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar, so‘m	Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari
2010	846	440	2038700	251
2011	1029	580	2729900	341
2012	1208	720	3267800	432
2013	1392	860	3902700	522
2014	1571	1000	4472000	613
2015	1757	1053	5127500	661
2016	1871	1184	5887900	750
2017	2145	1307	6681400	816
2018	2255	1503	7767000	916
2019	2480	1785	9509600	1051
2020	2661	1839	10734300	1156
2021	2843	1978	13416800	1246
2022	3025	2118	16099000	1337

O‘zbekiston fuqarolarining mamlakat hududi bo‘ylab sayohatga chiqishini natijaviy ko‘rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritamiz va “Y” bilan belgilaymiz. Turizmga oid obyektlar (X1), aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar (X2), mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari (X3) funksiyaga ta’sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi. 3-jadval ma’lumotlari asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (4-jadval).

3-jadval

O‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya matritsasi

	Ichki turizm, ming kishi (Y)	Turizmga oid jami obyektlar ($Õ_1$)	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar ($Õ_2$)	Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari ($Õ_3$)
Ichki turizm, ming kishi (Y)	1			
Jami obyektlar ($Õ_1$)	0, 9955141	1		
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchireal daromadlar ($Õ_2$)	0, 9596021	0, 9656322	1	
Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari ($Õ_3$)	0, 9974265	0, 9982528	0, 9702884	1

4-æàääâàë

***Regression statistika*à)**	
Ko‘p miqdorli R	0, 998
R-kvadrat	0, 9961
Norma R-kvadrat	0, 993
Standart xatolik	50863
Kuzatuvlar	13

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);b);c);)

3-jadvalda keltirilgan R korrelyatsiya koeffiyenti bo‘lib, u omillar o‘rtisidagi bog‘lanish zichligini ko‘rsatadi. Demak, ichki turizm tarkibida turizmga oid jami obyektlar, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromadlar, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari O‘zbekiston fuqarolarining mamlakat hududi bo‘ylab sayohatga chiqishlari soni o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar

o‘zgarmas bo‘lgan holatda 0, 998 ga teng ekan. Bu ko‘rsatkich ushbu omillar o‘rtasida juda kuchli bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Dispersion analiz				**b)**
	df	*SS*	*MS*	*F*
Regressiya	3	5. 9579e+12	1. 9860e+12	767. 65
Qoldiq	9	2. 3284e+10	2. 5871e+09	
Jami	12	5. 9812e+12	4. 9843e+11	

c)

	Koeffitsiyentlar	***Standart xatolik***	***t-statistika***	***Past 95%***	***Yuqori 95%***
Ozod had (à)	319414. 4	0. 4620555	-0. 49	-1. 269651	0. 8208336
O‘zgaruvchi (*Õ₁*)	-0. 2244086	0. 0144097	-1. 69	-. 0569892	0. 008205
O‘zgaruvchi (*Õ₂*)	-0. 0243921	0. 7809292	3. 41	0. 8928159	4. 425985
O‘zgaruvchi (*Õ₃*)	2. 6594	48885. 22	6. 53	208828. 4	430000. 5

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ichki turizmga kuchli ta’sir etuvchi omil mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari bo‘lib chiqmoqda. Boshqa o‘zgaruvchilarning ishonch intervallarida 0 mavjudligi sabab, to‘plangan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda ahamiyatsiz bo‘lib chiqdi.

Stata va R-Studio dasturlaridagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzamiz:

$$Y = 319414.4 + 2.6594 \times X3$$

$R = 0, 998$ $D = R^2 = 0, 9961$ $F = 767. 65$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari sonining 1 donaga ko‘payishi, mamlakat hududi

bo‘ylab sayohatga chiqqan O‘zbekiston fuqarolarining soni 2. 6594 martaga o‘sishiga olib kelar ekan.

Prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali ichki sayyohlar, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari o‘sishini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz. Bunda trend $y=a_0+b_1\times t$ funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funksiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra yillar o‘zgaruvchilar (t) hisoblanadi.

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentining ahamiyatlilgini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Styudentning t-me’zonidan foydalaniladi.

t-me’zonning haqiqiy va Styudent jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo‘lishi uchun:

$t_{haqiqiy} > t_{jadval}$ bo‘lishi kerak.

Styudentning t-mezoni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini hisoblab, $Í_0$ gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun t-mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($\text{d.f.} = n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni.

5-jadval

Ichki sayyohlar sonining davr uchun o‘sish funksiyasi

o‘xshash						

6-jadval ma’lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0{,}05$ va ozodlik darajasi d. f. =13-1-1=11 bo‘lganda, t-mezoning jadval qiymati t_{jadval}=2, 16 ga teng. Barcha hisoblangan t-mezoning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo‘lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

6-jadvaldagi funksiyalar asosida ichki sayyohlar sonini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz (6-jadval).

6-jadval

Ichki turizmning rivojlanish istiqbollari

Yillar	T	Ichki sayyohlar soni, kishi (Y)	Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari, ($Õ_1$)
2023	16	3206143	1427
2024	17	3387935	1518
2025	18	3569235	1608
2026	19	3750909	1699
2027	20	3932299	1789
2028	21	4113904	1880
2029	22	4295346	1970
2030	23	4476912	2061

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2030 yilda prognoz qilinayotgan ichki sayyohlar soni 4476912 kishini tashkil qiladi. Agarda bu qiymatni 2022 yildagi qiymat (3025000) bilan taqqoslasak, ichki turizm hajmi 1, 47 barobarga, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni esa 1, 54 martaga oshishi mumkin.

Xulosa

Klaster asosida rivojlantirish tarafdorlari fikricha rekreatsion-turistik faoliyatidan manfaatdor barcha tomonlarning birgalikda faoliyat olib borishlarida real hamkorlik mexanizmi hisoblanadi. Klasterlar xususiy kompaniyalar va davlat organlarining o‘zaro munosabatlarini samarali tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Klasterlarning turli mamlakatlar iqtisodiyotida keng qo‘llanilishiga qaramasdan ularning iqtisodiy tabiati to‘lig‘icha ochib berilmagan. Nazariya va amaliyotda iqtisodiyotdagi klaster jamiyat va tabiatdagi kasterlashtirish jarayonining namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Turizm va rekreatsiya sohasida klasterli yondashuv cheklangan hududda sayyohlar va boshqa iste’molchilar (mahalliy aholi, rekreantlar)ning ehtiyojlarini turistik-rekreatsion mahsulotlar bilan

ta’minlay oladigan turli korxona va tashkilotlarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlarini ta’minlashga yordam beradi.

Mintaqalarning turistik salohiyatidan samarli foydalanish iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bu borada turistik-rekreatsion klasterlar doirasida kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Chunki, ular iqtisodiy sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Shu bilan bir vaqtda O‘zbekistonda turizm tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat va yalpi ichki mahsulotningmamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi pastligicha qolmoqda. Jumladan, ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2019 yildagi 4, 6 va 4, 3 foizdan pandemiya inqirozining salbiy ta’siri natijasida 2021 yilga kelib 2, 6 va 0, 7 foizgacha qisqargan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy mintaqalarning turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, turli imtiyozlarni joriy qilish yo‘li bilan turizm sohasiga yanada ko‘proq investorlarni jalb qilib, mukammal raqobatni shakllantirish; ishonchli ma’lumotlarni ta’minlovchi va qayta ishlovchi tashkilotlarni klasterlar tarkibiga a’zo sifatida kiritish; katta hajmda tovar aylanmasini ta’minlash maqsadida viloyatlar va transchegaraviy aloqalarni rivojlantirish; klasterlar va ta’lim muassasalari o‘rtasida xamkorlikni qo‘llab quvvatlash; O‘zbekistonda eng arzon tashish usuli temir yo‘l transporti hisoblangani uchun klaster munosabatlari rivojlantiriladigan hududlarda temir yo‘llar qurish.

Tahlillar, mintaqalarning turizm imkoniyatlarini oshirishda turizm infratuzimasini rivojlantirish bilan bog‘liq klasterli yondashuv qator afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari sonining 1 donaga ko‘payishi, mamlakat hududi bo‘ylab sayohatga chiqqan O‘zbekiston fuqarolarining soni 2. 6594 martaga o‘sishiga olib kelar ekan.

Ekonometrik model asosidaga prognozlar ko‘rsatishicha, 2030 yilda prognoz qilinayotgan ichki sayyohlar soni 4476912 kishini tashkil qiladi. Agarda bu qiymatni 2022 yildagi qiymat (3025000) bilan taqqoslasak, ichki turizm hajmi 1, 47 barobarga, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni esa 1, 54 martaga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risidagi” Qonuni Toshkent

2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Êàëü÷åíêî Î. Ì. Êëàñòåðèçàöèÿ â òóðèñòñêîé ñôåðå [Ýëåêòðîííûé ðåñóðñ] // Ïðîáëåìû ýêîíîìèêè. 13, 2009.

Ëàâðîâà Ò. À. Ôîðìèðîâàíèå òóðèñòñêî-ðåêðåàöèîííûõ è àâòîòóðèñòñêèõ êëàñòåðîâ â Ñàíêò-Ïåòåðáóðãå êàê îñíîâà ýôôåêòèâíîãî óïðàâëåíèÿ òóðèçìîì // Âåñòíèê Íàöèîíàëüíîé àêàäåìèè òóðèçìà. – 13 (19), èþëü-ñåíòÿáðü 2011. – Ñ. 35.

Porter M. E. Clusters and the new economics of competition // Harvard Business Review. 1998. # 76 (6). P. 77–90

Turistik hudud raqobatbardoshligi [Matn]: Monografiya \ i. f. d. , prof. B. N. Navruz-Zoda tahriri ostida. Mualliflar: Navruz-Zoda B. N. , Ibragimov N. S. , Navruz-zoda Z. B. , Navruz-zoda Sh. B. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 - 156 b.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (stat. uz)

https://www. unwto. org/news/tourism-grows-4-in-2021-but-remains-far-below-pre-pandemic-levels

Extended abstract

Under conditions of the innovation-based development of the economy, tourism is consideredthe primary source of the national income of most developed and developing countries. Raising the export of tourism products creates additional demand in each national economy and ensures an increase in the employment level of the population, as well as an increase in foreign exchange earnings. Therefore, tourism development in the national economy is essential for the increase of the added value chain and economic development achievement.

The world practice demonstrates that the development of individual branches or sectors of the national economy in reliance upon the cluster approach is one of the efficientmethods. Development of multisectoral recreation service clusters, which is one of the effective areas for organizing tourism and recreation activities in the regions of our country, is considered a promising focus area.

In the conditions of the pandemic, the problem of restoring the tourist flow that has decreased in the market of tourism services in the world due to the development of internal tourism, is becoming an urgent scientific and practical problem. This, in turn, puts on the agenda the issue of

enhancing the demand of the population for tourism and recreation services and formation of an efficientoffer of these services.

Kavitatsiyali oqimlar masalasini yechishda asosan ikki usuldan foydalaniladi: integral tenglamalar usuli va chekli ayirmalar usuli. Kavitatsion oqimning nazariy Ryabushinskiy yoki Jukovskiy – Roshko sxemalari ishlatiladi.

Ma'lumki, chekli ayirmalar usulida oqim sohasi to'r bilan qoplanib, tugun nuqtalarida funktsiyaning tezlik potentsiali φ yoki Φ, oqim funktsiyasi ψ qiymatlari qo'yiladi. Shu holda uzluksiz funktsiya va argumentdan diskret funktsiya va argumentga o'tiladi. Har bir tugunda funktsiyaning qiymatlari va tugunlar atrofida funktsiyaning birinchi va ikkinchi hosilasining qiymatlari topiladi. Shu asnoda berilgan Φ yoki oqim ψ funktsiyasi uchun olingan differentsial tenglamaning chekli ayirmalardagi analogini quramiz. Chekli ayirmalardagi Φ yoki oqim ψ funktsiyasining qiymatlarini topish uchun tenglamaning chekli ayirmalardagi analogini algebraik tenglamalar sistemasiga keltiramiz.

Algebraik tenglamalar sistemasining yechimi chegaraviy shartlarning chekli analoglari bilan birgalikda ishlanadi.

Kavitatsion oqimlar masalasini yechish iteratsiya usulida olib boriladi. Boshlang'ich qadamda pufakchaning oddiy shakli olinib, to'g'ri masala yechiladi. Bu holda oqimning pufakcha joylashgan qismida bosim o'zgarmasligi sharti bajarilmaydi. Keyingi qadamda esa, fizik shaklga zarar yetkazilmasdan pufakchaning shakliga korrektsiya kiritiladi va hisoblash ishlari tsikli qaytariladi. Hisoblash ishlari pufakcha shaklining limit qiymatini olganida to'xtatiladi.

Kavitatsion oqim masalasini Ryabushinskiy sxemasida yechamiz. Buning uchun uzluksiz uyurmalardan iborat sirtda yoki uyurmali qatlamda oqim funktsiyasini quyidagi ko'rinishda quramiz:

Pachkamar suv omborining suv galereyalarining eshiklari ortida kuchli eroziya va vayronagarchilikka olib keladigan shiddatli oqim mavjud. B. D. Kachanovskiy tomonidan ikkita ketma-ket o‘rnatilgan qulflarning suv o‘tkazgichlarini gidravlik hisoblash usuli ishlab chiqilgan. Birinchi zatvor orqasidagi bosimni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\frac{p_1}{\gamma} = h_t + \left(\varsigma_2 - 1 - 2\sqrt{\varsigma_{зт_1}} + \varsigma_{зт_2}\right) \quad (1)$$

1-rasm. Tanlangan rejimdan eshiklarning harakatlanish mexanizmi.

Ikkinchi – formula bilan:

$$\frac{p_2}{\gamma} = h_t + \left(\varsigma_2 - 1 - 2\sqrt{\varsigma_{3m_1}}\right)\mu_t^2 H_t \quad (2)$$

Har bir vaqtning o'zida bosim aniqlanadi lekin tenglamaga [1]:

$$\sqrt{H_t} = \sqrt{H_0} - \frac{\omega\sqrt{2g}}{2\Omega}\int_0^t \mu_t dt \quad (3)$$

Qayerda

$$\mu_t = \frac{1}{\sqrt{\sum\varsigma}} = \frac{1}{\sqrt{\varsigma_1 + \varsigma_2 + \varsigma_{3m_1} + \varsigma_{3m_2}}} \quad (4)$$

Ushbu formulalarda p_1 va p_2 - birinchi va ikkinchi eshiklarning orqasida siqilgan bo'limlarda galereya shiftidagi o'rtacha ortiqcha bosim (2, a-rasm);

H_0, H_t - t vaqtidagi shlyuz va bosh uchun dastlabki bosim; h_0, h_t - galereya shiftini dastlabki daqiqada va t momentida kameradagi suv sathiga ko‘mish; Ω - shlyuz kamerasidagi suv oynasi maydoni; ω - galereyaning taxminiy tasavvurlar maydoni; ς_1, ς_2 - birinchi va ikkinchi eshiklardan pastda joylashgan galereya qismlarining umumiy qarshilik koeffitsientlari; $\varsigma_{3m_1}, \varsigma_{3m_2}$ - eshiklarning qarshilik koeffitsientlari; μ_t - suv ta’minoti tizimining oqim koeffitsienti.



2-rasm. Eshiklarning aniqligi ularning orqasidagi bosimga ta'siri. a-suv o'tkazgichining hisoblash sxemasi; b-ikkinchi eshik oldidagi ta'sir; v-I va II eshiklardan birining tezligi o'zgarishining ta'siri.

ϑ_1, ϑ_2 – qabul qilingan zatvorlarni ko'tarish tezligi; $\vartheta_1^{'}, \vartheta_2^{'}$ – zatvorlarni ko'tarishning haqiqiy tezligi (kechikishni hisobga olgan holda). 1, 2 – ko'tarish rejimini dastlabki tanlashda birinchi va ikkinchi eshiklarning orqasidagi bosim; 3, 4 – yangilangan rejim bilan bir xil.

(1) va (2) formulalar tuzilishidan ko'rinib turibdiki, agar ikkala eshik ham sinxron ravishda ko'tarilsa, ya'ni $\varsigma_{зт_1} = \varsigma_{зт_2}$ ning har bir daqiqasida ularning orqasidagi bosim boshqacha bo'ladi; ikkinchi eshik orqasida bosim pastroq bo'ladi va u og'irroq sharoitlarda ishlaydi. Bosimni tenglashtirish uchun ikkinchi eshik Δt dan biroz oldinroq ko'tarilishi kerak. Eng yaxshi echim ikkala $\frac{p_{1мин}}{\gamma}$ va $\frac{p_{2мин}}{\gamma}$ eshiklari orqasidagi minimal bosim teng bo'lganda bo'ladi (Xudaykulov S. I, Begimov U. I. , 2020: 92). .

Birinchi taxminda Δt qiymatini aniqlash mumkin. Biroq, belgilangan zatvor ko'tarish jadvalini mukammal aniqlik bilan ushlab turish mumkin emas. Undan chetga chiqish, ulardan birining ish sharoitlarining keskin yomonlashishiga olib kelishi mumkin. (1) - (4) formulalar yordamida

eshiklarning aniqligi ularning orqasidagi bosimga ta'sirini baholash uchun shlyuzni gidravlik hisoblash quyidagi dastlabki ma'lumotlar bilan amalga oshirildi: $H_0 = 60м$; $\Omega = 2160\,м^2$; $\omega = 16\,м^2$; $h = 4м$; $\varsigma_1 = 1{,}5$; $\varsigma_2 = 2{,}0$; $t_{0_1} = t_{0_2} = 200\,сек$; Δt eshiklarning bir tekis ko'tarilish vaqti 20 dan 60 sekundgacha o'zgargan.

1, b–rasmda shlyuzni to'ldirish paytida minimal bosim qiymatlari turli xil $\Delta t = 36сек$, $\frac{p_{1мин}}{\gamma} = \frac{p_{2мин}}{\gamma} = -2{,}6м.вод.ст.$ avanslarida eshiklardan past bo'ladi. Xuddi shu rasmdan ko'rinib turibdiki, agar Δt da 5 soniya ko'proq bo'lsa, unda birinchi eshik orqasidagi vakuum ikki baravar ko'payadi.

Pufakcha konfiguratsiyasining yarim chegarasi ma'lum bo'lgan masalalar aralash masalalar sinfiga kiradi. Pufakcha konfigratsiyasi chegarasining yarim qismi ma'lum bo'lib, qolgan qismida oqimning parametrlarini topish kerak bo'ladi, ya'ni gidromexanikaning to'g'ri masalasi shakllantiriladi. CHegaraningnoma'lum qismida esa konfiguratsiyani topish kerak bo'ladi, ya'ni gidromexanikaning teskari masalasi hosil bo'ladi. $p_к = const$ shart berilsa, bunday kavitatsion masala umumiy teskari masalaning xususiy holi deb qaraladi. Hozirgi vaqtgacha rivojlangan kavitatsiyaning harakterini beradigan biror aniq yechim olinmagan. Bundan tashqari, yechimning yagonaligi va mavjudligi haqida biror fikr bildirilmagan. Faqat M. A. Lavrentьevning ishlarida fundamental, yechim topilgan va bu yechimning ba'zi xossalari o'rganilgan.

M. I. Gurevich tadqiqotlarining ko'rsatishicha, pufakchaning egriligi kirish joyida oqim bilan birlashib, konusimon shaklni qabul qiladi va u cheksizlikka ketadi.

N. Levinson (AQSH, 1946) va M. I. Gurevich (SSSR, 1947)ning tadqiqotlarida o'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan pufakchaning chegarasi Kirxgof pufakchasiga o'xshash bo'lib, kavitatordan uzoqda uzilishga ega bo'ladi. Kavitatsiyalanuvchi jismning qarshiligi chekli bo'lib qolishi uchun quyidagi pufakcha kengayishining asimptotik qonunini olamiz.

Olingan asimptotik formulalarning eksperiment natijalari bilan solishtirish natijalari bu formulalarning ishonchli va to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, qatorga yoyish ishlari juda katta hajmli bo'lib, hisoblash ishlarini va pufakcha konturini qurish ishlarini qiyinlashtiradi. Hozirgi vaqtda bu formulalar asosida sonli yarim empirik formulalar

olingan bo'lib, bu formulalar hisob ishlarida sodda va qulaydir. Biz ulardan keyingi paragrafda foydalanamiz.

Eshiklardan birining ko'tarilish tezligi 10% ga kamayganda, uning orqasidagi vakuum 2-3 baravar oshdi (rasm. 1, v; egri chiziqlar 1 va 2).

1-jadval

n_2	ς_2	ς_1	n_1	n_2	ς_2	ς_1	n_1
0, 1	193	12100	-	0, 6	2, 33	7, 3	0, 43
0, 2	44. 7	850	-	0, 7	1, 1	2, 56	0, 58
0, 3	18, 05	175	0, 12	0, 8	0, 64	1, 2	0, 69
0, 4	8, 37	50	0, 19	0, 9	0, 34	0, 56	0, 82
0, 5	4, 27	17, 6	0, 31	1, 0	0, 25	0, 36	0, 89

Darvozalarni ko'tarish uchun bunday jadvalni topish kerak, undan og'ish eng kam xavfli bo'ladi. Kelajakda biz bunday grafikni maqbul deb ataymiz(Xudaykulov S. I, Begimov U. I. , 2020: 434). .

Ko'pgina hollarda, optimal grafikni ko'tarish paytida ikkala eshik orqasidagi bosim teng bo'lishi kerakligi sharti asosida qurish mumkin, ya'ni $p_1 = p_2$. Keyin (1) va (2) formulalarning o'ng qismlarini tenglashtirib, qisqartmalar hosil qilamiz:

$$2\sqrt{\varsigma_{зm_1}} = \varsigma_{зm_2} + 2\sqrt{\varsigma_{зm_2}} \quad (5)$$

Bu ikkala eshik orqasidagi bosim tengligining sharti. Eshiklardan birining nisbiy ochilish qiymatiga qarab (masalan, ikkinchi – n_2, kerakli qiymatni hisoblash mumkin n_1. Jadvalda tekis zatvorlar uchun hisoblash natijalari keltirilgan, ammo boshqa turdagi eshiklar uchun $n_1 = f(n_2)$ bog'liqligini aniqlash ham xuddi shunday.

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, shlyuzning gidravlik xarakteristikasini yaratish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, agar eshiklar turli xil belgilarda bo'lsa yoki ular orasidagi bo'shliq atmosfera bilan aloqa qilsa (aeratsiya shaftasi yoki tenglashtiruvchi tank yordamida), u holda (5) bog'liqlik to'g'ri emas (N. A. Usmonova, Prof. S. I. Khudaykulov, 2021: 126)

Chegaraviy shartlar. Asosiy tebranmagan suyuqlik harakati o'qqa nisbatan simmetrik ma'lum harakat deb qabul qilinadi, oqim tebranadigan maydonlarda kichik qo'zg'alishlar usuli orqali davom ettiriladi (Xudaykulov S. I, Begimov U. I., 2020: 430).

Laplas differentsial tenglamasi (2. 1) kichik tebranishlar mavjud bo'lgan oqimlardagina ma'noga ega. Lekin chegaraviy shartlar qo'zg'alishlarga ega bo'lgan maydondagi deformatsiyalangan pufakcha sirtida olinadi va noma'lum koeffitsientlari hisoblanadi. Bu noma'lum chegaraviy shartlarni topish uchun deformatsiyalanmagan pufakcha konturi atrofida Teylor qatoriga yoyiladi va yoyilmani ma'lum deb hisoblanadi. Bu funktsiyaning deformatsiyalanuvchi kontur atrofidagi taqribiy qiymatini olamiz. Chunki o'qqa nisbatan simmetrik oqimning qo'zg'alishlari kichik amplitudaga ega.

Tanlangan $n_1 = f(n_2)$ jadvaldan eshiklar harakatining ruxsat etilgan og'ishining qiymatini aniqlash va shuning uchun haydovchi mexanizmlarining aniqligiga qo'yiladigan talablarni baholash, shuningdek (5) formulasi to'g'ri bo'lmagan hollarda optimal grafikani yaratish uchun quyidagi qurilish taklif etiladi.

Shlyuzni to'ldirish (yoki bo'shatish)ning gidravlik xususiyatlari hisoblab chiqiladi, unga ko'ra ikkala eshik orqasidagi bosim miqdorini, ularning n_1 va n_2 nisbiy kashfiyotlarining ma'lum bir kombinatsiyasiga mos ravishda topish mumkin. Bunday hisoblash bir nechta qiymatlar yoki eshiklarni ko'tarishning turli tezligi uchun amalga oshiriladi (Xudaykulov S. I, Begimov U. I., 2020: 92).

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, eshiklar ortidagi bosim maydonlari n_1 va n_2 nisbatlariga qarab qurilgan (3, a-rasm va 3, b-rasm), ya'ni n_1 va n_2 qiymatlarining har bir juftligi birinchisidan keyin ma'lum bir bosim qiymatiga ega bo'lgan nuqtaga to'g'ri keladi. (2, a-rasm) va ikkinchi (2, b-rasm) gidravlik xususiyatlardan olingan eshiklar va izobarlar $\frac{p_1}{\gamma} = const$ va $\frac{p_2}{\gamma} = const$ ushbu nuqtalar bo'ylab o'tkaziladi. Keyin ikkala izobar tizimi bitta nomogramga birlashtiriladi (rasm. 3). Uning yordami bilan siz har qanday n_1 va n_2 qiymatlarida eshiklar orqasidagi bosimni aniqlashingiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, agar hisob-kitoblarning har xil variantlarida eshiklarning ko'tarilish tezligi juda katta farq qilsa (bir necha marta), u holda n_1 va $n_2$ning bitta kombinatsiyasi turli

holatlarda eshiklar orqasidagi bosimning bir oz farq qiladigan qiymatlariga mos keladi, chunki kameradagi suv sathining qiymatlari farq qiladi, ammo bu farq bosim va darajalarning mutlaqo qiymatlarga nisbatan kichikdir.

Nomogrammani ko‘rib chiqishdan (3-rasm) xulosa qilishimiz mumkinki, ma’lum parametrlarga ega bo‘lgan ushbu shlyuz uchun n_1 va n_2 birgalikda javob beradigan qiymatlar maydoni mavjud (3-rasmda u soyali), agar ular orasidagi bog‘lanish grafigi ushbu sohada yotsa, u holda eshiklar orqasidagi vakuum ruxsat etilgan qiymatdan oshmaydi (Xudaykulov S. I, Begimov U. I., 2020: 430).

Oldindan tanlangan zatvor ko‘tarish rejimiga mos keladigan grafik (egri 2) ushbu zonaning ichida joylashgan, ammo uning chegaralariga juda yaqin. Shuning uchun, hatto kichik og‘ishlar ham uning ruxsat etilgan zona chegaralarini kesib o‘tishiga olib keladi va eshiklar orqasidagi bosim keskin pasayadi.

Eshiklarning aniqligiga qo‘yiladigan talablarni kamaytirish uchun siz ularni manevr qilish sxemasini tanlashingiz kerak, shunda n_1 va n_2 o‘rtasidagi aloqa egri chizig‘i xavfli zonaning chegaralaridan teng ravishda o‘tadi, masalan, 1-rasmda.

4. Ushbu yangi tanlangan grafikdan chetga chiqishning $\frac{p}{\gamma}$ eshiklari orqasidagi bosimga ta’sirini hisoblash natijalari 1, v (3 va 4-qatorlar) keltirilgan. Bunday holda, zatvor noto‘g‘ri ishlashi sezilarli darajada kamroq ta’sir qiladi va ushbu jadvalning aniqligi talabi kamida ikki baravar kamayadi.

Yangi jadval sezilarli darajada ko‘proq Δt avansini talab qiladi, ya’ni birinchi zatvor faqat ikkinchisining nisbiy ochilishi bo‘lganda ochila boshlaydi $n_2 = 0{,}3$. Shunday qilib, ikkinchi qulfning kichik ochilishi ishdan chiqariladi. Birinchi zatvor ko‘tarilish tezligi oshadi. Zatvor ko‘tarilish vaqti qisqaradi, ya’ni ikkinchi zatvor kichik vaqt oralig‘i birinchi zatvor orqasida hosil bo‘lgan rulonning "quyruq" qismida ishlaydi. Agar haydovchi ko‘tarilish tezligini o‘zgartirishga imkon bersa, u holda siz avansni biroz oshirishingiz mumkin (3-rasmdagi egri chiziq). 4), bu eshiklarni bir-biriga yaqinlashtirishga imkon beradi (Xudoyqulov S. I., Jovliev O. T., Usmonova N. A., 2021: 277).

Shunga o‘xshash xulosaga ko‘ra, eshiklar turli tezliklarda ko‘tarilishi kerak va eshiklar orasidagi masofani biroz kamaytirish mumkin V. V.

Balanin eksperimental tadqiqotlar asosida, Hech bo‘lmaganda, murvatlarni manevr qilish jadvali biroz o‘zgardi, sanitariya-tesisat tizimining umumiy oqim tezligi va shuning uchun to‘ldirish vaqti ozgina o‘zgardi.



4-rasm. Zatvorlarni ko‘tarish rejimlarini tanlash uchun nomogramma. I-birinchi zatvor orqasidagi bosim; II-ikkinchi zatvor orqasidagi bosim; III-zatvor orqasidagi ruxsat etilgan bosim maydoni.

Agar 3-rasmda n_1 va n_2 qiymatlariga mos keladigan nuqtalar qo'llanilsa (jadvalga qarang), ular ruxsat etilgan zonaning o‘qi bo‘ylab ikkala chegaradan bir xil masofada joylashgan bo‘ladi(Xudaykulov S. I. , Begimov U. I. , 2020: 92). .

Bu shuni anglatadiki, (5) nisbatga asoslangan murvatlarni ko‘tarish jadvali haqiqatan ham maqbuldir. Agar (5) nisbat bajarilmasa, grafik quyidagicha tuzilishi mumkin: berilgan o‘tkazish qobiliyatiga ko‘ra, murvatlarni ko‘tarishning taxminiy rejimi tanlanadi va ushbu rejim uchun va unga yaqin bo‘lgan 2-3 ta sinov hisob-kitoblari amalga oshiriladi (Xudoyqulov S. I. , Jovliev O. T. , Usmonova N. A. , 2021: 277). keyin hisoblash ma’lumotlariga ko‘ra, 6-rasmga o‘xshash nomogramma

tuziladi, unga ko‘ra n_1 va n_2 o‘rtasidagi bog‘lanish grafigi aniqlanadi, shlyuzning gidravlik xususiyatlarini yakuniy hisoblash amalga oshiriladi. Ushbu nomogramma, shuningdek, aktuatorlarning kerakli aniqligini baholash uchun kerak.

Xulosalar

Ikkala eshikning sinxron ishlashi bilan, ochilish davrida eshiklar orqasida bir xil bosim taqsimotiga erishish mumkin emas. Birinchi deklanşör ochilishni biroz kechikish bilan boshlashi va ikkinchisiga nisbatan yuqori tezlikda harakatlanishi kerak. Taklif etilayotgan usul sizga eshiklarni ko'tarish jadvalini tanlashga imkon beradi, uning bajarilish aniqligi talabi 2 baravar kamayadi. Bu eshiklarning ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada faqat tekis eshiklar ko'rib chiqilgan, ammo shunga o'xshash qurilish boshqa har qanday turdagi eshiklar uchun ham amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

Kachanovskiy B. D. Shlyuz suv quvurlarini ketma-ket joylashtirilgan qulflar bilan gidravlik hisoblash. LPI asarlari, nashr. 208. 1960.

Abelev A. S. Energiyani o‘chirish va kavitatsiya va tebranish hodisalari va bosimli suv o‘tkazgichlariga qarshi kurashish uchun ketma-ket o‘rnatilgan ikkita eshiklardan foydalanish. VNIIG yangiliklari, 50-jild. 1953.

Balanin V. V. Eshiklar orqasidagi bosimni pasaytirish bilan kurashish usullari to‘g‘risida. Livtning asarlari, nashr. 25. 1957.

N. A. Usmonova, Prof. S. I. Khudaykulov. Spatial caverns in flows with their perturbations impact on the safety of the karkidon reservoir. 3rd Global Congress on Contemporary Science and Advancements Hosted From New York USA www. econferenceglobe. com. TECHMIND-2021, 126-130.

Xudoyqulov S. I. , Jovliev O. T. , Usmonova N. A. , Ko‘p fazali suyuqlikning kavitatsiya oqimlari sxemalari, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Farg‘ona politexnika instituti «Zamonaviy bino – inshootlarni va ularning konstruktsiyalarini loyihalash, barpo etish, rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari» Respublika onlayn ilmiy – amaliy konferentsiya materiallari to’plami. 21 – 22 aprel. Farg‘ona 2021. S: 277-280

Xudaykulov S. I, Begimov U. I. “Kavernaning tebranma harakti tenglamasini modellashtirish”, “Ishlab chiqarishga innovatsion

xnologiyalarni joriy etish va tsayta iklanadigan energiya manbalaridan foydalanish muammolari" mavzusidagi Respublika miqsiyosidagi ilmiy-texnik anjumanni materiallari tuplami, Jizzax politexnika instituti 1-tom, (2020 yil 2 noyabr), b. 430-432.

Xudaykulov S. I. , Begimov U. I. , Pachkamar suv ombori gidrokanalidagi rivojlangan kavitatsiyani modellashtirish, Matematik modellashtirish, xisoblash matematikasiva dasturiy ta'minot injeneriyasining dolzarb muammolari respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tuplami 2020 yil23-24 oktyabr, Karshi, b. 92-95.

MURAKKAB KONSTRUKTIV SHAKLDAGI YUPQA MAGNITELASTIK PLASTINALARNING NOCHIZIQLI DEFORMATSIYALANISH JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

dotsent, Shohruh SAFAROV

Abduaziz ABDURAXMANOV

Annotatsiya

Maqola Gamilton-Ostrogradskiy variatsion tamoyiliga asoslanib murakkab konstruktiv shakldagi yupqa magnitelastik plastinalarning nochiziqli geometrik deformatsiyalanish jarayonlarini matematik modeli ishlab chiqishga bag'ishlanadi. Bunda Kirxgof-Lyav gipotezasidan foydalanib uch o'lchovli matematik model ikki o'lchamli ko'rinishga o'tkazildi. Potensial va Kinetik energiyaning variatsion ko'rinishlari hamda tashqi kuchlar bajargan ishning variatsion korinishi topildi. Bular Koshi munosabatlari, Guk qonuni va Lorens kuchi hamda Maksvell elektromagnit tenzor ko'rinishidan foydalanib aniqlandi. Magnitelastik plastinaning deformatsion kuchlanish holatiga elektromagnit maydon ta'sirlari ko'rildi. Natijada ko'chishga nibatan boshlang'ich va chegaraviy shartlarga ega bo'lgan, xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishidagi matematik model ishlab chiqildi. Masalani yechish uchun algebra mantiqiy R-funksiya, Bubnov-Galerkin, Nyumark, Gauss, Gauss kvadratlar hamda Iterasiya sonli usullaridan foydalanib hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. Tadqiqotni hisoblash tajribalarini o'kazish uchun amaliy dasturiy majmua yaratildi. Olib borilgan hisoblash tajribalarida magnit elastik plastinaning turli mexanik holatlari, chegaralari qattiq mahkamlangan, bir tomoni sharnir ikkinchi tomoni erkin holatida hisoblash tajribalari o'tkazilib sonli natijalar olindi. O'takazilgan hisoblash natijalarining qiyosiy tahlillari maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gamilton-Ostrogradskiy tamoyili, Bubnov Galerkin, Koshi munosabatlari, Guk qonuni, Maksvell elektromagnit tenzori, murakkab konfiguratsiyali magnitelastik yupqa plastina R-funksiya.

MATHEMATICAL MODELING OF NONLINEAR DEFORMATION PROCESSES OF THIN MAGNETELASTIC PLATES OF COMPLEX CONSTRUCTIVE FORM

Associate Professor, PhD Shohruh SAFAROV

Abduaziz ABDURAKHMANOV

Abstract

The article is devoted to the development of a mathematical model of nonlinear geometric deformation processes of thin magnetoelastic plates of complex structural form based on the Hamilton-Ostrogradsky variational principle. In this case, the three-dimensional mathematical model was transferred to a two-dimensional view using the Kirchhoff-Liav hypothesis. Variations of potential and kinetic energy and variation of work done by external forces were found. These are determined using Cauchy's relation, Hooke's law and Lawrence force, and Maxwell's electromagnetic tensor representation. Effects of the electromagnetic field on the deformation stress state of the magnetoelastic plate were observed. As a result, a mathematical model in the form of a system of partial differential equations with initial and boundary conditions for displacement was developed. To solve the problem, a calculation algorithm was developed using algebraic logic R-function, Bubnov-Galerkin, Newmark, Gauss, Gaussian squares and Iteration numerical methods. A practical software package has been created to conduct research computing experiments. In the conducted calculation experiments, various mechanical states of the magneto-elastic plate, the limits of which are fixed, one side is hinged and the other side is free, the calculation experiments were conducted and numerous results were obtained. Comparative analysis of the results of the calculation is presented in the article.

Key words: Hamilton-Ostrogradsky principle, Bubnov Galerkin, Cauchy relation, Hooke's law, Maxwell's electromagnetic tensor, complex configuration magnetoelastic thin plate R-function

Kirish

Bugungi kunda elektromagnit maydonlarning elektr o‘tkazuvchanlik va magnitelastiklikning nochiziqli nazariyalari, xususan ikki yoki undan ortiq maydonlarning o‘zaro bog‘liqlik nazariyasiga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlari izchil suratlarda rivojlanmoqda. Yupqa magnitelastik konstruktiv elementlar mashinasozlik, samolyotsozlik, kemasozlik va inshootlar qurilishi obektlarining muhim tarkibiy elementlarini tashkil qiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan, AQSh, Xitoy, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Eron va boshqa mamlakatlarda elektro‘tkazuvchan murakkab konfiguratsiyali yupqa plastina va qobiq shaklidagi konstruktiv mikroelementlarning elektromagnit maydonda magnitelastiklik o‘zaro ta’siri muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida nochiziqli qonuniyatlar asosida murakkab konfiguratsiyali yupqa plastina va qobiqlar shaklidagi konstruktiv elementlarning keng ravishda ishlab chiqarilishi va qo‘llanilishi dolzarb hisoblanadi. Elektromagnit maydonlarning yupqa elektr-o‘tkazuvchan jismlarning deformatsiyalanish holatiga ta’sir etish jarayonlarini modellashtirish, murakkab konfiguratsiyali magnitelastik plastina va qobiqlarning asosiy chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi yechimlar tuzilmasini R-funksiya usulida modellashtirish algoritmlari va dasturiy vositalarning yangi avlodini ishlab chiqish alohida kasb etib bormoqda.

Jahonda va yuztimizda yupqa elektro‘tkazuvchan jismlarning magnitelastikligini tadqiq qilish masalalari bo‘yicha bir qator olimlar: D. I. Bardzokas, S. A. Ambarsumyan, G. Ye. Bagdasaryan, M. V. Belubekyan X. A. Raxmatulin, V. K. Kobulov, B. Kurmanbaev, Sh. A. Nazirov, T. Yuldashev, A. A. Xoljigitov, R. Sh. Indiaminov, F. M. Nuraliev kabi mamlakatimiz olimlari ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, elektromagnit maydon ta’siridagi elektr o‘tkazuvchan murakkab konstruktiv shakldagi magnitelastik yupqa plastinalarning geometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlarini matematik modellashtirish muammolari hozirgi kunda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Matematik model ishlab chiqish

Magnitelastik plastinanig gometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonining matematik modelini ishlab chiqish uchun Gamilton-

Ostrogradskiy variatsion tamoyili, Kirxgof-Lyav gipotezasi, Koshi munosabatlari, Guk qonuni Lorens kuchi hamda Maksvell elektromagnit tenzor ko‘rinishidan foydalanildi.

$$\begin{cases} -\rho h\dfrac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}+N_x+R_x+q_x+T_{zx}=0, \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 v}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}+N_y+R_y+q_y+T_{zy}=0, \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 w}{\partial t^2}+\dfrac{\partial^2 M_{xx}}{\partial x^2}+2\dfrac{\partial^2 M_{xy}}{\partial x\partial y}+\dfrac{\partial^2 M_{yy}}{\partial y^2}+N_{xx}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x^2}+N_{yy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial y^2}+N_{xy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x\partial y}+ \\ +\left(\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}\right)\dfrac{\partial w}{\partial x}+\left(\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}\right)\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_z+R_z+q_z+T_{zz}=0. \end{cases}$$

Boshlag‘ich shartlar va chegaraviy shartlar:

$$\rho h\frac{\partial u}{\partial t}\delta u\Big|_t=0,\ \rho h\frac{\partial v}{\partial t}\delta v\Big|_t=0,\ \rho h\frac{\partial w}{\partial t}\delta w\Big|_t=0,$$

$$\left(N_{xx}+N_{Px}+N_{Tx}\right)\delta u\Big|_x=0,\ \left(N_{xy}+N_{Py}+N_{Txy}\right)\delta v\Big|_x=0,$$

$$M_{xx}\delta\frac{\partial w}{\partial x}\Big|_x=0,\ M_{xy}\delta\frac{\partial w}{\partial y}\Big|_x=0, M_{yy}\delta\frac{\partial w}{\partial y}\Big|_y=0,\ M_{xy}\delta\frac{\partial w}{\partial x}\Big|_y=0,$$

$$\left(N_{yy}+N_{Fy}+N_{Tyy}\right)\delta v\Big|_y=0,\ \left(N_{xy}+N_{Fx}+N_{Tyx}\right)\delta u\Big|_y=0,$$

$$\left[N_{xx}\frac{\partial w}{\partial x}+N_{xy}\frac{\partial w}{\partial y}-\frac{\partial M_{xx}}{\partial x}-\frac{\partial M_{xy}}{\partial y}+N_{Pz}+N_{Txz}\right]\delta w\Big|_x=0,$$

$$\left[N_{yy}\frac{\partial w}{\partial y}+N_{xy}\frac{\partial w}{\partial x}-\frac{\partial M_{yy}}{\partial y}-\frac{\partial M_{xy}}{\partial x}+N_{Fz}+N_{Tyz}\right]\delta w\Big|_y=0.$$

бу ерда N_{xx}, N_{yy}, N_{xy} - пластинанинг қалинлиги бўйича нормал ва урунма кучлари. M_{xx}, M_{yy}, M_{xy} - пластинанинг эгилиш ва буралиш моментлари, $\rho-$ жисм зичлиги, h- пластина қалинлиги, $R_x, R_y, R_z, N_x, N_y, N_z-$ ҳосил бўлувчи ҳажм кучлари, $q_x, q_y, q_z, T_{zx}, T_{zy}, T_{zz}-$ сирт кучлари, $T_{xx}, T_{xy}, T_{xz}, T_{yy}, T_{yz}, T_{zx},-$ ҳосил бўлувчи контур кучлари.

Масалани сонли ечишнинг ҳисоблаш алгоритми



1-rasm. Tenglamani echishning hisoblash algoritmi.

Hisoblash tajribalari tahlili

Xarakat tenglamasidagi (1) noma’lumlarni topish uchun, Bubnov - Galerkin variatsion usuli, Gauss kvadratlar, Gauss, Nyumark, hamda Iteratsiya sonli usullarini birgalikda qo‘llab, yupqa plastinaning OZ o‘qi bo‘ylab ko‘chishi $u_i(x,y), v_i(x,y), w_i(x,y)$.

Dastlab murakkab konfiguratsiyali sohaning analitik tenglamasini R-funksiya usuli bilan quriladi.

Hisoblash tajribalari murakkab konsiruksion shakldagi yupqa plastina (1-rasm) uchun mexanik va geometrik parametrlar hisobga olinib o‘tkaziladi:

$$a=1,\ b=1,\ h=0.01,\ r=0.2,\ \nu=0.3,\ t_0=0,\ q=1,\ H_x=H_y=H_z=10\kappa\Im,\ Q_z=1.$$



2-rasm. Murakkab shakldagi plastina.

Murakkab sohaning R-funksiya orqali olingan analitik tenglamasi quyidagicha ifodalanadi.

$$f_1 = \frac{\left(a^2 - x^2\right)}{2a} \geq 0,\ f_2 = \frac{\left(b^2 - y^2\right)}{2b} \geq 0,\ f_3 = \frac{\left(x^2 + y^2 - r^2\right)}{2r} \geq 0,$$

$$\omega = \left(\left(f_1 \wedge f_2\right) \wedge f_3\right);$$

bu erda $f_1, f_2, f_3 -$ sohani xarakterlaydigan funksiyalar. $\omega -$ soha.

Tenglamani echishda iteratsiya usuli qo‘llanilib plastina o‘rta sirtining $u_i(x,y), v_i(x,y), w_i(x,y)$ qiymatlari topiladi. Kirxgof gipotezasiga ko‘ra yupqa plastina o‘rta sirtining ko‘chishlari $u_i(x,y), v_i(x,y)$ *Ox* va *Oy* o‘qiga nisbatan kichik bo‘lganligi uchun tajribalarda asosan $w_i(x,y)$ natijalari tahlil qilinadi. Murakkab shakldagiyupqa plastina (2-rasm) x[-1:1] y=0 da $w_i(x,y)$ ning taqribiy sonli qiymatlari olindi. Bunda murakkab konstruktiv shakldagi magnitelastik plastinaning chegaralari sharnir mahkamlangan shartlar bilan qo‘yilgan masalaning hisoblash tajribalari o‘tkazilgan sonli natijalari (1-jadval) olingan hamda egilish grafik tasviri (3-rasm) olingan.

1-jadval.

x	*Mexanik kuchlar*	*Mexanik va Magnit kuchlar*
-1	0	0
-0. 9	0. 0004	0. 0005
-0. 8	0. 0009	0. 0011
-0. 7	0. 0013	0. 0016
-0. 6	0. 0014	0. 0018
-0. 5	0. 0013	0. 0016
-0. 4	0. 0010	0. 0012
-0. 3	0. 0006	0. 0007
-0. 2	0	0
0. 2	0	0
0. 3	0. 0006	0. 0007
0. 4	0. 0010	0. 0012
0. 5	0. 0013	0. 0016
0. 6	0. 0014	0. 0018
0. 7	0. 0013	0. 0016

0. 8	0. 0009	0. 0011
0. 9	0. 0004	0. 0005
1	0	0



3-rasm. Tashqi kuchlar ta'sirida murakkab shaklli yupqa plastinaning OZ o'qi bo'ylay egilishi.

O'tkazilgan tajriba natijasi shuni ko'rsatadiki elekr o'tkazuvchan magnitelastik plastina magnit maydon kuch ta'sirida deformatsiyalanishi (*OZ* o'qi bo'ylab egilishi) **18 %** ga oshishi kuzatildi.

2-jadval.

x	*y*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'siri qaralmagan* $w_i(x,y)$	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'sir qilganda*
-1	0	0	0
-0. 9	0	0. 0001	0. 0001
-0. 8	0	0. 0006	0. 0007
-0. 7	0	0. 0016	0. 0020

-0.6	0	0.0027	0.0034
-0.5	0	0.0032	0.0040
-0.4	0	0.0029	0.0037
-0.3	0	0.0019	0.0024
-0.2	0	0	0
0.2	0	0	0
0.3	0	0.0019	0.0024
0.4	0	0.0029	0.0037
0.5	0	0.0032	0.0040
0.6	0	0.0027	0.0034
0.7	0	0.0016	0.0020
0.8	0	0.0006	0.0007
0.9	0	0.0001	0.0001
1	0	0	0



Yupqa plastinaning chegarasi bir tomoni erkin, qolgan tomonlari va markazi qattiq mahkamlangan shartlar bilan olingan sonli natijalar grafik tasviri (5-rasmda) uchun analitik tenglama qurildi va bu quyidagi formula orqali ifodalandi.

Hisoblash tajribasidagi geometrik va mexanik parametrlar quyidagilarni tashkil etadi.

3-jadval

Plastinaning chegaralari aralash shartlarda olingan sonli natijalar

x	*Mexanik kuchlarni hisobga olganda w(x, y, t) y*=0 *t*=0. 1	*Mexanik va Magnit maydon kuchlarini hisobga olganda w(x, y, t) y*=0 *t* =0. 1
-1	0. 0116	0. 141
-0. 9	0. 073	0. 0. 085
-0. 8	0. 046	0. 051
-0. 7	0. 028	0. 0030
-0. 6	0. 017	0. 0018
-0. 5	0. 010	0. 0011
-0. 4	0. 006	0. 0006
-0. 3	0. 003	0. 003

-0. 2	0. 001	0. 001
-0. 1	0	0
0. 1	0	0
0. 2	0. 001	0. 002
0. 3	0. 004	0. 004
0. 4	0. 008	0. 008
0. 5	0. 012	0. 012
0. 6	0. 015	0. 017
0. 7	0. 017	0. 020
0. 8	0. 013	0. 016
0. 9	0. 006	0. 007
1	0	0



5-rasm. Plastinaning chegaralari qattiq mahkamlangan, markazi erkin holatda olingan egilish grafigi.

Xulosa

Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik yupqa plastinaning geometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlarining matematik

modeli qurildi. Uni echish uchun hisoblash algoritmi tuzildi. Tahliliy tajribalar o‘tkazish uchun dasturiy vosita yaratildi. Murakkab konstruktiv shakldagi magnitelastik yupqa plastinalarning elektromagnit kuchlar ta’sirida geometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlari turli chegaraviy sharlar asosida o‘rganildi va sonli natijalar olindi hamda qiyosiy tahlillar keltirildi. O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki magnit maydon kuchlarning yupqa magnitelastik plastinalarga ta’siri kichik bo‘lsada mavjudligi aniqlandi va bu plastinaning deformatsiyalanish jarayoniga bevosita ta’siri isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kabulov V. K. Algorithmization in the theory of elasticity and deformation theory of plasticity Tashkent Science 1966. 392 p.

Ambartsumyan S. A. , Belubekyan M. V. Some problems of electromagneto elasticity of plates. – Erevan: 1991. –144 p.

Kurpa L. V. Metodom R-funksi dlya resheniya lineynых zadach izgiba i kolebaniy pologix obolochek. Xarkov NTU XPI 2009. 391s.

Leybenzon L. S. Kurs teorii uprugosti. Moskva 1977. 272s. (17-str).

Nuraliev F. M. , Safarov Sh. Sh. , Artikbaev M. A. Deformatsiyalangan mangnitelastik plastinaning matematik modeli va hisoblash algoritmi. Problemы informatiki i energetiki Tashkent 5/2020. C 38-49.

F. Nuraliev and Sh. Safarov, "Computational algorithm for calculating magnetoelastic flexible plates of complex configuration, " 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-4. https://ieeexplore. ieee. org/document/9011903

F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, ”A computational algorithm for calculating the effect of the electromagnetic fields to thin complex configured plates, ” 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2020, pp. 1-4, https://ieeexplore. ieee. org/document/9351447

F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, "Solving the problem of geometrical nonlinear deformation of electro-magnetic thin plate with complex configuration and analysis of results, " 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 01-05, https://ieeexplore. ieee. org/document/9670282

Nuraliev F. M. , Aytmuratov B. Sh. , Safarov Sh. Sh. , Artikbayev M. A. Mathematical modeling of geometric nonlinear processes of electromagnetic elastic thin plates of complex configuration // Scientific journal «Problems of Computational and Applied Mathematics» № 1(38), 2022. https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=jalkwscAAAAJ&citation_for_view=jalkwscAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

F. Nuraliev, S. Safarov, M. Artikbayev and A. O. Sh, "Calculation Results of the Task of Geometric Nonlinear Deformation of Electro-magneto-elastic Thin Plates in a Complex Configuration, " 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-4, . https://ieeexplore. ieee. org/document/10146920

BO‘LAK-POLINOMIAL USULLARDA BIOMEDITSINA SIGNALLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISH

AZIMOV Bunyod Rakhimjonovich

ABDUG‘ANIYEV Mukhriddin

Anotatsiya

Ushbu maqolada biomeditsina signallaridan elektroensefalogramma (EEG) signaliga raqamli ishlov berish va tiklash masalalari qaralgan bo‘lib, EEG apparatidagi 21 ta datchiklar bosh miya bo‘ylab joylashishi, datchiklarning nomlanishi, ularning bog‘lanish turlari, kasallik belgilarini aniqlashda bipolyar bog‘lanishdan foydalanish, olingan signallarni interpolyatsiya qilish, kasallik belgilarini bildiruvchi qismlarini masshtablarga ajratish jarayonlari o‘rganilgan. Ish davomida EEG signallarga raqamli ishlov berishda eng qulay bo‘lgan matematik model sifatida B-splayn funksiyasi tanlab olinib, B-splayn funksiyasini qurish keltirilgan. Qurilgan matematik model asosida elektro-ensefalogramma signallarni muammoli qismlarini masshtabga ajratgan holda tiklash algoritmi ishlab chiqilgan va EEG signallarini tiklashdagi absolyut xatolik baholangan. Bugungi kunda biomeditsina signallariga raqamli ishlov berish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, Elektroensefalogramma (EEG) signallarini o‘lchab olishda uchraydigan muammolarni hal qilish va to‘g‘ri tashxis qo‘yish bo‘yicha Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Biz tadqiqotlardan ko‘rishimiz mumkinki, EEG apparati o‘zining maxsus dasturiy ta’minoti asosida bemorlarga avtomatik tarzda tashxis qo‘yadi. Lekin miya mushaklaridagi impulslar har qanday tashqi omillarga nisbatan reaksiya ko‘rsatadi. Taxlil jarayonida bemor qo‘lini harakatlantirganda yoki boshqa harakat qilinganda, miyada o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Bu holatda dasturiy ta’minot bemorlardagi odatiy harakatlarni ham kasallik belgilari sifatida hisoblab umumiy xulosa beradi. Dolzarbligining asosiy sabablaridan yana biri, EEG signalini insonning bosh qismidan olinishidir. Bilamizki tanamizning barcha

orgenlarini miya boshqaradi. Ya'ni qo'l va oyoqlar, barcha ichki orgenlarimizni ishlash prinsiplarini belgilab beradi. Hozirgi kunda miya faoliyatining buzilishi bilan bogliq holatlar ko'payib bormoqda. Bosh miya to'qimalarida doimiy ravishda elektrokimyoviy impulslar paydo bo'ladi. Bu jarayon asab tizimi bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Hozirda meditsina sohasida asab tizimi kasalliklarini aniqlovchi bir qancha apparatlar yaratilgan. Bunday uskunalardan biri Elektroensefalogramma bo'lib, bu asab tizimining ishlashini o'rganish uchun ishlatiladigan fiziologik baholash texnikasi hisoblanadi. Bu apparat yordamida bemorlar bosh miyasining ma'lum joylarida joylashgan neyronlarning elektrokimyoviy impulslar faolligi aniqlaydigan, bir qator datchiklardan ma'lumotlarni yig'uvchi uskuna hisoblanadi. Bunday signallarga ishlov berish uchun bo'lak-polinomial usullardan aniqlik darajasi yuqori bo'lgan B-splayn modellari tanlandi. Uning qurilish usullari keltirib o'tildi. B-splayn orqali funksiyalarni approksimatsiya qilish ko'rib chiqildi. Funksiyaga yaxshi yaqinlashganligi o'laroq EEG signallarini tiklash amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: *EEG signal, EEG apparati, bipolyar bog'lanish, monopolyar bog'lanish, datchiklar, splayn funksiyalar, kubikB-splayn, bo'lak-polinomial usullari*.

NUMERICAL PROCESSING OF BIOMEDICAL SIGNALS IN PIECEWISE-POLYNOMIAL METHODS

Abstract

This article looks at digital processing and recovery from biomedicine signals to electroencephalogram (EEG) signal, studying the processes of positioning 21 sensors in the EEG apparatus along the cranium, naming of sensors, their types of connections, the use of bipolar connection in detecting signs of disease, interpolating the received signals, dividing the parts of the sign of disease into scales. During the work, the B-Splaine function was selected as the most convenient mathematical model in numerical processing of EEG signals, and the construction of the B-Splaine function was cited. Based on the constructed mathematical model, an electro-encephalogram recovery algorithm has been developed that decomposes the problematic parts of the signals into scale, and an absolute error in the recovery of EEG signals has been evaluated. Today, extensive R & D work is underway on digital processing of biomedical signals. Research is being carried out in countries such as China, Japan, Germany, Russia, among others, to solve the problems encountered in measuring electroencephalogram (EEG) signals and to make the correct diagnosis. We can see from the studies that the EEG apparatus

automatically diagnoses patients on the basis of its special software. But impulses in the brain muscles react to any external factors. Changes in the brain occur when the patient moves his hand or makes another move during the taxile process. In this case, the software gives a general conclusion, calculating the usual actions in patients as well as symptoms of the disease. Another of the main reasons for its relevance is the extraction of the EEG signal from the head of a person. We know that the brain controls all the organs of our body. That is, the arms and legs, determine the principles of working all our inner Orgen. Currently, there are more and more cases associated with impaired brain function. Electrochemical impulses constantly appear in the brain tissue. This process is considered interconnected with the nervous system. Currently, several apparatus have been created in the field of medicine that detect diseases of the nervous system. One such equipment is an electroencephalogram, which is a physiological evaluation technique used to study the functioning of the nervous system. With this apparatus, patients are equipment that collects data from a number of sensors, detecting the activity of electrochemical impulses of neurons located in certain areas of the cranial brain. For processing such signals, B-spline models with higher accuracy levels were chosen from piecemeal-polynomial methods. His construction methods were cited. Function approximations via B-spline have been considered. Restoration of EEG signals was carried out, as opposed to the fact that it approached the function well.

Key words: *EEG signal, EEG apparatus, bipolar coupling, monopolar coupling, spline functions, cubic B-spline, piece-polynomial methods*.

KIRISH

Bugungi kunda biomeditsina signallariga raqamli ishlov berish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jumladan, Elektroensefalogramma (EEG) signallarini o‘lchab olishda uchraydigan muammolarni hal qilish va to‘g‘ri tashxis qo‘yish bo‘yicha Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Biz tadqiqotlardan ko‘rishimiz mumkinki, EEG apparati o‘zining maxsus dasturiy ta’minoti asosida bemorlarga avtomatik tarzda tashxis qo‘yadi. Lekin miya mushaklaridagi impulslar har qanday tashqi omillarga nisbatan reaksiya ko‘rsatadi. Taxlil jarayonida bemor qo‘lini harakatlantirganda yoki boshqa harakat qilinganda, miyada o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Bu holatda dasturiy ta’minot bemorlardagi odatiy harakatlarni ham kasallik belgilari sifatida hisoblab umumiy xulosa beradi. Bu holatda shifokor bemorlarni EEG apparatiga ulanganda, miya to‘qimalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash jarayoni bemorning holatiga va

yoshiga qarab 1, 3, 5, 8 yoki 10 soatdan iborat bo‘lishi mumkin. Xulosa chiqarish uchun ham mos ravishda 1, 3, 5, 8 yoki 10 soat vaqt sarflaydi. Bu muammoni hal qilish uchun signallarga raqamli ishlov berishda eng qulay bo‘lgan matematik modellarni aniqlash va signallarni muammoli qismlarini masshtabga ajratgan holda tiklash algoritmlarini ishlab chiqish va dasturiy ta’minotini yaratish bugungi kundagi dolzarb masalalardan sanaladi.

Dolzarbligining asosiy sabablaridan yana biri, EEG signalini insonning bosh qismidan olinishidir. Bilamizki tanamizning barcha orgenlarini miya boshqaradi. Ya’ni qo‘l va oyoqlar, barcha ichki orgenlarimizni ishlash prinsiplarini belgilab beradi. Hozirgi kunda miya faoliyatining buzilishi bilan bogliq holatlar ko‘payib bormoqda. Bosh miya to‘qimalarida doimiy ravishda elektrokimyoviy impulslar paydo bo‘ladi. Bu jarayon asab tizimi bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Hozirda meditsina sohasida asab tizimi kasalliklarini aniqlovchi bir qancha apparatlar yaratilgan. Bunday uskunalardan biri Elektroensefalogramma bo‘lib, bu asab tizimining ishlashini o‘rganish uchun ishlatiladigan fiziologik baholash texnikasi hisoblanadi. Bu apparat yordamida bemorlar bosh miyasining ma’lum joylarida joylashgan neyronlarning elektrokimyoviy impulslar faolligi aniqlaydigan, bir qator datchiklardan ma’lumotlarni yig‘uvchi uskuna hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Miya to‘qimalaridan aniqlangan elektrokimyoviy impulslar har xil turdagi to‘lqinlar shaklida bo‘ladi. Taxlil olib borishi kutilayotgan bemorlarning bosh miyasi atrofiga joylashirilgan elektrokimyoviy impulslarini o‘lchovchi datchiklar joylashgan sohasiga qarab turli xil nomlanadi (Fang, 9, b. 1253-1256, Da Zhang, 13, b. 1-5, Ertugrul, 14, b. 886-894). Ularning joylashishi muayyan sohalarga qarab farqlanadi. Hozirgi kunda EEG apparati datchiklarini joylashtirishning ko‘plab sxemalari ishlab chiqilgan. Quyida joylashtirishning xalqaro sxemasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Datchiklarni joylashtirishning xalqaro standarti (“10-20”)

Bu “10-20 sxemasi” deb yuritiladi. Hozirda ko‘plab apparatlarda rasmda tasvirlangani kabi datchiklar joylashtiriladi. EEG apparatida 4, 8, 10, 16, 19 va 21 datchikli bo‘lishi mumkin. Datchiklar qancha ko‘p bo‘lsa olinayotgan natija ham yuqori va kasallikning belgilarini aniqlash bir qancha osonlashadi.

Elektrodlar bosh miyaning qaysi sohasiga joylashganiga qarab nomlanadi. Masalan, peshona sohasida Fp1, Fp2 va FpZ, chap quloq sohasida F3, F7, T3, T5 va boshqalar. Quyida 21 kanallik EEG apparatining datchiklari bosh miya bo‘ylab qanday joylashtirilishi quyidagi rasmda tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. Bosh miya bo‘ylab elektrodlarning joylashish tartibi

Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, datchiklar miya to‘qimalarining muayyan qismlaridagi o‘zgarishlarni aniqlaydi. EEG apparatida esa bir vaqtning o‘zida barcha 21 ta datchiklardan kelgan ma’lumotlarni ekranda namoyon bo‘ladi.

Miya to‘qimalaridan datchiklar yordamida alfa, beta, teta va delta to‘lqinlari o‘lchab olinadi. Ularning har biri to‘lqin chastotasiga qarab quyidagi holatlarda paydo bo‘ladi:

- Alfa to‘lqinlari dam olish paytlarida va konsentratsiya yoki kuch talab qilmaydigan vazifalardan oldin paydo bo‘ladi.

- Beta to‘lqinlar odatda kuchli aqliy harakatlarning ishlashini aks ettiradi. Odatda biz hushyor bo‘lganimizda yoki REM uyqu paytida paydo bo‘ladi.

- Teta to‘lqinlari biz bo‘shashganda alfa to‘lqinlar singari kuzatiladi ammo bu holda ular bo‘shashishdan tashqari uyqusiz bo‘lgan paytlarda tez-tez uchraydi. REM bo‘lmagan uyquning ikkinchi bosqichida to‘lqinning eng ustun turi bo‘lishi mumkin.

- Delta to‘lqinlar chuqur uyqu bilan bog‘liq bo‘ladi. An’anaviy ravishda asab to‘qimalarini tiklash va tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni tavsiflaydi.

Bugungi kunda datchiklarning bipolyar va monopolyar bo‘glanishlari mavjud. Quyidagi rasmlarda monopolyar bog‘lanish turlari keltirilgan (3, 4-rasmlar).



3-rasm. CZ datchigi bilan

Monopolyar bog‘lanish



4-rasm. Ko‘ngdalang

monopolyar bog‘lanish

Yuqoridagi rasmlardan ko‘rishimiz mumkinki, 3-rasmda bitta datchikka bir nechtasini ulanishi, 4-rasmda esa ko‘ngdalang turgan datchiklarni ulanish sxemalari keltirilgan. Bu shuni anglatadiki, miyaning qaysi qismidagi to‘lqinlar chastotasida o‘zgarish bo‘lganda, shu sohada joylashgan datchiklar orasida ham o‘zgarishlar kuzatiladi. Olingan natijalar mos ravishda kasallik belgilarini ifodalaydi. Ko‘p holatlarda monopolyar bog‘lanish tashxis qo‘yishda kasallikning boshlang‘ich belgilarini ya’ni past chastotali signallarini yashiradi. Bu holatni inobatga olib, aytishimiz mumkinki monopolyar bog‘lanishlardan foydalanish

doimo yaxshi samara bermaydi (Shahid, 7, b. 65-69, Kleissen, 8, b. 143-158, Fang, 9, b. 1253-1256). Shuning uchun ishimizda bipolyar bog‘lanishlarni tanlab oldik. Bu usulda datchiklar ketma-ket bog‘anadi. Bipolyar ulanishlarning bir necha xil bog‘lanishlari mavjud. Quyidagi rasmlarda ularning bir nechtasi keltirilgan (5, 6-rasmlar).





5-rasm. Vertikal (Double Banana) bog‘lanish.

6-rasm. Gorizontal bog‘lanish

5, 6-rasmlarda vertikal va gorizontal bog‘lanish keltirilgan bo‘lib, ularning monopolyardan farqi datchiklarning ketma-ket ulanishidir. Bu usulning nomi Double Banana deb atalib, bemorlarga tashxis qo‘yishda eng samarali bog‘lanish sxemasi hisoblanadi (Ismail, 10, b. 325-329, Lim, 12).

Bunday signallarga raqamli ishlov berishda matematik modellarni to‘g‘ri tanlash, soha mutaxassislarining to‘g‘ri qaror qabul qilish aniqligini yuqori bo‘lishligiga olib keladi. Bugungi kunda klassik polinomlar Nyuton va Lagranj interpolyatsion metodlardan, bo‘lak-polinomial usullardan kubik Bezier va kubik B-splayn matematik modellaridan keng foydalaniladi. Signallarga ishlov berishda klassik polinomlarni qo‘llash bir qancha noqulayliklar tug‘diradi. Ulardan biri qiymatlar soni ko‘payib borishi bilan modelning qurilishi murakkablashib, olingan natijalar xatoliklari ortib ketadi. Bo‘lak-polinomial usullarida esa har bir bo‘lak uchun alohida holda matematik model funksiyalari quriladi. Shu sababli aniqlik darajasi yuqori hisoblanadi (Zaynidinov, 6, b. 174, Grebennikov, 15, b. 22, Kroizer, 16, Azimov, 17, b. 533-535).

Bipolyar bog‘lanish orqali olingan signallarga raqamli ishlov berish maqsadida aniqligi yuqori bo‘lgan B-splayn tanlab oldik. Quyida kubik V-

splayn funksiyasini qurishni ko‘rib chiqamiz. Qaralayotgan funksiya yetarlicha silliq bo‘lmasa, u holda bu funksiyani splayn funksiyalar bilan yaqinlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yaqinlashtirish aniqligi yuqori bo‘lgan splayn funksiyani uchunchi darajali B-splaynidan foydalanish yaxshi samara beradi (Isroilov, 1, b. 45-52, Zavyalov, 2, b. 352, Kasimov, 3, b. 162-167).

Quyida kubik bazis B-splayn funksiyasini qurishni ko‘rib chiqamiz. Qaralayotgan funksiya yetarlicha silliq bo‘lmasa, u holda bu funksiyani splayn funksiyalar bilan yaqinlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yaqinlashtirish aniqligi yuqori bo‘lgan splayn funksiyani uchunchi darajali bazis B-splaynidan foydalanish yaxshi samara beradi (Shadimetov, 4, b. 152, Zaynidinov, 5, b. 49-50, Üncü, 11). Quyida n – darajali ixtiyoriy $S_n(x)$ interpolyatsiyalanadigan $f(x)$ funksiya quyidagi qo‘rinishga ega bo‘lgan B-splaynning [a:b] oraliqdagi formulasi keltirilgan (1):

$$f(x) \cong S_n(x) = \sum_{i=-1}^{n-1} b_i B_{i,n}(x), \qquad a \le x \le b, (1)$$

Bu yerda n – splayn darajasi, b_i – koeffitsientlar, $B_{i,n}(x)$ asosiy funksiyani ifodalaydi. Yuqoridagi formula asosida *n=3* holatida kubik bazis B-splayn funksiyasini qurib chiqamiz (2).

$$S_3(x) = b_{-1}B_{-1}(x) + b_0B_0(x) + b_1B_1(x) + b_2B_2(x), (2),$$

(2) formuladagi $B_{i,n}(x)$ asosiy funksiyaning qiymatlarini quyidagicha hisoblaymiz (3), (4):

$$B_{i,0}(x) = \begin{cases} 1, \text{agar} x_i \le x < x_{i+1}, \\ 0, \qquad boshqa\ holatda. \end{cases} (3)$$

$$B_{i,n}(x) = \frac{x - x_i}{x_{i+n} - x_i} B_{i,n-1}(x) + \frac{x_{i+n} - x}{x_{i+n} - x_{i+1}} B_{i+1,n-1}(x), (4),$$

$B_{i,3}(x)$ asosiy funksiyani $x \in [0:2]$ oraliqda hisoblaymiz. Bir qancha hisoblashlar va soddalashtirishlardan so‘ng kubik bazis B-splaynning asosiy funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (5).

$$B_3(x) = \begin{cases} 0, x \geq 2, \\ \frac{(2-x)^3}{6}, \ 1 \leq x < 2, \\ \frac{1+3(1-x)+3(1-x)^2-3x^3}{6}, \ 0 \leq x < 1, \\ B(-x), \ 0 < x \end{cases} \quad (5)$$

Kubik bazis B-splaynning asosiy funksiyasini [-2:2] oralig‘idagi grafigi Matlab ishchi muhitida quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (7-rasm)



7-rasm. Kubik bazis B-splayn.

Quyida *h=1* qadam bilan xarakatlanuvchi kubik bazis B-splaynlar oilasi keltirilgan. B-splaynlar oilasini barcha qismlari [-3:4] oraliqda ajratib ko‘rsatilgan. $B_{-1}(x)$ – och ko‘k rangda, $B_0(x)$ – qizil, $B_1(x)$ – to‘q ko‘k, $B_2(x)$ – qora rangda chizilgan. (8-rasm).



8-rasm. Kubik bazis B-splaynlar oilaci.

$S_3(x)$ ni hisoblash jarayonida B-splaynning [0:1] oraliqdagi barcha qiymatlaridan foydalanib, signallarni yuqori aniqlikda tiklashga erishiladi.

(1) formuladagi b_i koeffitsientlarni hisoblash jarayonida berilgan qiymatlarning qanchadan olinishiga ko'ra turlicha hisoblanadi (Azimov, 18, b. 8-10, Abduganiev, 19). Biz berilgan qiymatlar yordamida b_i koeffitsientlarni *uch, besh, yetti* nuqtali formula yordamida aniqlaymiz (6), (7), (8).

3 – nuqtali b_i koeffitsientlar:

$$b_i = \left(\frac{1}{6}\right)(-f_{i-1} + 8f_i - f_{i+1}), (6),$$

5 – nuqtali b_i koeffitsientlar:

$$b_i = \left(\frac{1}{36}\right)(f_{i-2} - 10f_{i-1} + 54f_i - 10f_{i+1} + f_{i+2}), \qquad (7),$$

7 – nuqtali b_i koeffitsientlar:

$$b_i = \left(\frac{1}{216}\right)(-f_{i-3} + 12f_{i-2} - 75f_{i-1} + 344f_i - 75f_{i+1} + 12f_{i+2} - f_{i+3}), \quad (8).$$

bu yerda, f_i – dastlabki berilgan nuqtalar qiymati.

b_i koeffitsientlar har bir oraliqlar uchun alohidadan hisoblanadi. Misol sifatida $f(x) = x^3 - 2x^2 + 1$ funksiyani (5) va (6) lardan foydalanib approksimatsiya qilamiz. Approksimatsiyalash jarayoni grafigi 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. B-splayn yordamida $f(x) = x^3 - 2x^2 + 1$ *funksiyani approksimatsiyalash natijasi.*

Rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, B-splayn $f(x) = x^3 - 2x^2 + 1$ funksiya grafigiga yaxshi yaqinlashganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi yaqinlashish darajasini inobatga olib, EEG signallarni kubik B-splayn yordamida tiklaymiz. Tiklash natijasi 10-rasmda keltirilgan.



10-rasm. EEG signalini B-splayn bilan tiklash natijasi.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, B-splayn grafigi signalga ustma-ust tushgan. Yana ham aniqlik kiritish maqsadida xatolik natijalari hisoblangan (1-jadval).

1-jadval.

EEG signallarni tiklash jarayonidagi xatolik natijalari

x	*EEG signal*	*B-splayn*	*Xatolik*	*x*	*EEG signal*	*B-splayn*	*Xatolik*
1	0. 02	0. 0225	0. 0025	2	0. 2609	0. 263	0. 0021
1. 1	0. 0451	0. 0476	0. 0025	2. 1	0. 2817	0. 2837	0. 002
1. 2	0. 0703	0. 0728	0. 0025	2. 2	0. 3013	0. 3032	0. 0019
1. 3	0. 0954	0. 0979	0. 0025	2. 3	0. 3197	0. 3215	0. 0018
1. 4	0. 1204	0. 1229	0. 0025	2. 4	0. 3369	0. 3385	0. 0016
1. 5	0. 1452	0. 1477	0. 0025	2. 5	0. 3527	0. 3542	0. 0015
1. 6	0. 1696	0. 172	0. 0024	2. 6	0. 3672	0. 3686	0. 0014
1. 7	0. 1935	0. 1958	0. 0023	2. 7	0. 3801	0. 3813	0. 0012
1. 8	0. 2167	0. 219	0. 0023	2. 8	0. 3915	0. 3925	0. 001
1. 9	0. 2393	0. 2415	0. 0022	2. 9	0. 4013	0. 4022	0. 0009
Absolyut xatolik							0. 0025

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, EEG signalini B-splayn modeli orqali tiklanganda absolyut xatolik 0. 0025 ga teng bo‘lgan. Bu esa signallarga raqamli ishlov berishda yuqori aniqlikka ega ekanligini bildiradi.

III. XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, EEG signali miyaning elektr signallarini tavsiflaydi. miya to‘qimasi nervlarning ishlashiga o‘xshash elektr potensiallarini o‘tkazadi va bu elektr signallariga tananing mushak ta’sir potensialini beradi. EEG – bu miya mushaklarning harakat potensiallarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni qayd etish usuli deyishimiz mumkin. Bunday signallarga ishlov berish uchun bo‘lak-polinomial usullardan aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan B-splayn modellari tanlandi. Uning qurilish usullari keltirib o‘tildi. B-splayn orqali funksiyalarni approksimatsiya qilish ko‘rib chiqildi. Funksiyaga yaxshi yaqinlashganligi o‘laroq EEG signallarini tiklash amalga oshirildi va 10-rasmdagi grafikdan ko‘rishimiz mumkinki B-splayn signalga ustma-ust tushgan. 1-jadvaldagi xatolik

natijalariga ko‘ra absolyut xatolik 0. 0025 ga teng bo‘lgan. Bu esa biomeditsina signallarga raqamli ishlov berishda samarali ekanini aytishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

Isroilov M. I. , Hisoblash metodlari. №1, 1988. Toshkent. – B. 45-52.

Zavyalov Yu. S. , Kvasov B. I. , Miroshnichenko V. L. Metodы splayn-funksiy. Moskva: Nauka, 1980. - 352 s.

Kasimov S. S. , Zaynidinov X. N. Bazisnыye splaynы v zadachax vosstanovleniya odnomernых i mnogomernых zavisimostey // Izvestiya mejdunarodnoy akademii nauk vыsshey shkolы. № 1, 2002, Moskva. - S. 162- 167.

Shadimetov Kh. M. , Hayotov A. R. Construction of interpolation splines minimizing semi-norm in space// BIT Numer. Math. 2013. – 152 p.

Zaynidinov X. N. , Azimov R. K. , Azimov B. R. Funksiyalarni splayn funksiyalar bilan yaqinlashtirish // «Nazorat, optimallashtirish va dinamik tizimlar» nomli Respublika ilmiy anjuman. Andijon, 2019. – B. 49-50.

Zaynidinov X. N. , Baxramov S. A. Teoriya splaynov. Monografiya – T. : “Aloqachi”, 2019, - 174 c.

Shahid S. Higher Order Statistics Techniques Applied to EEG Signal Analysis and Characterization. Ph. D. Thesis, University of Limerick; Ireland, 2004.

Kleissen RFM, Buurke JH, Harlaar J, Zilvold G. Electromyography in the biomechanical analysis of human movement and its clinical application. Gait Posture. 1998;8(2):143–158.

Fang J, Agarval GC, S’Hahani BT. Decomposition of EEG signals by vavelet spectrum matching. Procedures of the 19th Annual International Conference of the IEEE Engineering in Medicine and Biology Society 1997; Chicago, IL, USA. pp. 1253-1256.

Ismail AR, Asfour SS. Continuous Vavelet transform application to EEG signals during human gait. Thirty-Second Asilomar Conference on Signals, Systems & Computers 1998; 1:325-329.

Y. A. Üncü, T. Mercan, G. Sevym, and M. Canpolat, “Interpolation applications in diffuse optical tomography system, ” 2018, doi: 10. 1109/BIYOMUT. 2017. 8478855.

J. S. Lim, Two-dimensional signal and image processing, 1990.

Da Zhang. A Comprehensive Study on Robust EEG Signal Generation and Evaluation. CONF-CDS 2021: The 2nd International Conference on Computing and Data Science. January 2021, Article No. : 15, Pages 1–5. https://doi. org/10. 1145/3448734. 3450467.

Ertugrul KARAKULAK. ARM MCU-Based Experimental EEG Signal Generator Using Internal DAC and PWM Outputs. GU J Sci 35(3): 886- 894 (2022). DOI: 10. 35378/gujs. 860994.

A. I. Grebennikov, "Isogeometric approximation of functions of one variable, " USSR Computational Mathematics and Mathematical Physics, 22(6), 1982, doi:10. 1016/0041-5553(82)90095-7.

Kroizer, Y. C. Eldar, T. Routtenberg, "Modeling and recovery of graph signals and difference-based signals, " in GlobalSIP 2019 - 7th IEEE Global Conference on Signal and Information Processing, Proceedings, 2019, doi:10. 1109/GlobalSIP45357. 2019. 8969536.

Azimov B. R. Signallargaraqamli ishlov berishda lokal interpolyatsion kubik splayn ahamyati. Zamonaviy ishlab chiqarishda muhandislik vatexnologik muammolarning innovatsion yechimlari xalqaro ilmiy anjuman. Buxoro 2019 y. – B. 533-535.

Azimov B. R. Signallarga raqamli ishlov berishda tengmas oraliqlar uchun lokal kubik splayn qurish // "Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2020. Namangan. – B. 8-10.

M. Abduganiev, R. Azimov, and L. Muydinov, Digital Processing Algorithms of Biomedical Signals Using Cubic Base Splines, vol. 13741 LNCS. 2023. doi: 10. 1007/978-3-031-27199-1_3.

Extended abstract

This article discusses the issues of digital processing and conversion of electroencephalogram (EEG) signals from biomedical signals that require high accuracy, and a high-precision B-spline function was selected as a mathematical model for this process. EEG signals received from brain require advanced methods for detection, processing, and classification. The purpose of this article is to demonstrate different methodologies and algorithms for EEG signal analysis to provide effective and efficient ways to understand the signal and its nature. A comparative study is also given to demonstrate the performance of different EEG signal analysis methods.

This article provides researchers with a better understanding of the EEG signal and the procedures for its analysis. This knowledge will help them develop more powerful, flexible and effective methods. We can note that there are many methods of digital processing of electroencephalogram (EEG) signals. We know that the EEG signal is a biomedical signal that measures the electric current generated in a brain during contraction, representing neuromuscular activity. Alpha, beta, theta and delta waves are measured from brain tissue using sensors.

Each of them appears in the following cases, depending on the frequency of the wave:

-Alpha waves appear during times of rest and before tasks that do not require concentration or effort.

- Beta waves usually reflect the performance of strong mental activities. It usually occurs when we are awake or during REM sleep.

- Theta waves are observed when we are relaxed, like alpha waves, but in this case, they occur more often when we are not asleep except when we are relaxed. The second stage of non-REM sleep may be the predominant wave type.

- Delta waves are associated with deep sleep. Describes what is traditionally associated with the repair and regeneration of neural tissue.

Thus, the EEG signal is a complex signal that is controlled by the nervous system and depends on the anatomical and physiological characteristics of the brain. Research is currently underway in this area to develop optimal algorithms, reduce interference, and improve detection methods to obtain accurate EEG signals. Classical polynomials, fragmentary-polynomial methods are used in the digital processing and reconstruction of biomedical signals. In the course of the research, we use the cubic B-spline method, which is one of the fragmentary-polynomial

methods in constructing the B-spline function, approximating the functions, and restoring the EEG signal, and evaluating the absolute errors. Its construction methods were mentioned. Approximation of functions by B-spline is considered. The EEG signals were reconstructed as a good approximation of the function, and we can see from the graph in the image provided in the article that the B-spline is superimposed on the signal. According to the error results presented in the table, the absolute error was equal to 0. 0025. This means that biomedicine is effective in digital signal processing.

MASHINA TARJIMASI TURLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

PhD Dauletov A. Yu

MatyakubovaN. Sh

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annatotsiya

Globallashish jarayonining jadallashuvi insonlar orasida til, zamon va makon tushunchalarini anchagina o'zgartirdi va insonlarning o'zaro muloqoti va ma'lumot almashishi uchun imkoniyatlar sarhadi kengaydi. Ammo ayrim insonlarda hali hanuz tillarni tushinishda va ma'lumotlarni o'zlashtirishda ayrim to'siqlar mavjud bo'lib, bu to'siqlarini bartaraf etish uchun eng katta ko'makchi bo'lgan texnik vosita bu mashina tarjimasi vositasi bo'lib u tabiiy tilni qayta ishlashning ko'plab sohalari orasida samaralinatijalar ko'rsatgan elektron vosita hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti jarayonida mashina tarjimasi ham o'zining jadal taraqqiyot davrini o'tkazdi va hali hanuz uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Mashina tarjimasi turlari texnologiya, ma'lumotlar, model arxitekturalari, til juftliklari, moslashtirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, foydalanish holatlari va maqsadlari, sifat tezligi, tadqiqot tendentsiyalari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalaridagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda farqlanadi va ushbu maqolada biz qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, misollarga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi va neyron mashina tarjimasi va ularning sifatini yaxshilash uchun qollaniladigan moslashtirish mexanizimi, ularning taraqqiyot bosqichlari va bugungi kunda eng ko'p qo'llanilayotgan mashina tarjimonlarining turlarini ko'rib chiqamiz. Mashina tarjimasiga bo'lgan ehtiyoj dunyoning globallashuvi va insonlar orasida o'zaro bog'liqligining kuchayishi natijasida paydo bo'ldi. Turli tillarga mansub odamlar savdo, diplomatiya, fan va texnologiya kabi turli sohalarda tez-tez muloqot qilganligi sababli, til to'siqlarini bartaraf etishning samarali usullariga talab ortib bordi. Ushbu ehtiyojlar natijasida tadqiqotchilar tarjimalarni mashinalar orqali avtomatlashtirish g'oyasini o'rgana boshladilar. Bu 1950-yillarda qoidaga asoslangan yondashuvlar va 1990-yillarda statistik metodlardan foydalanib tarjima qiluvchi dastlabki mashinali tarjima tizimlarining rivojlanishiga olib keldi va bu bugungi

kunda bizda mavjud bo‘lgan zamonaviy mashina tarjimasi texnologiyalariga asos soldi. Dastur matnni tahlil qiladi va tarjima qilinadigan tildagi matn yaratiladigan o‘tish davri tasvirini yaratadi. Bu jarayon morfologik, sintaktik va semantik ma’lumotlarga ega bo‘lgan keng leksikalarni va katta qoidalar to‘plamini talab qiladi. Dasturiy ta’minot ushbu murakkab qoidalar to‘plamidan foydalanadi va keyin manba tilning grammatik tuzilishini maqsadli tilga o‘tkazadi. Tarjima qilish jarayoni ulkan lug‘atlar va murakkab til qoidalariga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *mashina tarjimasi, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi, neuron mashina tarjimasi, statistik modellar, tabiiy tilni qayta ishlash*.

Abstract

The acceleration of the globalization process has greatly changed the concepts of language, time and space among people, and the sum of opportunities for human interaction and Information Exchange has expanded. But in some people there are still some obstacles in the descent of still languages and the assimilation of information, and the technical tool that is the greatest assistant to overcome these barriers is the machine translation tool, which is an electronic tool that has shown effective results among many areas of natural language processing. In the process of technical development, machine translation has also passed its period of rapid development, and still a lot of research is being carried out to improve and improve its efficiency. Types of machine translation differ from changes in technology, data, model architectures, language pairs, customization options, available resources, use cases and goals, quality speed, research trends, and user feedback, and in this article we will focus on rule-based machine translation, example-based machine translation, statistical machine translation, and neural machine translation, and leveraged adaptation mechanics to improve their quality. , let's look at the stages of their development and the types of machine translators that are most used today. The need for machine translation arose as a result of the globalization of the world and increased interdependence among humans. Since people of different languages often communicate in different areas such as trade, diplomacy, science and technology, there has been a growing demand for effective ways to overcome language barriers. As a result of these needs, researchers began to study the idea of automating translations through machines. This led to the development of rule-based approaches in the 1950s and early machine translation systems using statistical techniques in the 1990s, laying the foundation for the modern machine translation technologies we have today. The program analyzes the text and creates a transitional

image in which the text in the language to be translated is created. This process requires extensive lexicons and a large set of rules with morphological, syntactic and semantic information. The software uses this complex set of rules and then transfers the grammatical structure of the source language to the target language. The translation process is based on huge dictionaries and complex language rules.

Keywords: *machine translation, rule-based machine translation, statistical machine translation, neural machine translation, statistical models, natural language processing.*

Kirish

Bir tildan boshqa tilga matnlarni avtomatik tarjima qilish usuli mashina tarijmasi deb yuritilib ilmiy texnika taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Mashina tarjimasiga bo‘lgan ehtiyoj dunyoning globallashuvi va insonlar orasida o‘zaro bog‘liqligining kuchayishi natijasida paydo bo‘ldi. Turli tillarga mansub odamlar savdo, diplomatiya, fan va texnologiya kabi turli sohalarda tez-tez muloqot qilganligi sababli, til to‘siqlarini bartaraf etishning samarali usullariga talab ortib bordi. Ushbu ehtiyojlar natijasida tadqiqotchilar tarjimalarni mashinalar orqali avtomatlashtirish g‘oyasini o‘rgana boshladilar. Bu 1950-yillarda qoidaga asoslangan yondashuvlar va 1990-yillarda statistik metodlardan foydalanib tarjima qiluvchi dastlabki mashinali tarjima tizimlarining rivojlanishiga olib keldi va bu bugungi kunda bizda mavjud bo‘lgan zamonaviy mashina tarjimasi texnologiyalariga asos soldi.

Bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan mashina tarjimasi(MT) vositalariga Google Translate, Yandex Translate, DeepL, Amazon Translate kabilar bo‘lib ular turli usullardan foydalanib matnlarni tarjima qilish imkoni bilan bir qatorda keng ko‘lamda tillar tanlash imkonini beradi. Ammo MT tarixiga nazar soladigan bo‘lsak tarjima qilingan gapning kontekstual ma’nosini tabiiy tildagidek chiqarish bir muncha murakkab bo‘lgan va asosan qoidalarga asoslanib va mavjud bo‘lgan statistik ma’lumotlardan foydalangan holda berilgan matnlar tarjima qilinigan. Machine Learning hamda Deep Learning mexanizmlarining takomillashuvi zamonaviy tarjima tizimlariga ham katta tasir ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt algoritmlari va neyron tarmoqlari tufayli mashina tarjimasi deyarli insoniy aniqlik darajasiga yetdi.

Adabiyotlar sharhi

Mashina tarjimasi boy tarixga ega bo‘lib, yillar davomida uning rivojlanishiga bir qancha olim va tadqiqotchilar hissa qo‘shgan. Warren Weaver amerikalik olim va matematik 1949-yilda nashr etilgan mashhur

memorandumda “mashina tarjimasi” atamasini qo‘llagan ilk olim deb hisoblanadi[1]. “Tarjima” deb nomlangan ushbu memorandumda kompyuterlar yordamida tarjima jarayonini avtomatlashtirishning qiyinchiliklari va imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Amerikalik kompyuter olimi va elektrotexnika muhandisi Piter Zade va Paul Garvin 1954-yilda Georgetown-IBM eksperimentini [2] o‘tkazdi va ushbu tajriba IBM 701 kompyuteridan foydalangan holda mashina tarjimasi bo‘yicha eng dastlabki urinishlardan biri edi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida IBM tadqiqotchilari guruhi, jumladan Leon Dostert [1], Uilyam N. Lokk va boshqalar turli xil mashina tarjimasi loyihalari ustida ishladilar va dastlabki tizimlar va metodologiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar.

Piter Toma va J. L. Delkroix tomonidan 1968 yillarning boshlarida ishlab chiqilgan SYSTRAN [3] tizimi ilk samarali mashina tarjima tizimlaridan biri edi. Sovuq urush davrida ingliz va rus tillari o‘rtasida tarjimalarni taqdim etish uchun keng qo‘llanilgan. 1990-yillarning o‘rtalarida IBM tadqiqotchilari 1-dan 5-gacha bo‘lgan IBM Modellari deb nomlanuvchi bir qator statistik mashina tarjimasi modellarini taqdim etdilar[4]. Bu modellar, ayniqsa Model 4 va Model 5, katta ahamyatga ega bo‘ldi va statistik MTning keyingi rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Google Translate rasmiy ravishda 2006-yil 28-aprelda ishga tushirilgan[5]. Uasosan Neyron Mashina Tarjimasi(NMT)dan foydalanishga o‘tgan bo‘lsa-da, u ilgari Statistik Mashina Tarjimasi(SMT)dan foydalangan. Google Translate dastlab statistik modellarga tayangan bo‘lsada tarjima sifatini yaxshilash uchun NMT ga o‘tdi. Google Neural Machine Translation (GNMT) — 2016- yilda Google tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or mashina tarjimasi tizimi bo‘lib, tarjima sifati va ravonligini yaxshilash uchun neyron tarmoqlar va Deep Learning usullaridan foydalanadi.



1-rasm Mashina Tarjimasining qisqacha taraqqiyot bosqichi

Metodologiya

Mashina tarjimasi turlari texnologiya, ma'lumotlar, model arxitekturalari, til juftliklari, moslashtirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, foydalanish holatlari va maqsadlari, sifat tezligi, tadqiqot tendentsiyalari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalaridagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda farqlanadi. Ushbu farqlar foydalanuvchilarga o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarigamos mashina tarjimasi yondashuvini tanlash imkonini beradi. Mashina yordamida tarjima qilish tizimlarining to'rt turi mavjud bo'lib:

- Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi (RBMT)
- Misollarga asoslangan mashina tarjimasi(EBMT)
- Statistik mashina tarjimasi (SMT)
- Neyron mashina tarjimasi (NMT)

Ushbu maqolada biz yuqorida keltirilgan Mashina tarjimalarini va ularning ishlash bosqichlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi (RBMT) son-sanoqsiz o'rnatilgan lingvistik qoidalarga va har bir til juftligi uchun millionlab ikki tilli lug'atlarga tayanadi. Dastur matnni tahlil qiladi va tarjima qilinadigan tildagi matn yaratiladigan o'tish davri tasvirini yaratadi. Bu jarayon morfologik, sintaktik va semantik ma'lumotlarga ega bo'lgan keng leksikalarni va katta qoidalar to'plamini talab qiladi. Dasturiy ta'minot ushbu murakkab qoidalar to'plamidan foydalanadi va keyin manba tilning grammatik tuzilishini maqsadli tilga o'tkazadi. Tarjima qilish jarayoni ulkan lug'atlar va murakkab til qoidalariga asoslanadi.

Foydalanuvchilar tarjima jarayoniga o'z atamalarini qo'shish orqali tarjima sifatini yaxshilashlari mumkin. Ular tizimning standart sozlamalarini bekor qiladigan foydalanuvchi tomonidan belgilangan lug'atlarni yaratadilar.

2-RasmQoidalarga asoslangan mashina tarjimasi ishlashi uchun talab qilinadigan asosiy vositalar.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasida qoidalar asosan asliyat va tarjima tillarining grammatik tuzilishini tavsiflaydi va atamalarni tarjima qilish uchun lug‘atdan foydalanadi. Analizator grammatik kirish strukturasini tahlil qiladi va kiritilgan matnning oraliq tasvirini yaratadi. Analizator ushbu tasvirni tarjima tilining grammatik tuzilishiga o‘tkazadi.

1- Jadval. Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi ishlash bosqichlari

1- bosqich		Jumladagi so‘zlarni kontekst darajasida Grammatik noaniqlik orqali so‘zlarning ma’nosini
2- bosqich		Gap bo‘laklar va ularning gapdagi o‘rnini taxlil qiladi, orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi
3- bosqich		

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi tarjima jarayonida asosan uchta strategiyalarga asoslanadi:

3-rasmQoidalarga asoslangan mashina tarjimasi strategiyalari

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuv - asliyat tilida berilgan matn tarjima tilda so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.

- Transfer yondashuvi - asliyat tili va tarjima til qoidalariga asoslangan holda tarjima tilidagi matn ko‘rinishlarga o‘tkaziladi.

- Interlingual yondashuv - asliyat til kiritish matnning semantik ifodasiga, interlingvaga aylanadi. Interlingua tarjima matnni yaratish uchun asosdir.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi bir muncha qiyin, chunki u vaqt va kuch talab qiladi. Qoidalarga asoslangan tizimlar kengaytirilmaydi, chunki qoidalar qo‘lda yozilishi kerak. Samaradorligi va sifatini yaxshilash uchunko‘proq qoidalar va ko‘proq inson ishtirokini talab qiladi.

Misollarga asoslangan mashina tarjimasi

Misollarga asoslangan mashina tarjimasi(EBMT), bazi hollarda Hotiraga asoslangan mashina tarijamsi deb ham yuritiladi, korpusga asoslangan metodlardan biri bo‘lib ilk bor 1984- yilda Makato Nagao [6] tomonidan yaratilgan. Misollarga asoslangan mashina tarjimasining asosiy jihati allaqachon tarjima qilingan misollar korpusi ma’lumotlar bazasidan foydalanish va tegishli misollarni olish uchun ushbu ma’lumotlar bazasiga yangi kiritilgan ma’lumotlarni moslashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi, so‘ngra to‘g‘ri tarjimani aniqlash uchun analogik tarzda qayta birlashtiriladi. Harold Somersning fikriga ko‘ra EBMT va misollarga asosan o‘rganish (Exemple-Based Learning), hotiraga asosan o‘rganish(Memory-Based Reasoning), manba analogiyasi (Derivational Analogy) kabi Machine Learning(ML) texnikalari bilan o‘xshash jihatlari ko‘p [7]. Chunki ushbu texnikalar ham misollarga asoslangan mashina tarjimasi kabi oldindan mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bazasiga asoslangan holda yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Misollarga asoslangan mashina tarjimasi bilan deyarli bir vaqtda shakllantirilgan statistik uslublardan foydalangan holda tarjima qilish usulining paydo bo‘lishi va uning samadorlik darajasing yuqoriligi Misollarga asoslangan mashina tarjimasiga bo ‘lgan qiziqish va izlanishlarga keskin tasir qildi.

Statistik mashina tarjimasi

Statistik mashina tarjimasi - bu statistik modellar yordamida matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish usuli bo‘lib qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi yondashuvlaridan sezilarli darajada farq qiladi va u asosan 2000-yillarning boshlarida ommalasha boshladi. Statistik mashina tarjimasi statistik modellar va katta hajmdagi ikki tilli korpuslardan olingan ehtimollar asosida ishlaydi. Statistik mashina tarjimasining asosiy

vazifasi matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun parallel ma’lumotlardan (asliyat va tarjima tillardagi jumlalar yoki hujjatlar orqali) o'rganilgan statistik ma’lumotlardan foydalanishdir.



4-rasm. *Statistik mashina tarjimasida qo‘llaniladigan modellar*

Jarayon parallel ma’lumotlar bo‘yicha turli statistik modellarni o‘qitishni o‘z ichiga oladi, ularga quyidagilar kiradi:

- Tarjima modeli: Tarjima modeli parallel ma’lumotlarda kuzatilgan tarjimalar asosida so‘zlar, iboralar yoki so‘z birliklarini asliyat tildan tarjima tilga qanday tarjima qilishni o‘rganadi. U turli xil tarjima variantlariga ehtimollarni belgilaydi, bu tizimga kiritilgan jumlani hisobga olgan holda eng ehtimoliy tarjimani tanlash imkonini beradi.

- So‘zlarni moslashtirish modeli: So‘zlarni moslashtirish modeli parallel ma’lumotlardagi asliyat va tarjima jumlalar o‘rtasida alohida so‘zlar yoki so‘z birliklarini moslashtiradi. Bu tarjima jarayonida foydalaniladigan so‘zma-so‘z tarjimalarini shakllantirishga yordam beradi.

- Til modeli: Til modeli asliyat tildagi so‘zlar ketma-ketligi ehtimolini baholaydi. Bu yaratilgan tarjimalarning ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

- Dekodlash algoritmi: dekodlash algoritmi statistik modellar va so‘zlarni moslashtirish ma’lumotlaridan asliyat tilda berilgan jumlalar uchun moslik ehtimolligi yuqori deb hisoblangan tarjimani yaratish uchun foydalanadi. Dekodlash jarayoni tarjima va til modellari asosida umumiy ehtimollikni maksimal darajada oshiradigan tarjimani qidirishni o‘z ichiga oladi.

Kamchiliklari:

- Kontekstning etishmasligi: Statistik mashina tarjimasi modellari ko'pincha uzoq muddatli bog'liqliklar va kontekstni qo'lga kiritishda qiynaladi, bu neyron mashina tarjimasi bilan solishtirganda manodorligi kamroq va sifati past bo'lgan kontekstli tarjimalarga olib keladi.

- So'z ma'nosini ajratib ko'rsatish: Statistik mashina tarjimasi tizimlari so'z ma'nolarini ajratishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa tarjima xatolariga olib keladi.

- Kam ishlatiladigan iboralarni tarimalash: Lug'at ma'lumotlarida mavjud bo'lmagan kamdan-kam yoki ko'rinmas iboralar statistik mashina tarjimasi modellari uchun muammoli bo'lishi mumkin.

Statistik mashina tarjimasi o'quv ma'lumotlarida kuzatilgan o'xshash jixatlar yangi, ko'rilmagan jumlalar uchun mos kelishi mumkin degan taxminga tayanadi. Shuning uchun statistik mashina tarjimasi tizimining sifati va aniqligi ko'p jihatdan o'quv ma'lumotlarining hajmi va xilma-xilligiga bog'liq. Garchi neyron mashina tarjimasi o'zining yuqori ishlashi tufayli so'nggi yillarda asosan statistik mashina tarjimasi o'rnini bosgan bo'lsa-da, statistik mashina tarjimasi asoslarini chuqur o'rganilishi hali juda ham muhim hisoblanadi, chunki u mashina tarjimasi sohasidagi ko'plab yutuqlarga yo'l ochdi.

Neyron Mashina Tarjimasi

Shuni ta'kidlash kerakki, SMT o'tmishda mashina tarjimasi uchun dominant yondashuv bo'lgan bo'lsa-da, neyron mashina tarjimasi yangi texnikalar, yanada murakkab lingvistik bog'liqliklar va uzoq muddatli kontekstni qo'lga kiritish qobiliyati tufayli ishlash va mashhurlik bo'yicha statistik mashina tarjimasidan oshib ketdi. Shunga qaramay, statistik mashina tarjimasi mashina tarjimasi tarixi va rivojlanishining muhim qismi bo'lib qolmoqda. Statistik mashina tarjimasi neyron mashina tarjimasi rivojlanishidan oldin eng ko'p o'rganilgan mashina tarjimasi usuli edi. Neyron mashina tarjimasi ham, statistik mashina tarjimasi kabi til tarjimasiga ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar sifatida tanilgan. Ya'ni, ular tushunchalarni olish va aniqlik/ish samaradorligini oshirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarga bog'liq. Ushbu ma'lumotlar odatda korpus formatida (jumlalar/so'zlar/iboralar to'plami) taqdim etiladi.

Neyron mashina tarjimasi bosgqa mashina tarjimasi usullaridan farqli ravisgda matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun sun'iy neyron tarmoqlariga tayanadi. U Deep Learning tamoyillari asosida ishlaydi va tarjimalarni yaratish uchun turli tillardagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqliklar va munosabatlarni o'rganish uchun neyron tarmoqlardan foydalanadi. Uning tizimining odatiy arxitekturasi encoder-decoder modelidan iborat. Buni 5-rasmda ko'rib chiqishimiz mumkin.



5-rasm. Neyron mashina tarjimasi ishlash mexanizmi

Umuman olganda, neyron mashina tarjimasi keng ko'lamli til juftliklari va domenlarida aniqroq va ravon tarjimalarni yaratish uchun chuqur o‘rganish usullaridan foydalangan holda mashina tarjimasi sohasida inqilob qildi va shu bilan bir qatorda katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlari va kuchli hisoblash resurslaridan foydalangan holda, neyron mashina tarjimasi modellari turli til juftliklari o‘rtasida tarjima qilishda ajoyib samaradorlikni ko‘rsatdi va mashina tarjimasining eng zamonaviy usuliga aylandi. Uning kontekstual ma’lumotlarni olish va tildagi uzoq muddatli bog‘liqliklarni boshqarish qobiliyati uni tillararo muloqot va kontentni mahalliylashtirish uchun kuchli vositaga aylantiradi.

Moslashtirish mexanizmlarining mashina tarjimasida tutgan o’rni

Moslashtirish (alignment) mexanizmi statistik va neyron mashina tarjimasida hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu modelga asos tildagi so'zlar yoki so'z birliklarini maqsadli tildagi tegishli analoglari bilan mosligini aniqlashni o'rganishga yordam beradi. Neyron mashina tarjimasida moslasgtirishni ikki jihatga bo'lish mumkin: yengil moslashtirish(soft alignment) va chuqur moslashtirish (hard alignment).

Soft alignment

- Diqqat mexanizmi: Diqqat mexanizmi transformator kabi neyron mashina tarjimasi modellarining asosiy komponentidir. Bu modelga maqsad jumladagi har bir so'zni yaratishda asos jumlaning turli qismlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Soft alignment maqsad jumlada yaratilgan har bir so'z uchun asos jumladagi har bir so'zga tayinlangan diqqat ballari orqali erishiladi.

- Roli: Bu modelga manba va maqsad tillardagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni dinamik ravishda qo'lga kiritishga yordam beradi. Modelga aniq va kontekstga mos tarjimalarni yaratish imkonini beradi.

Hard alignment

- So'zlarni moslashtirish modellari: An'anaviy statistik mashina tarjimasitizimlarida hard alignment IBM modellari yoki Hidden Markov modellari (HMMs) kabi usullar yordamida aniq modellashtirilgan. Ushbu modellar har bir token asosida asos va maqsadli so'zlarni moslashtirishni o'rganadilar.

- Roli: U aniq so'zdan so'zga moslashtirish ma'lumotlarini taqdim etadi, bu esa keyingi ishlov berish va tahlil qilish uchun qimmatli bo'lishi mumkin. Tarjimalarda so‘zlarni o‘zgartirish va moslashtirish masalalarini hal qilishga yordam beradi.

Neyron mashina tarjimasida moslashtirishning o'ziga xos rollariga quyidagilar kiradi:

- So'zlarni qayta tartiblash: Moslashtirish neyron mashina tarjimasi modeliga to'g'ri so'z tartibini va tillar orasidagi o’zaro moslikni o'rganishga yordam beradi. Bu juda muhim, chunki tillar ko'pincha turli xil so'z tartibi, grammatik va stilistik tuzilmalariga ega.

- Noaniqlikni bartaraf qilish uchun ishlov berish: Moslashtirish manba tilidagi so'z yoki iboralarni farqlashda yordam beradi va modelga kontekst asosida maqsadli tilda eng mos tarjimani tanlash imkonini beradi.

- Lug'atdan tashqari so'zlar: Moslashtirish lug'atdan tashqari so'zlarni boshqarishda yordam beradi, bu esa modelga ularni ma'lum so'zlar bilan moslashtirishga imkon beradi va ko'rinmaydigan atamalar uchun tarjimalarni yaratishga imkon beradi.

- Kontekstli tarjima: Diqqat mexanizmlari orqali soft alignment neyron mashina tarjimasi modeliga har bir maqsadli so'zni yaratishda yaxlit asos jumlasini ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu kontekstual ma'lumotlar tarjimalarning umumiy sifatini yaxshilaydi.

- Uzun jumlalar bilan ishlash: Moslashtirish mexanizmlari modelga uzun jumlalarning tegishli qismlariga e'tibor qaratishga yordam beradi, axborot yo'qolishining oldini oladi va tarjima sifatini yaxshilaydi.

- Moslashtirish: Moslashtirish neyron mashina tarjimasi modellariga ushbu kontekstlarga xos moslashtirish jihatlarini o'rganish orqali muayyan domenlarga yoki tarjima vazifalariga moslashishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, neyron mashina tarjimasidagi soft alignment ham, hard alignment ham, model uchun asos va maqsad tillardagi so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun juda muhimdir. Bu modelga to‘g‘ri va kontekstga mos tarjimalarni yaratish, so‘zlarni qayta tartiblash va tillar o‘rtasidagi lingvistik farqlar tufayli yuzaga keladigan turli tarjima muammolarini hal qilish imkonini beradi.

2-jadval Mashina Tarjimalarining ishlash mexanizmlarining umumiy va farqli jixatlari

Ko‘p tilli korpusga asoslanadi				
Mavjud ma’lumotlar bazasiga				

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mashina tarjimasi sohasi tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lib kelmoqda va bugungi kunga qadar ko‘plab ijobiy rivojlanish bosqichlaridan o‘tib kelgan bo‘lsa ham mukammallik darasidan hali ham uzoqda. Chunki bugungi kundagi MTlar texnik va ilmiy turdagi matnlarnito‘g‘ri va samarali tarjima qilayotgan bo‘lsa ham badiiy janrdagi ko‘plab ibora va ideomalarga boy bo‘lgan asarlarni tabiiy va mukammal tarzda tarjima qila olmaydi. Mashina tarjimasi sifatini yaxshilash doimiy ravishda tadqiq qilinib kelayaotgan va bir muncha murakkab jarayon bo‘lib, ma’lumotlar, texnologiya, inson tajribasi va fikr-mulohazalarni birlashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, turli lingvistik va domen kontekstlarida yuqori aniqlik va ravonlikka erishish uchun tarjima tizimini doimiy ravishda takrorlash va takomillashtirish juda muhim. Ko‘plab tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra bunday muammolarni hal qilishning samarali yo‘li gibrid(statistik ma'lumotlar va qoidalarni birlashtirgan holda) uslubidan foyadalanadigan MTlarni yaratishga e’tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

John Hutchins, “The first public demonstration of machine translation: the Georgetown-IBM system, 7th January 1954”, AMTA conference, Sentyabr, 2004 (Hutchins 2004).

Paul l. Garvin, ” the Georgetown-IBM experiment of 1954: an evaluation in retrospect”, An office of scientific research of the office of Aerospace Research, 1967.

Angeliki Petrits, “Ec Systran: the commission's machine translation system”, European Commission Translation Service, 30 Avgust 2001, 4-5 b.

Ilya Pestov, ”A history of machine translation from the Cold War to deep learning”, We’ve moved to https://freecodecamp. org/news

D. Elliot, “Corpus-based machine translation evaluation via automated error detection in output texts”. Nashr qilinmagan doktorlik dissertatsiyasi, University of Leeds, 2006.

Ralf Brown, ”Example-based Machine Translation”, Fifth Biennlal Conference for the Association of Machine Translation in the Americas, 9 oktyabr, 2022.

Harold Somears, “Review Article: Example-based MachineTranslation”, Kluwer Academic Publishers, Nederlandiya, 2001.

Nilufar Abdurahmonova, “ Mashina tarjimasining lingivistik asoslari”, Akademnashr, Toshkent, 2012.

Brown P. F. , Lai J. C. , Mercer R. L. (1991). Aligning sentences in parallel corpora. Proceedings of the 29th annual meeting on Association for Computational Linguistics. Association for Computational Linguistics. (169-176b)

Danielsson P. , Ridings D. (1997, Fevral). Practical presentation of a “vanilla” aligner. TELRI Workshop in alignment and exploitation of texts, Fevral.

Fung P. , Church K. W. (1994, Avgust). K-vec: A new approach for aligning parallel texts. Proceedings of the 15th conference on Computational linguistics. Association for Computational Linguistics. (1096-1102b)

Fung P. , McKeown K. (1994). Aligning noisy parallel corpora across language groups: Word pair feature matching by dynamic time warping.

Gale W. A. , Church K. W. (1993). A program for aligning sentences in bilingual corpora. Computational linguistics, 19(1), (75-102b).

O‘Z-O‘ZINI TASHKIL ETUVCHI NEYRON TO‘RLAR UCHUN INFORMATSION MODEL YARATISH

o'qituvchi Odilov Jahongir Qobil o'g'li

dotsent Kusharov Zoxid Keldiyorovich

Talaba Odilov Maxmudjon Qobil o'g'li

Annotatsiya

Sun'iy intelektga asoslandan turli xil information modellar yaratilishning zarurligi va ularning amaliy ishlatilishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bu kabi informatsion modellar jamiyat hayotidagi turli xil katta va kichik muammolarni oson va tez yechilishiga salmoqli hissa qo'shadi. Bugungi kunga sun'iy intellekt sohasidagi ko'plab muammolarni yechish klassifikatsiya masalasiga bog'liq bo'lmoqda. Bu masalani yechishning bir qancha usullari mavjud. Ammo, tanlanmaning alomatlari soni to'rt va undan yuqori bo'lganda guruhlarga to'g'ri ajratilganini tekshirish murakkablashadi. Shu sababli Kohonenning o'zini-o'zi tashkil qiluvchi xaritalariga talab oshib bormoqda. Ushbu usulning boshqa neyron to'rlardan asosiy farqi, o'qituvchisiz o'rganish usuli qo'llanilgan ya'ni o'rganishda natija faqatgina kirish ma'lumotlariga bog'liq. Bundan tashqari, bu usulda natijani vizual ko'rish mumkin bao'lgani uchun Kohonenning o'zini-o'zi tashkil qiluvchi xaritalari ko'plab sohalarda tatbiq qilinmoqda. Masalan, tibbiyot sohasida, geologiya sohasida va boshqa sohalarda. Ushbu maqolada Kohonenning o'zini-o'zi tashkil qiluvchi xaritalari usulining algoritmi va shu algoritm yordamida dasturiy ta'minot tuzilgan. Yaratilgan dasturiy ta'minot yordamida test masala sifatida Fisherning Iris gullari tanlammasi tekshirib ko'rilgan hamda natijani vizual ko'rishi ham keltirilgan. Sun'iy neyron to'rlarning asosiy masalalaridan biri berilgan tanlanmalarni guruhlarga ajratish masalasi hisoblanadi. Bu masalani yechishning bir qancha usullari mavjud. Ammo tanlanmaning alomatlari soni to'rt va undan yuqori bo'lganda guruhlarga to'g'ri ajratilganini tekshirish qiyinlashadi. Kohonen xaritasi usuli ikki o'lchovli xaritada obyektlarning ko'p o'lchovli xususiyatlarini vizual ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Kohonen xaritalari kichik o'lchovli (odatda, ikki o'lchovli) elementlarga yuqori o'lchovli kirish ma'lumotlarini xaritasini ishlab chiqadi. Odatda, neyronlar to'rtburchakli yoki oltiburchakli neyron to'rlarga ega bo'lgan

ikki o'lchovli panjada joylashgan. Ushbu usulda informatsion model yaratdik. Yaratil modelni to'g'riligini tekshirish uchun bitta test masalani ko'rib chiqamiz. Test masal sifatida sun'iy neyron to'rlarda keng qo'llanadigan "Fisherning irislari" tanlanmasini olamiz, chunki bu tanlanmani natijasini aniq bilamiz. Bizga Fisherning irislari - 150 tanlanmadagi iris berilgan, ular uchta iris setosa, iris viginica va iris versicolor navlarining har birining 50 tanlanmasidan iborat

Kalit so'zlar: tanlanma, obyekt, alomat, vazn vektori, klaster, klasterizatsiya, neyron.

CREATING AN INFORMATIVE MODEL FOR SELF-ORGANIZING NEURAL NETWORKS

Annotation

It is no secret to anyone that different information models from artificial intelligence are based on the need to be created and their need for practical use is growing. Informative models like these make a significant contribution to the easy and quick solution of various large and small problems in the life of society. To date, the solution of many problems in the field of artificial intelligence is becoming dependent on the issue of classification. There are several ways to solve this issue. However, it becomes more complicated to verify that the sample is properly grouped when the number of symptoms is four and above. The demand for Kohonen's self-organizing maps is therefore increasing. The main difference of this method from other neural nets is that the method of learning without a teacher is used-that is, in learning, the result depends only on the input data. In addition, in this way, the result can be visually seen BA, since Kohonen's self-organizing maps are being applied in many areas. For example, in the field of Medicine, in the field of Geology and other areas. In this article, the algorithm of the method of self-organizing maps of Kohonen and the software are compiled using this algorithm. As a test issue with the software created, Fisher's Iris flower selection has been examined as well as a visual view of the result. One of the main issues of artificial neural nets is the issue of grouping given samples. There are several ways to solve this issue. But it becomes more difficult to verify that the number of symptoms of the sample is correctly assigned to Groups at four and above. The Kohonen map method is designed to visually show the multidimensional properties of objects on a two-dimensional map. Kohonen maps develop a map of high-dimensional input data to small-dimensional (usually two-dimensional) elements. Typically, neurons are located on a two-dimensional paw with

rectangular or hexagonal neural nets. In this method, we created an informative model. We will consider one test issue to verify the correctness of the creative model. As a Test parable, we get the “Fisher's irises” sample, which is widely used in artificial neural nets, because we know exactly the result of this sample. We are given Fisher's irises - an iris in a sample of 150, consisting of 50 selections of each of the three iris setosa, iris viginica and iris versicolor varieties.

Keywords: sampling, object, feature, weight vector, cluster, clustering, map, neuron.

Kirish

Sun’iy neyron to’rlarning asosiy masalalaridan biri berilgan tanlanmalarni guruhlarga ajratish masalasi hisoblanadi. Bu masalani yechishning bir qancha usullari mavjud. Ammo tanlanmaning alomatlari soni to’rt va undan yuqori bo’lganda guruhlarga to’g’ri ajratilganini tekshirish qiyinlashadi. Kohonen xaritasi usuli ikki o’lchovli xaritada obyektlarning ko’p o’lchovli xususiyatlarini vizual ko’rsatish uchun mo’ljallangan. Kohonen xaritalari kichik o’lchovli (odatda, ikki o’lchovli) elementlarga yuqori o’lchovli kirish ma’lumotlarini xaritasini ishlab chiqadi. Odatda, neyronlar to’rtburchakli yoki oltiburchakli neyron to’rlarga ega bo’lgan ikki o’lchovli panjada joylashgan. Neyron-qo’shnilar xaritadagi neyronlar orasidagi masofa bilan aniqlanadi (1-rasm). Markazlarida oltiburchak va to’rtburchak shaklidagi neyron to’rlardan iborat, ularning markazlarida neyronlar joylashgan. Oltiburchakli neyron to’rli xarita ustida obyektlar orasidagi dekart masofasini aniqroq ko’rsatadi, chunki bu neyron to’rlar uchun qo’shni tugun markazlari orasidagi masofa bir xil bo’ladi [1].



1-rasm. Oltiburchakli va to’rtburchakli neyron to’rlar

Adabiyotlar sharhi. Har bir tugun Kohonen neyron to'rining neyroniga to'g'ri keladi, ya'ni, Kohonen xaritasida neyron soni xaritaning tugunlari soniga teng. O'z-o'zini tashkil qiluvchi xaritalar neyron to'r algoritmlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning boshqa neyron to'rlardan asosiy farqi, o'qituvchisiz o'qitish usulini qo'llanilgan, teskari tarqatish algoritm bilan o'rgatilgan, ya'ni o'ragatishda natija faqatgina kirish ma'lumotlarining tuzilishiga bog'liq. Ushbu turdagi neyron to'rlar ko'pincha turli masalarni yechish uchun, ma'lumotlardagi bo'shliqlarni tiklashda, ma'lumotlarni tahlil qilish va qonunlarni topish uchun ishlatiladi, masalan, moliyaviy masalalarda [2].

O'z-o'zini o'ragatish xaritalarining ishlash algoritm ko'p o'lchovli vektorlarni klaster taxlil variantlaridan biri hisoblanadi. Bunday algoritmlarning misol sifatida "k-eng yaqin qo'shni" (k-means) algoritmini keltirish mumkin. SOM ("Self-Organizing Map"- o'z-o'zini tashkil etuvchi xaritalar) algoritmining muhim farqi shundaki, unda barcha neyronlar odatda ikki o'lchovli to'rni hosil qiladi. SOM da o'ragatish asosan "g'olib hammasini oladi" qoidasiga ko'ra amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o'ragatish vaqtida nafaqat neyronlarning g'oliblari, balki qo'shni bo'lganlar ham o'zgarmaydi, biroq u kichik darajada o'lchovli fazoga o'tkaziladi. Shu sababli, SOM o'lchamli fazodan nisbatan kichik o'lchamli fazoga o'tish usullaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Ushbu algoritmni qo'llash natijasida, haqiqiy xarita fazosiga o'xshash vektorlar hosil qilinadi.

Metodologiya. SOM neyronlarning tartiblangan strukturasini qo'llashni nazarda tutadi. Odatda bir va ikki o'lchamli to'r qo'llaniladi. Bu holda har bir neyron n-o'lchovli vektor ustuni $W=[w_1, w_2, \dots w_n]^T$ bo'lib, bu yerda n haqiqiy fazo o'lchami (kirish vektorlarining o'lchami) bilan aniqlanadi. Bir va ikki o'lchovli to'rlardan foydalanish yuqori o'lchamdagi kengaytmali tuzilmalarni xaritada topishda muammolar yuzaga kelishi bilan bog'liq (bu yerda o'lchamni ikki o'lchovli o'lchamga tushirish, vizual ko'rish muammolarga bog'liq).

Odatda, neyronlar to'rtburchaklar yoki olti burchakli hujayralarga ega bo'lgan ikki o'lchovli to'r tugunlaridir. Bu holda, yuqorida aytib o'tilganidek, neyronlar ham bir-biri bilan ta'sir o'tkazishadi. Ushbu ta'sirning kattaligi xaritadagi neyronlar orasidagi masofa bilan belgilanadi. 2-rasmda oltiburchakli va to'rtburchakli to'rlar uchun neyronlar orasidagi masofa keltirilgan.



2-rasm. Xaritada olti burchakli (a) va to'rtburchak (b) to'rlar uchun neyronlar orasidagi masofa

Oltinchali burchakli to'rdagi neyronlar orasidagi Yevklid masofa to'rt burchakli to'rga qaraganda ko'proq ekanligini ko'rish oson. Bunday holda, xaritaning yakuniy umumlashtirish qobiliyati to'rdagi neyronlar soniga qarab aniqlanadi.

Kohonenning o'z-o'zini tashkil qiluvchi xaritalarni o'qitish algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat [3]:

1. Har bir tugunning og'irliklarini boshlang'ich aniqlash;

2. Berilganlar to'plamidan tasodifiy vektorlar dastlabki o'qitish uchun tanlanadi va to'r hosil qilinadi;

3. To'rning har bir tugunidagi kirish vektoriga o'xshashligi hisoblanadi. G'olib chiqqan tugun odatda bir qiymatni o'zlashtiradi va g'olib neyron deb ataladi.

$$K^2 = \sum_{i=0}^{i=n} \left(x_i - w_i \right)^2 \quad (1)$$

bu yerda *x*- joriy kirish vektori, w_i- *i* -tugundagi og'irlik vektori va n - og'irliklar soni.

4. G'olib neyronning radiusi atrofi hisoblanadi. Odatda to'r radiusi sifatida g'olib neyronning radiusi belgilanadi va har bir qadamda radius kamayib boradi.

$$\sigma(t) = \sigma_0 e^{\left(-t/\lambda\right)} \quad (2)$$

bu yerda *t*- joriy itoratsiya, λ - o'zgarmas vaqt $\lambda = \frac{N}{\sigma_0}$, σ_0 - xaritaning radiusi, *N*- takrorlanishlar soni.

5. Barcha tugunlarda g'olib neyrondagi radius atrofi 4-qadamdagidek hisoblanadi, kirish vektori qiymatlari o'zgaradi. Neyronlar g'olib neyronning tuguniga qanchalik yaqin bo'lsa, unlarning vazni ham o'zgaradi.

$$L(t) = L_0(t)e^{(-t/\lambda)},$$

$$w(t+1) = w(t) + \theta(t)L(t)\left(x(t) - w(t)\right) \quad (3)$$

bu yerda $L(t)$ – o'qitish tezligi, $L_0(t)$ – boshlang'ich o'qitish tezligi, $\theta(t)$ - g'olib neyrondan Gauss funktsiyasi bo'yicha masofasi.

6. N-qatlamgacha 2-bosqichdan boshlab takrorlanadi.

Muntazam ravishda o'ragatish algoritmida har bir o'ragatish bosqichidan keyin og'irliklar yangilanadi. Neyronlarning o'ragatish, Kohonen neyron to'ridagi neyronlariga o'xshaydi. Farq shundaki, g'olib neyron atrofiga kiruvchi neyronlar yoki g'olib neyronni o'rgatish radiusi qo'shimcha ravishda o'rgartiriladi. Neyron xaritada g'olib chiqqan neyron o'rtasidagi masofa ma'lum bir qiymatdan pastroq bo'lsa (neyronlarning og'irliklari o'zgaradi, lekin ularning xaritadagi joylashuvi o'zgarmas), neyron g'olib neyronning radius atrofiga tegishli. Bunday algoritm WTM tipidagi algoritm deb ataladi (Winner Takes Most- g'olib ko'proq oladi). Radius atrofdan tashqaridagi neyronlarning og'irliklari o'zgarmaydi. Radius atrofning kattaligi va o'ragatish tezligi koeffitsienti - o'ragatish davrining ortishi bilan qiymati kamayadi [3].

Natijalar. Ushbu usulda informatsion model yaratdik. Yaratil modelni to'g'riligini tekshirish uchun bitta test masalani ko'rib chiqamiz. Test masal sifatida sun'iy neyron to'rlarda keng qo'llanadigan "Fisherning irislari" tanlanmasini olamiz, chunki bu tanlanmani natijasini aniq bilamiz. Bizga Fisherning irislari - 150 tanlanmadagi iris berilgan, ular uchta iris setosa, iris viginica va iris versicolor navlarining har birining 50 tanlanmasidan iborat (3-rasm). Tekshirish uchun tanlanmalarni qaysi turga mansub ekanligini kiritmaymiz qolgan 4 ta alomatlarini qiymatini [0:1] oraliqda normallashtirib "Tanlanma iris. txt" fayliga saqlangan.

Kirish vektoriga ko'ra programma algoritmi gullarni to'gri klasterlarga ajratishi va klaster tahlilni o'tkazadi.

a) *b)* *c)*

3-rasm. Iris gulining uch xil turi

Har bir tanlanmada iris gulining 4 ta alomatlari berilgan (santemetrda).

1. Gulkosasi uzunligi (eng. sepal length);
2. Gulkosasi kengligi (eng. sepal width);
3. Gulbargi uzunligi (eng. petal length);
4. Gulbargi kengligi (eng. petal width).

Berilgan masalasda klasterlar soni 3 ta bo'lishi kerak. Neyron to'rning har bir qatlamda 4 ta kiruvchi neyron 3 ta chiqish bo'ladi (4-rasm). Boshlang'ich vazn koeffisientlarini [0. . 1] oraliqdan ixtiyoriy tanlab olamiz.



4-rasm. Kohonen neyron to'rida Iris gulini klasterlarga ajratish strukturasi

Yaratilgan dasturni ishga tushiramiz keyin, "TANLANMA" tugmasini tanlanadi. Natijada kerakli tanlanmani tanlash uchun muloqot oynasi ochiladi (5-rasm). Bu yerdan Iris gulining tanlanmalari joylashgan "Tanlanma iris. txt" matn fayli tanalnadi. Natijada tanlanma ekranda jadval ko'rinishida chiqariladi (6-rasm).



5-rasm. Tanlanmani tanlash uchun ochiladigan muloqot oynasi



6-rasm. Tanlanmani dasturga yuklangan holati

Boshlang'ich vazn koeffisientlarini [0. . 1] oraliqda taqriban aniqlab. Boshlag'ich vazn koeffisientlari asosida kasterizatsiya qilish uchun "*KLASTERIZATSIYA*" tugmasi tanlanadi. Natijada tanlanma klasterizatsiya qilinadi va har bir tanlanmaning klaster raqami tanlanma alohida ustunda chiqariladi. Oxirgi natijaviy vazn koeffisientlati jadvalga chiqariladi.



7-rasm. Tanlanmani klasterizatsiyalash natijasi

Tanlanmani klasterlarga ajratib bo'lgandan so'ng. Klaster tahlilini o'tkazishimiz mumkin. Buning uchun "KLASTER TAHLIL" tugmasi tanlanadi. Natija 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Klaster tahlil natijasi.

Jadvaldagi "Izoh" ustuniga har bir klasterning alohida xususiyatlarini yozib qo'yishimiz va "SAQLASH" tugmasini bosish orqali barcha ma'lumotlarni faylga saqlab qo'yishimiz mumkin.

turli, xususan elektrik, elektromagnit va boshqa usullarni amalga oshiruvchi vositalardan foydalanadilar. Skanerlardan biri barmoq izi tasvirini shakllantirish maqsadida teri qismlarining sig'im qarshiligini o'lchaydi. Masalan, Veridicom kompaniyasining daktiloskopik qurilmasi yarimo'tkazgichli datchik yordamida sig'im qarshiligini aniqlash orqali axborotni yig'adi. Sensor ishlashining prinsipi quyidagicha: Ushbu asbobga qo'yilgan barmoq kondensator plastinalarining biri vazifasini o'taydi. Sensor sirtida joylashgan ikkinchi plastina kondensatorning 90000 sezgir plastinkali *kremniy* mikrosxemasidan iborat. Sezgir sig'im datchiklari barmoq sirti do'ngliklari va pastliklari orasidagi elektrik maydon kuchining o'zgarishini o'lchaydi. Natijada do'ngliklar va pastliklargacha bo'lgan masofa aniqlanib, barmoq izi tasviri olinadi. Integral sxema asosidagi sensorli tekshirishda.

Bu usul bo'yicha asosiy skaner sifatida Identix kompaniyasining TouchSafe II skanerlarini keltirish mumkin. Bu skaner kontrolleri kompyuterga ISA shinasi orqali ulanadi. Qator ishlab chiqaruvchilar biometrik tizimlarni smart-kartalar va karta – kalitlar bilan kombinatsiyalaydilar. Integral sxemalar asosidagi barmoq izlari datchiklarining kichik o'lchamlari va yuqori bo'lmagan narxi ularni himoya tizimi uchun ideal interfeysga aylantiradi. Ularni kalitlar uchun breloklarga o'rnatish mumkin. Natijada foydalanuvchi kompyuterdan boshlab to kirish yo'li, avtomobillar va bankomatlar eshiklaridan himoyali foydalanishni ta'minlaydigan universal kalitga ega bo'ladi. AuthenTeckompaniyasida ishlatiluvchi usul aniqlikni yana ham oshirishga imkon beradi.

3. Qalbakilashtirishga barqarorlik. Biometrik tizim turli qalbakilashtirish usullariga (ruxsatsiz foydalanishga) barqaror bo‘lishi lozim. Yuzning ikki o‘lchamli tasviri bo‘yicha aniqlash tizimini, unga ro‘yxatdan o‘tgan biror shaxs fotosuratini taqdim etib, osongina aldash mumkin. Begona ko‘z pardasini o‘g‘irlash yuz fotosuratini o‘g‘irlashga qaraganda murakkabroq. Ammo, ko‘z pardasi o‘g‘irlangan taqdirda, tizimni “talab etilgan” ko‘zning fotografik tasviri orqali aldash mumkin.

Barmoq izlari bo‘yicha ruxsatsiz foydalanish huquqini qo‘lga kiritishni ixtiyoriy sirtda qoldirilgan “kerakli” shaxsning barmoq izlarini olib, raqamlashtirib, olingan tasvirni kompyuterda ishlov berib, so‘ngra “soxta” barmoqni yasash orqali amalga oshirish mumkin.

Yuzning uch o‘lchamli tasviri bo‘yicha aniqlash texnologiyasi qalbakilashtirishga eng barqaror hisoblanadi. Bunday tizimni aldash uchun yuz geometriyasining barcha detallarini aniq akslantiruvchi maskani yaratish talab etiladi. Amalda buning imkoni yo‘q. Ovoz

xususiyatlari bo‘yicha shaxsni identifikasiyalashning bir qancha o‘ziga xos tomonlari mavjud. Birinchidan, rivojlangan telefon tarmog‘ining mavjudligi. Ikkinchidan, ovoz kartalari zamonaviy shaxsiy kompyuterlarning standart uskunasiga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari, ovoz bo‘yicha identifikasiya insonlar uchun an'anaviy hisoblanadi va psixologik noqulaylikni keltirib chiqarmaydi. Bu tizimlar arzonligi tufayli eng foydalanuvchan hisoblanadilar, chunki aksariyat zamonaviy kompyuterlar video va audeo vositalariga ega. Bu biometrik tizimlari telekommunikatsiya tarmoqlarida masofadagi foydalanuvchi subyektni identifikatsiyalash uchun ishlatiladi. Yuz tuzilishini skanerlash texnologiyasi boshqa biometrik texnologiyalar yaroqsiz bo’lgan ilovalar uchun to’g’ri keladi. Bu holda shaxsni identifikatsiyalash va verifikatsiyalash uchun ko’z, burun va lab xususiyatlari ishlatiladi. Yuz tuzilishini aniqlovchi qurilmalarni ishlab chiqaruvchilar foydalanuvchini identifikatsiyalashda xususiy matematik algoritmlardan foydalanadilar. Ta’kidlash lozimki, yuz tuzilishini aniqlash texnologiyasi yanada takomillashtirishni talab etadi. Yuz tuzilishini aniqlovchi aksariyat algoritmlarquyosh yorug’ligi jadalligining kun bo’yicha tebranishi natijasidagi yorug’lik o’zgarishiga ta’sirchan bo’ladilar. Yuz holatining o’zgarishi ham aniqlash natijasiga ta’sir etadi. Yuz holatining 90° ga o’zgarishi aniqlashni samarasiz bo’lishiga olib keladi.

4. Aniqlash aniqligi. Biometrik tizimning ishlash aniqligini baholaganda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

FAR (False Acceptance Rate) - tizim ruxsatga ega bo‘lmagan foydalanuvchini haqiqiy deb topgandagi yolg‘ondan aniqlash ehtimolligi;
- FRR (False Rejection Rate) – foydalanish ruxsatini yolg‘ondan rad etish ehtimolligi bo‘lib, tizim haqiqiy foydalanuvchini o‘zida mavjud bo‘lmagan sifatida qaraydi.

FRR va FAR statistik echimlar nazariyasida, mos holda 1-va 2-xildagi xatoliklar deb yuritiladi

Har qanday biometrik tizimni “sergakligi”ning turli darajasiga, ya'ni, yolg‘ondan aniqlash (FAR)ning turli qiymatiga sozlash mumkin. Ammo, FAR-ning kamayishi doimo tizim sezuvchanligini pasayishiga va yolg‘on rad etish FRR ehtimolligining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, tizim “begonalarni” o‘tkazmaslikka qanchalik “sergak” sozlangan bo‘lsa, u shunchalik kam sezuvchanlikka ega, ya'ni, “o‘zinikilarni” yomonroq o‘tkazadi. Zamonaviy tizimlarda FAR qiymati foizning ulushini tashkil etsa, FAR-ning qiymati 2-5% ga teng

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, tizim aniqligining muayyan ko‘rsatkichlari ishlab chiqaruvchilarga va testlash usuliga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ammo,

yuzning uch o‘lchamli tasviri, barmoq izlari va ko‘z yoyi va to‘r pardasining naqshi bo‘yicha aniqlash texnologiyalari taqqoslab bo‘ladigan aniqlikka ega. Yuzning ikki o‘lchamli tasviri bo‘yicha aniqlash texnologiyasining aniqligi sanab o‘tilgan texnologiyalar aniqligiga nisbatan ancha past. Ammo, ikki o‘lchamli tasvir operator tomonidan ko‘z bilan taqqoslashda qulay hisoblanadi.

Identifikasiya rejimda aniqlash aniqligini oshirishda bir nechta biometrik texnologiyalardan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biometrik tizimlardagi ushbu istiqbolli yo‘nalish identifikasiyaning ko‘p faktorli biometrik (multibiometrik) tizimni (AMIS, Automated Multimodal Biometric Identification Systems) qurish konsepsiyasiga asoslanib, [3] manbada qo‘riqlash sohasida quyidagi texnologiyalarni integrasiyalash taklif etilgan:

- barmoq izlari bo‘yicha;

- yuz tasviri bo‘yicha:

- ovoz bo‘yicha;

- imzo (dastxat) bo‘yicha.

Ushbu biometrik texnologiyalarni integrasiyalash ikkita jihatni ko‘zda tutadi: texnik va algoritmik. Texnik integrasiyaga binoan bir necha dasturiy apparat komplekslari yagona interfeys orqali birlashtiriladi. Ushbu masala standartlash yo‘li bilan yetarli darajada hal etiladi. Algoritmik nuqtai nazaridan biometrik texnologiyalarining integrasiyasi biometrik obrazlar naborlarining bir xilligi xususida qaror qabul qilishning yetarlicha murakkab tadbiqiy matematik masalasi xisoblanadi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish lozimki, ko‘p faktorli biometrik tizimnig tadbiqi shaxsni aniqlash jarayonining sifatini oshirishga imkon beradi. Shuningdek biror bir korxona tashkilot binosiga xodimlarning kirish vaqtida yoki muayyan ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olishda biometrik azolardan foydalanish ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda juda katta yordam beradi. Biometrik tizimlar hozirgi kunda eng ko’p foydalaniladigan tizimlar qatoriga kiradi. Ko‘p faktorli biometrik tizimni yaratishda biometrik integratsiyaning o‘zi yetarlicha katta hisoblash muolajasi ekanligini ko‘zda tutish lozim. Demak, mazkur holatda dasturiy apparat komleksi tarkibiga yuqori unumdorlikka ega serverni kiritish talab etiladi, Boshqacha aytganda, ko‘p faktorli biometrik tizim klient-server ilova sifatida yaratiladi.

Adabiyotlar

Sovremennie biometricheskie sistemi bezopasnosti [Elektronniy rusurs]. - Rejim dostupa: http://www /npo_inform/com/press/sovribio.

Vakulenka A. Biometrichiskie metodi identifikasii lichnosti:obosnovanniy vibor i vnedrenie /A. Vakulenka, A. Yuxin //PC Week/RE/ - 2019/-№ 29. –S. 15-16, 31

Umashev O. Realizasiya konsepsii mnogofaktornoy biometricheskoy identifikasii: materiali konf. /VI Mejdunarodniy biometricheskaya konf. BIOMETRICS AIA 2020 LEGS “Pasportnie i pravooxranitel'nie sistemi 2018.

P. Stavroulakis, M. Shtam «Spravochnik po inforsionnoy i kommunikasionnoy bezopasnosti» Springer Secience &Buziness Media, 2021

Biometrics: the Future of Mobile Payments. U. S. Economic Watch. Nathaniel Karp. 20 July 2021.

Review banking on biometric in the world's banks and introducing a biometric model for Iran's banking system. Seyyede Samine Hosseini. https://www. researchgate. net/publication/237862021. September, 2021.

KRIPTOGRAFIK KALITLAR UCHUN SMARTFON DATCHIKLARI ASOSIDA TASODIFIY BITLARNI GENERATSIYALASH ALGORITMI

Temirov Z. X , Mannapova M. G'

Annotatsiya

Maqolada mobil qurilmalarda giroskop, magnetometr, akselerometr sensorlari asosida tasodifiy bitlarni generatsiyalash algoritmi taklif qilinadi. Androidda sensor imkoniyatlari, qurilma yoritgichlari orqali olingan o'zgaruvchilarni tahlil qilishga yordam beradi. Android qurilmalarida mavjud bo'lgan sensorlarning turli xil turlari mavjud: gyroscope, accelerometer, magnetometer, light sensor, proximity sensor va boshqalar. Accelerometer: Bu sensor, qurilmani yoritgichlari orqali ishlatiladi. U qurilmani harakati, tezlik, burulish va boshqa imkoniyatlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Gyroscope: Gyroscope sensori, qurilmani yoritgichlari bo'yicha aylanishni aniqlaydi. U yuqori tezlikdagi burulish va o'ngacha burulish kabi ko'plab xarakteristikalar tahlil qiladi. Magnetometer: Magnetometer, qurilmani yoritgichlari orqali magnitnoy maydonni aniqlash uchun ishlatiladi. U qurilmani geografik shimoliy va janubiy qismi, havoga nisbatan o'ziga qarshi aylanishi va boshqa xususiyatlarni aniqlaydi. Light sensor: Ushbu sensor, qurilmani yoritgichlari bo'yicha atrofni tahlil qiladi va qurilmani yoritgichlarida yuzaga kelgan nozik o'zgarishlarni aniqlaydi. Proximity sensor: Bu sensor, qurilmani yoritgichlari bo'yicha o'q avtomatik ravishda ishlatiladi. U ekranning ko'rsatilgan qismida yoki qurilmani yoritgichlarida qayta ishlatilayotgan joyda nozik o'zgarishlar bo'lsa, qurilmani avtomatik ravishda yoqib yuboradi. Har bir sensor, qurilmani yoritgichlari bo'yicha tahlil qiladi va uch xaraktirli ma'lumotlar qaytaradi: turli tizimlar va yulduz navigatsiyasi tahlil qilish, qurilmani yoritgichlarida o'zgarishlar va ko'pgina ishlar, ko'ngil ocharligi, qurilmani ishlatish, kamera o'rnatish. Sensorlar, Android dasturida yuzaga kelgan har qanday muammolarni hal qilish uchun foydalanilishi mumkin. Misol uchun, telefonni egallayotgan shaxsning tezligi, o'ziga qarshi aylanish xususiyatlarini va o'zini ko'chirishni aniqlash uchun ishlatiladi. Algoritmda tasodifiy bit generatori entropiya manbai sifatida smartfon sensorlaridan foydalanilgan. martfonlarning akselerometr, giroskop va magnetometr kabi datchiklari harakat va yo‘nalishni aniqlash uchun foydalanadigan uchta asosiy sensor

hisoblanib, u deyarli barcha smartfonlarda mavjudligi bilan alohida e'tiborga molik. Taklif etilayotgan algoritm asosida Android operasion sistemali smartfonlar uchun dasturiy ta'minot yaratilib, bir qator natijalar olinib, olingan natijalar asosida NIST statistik testlar yordamida baholandi. Tasodifiy bitlar generatsiyasi algoritmining blok sxemadagi ko‘rinishi:aylanuvchi giroskoplarning aylanuvchi g‘ildiragi emas, balki aylanish tezligini aniqlash uchun tebranuvchi strukturadan foydalanadi. Magnetometrlar eng kuchli magnit kuch qaerdan kelib chiqqanligini sezishi mumkin, odatda magnit shimolni aniqlash uchun ishlatiladi, lekin magnit maydonlarni o‘lchash uchun ham ishlatilishi mumkin. Akselerometrlar va giroskoplar bilan birlashganda undagi yo‘nalish hisob-kitoblarini muvofiqlashtirish mumkin.

Tayanch so‘zlar: *tasodifiy bitlar, mobil qurilma, sensor, magnitometr, giroskop, akselerometr, datchik*.

RANDOM BIT GENERATION ALGORITHM FOR CRYPTOGRAPHIC KEYS BASED ON SMARTPHONE SENSORS

Annotation

The article proposes an algorithm for generating random bits based on gyroscope, magnetometer, and accelerometer sensors in mobile devices. Android's sensor capabilities help analyze variables captured by the device's lighting. There are different types of sensors available in Android devices: gyroscope, accelerometer, magnetometer, light sensor, proximity sensor, etc. Accelerometer: This sensor is used by device lights. It is used to detect device movement, speed, rotation and other capabilities. Gyroscope: Gyroscope sensor detects the rotation of the device by its lights. It analyzes many characteristics such as high speed twist and up to ten twist. Magnetometer: A magnetometer is used to detect the magnetic field through the lights of a device. It determines the geographical north and south of the device, its counter-rotation relative to the air, and other characteristics. Light sensor: This sensor analyzes the device's lighting environment and detects subtle changes in the device's lighting. Proximity sensor: This sensor is used automatically by the arrow on the device lights. It will automatically turn on the device if there is a subtle change in the displayed part of the screen or where the device lights are being used again. Each sensor analyzes the device's lighting and returns three types of data: analysis of various systems and star navigation, changes in the device's lighting and many tasks, entertainment, device usage, camera installation . Sensors can be used to

solve any problems encountered in the Android application. For example, the speed of the person holding the phone is used to determine the self-rotation characteristics and self-movement. The algorithm uses smartphone sensors as a random bit generator entropy source. Smartphone sensors such as accelerometer, gyroscope and magnetometer are the three main sensors that are used to determine movement and direction, and it is particularly noteworthy because it is present in almost all smartphones. Based on the proposed algorithm, software for smartphones with Android operating system was created, a number of results were obtained, and based on the obtained results, they were evaluated using NIST statistical tests. Block diagram of the random bit generation algorithm: It uses an oscillating structure to determine the rate of rotation, rather than the spinning wheel of spinning gyroscopes. Magnetometers can sense where the strongest magnetic force is coming from, usually used to determine magnetic north, but can also be used to measure magnetic fields. When combined with accelerometers and gyroscopes, it can coordinate direction calculations.

Keywords: *random bits, mobile device, sensor, magnetometer, gyroscope, accelerometer, sensor*.

Kirish

Bugungi kunda hayotimizga mobil qurilmalarning shiddat bilan kirib kelishi, undagi ma'lumotlarning xavfsizligiga bo‘lgan talabning ham mos ravishda oshib borishiga olib kelmoqda. Bu ma'lumotlarning avfsizligini ta'minlash uchun esa, axborotlarning kriptografik himoyalash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu algorimlarda iptobardoshli kalitlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptobardoshli kalitlarni generatsiyalash tasodifiy sonlarni generatsiyasiga bevosita bog‘liq. Standartlar va texnologiyalar milliy instituti (NIST) kriptografiyada tasodifiy va psevdotasodifiy sonlar generatorlari uchun statistik testlar to‘plamini ishlab chiqdi. Ushbu testlar tasodifiy bitlarni tasodifiylik darajasini baholash imkonini beradi (Rukhin, Andrew & Soto, Juan & Nechvatal, James & Smid, Miles & Barker, Elaine & Leigh, Stefan & Levenson, Mark & Vangel, Mark & Banks, David & Heckert, Alan & Dray, James & Vo, San & Bassham, Lawrence. 2010) Uning tarkibiga bitlar ketmaketligining tasodifiylik xarakterini aniqlaydigan quyidagi 15 ta statistik testlar kiradi:

Tasodifiy bitlar generatori boshlang‘ich ma'lumotlarni turli entropiya manbalaridan oladi. Muammoning o‘rganilganlik darajasi Meltem S. T. va boshqa tadqiqodchilar tasodifiy bitlar generatori uchun entropiya manbalarini qurish prinsiplari, ularga bo‘lgan talablar, hamda entropiya

manbalarini tekshirish testlarini taklif etishgan (Meltem Sönmez Turan, Elaine Barker, John Kelsey, Kerry A. McKay, Mary L. Baish, Mike Boyle 2018). Entropiya manbasidan olingan ma'lumotlar qo‘llanilishidan oldin deterministik generatorlar orqali qayta ishlanadi(Barker, E. , Kelsey 2015). Barker E. va boshqa tadqiqodchilar tasodifiy sonlar generatori arxitekturasini va loyihalashni tavsiflab berishgan (Barker, E. , Kelsey 2012). Hennebert C. va boshqa tadqiqodchilar smartfonning termometr, magnitometr, akselerometr va boshqa sensorlari entropiya manbalarini baholashgan (Hennebert, C. , Hossayni, H. , & Lauradoux, C. 2013). Ular tajribada magnitometr, akselerometr va vibratsiya datchiklari entropiya manbasi sifatida qo‘llanilganida ijobiy natijani qayd qilishgan. Loutfi J. va boshqa tadqiqodchilar smartfon datchiklari asosida tasodifiy bitlarni generatsiyalashni ko‘rsatib berishgan (Loutfi, J. , Chehab, A. , Elhajj, I. H. , & Kayssi, A. 2014). Ushbu ishda harakat datchiklaridan 32-bitli qiymatlar to‘planib, so‘ng sha1, sha256, sh384, sha512 xesh algoritmlariorqali xeshlangan. Xesh qiymat tasodifiy bitlar generatori natijasi hisoblangan. Tasodifiy bitlar generatoriga asosiy talablardan biri bu generator bilan generatsiya qilingan bitlarni oldindan bashoratlashning imkonsizligi (Г. П. Акимова, Е. В. Пашкина, А. В. Соловьев) ishda tasodifiy ketma-ketlikni bashoratlash bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. (Р. Р. Вильданов, Р. В. Мещеряков, С. С. Бондарчук 2012) - ishda tasodifiy ketma-ketlikni tezda tasodifiylikka tekshirish dasturiy usuli keltirilgan. Ushbu dasturiy usul tasodifiy bitlarni baholashda qo‘llaniladi. Odatda Android platformasida tasodifiy sonlarni generatsiyalash uchun OpenSSL kutubxonasi qo‘laniladi. Kim S. H. va boshqalar Android platformasida tasodifiy sonlarni generatsiyalashda OpenSSL kutubxonasida zaiflikni aniqlashdi (Kim, S. H. , Han, D. , & Lee, D. H. 2013). Smartfon datchiklaridan olingan qiymatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kriptografiyada qo‘llanilmasligi kerak. Ular tasodifiy sonlar generatori va/yoki xesh algoritmlar asosida qayta ishlanishi kerak. Faqat xesh algoritmlardan foydalanib, NIST statistik testlaridan yuqori baho olish murakkab hisoblanadi. Ko‘pgina smartfonlarda giroskop, magnitometr va akselerometr datchiklari borligini inobatga olib, taklif etilgan algoritmda ushbu datchiklar entropiya manbasi sifatida qo‘llaniladi. Akselerometrni tasodifiy bitlarni generatsiyalashda qo‘llanilganda atrof-muhitni turli manipulyasiyalar orqali o‘zgartirishga urinish, stasionar akselerometr entropiyasini kamaytirib bo‘lmaydi (Voris, J. , Saxena, N. , & Halevi, T. 2011)Mobil operasion tizimlarda mobil ilovalar biron datchikni entropiya manbasi sifatida qo‘llashi uchun ushbu datchikka ruxsatga ega bo‘lishi kerak (masalan, kamera (Zhang, X. , Qi, L. , Tang, Z. , & Zhang, Y. 2014 simsiz tarmoq, mikrofon)). Mobil ilovaga faqat tasodifiy bitlarni generatsiyalash uchun bir qator datchiklarga ruxsat berish xavfsizlik

nuqtainazaridan maqbul usul hisoblanmaydi. Datchiklarning o‘ziga xos xususiyatlari Akselerometr, giroskop va magnetometrning barchasi harakatni o‘lchash uchun ishlatilishi mumkin. Akselerometr, giroskop va magnetometrlar harakat va yo‘nalishni aniqlash uchun foydalanadigan uchta asosiy sensor hisoblanadi. Ular smartfonlar, o‘yin qurilmalari, kameralar va boshqa ko‘plab dasturlarda keng qo‘llaniladi. Harakatni akselerometr yordamida sezishimiz mumkin. Akselerometrlar tezlanishni o‘lchash uchun ishlatiladi-bu chiziqli harakatni anglatadi X, Y, Z. Akselerometrlar moslashuvchan kremniy strukturasidan foydalanadi va tezlanish kattaligini o‘lchash uchun deformasiyani aniqlaydi. Har qanday yo‘nalishdagi yo‘nalish va kattalikni aniqlash uchun uchta alohida tuzilma bir-biriga to‘g‘ri burchak ostida yo‘naltirilgan. Ular harakatlanayotganda, harakatni, zarbani yoki tebranishni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Ular, shuningdek, yo‘nalishni yoki egilishni aniqlash uchun tortishish kuchini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Giroskoplar aylanma harakatni X, Y, Z da o‘lchash uchun ishlatiladi. Giroskoplar an'anaviy aylanuvchi giroskoplarning aylanuvchi g‘ildiragi emas, balki aylanish tezligini aniqlash uchun tebranuvchi strukturadan foydalanadi. Magnetometrlar eng kuchli magnit kuch qaerdan kelib chiqqanligini sezishi mumkin, odatda magnit shimolni aniqlash uchun ishlatiladi, lekin magnit maydonlarni o‘lchash uchun ham ishlatilishi mumkin. Akselerometrlar va giroskoplar bilan birlashganda undagi yo‘nalish hisob-kitoblarini muvofiqlashtirish mumkin.

Magnetometrlar yer magnit maydonining yo‘nalishini aniqlash orqali yo‘nalishni o‘lchaydilar. Ushbu keng tarqalgan sensorlar uchun katta yutuq shundaki, ular bitta chipda birlashtirilib, ulardan foydalanishni juda osonlashtiradi. Akselerometr yordamida mobil telefonning burilish harakati va yo‘nalishi daqiqali tebranishlarga juda sezgir bo‘lgan mikroskopik kristallar asosida ishlaydi. Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqib, datchiklarning xususiyatlaridan foydalangan holda quyida tasodifiy bitlarni generatsiyalash algoritmi bayon etiladi. Tasodifiy bitlarni generatsiyalash algoritmi Akselerometr datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha harakat tezlanish (m/s2) X, Y, Z qiymatlarini, giroskop datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha aylanish tezligi (radian/s) X, Y, Z qiymatlarini va magnitometr datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha magnit maydon ko‘rsatgichini (mkTl) X, Y, Z qiymatlarini qaytaradi. Giroskop, magnitometr, akselerometr datchiklari qiymatlari o‘zgarganda yangi qiymatlar tasodifiy sonlar generatoriga uzatiladi. Belgilashlar aX, aY, aZ – akselerometr datchigining mos ravishda x, y, z qiymatlarini saqlaydigan haqiqiy sonlar to‘plami. gX, gY, gZ – giroskop datchigining mos ravishda x, y, z qiymatlarini saqlaydigan haqiqiy sonlar to‘plami. mX, mY, mZ – magnetometr datchigining mos ravishda X, Y, Z qiymatlarini saqlaydigan

haqiqiy sonlar to‘plami. randomBitsLen – generatsiya qilinishi kerak bo‘lgan tasodifiy bitlar soni. TB – generatsiya qilingan tasodifiy bitlar 8 bit(1 bayt) bo‘laklarga bo‘linib ushbu massivda saqlanadi. xk – X qiymatning k-biti, k ≥ 0 seed – tasodifiy bitlar generatorini inisializasiya qilishda qo‘llaniladi. flag – natural son, boshlang‘ich holda flag=0 & – kon'yunksiya | – diz'yunksiya || – konkatenasiya ^ – XOR amali >> o‘ngga surish operatori << chapga surish operatori <<< chapga siklik surish operatori

Magnetometrlar yer magnit maydonining yo‘nalishini aniqlash orqali yo‘nalishni o‘lchaydilar. Ushbu keng tarqalgan sensorlar uchun katta yutuq shundaki, ular bitta chipda birlashtirilib, ulardan foydalanishni juda osonlashtiradi. Akselerometr yordamida mobil telefonning burilish harakati va yo‘nalishi daqiqali tebranishlarga juda sezgir bo‘lgan mikroskopik kristallar asosida ishlaydi. Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqib, datchiklarning xususiyatlaridan foydalangan holda quyida tasodifiy bitlarni generatsiyalash algoritmi bayon etiladi. Tasodifiy bitlarni generatsiyalash algoritmi Akselerometr datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha harakat tezlanish (m/s2) X, Y, Z qiymatlarini, giroskop datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha aylanish tezligi (radian/s) X, Y, Z qiymatlarini va magnitometr datchigi uch koordinata o‘qi bo‘yicha magnit maydon ko‘rsatgichini (mkTl) X, Y, Z qiymatlarini qaytaradi. Giroskop, magnitometr, akselerometr datchiklari qiymatlari o‘zgarganda yangi qiymatlar tasodifiy sonlar generatoriga uzatiladi. Belgilashlar aX, aY, aZ – akselerometr datchigining mos ravishda x, y, z qiymatlarini saqlaydigan haqiqiy sonlar to‘plami. gX, gY, gZ – giroskop datchigining mos ravishda x, y, z qiymatlarini saqlaydigan haqiqiy sonlar to‘plami. mX, mY, mZ – magnetometr datchigining mos ravishda X, Y, Z qiymatlarini saqlaydigan haqiqiy sonlar to‘plami. randomBitsLen – generatsiya qilinishi kerak bo‘lgan tasodifiy bitlar soni. TB – generatsiya qilingan tasodifiy bitlar 8 bit(1 bayt) bo‘laklarga bo‘linib ushbu massivda saqlanadi. xk – X qiymatning k-biti, k ≥ 0 seed – tasodifiy bitlar generatorini inisializasiya qilishda qo‘llaniladi. flag – natural son, boshlang‘ich holda flag=0 & – kon'yunksiya | – diz'yunksiya || – konkatenasiya ^ – XOR amali >> o‘ngga surish operatori << chapga surish operatori <<< chapga siklik surish operatori Tasodifiy bitlar generatsiyasi algoritmining blok sxemadagi

ko‘rinishi:



1-расм. Алгоритмнинг блок схемадаги кўриниши



2-расм. Алгоритмнинг блок схемадаги кўриниши (давоми)

Узатиш(X,Y,Z) функцияси



3-расм. Узатиш(X,Y,Z) функциясининг блок схемадаги кўриниши

Активация
Чтобы активи



4-расм. Қайта Ишлаш (X,Y,Z) функциясининг блок схемадаги кўриниши.

Ushbu algoritm samaradorligini aniqlash uchun u asosida mobil ilova yaratilib, smartfon orqali bir qator tajribalar o‘tkazildi. Mobil ilovada bir yoki bir nechta datchik entropiya manbasi sifatida foydalanish uchun tanlanadi va generatsiya qilinishi kerak bo‘lgan tasodifiy bitlar soni ko‘rsatiladi ю“GEN” bosilganidan so‘ng, mobil ilova entropiya manbalaridan ma'lumotlarni o‘qishni boshlaydi. Toki belgilangan sondagi tasodifiy bitlar generatsiya qilinmaguncha, ushbu jarayon davom ettiriladi. Mobil ilova tasodifiy bitlar generatsiyasi tugagandan so‘ng, natijani bitlar qatori va rasm ko‘rinishida ko‘rsatadi.

Tajriba davomida 50 ta uzunligi 25 600 bit uzunlikdagi tasodifiy bitlar generatsiya qilindi. Generatsiya qilingan tasodifiy bitlar NIST statistik testlari asosida tekshirildi. Tekshiruv natijasida tasodifiy bitlar ketma-ketligi testlardan $P \geq 0,1$ bahoga ega bo‘ldi, bundan kelib chiqadiki taklif etilgan algoritm asosida generatsiya qilingan tasodifiy bitlar kriptografiyada kriptobardoshli kalitlarni generatsiya qilishda qo‘llanilishi mumkin. P qiymati 0 va 1 orasida bo‘lib, u qanchalik 1 ga yaqin bo‘lsa, bitlar ketma-ketligi shuncha tasodifiy hisoblanadi.

Xulosa

Kriptografik kalitlar uchun generatsiya qilinadigan tasodifiy sonlarning tasodifiyligi, komp'yuter tarmoqlari va

kommunikasiyalaridagi turli xil kriptosistemalar xavfsizligi uchun javobgar omillardan biri hisoblanadi. Maqolada yoritilgan generatorning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u 4 ta entropiya manbasidan foydalanadi. Ushbu entropiya manbalari qiymatlarini oldindan bashoratlash imkoni yo‘q. Bundan tashqari u deyarli barcha smartfonlarda mavjud datchiklardan foydalanadi. Generatsiya qilingan tasodifiy bitlarni testlash natijasi esa mobil telefonlarda axborotlar xavfsizligini ta'minlash uchun kriptosistemalarda kriptografik kalitlarni generatsiyalashda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rukhin, Andrew & Soto, Juan & Nechvatal, James & Smid, Miles & Barker, Elaine & Leigh, Stefan & Levenson, Mark & Vangel, Mark & Banks, David & Heckert, Alan & Dray, James & Vo, San & Bassham, Lawrence. (2010). NIST Special Publication 800-22: A Statistical Test Suite for the Validation of Random Number Generators and Pseudo Random Number Generators for Cryptographic Applications. NIST Special Publication 800-22.

Meltem Sönmez Turan, Elaine Barker, John Kelsey, Kerry A. McKay, Mary L. Baish, Mike Boyle. (2018). NIST Special Publication 800-90B: Recommendation for the Entropy Sources Used for Random Bit Generation. https://doi. org/10. 6028/NIST. SP. 800-90B.

Barker, E. , Kelsey, J. : NIST SP 800-90A Rev. 1 Recommendation for random number generation using deterministic random bit generators (2015).

Barker, E. , Kelsey, J. : NIST Special Publication 800- 90C. Recommendation for Random Bit Generator (RBG) Constructions (2012). International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-4, February 2020 1029 Published By: Blue Eyes Intelligence Engineering & Sciences Publication Retrieval Number: C8994019320/2020©BEIESP DOI: 10. 35940/ijitee. C8994. 029420

Hennebert, C. , Hossayni, H. , & Lauradoux, C. (2013). Entropy harvesting from physical sensors. In WiSec 2013 - Proceedings of the 6th ACM Conference on Security and Privacy in Wireless and Mobile Networks (pp. 149–154). https://doi. org/10. 1145/2462096. 2462122.

Loutfi, J. , Chehab, A. , Elhajj, I. H. , & Kayssi, A. (2014). Smartphone sensors as random bit generators. In Proceedings of IEEE/ACS International Conference on Computer Systems and Applications, AICCSA

(Vol. 2014, pp. 773–780). IEEE Computer Society. https://doi. org/10. 1109/AICCSA. 2014. 7073279.

Г. П. Акимова, Е. В. Пашкина, А. В. Соловьев. Методологический подход к оценке качества случайных чисел последовательностей. Труды ИСА РАН 2008. Т. 38.

Р. Р. Вильданов, Р. В. Мещеряков, С. С. Бондарчук. Тесты псевдослучайных последовательностей и реализующее их программное средство. Доклады ТУСУРа, No 1 (25), часть 2, июнь 2012.

Kim, S. H. , Han, D. , & Lee, D. H. (2013). Predictability of Android OpenSSL's pseudo random number generator. In Proceedings of the ACM Conference on Computer and Communications Security (pp. 659–668). https://doi. org/10. 1145/2508859. 2516706

Voris, J. , Saxena, N. , & Halevi, T. (2011). Accelerometers and randomness: Perfect together. In WiSec'11 - Proceedings of the 4th ACM Conference on Wireless Network Security (pp. 115–126). https://doi. org/10. 1145/1998412. 1998433

Zhang, X. , Qi, L. , Tang, Z. , & Zhang, Y. (2014). Portable true random number generator for personal encryption application based on smartphone camera. Electronics Letters, 50(24), 1841–1843. https://doi. org/10. 1049/el. 2014. 2870

Temirov Zavqiddin Xusen o‘g‘li- -“Alfraganus university” “Raqamli texnologiya” kafedrasi kata o‘qituvchisi

zavqiddin-2011@mail. ru

Mannapova Maftuna G‘olib qizi-“Alfraganus university” “Raqamli texnologiya” kafedrasi kata o‘qituvchisi

m. mannapova. 94@gmail. com

HARORATNI HISOBGA OLGAN HOLDA MURAKKAB KONSTRUKTIV SHAKLDAGI YUPQA MAGNITELASTIK PLASTINALARNING NOCHIZIQLI DEFORMATSIYALANISH JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

dotsent, falsafa fanlari doktori Shohruh Safarov
O'zbekiston Respublikasi xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya

Maqolada Gamilton-Ostrogradskiy variatsion tamoyili asosida yupqa magnitelastik plastinalarning nochiziqli geometrik kuchlanganlik deformatsiyalanganlikni ifodalovchi matematik modeli qurildi. Bunda Kirxgof-Lyav gipotezasidan foydalanib uch o'lchovli matematik model ikki o'lchamli ko'rinishga o'tkazildi. Haroratni hisobgan olgan holda Potensial va Kinetik energiyaning variatsion ko'rinishlari hamda tashqi kuchlar bajargan ishning variatsion korinishi topildi. Bular Koshi munosabatlari, Guk qonuni va Lorens kuchi hamda Maksvell elektromagnit tenzor ko'rinishidan foydalanib aniqlandi. Magnitelastik plastinaning deformatsion kuchlanish holatiga elektromagnit maydon hamda haroratning ta'sirlari ko'rildi. Natijada ko'chishga nibatan boshlang'ich va chegaraviy shartlarga ega bo'lgan, xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi ko'rinishidagi matematik model ishlab chiqildi. Masalani yechish uchun algebra mantiqiy R-funksiya, Bubnov-Galerkin, Nyumark Gauss kvadratlar hamda iterasiya sonli usullaridan foydalanib hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. Tadqiqot ustida hisoblash tajribalarini o'kazish uchun amaliy dasturiy majmua yaratildi. Olib borilgan hisoblash tajribalarida magnit elastik plastinaning turli mexanik holatlari, chegaralari qattiq mahkamlangan, bir tomoni sharnir ikkinchi tomoni erkin holatida hisoblash tajribalari o'tkazildi. O'takazilgan hisoblash natijalarining qiyosiy tahlillari maqolada keltirildi.

Kalit so'zlar: Gamilton-Ostrogradskiy tamoyili, Bubnov Galerkin, Koshi munosabatlari, Guk qonuni, Maksvell elektromagnit tenzori, murakkab konfiguratsiyali magnitelastik yupqa plastina R-funksiya.

Kirish

Elektromagnit maydonlarning yupqa elektro‘tkazuvchan jismlarning deformatsiyalanish holatiga ta’sir etish jarayonlarini modellashtirish, murakkab konfiguratsiyali magnitelastik plastina va qobiqlarning asosiy chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi yechimlar tuzilmasini R-funksiya usulida modellashtirish algoritmlari va dasturiy vositalarning yangi avlodini ishlab chiqish alohida kasb etib bormoqda. Jahon miqiyosida nochiziqli qonuniyatlar asosida murakkab konfiguratsiyali yupqa plastina va qobiq shaklidagi konstruktiv elementlarning keng ravishda ishlab chiqarilishi va qo‘llanilishi dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy inshootlarni qurishni loyihalash va hisoblashda har bir mutaxassis turli konfiguratsiyali plastinalarni modellashtirish va ularning tarkibiy elementlarini hisoblash muammosini yaxshi biladi. Tabiiyki, bunday elementlarni loyihalash jarayonida hisoblash aniqligi tabiiy kuchlanganlik-deformatsiyalanish holatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarning qanchalik to‘liq hisobga olinishiga, ya’ni tegishli matematik modellarning qanchalik yetarli darajada qurilishiga muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, muayyan tarkibiy element konstruksiyasini olib boradigan shart-sharoitlarni to‘liq ko‘rib chiqish muammoning matematik modelini ancha murakkablashtiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, Kirxgof-Lyav gipotezalari asosida klassik (texnik) nazariyadan foydalanilganda ham eng oddiy holatda ham plastinaning muvozanat tenglamalarini tasvirlovchi matematik modellar hususiy differensial tenglamalar sistemalarini yechishga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki bunday tenglamalar sistemasini yechish, matematik qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Shuning uchun plastina va qobiqlarni hisoblash uchun matematik taqribiy sonli usullar orqali ishlab chiqish tabiiydir. Samarali bo‘lgan mavjud taqribiy usullar juda ko‘p, shuni ta’kidlash lozimki, keng qo‘llaniladigan taqribiy sonli usullar qatoriga variatsion usullar, masalan, Ritsa kichkina kvadratlar usuli, Trefftsa usuli va boshqalar kiradi. Shuningdek, proeksiya usullari orasida eng asosiysi Bubnov-Galerkin usuli hisoblanadi. Variatsion va proeksion usullarni qo‘llashdagi murakkabligining asosiy sababi, bu chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan koordinata funksiyalarini qurish imkoniyati haqida ko‘plab tadqiqotchilarning xabardor emasligi, tadqiqotlarning har qanday murakkab shakli yoki chegaraviy shartlarning murakkab ko‘rinishidir. Ushbu muammo Ukraina Milliy Fanlar Akademiyasining akademigi V. L. Rvachev tomonidan yaratilgan R-funksiya nazariyasi yordamida, ya’ni mantiqiy algebraik funksiyalar bilan muvaffaqiyatli tarzda hal qilingan.

R-funksiya (halqaro qisqartmasi RFM) usulini muqobil ravishda chekli element usullari qatoriga kiritish mumkin. Chekli elementlar usuli kabi R-funksiya usuli ham masalaning variatsion formulasiga asoslanadi. Biroq chekli element usulidan farqli o‘laroq, bu usul yordamida barcha zaruriy chegaraviy shartlarni aniq qanoatlantiruvchi bazis ko‘phadlari, berilgan sohaning har qanday turi va har qanday chegaraviy shartlari uchun analitik shaklda tuziladi. RFM usuli faqatgina matematik va fizikaviy chiziqli chegaraviy masalalarni emas, balki nochiziqli masalalarni ham yechish uchun ishlatilish mumkin bo‘lgan universal, yuqori samarali usullar qatoriga kiritilgan.

Matematik model

Magnitelastik plastinanig gometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonining matematik modelini ishlab chiqish uchun Gamilton-Ostrogradskiy variatsion tamoyili, Kirxgof-Lyav gipotezasi, Koshi munosabatlari, Guk qonuni Lorens kuchi hamda Maksvell elektromagnit tenzor ko‘rinishidan foydalanildi (maqola).

$$\begin{cases} -\rho h\dfrac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}+N_x+R_x+q_x+T_{zx}=0, \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 v}{\partial t^2}+\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}+N_y+R_y+q_y+T_{zy}=0, \\ -\rho h\dfrac{\partial^2 w}{\partial t^2}+\dfrac{\partial^2 M_{xx}}{\partial x^2}+2\dfrac{\partial^2 M_{xy}}{\partial x\partial y}+\dfrac{\partial^2 M_{yy}}{\partial y^2}+N_{xx}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x^2}+N_{yy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial y^2}+N_{xy}\dfrac{\partial^2 w}{\partial x\partial y}+ \\ +\left(\dfrac{\partial N_{xx}}{\partial x}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial y}\right)\dfrac{\partial w}{\partial x}+\left(\dfrac{\partial N_{yy}}{\partial y}+\dfrac{\partial N_{xy}}{\partial x}\right)\dfrac{\partial w}{\partial y}+N_z+R_z+q_z+T_{zz}=0. \end{cases}$$

Boshlag‘ich shartlar va chegaraviy shartlar:

$$\rho h \frac{\partial u}{\partial t}\delta u\Big|_t = 0,\ \rho h \frac{\partial v}{\partial t}\delta v\Big|_t = 0,\ \rho h \frac{\partial w}{\partial t}\delta w\Big|_t = 0,$$

$$\left(N_{xx} + N_{Px} + N_{Tx}\right)\delta u\Big|_x = 0,\ \left(N_{xy} + N_{Py} + N_{Txy}\right)\delta v\Big|_x = 0,$$

$$M_{xx}\delta \frac{\partial w}{\partial x}\Big|_x = 0,\ M_{xy}\delta \frac{\partial w}{\partial y}\Big|_x = 0, M_{yy}\delta \frac{\partial w}{\partial y}\Big|_y = 0,\ M_{xy}\delta \frac{\partial w}{\partial x}\Big|_y = 0,$$

$$\left(N_{yy} + N_{Fy} + N_{Tyy}\right)\delta v\Big|_y = 0,\ \left(N_{xy} + N_{Fx} + N_{Tyx}\right)\delta u\Big|_y = 0,$$

$$\left[N_{xx}\frac{\partial w}{\partial x} + N_{xy}\frac{\partial w}{\partial y} - \frac{\partial M_{xx}}{\partial x} - \frac{\partial M_{xy}}{\partial y} + N_{Pz} + N_{Txz}\right]\delta w\Big|_x = 0,$$

$$\left[N_{yy}\frac{\partial w}{\partial y} + N_{xy}\frac{\partial w}{\partial x} - \frac{\partial M_{yy}}{\partial y} - \frac{\partial M_{xy}}{\partial x} + N_{Fz} + N_{Tyz}\right]\delta w\Big|_y = 0.$$

бу ерда N_{xx}, N_{yy}, N_{xy} - пластинанинг қалинлиги бўйича нормал ва урунма кучлари. M_{xx}, M_{yy}, M_{xy} - пластинанинг эгилиш ва буралиш моментлари, $\rho -$ жисм зичлиги, h- пластина қалинлиги, $R_x, R_y, R_z, N_x, N_y, N_z -$ ҳосил бўлувчи ҳажм кучлари, $q_x, q_y, q_z, T_{zx}, T_{zy}, T_{zz} -$ сирт кучлари, $T_{xx}, T_{xy}, T_{xz}, T_{yy}, T_{yz}, T_{zx}, -$ ҳосил бўлувчи контур кучлари.

Hisoblash tajribalari

Magnitelastik plastinanig gometrik nochiziqli deformatsiyalanish jarayonining matematik modelini echish uchun R-funksiyadan foydalaniladi. Bunda R-funksiya yordamida nosimmetrik bo‘lgan murrakab soha (1-rasm) uchun chegaraviy tenglamasi quriladi. Mazkur nosimmetrik murakkab shakldagi magnitelastik plastinaning tashqi kuchlar ta’siri ostida koordinata o‘qi bo‘ylab egilishi dasturiy vosita yordamida hisoblab chiqildi va sonli natijalar hamda grafik tasviri 2-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi tasviri

$$\omega = (f_1 \wedge f_2) \wedge f_3 \wedge f_4$$

bu yerda

$$f_1 = \frac{(a^2 - x^2)}{2a} \geq 0,\ f_2 = \frac{(b^2 - y^2)}{2b} \geq 0,\ f_3 = \frac{((x-a_1)^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,\ f_4 = \frac{((x+a_2)^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,$$

Hisoblash tajribasida geometrik va mexanik parametrlari quyidagicha keltirilgan:

$$a = 1,\ b = 1, a_1 = 0.5, a_6 = 0.55, h = 0.01,\ r_1 = 0.1, r_2 = 0.1\ \nu = 0.3,\ q = 1,$$
$$H_x = H_y = H_z = 10 \kappa Э, E = 10^{11}\ H / м^2.$$

1-jadval

x	*y*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'sir qilmagandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'sir qilgandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*
-1	0	0	0
-0. 95	0	0, 00009	0, 00011
-0. 9	0	0, 00030	0, 00038
-0. 85	0	0, 00027	0, 00037
-0. 8	0	0, 00012	0, 00019
-0. 75	0	0, 00003	0, 00005
-0. 7	0	0	0
-0. 3	0	0	0
-0. 25	0	0, 00002	0, 00002
-0. 2	0	0, 00007	0, 00009
-0. 15	0	0, 00015	0, 00019
-0. 1	0	0, 00025	0, 00030
-0. 5	0	0, 00033	0, 00040
0	0	0, 00039	0, 00047
0. 5	0	0, 00041	0, 00050
0. 1	0	0, 00038	0, 00047
0. 15	0	0, 00033	0, 00040

0. 2	0	0, 00025	0, 00030
0. 25	0	0, 00016	0, 00020
0. 3	0	0, 00009	0, 00011
0. 35	0	0, 00003	0, 00004
0. 4	0	0, 00001	0, 00001
0. 45	0	0	0
0. 65	0	0	0
0. 7	0	0, 00001	0, 00001
0. 75	0	0, 00005	0, 00007
0. 8	0	0, 00011	0, 00017
0. 85	0	0, 00018	0, 00029
0. 9	0	0, 00020	0, 00032
0. 95	0	0, 00010	0, 00012
1	0	0	0



2-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi koordinata o‘qidagi grafik tasviri

Xulosa qiliy aytganda elektroʻtkazuvchan yupqa plastinaga mexanik kuchlar ta’siri hamda mexanik kuchlarga magnit maydon kuchlar ta’siri ham qoʻshib hisoblash ishlari olib borildi (1-jadval, 2-rasm), va hisoblash tajribalar xulosasi shuni koʻrsatadiki ularning oʻzaro farqi 18. 4% ni tashkil qildi.

Mazkur 1-rasmdagi murakkab shakldagi magnitelastik plastinaning (*Oy*) oʻqi boʻylab egilishini conli natijalari (2-jadval) va grafik tasviri (3-rasmda) keltirilgan.

2-jadval

y	*x*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta’sir qilmagandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta’sir qilgandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*
-1	0	0	0
-0. 9	0	0. 0002	0. 0002
-0. 8	0	0. 0010	0. 0012
-0. 7	0	0. 0019	0. 0023
-0. 6	0	0. 0022	0. 0027
-0. 5	0	0. 0018	0. 0022
-0. 4	0	0. 0013	0. 0016
-0. 3	0	0. 0008	0. 0010
-0. 2	0	0. 0005	0. 0007
-0. 1	0	0. 0004	0. 0005
0	0	0. 0003	0. 0004
0. 1	0	0. 0004	0. 0005
0. 2	0	0. 0005	0. 0007

0. 3	0	0. 0008	0. 0010
0. 4	0	0. 0013	0. 0016
0. 5	0	0. 0018	0. 0022
0. 6	0	0. 0022	0. 0027
0. 7	0	0. 0019	0. 0023
0. 8	0	0. 0010	0. 0012
0. 9	0	0. 0002	0. 0002
1	0	0	0



3-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi koordinata o‘qidagi grafik tasviri

Tajriba natijalariga ko‘ra elektro‘tkazuvchan yupqa plastinaga mexanik kuchlar ta’siri hamda mexanik kuchlarga magnit maydon kuchlar ta’siri ham qo‘shib hisoblash ishlari olib borildi (2-jadval, 3-rasm) va hisoblash tajribalar xulosasi shuni ko‘rsatadiki ularning o‘zaro farqi 18. 7% ni tashkil qildi.

Mazkur nosimetrik murakkab shakldagi magnitelastik plastinaning chegaraviy shartlari aralash (4-rasm) ya’ni qirralari sharnir markaziy aylana chegaralari qattiq mahkamlangan shartlar bilan kelganda, tashqi kuchlar ta’siri ostida koordinata o‘qi bo‘ylab egilishi dasturiy vosita

yordamida hisoblab chiqildi va sonli natijalar (3-jadval) hamda grafik tasviri (5-rasmda) keltirilgan.



4-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi tasviri

3-jadval

x	*y*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'sir qilmagandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta'sir qilgandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*
-1	0	0	0
-0. 95	0	0. 00011	0. 00013
-0. 9	0	0. 00017	0. 00021
-0. 85	0	0. 0014	0. 00017
-0. 8	0	0. 00007	0. 00008

-0. 75	0	0. 00002	0. 00002
-0. 7	0	0	0
-0. 3	0	0	0
-0. 25	0	0. 000009	0. 000011
-0. 2	0	0. 000036	0. 000043
-0. 15	0	0. 000076	0. 000091
-0. 1	0	0. 000121	0. 000145
-0. 5	0	0. 000162	0. 000194
0	0	0. 000190	0. 000227
0. 5	0	0. 000199	0. 000238
0. 1	0	0. 000188	0. 000225
0. 15	0	0. 000160	0. 000192
0. 2	0	0. 000121	0. 000145
0. 25	0	0. 000080	0. 000095
0. 3	0	0. 000043	0. 000052
0. 35	0	0. 000017	0. 000021
0. 4	0	0. 000004	0. 000004
0. 45	0	0	0
0. 65	0	0	0
0. 7	0	0. 00001	0. 00001
0. 75	0	0. 00003	0. 00003

0. 8	0	0. 00007	0. 00008
0. 85	0	0. 00012	0. 00014
0. 9	0	0. 00014	0. 00016
0. 95	0	0. 00009	0. 00010
1	0	0	0



5-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi koordinata *X* o‘qi bo‘ylab olingan grafik tasviri

4-jadval

y	*x*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta’sir qilmagandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*	*Elektromagnit maydon kuchlar ta’sir qilgandagi w(x, y, t) funksiya qiymatlari*
-1	0	0	0
-0. 9	0	0. 0020	0. 0026
-0. 8	0	0. 0042	0. 0054
-0. 7	0	0. 0044	0. 0055
-0. 6	0	0. 0033	0. 0042

-0. 5	0	0. 0021	0. 0026
-0. 4	0	0. 0012	0. 0015
-0. 3	0	0. 0007	0. 0008
-0. 2	0	0. 0004	0. 0005
-0. 1	0	0. 0003	0. 0003
0	0	0. 0002	0. 0003
0. 1	0	0. 0003	0. 0003
0. 2	0	0. 0004	0. 0005
0. 3	0	0. 0007	0. 0008
0. 4	0	0. 0012	0. 0015
0. 5	0	0. 0021	0. 0026
0. 6	0	0. 0033	0. 0042
0. 7	0	0. 0044	0. 0055
0. 8	0	0. 0042	0. 0054
0. 9	0	0. 0020	0. 0026
1	0	0	0



6-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi koordinata *Y* o‘qi bo‘ylab olingan grafik tasviri

Tajriba natijalariga ko‘ra elektro‘tkazuvchan yupqa plastinaga mexanik kuchlar ta’siri hamda mexanik kuchlarga magnit maydon kuchlar ta’siri ham qo‘shib hisoblash ishlari olib borildi (4-jadval, 6-rasm) va hisoblash tajribalar xulosasi shuni ko‘rsatadiki ularning o‘zaro farqi 19. 8% ni tashkil qildi.

Murakkab konstruktiv shakldagi magnitelastik plastinaning chegaraviy chegaralari qattiq mahkamlangan (7-rasm) shartlar bilan kelganda



7-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatini tasvirlaydigan grafik

$$f_1 = \frac{(R^2 - x^2 - y^2)}{2r} \geq 0, \quad f_2 = \frac{((x-a)^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,$$

$$f_3 = \frac{((x+a)^2 + y^2 - r^2)}{2r} \geq 0,$$

$$f_4 = \frac{(x^2 + (y+b)^2 - r^2)}{2r} \geq 0, \; f_5 = \frac{(x^2 + (y-b)^2 - r^2)}{2r} \geq 0,$$

$$\omega = f_1 \wedge (f_2 \wedge f_3) \wedge (f_4 \wedge f_5).$$



8-rasm. Murakkab konfiguratsiyali magnitelastik nosimmetrik yupqa plastina chegaralari qattiq mahkamlangan holatidagi koordinata o‘qidagi grafik tasviri

Tajriba natijalariga ko‘ra elektro‘tkazuvchan yupqa plastinaga mexanik kuchlar ta’siri hamda mexanik kuchlarga magnit maydon kuchlar ta’siri ham qo‘shib hisoblash ishlari olib borildi (8-rasm), va hisoblash tajribalar xulosasi shuni ko‘rsatadiki ularning o‘zaro farqi 19. 3% ni tashkil qildi.

Xulosa

Hisoblash natijalarini tahlil qilish natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, elektromagnit maydonlarning yupqa elektro‘tkazuvchan plastinalarning deformatsiya holatiga ta’sirini ishonchli tarzda tasdiqlash imkonini beradi. Jumladan, elektromagnit kuchlarning ta’siri plastina markazida ko‘proq ahamiyatga ega. Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, plastina butun kontur bo‘ylab qattiq mahkamlanganda sharniri

mahkamlanganda va turli aralash shartlarda plastinkaning deformatsiya holatiga magnit maydonining ta'siri mexanik kuchlarga nisbatan juda katta emas. Hisoblash natijalari plastinaning tegishli nuqtalardagi egilishlari sezilarli darajada farq qilmaydi va bu magnit maydonning ta'siri plastinkaga katta ta'sir qilmasligini anglatadi, ammo kichik bolsada ta'siri borligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kabulov V. K. Algorithmization in the theory of elasticity and deformation theory of plasticity Tashkent Science 1966. 392 p.

Ambartsumyan S. A. , Belubekyan M. V. Some problems of electromagneto elasticity of plates. – Erevan: 1991. –144 p.

Kurpa L. V. Metodom R-funksi dlya resheniya lineynыx zadach izgiba i kolebaniy pologix obolochek. Xarkov NTU XPI 2009. 391s.

Leybenzon L. S. Kurs teorii uprugosti. Moskva 1977. 272s. (17-str).

Nuraliev F. M. , Safarov Sh. Sh. , Artikbaev M. A. Deformatsiyalangan mangnitelastik plastinaning matematik modeli va hisoblash algoritmi. Problemы informatiki i energetiki Tashkent 5/2020. C 38-49.

F. Nuraliev and Sh. Safarov, "Computational algorithm for calculating magnetoelastic flexible plates of complex configuration, " 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-4. https://ieeexplore. ieee. org/document/9011903

F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, "A computational algorithm for calculating the effect of the electromagnetic fields to thin complex configured plates, " 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2020, pp. 1-4, https://ieeexplore. ieee. org/document/9351447

F. Nuraliev, S. Safarov and M. Artikbayev, "Solving the problem of geometrical nonlinear deformation of electro-magnetic thin plate with complex configuration and analysis of results, " 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 01-05, https://ieeexplore. ieee. org/document/9670282

Nuraliev F. M. , Aytmuratov B. Sh. , Safarov Sh. Sh. , Artikbayev M. A. Mathematical modeling of geometric nonlinear processes of electromagnetic elastic thin plates of complex configuration // Scientific journal «Problems of Computational and Applied Mathematics» № 1(38),

2022. https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=jalkwscAAAAJ&citation_for_view=jalkwscAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

F. Nuraliev, S. Safarov, M. Artikbayev and A. O. Sh, "Calculation Results of the Task of Geometric Nonlinear Deformation of Electro-magneto-elastic Thin Plates in a Complex Configuration, " 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-4, . https://ieeexplore. ieee. org/document/10146920

MATHEMATICAL MODELING OF NONLINEAR DEFORMATION PROCESSES OF THIN MAGNETELASTIC PLATES OF COMPLEX CONSTRUCTIVE FORM TAKING THE TEMPERATURE INTO ACCOUNT

Associate Professorof, PhDShohruh Safarov

Annotation

In the article, based on the Hamilton-Ostrogradsky variational principle, a mathematical model representing non-linear geometric stress and deformation of thin magnetoelastic plates was built. In this case, the three-dimensional mathematical model was transferred to a two-dimensional view using the Kirchhoff-Liav hypothesis. Variations of Potential and Kinetic energy and variation of the work done by external forces were found taking into account the temperature. These are determined using Cauchy's relation, Hooke's law and Lawrence force, and Maxwell's electromagnetic tensor representation. Effects of electromagnetic field and temperature on the state of deformation stress of the magnetoelastic plate were observed. As a result, a mathematical model in the form of a system of partial differential equations with initial and boundary conditions for displacement was developed. To solve the problem, a calculation algorithm was developed using algebraic logic R-function, Bubnov-Galerkin, Newmark Gaussian squares and numerical iteration methods. A practical software package was created for conducting computational experiments on research. In the conducted computational experiments, various mechanical states of the magneto-elastic plate, the limits of which are fixed, and one side hinged and the other side free, were performed. The comparative analysis of the results of the calculation is given in the article.

Neyron tarmoqlar bir-biri bilan birgalikda ishlashi va natijani umumiy "Xulosa" koʻrinishida berishi mumkin. Masalan: tasvirni bir qismini bir algoritm va boshqa qismini yana bir algoritm bajaradi, natija umumlashtirilib yagona xulosaga erishiladi. Bir necha neyron tarmoqlarning birgalikda aloqasida kod ogʻirligi asosiy rol oʻynaydi. Shuning uchun ulardan qoʻllash uchun eng qulayi xamma vazifalarni parallel bajara oladigan tarmoq hisoblanadi. Bu neyron tarmoqlarning boshqa usullardan afzalligi uning moslashuvchanligi va universalligidir. Bundan tashqari kalit belgilari bilan oʻzaro aloqada ekanligi[3].

Koʻp qatlamli neyron tarmoqlari. Koʻp qatlamli neyron tarmoqlar qatlamlar bir-biri bilan ketma-ket bogʻlanadi. Ya'ni, birinchi qatlam chiqishida keyingi qatlam va shu kabi davom etadi. Birin ketin qatlamlarni amalga oshirishda paydo boʻlgan xatolarni umumiy yigʻindisi koʻrinishda olsak, birini xatosini ikkinchisi toʻldirib ketadi va umumiy xatolar soni nisbatan kamayadi.

Tasvirlar bilan ishlashda asosiy kamchilik sifatida yorugʻlikning va oldingi vaziyatga nisbatan ayrim qismlarning (kalit xarakteristikalar) oʻzgarishini keltirishimiz mumkin. Bir qatlamliga nisbatan koʻp qatlamli neyron tarmoqlar yuqoridagi kamchiliklarni xam bartaraf etgan. Yuzning asosiy belgilari – burun, lab va koʻz orasidagi masofa qanday xolatda boʻlishidan qat'iy nazar saqlanadi. Ulardan biri oʻzgarganda xam natija oʻzgarmasligi mumkin.

Solishtirilishi kerak boʻlgan tasvir ombordagi tasvir bilan ma'lum burchakka yoki oʻlchami oʻzgargan boʻlishi mumkin. Bu kamchilikni ketma-ket qatlamlardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Tasvirdagi ajratilgan belgilarni xammasini bir xil oʻlchamga kichiklashtirib qatlamlar boʻyicha solishtirib chiqadi. Bu usul 98% gacha kamchiliklarni bartaraf etishi mumkin.

Koʻpqatlamli neyron tarmoqlari yuqorida belgilangan sinf asosida belgilarni aniqlashi va qoʻllanilishi mumkin. Shuningdek, xar bir berilgan nusxa oʻzining sinfiga tegishli belgilarni aniqlaydiva natijada xamma sinflardan olingan natijalar birlashtiriladi. Kiruvchi tasvirni aniq belgilab olish uchun neyron tarmoqli detektor ishlatilmoqda. U 20x20 piksel

o‘lchamli kiruvchi rasmni beradi va solishtirilishi kerak bo‘lgan rasm xam xuddi shu o‘lchamda bo‘lib, mos sinfdagi belgilari taqqoslanadi[13, 14].

Yuqori tartibli neyron tarmoqlari. Bunda bir qatlam va bir necha chiqish bo‘lib, xar bir chiquvchi ko‘rsatkich tartibli vektorlar ko‘rinishida bo‘ladi. Bunday tarmoqlarda oddiy bo‘linuvchilar murakkab formallashtirilgan bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan rasmning katta yoki kichik burchaklarga o‘zgarib kiritilishi xam solishtirishga ta’sir etadi, lekin yuqori tartibli neyron tarmoqlari bu masalani xal qilgan. Bu tarmoqning asosiy avzalligi juda tez natijani qayd etadi.

Xolfildning neyron tarmog‘i. Xolfildning neyron tarmog‘i bir qatlamli bo‘lib to‘liq aloqadorlik ya’ni, kiruvchi rasm bilan chiquvchi rasmning to‘liq aloqasini ta’minlb beradi. Yuqori tartibli neyron tarmoqlarga nisbatan afzaldir. Chunki xamma ko‘rsatkichlar chiquvchi natija bilan bog‘liq. Shuningdek, Xolfild tarmoqlar masalalarni qulay xal qilishda qo‘llaniladi. Bu tarmoqlar assinxron va sinxron ko‘rinishda amalga oshiriladi. Sinxron ko‘rinishda bir vaqtda xamma neyronlarni hisoblaydi, asinxronda esa, tanlangan neyronlarni hisoblaydi.

Elastik grafiklarni taqqoslash usuli. Bu usul (Elastic Bunch Graph Matching) da –yuzning kalit nuqtalari: bosh, burun, lab va ko‘z chegarasi va oxirgi nuqtalari grafik ko‘rinishda ifodalanadi. Bunday xar bir nuqta Gaborov funksiyasiga ko‘ra 5 ta xar xil chastota va 8 ta aniqlik koeffissentini hisoblaydi. Bunday koeffitsentni “J”-jet deb nomlaymiz.

Jet tasvirdagi nuqtalarni ikki maqsad asosida najitalar olinadi:

1. tasvirdan kerakli nuqtalarni aniqlash;
2. hamma tasvirlardan qidirilayotgan tasvir nuqtalarini aniqlash.

Bu usul tasvir holati 22°gacha o‘zgarganda o‘rinli bo‘ladi. Agar undan ortsa uni aniqlash darajasi sekin kamaya boradi. Bu kabi holatlar bo‘lganda ElGraph ishlatilmaydi.



4-rasm. Yuzning kalit nuqtalari

ElGrid, Grudin grafiklarining strukturalari va yuqorida aniqlangan kalit nuqtalardan foydalanilmaydi. Oldin tasvvirdagi panjaralar bir biri bilan taqqoslanadi. Ya'ni yuzdagi kalit nuqtalar aniqlanib, u asosida o'xshash yuzlar yig'iladi natijada hosil bo'lgan yuzlarda panjaralar o'tkazilib, ular asosida taqqoslanadi. Boshqa bir usulda esa, boshida panjarani nusxasi olinadi, keyin aniqlash jarayonida yaroqlilari ajratiladi (5-rasm).



5-rasm. Elastik panjaralarni ifodalash

Yuzning geometrik xarakteristikalari asosidagi usul. Bu usul xammasidan birinchi bo'lib qo'llanilgan. Bu usul birinchi kriminal sohada qo'llanilgan va u yerda qayta ishlangan. Keyin uning kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan. Birinchi yuzning kalit nuqtalari topilgan va belgilar to'plami tuzilgan. Xar bir belgi kalit nuqtalar orasidagi masofani ifodalagan (1. 6-rasm). Elastik graflar bilan taqqoslaganda yaxshiroq hisoblanadi.

Kalit nuqtalar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– ko‘zning burchagi;

– lab;

– burun uchi;

– ko‘zning markazi.

Kalit maydonlari to‘g‘ri burchakli maydon ko‘rinishida ham olish mumkin.

Identifikatsiyalash jarayoni ma’lumotlar ombordagi belgilar belgilari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Kalit nuqtalarini aniq joylashgan o‘rnini belgilash juda qiyin lekin, uning ushbu nuqtalarini aniq belgilash yuzni aniqlashda samaradorlikga olib keladi.

Shuning uchun yuz tuzilishini aniqlash ta’sirlarsiz va kalit nuqtalarni aniqlash jarayoniga xalaqitlarsiz bo‘lishi lozim. Shuningdek, xalaqitlar: ko‘zoynak taqish, soqqol, bezak berish, sochni xolati va boshqa hollar. Yorug‘likni o‘zgarishini esa, xammasida e’tiborga olish lozim.



6-rasm. Xar bir belgi kalit nuqtalar orasidagi masofani ifodalash

Mazkur usul odatiy optik usuldan insonni yuzidagi o‘zgarishlarga bog‘liq emasligi bilan farqlanadi. Masalan, soqolni paydo bo‘lishi yoki ko‘zoynak taqishi, chunki yuzning issiqlik surati juda kamdan-kam o‘zgaradi. Ushbu texnologiya inson yuzini termogrammasi (yuz qon tomirlaridan issiqlikni nurlanishi natijasida hosil bo‘lgan termal tasvir)

har bir inson uchun o‘ziga xos bo‘lib, kirishni nazorat qilish tizimlari uchun foydalanish mumkinligiga asoslanadi.

Ko‘z tasviriga asoslangan identifikatsiyalash. Ba’zi bir identifikatsiyalash tizimlari inson ko‘zidan kalit sifatida foydalanadi. Bunday tizimlarni turli xil identifikatorlardan foydalanadigan ikki turi mavjud. Birinchi holda, identifikatsiya kodining tashuvchisi sifatida ko‘zning to‘r pardasidagi kapilyarlar, ya’ni qon tomirlari tasviridan, ikkinchi holda esa, ko‘z rangdor pardasi naqshidan foydalaniladi.

Shaxsni identifikatsiyalashning dastlabki va ishonchli usullaridanbiri bu ko‘z osti qon tomirlari tasviridan foydalanishdir. Ko‘zni qon bilan ta’minlaydigan vena va arteriya qon tomirlari ko‘z tubini tashqi yorug‘lik manbai bilan yoritilganda aniq ko‘rinadi. To‘r parda ko‘zni chuquroq qismida joylashgan, ammo bu zamonaviy texnologiyalarga to‘siq bo‘la olmaydi. Bundan tashqari, mazkur belgi tananing barqaror fiziologik belgilaridan biri hisoblanadi. To‘r pardani skanerlashda ko‘zning orqa qismidagi qon tomirlariga qorachiq orqali yo‘naltirilgan past intensivlikdagi infraqizil nurlar qo‘llaniladi. Ayrim hollarda tasvirlarni hosil qilishda lazer nurlaridan ham foydalaniladi. Bunda ko‘zni qon bilan ta’minlovchi vena va arteriya tomirlari, ko‘z tubi tashqi yorug‘lik manbai bilan yoritilganda ular aniq ko‘rinadi. Ko‘z to‘r pardasi tasvirini o‘ziga xosligi shaxs genotipi bilan bog‘liq va ko‘z to‘r pardasidagi sezilarli farqlar, hatto egizaklarda ham kuzatiladi. Bir qator kasalliklarda ko‘z to‘r pardasida xarakterli pigmentli dog‘lar va rang o‘zgarishlari paydo bo‘lishi aniqlangan.



7-rasm ko‘z tasviriga asoslangan identifikatsiyalash sturukturasi

Shaxsni identifikatsiyalash natijalariga uning sog‘liq holati ta’sirini kamaytirish uchun texnik tizimlarda faqat yuqori aniqlikdagi oq- qora tasvirlardan foydalaniladi. Ko‘z to‘r pardasi tasvirini o‘ziga xosligi bir qator kompaniyalarga shaxsni biometrik identifikatsiyalash uchun juda ishonchli tizimlarni butun bir sinfini ishlab chiqarishga imkon berdi. Ushbu sinf tizimlari videokameradan 20-30 santimetr masofada ko‘z video tasvirini oladi va ko‘z qorachig‘i hamda ko‘z to‘r pardasini avtomatik ajratibolishni amalga oshiradi. Ko‘z to‘r pardasini skanerlari maxfiy kirishni boshqarish tizimlarida ham keng foydalaniladi, chunki ular ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun eng past rad etish ko‘rsatkichlariga egadir. Bundan tashqari, bunday tizimlar soxta ma’lumotlarni kiritilishidan kuchli himoyalangan bo‘ladi. Hozirgi kunda ushbu usulni keng qo‘llanilishiga quyidagi bir qator omillar to‘sqinlik qilmoqda: skanerlovchi qurilmaning o‘ta qimmatligi, yuqori bo‘lmagan o‘tkazib yuborish qobiliyati va turli psixologik omillar.

Yuqori bo‘lmagan o‘tkazib yuborish qobiliyati foydalanuvchining okulyar orqali bir necha soniya davomida yashil nuqtaga qarab turishi zarurligi bilan bog‘liq. Psixologik nuqtai nazardan, ko‘pchilik foydalanuvchilar ko‘zlariga lazer nurlari yoritilib turilganda okulyarga qarashni xoxlashmaydi, shifokorlar esa ushbu protsedura zararsiz ekani to‘g‘risida yetarli ma’lumotlarni bergan bo‘lsalarda. Shunga qaramay, hozirgi kunda ushbu tizimlar takomillashtirilmoqda va ularni qo‘llanilishi tobora kengaymoqda. Masalan, AQShda ko‘z to‘r pardasini skanerlash asosida yo‘lovchilarni tekshirish bilan bog‘liq yangi tizimi ishlab chiqilgan. To‘r pardani tadqiq qilish besh yuzdan ortiq belgilarni tahlil qilishga asoslannadi va skanerlangdan so‘ng kod yo‘lovchilar haqidagi boshqa ma’lumotlar bilan birga ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Bu esa o‘z navbatida keyinchalik shaxsni aniqlashda kam vaqt sarflanishiga olib keladi.

Tovushga asoslangan identifikatsiyalash. Zamonaviy dunyoda nutq texnologiyalariga, xususan, insonni tovushi bilan identifikatsiyalashga bo‘lgan qiziqish tobora kengaymoqda. Bu, bir tomondan, kompyuterga signal kiritishga imkon beruvchi shaxsiy kompyuterlar va texnik vositalar asosidaishlaydigan yuqori samarali hisoblash tizimlarining paydo bo‘lishi bilan, ikkinchi tomondan, inson hayotining turli sohalarida autentifikatsiya tizimlariga bo‘lgan talablarini yuqoriligi bilan izohlanadi.



8-rasm tovushga asoslangan identifikatsiyalash sturukturasi

Ushbu usulning jozibadorligi undan foydalanishni qulayligidir. Tovush orqali identifikatsiyalash usuli boshqa biometrik usullarga nisbatanikkita ijobiy farqga ega. Birinchidan, ushbu usul telekommunikatsiya ilovalari uchun mukammal bo‘lsa, ikkinchidan, zamonaviy kompyuterlarni aksariyati allaqachon ushbu usul bilan ishlovchi kerakli qo‘shimcha qurilmalarga ega. Ushbu biometrik yondashuvning asosiy muammosi bu identifikatsiyalash past aniqligidir. Biroq, bu muhim muammo emas, sababi tovushli identifikator qurilmalari inson nutqi belgilarini ajratib turadi. Inson ovozi fiziologik va yurish-turish kabi omillariningkombinatsiyasidan hosil bo‘ladi. Tovushni identifikatsiyalash qulay, ammo ayni paytda boshqa biometrik usullar kabi ishonchli emas. Masalan, kasallangan inson ya’ni, shamollash yoki tomoq kasali bilan og‘rigan inson ushbu identifikatsilash tizimlaridan foydalanishda muammolarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, tovushni magnitafon orqali ovozli yozuvni ijroetish imkoniyati mavjud.

Tovushni tanib olish texnologiyasi, hech bo‘lmaganda hozirgi paytda ko‘plab tarmoq ilovalari uchun maqbul amaliy yechimdir. Tovushni aniqlash tizimlari raqamlashtirilgan nutq belgilarini, shu jumladan, uni ohangini, balandligini va ritmini tahlil qilishga asoslangan. Mavjud texnik muammolarga, xususan, shovqin mavjudligida tanib olish ishonchliligini pasayishiga qaramay, ushbu usul tejamkor yechimni taklif qiladi, chunkimikrofonlar va ovoz kartalari kompyuter tarmoqlarida uzoq vaqtdan buyon mavjud.

Klaviaturada matn terishga asoslangan identifikatsiyalash. Ko‘pincha klaviaturaga ma’lumotni tezkor kiritish ikki qo‘lni barchabarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi va shu bilan

birga har bir shaxs o‘ziga xos klaviatura yozuviga ham ega bo‘ladi. An’anaga ko‘ra axborottizimlariga kirish maxfiy simvollar bilan amalga oshiriladi, agar maxfiysimvollar soni ko‘paytirilsa, ularni kiritishda foydalanuvchini o‘ziga xos klaviatura yozuvlarini kuzatish mumkin. Ushbu usulda shaxsni identifikatsiyalashni quyidagicha amalga oshiriladi: ekranda bir necha soniya davomida vertikal yoki gorizontal chiziqlar paydo bo‘ladi. Bunda ularnikattaligi va soni tasodifiydir. Foydalanuvchi o‘z ixtiyoriga muvofiq tegishli raqamlarni teradi. Shu tariqa klaviatura qo‘lyozmasi belgilari, ko‘rsatilgan uzunlik va satrlar soni haqiqatga qanchalik yaqinligi, bitta satruzunligi qo‘shni satr bilan taqqoslagandagi hisoblash aniqligi kabilaraniqlanadi.

Xulosa

Dinamikidentifikatsiyalash usullari har bir shaxsga xos bo‘lgan yurish-turish xususiyatlarini tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, ular aniqlik va samaradorlik bo‘yicha statik identifikatsiyalash usullaridan kamroq natijalarni ta’minlaydi. Ko‘p hollarda ulardan yordamchi usul sifatida foydalaniladi. 9-rasmda statik va dinamik usullardan foydalanish orqaliolingan natijalar foizlari keltirilgan.



9-rasm. Statik va dinamik usullarning foiz nisbatida qo‘llanilish.

Yuqorida keltirilgan taxlili malumotlardan shuni tabkitlag lozimku barmoqg‘i iziga asoslangan biometrik identifikatsiyalash usullaridan keng

identifikatsiya usullari maqul echim emas shuning uchun yuz tasvirini

Adabiyotlar ro‘yxati

Marcel S. , Nixon M. S. , Fierrez J. , Evans N. Handbook of Biometric AntiSpoofing. – Springer, 2nd edition, Nature Switzerland AG 2019 – r. 522.

Sarbukov A. Ye. , Grusho A. A. Autentifikatsiya v kompyuternых sistemax // Sistemы bezopasnosti. – 2003. – № 5(53). – S. 118–122.

Gorelik A. L. , Skripkin V. A. Metodы raspoznavaniya. – M. : Vыsshaya shkola, 1984. – S. 80.

Turk M. A, Pentland AP (1991) Face recognition using eigenfaces. In: Computer society conference on computer vision and pattern recognition (CVPR), – pp. 586–591.

Market Shares, Strategies, Forecasts Biometrics. – Worldwide, 2015–2021 (2015). Wintergreen Research, Ins.

YOSHLARDA AMALIY BILIM VA KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA

VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

dotsent, PhD Abror SANAQULOV

Annotatsiya

Maqolada axborot texnologiyalarining yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyati, yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo‘naltirish uchun yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish zaruriyati, yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal etish, axborot madaniyatining intellektual mulk huquqini himoya qilish, yuqori sifatli axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va yoshlarda axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yoritilgan. Axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlari, virtual reallikni namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholashning strategik ma’no-mazmuni, virtuallikni tadqiq etishning yo’nalishlari, virtual reallikning insoniyat uchun ta’siri hamda inson hayotini tashkil qilish va tartibga solishdagi ahamiyati, virtual reallik texnologiyalarining ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni, uning imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishda samarali foydalanishning ahamiyati va istiqbollari, yoshlarga o‘quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalarga ma’lumotlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradigan yangi va innovatsion ta’lim usullari hamda virtual reallik texnologiyasidan foydalanib real o‘quv muhitini yaratish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, axborot jamiyati taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy institutlar transformatsiyasi, ommaviy axborot vositalari aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda foydalanishga foydalanishga o‘tishining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni, onlayn birlashmalar rivoji va ularning an’anaviy birlashmalar bilan hamkorligi, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o‘zgarishiga Internet tarmog‘i

rivoji va ta’siri hamda zamonaviy ta’lim transformatsiyasi, bugungi kunda virtual reallik texnologiyalaridan ta’lim sohasida foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari tadqiq qilingan.

Калит сўзлар: virtual reallik, virtual tarmoq, texnologiya, idividual ta’lim, virtual laboratoriya, virtual kutubxona, virtual muzey, virtual sayohat, simulyatsiya, amaliy tajriba, ijodiy ko’nikma.

KIRISH

ularga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Virtual reallik texnologiyalari kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta’sir ko‘rsatib,

Mamlakatimizda yoshlar axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirish, ularni virtual makondagi turli ko‘rinishdagi tahdidlardan asrash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirishda axborot to‘plash, saqlash va uzatish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni bilan bog‘liq axloqiy mezonlar va ijtimoiy-huquqiy asoslarni ilmiy tadqiq

Xususan, Sh. Mirziyoyev (Mirziyoyev, 2021: 192), J. Bodriyyar, (Bodriyyar, 2018: 240), V. Babenoko (Babenko, 1997: 56), Ye. Yudkina (Yudkina, 2021: 19), Ye. Radionseva (Radionseva, 2021: 152), N. Nosov (Nosov, 2000: 91), M. Fayziyeva (Fayziyeva, 2016: 44), M. Xorijev (Xorijev, 2001: 269), A. Sanaqulov (Sanaqulov, 2020: 901), G. Tulenova, A. Sanaqulov (Tulenova, G. , & Sanaqulov, A. (2022: 101), A. Sanaqulov (Sanaqulov, 2020: 56)tomonidan virtual reallikning kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta’siri, virtual reallik va uning yoshlar hayotiy qadriyatlariga ta’siri, virtual reallikning ta’lim tizimidagi o‘rni, virtual reallikning ontologik, gnoseologik va sosiologik muammolari, virtuallikni kompleks o‘rganishga oid ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A. Tulyayev virtual reallikning axloqiy jihatlarini o‘rgangan, A. Sanaqulov virtual reallikni ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilgan, M. Normamatova virtualistikadagi postnoklassik epistemologiya g‘oyalarni o‘rgangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida analiz va sintez, tarixiy va mantiqiy, qiyosiy tahlil, nazariy, umumlashtirish, tizimli tahlil, sababiyat va o‘zaro aloqadorlik kabi ilmiy va falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

NATIJALAR

XXI-asrda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli axborot jamiyati haqiqatga aylandi: insoniyat turli axborotlar olishga, real vaqtda ularga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunday sharoitda axborotlardan foydalanish qoidalarini bilish, kerakli manbalarni qidirish va tanlashning ma’lum madaniyati bo‘lishi yoki sifat jihatidan yangi ma’lumotlarni yaratishi muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda axborot iste’molini shakllantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham bu muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyati deganda innovatsiyalarni o‘zlashtirish jarayonida axborot muhiti bilan samarali, oqilona, axloqiy muvozanatni ta’minlaydigan va tashqi ma’lumotni transformasion faoliyatning shaxsiy vositasiga aylantirish sifatida xizmat qiladigan inson fazilati tushuniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo‘llanilayotgan va jadal rivojlanayotgan bir davrda axborot jamiyatini shakllantirish zamonaviy talablar asosida insonlarning axborot almashishi va muloqotini amalga oshirishning zarur shartiga aylandi. Shu munosabat bilan kelajak jamiyatimiz a’zolari – yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan asosiy vazifadir. Ma’lumotlarning bir qismi texnik drayvlarda saqlanadi va ularni kompyuter orqali olish mumkin. Ma’lumotlarning aksariyati bosma nashrlarda kutubxona va arxivlarda saqlanadi. Axborot jamiyatida inson faoliyati uchun kompyuter savodxonligi yetarli emas. Axborot savodxonligi va madaniyatining muhim tarkibiy qismi kompyuterlar bilan bir qatorda kutubxona hisoblanadi. Bu borada kutubxona bilan ishlay olish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi» (Mirziyoyev, 2021: 192).

Axborot madaniyati bu tegishli ma'lumotni o'qish, o'qilgan narsani anglash va qo'llash madaniyatidir. Ammo bozorning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar o'zlarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash jarayoni ancha qiyin kechmoqda. Bu borada o'quv muassasalarida o'quv va tadqiqot kurslarining joriy etilishiga qaramay, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ilm-fanning rivojlanishi, jamoatchilik bilan aloqalar, inson hayotining barcha jabhalarida juda katta miqdordagi yangi ma'lumotlar va yangi axborot texnologiyalari kasbiy tayyorgarlik muammolariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bularning barchasi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muammosiga yangi ilmiy nuqtai-nazardan qarashni talab qiladi. Shu boisdan ham ochiq axborot jamiyati va yagona ta'lim makoni sharoitida kasbiy mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan bo'lajak mutaxassisning axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning jamiyatdagi faolligi tobora oshib bormoqda. Yangilanish, qonunlar bilan boshqariladigan mamlakat qurilishi davom etmoqda. Yoshlarning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ustuvor o'rinni egallamoqda. Innovasion, kelishilgan, yashil, ochiq va umumiy rivojlanish konsepsiyasi yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shishga to'liq e'tibor berishni, islohotlar, rivojlanishi va barqarorlikni ta'minlashning muhim ko'rsatgichiga aylanmoqda. Biroq yoshlar hayotiy faoliyatini yuksaltirishda muayyan muammolar uchrayotganligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Jumladan, ayrim yoshlarning salomatligi muammolari bilan bog'liq masalalarni hal etish, ularni o'z vaqtida aniqlab hal etish zaruratini paydo qilmoqda. Buning uchun avvalo yoshlarning ijtimoiy va amaliy bilimlarini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ta'lim tizimi sifatini oshirish bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida hal etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kun yoshlarining virtual olamdagi faoliyatini tanqidiy tahlil qilishhar qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jarayonda virtual tarmoqlarni yoshlar tarbiyasiga ta'siri tizimini yanada takomillashtirish, internet imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib va tashviq qilish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirish, virtual tarmoqlarning yoshlar tarbiyasidagi ijobiy energiyasini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo'naltirish uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida hal etish,

axborot madaniyatining intellektual mulk huquqini himoya qilish, yuqori sifatli axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish (mikro-filmlar, animatsiya, o‘yinlar va boshqalar) va yoshlarda axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb hisoblanadi (Sanaqulov, 2020: 901).

Buning uchun milliy badiiy fond va milliy nashriyot fondlari hamda bir qator madaniy rivojlanish jamg‘armalari yoshlar uchun muhim mavzularni tanlashlari uchun loyiha tanlovlarini muntazam e’lon qilib borishlari, taniqli olimlar, yozuvchilar va noyob iste’dod egalari faoliyati bilan bog‘liq kitoblar, filmlar, madaniyat va san’atning boshqa turlarini virtual tarmoq tizimiga joylashtirilib borishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda ekran madaniyati o‘smirlarning mutolaasiga kuchli ta’sir etib, ularning kitobxonlikka qiziqishlarini ma’lum darajada belgilab bermoqda. Yoshlarning kitobxonlik odatlarining tubdan o‘zgarish jarayonida bolalar kitob o‘qishiga xos tavsiflarning barchasi jadal o‘zgarmoqda.

Axborot qidirish, kitoblarning ma’lumotnomalari ro‘yxatidan, kutubxona kataloglari va fayl kabinetlaridan foydalanish, kutubxona fondlarida bepul yo‘nalish berish, hujjatlarni tartibga solish tamoyillarini bilish, tizimlashtirish va mualliflik belgisini bilish, ulardan foydalanish tamoyillari, adabiyotlar ro‘yxatini tuzish qobiliyati, qoidalarni bilish. tavsiflari va tegishli davlat standartlarini bilish ham axborot madaniyatining asosiy xarakterlovchi jihatlarini aks ettiradi.

Axborot texnologiyalari yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda samarali vositadir. Texnologiyalarning rivojlanishi va o‘qishning turli sohalarida o‘qitishning innovasion usullarida texnologiyalarni qo‘llash bilan yoshlarning axborot madaniyati, mustaqil o‘qitish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etish mumkin. Shuning uchun ham tegishli vazirlik va idoralar yoshlarni o‘qitishda ilg‘or bo‘lishlari uchun interfaol o‘quv tajribasini optimallashtirish maqsadida turli bosqichlarda axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishi dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bunday axborot texnologiyalari yoshlarga yangi axborotlarni qabul qilish ehtiyojini aniqlashga yordam beradi, ma’lumotni topadi, baholaydi, chiqarib tashlaydi, tashkillashtiradi va ifoda etadi. Bu asosida yoshlar ezgulik g‘oyalarini targ‘ib qilishda foydalanadilar hamda yangi g‘oyalarni yaratib, axborot dunyosidagi o‘zgarishlarga tezkor javob beraoladi.

Virtual texnologiyalarining paydo bo‘lishi va yangilanishi bilan virtual tarmoq madaniyati ham yangi madaniyat sohasiga aylandi. Virtual tarmoq

madaniyati internet, uyali aloqa vositalari va boshqa virtual tarmoq mahsulotlarini tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tushuncha ma’lum bir til belgilariga, ovozli belgilarga va vizual belgilarga va hokazolarga asoslanib, g‘oyalar, madaniyat, xalq urf-odatlarini tarqatish, fikr va qarashlarni ifoda etish va hissiy ongni ifoda etish uchun rivojlangan va tezkor axborot uzatish tizimiga tayanadi. Mazkur jarayonda asosiy ommaviy axborot vositalari virtual tarmoqning ekologiyasidan to‘liq foydalanadi, bu milliy ma’naviy madaniyatning yanada rivojlanishiga katta yordam berishi mumkin. Bu holatni aloqa afzalliklaridan foydalanish va ommaviy axborot vositalarini bir nechta platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni translyasiya qilish bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Chunki virtual tarmoq milliy ma’naviy-madaniy qadriyatlarni saqlash va tarqatish funksiyasiga ega. Virtual tarmoq texnologiyasining yangi ishlab chiqarish vositasi sifatida paydo bo‘lishi an’anaviy madaniyatni ishlab chiqarish, aloqa va qabul qilishga ko‘proq ta’sir qiladi, shuningdek, tarmoq o‘zi noyob va boy madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi (Babenko, 1997: 56).

Virtual reallik texnologiyalarning tez va keng tarqalishidan to‘liq foydalanish va an’anaviy ommaviy axborot vositalarini juda ko‘p platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni uzatish bilan bog‘lash an’anaviy madaniyatning yoshlar ongiga kirib borishining samarali usullaridan biridir. Internet butun dunyo bo‘ylab universal madaniy tashuvchidir. Internet texnologiyalarining doimiy yangilanishi bilan internet madaniyatining integratsiya funksiyalari rivojlanmoqda. Internetning asosiy platformalari va o‘z-o‘zini media platformalari hisobotning mazmunini kengaytirish uchun matn, rasmlar, fon havolalari va boshqalardan foydalanadi va sharhlarning barcha jihatlarini o‘z vaqtida o‘zlashtirishi va umumlashtirishi mumkin. Bu jarayonda multimediya integratsiyasi aslida uch o‘lchovli reportajni anglatadi. Bu tizimda milliy madaniy meros translyasiyasi uchun yoshlarning turli estetik ehtiyojlarini qondirish uchun qisqa metrajli videofilmlar, filmlar, mikro-filmlar, reportajlar sseriyyasi, badiiy filьmlar va boshqa platformalar ulanishi mumkin. Yirik onlayn platformalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan keng qamrovli hamkorlik qilish uchun virtual tarmoq platformasidan keng foydalanishi mumkin. Shu boisdan ham aksariyat ommaviy axborot vositalari yangi texnologiyalar, masalan, aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda va hokazolarda foydalanishga o‘tmoqdalar, bu esa o‘z navbatida yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar kelajakda sun'iy intellektning sezilarli darajada rivojlanishini alohida ta'kidlamoqdalar. To'g'ri, bugungi kunda sun'iy intellekt inson ongidan ustun bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savol tug'ilgani yo'q, ammo sun'iy intellekt insonning aql-idrokining ba'zi jihatlaridagi kamchiliklarini to'ldirishi mumkinligiga olimlar ko'proq ishonch bildirmoqda. Inson ongi murakkab va noqulay ma'lumotlarni hisoblash va mantiqiy mulohazalarni amalga oshiradi, bunda ijodkorlik, go'zallik, hissiyot, qiymatni baholash va boshqa jihatlar ustuvor o'rinni egallaydi. Virtual reallik kompyuter yordamida simulyasiya qilish, eshitish, ko'rish, teginish, hidlash va hokazo kabi turli xil hislarni simulyasiya qilish orqali uch o'lchamli virtual dunyoni yaratadi (Бодрийяр, 2018: 240).

Masalan, maxsus qurilmalar orqali tomoshabinlar kosmosdagi narsalarni real vaqt davomida cheklovlarsiz kuzatishi mumkin. Bu esa insonga koinot bilan uyg'unlik va o'zaro ta'sir, go'yo voqea joyida bo'lganingizda va insonlarga ajoyib vizual ta'sir va ruhiy kechinmalarni beradi. Hatto, 2017 yilda «virtual reallik texnologiyasi» asosida ishlab chiqilgan «kengaytirilgan reallik texnologiyasi» insonlarni virtual va real voqelikning chalkashtirib yuborishiga ham olib keldi. Bundan ma'lum bo'ladiki, soha mutaxassislari virtual reallikni real voqelikka aylantirishga harakat qilmoqdalar.

Virtual reallik ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi va ta'lim sohasida ham tobora ommalashib bormoqda. Chunki virtual reallik yaxshi va sifatli ta'lim olish va amaliy tajriba orttirish imkoniyatini taklif etmoqda. Bugungi kunda virtual reallik texnologiyalaridan ta'lim sohasida foydalanish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etmoqda:

1. Virtual sayohatlar: talabalar real hayotda borish imkoniyati bo'lmagan joylarga virtual tashrif buyurishlari mumkin. Masalan, ular qadimiy arxeologik topilmalar va xarobalarni o'rganishlari yoki boshqa mamlakatlarga tashrif buyurishlari mumkin.

2. Simulyasiyalar: virtual reallik tibbiy operatsiyalar yoki favqulodda vaziyatlar kabi real holatlarni simulyasiya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu talabalarga amaliy tajriba orttirish va ko'nikmalarni xavfsiz rivojlantirish imkonini beradi.

3. Virtual laboratoriyalar: talabalar fanning turli sohalarida virtual tajribalar o'tkazish uchun virtual reallik texnologiyalaridan samarali foydalanishlari mumkin.

4. Til o‘rganish: virtual reallik talabalar virtual belgilar orqali chet tilidagi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashq qilishlari mumkin bo‘lgan immersiv muhitni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

5. Ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish: virtual reallik virtual san’at muhitini yaratish uchun ishlatilishi mumkin, bunda talabalar san’atning turli shakllari va uslublari orqali tajribalar o‘tkazishlari mumkin.

Ta’limda virtual reallikdan foydalanishning afzalliklari talabalarda motivatsiya va qiziqishni oshirish, xotirani kuchaytirish hamda interaktiv va amaliy tajriba muhitini yaratishdir.

Virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Chunki bunday zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan jonli va jonsiz sub’yektlarning 99 foizi haqiqiy prototiplarga ega bo‘lgan bir xil fazilatlarga, xatti-harakatlarga ega. Bundan tashqari, foydalanuvchi fizikaning haqiqiy qonunlariga muvofiq barcha jonli va jonsiz narsalarning ta’sirini ta’minlashi mumkin. Muayyan vaqt oralig‘ida ushbu texnologiya yordamida ular Rim tarixiga sayohat qilishlari, qadimgi Rimga borishlari va Kolizeyni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari ham mumkin.

Virtual texnologiyalar texnologiya va yoshlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Ular virtual reallik texnologiyalaridan samarali foydalangan holda tashkil etilgan darslarga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qarashadi. Virtual reallik texnologiyalariga bunday munosabat ta’limning sifat darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun maktab va kollejlarda virtual reallik texnologiyasidan foydalanish ham o‘z samarasini beradi albatta.

Virtual reallik o‘quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalarga ma’lumotlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradigan yangi va innovasion ta’lim usullarini taklif etadi. Virtual reallikning ta’limni rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan bir necha usullari mavjud:

1. Virtual reallik talabalarga o‘quv materiali va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradigan immersiv muhit yaratadi. Bu ularning faolligini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

2. Virtual reallik yordamida talabalar tibbiyot, muhandislik yoki san’at kabi turli sohalarda amaliy tajriba orttirishlari mumkin. Ular tajribalar o‘tkazishlari, muammolarni hal qilishda mashq qilishlari va ko‘nikmalarni xavfsiz va samarali rivojlantirishlari mumkin.

3. Virtual reallik har bir talabaning ehtiyojlarini qondiradigan individual o‘quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Bu ularga o‘z tezda

o‘zlashtirish va qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash hamda fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

4. Virtual reallik yordamida talabalar o‘quv materiallariga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishlari mumkin. Ular ta’lim muassasasidan tashqarida ham yangi tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘rganishlari mumkin.

5. Virtual reallik talabalarga turli hududlarda bo‘lsa ham, bir-biri bilan hamkorlik va muloqot qilish imkonini beradi. Ular loyihalar ustida birgalikda ishlashlari, fikr almashishlari va bir-birlaridan o‘rganishlari mumkin.

Stenford universitetining aloqa sohasi professori Jeremi Beylenson 1990-yillardan beri virtual reallik texnologiyasini o‘rganib kelmoqda. Uning so‘zlariga ko‘ra, virtual reallik texnologiyasi ana’anaviy dars o‘rnini bosa olmaydi, lekin undan ta’limda qo‘shimcha vosita sifatida foydalanish mumkin. Sinfda virtual texnologiyadan foydalanish kundalik ta’limning an’anaviy tizimida bir qancha o‘zgarishlarni talab qiladi. Biroq, virtual olamga sayohat talabalar uchun foydali bo‘lar edi, deydi u. Professorning so‘zlariga ko‘ra, virtual reallik texnologiyasidan ayrim darslarda foydalanib bo‘lmaydi. «Masalan, biz bu texnologiyadan fe’l darsida foydalana olmaymiz. Sinfda doska bo‘lishi kifoya. Va agar boshqa joyga bormasdan ko‘rsatish uchun narsalar mavjud bo‘lmasa, albatta, buning uchun virtual reallik texnologiyasi kerak» deydi professor. Bugungi kunda Stenford universitetida Beylensonning tashabbusi bilan to‘liqligicha virtual reallik formatidan foydalangan holda dars berish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 2003 yildan buyon universitet qoshida inson va kompyuterning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi virtual reallik laboratoriyasi faoliyat yuritib keladi.

Ta’limda simulyatorlar yaratishda virtual reallik texnologiyalaridan ham kengfoydalanilmoqda. Bunda virtual kutubxona va muzeylar yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilib bu buyicha amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo‘ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va ko‘rishi, kerak bo‘lsa, undan nusxa olishi mumkin. Virtual muzey biroz boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan ashyoni tabiiy uch o‘lchamli shaklda ko‘rish imkonini beradi. Biroq, bu ancha yuqori tasvir o‘lchamlari bilan displeylarni talab qiladi. Natijada, virtual mavjudlik nazariy tadqiqotdan zamonaviy madaniyatning ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar bilan bog‘liq ajralmas qismiga aylandi (Yudkina, 2021: 19).

Bugungi kunda simulyatorlardan ta’lim tizmimida keng foydalanilmoqda. Bu, o‘z navbatida, vaqt va mablag‘ni tejab, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Xususan, mamlakatimizda virtual kutubxonalar, virtual muzeylar loyihalari amalga oshirilmoqda. Hozirda mamlakatimizning ko‘plab kutubxonalari va muzeylaridagi tarixiy, nodir manbalar va eksponatlarni uch o‘lchamli ko‘rinishda ko‘rish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, virtual muzey loyihasi ta’lim tizimiga zomanaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalar bilimini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, talabalar onlayn tur orqali raqamli qayta ishlangan eksponatlar bilan tanishish, dunyoning madaniy markazlariga virtual sayohat qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin. 2019-yilda Markaziy Osiyoda birinchi “Aqlli muzey”ning ochilishi O‘zbekistonda muzeyshunoslik sohasida burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu muzey Amir Temur maqbarasida ochilgan bo‘lib, zamonaviy interaktiv vositalar yordamida maqbara haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Hozirgi davr virtual tarmoqni rivojlanishi sharoitida turli madaniyatlarning birlashishi va to‘qnashuvi yoshlarga ezgulik g‘oyalari bilan bog‘liq qadriyatlarni qaror toptirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni yaratib berishi bilan bir qatorda, ular oldida bir qancha muammolarni hal etish zaruratini ham keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, zamonaviy yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun samarali virtual vositalardan foydalanish uchun tizimning barcha vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, internet, ommaviy axborot vositalari, ommaviy akkuantlar va boshqalardan to‘liq foydalanish kerak, ko‘proq interfaol aloqalarni o‘rnatish uchun ommaviy axborot vositalarining mintaqaviy xususiyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Masalan, onlayn bilimlar tanlovlari, onlayn treninglar, zamonaviy yoshlarning o‘ziga ishonchini oshirish uchun axborot madaniyatidan samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Bu holatda oldingi o‘qitish usullari yetakchi sifatida ishlatilishi mumkin, ammo virtual tarmoqda amaliy o‘qitishning yordamchi usullari xilma-xil bo‘ladi. Virtual tarmoqda o‘qitish mazmuni jihatidan biz nafaqat oldingi nazariy bilimlarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki yanada ideal effektga erishish uchun ta’lim mazmunini skrining qilish uchun davr xususiyatlari va talablariga bemalol moslashishimiz mumkin bo‘ladi. Zamonaviy yoshlar virtual tarmoq orqali ko‘proq bilimga ega bo‘lishlari, masalan, chet ellik talabalar bilan media interfaol darslarni yo‘lga qo‘yishi, turli nufuzli olimlar va tadbirkorlar bilan mahorat darslarni o‘tishlari mumkin, shuningdek, mamlakatda va xorijda bo‘layotgan yangiliklardan muntazam xabardor bo‘ladilar.

Shuning uchun mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ta’lim berishning bunday usuli nafaqat hayotga yaqin, balki bugungi kun yoshlari tomonidan qabul qilinishi oson. Uchinchidan, virtual tarmoq tizimida o‘qitishni amalga oshirayotganda uning tarkibidagi ma’lumotlarni skrining bo‘lmagan xususiyatini hisobga olgan holda, biz tarmoq nazoratini teng darajada muhim joyga qo‘yib undagi axborotlarni boshqarish uchun javobgarlikni bevosita anglab yetishimiz lozim. To‘rtinchidan, bugungi kun yoshlarida sog‘lom ta’lim va tarbiya tizimini yaratish, o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishning uzoq muddatli mexanizmlarini shakllantirish zarur. Zamonaviy yoshlar axborot olish yo‘llari va vositalari bilan cheklanib qolmay, asosiy e’tiborni strategik fikrlash va nazorat qilish mexanizmiga qaratishlari lozim (Tulenova, G. , & Sanaqulov, A. (2022: 101).

Bugungi kunda virtual reallik texnologiyasi ta’limning rivojlanishiga yordam beradigan yangi usulga aylandi. An’anaviy ta’lim talabalarga bilimlarni nazariy jihatdan ochib bergan bo‘lsa, endi virtual reallik texnologiyasidan foydalanib ular yorqin va real o‘quv muhitini yaratishlari mumkin. Bu esa yoshlarga virtual passiv instilatsiya haqiqiy his-tuyg‘ular orqali xotirani rivojlantirishga imkon beradi. O‘z-o‘ziga yo‘naltirilgan o‘qishni talabalar qabul qilishi osonroq, shuning uchun virtual reallik texnologiyalari orqali talabalarning bilim olishga qiziqishini uyg‘otish osonroq kechadi. Shundan kelib chiqib «ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli tranformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish bilan bog‘liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi zarur» (Mirziyoyev, 2021: 192)ligi taqozo etiladi.

Virtual reallikdan samarali foydalanish orqali ko‘plab muvaffaqiyatga erishilganlik haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan: Xitoyda «virtual reallikning akademik faoliyatga ta’siri» mavzusida tadqiqot o‘tkazilgan. Bolalarga bir xil intizom o‘rgatiladi, ammo bir guruhi klassik usul yordamida, ikkinchi guruh esa virtual reallik yordamida o‘qitilgan. Tadqiqot yakuni bo‘yicha test o‘tkazilganda birinchi guruh 73%, ikkinchi guruh esa 93 % muvaffaqiyatga erishadi. Bundan tashqari, virtual reallik qo‘llangan guruh mavzuni chuqurroq tushunib, olingan bilimlarni mustahkamlab olganligi aniqlangan[6]. Ushbu tadqiqot natijasida virtual

reallikning samaradorlik ko‘rsatkichi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida ham virtual reallik texnologiyalardan foydalanib, soha mutaxassislari bilan birgalikda tajriba-sinovlar o‘tkazish, natija ijobiy bo‘lsa bosqichma-bosqich barcha ta’lim muassasalarida joriy etish maqsadga muvofiqdir (Nosov, 2000: 91).

Oliy ta’lim tizimida ta’limning ko‘pgina yo‘nalishlarida virtual reallik rib virtual reallikka mo‘ljallangan tibbiyot uskunalari bozorining hajmi 5, 1 AQSH dollariga teng bo‘lishi bashorat qilinmoqda (Sanaqulov, 2020: tashxis qo‘yishga yordam beradi. Shu bilan birga o‘ta murakkab jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish mumkin. Bundan tashqari, kollej va universitetlarda talabalarga yaxshiroq bilim olishlari uchun virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda fanlar bilan bog‘liq virtual

nisbatan keng rivojlanayotgan bo‘lsada, tez rivojlanayotgan texnologiya

v
i
r
t
u
a
l

Umuman olganda axborot texnologiyalarini faqat texnika olamiga taalluqli bir narsalar, deb qaralishi noto‘g‘ri, zero ular insonlar hayotiga chuqur kirib borib, uning kundalik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Sifatiga ko‘ra axborot industriyasining keskin o‘zib ketishi, hatto, falsafiy dunyoqarash doirasida yangidan - yangi texnologiyalar tahliliga zarurat tug‘dirmoqda. Bizningcha, bu muammolar postmodernistik falsafa doirasida atroflicha o‘rganilmoqda.

r
e
a
l
l
i
k

Insonlarning virtual muhitdagi muloqotining tobora kengayishi jamiyatda boshqatendensiya – virtual addiksiyani (virtual reallikdan insonning kimyoviy xossaga ega bo‘lmagan psixologik mutelik) yuzaga keltirmoqda. Additiv voqelik esa dastlab bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarni: inson atrofidagi real ob’yektlar va virtual dunyoni ekranda birlashtirishdir. Psixologlar mazkur hodisani kasallik deb tan olmoqda. Internetga mutelik jiddiy malakali psixologik yordamga muhtoj aholi qatlami bo‘lgan yoshlar orasida keng doirada rivojlanib bormoqda. Olimlarning bashorat qilishicha, virtual reallik va inson ongi

a
s
o
s
i
a
l

o
n
g
i

t
a
l

konvergensiyasi biz tasavvur qilgandan ham tezkor va shiddatli amalga oshmoqda. Shu bilan bir qatorda, virtual reallikda inson ongi va ongostini manipulyasiya qilish muammosi hozir hech kimda shubha uyg‘otmaydi (Radionseva, 2021: 152).

Yirik onlayn platformalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan keng qamrovli hamkorlik qilish uchun virtual tarmoq platformasidan keng foydalanishi mumkin. Shu boisdan, ham aksariyat ommaviy axborot vositalari yangi texnologiyalar, masalan, aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda va boshqalarda foydalanishga o‘tmoqda, bu esa, o‘z navbatida, yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi (Fayziyeva, 2016: 44).

Ta’limni rivojlantirishda virtual reallikning roli yanada interaktiv, samarali va individual o‘quv tajribasini yaratishdir. Bu talabalarga ko‘nikmalarni rivojlantirishga, amaliy tajriba orttirishga va ilmiy natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Biroq, virtual reallikning ba’zi cheklovlarini ham hisobga olish lozim, masalan, texnologiyaning yuqori narxi va o‘qituvchilarni ushbu texnologiyadan foydalanishga o‘rgatish zarurati.

XULOSA

Xulosa qilganda, virtual reallik virtual texnologiyalar yordamida yaratilgan reallik va fantastik voqelikni uyg‘unligini o‘zida ifoda etadi. Shu boisdan ham virtual reallik ta’lim jarayonini modernizatsiyalashda muhim o‘rin tutadi. Chunki aynan virtual o‘quv muhiti talabalarning bilim tajribalarini boyitishga mo‘ljallangan platformalar bo‘lib, ular ta’limga zamonaviy innovasion texnologiyalarni qo‘llash orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Virtual reallik texnologiyalarni rivojlanishi ta’lim muhitini tubdan o‘zgartiradi. Virtual reallik texnologiyasi yanada murakkab muammolarni hal qilish uchun insonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuterlar bilan o‘zaro aloqa qilishlari mumkin bo‘lgan vosita hisoblanadi. Umuman olganda, virtual ta’lim uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi va undan foydalanish ta’limning turli sohalarida rivojlanib, tobora kengayib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mirziyoyev Sh.(2021).Yangi O‘zbekiston strategiyasi.
Toshkent: O‘zbekiston, – B. 191-192. Sanaqulov, A. N. (2020). Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. JournalNX, 901. Babenko B. (1997). Dve knigi o virtualnoy realnosti // Trudi laboratorii virtualistiki. Vip. 3. – M, 56.

Bodriyyar J. (2018). Simulyatsiya i simulyakri. – M, 2018. – 240 s.

Yudkina Ye. S. (2021).
Potensial virtualnix muzeyev v sovremennix realiyax. Vestnik

Muzeya arxeologii i etnografii Permskogo Preduralya, (11), 22. Tulenova, G. , & Sanaqulov, A. (2022). MODERN VIRTUAL

TECHNOLOGYAND ITS OPPORTUNITIES.
Academic research in educational sciences, 3(9), 100-105. Nosov N. (2000). Virtualnaya psixologiya. – M. : Agraf, 91.

Sanaqulov, A. (2020). Virtual reallikning ilmiy-falsafiy tahlili. SamDU. 52.
Xorijev M. (2001). Virtualnaya realnost. –M. : OLMA-PRESS, 269. E. Radionseva (2021).
NOVAYA OBRAZOVATELNAYA TRAYEKTORIYA - PROGULKI PO VIRTUA LNOY REALNOSTI.
Nauka o cheloveke: gumanitarnie issledovaniya, 15 (4), 155.

Fayziyeva M. , Sayfurov D. (2016). Virtual ta’lim texnologiyasi. – Toshkent, 44.

EXTENDED ABSTRACT

Today, virtual reality technologies are developing rapidly, and interest in them is growing. Virtual reality technologies affect people's social and personal lives, causing a transformation of culture, morality and values. This process, on the one hand, leads to the social, cultural, spiritual alienation of people from society, and on the other hand, expands the possibilities for the development of society, becoming a means of satisfying the vital, spiritual needs of people. In this regard, the development of mechanisms for identifying the family capabilities of a new virtual culture emerging in a modern informative society, its specifics and prospects for the development of virtual reality, is of urgent importance.

Critical analysis of youth activity in the virtual world is becoming more relevant today than ever. In this process, it is relevant to further improve the system of the impact of virtual networks on the education of young people, the implementation of a number of measures to promote and promote spiritual, educational and moral values with effective use of the Internet, increasing the positive energy of virtual networks in the education of young people. Increasing information culture among young people is important for the rational direction of young people from the possibilities of virtual networks to scientific, legal, cultural knowledge. In this process, timely solution of problems related to the management of youth information culture, protection of intellectual property rights to information culture, establishment of production of high-quality information culture products, support of innovative ideas to improve youth information culture are relevant.

Search for information, use of lists of reference books, library catalogs and card files, free orientation in the library collections, knowledge of the principles of organization of documents, systematization and the mark of authorship, principles of their use, the ability to compile lists of literature, knowledge of the rules. knowledge of the characteristics and relevant state standards also reflects the main characterizing aspects of information culture.

Information technologies are an effective tool for realizing the educational opportunities of young people. With the development of technologies and the use of technologies in innovative teaching methods in various fields of study, it is possible to solve problems related to the formation of information culture, independent learning and creativity among young people. That is why it is important that the relevant ministries and departments develop educational strategies in the field of

5. Saipova K. Tolerance of the Uzbek people towards evacuated and deported peoples during the war against fascism. - Tashkent, 2018. - P. 90; Ibid: History of national minorities of Uzbekistan (1917-1990) - Tashkent, 2021.

6. Rasulov A. Relations between the Turkestans and the Volgaboys, the Uralaldin peoples (1917-1924). - Tashkent, 2005; ibid: Tatars in the socio-political and cultural life of Turkestan. -Tashkent, 2019; The same: Tatars in Turkestan in the era of Islam (end of the twentieth century). - Kazan, 2021; Yunusova H. National policy of the Soviet state in Uzbekistan and its consequences. - Tashkent, 2005; The same: "Interethnic relations and spiritual processes (on the example of the 80s of the twentieth century)" in Uzbekistan - Tashkent, 2009; Inoyatova D. German diaspora in Uzbekistan: an old story. - Tashkent, 2019 and others.

7. "Ethnodemographic processes in Uzbekistan. " International conference. - Tashkent, 2005, 2007: Interethnic relations and tolerance in Uzbekistan: historical experience and modernity. - Tashkent, 2010: Tolerance as a means of developing mutual trust. International scientific conference. -Tashkent, 2018 and others.

8. Kramer S. N. The story begins in Sumer / Transl. English F. L. Mendelsohn. - M. : Nauka, 1965. - P. 127.

9. Lamberg-Korlovsky K. Models of interaction in the 3rd millennium BC: from Mesopotamia to the Indus Valley // Bulletin of Ancient History. - M. , 1990. - No. 1.

10. Mavlonov O. , Makhkamova D. Cultural connections and trade routes. - Tashkent: Academy, 2004. - B. 29.

11. Mavlonov O. , Makhkamova D. Cultural connections and trade routes. - Tashkent: Academy, 2004. - B. 32.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA KONFESSIYALARARO HAMJIHATLIK –YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING MUHIM OMILI

falsafa fanlari doktori, professor Ismoil SAIFNAZAROV,

ORCID: 0000-0002-4946-4303

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida eng muhim omillardan biri sifatida “millatlararo totuvlik va diniy konfessiyalararo hamjihatlik ekanligini ochib bergan. Xususan, ko‘pmillatli xalqimiz – bizning eng katta boyligimiz, barcha yutuq va marralarimizning mustahkam asosi, hozirgi yoshlarimizni nafaqat elparvar, vatanparvar sifatida, balki milliy va diniy bag‘rikeng inson sifatida tarbiyalash asoslari yoritib berilgan. Qolaversa, yoshlarimizni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularni turli zararli va yot g‘oyalar ta’siridan asrashga, ularni vatanparvar, bilimli, bag‘rikenglik an’analariga sadoqat ruhida turbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligi keltirib o’tilgan. Jumladan, globallashuv sharoitida, axborot xurujlari tezlashgan, yoshlarning ongi va qalbi uchun kurash kechayotgan, eng asosiysi, ularning dunyoqarashi o‘zgarib borishi, bugungi davrda yoshlar siyosati sohasi yangicha uslub va mexanizmlar asosida asoslab berilgan. Shu bilan birga, konfessiyalararo hamjihatlik yo‘nalishida yoshlarga oid davlat siyosati muhim qirralari tahlil qilingan. Jumladan, Yaqin Sharq va Afrika davlatlarida kuzatilayotgan juda ko‘p mojarolar, ziddiyatlar ortida yoshlarga oid davlat siyosatining yo‘qligi sabablari tahlil qilingan. Ayniqsa, ko‘pmillatli xalqimiz – bizning eng katta boyligimiz, yurtimizdagi millatlar va konfessiyalararo hamjihatlik – barcha yutuq va marralarimizning mustahkam asosi ekanligi talqin qilingan. Insoniyat uchun eng katta boylik tinchlik ekanligi, tinchlikning manbai esa hamjihatlik ekanligi yoritib berilgan. O‘zaro totuvlik va do‘stlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror go‘shadagina inson erkin-emin yashaydi, har qanday orzusi ekanligi ochib berilgan. Shu jihatdan qaraganda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug‘imiz, Yurtboshimiz uqtirganidek, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va

hamjihatlik, do‘stlik va birdamlik ekanligi asoslab berilgan. Xususan, bu ne’matlarning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, kimligimizdan qat’i nazar, barchamizning muqaddas burchimiz ekanligi tahlil qilingan.

Shu o‘rinda istiqlol arafasidagi Farg‘ona va O‘sh voqealari, mitingbozlik, parokandalik, iqtisodiy tushkunlik, boshqa millat vakillarida qo‘rquv va hadiksirash holatlalari ochib berilgan. Bunday sharoitda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun siyosiy va iqtisodiy vaziyatni izga solish, millatlararo munosabatlarning barqaror tizimini yaratish, odamlarda ertangi kunga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish zarurligi tahlil qilingan. Shuningdek, istiqlol yillari Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tenghuquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e’tibor qaratilishi asoslab berilgan. Bu tamoyillar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va barcha qonunlarimizda muhrlab qo‘yilganligi yoritilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning O‘zbekiston davlati o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi alohida ko‘rsatilgan. Mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: millatlar, bag‘rikenglik, yoshlar, tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, totuvlik, konfessiyalar, mahalla.

KIRISH

Azal-azaldan o‘zining do‘stlik, birodarlik va bag‘rikenglik an'analari bilan shuhrat qozongan qadimiy va betakror O‘zbekiston zaminida hozirgi vaqtda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘zaro tinch va ahil yashab, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar, 38 ta do‘stlik jamiyati va 153 ta milliy madaniy markaz erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari 7 tilda olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda tahsil olayotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda.

Barcha hududlardagi “Do‘stlik uylari” turli millatga mansub fuqarolar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda. Bizning mamlakatimiz azal-azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makon sifatida dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida mavqega ega. Bu muborak zaminda bizning ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo

hurmat bilan qaraganlar, mana shu yurt ozodligi yo‘lida ular bilan birga kurash olib borgani, yelkadosh bo‘lib mehnat qilganini hech kim inkor qila olmaydi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma xil dinlarga e’tiqod qiluvchi va bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan turli xalqlar, millatlar, yashagan va yashab kelayotgan o‘lkadir. Qadim zamonlardan bizning yurtimizda zardushtliylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo‘lgan. VIII asrda Movarounnahrga kirib kelgan islom dini mahalliy xalqlarning axloq g‘oyalari, huquqiy me'yorlari va urf-odatlari bilan uyg‘unlashib, hozirgi O‘zbekiston mintaqasida o‘z bag‘rikenglik xususiyati bilan ajralib turuvchi hanafiy mazhabi ta'limoti hamda ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlar uzul-kesil qaror topdi.

Mustaqillik yillari O‘zbekistonda ushbu tarixiy an’anaga yangicha ruh bag‘ishlagan holda turli dinlarga mansub qadriyatlarni avaylab-asrashga, barcha fuqarolarga o‘z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilib, ushbu yo‘nalishda boshqa davlatlarga namuna bo‘ladigan boy tajriba orttirildi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Nima uchun konfessiyalararo hamjihatlik yoshlarga oid davlat siyosatining muhim omili? Gap shundaki, bugungi kunda maktab, kollej, texnikum va oliygohlarda bilim olayotgan, o‘z shaxsiy ishini ochib, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan, Qurolli Kuchlarimiz saflarida yigitlik burchini sharaf bilan ado etayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalariga, zamonaviy IT-texnologiyalari yo‘nalishlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan 18 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz – bizning bebaho boyligimiz, oltin zaxiramizdir (Mirziyoyev, 2023 iyun 30).

Mamlakatimizdagi turli millatlar va konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik ertangi yoshlarga, ularga berayotgan ta'limimiz, tarbiyamizga bog‘liq. Agar biz ularni to‘g‘ri tarbiyalay olsak, bag‘rikenglik fazilatlarini qalbiga jo eta olsak, ana shunda millitlararo totuvlik bo‘ladi, tinchlik va xavfsizlik kafolatlanadi. “Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa

qo‘shaman!”, degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Navqiron avlodimizning huquq va manfaatlarini ta’minlash, o‘g‘il-qizlarimizning bilim olishi, mehnat qilishi, o‘z qobiliyat va iste'dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani va bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotgani hammamizga yaxshi ma’lum. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat (Mirziyoyev, 2023 iyun 30).

ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimgi manba «Avesto» (Isxoqov, 2001: 153)da, Aristotelning «Axloqi kabir» (Arestotel, 1996: 678) asarida davlat boshqaruvidagi barqarorlik xalqning o‘zaro hurmatini shakllantirish omili sifatida e’tirof etilgan, Platonning «Atlantida» (Platon, 1996: 554) afsonasida xalqlararo nizoning oqibatlari ochib berilgan. Sh bilan birga G‘azzoliyning «Tavba» (G’azzoliy, 2019: 278) asarida diniy dunyoqarashning xalqlar madaniyatiga ta’siri, Ibn Sinoning «Donishnoma» (Ibn Sino, 1972: 289) asarida bilimning kuchi shaxslararo munosabatlardagi barqarorlik omili sifatida talqin etilgan.

METODOLOGIYA

O‘tgan qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo‘yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini bermoqda. Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Asosiy qonunimiz loyihasini muhokama etish va umumxalq referendumi orqali qabul qilishda yoshlarimiz alohida faollik ko‘rsatganini ta'kidlamoqchiman. Bu esa o‘g‘il-qizlarimizning Vatanimiz taqdiri va kelajagiga yuksak daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgani, mamlakatimizdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yangicha ruh va mazmun olib kirayotganidan dalolat beradi. Shu ma'noda, o‘tgan davrda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi – vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. Yurtimizdagi barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tanlab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi. “Yoshlar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, so‘nggi ikki

yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1 trillion so‘mlik yordamlar ko‘rsatildi. Jumladan, 53 ming nafar ehtiyojmand oilaga mansub talabaga o‘qish uchun kontrakt pullari to‘lab berildi (Mirziyoyev, 2023 iyun 30).

Oliy ta’lim muassasalari soni salkam uch marta ko‘payib, 210 taga, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda o‘g‘il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Oxirgi uch yilning o‘zida 250 ming nafar yoshga 6 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Mamlakatimiz bo‘yicha 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari” tashkil etilib, 4 trillion so‘mlik 2, 5 mingta loyiha amalga oshirildi. Natijada, yosh tadbirkorlar soni 2 karra ko‘payib, 200 mingdan oshdi. Nafaqat yoshlarimiz, balki butun jamiyatimiz hayotini tubdan o‘zgartirishga xizmat qilayotgan ana shunday ezgu ishlar mamlakatimizda bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Boshqa millatlarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish – o‘zbek halqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Xalqimiz hech qachon o‘zini boshqa xalqdan ustun qo‘ymagan. Boshqa millatlarga, boshqa mazhab vakillariga munosib darajada ehtirom ko‘rsatgan. Yoshlarga ham ana shu fazilatlarni yanada ko‘proq singdirib borish siz va bizning asosiy vazifamizdir.

Tabiiyki, diyorimizda umrguzaronlik qilayotgan turli millat vakillari o‘zlariga ko‘rsatilayotgan beqiyos g‘amxo‘rlikliklarga javoban davlat boshqaruvi ishlarida, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotda faol va erkin qatnashmoqdalar. Chunonchi, bugungi kunda senatorlar, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamda mahalliy kengashlar deputatlari, yirik korxona va tashkilotlar rahbarlari turli millat vakillaridan iborat. Shahar-qishloqlarimizdagi ko‘plab o‘zini o‘zi boshqarish organlariga esa rus, tatar, qirg‘iz, qozoq, ukrain, arman, tojik va boshqa millatlarga

mansub oqsoqollar rahbarlik qilishayapti. O‘z navbatida, zimmamizga umrboqiy qadriyatlarimizni, ayniqsa, olijanoblik va bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni asrab-avaylash mas'uliyatini yuklaydi. O‘zini shu tabarruk zamin farzandi deb bilgan boshqa yurtdoshlarimizni ham buyuk kelajagimiz yo‘lida birlashishga undaydi. Barchamizni yagona Vatanimiz hisoblanmish O‘zbekistonning baxt-iqboli va istiqboli uchun qayg‘urishga, ajdodlarimizga munosib vorislar bo‘lishga, milliy qadriyatlar va an'analarni mudom takomillashtirib, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishga chorlaydi.

Hozirgi notinch va tahlikali zamonda dunyo hamjamiyati oldida turgan, insoniyat duch kelayotgan murakkab muammolar, xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etishda, turli tahdidlarning oldini olishda barcha ezgu niyatli insonlarni, ayniqsa, qo‘shni mamlakatlar bilan birgalikda, nufuzli xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarining o‘zaro do‘stligi qanchalik mustahkam bo‘lsa, davlatimiz ham shuncha mustahkam bo‘ladi.

Hozir yurtimizning qay bir mahallasiga bormang, o‘zbekning to‘yida tojikni, qirg‘izning ma'rakasida qozoqni ko‘rasiz. Tashkilot, korxona, muassasalarda O‘zbekistonni taraqqiy ettirishga o‘zining ozmi-ko‘pmi ulushini qo‘shayotgan boshqa millat vakillari qancha, eh-he, sanasak, ado qilolmaymiz. Istiqlolning ilk davridan boshlab, rivojlanishning qiyin, murakkab sharoitida xalqimiz bilan yelkama-elka, hamnafas bo‘lib, mehnat qilib kelayotgan vatandoshlar uchun O‘zbekiston – bag‘rikeng diyorga aylandi. Davlatimiz madhiyasida “Bag‘rikeng o‘zbekning o‘chmas iymoni” satri jaranglasa, qay bir millat vakili to‘lqinlanmaydi, deysiz?

NATIJALAR

Darhaqiqat, mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlari ekanini dalillaydigan misollar tarixda ko‘p. Bilamizki, 1937-1952 yillarda O‘zbekistondan 100 ming kishi qatag‘on qilingan. Bu mudhish voqea millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari poymol bo‘lganini ko‘rsatuvchi dalil bo‘lsada, akademik, shoir G‘afur G‘ulom urush yillarida “Sen yetim emassan” shiorini qalbiga muhrlab, oxirgi bir burda nonini ham o‘zga millatlarning boshpanasiz, och-yupun qolgan zuryodiga ulashgan temirchi o‘zbek Shoahmad ota jasoratini madh etdi. Ayting-chi, yer yuzida qaysi millat ana shunday xislatga ega?

Hurmat qilgan izzat ko‘radi, deydilar. Yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari orasida o‘zbek xalqiga, uning tiliga, asriy urf-odat va

an'analariga ixlos bilan qarovchi insonlar koʻplab topiladi. Ular el ichra obroʻ-e'tibor, izzat-ikrom topayotgani, xizmatlari davlat miqyosida e'tirof etilayotgani yurtimizda millatlalaro siyosat oqilona, begʻaraz yuritilayotganiga yaqqol misoldir. Koreys millatiga mansub xonanda Zoya Soyning oʻzbekcha qoʻshiqni chiroyli ohangda kuylashi va "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist" faxriy unvoniga sazovor boʻlishi nafaqat koreys, balki oʻzbek xalqiga ham faxr-iftixor bagʻishlagan ijobiy voqea emasmi? Bunday misollarni istagancha keltirishimiz mumkin.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy gʻoyalaridan biri turli millatga, har xil ijtimoiy toifa, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yoʻlidagi hamjihatligi hisoblanadi. Qarashlar rang-barangligi, fikrlar xilma-xilligi, soʻz va fikr erkinligi jamiyatni sogʻlomlashtiruvchi, uni mustahkamlovchi oʻta muhim omil ekanligi oydinlashgan bir vaqtda ulugʻ bobokalonimiz Abu Nasr Forobiyning «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan boʻlsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan ta'kidini eslab oʻtish joiz (Ofarinov, 2020: 25).

Alloma Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashda zarar yetkazishi mumkin boʻlgan xavf-xatarning oldini olishga da'vat etmoqda. Men nima uchun buni misol keltirdim? Mamlakatimizda oʻzbek millatiga mansub fuqarolar qatorida boshqa millat vakillariga teppa-teng sharoit yaratilgani ularda ham yurtparvarlik, Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qilish tuygʻusini uygʻotmoqda, deb baralla ayta olamiz. Hamfikrlik, maslakdoshlik, bahamjihatlik hukm surgan yurtda esa tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik qaror topadi.

Millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlik oʻz-oʻzidan vujudga keladigan hodisa emas, balki u davlat tomonidan olib boriladigan milliy siyosat hosilasidir. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 15 noyabrda qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosati kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi farmoni ana shu siyosatni yanada kuchaytirish uchun zamin yaratadi. Farmonda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati keng koʻlamli va qamrovli ekanligi ta'kidlanib, buni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish davr talabidir. Zero, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash, rivojlantirish sohasida olib borilayotgan davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qoʻshimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratishimiz zarur.

O‘zbekiston ular uchun umumiy uy, Vatan yagonadir, Vatan bittadir. Ko‘p millatli Vatanning fuqarolari birlashsa, jipslashsa, bahamjihat bo‘lsagina, u taraqqiyot bosqichiga chiqadi. Teng huquq, teng sharoit va qonun ustuvorligi ta'minlangan davlat, shubhasiz dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘ladi. Bu ishlarni amalga oshirishda yoshlarni ko‘proq jalb etishimiz muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar haqida gap ketganda, davlatimiz rahbari 2017 yil 19 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortgan edi. Mazkur hujjat barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish, eng muhimi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgani bilan e'tiborga molikdir. BMT tomonidan e'tirof etilgan va qabul qilingan rezolyutsiyada yoshlar mavzusi ko‘proq qamrab olingan. Prezidentimiz yoshlarni so‘nggi yillarda kuchayib borayotgan diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlaridan himoya qilish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratish kerakligini ta'kidlab, BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqishni taklif qildi. Prezidentimiz mazkur rezolyutsiyaning ahamiyati haqida so‘zlab: “Bu hujjatning asosiy maqsadi — barchaning ta’lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan”, deya ta’kidladi.

XXI asrga kelib, jahon dinlaridan biri — islomga qiziqish tobora ortib bormoqda. Afsuski, bu qiziqish ortida islomni niqob qilib, o‘zining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishga urinayotgan kuchlar ham borki, ular nafaqat tinchlik va barqarorlikka, balki islom dini sofligiga ham katta tahdid solmoqda. Diniy ekstremistlarning yovuz maqsadlari, buzg‘unchi g‘oyalari bizni doimo hushyor va ogoh bo‘lishga chaqiradi. Mamlakatimizda muqaddas dinimizni soxtalashtirishga urinayotgan turli mutaassib kuchlarning yovuz harakatlariga qarshi kurashish, yoshlarni ekstremizm xataridan himoya qilish bo‘yicha qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy va boshqa ko‘plab allomalarimiz targ‘ib etgan islomiy qadriyatlar ma'naviy hayotimiz va din-diyonatimiz ko‘zgusi hisoblanadi. Ulug‘ allomalarimizning ma’naviy xazinasi yoshlarni ezgu ishlar bilan shug‘ullanishga, vatanparvar bo‘lishga, halol mehnat

qilishga, millati va dinidan qat'iy nazar, barchani hurmat qilishga undaydi.

Davlatimiz hech kimga e'tiborsiz qarayotgani yo‘q. Turli yot oqimlar ta'siriga berilib, qilgan ishidan pushaymon bo‘lgan 20 mingdan ziyod fuqarolar reabilitatsiya qilindi, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berilmoqda. Qilgan xatosini anglab yetgan va tuzalish yo‘liga kirgan shaxslarning oilasi bag‘riga, tinch hayotga qaytishiga imkoniyat yaratildi. O‘zbekiston rahbariyatining kechirimlilik va yuksak insonparvarlik siyosatining amaldagi in'ikosini Suriya va Iroqdan yurtimizga qaytarilgan fuqarolarimiz misolida ham anglab yetish mumkin. Besh bosqichda amalga oshirilgan “Mehr” operatsiyalari natijasida yuzlab ayollar hamda bolalar urush o‘choqlaridan tinchlik va farovonlik o‘lkasi bo‘lmish O‘zbekistonga qaytarildi.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 19 maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Bugun mazkur tuzilma yo‘nalishga oid yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat boshqaruvi organi sifatida o‘z faoliyatini izchil davom ettirmoqda. Qo‘mita O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillarining uchrashuv joyi, o‘ziga xos “Do‘stlik saroyiga” aylanib ulgurdi. Unga ajratib berilgan ko‘rkam binoda milliy xalq bayramlari, festivalь, kontsert, taniqli madaniyat arboblari bilan uchrashuvlar, seminar va konferentsiyalar muntazam ravishda o‘tkazilayotir. “Bizning kuchimiz — birlik va hamjihatlikda” kabi festivallar millatlararo do‘stlik rishtasini yanada mustahkamlash omiliga aylanayapti. Ayni paytda o‘zga millat vakillarining milliy bayramlarini keng miqyosda nishonlash an'anasi qaror topgan. Ruslarning “Maslenitsa”, bolgar xalqining “Martinitsa”, armanlarning gullar bayrami — “Vardavar”, polyaklarning hosil bayrami — “Dojinki”, koreyslarning “Chxusok”, tatar va boshqirdlarning “Sabantuy”, greklarning “Oxi” singari bayramlari barcha millat vakillari ishtirokida katta tantanaga aylanib ketadi. Milliy madaniy markazlarda har bir millat urf-odat va qadriyatlarini asrab-avaylash, targ‘ib qilish bilan birga, yoshlar o‘rtasida keng ko‘lamli tarbiyaviy ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Zero, insoniyat tarixida erishilgan barcha yutuqlarning tub mohiyatida ahillik va hamjihatlik, tinchlik va barqarorlik omillari yotadi.

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta'minlash, unda yoshlar ishtirokini kengaytirish O‘zbekistonning zamonaviy davlat sifatida rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda

2017-2021 yillarda – O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar va 2022-2026 yillarga mo‘jallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yil 19-sentyabr kuni bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida mamlakatimiz va xalqimiz hayotini tubdan yangilash, jamiyatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishga qaratilgan islohotlarni boshlaganimiz xususidagi ma’ruzamdan so‘ng bu haqda ko‘plab savollar bilan murojaat qila boshlashdi. Ularning orasida «Yangi O‘zbekiston» tushunchasi nimani anglatadi?» «Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?» «Jamiyatning yangi qiyofasi» deganda nimalar nazarda tutilmoqda?» kabi savollar alohida e’tiborni jalb qiladi» (Mirziyoyev, 2021: 8.). So‘nggi yetti yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 dan ziyod qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat’i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan. Prezidentimizning 2018 yil 16 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a’zoga — O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. E'tiborli jihati, kengash a’zoligiga a’zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi. Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O‘zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Millatlararo munosabatlardagi yangi tizimning shakllantirish jarayonida fuqorolarning ba’zi qatlamlari, ayniqsa yoshlar o‘rtasida shunday munosabatlarning to‘laqonli yuzaga chiqarish sifatida belgilab olingan. «Mubolag‘asiz aytish mumkin» - deya ta’kidlagan edi I. Karimov «bizningkelajagimiz mamlakatimizning kelajagi bizning o‘rnimizga kimlar kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog‘liq» (Karimov, 2000: 15). Davlatning butun diqqat-e’tibori mazkur muammoga qaratilganligi chunonchi yoshlarni tarbiyalashga yangi yondoshuvlar belgilab berilganligi va bu ishda avvalo ma’naviyatni qaror toptirish va mustahkamlashga urg‘u berilganligi yosh avlodga munosabat tubdan o‘zgarganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta'minlash borasidagi

faoliyatini yuqori baholamoqda va O‘zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 19 sentyabrь kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma'rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018 yil 12 dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018 yilda AQSh Davlat departamenti O‘zbekistonni diniy erkinlik borasida “alohida tashvish uyg‘otuvchi mamlakatlar” ro‘yxatidan chiqarganini ko‘rsatish mumkin. Darhaqiqat, «Yangi O‘zbekiston yangi saylovlar» shiori ostida 2019-yilda o‘tgan saylovlar natijasida saylangan xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatlarining 10 foizi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolarining 8 foizi, Qonunchilik palatasi deputatlarining 13 foizi qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, rus, koreys va boshqa millatlarga mansubligi O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari ro‘y berayotgan muhim siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi» (Toshev, 2022: 5).

E’tiborli jihati, 2020 yil 13 oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga — 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko‘p ovoz berilgan davlat O‘zbekiston bo‘ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bularning barchasi O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas'uliyatli sub'ekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida ijobiy va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu modelь turli millat va din vakillari o‘rtasidagi millatlararo va dinlararo

muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.

Shu ma'noda, so'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

Isxoqov, M. (2001). Avesto: Yasht kitobi. – Toshkent: Sharq, 153.

Аристотел. (1996). Никомахово этика. – М. : Наука, 678.

Платон. (1996). Диалог. – М. : Наука, 554.

Imom G'azzoliy. (2019). Tavba. – Toshkent: Fan, 278.

Ибн Сино. (1972). Данишнаме. – Душанбе: Илм, 289.

Mirziyoyev, Sh. M. (2021, iyul 29). O'zbekiston Respublikassi Prezidentining Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/6521.

Mirziyoyev, Sh. M. (2017, sentyabr 19). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/1063

Mirziyoyev, Sh. M. (2023, iyun 30). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/6451

Ofarinov, Q. (2022). Abu Nasr Forobiy - Sharqning ikkinchi muallimi. – T. : 25.

Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 8.

Karimov, I. A. (2000). O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T. : O'zbekiston, 15.

Toshev, A. V. (2022). O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik. – Toshkent: TASVIR, 5.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

Isxoqov, M. (2001). Avesto: Yasht kitobi. – Toshkent: Sharq, 153.

Aristotel. (1996). Nikomaxovo etika. – M. : Nauka, 678.

Platon. (1996). Dialog. – M. : Nauka, 554.

Imom G‘azzoliy. (2019). Tavba. – Toshkent: Fan, 278.

Ibn Sino. (1972). Danishname. – Dushanbe: Ilm, 289.

Mirziyoyev, Sh. M. (2021, iyul 29). O‘zbekiston Respublikassi Prezidentining Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/6521.

Mirziyoyev, Sh. M. (2017, sentyabr 19). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/1063

Mirziyoyev, Sh. M. (2023, iyun 30). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https. president. uz/oz/lists/view/6451

Ofarinov, Q. (2022). Abu Nasr Forobiy - Sharqning ikkinchi muallimi. – T. : 25.

EXTENDED ABSTRACT

INTERNATIONAL HARMONY AND INTER-RELIGIONAL SOLIDARITY

AN IMPORTANT FACTOR OF STATE POLICY REGARDING YOUTH

The years of independence in Uzbekistan gave a new spirit to this historical tradition, paying special attention to carefully preserving the values of different religions, creating the necessary conditions for all citizens to practice their faith, and further strengthening inter-religious and inter-ethnic harmony. focused, rich experience was gained in this direction, which can serve as an example for other countries. To develop a culture of tolerance and humanity, to strengthen inter-ethnic and inter-confessional harmony, civil harmony in society, to create equal rights and opportunities for all citizens regardless of their nationality and religious

belief, to teach the young generation patriotism, respect for national and universal values, love for the Motherland and education in the spirit of loyalty is defined as one of the important priorities of the state policy in Uzbekistan.

By the 21st century, interest in one of the world's religions, Islam, is increasing. Unfortunately, behind this interest, there are forces that are trying to implement their nefarious goals by masking Islam, which pose a great threat not only to peace and stability, but also to the purity of the Islamic religion. The evil goals and destructive ideas of religious extremists always call us to be vigilant and alert. In our country, a number of good things are being done to fight against the evil actions of various bigoted forces trying to falsify our holy religion, and to protect young people from the danger of extremism. The Islamic values promoted by Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmizi, Khwaja Bahavuddin Naqshband, Burkhaniddin Marginani and many other scholars are a reflection of our spiritual life and religion. The spiritual treasure of our great scholars encourages young people to do good deeds, to be patriotic, to work honestly, and to respect everyone, regardless of their nationality and religion.

Our state does not ignore anyone. More than 20, 000 citizens who were influenced by various foreign currents and regretted their actions were rehabilitated, they are being provided with social support and help to find their place in life. People who have realized their mistakes and are on the road to recovery have been given the opportunity to return to their families and lead a peaceful life. The practical perception of the policy of forgiveness and high humanitarianism of the leadership of Uzbekistan can be understood by the example of our citizens who were returned to our country from Syria and Iraq. As a result of "Mehr" operations carried out in five stages, hundreds of women and children were returned from war zones to Uzbekistan, a land of peace and prosperity.

Uzbekistan, like many other countries in the world, is a multi-ethnic country, and establishing relations with other nationalities is one of the urgent tasks of our country today. In the early days of independence, the mistakes and prejudices committed during the period of the former regime in the inter-ethnic relations were eliminated over time. Therefore, public organizations and national cultural centers are operating in Uzbekistan, which serve to satisfy the national cultural needs of representatives of certain nationalities living in this country.

Inter-national and inter-confessional solidarity is not a phenomenon that arises by itself, but it is a product of the national policy carried out by

the state. The decree of the head of our state "On approval of the concept of the state policy of the Republic of Uzbekistan in the field of inter-ethnic relations" adopted on November 15, 2019 lays the groundwork for further strengthening this policy. In the decree, it is emphasized that the state policy aimed at the further development of inter-ethnic relations and friendly relations with foreign countries is wide-ranging and comprehensive, and the improvement of the mechanisms for its implementation is the demand of the time. After all, it is necessary to create additional socio-economic conditions for the effective implementation of the state policy in the field of preservation and development of the language, culture, traditions and customs of representatives of different nationalities and peoples living in our republic.

Uzbekistan is a common home for them, the Motherland is one, the Motherland is one. It will reach the stage of development only if the citizens of the multi-ethnic Motherland unite, stick together, and cooperate. A country with equal rights, equal conditions and the rule of law will undoubtedly have its place and influence in the world community. It is important that we involve more young people in the implementation of these works.

The fact that our country is increasingly deeply integrated into the world community, the aspiration of our people to take a place among the developed nations of the world, requires the development of spiritual factors along with material and economic factors, high technologies. But the development of both groups of factors depends on the growth of human thinking and the strengthening of creative potential. In the process of the deepening of fundamental reforms, some backward concepts from the past in the social consciousness, the vices of administrative command, the slow disappearance of conservative sentiments, or the lack of critical knowledge regarding false views increase the urgency of the issue of freedom of thought.

Key words: nations, tolerance, youth, peace, solidarity, tolerance, harmony, confessions, neighborhood.

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA FEDERATSIYASI O‘RTASIDAGI MIGRATSIYA MUNOSABATLARI TENDENSIYASI

Katta o’qituvchi E. E. Baynazarov

Annotatsiya

Globallashuv davrida butun dunyoda aholi migratsiyasi masalasi dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, so‘nggi 5 yillikda Jahondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi keskin o‘zgarishlar migratsiya munosabatlariga katta e’tibor qaratishga chorlamoqda.

Milliy iqtisodiyotimizning strategik hamkori bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi bilan migratsiya munosabatlari geografik, tarixiy, til va ishlab chiqarish omillari natijasida chuqurlashib keldi. Xususan, COVID-19 sharoitida mehnat migratsiyasidagi salbiy oqibatlar, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

O‘zbekistonda tashqi migratsiya geografik tarkibida Rossiya Federatsiyasi salmoqli o‘rinni egallab, yetakchilikni o‘zida saqlab kelmoqda. Tashqi migratsiyaning turlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, mavsumiy mehnat migratsiyasining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi roli yuqori. Biroq, O‘zbekistonda mehnat migrantlariga yaratilgan shart-sharoitlar qoniqarli darajada emas.

Rossiya Federatsiyasi rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra yiliga 5-6 mln. dan ortiq kishi, mehnat emigrantlari MDH davlatlaridan kirib kelgan va COVID-19 sharoitida transchegaraviy harakatlarda ushbu ko‘rsatkich keskin kamayib ketgan. Shu munosabat bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritdi, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tashkiliy choralar ko‘rildi. O‘zbek migrantlariga Rossiya Federatsiyasida mehnat qilishi uchun qanday muammolar mavjud? Ushbu maqolada nolegal mehnat migratsiyasining yuzaga kelish sabablari va uni bartaraf etish choralari nimalardan iboratligi haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: migratsiya, mehnat munosabatlari, migratsiya infratuzilmasi, yashirin iqtisodiyot, mehnat kodeksi

THE TREND OF MIGRATION RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND RUSSIAN FEDERATION

Senior teacher Baynazarov E. E.

ALFRAGANUS university

ORC-ID: 0000-0002-5237-0316

Abstract

In term of globalization, the population migration considers as an actual issue over the world. Especially in the last 5 years, dramatic changes in the political, socio-economic spheres in the world are required to pay attention at migration relations.

Migration relations with the Russian Federation, a strategic partner of our national economy, have deepened under the influence of geographical, historical, linguistic and production factors. In particular, improving mechanisms of government regulation in the field is of the essence towards the negative consequences of labor migration in the period of COVID-19.

The Russian Federation share is a great in the geographical structure of Uzbekistan's external migration and retains its leadership. Analyzing the types of external migration, it can be noted that the role of seasonal labor migration in the economy of Uzbekistan is high. However, the created conditions for labor migrants in Uzbekistan are not satisfactorily.

According to official data of the Russian Federation, more than 5-6 million people, labor emigrants arrived from the CIS countries per year, and in the period of COVID-19, this figure has sharply decreased in cross-border movements. Regardingly, the Russian Federation government has changed the number of regulatory documents and taken organizational measures to improve working conditions. What kind of problems have for working in the Russian Federation to uzbek migrants? In the paper are described causes of illegal labor migration and its agenda.

Key words: migration, labor relations, migration infrastructure, underground economy, labor code

Kirish

Globallashuv davrida butun dunyoda aholi migratsiyasi masalasi dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, so‘nggi 5 yillikda Jahondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi keskin o‘zgarishlar migratsiya munosabatlariga katta e’tibor qaratishga chorlamoqda.

Ushbu maqolada so‘nggi yilarda tashqi migratsiya harakati bo‘yicha milliy va xalqaro manbalardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, O‘zbekistondagi migratsiya dinamikasi bo‘yicha eng dolzarb masalalarni yoritishga qaratilgan. COVID-19 pandemiyasi va uning safar qilishga nisbatan kiritilgan cheklovlari va jiddiy chegara nazorati tufayli yuzaga kelgan harakatchanlikka ta’siri; Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va natijada butun mintaqadagi gumanitar inqiroz; O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasining bu sohadagi imzolagan maxsus ikki tomonlama mehnat shartnomalari; va iqlim o‘zgarishi inson harakatchanligining turtki omili sifatida kabilar shular jumlasidandir.

Milliy iqtisodiyotimizning strategik hamkori bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi bilan migratsiya munosabatlari geografik, tarixiy, til va ishlab chiqarish omillari natijasida chuqurlashib keldi. Xususan, COVID-19 sharoitida mehnat migratsiyasidagi salbiy oqibatlar, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Adabiyotlar sharhi.

Migratsiya mavzusi zamonaviy dunyoning eng dolzarb mavzularidan biridir. Har kuni ko'p sonli odamlar bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tadi. Shunday qilib, Rossiya iqtisodiyot universiteti tadqiqotchilariga ko'ra. 2019 yil holatiga ko'ra, Rossiyada 12 million migrant bor bo’lgan. Rossiya Federatsiyasi muhojirlar soni bo'yicha dunyoda 4-o'rinni egallaydi. Reytingda 1-o‘rinda 50 milliondan ortiq muhojir bo‘lgan AQSh, 2-o‘rinda muhojirlar soni 12 million kishidan ortiq bo‘lgan Saudiya Arabistoni, 3-o‘rinda Buyuk Britaniya va Buyuk Britaniya joylashgan. BAA, 8 milliondan kam muhojir[62]. COVID-19 koronavirus pandemiyasi davrida Rossiya Federatsiyasida xalqaro migratsiya aylanmasi kamaydi.

Mehnat migratsiyasi – bu mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida doimiy yashayotgan odamlarning bir hududdan ikkinchi hududga (mamlakatga) qonuniy asoslarda ixtiyoriy ravishda ko’chib

[62] International Migration 2019 [Electronic resource] // United Nations Department of Economic and Social Affairs. – URL: https://www. un. org/en/development/desa/population/migration/publications/migrationreport/docs/MigrationReport2019_Highlights. pdf

o’tishidir. Tashqi mehnat migratsiyasining sub’yektlari bo’lib fuqaroligi bo’lmagan davlatda mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo’lgan va amalga oshirayotgan shaxslar hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiyasi xorijlik ishchilarni ishga jalb qilish va o’z fuqarolarini boshqa mamlakatlarga jo’natish bilan bog’liqdir. Xalqaro mehnat tashkilotining baholariga ko’ra, har yili ish qidirib 20 mln. ga yaqin qonuniy migrantlar dunyo bo’yicha ko’chib yuradi va ushbu jarayonda 100 dan ortiq mamlakat ishtirok etadi[Abdurahmonov Q. X. , 2012:170]. Demak, migratsiya kategoriyasini tushunishni "mobillik", "hududiy mobillik", "ijtimoiy mobillik" atamalarining ta'riflaridan boshlash kerak.

Sotsiologik adabiyotlarda "mobillik" tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Mobillik - bu pozitsiyani va holatni tezda o'zgartirish qobiliyati. Pitirim Sorokin bu atamani tor ma’noda va keng ma’noda talqin qilishni taklif qildi. Tor ma'noda mobillik - bu ijtimoiy guruhlar yoki shaxslarning harakatchanligi, keng ma'noda esa mobillik - har qanday ob'ektlarning harakatchanligi[P. Sorokin, 1992]. Sorokin tomonidan taklif qilingan g'oyani ishlab chiqishda, mahalliy mualliflar mobillikni butun guruh yoki shaxsning siyosiy, iqtisodiy va professional kabi kichik makonlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy makondagi o'rnini o'zgartirish jarayoni sifatida tushundilar. Shuningdek, mobillik aholining yashash joyini, ijtimoiy mavqeini va kasbiy mansubligini o‘zgartirish qobiliyati va istagini ifodalashi qayd etilgan. Bundan kelib chiqadiki, "mobillik" atamasi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: "ijtimoiy mobillik", "tarkibiy mobillik", "hududiy mobillik" va "migratsiya harakatchanligi".

Rybakovskiy Leonid Leonidovich uch bosqichli migratsiya jarayoni nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, migratsiya jarayoni 3 bosqichni o'z ichiga oladi: 1-bosqich - tayyorgarlik yoki boshlang'ich bosqich. U aholining hududiy harakatchanligini shakllantirish jarayonini ifodalaydi. 2-bosqich - bu migratsiya va aholini ko'chirish jarayoni sodir bo'ladigan asosiy bosqich. 3-bosqich - yakuniy bosqich. Ushbu bosqichda migrantlar yangi yashash joyiga moslashadi. Rybakovskiy, shuningdek, ma'lum belgilarga asoslangan migratsiya tipologiyasini aniqladi. 1 tipologiya - geografik belgilarga asoslangan tipologiya. 2-tipologiya jinsi, etnik kelib chiqishi va yoshiga asoslangan tipologiyadir. Migratsiyaning 3 tipologiyasi yashash muddatiga asoslanadi. 4-tipologiya - migratsiya maqsadlariga asoslangan tipologiya. Bu tipologiya tijorat, mehnat va ta'lim migratsiyasiga bo'linadi.

E. S. Krasinets va T. V. Shevtsova koronavirus pandemiyasining Rossiyadagi xalqaro mehnat migratsiyasiga ta'siri oqibatlarini tahlil qildi [E. S. Krasinets, 2021]. Sotsiologik so‘rov ma’lumotlari asosida COVID-19 pandemiyasining xorijiy ishchilarni jalb qilish jarayonlariga ta’siri

ko‘rsatilgan. Koronavirus oqibatlarini bartaraf etish doirasida mehnat immigratsiyasini tartibga solishga ham e’tibor qaratilmoqda, deb ta’kidlaydi.

R. I. Akyulov, noqonuniy migratsiya tipologiyasini taqdim etdi, uning mezoni uning mintaqaviy mehnat bozoriga ta'sir qilish xususiyatidir. Noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq salbiy jihatlar ko‘p jihatdan migratsiya qonunchiligining nomukammalligi va migratsiya jarayonlarini tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korruptsion huquqbuzarliklar oqibatidir. Noqonuniy migratsiya yashirin iqtisodiyotning asosiy manbalaridan biridir. Noqonuniy migratsiyaning asosiy sabablari davlat organlaridagi korruptsiya va Rossiyada qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elliklar uchun hujjatlarni olishning nisbatan yuqori narxidir[R. I. Akyulov, 2022].

M. G. Xoxlova ta’kidlashicha, 90-yillarda Rossiyaga MDH davlatlaridan asosan past malakali ishchilar ish izlab, qurilish, savdo, transport va hokazolarda ish topish uchun kelgan. Internetning ommaviylashishi ularning sonining ko‘payishiga olib kelgan. immigrant dasturchilar va murakkab texnologiyalar sohasidagi boshqa mutaxassislar. 2021-yilda MDH davlatlarining IT-ishlab chiquvchilari tomonidan Rossiyada ishlash bo‘yicha so‘rovlar soni oshdi[M. G. Xoxlova, 2021].

Bundan tashqari, V. I. Mukomel Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistondan kelgan yuqori malakali mehnat muhojirlarining Rossiyada ish bilan ta’minlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi[V. I. Mukomel, 2021].

Metodologiya

Ushbu maqolani yozish adabiyotlarni ko‘rib chiqish va tegishli ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Statistik ma’lumotlarni to‘plandi, ularga ishlov berdildi hamda bevosita muallifning 2021-2023 yillar davomida amaliy kuzatuvlari va so’rovlari natijasida olingan ma’lumotlar tahlili ishlab chiqildi. Amaliy kuzatuvlar asosan, Moskva shahri va Moskva viloyatida faoliyat yurituvchi xo’jalik sub’ektlarida mehnat migrantlari bilan bog’liq vaziyatni o’rganishga qaratilgan.

Tadqiqotda bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, ijtimoiy so’rov, qiyosiy tahlil usullaridan, shuningdek, tarixiylik, o’zaro aloqadorlik, tizimlilik tamoyillaridan foydalanilgan.

Natijalar

Xalqaro Mehnat Tashkilotining tasnifi bo'yicha mehnat migratsiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

– shartnoma asosida ishlovchilar. Bu holda migrantlarni qabul qiluvchi davlat tomonidan ularning mazkur mamlakatda bo'lish muddatlari aniq belgilab qo'yiladi. Migratsiyaning mazkur turi asosan ish kuchini mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish) ishlarga jalb qilish bilan bog'liqdir;

– malakali kadrlar migratsiyasi. Migratsiyaning bu turiga yuqori malakali mutaxassislar yoki ishchilarni imtiyozli tartibda (yuqori ish haqi, boshqa imtiyozlar hisobiga) ishga taklif qilinishi misol bo'la oladi;

– noqonuniy migratsiya. Bu noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdir;

– qochoqlar. Migratsiyaning bu toifasiga hayoti xavf ostida qolishi oqibatida boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lganlar kiradi;

– ko'chmanchilar. Ular doimiy yashash uchun boshqa joyga ko'chib borganlardir.

Mehnat migratsiyasi aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishining shakli sifatida, ba'zan aholini ayrim qismining farovonligini oshirishning yagona imkoniyati sifatida yuzaga chiqadi. Unga turli kasb, ijtimoiy maqom, jins, yosh va ta'lim darajasiga ega odamlar tortilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi 505-son qaroriga muvofiq mamlakat fuqarolarining xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish tamoyillari belgilab berilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakat qonun hujjatlariga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnoma va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega. Xususiy mehnat shartnomalari bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarda ishlash uchun faqat O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha chiqish mumkin.



1-grafik. O‘zbekistondan ketgan emigrantlar soni va o‘sish sur’ati, 2018-2022-yillar (ming)[63]



2-grafik. O‘zbekistondan ketgan migrantlar oqimi va o‘sish sur’ati, 2018-2022-yillar (ming)

O‘zStat ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda Respublikasi fuqarolarining boshqa mamlakatlarga ko‘chib o‘tganlari soni 880 ming nafarni tashkil etgan. Manbaga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistondan xorijga chiqib ketganlar soni 2018-yilga (1, 76 million) nisbatan ikki barobarga (880 ming) kamaygan. 2022-yilda emigratsiyaning gender tarkibi deyarli teng bo‘ldi: 53 foizi ayollar, 47 foizi erkaklar (O‘zStat, 2023). O‘zbekistonlik migrantlar uchun, ular boradigan barcha mamlakatlar to‘g'risidagi ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari soni o‘zgarishining bir qancha omillari quyidagilardan iborat[64]:

– birinchidan, migrantlarning asl mamlakatlaridagi umumiy iqtisodiy vaziyat va Rossiya Federatsiyasidagi ish beruvchilarning ehtiyojlari;

[63] www. stat. uz – O’zStat, 2023

[64] Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi migratsiya yo‘lagida mehnat migratsiyasi dinamikasini o‘rganish https://russia. iom. int/sites/g/files/tmzbdl1036/files/documents/report_ryazantsev_consolidated_2021_en. pdf

– ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasiga kirish tartibi, ro‘yxatdan o‘tish tartiblari va Rossiya mehnat bozoriga kirish;

– uchinchidan, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotidagi yashirin iqtisodiyotning ulushidagi o’zgarishlar;

– to’rtinchidan, rublning qadrsizlanishi ortidan(deyarli 2 baravarga) migrantlar real daromadining kamayib ketishi;

– beshinchidan, mehnat bozoridagi vaziyatni tartibga solish maqsadida Rossiya hukumati tomonidan migrantlarni ishga joylashtirishga nisbatan kiritilgan cheklovlar (“to‘siqlar”) (iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlik kvotalari, patent narxi).

Ko‘pincha bu va boshqa omillarning yig‘indisi migrantlarning tartibga solingan va tartibga solinmagan migratsiya maqomi o‘rtasida harakatlanishiga olib keladi. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya masalalari bosh boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida ro‘yxatga olingan migrantlar va mehnat migrantlari soni COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar tufayli qariyb ikki barobarga kamaygan[65]. Rossiya Federatsiyasi koronavirus tarqalishining oldini olish maqsadida 2020-yil 20-martdan boshlab rejali havo qatnovlarini to‘xtatganligi sababli, davlatlar o‘rtasida faqat charter (birinchi navbatda, chiqish) reyslar amalga oshirilgan bo‘lib, pandemiya davrida ko‘plab mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasini tark eta olmadi[66]. Rossiya hukumati xorijiy fuqarolarning COVID-19 pandemiyasi davrida mamlakat hududida bo‘lish imkoniyatini bir necha bor uzaytirdi, jumladan 2020-yilning 15-iyuniga qadar, 2020-yilning 25-dekabriga qadar, 2021-yilning 15-iyuniga qadar va so‘nggi bor 2021-yilning 30-sentabriga qadar uzaytirildi. Tabiiyki, bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga mehnat migrantlarining oqimi keskin kamaydi. Faqat 2021-yil 1-apreldan boshlab O‘zbekiston fuqarolari uchun chegaralar ochildi[67].

O‘zStat ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda o‘zbekistonlik migrantlar oqimi 221 ming nafarga teng bo‘lgan: jami emigrant oqimining 60 foizini (132, 8 ming nafar) ayollar, 40 foizini (88, 5 ming nafar) erkaklar tashkil

[65] Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi. Migratsiya statistikasi. URL: www. mvd. ru

[66] Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari. Noqonuniy migrantlar O‘zbekistonga qaytadilarmi? // DW News. 24-aprel 2021-yil. URL: https:// www. dw. com/ru/trudovye-migranty-v-rossii-vernutsja-li-nelegaly-vuzbekistan/a-57316327

[67] № 814-r qarori. Rossiya Federatsiyasi hukumatining 2021-yil 31 martdagi qarori. URL: http://www. consultant. ru/document/cons_doc_LAW_381297/0000000000000000000000000000000000000000/#dst100007

etgan. O‘zbek migrantlarining asosiy qismi shaharlardan 66 foiz (145, 8 ming), qolgan 34 foizi qishloq joylardan (75, 5 ming) bo‘lgan (O‘zStat, 2023).

1-Jadval. O’zbekiston hududlari bo’yicha ko’chib ketganlar soni, *yil/kishi*

Hududlar	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**
O’zbekiston Respublikasi	**174 832**	**169 547**	**203 629**	**275 079**	**221 319**
Qoraqalpog’iston Respublikasi	14 861	14 110	12 517	18 588	13 270
Andijon	8 460	9 731	10 684	9 796	8 471
Buxoro	8766	9 265	13 209	10 991	9 344
Jizzax	11 878	11 567	11 224	11 484	8 498
Qashqadaryo	15 235	17 466	30 869	20 726	16 427
Navoiy	14 110	11 368	10 569	11 026	9 239
Namangan	5 520	6 385	8 170	5 953	4 916
Samarqand	15 774	13 809	17 785	17 636	14 399
Surxondaryo	13 824	13 283	19 518	17 699	14 007
Sirdaryo	9 125	9 471	9 526	10 117	7 907
Toshkent	24 909	23 250	26 518	40 333	32 349
Farg’ona	14 678	14 482	16 243	14 868	11 596
Xorazm	7 452	7 574	10 467	12 202	8 231
Toshkent sh.	10 240	7 786	6 330	73 660	62 665

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi mamlakatda ish kuchining tashqi migratsiyasini tartibga solish va boshqarish bo’yicha vakolatli davlat tuzilmasi hisoblanib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– mehnat migratsiyasi sohasidagi xalqaro hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda va xorij fuqarolarini O'zbekiston Respublikasida ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish va ruxsatnomalar berish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilish;

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini ro'yobga chiqarishda ishga joylashtirish, xorijda ishga joylashtirishga nomzodlar bilan dastlabki ko'nikuv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan ularga ko'maklashish;

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijlardagi va xorijlik fuqarolarning O'zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

– fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi mintaqaviy byurolar, shuningdek, xorijga ketayotgan fuqarolarni oldindan ko'niktirish va o'qitish markazi faoliyatini muvofiqlashtirish;

– xorijiy ish kuchlarini yollovchi xorij firmalari (korxonalar, muassasalar, kompaniyalar) bilan hamkorlikni rivojlantirish;

– O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorij mamlakatlariga jo'natish uchun nomzodlarini tanlab olish bo'yicha Idoralararo komissiyaning qaroriga muvofiq ruxsatnomalar berish yoki mavjud ruxsatnomalarning amal qilish muddatini uzaytirish;

– yuridik shaxslarga xorijiy ish kuchlarini jalb etish uchun ruxsatnomalar berish yoki mavjud ruxsatnomalar amal qilish muddatini uzaytirish.

Shu bilan bir qatorda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha agentlik mamlakat fuqarolarining xorijda ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish masalalarini hal etadi. Bu to'g'risida tegishli mamlakatlar migratsiya xizmatlari bilan shartnoma va bitimlar tuzadi hamda ular bajarilishini muvofiqlashtirib boradi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari takliflariga muvofiq tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tahlil etadi, aholi mehnat migratsiyasini rivojlantirishning uzoq muddatli va o'rta muddatli prognozlarini hisobga olgan holda xorijiy fuqarolarga mamlakat hududida mehnat faoliyatiga tasdiqnomalar beradi. Shuningdek, agentlik Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

hududiy organlari bilan birgalikda xorijga yuborilgan fuqarolar mamlakatga qaytganlaridan keyin ishga joylashtirilishini tashkil etadi. Shu bilan birga, u xorijiy mamlakatlarining mehnat bozorini o'rganadi, chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirishni xohlovchi fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

O'zbekistondan ketgan migrantlar uchun beshta asosiy mamlakat Rossiya Federatsiyasi (1, 1 million), keyingi o'rinlarda Qozog'iston (296 ming), Ukraina (223 ming), Turkmaniston (67 ming) va Amerika Qo'shma Shtatlari (63 ming) bo'ldi (BMT DESA, 2021)[68]. O'zbekistonda tashqi migratsiya geografik tarkibida Rossiya Federatsiyasi salmoqli o'rinni egallab, yetakchilikni o'zida saqlab kelmoqda. Tashqi migratsiyaning turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, mavsumiy mehnat migratsiyasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi roli yuqori. Biroq, O'zbekistonda mehnat migrantlariga yaratilgan shart-sharoitlar qoniqarli darajada emas.

Rossiya Federatsiyasi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra yiliga 5-6 mln. dan ortiq kishi, mehnat emigrantlari MDH davlatlaridan kirib kelgan va COVID-19 sharoitida transchegaraviy harakatlarda ushbu ko'rsatkich keskin kamayib ketgan. Shu munosabat bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritdi, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tashkiliy choralar ko'rildi. O'zbek migrantlariga Rossiya Federatsiyasida mehnat qilishi uchun qanday muammolar mavjud? Ushbu maqolada nolegal mehnat migratsiyasining yuzaga kelish sabablari va uni bartaraf etish choralari nimalardan iboratligi haqidagi masalalar yoritilgan.



"Rossiya Federatsiyasidagi xorijiy fuqarolarning huquqiy holati to'g'risida" Federal qonunga muvofiq Rossiya Federatsiyasi Rossiya Federatsiyasi hududida quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiruvchi

[68] United Nations, Department of Economic and Social Affairs. https://www. un. org/en/desa/highlights-report-2021-2022

tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan jalb qilingan xorijiy ishchilarning ruxsat etilgan ulushi belgilangan:

a) sabzavot etishtirish - ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan ishchilar umumiy sonining 50 foizi miqdorida;

b) o'rmon xo'jaligi va daraxt kesish - ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan xodimlar umumiy sonining 50 foizi miqdorida;

g) ixtisoslashtirilgan do'konlarda alkogolli ichimliklar, shu jumladan pivoning chakana savdosi - ushbu tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan xodimlarning umumiy sonining 15 foizi miqdorida;

d) qurilish - ko'rsatilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda band bo'lgan ishchilar umumiy sonining 80 foizi miqdorida;

v) yog'ochni qayta ishlash va yog'och va tiqin buyumlarini ishlab chiqarish, mebeldan tashqari, somon mahsulotlari va to'quv materiallari ishlab chiqarish - ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda band bo'lgan xodimlar umumiy sonining 50 foizi miqdorida;

e) yog'och xomashyosi va qayta ishlanmagan yog'ochning ulgurji savdosi - ushbu tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan xodimlarning umumiy sonining 50 foizi miqdorida;

f) yog'och materiallarining ulgurji savdosi - ushbu tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan xodimlar umumiy sonining 50 foizi miqdorida;

z) ixtisoslashtirilgan do'konlarda tamaki mahsulotlarining chakana savdosi - ushbu tadbirkorlik sub'ektlarida ish bilan band bo'lgan xodimlar umumiy sonining 15 foizi miqdorida;

i) ixtisoslashtirilgan do‘konlarda (dorixonalarda) dori vositalarining chakana savdosi - ushbu tadbirkorlik sub’ektlarida band bo‘lgan xodimlar umumiy sonining 0 foizi miqdorida;

j) statsionar bo‘lmagan chakana savdo ob’ektlari va bozorlardagi chakana savdo– ushbu tadbirkorlik sub’ektlarida band bo‘lgan xodimlar umumiy sonining 0 foizi miqdorida;

k) do'konlar, chodirlar, bozorlar tashqarisidagi boshqa chakana savdo - ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan xodimlar umumiy sonining 0 foizi miqdorida;

l) boshqa quruqlikdagi yo‘lovchi tashish transporti faoliyati— mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektlar foydalanadigan xodimlar umumiy sonining 24 foizi miqdorida;

m) avtomobil yuk tashish faoliyati - ushbu tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalaniladigan xodimlar umumiy sonining 24 foizi miqdorida;

n) ko'chmas mulkni haq evaziga yoki shartnoma asosida boshqarish - ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan xodimlarning umumiy sonining 70 foizi miqdorida;

o) binolar va hududlarni saqlash bo'yicha faoliyat - ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalaniladigan xodimlar umumiy sonining 70 foizi miqdorida;

p) sport sohasidagi boshqa faoliyat turlari - ko'rsatilgan tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan xodimlarning umumiy sonining 25 foizi miqdorida.

Yuqoridagi faoliyat turlari umumiy tarzda qabul qilingan bo'lsada, hududiy pereferensiyalarni ham nazardan qochirilmagan. Masalan, Moskva viloyati va shahri uchun "d" bandda keltirilgan, ya'ni qurilish sohasidagi cheklovga amal qilinmaydi. Umuman qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik sub'yektlari xorijiy mehnat migrantlarini yollash bo'yicha barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari shart.

2021-2023 yillar davomidagi Moskva viloyati va Moskva shahridagi olib borilgan amaliy kuzatuvlar asosida ma'lum bo'ldiki, mehnat migrantlari quyidagi muammolarga duch kelishadi:

1. Migrantlar katta ulushining til bilmasligi va zamonaviy information texnologiyalardan foydalana olmasligi tufayli ish va boshpana toppish imkoniyati cheklanganligi.

Albatta, bevosita ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzish talab etilsada ko'pgina hollarda o'rtadagi vositachi rekrutlik firmalari orqali ishlashga to'g'ri keladi. Bu esa, o'z navbatida yashirin bandlilikka, nolegal va norasmiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Misol uchun, "Globus" gipermarketlar tarmog'i "Fasiliti" rekrutlik firmasi orqali ishchilarni yollaydi. Bu o'z navbatida uning uchun bir qancha qulayliklarga ega. Birinchidan, deyarli 2 barobardan ko'proq arzonga tushadi va hech qanday ijtimoy to'lovlarga harajat sarflamaydi; ikkinchidan, boshqaruv bo'yicha masuli'yatning kamayishiga imkon beradi. Ayni paytda "Fasility" firmasi arzon ishchi kuchiga ega bo'lish maqsadida hujjatlarni qalbakilashtiradi, norasmiy bandlikni yuzaga keltiradi.

Migrantlar uchun xostllarning nisbatan kamligi va yashash sharoitlarining talabga javob bermasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Masalan, 1 kishi kamida oyiga 6000-10000 rubl atrofida

xostl uchun xarajat qiladi. Xostllarning yagona qulayligi ro'yxatdan o'tganlik (propiska) hujjatining taqdim etishidir. Ijaraga xonadon olish migrantlar uchun Moskva viloyatida oyiga o'rtacha 20-40 ming rublga va Moskva shahrida esa 40-70 ming rublga tushadi, agar bevosita mulkdordan ijaraga olinsa. Aksincha, maklerlar orqali qimmatroq va qo'shimcha talablar asosida ijaraga olish mumkin.

2. Ishlash uchun ruxsatnoma va patentga ega bo'lishdagi to'siqlar. Birinchidan, patentni rasmiylashtirishning qimmatligi o'rtacha kishiga 30 ming rubl sarflanadi; ikkinchidan, uni rasmiylashtirish muddatining 20-30 kun talab etilishi.

3. Migrantlarning huquqiy bilim saviyasining pastligi. So'rovlar natijasida shuni ko'rsatadiki, mustaqil ravishda ishlash maqsadida kelgan migrantlarning deyarli barchasi ish haqini olaolmasligi va qalloblar qo'liga tushib qolishi mumkinligi aniqlandi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun munisipal davlat xizmatlari, hududiy mehnat inspeksiyasi va boshqa davlat boshqaruv organlari xizmatlaridan foydalanish darajasi juda kam.

Yuqoridagi keltirilgan to'siq va murakkabliklar sohada yashirin, nolegal holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Rossiya Federatsiyasi rasmiy ma'lumotlariga asosan mamlakatda MDH mamlakatlaridan nolegal mehnat faoliyati rasmiy bandlikka qaraganda 2 barobar ko'pni tashkil etadi. Afsuski, bu yashirin faoliyatlarning darajasi va ko'lami sezilarli darajada. Shuning uchun ham avvalambor, bunday holatlarni oldini olish va ularni bartaraf qilish uchun ikka tomonlama davlat tartiblash mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Xulosa

COVID-19 sharoiti ta'sirida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston o'rtasida mehnat migratsiyasi bo'yicha hukumatlaro kelishuvlar yo'lga qo'yilgan va ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Mehnat migratsiyasini yanada rivojlantirish ikki tomon uchun ham o'zaro manfaatli hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida mehnat bozorida talab yuqoriligi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda va davlat budjetiga qo'shimcha daromadni shakllantirishda migrantlardan unumli foydalanish imkonini beradi. O'zbekiston uchun esa xalqaro pul o'tkazmalaridan valyuta oqimi oshishi, malakali ishchi kuchining shakllanishi, bandlik oshishi hamda kishilar hayot faravonligining ta'minlashiga erishiladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi mehnat migratsiyasi bo'yicha o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun quyidagilarni amalga oshirish, maqsadga muvofiq bo'ladi:

– O’zbekistonda migratsiya bo’yicha xususiy firmalar faoliyatini rasmiylashtirish va kengaytirish orqali nolegal foaliyatlarni kamaytirish;

– Mehnat migratsiyasi masalalri bo’yicha axborot ta’minotini takomillashtirish orqali migrantlar huquqiy saviyasini oshirishga erishish;

– Rossiya Federatsiyasi qo’llab-quvvatlovi asosida nolegal vositachi rekrutlik firmalari va agentlari faoliyatini tartibga solish bo’yicha qonunchilikni kuchaytirish va mexanizmlarni joriy etish.

Tashqi migratsiya munosabatlarining rivojlanishi ikkala mamlakatning o’zaro manfaatli va strategik hamkorligini mustahkamlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro’yxati

Федеральный закон РФ «О правовом положении иностранных граждан в Российской Федерации», № 115-ФЗ от 25 июля 2002 года.

Постановление Правительство РФ «Об установлении на 2022 год допустимой доли иностранных работников, используемых хозяйствующими субъектами, осуществляющими на территории Российской Федерации отдельные виды экономической деятельности», № 1706 от 7 октября 2021 г.

Abdurahmonov Q. X. , Abduramanov X. X. , Demografiya. O’quv qo’llanma. T. : 2012. 314 b.

Акьюлов Р. И. , Акьюлова Е. И. Влияние нелегальной миграции на региональные рынки труда в России // ДЕМИС. Демографические исследования. 2022. Т. 2. № 2. С. 148–161.

Красинец Е. С. Международная трудовая миграция в развитии современной России // Народонаселение, 2022. Т. 25. № 2. С. 104–115.

Красинец Е. С. , Шевцова Т. В. О последствиях пандемии COVID-19 для трудовой миграции в Россию // III Всероссийский демографический форум с международным участием. Материалы форума. М. , 2021. С. 234–237.

Мукомель В. И. Высококвалифицированные мигранты из государств Средней Азии в России // Социологическая наука и социальная практика. 2021. Т. 9. № 4. С. 186–204.

Хохлова М. Г. Трудовая миграция в СНГ и российский рынок труда // Россия и новые государства Евразии. 2021. № 4 (53). С. 221–227.

Сорокин П. А. Человек, цивилизация, общество / П. А. Сорокин. – М: Издательство политической литературы, 1992. – 393 с.

Ryazantsev, S. , Sadvokasova, A. and Jeenbaeva J. 2021 Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasi dinamikasini o‘rganish – Rossiya Federatsiyasining migratsiya yo‘lagi – Umumlashtirilgan hisobot. Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot, Moskva.

https://dtm. iom. int/sites/g/files/tmzbdl1461/files/reports/Compilation%20Report%201%20v2%2020230929%20UZB. pdf?iframe=true

https://stat. uz/images/uploads/reliz2021/demografiya_mart_uz_25_04_22. pdf

www. mineconomy. gov. uz/uz/info/4324

www. stat. uz

EXTENDED ABSTRACT

In term of globalization, the population migration considers as an actual issue over the world. Especially in the last 5 years, dramatic changes in the political, socio-economic spheres in the world are required to pay attention at migration relations.

Migration relations with the Russian Federation, a strategic partner of our national economy, have deepened under the influence of geographical, historical, linguistic and production factors. In particular, improving mechanisms of government regulation in the field is of the essence towards the negative consequences of labor migration in the period of COVID-19.

The Russian Federation share is a great in the geographical structure of Uzbekistan’s external migration and retains its leadership. Analyzing the types of external migration, it can be noted that the role of seasonal labor migration in the economy of Uzbekistan is high. However, the created conditions for labor migrants in Uzbekistan are not satisfactorily.

According to official data of the Russian Federation, more than 5-6 million people, labor emigrants arrived from the CIS countries per year, and in the period of COVID-19, this figure has sharply decreased in cross-border movements. Regardingly, the Russian Federation government has changed the number of regulatory documents and taken organizational measures to improve working conditions. What kind of problems have for working in the Russian Federation to uzbek migrants? In the paper are described causes of illegal labor migration and its agenda.

The theme of migration is one of the most actual topics of the modern world. Every day, a large number of people moved from one country to another. As of 2019, there were 12 million migrants in Russia. Russian Federation ranks 4th in the world for the number of migrants. In the ranking USA is leader with more than 50 million migrants, Saudi Arabia is in the second place, which is more than 12 million people, and UAE is the 3rd largest with less than 8 million immigrants. In the latest years the international migration in Russian Federation decreased.

It became clear on the basis of my field trip in Moscow region and Moscow, which is conducted in 2021-2023, the labor migrants are faced to the following problems:

1. There are many difficulties on hunting jobs and finding housing towards the lack of knowledge of majority migrants on language and modern information technology.

Certanly, migrants will have to collabrate with intermediator recruit firms, instead of an employer is required to directly make a contract. This usally will affect to creation of underground employment, illegal and informal relations in the field. For example, the "Globus" gipermarket network hires workers through the recruiting personnel. This, in turn, has a number of prevliges for the company. First, labour forces almost 2 times are cheaper and does not spend any social charges for migrants; Second, it allows reduction of the costs on management. Currently, Fascility recruit firm falsifies the documents to have a cheap labor, creating informal employment.

The relatively small number of hostels and inadequate living conditions for migrants are one of the main problems. For example, 1 person spends at least 6, 000-10, 000 rubles per month on a hostel. The only convenience of the hostels is the provision of a registration document (registration). Renting an apartment for migrants costs on average 20-40 thousand rubles per month in the Moscow region and 40-70 thousand rubles in the city of Moscow if you rent it directly from the owner. On the contrary, you can rent through brokers at a higher price and with additional requirements.

2. Obstacles in obtaining work permits and patents. Firstly, the cost of obtaining a patent averages 30, 000 rubles per person; secondly, the requirement is 20-30 days for its registration.

3. Low level of legal knowledge of migrants. As a result of the surveys, it turned out that almost all migrants who came to work on their own could not receive wages and could fall into the hands of fraudsters. To

eliminate such situations, the level of use of municipal government services, regional labor inspectorates and other government bodies is very low.

The above-mentioned obstacles and complications lead to the emergence of hidden and illegal situations on the ground. According to official data of the Russian Federation, illegal labor activity in the country is 2 times higher than the official employment in the CIS countries. Unfortunately, the level and scope of this covert activity is significant. That is why, first of all, it is necessary to strengthen the mechanisms of bilateral government regulation in order to prevent and eliminate such situations.

Under the influence of the COVID-19 situation, intergovernmental agreements on labor migration issues were concluded between the Russian Federation and Uzbekistan and positive actions were taken. The further development of labor migration is mutually beneficial for both parties. High demand in the labor market in the Russian Federation makes it possible to effectively use migrants to ensure economic growth and generate additional revenues for the state budget. For Uzbekistan, international remittances will increase foreign exchange flows, create a skilled workforce, increase employment and ensure people's well-being.

In our opinion, in order to raise the relationship between Uzbekistan and the Russian Federation on labor migration issues to a new level, it would be advisable to implement the following:

– reducing illegal activities by formalizing and expanding the activities of private migration companies in Uzbekistan;

– improve the legal status of migrants by improving the provision of information on labor migration issues;

– based on the support of the Russian Federation, strengthening legislation and introducing mechanisms to regulate the activities of illegal intermediary recruitment firms and agents.

The development of foreign migration relations leads to the strengthening of mutually beneficial and strategic cooperation between the two countries.

TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILI VA UNING JAMIYAT AXLIQIY IMIDJIGA TA’SIRI

associate professor, Jo’rayev Ahmad Muhammadiyevich

-

Anatatsiya

Ushbu maqolada tinchlikparvarlikning jamiyatning ma’naviy qiyofasiga ta’siri va ularning globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar, shuningdek, tinchlikparvarlik g‘oyalarini yangi jamiyatni rivojlantirishda qo‘llash kabi masalalar tahlil qilinadi. O'zbekiston. Hudud va davlatlar barqarorligi, fuqarolar tinchligi, jamiyat farovonligini buzishga qaratilgan tahdidlarning sabablarini o‘rganish va oqibatlarini tahlil qilish ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishning muhim omillari sifatida qayd etilgan.

Har bir davlatning boshqaruv tizimi o'ziga xosdir, lekin u tinchlikka qaratilgan siyosiy boshqaruvni ta'minlash muhimligi nuqtai nazaridan yetakchi o'rinni egallaydi. Bu holat, ayniqsa, hali mustaqillikka erishmagan mamlakatlar tajribasida kuzatilib, umumiy yangilanish jarayoni quyidagi o‘zaro bog‘liq ikki yo‘nalishda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrning global muammolari, ya'ni yer yuzida to'liq tinchlikni saqlash, termoyadro to'qnashuvining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish; samarali atrof-muhit muhofazasi; aholi soni va tarkibi hamda moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish; yer aholisini zarur oziq-ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash; ochlik, qashshoqlik va qoloqlikka barham berish kabi.

Kalit so’zlar: Tinchlikparvarlik, tinchlik, globallashuv, ijtimoiy taraqqiyot, insonparvarlik, adolatparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, demokratiya, tinchlik madaniyati, ijtimoiy ahillik, ma’naviy xavfsizlik, bunyodkorlik, qadriyat.

KIRISH

Jahonda madaniyatlarning ommalashishi, globallashuv tendensiyalarining kuchayib borishi insoniyatning tinchlik, barqarorlik, xayrixohlikni anglash imkoniyatlarini kengaytirib, hayotiy ehtiyojlardan oqilona foydalanish, hayot ne’matlariga ongli munosabatda bo‘lish uchun

ijtimoiy makon yaratdi. Bu insoniyatning ma’naviy tahdid va xavfdan xoli yashashga bo‘lgan intilishini mustahkamlaydigan axloqiy tamoyillarga bo‘lgan ehtiyojini yanada kuchaytirmoqda. Endilikda odamlarda qo‘rquv, vahima, ishonchsizlik, umidsizlik kabi tahdidlar hozirgi kunning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda.

Dunyoda global ijtimoiy makonda shaxslar va davlatlararo munosabatlarni tashkil qilish omili sifatida ma’naviy xavfsizlikka erishish dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga har qachongidan ham ko‘proq zarurat sezilmoqda. Inson va jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlarning mazmuni va shakli tobora yangi tus olayotgan hozirgi paytda odamlarda ogohlik, himoyalanish va kurashuvchanlik tuyg‘ularini mustahkamlovchi bilim, ta’lim, tajribani izlash, saralash va tanlash muhim hayotiy ehtiyojga aylandi. Insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan axloqiy tamoyil tinchlikparvarlikni rivojlantirishni nafaqat siyosiy maqsad, balki axloqiy talab ekanligini e’tirof etmoqda.

Mamlakatimizda tinchlikparvarlik faol xatti-harakat, hamkorlik, tashkilotchilikni talab qiladi. Davlatlarning barqarorligi, fuqarolarning xotirjamligi va jamiyatning farovonligini buzishga qaratilgan tahdidlarning sabablarini o‘rganish, oqibatlarini tahlil qilish ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda “Yurt tinchligi”, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyalarini amalga oshirishda tinchlikparvarlikning axloqiy qadriyat sifatidagi mohiyatini keng ochib berish pirovardida odamlarda tinchlikparvarlikni oqilona anglash, his qilish va hurmat qilish orqali milliy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash imkonini beradi. Shu boisdan, “Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to‘qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim” ekanligi tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va jamiyat taraqqiyotida tinchlikparvarlik tamoyilining ijtimoiy-falsafiy asoslari va metodologik jihatlari XV-XIX asr G‘arb axloqshunos va faylasuflari N. Kuzanskiy, J. Piko Della Mirandola, N. Makiavelli, E. Rotterdam, M. Monten, F. Sanches, F. Bekon, R. Dekart, D. Yum, I. Kant, G. V. F. Gegel, B. Rassel, G. Grotsiy, A. Shopengauer, F. Nitsshe singari faylasuflar inson va jamiyat tinchligida ma’naviy-axloqiy asoslarta’minlanishini va mafkuraviy omillar ta’sirchanligini ko‘rsatib o‘tganlarMustaqil davlatlar hamdo‘stligi axloqshunos olimlari A. V. Aleynikov, O. V. Korotkix, A. B. Eryomenko, X. T. Kayumova, A. S. Moiseyev, O. V. Juravkov, A. B. Davidson global axborotlashuv jarayoni

rivojlangan davlatlarda axborot xavfsizligini ta’minlashning taqozo etishini asoslaganlar. Mamlakatimiz olimlaridan Q. N. Nazarov, A. Achildiyev, A. Abdushukurov, A. Sharipov, N. Ochilova, M. Yuldasheva, R. Norliyev kabi faylasuflarning dissertatsiyalarida, N. Jo‘rayev, A. Erkayev, Sh. Mamadaliyev, V. Alimasov, B. R. Karimov, I. S. Saifnazarov, Abdulla Sher, B. Karimov, Z. Davronov, J. M. Xolmo‘minov, S. Otamurodovning monografiya va maqolalarida tahlil etilgan. Jumladan, tinchlikparvarlikning zarurati, ahamiyati va falsafiy mohiyatini Q. N. Nazarov qadriyatlar tizimidagi barqarorlik dialektikasi asosida, A. Sharipov ijtimoiy hamkorlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yordamida, M. Yuldasheva oila, mahalla va ta’lim-tarbiya tizimining g‘oyaviy tarbiya jarayonidagi o‘rni orqali ochib bergan.

METODOLOGIYA

Maqilada umumiy o‘zaro aloqadorlik, tizimlilik, tarixiylik tamoyillari, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tinchlik va barqarorlik insoniyat hamjamiyati taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib, u hozirgi globallashuv davrida ham barqaror taraqqiyotning garovi ekanligi yanada konkret mazmun kasb etib bormoqda. Insonda moddiylik mavjud ekan, buyumlar olami inson hayoti va faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bu ta’sir ijtimoiy, psixologik, ma’naviy-estetik ta’sir bo‘lib, kommunikativ, axloqiy, tarbiyaviy, aksiologik funksiyalarni bajarib keladi. Tinchlikparvarlik aynan mana shu insonni qurshab turgan moddiy olam mikro va makromuhitini go‘zallashtirish, insoniylashtirishdek yuksak vazifani bajarib, turmush estetikasini yuksaltirmoqda. Tinchlikparvarlikning jamiyat axloqiy imidjiga ta’sirini o‘rganish orqali milliy axloqiy asoslarni yaratish, jamiyatda barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Har bir davlat boshqaruv tizimi o‘ziga xos bo‘lishi bilan birga tinchlikka qaratilgan siyosiy boshqaruvni ta’minlash ahamiyatiga ko‘ra yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat, ayniqsa, mustaqillikka erishganiga uncha ko‘p bo‘lmagan davlatlar tajribasida kuzatiladi va yalpi yangilanishlar jarayoni quyidagi ikki o‘zaro uzviy bog‘langan yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

Birinchisi, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi bir butun tizimni yaratish, jamiyat hayotining barcha tizimlarida farovonlikni kafolatlash, fuqarolar uchun tinchlikni ta’minlash orqali ishonch hissi va daxldorlikni anglab yetishiga erisish maqsad sifatida bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mamlakat imidji va dunyo tichlikka erishishining milliy modellari yaratiladi va global xavfsizlikka erishiladi.

Zero, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Jamiyatni ma’naviy yangilanishdan maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘pdan – ko‘p muhim masalalardan iborat” (Karimov I. A. , 2000. – 499-1), degan fikri muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Fransuz ma’rifatparvari Jan Jak Russo yuqoridagi “munofiq xislatlardan xoli, “azaliy tinchlik” da yashagan ibtidoiy odamni axloqan komillik ideali sifatida qaragan edi” (Skripnik A. P. 1992. 14-2).

Ma’rifatparvar alloma Abdurauf Fitratning “Sharq siyosati” asarida “Sharqning taraqqiy yo‘li ko‘mildi. Saodat va tinchlik eshiklari bog‘landi, saodatning eng yuksak tepasiga chiqqan Sharq yo‘qsullikning eng teran chuquriga tushdi” (Abdurauf F. , 1992, 6-3) -degan fikrni aytgan edi. Darhaqiqat, mustamlakachilik, beqarorlik, zulm, zo‘ravonlik va jaholat Markaziy Osiyoni, nafaqat iqtisodiy-siyosiy jihatdan tanazzulga mahkum qildi, balki ma’naviy va ma’rifiy jihatdan ham bir necha asrlar davomida shakllangan an’anaviy maktablar tizimini ham izdan chiqardi. Bu esa, ilm-fan taraqqiyotiga, milliy nafsoniyat va o‘zlikni anglash kabi dunyoqarash shakllarining ijobiy taraqqiyotiga nuqta qo‘ydi.

O‘z allomalarining ilmiy meroslari bilan XVI asrdagi G‘arbiy Yevropaning uyg‘onish davriga va shu davr tufayli uning ushbu kungacha to‘xtovsiz davom etib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hukmronligiga tamal toshini qo‘ygan, ma’naviy, g‘oyaviy ozuqa bergan Markaziy Osiyo XIX asrdan boshlab ma’naviy qaramlikka mahkum etildi.

Urush va tahdid, zulm va zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan joyda tinchlikparvarlikka har doim ehtiyoj seziladi va u axloqiy ehtiyojga aylanadi. Tadqiqotimizda ushbu ehtiyojlarning ayrim axloqiy paradigmalarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi – shaxs ma’naviy xavfsizligi paradigmasi. Tinchlik parvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanishi “shaxs ma’naviy xavfsizligi” ni ta’minlashni taqoza etadi. Sababi, shaxsning o‘z ma’naviy dunyosini turdli ta’sirlardan xoli holda tasavvur qila olishi hamda uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash lozimdir.

“Shaxs ma’naviy xavfsizligini ta’minlash azaliy muammolar sirasiga kiradi. Har davrda shaxsning ma’naviy qiyofasi va axloqiy tafakkurini buzishga xizmat qiladigan omillar, vositalar mavjud bo‘lgan. Ushbu masalada Xitoy donishmandi Konfutsiy shaxs ma’naviy xavfsizligini ta’minlash uchun jamiyatda adolatni qaror toptirish zarur” (Besedi i sujdeniya Konfusiya. 1999. B 120-4), degan fikrni ilgari surgan.

Nikollo Makiavelli bu masalani davlat siyosati nuqtai nazaridan tadqiq etadi: “Davlat umummilliy manfaatlarni himoya qilishi va shu yo‘l bilan jamiyat a’zosining ma’naviy xavfsizligini ta’minlashi mumkin” (Makiavelli N. Gosudar, 1982. 375-5).

Makiavellining fikrini Tomas Gobbs davlat va shaxs xavfsizligi orasida obektiv aloqadorlik mavjud, degan nazariya bilan isbotlaydi: “Tinchlik va xavfsizlikni davlatning ishtirokisiz ta’minlab bo‘lmaydi. Ijtimoiy kelishuvga asosan tashkil etilgan davlat jamiyatning tinchlik-xotirjamligini, xavfsizligini ta’minlash orqali shaxs ma’naviy xavfsizligiga zamin yaratadi” (Gobbs T, 1991. 63-6).

Amerikalik faylasuf Patrik Jozef Byukenen tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash hamda xalqni o‘z oilasini himoya qilgandek himoya qilishda maktab va ta’limining muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, “Amerikaning umumta’lim maktablari zarurat tug‘ilganda mamlakatimizni himoya qilishi mumkin bo‘lgan fuqaro va vatanparvarlikni tarbiyalamog‘i darkor. Ular bolalar qalbiga Amerikaga nisbatan muhabbat tuyg‘usini jo etmog‘i zarur. Zero, buyuk kishilar tarjimai holi, tarixiy va badiiy asarlarni o‘qib, xalq qo‘shiqlarini tinglab, shonli tariximiz aks ettirilgan san’at asarlarini tomosha qilish jarayoni va ularning qalbida vatanga nisbatan muhabbat tuyg‘usi mustahkamlanib boradi. ” (Byukenen P. J. 2021. – 178-7)

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyligi tinchlikparvarlik yo‘lida olib borilgan oqilona siyosati hisoblanadi. Umumjahoniy yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, oxir-oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Dunyo ma’naviy yuksalish jarayonlariga har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami, ilmiy-ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qo‘shila boshladi.

Ikkinchisi – ijtimoiy ahillik paradigmasi. Bugungi kunda tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyojga aylanishi “ijtimoiy ahillik” masalalarini axloqan tahlil qilishga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Chunki ijtimoiy ahillik zaruriy hodisa sifatida barcha sharoitda ta’minlanishi zarur. Ayniqsa, bu ko‘pmillatli mamlakat hisoblangan O‘zbekistonda tinchlik, totuvlik va birdamlik siyosatining axloqiy mazmunini tashkil etadi. Sababi etnik va millatlararo sog‘lom muhit yaratilganligi va davlat siyosatida buni aks etganligidir. Biroq, jahonda sodir etilayotgan urushlar davlatning axloqiy mohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, urushning ko‘payishi axloqning inqiroziga olib keladi.

Ta’kidlash zarurki, urush mohiyatan tinchlikning ziddi (dilemmasi) hisoblanadi. Urush ma’naviy va texnik qurol vositasida amalga oshiriladi. Biroq, qurolning joni yo‘q. U kimning qo‘lida bo‘lsa, o‘shaning manfaatiga xizmat qiladi: bosqinchining qo‘lida bosqin uchun, himoyachining qo‘lida himoya uchun ishlatiladi. Shu bois, avvalo, urush(lar)ning oldini olish qurolni tutgan qo‘lning egasini qalbini tarbiyalash lozim. Sababi, ongsizlarcha ish yuritadigan har qanday qurol egasining pirovard natijasi urush va ziddiyatlar uchun asos bo‘ladi.

Jahondagi hozirgi vaziyat nafaqat yalpi qirg‘in va oddiy qurol-yarog‘lar zahirasi to‘planayotganligi bilan, balki chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar bilan ifodalanadi. Amerikalik siyosatchi Patrik Jozef Byukenen yangi madaniyat va yangi tamaddun uzoq yashab qolmasligi sabablarini:

1) ular tufayli vujudga kelgan elitaga munosabat salbiy, u hurmat-e’tibor qozona olmaganligi (sabrsizlik, axloqiy buzuqlik, an’anaviy qadriyatlarga bepisandlik va undan nafratlanish)da; 2)inqilob mafkurasi inson tabiati qonuniyatlari va yaratganning ko‘rsatmalari bilan to‘qnash kelishida, deb ko‘rsatadi (Arastu. Poetika 2008. -261 – 8).

Ma’lumki, urush va tinchlik muammosi mamlakat ichida yoki uning tashqarisida, mamlakatlar o‘rtasidagi munozarali masalalarni hal etishda siyosiy zo‘ravonlik ishlatish, yohud uni istisno etishni bildiradi. Tinchlik xalqlarning xohish-irodasi, orzu-umidi bo‘lsa, urush - hukmron kuchlarning siyosati oqibatidir. Turli davrlarda yuz bergan urushlar va uning oqibatida qurbonlar soni aholining o‘sishiga qaraganda tezroq o‘sgan. Qadimgi yunon donishmandi Arastuning fikricha, davlatda dam olish va tinchlikka imkoniyat yaratuvchi fazilatlar aniq ifodalangan bo‘lishi shart. U faqat vaqti urush bilan band bo‘lgan odamlarnigina yaxshi odam, chunki ularning bo‘sh vaqti yo‘q, tinch, bo‘sh vaqtga ega bo‘lganlar esa qullardir, degan fikrni bema’nilik deb hisoblaydi (Gegel G. V. F 1990. B469 – 9).

Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Ming yillik rivojlanish deklaratsiyasida ta’kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o‘limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. Ushbu haqiqatning tasdig‘ini 40 yildan ziyod harbiy harakatlar davom etayotgan Afg‘oniston Islom Respublikasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Afg‘on muammosini harbiy yo‘l bilan hal etib bo‘lmasligi yanada ayon bo‘lmoqda, koalitsiya kuchlarining Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha tanlagan strategiyasi esa kutilgan natijalarni bermadi. Muttasil davom etayotgan

urush Afg‘oniston xalqining ahvolini tobora og‘irlashtirmoqda va muammoni hal etishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Ikkinchi jahon urushidan keyin progressiv kuchlar qurollanish poygasini to‘xtatishga intilgan va qarshi kurashgan, urush haqida maxsus konvensiyalar qabul qilganiga qaramay XXI asr choragida yana “sovuq urush” larga zo‘r berilmoqda, hududlararo yoki fuqarolararo, goho davlatlararo urushlar davom etmoqda. Yarim asr mobaynida o‘zaro mahalliy nizolar, harbiy mojarolar tufayli jahon sivilizatsiyasidan butkul uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib borayotgan Afg‘oniston, milliy-diniy nizo va fuqarolik urushi domidagi Iroq, Liviya, Suriya va Ukraina kabi davlatlar bugun buning yaqqol dalilidir. Bu mamlakatlar hududining xavf-xatar o‘chog‘iga aylanib qolgani ularga qo‘shni mamlakatlardagi tinchlik va barqarorlik, taraqqiyot yo‘lidagi ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Turli shakllarda davom etgan mustamlaka davri mamlakatning tashqi aloqalarini uzib qo‘ydi. Hozirgi davrda global darajada tinchlikni ta’minlash va davlatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning, ko‘plab muammolarni hal qilishdagi roli oshmoqda. Ushbu birlik nafaqat urushlarga chek qo‘yishi, shuningdek, tinchlikni axloqiy idealga aylanishi, tinchlikparvarlikni axloqiy madaniyat sifatida qadrlashga xizmat qiladi.

Georg Gegelning “Har bir davlat qurilishi ma’lum xalq milliy-ma’naviy mahsuli, o‘zligini namoyon etish va ma’naviy onglilik taraqqiyotining pillapoyasidir. Bu taraqqiyot pillapoyasini qadam-baqadam bosib, bir me’yordagi harakatni, vaqtdan o‘zib ketmaslikni taqozo etadi. Vaqt hamma narsaga qodir. Unda tafakkur, falsafa, … hamma narsa mujassam. ” (Markaziy Osiyo madaniyati. 1997 B 32-10) degan fikri tinchlikparvarlikning axloqiy mohiyatini kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Uchinchi mustaqillikni mustahamlash paradigmasi. Mustaqillik nafaqat hududiy birlik jihatdan mustahkamlik, balki fuqaro erkinligi, jamiyat hayotining barcha sohalariga yangi o‘zgarishlar tendensiyasi va o‘z navbatida davlatchilik tizimining o‘zagidir.

Mintaqamizda bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida yaqin qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mustahkamlash doimiy hamkorlikni talab etadi. Shu jihatdan Chingiz Aytmatov: “Qarshimizda buyuk tarixiy qudrat namoyondirki, uning Markaziy Osiyo davlatlari uchun dolzarb qudrat – ehtiyoj ekani kundek ravshan” (Karimov. I. A. 2011. 263-11), deya izohlagan edi. Qolaversa, mustaqillikka erishgan mamlakatlar tinchlikparvarlik axloqining bosh omili madaniyat, ma’rifat va mafkuraga e’tibor berishni taqozo etadi.

Turli millat va aqidalarga ega bo‘lgan ko‘pmillatli mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta’minlash imkonini berdi. Bu borada O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu masalaga mustaqillikning ilk kunlaridayoq e’tibor qaratib, “bizga zarba bo‘lib tushgan eng og‘ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma’naviy tanlikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy – ma’naviy qadriyatlarni g‘oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko‘ra ancha mashaqqatli bo‘ladi” (Falsafa. Qomusiy lug‘at. 2004. -B. 288-289-12)– degan fikrlarni ilgari surgan edi.

To‘rtinchi tinchlik madaniyati paradigmasi. Keyingi paytlarda tinchlikni saqlash va unda fuqarolarni ishtirokini ta’minlashda “tinchlik madaniyati” tushunchasi ilmiy muomalada qo‘llanila boshlandi. “Tinchlik madaniyati” falsafiy-axloqiy tushuncha bo‘lib, uning mohiyati “urushlarga yo‘l qo‘ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinchlik yo‘li bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta’minlash” dan iborat.

Falsafiy manbalarda Sharq allomalari ichida birinchi bo‘lib Abu Nasr al-Forobiy madaniyat masalasini kun tartibiga qo‘yganligi ta’kidlanadi. Sababi mutafakkir madaniyat so‘zini arabchadan olinganiga ishora qiladi va uni shahar, jamiyat, boshqarish, san’at, idora qilish, inson quvvatlari singari ijtimoiy-axloqiy hodisalar bilan bog‘lagan edi.

Abu Nasr Forobiy o‘z qarashlarida ham tinchlikni oliy darajada qadrlanganligi shu davr ruhini aks ettirishda harakat qilganligini tahlil etishimiz mumkin. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘z istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’noda ozod bo‘ladilar” (Forobiy. Fozil odamlar shahri. 1993. -190 -14). Allomaning ushbu fikri o‘z navbatida “tinchlik madaniyati” ning axloqiy mohiyatini belgilaydi.

Tinchlikning mohiyati axloqiylikni taqozo etadi, ushbu mohiyatning pragmatik asosi “tinch-totuv yashash tamoyili”da namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, davlatlar o‘rtasidagi janjalli masalalarni hal qilishning vositasi sifatida urushlardan voz kechish, janjalli masalalarni muzokaralar olib borish orqali hal etish, teng huquqlilik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, har qaysi xalqning o‘z taqdirini o‘zi hal etish huquqini tan olish, barcha mamlakatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini qat’iy hurmat qilish, to‘la tenglik va o‘zaro naf keltirish asosida iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bu tinch-

totuv yashashning axloqiy negizidir. Shu ma'noda, tinch-totuv yashash urushni istovchilarni "ko'ndirish", "tinchlantirish" siyosati, ularni "yaxshi bo'lishga" chaqirish yoki ulardan tinchlikni "so'rab olish" emas, balki tinchliksevar kuchlarning birgalashib faol ta'sir ko'rsatishi bilan belgilash mumkin.

NATIJALAR

Bugun O'zbekistonda tinch – totuv yashash tamoyili davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 - yillarda mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" hamda 2022-2026 - yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" boshqa davlatlarga nisbatan munosabatlar yuzasidan O'zbekiston tashqi siyosatining muhim prinsiplarini – tinch-totuv yashash prinsiplarini belgilab berdi.

Ushbu mulohazalar "tinchlik"ni umumijtimoiy ma'no kasb etadigan tushuncha sifatida baholaydi. Holbuki, globallashuv davri qadriyatlari amaliyotida "tinchlik" ning ijtimoiy-ma'naviy va gumanistik mazmuni umuminsoniy qadriyat sifatida baholash uchun asos bo'ladi. Bundan tashqari, yurtimizda o'ziga xos davlatchilik tarixi, mavjud qadriyatlar tizimi, umuminsoniy tamoyillarga rioya qilingan holda tinchlik ta'minlanmoqda. Chunonchi, mustaqillikni mustahkamlash va himoya qilish masalasida hushyorlik va sezgirlikni, qat'iyat va mas'uliyatni yo'qotish, bu jarayonga "obektiv holat" sifatida qarash, ojizlikka va bosh-boshdoqlikka olib keladi. Shu bois, mustaqillik tinchlikparvarlikning axloqiy ehtiyoji sifatida O'zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo'llarini belgilashga negiz bo'luvchi quyidagi asosiy axloqiy tamoyillarni belgilaydi:

- o'z milliy-davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish va boshqa biron-bir davlatning ta'siriga tushib qolmaslik;

- global darajada muammolarda tinch yo'l bilan kurashish, harbiy bloklar va uyushmalarga kirmasdan O'zbekistonni yadrosiz zonaga aylantirish;

- tashqi siyosatda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga amal qilish;

- tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro'yobga chiqarish va tinchliksevar mamlakatlar bilan pragmatik tashqi aloqalarni o'rnatishga intilish.

Tinchlikparvarlik haqidagi an’anaviy qarashlar, yondashuvlarni yangilash jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim talabi hisoblanadi.

Texnik imkoniyatlarning kengayishi esa dunyo miqyosida tinchlik bilan bog‘liq yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Darhaqiqat, texnika faoliyatning mustaqil sohasi sifatida yuzaga chiqib, insonga olamni ijodkorlik va yaratuvchanlik asosida estetik jihatdan o‘zlashtirish imkonini berdi.

Hozirgi davrdagi global muammolar, ya’ni yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urishining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o‘rnatish; atrof-muhitni samarali muhofaza qilish; aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish; yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta’minlash; ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish kabilar tashkil etadi.

Tinchlikparvarlik insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega ma’naviy-qadriyatlardan hisoblanadi. Chunki u mohiyatan urushning, qon to‘kishning oldini olishga, insonni oliy mavjudod sifatida qardlashga va oliy qadriyat sifatida tan olishga, har qanday qon to‘kilishlarga qarshi tura olish, tinchlik va totuvlikni ta’minlashda muhim omildir.

“Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi” (Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017. 48 - 15).

Barcha xalqlar uchun ilm-ma’rifat, ta’lim va tarbiya kabi tinchlikparvarlik ham inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti hisoblanadi. Garchand, ta’lim-tarbiya anglashning mahsuli, tafakkur darajasi va uni rivojlanishini belgilovchi eng muhim omillar bo‘lsada, tinchlikparvarlik ham xalq va millat ma’naviyatini ifodalaydi. Bu tendensiyaning hayotiyligi xalqni tinchlik va tinchlikparvarlikka munosabatida, yondashuvida va harakatlantiruvchi kuch sifatidagi mohiyatida kuzatish mumkin.

Uchinchisi – urush g‘ayriaxloqiy hodisa. Hozirgi odamlar insoniyat tarixida ilk bora to‘la yo‘q qilinish xavfi ostida qolgan bashariyat avlodlari hisoblanadi. Chunki, urushning sanoatlashishi ana shu ahvolga olib keldi.

Olmon mumtoz falsafasining yirik vakili Immanuil Kant axloqshunosligining choʻqqisi tinchlikni ragʻbatlantirish va urushning har qanday shakliga chek qoʻyishga qaratilgan edi. “Uning abadiy tinchlik gʻoyasi; hech qanday urushga yoʻl yoʻq: na men bilan sening orangdagi tabiiy holatdagi urushga, na oramizdagi davlatlar sifatidagi urushga yoʻl yoʻq, urush har kim oʻz huquqini qoʻlga kiritishi uchun zarur boʻlgan usul emas. Ayni paytda, insoniyat uchun axloqiy komillikka erishuvning faol vositasini mutafakkir ma’rifatda koʻradi. Ma’rifat uchun esa faqat erkinlik, erkinlik boʻlganda ham juda zararsiz, har bir holatda oʻz aqlidan oshkora foydalanadigan erkinlik zarur. Erkin, hayratlanib, ixlos bilan yashash lozim”.

“Kant inson sifatida ham shunday yashab oʻtdi. Uning ikki narsa haqida qancha koʻp, qancha uzoq oʻylaganing sari qalbing tobora yangi, tobora kuchayib boruvchi hayrat va ixlos bilan toʻlib-toshaveradi, bular - boshim ustidagi yulduzli osmon va mening botinimdagi axloqiy qonun, degan gaplari eng avvalo oʻziga taalluqli edi” [Kant I. K vechnomu miru. 1986. – S. 116-16].

Ma’lumki, insoniyat tarixida urushlar va tinchlikni muqarrar tarzda ta’minlashmuammosi nafaqatmamlakat ichida balki, global darajada mamlakatlar oʻrtasidagi muvozanatni ta’minlash va munozarali masalalarni hal etishda siyosiy zoʻravonlik va kuch ishlatishni bildiradi. Tinchlik va xalqlarning xohish-irodasi, orzu-umidi boʻlsa, urush esa aksincha, hukmron kuchlarning siyosati va oqibatidir. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, soʻnggi 6 ming yil davomida, yer yuzida 15 mingdan ziyod urushlar sodir boʻlgan. Bu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan.

Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarda qudratli davlatlar geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda zoʻravonlikka moyillik bildirmoqda. Bunda aksariyat rivojlangan davlatlar hali hanuzgacha yalpi qirgʻin qurollarini koʻplab ishlab chiqarish bilan harbiy qudratga erishishni oʻz tashqi strategiyasining mazmuniga aylantirmoqda.

Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanida “urush” va “tinchlik”ning zaruriyati, ahamiyati va axloqi aks etadi. Fransuz imperatori Napoleon tomonidan Rossiyaning bosib olinishi mumkin boʻlgan bir vaqtda, boshqalardan oʻzlarini ustun deb bilganmahalliy turli tabaqalarni dushmanga qarshi kurash vositasida birlashtirgan, ayni paytda esa rus xalqining maishiy hayoti va ularning dunyoqarashini yaqqol ifodalagan “Urush va tinchlik” asarining dunyoga kelishi oʻz davri uchun katta voqea edi. Bu asar xalq ongidagi uygʻonishga boʻlgan da’vat bugungi kunga, bugungi zamon kishisiga ham birday taalluqlidir.

Muallifning asar orqali tinchlikning ma'naviy ahamiyati haqida hayotiy haqiqatlarga asoslangan quyidagi hikmatlari o'z dolzarbligini hozir ham yo'qotmagan:

- "Hurriyat va tinchlikni payg'ambarimiz ham targ'ib qilgan edi".
- "Abadiy tinchlik siyosiy muvozanat bilan bo'lmaydi".
- "Agar hamma faqat o'z e'tiqodi asosida urushadigan bo'lsa, dunyoda urush degan narsa bo'lmas edi" (Kant I. K vechnomu miru. 1986. –S. 118-17).

Hozirgi davrda "urush" tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mazmuni kengayib bormoqda. V. Slipchenkoning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, "urush murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, turli ko'rinishdagi kurashlar majmuasini tashkil etadi. Davlatlar va turli sotsial tizimlar o'rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, axborot, gibrid va boshqa shakldagi kurashlar shular jumlasidandir" (Kant I. K vechnomu miru: 1986. –S. 122-18).

To'rtinchisi – xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bugun dunyoda tinchlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli va ahamiyati katta. Dunyoda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, teng huquqlilik va erkin fikr (plyuralizm), o'zaro hurmat tamoyillari asosida xalqlarning o'zlari belgilaganlaridek, millatlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni rivojlantirish, millatlarning ushbu umumiy maqsadlarga erishuvida hamkorlikdagi harakatlarning markazida bo'lish kabi maqsadlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsad-vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois BMT Bosh Assambleyasi har yili jahonda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda dolzarb muammolarni muhokama qiladi va bu masalalar bo'yicha BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga yoki Xavfsizlik kengashiga tavsiyalar berib, qarorlar ishlab chiqadi. Garchand bu tavsiya va qarorlar a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun majburiy bo'lmasa-da, davlatlarning asosiy ko'pchiligi ularni bajarishdan manfaatdordir. BMT o'z a'zolarining suveren tengligiga asoslanishi bilan bir qatorda davlatlarning ichki ishlariga aralashmaydi va befarq ham bo'lmaydi.

XULOSA

Umuman olganda, tinchlikparvarlik - insonlarning tinch-xotirjam, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijod qilish, yaratgan ijod mahsullarining uzoq yillar mobaynida xalqni birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa hamdir. Tinchlikparvrlikning amalda namoyon bo'lishi uchun yer yuzidagi har bir inson tinchlikning qadrini anglashi va o'z faoliyati, dunyoqarashini axloqiy jihatdan shakllantirishini toqazo etadi.

Tinchlikparvarlik insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega ma’naviy-qadriyatlardan hisoblanadi. Chunki u mohiyatan urushning, qon to‘kishning oldini olishga, insonni oliy mavjudod sifatida qardlashga va oliy qadriyat sifatida tan olishga, har qanday qon to‘kilishlarga qarshi tura olish, tinchlik va totuvlikni ta’minlashda muhim omildir.

Tinchlikparvarlik xalq, davlat va jamiyat hayotining eng muhim axloqiy tamoyili hisoblanadi. Uni fazilatga aylantirish qat’iyatlilikni talab etadigan ijtimoiy voqelik. Barcha taraqqiyparvar kuchlar barqarorlik va hamkorlik yo‘lini belgilashda tinchlikparvarlikning axloqiy mazmunidan kelib chiqib ma’naviy maqsadini belgilashi zarur. Shundagina tinchlik amaliy hamkorlik yo‘lini tanlash orqali mustahkamlanadi.

Tinchlikparvarlik – insonlarning tinch-xotirjam, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ijod qilish, yaratgan ijod mahsullarining uzoq yillar mobaynida xalqi, el-yurti, Vatani va umuman, insoniyatga xizmat qilishiga ishonch-e’tiqod, hayotning qadriga yetish, tiriklikni ulug‘lash ruhidagi faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog‘liq tarbiyaviy yo‘nalish, xususiyati hisoblanadi.

ADABIYOTLAR ROYXATI:

Каримов И. А. (2000, б. 499) Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. -Тошкент: Ўзбекистон.

Скрипник А. П. (1992, с. 14) Моральное зло в истории этики и культуры. –. : Политиздат, . –

Абдурауф Ф. (1992, б. 6) Шарқ сиёсати. Бухоро,

Беседы и суждения Конфуция (1999, с. 120) – СПб. : Издательство «Кристалл»,

Макиавелли Н. Государь (1982, с. 375) Избр. соч. - М. : Мысль.

Гоббс Т. (1991, с. 63) Сочинения. Том 2. - М. : Мысль.

Бьюкенен П. Ж. (2021, б. 178) Ғарбнинг ўлими. –Тошкент: “Илм-Зиё-Заковат” нашриёти,

Арасту (2008, б. 261) Поэтика Риторика. Ахлоқи Кабир. -Тошкент: Янги аср авлоди.

Гегель Г. В. (1990, с. 469) Философия права. -Москва: Наука.

Марказий Осиё маданияти (1997, Б. 32) – Тошкент,

Каримов. И. А. (2011, б. 263)Ўзбекистон Мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент: Ўзбекистон,

Фалсафа (2004. -Б. 288) Қомусий луғат. -Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.

Абу Наср Форобий (1993, б. 190) Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти

Мирзиёев Ш. М. (2017, б. 48) Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент.

Кант И. (1986, С. 112) К вечному миру. Трактат. –Москва: Мысль.

Кант И. (1986, С. 118) К вечному миру. Трактат. –Москва: Мысль.

Кант И. (1986, С. 122) К вечному миру. Трактат. –Москва: Мысль.

ADABIYOTLAR ROYXATI:

Karimov I. A. (2000, b. 499) Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -Toshkent: O‘zbekiston.

Skripnik A. P. (1992, s. 14) Moralnoye zlo v istorii etiki i kulturы. –. : Politizdat, . –

Abdurauf F. (1992, b. 6) Sharq siyosati. Buxoro,

Besedi i sujdeniya Konfusiya (1999, c. 120) – SPb. : Izdatelstvo «Kristall»,

Makiavelli N. Gosudar (1982, c. 375) Izbr. soch. - M. : Мысl.

Gobbs T. (1991, c. 63) Sochineniya. Tom 2. - M. : Мысl.

Byukenen P. J. (2021, b. 178) G‘arbning o‘limi. –Toshkent: “Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti,

Arastu (2008, b. 261) Poetika Ritorika. Axloqi Kabir. -Toshkent: Yangi asr avlodi.

Gegel G. V. (1990, c. 469) Filosofiya prava. -Moskva: Nauka.

Markaziy Osiyo madaniyati (1997, B. 32) – Toshkent,

Karimov. I. A. (2011, b. 263)O‘zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston,

Falsafa (2004. -B. 288) Qomusiy lug‘at. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

Abu Nasr Forobiy (1993, b. 190) Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti

Mirziyoyev Sh. M. (2017, b. 48) Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.

Kant I. (1986, S. 112) K vechnomu miru. Traktat. –Moskva: Мысl.

Kant I. (1986, S. 118) K vechnomu miru. Traktat. –Moskva: Мысl.

Kant I. (1986, S. 122) K vechnomu miru. Traktat. –Moskva: Мысl.

IJTIMOIY DAVLAT BARPO ETISHDA KRAUDSORSING PLATFORMALARINING O‘RNI

O‘qituvchi - Ahmedov Azizxon Muxsinjon o‘g‘li

universiteti

Annotasiya

Maqola davlat boshqaruvi sohasida rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llanib kelinayotgan kraudsorsing uslubi muhokama qilinadi. Boshqaruv sohasida kraudsorsing uslubi qo‘llash bugungi yangi O‘zbekiston o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan – Xalqparvar davlat barpo etishdagi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, so‘nggi yillarda to‘rtinchi va beshinchi hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa beshinchi hokimiyat – jamoatchilik fikri hokimiyati deyarli tadqiq etilmasdan qolmoqda. Har bir davlat ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror taraqqiy etishni maqsad qilar ekan fuqarolar bilan hokimiyat organlarining muvozanatdagi munosabatlari asosiy jihat hisoblanadi. Bunda, davlat boshqaruvi organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishda ixtisoslashgan kraudsorsing uslubini keng joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kraudsorsing, tashabbuskorlik, xalqparvar davlat, samaradorlik, boshqaruv, natijadorlik, hisobdorlik, ijtimoiy holat, innovatsiya, uslub, shaffoflik, modernizatsiya.

THE ROLE OF CROWDSOURCING PLATFORMS IN BUILDING THE SOCIAL STATE

Ahmedov Azizkhan Mukhsinjan ugli

https://orcid. org/0000-0002-9852-3306

Abstract

The article discusses the crowdsourcing method that is widely used in the practice of developed countries in the field of public administration. The application of the crowdsourcing method in the field of management is one of the important mechanisms in the establishment of a democratic state, which today's new Uzbekistan has set for itself. In addition, in recent years, the issue of mutual relations between the fourth and fifth authorities is becoming more and more important. In particular, the fifth power - the power of public opinion - remains almost unexplored. Balanced relationship between citizens and authorities is the main aspect when every country aims for sustainable social and political development. In this regard, the widespread introduction of the specialized crowdsourcing method in bringing the relations between state administration bodies and citizens to a new level is of great importance.

Key words: crowdsourcing, initiative, people-friendly state, efficiency, management, effectiveness, accountability, social status, innovation, style, transparency, modernization.

KIRISH

Bugun rivojlangan mamlakatlarda demokratiyaning muhim belgilaridan biri - davlat idoralari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi, ommaviy axborot vositalarining so‘z erkinligidagi mustaqilligidir. Xususan, O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning innovatsion-zamonaviy, mexanizmlari hamda usullarini keng joriy qilishga erishilmoqda. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash maqsadida yirik tashkilot va davlat idoralarida 584 ta matbuot xizmati tishkil etildi. Jumladan, boshqaruv organlari o‘z faoliyatida kraudsorsing elementlarini - fuqarolar bilan o‘zaro munosabatning zamonaviy usulini o‘zlashtira boshlanishini 2017 yil Harakatlar Strategiyasining xalq muhokamasiga qo‘yilgani bilan bog‘lashimiz mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida bunday vositalarni xalqaro amaliyotda qo‘llash 20 yildan ortiq tarixga ega.

Dastlabki, yirik kraudsorsing loyihalardan biri 2001 yilda vujudga kelgan – InnoCentive[1] platformasidir. 1420 dan ortiq turli ijtimoiy-siyosiy masala va muammolarni hal qilishda qatnashgan, dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan 250 ming kishini jalb qilishga muvaffaq bo‘lganbu platformada 500, 000 ga yaqin eng yaxshi mutaxassislar mavjud. Ularning 60% dan ortig‘i magistr, doktorlik yoki boshqa ilmiy darajalarga ega. Olinadigan noyob fikrlar (feedbeck) turli sohalardagi muammolarga yechim topishga imkon bermoqda.

METODOLOGIYA.

O‘zbekistonda fuqarolarning va ekspert jamoalarining davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmon, farmoyish, qonun loyihalarida ishtiroki va o‘zaro ta’sir o‘tkazishning ushbu samarali uslubi Prezident Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan bog‘liq. So‘nggi vaqtlarda, davlat apparati ishiga ilg‘or-zamonvaiy axborot texnologiyalarini joriy etilishi, shuningdek, yuqori lavozimli davlat xizmatchilarining ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishi haqidagi fikri, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga turtki bo‘ldi. Ya’ni, davlat boshqaruvidagi personallarga fuqarolar to‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish hamda o‘z taklif yoki e’tirozlarini bildirish imkoniyati vujudga keldi.

Bugun deyarli barcha davlat tashkilotlari muntazam ravishda jurnalistlar uchun brifinglar o‘tkazib jamoatchilik oldida o‘z hisobdorligini anglagan holda faoliyatini tashkil etmoqda. Aksariyat davlat idorlari rahbarlarining virtul qabulxonalari mavjud. Albatta davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining hozirgi holati yetarli darajada emas. Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv tizimining ochiqligi va samaradorligi yo‘lida qo‘llanilayotgan uslub va mexanizmlarni o‘rganish va amaliyotga keng joriy qilish lozim. Shuningdek, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan kraudsorsing konsepsiyasini to‘liq o‘rganish, undan foydalanish prinsiplarini mutaxassislar darajasida tizimli tahlil qilish va normativ-huquqiy hujjatlarda rasmiylashtirishni taqqazo etmoqda. O‘zbekistonda kraudsorsingni davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga tizimli joriy etilishi deyarli kuzatilmadi. Garchand, ikki katta Strategiya, idoralararo loyihalar, davlat dasturlarining xalq muhokamasiga qo‘yilishida kraudsorsingni passiv amaliyotini kuzatish mumkin. Davlat boshqaruvi organlarida elektron hukumatning barcha elementlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilar ekan, bu xalqaro tajribani tatbiq etishda dolzarb hisoblanadi.

[1] https://www. innocentive. com/about-us/about/

ADABIYOTLAR SHARHI

Bizning fikrimizcha, ushbu zamonaviy texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanish uchun kraudsorsing mohiyati va davlat boshqaruvini takomillashtirishdagi o‘rnini aniqlab olish kerak. Ayniqsa, davlat boshqaruvi organlarining aholi bilan o‘zaro ishonchli munosabatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan, uning afzalliklari va kamchiliklarini baholash lozim.

Kraudsorsing - doimiy ravishda, davlat boshqaruvidagi zarur va muammoli masalalar bo‘yicha jamoatchilikka murojaat qilishning xalqaro tajribadagi muhim amaliyotlardan biridir. Dastlab, 1714 yilda Britaniya parlamenti geografik uzunlikni aniqlashning ishonchli usulini ishlab chiqish uchun mukofot ta’sis etadi (Longitude Prize of 1714). Sovrinning o‘zi dengiz xronometri yaratuvchisi Jon Xarrisonga yarim asr o‘tgach berilgan bo‘lsa-da, ushbu misol bu turdagi eng mashhur tarixiy pretseduralardan biridir. Olimpiada emblemasi uchun tanlov o‘tkazilishi, kraudsorsing yordamida hatto Islandiya Konstitutsiyasining yangi matni yaratilganligi (The New York Times, october 24, 2012) bularning barchasi aholining keng doiralarini jalb qilish uchun uzoq vaqtdan beri qo‘llanib kelinayotgan amaliyot ekanini isbotlaydi. Shakl jihatidan kraudsorsing autsorsingga o‘xshaydi, agar autsorsingda bunday faoliyat kompaniya tashqarisida professional ijrochilar tomonidan muayyan ish haqi hisobiga amalga oshirilsa, kraudsorsingda, odatda berilgan topshiriq bo‘yicha bildirilgan g‘oya, loyiha uchun ish haqi to‘lash ko‘zda tutilmaydi yoki faqat eng e’tiborli hamda o‘rinli takliflarga muayyan miqdorda mukofot berilishi mumkin. Bunda berilgan topshiriq shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda o‘zlarining bo‘sh vaqtini muayyan tadqiqot yoki ishlanmaga sarflash xohishi bo‘lgan, ish haqi olishni ko‘zlamaydigan havaskorlar va mutaxassislar tomonidan bajariladi.

NATIJALAR

Innovatsion rivojlangan davlatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib ixtisoslashgan saytlarda loyihalarni amalga oshirishning kraudsorsing modellari amaliyotga tadbiq etilgan. Bu jamoatchi ekspertlarning maqsadli doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, muammolar yechimi va ish samaradorligini oshiradi.

Davlat boshqaruvi organlari tomonidan an’anaviy ravishda o‘z xodimlari yoki tor doiradagi mutaxassislarga, takomillashtirish maqsadida topshirilgan loyihani kraudsorsing platformasi foydalanuvchilarning keng jamoatchiligiga ochiq murojaat shaklida, taklif va mulohazalar uchun joriy qilinsa bu innovatsiyalar shakliga aylanadi. Agar O‘zbekistonda ham kraudsorsing platformalari sohalar va hududlar

kesimida yaratilsa ularning muvafaqqiyatli faoliyat yuritishiga ishonish mumkin. Chunki, bugun respublikada 27 mlndanortiq faol internet foydalanuvchilari ega (Xalq so'zi - 11 yanvar 2022). Shu bilan bir qatorda, vikipediya saytida o‘zbek tilidagi 140 470 dan ortiq, 62907 ta ko‘ngillilar tomonidan yozilgan maqolalar mavjud (O‘zbekcha Vikipediya. 12 mart 2021). Bu esa fuqarolarimizning ilm-fanga, jamiyat rivojiga befarq emasligini ko‘rsatadi.

Taraqqiy etgan, mamlakatlarda kraudsorsingdan foydalanishning muhim va juda ommabop yo‘nalishi bu davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari, boshqaruv qarorlarini ommaviy muhokama qilish, korrupsion holatlar bo‘yicha ma’lumotlar berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining strategik dasturlarini takomillashtirish qo‘llaniladi. Ushbu amaliyot O‘zbekistonda qonun loyihalarini tayyorlashda qo‘llanilmoqda va internetda keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilmoqda. Masalan, Harakatlar Strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, har yilgi davlat dasturlarini shakllantirish va o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun, qaror loyihalari rasmiy va norasmiy platformalarda o‘tkazilib kelinmoqda. Respublikamizda tarmoq va hududlar bo‘yicha kraudsorsing platformalarini yaratish davlat idorlari uchun quyidagi qo‘shimcha ijobiy imkoniyatlarni beradi:

- soha rahbarlari bevosita hudulardagi ijtimoiy-siyosiy takliflar hamda e’tirozlar, korrupsion holatlar bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

- davlat idorasi platformadan tizimli foydalanishi, har bir murojaatga alohida munosabat bildirishi orqali o‘ziga pozitiv siyosiy muhit shakllantiradi va imidj yaratadi;

- ilg‘or innovatsion hamda o‘rinli takliflar bergan yoshlarni seleksiya qilish natijasida muayyan sohadagi tashabbuskor kadrlar zahirasini shakllantiradi;

- fuqarolar maqsad va ehtiyojlarini o‘rganish asosida hudularda (mahalliy aholi hududning unikal muammolarini yuqori amaldorlarga nisbatan aniqroq anglaydi) qabul qilinayotgan qaror, strategik rejalar sifati jihatidan oshib mukammalashadi;

- jamoatchilik ekspertizasi hisobiga lobbizm qisqaradi va normativ hujjatlar takomillashadi;

- davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligiga ijobiy ta’sir qiluvchi professional va jamoatchi ekspertlar guruhi vujudga keladi;

- aholi fikri virtual o‘rganilib muammolar operativ tarzda bartaraf etiladi, mahallabay yurishlar soni qisqarib, byudjet mablag‘lari o‘rinli sarflanadi.

Shu o‘rinda aytish joizki, jamoatchilikka murojaat qilish muammoning aniq yechimini mutloq kafolatlamasligi ham mumkin, lekin ko‘plab holatlarda muammoni yechimini topish ehtimollik darajasi ortadi.

Har qanday texnologiya singari, kraudsorsing texnologiyasining ham kamchiliklari va cheklovlari mavjud, ular hisobga olinishi lozim. Kraudsorsing loyihalarini amalga oshirish, munozarali ishtirokchilarning keng doirasini jalb qilishga asoslangan bo‘lib, ular o‘z vaqtlarini sarflashlari va jamoatchilik muhokamalarida qatnashish uchun g‘oyalar va takliflarni yaratishlari kerak. Shu munosabat bilan loyiha ishtirokchilarini rag‘batlantirish vazifasi paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda, kraudsorsing platformalarini yaratilishi fuqarolarga ham quyidagi imkoniyatlar beradi:

- O‘rinli taklif, soha samaradorligiga hissa qo‘shgan tashabbus mualliflariga moddiy rag‘batlantirish berilishi;

- turli muammolarni hal qilishda shaxsiy qiziqish yoki uning katta ijtimoiy ahamiyati, foydalanuvchilar uchun qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati;

- Tashabbuskorning qaysidir tashkilotda ish faoliyatini boshlashda uning kreativligi (rezyumisida u qatnashgan loyihalar ko‘rsatiladi) ko‘rinadi.

Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolar o‘zlarining manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qonun loyihalarini shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat apparati faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilishda juda faol bo‘lib, jamoaviy tashabbuslar federal okruglar, regionlar hamda tarmoq sohalar kesimida ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan(https://www. roi. ru/poll/ 2021. Aprel 8).

Rivojlangan davlatlar amaliyotida, kraudsorsing loyihalarini amalga oshirish tajribasi, innovatsion loyihalar, turli tashabbuslar ishtirokchilari uchun shaxsiy turtki berishning yana bir turini ta’minlaydi: qo‘yilgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilganligi uchun olingan mukofotlarni shaxsiy rezyumega qayd etib o‘tish, yaxshi ustunliklar hamda ish beruvchilar e’tiborini jalb qilishga yordam beradi. Davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy masalalarda fuqarolar bilan muloqotiga sabab bo‘luvchi loyihalari aholi orasida juda faol muhokamalarga olib boradi, chunki ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ayni

jarayon, hokimiyat faoliyatini takomillashtirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Hokimiyat organlari va aholi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida kelib tushayotgan takliflarni hisobga olish bo‘yicha aniq tartibga solinadigan shaffof mexanizmlarning mavjudligi elektron hukumatning yangi elementlariga bo‘lgan ishonchni va moddiy shakllarni ko‘zlamaydigan kraudsorsing platformalari ishtirokchilarining faolligini oshiradi.

2017 yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi va hududiy Xalq qabulxonalariga 6 272 804 murojaatlar kelib tushgan. Bu murojaatlar tarkibida ko‘plab takliflar ham mavjud. Ular qaysidir tuzilma faoliyati doirasida amalga oshirilishi kutilayotgan o‘zgarishlarga ham turtki bo‘lmoqda. Agar tarmoq va hududiy kraudsorsing platformalari keng joriy etilsa, mavjud byurokratiya qisqarib, Xalq qabulxonalarining ish hajmi kamayishi va optimallashtirilishi, buning natijasida shart-sharoitga yo‘naltirilgan byudjet xarajatlari qisqartirilishiga erishish mumkin.

Kraudsorsing loyihalarida qatnashishga undash, an’anaviy rag‘batlantirish bo‘lib, ayniqsa tijorat loyihalari uchun odatiy hol hisoblanadi. Jumladan, 2020 yil may oyiga qadar InnoCentive platformasida amalga oshirilgan loyihalar doirasida o‘rinli fikr-mulohazalar uchun 35 million AQSh dollari miqdorida haq to‘langan (innocentive. com 2022. May 3).

Innovatsion g‘oyalarni kraudsorsing platformasidan izlash jarayonida resurslarni taqsimlash va kraudsorsinga xos bo‘lgan muhim muammoni hal qilish usullarini aniqlash lozim ya’ni, ko‘p miqdorda kelgan taklif va mulohazalarni tahliliy qayta ekspertizasini tashkil etish zarur. Ushbu muammoni kam baholash loyihaning haqiqiy muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin.

Kraudsorsing fuqarolar va davlat organlarining o‘zaro aloqasi uchun yaratilgan elektron platformalarda xususan, Berlin, Tokio, London, Moskva meriyasi tomonidan ishlab chiqilgan platformalarda muloqotning ommaviyligi fuqarolar yoki davlat idoralari tomonidan ko‘tarilgan masalalar va muammolar bo‘yicha tezkor, aniq choralar ko‘riladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat organlari faoliyatiga tatbiq etish darajasi bunday xizmatlarni elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan birlashtirib, tezkor javob berish va fuqarolarning murojaatlariga javoblar ustidan aniq idoralararo nazoratni tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, ayni platformalarni shakllantirilishi byudjetni rejalashtirishda ma’sullarga ayrim ma’lum bo‘lmagan, zarur byudjet parametrlarni qayd etishga imkon beradi. Shu bilan birga, ommaviy

axborot vositalari ishtirokidagi keng jamoatchilik ko‘magi mavjud rejalarni tuzatishga va muammoni tezroq hal qilishga yordam ko‘rsatadi.

Bir martalik loyihalarni amalga oshirish yoki jamoat muhokamasi uchun vositalarni joriy etishning dastlabki bosqichlarida maxsus platformalarni yaratish shart emas. Xalqaro amaliyotda kraudsorsing sohasidagi professional vositachilar – bilim brokerlariga murojaat qilish qulay va samaraliroq ekanligini ko‘rish mumkin. Vositachi kompaniyalar jamoatchilik muhokamasini tashkil etish va rag‘batlantirish, bilimlar bazasini shakllantirish, kelib tushayotgan takliflarni baholash va saralash uchun tasdiqlangan texnologiyalardan foydalanadilar. Asosan ular beriladigan gonorarning 10 foiziga egalik qilishadi.

Kraudsorsing loyihalarini ko‘p holatlarda izchillik yo‘qligi uchun tanqid qilinadi va ishonchsiz qaraladi. Bunday qarash shakllanishiga amalda uyushmagan va keraksiz ijrochilar ommasiga murojaat qilinganligi hamda takliflar bazasini soha mutaxassislari ekspertizadan o‘tkazmaganligi sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarni hozirgi vaqtdagi eng dinamik axborot tizimlaridan biri deb aytish mumkin, xususan, u kraudsorsing jarayonida qator qo‘shimcha afzalliklarni beradi. Ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarni tezroq tarqatish uchun foydali bo‘lib, ko‘plab munozara ishtirokchilarini aniqlashga va shu asosda qo‘shimcha xulosalar chiqarishga imkon beradi. Masalan, olis hududlarni rivojlantirish dasturlarini shaklantirishda, takliflarni ayni hudud vakillari bilan bir qatorda shu sohadagi mutuxassislardan olish hamda mualliflarining geografik joylashuvi asosida ayrim mintaqalarda tovar va xizmatlarga iste’molchilarning maqsadli guruhlarini aniqlash mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki kraudsorsing muhokamaning ochiqligini ta’minlash uchun uning ko‘lamini cheklamaslik zarur. To‘g‘ri buning natijasida keraksiz fikr-mulohazalar oqimi katta bo‘ladi, lekin shu qatorda muammoning yechimlari ham ko‘rsatib o‘tilishi tayin. Bunda, tijoriy hamda davlat sirlariga aloqador bo‘lgan, maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan masalalarni istisno qilinadi. Aholi orasida elektron xizmatlarning ommabopligi va internet-saytlardagi munozara ishtirokchilarining faolligi, munozaralarda ishtirok etish qulayligi kraudsorsing platformalarining faoliyati muvafaqqiyatli amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi. Aholini ijtimoiy foydali faoliyatga ko‘ngilli ravishda undash oson bo‘lishi uchun, ular o‘z uyidan chiqmasdan kompyuter yoki telefon orqali qiyinchiliklarsiz takliflarini bildirishi lozim. Agar fikr-mulohaza yoki shikoyat yozish uchun murakkab protseduralardan o‘tish kerak bo‘lsa, bu holatda kraudsorsing

texnolgiyalari foydali bo‘lmasligi mumkin. Bir vaqtning o‘zida bularning barchasi, internet ijtimoiy hayotning real sektoriga o‘tishini rag‘batlantiradi.

Bugungi kunda, respublikamizdagi ba’zi vazirlik va idora rahbarlari dastlab o‘z faoliyatiga kirishish bosqichida ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarga murojaat yo‘llab, ayni tizimni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar so‘rayotganiga guvoh bo‘lamiz, yana ba’zi bir yosh rahbarlar telegram messenjeri orqali ovozli chat uyushtirib jamoatchilik fikrini o‘rganmoqda, albatta bu ijobiy qabul qilinayotgan jarayon hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu amaliyotlar davomli bo‘lishi hamda hududlar kesimida ham amalga oshirilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, to‘laqonli aynan messenjer yoki ijtimoiy tarmoqda emas balki, ayni sohada tashkil qilingan kraudsorsing platformalarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda aytish lozimki, jamoatchilik bilan aloqa mexanizmlarini yanada takomillashtirish, zamonaviy aloqa imkoniyatlaridan davlat boshqaruvi organlari faoliyat samaradorligini bosqichma-bosqich oshirishda foydalanish bugungi zamon ta’labi bo‘lib qolmoqda. Elektron hukumatni yangi bosqichga olib chiqish oraqali hokimiyatning barcha tarmoqlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ijtimoiy faolligini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston va chet eldagi siyosatchilar so‘nggi yillarda dunyoda shakllangan samarali va maksimal darajada ochiq hukumatga bo‘lgan jamoatchilik talabiga javob berish zarurligini tushunib, uning axborot shaffofligini, jamoatchilik ishtiroki va hamkorligini ta’minlashni o‘zlarining ustivor vazifasi, deb bilmoqdalar. Barak Obama Oq uyga kelganida birinchi direktivalaridan biri shu mavzuga bag‘ishlangan edi(obamawhitehouse. archives. gov. 2009 dekabr 8), aynan O‘zbekistonda ham shu vazifa - "Ochiq hukumat" tizimining shakllanishini ustivor vazifa sifatida belgilab olingan. Jumladan, Jahon bankining “Davlat boshqaruvi sifati ko‘rsatkichilari”ning aholi fikrini hisobga olish va davlat organlarining hisobdorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston 2019 yil yakuni bo‘yicha 6, 90 ball olgan bo‘lsa, bu 2010 yilga nisbatan 5, 95 ballga o‘z o‘rnini yaxshilagan (lex. uz 2021 iyun 16).

Bugun yoshlar o‘z hayotini ijtimoiy tarmoqlar va internetsiz tasavvur qila olmaydi. Ko‘plab tashabbuskor, ilmli katta potensiali mavjud avlodni turli bilim platformalariga birlashtirish, shu yo‘l bilan, barcha sohalarda jamoaviy intellektual faoliyat yurituvchi jamoalarni shakllantirish, ularni faoliyatiga qarab rag‘batlantirishning hilma-hil usullaridan foydalanish zarur. Xususan, eng qiziqarli takliflar mualliflarining tegishli idoralar rahbariyati bilan muntazam ravishda uchrashuvlarini tashkil etish va shu

bilan "ijtimoiy liftlar" tizimini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish mumkin. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar yoshlar faolligini hokimiyat bilan konstruktiv o‘zaro aloqalariga imkon beradi.

Bugungi kunda g‘arb davlatlarida kraudsorsingni “foydalanuvchi uchun innovatsiya” deb atashmoqda. Shunday ekan O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvi faoliyati samaradorligini oshirish uchun kraudsorsing texnologiyalaridan keng foydalanish quyidagi afzalliklarini yaratadi:

- mamlakat, mintaqa, hatto butun jahondagi mutaxassislar bilimi, malakasi va iste’dodidan foydalanish imkoniyati;

- bir kishiga yuklangan ishni odamlarning juda katta guruhi bilan bajarish imkoniyati;

- katta sarf-xarajatlarsiz zarur g‘oyalar, innovatsiyalarga va boshqa muhim fikrlarga ega bo‘lish va boshqalar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://www. innocentive. com/about-us/about/

2. Origins of the Longitude Prize - https://longitudeprize. org/the-history/

3. Longitude found: the story of Harrison's clocks - https://www. rmg. co. uk/stories/topics/harrisons-clocks-longitude-problem

4. Crowdsourcing Iceland’s Constitution - https://rendezvous. blogs. nytimes. com/2012/10/24/crowdsourcing-icelands-constitution/

5. https://xs. uz/uzkr/post/ozbekistonda-internet-fojdalanuvchilari-soni-ochiqlandi

6. Wikipedia Statistics uzbek language https://uz. wikipedia. org/wiki/Bosh_Sahifa

7. Initsiativы na golosovanii - https://www. roi. ru/

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning virtual qabulxonasi - https://pm. gov. uz/uz#/rc_app_root

9. Optimallashtirish deb ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning tuzilmalari va bo‘linmalari harajatlarini qayta taqsimlash, shtat birliklarini qisqartirish, shu jumladan ularning funksiyalarini raqobat muhitiga o‘tkazishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

10. https://www. innocentive. com/

11. Crowdsourcing and Open Data - https://open-science. berlin/

12. Japanese Crowdsourcing2021 - https://beststartup. asia/15-top-japanese-crowdsourcing-companies-and-startups-of-2021/

13. London's Best Crowdsourcing Companies - https://www. beststartup. co. uk/londons-best-crowdsourcing-companies-to-work-for-and-buy-from/

14. Kraudsorsing proektы Pravitelstva Moskvы - https://www. crowd. mos. ru/

15. On his first day in Office, President Obama signed the Memorandum on Transparency and Open Government, ushering in a new era of open and accountable government meant to bridge the gap between the American people and their government - https://obamawhitehouse. archives. gov/open/about

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16. 06. 2021 yildagi PF-6247-son - https://lex. uz/docs/5459107

17. Uzbekistan: Government effectiveness - https://www. theglobaleconomy. com/Uzbekistan/wb_government_effectiveness

EXTENDED ABSTRACT

THE ROLE OF CROWDSOURCING PLATFORMS IN BUILDING THE SOCIAL STATE

In recent years, the emergence of crowdsourcing platforms has revolutionized the way societies operate and interact. These platforms have played a significant role in building the social state by harnessing the power of collective intelligence and enabling widespread participation in various social initiatives. This extended abstract explores the key aspects of how crowdsourcing platforms contribute to the development of a social state.

Firstly, crowdsourcing platforms empower individuals to actively engage in social problem-solving. By providing a digital space for collaboration and idea-sharing, these platforms enable citizens to contribute their knowledge, skills, and perspectives towards addressing societal challenges. This inclusive approach ensures that a diverse range of voices are heard, leading to more comprehensive and effective solutions.

Secondly, crowdsourcing platforms facilitate citizen participation in decision-making processes. Through online surveys, polls, and feedback mechanisms, these platforms enable governments and organizations to

obtain valuable insights and opinions from a wide range of stakeholders. This democratic approach ensures that public policies and initiatives are shaped based on the needs and preferences of the community, fostering a sense of ownership and collective responsibility.

Furthermore, crowdsourcing platforms promote transparency and accountability in governance. By providing a platform for citizens to report issues, suggest improvements, and monitor the progress of projects, these platforms create a feedback loop between the government and the public. This fosters trust, enhances government responsiveness, and enables citizens to actively contribute to the development and maintenance of public services.

Additionally, crowdsourcing platforms have proven to be effective tools for mobilizing resources and coordinating social initiatives. Through crowdfunding campaigns, volunteers can raise funds for community projects, social causes, and disaster relief efforts. These platforms also facilitate the coordination of volunteer activities, enabling individuals to contribute their time and skills towards social impact projects.

In conclusion, crowdsourcing platforms have emerged as powerful tools in building the social state. By promoting inclusivity, citizen participation, transparency, and resource mobilization, these platforms empower individuals to actively contribute to the betterment of their communities. As these platforms continue to evolve and expand, their role in shaping the social state will become increasingly crucial in creating a more collaborative, inclusive, and sustainable society.

A PHILOSOPHICAL EXPLORATION OF MARTIN HEIDEGGER'S “THE ORIGIN OF THE WORK OF ART”

Teacher Sherzodbek BURXONOV

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

Annotation

In this thought-provoking article, we delve into the intricate web of Martin Heidegger's seminal work, "The Origin of the Work of Art, " to unravel the profound insights it offers into the essence of art. Heidegger's exploration of art transcends mere aesthetics; it delves into the very core of human existence and the way we engage with the world around us. This article presents a comprehensive interpretation of Heidegger's ideas, making them accessible and engaging for both seasoned philosophers and those new to the world of phenomenology.

Heidegger's inquiry begins with a fundamental question: What makes a work of art, in all its various forms, a unique mode of truth-revealing? This question sparks a journey into the intricate relationship between the artist, the artwork, and the audience, transcending conventional definitions of art. Through Heidegger's lens, we come to understand art as a dynamic process of bringing-forth, where the artwork becomes a locus of revelation, revealing hidden aspects of our existence. Our exploration further touches upon Heidegger's concept of the "earth" and the role it plays in grounding human existence. We examine how Heidegger's philosophy of art is deeply entwined with his broader philosophy of Being, shedding light on the human condition and our place in the world. This article not only dissects Heidegger's theories but also relates them to contemporary debates in aesthetics and the arts. It addresses questions of artistic expression, authenticity, and the transformative power of art in the modern world. Intriguingly, Heidegger's "The Origin of the Work of Art" forces us to reevaluate our understanding of art as a mere object of contemplation, urging us to see it as a profound event that shapes our existence and our understanding of truth. In summary, this article serves as a captivating introduction to Heidegger's philosophy of art. It invites readers to contemplate the essence of art, encouraging a deeper appreciation of its significance in our

lives. Whether you're a seasoned philosopher or someone curious about the intersections of art and philosophy, this exploration of Heidegger's ideas promises to be a rewarding journey into the depths of human thought and creativity.

Keywords. Hupokeimenon, subiectum, eidos, interpretation, aesthetics, essence, phenomenology, materia and forma.

INTRODUCTION

Martin Heidegger, known for his profound contributions to existential phenomenology, embarked on a philosophical journey that would challenge conventional perceptions of reality and Being. While the term "hupokeimenon" hails from Aristotle's metaphysical lexicon, its echoes resonate in Heidegger's exploration of ontology and the essence of Being. In this article, we delve into Heidegger's encounter with "hupokeimenon" and how it illuminates his unique perspective on human existence. Heidegger's philosophy, as showcased in "Being and Time" and other works, seeks to unravel the fundamental question of human existence. Central to his thinking is the concept of "Dasein, " often translated as "Being-there" or "existence, " which resonates with the concept of "hupokeimenon" in Aristotle's thought. Heidegger's "Dasein" is the underlying subjectivity, the locus of human experience, that engages with the world.

LITERATURE REVIEW

Martin Heidegger (Heidegger, 1971: 264), Jean-François Lyotard (Lyotard, 1991: 225), Richard F. H. (Richard, 2006: 296), Iain Thomson (Thomson, 2005: 224), Jeffrey Andrew Barash (Barash, 2003: 350), Charles. G (Charles, 261: 1983), Julian. Y. (Julian, 2001: 179) and others, These books represent a selection of scholarly studies that engage with Martin Heidegger's essay "The Origin of the Work of Art" and its implications for various philosophical themes, including ontology, aesthetics, technology, and historical meaning. Researchers and scholars have continued to study and interpret this influential essay in the context of Heidegger's broader philosophical project.

METHODOLOGY

Hermeneutical analysis, phenomenological inquiry, comparative analysis, existential and ontological investigation, interdisciplinary approaches, historical and contextual analysis, ethical and political critique, reception history were used during the research.

RESULTS

In traditional philosophy, the subject-object dichotomy prevails, wherein a subject perceives or interacts with an external object. Heidegger, influenced by phenomenology, challenges this paradigm by emphasizing the interconnectedness of "Dasein" with the world. Rather than viewing "Dasein" as a detached observer, Heidegger posits that we are inherently immersed in the world, co-constituting it through our existence. This resonates with the idea of "hupokeimenon" as the foundational subject beneath the layers of experience. Heidegger's exploration of time, a central theme in his philosophy, further ties "Dasein" to "hupokeimenon. " Heidegger suggests that “"Dasein" exists temporally, always oriented towards the past and future. This temporal character aligns with the enduring nature of "hupokeimenon" beneath the transient moments of experience. Heidegger's hermeneutic approach to understanding Being underscores the idea that "Dasein" interprets and makes sense of the world. This interpretation resonates with the notion of "hupokeimenon" as the underlying subject that gives meaning to the world through its interpretations and engagements" (Heidegger, 1971: 22).

Martin Heidegger's encounter with "hupokeimenon" is a testament to the rich tapestry of influences that shaped his philosophy. In his exploration of "Dasein" and the essence of Being, Heidegger offers a profound reinterpretation of the underlying subject that underpins human existence. This subject, like the "hupokeimenon, " is not a detached observer but an active participant in the co-creation of reality. In Heidegger's philosophy, "Dasein" emerges as the locus of meaning, interpretation, and authentic existence, inviting us to reevaluate our understanding of self, others, and the world we inhabit. In the realm of philosophy, the concept of the "subiectum" has played a significant role in unraveling the complex interplay between subjectivity, perception, and the nature of reality. “The term "subiectum" is derived from the Latin word "subiectus, " which means "subject" or "substrate. " While it has been employed in various philosophical traditions, its interpretation and implications have evolved over time. In this essay, we will delve into the historical development of the concept of "subiectum" and its relevance in contemporary philosophical discourse" (Heidegger, 1971: 24-29).

The concept of "subiectum" finds its origins in the works of Aristotle, particularly in his exploration of the "hupokeimenon. " Aristotle used "hupokeimenon" to refer to the underlying substance or subject of change or transformation. It represented the foundational entity beneath the various qualities and characteristics of an object. For Aristotle,

“understanding the "hupokeimenon" was crucial for comprehending the enduring identity of objects as they underwent change. This idea laid the groundwork for later philosophical developments concerning subjectivity and reality. In the medieval period, particularly during the scholastic era, the concept of "subiectum" underwent transformations. Scholastic philosophers like Thomas Aquinas engaged with Aristotle's ideas and incorporated them into their theological inquiries. Here, "subiectum" often referred to the individual substance of things, including human beings. Aquinas, for example, used the term to explore the metaphysical nature of the soul as the enduring and individual subject of human existence" (Lyotard, 1991: 180-185).

With the advent of modern philosophy, notably in the works of René Descartes and Immanuel Kant, the concept of the "subiectum" evolved to encompass the realm of subjectivity. “Descartes' famous dictum "Cogito, ergo sum" ("I think, therefore I am") exemplifies the shift in focus from external objects to the subject's inner world. The "subiectum" now referred to the thinking subject, marking a significant departure from its Aristotelian roots" (Richard, 2006: 52-56).

Immanuel Kant introduced a groundbreaking perspective on the "subiectum" through his transcendental idealism. He argued that the "subiectum" was not merely the thinking subject but the transcendental condition for the possibility of experience. Kant's transcendental subjectivity emphasized that our knowledge of reality is mediated through our cognitive faculties, fundamentally shaping our perception of the world. The "subiectum" thus became central to Kant's critical philosophy, where it acted as the linchpin between our mental representations and the noumenal world. In contemporary philosophy, particularly within postmodern and continental traditions, the concept of "subiectum" has continued to evolve. Thinkers like Michel Foucault and Jacques Derrida have challenged the stability and unity of the subject, highlighting the fluid and socially constructed nature of subjectivity. In this context, the "subiectum" represents not a fixed and independent self but a site of complex interactions, discourses, and power dynamics. “The concept of the "subiectum" has traversed a fascinating trajectory through the history of philosophy. From its Aristotelian origins as the underlying substrate of reality to its transformation into the transcendental subjectivity of Kant and the postmodern deconstruction of subjecthood, the "subiectum" continues to be a pivotal notion in our quest to understand the nature of perception, subjectivity, and reality. In contemporary philosophy, it reminds us of the intricate interplay between our cognitive faculties and the external world, urging us to

explore the multifaceted nature of human subjectivity and its role in shaping our understanding of the world. The "subiectum" invites us to question the boundaries of the self, the dynamics of perception, and the enduring mysteries of consciousness in our ongoing philosophical journey" (Barash, 2003: 223-250).

"Eidos" is a philosophical term with deep roots in ancient Greek thought, primarily associated with the works of Plato. It is a concept that holds significant importance in the realm of metaphysics and epistemology, shaping discussions on the nature of reality, knowledge, and forms. The term "eidos" is derived from the ancient Greek word εἶδος (pronounced "īdos"), which translates to "form" or "species. " Plato, the renowned Greek philosopher, is perhaps the most influential thinker associated with the concept of "eidos. " In his philosophical dialogues, "Plato used "eidos" to refer to the ideal, unchanging, and eternal forms or essences that exist beyond the physical world of appearances. In Plato's theory of forms, "eidos" plays a central role. He believed that the physical world we perceive through our senses is a mere reflection or imperfect copy of these ideal forms. For example, the concept of a perfect circle exists as an "eidos, " while any physical circle we encounter in the world is an imperfect manifestation of this ideal form" (Thomson, 2005: 111-125).

Mustaqillik davrida Qirg‘iziston uchun migratsiya eng xarakterli va muhim jarayonlardan biriga aylandi. Qirg‘iziston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda o‘tkazilgan uy xo‘jaliklari byudjeti va mehnat resurslari bo‘yicha integratsiyalashgan tanlama

tadqiqotiga ko‘ra, 15 yosh va undan katta yoshdagi mehnat muhojirlari soni 263 ming kishini, jumladan, erkaklar – 77 foiz va ayollar – 23 foizni tashkil etdi. Mehnat muhojirlarining asosiy qismi – ya’ni 79 foizi respublikaning qishloq xo’jaligida mehnat qilgan aholisidir.

Qirg'izistonning YeOIIga qo'shilishi tufayli respublika fuqarolari Rossiya Federatsiyasi hududida erkin harakatlanish va ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar, shuning uchun mehnat muhojirlarining eng ko'p qismi Rossiya va Qozog'istonda ishlaydi. Qirg‘izistonlik mehnat muhojirlarining aksariyati past malakali bo‘lib, og‘ir ish joylarida ishlashadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qirg'izlarning 96 foizi Rossiyada, 2 foizi Qozog'istonda, 1 foizi Turkiyada mehnat qiladi va so’nggi yillarda qirg'izlar mehnat migratsiyasi uchun Janubiy Koreyaga ketishni boshlagan [11].

Ekspert Oygul Sadvoqasovaning aytishicha, Qirg‘izistondan turli yosh va ta’limga ega bo‘lgan ayollar va erkaklar migratsiyaga ketadi. Aytishim kerakki, qirg'izistonlik muhojirlar mezbon mamlakatlarda eng muvaffaqiyatli moslashadilar va etnik-madaniy birlashmalar oldida ijtimoiy aloqalarga ega bo’lishadi.

Tojikistonda mehnat migratsiyasi 1992 yildan boshlangan. O'sha paytda mamlakatda keskin siyosiy vaziyat hukm surdi - SSSR parchalanishi natijasida mamlakat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin fuqarolar urushi boshlandi. Shuningdek, SSSR parchalanishi bilan ko'plab yirik ishlab chiqarish korxonalari ilgari Ittifoqning boshqa davlatlaridan kelgan xomashyo etishmasligi tufayli inqirozga uchradi. Bularning barchasi ishsizlikka olib keldi va aholining kayfiyatiga ta'sir qildi, bu esa mehnat migratsiyasining kuchayishiga yordam berdi. Tojikistonda mehnat migratsiyasining eng yuqori nuqtasi 2005-2013 yillarda kuzatilgan. Respublikadan tashqi mehnat migratsiyasining asosiy oqimi MDH davlatlariga kuzatildi.

Tojikiston mehnat, migratsiya va aholi bandligi vaziri o‘rinbosari Emin Sanginzodaning so‘zlariga ko‘ra, bugungi kunga kelib, 2018 yilda Tojikistondan Rossiyaga mehnat muhojirlari oqimi o‘tgan yilga nisbatan 1 foizga kamaygan. Oxirgi besh yil ichida Tojikistondan chet elga ishlash uchun ketayotgan muhojirlar oqimi 39, 5 foizga kamaydi9. “2018 yil davomida 484 176 nafar mehnat muhojiri migratsiya kartalari asosida respublikani tark etgan. Ularning 86, 7 foizi erkaklar, 13, 3 foizi ayollardir. Rossiya Federatsiyasiga 463 552 kishi, Qozog‘istonga 13 586 kishi ishlash uchun ketgan”, — dedi Mehnat vaziri o‘rinbosari.

2019 yilga kelib Tojikistondan mehnat muhojirlari soni o‘tgan yilga nisbatan 27 foizga oshgan. Shunday qilib, 2019-yilning dastlabki 7 oyida,

Sputnik Tojikiston respublika Mehnat vazirligining Migratsiya xizmati ma'lumotlariga tayanib, Tojikistondan 357 mingdan ortiq fuqaro mehnat migratsiyasiga ketgan. Birgina 2019 yilning iyul oyida Tojikistondan 57 mingga yaqin kishi ish izlab chiqib ketgan, bu 2018 yilning shu davriga nisbatan 26, 7 ming kishiga ko'pdir [12].

2018-yilda Tojikistondan ikki mingdan ortiq mehnat muhojiri Xorijda bandlik agentligi orqali Turkiya va Polshaga jo'nab ketgan. 2019-yil boshida 1000 dan ortiq fuqaro Polsha, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus va Qozog'istonga ishlash uchun yuborish uchun ariza topshirgan.

Tashqi mehnat migratsiyasida asosan 17-62 yoshdagi mehnatga layoqatli aholi - erkaklar va 17-57 yoshli ayollar ishtirok etadi. Yosh tarkibiga ko'ra, bular asosan 17-29 yoshli yoshlar - 262, 8 ming kishi yoki jami migrantlarning 39, 2%ini tashkil etadi. Tashqi mehnat migratsiyasi ishsizlarning katta qismini qamrab oladi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, u aholining iqtisodiy faol qismining 30 dan 40 foizigacha yetadi.

Ekspert Elena Sadovskaya ta'kidlaganidek, Tojikiston mehnat migratsiyasining mamlakat va butun mintaqa hayotida tutgan o'rni haqida yaqqol misoldir. Avvalo, bu migrantlarning pul o'tkazmalarida ko'rinadi. 10-15 yil oldin ularning hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmiga teng edi. Bugungi kunda birgina Rossiyadan migrantlar jo'natgan pul o'tkazmalarining ulushi Tojikiston yalpi ichki mahsulotining 30% dan ortig'ini, mutlaq hisobda esa qariyb 2, 5 mlrd dollarni tashkil etadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda (2013-2018) mehnat muhojirlari faqat rasmiy shaxslar orqali 15 mlrdni tashkil etib ushbu shu vaqt ichida Tojikistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmidan bir necha baravar ko'proqdir.

Pul o'tkazmalari Tojikistondagi ko'plab oilalarning yashashi uchun asosiy daromad manbayidir. Pul oziq-ovqat, dori-darmon, bolalar ta'limi, uy qurish va ta'mirlash, mebel sotib olish, shuningdek, o'g'il, qiz yoki o'zining to'yiga sarflanadi. Ko'pincha, nafaqat oila, balki qarindoshlar va qo'shnilar ham migrantlardan yordam oladi. Ayrim muhojirlar qaytgandan so'ng o'z bizneslarini boshlashlari mumkin, chunki ular mamlakatga yangi ko'nikma va bilimlar bilan qaytishadi. Migrantlar yordamida milliy iqtisodiyot darajasida ham ijobiy holatlar kuzatiladi, xususan ichki iste'mol jonlanadi, mamlakatga kiruvchi valyuta tovarlar importini va boshqa moliyaviy operatsiyalarni ta'minlash uchun ishlatiladi.

O'zbekiston ham mintaqadagi yirik mehnat muhojirlari donori bo'lgan davlatdir. Aholining asosiy qismi Rossiya va Qozog'istonda ishlaydi.

Ammo so‘nggi 5 yil ichida mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgara boshladi – AQSH, Turkiya, Qozog‘iston, Saudiya Arabistoni, Isroil, Janubiy Koreya hamda Birlashgan Arab mamlakatlariga ishchi kuchi oqimining barqaror o‘sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, Qozog‘istonga 5 yil ichida migrantlar soni 10 barobarga oshgan va 355 540 kishini tashkil qilgan. 2018 yilda Turkiyada 34 399 kishi, BAAda 4 578 kishi ishlagan bo’lsa, Rossiyaga mehnat migratsiyasi 2018 yil davomida 944 328 dan 852 008 ga kamaydi. Mutaxassislarning fikricha, bu 2014-yilda Rossiya rublining qadrsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, buning natijasida mehnat muhojirlarining dollar hisobidagi daromadlari ikki barobar qisqardi.

Ko'pincha o'rta ma'lumotli yosh va o'rta yoshli erkaklar ishlash uchun O'zbekistondan chiqib ketishadi. Ularning maqsadi pul topish va uyga jo'natishdir. “Yigitlar ota-onasiga yordam berish, turmush qurish uchun pul topishga boradi. Ular odatda uyda turmush qurishadi, keyin esa ishga qaytishadi. Qozog‘iston bilan chegaradosh viloyatlarda ular xotini bilan kelishlari mumkin, bolalar O‘zbekistonda ota-onalari bilan qolishadi”, - deydi Sadvoqasova.

Shuningdek, mutaxassisning so‘zlariga ko‘ra, chegara hududlariga yosh va o‘rta yoshli ayollar ham kundalik yumush bilan kelishadi. Ular uy-joy izlashlari shart emas, uzoq vaqt qolishmaydi. Qozog‘iston va O‘zbekiston chegaralari ochilishi bilan bu, ayniqsa, yozda kundalik amaliyotga aylanib qoldi.

XULOSA

Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyoda, ayniqsa Rossiya va Qozog‘istonda mehnat migratsiyasi siyosiy muammo sifatida qaralmoqda. Migrantlar ijtimoiy-iqtisodiy muhitga, keyin esa siyosiy muhitga bosim o'tkazishi mumkin, deb ishoniladi. Ammo shu bilan birga, iqtisodiy nochorlik tufayli davlat ko'tara olmagan yukni migrantlar o'z oilalari uchun o'zlari hal qiladilar. Pul o‘tkazmalari aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, ommaviy migratsiya esa milliy mehnat bozoridagi keskinlikni pasaytiradi va aholining muhim guruhlari farovonligini oshiradi.

Bizning nazarimizda, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun O‘zbekiston “Bandlik va mehnat munosabatlari” vazirligining bevosita boshchiligida ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar, yirik kompaniyalar buyurtmalariga muvofiq yollanma, malakali ishchi va mutaxassislarni tayyorlash mexanizmini takomillashtirish lozim.

Bunda kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega iqtidorli yoshlar tanlov asosida saralab olinadi, muayyan davr davomida ularga borib ishlashi lozim bo‘lgan mamlakatning tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari o‘rgatiladi, tanlangan ish, kasb, hunar bo‘yicha zaruriy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladiki, toki migrant o‘zi tashrif buyurgan mamlakat yoki korxona talablari darajasida vazifalarni bajara oladigan tayyorgarlikka ega bo‘lsin. Bu esa so’nggi yillarda ko’plab salbiy oqibatlarga olib kelgan xususiy bandlik agentliklarida (XBA) kuzatilgan firibgarlikdan holi davlat tomonidan kafolatlangan fuksiyasi kengaytirilgan tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ko’rinishida bo’lishi lozim. Ishchi kuchi eksportini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yilishi respublikaga juda katta manfaat keltiradi:

Birinchidan, ishchi kuchi eksportidan keladigan daromad miqdori keskin oshadi;

Ikinchidan, yoshlarda malakali ishchi yoki malakali mutaxassis bo‘lishga, ya’ni yaxshi o‘qishga qiziqishi ortadi;

Uchinchidan, yoshlarda xirijiy tillarni o‘rganishga moyillik va tajriba ortadi;

To‘rtinchidan, xorijda malakali ishlarni bajargan yoshlarimiz, o‘z yurtiga qaytganda, milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi taklif. Mamlakatda ishsizlik muammosini hal etish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarni munosib ish haqi bilan ta’minlash bevosita iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bog‘liq. Shu sababli davlat arboblari, mas’uliyatli lavozimlardagi amaldor shaxslar, partiya rahnomalari, profesor-o‘qituvchilar va olimlarning maoshlarini mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan uyg‘unlikda oshirib borish tartibini joriy etish. Sababi, mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, milliy iqtisodning o‘sish sur’atlari, qolaversa, tirikchilik o‘tkazish, oilani tebratish ilinjida o‘zini o‘z Vatanida oila va ota-onasi bag‘rida yashab, ishlab yurish baxtidan mahrum qilgan, begona yurtlarda ne-ne mashaqqatlar bilan halol mehnat qilib, barcha kamsitish va kezi kelganda haqoratlarga matonat bilan bardosh berib, daromad topayotgan mehnat migrantlariga emas, aynan nomlari yuqorida zikr etilgan toifadagi mutasaddi shaxslarning hatti-harakati va mas’uliyatiga bog‘liq.

Uchinchi taklif. “Ish haqi minimumi” va “Yashash minimumi” to‘g‘risida qonunlarni qabul qilish va amaliyotga joriy etish. Ushbu chora mamlakatda yaratilgan va bozor subyektlari orasida taqsimlanishi loim bo‘lgan milliy daromadda yollanma ishchilarning ulushini adolat yuzasidan oqilona darajada ko‘tarish orqali nafaqat mehnat

migratsiyasini xohish qiluvchilar sonini qisqartirish, balki mamlakatda boshlangan kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasini amalga oshirishning ham muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchi taklif. Barcha tumanlarda dastlab 1 ta, keyinchalik 2-3 tagacha qishloq xo‘jaligi sohasida yirik-yirik davlat xo‘jaliklarini tashkil etish. Yaqinda saytda e’lon qilingan Kun. uz muxbirlarining intervyusida ishtirok etgan yigit aqalli 0, 5 ga yer maydoni bo‘lsa, O‘zbekistonga qaytishga tayyor ekanligini, hattoki yerga nima ekib, qanday daromad olishni ham yaxshi bilishini ma’lum qilgan. Lekin yerni bunday taqsimlab berish yer resurslaridan unumli foydalanish tamoyillariga mos kelmaydi. Biroq mingta, ikki mingta ehtiyojmandlarga ajratiladigan yer maydonlarini birlashtirib, 500 ga yoki 1000 ga yer maydonida yirik xo‘jalik tashkil etilib, barcha yerga talabgorlarni yerda ishlashga jalb etilsa, unda ko‘lam samarasi evaziga katta daromad olish mumkin. Bunday yirik xo‘jaliklarni tashkil etish dastlab kambag‘allikka qarshi kurash uchun nazarda tutilgan davlat resurslarini jalb etish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, xo‘jalik investitsion faoliyatiga yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantiruvchi va undan bank foiz stavkalaridan yuqori daromad olishni ta’minlovchi samarali mexanizmlar tizimi yaratilishi va amaliyotga joriy etilmog‘i lozim. Xo‘jalik faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish uchun unga konkurs asosida eng kuchli, iste’dodli rahbarlarni va soha mutaxassislarini jalb etish lozim. O‘ylaymizki, biz tasavvur qilgan shakldagi davlat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etishning, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta’imnlashning haqiqiy andozasiga, qolaversa, agrar sohada ulkan monopol mavqega ega bo‘lgan O‘zbekistonning ushbu sohadagi bepoyon imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, joiz bo‘lsa butun jahonga yoyishning samarali markazlariga aylantirilishi qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda ham, bandlik va qashshoqlik muammolarini hal etishda ham juda katta natijalar beradi. Yirik davlat xo‘jaliklaridan qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or va innovatsion agrotexnik usullardan foydalanish, fan yutuqlarini keng tatbiq etish va yuqori natija olishning eksperimental bazasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ularni tuman hududidagi fermer xo‘jaliklariga amaliy yordam ko‘rsatish, ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash, ularni innovatsion asosda rivojlantirishning lokomativlariga aylantirish lozim. Tuman hududida ishlab chiqarilgan xom ashyoni sanoat miqyosida qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish, talaygina qismi nes-nobud bo‘layotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, ularni tashqi bozorlarga eksport qilishni tashkil etishdek bugungi kunning dolzarb

muammolarini hal etish davlat xo‘jaliklari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlariga aylanmog‘i lozim.

Beshinchi taklif. O‘zbekistonda ta’lim sifatini tubdan radikal darajada ko‘tarish. Milliy iqtisodiyotda katta resurslar sarfi va xalqimizning mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan tovar va xizmatlprning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun ular, birinchidan, sifati yuqori, ikkinchidan esa, narxi arzon bo‘lishi kerak (Xitoy tajribasi). Sifati yuqori, lekin narxi arzon raqobatbardosh mahsulotni faqat sifatli mehnat bilan yaratish mumkin. Sifatsiz mehnat bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish to‘g‘risida o‘ylash – bulutsiz musaffo osmondan yomg‘ir yog‘ishiga umidvor bo‘lishdek ma’nosiz. Qadimdan bizga meros qolgan naqlda “Shayxda hunar bo‘lmasa machit ham torlik qiladi”deyilgan. Qimmatbaho resurslardan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, demak, mamlakatda ko‘plab yangi ish o‘rinlari barpo etish, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning eng samarali yo‘li – xalqimizning hunarini oshirish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarinng malakasini, bilim saviyasini, kreativ qobiliyatini rivojlantirishdir. Xalqimizda bunday noyob fazilatlarni shakllantarishda ta’limning roli benihoya katta. To‘g‘ri, keyingi yillarda davlatimiz rahbari, O‘zbekiston hukumati ta’limni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta’lim sohasida ko‘proq miqdor o‘zgarishlar sifatida natija bermoqda. O‘zbekiston ravnaqi uchun aynan sifat o‘zgarishlar juda muhim. Mazkur mavzu doirasida ta’limning barcha murakkab muammolarini yoritish imkoni mavjud emas. Lekin, lo‘nda qilib ifodalaganda, mamlakatda ta’limnng shunday modeli yaratilishi kerakki, u butun xalqning asosiy diqqat-e’tiborini ta’limga, butun kuch-g‘ayratini uni tubdan yaxshilashga yo‘naltirsin. Nazarimizda, bu noyob model xalqimizning qonida azal-azaldan mustahkam joylashgan, buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan yashirin imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga va uni mamlakatimizni nafaqat mehnat migratsiyasi illatlaridan xolos etishga, balki jonajon O‘zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmog‘i lozim. Sifatli ta’lim O‘zbekistonni katta taraqqiyotning ravon yo‘liga olib chiqishning eng kam xarajat va eng qisqa yo‘lidir.

REFERENCES

1. https://parliament. gov. uz/uz/events/committee/34644/

2. Алимов Сардор Комил ўғли. Аҳоли миграцияси ижтимоий-ахлоқий муҳит трансформацияси омили сифатида. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2022. http://library. ziyonet. uz/uz/book/123332

3. Министерство Внутренних Дел Российской Федерации. Отдельные показатели миграционной ситуации в Российской Федерации за январь-декабрь 2017 года с распределением по странам и регионам. https://xn--b1aew. xn--p1ai/Deljatelnost/statistics/migracionnaya/item/12162171/

4. История создания. Федеральная миграционная служба. http://fms-nso. ru/ufms/history/

5. The number of international migrants reaches 272 million, continuing an upward trend in all world regions. UN. org. https://www. un. org/development/desa/en/news/population/international-migrant-stock-2019. html

6. Трудовая миграция в Центральной Азии. ОБСЕ. https://www. osce. org/ru/magazine/250406

7. Статистика трудовой миграции в Кыргызской Республике. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. https://drive. google. com/file/d/15VGg_bkLWoZjpqdaiygbq2i_ItE6f-vB/view

8. За пять лет поток мигрантов из Таджикистана за рубеж снизился на 40%. Настоящее время. https://www. currenttime. tv/a/tajikistan-migrants-workers-money/29756218. html

9. В Таджикистане трудовая миграция выросла на треть. Sputniknews. ru. https://tj. sputniknews. ru/migration/20190910/1029833969/Tajikistan-trudovaya-migratsiya-vyrosla. html

10. Минтруда: всё больше таджикистанцев ищут работу в Турции и Польше. Радио Озоди. https://rus. ozodi. org/a/29761680. html

11. Мигранты отправляют в Таджикистан гораздо больше денег, чем поступающие в страну иностранные инвестиции. Avesta. http://avesta. tj/2019/12/27/migranty-otpravlyayut-v-tadzhikistan-

gorazdo-bolshe-deneg-chem-postupayushhie-v-stranu-inostrannye-investitsii/

12. Особенности процессов трудовой миграции в Центральной Азии (на примере Республики Узбекистан и Республики Казахстан). Cyberleninka. ru. https://cyberleninka. ru/article/n/osobennosti-protsessov-trudovoy-migratsii-v-tsentralnoy-azii-na-primere-respubliki-uzbekistan-i-respubliki-kazahstan

OVRO‘PA AXLOQIY MANBALARIDA FAZILAT VA ILLAT DIALEKTIKASI

O’qituvchi, G‘olib DJURAYEV

Annotatsiya

Ushbu maqolada Axloq falsafasida ayrim Yevropa mutafakkilari falsafiy-axloqiy qarashlarida fazilat va illat dialektikasi tahlil etiladi. Bugungi zamonaviy axloqiy tafakkurda fazilat va illat dialektikasini shakllanishida falsafiy-axloqiy qarashlarning ta’siri bayon etiladi. Axloq falsafasida axloqiy-falsafiy qarashlarning shakllanishida munozarali mavzulardan biri sifatida inson xatti-harakatlarida fazilatni hosil qilishda uning me’yoridan ortib ketishi yoki yetarli bo‘lmasligi illatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. G‘arb falsafiy tafakkurida mutafakkirlarning fazilat va illat dialektikasi mavzusida mushohadalari, fikrlari ziddiyatli bo‘lib, paradoksal holatda namoyon bo‘ladi. Maqolada axloqiy madaniyatni targ‘ib etishda nafaqat axloqiy fazilatlarni tadqiq etish va ularning ijobiy xususiyatlarini shaxs axloqiy tafakkurida mustahkam o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlash, balki amoralistik illatlarning nima ekanligi va ularning qay darajada ijtimoiy-axloqiy xavf solishi, axloqiy immunitetni shakllantirishdagi o‘rnini ham nazardan chetda qoldirmaslik zarurligi nazariy tahlil etiladi. Falқafiy fikrlar taraqqiyotida fazilat va illat dialektikasi Platon, Pifagor, Suqrot kabi antik davr mutafakkirlarining axloqiy qarashlarida dastlab namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar dolzarbdir. Maqolada Axloq falsafasida nafaqat fazilatlar balki illatlar ham ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi zarurligi masalasi qo‘yiladi. Antik davr faylasufi Arastuning “Fazilat nima?” degan savoli tadqiqot obyekti sifatida maqolada ilmiy tahlil etilib, keyingi davrlardagi axloqiy qarashlarda fazilatga bo‘lgan ta’rif, izoh va munosabatlar o‘rganiladi. Arastu o‘zining “Axloqi Kabir” asarida o‘zigacha yashab o‘tgan faylasuflar(Pifagor, Suqrot)ning fazilat haqidagi fikrlarini ilmiy tahlil qiladi. G‘arb axloqiy-falsafiy qarashlarida fazilat va illat kategoriyalarining o‘zaro qarama-qarshi mazmunda bayon etilishi bilan birga ularning biri ikkinchisiga o‘tishi ham kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: Axloq falsafasi, fazilat, illat, fazilat va illat dialektikasi, amoralizm, ekzistensializm

KIRISH

Axloq muayyan jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turuvchi va o‘sha jamiyatdagi birlik, barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi meyorlardir. Ularning shaxs va, asosan, jamiyat manfaati va ehtiyojiga xizmat qilishi, amalda ish berishi ularning mavjudligini oqlovchi birlamchi mezondir. Manfaat va ehtiyojlar o‘zgarishi bilan ularga xizmat qilayotgan meyorlar ham o‘z-o‘zidan o‘zgarishga uchraydi. Zero, bir muhitda ijobiy natija bergan meyorlar o‘zgargan yoki boshqa bir muhitda aks natija berishi mumkin. Ehtiyoj va manfaatni eski meyorlarga moslashtirishga urinish esa deyarli samara bermaydi. Bu chaqaloqning kiyimini katta odamga kiydirishga urinishdek behuda ish bo‘lib qoladi. Bu ayniqsa turli zamonlarda yashagan kishilarning axloqqa munosabatidagi farqda yaqqol namoyon bo‘ladi. Deylik, bir zamonda quldorlik axloqsizlik sanalmagan bo‘lsa, boshqa zamonda jinoyat deb baholanishi mumkin va h. k. Axloqiy meyorlardagi o‘zgarishni sun’iy tarzda jilovlash, xususan, ularni milliy va diniy qadriyat o‘laroq o‘zgarmas muqaddas narsa deb bilish, ijtimoiy sharoit va xizmatini o‘tab bo‘lgan meyor o‘rtasida katta jarlikni paydo qiladiki, oqibatda jamiyatda ikkiyuzlamachilik va munofiqlik urchib ketadi.

Insoniyat tafakkur tarixida mutafakkirlarning falsafiy-axloqiy qarashlarida fazilat, axloqiy meyorlarni tahlil etishda ularga qarama-qarshi bo‘lgan illat va yomon xislatlar nafaqat tanqid etiladi, balki ularning vujudga kelishida fazilat bilan dialektik analiz qilinadi.

Aflotun axloqiy fazilatlarni qanday o‘zlashtirish mumkinligini tushuntiradi. Bunday yaxshi odatlar vaqtincha o‘zlashgan bo‘ladi, chunki jamiyatlar va barcha odamlarda odatlar uzoq muddat o‘tib o‘zlashtiriladi. Adolatli, pok, jasur bo‘lishga odat qilish, shu bilan birga, yomon qiliqlardan qutulish uchun ham ma’lum muddat o‘tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o‘zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. Agar odamda tug‘ma, kuchli g‘urur tuyg‘ulari bo‘lmasa, u holda o‘sha odam o‘z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur, chunki o‘zi sevgan insonning ko‘p jinoyatlarini sezmaslik odamning tug‘ma xislatidir. Zero shunday ekan, shahvoniy xohishlarga erk bermaslik uchun, albatta, kuchli g‘urur bo‘lishi kerak. Insonni halokatga olib boradigan narsalarni ruhiga ravo ko‘rmaslik uchun bunday hollarda g‘azabdan ham ijobiy foydalana bilish va ruhni doimo o‘zidan ko‘ngli to‘lmaslikka o‘rgatish kerak. Aflotun aytadiki, tarbiyali odamlar o‘z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo‘lish, ortiqcha qayg‘urish kabi holatlarda mo‘tadillik doirasidan

chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak. Aflotunning aytishicha, odamlar ma'naviy fazilatlarga erishishni istab, iltijo qilib, ularni o'zlashtirishga e'tibor berishlari kerak, toki axloq qonuniy, maqtovlarga sazovor va ilohiy bo'lib qolsin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada tahlil etilgan mavzuga oid asosiy manba sifatida antik davr faylasufi Arastuning (Арасту, 2011:130-143) "Axloqi Kabir" asari olindi. Axloq falsafasida fazilat va illat dialektikasi g'arb axloqiy manbalarida keng tahlil etilgan va xatto qarama-qarshi mushohadalar keltirilgan. Ularning ba'zilarini maqolani yoritishda tahlil etildi. Masalan, Bekon F. (Bekon F, 1977: 157)ning "Sochinenie v dvux tomax", Paulsen F. (Paulsen F., 2009: 80)ning "Shopengauer kak chelovek, filosof i uchitel", *Bertrand Russell. (Bertrand R. , 2004: 114)ning "Sceptical Essays",* Patrik Jozef Byukenenning "G'arbning halokati" asarlari vaqo'shimcha adabiyotlar(S. Yuldoshev & M. Usmonov, 2001: 83) "Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi", (Nazarov Q. & Qarshiboyev M. 2009: 29-31) "MA'NAVIYAT asosiy tushunchalar izohli lug'ati"dan foydalanildi hamda ulardan izohlar keltirildi.

METODOLOGIYA

Aflotun kishilikning ma'naviy-axloqiy inqirozga yuz tutishini jamiyatning axloqiy-ma'naviy buzilishi bilan izohlaydi. Axloqiy-ma'naviy buzilish davlatning, siyosiy tizimning inqiroziga sabab bo'ladi. (Aynan ushbu fikri uchun Aflotunni kishilikni halokatdan qutqarish yo'lini ko'rsatib bergan donishvar-gumanist deb bilishadi). Ammo inqirozlarni to'xtatish yo'li bor-u "oltin davr"ga qaytishdir. "Oltin davr"dagi davlat qusurlardan, illatlardan xoli, unda yemirilish, o'zgarish yo'q, turg'unlik va muqimlik hukmron. Bu Platonning ideal davlat modelidir.

Yosh aqlning takabburligi uning ziynati, keksa aqlning takabburligi uning illatidir. Lekin inson aqldagi ziynatni ham, illatni ham olijanob fazilat deb biladi. Axloq meyoriy xarakterda bo'lgani bois, kishilar xatti-harakatiga ta'sir etib uni yo'naltirib tursa-da, vaqti-vaqti bilan sharoitning yetilishi orqasidan, o'zi ham o'zgara boshlaydi. Kichik jamoalarning kattalashib, urug'lar, qabilalar, davlatlar paydo bo'lishi, ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlarining murakkablashuvi insonlarni yangi sharoitga moslashishga majbur qilgan. Moslashish esa axloqiy meyorlarga ta'sir etmay qolmaydi, albatta. Bunda, ayniqsa, islohotchi hukmdorlar, faylasuflar va yangi vujudga kelgan dinlar muhim rol o'ynagan. Sharoit pishib yetilgach, avvalgi qarashlar axloqsizlik deb baholangan va yangicha qadriyatlar kuchga kirgan.

G‘oyalarning millatparastlikni emas, balki illatparastlikni ulug‘lashidan qo‘rqish kerak. Umumiyning yetukligi xususiyning yetukligi tufaylidir. Odam zotida illatlarga moyillik bor ekan jamiyatning yetukligi orzu, xayol, hatto fantaziya bo‘lib qolaveradi. Axloqni vujudga keltirgan aslida insondagi jamoaviylik instinkti va ayni shu instinktiga buysunib yashayotgan insonlarning yashash sharoiti, ehtiyojlaridir. Uni o‘zgartiruvchi ham yana sharoit va ehtiyojdir. Islohotchilar esa o‘sha sharoit va ehtiyoj talabining ifodachisidir. Zero bir muhitda ijobiy samara bergan meyorlar, o‘zgacha muhitda regressiv ta’sir etishi, ijtimoiy munosabatlarning shitob ildamlashiga xalal berishi mumkin. Tarixda bu kabi holatlar ko‘p bo‘lgan, meyorlarni mutlaqlashtirib, unga ilohiy tus bergan, sharoitga moslasha olmagan xalqlar yo‘q bo‘lib ketgan yoki boshqa xalqlarga qaram va qul bo‘lib qolgan. Axloqni isloh qilgan shaxslar ham, bizningcha, o‘zi yashab turgan muhitning mevasidir.

“Axloqi Kabir” asarida biz Arastu dialektikasini axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari hisoblangan fazilat va illatni falsafiy tadqiq etish misolida ko‘rishimiz mumkin. Arastu dialektikasi bu oddiy suhbat qurish san’ati emas, balki ilmiy va falsafiy tadqiqot uslubidir.

Asarda Etika fanining asosiy kategoriyalari izchil tahlil va tadqiq etilar ekan, faylasuf o‘zining dialektik tadqiqot uslubidan mohirlik bilan foydalanadi va “Fazilat nima?” degan savolga javob qidirish butun asarning mazmun mohiyatiga aylanadi.

Arastu fikricha, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. “Chindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan, ya’ni munosib bo‘lmagan odam (taniqli jamoat arbobi sifatida) faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas”. Bu o‘rinda Arastu bizningcha mutlaqo haq. Binobarin siyosatning boshqaruv san’ati sifatidagi har qanday ko‘rinishi axloqiy mezonlarga tayanishi zarur. “Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqan fazilatli bo‘lmog‘i kerak”. (Arastu. 2011: 130)

Ammo axloqiy-ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lmagan kishilar siyosiy faoliyat bilan shug‘ullangan va jamiyatga qanchalik zarar yetkazganliklarini insoniyat tarixidan ham, bugungi kunda ham tez-tez guvohi bo‘lishimiz mumkin. Demak, fazilatlar egasi bo‘lishlik, fozil kishi bo‘lishlik - ijtimoiy ahamiyat kasb etar ekan, bu fazilatning o‘zi nima? Biz fazilatni nazariy jihatdan o‘rgana olamizmi? Fazilat amaliy jarayon sifatida qanday xususiyatlarga ega? Balki bizga fazilatdek tuyulgan holat illatning bir ko‘rinishidir? Unda biz fazilat va illatni bir-biridan qanday ajratib olamiz?

Arastu birinchilardan bo‘lib bu savollarga javoblar qidirdi. Uning fikricha, “fazilat qanday hosil qilinishini tushunmay turib, fazilatni (faqat

nazariy) bilish befoydadir". Shu o‘rinda mutafakkir o‘zidan oldin o‘tgan faylasuflarning fikrlarini tanqidiy tahlil etadi.

"Fazilat nima ekani haqida birinchilar qatorida Pifagor gapirgan, ammo noto‘g‘ri fikr yuritgan. U fazilatlarni ham raqamlar qatorida ko‘rib chiqqan, demak fazilatlar sifatida ko‘rib chiqmagan. Chunki adolat, masalan, o‘z-o‘ziga ko‘paytirilgan (ikki karra ikki ma'nosidagi) raqam emas-ku?" (Arastu. 2011: 131) - deb e'tiroz bildiradi Arastu. Darhaqiqat, Pifagor o‘zining axloqiy qarashlarini ham sonlar haqidagi ta'limoti bilan tushuntirishga harakat qilgan. "Pifagorchilarda stixiyali dialektika elementlari mavjud. Masalan, juft raqamiga bir raqam qo‘shilsa, toq raqam hosil bo‘ladi" (Yuldoshev, S. , Usmonov, M. , Karimov, R. 2001: 83). Bunda juft raqam fazilat bo‘lsa, toq raqam illat shaklida namoyon bo‘ladi. Lekin bunday tarzda tushunish to‘g‘ri emas.

"So‘ng Suqrot kelib, fazilatlar haqida undan yaxshiroq va to‘laroq gapirgan, ammo uning gaplari ham noto‘g‘ri. Chunki u fazilatlarni bilimlarga tenglashtirgan, aslida bu to‘g‘ri emas" (Arastu. 2011. : 131). Arastu Suqrotga e'tiroz bildirar ekan, barcha bilimlar fikr-mulohaza bilan bog‘liqligini va ular inson ruhining fikr yurituvchi qismida vujudga keladi deydi. Suqrot fazilatlarni bilimlarga tenglashtirar ekan, uning fikricha go‘yoki bilimli kishi (masalan, adolat nima ekanligini biladi) fazilatli (adolatli) kishidir. Axir bunday emas-ku. Adolat, vijdon, mas'uliyat nima ekanligini bilgan kishi adolatli, vijdonli yoki mas'uliyatli bo‘lib qolmaydi. Arastu fikricha, Suqrot ruhning aqliy quvvatdan boshqa quvvatini, jumladan, ehtiros (pafos) va fe'l-atvorni yo‘qqa chiqaradi.

Arastu Aflotunning fazilat haqidagi fikrlarini bir qadar ma'qulladi. Xususan, uning inson ruhiy quvvatini aqliy va noaqliy (qalbiy) quvvatlarga bo‘lishi va ikkala qismga xos fazilatlarni ham aytib o‘tishini olqishladi. Ammo Aflotun fazilatni o‘zining oliy ne'mat haqidagi ta'limoti bilan aralashtirib yuborishini tanqid qiladi.

Shundan so‘ng Arastu fazilat nima ekanligi haqida o‘z mulohazalarini ijtimoiy, siyosiy ne'matlar (masalan, farovonlik) bilan bog‘laydi, va siyosatning maqsadi yuksak ne'matlar yaratish deb ta'kidlaydi. U ustozi Aflotunning oliy ne'mat haqidagi ta'limotini inkor qilish maqsadida ilohiy va ijtimoiy ne'matlarni ajratishga harakat qiladi. Ne'matlarni qadrli (aql, ruh, tug‘ma iste'dod), maqtovli (fazilatlar) va imkoniyat beruvchi (hokimyat, boylik, kuch-quvvat, go‘zallik) ne'matlarga ajratadi. Imkoniyat beruvchi ne'matlardan fozil inson yaxshilik, ezgu ishlar uchun foydalanadi, nodon odam esa ulardan yomonlik, yovuzlik qilish uchun foydalanadi. Qadrli ne'matlar esa tug‘ma. Arastu fikricha qadrli ne'matlar

xar kimda ham bo‘lavermaydi. Ammo bu ne’matlar qanchalik qadrlanishiga ham bog‘liq.

Shu o‘rinda Arastuning quyidagi fikrlariga e’tibor bersak. “Odamning tabiatidagi tug‘ma xislati esa odatlanish ta’sirida ham o‘zgarmaydi. Misol uchun toshni yuqoriga otsangiz, og‘irligi sababli pastga tushaveradi. Uni osmonga uchiraman deb har qancha mashq qilsangiz ham u pastga qulayveradi. Shunga o‘xshash boshqa xislatlarni ham o‘zgartirish qiyin” (Arastu. 2011: 142-143). Arastu aytgan bu xislatlar fazilat ham, illat ham bo‘lishi mumkin. Unda qadrli ne’matlar bo‘lgan «tug‘ma fazilat»larni rivojlantirilib, «tug‘ma illat»larni yo‘qotishga urinish zarur bo‘lar?! Arastuning tug‘ma xislatlar haqidagi fikrlari bahsli.

Ammo inson ko‘nglida nafaqat fazilatlar, balki illatlar ham bo‘lishi mumkin. Barcha insonlar ko‘ngil bilan yashaydilar, ko‘ngilda istak-xohishlar serob, ammo, ustoz Mahkam Mahmud ta’biri bilan aytganda, “ko‘ngil istaklarini jilovlab yashovchilar ham bor” (Arastu. 2011: 139).

“Fazilatlarga amal qilish baxt-saodatga eltar ekan, avvalo, fazilatning o‘zi nima?” – degan savolga Arastu – “fazilat umumiy ma’noda eng yaxshi ruhiy holatdir” – deydi. Ammo fazilatni ravshanroq ta’riflash uchun uning manbai bo‘lgan ruh (ko‘ngil)ni ikki qismga (aqliy (to logon eknon) va noaqliy (to alogon)) ajratadi. Bu orqali Arastu fazilatlarni bilimlardan farqlashga uringan va ularni maqtovga sazovor deb bilgan. “Jumladan, odam aqli borligi uchun yoki shunga o‘xshash boshqa xislati uchun maqtalmaydi. Ko‘ngilning aqldan tashqari qismiga oid xislatlar, albatta, agar aqlga muofiq kelganida va oqilona ishlar uchun xizmat qilganida maqtovga sazovordir”.

Arastu, garchi insondagi fazilatlar aqlga muofiq kelishi kerakligini ta’kidlasada, fazilatni bilimdan ustun qo‘yadi. “Binobarin, fazilatlar boshqa ilmlar kabi ilm emas ekan, ularni (nazariy) ilm sifatida emas, balki fazilatlar sifatida o‘zlashtirish zarur” (Arastu. 2011: 135)-deydi. Bundan kelib chiqadi-ki, ilm nazariy asoslarga ega, fazilat esa amaliy jarayondir. Misol uchun adolat bilan adolatlilikning, vijdon bilan vijdonlilikning farqlari ham shunda. Adolatni axloqiy-mezoniy tushuncha sifatida anglashimiz mumkin, ammo adolatlilik yoki adolatsizlikni esa fazilat va illat sifatida farqlashni o‘rganishimiz kerak ekan. Yuzaki qaraganimizda bu farqlashni o‘rganish ham bilim-ku, degan tabiiy e’tiroz bo‘ladi, ammo Arastu dialektikasida “haqiqat tadqiqot predmeti emas, balki maqsaddir” (Yuldoshev, S., Usmonov, M., Karimov, R. 2001: 83). Demakki, haqiqatni umumiy ma’noda bilib bo‘lmaydi (chunki haqiqatni bilgach hech qanday dialektikaga o‘rin yo‘q), uni faqat maqsad qilib olish mumkin. Bu haqiqat

yo‘lidagi maqsad dialektikaning, unga qarshi faoliyat esa sofistikaning qismiga aylanadi.

Axloq falsafasida fazilat va illat dialektikasining namoyon bo‘lishi jarayonida biz turli xil anglanib-anglanmagan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa sofistik tafakkur sohibining dialektik tafakkur rivojiga qarshi harakatlantiradi. Sofistik tafakkur uchun haqiqat emas, balki g‘alabaga erishish maqsaddir.

NATIJALAR

Arastu fikricha, “axloqiy fazilatlar uchun kamchilik, yetishmaslik ham, ortiqchalik (isrof) ham halokatlidir”, ya’ni fazilatlar illatlarning o‘rtasidagi xislatdir. Masalan, saxovatlilik – fazilat bo‘lsa, uning meyoridan oshirib yuborilishi isrofgarchilik (ya’ni, illat), aksincha, xasislik (bu ham illat) bo‘ladi.

“Axloqi Kabir”da Arastu axloqshunoslikka oid bir qancha kategoriyalarni tadqiq etish davomida insonga xos fazilatlarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganadi va o‘zining dialektik metodidan unumli foydalanadi. Shu orqali Arastuning axloqiy tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini yuqori baholash mumkin.

Odamdagi odamni ulug‘lovchi ezgu fazilatlar ham, odamni tubanlashtiruvchi illatlar ham uning o‘zi tufaylidir. Agar inson xayrixohlik, go‘zallik, oliyjanoblik va ulug‘vorlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o‘zi va o‘z ruhi o‘rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo‘lsa, ul (odam) haqiqatan ham xayrixohlik va barkamollikka erishadi. Buni uning o‘zidan boshqa hech kim sezmagan taqdirda ham uning ruhi ulug‘vor va oliyjanob bo‘ladi va o‘sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag‘oyat xursand bo‘ladi. Shu bilan birga, u odam ma’lum bir darajada ushbu xayrixohliklarni unga xalq baxshida etgan deb o‘ylaydi. Yoki o‘zidagi fazilatlarning barkamolligi, ulug‘vorligi va tahsinga sazovorligiga, ayniqsa ko‘pchilik odamlar erishib bo‘lmaydi, deb tasavvur qilgan xayrixohliklarga erishganiga xalq sababchi, deb o‘ylaydi. Ammo ko‘pchilik, yuqorida zikr etilgan narsalar va ma’lumotlarni bilish shart emas, istalinuvchi maqsadlarga ularning foydasi tegmaydi, aksincha, o‘zining zaruriyati va foydaliligi bilan ham ortiqchadir, deb hisoblaydilar. Shunga qaramay ular (bu bilimni) ulug‘vor va oliyjanob deydilar. Inson intiluvchi bilimni ular avvalan ikki xilga bo‘ladilar: a) o‘sha istalgan to‘rt maqsaddagi sog‘lomlikka erishishda inson foyda topishiga yoxud eng yuksak darajadagi sog‘lomlikka moyil bo‘lishda yordam beruvchi, xohlanmish bilim; b) o‘zi har qanday foydali bo‘lsa ham ortiqcha bo‘lgan biror narsa uchun emas, balki o‘z-o‘zicha xohlanadigan bilim. Bilimni bunday bo‘lishi to‘g‘ri, chunki u, ruhlar orasida aloqa o‘rnatilishidan

ancha oldin ruhlarning o‘zlari (ayrim-ayrim) o‘sha bilimlarga intilishlariga imkoniyat yaratadi. Ushbu bilimlardan biriga harakatni (uning yordamida) ro‘yobga chiqarish uchun murojaat qiladilar. Boshqa bilimdan o‘zlarini tortadilar. Bilimning birinchi xili “amaliy”, ikkinchisi esa – “nazariy”, deb ataladi.

E’tiqodingdan emas, insonligingdan kechsang fojiadir, chunki insonligingdan kechgach, seni hech qanday e’tiqod illatlardan asray olmaydi. F. Bekon fikricha, “Ba’zi kishilar tabiatan qullardek tilyog‘lamalikka moyil; ba’zilar esa tabiatan kulguli va yovuzdir. . . ” (Bekon, F. 1977: 157). Bu o‘rinda faylasuf Aristotelga ergashadi. Qarang-a, 25 asr o‘tibdiki, odamdagi illatlar hamon o‘sha-o‘sha, balki ular yanada oshgandir. . . “Agar g‘urur boshqalarga nafratdan o‘zidan o‘zi nafratlanishga ko‘tarilsa, u falsafaga aylanadi”. Ha, nafrat nafaqat sevishga, yashashga, shuningdek falsafaga ham o‘rgatadi. Odam zotidagi illatlardan, makkorlikdan nafratlanmay e’tiborli biror fikr aytib bo‘lmaydi. Qat’iyatlik o‘z jur’atsizligingni, hatto g‘ofilligingni yengish yo‘lidir, ammo u meyoridan oshsa, bemehrlikka aylanadi. Shuning uchun F. Bekon haq: “Qat’iyatlik hatto illatlarga ham fazilat baxsh etadi” (Bekon, F. 1977: 161). Nafrat nafaqat muhabbatni ulug‘lashga, xuddi shuningdek, illatlardan qutulish yo‘llarini izlashga ham o‘rgatadi. Insondagi barcha olijanob tuyg‘ular nafratdan nafratlanish tufayli shakllangan. Shuning uchun insondagi olijanob tuyg‘ularni ulug‘layotganimizda o‘zimiz sezmagan holda undagi nafratdan nafratlanishni ham qutlaymiz.

Suqrotning axloqdagi ratsional yondashuvi ham bilim bilan baholovchi, qadriyatni yaqinlashuviga olib kelgan. Lekin keyin bilish va qadriyat tushunchalari ajratilgan. Baholovchi faoliyatning o‘ziga xos turi hisoblangan. Neokantchilarda ham xuddi shuni uchratishimiz mumkin. Neokantchilar Kantdagi zarurat va erkinlik o‘rtasidagi uzilishni o‘zlaricha talqin qiladilar. Tabiat haqidagi fanlar – umumiy qonunlarga bo‘ysungan jabhadir, shuning uchun ham ular zarurat orqali sodir bo‘ladi. Madaniyatda, aksincha, inson qadriyatlarni erkin tarzda, ularni anglash darajasiga qarab tanlaydi. Shunday bo‘lsa ham, neokantchilar qadriyatlarga e’tibor beradilar. Ularning fikricha, qadriyatlarsiz umuman inson faoliyati mumkin emas, deb hisoblaydilar. Vindelband aytadiki, garchi haqiqat, go‘zallik va ezgulik – biz uchun bo‘sh so‘zlar emas ekan, bizning bilimimiz haqiqat bo‘lishni, xulqimiz yaxshi bo‘lishni, san’atimiz go‘zal bo‘lishini xohlar ekanmiz, demak, biz mantiqiy, axloqiy va estetik qadriyatlarni tan olamiz. Qadriyatlar haqiqiy emas, ular haqiqatdan yuqoridir, chunki ular hukmlarimizda aks etadigan borliq, harakatlarimiz orqali amalga oshadi, san’at orqali yaratiladi, bularning hammasi qadriyatlardan kelib chiqadi.

Axloq va axloqiylikning o‘lchovi meyorlar emas, inson va u yashab turgan muhitdir. Eng manfaatli, eng optimal munosabatlarni vujudga keltirib, shuni tartibga sola oladigan meyorlargina yashab qoladi. Shu jihatdan, turlicha meyorlar o‘rtasida insonlar timsolida kurash ketadi va bu kurash o‘sha muhit uchun eng optimal meyorning g‘alabasi bilan yakunlanadi va u o‘zini vujudga keltirgan sharoit va muhit o‘zgargunicha hukm suradi. So‘ng unga raqib bo‘la oladigan yana yangi meyorlar ilgari suriladi. Agar amalda samaradorligini saqlasa, yashashda davom etadi, aks holda u ham o‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatib beradi. Demak, bu o‘rinda axloqiy meyorlarni saralovchi inson ehtiyoji va sharoitdir.

F. Paulsen “Shopengauer inson irodasini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnga takroran joylansa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi. Madaniy jamiyatning sifati mohiyatan iroda va ixtiyorda bo‘lganligidan jamiyat boshlig‘ining vazifasi ushbu irodani xayr, yaxshilik tomon yo‘naltiradi” (Paulsen, F. 2009: 80) deb yozadi. O‘z navbatida mutafakkir inson o‘z taqdirini o‘zi yaratishi mumkinligi va o‘z tabiatini cheksiz ravishda yuksaltirishga qodir ekanligini bayon qiladi. Shuningdek, u xudoning irodasi maqsad bilan ifodalanmaydi, bilaks, «iroda aqldan yuqori»dir deb ta’kidlaydi. Ayni shu ma’noda, ilohiy iroda odamlarning gunohkorona hatti-harakatini xayrli ishga aylantira oladi. Buning uchun insondan o‘ziga xos ishonch his–tuyg‘usini o‘yg‘otish, irodasini charxlash, chidam va sabr–qanoat xislatlarini rivojlantirish, o‘z mohiyatini anglash talab etiladi.

«Kishilar ezgu amallari orqali emas, balki ko‘proq illatlari orqali boshqariladi» (Napoleon). Ezgu amallar boshqarishga muhtoj emas, illatlarni har qadamda to‘g‘irlab, zarur tomonga yo‘naltirib, hatto majburiy tarzda tiyib turishga to‘g‘ri keladi. Boshqarish aslida illatlarning tarqalishini tiyish usulidir. Fr. Nitsshe nazaridagi «yaxshi odam»dan hech qachon faylasuf ham, erkin fikr egasi ham chiqmaydi, chunki u jamiyat illatlariga qarshi isyon ko‘tarishga qodir emas. Kishilar o‘zidan o‘zi dadil fikrlashga ham, boshqarishdagi illatlarni cheklashga ham qodir emas. Shuning uchun ham jamiyatni demokratlashtirishda erkin matbuot zarur, aynan shunday matbuot kishilar ruhini sofdil va adolatli yashashga qo‘zg‘ab turadi.

Fromm fikricha, “tarixiy ziddiyatlar”ni yo‘qotish esa insonlar hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan ijtimoiy sharoitga bog‘liqdir. Bunday sharoit insonparvar axloq, yangi qadriyatlar va eng umumiy muhabbat tamoyillariga asoslangan “insonparvar jamiyat” qurish yo‘li orqali paydo bo‘ladi. “Ekzistensial ziddiyatga”lar esa, bu inson mavjudligining negizida ildiz otadi. Ular qisman hal qilinishi mumkin. Bu inson ichki iqtidorini

amalga oshirishi orqali, muhabbat, iymon-e'tiqod va mulohaza bilan ro'yobga chiqadi. Ikki holatda ham inson mohiyatini namoyon qilishi tabiat va shaxs o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash "insonparvar" ruhiyat tahlili asosida amalga oshiriladi. Bu esa shaxs ongida tanqidiy elementlarni uyg'otishga ko'mak beradi hamda yangi jamiyat barpo etish uchun ko'maklashadi.

Ijodkor nafratlanishni ham bilishi lozim. Agar jamiyatdagi illatlardan u nafratlanmasa, omi avom zo'ravonlik, ochko'zlik va mutelikni zaruriyat bilib yashayveradi. Aynan ijod ahli kishilarni sergak yashashga o'rgatadi. Ilm-fan, ayniqsa falsafa kishini farishtaga aylantirib unga arshi a'loda yashashini va'da qilolmaydi, u hayotni qattiq nigohi va zakiy aqli bilan beshafqat yorib undagi illatlarni, qusurlarni, inqirozlarni ochib tashlaydi. Kishilarga yoqishga intiladigan falsafadan tilyog'malik hidi keladi. «Har doim o'zingizga qarama–qarshi fikr nuqtai nazaridan qarang, – deb tavsiya etgan edi D. I. Mendeleyev o'z talabalariga. – Bu haqiqiy dono odamning ishidir. Fanni unuting, lekin buni bir umr yodda saqlang». Bir qarashda, bu fikrda ma'naviy fazilatlar kasbiy fazilatlardan ustun qo'yilgan. Haqiqiy donishmandlikni bunday tushunish qadimiyat davriga borib taqaladi va barcha buyuk mutafakkirlarga xosdir. Suqrotni, uning haqiqat tagiga yetish usulini va bu usulning negizi – «qancha ko'p bilsam, shuncha ko'p bilmasligimni bildim», degan metodologik shubha tamoyilini eslash kifoyadir.

Inson tabiatiga xos bo'lgan illatlar – o'lim, kasallik, qashshoqlik, so'qirlik, quvg'in, tuxmat va tubanlik hamma vaqt ko'z oldingizda turadi. Agarda bulardan birortasi sizning chekingizga tushsa va bunga avvaldan tayyor turgan bo'lsangiz, unga mardonavor qarshi tura olasiz. Men bunga shunday javob beraman: agarda inson hayotining muammolari haqidagi bizni taqdir zarbalariga qarshi tayyorlashda yordam berolmaydigan umumiy, mavhum mulohazalar bilan o'zimizni cheklab qo'ysak; agarda halovatimizni zaharlab, abadiy baxtsizlikka yo'liqtiruvchi haqiqiy og'u bo'lmish diqqatli va keskin mushohada orqali ularni (musibatlarni) o'zimizga yaqinlashtirsak. (Xato tasavvur va mulohazalarimiz g'amu kulfatlarimizning bosh sababchisidir. Hyum bu yerda pragmatizmning tamal g'oyalaridan birini ifodalab bermoqda). Azobu uqubatlaringiz foydasiz, ular taqdirni o'zgartira olmaydi. To'ppa to'g'ri, ayni sabablar tufayli. Afsusdaman! Sitseronning karlarga bergan yupanchi esa yanada qiziqroq. Siz tushunmaydigan qancha til bor?– so'raydi u, – Puncha, ispancha, galcha, misrcha va x. k. Bularning barchasi uchun misoli bir karsiz. Ular sizni bezovta qilmaydi. Yana bir til uchun ham kar bo'lsangiz shu ham baxtsizlikmi?

Antipatr Kireniakning donoligiga tan beraman. Ba'zi ayollar uning ko'rligi uchun yupatganlarida, u aytardi: Nima! Qorong'ulikda lazzat bo'lmaydi deb o'ylaysizmi? Fontenel aytadi: hech narsa shuhratparastlik, istilochilikka bo'lgan ehtirosni astranomiyaning to'g'ri tizimichalik barbod qilolmaydi. Tabiatning cheksizligiga qiyoslaganda, qanchalar bechora bu zamin! Bu mulohaza kimgadir ta'sir qilishi ehtimoldan uzoq. Agarda ta'sir qilganda vatanparvarlik va orzu-havasni yo'q qilolarmidi? Bir jur'atli muallif asosli ravishda qo'shimcha qiladi, xonimlarning chaqnab turgan ko'zlari har qanday astronamik bilim tufayli o'z yorqinligi va qiymatini yo'qotmaygina qolmay, balki har qanday tizimga qarshi tura oladi. Faylsafular ularga bo'lgan ehtirosimizni jilovlashga yordam beruvchi biror maslahatni bera oladilarmi?

Kishi yoshligida yon-atrofidagilarning qusurlari, illatlari haqida jiddiy o'ylab o'tirmaydi, u uchun muloqotning o'zidan ham zavqli narsa yo'q, biroq yoshi o'tib, hayotiy tajribasi oshishi bilan yon-atrofidagilarning qusurlarini, illatlarini tez-tez ilg'aydigan bo'ladi. Bu esa kishini murdadil qiladi, o'zi o'zi bilan suhbat qurishga undaydi, yolg'izlik uning sevimli hamrohiga aylanadi. Odat ongni isloh etish, unda fazilat va yaxshi mayllarni paydo qilishning yana bir kuchli vositasidir. Doimo hushyor va mo'tadillikda yashagan kishi g'alayonu betartiblikdan nafratlanadi; agarda muayyan amaliy faoliyat yoki ilm bilan shug'ullansa, dangasalik uning uchun jazo; odamlarga yordam berish va dilkashlikni odat qilsa, manmanlik va zo'ravonlikning barcha ko'rinishlaridan jirkanadi. Qachonki kishi fazilatli hayotning afzalligiga ishonsa va muayyan muddat o'z nafsini zo'rlab bo'lsada isloh qilishga qaror qilsa, u o'z harakatlarining natijasidan noumid bo'lmasligi lozim. Tolesizlik yetarlicha fozil bo'lmagan kishida bu kabi ishonch va qarorning yo'qligidadir. Mana shu yerda falsafa va san'atning asosiy yutug'i namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, Bertran Rassel "Insonni qanday qilib fazilatli va zakovatli qilib tarbiyalashni bilmaymiz, biroq uni qanday ratsional, aqlga muvofiq ish yurituvchi inson qilib tarbiyalashni bir qadar bilamiz. Ta'limga munosabatni o'zgartirish zarur. Balki kelajakda inson tanasidagi turli garmonlarning nisbatini manipulyatsiya qilish orqali insonlarda zarur fazilatlarni ro'yobga chiqara olarmiz. Lekin hozir axloqiy fazilatni tarbiyalashdan ko'ra ratsionallikni, ya'ni o'z qilmishimizning oqibatini avvaldan ko'ra bilish malakasini kamol toptirish qulayroq" (*Bertrand, R.* 2004: 114) deb ta'kidlaydi.

Freydning fikricha, birga yashaydigan kishilar hech nimani bir-biridan yashirmasligi, bir-birining qusurlarini, illatlarini to'g'irlashi zarur, bunday ochiqlik oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, er-xotinda bir-biriga nisbatan to'la ishonch uyg'otadi. "Men kayfiyatlarim va

mulohazalarimda o‘ta egiluvchan va o‘zgaruvchanman”, deb iqror bo‘ladi u, biroq bu libido nazariyasida sezilmaydi. Z. Freyd ilmiy izlanishlarida o‘ta izchil va maqsadida o‘ta barqarordir. Garchi fazilat va ezgulik, basharti erishish mumkin bo‘lsa, eng yaxshi tanlov bo‘lsada, bu hayotda inson faoliyati shunday mujmal va betartibdirki, undan baxtu badbaxtlikning mukammal va izchil taqsimotini kutib bo‘lmaydi. Nafaqat moddiy boylik va jismoniy imkoniyatlar (bu ikkisi ham ahamiyatli) ezgulik va yovuzlik o‘rtasida, aytishim mumkinki, notekis taqsimlangan, shu bilan birga xatto ongu tafakkurimiz ham muayyan darajada bu tartibsizlikda ishtirok etadi; eng yaxshi fe’l atvor ham ehtiroslar tufayli yuksak xuzur halovatdan bebahra qoladi. Ma’lumki, garchi jismoniy og‘riq tana a’zolaridagi muayyan buzilishdan kelib chiqsa-da, u har doim ham o‘sha buzilishga mutanosib bo‘lavermaydi. Biroq zararli ta’sirga uchragan a’zoning ta’sirchanligiga ko‘ra u kuchliroq yoki kuzsizroq bo‘lishi mumkin. Tish og‘rig‘i sil va istisqoga nisbatan kuchliroq ta’sirga ega. Ongning holati masalasida ham illatlar zararli ekani, ammo bezovtalik va og‘riq illatning darajasi bilan o‘lchanmasligi, tashqi noxushliklarga e’tiborsiz, yuksak fazilatli insonni har doim ham eng baxtli deb bo‘lmasligini kuzatishimiz mumkin. Fikrimizcha, tushkunlik va umidsizlik illat va nomukammallikdir, albatta. Garchi ular hayotni achchiq qilib, uning ta’siridagi insonni badbaxtga aylantirib qo‘ysa-da, ba’zan halollik va nomus tuyg‘usi bilan qo‘shilib kelishi ham mumkinki, ma’qul fe’l deb hisoblanadi. Boshqa tomondan, bir xudbin nobakor inson fazilat bo‘lmish jo‘shqin, moslashuvchan kayfiyat va qalb masrurligiga ega bo‘lishi mumkindirki, aksar hollarda undagi bu xususiyat keragidan ortiq baholanadi. Ayniqsa ular (jo‘shqin kayfiyat va masrur qalb) o‘zga illatlardan kelib chiqadigan nadomat va noqulayliklarni yengillashtirganda buni yaqqol sezish mumkin.

Shuni ham qo‘shimcha qilish mumkinki, nomukammallik va yovuzlikka moyil bo‘lgan shaxs, ko‘p kuzatiladigan muayyan fazilatlarga ham ega bo‘lsa, mutlaqo yovuz bo‘lganlarga nibatan o‘zini baxtsizroq his etadi. Musibatlarga ta’sirchan bo‘lgan bu kabi noizchil harakterli kishilar agarda o‘zgalar uchun g‘amxo‘rlik qilishdek do‘stlik va saxiylik xislatlariga ega bo‘lsalar turli falokatu taqdir o‘yinlari qarshisida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Axloqan nomukammal fe’l-atvorli kishida uyat tuyg‘usining bo‘lishi yaxshi narsa, albatta. Ammo u ba’zida noqulaylik va pushaymonliklarga ham sabab bo‘ladiki, mutlaq nobakor kishi ularni his qilmaydi. Sevgiga moyil biroq, do‘stlikni his etolmaydigan qalb sevgi va ayni paytda do‘stona bo‘lgan qalbga nisbatan baxtiyor, zero u (qalb) kishini o‘z extirosining obyektiga qul qilib qo‘ymaydi.

Chunonchi, shu kunga qadar yurtimiz aholisining 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Izlanishlarda aniqlangan yangi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgan. Shuningdek, o‘sha davrda “quloq” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi. Ilgari 396 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytilardi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo‘lgan. Bundan tashqari, frontda bedarak yo‘qolganlar haqidagi ma’lumotlar ham to‘liq emasdi. Hozirgi vaqtda 158 mingdan ko‘proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgani aniqlandi (Turdiyev, B. 2021, may 10).

Dunyo xalqlari taqdiriga Ikkinchi jahon urushi juda katta ta’sir ko‘rsatib, u o‘zidan avvalgi sodir bo‘lgan 20-30 yillar tarixiy voqeliklari oqibatida bevosita yuzaga keldi. Insoniyatni mislsiz dahshatga, qirg‘in va ofatlarga giriftor qilgan fashizm g‘oyasi 1933-yilda Germaniyada Adolf Gitlerning diktaturasi o‘rnatilishi bilan yuzaga kelgani tarixdan ma’lum. Dunyoga hukmronlik qilish da’vosi va “oliy irq” qutqusiga uchragan gitlerchilar shu davrdan urushga jiddiy tayyorlana boshlagan edi. 1938-yilda Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Germaniya o‘rtasida Yevropada bosqinlarni tugatish bo‘yicha Myunxen bitimi, 1939-yil avgustida SSSR va Germaniya o‘rtasida hujum qilmaslik haqida shartnoma imzolangan bo‘lsa-da, fashistlar

Germaniyasi 1939-yilning 1-sentabrida Polshaga bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi hamda 1941-yilning 22-iyun kuni SSSRga hujum qilishi bilan Ulug‘ Vatan urushi boshlandi. Dunyo xalqlariga mislsiz azob-uqubatlar keltirgan, son-sanoqsiz qurbonlarga sabab bo‘lgan bu urush 1945-yilning 2-sentabriga qadar davom etdi.

Urushning boshlanishi sovet mamlakati xalq xo‘jaligini front ehtiyojlarini ta’minlash uchun qayta qurishni talab etdi. Moddiy, moliyaviy va mehnat imkoniyatlarini urush manfaatlariga bo‘ysundirish, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni keskin oshirish kabi masalalar asosiy va kechiktirib bo‘lmaydigan hamda juda qisqa muddatda bajarilishi zarur vazifalar hisoblanardi. Shu yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishga qaratilgan dastlabki amaliy harakat 1941-yil 30-iyunda qabul qilingan “1941-yil 3-choragida xalq xo‘jaligini umumiy safarbar etish rejasi”da namoyon bo‘ldi. Rejaga asosan tinch davrga nisbatan qurol-yarog‘ ishlab chiqarilishi 26 foiz oshirildi (Вознесенский, Н. 1947, noyabr 12)

Harbiy sanoatni jonlantirishda SSSRning sharqiy hududlariga, jumladan, O‘zbekistonga katta e’tibor berildi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistondagi sanoat korxonalarini harbiy izga moslab qayta qurish va mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tkazish lozim edi. Chegaralangan vaqt ichida bunday katta ko‘lamdagi ishni amalga oshirish katta kuch va tashabbusni talab etdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning ko‘plab boshqa korxonalari ham harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Ba’zi hollarda harbiy mahsulot ishlab chiqarish uchun qo‘shimcha korpus qurishga to‘g‘ri kelardi. Masalan, “Kolxoznik” nomli zavodda harbiy mahsulot ishlab chiqarish uchun qo‘shimcha ikkita korpus qurishga to‘g‘ri keldi. Rejalar muddati tig‘iz belgilanganligi uchun ishchilar kuniga 17 soatdan ishlashga majbur bo‘ldilar. Zavod rahbariyatining tashabbusi va ishchilarning og‘ir mehnati tufayli 1941-yil noyabrdan zavod qurol-yarog‘ ishlab chiqara boshladi (O‘zFA. 1981).

Frontga ketganlarning o‘rnini to‘ldirish, evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda uy bekalari, o‘qituvchi va olimlar, xizmatchilar va kolxozchilar, talaba va o‘qituvchi yoshlar ham mehnat qildilar. Minglab yigit-qizlar sanoat korxonalari, transport va boshqa sohalarga kelib o‘z otalari
va akalarining o‘rnini bosdilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, urush yillarida respublikadagi fabrika-zavod, sovxoz ishchilari va kolxozchilarning qariyb70 foizini yoshlar tashkil etardi (Sodiqov, O. 1975). Harbiy korxonalarda 13-14 yoshli qizlar ham 12 soatlab og‘ir ishlarda ishlashga majbur edilar.

Urush yillari O‘zbekiston front va mamlakat ichkarisini nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shu bilan birga, sanoat mahsulotlari bilan ham ta’minlashdek mas’uliyatli vazifani amalga oshirdi. O‘zbekistonda urush yillarida 280 ta yangi korxona barpo etildi. Respublikaning sanoat potensiali
1945-yilga kelib 1940-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko‘paydi. Neft qazib olish4 baravardan ziyod, metall ishlash tarmoqlari mahsulotlari 4, 8, mashinasozlik mahsulotlari 13, 4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30 baravardan ko‘proq, po‘latva prokat eritish 2 baravar, elektr energiya ishlab chiqarish
2, 42 marta ortdi (Jo‘rayev, M. 2000).

Urush yillarida O‘zbekistonning ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-moliyaviy resurslar va ishchi kuchi harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratildi. Barcha sanoat korxonalari ham harbiy mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashmagan bo‘lsa-da, respublikada turli qurol-yarog‘, harbiy texnikava ularga ehtiyot qismlarning ishlab chiqarilishi o‘sib bordi. Harbiy ishlab chiqarishning o‘sishi tufayli urushning dastlabki oylarida yo‘qotilgan tank, artilleriya, samolyotlar o‘rnini to‘ldirish va strategik zaxiralarni ko‘paytirish imkoni yaratildi.

Sanoatda yangi tarmoqlar – aviasozlik, stanoksozlik, og‘ir sanoat, rangli va qora metallurgiya va boshqa yo‘nalishlar yuzaga keldi. 1941-yil oxiriga kelib 300 dan ortiq korxonalarda harbiy mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi (Saidolimov, S. 2020, aprel 29).

Muhokama

1941-yil 26-iyundan boshlaboq mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho‘zilardi. Ta’tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilar sonini ko‘paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajminioshirish imkonini berdi. Gap shundaki, urush yillarida aholining iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashib, bu eng avvalo oziq-ovqat tanqisligida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shunday sharoitga qaramasdan, respublikada umumxalq mudofaa fondi tashkil qilindi. Mudofaa jamg‘armasiga ishchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, “kommunistik shanbalik”larda ishlab topilgan pullar, fuqarolarning shaxsiy jamg‘armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi.

Urushning birinchi kunlaridayoq 1941-yil 21-avgustgacha mudofaa fondiga hammasi bo‘lib, 5 million 293 ming so‘m pul, zayom obligatsiyalariva qimmatbaho buyumlar topshirilgan bo‘lsa, bir oydan

so‘ng mudofaa fondi70 million so‘mga ko‘paydi. Bundan tashqari respublika mehnatkashlari mudofaa fondiga 2389 sentner don, 1808 sentner go‘sht, 200 sentner jun, 1495 sentner pichan, 325 sentner quruq meva, 430 sentner sabzavot, qovun-tarvuz va boshqa shu kabi oziq-ovqat mahsulotlarini yubordilar.

Urushning dastlabki bosqichida sobiq Ittifoq sanoatiga jiddiy zarar yetdi. 1941-yil noyabrida 1941-yil iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarish2, 1 barobar kamaydi. Harbiy sanoatni jonlantirishda SSSRninig sharqiy hududlariga, jumladan, O‘zbekistonga katta e’tibor qaratildi. Kadrlar, sanoat xom ashyosi, yoqilg‘i, dastgohlar, asboblar nihoyatda yetishmovchiligiga qaramay, 1941-yil dekabrga kelib Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi 230 ta korxona mudofaa mahsulotlari bera boshladi (Воениздат. 1961).

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari urush yillarida mamlakatga 4 million 806 ming tonna paxta, 1 mln 282 ming tonna don, 159 ming tonna go‘sht, 54, 1 ming tonna meva va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berib umumiy g‘alabaga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

1944-1945-yillarda urush sharoitida soha uchun katta qiyinchiliklar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, davlatga paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda yuqori natijalarga erishildi. Respublikamiz 1944-yilda paxta tayyorlash yillik rejasini muddatdan oldin oshirib bajarib, davlatga 820 ming tonna paxta yetkazib berdi. Bu 1942-yildagiga nisbatan 325 ming tonna ko‘p edi. Dehqonlarimiz 1945-yilda ham paxta tayyorlash rejasini muddatdan oldin 100, 6 foiz qilib bajardilar.

Ishga yaroqli erkaklarning frontga ketishi natijasida ishlab chiqarish korxonalarida ayollar soni tobora ortib bordi. 1941-yilning ikkinchi yarmida Namangan viloyatidagi korxonalarda 230 nafar ayol turli kasblarni o‘rganib, ulardan 28 nafari slesar, 18 nafari tokar, 18 nafari elektromontyor va boshqa “erkaklar kasbi”ni o‘zlashtirdilar. Aloqa yo‘llari Xalq komissariatining 1941-yil oktabrdagi “Xotin-qizlar orasida temir yo‘l mutaxassislarini tayyorlash va mehnat ko‘nikmalarini oshirish to‘g‘risida”gi farmoyishi asosida 1942-yil oxiriga kelib, O‘zbekiston temir yo‘llarida 8, 5 mingdan ortiq ayol ishlayotgan edi. Hatto shaxtyorlik kasbiga ham ayollar jalb qilindi. Umuman olganda, bu davrda O‘zbekiston ishlab chiqarishida ayollar hal qiluvchi mehnat kuchiga aylandi. Agar, 1940-yil sanoatda ishlovchilar orasidagi xotin-qizlar salmog’i 34 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1942-yilga kelib 63, 5 foizga yetdi (Adham, R. 1970). O‘zbekiston iqtisodiyotining katta qismi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq

bo‘lganligi sababli, ayollardan tez sur’atlarda mexanizatorlar tayyorlashga asosiy e’tibor qaratildi. 1941-yil avgust-sentabr oylarida O‘zbekistondagi mashina-traktor stansiyalari va mexanizatorlar maktablari qoshida ochilgan traktorchilarni tayyorlovchi qisqa kurslar tinglovchilarining 80 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Respublika ishchilari front orqasidagi og‘ir mehnatda haqiqiy jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Sharoit og‘ir, oziq-ovqat yetishmas, siyosiy vaziyat og‘ir, berilgan rejani qattiq talab qilish ko‘pchilikni toliqtirar, ba’zilar bardosh berolmasdan halok bo‘lardilar. Shunga qaramasdan 1943-yilga kelganda SSSR harbiy ishlab chiqarishda Germaniyaga yetib, hatto o‘tib ketishida mamlakat ichkarisidagi ishchilarning xizmati juda katta bo‘ldi. Urush yillarida O‘zbekistonda vujudga kelgan harbiy sanoat kompleksi tomonidan front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotlar, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo‘q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radio lampa, qariyib 300 mingta parashyut, 5 ta bronepoyezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom kir yuvish poyezdi, 2200 dona ko‘chma oshxona va 7518, 8 mingta gimnastyorka, 2636, 7 mingta paxtali nimcha, 2861, 5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar. Bu O‘zbekistonliklarning fashist-bosqinchilarini tor-mor etishga, g‘alabaga qo‘shgan katta hissasi bo‘ldi. Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushurilishi natijasida 1945-yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barabar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish
4, 8, mashinasozlik mahsulotlari 13, 4 baravar, ko‘mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2, 42 ko‘paygan (Murtazayeva, R. 2005). Urush yillarida front orqasida og‘ir, qiyin sharoitda mehnat qilishlariga, ishchi kuchining yetishmasligiga qaramasdan Ittifoqning mudofaa qurilishlari va sanoat korxonalariga 155 mingdan ortiq O‘zbekistonlik jalb qilingan. Ular RSFSRning Ural, Sibirdagi zavodlari, qurilishda, asosan toshko‘mir, qora va rangli metallurgiya korxonalarida mehnat qilishgan.

“Barchasi front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori nafaqat Sovet davlatining barcha harbiy-safarbarlik tadbirlari maqsadini belgilagan, balki O‘zbekiston partiyasi va davlat organlarining butun tashkiliy, mafkuraviy, madaniy va ma’rifiy faoliyatining markazida ham turganligi aniqlangan. Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch chora-tadbirlar ko‘rishni talab qildi. Xalq xo‘jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish umumiy dasturning tarkibiy qismi bo‘ldi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik

bilan front manfaatlariga bo‘ysundirildi. Respublika sanoat korxonalari urush boshlanishi bilanoq qayta qurilib, mudofaaga zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tkazildi.

Fashistlar Germaniyasi sovetlar Ittifoqi hududida urush harakatlari boshlaganlaridan bir necha kun o‘tar-o‘tmas O‘zbekistonlik mard o‘g‘lonlarning afsonaviy Brest qal’asini himoya qilishdagi jasoratlaridan guvohlik beruvchi xat-xabarlar birin-ketin yetib kela boshladi. Brest qal’asini himoya qilishda jasorat ko‘rsatganlar orasida O‘zbekistonliklardan N. Sodiqov, A. Abdullaev, A. Arslonbekov, S. Boytemirov, A. Aliev, T. Xidirov, U. O‘taev va boshqalar bor edi. Mo‘min Karimov va Ismoil Adhamxo‘jaev SSSR g‘arbiy chegaralarida birinchilar qatorida dushman bilan jangga kirdilar. Mo‘min Karimov keyinchalik uch marta Shuhrat ordeni nishondori bo‘ldi.

Butun O‘zbekiston Moskva uchun oyoqqa turdi. 1941-yil noyabridan 1942-yil mart oyiga qadar O‘zbekistonda harbiy qismlar tashkil etildi. Fashist kallakesarlarini Moskva ostonalaridan uloqtirib tashlashda qahramonlik mo‘jizalarini ko‘rsatganlar orasida O‘zbekistonda tuzilgan harbiy qismlar 44-kavaleriya diviziyasi, 21-kavaleriya diviziyasi, 259 o‘qchi diviziyasining jangchi va komandirlaridan 106 kishi SSSR ordenlari va medallari bilan mukofotlandi. 21-kavaleriya diviziyasi jangda ko’rsatgan qahramonliklar uchun 14-gvardiyasi kavaleriya diviziyasiga aylantirildi. 259 o‘qchi diviziyasi gvardiyachi diviziya nomini oldi. Moskva uchun jang qilgan I. V. Panfilov nomidagi mashhur 8 gvardiyachi diviziyaning shaxsiy sostavida O‘zbekistonlik bahodirlar Zarif Ibroximov, G‘ulom Abdukarimov va boshqalar jasorat ko‘rsatdilar. Yovuz dushmanga nafrat hatto O‘zbekistonlik ayollarimizni ham qo‘lga qurol olib jangga otlantirdi. O‘zbekistonlik Zebo G‘anievaning Moskva himoyasi uchun ko‘rsatgan jasorati tillarda doston bo‘ldi. Zeboxon xalq ko‘nggillilari safida Moskva mudofaasiga otlandi. U o‘z hayotini bir necha bor xavf ostida qoldirib razvedkachilar safida 12 marta “til” (dushmanning rejalari-planini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish) operatsiyasida ishtirok etib shuhrat qozondi. Zebo G‘anieva jang maydonlarida 28 fashist jallodni yer tishlatdi. Qizil bayroq ordeni bilan mukofatlandi. Jami bo‘lib, Moskva himoyasi uchun olib borilgan janglarda qatnashgan O‘zbekistonlik askar va ofitserlardan 1753 kishi SSSR Oliy Sovetining Farmoni bilan “Moskva mudofaasi uchun” medaliga sazovar bo‘ldi. Fashist kallakesarlarining yashin tezligida urush rejasi Moskva ostonalarida sharmandalarcha barbod bo‘ldi. Dushman Stalingrad yo‘nalishida jangga o‘tdi.

O‘zbekiston mehnatkashlari ikkinchi jahon urushi yillarida qahramonlik va jasorat namunalarini ko’rsatdi, ular kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan och-yalong’och holda juda og’ir va qiyin

sharoitlarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida sidqidildan va astoydil mehnat qilib urushni g'alaba bilan yakunlash maqsadida front manfaatlari uchun turli-turli mahsulotlar ishlab chiqardilar. O'zbekistonlik jangchilar front chiziqlarining oldingi saflarida mardlik va qahramonlik mo'jizalarini namoyish qildilar, dushman o'qiga o'z ko'kraklarini qalqon qilib rus, ukrain, belorus, Boltqbo'yi yerlarini fashistlar Germaniyasidan ozod qilishda faol qatnashdilar va umumiy dushman ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

O'zbekistonlik jangchilardan 1939-1945-yillardagi ikkinchi jahon urushida fashistlar Germaniyasi va Yaponiya millitarizmi kuchlariga qarshi kurashdagi jasorati, mardligi va qahramonligi uchun 120 ming kishi SSSRning orden va medallari bilan taqdirlandi, 300 dan ortiq kishiga esa Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Ammo urushda qo'lga kiritilgan g'alaba O'rta Osiyo xalqlariga juda qimmatga tushdi. Mazkur mintaqa aholisining umumiy miqdori 1940-yildagi 10. 906 ming kishidan 1945 yilga kelib 8. 982 ming kishiga tushib qoldi, yoki 1. 924 ming nafarga qisqardi. Agar 1940-1945 yillarda tug'ilgan yosh go'daklarni ham qo'shib hisoblansa yo'qotish raqami bundan ham ko'proq bo'ladi. Ayniqsa bu urushdan O'zbekiston va o'zbek xalqi ko'p narsa yo'qotdi. Respublika aholisi 1, 4 million kishiga qisqardi.

Minglarning biri sifatida respublika oqsoqoli Yo'ldosh Oxunboboev Stalingrad jangi arafasida o'zbek jangchilariga quyidagicha murojaat qildi: "Sovet Ittifoqining Qahramoni, fashistlar istehkomini tanho o'zi zabt etgan Qo'chqor Turdievning tarixiy qahramonligi mamlakatimiz xalqlari tilida doston bo'lmoqda. Beshariqlik Sirojiddin Valiev, Toshkentlik kolxozchi Rustambekov, to'qimachilik kombinatinig ishchisi chavandoz Ahmad Doliev, buxorolik Haitov otabobolarining mardlik hislatlarini o'zida gavdalantirgan boshqa yuzlab sher yigitlarimizning nomini xalqimiz hamisha faxr va ehtirom bilan tilga oladi. Besh marta jangga kirganida uch yuzdan ko'p gitlerchini qirib tashlagan bahodir farzandi Haitovga xalqimiz: "Balli, azamat, dushmanga omon bermay qira ber, yenga ber, yengilma" deydi. Chunki o'zbek xalqi o'z farzandlariga "mard bo'lsang kuchingni maydonda ko'rsat" deb ta'lim beradi".

Snayperchi Abdujabbor Aliqulov hisobida 13 gitlerchining qirib tashlagani yozib qo'yilganligi ma'lum. Boshqa bir o'zbek snayperchisi Xo'jamatov Stalingrad janglarida 117 nemis askari va zobitlarini qirib tashladi. Pulemyotchi Hamro Ochilov hisobidagi qirilgan fashistlar 1500 kishiga yetgandi. U Lenin ordeni bilan taqdirlangandi.

Kichik leytenant Jo'ra Turdiev bosh bo'lgan bo'linma artelleristlari katta mahorat ko'rsatib, 200 dan ortiq fashistlarni yer tishlatdi. Gvardichi

mayor Ubaydulla Mirzoidovning batalonidagi jangchilardan Solix G‘ulomov 100 dan ortiq gitlerchini, Temir Xudoyberdiev dushmanning 50 ta askarini otib o‘ldirdi va 100 dan ortiq fashistlarni asir oldi.

O’zbekistonlik jangchilar Stalingrad ostonalarida fashistlar Germaniyasining quyoshini botirishda jangning oldingi saflarida bo’ldilar. O’zbekistonning 2788 jangchisiga «Stalingrad mudofaasi uchun» medali topshirildi.

Dushman hamon taslim bo’lishni hayoliga keltirmas edi. Stalingrad jangida “qish qahratonidan yengilgan” dushman yoz jangida g’alaba qilish ishtiyoqida 1943 yilning iyul oyi boshida 232 diviziya bilan Kursk-Oryol-Belgorod yoybo’ylab hujumga o’tdi. Ammo dushman bu yerda ham yengilib fashistlar Germaniyasi halokat yoqasiga yaqinlashib qoldi.

O’zbekistonlik mard jangchilar Ukraina va Belorussiya, Kavkaz va Boltiq bo’yi yerlarini dushmandan ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilish, xullas SSSRni dushmandan tozalash, Qardosh yevropa xalqlariga yordam qo’lini cho’zishda hamda gitlerchilar fashizimni o’z uyasida tor-mor keltirishda qahramonlik namunalarini ko’rsatdilar (Shamsutdinov, R. 1996).

Faqat 1944-yilda fashistlardan Kavkaz yerlarini ozod qilishda mardlik va jasurlik namunalarini ko’rsatganliklari uchun O’zbekistonlik jangchilardan 1974 ishi sovet Ittifoqining orden va medallari bilan taqdirlangan edi. Qizil Armiyaning 1944 yildagi umumiy hujumi davrida O’zbekistonlik jangchilaridan 78 bahodir Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo’ldi, bular orasida Farg’ona viloyatidan Abdusalom Dehqonboev, Andijonlik Ostanaqul Shokirov, Samarqandlik Elboy Qoraboev va boshqalar bor edilar. Qahramon o’zbek o’g’lonilitvaliklar uchun ayniqsa qadrdon va aziz bo’lib qoldi. Litva tuprog’ini fashistlardan ozod qilishdagi jasurligi hurmati uchun Ostanaqul Shokirovga atab Vilnyusdagi 27-maktab kollektivi muzey tashkil qildilar.

Tahlil

O’zbek xalqi fashist gazandalardan Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Albaniya hamda Germaniya xalqlarini ozod qilishda qatnashib, o’zining baynalminalchilik burchini ado etgan, asl farzandlari bilan haqli suratda faxrlanadi. Bular orasida Qizil Armiya generallari, Sovet Itifoqi Qahramonlari Sobir Rahimov, Mullajon Uzoqov va Fayzulla Norxo’jaevlar alohida diqqatga, e'tiborga loyiqdirlar.

1941 – 1945-yillardagi Ikkinchi Jahon urushi urushi vaqtida O‘zbekiston nafaqat urushga qurol-yarog‘, oziq-ovqat yetkizib bergan, balkim u butun g‘arbidan evakuatsiya qilingan millionlab fuqarolar uchun

boshpanaga aylandi. O‘zbek oilalari dinidan millatidan qat’iy nazar, minglab yetim bolalarni asrab olgan.

1939 – 1945-yillarda bo‘lib o‘tgan bu urushda O‘zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi SSSR ning turli orden va medallari bilan taqdirlandi. Shulardan 300 dan ortiq kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi (aniq. uz. 2021, may 10).

Shunday qilib ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston mehnatkashlari, o‘zbekning mard o‘g‘il-qizlari front orqasida, shuningdek urushning dahshatli jang maydonlarida mehnat va jangovarlik jasoratlarini ko‘rsatib sovet xalqining bu urushda erishgan umumiy g‘alabasiga o‘zining salmoqli ulushini qo‘shdi.

9-may kuni O‘zbekiston butun dunyo bilan birgalikda yangi zamon tarixidaga o‘ta muhim bo‘lgan sanani – nasizm ustidan qozonilgan G‘alabani nishonlaydi. 9-may kuni O‘zbekistonda Xotira va qadrlash kuni deb e’lon qilingan. Ushbu kun barcha shahar va tumanlarda bayramga bag‘ishlangan tantana va namoyishlar bo‘lib o‘tadi. Poytaxtda asosiy tadbirlar Mustaqillik maydonidagi Xotira maydonida va “Birodarlar qabri” majmuasida bo‘lib o‘tadi.

Rasmiy tadbir va tantanalardan tashqari, O‘zbekistonda har bir urush qatnashchisi va mehnat fronti faxriysining holidan shaxsan xabar olib, ularga sovg‘alar va moddiy yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.

Olti yil davom etgan, butun insoniyat boshiga og‘ir kulfatlar solgan Ikkinchijahon urushi tamom bo‘ldi. Urush insoniyatga qimmatga tushdi, 50 milliondan ortiqroq kishi halok bo‘ldi, 90 milliondan ortiq kishi yarador va mayib bo‘lib qoldi, moddiy talofatlar qimmati 4 trillion dollardan oshib ketdi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda bo'ldi. Fashizmni tor-mor etishda ko‘p mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning asosiy og‘irlik markazi SSSR xalqlari zimmasiga tushdi. 27 millionga yaqin kishi urush alangasida halok bo‘ldi, 18 milliondan ortiqroq jangchilar yarador va nogiron bo‘lib qoldilar.

Ikkinchi jahon urushida o‘zbek xalqi fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. 120 ming O‘zbekistonlik jangchilar, jumladan, 70 ming o‘zbek yigit va qizlari orden va medallar bilan mukofotlandi. 300 ga yaqin askar va komandirlar Qahramon unvoniga sazovor bo‘lishdi, ularning 75 nafari o‘zbeklardir. 32 nafar O‘zbekistonlik jangchi uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi. Urushga bormaganlarga ham oson bo‘lmadi. Yuz minglab vatandoshlarimiz mehnat frontida zahmat chekdilar, o‘zi yemasdan, o‘zi kiymasdan topgan nasibasini frontga jo‘natib azob-uqubatlar tortdi.

Urush yillarida yuzaga kelgan keskin hayotiy qiyinchiliklar, oziq-ovqat tanqisligi, deyarli har bir xonadonga kelib turgan “qora xat” yoki urushdan nogiron bo`lib qolganligi tufayli qaytib kelganlarning qayg’usi, xotin-qizlar hatto keksalarning majburiy mehnatga jalb etilishi, uzaytirilgan ish soatlari, mehnat armiyalariga safarbarlik xalqning sabr-bardoshi, uning mentalitet xususiyatlariga xos bo‘lgan bag’rikenglik, insonparvarlik va vatanparvarlik xislatlarini yaqqol namoyon etdi. “Bugun fashizmga qarshi kurashda halok bo‘lgan minglab vatandoshlarimizning so‘nmas xotiralarini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat bajo keltirish – biz uchun ham qarz, ham farzdir”. Darhaqiqat, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ayni vaqtda mustaqil Vatanimiz ozodligi, el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan jasur harbiylarimizning nomlarini ham hurmat va ehtirom bilan esga olamiz. Ularning oila a’zolari, farzandlariga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni o‘zimizning muqaddas burchimiz, deb bilamiz” (Mirziyoyev, Sh. 2019, may 10). Urush yillarida yuzaga kelgan og‘ir harbiy va iqtisodiy sharoitda barcha ishlab chiqarish kuchlari va barcha resurslar urush ehtiyojlari uchun yo‘naltirildi. Sanoat korxonalari harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Harbiy korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari boshqa soha korxonalaridan jalb qilingan asbob-uskunalar yordamida oshirildi.

Urush boshlarida amalga oshirilgan iqtisodiy chora-tadbirlar o‘zining ijobiy samarasini berdi. Yaratilgan iqtisodiy tizim an’anaviy tizimlardan farqli ravishda iqtisodiy rivojlanishni emas, mamlakatni murakkab sharoitlarda qanday bo‘lmasin yashab qolishni maqsad qilib qo‘ydi.

Urush yillarida xalqimiz nafaqat front va front ortidagi jasoratli mehnati bilan balki mamlakatimiz hududiga evakuatsiya qilingan oilalar va bolalarga ko`rsatgan g’amxo`rlik va mehribonligi bilan ham g’alabaga o`z hissasini qo`shdi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, yirik sanoat korxonalaridan tashqari Respublikamizga bu og’ir yillarda boshpanasiz qolgan oilalar, yetim go‘daklardan 7-6 ming kishi keltirib joylashtirildi. Faqat 1941-yildagina 200 ming bolalar uyiga joylashtirilgan edi. O‘zining baynalmilallik burchiga doim sadoqatli bo‘lib qolib kelayotgan o‘zbek xalqi ko‘chirib keltirilgan aholiga, bolalarga mehribonlik bildirib, ularga mehr – oqibat ko‘rsatdi, kiyim-kechak, oziq-ovqat berdi.

Urush yillarida O‘zbekistonda safarbarlik yoshidagi aholining asosiy qismi frontga jalb qilinishi oqibatida iqtisodiyotda malakali kadrlar ulushini keskin kamaytirdi. Shuningdek, urush davrida respublikaga yuzdan ortiq korxonaning evakuatsiya qilinishi, yangi sanoat quvvatlarining ishga tushirilishi va yirik qurilishlar kadrlar muammosini

yanada murakkablashtirdi. Respublika iqtisodiyotini qo‘shimcha kadrlar bilan ta’minlashga ayollar va yoshlar ommaviy jalb etildi.

Olti yil davom etgan dahshatli urush o‘sha vaqtda dunyoda mavjud bo‘lgan 73 ta davlatning 62 tasini, Yer kurrasining 80 foiz aholisini o‘z domiga tortdi. Harbiy harakatlar Yevropa, Osiyo va Afrikadagi 40 ta davlat hududida hamda barcha okeanlarning akvatoriyalarida olib borildi.

Qurolli kuchlarga safarbar etilgan 110 million kishidan umumiy yo‘qotish 70 millionni tashkil etdi. Ulardan 27 millioni janggohlarda qurbon bo‘ldi. Eng ko‘p vafot etganlar SSSR (26, 6 million), Xitoy (15, 5 million), Germaniya (7, 4 million), Polsha (6, 2 million), Yaponiya (2, 5 million) davlatlariga to‘g‘ri keladi. Bu urush yadro quroli qo‘llanilgan yagona harbiy to‘qnashuv sifatida ham tarix sahifalariga muhrlandi.

Harbiy xarajatlar va harbiy zarar o‘sha vaqtdagi hisob bo‘yicha 4 trillion dollarni tashkil etdi. Moddiy xarajatlar urushayotgan davlatlar milliy daromadining 70 foizigacha yetdi. Misli ko‘rilmagan buzg‘unchilik avj olgan urushda o‘n minglab shahar va qishloqlar vayron qilindi. Ikkinchi jahon urushi urushlar tarixida miqyosi jihatidan eng yirigi bo‘ldi va insoniyat uchun muhim saboqlarni berdi. Uning bosh natijalaridan biri — kelajakda jahon urushlarining oldini olish maqsadida urush davomida shakllangan Antifashist koalitsiyasi asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi bo‘ldi. Nyurnberg jarayonida fashizm va natsizm mafkuralari jinoyat deb e’tirof etildi va taqiqlandi.

Urushning ilk kunlaridan frontga jalb etilgan, qonli janggohlarda yuksak vatanparvarlik burchini ado etgan o‘zbek xalqi, avvalo, o‘z uyi, o‘z Vatani – O‘zbekistonni himoya qilishni, ona yurtiga fashizm balosini yaqinlashtirmaslikni m aqsad qilib qo‘ygan edi, desak, adashmagan bo‘lamiz. O‘sha davrda O‘zbekiston hududida yashagan 6 yarim million aholidan 1 yarim milliondan ortig‘i urushda ishtirok etdi. Ularning yarim milliondan ziyodi halok bo‘ldi. 133 mingga yaqin yurtdoshimiz bedarak yo‘qoldi. 60 mingdan ortiq vatandoshimiz urushdan nogiron bo‘lib qaytdi (Saidolimov, S. 2020, aprel 29).

Xulosa

Ta’kidlash joizki, aynan mehnat frontlaridagi ishchi kuchlarining zahmatli mehnati g‘alabaga erishishning asosiy omili bo‘lib xizmat qildi. Masalaning yana bir e’tiborli jihati, g‘alabani ta’minlashdagi hal qiluvchi omil bo‘lishiga qaramasdan mazkur soha kam o‘rganilgan. Bugungi kunda frontorti mehnat armiyalarining faoliyati tarixchi, siyosatchi, iqtisodchi, jamiyatshunos, sotsiolog olimlar tomonidan kompleks o‘rganishni talab qiladi. Bu eng avvalo, urush davri tafsilotlari, va g‘alabani ta’minlagan

omillar tarixini xolisona yoritish imkonini berishi bilan birga, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqarish, bugungi kun uchun zarur bo‘lgan ibrat va saboq olish, insoniyat ongida qurolli urush va keskinliklarga nisbatan murosasizlik, tinch va osuda hayotning qadriga yetish, shukronalik, insonparvarlik va vatanparvarlik, ajdodlar ruhiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, respublikamiz urush yillarida frontni o‘q-dori, qurol aslaha, askar jangchilar bilangina emas, balki iqtisodiy jihatdan ham ta’minlovchi maskanga aylangan edi. Albatta, buning ortida xalqimizning og‘ir mehnati yotardi. Ammo xalqimiz shuni bilardiki, armiyaning, harbiylarning iqtisodiy jihatdan to‘q bo‘lishi g‘alabani ta’minlovchi omillardan biridir. Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz urush yillarida frontni front orti bilan mustahkamlashga ham o‘zining insonparvarlik, vatanparvarlik, saxiylik xislatlari bilan salmoqli hissa qo‘shdi.

Mustaqillik yillarida tariximizni xolis va haqqoniy yoritish, ajdodlar xotirasini tiklash va kelajak avlodga etkazish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba 9-may kuni O‘zbekistonda “Xotira va Qadrlash kuni” sifatida nishonlanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mirziyoyev, Sh. (2017, may 9). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9 may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan qabul marosimidagi nutqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://uza. uz/oz/posts/o-zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-9-may-xotira-v-09-05-2017

Mirziyoyev, Sh. (2019, may 9). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy veb-sayti. https://president. uz/oz/lists/view/2564

Turdiyev, B. (2021, may 10). Xalqimizning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida juda muhim yangi ma’lumotlar yuz ochdi. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy vebs-sayti. https://uzlidep. uz/news-of-party/9065

Aniq. uz (2021, may 9). O‘zbekistonlik jangchilarning II jahon urushi janggohlaridagi jasoratlari https://aniq. uz/uz/yangiliklar/uzbekistonlik-jangchilarning-ii-jahon-urushi-janggohlaridagi-jasoratlari

Saidolimov, S. (2020, aprel 29). O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 320b.

Sodiqov, O. (1975). O‘zbekiston komsomolining Ulug‘ Vatan urushi yillarida sanoatni yuksaltirishga qo‘shgan hissasi. - Toshkent: “Bilim” jamiyati.

Вознесенский, Н. (1947, noyabr 12). Военная экономика СССР в период Отечественной войны / - [Москва] : ОГИЗ : Государственное издательство политической литературы, -190, [2] с. ; 20 см.

O‘zFA. (1981). Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны / АН УзССР. Институт истории. — Ташкент : Фан, — 405 с.

Jo‘rayev, M. (2000). O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -T. : Sharq. -688 b.

Воениздат (1961). История Великой Отечественной войны Советского Союза 1941-1945 гг. – М. :

Adham, R. (1970). Shinelli qizlar. –T. – 34 b.

Murtazayeva, R. (2005). O‘zbekiston tarixi. Murtazayeva R. T. : 2005. - B 368.

Shamsutdinov, R. (1996). O‘zbekistonliklar Stalingrad janglarida Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabada O‘zbekistonning tarixiy hissasi. (1941-1945), T. : “Fan”.

HISTORICAL STUDY OF THE ANTIQUITY OF HUMAN LIFE

Assistance Professor Zarina ABDUAZIMOVA

Assistance Professor Yahya Solati

Abstract

The historical antiquity of human life dates back to the time of the creation of Adam (Peace be upon him); accordingly, the descendants of that Imam are called human beings. Howevamaer, archaeologists and paleontologists offer another perspective on human life, dating back to pre-Adam (Peace be upon him) times. Based on the invention of calligraphy, they have laid the foundation for the division of humankind, according to which humankind is divided into two periods, namely, pre historical and historical man. Such a division has drawn archaeologists with serious criticism. In addition to these criticisms, the audience is confronted with an obvious contradiction that the only way out of this contradiction will be to invoke common sense and seek help from the holy sharia. In addition, the evolution hypothesis has added to the existing ambiguities. The most exciting part of this hypothesis is dealing with the missing link and the search for the ancestor of the present man among the humanoids, which, like a tangled bundle, confronts the researcher with many ambiguities. The truth of the matter is a clear proof of the novelty of Adam's creation and its exclusive aspect; However, the best name for humans is humanoid, not humans. In this paper, the researcher, by simply presenting a hypothesis, wants to accompany the audience to reach the desired and certain result. The hypothesis in question is that man is the descendant of Adam. Certainly, there are other issues and questions that can help us in this study; however, we try to avoid verbosity by using a concise method and leave the details to the audience.

Keywords: Adam (Peace be upon him), Human, Mankind, Man, Human Being, Humanoid, Evolutionary Hypothesis (Evolution), Humanlike. To summarize, we can determine that in the main formation of man and his essence, this main aspect is that in the historical concept

this totality has philosophical, religious, anthropological and historical justification.

INTRODUCTION

The story of the creation of man is a strange anecdote, which sometimes leaves the researcher in a valley of ambiguity and sometimes gives him the courage to Progress with the help of reason. In the meanwhile, experience with adventuresome, try to draws the researcher to the depths of history.

Looking at the monotheistic ways and laws, we can explicitly consider the essence of religion as a single thing and attribute the existing differences to the distortions that have penetrated into the appearances of religious laws. However, what about the inherent differences between human schools? Really, why all this difference? It is not a cross-sectional and methodological distinction, but an inherent difference between different perspectives. We Without trying to Suppression human intellect and, along with some mystics, deeming the intellect incapable of explaining truth; we merely observe the horizon of reason in the explanation of generalities, and put its weak point in parentheses in the description of details. What strengthens the generality of the human intellect with the support of the Shari's and leads the inaccessible details to the realm of certain knowledge is the alignment of the esoteric intellect with religion. Undoubtedly, the archaeologist, like any empiricist scientist, relies on the empirical method and tries to reach the truth by using induction; Unaware that in most cases, he confuses reality instead of truth. Sometimes he is intoxicated by false pride, sometimes he is disappointed with the result and sometimes she uses justification with doubt. The tool of his work is sensory data and his justification is the use of available evidence; what deceives him is the evidences that are hidden and obstruct the path of truth; like a mirage, that draws the thirsty man in a vast desert, to the realms of nothingness.

The concept of man. The word "man" is derived from the root of the word "al-Ans" which is mentioned in the verse . The concept of human is, in all cases, applied equally to each of the human instances. The human concept seems simple at first glance; but since man is a complex being, a comprehensive and complete knowledge of man cannot simply be obtained. In this sense, man is known as the "small world"[69] and the world as the "big world». For a good understanding of human beings, it is better to define this concept in two lexical and idiomatic terms. In the lexical

[69]. The microcosm is the human being (cf. Nasser Khosrow, *Jame'at al-Hikmatin*, p. 109).

definition, different meanings are mentioned for human beings. Among these meanings, we can refer to "Adam", "human", "human being", "Mankind", "Enas", "Nas", "Ens", "Ons" (Ulfat / Appearance), "Oblivion". "Khalq", etc. , which is mentioned in Dehkhoda dictionary and other sources. Among these synonyms, the words Adam and Mankind being are given more attention due to their importance and use. The reason for naming human beings as Mankind is that they are visible; In addition, human beings are derived from the word Bashare, which means skin, skin, appearance, and so on. Thus, Bashare means the appearance of the body and the outer skin of the human body. For this reason, the term is used to describe each of the human instances. Adam is a Hebrew word; “Some commentators consider this word to mean "Edim-ol-arz "; in the sense that it is created from soil” (see: Azhari, *Tahdhib al-Lingha*, vol. 14, p. 151). Some other commentators give other reasons for this naming; one of these reasons is the wheat (Adam) skin; Blending of different elements (edema); and being perfumed by the divine spirit (Adam); cited. In Akkadian, Edmo means blood and means honorable person. In some verses of the Qur'an, it is mentioned that man was created from mud. In the definition of the term, it refers to the nature of man, which in logical books is referred to as the "talking animal", and based on it, the special nature of man is determined. In this definition, man is defined as a thinking being who has the power of reason. Due to having this power, man has been distinguished from other creatures and has reached the level of Ashraf creatures and the caliph of God on earth. This position is what is referred to in some verses, such as verse 72 / Al-Ahab, as the divine trust.

Human nature. Essence is derived from the word essential, which indicates the essence and identity of everything, and is composed of two words, namely, "interrogation" and "identity". In this sense, wherever there is talk of human nature, it means the factor of differentiation and distinction of man from other beings. This factor of discernment goes back to the enjoyment of the power of reason, which is potentially present in every person from birth because man is born with a pure nature and divine nature, and this nature in the definition of the term, is the same nature and essence of man that observes the common sense. On the question of whether among human beings, only man has intellect or other beings also have intellect? There is so much disagreement among researchers that it sometimes takes the audience away from the issue. To answer this important and crucial question, we must distinguish between reason and perception; because the relationship between the two is an absolute general and special relationship; in the sense that only humankind enjoys intellect; other beings, on the other hand, have other

[70]levels of perception, each of which determines a class of beings. If, in a division, we examine perception in four categories, rational perception is at the highest level and natural perception is at the lowest level (which is specific to plants and inanimate objects); Between these two levels is instinctive perception (specific to animals) and sensual perception (specific to jinn and Angels), which is non rational perception.

LITERATURE REVIEW

Adam (Peace be upon him)**, as the first man.** Adam (Peace be upon him) is considered as the first human being who has been introduced with different titles such as Abu al-Bashar, Safiyya Allah, Khalifa Allah, Moallem al-Asma ', etc. The name of Hazrat Adam (Peace be upon him) mentioned twenty-five times in (9 suras), the Quran. He lived about 930 years. God "At the time of creation Adam (Peace be upon him), "he left the body of that Imam without a soul for 40 years to be prone to receive the spirit" (Sheikh Saduq, Causes of Sharia, p. 275). According to the narrations, on Friday, the 11th of Muharram, he passed away and his son Seth (Hibullah). Buried him in a cave located on Mount Abu Qays (opposite Mecca). At the time of the flood, Noah brought Adam (Peace be upon him) coffin to Kufa. For this reason, "the grave of Adam (Peace be upon him) is located next to the holy grave of Imam Ali. Regarding the body of that Imam, it is said that he was 35 meters tall" (see: Klini, Kafi, vol. 8, p. 233). It is interesting that for the people of Aad, a body over ten meters has been narrated. When we refer to the thinking of ancient Iran, in the mythological cosmology of Mazdisna (Mazdaism), the first man, named Kiomars (Giomarth, Giomert, Giomard), is mentioned, who was created by Ahuramazda. In Ferdowsi's Shahnameh, Kiomars is introduced as the first king of Iran. In the Avestan language, this name is composed of the two words Gayo (life), and Martan (perishable); That is, a creature that faces death. Kiomars, in Mazdaian mythology, is comparable to Adam (Peace be upon him) in Jewish law. in the second myth of Genesis, Adam (Peace be upon him) is considered to be the first man that Jehovah created to guard the garden of Eden; He then created Eve (Peace be upon him) from Adam's left rib; But Adam, by the temptation of the serpent and Eve (Peace be upon him), ate the fruit of the tree of knowledge and became blind. Fearing that he would eat the fruit of the tree of life, Jehovah sent them to the earth. Despite the prove of Adam (Peace be upon him) life and the fact that he was a prophet, the time of his creation is in an aura of ambiguity. Exact information is not available in this regard. What is

[70] "The first part of the answer is gender, and the separating feature, that is, the second part of the answer, is the chapter" (Muzaffar, *Logic*, pp. 123-124).

narrated differently in history there is a difference of opinion between 7000 years and 9000 years. However, this does not interfere with Adam's existence. What relaxes our minds and strengthens our hypothesis is the citation of verses that introduce Adam (Peace be upon him) as the first man and the first prophet. According to the verses of 59/ Al-Imran, 26/ Al-Hejr, 12/ Al-Mu'minun, 71/s, 1/al-Nesae, Mankind spread from his generation (see: Tabatabai, *Al-Mizan*, 2022. vol. 4, pp. 222-225). After proving the creation of Adam (Peace be upon him), many doubts and ambiguities arise; One of these ambiguities is about the descent of that Imam. The Qur'an has dealt with this issue in the verses of35/ Al-Baqarah, 20 and 19/ Araf, 123/ Taha, and so on. To clarify the problem of descent, we turn to three interpretations:The first interpretation is that Adam and Eve (Peace be upon them), after eating the forbidden tree, were "expelled from the paradise of Eden and the Eternal and transferred to the earth" (cf. Majlisi, Baharalanvar 2021, vol. 11, p. 143.) The second interpretation, this Adam and Eve (Peace be upon them) were expelled from the Paradise of Purgatory and fell to the earth. According to Allama Tabatabai, the place from which Adam and Eve (Peace be upon them) were expelled was a purgatory; According to him, "God's purpose in creating man was to live on earth; So that their sitting in Paradise was only to test and prove superiority over the angels "(cf. Tabatabai, Al-Mizan, vol. 1, p. 132). The third interpretation is that the descent of man is a spiritual degradation, not a place; That is, they were in a green worldly garden and were expelled from the worldly paradise (see: Fakhr Razi, *Al-Tafsir Al-Kabir*, vol. 3, p. 452) .In the critique of the first interpretation, it must be said that this descent cannot be from eternal paradise; for, first, heaven and hell have not yet been established. Second, whoever enters Paradise and Hell will abide therein forever and will not be expelled from it; after proving the third interpretation of the descent of Adam (Peace be upon him), the most important issue is to address the reasons for proving that Adam (Peace be upon him) was the first human being. The second category is narrative reasons. This category of arguments is based on two types reason; the first category refers to the verses of the Qur'an; Such as the verses of (34 to 30/ Al-Baqarah), 1/ Al-Ansa, 59/ Al-Imran, 189/ Al-Araf, (26 to 29/ Al-Hejr), 4/ AN-Nahl, 70/ Al-Asra, 5/Al-Hajj, 54/Forkan, 7 and 8/ Sajdeh, 67/ Kafer and . . . ; In these verses, explicitly confirms both the issue of succession and the caliph of God on earth, as well as the fact that human beings are superior to other beings. The second category refers to the hadiths (including the holy hadiths and the hadiths of the infallibles- Peace be upon him-). For example, we can refer to this holy hadith, which says: «If it weren't for you, I would not have created the heavens» (cf. this hadith introduces the Prophet of Islam and the Ahl al-

Bayt as the goal of creation. In another holy hadith, he says: I swear by my honor and glory, O Muhammad, if it were not you, I would not have created Adam, and if it were not for Ali, would not have created Paradise "(cf. Ibn Tawus, Al-Yaqin, p. 426; Majlisi, Bihar al-Anwar, vol. 18, p. 400). He created and created a generation after another generation, and for each one, he created a world after another world, until in the end, he created Adam Abu al-Bashar (Peace be upon him) and branched off his descendants from him . . . (Khasal, vol. 2, p. 358, H. 45). Imam Sadiq (Peace be upon him) says: "Perhaps you think that God Almighty did not create any other human being besides you, no, it is not so, but He created thousands of people, of whom you are the last generation of those people" (Tawhid , P. 277, H. 2; Sheikh Saduq, Khasal, vol. 2, p. 652 AH 54). In addition, that Imam said in another narration:"God Almighty has created twelve thousand worlds, each of which is greater than seven heavens and seven earths, and none of the inhabitants of one world can imagine that God Almighty, other than his world, has created another world" (Khasal). , Vol. 2, p. 639, p. 14). In narrations attributed to Imam Ali (Peace be upon him), it is stated that the creation of Hazrat Adam (Peace be upon him), thousands of years after the extinction of Nasnas (Gorilla)" (Qomi, Tafsir al-Qomi, vol. 1, p. 36; Majlisi, Bahar-al-anvar, vol. 60, p. 273).

Based on these arguments, it is proved that in terms of creation, there is no connection between humanoid before Adam (Peace be upon him) and humankind.

METHODOLOGY

The connection between the creation of Adam (Peace be upon him) and the creatures before him (humanoid) Archaeologists do not consider themselves completely bound by verses and hadiths, but, based on their empirical data, look for human sequence in history; In this way, They divided into human to two periods, namely the historical period and the prehistoric period. Their basis in dividing this period is the invention of script. Some archaeologists, however, base this division on 10, 000 BC. Since then, it has been called the historical human, and before that, it has been prehistoric. What challenges the existing basis is the existing Neanderthal paintings that were painted on the caves walls from 230, 000 to 130, 000 years ago (Middle Paleolithic period). Is; because painting is considered as one of the examples of script. However, archaeologists believe that prehistoric humankind dates back to not only five hundred thousand years ago, but also forty million years ago. Of course, it is difficult to determine the exact time of existence of the oldest type of humanoid; however, their speculations about the first category of humanoid can be accepted as approximate and probable. Researchers,

Guruhlararo ziddiyat yoki nizo – ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir–birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ro‘y beradi va bunda ularning o‘z maqsadlariga erishishlariga bir–birlarining halaqit Ko‘pincha muayyan formal, rasmiy guruh a’zolari guruhbozlikka berilib, har bir kichik guruh manfaatlar bir–biriga mos kelmay qolganda ham nizo “Guruhbozlik” deb atalmish bunday holat ham ijtimoiy–psixologik nuqtayi zaridan zararli bo‘lib, bu yaxlit jamoadagi ma’naviy muhitga jiddiy salbiy ta’sir kursatadi. Ba’zan bir jamoa rahbariyati va rasmiy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o‘rtasida ham nizo kelib chidadi. Lekin bu holatlarni sog‘lom raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobatdan farqlash lozim.

Shaxslararo nizo – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o‘zaro yoki bog‘liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog‘liq holda yo‘llari ham turlicha bo‘lib, har qanday ko‘rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o‘rtasidagi psixologik masofani tobora

Shaxslararo nizolarning kelib chiqishi quyidagi holatlarga bog‘liq bo‘ladi:

–

– jamoa a’zolarining shaxsiy xususiyatlariga;

– turli vaziyatlarga shaxsning subyektiv munosabatiga;

– shaxslararo munosabatlarning turli vaziyatlardagi turlicha namoyon bo‘lishiga.

Shaxslararo nizo ochiq yoki yashirin tarzda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ochiqdan ochiq yuz beradigan nizolar odatda tortishib qolgan shaxslarning to‘g‘ridan–to‘g‘ri, bevosita xatti–harakatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Bunday nizoni ko‘zatish, qayd etish va unga kerak bo‘lsa, aralashish ham mumkin bo‘ladi. Yashirin nizo esa ochiq namoyon bo‘lmaydi, balki u turli xufyona usullar bilan amalga oshiriladi.

Ba’zan nizolar obyektiv sabablar, shart–sharoitlar bois vujudga keladi. shlab chiqarishda bo‘lsa – ish sharoitlarining yomonligi, xizmat vazifalarining noo‘rin taqsimlanganligi, kadrlar salohiyatiga bee’tiborlilik, mehnatni rag‘batlantirishdagi adolatsizlik kabilar odamlar o‘rtasida muayyan tangliklarni keltirib chiqaradiki, bu shaxslararo o‘zaro munosabatlarda o‘z aksini topib, ularning o‘zaro va xodimlarning Bu kabi nizolarni bartaraf etish uchun uni keltirib chiqqan obyektiv shart–roitlarni o‘zgartirish yoki kamchiliklarni yo‘qotish orqali amalga Chunki jamoadagi bunday nizolar o‘ziga xos signal funksiyasini bajaradiki, u orqali rahbarlar mehnat jamoasida noma’qul psixologik muhit paydo bo‘layotganligidan xabardor bo‘ladilar.

Subyektiv sabablar yoki omillar tufayli kelib chiqarkan nizolarga aksariyat holatlarda odamlarning o‘zlari, ularning shaxsiy xususiyatlari,

Bundan tashqari, nizolar quyidagicha toifalanadi:

– gorizontal – bir–biriga bo‘ysunmaydigan, tobe bo‘lmagan oddiy xodimlar o‘rtasida;

– vertikal – o‘zaro bir–biridan amal pog‘onasi bo‘yicha farq qiluvchilar, rahbar bilan xodim o‘rtasida;

– aralash – shaxslararo munosabatlarda u va bu holat uyg‘un kelganda. faoliyatida eng ko‘p tarqalgan nizo turi vertikal va aralash bo‘lib, ular jami nizolarning 70–80 foizini tashkil etadi.

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo‘lgan bo‘lsa, bartaraf etish Mutaxassislar nizolarni bartaraf etishning ko‘plab usullari va yo‘llari ko‘ra, nizoli vaziyatni aniqlash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

agar ishlab chiqarishdagi nizo ish hajmining to‘la bajarilmaganligi sababli kelib chiqqan bo‘lsa, avvalo ish taqsimoti diagrammasini to‘zish kerak;

3) nizoning haqiqiy ishtirokchilarini aniqlash – alohida shaxsni,

4) nizoga sabab bo‘lgan shaxsiy xohish, istaklar, nizokashlarning

5) nizoga qadar nizokashlarning o‘zaro munosabatlari qanday bo‘lganligini bilish;

lekin uning ijobiy hal etilishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning nizoga munosabatini o‘rganish.

o‘nta yana ko‘plab shaxslarning aralashib ketmasligini ta’minlaydi.

da paydo bo‘ladigan nizolarni bartaraf etish masalasi qiziqtiradi. Rus olim usullarni taklif etadi – tizimiy hamda shaxslararo.

Nizolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lgan tizimiy usullarga u quyidagilarni kiritadi:

1) ishga nisbatan qo‘llaniladigan talablarni tushuntirish, masalan, ishchi yoki xodim o‘z xizmat vazifasini to‘laqonli ado etolmaganligi sababli

u bilan rahbar o‘rtasida nizo kelib chiqqan bo‘lsa, nizoni barataraf etishga ahd qilgan shaxs shu xizmat lavozimiga qo‘yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan qatorda uning burch va mas’uliyatini ham yana bir marotaba uqtirib qo‘yadi;

boshqa tuzilmalarning aniq va yaxshi ishlashiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo‘lishiga boshqa bir tuzilma ishidagi nomuvofiqliklar sabab bo‘lishi boshqa aybdor to‘zilmaning faoliyatini aniq yo‘lga qo‘yishi, yoki xodimlar o‘rtasida murosa bo‘lishi uchun boshqa bir qo‘shimcha muvofiqlashtiruvchi bir bo‘g‘inni ishlab chiqarishda joriy etishi mumkin. yetkazib berilmayotganligi bo‘lsa, rahbar ta’minotchilar ishini birlik va hamjihatlik bo‘lishiga erishish yo‘lida aniq yo‘nalishlarni

liderlarining roli katta bo‘ladi;

4) rag‘batlantirish tizimini joriy etish samarali ish usullaridan Bunday sharoitda odamlarning xulq–atvoriga ta’sir etish, paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarga barham berish yoki sodir bo‘lgan o‘lsa, uni bartaraf etish uchun tashakkur bildirish, mukofotlash, xizmat lavozimini ko‘tarish kabilarni qo‘llash ijobiy samara berishi mumkin.

sh – nizoga nisbatan shunday reaksiyaki, bunda nizoga guvoh bo‘lganlar imkoniyat yo‘qligini, nizoning sababi arzimas holat ekanligini vaj qilib, paydo bo‘lgan nizo vaqt o‘tishi bilan o‘z-o‘zidan yechimini topadi,

2) tekislash – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud holatga “ko‘ndirish”, moslashtirish va shu yo‘l bilan o‘zining ham muayyan “Mayli men yutqazsam ham, sening ishing bitib keta qolsin” degan naqlda go‘yoki “o‘zni qurbon qilib” bo‘lsa ham tomonlarning yarashib ketishi

3) kompromiss – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq–atvori va fikrlarini muhokama qilish yo‘li bilan ikkala tomon uchun

ham ma’qul bo‘lgan yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni ochiq, xolis o‘rtaga tashlaydi va eng ma’quli – har bir shaxs o‘z burch va mas’uliyatlarini taroziga solib olishlari ma’noda yumshaydi va oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyati tug‘iladi. Nizokashlar janjal bo‘lgandan ko‘ra yomon bo‘lsa ham bir qarorga kelinganligidan xursand bo‘lib, o‘z fikrlaridan ma’lum ma’noda tutgan oilaning katta a’zosi yoki erkak kishi nizoning oldini olishga

4) raqobat – odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi “Men yutishim uchun sen mutloq yengilishing shart” degan tamoyil ustuvor bo‘ladi. Bunday usul albatta, psixologik nuqtayi nazardan samarasiz va noto‘g‘ri bo‘lsa ham, ayrim holatlarda masalaning aynan shu sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, oilaviy mojaroda kelin agar nohaq bo‘lib, harakati boshqa qaytarmasligi uchun saboq bo‘lishi mumkin;

5) hamkorlik – bu nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala ltirib chiqargan muammodan ustun qo‘yiladi. Bunday holatlarda ikkinchi tomonning boshqa manfaatini yerga urishini tushungani uchun ham murosa yo‘li to‘g‘ri ekanligi, yaxshisi mavjud muammoni yechishga teng kirishish lozimligi fikriga kelib to‘xtaydilar.

u
n
i
n
g
q
a
n
d
a
y
k
e
c
h
i

balki hissiyotlar ustun bo‘lishini unutmang, hissiyotlar esa odamning gapirayotgan so‘zlarini nazorat qilish qobiliyatidan mahrum bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan shu qilgan ishingiz uchun o‘zingiz qattiq aziyat chekib, hijolat bo‘lib qolishingiz mumkin. Shu bois ham ishdami, oiladagi yoki mulohazalardan o‘zingizni saqlang, o‘zingizni o‘zgalardan ustun qo‘yishdan ehtiyot bo‘ling, kamtarlik shioringiz bo‘lsin.

O‘zgalar bilan muomalada ularning hurmatini joyiga qo‘yib,

so‘zlashishning yumshoq maromini tanlang. Masalan, “Kechirasiz. . ”, “Sizdan minnatdor bo‘lardim, agar. . . ”, “Sizga malol kelmaydimi?” kabi iboralarni ishlatish odatiga Sizga nima sababdandir yomon munosabatda bo‘layotgan insonni ham yumshatadi, undagi salbiy hislarning junbushga kelishiga yo‘l quymaydi.

Ish faoliyat bilan bog‘liq munozaralarda agar suhbat taranglashib borayotgan bo‘lsa, ikkala tomonning manfaati to‘g‘risida emas, asl xolis faktlarga ko‘proq urg‘u bering. Imkon boricha suhbatdoshni

Harqachon Nizoli vaziyatning hal bo‘lishining o‘zingiz uchun manfaatli tomonlarini anglang va o‘zingizga shunday savol bering: “Agar yechim topilmasa, nima bo‘ladi?”. Bunday munosabat nizoni shaxslararo munosabatlardan muammoning yechimiga ko‘chirilishiga turtki bo‘ladi.

Agar suhbatdosh ikkalangiz ham achchiqlanib turgan bo‘lsangiz va ish achchig‘ingizni tashqariga chiqarsangiz, bu u tomonning ham qaynab ketishiga sabab bo‘lib, vaziyatni nazorat qilib bo‘lmay qoladi. Eng ichidagi to‘kib solaversin, undagi jahl va salbiy hissiyotlarni betiga

Jyanjal er va xotin urushib qolgan paytda ayol qanchalik baland ovozda o‘z dardini to‘kib solayotganligiga qaramay, uning farzandlarning onasi, yuragidagini oxirigacha to‘kib solishini bardosh bilan kuta olsa, turmush o‘rtog‘i birozdan so‘ng insofga keladi, “ko‘ngli yumshaydi”.

Nuqsonni o‘rningizga turib, masalani hal qilish yo‘lini uylashga chorlang, masalan, unga taxminan shunday murojaat diling: “Meni o‘rnimda bo‘lganingizda bo‘ladi va unda tanqidiy ruhni biroz bo‘lsa–da, yumshatadi.

Insonni xaspo‘shlamang. Sodir bo‘lgan nizoli vaziyat va voqeaning sababchisi

Paydo bo‘lgan ziddiyat qanday hal bo‘lishidan qat’i nazar, shu inson bilan hatamom munosabatlarni uzil–kesil uzib tashlamang. Masalan, agar bu er va xotin o‘rtasidagi ixtilof bo‘lib, u ajrim bilan tugagan taqdirda ham o‘rtada farzand borligini, baribir hayot so‘qmoqlarida bir kun bo‘lmasa

yechish

qandaydir yangi bir muammoni birgalikda hal qilishga to‘g‘ri kelishini

i unutmaslik insonning o‘ziga, salomatligiga, odamlar orasidagi obro‘siga yanada yaxshi bo‘lishini hech kim unutmasligi kerak.

Yildan yilga oiladagi ajrimlar soni o‘smoqda, yoshlar orasida giyohvandlik kuchaymoqda, noto‘liq oilalar, otasiz o‘sayotgan farzandlar soni ortib bormoqda, o‘z joniga qasd qilish holatlari pasaymayapti. Ayollar va bolalar orasidagi suitsid holatlari koeffitsiyenti BSSTning dunyo bo‘yicha barcha ma’lumotlariga nisbatan O‘zbekistonda yuqoriligi bilan xarakterlanmoqda, ammo bunga qarshi yetarli ish olib borilmayapti.

Rahbar qaysi tizim, vazirlikda ishlashidan qat’i nazar odamlar bilan ishlaydi. Ayniqsa, hokimlar bevosita xalq bilan ishlaydi. Xalq bilan ishlash, hudud xususiyatini hisobga olish, xalqning hayotini, ertangi kunini bugungidan yaxshiroq qilish undan katta aql–idrok, odamiylik, rahbarlik hislatlari (mas’uliyat, talabchanlik, boshqaruv va boshqalar) bilan birga muloqot madaniyatini ham talab etadi. Hudud xalqi, aholi “buyurildi – bajarildi” tamoyili asosida ishlaydigan harbiylar emaslar. Hudud hokimi har bir shaxsning qilgan faoliyatiga faqat salbiy ko‘z bilan qarab, yaxshi namunali ishlayotgan shaxsda jinoyatchini qidiradigan rahbar emas, aksincha hokim sifatida Prezident siyosatini izchillik bilan bajaradigan, ya’ni ta’limga imkon doirasida yordam beradigan, hudud xalqi manfaati bilan ish ko‘radigan rahbar bo‘lishi lozim. O‘zbekiston mustaqilligining birinchi yarmida ko‘pgina kuch ishlatar tizim vaqillari turli hududlarga hokim lavozimiga tayinlandilar. Buni tarixiy davrning o‘zi taqozo etdi. Bugungi kunda ham ushbu amaliyotdan samarali foydalanish mumkin. Hokim kasbi kasbi kim bo‘lishidan qat’i nazar odamlar bilan ishlashni biladigan, avtoritar uslubni suiiste’mol qilmaydigan, dunyoqarashi keng bo‘lgan, hududdagi turli tizim, korxona, muassasa rahbarlarining faoliyatiga obyektiv baho beraoladigan, shaxsiy manfaat bilan ish ko‘rmaydigan, Prezidentning siyosati mohiyatiga tushunib yetadigan va uni amaliyotda izchillik bilan tatbiq etadigan, insoniy sifatlari va muloqot madaniyati yetarli darajada tarkib topgan bo‘lishi shart. Aks holda u munosib jamoasini ham to‘za olmaydi va rahbarlik faoliyati hududda uzoq davom etmaydi. Eng achinarlisi, bitta nomunosib rahbar tufayli hudud axolisi vaqtdan yutqazadi. Respublika rahbariyati va siyosatiga ishonchi kamayib, hududdagi muammolar esa ortib boradi. Hudud qisqa muddatda katta yo‘qotishlarni boshidan kechiradi. Hisobotlar yaxshi bo‘lsa–da, hayot sifati qoniqarsiz bo‘ladi, bu esa asosiy ko‘rsatkich va mezondir.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi yirik guruhga bo‘lish mumkin.

Tarkibiy – tashkiliy usullarga quyidagilar kiradi.

Ishga bo‘lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunksional usulga mutlaqo zid bo‘lib, bunda har bir xodim va bo‘limlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi.

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli. Bu usul og‘zaki buyruq (amr) zanjiri deb yuritiladi.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish usullari:

Tarkibiy – tashkiliy usullar:

- Ishga bo‘lgan talabni tushuntirish

Strategik usullar:

Boshqarishning vakolatlar iyerarxiyasini, ya’ni mansablarga ko‘ra darajama–daraja bevosita itoat etish, bo‘ysunish tartibini o‘rnatish kishilarning o‘zaro harakatlarini, korxona ichidagi axborotlar oqimini, qarorlar qabul qilishni tartibga tushiradi, muvofiqlashtiradi.

Umumtashkiliy (kompleks) maqsadlar. Bu usulning mohiyati – barcha qatnashchilarning harakatini, butun kuchini bosh maqsadning amalga oshishiga safarbar qilish.

Muvofiqlashtirishning tarkibiy tizimi. Disfunksional oqibatlardan holi bo‘lish hamda kishilarning xatti–harakatlariga ijobiy ta’sir o‘tkazish tufayli, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish va ularni boshqarish uchun mukofotlash tizimi kech qo‘llaniladi.

Nizoli vaziyatlarni oldini olish yoki ziddiyatini yumshatishning beshta strategik usuli ma’lum.

Uzoqlashish. Komil inson janjaldan uzoqlashishga harakat qiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqqanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechilkishiga manfaatdor bo‘lmagan va o‘zaro munosabatlarning zoxiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tomonidan qo‘llaniladi.

Silliqlashish. Bu usul kishilarning yaxshilikka undash yo‘li bilan nizoni bartaraf qilishga qaratilgan. Ziddiyatli vaziyatda qarama–qarshi tomonlar bir – biri bilan xushmuomalali bo‘lishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman, bir vaqtning o‘zida birga so‘zayotgan qayiqni “qaltis tebratish” yaramasligiga chaqirishadi.

Majburlash. Bu tomonlardan birining xohish-irodasini, so‘zini majburan, zo‘rlab qabul qilishdir. Bunday strategiyani qo‘llaydigan tomon tajovvo‘zkorlik bilan o‘z xohishini qarshi tomonga majburlab o‘tkazadi.

Kelishuv. Nizoli holatdan muvofaqqiyatli chiqishning eng muhim sharti – bu murosaga kela olishdir. Kelishuv bilan nizolarni hal etish, bu yuqori baholanuvchi strategik usul bo‘lib, bunda ikkala tomonni qanoatlantiruvchi yechimga kelinadi.

Muammoni hal qilish. Bu usul barcha tomonlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilishva barchani fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu usul tarafdorlari o‘zlarini maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xohlaydilar.

Xo‘sh, jamiyatdagi nizolar sonini, eng muhimi, ular asoratlarining oldini olish yo‘lida psixologiya fanidanqanday foydalanishimiz mumkin?

Ushbu savolga javob sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Vositalar: ilmiy–ommabop adabiyotlarni, hujjatli filmlarni tayyorlash, mahallalarda psixologlar bilan savol–javob kechalari o‘tkazish, aholi uchun psixologik bilimlarni targ‘ib qiluvchi materiallar tayyorlab mahallalarni ta’minlash zarur.

sixolog kadrlarni sifatli tayyorlashga e’tiborni kuchaytirish kerak.

ugungi kundagi maktab psixologlarini kasbiy xatlovdan o‘tkazib,

liy ma’lumotli mutaxassislarning kelajak mehnat faoliyatida deyarli 90% dan ortig‘i kichik, o‘rta, katta rahbarlik lavozimlarida ishlashlarini, rahbar esa kasbi qanday bo‘lishidan qat’i nazar odamlar bilan ishlashi muqarrarligidan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchi kurslarining barchasida 20 soat hajmda “Muloqot psixologiyasi” kursini

–6 oylik psixologlarni qayta tayyorlash kurslarini faoliyatini to‘xtatish

axiradagi rahbar kadrlar uchun bir oylik “Boshqaruv psixologiyasi” olimlardan tashqari katta rahbarlik lavozimlarida samarali ishlab obro‘

Masalan, D. T. Toshmuhamedova (ikki muddat senatni boshqargan), Sh. A. Ayupov (Prezident Devoni, OAK) M. Xodjimatov (Prezident Devoni, ma’naviyat markazi, Madaniyat va sport vazirligi, Yozuvchilar Uyushmasi), X. Sultonov (Prezident Devoni, Administratsiya), Q. Allayev(Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi) singari xalq va mamlakat

rivoji uchun mehnati singgan, hurmatli insonlar tajribalaridan foydalanish zarur, deb hisoblaymiz.

ahbarlarni tanlash va tayinlashda uchraydigan xatolarning ijtimoiy–tanlashda xatoni minimumga keltirish maqsadida ular shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablarni maxsus ishlab chiqish va menejment

h
d
a
v
a
m
a
h

Lavozim qancha yuqori bo‘lsa, ushbu mezonlar talabiga javob berishi ham shunchalik muhimdir. Chunki rahbar oila, jamoa, tizim, vazirlik, hukumat, davlat doirasida doimo tarixanbarchaga namuna bo‘lib kelgan va namuna bo‘lib qoladi. Namuna esa har tomonlama munosib va idealga yaqin bo‘lishi shart.

Yuqoridagi vazifalarni bajarishda psixologiya fanining imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Б. Шоумаров 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби (Услубий қўлланма) Тошкент, 2021. -276 б

обсон Дж. Ч. Родителям и молодёженам: доктор Добсон отвечает на Ваши вопросы. – М. : Центр общече-ловеческих цен-ностей, 1991. - 575 с.

Б. ШоумаровОила психологияси. Академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма –Т. :Ўзбекистон, 2004.

из А. , Пиз Б. Язык взаимоотношений мужчина↔женщина. – М. : Эксмо, 2012. - 400 с.

оумаров Ғ. Б. , Расулова З. А. Оила энциклопедияси.

6. Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

7. Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, *9*(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

8. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

9. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

10. Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

11. M Raimdjanov. (2021). COOPERATION BETWEEN SCHOOL, FAMILY AND COMMUNITY ON VOCATIONAL TRAINING OF STUDENTS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PROBLEM Conferencious Online, 28-30 https://cyberleninka. ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer.

TALABALAR JAMOASIDA NIZOLI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK TASNIFI

Rahmonova Zarifa Nematovna

Tog'ayeva Sohiba Safar qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy psixologik adabiyotlarda nizoli xulq-atvor muammosining nazariy va amaliy muammolari turli nazariy yondashuvlarga asoslangan holdamuhokama qilingan. Shuningdek, talabalarda nizoli xulq-atvorga doir klassik va zamonaviy yondashuvlarning konseptual va differsial tahlillari amalga oshirilgan. Maqolada zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida talabalar jamoasi o'quv faoliyatini diagnostika qilish mexanizmlari va hamkorlikka asoslangan o'zaro munosabatlar tizimini yanada takomillashtirish, kommunikativ ko'nikmalari va shaxslararo munosbatlarga bo'lgan kompetentligini rivojlantirish, ularda jamoaviy faoliyatga qadriyatli munosabat tarkib topganligini tadqiq etish jihatlarini, yanada takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilganligi etirof etilgan. Shuningdek maqolada zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida, talabalar jamoasida nizoli xulq namoyon bo'lishini oldini olishning psixokorreksion asoslarini takomillashtirishning psixologik imkoniyatlarini yanada kengaytirilganligi bayon qilingan. Maqolada talabalarda nizoli xulq namoyon bo'lishining psixologik, pedagogik shart-sharoitlarini, nizoli xulq va shaxs xarakterologik xususiyatlarining o'zaro aloqadorligi, guruhiy sharoitda nizoli xulq-atvorga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar, nizoli xulq-atvorni bartaraf etishning psixoterapevtik profilaktikasi kabi masalalarni keng miqyosda tadqiq etilganligi yoritilgan. Maqola tarkibida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy-nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilganligi“ yoritilgan.

Kalit so’zlar: Talabalar xulqi, destruktiv xulq-atvor, agressiya, shaxslararo nizolar, shaxslararo munosabatlar, fenomen, individuallik.

PSYCHOLOGICAL CLASSIFICATION OF CONFLICT BEHAVIOR IN A GROUP OF STUDENTS

RAHMONOVA ZARIFA NEMATOVNA

Togayeva Sahiba Safar's daughter

ANNOTATION

This article discusses the theoretical and practical problems of conflict behavior in modern psychological literature based on various theoretical approaches. Also, conceptual and differential analyzes of classical and modern approaches to conflict behavior among students were carried out. In the article, on the basis of modern innovative approaches, the mechanisms of diagnosing the educational activity of the student team and the further improvement of the system of mutual relations based on cooperation, the development of communicative skills and competence in interpersonal relations, the aspects of researching whether they have a valuable attitude to collective activity, and moreit is recognized that the legal and regulatory basis of improvement has been created. The article also states that, based on modern psychological approaches, the psychological possibilities of improving the psychocorrective foundations of preventing conflict behavior in the student body have been further expanded. The article describes the psychological and pedagogical conditions for the manifestation of conflict behavior in students, the interrelationship of conflict behavior and personality traits, social and psychological factors that cause conflict behavior in a group setting, and psychotherapeutic prevention of conflict behavior. It is highlighted that the issues have been researched on a large scale. In the article, in the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan, "in the process of educating physically healthy, spiritually and mentally developed, independent-thinking, loyal to the Motherland, with a firm outlook on life, in the process of deepening democratic reforms and developing civil society, their priority tasks such as increasing social activity have been defined.

Key words. Student behavior, destructive behavior, aggression, interpersonal conflicts, interpersonal relations, phenomenon, individuality.

KIRISH

Ma'lumki, hozirgi kunda har bir shaxs o'z atrofidagi odamlarning qarashlari, e'tiqodlari va manfaatlaridagi farqlarga duch kelishi tabiiy. Ya'ni boshqalar bilan o'zaro munosabatlardan kelib chiqadigan bunday kelishmovchiliklar, oxir-oqibatnizolarga olib kelishi mumkin. Talabalar hayotining ajralmas qismi bu – turli qarama-qarshilik va to'qnashuvlardan iborat bo'lgan shaxslararo nizolardir. Shaxslararo nizolar - keskin shaklda ifodalanadigan ko'p qirrali maqsadlar, manfaatlar, istaklar, fikrlar hamda qarashlar majmuidan iboratdir. Namoyon bo'lish xususiyatiga qarab, samarali (konstruktiv) va buzg'unchi (distruktiv) nizolar ajaratiladi.

METODOLOGIYA

Qoidaga ko'ra, "nizo" so'zi ko'pchilik tomonidan salbiy qabul qilinadi. Biroq, nizo zaruriy xususiyatga ega, chunki uning ijobiy yechimini izlash hamda paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish keng ma'noda, insonlar o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq intellektual harakatlarni o'z ichiga oladi. T. F. Bazilevichning aytishicha, talabalar guruhi yoshlardan iborat bo'lganligi sababli, ularga xos nizoli xulqni o'rganishdaavvalambor, yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak[72]. Chunki, bu davrda inson nizolarga moyil bo'ladi. Shuning uchun, talabalar shaxsida nizoli xulq namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda, birinchi navbatda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlari, aqliy kamolot imkoniyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. B. G. Ananev o'zining "Inson psixologiyasi" nomli asarida yozishicha, talabalik davri shunday bir davrki, unda insonning kamolotdan-kamolotga o'tish davri yuz beradi Ya'ni katta insonlarning psixologik va psixofiziologik vazifalari o'zlashtiriladi"[73]. Ya'ni nizolarga va turli vaziyatlarga munosabat bildirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalik davri – kech o'spirinlikdavri ham bo'lib, u insonning jamiyat hayotiga qadam qo'yishning dastlabki pilla poyasi hamhisoblanadi. Boshqa bir psixolog I. A. Zimnyayaning so'zlariga ko'ra, talabalik davri -shaxs shakllanishining o'ziga xos bosqichi hisoblanib, u turli xil qiziqishlar namoyon bo'lishining markaziy davriga

[72]Базылевич Т. Ф. Психология высших достижений личности. : Монография Т. Ф. Базылевич. - М. : Инфра-М, 2018. – С. 104.
[73]Ананьев Б. Г. Психология человека. Избранное. СПб. , 1997. – С. 41.

to‘g‘ri keladi[74]. Shuningdek, muallif talabalar jamoasini “maxsus ijtimoiy toifa, oliy o‘quv yurti tomonidan tashkil etilgan o‘ziga xos insonlar jamoasi” deb hisoblaydi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayoni talabalar shaxsining kognitiv, motivatsion, intellektual, kommunikativ, ijtimoiy xulq-atvoriga keng ta’sir etib, ularda o‘ziga xos kombinatsion o‘zgarishlar olib keladi.

A. K. Bolotovaning ta’rificha, talabalik - bu insonning intensiv ijtimoiylashuv davri bo‘lib, u yuqori aqliy vazifalarning rivojlanishi va butun intellektual tizimning shakllanishi uchun eng maqbul davrdir. Biroq, talabalar jamoasining faqat biologik yoshini hisobga olgan holda tahlil etsak, u holda, uni shaxsning bolalikdan balog‘atga o‘tish davri sifatida tahlil qilish to‘g‘riroqdir[75]. Talabalar jamoasining shakllanishi va har bir talaba hayotidagi eng qiyin bosqichlardan biridir. Bu bosqichda, talabalar hayotining o‘ziga xos jihatlarini, bir-birlari bilan qanday munosabatda bo‘lishni va turli muammolarni hal qilishda, yetarlicha tajribaga ega bo‘lishmaydi. Oliy ta’lim tizimiga kirishib ketishning o‘zi murakkab jarayondir. P. A. Kislyakovning ta’kidlashiicha, o‘zgargan turmush sharoitlariga moslashish, ko‘p jihatdan talabaning shaxsiy fazilatlariga bog‘liq. Ko‘pincha, nizoli vaziyatlar axloqiy munosabatlar, me’yorlar, qadriyatlar, xatti-harakatlardagi farqlar tufayli yuzaga keladi[76].

Nizoli xulq mazmunidan kelib chiqib, talabalar guruhiga xos harakterologik xususiyatlarni ajratib olish eng muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotchi L. V. Міщenkoning fikricha, talabalar jamoasi[77]: o‘zaro shaxsiy dushmanlik, hasad, raqobat, o‘qish va ilmiy ishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqqiyatsizlik, e’tibor uchun raqobat kabi harakterologik xususiyatlarga ega bo‘ladi[78]. Bundan tashqari, talabalar muhitida yoshlarning o‘zaro munosabati va qadriyatlariga ta’sir etuvchi millatlararo munosabatlar ham o‘ta qizg‘in kechadi. Boshqa jihatdan esa, oliy ta’lim muassasasi talabalarga, turli mamlakatlardan kelgan shaxslar bilan samarali muloqot qilish va tajribasiga ega bo‘lish imkonini beradi. L. F. Chekinaning olib borgan tadqiqotlari ham o‘ziga xos bo‘lib, unda talabalar guruhiga xos ko‘plab ijobiy sifatlar haqida so‘z boradi.

[74]Зимняя И. А. Педагогическая психология . - Ростов-на-Дону:Феникс, вт. изд. 2008. – С. 169.
[75]Болотова А. К. Психология развития и возрастная психология. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения А. К. Болотова. - СПб. : Питер, 2018. – С. 234.
[76]Кисляков П. А. Психология развития человека как субъекта деятельности / П. А. Кисляков, Е. А. Шмелева, Е. А. Петрова. - М. : Русайнс, 2018. – С. 46.
[77]Мищенко Л. В. Интегративная психология пологендерного развития индивидуальности человека (том 1. период поздней юности) / Л. В. Мищенко. - М. : КноРус, 2018. – С. 42.
[78]Чекина Л. Ф. Психология развития: Учебное пособие / Л. Ф. Чекина. - СПб. : Лань, 2018. – С. 42.

Muallifning aytishicha, talabalar jamoasida boshqalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish uchun, professor-o‘qituvchilar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning hayotiy pozitsiyalarini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi. Tadqiqotchi L. Kozerning so‘zlariga ko‘ra, talabalarning individual xususiyatlari guruhning psixologik iqlimini shakllantirish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Talabalik davrining dastlabki bosqichida o‘z-o‘zini hurmat qilish hissi, maksimalizm, universitetda o‘qishdan yuqori umidlar, shuningdek, bu davr qat’iy axloqiylik jihati bilan alohida ajralib turadi[79].

Ta’kidlash joizki, guruhiy faoliyatda ba’zi talabalar yetakchilik lavozimlarini egallaydilar, boshqalari esa, guruhiy muhitda muloqot qilishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishadi. Qolganlar esa, bir necha kishidan iborat mikroguruhlarni tashkil etuvchi a’zolar bo‘lib, ular yetakchilarga ergashadi. M. B. Batyutaning yozishicha, har bir guruh nisbatan izolyatsiya qilingan va o‘ziga xos munosabatlar uslubiga egadir. Nizoli vaziyatlarga katta kurs talabalari kamroq duch kelishadi, chunki mikroguruhlar shaxslararo muvofiqliklar asosida shakllanadi[80].

Qulay ijtimoiy-psixologik iqlim o‘rganishga qiziqishning ortishiga, guruhiy munosabatlardan qoniqishga yordam beradi. L. I. Ryumshinaning fikricha, “psixologik iqlim” talabalar shaxsiga xos kognitiv faollikka, ularning mashg‘ulotlarga qatnashishiga hamda ularning o‘quv jarayoniga moslashishiga keng ta’sir qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, oliy ta’lim maskani kasbiy bilimlarni egallash uchun ko‘plab motivatsiyalarni paydo etadi[81]. Talabalik davri shaxs rivojlanishining maxsus davri bo‘lib, u hayotiy qadriyatlarni qayta baholash bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, o‘zaro muloqot jarayonida talabalar ko‘pincha, o‘z odatlari va munosabatlaridan voz kechishlari kerak. Tadqiqotchi V. N. Paferovning aytishicha, jamoa talablariga javob bera olmaslik, ayrim holatlarda nizoli vaziyatlarga olib keladi, ayniqsa, guruhda ikki yoki undan ortiq lider bo‘lsa, bu jarayon tez yuz beradi. Talabalar jamoasining shakllanishi sekin va ko‘pincha murakkab kechadi, shuning uchun, o‘qishning birinchi yilida ularga qulay psixologik muhitni yaratish kerak.

Nizolarni hal qilishda avvalambor, nizolashayotgan tomonlar o‘rtasidagi muloqot va jamoaviy jipslilikni shakllantirish yanada

[79]Козер Л. Функции социального конфликта//Социальный конфликт: современные исследования. М. , 2010. – С. 48.
[80]Батюта М. Б. , Князева Т. Н. Возрастная психология. Учебное пособие. — М. : Деком. 2018. – С. 53.
[81]Рюмшина Л. И. Ценностно-смысловой подход к общению (теоретико-методологическое обоснование) Текст. / Л. И. Рюмшина. Ростов н/Д: Изд-во Рост, ун-та, 2004. – С. 98.

rivojlantirish orqali amalga oshiriladi[82]. Demak, ta'lim jarayonidagi nizolar ob'ektiv harakterga ega bo'lib, u oddiy hodisa sifatida qaralishi kerak. Ya'ni zamonaviy ta'lim sharoitlari nizolar va qarama-qarshiliklarga asoslangan pedagogik texnologiyalardan tashkil topishi lozim. Ayrim ilmiy adabiyotlarda talabalar guruhiga xos nizoli xulq-atvor va uni malakali bartaraf etish, o'z nabatida ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. V. N. Myasishevning fikrigako'ra, nizolar inson xarakterini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Talabaning harakterologik xususiyatlari, ko'pincha jamoani shakllantirishga keng hissa qo'shadi[83].

Talabalar muhitida ko'pincha, turli xil nizolar paydo bo'ladi. Nizolar ta'lim muhiti ichida ham, uning tashqarisida ham sodir bo'lishi mumkin. Talabalar o'rtasidagi nizolar o'zining xilma-xilligi va ko'lami bilan ba'zida, tadqiqotchilarni hayratga soladi. Biroq, eng muhimi shuki, mazkur nizolarning aksariyati, ta'lim jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik harakterdagi omilardan iboratdir. M. V. Ermolaevaning xulosasiga ko'ra, nizolar talabalarning farovonligini, ularning o'quv faoliyatini yomonlashtiradi, talabalar guruhida keskin muhit yaratib, ularda o'qishga bo'lgan norozilik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu oxir-oqibat kasbni o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir qiladi[84]. Shu bois, talabalar muhitidagi nizolar juda dolzarb, biroq u hali-hanuz zamonaviy tadqiqotlarda yetarli darajada o'rganilmagan. Chunki, aksariyat tadqiqotlar o'smirlik davriga xos nizoli xulq va uning namoyon bo'lish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, talabalar guruhiga xos nizoli xatti - harakatlar juda kam tadqiq etilgan.

Adabiyotlar sharhi

G. I. Koirev talabalar guruhiga xos nizoli xulq-atvorsabablarini ikki turga ajratadi[85]:

– birinchi sabab – buo'zaro munosabatlarda bir-birlarini noto'g'ri tushunish holati. Bu vaziyat, biror harakatga oid ma'lumot yoki hodisa va boshqa a'zolar haqidagi turli xil g'oyalar bilan bog'liq;

– nizoning ikkinchi sababi esa, shaxslararo munosabatlardagi nomuvofiqliklar bo'lib, u o'zaro rad etishlar ijtimoiy munosabatlarning mos kelmasligi, sheriklarning munosabati, qadriyat yo'nalishidagi

[82]Панферов В. Н. Психология человека. Учебное пособие Текст. / В. Н. Панферов. СПб. : Издательство Михайлова В. А. , 2000. – С. 75.
[83]Мясищев В. Н. Психология отношений Текст. / Под ред. и вст. ст. А. А. Бодалева. – М. : Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2003. – С. 101.
[84]Ермолаева М. В. Основы возрастной психологии и акмеологии: Учебное пособие / Текст. М. В. Ермолаева. М. :Издательство «Ось-89», 2003. – С. 95.
[85]Козырев Г. И. Конфликтология: Учебник. – М. :ИНФРА-М, 2010. – С. 123.

farqlar, turli xil qiziqishlar, harakterologik sifatlar, temperament tiplari, har xil psixofizik reaksiyalar kabilar bilan tavsiflanadi. Demak, nizoli xulq-atvor ko‘plab ijtimoiy-psixologik sabab va oqibatlar, xulq-atvor reaksiyalari va harakterologik o‘ziga xosliklarga ham bog‘liq bo‘ladi. Mazkur ma’lumotlarning to‘rtdan bir qismi, boshqa mutaxassislardan farqli o‘laroq, ko‘proq psixologlar tomonidan tasdiqlangan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, talabalar guruhiga xos nizoli xulqning mohiyatini aniqlashda, guruhga xos bo‘lgan fenomenologik xususiyatlarni aniqlab olish, maqsadga muvofiq. Talabalar guruhi kichik guruhlar bo‘lib, uning soni 10-15 kishini tashkil etadi. Bu borada Amerikalik ijtimoiy psixolog R. F. Beylzning izlanishlari o‘ta ahamiyatga egabo‘lgan masaladir. Muallifning fikricha, “kichik guruh”larbir yoki bir nechta uchrashuvlarda, bir-biri bilan muloqot qiladigan insonlar majmui bo‘lib, ular tez-tez bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘luvchi kishilar yig‘indisi ham hisoblanadi[86]. Ya’ni ushbu guruhlarda muntazam uchrashuv va vaqtincha birgalikda faoliyat yuritish imkoniyati mavjud. Umuman olganda, talabalar guruhini yaxlit ijtimoiy tizimdan ajratilgan va oliy o‘quv yurtida ta’lim olish asosida belgilanadigan odamlar jamoasi deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, talabalar guruhi – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy aloqada va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan insonlarning katta jamoasi emas, balki uning sonicheklanganligi bilan e’tiborga molikdir. Talabalar guruhida, shaxsning nizoli xulq-atvori namoyon bo‘lishi tabiiydir. Sotsiologlar L. G. Pochebut va V. A. Chikerning so‘zlariga ko‘ra, “nizoli xulq bu – barcha kuchlar va his-tuyg‘ularga asoslangan insonning kurashish ko‘nikmasidir. Shuningdek, u insondagi eng yomon narsani aniqlay oladigan kishilarga xos maxsus fazilat ham hisoblanadi[87]. Zamonaviy psixologiyada nizoli xulqning quyidagi tipologik turlari:

– qaror qabul qilish xususiyatiga ko‘ra:

– konstruktiv;

– halokatli;

– tarkib bo‘yicha:

– ob’ektiv[88];

– ob’ektiv bo‘lmagan;

[86]Бейлз Р. Ф. , Шилз Э. А. Рабочие тетради по теории действия (фрагменты) // Вопросы социальной теории. - 2008. Том II. Вып. 1(2). – С. 248 – 249.

[87]Почебут Л. Г. , Чикер В. А. Организационная социальная психология. Учебник. – М. : Проспект. 2020. – С. 96.

[88]Атоян А. Д. ВПС: Конфликтология. КЛ / А. Д. Атоян. - М. : Приор, 2007. – С. 25.

– ishtirokchilar tarkibiga koʻra:

– shaxsiy[89];

– shaxslararo munosabat[90];

– shaxs va guruh oʻrtasida;

– guruhlararo va hokazo.

Yuqoridagi nizoli xulqning barchasi oliy oʻquv yurti talabalari faoliyatidakoʻp uchraydi. Mohiyatan, konstruktiv (funksional) nizolar – insonda ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berib, u talabalar guruhidagi munosabatlarning rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi, disfunksional nizolar esa, samarali oʻzaro ta'sirlashuv jarayoniga toʻsqinlik qiladi va qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. F. I. Sharkovning aytishicha, talabalar guruhidagi shaxslararo nizolar oʻzini juda aniq namoyon etib, u psevdo-nizo (yolgʻon, uydirma) yoki ego-nizo shaklida hamda oddiy faoliyat toʻqnashuvi shaklida kechadi. Masalan, mashugʻolotlarnioʻzlashtirish boʻyicha va uni taqdim etishda ikki xil nuqtai-nazar paydo boʻladi[91]. Ya'ni nizo – sub'ektlarning oʻz fikrlarini himoya qilishi natijasida yuzaga keladi.

V. A. Goncharovning tadqiqotiga koʻra, talabalar guruhlarida quyidagi nizo turlari mavjudligi aniqlangan[92]:

– shaxs va guruh oʻrtasidagi nizolar. Bunday qarama-qarshilik a'zolarning har birida boʻladi. Va bunday talabalar guruhi oʻrnatilgan xulq-atvor yoki muloqot normalarini buzadi. Tom ma'noda aytganda, axloqiy madaniyati yuqori boʻlgan talabalar, axloqiy madaniyati pastroq boʻlgan talabalar oʻrtasida toʻqnashuv sodir boʻladi. Natijada, shaxs va guruhning ayrim a'zolari oʻrtasida nizo kelib chiqadi. Ushbu nizolar boshqacha shaklda, masalan, guruh oʻrtasida ham sodir boʻlishi mumkin.

– Guruhlararo ziddiyat – bu ta'lim muassasasida mavjud boʻlgan kichik guruhlar oʻrtasidagi nizolar. Ya'ni talabalar guruhi va talabalar kasaba uyushmasi, dekanat, kafedra yoki boshqa talabalar oʻrtasidagi nizolar. Qoidaga muvofiq, nizolarning sub'ektiv sabablaridan tashqari,

[89]Зеленков М. Ю. Конфликтология: Учебник / М. Ю. Зеленков. - М. : Дашков и К, 2013. – С. 47.

[90]Волков Б. С. Конфликтология: Учебное пособие для вузов / Б. С. Волков. - М. : Академический проект, 2010. – С. 76.

[91]Шарков Ф. И. Общая конфликтология: Учебник для бакалавров / Ф. И. Шарков, В. И. Сперанский. - М. : Дашков и К, 2016. – С. 39.

[92]Гончаров В. А. Динамика межличностных взаимоотношений в искусственно реорганизованной малой группе // Психология XXI века: Тезисы Международной межвузовской научно-практической конференции студентов и аспирантов. – СПб. , 2017. – С. 72.

talabalarning moddiy va ma'naviy manfaatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan sabablar ham ajratiladi. Sotsiologiyada S. V. Nazarenko mazkur turdagi nizolarning sabablarini quyidagilar bilan tushuntiradi[93]:

– talabalarning qarama-qarshi qadriyatlar yo'nalishlari;

– qarama-qarshi mafkura va e'tiqodlarning to'qnashuvi;

– guruhdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik;

– ijtimoiy-psixologik mos kelmaslik;

– talabalar guruhidagi o'zaro munosabatlardagi dominantlik.

NATIJALAR

Yuqoridagi tasniflardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, talabalar guruhiga xos nizoli xulq sabablariga diniy qarashlardagi tafovutlar va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va boshqa omillar sabab bo'ladi. Shuning uchun, talabalarga nizoli vaziyatdan chiqishning adekvat yo'llarini o'z vaqtida o'rgatish kerak. L. Rossning so'zlariga ko'ra, nizoli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi taktik harakatlarga quyidagilarni kiritish mumkin[94]:

– qat'iylik (majburlash) – ushbu strategiya ko'proq, bitta talaba bo'lgan vaziyatda qo'llaniladi. Ya'ni inson o'z nuqtai-nazarini boshqa kishiga o'tkazishga harakat qiladi. Mazkur strategiya guruh a'zolari o'rtasida munosabatlarning yomonlashishiga olib keladi[95];

– tashlab ketish (qochish) – talaba nizodan uzoqlashishga intilganda, qo'llaniladi. Agarda, kelishmovchilik mavzusi katta bo'lmasa, bu xatti-harakat xavfli bo'lmasligi mumkin;

–yashirin tarzda qarshilik ko'rsatish, bunday strategiya tomonlarning kuchi teng bo'lmaganda yoki aqliy ustunlik, jismoniy yetuklik holatlarida ro'y beradi. Demak, talabalik davri o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, kognitiv, shaxsiy va kasbiy qiziqishlarni shakllantirish, kasbiy o'zini o'zi belgilash, hayot rejalarini tuzish qobiliyati, mustaqillikni rivojlantirish, ijtimoiy faollik, shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish kabi kompetensiyalarni o'zlashtirish davri ham bo'lib hisoblanadi. V. A. Bratkovaning aytishicha, talabalar guruhida nizoli vaziyatlarga sabab bo'luvchi psixologik omillar sifatida, yaxshi ishchi xotira, ijodiy fikrlash, faol diqqat hamda muammolarni hal qilishdagi tezlik, yuqori natijalarga erishish motivatsiyasi, harakterni barqarorligi, faol axloqiy va estetik his-

[93]Назаренко С. В. Социология: Учебное пособие /С. В. Назаренко. – Спб: Питер, 2009. – С. 58.

[94]Росс Л. , Нисбетт Р. Человек и ситуация. Уроки социальной психологии / под ред. Е. Н. Емельянова, М. , 2000. – С. 66.

[95] Рубин Д. Социальный конфликт. Эскалация. Тупик. Разрешение. М. , 2003. – С. 33.

tuyg‘ular, ijtimoiy rollarini o‘zlashtirish kabi qobiliyatlarning shakllanishi ham sabab bo‘ladi[96]. Bundan tashqari, talabalik yoshi xulq-atvorning ongli motivlarini kuchaytirish, mustaqillik, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, maqsadga muvofiqlik, qat’iyatli burch hissi, yuksak sevgi, o‘zini tuta bilish kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlash bilan tavsiflanadi. Ammo, bu yoshda o‘z xatti-harakatini ongli ravishda tartibga solish hammada bir xil darajada rivojlanmagan. L. I. Demidovaning ta’rificha, talabalar guruhidagi nizolar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda nizoning ko‘plab ta’riflari keltiriladi. Ya’ni nizoli xulq - raqiblarning qarama-qarshi motivlari, maqsadlari, g‘oyalari, qarashlari, qadriyatlari to‘qnashuvini aks ettiruvchi psixologik hodisadir[97]. Bunday nizolarni hal etishda eng muhim sabablar sifatida ob’ektiv, sub’ektiv, ijtimoiy, psixologik, tashkiliy, boshqaruv, tarkibiy omillarni misol qilish mumkin.

XULOSA

Hozirgi vaqtda “talaba-o‘qituvchi” o‘rtasidagi nizolar ham ajratilib, uning sababi sifatida o‘zaro kutishlardagi farqlar, darsga o‘z vaqtida qatnashmaslik, o‘qishdagi muvaffaqqiyatsizlik, qadriyatlaryo‘nalishidagi farqlar, o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, talabalarning baholashdagi adolatsizlik kabilar tan olinadi.

Yuqorida tahlil etilgan barcha yondoshuv va tadqiqotchilarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, ushbumaqola yuzasidan quyidagilarni xulosa sifatida taqdim etish mumkin.

1. Talabalar guruhiga xos nizoli xulq bu – yosh xususiyatlari hamda individual-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlar shakli bo‘lib, u shu davr uchun zaruriy shartlardan biri ham hisoblanadi.

2. Konstruktiv xarakterdagi nizolar –talabalar guruhi uchun foydali xulq-atvor shakli bo‘lib, u orqali talabalar shaxsida o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijodiy fikrlash, tanqidiylik, mustaqillik, kognitiv faollik, intellektual barqarorlik kabi sifatlarning rivoji uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

3. Talabalar guruhidagi e’tiqodlarning xilma xilligi, qadriyatlardagi farqlar, ijtimoiy tengsizlik holati kabilar ham nizoli xulq-atvorga sabab bo‘luvchi psixologik omillardan biridir.

[96]Браткова В. А. , Демидова Л. И. Коррекция уровня конфликтности студентов вуза / Вестник современных исследований. - № 12-1 (27), декабрь, 2018. – С. 31-34.

[97]Демидова Л. И. , Наделяев А. А. Взаимосвязь поведения в конфликте с личностными особенностями студентов // Вестник современных исследований. – 2018. - Выпуск № 10-1 (25). – С. 179 - 182.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Базылевич Т. Ф. Психология высших достижений личности. : Монография Т. Ф. Базылевич. - М. : Инфра-М, 2018. – С. 104.

2. Ананьев Б. Г. Психология человека. Избранное. СПб. , 1997. – С. 41.

3. Зимняя И. А. Педагогическая психология . - Ростов-на-Дону:Феникс, вт. изд. 2008. – С. 169.

4. Болотова А. К. Психология развития и возрастная психология. Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения А. К. Болотова. - СПб. : Питер, 2018. – С. 234.

5. Кисляков П. А. Психология развития человека как субъекта деятельности / П. А. Кисляков, Е. А. Шмелева, Е. А. Петрова. - М. : Русайнс, 2018. – С. 46.

6. Мищенко Л. В. Интегративная психология пологендерного развития индивидуальности человека (том 1. период поздней юности) / Л. В. Мищенко. - М. : КноРус, 2018. – С. 42.

7. Чекина Л. Ф. Психология развития: Учебное пособие / Л. Ф. Чекина. - СПб. : Лань, 2018. – С. 42.

8. Козер Л. Функции социального конфликта//Социальный конфликт: современные исследования. М. , 2010. – С. 48.

9. Батюта М. Б. , Князева Т. Н. Возрастная психология. Учебное пособие. — М. : Деком. 2018. – С. 53.

10. Рюмшина Л. И. Ценностно-смысловой подход к общению (теоретико-методологическое обоснование) Текст. / Л. И. Рюмшина. Ростов н/Д: Изд-во Рост, ун-та, 2004. – С. 98.

11. Панферов В. Н. Психология человека. Учебное пособие Текст. / В. Н. Панферов. СПб. : Издательство Михайлова В. А. , 2000. – С. 75.

12. Мясищев В. Н. Психология отношений Текст. / Под ред. и вст. ст. А. А. Бодалева. – М. : Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2003. – С. 101.

13. Ермолаева М. В. Основы возрастной психологии и акмеологии: Учебное пособие / Текст. М. В. Ермолаева. М. :Издательство «Ось-89», 2003. – С. 95.

14. Козырев Г. И. Конфликтология: Учебник. – М. :ИНФРА-М, 2010. – С. 123.

15. Бейлз Р. Ф. , Шилз Э. А. Рабочие тетради по теории действия (фрагменты) // Вопросы социальной теории. - 2008. Том II. Вып. 1(2). – С. 248 – 249.

16. Почебут Л. Г. , Чикер В. А. Организационная социальная психология. Учебник. – М. : Проспект. 2020. – С. 96.

17. Атоян А. Д. ВПС: Конфликтология. КЛ / А. Д. Атоян. - М. : Приор, 2007. – С. 25.

18. Зеленков М. Ю. Конфликтология: Учебник / М. Ю. Зеленков. - М. : Дашков и К, 2013. – С. 47.

19. Волков Б. С. Конфликтология: Учебное пособие для вузов / Б. С. Волков. - М. : Академический проект, 2010. – С. 76.

20. Шарков Ф. И. Общая конфликтология: Учебник для бакалавров / Ф. И. Шарков, В. И. Сперанский. - М. : Дашков и К, 2016. – С. 39.

21. Гончаров В. А. Динамика межличностных взаимоотношений в искусственно реорганизованной малой группе // Психология XXI века: Тезисы Международной межвузовской научно-практической конференции студентов и аспирантов. – СПб. , 2017. – С. 72.

22. Назаренко С. В. Социология: Учебное пособие /С. В. Назаренко. – Спб: Питер, 2009. – С. 58.

23. Росс Л. , Нисбетт Р. Человек и ситуация. Уроки социальной психологии / под ред. Е. Н. Емельянова, М. , 2000. – С. 66.

24. Рубин Д. Социальный конфликт. Эскалация. Тупик. Разрешение. М. , 2003. – С. 33.

25. Браткова В. А. , Демидова Л. И. Коррекция уровня конфликтности студентов вуза / Вестник современных исследований. - № 12-1 (27), декабрь, 2018. – С. 31-34.

26. Демидова Л. И. , Наделяев А. А. Взаимосвязь поведения в конфликте с личностными особенностями студентов // Вестник современных исследований. – 2018. - Выпуск № 10-1 (25). – С. 179 - 182.

ONA-BOLA MUNOSABATLARIDA KONSTRUKTIV YONDASHUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

DSc Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

ANNOTATSIYA

Ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar masalasi insoniyat jamiyati taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki odamzod erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko‘nikmalar avloddan avlodga aynan ana shu munosabatlar tizimi - ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi. Onaning bola shaxs bo‘lib shakllanishidagi beqiyos katta rolini kundalik hayotdan olingan ko‘plab misollar bilan ham isbotlash qiyin emas. Biroq inson psixik rivojlanishi jarayoniga ona bilan bo‘lgan munosabat ta’sirining ichki mexanizmlarini aniqlash maxsus psixologik tadqiqotlarni taqozo etadi.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada oilada bolaga nisbatan sog‘lom munosabatni shakllantirish, ota-ona va bola munosabatlarida begonalashuv, oilaviy zo‘ravonlik, pedagogik qarovsizlik, emotsional deprivatsiya va boshqa ko‘rinishdagi salbiy holatlarni psixodiagnostika qilish; ota-ona va bola munosabatlarini psixologik barqarorlashtirish maqsadida psixoprofilaktika tadbirlarini tashkil etish orqali konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish; ota-onalar bilan tegishli psixologik-ma’rifiy, konsultativ faoliyatga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Mazkur maqolada ona va farzand munosabatlari xususiyatlarini o‘rganishning ilmiy-metodik jihatlari, ona va farzand munosabatlarida shakllantiruvchi yondashuvni ro‘yobga chiqarishning an’anaviy va zamonaviy strategiyalari yoritib berilgan. Ona va bola munosabatlarida konstruktivlikni rivojlantirish bo‘yicha taklif etilgan uslubiy yondashuvlar va vositalar tahlili keltirilgan, ona-bola munosabatlarini konstruktiv rivojlantirishga yordam berish amaliyotining samaradorlik ko‘rsatkichlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ona-bola munosabatlari, individual va ijtimoiy refleksiya, identifikatsiya, imajinatsiya va proyeksiya mexanizmlari, konstruktiv oilaviy munosabat, psixokorreksiya.

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CONSTRUCTIVE APPROACH

SKILLS IN MOTHER-CHILD RELATIONSHIPS

Abstract

The relationship between mother and child has been one of the most urgent problems of the development of human society. Because the life experience, knowledge, skills, and skills gained by mankind are transmitted from generation to generation through this system of relations - mother and child relations. It is not difficult to prove the incomparably large role of the mother in the formation of a child as a person with many examples taken from everyday life. However, determining the internal mechanisms of the influence of the relationship with the mother on the process of human mental development requires special psychological research.

Special attention is paid to scientific research on the socio-psychological foundations of mother-child relations in world educational and research institutions. In this regard, the formation of a healthy attitude towards the child in the family, psychodiagnostics of alienation in parent-child relations, family violence, pedagogical neglect, emotional deprivation and other negative situations; formation of constructive communication skills by organizing psychoprophylaxis activities in order to psychologically stabilize parent-child relations; there is a need to pay attention to issues aimed at improving the measures aimed at the appropriate psychological-educational, consultative activities with parents.

In this article, the scientific-methodical aspects of studying the characteristics of mother-child relations, traditional and modern strategies for implementing a formative approach in mother-child relations, analysis of methodological approaches and tools proposed for the development of constructiveness in mother-child relations, mother-child efficiency indicators of the practice of helping to develop constructive relations are given.

Keywords: Mother-child relationship, individual and social reflection, identification, imagination and projection mechanisms, constructive family relationship, psychocorrection.

Zamonaviy inson hayotida uchraydigan va uning psixik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi voqea-hodisalarning katta qismi o'z etiologiyasiga ko'ra oilaviy munosabatlardagi buzilishlar bilan bog'liq. Ijtimoiylashish instituti sifatida oilaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning inson psixik taraqqiyotiga yetkazishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirichalik boshqa hech qaysi institut ta'sir o'tkaza olmaydi. Hatto, oila qadriyati Sharq xalqlariga nisbatan keyingi paytlarda anchayin erkin talqin etiladigan G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan tuzilgan eng keng tarqalgan stressogen omillarning reytingida dastlabki o'nta stressorning teng yarmi bevosita oilaviy hayot bilan bog'liqligi [3; 639-b.] e'tiborlidir. Oila muammolarini o'rganuvchi tadqiqotchilarning nazariy-metodologik yondashuvlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ular bir narsada yakdildirlar: inson bolasi rivojlanishi uchun xavfsiz, hissiy qo'llab quvvatlanadigan, ayni vaqtda shaxsiy faolligini namoyon eta oladigan muhitga muhtoj bo'lib, bunday shart-sharoitlarni unga tabiiy ravishda oila taqdim etadi.

Bizning fikrimizcha, aynan, bir tomondan oilaning psixologik va ayniqsa, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotidagi so'zsiz yuksak ahamiyati, ikkinchi tomondan, uning turli destruktiv holatlar (nizolar, psixologik jarohatlar, hissiy zo'riqishlar) vujudga kelishi uchun qulay muhit ekani zamonaviy psixologik yordam amaliyoti tizimida oilaviy psixoterapiyaning markaziy o'rinlardan birini egallab turishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy zarurat tufayli tobora rivojlanib borayotgan oilaviy psixoterapiyasi turli ilmiy maktablarning g'oyalariga tayanuvchi xilma-xil yo'nalishlarni o'z ichiga oladi [7], [8].

Psixologiya fani tarkibida yangi vujudga kelayotgan har bir maktab o'zi bilan amaliy ishning yangicha uslub va texnikalarini olib kirmoqda. Tegishli maktab vakillari o'zlari taklif etayotgan bunday usul va vositalarning samaradorligini boshqa yo'nalishlarga xos yondashuvlardan yuqori baholashi hamda muayyan vazifani bajarishda aynan ulardan foydalanishga targ'ib qilishlari tabiiy. Bunday sharoitda albatta, turli yondashuvlarning u yoki bu sohadagi imkoniyatlarini tanqidiy tahlil etish, aniq vaziyat va undagi muammoni hal qilishda samaradorligining bashorati, ayniqsa, yuqori bo'lgan uslublarni aniqlashtirishning ahamiyati kattadir. Zero, bunday harakat, birinchidan, amaliy psixologik ish uchun metodik vositalarning ongli tanlanish darajasini oshiradi, ikkinchidan, turli texnikalarning imkoniyatlarini bevosita amaliyotga tadbiq etishdan avval chamalash va nomuvofiq uslublardan amaliy ishga tayyorlanish bosqichidayoq voz kechish imkoniyatini ko'paytiradi. Shunga ko'ra tadqiqotimizning mazkur qismida aynan shunday ishimiz, ya'ni oila psixoterepiyasi sohasida keng tarqalgan

turli yondashuvlarni tadqiqot oldidagi vazifalar nuqtai nazaridan tahlil etish va yakunda shakllantiruvchi bosqichdagi ish uchun tanlangan uslubiyatni asoslash koʻzda tutilgan[11].

Avvalo, nazarimizda, shuni e'tirof etish kerakki, garchand oila psixoterapiyasi sohasida hozirgacha bir-biridan mustaqil deb e'lon qilinayotgan koʻplab yoʻnalishlar shakllangan boʻlsa ham, ularga xos ish uslubi, qoʻllanadigan metodikalar, metodik vositalarning maqsadli moʻljallarida turli umumlashtirishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi holatlar mavjud. Jumladan, E. G. Eydemiller, Y. Y. Yustitskis oila psixoterapiyasida mavjud turli maktablarning vakillari tomonidan keng qoʻllanuvchi psixoterapevtik texnikalarning besh turini ajratadilar:

1. Koʻrsatma berish-oila a'zolariga psixoterapevt tomonidan qandaydir harakatlarni amalga oshirish, oʻzgartirish yoki kelajakda umuman takrorlamaslik haqida toʻgʻridan toʻgʻri koʻrsatma berish usuli. Koʻrsatmalar toʻgʻri yoki teskari boʻlib, bunda toʻgʻri koʻrsatma berayotganda psixolog oila a'zolari tegishli harakatni aynan aytilganidek bajarishini, paradoksal koʻrsatma berayotganda odamlar aksincha uni aksini bajarishini taxmin qilib, psixologik yordam amaliyotini oʻtkazishi koʻzda tutiladi.

2. Oilaviy bahs-munozara tashkil etish - oila a'zolari oʻrtasida uning hayotiga oid turli masalalar yuzasidan muhokamani tashkil etish usuli. Ushbu usul oilaviy munosabatlarning turli jihatlari xususida oila a'zolarining notoʻgʻri tasavvurlarini korreksiyalashda, ularning bahs-munozara madaniyatiga oʻrgatish, obektiv yondashishga odatlantirish uchun keng qoʻllanadi.

3. Bilvosita munosabatni tashkil etish-odatiy oilaviy munosabatlarga qandaydir kichik yangi element qoʻshib, oila a'zolari oʻrtasidagi muloqot jarayoniga oʻzgacha tus berish usuli. Mazkur usulni qoʻllashda, masalan, oila a'zolarining oʻzaro yozishmalar bilan muloqot qilishi sharti joriy etilib, shu tariqa oʻzaro kommunikatsiya jarayoni sun'iy sur'atini pasaytirish hisobiga, avval e'tibordan chetda qolib kelgan tomonlarini kuzatish uchun sharoit yaratish maqsadi koʻzlanadi.

4. Koʻnikma va malakalarni shakllantirish-oila a'zolarining muvaffaqiyatli oilaviy hayot kechirishi uchun zarur, ammo yaxshi rivojlanmagan koʻnikma va malakalarni rivojlantirish usuli. Bu usulni qoʻllashda oila a'zolari oldiga vazifa qoʻyiladi, uni bajarish uchun qanday koʻnikma va malakalar talab etilishi hamda ularning shakllanganini qaysi mezonlar asosida bilish mumkinligi haqida ma'lumot beriladi.

5. Oilaviy rollarni ijro ettirish - oila a'zolarini oilaviy munosabatlarning muayyan vaziyatlarida o'z rollarini almashtirgan holda o'zaro ta'sirga kirishishlarini nazarda tutuvchi ishni tashkil etish usuli. Ushbu usul ayniqsa bolalar bilan ularning ota-onaga munosabatda namoyon etuvchi xulq-atvorini korreksiyalashda keng qo'llanib, kattalar psixoterapiyasida tadbiq etilishi o'zlari uchun odatiy rolni almashtirishga qiynalishlari tufayli murakkablashadi [10; 112-127-b.].

Albatta, oilaviy munosabatlar psixoterapiyasida an'anaviy ravishda er-xotin munosabatlari korrreksiyasi markaziy o'rinni egallaydi. Zero, V. Satir ta'kidlaganidek, er-xotin munosabatlari oiladagi boshqa barcha munosabatlar o'zagini tashkil etadi va aynan ularning buzilishi farzandlar bilan disfunksional munosabatlarga olib keladi [9;14-b.]. Haqiqatdan ham, maxsus tadqiqotlarning natijalaridan ma'lum bo'lishicha, er bilan bo'lgan munosabatdan qoniqmagan ayol onalik his-tuyg'ulari ko'lamini yanada kengaytirib, o'smir farzandga nisbatan namoyon etuvchi g'amxo'rlikni o'ta kuchaytiradi, bolaning ichki olamiga haddan tashqari ko'p aralasha boshlaydi. Bu esa ota-ona va farzand munosabatlari psixokorreksiyasida er-xotin o'zaro ta'sirlashuvidagi muammolarni bartaraf etishning ahamiyati katta ekani haqida xulosa chiqarishga undaydi.

Bevosita ota-ona va farzand munosabatlari psixoterapiyasining uslubiy ta'minoti muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili bu sohaga yo'naltirilgan psixoterapiya kurslarida kommunikativ yondashuv, guruhiy shakldagi ish ustunlik qilishini ko'rsatadi [1], [2], [5], [11], [12]. Darhaqiqat, psixologik ishning guruhiy shakli tejamkorligi (kam vaqtda ko'proq odamni qamrab olish imkoniyati) va qator vaziyatlarda individual shakldagi ishdan samarali ekani bilan nafaqat oila psixoterapiyasida, balki umuman psixologik yordam amaliyotida, masalan, maktab psixologik xizmatida [6], tobora mustahkam o'rin egallab bormoqda. Birinchilardan bo'lib ota-onalarga psixologik yordam amaliyotida ushbu shakldagi ishni zamonaviy oila psixoterapiyasida A. Adler o'z konsultativ faoliyatida tadbiq eta boshlagan. O'zining kemtiklik kompleksi haqidagi g'oyalariga tayanib, A. Adler ota-onalar bilan guruhiy shakldagi ish davomida ularni farzandning betakrorligi, individualligi va daxlsizligini hurmat qilishga o'rgatish maqsadini ko'zlaydi. Buning uchun Adler ota-onalarga bolalarida o'ziga nisbatan ishonchli qo'llab-quvvatlash, imkon qadar ularga tanlov erkinligini berish, ota-onadan qo'rqishning o'rinsizligini ko'rsatish zaruratini anglatishga qaratilgan psixologik mashg'ulotlar o'tkazish yo'lidan boradi [9].

A. Adlerning odam ijtimoiy mavjudot bo'lib, uning xulq-atvori va asosiy istagi guruhga mansub bo'lish, degan g'oyasiga asoslanib, R.

Dreykus tomonidan qo‘ni-qo‘shni ota-onalardan bahs munozara guruhlarini tashkil etish an’anasiga asos solindi. R. Dreykus o‘z tashabbusida ota-onalar uchun bir-birining tajribasidan xabardor bo‘lish, o‘zini qiziqtirgan savollarni boshqalarga bera olish va guruh tomonidan ma’qullanishni olish foydali bo‘lishi mumkinligi haqidagi g‘oyaga asoslanadi. Uning guruhlarida boshlovchining asosiy vazifasi mohirona bahs-munozarani tashkil etish, savollarni o‘rtaga tashlashdan iborat bo‘lib, bu rolda navbatma-navbat barcha ota-onalar o‘zlarini sinab ko‘rishi mumkin. R. Dreykus ota-onalar trening guruhida ularning o‘z farzandlari bilan bo‘lgan munosabatini yaxshilash uchun bolaning salbiy xulq-atvori to‘rt maqsaddan biriga - e’tibor va qulaylik yaratilishini talab qilish, o‘zining hukmronligi va oshkora bo‘ysunmasligini namoyon etish, o‘ch olish, o‘z kemtikligi va ojizligini ta’kidlashga yo‘naltirilishini anglatish zarur degan g‘oyaga asoslanadi [10].

X. Djaynott taklif etgan guruhiy psixologik maslahat modeli ota-onalarning hissiy emotsional sohasini ularga o‘z asl his kechinmalarini, qadriyat va kutilmalarini anglashga yordam berish bilan rivojlantirish g‘oyasiga tayanadi. Uning ota-onalarda guruhiy trening shaklidagi ish orqali kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik amaliyoti bolani tinglash, uni haqoratlashi va uning jahlini chiqarishi mumkin bo‘lgan harakat hamda gaplarga yo‘l qo‘ymaslik, shaxsiy fikr va hissiyotlarni samimiy ifodalashga o‘rgatish yo‘nalishida tashkil etilgan. X. Djaynott trening mashg‘ulotlari orqali ota-onalarda doimo bolasida ijobiy “Men” obrazini qo‘llab-quvvatlashga intilish, unga baho berishda shaxsiy salbiy baholovchi fikrlardan qochish, o‘zaro muloqotda kooperatsiyaning tashabbuskori bo‘lishga harakat qilish singari sifatlarni rivojlantirishni ustuvor vazifa deb biladi [10].

X. Djaynott modeliga o‘xshash va bugungi kungacha xorijda katta shuhrat qozongan hamda keng tadbiq etib kelinayotgan dasturlardan biri T. Gordonning “Samarali ota-ona treningi” dasturidir. T. Gordonning dasturi bolalar tarbiyasiga gumanistik nuqtai nazardan yondashish g‘oyasiga asoslanib, ota-onalarni avvalo o‘z farzandlarini tinglash va tushuna olishga o‘rgatish maqsadini ko‘zlaydi [10]. Bunda trening zimmasidagi vazifa umumiy ravishda ota-onalarda uch xil asosiy ko‘nikma – faol tinglash, ya’ni bola aytmoqchi bo‘lgan narsani anglay olish, shaxsiy his kechinmalarni bola uchun tushunarli tarzda ifodalay bilish hamda “ikkimiz haqdirmiz” tamoyilini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lish, ya’ni muloqot natijasidan har ikki tomon qoniqish hosil qiladigan tarzda kelishish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat, deb belgilanadi. Mazkur dasturga asoslangan mashg‘ulotlarda, masalan ota-onalarga “hissiyotlarni tinglash” mashqi taklif etiladi. Bunda trening guruh

ishtirokchisi bo‘lgan ota-onalarga bola tilidan biron fikr (masalan, “Ta’til boshlanishiga ham o‘n kun qoldi”, “Ada velosipedimning g‘ildiragi teshilibdi” va h.) taqdim etilib, unga asoslanib, ayni paytda bola his etayotgani ehtimol tutiladigan kechinmalar yuzasidan mulohaza yuritish vazifasi beriladi [4]. Ushbu trening dasturiga kiritilgan mashhur mashqlardan yana birida ota-onalarga bolalarning muayyan vaziyatdagi xulq-atvori tasvirlanadi (masalan, bolalar televizor qarshisida shovqin solib o‘ynayaptilar) va unga nisbatan ota-ona bildirishi mumkin bo‘lgan samarasiz mulohaza (masalan, “shovqinni bas qilinglar va televizorni o‘chirib qo‘yinglar”) keltiriladi va nima uchun samarali emasligi yuzasidan o‘z fikrini bildirish topshirig‘i bilan murojaat qilinadi [4]. Bir so‘z bilan aytganda, T. Gordon treninglari umumiy ravishda, ota-onalarda farzand bilan muloqot uslubiga nisbatan refleksiyani kuchaytirish, e’tiborni bolaning tashqi xulq-atvoridan uning ortida turgan psixologik holatlarga qaratish maqsadini ko‘zlaydi. Tadqiqotlar ushbu treninglar ishtirokchisi bo‘lgan ota-onalar o‘z tarbiya uslubini oson o‘zgartira olgani ularning farzand bilan o‘zaro tushunish darajasi ortgani, bolalarda esa shaxsiy muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati rivojlanganini tasdiqlamoqda.

Yuqorida tavsiflangan guruhiy faoliyatning turli xil ko‘rinishlariga asoslangan, turlicha original mashqlarni o‘z ichiga oluvchi barcha trening mashg‘ulotlarini bir qator umumiy tamoyillar birlashtiradi: guruhdagi fikr almashish, bahs munozara, umumiy mavzu – bolalar va ota-onalarning ular bilan bo‘lgan munosabati muammolari atrofida tashkil etiladi, guruhning barcha a’zolari bahs-munozarada erkin fikr bildirish huquqiga ega bo‘ladi, bunda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yilmaydi; boshlovchi mutloq avtoritet egasi, axborot va guruhning barcha a’zolari qabul qilishi kerak bo‘lgan mulohazalar manbasi sifatida namoyon bo‘lmaydi. Biz o‘z mualliflik pozitsiyamiz nuqtai nazaridan gumanistik psixologiya an’analariga asoslanuvchi bu kabi tamoyillarga asoslagan ish uslubining samaradorligini yuqori baholaymiz. Haqiqatdan ham ota-onalarga bolalarni tinglay olish, ularning hissiyotlariga befarq bo‘lmaslik, ular bilan munosabatda insonparvarlik, ochiqlik va samimiylik tamoyillarini oliy qoidalar sifatida qabul qilishni o‘rgatish bilan, ota-ona - farzand munosabati tizimida konstruktivlik darajasini behad oshirish mumkinligiga qat’iy ishonamiz. Qolaversa, ota-onalarning ushbu fazilatlari nafaqat bola bilan o‘zaro ta’sirlashuvni, balki er-xotin munosabatlarini ham yangi sifat bosqichiga olib chiqishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga “ota-ona va bola” munosabatlari psixokorreksiyasi kabi murakkab ishda asosiy urg‘uni ota-onada muayyan kommunikativ

sifatlarni rivojlantirishga qaratish bilan cheklanish, bizning nazarimizda, amaliy psixologik yordam imkoniyatlarini chegaralaydi. Buning bizningcha, bir necha sabablari mavjud: birinchidan kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi ortida bola shaxsi, unga munosabat, oila qadriyati haqidagi tasavvurlarda ro‘y bergan o‘zgarishlar turmasa, ota-onaning hulq-atvori nihoyatda sun’iy va vaqtinchalik hodisa bo‘lib ko‘rinishi mumkin; ikkinchidan bolaga munosabat darajasidagi “to‘g‘ri gapirish” va “to‘g‘ri tinglash” malakalari vaziyatli mazmun kasb etishi haqiqatga yaqin; uchinchidan, amaliy mashg‘ulot davomida ko‘nikma va malakalarni chinakam oilaviy munosabatlar vaziyatiga ko‘chirib o‘tkazish ota-onadan qo‘shimcha mahoratni talab qilishi tabiiy.

Nazarimizda, “ota-ona va farzand” munosabatlari psixokorreksiyasiga kommunikativ yondashuvning chegaralangan imkoniyatlari farzand bilan bo‘lgan munosabatda detsentratsiyaga o‘rgatish orqali uning to‘g‘risidagi tasavvurlarni kengaytirishga qaratilgan kognitiv amallarni bajarishga turtki berish hisobiga to‘ldirilishi mumkin. Bizning ushbu xulosamiz qator ilmiy tadqiqotlarning natijalariga asoslanib, ularga ko‘ra, ota-ona va farzand munosabatlari psixokorreksiyasi texnologiyasida asosiy mexanizmlar proyeksiya, identifikatsiya va refleksiya, ya’ni odamning o‘zini boshqa odamlar o‘rniga qo‘yish bilan bog‘liq jarayonlardan iborat bo‘ladi [106]. Ijtimoiy-psixologik treninglar davomida sentratsiya va detsentratsiya jarayonlarida mo‘tadillik qayd etiladigan odamlarning o‘zlari haqidagi tasavvurlari kengayishi hamda birovning qiyin suhbatdosh ekani to‘g‘risidagi tasavvurlari hajmi kamayishi oson kechishi aniqlangan. Shunga muvofiq, bizning fikrimizcha, ota-onaga atrof-olamdagi turli narsa-hodisalar haqida va eng avvalo, ularning o‘zi haqida farzandida shakllangan tasavvurlarni tushunishga yordam berish bola bilan munosabatlarida ijobiy emotsional fonni yanada kuchaytirishning samarali usullaridan biri bo‘lishi mumkin. Chunki bunday yo‘l tutilganda, birinchidan, ota-onaning bolani shunchaki tushunish darajasi emas, tushunishga ehtiyoj darajasi ortadi, ikkinchidan, ota-onalardagi o‘zgarishlar tashqi amaliy xatti-harakatlardagina emas, avvalo, tasavvur darajasida ro‘y beradi, uchinchidan, ota-ona o‘z-o‘zini farzand ko‘zi bilan tanqid qilishga, undan ham biron narsa o‘rganish uchun ochiq bo‘lishga o‘rganadi. Bizningcha, mazkur o‘zgarishlar yakunda ota-ona va farzand munosabatlarida konstruktivlik darajasini oshiradi, ular har ikki tomonga hissiy qoniqish baxsh etadigan darajaga yetadi.

Biz tomondan taklif etilayotgan hozirda keng tarqalgan va chuqur ilmiy asoslangan ilg‘or yondashuvlarga to‘ldiruvchi qo‘shimchalar sifatida qo‘llanishi tavsiya etilayotgan uslubiyot ushbu tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan “Ona va o‘smir farzand munosabatlari psixokorreksiyasi

dasturi" da ro‘yobga chiqarilgan. Dasturga kiritilgan har bir mashg‘ulot kirish mashqidan boshlanadi. Bizningcha, guruhiy ishni tashkil etishga bunday yondashish guruh a’zolarida ish mazuniga mo‘ljal olish, mashqlarni bajarishda o‘zini erkin tutishga yordam beradi. Ayni paytda mashg‘ulotlar tarkibidagi ilk mashqlar shunchaki ko‘ngilocharlik uchun emas, guruhiy faoliyatga ijobiy yo‘nalish berish bilan birga dastlabki psixokorreksion ta’sirni amalga oshirishga qaratiladi. Dastlabki mashqlar o‘z g‘oyasiga ko‘ra ishtirokchi onalarning o‘z individual tarbiya uslubi, farzand bilan bo‘lgan munosabatining uning nazarida ulargagina xos xususiyatlariga e’tibor qaratishi uchun sharoit yaratadi. Ishning guruhiy shaklda tashkil etilishi va unda ishtirokchilarga bir-birining javoblari bo‘yicha fikr bildirish imkoniyati berilishi yakunda har bir onaga farzand bilan bo‘lgan munosabatning qaysi jihatlari haqiqatdan ularning o‘zigagina xosligi, qaysi xususiyatlari ko‘pchilikda uchrashini aniq ajratib olishi uchun qulaylik hosil qiladi.

Dasturdan o‘rin olgan mashg‘ulotlarning barcha ikkinchi mashqlari onada refleksiya jarayonini faollashtirishga qaratilgandir. Ushbu mashqlar har xil vaziyatlar fonida onaning o‘z-o‘ziga farzand nuqtai nazaridan qarashga undaydigan qilib tuzilgan. Bu kabi topshiriqlarni bajarish bir vaqtda ikki tomondan samara berishi, birinchidan onaning o‘zi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, ikkinchidan farzandining unga bo‘lgan u yoki bu munosabati sabab va asoslarini tushunish darajasini oshirishi kutiladi.

Mashg‘ulotlar tarkibidagi uchinchi mashqlar identifikatsiya jarayoniga asoslangan bo‘lib, onalarning turli narsa-hodisalar haqida farzand o‘rnida turib fikrlashga undaydigan mazmunga egadir. Bunday mashqlardan ham ikki tomonlama mahsuldorlikni kutish mumkin, deb hisoblaymiz. Bir tomondan ular farzand ichki dunyosini yaxshiroq tushunish tomon yo‘l olsa, ikkinchi tomondan, o‘zi uchun an’anaviy bo‘lgan va ayni vaqtgacha faqat bir tarafdan ko‘rishga o‘rgangan narsa hodisalarida yangi jihat va qirralarni ko‘rishga yordam beradi.

Har bir mashg‘ulotning to‘rtinchi mashqlari proyeksiya mexanizmi faoliyati bilan bog‘liqdir. Ushbu mashqlardagi topshiriqlar onalarda o‘z farzandi, uning shaxsi va xulq-atvoriga nisbatan proyeksiyani uyg‘otib, so‘ngra ushbu ongsiz jarayonga e’tibor qaratish bilan uning obektiv hodisa ekanini anglatish nuqtai nazaridan tuzilgan.

Dasturdagi har bir mashg‘ulot yakunida keltirilgan mashq onalarga guruhiy ish davomida to‘plangan individual tajribani xulosalash, o‘z shaxsi va munosabatlarida o‘zgartirishni xohlab qolgan sifatlar xususida mulohaza yuritish, umuman, amaliy ish davomida egallangan tushuncha

va shakllangan tasavvurlarni ungacha mavjud bo‘lgan individual tajriba bilan qiyoslash imkonini beradi. Amaliy psixologik ishning ushbu bosqichi, bir tomondan, onaga ushbu ish uning o‘zida qanday o‘zgarishlarni jonlantirganini anglab yetish uchun, ikkinchi tomondan, amaliy ish natijasida orttirilgan yangi tajribani shaxsiy tajriba tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun o‘ta muhimdir.

Ko‘rinib turganidek, biz tomondan taklif etilayotgan uslubiy yechim bu sohada psixologiyada shakllangan an’analarning qator ilg‘or tomonlarini qamrab olish barobarida o‘zining original jihatlariga ham egadir. Albatta, har qanday ruhiy sog‘lom odam bilan uni o‘z-o‘ziga o‘zgacha nuqtai nazardan qarash, odatiy bo‘lib ko‘ringan narsa hodisalarga noodatiy darajada diqqat e’tibor bilan yondashishga undash, uning shaxsi va munosabati tizimida qandaydir o‘zgarishlarni hosil qilishi tabiiydir. Biroq tashqi sun’iy aralashuv bilan hosil qilinadigan ushbu o‘zgarishlar samarali boshqarilishi uchun amaliy ish aniq umumiy g‘oya va yaxlit ijro texnologiyasiga ega bo‘lishi lozim. Nazarimizda, biz taklif etayotgan uslubiy yondashuv ushbu talablarga mos tarzda ishlab chiqilgan. Uning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha tegishli empirik chora-tadbirlar bayoni esa navbatdagi paragraf mazmunida keltiriladi. Tadqiqotimizning ushbu qismida muhokama etilgan masalalar yuzasidan esa quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin, deb hisoblaymiz:

1. Ota-ona va farzand munosabatlari psixokorreksiyasi sohasi evolyusion o‘zgarishlarga uchrayotganiga qaramasdan bir qator nisbatan umumiy tamoyil va an’analarga egadir.

2. Ota-onalar bilan guruhiy shaklda o‘tkaziladigan amaliy psixologik ishda o‘ziga xos kommunikativ yondashuv ustun bo‘lib, unda asosiy e’tibor trening ishtirokchilarida konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

3. Ota-ona va bola munosabatlari psixokorreksiyasida ommalashgan kommunikativ yondashuvning chegaralangan imkoniyatlari detsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar vositasida to‘ldirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

арга А. Я. , Драбкина Т. Я. Системная семейная психотерапия. Краткий лекционный курс. – СПб. : Речь, 2001. – 144 с.

оронова А. А. Школа разумного родительства. Учебно-методическое пособие. – М. : Сфера, 2020. – 112 с.

ериг Р. , Зимбардо Ф. Психология и жизнь. – 16-е изд. – СПб. : Питер,

ордон Т. Повышение родительской эффективности. – Екатеренбург: АРДЛТД, 1997. – 231 с.

урманова Н. С. Психологическая коррекция детско - родительских отношений социально и педагогически запущенных подростков: Автореф. дис…к. психол. н. - Казань: КГУ, 2003. – 24 с.

икляева А. В. “Трудный класс”: диагностическая и коррекционная работа. - Санкт-Петербург: Речь, 2006. - 320 с.

етанова Е. И. Я-концепция и переход родительству // Психологический атлас человека / Под ред. А. А Реана. – СПб. : ПРАЙМ - ЕВРОЗНАК, 2006. – С. 453-454.

роективная психология / Пер. с анг. – М. : Апрел Пресс, Изд-во ЭКСМО Пресс, 2000. – 318 с.

атир В. Психотерапия семьи. – СПб. : Речь, 2000. – 284 с.

йдемиллер Э. , Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - 4-е изд. , перераб. и доп. - Москва: Питер, 2008. – 668 с.

У. Абдуллаева. Психокоррекция во взаимо-отношениях матери и п
о
д
р
о
с
т
к
а
у
к
и
о
б
р
а
з
о
в
а
Ota-ona va farzand o‘rtasidagi destruktiv munosabat bolalarda agressiv №5. –В. 313-316.

d history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. - https: //frontlinejournals org /journals /index

бдуллаева, Д. (2023). Оилавий тарбия бола шахси ривожланишини белгиловчи омил сифатида. // *Педагогики и психологии в современном образовании.* https://ppmedu. jdpu. uz/index.

15. Абдуллаева, Д. (2023). Оилада ота-она ва фарзанд муносабатларининг ўзига хослиги. - Б. 226-232.

YOSHLAR ONGIGA VATANPARVARLIK HISSINI SINGDIRISHDA OTA-ONANING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Sultanova Shaxnoza Saydullaevna

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolani yozishdan asosiy maqsad, oilada bola ongi va tafakkuriga vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda bola tarbiyasida mas'ul bo'lgan shaxslarning ota-ona, vasiylarning tutgan o'rni, muloqot jarayoni, psixologik ta'sir o'tkazishi;Vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlari, yoshlarni vatanparvarlikka tarbiyalash tuzilmasi, "vatanparvarlik ong + vatanparvarlik tushuncha + vatanparvarlik

xulq-atvar" integratsiyasi tarixiylik, uzluksizlik, mantiqiylik milliy va umuminsoniy tamoyillar, vatanparvarlikni rivojlantiruvchi (vatani sevish, ona tili, millati, milliy urf-odat va an'analariga sadoqat) omillar, uni shakllantirish, ko'rsatkichlarining nazariy asoslari takomillashtirilgan; va ta'siri hususida tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish kabi masalalar olingan.

Kalit so'z: Iroda, vatanparvarlik, xotira, ong, qobiliyat, milliy g'urur, oila, ota-ona, iftixor, din, motivatsiya.

THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF PARENTS IN EDUCATING PATRIOTISM YOUNG GENERATION

Abstract: The main purpose of writing this scientific article is the role of parents, guardians, communication process, psychological influence of persons responsible for child education in instilling patriotic feelings in the child's mind and thinking in the family; The essence of the concept of patriotism, socio-psychological aspects of educating young people in the spirit of patriotism, the structure of educating young people to patriotism, "patriotic consciousness + patriotic understanding + patriotism "behavior" integration of historicity, continuity, rationality, national and universal principles, factors that develop patriotism (love of the

motherland, loyalty to the mother tongue, nation, national customs and traditions), the theoretical foundations of its formation and indicators have been improved; and regarding the impact, issues such as proper planning and organization of the educational process were taken.

Keywords: Will, patriotism, memory, consciousness, ability, national pride, family, parents, pride, religion, motivation.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Yermekbay Keulimjayevich. Nukus-2022. 3-b) «Inson qadri uchun» tamoyili yuksak darajada e’tirof etilgan va undagi vazifalar hayotning strategiyaning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan IV bandining 70-maqsadida yoshlarga oid fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shax sifatida tarbiyalashga alohida urg‘u Bu o‘z navbatida, ta’limtarbiya mazmunini yangi talablar asosida amalga butun dunyo hamjamiyati e’tiborini o‘ziga jalb etgan qoraqalpoq xalq pedagogikasi an’analari asosida yoshlarni har tomonlama rivojlangan, sog‘lom va vatanparvar etib tarbiyalashni taqozo etadi.

atan bitta bo‘ladi, bu tushuncha hech qachon o‘zgarmaydi, hech qachon bo‘lgan qaytarilmas durdonaki, Vatanni eng suyukli zot ta’rifi bilan ifoda etib “Ona-Vatan” deymiz.

Dunyoda eng mu’tabar so‘zlar ota-onalarga, ona-Vatanga aytilgani Dunyoda hamma hamdu-sanolar Alloh inoyat etgan bo‘zrukvorlarimizga va ona-Vatanga o‘qilgan.

V

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati shul kishining vatani deyilur» deb Vatanga ta’rif beradi” (Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. : O‘qituvchi”, 1992)**.**

Vatan haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa quyidagicha tushuncha berilgan: “Vatan –

1) Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan

2) Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i, yurt, uy” (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. A. Madvaliyev tahriri ostida. T. : “Fan”, 2006-2008 **)].**

haqida berilgan bu izoh umumiy tarzda bo‘lib, inson tug‘ilib o‘sgan Vatan allomalari aytgan ta’rif-tavsiflarni jamlaganda ham Vatan tushunchasi yaxshi” deganlaridek, Vatan ta’rifini, uning hududsiz, chegara bilmas tuyg‘u ekanini har bir inson his etib, sevib ardoqlashi kerak, shunda Vatan tushunchasi yorqin ko‘rinadi.

Chindan-da, ona zamindagi har bir yurak - Inson, har bir g‘oya, har bir yangilik, hatto “mo‘min binafshaning ko‘z yoshigacha”- Vatandir. Shoir Vatanni keng ma’noda ta’rif-tavsif etarkan, ona yurtdagi har bir narsa Vatan ekanini nazardan qochirmaydi:

Vatan tuyg‘usi - bu aziz vatanimizni peshona teri bilan obod va ma’mur etgan, lekin nomlari tarix saxifalarida yozilmagan oddiy kishilarimizning fidokorona va yaratuvchan mexnatini mudom yodda tutishdir.

Vatan tuyg‘usi - bu o‘z aql-idroki bilan jahln divilizadiyasiga ulkan hissa qo‘shgan Muso al-Xorazmiy, Axmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Mansur as-Samarqandiy, Abu Abdullox, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abul Fazl an-Nasafiy, Abul Lays Nasr as-Samarqandiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abdul Koxir Jurjoniy, Faxriddin ar-Roziy, Mirzo Ulurbek singari o‘nlab qomusiy mutafakkirlarni yodga olishdir.

Vatan tuyg‘usi - yuksak badiiy salohiyatlari bilan o‘lmas asarlar yaratgan adib Axmad Yugnakiy, Nosir Xusrav, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Axmad Yassaviy, Sulaymon Bokirg‘oniy, Nosiriddin Rabro‘ziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mumtoz qalam sohiblarini yodga olishdir.

Vatanni sevish insonda vatan tuyg‘usining qaror topishidan boshlanadi. Vatan tuyg‘usi . . . Bu insoniylikning, Vatanga farzandlikning muqaddas hissiy belgisi, deb ta’riflaydilar islom ilmining taniqli bilimdoni Abdulaziz Mansurov “Hadis ilmi saboqlari” risolalarida.

Vatan tuyg‘usi bu - o‘z xalqini sevish, u ubilan faxrlanish, uni hurmat qilish va qadriga yetish deganidir.

Vatan tuyg‘usi bu - shu aziz Vatanni o‘zining halol peshona teri bilan obod etgan ajdodlarimizni doimo eslamoq demakdir.

Vatan tuyg‘usi bu - o‘z aqli-idroki bilan jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan vatandosh buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, hadis va tasavvuf ilmining sultonlarini unutmaslik demakdir.

Vatan tuyg‘usi - ona Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid bo‘lgan buyuk ajdodlarimizni yodda tutish demakdir.

Vatan tuyg‘usi bu - aziz va laziz, go‘zal Vatanimizga yuksak e’tiqod bilan yashash va unga hamisha chin farzand bo‘lish demakdir.

Ana shunday tuyg‘u, hislarga ega bo‘lgan Inson o‘z Vatanini sevmasligi, Vatanidan yiroqda bo‘lganida uni qumsamasligi mumkin emas.

Metodologiya

Kishilik jamiyatining qadimiy ibtidoiy, ya‘ni boshlang‘ich davrida odamlar tayyor mahsulotdan foydalanishgan. Ovchilik, keyinchalik esa dehqonchilik va turli-tuman hunarmandchilikning rivojlanishi odamlar mehnat tajribasining oshishiga olib kelgan. Mehnat faoliyati borgan sari murakkablasha borib, odamlarning shaxs sifatida shakllanishida va kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o‘ynay boshladi. Mehnat odamlarning tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatib, tarbiyani hayotiy zaruriyat qilib qo‘yadi. Odamlarning mehnat ko‘nikmalari yosh avlodga meros bo‘lib qola boshladi. Endi tarbiya mehnat faoliyatining, mehnat tajribasining mahsuliga bevosita bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu tariqa ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o‘rgatish ehtiyoji tug‘ildi. Tajribalarning to‘planishi natijasida ta‘lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida ma‘lum bilimlar boyib bordi.

Oldiniga bola tarbiyasi kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo‘lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo‘l talabga javob bermay qo‘ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli odamlar shug‘ullana boshladi. Ta‘lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi Ularning ta‘lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to‘plagan tajribalaridan o‘rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Mashg‘ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko‘rinishlarga ega bo‘lib bordi.

O‘zbek xalqi o‘z milliyligi, mehr-oqibati, diniy e’tiqodi, urf-odatlari,

boshqa xalqlardan o’z pedagogik tarbiyasi bilan ajralib turadi. Barkamol

e
, Mulkchilik shakllarining o‘zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o‘zgarib borgan. Masalan, XIX asrning boshlari XX asrlarning o‘rtalariga kelib, ota-
y onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o‘rinlari, ularning
o ijtimoiylashuviga alohida e’tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa
l kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo‘llab-
g quvvatlash, rivojlanishiga ko‘maklashishning ahamiyatini anglash davri
a bo‘lgan. Bu an’ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib
k kelmoqdaki, endilikda tug‘ilgan bolaga e’tibor oilaning barcha
i qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g‘amxo‘rlik psixologiyasi
x ham madaniy-tarixiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar
o (aksariyat Yevropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va
l g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, taxminan o‘smirlik davridan boshlab, uning
i erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya uslublari
o‘zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir
q madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog‘atga yetgani sari ota-
i onaning unga e’tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan,
l o‘zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik
i yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta
s qayg‘urish bilan uning ma’naviy, ruhiy rivojlanishiga e’tibor qaratilmaydi.
h Lekin qiz bola balog‘atga yetib, ko‘rkamlashib borgani sari, o‘g‘il bolaning
i qo‘lidan ish kelib, qatorga qo‘shilgani sari, ota-onada ulardan
B g‘ururlanish, taqdiriga kuyunish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ham ortib boradi.
o Bunday g‘amxo‘rlik shu qadarki, uylangan o‘g‘ilning qadam bosishlarini
y ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba’zan, qaynona-kelin
l munosabatlarida, yoki ota-o‘g‘il munosabatlarida tarangliklarni,
i nizolarni keltirib chiqaradi.

c Oila jamiyatning bosh bo‘g‘ini bo‘lib, unda bir tomchi suvdek
J jamiyatdagi munosabatlar o‘z aksini topadi. Oila- muqaddas dargoh. Oila
a va nikohning paydo bo‘lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning
u umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ota-ona – bola
o munosabatlariga tarixiy davrlar qarashlari bo‘ladigan bo‘lsak, ota-
i onaning bolaga yondoshuv usullari bo‘yicha qator bosqichlarni boshdan
l kechirganligini ko‘rish mumkin. Olimlarning tavsiflashicha, antik
d davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug‘ilsa, unga deyarli
b befarq qarash, ya’ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday
a munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo‘lib, bolani dunyoga
keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli

o
t
a
-
o
n
a

bo‘lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o‘zgargan, odam zotida egoizm, o‘ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o‘zidan bo‘lgan zurriyodga nisbatan munosabatlarda ham o‘z aksini topgan.

Oilaviy munosabatlar, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabatlar oiladagi farzand tarbiyasida yaqqol o‘zini namoyon qiladi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch - oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash, va h. k. dan iborat. Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oiladagi bola tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir.

Oiladagi bola tarbiyasida vatanparvarlik tarbiyasi shakllantirish ota-onalarning dastlab o‘zlaridagi er-xotin, qaynona-kelin, bobo-buvi munosabatlarida, ularning psixologik-pedagogik bilimlarga egaligi, oiladagi oila a’zolarining har biriga sadoqat, vafo, mehr rishtalari bilan bog‘langanligi, o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari, oilalar o‘rtasidagi bordi-keldi hamkorliklarida tajribalar almashishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Adabiyotlar sharhi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik mazmundagi iqtisodiy islohotlar, pedagogik ta’limning barcha jabhalarini modernizatsiyalash masalasi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Muammoning dolzarbligi shundaki, davr yoshlari chuqur bilim olish zaruriyatini, fan o‘qituvchilaridan ijtimoiy fanlar asosida berilayotgan ta’limning sifatini yanada takomillashtirish zaruriyatini talab qilmoqda. Ta’limdagi islohotlar ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini yuksaltirish zaruriyati bilan birga ilmiy asoslangan metodik usullardan foydalanishni ham taqoza etadi. Ayniqsa, o‘quv fan dasturlari asosida o‘qitiladigan darslarning sifatini oshirishga alohida e’tibor berilishi, dars davomida mavzu mazmunini yoritilishiga ilmiy, ijodiy yondoshilgan fikrlar majmui

integratsiyalashtirilib, talabalarda ijtimoiylashuvni yuksaltirish masalasiga innovatsion usulda yondashiladi.

Uzluksiz ta'limi tizimining tashkiliy asosini belgilab beruvchi hujjat hisoblangan o'quv rejasida, ijtimoiy fanlar doirasida bilimlarnichuqur o'rgatilishiga alohida e'tibor berilgan.

Ijtimoiy fanlar majmuasini o'rganishdagi asosiy vazifalar sirasiga talabalar ma'naviy, axloqiy, siyosiy madaniyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kelajakdamilliyiqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun o'zlarining bevosita ishtirok etishlari, shaxsiy hissalarini qo'shishlari kabi tushunchalarni shakllantirish vazifasi ham kiradi. Talabalar o'quv dasturlariga kiritilgan maxsus mavzularni o'rganishi, ular ustida mustaqil ishlarni bajarishi tufayli mamlakatimizda olib borilayotganijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmunini va maqsadini, fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi ahamiyatini tushunib oladilar. Shuningdek, demokratik va huquqiy davlatning rivojlanish bosqichlari, fuqarolik jamiyati sharoitida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimizning mohiyati, davlatimizning yoshlar kamolotini ta'minlash uchun olib borayotgan izchil siyosati mazmunini anglaydi. Ushbu darslar samaradorligi, yoshlar demokratik islohotlar chuqurlashuvi sharoitda inson kamoloti, shaxsijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarining yechimi, yoshlar uchun yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy imkoniyatlardan to'liq foydalanishni anglab olishi bilan bog'liqdir.

Yoshlarda ijtimoiy psixologik bilimlarning rivojlanishi asosida tafakkurining kengayishi, ular shuurida ijtimoiylashuvga oid bilimlar majmuasining qaror topishi muhimdir. Ijtimoiylashuv - shaxsning jamiyat yaratgan bilim va normalarni o'rganishi hamdaxulq-atvorni o'zlashtirishi orqaliijtimoiymunosabatlardaqatnashishidir (Aliqulova M. M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va voyaga yetmagan yoshlar tarbiyasining ijtimoiylashish tendensiyalari. Raqamli iqtisodiyet: Muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand–2020. 32-34 betlar).

Shuningdek, yoshlar ijtimoylashish jarayonida real hayotdagi mavjud oila, mahalla, din, ta'lim va tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy muhit kuchli ta'sir etadi.

Bugungi kunda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, hali ongi to'la shakllanmagan yoshlarni

o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga umriga zomin bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: -Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu-hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas [7]. Ana shu fikrlardan shuni anglash mumkinki, bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, -ommaviy madaniyat degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yaqqol ayon bo‘layotgani his qilish va anglash qiyin emas.

Natijalar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar yuksalishlariga e’tibor berib qaraladigan bo‘lsa, ularning negizida yosh avlod tarbiyasi turganligini anglash qiyin emas. Chunki, Vatanimizning porloq kelajagi voyaga yetayotgan farzandlarimiz qo‘lida. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungizamontalablariasosida takomillashtirishni o‘zimizningbirinchidarajalivazifamizdebbilamiz. Yoshavlod tarbiyasi haqida gapirganda, AbduraufFitratbobomizningmanabufikrlariga har birimiz, ayniqsa endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: Xalqning aniq maqsadi sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq (Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 7 dekabr 2016 yil).

Yosh avlod tarbiyasida uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu jarayonda ijtimoiy fanlarga, jumladan, Ijtimoiy pedagogika faniga muhim o‘rin ajratilgan. Talabalar ijtimoiy tafakkurini shakllantirishda, ya’ni ijtimoiy fanlarni o‘qitishning samaradorligini ta’minlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ijodiy jarayon fan o‘qituvchilari faoliyatining asosiy qismini tashkil etishi darkor.

Muammoning yechimiga bunday munosabat ta’lim sifatini oshirish, uzluksiz ta’limdagi islohotlarning takomillashuvida har bir pedagogning shaxsiy mas’uliyatini ta’minlash masalasi bilan bog‘liqdir. Ushbu pedagogik faoliyat, o‘qituvchining darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi, bo‘lajak dars mavzusiga doir qo‘shimcha adabiyotlar bilan yaqindan tanish bo‘lish vazifasini ilgari suradi. Shuningdek, o‘qituvchi darsni tashkil qilishi, uning samaradorligini yuksaltirish uchun zamonaviy ta’limdan, so‘ngi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Haqiqatan ham hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashning asosiy omillar quyidagilar:

yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarash va zamonaviy chuqur bilimlarga ega intelektual avlod qilib tarbiyalash;

-ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;

-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va qaror toptirish;

-barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish;

Bugungi globallashayotgan dunyoda yoshlar ongiga va ma’naviyatiga salbiy ta’sir etayotgan ommaviy madaniyat unsurlarining milliy mafkuramizga suqulib kirishi va axborot texnologiyalari xatarlarining yoshlar ongiga tobora kuchayib borayotgani sababli dunyoda yuz berayotgan salbiy o‘zgarishlarni tanqidiy baholagan holda yoshlarning baxtli kelajakini ko‘zlab, yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha chora tadbirlarni qo‘llash muhim masaladir. Shu o‘rinda mamlakatimizda yoshlarning siyosiy– huquqiy madaniyati, ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, yosh avlodning ilm–fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlarini munosib baholash, bu sohadagi islohotlarni yuqori bosqichga ko‘tarish uchun zarur shart – sharoitlarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda - farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart! degan hayotiy da’vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan. Hozirgi vaqtda mamlakat aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Yoshlar millatning ertangi kuni, davlatimiz kelajagi, jamiyatimiz poydevori hisoblanadi. Agar qaysiki davlatda qonun ustuvor bo‘lib, adolat tamoyillariga rioya qilinsa, o‘sha millatning farzandi barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetib, xalqi uchun jon fido etishga tayyor yetuk farzand bo‘lib kamol topadi.

Agar millat parokandalik, va notinch urushlar ichida qolsa, bunday millatning farzandi barkamol shaxs bo‘lib yetishmaydi.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida, farzandlarimizning sog‘lom va barkamol bo‘lib o‘sishida, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda oilaning o‘rni beqiyos sanaladi. Oila davrasida tarbiyasi, dunyoqarashi, mafkurasi to‘g‘ri rivojlantirilgan bola kelajakda yot g‘oyalar va yovuz niyatli shaxslar ta’siriga tushmaydi, ahloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatuvchi – “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushmaydi. Shu ma’noda hozirda ro‘y berayotgan axborot xurujlarining asosiy qismi oilaviy rishtalarni uzish, xudbinlik va ma’naviy buzuqlik sari yetaklashi hech kimga sir emas. Shuning uchun farzandi kelajakda jamiyat uchun foydali inson bo‘lishini hohlagan ota-ona eng avvalo oilada o‘zlarining burch va vazifalarini bilmoqliklari va farzandning ota-ona oldidagi burchlarini unga tushuntirib to‘g‘ri tarbiyalab bormoqliklari zarur. Hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy muammolar, farzandning noqobil, jinoyatchilikka moyil bo‘lib o‘sishi, oilada ajrimlar va boshqa muammolarining tub ildizi eng avvalo ota-ona oilada o‘z vazifalari va burchlarini bilmasliklari oqibatida kelib chiqmoqda. Bu borada asrlar davomida ajdodlarimizdan yetarlicha meros qoldirilgan bo‘lib, ko‘pincha yosh oilalarda bularni bilmaslik, kerakli adabiyotlarni o‘qimaslik, keksa yoshli insonlar maslahatlariga amal qilmaslik oqibatida oilani mustahkam saqlash va oilada farzand tarbiyasi borasida muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bu bosqichlarni navbat bilan qisqacha ko‘rib chiqamiz.

1. *Oilada erkakning o‘rni*. Oila insonning dunyoviy saodatini ta’minlovchi qo‘rg‘ondir. Unda doimo tinchlik va totuvlik davom etishi

uchun er va xotin o‘zlarining vazifa va burchlarini to‘liq ado etib borishlari lozim. Erning xotini oldida ham ijtimoiy, ham moliyaviy burchlari mavjud bo‘lib, muqaddas hadisi sharifda Erning ayoli oldidagi vazifasi yeganida uni ham yedirishi, kiyinganida kiyintirmog‘i, yuziga urmaslik, qabih so‘zlar bilan haqorat qilmaslik, arazlashganda uydan chiqmagan holda faqat o‘rnini boshqa qilib yotmoqlik, deyilgan. Bu yerda qisqa jumlalar bilan oilada erning vazifalari bayon qilib berilmoqda. Bundan tashqari erkak kishining eng katta burchi o‘z qaramog‘idagilarning o‘zgalarga qaram bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Darhaqiqat, erkakning zimmasiga oilasining moddiy ta’minoti farzdir. Ming afsuslar bo‘lsinki, hozirgi kunda ba’zi bir oila boshliqlari ayni shu masalada o‘z vazifalarini unutib qo‘ymoqdalar, ba’zi erkaklar o‘z jufti halollariga ayollar sha’niga mos kelmaydigan yo‘llar bilan pul topib kelish uchun ko‘cha-kuyga chiqarib, hatto madikorlikga borishlikka majbur qilayotganligi sezilib qolmoqdi. Bu esa er o‘z vazifasini ado etolmaganidan bo‘lib, oqibatda oilani buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Muqaddas dinimiz ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan erkaklarni eng yaxshi insonlar qatoriga qo‘shadi. Bu haqda Rasulluloh sollallohu alayhi vassallam shunday marhamat qiladilar: “Sizlarning ichingizdagi eng yaxshingiz o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lganidir. Men esa o‘z ahlimga sizlardan ko‘ra yaxshiroq munosabatdaman” (Imom Termiziy rivoyati).

Erkak kishining o‘z oilasi moddiy ta’minotini qilishi, oilada o‘zning tutishi va oila a’zolariga bo‘lgan munosabatlari farzand tarbiyasida o‘z aksini topadi. Jinoyatchilikka moyil bolalar aksar ana shu tamoyillarga amal qilmayigan oilalardan chiqadi.

2. *Oilada ayolning o‘rni*. Ayol kishining oilada o‘z o‘rni va vazifalarini bilmasligi oqibatida hozirgi jamiyatimizda ko‘plab muammoalar kelib chiqmoqda. Muqqadas dinimiz va milliy qadriyatlarimizga nazar soladigan bo‘lsak, nikoh sababli bir-birlaridan foydalanishlari, ayol kishi har bir ishda eriga itoat qilmog‘i, oila davrasidagi muammolarni bamaslahat hal etishi, er va xotin bir-birlarining yaqin qarindoshlarini hurmat qilishi, oilaga keladigan daromadlarni tejamkorlik bilan sarflash, erining mol-mulkini ehtiyot qilishi, yashab turgan uyining ichki va tashqi ko‘rinishlarini ozoda saqlashi, farzandlari ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarishi lozim bo‘ladi. Bu aslo ayrim yot g‘oyalar va g‘ariz niyatli shaxslar ta’kidlayotganlaridek ayollar huquqini poymol qilinishi emas, balki erkak va ayolning oilada bahamjihat o‘z vazifalarini bajarib borishligidir. Albatta globalizatsiya davrida boshqa tuzum, jamiyat va g‘oyalar ta’siri ostida -ayollar erkinligini ta’kidlovchilar ko‘plab uchramoqda.

Lekin e’tibor berilsa bunday oilalar mustahkam emas, o‘zaro mehr-muhabbat rishtalari orqali bog‘lanmaganligi va buning oqibatida turli muammolar girdobida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Oilada ayniqsa farzand tarbiyasida ayolning – onaning roli beqiyos. Ma’lumki, 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar 70% axborotni oila davrasidan oladi. Tabiiy ravishda bola dastlabki davrda asosan onasi bilan birga bo‘ladi. Soliha onaarzandiga to‘g‘ri tarbiya berib, oila muqaddasligi, oilada otaning o‘rni, turli ijtimoiy odoblar kabi tarbiyaviy elementlarni berib boradi. Bunday onalar tarbiyalagan farzandlardan jamiyatga zararli, jinoyatchilikka moyil yoshlar yetishib chiqmaydi. Albatta kasallikni davolagandan oldini olgan ma’qul hisoblanadi.

3. *Oilada farzandning o‘rni.* Ota-ona oila muhitida o‘z vazifa va burchlarini qanday bilsalar, farzandning ham oiladagi burchlarini unga o‘rgatib qo‘yishliklari lozim bo‘ladi. Zero ota-onasini hurmat qilgan, ota-onaga itoatsizlik gunoh sanalishini bilgan farzand noqobil bo‘lmaydi, har bir ishda ota-onasi bilan maslahatlashadi va ularning hurmatini o‘z o‘rniga quyadi. Har bir inson uchun eng aziz va mo‘tabar, ulug‘ zot uning onasidir.

Shu ma’noda payg‘ambarimiz rosululloh solallohu alayhi vasallamdan “Yo rosululloh, eng avvalo kimga yaxshilik qilay” deb so‘ragan kishiga – “Onangga, onangga va yana onangga, so‘ng otangga yaxshilik qil” deya javob berdilar. Bu kabi hadislar va boshqa tarbiyaviy elementlar yoshligidan ongiga singdirib borilgan farzand albatta ota-onasiga doimo mehribon va g‘amxo‘r bo‘lib voyaga yetadi. Bu ota-ona va farzand orasida vujudga keladigan juda ko‘plab tushunmovchiliklar, janjallar va boshqa salbiy holatlarni oldini olishga sabab bo‘ladi. Ota-onaga itoat va hurmat borasida Qur’oni Karimda shunday deyiladi:-Robbingiz, Uning O‘zigagina ibodat etishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson) agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, larga -uf! dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt!

Afsuski, hozirgi kunda keksayib qolgan ota-onalarining holidan xabar olmaydigan bemehr, toshbag‘ir kishilar uchrab turibdi. Jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari ham ana shunday kishilar orasidan chiqmoqda. Ular tabarruk yoshga yetgan ota-onalarini qariyalar uyiga tashlab, o‘zlari rohatu-farog‘atda yashamoqchi bo‘ladilar. Bilmaydilarki, bu qilmishlari bilan ular bu dunyoda ham, oxiratda ham ayanchli ahvolga tushadilar. Ana shuning uchun ham ota-onaning eng muqaddas vazifalaridan biri farzandiga to‘g‘ri tarbiya berish, oiladagi ota-onani hurmat qilishga o‘rgatish va yuqoridagi kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan oyat, hadis va boshqa tarbiyaviy unsurlarni o‘rgatib borishlari lozim bo‘ladi.

Oila– jamiyatning negizi bo‘lgan dargohdir. Shuning uchun muqaddas dinimizda, milliy qadriyatlarimizda, urf-odtlarimizda oilani mustahkam saqlashga katta e’tibor beriladi. Oilani qanday tashkil etish, uning rahbari kim bo‘lishi, oila a’zolarining huquq va burchlari, farzandlar tarbiyasi, umuman oilaviy hayotning barcha masalalari atroflicha hal etilgandir. Biz esa bu unutilib borayotgan qadriyatlarimizni tiklashimiz, zamonaviy dunyoga moslashtirib tatbiq qilishimiz, oilaviy rishtalarning mustahkam bo‘lishiga e’tibor qaratishimiz lozim.

Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va ularni yetuk malakali mutaxassis qilib tayyorlash va bu jarayon uchun mas’ul bo‘lgan jamiyatning har bir tarkibiy qismi, ayniqsa oila va ta’lim muassasalaridan tinimsiz mehnat qilishni va fidoyi bo‘lishni talab qiladi. Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo‘lish huquqiga ega”ligi mustahkamlab qo‘yilgan. (Mirziyoyev Sh. 2017 yil 30 iyundagi mamlakatimizning faol yoshlari bilan uchrashuvidagi so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi)

Zero, dunyodagi bir qator rivojlangan mamlakatlarning Konstitutsiyalarida oilaga alohida normalar ajratilgan emas. Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir yosh timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Ta’lim va tarbiya uchun eng avvalo oila va ta’lim muassasalari mas’uldirlar.

Mamlakatimizda oilaning jamiyatdagi o‘rni va rolini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash, oilada sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhitni shakllantirishga, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya maskaniga kuchli e’tibor qaratilmoqda.

Namunali oila va yetuk malakali mutaxassis tayyorlash bevosita bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan, biri ikkinchisini nafaqat bugunini, balki u kelajakda qanday mazmun-mohiyatga ega bo‘lishini belgilab beruvchi, taqozo etuvchi makonlardir. Shuning uchun “Namunali oila – yetuk malakali mutaxassis tayyorlash garovi”, shu vaqtning o‘zida “Yetuk malakali mutaxassis – namunali oila garovi”, “Namunali oila va yetuk malakali mutaxassis – jinoyatchilikning barvaqt oldini olish garovi” dir desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Chunki yetuk malakali mutaxassis uchun zarur bo‘lgan fazilatlar, shu jumladan tug‘ma fazilatlar ham ilk bor ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar natijasida, namunali oila muhitida shakllanadi va rivojlanadi.

Shuning uchun ham oilaning ta’lim-tarbiya sohasi bilan amaliy hamkorligini yanada kuchaytirish hamda ta’lim tizimidagi muassasalar tomonidan oila institutini rivojlantirishga, uning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga, ayniqsa barkamol avlodni tarbiyalashda ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishga har tomonlama qodir bo‘lgan yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, Abdurauf Fitrat ta’kidlaganidek, “millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” (Abdurauf Fitrat. Oila. –T. , 1998. – B. 8).

Demak, farzandning ertangi bilimli, yetuk, obro‘li, farovon hayotining barpo bo‘lishida, bugungi kunda oilada aynan ota-onaning o‘zi ma’naviy-huquqiy savodxon tarbiyachi bo‘lishi talab etiladi. Shuning barobarida aytib o‘tish joizki, ular o‘z farzandlarini barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun jamiyat oldida javobgardir. Chunki, bolani dunyoga keltirishdan ko‘ra, uni jamiyatga nafi tegadigan, sog‘lom e’tiqodli, solih farzand qilib tarbiyalash mushkulroqdir. Buning uchun yoshlarni oilaga tayyorlash, oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarning barvaqt oldini olish bo‘yicha tizimni yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

Qoraqalpoq xalq pedagogikasida yoshlarni vatanparvarlikka tarbiyalash an’analari. Orazimbetov Yermekbay Keulimjayevich. Nukus-2022. 3-b

Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. : “O‘qituvchi”, 1992.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. A. Madvaliyev tahriri ostida. T. : “Fan”, 2006-2008.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 7 dekabr 2016 yil.

Aliqulova M. M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va voyaga yetmagan yoshlar tarbiyasining ijtimoiylashish tendensiyalari. Raqamli

iqtisodiyet: Muammolar, yechim, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand–2020. 32-34 betlar.

Mirziyoyev Sh. 2017 yil 30 iyundagi mamlakatimizning faol yoshlari bilan uchrashuvidagi so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL: http://www.lex. uz

Abdurauf Fitrat. Oila. –T. , 1998. – B. 8.

EXTENDED ABSTRACT

THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF PARENTS IN EDUCATING PATRIOTISM YOUNG GENERATION

In the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 (Yermekbay Keulimjaevich. Nukus-2022. 3-b) the principle "For human dignity" is highly recognized and its tasks cover all spheres of life. In particular, in the 70th goal of paragraph IV of the strategy entitled "Conducting a fair social policy, development of human capital", the issue of improving the state policy regarding youth (Yermekbay Keulimjaevich. Nukus-2022. 3-b) is defined as the main task of the agenda. In it, a special emphasis is placed on educating young people as individuals with strong beliefs and views on life, who can resist harmful influences and currents, in the spirit of patriotism, sense of citizenship, tolerance, respect for laws, national and universal values. it is given. This, in turn, requires the implementation of the content of education based on new requirements, the education of young people to be fully developed, healthy and patriotic based on the traditions of Karakalpak folk pedagogy, which has attracted the attention of the whole world community.

The role of the family is incomparable in the sustainable development of the society, in the healthy and mature growth of our children, and in the prevention of crimes and violations. A child whose education, worldview, and ideology are properly developed in the family circle will not be influenced by foreign ideas and malicious persons in the future, by the influence of "mass culture" that spreads the ideas of moral corruption and violence, individualism, egocentrism. does not fall. In this sense, it is no secret that the main part of the current information attacks leads to breaking of family ties, selfishness and moral corruption. Therefore, parents who want their child to become a useful person for the society in the future should first of all know their duties and responsibilities in the family and educate the child properly by explaining the duties to the parents. At present, the root cause of social problems in our society, child's growing up as incompetent, prone to crime, family discord and other problems, is first of all the fact that parents do not know their duties and responsibilities in the family. In this regard, enough heritage has been left from our ancestors for centuries, and often young families do not know this, do not read the necessary literature, do not follow the advice of elderly people, and cause problems in keeping the family strong and raising children in the family.

OILA VA TA'LIM MUASSASALARIDA GENDER MUNOSABATLARNI BARQARORLASHTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

PhD Bayjonov Furqat Baxramovich

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada oila va ta'lim muassasalarida erkak va ayollarni gender farqlari va o'xshashliklar ko'rsatib o'tilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga oila va ta'lim muassasalarida gender munosabatlarni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan. Yoshlarning kelajak hayot ya'ni oila qurishdan oldin zarur bilimlarga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Gender tenglikni ta'minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, o'zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash mazkur tamoyillarning mohiyati ochib berilgan.

Dunyoda yoshlarni tarbiyalash, ularning ijtimoiylashuvini barqaror rivojlanish muhitida ta'minlash bo'yicha xalqaro miqyosdailmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Farzandlarning asosiy ijtimoiy hayotida gender tenglik tushunchasini shakllantirish, xususan, yoshlar orasida gender madaniyatini rivojlantirishning etnik va ontogenez jihatlarini targ'ib qiluvchi ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Oilada farzandlarning dunyoqarashi, uni shaxs sifatida kamolga yetkazishda oilada gender madaniyatga xos stereotip va gender mutanosiblik to'g'ri tushunish bo'yicha ilmiy izlanishlarningahamiyati ortmoqda. Jamiyatda genderga oid munosabatlarni to'g'ri baholash, uning asl muddaosini ochib berish, yoshlarning kasb tanlash hamda oila qurish maqsadlarini to'g'ri shakllantirish asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va gender tenglikning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan. "O'zbekiston Respublikasida erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va maqsadli islohotlarni amalga oshirish"

kabi ustuvor vazifalar doirasida gender diskriminatsiyasini keng ommaga tarqatishni istisno qiladigan kitob va darsliklarni yaratish, davlat dasturlarida tenglik muammolariga mo‘ljallangan xorijiy tajribalar, kurslar, o‘quv-uslubiy ta’minotdanfoydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning madaniyati sifatlarini shakllantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy muhitni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish omillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda didaktik talablarini aniqlashtirishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: gender, gender madaniyat, stereotip, huquq, gender farqlar, shaxs.

SOCIAL-PEDAGOGICAL ASPECTS OF STABILIZATION OF GENDER RELATIONS IN THE FAMILY AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS

PhD Bayjonov Furqat Bakhramovich

Annotation

This scientific article shows gender differences and similarities between men and women in family and educational institutions. This, in turn, helps ensure the effectiveness of the educational process. At the same time, attention is focused on stabilizing gender relations in the family and educational institutions. It was emphasized that young people should have the necessary knowledge before starting a family. The principles of legality, democracy, openness and transparency, equal rights of women and men, non-discrimination on the basis of gender, and mutual understanding play an important role in ensuring gender equality. The essence of these principles to ensure the equality of women and men, regardless of race, nationality, language, religion, social origin, faith, personal and social status, has been revealed.

In the world, there is international scientific research on the education of young people, ensuring their socialization in a sustainable development environment. The formation of the concept of gender equality in the main social life of children is carried out, in particular, scientific research promoting ethnic and ontogenesis aspects of the development of gender culture among young people. The importance of scientific research on the correct understanding of gender culture-specific stereotypes and gender proportionality in the family is growing in the worldview of children in the family, its maturation as a person. The main task remains to correctly assess gender relations in society, reveal its original provision, correctly formulate the goals of choosing a profession for young people and building a family.

In our republic, the legal and regulatory framework for strengthening the institution of the family, preparing young people for family life and gender equality has been created. In the framework of such priorities as" setting the main directions of state policy on ensuring equal rights and opportunities for men and women in the Republic of Uzbekistan and

implementing targeted reforms", the creation of books and textbooks that exclude the spread of gender discrimination to the general public, the use of foreign experiments, courses, educational and methodological support aimed at the problems of equality in It requires clarification of factors, pedagogical conditions and didactic requirements for the development of the spiritual and educational environment on the basis of national values in order to form the qualities of the culture of young people.

Key words. gender, gender culture, stereotype, rights, gender differences, person.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o'lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta'limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta'limga mazkur sifat tavsifi berilgan.

Berlin kommyunikesida (2003 y.) milliy va Yevropa darajalarida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va gender tengsizlikni qisqartirish maqsadida ta'lim raqobatbardoshligini Bugungi kunda Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Jahonda oilalardagi ijtimoiy-pedagogik muhitni yaxshilash, oilalarni faravonlik darajasini oshirishda gender madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Oilada, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalari hamda tashkilotlarda gender madaniyatini shakllantirish, uning ustuvor yo'nalishlarini ommalashtirishga doir islohotlar, innovatsion hamda xalqaro tajribalar almashilmoqda. Turli millat oilalarida gender xususiyatlar, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlar va erkaklarning tengligi haqida keng ma'lumot ulashadigan mediamakon tizimi yaratilgan.

Jinslararo tenglikka erishish, ta’lim va ijtimoiy institutlarning faoliyatidagi o‘zaro aloqadorlik gender madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish hamda mazkur yo‘nalishda media muhitni yaratish hamda pedagoglarning individual innovatsion faoliyatini shakllantirishga mo‘ljallangan mexanizmni yaratish dolzablashmoqda. Yevropa Ittifoqining gender tengligi strategiyasi fon der Leyen komissiyasining Tenglik ittifoqiga erishish majburiyatini ta'minlaydi.

Gender tengligi nafaqat ayollar va erkaklarning roli, vazifalari va ehtiyojlari, balki ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bilan hamohangdir.

Gender tengligi bu ayollar va erkaklar uchun adolatli bo‘lish jarayonidir. Gender tengligi ayollar va erkaklar tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy va ma’naviy resurslar, imkoniyatlar, shart-sharoitlar, qobiliyat va salohiyatdan bir xil foydalanishni talab qiladi. Bu borada jinslar o‘rtasidagi tengsizlik mavjud bo‘lgan taqdirda, odatda ayollar manfaatlari cheklanadi. Shu bois, gender tengligini ta’minlashning muhim xususiyati – bu kuchlarning mutanosibligini ta’minlash, ya’ni, erkaklarga ham ayollarga ham o‘z hayotlarini boshqarish, qobiliyat va salohiyatlarini namoyon etishimkoniyatlarini kengaytirishda shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

METODOLOGIYA

Gender tengligi erkaklar va ayollarning jinsiy jihatdan bir xil vakolatli bo‘lishini anglatmaydi. Erkaklar va ayollarning biologik jinsiy rollari mavjud bo‘lib, bu jarayonda tengsizlik bo‘lishi tabiiy holdir. Ushbu biologik tengsizlik ayollarning o‘z salohiyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to‘liq safarbar qilishlari, har ikkala jins uchun beriladigan imkoniyatlargasalbiy ta’sir etmasligi lozim.

Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon ayollarning aqliy salohiyati va qobiliyatresurslari, imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanib kelinmagan. Ular jamiyatda faol bo‘lishda, o‘z taqdirini o‘zi belgilashda kam vakolatga ega bo‘lganlar. Albatta bunday tengsizlik har bir oilaning mustahkamligi, jamiyatning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladi. Agar ayollarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ishga solish taqiqlansa, bu har bir oilaning, jamiyatning taraqqiyotini ellik foyizga cheklash demakdir. Bu esa oilani ham jamiyatni ham tanazzulga olib kelishi tabiiydir. Shu bois, erkaklar va ayollarning salohiyatlari, imkoniyatlaridan oilani va jamiyatni taraqqiy ettirishda teng foydalanish, ular uchun bir xil shart-sharoit yaratish gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Takomillashtirilgan dasturlarda o‘g‘il va qiz bolalar tengligi, o‘quv materiallarining gender tenglik va farqlar asosida belgilab berilishi

muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'lim jarayoni yangi o'quv vositalari – metodik materiallar va didaktik ishlanmalar yaratishni talab qiladi. O'z navbatida, o'quv-metodik materiallar, nazorat vositalari bilan bog'liq ravishda tanlanishi lozim. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda bo'lgani singari ta'lim-tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda ta'lim jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki ta'lim jarayonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy munosabatlar qaror topadi" (Tojiboyeva X. M. 2021).

O'zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlar O. Musurmonova, N. Egamberdiyeva, R. Samarov, U. Temirovalar tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari gender yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta'limda gender yondashuv masalalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq

etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligini va ularning sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to‘g‘risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o‘rtasidagi gender munosabatlaridagi o‘zgarish bo‘lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko‘rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv esa – ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o‘qitish metodlari, o‘quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta'lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko‘zda tutadi.

Ta'lim ijtimoiy munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim o‘g‘il va qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayol va erkaklarga davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xayotida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda demokratik davlatning rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi.

Ta'lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta'limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender paritetini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma'lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta'limdagi gender tenglik ta'minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta'limda gender tengligini ta'minlash – bu gender prioritetni ta'minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va jamiyatning ayol va erkaklar uchuno‘z salohiyat va imkoniyatlarini namoyon etishlarida bir xil shart-sharoit, bir xil imkoniyatlaryaratib berishigender tenglikni ta'minlashda muhim poydevor hisoblanadi.

S. D. Matyushkova (S. D. Matyushkova, 2008)o‘z chiqishlarida gender masalalariga doir quyidagicha yo‘nalishlarni tavsiya qiladi:

– ma’lum jamoalar xatti-harakatlarini jinsi, yoshi, yashash joyi (qishloq / shahar) va boshqalar bo‘yicha o‘rganadigan gender sotsiologiyasi;

– inson huquqlari, jinsi, yoshi, etnik yoki diniy mansubligi, e’tiqodi, yashash joyi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi, genderga asoslangan zo‘ravonlikning hamma ko‘rinishlarini (jinsiy, ruhiy, iqtisodiy va h. k.) birlashtirgan ayollarga nisbatan zo‘ravonlik;

– ayollar va erkaklar uchun reproduktiv salomatlik va reproduktiv xulq-atvorni erkin tanlash huquqi masalalarini hal qiladigan oilani rejalashtirish va reproduktiv huquqlar;

– ayollarning oila rivojiga qo‘shgan mehnat hissasini e’tirof etish, shuningdek, bolalarni tarbiyalashda erkaklar ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmlarini topish uchun zarur bo‘lgan pullik va to‘lanmaydigan ishlarni erkaklar va ayollar o‘rtasida taqsimlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan ish bilan ta’minlash; oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish va hk. ;

– ta’lim, aholini qamrab olish darajasi, jinsga qarab, aholi uchun ta’lim darajasining sabablari va oqibatlari;

– gender stereotiplarini yo‘q qilish, ayol va erkaklar jinsiga qarab kamsitilmasdan tasvirlashning axloqiy me’yorlarini ishlab chiqish uchun juda muhim bo‘lgan ommaviy axborot vositalari tarmog‘ida gender tadqiqotlari;

– muayyan tarixiy eralarda va har xil o‘lkalarda ayol va erkaklar mavqeining farqini aniqlashga imkon beradigan, gender sezgirligini kuchaytirish uchun adabiyot va san’atdan ma’naviy-axloqiy ta’sir vositasi sifatida foydalanish;

– gender natijalari bilan hisoblashgan holda jami ko‘rsatkichlarni namoyon etuvchi gender statistikasi, bu umumiy yutuqlarni emas, balki milliy tovarlarni va xizmatlarni jamoat a’zolari o‘rtasida taqsimlashda haqiqatning darajasini ko‘rsatadi.

– gender analizi, aholi talablarini aniqlash, yechimlarni topish va monitoring faoliyati. Bu yerda ayollarning ham, erkaklarning ham fikri bir xil darajada e’tiborga olinadi (S. D. Matyushkova, 2012).

Jinslararo gender tenglikni ta’minlashning asosiy jihatlari mavjud bo‘lib, ularni qo‘yidagicha tasnif etish mumkin:

– ota-onalarning dunyoga kelishni kutayotgan farzandlariga nisbatan bir xil munosabatda bo‘lish. Ba’zan oilalarda o‘g‘il farzand kutilayotgan bo‘lsa uni sog‘lom dunyoga kelishi uchun barcha shart-sharoit yaratiladi,

olam-olam orzu-istaklar bilan bayramona kutiladi. O‘g‘ilni dunyoga keltirgan onaga nisbatan ham alohida e’tibor beriladi. Agar qiz bola bo‘lsa uning aksi bo‘lishi mumkin. Gender tinglikda har ikkala jinsning dunyoga kelishiga nisbatan bir xil munosabat bo‘lishi lozim.

– dunyoga kelgan o‘g‘il yoki qiz tarbiyasiga jinslarga xos strategik munosabat. Farzand dunyoga kelgach jinsiga qarab tarbiyalanib boradi. Qizlarni bo‘lajak ona bo‘lish, erini va uning oilasini hurmatqilish, bolalariga va oilasiga hayotini bag‘ishlash, ro‘zg‘or yumushlarini bajarish rollariga tayyorlaydilar. Qizlarning o‘z-o‘zini namoyon etish holatlari o‘g‘il bolalarga qaraganda ko‘proq darajada cheklabqo‘yiladi. Ayollarning hulq-atvori to‘g‘risidagi bilimlarni qizlar odatda onalaridan oladilar. Oilaning har qanday a’zosi mavjud qoidalarni o‘zgartirishga harakat qilsa, bu narsa tushunmovchiliklarga va noxushliklar, engyomonioilaning boshqaa’zolari tomonidan nizolarga olibkelishi mumkin.

– har ikkala jins farzandlar rivojlanishi uchun bir xil sharoit va imkoniyat yaratish;

– ta’lim olish, mehnat taqsimoti, kasb egallash, dam olish, oilaviy munosabatlarda qaror qabul qilishda teng imkoniyatlar berish;

– reproduktiv va jinsiy sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda bir xil yondoshish. Bu ularga o‘zlarining reproduktiv va jinsiy sog‘lig‘ini saqlash uchun qarorlar qabul qilish va choralar ko‘rishga imkon beradi.

– ayol va erkakning yutuqlari, orzu-istaklarini yagona maqsad sari birlashtirish.

Insoniyatning rivojlanish tarixi shundan dalolat beradiki, erkakda ham ayolda ham o‘zi ishongan aqidalarga rioya qilish xususiyati kuchli bo‘ladi. Ayollarga bo‘lgan munosabat esa inson huquqlarining bir bo‘lagi sifatida turli mintaqalarda, turli tuzumlarda, milliy madaniyatda, turli diniy ta’limotlarda va urf-odatlarda turlicha ya’ni, ba’zan bir-biriga zid, ba’zan esa juda o‘xshash ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi (Bayjonov, F. 2021).

Shuning uchun gender tenglikning ta’minlanishi har bir davlatning, millatning urf-odatlari, diniy qarashlari va aqidalarga ham bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, ayol huquqlari insonlarning ijtimoiy hayoti, jamiyatdagi munosabatlar, shaxsning hayot tarzi bilan bog‘liq muammo bo‘lib, har bir jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat insonlarning o‘zaro munosabatlari, xulq atvorlari, urf-odatlari, diniy aqidalari, mustahkam o‘rnashib qolgan qarashlari va ma’naviyati bilan belgilanadi (Bayjonov, F. 2021).

L. P. Shustova, E. Kagan, A. V. Mudrik, S. P. Rikov, L. I. Stolyarchuk, J. B. Shtileva va boshqalarning asarlarida shaxsning gender umumiyligiga jihatidan diqqatga sazovori ta'limdagi gender yondashuvlarini rivojlantirish muammosi, degan yakunga kelishdi, uning maqsadi shaxsga nisbatan an'anaviy cheklovlarni yo‘q qilish, jinsga qarab rivojlanish, maksimal darajada o‘zini anglash va qobiliyatlarini ochib berish uchun sharoit yaratishdir.

Zamonaviy ijtimoiy fan gender (jins) va jins tushunchalarini ajratib turadi (inglizcha gender, lotincha "jins", "tur", "sinf"). Gender tushunchasi odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlarini belgilashda ishlatiladi, shu asosda inson erkak yoki ayol deb ta'riflanadi. Ikkinchi konsepsiya – genderga asoslangan madaniy komponent.

Inglizcha "gender" so‘zi ijtimoiy jinsni, jamiyat va oiladagi ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarni bildiradi (Bayjonov, F. 2023).

Yana bir masala shuki, D. N. Isayev va V. E. Kagan, xususan: "O‘g‘il bolalarga bo‘lg‘usi erkak sifatida qo‘yiladigan talablar qizlarning kelgusidagi ona/ayolligiga ko‘ra murakkabroq va gender sotsializatsiya chog‘ida o‘g‘il bolalar ko‘pincha ekologik bosimni boshdan kechirishadi". V. E. Kagan buni rivojlanish va tarbiyaning gender-rol xususiyatlari bilan bog‘laydi, "chunki "qizlarga nisbatan "o‘qish lozim" degan bosim kamroq, kattalar ularning axloqi va olgan baholari xususiyatlarini qabul qilish doirasi kengroq; noto‘g‘ri tuzatishning subyektiv komponenti va uning xulq-atvori namoyon bo‘lishi odatda o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda ancha samimiy bo‘lib, boshqa faoliyat turlari va qiymat yo‘nalishlarini hisobga olgan holda osonroq amalga oshiriladi; ayollar – ko‘pincha yoki yanada tez-tez – o‘qituvchilar jamoasi qizlar uchun o‘g‘il bolalarga qaraganda yaxshi sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy gender (jins) butun hayoti davomida tarbiyalanadi, shu davrda odam o‘zini erkak yoki ayol sifatida tavsiflovchi xulq-atvor me'yorlarini egallaydi. Bu xulq-atvor xususiyatlari yoki gender rollari erkaklar va ayollarga tarbiya, kiyim-kechak, xarakter, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish bo‘yicha tavsiya, turli psixologik fazilatlarni shakllantirish, turli yo‘nalishlarda ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali singdiriladi.

Ma'lumki, jamiyatdagi o‘g‘il va qiz bolalar uchun ta'lim tizimi anchayin farq qiladi. Qizlarni onalari va buvilari tarbiyalaydilar, erta uy ishlariga jalb qiladilar, itoatkorlikka, bo‘ysunuvchanlikka, kattalar va erkaklarga qarshi bormaslikka o‘rgatadilar. Shunday qilib, erta bolalikdan qizlar itoatkorlik ruhida tarbiyalanadi va o‘z fikrlarini bildirish huquqlari birmuncha cheklangan bo‘ladi (Norkulov. H, 2023).

O‘g‘il bolalar qattiqqo‘llik bilan tarbiyalanadilar, aslida ular ota-onalarining hayotini kuzatib, o‘z oilalarida mavjud bo‘lgan urf-odat va turmush tarziga ko‘ra boshliq, boquvchi va hakam rolida o‘zlarini oilaviy hayotga tayyorlab, o‘sib, o‘rganadilar.

O‘zaro munosabatlar madaniyatining mazmuniy tarkibiy qismiga xulq-atvor o‘lchovlari bilan qiyoslaganda o‘zlashtirilgan qadriyatlarni ma’nan qayta ishlash kiradi. O‘quvchi qiz va o‘g‘il bolalarni baholash me’yorlari va mezonlari vositasida gender madaniyatini nazarda tutib muomala madaniyati yetiladi. Mazmuniy tarkibiy qism baholash vazifasini o‘taydi, bu bolaning o‘zini tutish o‘lchovlariga, o‘zi va o‘zgalarga ichki munosabatini ko‘rsatishga tayyorligini belgilaydi, bu tevarakdagi hodisalarga yetarlicha javob berishga, tashqi alomatlarni taqqoslashga yordam beradi. Bu esa o‘z g‘oyalari va uni hal qilish imkoniyatlariga daxldor holatlarda yuzaga chiqadi.

O‘zaro muomala nafosatini tartibga soluvchi tarkibiy qism jamiyatdagi axloq me’yorlari bilan o‘z faoliyatini boshqalarga nisbatan o‘lchash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan.

NATIJALAR.

O‘rnatilgan stereotiplar natijasida gender bo‘yicha mehnat taqsimoti paydo bo‘ladi: erkaklar obro‘li va yuqori maoshli lavozimlarni egallaydilar, ayollar esa uy ishlarini bajaradilar yoki kam haq to‘lanadigan ishlarda ishlashadi. Jamiyat “ayollar kasbi” yoki ishi bilan shug‘ullanadigan (bolalarni tarbiyalash, uyda farovonlik yaratish va boshqalar) erkaklarga yomon munosabatda bo‘ladi. Nega? Chunki erkak o‘z hayotining asosiy maqsadi ish va martaba, ayollarning namoyon bo‘lish doirasi esa uy va oila, ya’ni xulq-atvor me’yorlari, gender mafkurasi tomonidan belgilangan gender rollari mavjud bo‘lib, mavjud taqsimotni oqlaydi.

Gender deganda nafaqat ayollar yoki erkaklar, balki ular o‘rtasidagi munosabatlar, ushbu munosabatlarning ijtimoiy-madaniy shakllanish uslubi tushuniladi. “Gender” - bu o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga olgan tushuncha bo‘lgani uchun, mazkur atama ham ayollarga, ham erkaklarga tegishli bo‘lishi kerak. Erkak va ayollar o‘z jamiyatlarining madaniy mahsulotidir, chunki ularning ma’lum bir jinsga mansubligi bilan butun hayoti davomida tarbiyalanadi. Ushbu rollar vaqt o‘tishi bilan jamiyatning madaniy va ijtimoiy sharoitlariga qarab o‘zgarib turadi (Bayjonov, F. B. , 2021).

O‘qituvchining vazifasi – bu fikrlarning nisbiyligiga, biologik xususiyatlarning o‘zgarmasligiga va tug‘ish tabiat tomonidan berilganligiga, gender xususiyatlari esa jamiyatda qabul qilingan tarbiya va odatlar, stereotiplar natijasida paydo bo‘lishiga qaratishdir. O‘qituvchi “Biz erkak va ayol haqida gapirganda biologik jinsni nazarda tutamiz”, deb tushuntiradi. Ammo “ayol” va “erkak” genderi haqida gapirganda, biz ijtimoiy xususiyatlarni nazarda tutamiz.

XULOSA:

Zamonaviy pedagogik hamkorlik sharoitida ancha uzoq yillarda qolgan gender qoliplarini buzish fursati yetdi. Ijtimoiy mavqe va maqomni aniqlash uchun talabalarning jinsi emas, balki ularning serharakatligi, tezkorligi, iqtidori, ijodkorligi, kengfikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

Mazkur maqolada oilada va ta’lim muassasalari gender madaniyatni takomillashtirish, harakatlarning yetakchi chizig‘i androgin xususiyatlarini majburlash va o‘qitish davrida o‘zgarmas gender-rol andozalarini yengillatishga yo‘naltirilgan modelni ko‘zda tutadi. Ta’lim muassasalari talabalarining jinsiy roli faoliyati bir yoki boshqa jinsga xos bo‘lishi uchun modellashtirilishi kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joizki, balog‘at yoshidagi o‘g‘il va qizlarni kelajakdagi turmushga tayyorlab, oilaviy hayotni boshlash davri yaqinlashganda, har ikki jins vakillari mashaqqatlar bilan yuzlashadilar, buning oqibatida, genderni anglatuvchi vakolatli pedagoglar soni ortadi. Va nihoyat, ta’lim muassasasi talabasi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qoliplarni bartaraf etish va shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining ijtimoiy maqbul modellarini shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug‘iladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

С. Д. Матюшкова. (2008). Основы гендерной культуры (150th ed.). Программа спецкурса для старшеклассников. Минск.

С. Д. Матюшкова. (2012). *Педагогические условия формирования гендерной культуры учащихся старших классов* (167th ed.). Монография. Витебск.

B. Namazov, N. Egamberdiyeva, M. Mirsoliyeva. (2018) O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.

Эгамбердиева, Н. , Камилова, Р. , Атаниязова, Р. , Исакова, Л. , Усманова, М. , Исломов, А. (2021). Гигиенические аспекты формирования устойчивой социальной среды в семье. https://doi. org/10. 17513/np. 492.

Jamoldinova, O. (2022). Ta'lim tizimida gender yondashuv tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O'zbek ILMIY-METODIK JURNAL, 1, 15-22. https://doi. org/10. 18411/doicode-2022. 055.

Norkulov, H. (2023). O'smirlarni oilaga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari. Foreign Languages in Uzbekistan, 133-142. https://doi. org/10. 36078/1683277776.

Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, *9*(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

Тожибоева Х. М. (2021) Гендерёндашувасосидаўсмирёшдагиўқувчиларда "оммавиймаданият" гақаршииммунитетнишакллантириш//Муғаллимҳэм узлуксиз билимлендириу. -Нукус, 2021. –5/2-сон. –Б. 46-50 https://scientists. uz/uploads/202207/B-323%20. pdf.

Ongarov M. B. , The System Of Training And Development Of Field Practice In Biology. The American journal of social science and education innovations- USA: 2021. - Vol. 3, Issue 03. - P. 171-177.

file:///C:/Users/USER/Downloads/171-177. . . . SSEI. . . . P. . . . The+System+Of+Training+And+Development+Of+Field+Practice+In. pdf.

Ongarov M. B. , Профессионально-методическая подготовка студентов к учебной практике Наука и образование сегодня. – Россия, 2021. - №2. – С. 75-76. *https://cyberleninka. ru/article/n/professionalno-metodicheskaya-podgotovka-studentov-k-uchebnoy-praktike/viewer*.

Ongarov M. B. , Methodological conditions for the organization of fiyeld practice through information technology. Commonwealth Journal of Academic Research (CJAR. EU) 2021. - Vol. 2, Issue 6. - P. 14-19. *https://www. cjar. eu/2021/06/16/methodological-conditions-for-the-organization-of-field-practice-through-information-technology-2/.*

Ongarov M. B. , Integrative Effektivnes of the Organization of field Practice of Students oh the Faculty Natural Science. (Biology, Geography) As An Example of Education 2022 ISSN: 1856-4194 31, 12, 2022. *https://www. provinciajournal. com/index. php/telematique/article/view/1097.*

M Raimdjanov. (2021). COOPERATION BETWEEN SCHOOL, FAMILY AND COMMUNITY ON VOCATIONAL TRAINING OF STUDENTS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PROBLEM Conferencious Online, 28-30 https://cyberleninka. ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer.

M Raimdjanov. (2021). FORMATION OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN FUTURE TEACHERS Scientific progress 2 (4), 988-991 https://cyberleninka. ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer.

EXTENDED ABSTRACT

SOCIAL-PEDAGOGICAL ASPECTS OF STABILIZATION OF GENDER RELATIONS IN THE FAMILY AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Today, as indicators of the quality of education the elements of the gender approach in education, the introduction of increasingly ommaviylashmoqda. Ijtimoiylashuv providing gender equality in education, and the process is the delivery of norms and concepts, including the use of quality education gender equality means equal to.

Gender equality in society, aimed at ensuring quality education of future teachers in the preparation of the training program in the academic

literature, in the process of education, students and teachers in the relationships between the exposure and the solution to the issues of gender inequality is directed. In the social dimension of the bologna process (Social Dimension) of european higher education (european high increasing the area of the important factors to increase the competitiveness and attractiveness of the quality of education given us a description.

Kommyunikesida Berlin (2003.) gender inequality at national and european level in order to reduce social solidarity and social education and the strengthening of the competitiveness of today, today, the elements of the gender approach in education as indicators of the quality of education, the introduction of increasingly ommaviylashmoqda. Ijtimoiylashuv providing gender equality in education, and the process is the delivery of norms and concepts, including the use of quality education gender equality means equal to.

A gender approach in education institutions in the republic of uzbekistan on the basis of continuous improve the quality of teaching, the development of social activity of women, has conducted research in areas such as gender issues in professional education. Scientists, teachers Musurmonova O. N. Egamberdiyeva, R. Samarov, U. temirova social activity of women, gender issues through the analysis approach, pedagogical approach studied the issues of gender in education. In the opinion of scientists, teachers in the preparation of the gender aspect of the implementation process and the development of the principle, which is the ultimate result of them lead to the main stage. Teachers who understand the young generation aware of the problem of gender aspects and gender conscious thinking and act to create a feel during takes. So education teachers in the implementation of the gender equality act from the beginning, from the stage in the preparation of his profession, until the phase to continuous improvement, all activities should cover. Therefore, the professional knowledge and skills of students in higher education institutions, besides them important life skills, including analytical and critical thinking abilities to solve problems, configure, shaxslararo develop communication skills, as well as to work independently and in collaboration to teach kompetentlik gender formation is very important. To do this, the higher education system into the implementation of the gender approach is needed to develop effective mechanisms and its management.

Social gender (sex) were trained during the entire life of the same period in people's self-descriptive as male or female is one of the norms of conduct. Properties or the conduct of gender roles to men and women

of this education, clothing, character, I recommend you deal with certain activities on different psychological qualities of the formation, through the development of integrated skills in the various areas.

Boys were trained with harshness, they actually track of the life of the parents, their family, which are available in according to the head of customs and lifestyles, family life themselves in the role of keeper and referee prepared to grow and learn.

Culture includes values with the manners of processing the components utilized measurements qiyoslaganda mazmuniy relationship spiritually. Reader gender norms and criteria of the evaluation of girls and boys are treated by means of culture refers to the culture of reaching. Mazmuniy the evaluation function of the components of this measure to keep the child's self, and our own internal attitude determines that the neighbor is ready to show this in tevarak enough to answer to the phenomenon, comparing the external symptoms will help you. To fix it reflect your own ideas and this is the real opportunities in the cases are affected.

Components of ethical norms regulating their activities in the intricacies of dealing with mutual society aimed to determine ability to measure than others.

As a result of stereotypes installed, it will appear the division of labor by gender: men are authoritative and high paying positions they take the house, while women perform the work or less the fee shall be paid work is used. Society “professional women” or dealing with the work of (children nurturing the comfort of your home to create and others), bad men is in a relationship. Why? The main purpose of work, because the man his life and career, while being within the home and family show to the women, that is, norms of conduct, prescribed by a gender ideology, gender role, if there is available justifies the distribution.

Gender is not only about women or men, but the relationship between them, the social and cultural formation of the style of this relationship is understood. “Gender” - for containing the understanding of this relationship, this term also women, men should also be relevant to. Men and women is a product of the culture of their society, since they were trained during the whole life of belonging to a certain sex. This role varies depending on the cultural and social conditions of the community, with the passage of time.

The task of the teacher – this idea biological properties that does not change given by nature and birth, gender, and received education in

society while features habits, stereotypes appear as a result of fees to be paid to provide. The teacher, "we are talking about men and women we are referring to biological sex, " explains that. But "female" and "male" talking about gender, we are we are referring to the social features. To them, gender is called.

Cooperation in the context of modern educational break the mold of gender in the remaining years will reach a much longer period. Not the sex of the student to determine the status and social position, but their serharakat ministry of quick, talents, creativity, and kengfikrliligi, mulohazakor ministry of the risk of general and specific qualities tamal should perform a particular function.

Education institutions in improving the culture of gender and the family in this article, the properties and change the line of action during the training period leading androgin to enforce gender-role directed to the aggregate of the template for the model is provided. Role of students in educational institutions of the sexual activity to be specific to one or the other sex should be modeling.

Conclusion it is noteworthy to say that make policy, boys and girls of puberty age are prepared to be married in the future, family life when he came near the start of the period, representatives of both sexes troubles they confront, in its effects, will increase the number of competent teachers who mean gender. And finally, which hinder the successful development of the personality of the educational institution, students eliminate the mold and personal interests, social needs on the basis of the form of the development of acceptable social model of his conduct which cover the use of a gender approach is born out of necessity.

OILAVIY QADRIYATLARNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O‘RNI VA ROLI

Raxmonova Zarifa Ne’matovna

Annotatsiya

Oiladagi barcha qadriyatlar, an’analar, ota-onalarning o‘zaro hamda ularning farzandlari orasidagi muomala maromlari, barcha xatti-harakatlar uning har bir a’zosi ongiga va xulq me’yorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirlar eng avvalo, individning ijtimoiy tasavvurlarida, bilimlari va baholash tizimida, oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabatlarida, e’tiqodi va ishonchida o‘z aksini topadi. Oilaviy turmush va uning qadriyatlari nikoh va oila munosabatlari to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar hamda ijtimoiy ustanovkalar ham aynan ota-onaning mavjudligi va ularning tarbiyaviy ta’siri tufayli ro‘y beradi.

Mazkur maqolada oilaning jamiyat xayotida tutgan o‘rni va roli, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlash, o‘z qadriyat yo‘nalishlari, oila a’zolarining xulq atvorlari, oila va jamiyat hayotida ijtimoiy tasavvurlar, ijtimoiy munosabat, ustanovkalar, oilada soglom muxit va soglom dunyokarashni, sub’ektiv munosabatlarnishakllantirish, ta’lim-tarbiya, yosh avlodni jamiyat-davlat xamda oilaga munosib barkamol inson qilib tarbiyalash kabi masalalar urin olgan.

Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an’analari orqali yoshlarda oilaga nisbatan tug‘ri munosabatni shakllantirishda uning ta’sir yo‘nalishlarini belgilab olish kerak. “Bu ish asosan har bir o‘zbek oilasidagi tarbiya an’analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo‘lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining Sharqona ko‘rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg‘unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishish orqali amalga oshirish mumkin”.

Kalit so‘zlar: nikoh, oila, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyat, xulq-atvor, e’tiqod, ustanovka, ijtimoiy muhit, ijtimoiy tasavvur, ijtimoiylashuv, ong, bolalik, tarbiya, barkamol inson, islohot, sog‘lom muhit, sog‘lom dunyoqarash, ijtimoiy tasavvur, sub’ektiv munosabat.

The role of the family values in personal development

Annotation

All the values, traditions, parental interactions between parents and their children, all the behaviors in the family affect the consciousness and norms of behavior of each of its members. These influences are primarily reflected in the individual's social perceptions, knowledge and evaluation system, attitudes toward family values, beliefs and trust. Family life and its values The first ideas about marriage and family relations, as well as social attitudes, also occur precisely because of the presence of parents and their educational influence.

In this article, the place and role of the family in the life of the society, preparation for family life of young people who are starting an independent life, their values, the behavior of family members, social ideas in the life of the family and society, social attitudes, attitudes, a healthy environment in the family and a healthy worldview, subjective issues such as formation of relations, education and upbringing of the young generation as mature human beings suitable for society, the state and the family have taken place.

It is necessary to determine the directions of influence of the family in forming the right attitude towards the family in young people through its sacred traditions that have been preserved for centuries. "This work is mainly about the traditions of upbringing in every Uzbek family and their improvement, turning national values into an integral part of the lifestyle, harmonizing modern forms of communication culture with Eastern aspects, labor education, and its importance for children's happy marriage. can be realized by achieving appreciation as a principle".

Key words: marriage, family, family relations, family value, behavior, belief, attitude, social environment, social imagination, socialization, consciousness, childhood, upbringing, mature person, reform, healthy environment, healthy outlook, social imagination, subjective attitude

Kirish

Oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa, xalqimiz ma'naviy merosining avloddan avlodga o'tishini ta'minlavchi omildir. Shu tufayli oilani qo'llab-quvvatlash masalasi davlatmizning doimiy diqqat e'tiborida turibdi.

Oila inson uchun mukaddas va ulug' dargoxdir. Inson anashu dargoxda tug'iladi, o'sadi, unadi, voyaga yetadi. Oilani mamlakatning kichik bir mu'tabar parchasi deb qiyoslash mumkin. Inson bolalikdan voyaga

yetgunga qadar ota-ona yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs tarbiyasida bo‘ladi. Bola voyaga yetgach, o‘zi mustaqil oila quradi. Odam qaysi oilada bo‘lishidan kat’iy nazar, unga sadoqatli bo‘lib qolishi zarur. Ayniqsa, oila a’zolarining o‘z xonadoniga sodiq bo‘lib kolishi bilan bir qatorda, shu oilaning or- nomusi uchun kurashmogi, sha’niga dog‘ tushurmay yashamogi zarur.

Inson o‘z xayotida xamma vaqt oilaga, vatanga, do‘st-brodarlariga sodiq bo‘lib yashashi kerak. Oilaga sodiq bo‘lmaslik odamda shu xonadondan, qarindosh-urug‘laridan uzoqlashtiradi. Biz yuqorida oilani mitti mamlakatga o‘xshatdik. Xar qanday mamlakatning boshlig‘i bo‘lganidek, oilaning o‘z boshlig‘i bo‘ladi. Odatda, oila boshlig‘i bu otadir. Ota bo‘lmagan oilada ona, ota va ona bo‘lmagan oilada esa katta aka, opa yoki oila a’zolari tomonidan tan olingan kishi boshliq sanaladi. Oila boshlig‘i kim bo‘lishidan kat’iy nazar, uning so‘zlari shu oila a’zolari uchun qonun bo‘lmogi kerak. Oila boshlig‘ining xurmati joida bo‘lib, o‘z oila a’zolariga munosib raxbarlik qila olsagina, oilada tartib –intizom, mexnat va orom, o‘zaro xurmat va odob-axloq buladi. Oila mustaxkam va obro-e’tiborli bulishi uchun, oila boshligining obro‘-e’tibori o‘z o‘rnida bo‘lib, oilaning iqtisodiy axvolini, uning daromadini va buromadini tug‘ri tashkil qilmogi lozim. Oilada nimalar yetishtirishni, qanday daromat olishni, uni qanday sarf qilishni yaxshi bilishi, oilada a’zolari o‘rtasidagi inoqlikni ta’min etishi va ularning tarbiyasi uchun g‘amxo‘rlik qilib borishi zarur.

Inson bolalikdan boshlanadi va asta – sekin voyaga yetib boradi, mustaqil oila quradi. Xar bir ota-ona o‘z farzandini voyaga yetishi, uning uyli-joyli bo‘lib, mustaqil oila qurishini orzu qiladi.

Mustaqil oila qurish, ota-ona bo‘lish xar bir o‘gil qiz uchun sharafli vazifadir. Oila qurayotgan xar bir yosh oila xayotga xar taraflama aqliy va jismoniy jixatdan tayyor bulmog‘i kerak [8].

Oila insonning ongida ilk bolaligidan boshlab shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar qadriyatlar va ijtimoiy tasavvurlar tarkib topadigan dargohdir. Ushbu dargohda ma’naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va shu orqa shaxsni oqilona dunyoqarash egasi, yangicha fikrlovchi, barkamol inson qilib shakllantirish xozirgi islohotlar davrida O‘zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik muammodir. Zero yoshlarda milliy qadriyatlarga, jumladan oilaviy qadriyatlarga, an’analar noyob rasm-rusmlarga nisbatan xolisona tasavvurlarni shakllantirish orqali ularni oilaviy turmushga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarkib toptirish yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta’sirchan vositadir.

Oila a'zolarining xar biri shaxs sifatida muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lib, ular o'rtasidagi yaqin munosabatlar, muloqotlar natijasida oilada o'ziga hos oilaviy ma'naviyat yuzaga keladi. Oila ma'naviyatida ota va onaning ma'naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona yukori insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma'naviyat olami o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr - bardoshlilik, inson-sevarlik, olijanoblik, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy kadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday kadriyatlarning oilada e'zozlanishi, bunga amal qilinishi oiladashunday ma'naviy muxit va iqlimni yaratidiki, o'sib kelayotgan avlod sof qalbi va ongi shakllanishida o'ta ahamiyatlidir. Oilaviy qadriyatlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishiga turtki bo'luvchi sifatiy mezonlardan biri-ma'suliyat yoki insondagi ma'suliyatlilik xislatidir. Bu inson tomonidan bajariladigan har bir amallari, faoliyati mahsulini tasavvur qilgan holda, uning o'ziva o'zgalar uchun qanday naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson doimo ishni puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi . [4] Oilada bu fazilat farzand ongiga eng avvalo, ota-onaning oila, uning qadriyatlariga amal qilish, shaxs kamoloti mas'uliyati orqali singdiriladi. Shu bois oilaviy qadriyatlarga hurmat, ularga nisbatan mas'uliyat bilan bog'liqdir.

Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda oilaga nisbatan tug'ri munosabatni shakllantirishda uning ta'sir yo'nalishlarini belgilab olish kerak. "Bu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining Sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishish orqali amalga oshirish mumkin" [2; 122].

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tibkelayotgan oilaviy urf-odat, marosim va bayramlar ham farzandlarni oila muhitida kamol toptirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Har bir oila rioya qilishi lozim bo'lgan an'analar va rasm-rusmlarning mavjudligi, ularning jamiyat va mahalla an'analari bilan uyg'unligi ham farzandda oilaga nisbatan ijobiy ustsnovkalarni shakllantirishning muhim yo'nalishi bo'lib sanaladi. [3;117]

Bu o'rinda yana bir omilni ajratib ko'rsatish mumkin, bu oilaviy muomaladir. Oila muhitida amalga oshiriladigan muloqot, oila a'zolari o'rtasida kundalik, maishiy muammolar yuzasidan amalga oshiriladigan

muomala hisoblanadi. Chunki inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ustanovkalarning shakllanishida radio, televidenie, gazeta, jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarning qiymatini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan ta’sir, inson yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan ba’mani so‘z va his-tuyg‘ularning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham zarur bir fikrni tushuntirish lozim bo‘lsa, ota-ona ham farzandining yuzini o‘ziga qaratib olib, yuz qiyofasi va ko‘zdagi samimiyat bilan, psixologik jihatdan tahlil etilganda, ekstralingivistik hamda paralingvistik vositalar yordamida fikrni uqtira boshlaydi va aynan shunday muloqot samaralidir. Bunday ta’sir ko‘proq emotsional-psixologik jihatdan ta’sirchan onalar va momolar muomalasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Oila ma’naviy ko‘rg‘on bo‘libgina kolmay yosh avlod ta’lim-tarbiyasining ilk maskanidir. Prezidentimizta’kidlaganlaridek: «Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk xayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyokarashini belgilaydigan mezon va qarashlari yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or - nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir»

Muxtasar qilib aytganda, oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, e’tiqodiga ko‘nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma’noda, oila-haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i va ko‘rg‘oni, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir [7]

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!” [1].

Shuni ta’kidlash joizki, prezidentimizning fikrlarida oilaning eng avvalo, sog‘lom dunyoqarash tarkib toptirishdagi benazir roliga aloxida e’tibor berilganki, mazkur dunyoqarash ijtimoiy psixologiya fani tadqiq qiladigan tasavvurlar tizimi yordamida inson ijtimoiylashuvining ilk maskani bo‘lmish oilada, undagi o‘zaro munosabatlar tizimida shakllanadi. Xuddi shu bois, oilada bolaning ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq tarbiyaviy ta’sir vositalarining negizida xalq an’analarining, xususan oilaviy o‘zaro munosabatlarda saqlanib qolgan oilaviy qadriyatlar mohiyatining qonuniyatlarini o‘rganish vazifasi turibdiki, ularning

ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, natijalarini esa amaliyotga tadbiq qilish davr taqazosidir.

Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning oila va uning qadriyatlariga nisbatan munosabati, ustanovkalari insonning o‘ziga xos xulq mezonlari va sifati bo‘lib, unda oilaviy o‘zaro munosabatlarda odam uchun ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlar, ya’ni muomala maromlari, baholash tizimi va yaxlit faoliyatning umumiy yo‘nalishini belgilovchi mezonlarda o‘z aksini topadi. Bu jarayonda shaxsning o‘z xatti-harakatlari va oilaga nisbatan sub’ektiv munosabati uningijtimoiy tasavvurlarida ifodalanadi. Shu ma’noda ijtimoiy tasavvurlar asosida shakllanadigan oilaviy qadriyatlarga nisbatan ustanovkalar anglangan ehtiyojlar, maslaklar va ijtimoiy me’yorlarni belgilaydi, u real turmushga shunchalik qorishib ketadiki, natijada shaxsning barcha harakatlari va xulq-atvori to‘lig‘icha ularga bo‘ysunadi.

Oilaviy qadriyatlar insonning hayotiy tajribasi va jamiyatga nisbatan munosabatlariga bog‘liq tarzda shakllanadi. Shuning uchun ham qadriyatlar insonning dunyoqarashini, odamlarga, oilasiga munosabatini tashkil etuvchi jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ma’lumki oila-shunday bir ijtimoiy muhitki, undagi barcha qadriyatlar, an’analar, ota-onalarning o‘zaro hamda ularning farzandlari orasidagi muomala maromlari, barcha xatti-harakatlar uning har bir a’zosi ongiga va xulq me’yorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirlar, eng avvalo, ta’sirni qabul qiluvchining ijtimoiy tasavvurlarida, bilimlari va baholash tizimida, an’anaviy-oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabatlarida, e’tiqodi va ishonchida o‘z aksini topadi. Oilaviy turmush va uning qadriyatlari nikoh va oila munosabatlari to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar hamda ijtimoiy ustanovkalar ham aynan ota-onaning mavjudligi va ularning tarbiyaviy ta’siri tufayli ro‘y beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murajaatnomasida so‘zlagan nutqidaquyidagilar keltirilgan. “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadniqo‘ygan ekanmiz buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak” [2].

Adabiyotlar sharhi

Oilaviy qadriyatlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilishiga turtki bo‘luvchi sifatiy mezonlardan biri-ma’suliyat yoki insondagi ma’suliyatlilik xislatidir. Bu inson tomonidan bajariladigan har bir

amallari, faoliyati mahsulini tasavvur qilgan holda, uning o‘ziva o‘zgalar uchun qanday naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas’uliyatni his qilgan inson doimo ishni puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safaobar etishga qodir bo‘ladi [4; 94]. Oilada bu fazilat farzand ongiga eng avvalo, ota-onaning oila, uning qadriyatlariga amal qilish, shaxs kamoloti mas’uliyati orqali singdiriladi. Shu bois oilaviy qadriyatlarga hurmat, ularga nisbatan mas’uliyat bilan bog‘liqdir.

Qadriyatlar tushunchasini mualliflar tomonidan ta’riflanishi

T/r	**Tushunchani ta’riflash**	**Mualliflar**
1.	Jamiyat hayotiy hodisalari yoki elementlarini ijtimoiyahamiyatliligini bir butun jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan beriladigansifatlarni tahlilqilish	G. M. Andreeva, V. A. Bodrov, A. M. Vizova, K. Kloxon, V. G. Zdrovamislov, V. B. Olshanskiy va boshqalar.
2.	Xulq-atvor va motiv faoliyati, bundainsonni dunyodagi o‘rnini va ma’lumbir maqsadlarga erishish bilan bog‘liqyo‘nalishlaridir	B. S. Bratus, L. V. Vыgotskiy, B. G. Ananev, A. N. Leontev, G. Olport, S. L. Rubinshteyin, V. V. Stolin, V. Frankl
3.	Qadriyatlar bu inson psixologik qiyofasini uzviy elementi bo‘lib, shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi muhim omil, insonni o‘zini-o‘zi anglashini rivojlantiruvchi va boshqaruvchi jarayondir	Z. E. Abduraxmanova, Z. N. Raxmonova

Bu tasnifdan ko‘rinib turibdiki, qadriyatlar psixolog olimlar tomonidan ham yetarli darajada o‘rganilgan. Qadriyatlar inson muloqotida va o‘zaro ta’sirida ham ro‘y berib insonni o‘zini-o‘zi boshqarishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyat muayyan hodisa va ob’ektlarning shaxsiy, ijtimoiy madaniy ahamiyatiga bog‘liq tushunchadir.

Biror bir narsani yaxshi, to‘g‘ri, kerakli deb hisoblash to‘g‘risidagi tushunchalar qadriyatdir.

Jamiyatda qadriyatlar tizimi judayam muhim rol o‘ynaydi. Chunki u me’yorlarga ta’sir qiladi. Hamma me’yorlar ijtimoiy qadriyatlarni nomoyon qiladi. Qadriyatlar tizimi haqida jamiyatda mavjud bo‘lgan me’yorlar orqali fikr yuritish (muhokama qilish) mumkin.

Metodologiya

Inson qadriyatlarini amalga oshirishda fikrlab, foyda beruvchi qadriyatlar tizimidan foydalanadi. Qadriyatlar bu inson psixologik qiyofasini uzviy elementi bo‘lib rivojlanishga ta’sir etuvchi muhim omil, insonni o‘zini-o‘zi anglashini rivojlantiruvchi va boshqaruvchi jarayon hamdir. Shaxs qadriyatlari bugungi kunda uning muhim rezervi hisoblanadi.

“Shaxs qadriyatlar tizimining real tuzilishi diagnostikasi” metodikasi bo‘yicha qadriyatlar namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar (Mann-Uitni U mezoni)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		U	r
	Yigitlar (N=180)	Kizlar (N=295)		
Vaqtni maroqli o‘tkazish, hordiq	195, 4	263, 3	18874	**0, 000***
Yuqori moddiy ta’minlanganlik	209, 9	254, 4	21499, 5	**0, 000***
Go‘zallikka intilish va undan zavqlanish	204, 7	257, 6	20561	**0, 000***
O‘zgalarga yordam berish	232, 3	240, 7	25527, 5	0, 497
Sevgi-muhabbat	213, 5	252, 2	22146	**0, 002**
Olam, tabiat, insonda yangiliklarni anglash	224, 7	245, 3	24158	0, 102
Yuqori ijtimoiy maqom va insonlarni boshqarish	222, 4	246, 7	23746, 5	0, 052
Insonlarni tan olish va hurmat qilish, atrofdagilarga ta’sir ko‘rsata bilish	207, 0	256, 2	20961	**0, 000***
Jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faollik	228, 4	243, 1	24818	0, 247
Muloqot	213, 5	252, 2	22131, 5	**0, 002**
Salomatlik	237, 5	237, 5	26452, 5	0, 996

*Izoh: * - p<0, 05; ** - p<0, 01; *** - p<0, 001*

Natija

Yuqori moddiy ta'minlanganlik shkalasi bo'yicha ham yigitlar va qizlar o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (U=21499, 5; p<0, 01). Bu shkala natijalariga qaraganda moddiy ta'minlanganlikka intilish qiz bolalarda ko'proq namoyon bo'lar ekan. Ota-onalar qizlarning moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor berishlari aynan ana shu natijalardan ko'rinib turibdi.

Go'zallikka intilish va undan zaqlanish qadriyati bo'yicha ham ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (U=20561; p<0, 01). Aynan qiz bolalar natijalarida go'zallikka intilish shkalasi bo'yicha yuqori ko'rsatgichlar aniqlanishi ko'p jihatdan tushunarli bo'lsa kerak. Chunki aksariyat qizlarda go'zallikka intilish istagi, go'zallikdan zavqlanish va estetik zavq olish genetik omillarga bevosita bog'liqligini e'tirof etish mumkin. Zero, agar oilada qiz farzand mavjud bo'lsa, bu qizlar yoshligidan o'zlariga oro berishni xush ko'radilar, chiroyli bo'lishni xohlashlarini kuzatish mumkin. Shu sababli ham qizlar yoshi ulg'aygan sari o'zlariga ko'proq oro bera boshlaydilar, go'zallikka intiladilar. Shu jihatdan ham go'zallikka intilish va undan zaqlanish qadriyati qizlar guruhida yaqqolroq namoyon bo'lishini taxmin qilish mumkin.

3. 2. 10. jadvaldan ko'rinib turganidek, sevgi va muhabbat shkalasi bo'yicha ham yigitlar va qizlar orasida ishonch darajasidagi farqlar mavjud (U=22146; p<0, 01). Respondentlarimizning barchasi talaba ekanligini inobatga olsak, qizlarning natijalarini yuqori chiqishi tabiiy hol ekanligini e'tirof etish mumkin. Zero, talabalik davrida aksariyat qizlarimiz oila qurishadi va ularda sevgi-muhabbat shkalasining yuqori bo'lishi shu sababli bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Yigitlar ko'pincha oliygohni tugutgandan so'ng oila qurishadi va ularning bu davrdagi birinchi vazifasi "o'zini oyoqqa turg'azish", ya'ni yaxshi kasb egasi bo'lish hisoblanadi, shu sababdan ham sevgi va muhabbat shkalasi bo'yicha ularning natijalari past chiqqan bo'lishi mumkin.

Insonlarni tan olish va hurmat qilish, atrofdagilarga ta'sir ko'rsata bilish shkalasi bo'yicha ham ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi (U=20961; p<0, 01). Bu shkala bo'yicha ham qizlarning natijalari yigitlarnikiga nisbatan yuqori chiqqanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qizlarda insonlarga nisbatan hurmatning kuchli ekanligi tahsinga loyiq xislatlardan biri hisoblanadi. Qizlarda yigitlarga nisbatan yumshoqlik xislatlari bilan atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati kuchli bo'lib, ular aksariyat hollarda o'zlarining muloyimliklari bilan maqsadlariga erishadilar, o'zlarini beozor, mushtipar, "zaifa" qilib ko'rsatishi orqali atrofdagilarga kuchli ta'sir ko'rsata oladilar.

Muloqot shkalasi natijalari tahlil qilinganida ham ishonch darajasidagi tafovut mavjudligi aniqlandi (U=22131, 5; p<0, 01). Bu shkala bo‘yicha ham qizlarning natijalari yuqori ekanligi ular yigitlarga nisbatan ko‘proq muloqotga moyilliklari bilan ajralib turishlaridan dalolat beradi. Yigitlar aksariyat ishlarini muloqot bilan emas, amalda bajarish bilan kifoyalansalar, qizlarga aksariyat vazifalar muloqot orqali hal qilinishi xosdir. Shu nuqtai nazardan ko‘pincha qizlar uchun muloqot muhim qadriyat sifatida tan olinishini e’tirof etish mumkin. Yuqorida keltirilgan natijalarni ko‘rgazmali tasviri 3. 2. 5. rasmda o‘z ifodasini topgan.



rasm. S. S. Bubnovaning “Shaxs qadriyatlar tizimining real

tuzilishi diagnostikasi” metodikasi bo‘yicha qadriyatlar namoyon bo‘lishidagi jinsiy tafovutlar (o‘rtacha ranglar hisobida).

Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an’analari orqali yoshlarda oilaga nisbatan tug‘ri munosabatni shakllantirishda uning ta’sir yo‘nalishlarini belgilab olish kerak. “Bu ish asosan har bir o‘zbek oilasidagi tarbiya an’analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo‘lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining Sharqona ko‘rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg‘unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishish orqali amalga oshirish mumkin” [6].

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o‘tibkelayotgan oilaviy urf-odat, marosim va bayramlar ham farzandlarni oila muhitida kamol toptirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Har bir oila rioya qilishi lozim bo‘lgan an’analar va rasm-rusmlarning mavjudligi, ularning jamiyat va mahalla an’analari bilan uyg‘unligi ham farzandda oilaga nisbatan ijobiy ustsnovkalarni shakllantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lib sanaladi [3].

Bu o‘rinda yana bir omilni ajratib ko‘rsatish mumkin, bu oilaviy muomaladir. Oila muhitida amalga oshiriladigan muloqot, oila a’zolari o‘rtasida kundalik, maishiy muammolar yuzasidan amalga oshiriladigan muomala hisoblanadi. Chunki inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ustanovkalarning shakllanishida radio, televidenie, gazeta, jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarning qiymatini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan ta’sir, inson yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan ba’mani so‘z va his-tuyg‘ularning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham zarur bir fikrni tushuntirish lozim bo‘lsa, ota-ona ham farzandining yuzini o‘ziga qaratib olib, yuz qiyofasi va ko‘zdagi samimiyat bilan, psixologik jihatdan tahlil etilganda, ekstralingivistik hamda paralingvistik vositalar yordamida fikrni uqtira boshlaydi va aynan shunday muloqot samaralidir. Bunday ta’sir ko‘proq emotsional-psixologik jihatdan ta’sirchan onalar va momolar muomalasida yaqqol ko‘zga tashlanadi [5].

Oilaviy qadriyatlarning shaxs tomonidan o‘zlashtirilishiga turtki bo‘luvchi sifatiy mezonlardan biri – ma’suliyat yoki insondagi ma’suliyatlilik xislatidir . Bu inson tomonidan bajariladigan har bir amallari, faoliyati mahsulini tasavvur qilgan holda, uning o‘zi va o‘zgalar uchun qanday naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas’uliyatni his qilgan inson doimo ishni puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safaobar etishga qodir bo‘ladi . Oilada bu fazilat farzand ongi ga eng avvalo, ota – onaning oila, uning qadriyatlariga amal qilish, shaxs kamoloti mas’uliyati orqali singdiriladi. Shu bois oilaviy qadriyatlarga hurmat, ularga nisbatan mas’uliyat bilan bog‘liqdir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan – avlodga bebaho meros sifatida o‘tib kelayotgan oilaviy urf – odat, marosim va bayramlar ham farzandlarni oila muhitida kamol toptirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Har bir oila rioya qilishi lozim bo‘lgan an’analar va rasm – rusmlarning mavjudligi, ularning jamiyat va mahalla an’analari bilan uyg‘unligi ham farzandda oilaga nisbatan ijobiy ustsnovkalarni shakllantirishning muhim yo‘nalishi bo‘lib sanaladi.

Bu o‘rinda yana bir omilni ajratib ko‘rsatish mumkin, bu oilaviy muomaladir. Oila muhitida amalga oshiriladigan muloqot, oila a’zolari o‘rtasida kundalik, maishiy muammolar yuzasidan amalga oshiriladigan muomala hisoblanadi. Chunki inson xulq – atvorida namoyon bo‘ladigan ustanovkalarning shakllanishida radio, televidenie, gazeta, jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarning qiymatini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma – yuz kechadigan ta’sir, inson yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan ba’mani so‘z va his – tuyg‘ularning o‘rni beqiyos.

Shuning uchun ham zarur bir fikrni tushuntirish lozim bo‘lsa, ota – ona ham farzandining yuzini o‘ziga qaratib olib, yuz qiyofasi va ko‘zdagi samimiyat bilan, psixologik jihatdan tahlil etilganda, ekstra – hamda paralingvistik vositalar yordamida fikrni uqtira boshlaydi va aynan shunday muloqot samaralidir. Bunday ta’sir ko‘proq emotsional – psixologik jihatdan ta’sirchan onalar va momolar muomalasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa. qilib aytish mumkinki qadriyatlar va emotsional intellekt o‘zaro bog‘liq bo‘lib, emotsional intellektning shakllanishi va rivojlanishiga shaxsning qadriyat yo‘nalishlari, kognitiv qobiliyat, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligi, hissiyot xususiyatlari, hissiy barqarorlik, hissiy sezgirlik kabi omillar ta’sir qiladi.

Qadriyatlar munosabatlar, motivlar va ehtiyojlardan farqli o‘laroq, insonning ijtimoiy faoliyatining eng muhim holatlarida xatti-harakatni belgilaydi, bu insonning hayot maqsadlariga, ushbu maqsadlarni qondirish vositalariga, hayotning bunday “sharoitlariga” munosabatini bildiradi.

Bizning fikrimizcha, oila va uni bevosita o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida yoshlar ongi, ijtimoiy tasavurlari tizimiga ta’sir yetkazuvchi omillar ko‘p va serqirra bo‘lib, ularning yo‘nalishlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini har bir alohida ijtimoiy shart-sharoitda, birlamchi guruh muhitida tadqiq qilish ilmiy izlanishlar uchun katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh. Mirziyoev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va xalq bilan muloqot qilish maqsadida 2018-yilning 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashinig navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murajaatnomasi 2020-yil 29-dekabr. https://president. uz lists view

3. Karimova V. M. Oilada mafkuraviy tarbiyaning ta’sir yo‘nalishlari. /“Farzand aziz, ona – mo‘tabar” to‘plamidan. – T. : O‘zbekiston, 2001. –B. 137 – 150.

4. Oila psixologiyasi. /Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. Psixol. fan. dokt. prof. G‘. B. Shoumarov tahriri ostida. –T. : O‘zbekiston, 2004. -340 b.

5. Rahmonova Z. N. Oilaviy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta’siri. /Zamonaviy psixologiya: muammolar va istiqbollar. Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent 2021. –B. 251-253.

6. Umarova M. M. O‘smirlarda oilaviy va qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy- psixologik shart sharoitliri. – T. , 2004. - B. 94-97.

7. Oila psixologiyasi. O‘quv qo‘llanmaG‘. B. Shoumarov tahrir ostida. – T. : Sharq, 2000

8. Abduraxmonova Z. E. Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishiningijtimoiy-psixologik xususmyatlari: Psix. fan. nom. . . . dis. - T. , 2006. - 129 b.

9. https://oqdaryo. uz/oz/node/484.

1. Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

2. Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 9(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

3. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

4. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

5. Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

10. https://Fitrat. uz

SIFATLI TA’LIM BERISHDA INNOVATTSION TA’LIM METODLARDAN FOYDALANISH

magistrant Turdiyeva Iroda Maxmarajabovna

Annotatsiya

Innovatsion metod asosida o‘qitishda bir qancha interfaol usullar ishlab chiqilgan bo`lib, ulardan darsning qaysi qismida qanday va qanday foydalanish kerak. O‘quv jarayonida “Innovatsion metod asosida” fanni o‘qitishning innovatsion texnologiyalari ishlab chiqildi va qo‘llash algoritmini takomillashtirish asosida interfaol usullardan foydalangan holda texnologiyalashtirilgan o‘quv ma’lumotlari amalga oshirildi. Ilmiy-pedagogik eksperiment o‘tkazish yo‘li bilan o‘quvchilarning o‘quv va bilish faoliyatida motivatsion ko‘nikmalar samaradorligini monitoring qilish natijalari aniqlandi, olingan natijalar matematik va statistik tahlil qilindi va bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar

interaktiv, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.

Abstract

A number of interactive methods have been developed in teaching based on the innovative method, which part of the lesson should be used and how. In the educational process, innovative technologies of science teaching "based on the innovative method" were developed and technological educational information was implemented using interactive methods based on the improvement of the application algorithm. By conducting a scientific-pedagogical experiment, the results of monitoring the effectiveness of motivational skills in the learning and cognitive activities of students were determined, the obtained results were mathematically and statistically analyzed, and proposals and recommendations were developed in this regard.

Keywords

interactive, discussion, brainstorming, working in small groups.

Kirish

Ta'limsohasidaamalgaoshirilayotganislohotlarning asosiyqismini, albatta, oliyta'limtizimidagiislohotlartashkiletadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydiganyuqorimalakalikadrlartayyorlashjarayoninisifatjihatidanyan gibosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiysohavaiqtisodiyottarmoqlarinirivojlantirishmaqsadidadavlatimiz rahbarining 2019yil8oktyabrdagifarmonibilantasdiqlanganO'zbekistonRespublikasi Oliyta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasinibajaribbermoqda. Bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barcha ma'ruzalarida ilm-fan, innovatsiya, shijoat va tashabbuskorlik xususida takror va takror ta'kidlaydi. Darvoqe, ta'lim tarbiya uzluksiz jarayon bo’lib, ushbu jarayonda hech qachon tanaffus bolmaydi. Va shu o’rinda ta'lim va tarbiya yuksak mas'uliyat talab etadigan jarayondir. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya ijtimoiy islohotlar zanjiridagi eng muhim halqa hisoblanadi.

Pedagogika fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari ko‘rsatilgan. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali mezonlari o‘rganilib, muammo bo‘yicha uslubiy tavsiya va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqildi. Ta’lim sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘rganish ta’lim mazmunining barcha to‘rtta komponentini (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat) o‘rganishga ijobiy ta’sir qiladi. Ular o‘quvchilarga mustaqil ravishda qurish, ifoda etish, yechim topish va muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi, bu ya’ni, muayyan mavzular uchun juda muhim bo‘lgan vaziyatlar hisoblanadi. Tadqiqot fanlarni o‘qitish misolida nazariy bilimlardan metodik asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mumkinligi, nazariy bilimlarni talabalarga to‘liq yetkazish va ulardan olingan bilimlarni amaliyotda mustaqil qo‘llash masalalarini tezkorlik bilan hal qila olishiga asoslandi.

Metodologiya

foydalangan holda o‘qitish metodikasini shakllantirish.

2022-yil 21-iyundagi “Pedagoglar ta’limi sifatini oshirish va oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha

faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarorlaridaOliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini tizimli rivojlantirish belgilangan. Zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Biz olib borgan tadqiqotlarimiz qisman yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar va boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda. Ijodkorlik muammolariga katta qiziqish, keng bilim to‘plamini tanqid qilish, talabalar va o‘qituvchilarning o‘qish bo‘yicha ijodiy ishlari, ta’lim tizimidagi “portlash” diversifikatsiyasi ta’limni standartlashtirish bilan bog‘liq yana bir innovatsion vazifalar blokining dolzarbligini keltirib chiqaradi va uning sifatini oshiradivbv. Keyingi yillarda N. Shodiev, E. Seythalilov, Sh. Qurbonov, O. Tolipov, U. Inoyatov, R. Sh. Axliddinov, L. Golish, S. Volkov, O. Rashidovlar o‘z tadqiqotlarini davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish bilan bog‘laydilar. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimini asoslash va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid adabiyotlar bilan tanishish, Innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammolarini aniqlash, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holatini aniqlash, ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash omillari va mezonlarini aniqlash va test sinovlarini tashkil etish va o‘rganish. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini aniqlashda monitoring, malakaviy va test, sotsiometrik, matematik-statistik ishlov berish hamda ilmiy natijalar va dalillarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. **Mamlakatimizda ta’lim ustuvorligini e’tirof etgan holda, ta’limning sifati va erkinligini ta’minlash, bu sohada davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish bo‘yicha tizimli va keng doiradagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi besh yilda ta’lim sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 100 yaqin farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 220 dan ortiq qarorlari qabul qilindi. Har yili O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy xarajatlar, jumladan, ta’lim xarajatlari uchun ajratiladi. 2022 yilning 9 oyligida bolalar bog‘chalari, maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv muassasalarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan 26, 4 trln. so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Buning natijasida ta’lim sohasi bir qator islohotlar amalga oshirildi.** Mamlakatimizda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, salomatligi va boshqa bir qator sohalarga e’tibor qaratilayotgani va bu kabi sa’y-harakatlarning zamirida kelajak merosxo‘rlarining chinakam kuchli bo‘lishi kafolati mujassam. Rus metodistlari E. F. Bugrimenko va G. A.

Zukermana [4.] ular o‘yin texnologiyasini 2 turga bo‘lib, o‘quv jarayonida amalga oshiriladi. Qiziqarli o‘yinlar, Trening o‘yinlari. Didaktik o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar biroz jiddiyroq. Ular bevosita ta’lim maqsadiga xizmat qiladi. Bu o‘yinlar bolalarning aqliy sakrashida, bilishga, mantiqiy fikrlashga undashda ma’lum afzalliklarga ega. O‘quvchida mehnatsevarlik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bir vaqtning o‘zida hissa qo‘shadi. Bu o‘yinlar o‘qituvchi tomonidan maxsus ta’lim maqsadlarida tashkil etilgan. Yangi mavhum tushunchalar o‘quvchi tasvirni hissiy idrok etishga erishishi kerak. Demak, o‘qituvchi darsda didaktik va ko‘ngilochar o‘yin turlaridan qay darajada foydalanganligini bilishi, norma, joy va vaqtni bilishi kerak. Darsda didaktik o‘yin ob’ektlaridan foydalanish o‘quv materialini o‘rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Ko‘rish va eshitish bilan bog‘liq faoliyat turiga oid ko‘rgazmali qurollar, qiziqarli savollar, kulgili topshiriqlar, kutilmagan hodisalar kitobxonning aqliy faoliyati samaradorligini ta’minlaydi. Darsda nafaqat o‘yin texnologiyalari, balki ta’limning innovatsion va integrativ usullari, bolaning tafakkurini kengaytirish, bolaga kognitiv va hayotiy hodisalar asosida bilim berish. Ular yangilikka intilishlarini ro‘yobga chiqarish, yil davomida ko‘proq bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, bolaning ijodiy, talabchan, sezgir, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kabi masalalarni hal etishga xizmat qiladi. Innovatsion ta’lim usuli - innovatsion ta’lim usuli bo‘lib, innovatsiyalarni joriy etish, noan’anaviy usullar va o‘qitish usullarini qo‘llash, yangi usul va usullarni joriy etish “innovatsion” ingliz tilidagi “in” – “yangi” ta’tilkiritishni anglatadi. O‘qitishning innovatsion usullari an’anaviy boshqariladigan ta’lim tizimiga nisbatan pedagogik jarayonlar amaliyotida ijobiy natijalar beradi. Buning sababi shundaki, an’anaviy usullar bilan boshqariladigan ta’lim mazmuniga ko‘ra, o‘quvchilar o‘quv jarayonida passiv ishtirok etadilar. O‘qituvchining fikrini tinglashma’ruzasi va aytganlarini eshitib, ma’lumot oluvchi rolini o‘ynaydi. Innovatsion va noan’anaviy ta’lim usulida barcha talabalar faol ishtirok etadilar. Xususan, “aqliy hujum”ni o‘qitishning innovatsion usullari asoslari o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalardan biriga javob beradi. “O‘zgartirilgan ta’lim” – shakli o‘zgartiriladigan ma’ruza. O‘qituvchi darsni savol-javob, muhokama orqali talabalar bilan muloqot tarzida olib boradi. ” Ileprovizatsiya" - tayyorgarliksiz tavsif. O‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga yoki topshiriqlarga tayyorgarliksiz, og‘izdan og‘izga, birdaniga o‘quvchilar o‘zlaricha javob berishadi. “Multimedia” - video dasturlari bilan darslar. Muayyan mavzu bo‘yicha dasturiy ta’minot, ovozli, vizual, televizor, video qurilmalardan foydalangan holda dars o‘tkazish usuli. “Muayyan vaziyatni tahlil qilish yoki holat” - har qanday hayotiy voqea, vaziyat, voqeani tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarish. “Tanqidiy fikrlash” - Ustavlar

oʻqituvchi tomonidan berilgan savollarda bir-birini takrorlamasdan, oʻz fikrlarini tanqidiy yondashuv bilan ifodalaydi.

Amalga oshirishdan maqsad. Innovatsion texnologiya – kitobxonning har tomonlama mulohaza yuritishi, uning har bir jihatini ochib berish va undagi turli qobiliyatlarni aniqlash hamda bolaning fikrlash, tafakkuri, nutqini rivojlantirish kabi qobiliyat va fazilatlarini takomillashtirishdir. Bu islohotlarni chuqurlashtirish va olgʻa surishga eʼtiborni kuchaytiradi. Zamonaviy taʼlimda ularning amaliyotga tatbiq etilishiga ishonch hosil qiladi. Oʻquvchining darsni oʻtkazib yubormasligi, taʼlim jarayonining oʻquvchi ongida bu maqsadga toʻliq erishishini taʼminlash, ayniqsa, bilimini oshirish, boyitish muhim jihatlardan biridir. Mantiqiy fikrlash va izlanish, har bir masalaga jiddiy yondashish,

Bundan tashqari, darsda nafaqat tinglovchi ishtirok etayotgan bir paytda oʻquvchiga yuqoridagilarni amalga oshirish uchun qulay va keng qamrovli usul va metodika kerak boʻladi. Zamonaviy tomonidan yoki qabul qiluvchi, balki bevosita ishtirokchi, erkin shaxs, mustaqil fikrlovchi, tanqidchi, haqiqiy. Shu maqsadda biz pedagogika darslarida didaktik oʻyinlarni qoʻllashni koʻrib chiqmoqchimiz. Maʼlumki, didaktik shakldagioʻyinlar, odatda, bolalarning eʼtiborini jalb qiladigan, qiziqarli, tushunarli darajada oʻtkaziladigan darslik vazifasini bajaradi. Hatto alohida yordamga muhtoj bolalar, yaʼni bilim darajasi past, taʼlim oladigan, ilmiy nazariyalarni oʻrganish qiyin boʻlgan oʻquvchilar ham har bir vazifani bajarishga harakat qiladilar, oʻyin faoliyatida esa osonroq oʻrganish imkoniyati mavjud. Didaktik materiallarni bajarishga qiziqish tufayli vazifalar ortib bormoqda, ular bevosita shu vaziyatdan boshlanadi. Didaktik oʻyinlarga taʼlimning koʻrinishi, oʻqituvchi nutqi va bolalarning harakati kiradi. Oʻquvchida mantiqiy fikrlash qobiliyatining oshishiga hissa qoʻshadi. Didaktik oʻyinlardan foydalanish, shubhasiz, oʻquvchilarning fan asoslarini oʻzlashtirishlarini osonlashtiradi. Shunday ekan, darsni oʻyin darslari asosida tashkil etish, oʻyin texnologiyasini bevosita doimiy asosda darsga olib borish zarur, deb hisoblaymiz.

Oʻqish tafakkurini chuqurlashtirish maqsadida oʻzlashtirilishi kerak boʻlgan bilimlar oson oʻzlashtiriladi. Shunga qaramay, darsda oʻyin texnologiyasini qoʻllash va oʻyin darslarini oʻtkazishdan bir qancha maqsadlar mavjud boʻlib, ular bevosita oʻqish shaxsini shakllantirish dasturi boʻlib xizmat qiladi. [8] Bular: - didaktik maqsadlar; - tarbiyaviy maqsadlar. Didaktik maqsadlar: - o'yin darslari orqali bilim tizimini mustahkamlash va puxta oʻzlashtirish; Oʻyin seanslarini ishlab chiqishda tajriba almashish;Turli masalalar va muammolarni tashkil etish va hal qilish. Tarbiyaviy maqsadlar: Ijodiy fikrlashga, muammoga yondashishga oʻrgatish; oʻyin amaliyotini bajarishda koʻrsatmalar berish; Odamlar bilan

muloqot qilish jarayonida o‘zini tutish qobiliyati, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish; Talaba shaxsini shakllantirishda muhim ta’lim vositalarini o‘zlashtirish. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘quv jarayoni bevosita Marokash, qiziqarli multifilm yoki spektakl darajasida tashkil etilishi kerak. O‘yin darslarini ishlab chiqish va tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish va o‘quv jarayoniga yangi sifatlarni joriy etishni ta’minlash kerak. O‘yin mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali talabaning faol qo‘shma yoki shaxsiy faoliyatini shakllantirishni rivojlantirish; O‘quvchining o‘sishi va rivojlanishidagi o‘zgarishlarga erishish, o‘yinning turli usullari va variantlarini namoyish etish. O‘yin texnologiyalari o‘quv jarayoniga quyidagi yangi sifatlarni olib keladi deb hisoblab, biz an’analardan voz kechib, yangi asrning yangilik va noan’anaviylik tamoyillariga tayanishni zarur deb bildik. O‘quv jarayonini ko‘rsatadigan modelni, ya’ni o‘quv materiali mazmunining yangi usulini joriy etish; O‘yin modelida o‘quvchini qaysi faoliyat shakliga olib borishini aniqlang; O‘yin to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘yin orqali, lekin aslida o‘quv jarayoniga va o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini o‘zgartirishga yaqinlashadi;

Adabiyotlar sharhi

Dunyoda ko‘plab olimlar, jumladan Xua-Jun Fan, Joshua Heads, Daniel Tran va Nnenna Elechi, L. A. Savchenko va boshqalar bor.

Rossiyada ta’lim sifatini oshirish, talabalarning pedagogika fanidan olgan bilimlarini axborot-pedagogik texnologiyalar asosida baholash, fanni o‘qitishda kompyuter texnologiyalarining afzalliklari, zamonaviy o‘qitishning samarali usullarini uyg‘unlashtirgan holda talabalar bilimini joriy etish masalalari A. A. hisobga olinadi. Podgornova, A. S. kabi olimlarning ilmiy-uslubiy ishlarida tadqiq etilgan. Artemyeva, O. E. Gorbunov, N. S. Mixaylov [75].

O‘zbekistonda kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Aripov M. M. , Abdugadirov A. A. , Abdullaev A. X. , Apatova N. V. , Begimqulov U. Sh. , Lutfullaev M. , Tolipova J. O. , Yunusova D. , Eschanov E. Yu. , Alimova F. A. , Zaylobov L. T. A. , Anvarova Shernazarovlarning tadqiqot ishlarini qayd etish mumkin.

Hua-Jun Fan, Joshua Heads, Daniel Tran va Nnenna Elechilar tomonidan kompyuterlardapedagogika o'rgatish fan va kompyuter dizaynini birlashtirish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqishdagi yutuqlar haqida hikoya qiladi, chunki bakalavriat talabalarining yangi avlodi texnologiyani yaxshi tushunadi va kompyuter savodxonligini oshiradi. kitoblardan va yozma manbalardan o'rganishni kamaytiradi [6].

Biz turli xil modullarni taqdim etamiz, ulardan siz nafaqat murakkab tushunchalarni tasvirlash uchun pedagogikani o'rgatish, balki o'quvchilarga o'z ma'lumotlari asosida xulosa chiqarish imkonini beradigan amaliy tajribalarni taqdim etish uchun ham foydalanishingiz mumkin. Yangi avlod bakalavriat talabalari har xil, ular tez o‘rganishni xohlaydilar va umuman kitob o‘qishga sabrlari kam [7].

Adabiyot va tadqiqot amaliy tadqiqotlar orqali aniqlangan quyidagi masalalardan iborat:

Oliy o‘quv yurtlari talabalariga innovatsion metod fanini interfaol usullardan foydalangan holda o‘qitish metodikasi ishlab chiqilmagan;

Innovatsion metod universitet darslarida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni integratsiyalashgan holda o‘rganilmagan;

innovatsion metod fani tushunchalari axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida to‘liq o‘rganilmaganligi va ushbu mavzuni tanlashimiz va mavzuga oid manbalar asosida o‘quvchilarning tabiatshunoslik savodxonligini shakllantirish bittadan ekanligi aniqlandi. dolzarb muammolardan [8].

Aniqlangan muammolarga asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari:

“Innovatsion metod” fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash algoritmini takomillashtirish;

Oliy o‘quv yurtlari talabalariga innovatsion metod fanini interfaol usullardan foydalangan holda o‘qitish metodikasini ishlab chiqish;

Interfaol usullar deganda o‘quvchilarni faollashtiradigan, mustaqil fikrlashga undaydigan, o‘quvchi o‘quv jarayonining markazida turadigan usullar tushuniladi. Bu usullardan foydalanishda o’qituvchi o’quvchining faol ishtirokini rag’batlantiradi. Talaba butun jarayonda ishtirok etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning afzalliklari quyidagilardan iborat:

yuqori ta'lim samaradorligi bilan o'qitish-ta'lim; talabaning yuqori motivatsiyasi;

ilgari olingan bilimlarni hisobga olish;

o'qitishning intensivligini talabaning ehtiyojlariga moslashtirish; talabalar tashabbusi va mas'uliyatini qo'llab-quvvatlash; ish joyida o'rganish;

ikki tomonlama fikr almashish uchun sharoit yaratish [9].

Universitetlarda innovatsion metodni o‘qitishning interfaol usullaridan “Aqliy hujum” usulidan foydalanamiz.

Aqliy hujum – muammo yuzasidan o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plash va ulardan muayyan yechimga kelish uchun foydalanish usuli. Aqliy hujumning yozma va og‘zaki shakllari mavjud.

Og‘zaki ravishda har bir talaba o‘qituvchi bergan savolga o‘z fikrini bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniq va aniq shakllantiradilar.

Yozma shaklda o‘quvchilar berilgan savolga javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va aniq yozib boradilar. Javoblar doskaga (magnit yordamida) yoki doskaga (pinlar yordamida) biriktiriladi. “Aqliy hujum” usulining yozma shaklida javoblarni ma’lum mezonlar bo‘yicha guruhlash mumkin. Bu usul to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilsa, insonni erkin, ijodiy va chegaradan tashqarida fikrlashga o‘rgatadi [10].

O‘ylab ko‘ring, bu eritmadan birinchi navbatda qanday kation ajralib chiqadi va bu kationni ajratib olish uchun qanday reagent ishlatiladi?

Oxir oqibat qaysi kation ajralib chiqishini aniqlang va nima uchun?

Agar oliy ta’lim muassasalarida har bir darsda yuqorida tilga olingan interfaol usullardan foydalanilsa, dars samaradorligi yuqori bo‘lar edi.

Turli fanlarni o‘qitishdagi vaziyat an’anaviy ta’limga qaraganda ancha o‘qitish o‘quvchilarning bilim qobiliyatlari, ijodiy qobiliyatlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashni tashkil etishga ta’sir etishi har kuni ayon bo‘lmoqda. Ta’lim sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘rganish ta’lim mazmunining barcha to‘rtta komponentini (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat) o‘rganishga ijobiy ta’sir qiladi. Ular o‘quvchilarga mustaqil muayyan mavzular uchun juda muhim bo‘lgan vaziyatlarni hal qilish bilimlardan metodik asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan ulardan olingan bilimlarni amaliyotda mustaqil qo‘llash masalalarini qayerda ta’sir qiladi? Qachon va qanday foydalanish kerak? Bugun darslarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan qay darajada foydalanyapmiz? O‘qituvchi va talabaning innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda topshiriqni bajarishga munosabati qanday? Shunday qilib, ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki: pedagogika fanlarini

Colleen Ward makes an important distinction between psychological adaptation and sociocultural adaptation. Psychological adaptation arises from the stress/coping paradigm and refers to emotional changes that vary over time until equilibrium is reached (e. g. , tolerance of ambiguous situations). Sociocultural adaptation comes from the social learning paradigm and refers to cognitive and behavioral changes that follow a more linear progression (e. g. , accepting new cultural mores). Although these modes of adaptation are linked theoretically and statistically, they are also distinct processes with different predictor variables.

Andrew Garrison reviews adaptation as a goal of all psychotherapy. He argues that the intrinsic problem of this goal is that it comes from an individualistic point of view, a bias of Western culture. Using the individual as the unit of analysis in the study and practice of psychology neglects the notion of interdependence and adaptation goals that are good

for all human beings (e. g. , equitable distribution of resources). Furthermore, good mental health is often viewed as the individual adjusting to the environment, a conceptualization that ignores unhealthy aspects of cultures to which individuals are adjusting (e. g. , unfair social conditions). Inherent to multicultural counseling is the empowerment of clients not only to adapt in new cultural contexts but also to impact the environment (e. g. , managing global warming) such that humanity can adapt as a whole.

Future Directions

The study of cross-cultural adaptation is complex. It is a process that occurs over a long period of time and, thus, calls for longitudinal studies using both qualitative and quantitative methodologies. Furthermore, each cross-cultural interaction is unique. Thus, Berry's work calls for systematic, comparative studies. Finally, research has focused on how individuals adapt to the environment. Consideration of the impact of individuals on the environment as a process of adaptation is called for as well.

CONCLUSIONS

It can be concluded from the above that the feeling of the presence of one's "I" begins in the infancy of a person and continues for a long time, and former union psychologist I. S. The sensibility of the process of formation, which Kohn aptly called the "discovery of the self", begins to understand the difference from the sensations created by objects outside him. Then, at the age of 2-3 years, the child begins to understand the process and result of his own actions with objects. He distinguishes the difference between the joy of the child and the concrete actions of adults and says to adults: "No, I will do it myself!". "It's not yours, it's mine!") begins to understand himself for the first time as the subject of his private actions and actions (Personal pronouns appear in the child's speech).

REFERENCES

1. Child psychology and methodology. - Z. Nishanova, G. Alimov.

2. Teacher ability and its study in psychology - K. Qudratova

3. Dewey Dj. "Psychology and pedagogy of psychology". M. , Progress, 1998.

4. Carnegie D. "Kak zavoevat druzey I okazyvat na nix vliyanie". M. , Progress, 1990.

5. Karimova V. M. Psychological methods of propaganda. -T. : Ma'naviyat, 2000. 16 p.

6. Karimova V. M. Parental school is the key to happiness. - T. , 2002

7. Family psychology. Prof. /. Shoumarov ed. under. - T. : Sharq, 2001

8. Vecher L. Secrety delovogo obshcheniya. Minsk, 1996.

9. http://library. ziyonet. uz

10. https://www. open. edu

11. https://cyberleninka. ru/article/n/importance-of-learning-individual-psychological-characteristics-of-students

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI ONGIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI, REPRODUKTIV SALOMATLIK BORASIDAGI BILIMLARNI QAROR TOPTIRISH

Yaxshimbekova Sayyora Kamalovna

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolani yozishdan asosiy maqsad bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ongida sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik borasidagi bilimlarni qaror toptirishni tadqiq etish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni yechish amalga oshirilgan: ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish, o‘qitishning shakl va metodlaridan o‘rinli foydalanish; ta’lim jarayonining asosiy obyekti bo‘lgan talaba shaxsida faollik, bilishga intilish, mustaqil fikrlay olish, ijodkorlik ko‘nikmalarining shakllanganligi kabi yo‘nalishlarini belgilash.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, reproduktiv madaniyat, davlat siyosati, intellektual meros, umumbashariy qadriyat, madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiya.

“DETERMINING KNOWLEDGE ABOUT HEALTHY LIFESTYLE AND REPRODUCTIVE HEALTH IN THE MINDS OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract

The main purpose of writing this scientific article is to research the determination of knowledge about healthy lifestyle and reproductive health in the minds of future physical education teachers. Based on this goal, the following tasks were solved: proper planning and organizing of the educational process, appropriate use of forms and methods of teaching; identifying the direction of the student‘s being active, the desire to know, the ability to think independently, and the formation of creativity skills.

Key words: Physical education, reproductive culture, state policy, intellectual heritage, universal value, culture, economy, science and technology, technology.

Kirish

Jahonda reproduktiv salomatlikni yaxshilashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish hamda yoshlarning tibbiy bilim va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amaliyotga tadbiq etilgan.

Jahonda yoshlar reproduktiv madaniyatini shakllantirishning tibbiy-biologik, ijtimoiy-demografik, pedagogik-psixologik mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda, oilada, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, bolalar va o‘smirlar reproduktiv salomatligi samaradorligini mustahkamlash, jamoatchilikning tibbiy-pedagogik madaniyatini oshirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush madaniyatini keng targ‘ib qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Natijada, uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning reproduktiv madaniyatini shakllantirish mazmunini takomillashtirish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini bu jarayonga nazariy va metodik jihatdan tayyorlash imkoniyatlari kengayadi.

Metodologiya

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning ahloqiy va ma’naviy takomili ko‘p jihatdan shaxsning ma’naviy tarbiyasiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlab o‘tganidek; “Yoshlar tarbiyasi masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. XXI asrda yashab, samarali mehnat qilish, O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod

zimmasiga tushadi. Ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib takomillashtirish bizning bosh vazifamizdir" (Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. : Ma'naviyat, 2008).

Darhaqiqat, so'nggi yillarda keskin o'zgargan hayot sharoitlari va ta'lim tizimi, uning maqsadi, mazmuni, turlari o'rtasidagi o'zgarishlar yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, baholash va unda xalqimizning boy madaniy merosidan maqsadli foydalanishni talab etmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa:

- ta'lim-tarbiya ishlari, shakllari usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

- ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash;

- yoshlarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini qaror toptirish;

- yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotida mahalla, oila va nodavlat tashkilotlar hamkorligi tizimini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bizga ma'lumki, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish va unga rioya etish, sog'lom oilani takomillashtirish, farzand ko'rish va uni tarbiyalash shaxs ma'naviy madaniyatining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Shu bidan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan izchil islohatlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan xotin-qizlar, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, yoshlarda tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va unga rioya qilish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha qator muammolar ham uchramoqda.

Jumladan:

onalar va bolalar o'limi holatlari;

kamqonlik va boshqa turli xastaliklar;

ayrim oilalardagi homilador ayollarga bo'lgan munosabatning sustligi va parvarishning yetarli darajada emasligi;

yosh oilalardagi ayrim muammolar natijasida kelib chiqayotgan tushunmovchiliklar;

er-xotin, qaynona-kelin, ota-onalar va farzandlar va boshqa oila a'zolari munosabatlaridagi o'zaro kelishmovchiliklar;

ayrim oilalardagi erkaklarning mas'uliyatsizligi, salomatlik va sog'lom-turmush tarzi masalalariga befarqligi;

erta nikoh va erta ona bo'lish holatlari;

nogiron farzandlarning tug'ilishlari va h. k (Gazeta novosti Uzbekistana. 100 ekspertov opredelili 15 vajneyshix reform Prezidenta Shavkata Mirziyoeva).

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda reproduktiv salomatlik alohida yo'nalish sifatida o'rganilmagan bo'lsada, shaxs ma'naviy-ahloqiy salomatligining tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilgan.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sog'lom turmush tarzini takomillashtirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan reproduktiv madaniyatni shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan M. Inomova "Yigit va qiz, ya'ni bo'lajak ota-ona oila qurmoqchi ekanlar, ular jismoniy va ma'naviy kamoloti darajasi oila qurish, uni tebratish va mustahkamlash uchun eng muhimi bo'lajak farzandlarini tarbiyalash uchun teng bo'lishi lozimligi islom dinida uqtiriladi.

Oilada farzand dunyoga kelishi, onaning va tug'ilajak bolaning salomatligi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish degani. Reproduktiv madaniyat tushunchasi faqat oilada tug'ilajak bolalar sonini belgilashgina emas, balki kengroq masalalarni ham qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor oilalar farovonligini ta'minlash, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilaning tom ma'noda mustahkamligini ta'minlash kabi omillar nazarda tutiladi.

Oila hamisha, har qanday turmushda ham kecha, bugun va kelajakni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajarib kelgan. Tarixan shakllanib kelgan o'zbek oilaviy tarbiya jarayonida oila qurish, farzand ko'rish va uni tarbiyalash kabi masalalar asosiy qoidalar bo'lib kelgan. Bu darajaga erishishda buyuk mutafakkirlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu ali Ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Jamoliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning madaniy-ma'rifiy merosi asosiy zamin bo'lib xizmat qilgan.

Umuman olganda oila, oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalar insoniyat tarixi bilan bog'liq muammolardandir. Psixolog olim G'. B. Shoumarov oilaviy munosabatlar va reproduktiv salomatlik masalalarining ilmiy – tarixiy asoslarini tadqiq etar ekan, «. . . oilada jinsiy hayotning psixogenetik qoidalariga amal qilishning o'ziga xos usullari ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq mavjud bo'lgan», deya

ta’kidlaydi (Talaba yoshlarning reproduktiv madaniyatini shakllantirish. “Ta’lim muammolari” jurnali. -T. , 2009).

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, deydi tadqiqotchi, oilaviy munosabatlarning ijtimoiy boshqarila boshlanishining ma’lum bir bosqichlarida turlicha tabular (ta’qiqlashlar) mavjud bo‘lgan. Bundan bir necha o‘n ming yillar ilgari poligam oilalarda hukm surgan shunday tabulardan biri qabilaning a’zosi bulmish emizikli ayol bilan jinsiy hayot kechirishni ta’qiqlashga qaratilgan tabudir.

Buning boisi shundan iborat bo‘lganki, u davrlarda qabila a’zolarining asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo‘lgan, erkaklar asosan ovchilik bilan shug‘ullanib o‘z o‘ljalari bilan qabila a’zolarini boqishgan. U davr odamining tushunishicha, agar erkak kishi ovga chiqishidan oldin emizikli ayol bilan jinsiy hayot kechirsa, unga sut hidi yuqib qoladi, sut hidi esa ov vaqtida shu ovchi va uning sheriklari yoniga boshqa yirtqichlarni «chaqirishi» mumkin, ovga chiqqan erkakning o‘zi boshqa bir yirtqichlarga o‘lja bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan.

Adabiyotlar sharhi. Shuning uchun ham ibtidoiy davrlarda emizikli ayollar bilan jinsiy hayot kechirish ta’qiqlangan. Bu esa o‘z navbatida, oilada farzandlar tug‘ilishi bilan bog‘liq shart-sharoitlarni yaratishning o‘sha davrdagi o‘ziga xos qonunlari “tabiiy tanlanish” va “yashash uchun kurash” ta’siri ostida shakllangan usullaridan bo‘lgan. Bu haqiqatdan ham ibtidoiy odamlarning avloddan avlodga, nasldan naslga rivojlanib, takomillashib borishini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Chunki, shu tabular tufayli onalar bolalarini ular to 3-4 yoshga kirib, o‘zlari mustaqil ozuqa topib, o‘zi uchun kurasha olgunlariga qadar «ona suti» bilan oziqlantirishga «majbur bo‘lganlar». Bu esa, onalarning ham, bolalarning ham avloddan-avlodga sog‘lomlashib, takomillashib borishini ta’minlagan ilk ibtidoiy omillardan biri bo‘lgan (Muhabbat va oila. - T. : O‘qituvchi, 2006).

Yuqorida keltirib o‘tilgan dalillardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, haqiqatdan ham, oila, reproduktiv madaniyat, sog‘lom turmush tarzi masalalari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida o‘rganilgan, hayot tarziga singdirilgan.

Prezidentimiz xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan bayram tabrigida mazkur sohadagi ishlarning dolzarbligi xususida to‘xtalib o‘tdi. “Mamlakatimizda onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash maqsadida tibbiyot sohasini, xususan, shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish, dori-darmon ta’minotini yaxshilash bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda. Ana shu

ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun joriy yilda budjet mablag‘lari hisobidan qariyb 1 trillion so‘m mablag‘ ajratilib, bu borada yangi qadamlar qo‘yiladi” (Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T. : O‘zbekiston, 2017).

Reproduktiv madaniyatning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlar bilan o‘z a’zolarini tanishtirgan holda, ularning sihat-salomatligini himoya qilish va saqlashdan ham iboratdir.

Prezidentimiz O‘zbekiston markaziy gazetalaridan birining bosh muxarri savollariga javob berar ekan, islohotlar davomida amalga oshirilayotgan ishlardan asosiy maqsad inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash ekanini ta’kidladi. “Yangi O‘zbekiston – ko‘pmillatli xalqimizning erkin, farovon va farovon hayotini ta’minlashdan asosiy maqsad bo‘lgan davlatdir. Bu xalqaro hamjamiyat bilan do‘stlik va hamkorlik jarayonlariga demokratik demokratiya, inson huquq va erkinliklarini saqlash umume’tirof etilgan me’yorlarga qat’iy kuch holda rivojlanayotgan davlatdir” (Gazeta “Yangi O‘zbekiston”. 2021, avgust 18).

Reproduktiv madaniyat tushunchasi shaxsning reproduktiv salomatlik borasidagi nazariy bilimlarining amaliy ifodasi, shuningdek, oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasining to‘laqonli anglashi bilan bog‘liq savodxonlik darajasiga qaratiladi. Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (VOZ) ta’rifiga ko‘ra, "reproduktiv salomatlik reproduktiv tizim, uning funksiyasi va jarayonlari bilan bog‘liq barcha sohalarda kasalliklarning yo‘qligi emas, balki butun jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

Shunday qilib, biz pedagog, psixolog va filosof, tibbiyot, sotsiolog, demograf olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish, hamda tahlil etish natijasida reproduktiv salomatlik va reproduktiv madaniyat tushunchalarining nihoyatda xilma-xil ekanligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik.

Bu esa, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari reproduktiv madaniyati mazmuni tushunchasining pedagogik mazmuni tipologiyasini yaratishga asos bo‘ldi (1. -rasm).



1-rasm. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari reproduktiv madaniyati mazmuni

Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy, ijtimoiy omillar, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayoni asos bo‘ladi. Xususan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sog‘lom turmush tarziga intilish, o‘z sog‘lig‘ini muhofaza qilishga ehtiyoj kabi sifatlarining shaklanishi bevosita ta’lim-tarbiya jarayonining mahsuli bo‘lib, bunda oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar

Ma’lumki, shaxsning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Ta’lim jarayoni o‘zining mazmuni bilan bo‘lajak mutaxassis shaxsini takomillashtirishga qaratiladi. Unga ilmiy yondashuvlar esa ta’lim jarayonini ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini belgilashga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va ta’lim oluvchilarning maqsadli o‘zaro munosabatlari yig‘indisi sifatida izohlaydi.

Talabalarning o‘z-o‘zini baholay olishi, ularning kasbiy tayyorgarligini, ilmiy va ixtisoslikka oid bilimlarini egallashga bo‘lgan ongli munosabatini takomillashtirishga yo‘naltirilganligi bilan oliy ta’lim uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlarida tubdan farq qiladi.

Shuning uchun bugungi kunda oliy ta’lim tizimini isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini jonlantirish, ta’lim

jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga xizmat qiladigan o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlarini takomillashtirish orqali mutaxassis shaxsini jismonan, ruhan va ma’nan barkamol etib takomillashtirishdan iboratdir.

Ma’lumki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ongida sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik, sog‘lom farzand ko‘rish, uni tarbiyalash borasidagi bilimlarni qaror toptirishda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan tibbiy-biologik va pedagogik-psixologik fanlar muhim o‘rin tutadi. Bu esa ushbu fanlar mazmunida yoshlardagi sog‘lom turmush tarzi va reproduktiv madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mavzularning yoritilishi yordamida amalga oshiriladi.

Ta’lim mazmunini insoniylashtirish ta’lim jarayonida talaba shaxsining ustuvor o‘rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o‘z yo‘llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi.

Ta’limni insonparvarlashtirish yangi tayanch o‘quv rejasining ikkinchi muhim g‘oyasidir. Ta’limni insonparvarlashtirish birinchi navbatda tayanch o‘quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o‘z ifodasini topadi (50 foiz dan ko‘proq).

Differensiyalashtirish majburiy bosqichlar bilan birga yuqori sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko‘zda tutadi. Differensatsiyalash – bu zamonaviy sharoitda ta’limni rivojlantirishning umumiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, talabalarda dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni takomillashtirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish imkonini beradi.

Standartlashtirish – bu majburiy o‘quv fanlari to‘plamining soatlari aniq belgilangan hajmini tanlash. Ta’lim standartlari yordamida ta’lim muassasalarida o‘quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, talabalar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ko‘p bosqichlilik – bu ta’limning har bir bosqichida talabaning imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko‘p bosqichli ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat.

Amaliylashtirish – talabani nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan holda ularni amaliyotda faol qo‘llay olishga tayyorlash. Ya’ni, shaxsda

ta’lim muassasalari ta’limi jarayonidayoq oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimi, o‘quv rejasi, fanlar bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o‘zlashtira olishga imkon beruvchi dastlabki ko‘nikmalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi.

Axborotlashtirish **-** talabalarni ta’lim jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanishni nazarda tutadi.

Individuallashtirish - ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda talaba va o‘zgarish sur’atlaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish demakdir.

Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o‘zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta’lim olish (mustaqil ta’lim olish) ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi.

Mazkur tamoyillarning amaldagi tatbiqi ta’lim oluvchining ijtimoiy va individual talablarini hisobga olgan holda, uning bilish faolligini takomillashtirib borish hamda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu esa, ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishish

birinchidan, ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish, o‘qitishning shakl va metodlaridan o‘rinli foydalanish;

ikkinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy-uslubiy tayyorgarligi, o‘z fanini chuqur bilishi, o‘quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishi, muloqot madaniyati, o‘qitishning ilg‘or texnologiyalaridan xabardorligi;

uchinchidan, ta’lim jarayonining asosiy obyekti bo‘lgan talaba shaxsida faollik, bilishga intilish, mustaqil fikrlay olish, ijodkorlik ko‘nikmalarining shakllanganligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy pedagogik ta’limda yuqorida qayd etilgan sharoitlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanadi. Bunday hamkorlikdagi faoliyatning samarali tadbiqini ta’limning takomillashtirilgan shakl va metodlari tizimi ta’minlaydi.

Ma’lumki, mashg‘ulotlarda talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etishning zamonaviy shakllari quyidagilardan iborat:

Ta’limning ommaviy shakli sinfdagi jami talabalarning pedagog rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko‘zda tutadi.

Guruhli shaklida esa talabalar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin.

Individual shakl har bir talabaning alohida mustaqil ishlashini nazarda tutadi. Darsda pedagogning e’tibori bir necha talabaga qaratilsa, bu vaqtda qolgan talabalar mustaqil ishlasalar ta’limning bunday shakli individual shakl deb ataladi.

O‘qitishning **frontal** shaklida o‘qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun o‘quv xonasining faoliyatini boshqarib boradi. U talabalarning hamkorliklarini ta’minlaydi va hamma uchun bir bo‘lgan ish sur’atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining ta’lim jarayoni ishtirokchilarini butun sinfni nazorat qila bilishiga bog‘liq.

Differensiyalashgan ta’lim shakli o‘quv ko‘nikmalari bir xil darajada shakllangan talabalarni birlashtirishni ko‘zda tutadi. O‘quv guruhlari faoliyatlarini o‘qituvchi bevosita hamda o‘z yordamchilari- assistentlar orqali boshqaradi.

Bizga ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishni tashkil etish shakllariga ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv anjumanlari, maslahatlar, o‘quv, ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta’limi kiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limning ma’ruza-amaliy mashg‘ulot tizimidan foydalaniladi. Mashg‘ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko‘rinishida 80 daqiqa davom etadi. Ularning o‘ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

- ma’ruza talabalarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli davomiyligi (80 daqiqani tashkil etadi);

- amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi rahbarligi ostida olgan o‘quv axborotlari (leksiya va mustaqil ishlari) ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, amalda qo‘llash va o‘zlashtirishni nazorat qilish shakli;

- seminar darsi talabalardan yuqori darajadagi faollikni aqliy faoliyatini, yangi bilim va ko‘nikma olishga bo‘lgan intilishni nazarda tutadi. Bunday pedagogga nostandart usullardan foydalanish maqsadga tavsiya etiladi.

kurslarda o‘quv mashg‘ulotlari jadvalga binoan yagona o‘quv rejasi va dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi;

o‘quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta’tillarga bo‘linadi;

har bir semestr barcha o‘quv fanlari bo‘yicha yakuniy attestatsiya bilan yakunlanadi;

oliy ta’lim muassasasida o‘qish muhim fanlar bo‘yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishi himoyasi bilan yakunlanadi.

Ular o‘z vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanib, umumiy jihatda o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, talabalarning o‘quv va bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning asosiy shakllari sifatida belgilanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasasidagi o‘qitishning samarali shakllariga muammoli ma’ruzalar, seminar-treninglar, mustaqil ijodiy ishlarni kiritish mumkin bo‘ladi.

Muammoli ma’ruza – bunday ma’ruzada bilimlar masala yoki vaziyatning muammoligi orqali beriladi, shu bilan birga idrok etish jarayoni o‘qituvchi bilan hamkorlikdagi ijodiy suhbatga yaqinlashadi. Muammoning mazmuni uning yechimini izlashni tashkil etish yo‘li bilan yoki an’anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni qo‘shish va tahlil qilish yo‘li bilan ochib beriladi.

Seminar-trening – ta’limning nazariy muammolari, nazariy bilimlarni amaliyotda o‘rganish, tahlil qilish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan o‘qitish shaklidir.

Mustaqil ijodiy ishlar – talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirish uchun zamin xozirlaydigan, ulardagi ijodiy izlanuvchanlik, individual faollikni oshirishga xizmat qiluvchi o‘qitish shakli hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda oila keng imkoniyatlarga ega. Chunki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, farzand ko‘rish va uni tarbiyalash madaniyatini takomillashtirish o‘zbek oilalari uchun dolzarb masalalardandir. Oilaviy tarbiyada eng muhim shart–oilaning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosga qurilganligi, avvalo ota-onalarning o‘zlari tarbiyalangan bo‘lishlari, ular o‘rtasida totuvlik, ahillik barqaror bo‘lishi, farzandlarini kelajakda turmush qurishga tayyorlash ularning kundalik e’tiqod tarzida ma’suliyatli burchi ekanligini ongli tushunishlari va buni amalda oqlashlari kerak.

Shaxs ma’naviy kamolotining muhim mezonlaridan sanalgan reproduktiv madaniyatni takomillashtirish o‘ziga xos murakkab va mas’uliyatli jarayon hisoblanib, bunda zaruriy pedagogik, moddiy-texnik sharoitlarni yaratish bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining reproduktiv bilimlarni yuqori darajada o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri - bu yoshlarni milliy istiqlol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlarni bilish asosida, mustaqillik ideallariga sadoqat, vatanga, oilaga atrof-muhit, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash. Shuningdek, ular ongida sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyat g‘oyalarini takomillashtirishdir. Avvalo yigit va qizlarimiz turmush qurishdan oldin, sog‘lom oilani shakllantirishda o‘z reproduktiv huquqini bilishi lozim.

Reproduktiv huquq –bu barcha er-xotin juftliklar va alohida shaxslarning bolalar soni, ular orasidagi oraliq va ularning tug‘ilish vaqti haqida erkin hamda, to‘liq mas’uliyat hissi bilan qaror qabul qilish va buning uchun shart bo‘lgan ma’lumot va vositalarga ega bo‘lish borasidagi asosiy huquqlarini tan olinishidir (Oila psixologiyasi. T. O‘qituvchi, 2001).

- Reproduktiv huquqlar:

- oilada bolalar soni borasida ayol va juftliklarning qaror qabul qilish huquqi;

- tug‘ruqlar orasidagi masofani tanlash;

- reproduktiv salomatlik to‘g‘risida ma’lumotlar olish;

- reproduktiv salomatlik sohasida huquq va manfaatlarini cheklashdan xoli bo‘lgan holda sifatli xizmatlar olish;

- jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, OIV infeksiyasi va OITSdan himoyalanish;

- o‘smirlar, ayniqsa qizlarga do‘stona munosabatda xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash;

- olingan to‘liq ma’lumotga asosan, ayol hohlagan kontratsepsiya usulini erkin holda tanlash huquqiga ega bo‘lish;

- tibbiyot va jamoa xodimining tashqi bosimi ta’siridan xoli ayolning o‘zi tanlagan kontratsepsiya vositasidan foydalanishini ta’minlash;

- kontratseptivlardan foydalanish huquqi (juftliklar uchun qulay narxlar, tibbiyot muassasalarining mavjudligi, keng ko‘lamda turli xil usullardan qulay joy va vaqtda foydalanish)

- homiladorlik va tug‘ruq vaqtida ayolning xavfsizligini ta’minlash huquqi (tibbiyo xizmatining sifatliligi, oilaning munosabati, erning har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi, tibbiy yordamga ehtiyoj paydo bo‘lganda shart-sharoitni yaratish).

Tug‘ilish va sog‘lom oilani shakllantirish masalalari bevosita reproduktiv salomatlik masalalari bilan uzviy bog‘liq. Lekin reproduktiv salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab tibbiy va ijtimoiy omillar ham mavjud. Ushbu omillarni bartaraf qilish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda bevosita ta’lim jarayoni bilan birga auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etilishi ham alohida o‘rin tutadi.

Ta’lim jarayonida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ongiga singdirilgan nazariy bilim va ma’lumotlar auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida mustahkamlanadi va ijtimoiy ko‘nikmalarga aylantiriladi. Shu nuqtai nazardan biz tadqiqot muammosining amaliy yechimini ta’minlashda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning yangicha mazmuni, samarali shakl va usullarini ishlab chiqishga e’tibor qaratdik.

Ma’lumki, tarbiyaviy tadbirlar-bu turli moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuasidir. Ta’lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbir tarbiyaviy jarayonning bir bo‘lagidir.

Sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga ega bo‘lish – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, har bir talaba yoshda uni tarbiyalash va takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan. Zero, yosh avlodning sog‘liq madaniyatini mustahkamlamasdan, jamiyatning har bir a’zosida o‘z sog‘ligiga javobgarlik, mas’uliyat hissini tarbiyalamasdan farovon va madaniy hayot qurish mumkin emas.

Mavjud manbalarni taxlilidan, keltirilgan nazariy fikrlardan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda reproduktiv madaniyatini takomillashtirish bo‘yicha o‘ziga xos milliy, tarixiy tajriba mavjud. Bu tajribalarni ilmiy asosda o‘rganish va tahlil etish bizda quyidagi xulosalarni takomillashtirishga asos bo‘ldi:

Oila va oilaviy munosabatlar, farzand ko‘rish va uni tarbiyalash borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar oilaviy tarbiyani tashkil etishda o‘ziga xos uslubiy yo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizning sog‘lom avlodni takomillashtirish borasidagi talablari mazkur ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Sog‘lom oila, sog‘lom avlodni shakllantirish masalalari sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida o‘z aksini topgan bo‘lib, uning asosida ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash g‘oyasi yotadi.

Sharq mutafakkirlari oila va jamiyatni dialektik birlikda olib qarab, oilaning mustahkamligi, farzand ko‘rish, nasl qoldirishdagi madaniyatlilik darajasi jamiyat rivojini kafolatlaydi deya ta’kidlab o‘tganlar.

Oilada er-xotinning tengligini to‘rt omil: mol, nasab, husn va iymon bilan o‘lchab, yoshlarni oila qurishga tayyorlashda mazkur omillarning mavjudligiga e’tibor qaratish oila barqarorligi, nasl pokligini ta’minlaydi deb hisoblaganlar.

Demak keltirilgan xulosalarga tayanadigan bo‘lsak, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan didaktik tizim mazmunida ajdodlarimiz, buyuk mutafakkirlarning qarashlari, yondashuvlari, tarixiy tajribalari, hikmatlari hamda Hadisi sharif, Qur’oni Karim oyatlari muayyan izchillikda o‘rin olishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, oliyta’lim muassasalarida o‘qitiladigan tibbiy-biologik va pedagogik-psixologik fanlar xususan, “Valeologiya” bosqichidagi “Reproduktiv salomatlik”, “Zararli odatlar va yoshlarni ulardan asrash”, “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” bosqichidagi “Salomatlik va shaxsiy gigiyena”, “Oila psixologiyasi” bosqichidagi “Nikoh va oila munosabatlari”, “Reproduktiv salomatlikning ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatlari”, “Jinsiy hayot psixogigiyenasi” kabi mavzularni o‘qitish jarayonida ham sharq mutafakkirlarining qarashlari va ilmiy pedagogik g‘oyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Bu esa, mazkur muammoning ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarini ilmiy asosda kengroq o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, mutafakkir farzand ko‘rish, sog‘lom nasl qoldirish uchun ayollarning homiladorlik davri ruhiy zo‘riqishlarsiz o‘tishi, bola tug‘ilgach uni ona suti bilan boqish, tez-tez homilador bo‘lishdan o‘zini tiyish, mijozga e’tibor berishni ta’kidlaydi (Mahalla xotin qizlar komissiyalarining raislari va fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifiy va

ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilari uchun amaliy qo‘llanma. 2011).

Sog‘lomlashtirish metodikasini, sog‘liqni saqlash va mustahkamlash usullarini bilish sog‘liq madaniyatini shakllantirmaydi, aksincha ulardan amalda foydalanilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Shu sababdan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini shakllanirishni ularga shu sohadagi zaruriy bilimlarni berish, dunyoqarashni qaror toptirish va o‘z salomatligini mustahkamlashga amaliy faoliyatli yondashuvni vujudga keltirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sog‘lom turmush tarziga quyidagi omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni: yurish-turish, o‘z sog‘ligiga munosabati, sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashi, tibbiy yordamga o‘z vaqtida murojaat qilishi va tibbiy ko‘riklarga ongli yondashuvi, profilaktik tadbirlarni o‘tkazib turilishi kabilardir.

Yuqoridagi ko‘rsatilgan omillar organizmning sog‘lom hayot kechirishi, kishida reproduktiv madaniyatining shakllanishi uchun zamin hozirlaydi.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kelgusidagi kasbiy faoliyatiga qaraganda uning salomatligiga e’tiborli bo‘lish kerak. Chunki, sog‘liq va jismoniy yetuklik bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘z ijodiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar taxliliga ko‘ra, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolar oxirgi yillarda yanada ko‘proq dolzarblik kasb aks etmoqda. Chunki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining sog‘ligi yuzasidan o‘tkazilgan taxlillar natijalari va statistik ma’lumotlarga ko‘ra talabalarda sog‘lik madaniyatining asta-sekin pasayishi kuzatilmoqda. Bunga sabab sog‘liqni saqlash, sog‘lom turmush tarziga oid bilimlar yetishmasligi va unga munosib dunyoqarashga ega bo‘lmaslikdir.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining reproduktiv savodxonligini takomillashtirishda oila, ta’lim muassasalari va keng jamoatchilik o‘rtasida maqsadli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishini, bu boradagi bilimlar, zarur axborotlar, hayotiy tajribalaridan ularni muntazam xabardor etib borilishini ta’minlash muammoning amaliy yechimini ta’minlashda uslubiy yechim bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejasidan o‘rin

olgan tibbiy-biologik, pedagogik-psixologik yo‘nalishdagi o‘quv fanlarining mazmuniga oilaviy hayotga tayyorlash, reproduktiv madaniyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan mavzularni ko‘proq kiritishni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T. : Ma’naviyat, 2008. - 176 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T. : O‘zbekiston, 2017. – 488 b. https://president. uz

3. Mutalov, D. (2021, iyul 24). 100 ekspertov opredelili 15 vajneyshix reform Prezidenta Shavkata Mirziyoeva. Gazeta novosti Uzbekistana. https://nuz. uz/politika/1203992-100-ekspertov-opredelili-15-vazhnejshih-reform-prezidenta-shavkata-mirziyoeva. html

4. Kenjaboyeva N. M. Talaba yoshlarning reproduktiv madaniyatini shakllantirish. “Ta’lim muammolari” jurnali. -T. , 2009. -№4. -51-52 b.

5. Shoumarov G‘. B. Muhabbat va oila. - T. : O‘qituvchi, 2006. - 145 b.

6. Shoumarov G‘. B. Oila psixologiyasi. - T. : O‘qituvchi, 2001. - 374 b.

7. “Sog‘lom oila-sog‘lom avlod-sog‘lom kelajak” Mahalla xotin qizlar komissiyalarining raislari va fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifiy va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilari uchun amaliy qo‘llanma. -T. : 2011. – 60 b.

EXTENDED ABSTRACT

DETERMINING KNOWLEDGE ABOUT HEALTHY LIFESTYLE AND REPRODUCTIVE HEALTH IN THE MINDS OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

The main purpose of writing this scientific article is to research the determination of knowledge about healthy lifestyle and reproductive health in the minds of future physical education teachers. Based on this goal, the following tasks were solved: proper planning and organizing of the educational process, appropriate use of forms and methods of teaching; identifying the direction of the student‘s being active, the desire to know, the ability to think independently, and the formation of creativity skills. The culture of young people in the world in the form of a new edition of the reproductive medical-biological, socio-demographic, pedagogical-psychological content, forms and methods of conducting studies to improve. The us agency for international development (USAID),

the cairo international conference (ARXAIK), unicef, unfpa reproductive activities of international organizations such as the directions of the study is focused on the development of effective mechanisms of culture. Improving the culture of future teachers of physical education reproductive health reproductive, demographic mo'tadillik gender-independent approach on the basis of issues such as family life are of critical importance to the preparation.

In our country, in the family, the education system in all stages of continuous find healthy lifestyle choices, explain the reproductive health of children and adolescents to strengthen the effectiveness of the public, medical-pedagogical culture to increase widespread among the population, systematic work is being carried out aimed at the culture of healthy living. Strategic action for the further development of the republic of uzbekistan "at physically healthy, psychologically and mentally developed, independent-minded, loyal to the motherland, persistent outlook educate young people having a life, deepening democratic reforms and civil society in the development process to increase their social activity" is defined as priorities. As a result, the formation of youth culture in the system of continuous education reproductive improving the content of future teachers of physical training to the process of training opportunities from the expansion of the theoretical and methodological aspects.

NODAVLAT TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

magistr Umirova Dildora Shavkatovna

Annotatsiya

Nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish barcha o‘quvchilarning kelib chiqishi va ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’i nazar, mukammal ta’lim olishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu abstrakt ushbu maqsadga erishishning ba'zi mexanizmlarini ta'kidlaydi. Birinchidan, o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur. Nodavlat ta’lim muassasalari o‘qituvchilarning zamonaviy o‘qitish usullari, fanlar bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahoratini ta’minlovchi malaka oshirish dasturlariga mablag‘ sarflashlari kerak. Bu o'qituvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish va talabalarni samarali jalb qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, javobgarlik va monitoring tizimlarini rivojlantirish zarur. Nodavlat ta’lim muassasalari o‘quvchilar faoliyatini, o‘qituvchilar samaradorligini va umumiy maktab sifatini baholash uchun kompleks baholash mexanizmlarini yaratishi kerak. Muntazam baholash va baholashlar takomillashtirish sohalarini aniqlashi va kamchiliklarni bartaraf etish uchun maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Uchinchidan, davlat idoralari, universitetlar va nufuzli notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik va hamkorlikni rivojlantirish muhim ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchilar malakasini birinchi o‘ringa qo‘yish, javobgarlik choralarini amalga oshirish va hamkorlikni rivojlantirish orqali nodavlat ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirishi, barcha o‘quvchilarning yuqori malakali ta’lim tajribasidan foydalanishini ta’minlashi mumkin.

Kalit so‘zlar

Javobgarlik, o‘qituvchilar malakasini oshirish, samarali boshqaruv, monitoring va baholash, mavjud va tegishli o‘quv materiallari, texnologiya integratsiyasi, davlat idoralari bilan hamkorlik, moliyaviy va resurslarni boshqarish, ota-onalar va jamiyatning ishtiroki, uzluksiz kasbiy rivojlanish, tadqiqot va dalillarga asoslangan amaliyotlar, qadriyatlarga asoslangan ta’lim, davlat-xususiy sheriklik, o‘qituvchining

motivatsiyasi va ishdan qoniqish, talabalarga qaratilgan ta'lim, boshqaruv va etakchilik.

Mechanisms for improving the quality of education in non-state educational institutions.

Annotation: Improving the quality of education in non-governmental educational institutions is important in ensuring that all students, regardless of their background and socio-economic status, receive excellent education. This abstract highlights some mechanisms for achieving this goal. First of all, it is necessary to improve the qualifications of teachers. Non-state educational institutions should invest in training programs that provide teachers with modern teaching methods, subject knowledge, and pedagogical skills. This allows teachers to provide high-quality education and effectively engage students. Second, accountability and monitoring systems need to be developed. Non-governmental educational institutions should create comprehensive evaluation mechanisms to evaluate student performance, teacher effectiveness, and overall school quality. Regular assessments and evaluations help identify areas for improvement and develop targeted interventions to address deficiencies. Third, developing partnerships and collaborations with government agencies, universities, and reputable non-profit organizations can have a significant impact. By prioritizing teacher qualifications, implementing accountability measures, and developing partnerships, non-governmental educational institutions can improve the quality of education and ensure that all students have access to a highly qualified educational experience.

Keywords Accountability, teacher development, effective management, monitoring and evaluation, available and appropriate instructional materials, technology integration, collaboration with government agencies, financial and resource management, parent and community involvement, continuing professional development, research and evidence based practices, values-based education, public-private partnerships, teacher motivation and job satisfaction, student-centered education, management and leadership.

Kirish: Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el-yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari,

uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta’lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo‘lmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim sifati ilg’or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta’lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo‘lga qo‘yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirlari to‘g’risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarnng kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, “Zamonaviy maktab”larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomada maktab o‘quv dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini ta’kidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, o‘quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha vazifalarini belgilab berdi. [5]

Mamlakatimizda ham ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e’tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlashning uchinchi bosqichida ta’lim sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir. Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o‘zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’lim mahsulotini tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko‘p o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ta’lim xizmatlari mahsulotini tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta’lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari

o‘rganilmagan. Oliy ta’limda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’lim sifatiga ta’sirini baholash va ushbu mexanizmdan samarali foydalanish yo‘llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta’lim sifati tushunchasi mazmuni to‘g’risidagi qarashlarni o‘rganish zarur. Ta’lim sifati, uning mazmuni va fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to‘g’risidagi qarashlarni o‘rganish asosida ta’lim sifatini yaxshilashdagi rolini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlar bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir. [2]

axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantiradi;

o'z o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash;

ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish;

milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;

matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish.

Metodologiya. O'zbekistonlik olimlardan N. A. Muslimov va M. B. Urazovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetentsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetentsiya-yetarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyinga kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetentsiya-birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetentsiya- mustaqil shaxsiy aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetentsiya-kasb doirasida individuallikni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlik;

asosiy kompetentsiyalar-moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko'nikmalari (96, 6-bet) (Rabbimova Farida To'qsonbaevna dis. dan)

O. Xayitov va N. Umarovalar klaster yondashuvi asosida kompetentsiyalarni quyidagicha guruhlashni taklif etishadi:

axborotlar bilan ishlashga doir kompetentsiyalar- axborotlarni to'plash va tahlil etish, qarorlar qabul qilish, axborotlarni qayta o'zgartirish;

muvaffaqiyatga erishishga doir kompetentsiyalar-rejalashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tahlillash;

insonlar bilan ishlashga doir kompetentsiyalar-munosabatlarni boshqarish, komandada ishlash, atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish;

o'z-o'zini takomillashtirishga doir kompetentsiyalar- o'z-o'zini tekshirish, kasbiy o'sish, innovatsion mobillik demakdir.

M. B. Urazova loyihaviy faoliyat nuqtai nazaridan kompetentsiyalarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

refleksiv kompetentsiya- o'z-o'ziga baho berish, o'z shaxsi va faoliyatining yutuqlari va kamchiliklariga bo'lgan o'ziga xos talabchanlik, o'z ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sababini tushuna olish;

kognitiv kompetentsiya- mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, mustaqil rivojlanish g'oyalarini qo'llash;

axboriy kompetentsiya- kerakli axborotning olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishiga doir maxsus qobiliyatlarning egallanishi;

kommunikativ kompetentsiya- yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullar;

ijtimoiy kompetentsiya- voqelikning ijtimoiy ahamiyatini anglash, javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlarning jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liqligining namoyon bo'lishi.

B. X. Xodjaev tomonidan esa, "umumta'limiy kompetentsiya tushunchasi" iste'molga kiritilgan bo'lib, olim umumta'lim fanlarini o'qitishga doir sakkizta tayanch kompetentsiyani aniqlashtirgan va ular quyidagicha tavsiflanadi: motivatsion-kognitiv; informatsion;

kommunikativ; g'oyaviy-mafkuraviy; fuqarolikka doir; ma'naviy-ahloqiy; aksiologik, akmeologik, estetik.

Pedagogika va psixologiya fanlarida bu masalaga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning qatorida kompetentsiyalarni shakllantirish va takomillashtirishga alohida munosabat bildirilgan. Pedagogik-psixologik yondashuv tarafdorlari kompetentsiyalarni shakllantirish masalasiga ta'lim-tarbiya nuqtai nazari asosida maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Ilmiy tadqiqotlarda kompetensiyani funktsional jihatdan klassifikatsiyasi quyidagicha amalga oshirilgan: maishiy kompetentsiyalar; siyosiy kompetentsiyalar; meta kompetentsiyalar; predmetli kompetentsiya; metodik kompetentsiya; psixologik-pedagogik kompetentsiya; axborot-kommunikativ kompetentsiya; kasbiy-pedagogik kompetentsiya; ijtimoiy kompetentsiya; boshqaruv kompetentsiyasi; kommunikativ kompetentsiya; madaniy kompetentsiya; psixologik kompetentsiya va boshqalar.

Kompetentsiyaning bu tarzdagi klassifikatsiyasida psixodiagnostik kompetentsiya o'z aksini topmagan. Fikrimizcha, talabalarda psixodiagnostik kompetentsiyalarni shakllantirish, istiqbolda ularni kasbiy faoliyat bilan muvaffaqiyatli tarzda shug'ullanishlarini ta'minlovchi asos hisoblanadi.

Chunki, kompetentsiya insonning o'zlashtirish orqali paydo bo'lgan bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan amaliy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi.

Pedagogikada katta miqdordagi ishlar "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalarini aniqlashtirishga bag'ishlangan.

Pedagogik adabiyotlarda kompetentsiya "o'qitish", "yaxshi nasl berish" tushunchalari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, insonning aqliy rivojlanishining umumiy darajasining integral ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqilgan.

Mahalliy va xorijiy psixologlarning kompetentsiyani tushunishga bo'lgan yondashuvlarini tahlil qilib, biz ushbu kontseptsiyani aniqlashning ikki bosqichini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi davrda, XX asrning 70-yillariga qadar, "kompetentlik" va "kompetentsiya" tushunchalari farqlanmagan. Hozirgi vaqtda ushbu tushunchalarni talqin qilishning ikkita varianti mavjud. Birinchi holda, mualliflar kompetentsiyalar bo'yicha bir qator muammolarni, muayyan mas'uliyat va vakolat doirasini, muhim faoliyat sohasini tushunadilar. umuman tashkilotning samarali faoliyati, bunda shaxs (nomzod, ijrochi)

ma’lum bilim, ko’nikma, xulq-atvor mahorati, egiluvchan qobiliyat va shaxsning kasbiy muhim xususiyatlarini amalda namoyish qilish kerakligini ta’kidlaydilar. Ikkinchi holda, "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalarini asosini tashkil etadigan ko’nikma, malaka va boshqa xususiyatlarni amalda namoyon bo’lishiga, ularni kompetentli shaxs sifatida muvaffaqiyatli muloqot qilishni rifojlantirish muhimligiga e’tibor qaratadilar. Bunda bilim, ko’nikma, malaka, faoliyat, tajriba, qadriyatlar va munosabatlar, xatti-harakatlar uchun javobgarlik, umumiy madaniy, ma’rifiy va axborot, kommunikativ, ijtimoiy va mehnat va shaxsiy o’zini o’zi takomillashtirish kabilarga asosiy o’rinni egallaydi. Umumiy kompetentsiyalar - barcha (ko’pchilik) kasblar va mutaxassisliklar uchun o’zgarmas, kasbiy va mehnat muammolarini hal qilishga va OTM bitiruvchilarini mehnat bozorida ijtimoiy va mehnat munosabatlariga qo’shilishlarining omili bo’ladigan universal faoliyat usullari hisoblanadi. Bu o’rinda ularning turlari va mohiyatiga amal qilish mutaxassis faoliyatida muhim o’rin tutadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kompetentsiyaning asosiy negizi hisoblangan “kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kompetentlik deganda inson o’ziga va faoliyat mavzusiga nisbatan shaxsiy munosabat asosida bir qator kompetentsiyalarga ega ekanligi nazarda tutiladi. Kompetenlik mutaxassis ma’lumotiga oid qonuniyatlarni, muammolarni hal qilish qoidalarini va ularni hal qilishni to’g’ri tashkil etishni o’rganishidir.

Rossiya olimlaridan N. V. Yakovleva va L. P. Urvantsev kompetentlikni integral ruhiy shakllanish deb tushunishni va ushbu kontseptsiyani o’z faoliyatida muammoli vaziyatlarini hal qilishda muvaffaqiyatlarga erishish darajasidir deb belgilaydi. Demak, kompetentlik faoliyatni o’zlashtirish jarayonida paydo bo’lib, uni amalga oshirish muvaffaqiyatida namoyon bo’ladi. Kompetentlik- bu struktura yoki rivojlanish darajasi emas, balki aqliy jarayonlarning ma’lum bir ta’sir usuli natijalari, mahorat va tajriba darajasidagi bilimlarni amalda qo’llay bilishdir. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, kompetentlik muammolarni hal qilishda yordam beradigan va har qanday sohada xabardorlik, obro’-e’tiborni muvaffaqiyatli, ilmiy asoslangan holda

amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami hisoblanadi.

Kompetentlik faoliyatining natijasi, amalga oshirilgan imkoniyati deb hisoblash mumkin. Ushbu jarayonda ilgari egallagan munosabat, bilim va ko'nikmalar faoliyat vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydi. Bunda psixologik tayyorgarlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hissiy-irodaviy, kognitiv va motivatsion komponentlarning birligi muhimdir.

Faoliyat va kompetentlikka psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifasi sifatida muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda bashorat qilish darajasini ta'minlashga oid bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.

"Kompetentlik" tushunchasida "kompetentsiya", "professionallik", "mahorat", "faoliyatga tayyorlik", "kasbiy fazilatlar", "kasbiy muvofiqlik", "ta'lim natijasi" kabi farqlar mavjud. Holbuki, "kompetent" tushunchasi sub'ektni tavsiflash uchun ishlatiladi va shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Bunday holda, kompetentlik u yoki bu xodimning kasbiy muammolarni hal qilishda ma'lum bir samaradorlik standartini ta'minlaydigan zarur kompetentsiyalarga ega bo'lgan mahorat darajasini ifodalaydi deyish mumkin.

Kompetentlik bu asosan muvaffaqiyatli faoliyat uchun nima qilish kerakligini bilish, "o'z mahorati", "mulohaza", "muomala" va "munosabat" kabi ichki jarayonlarning yuqori darajadagi rivojlanish ko'rsatkichi, muammoni hal qilish usulining bajarilish samaradorligi, tezligi va aniqligida o'z ifodasini topadigan xususiyatdir. Bundan tashqari, kompetentlik tashuvchisi faqat sub'ekt bo'lishi mumkin (ham individual, ham guruhda) va "shaxssiz" mavjud emas.

Kompetentlik nazariya va amaliyot asosida shakllanadi, u odamning bilish, fikrlash, muloqot qilish, harakat qilish, muayyan muammolarni ilgari surish va hal qilish, ularning borishi va natijalarini tahlil qilish, ularning yechimini topish, doimiy ravishda tegishli tuzatishlar kiritish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda boshlang'ich savodxonlik; umumiy ta'lim; kasbiy mahorat; keng ko'lamli madaniyatni o'zlashtirish; individual mentalitetning shakllanish bosqichlari muhim o'rin tutadi.

Kompetentlikni shakllantirishda semantik (vaziyatni umumiy madaniy kontekstda tushunish); muammoli-amaliy, (tan olishning adekvatligi); maqsadlarni belgilash va ularni samarali amalga oshirish (normalarning vazifalari); kommunikativ (muloqot) kabi jihatlar yetakchi

rol o'ynaydi. Ushbu jihatlarga ega bo'lgan kishi o'z kompetentsiyalari bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikda shaxsning ichki ruhiy holatlari va xususiyatlarining murakkab yaxlit tizimi sifatida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchilarda pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchining shaxsiyati (uning protsessual ko'rsatkichlari), egallagan bilimi (o'zlashtirish qobiliyati) va tarbiyasi (natijaviy ko'rsatkichlari) kabi jihatlarni aks ettiradi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi bir tomondan uning faoliyati tahlili, jarayoni (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, shaxsiyat) va natijasi (o'quvchilarni bilimi va tarbiyasi) bilan, ikkinchi tomondan u ega bo'lgan ob'ektiv zarur ko'nikmalar va psixologik fazilatlarga nisbati bilan belgilanadi.

Shuningdek, pedagogik ta'sir sub'ekti sifatida, pedagogik muammolarni optimal yechimini topish uchun ilmiy va amaliy bilimlarni maxsus tarzda qo'llay oladigan o'qituvchi mahoratini rivojlantiradi. Ushbu jarayonda: maxsus kompetentlik- kasbiy faoliyatga yetarlicha yuqori darajada egalik qilish, ularning keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtirish qobiliyati; ijtimoiy kompetentlik- kasbiy faoliyat, hamkorlik, ushbu kasbda qabul qilingan professional muloqot texnikasiga ega bo'lish; kasbiy mehnat natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik- o'zini namoyon qilish va o'zini rivojlantirish texnikalariga hamda shaxsning professional deformatsiyalariga qarshilik ko'rsatish vositalariga ega bo'lish; kasb doirasida o'z-o'zini anglash va rivojlantirish texnikasi- kasbiy o'sishga tayyor turish, o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lgan individual xususiyatlar takomillashadi.

Kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari:

-ijtimoiy va huquqiy kompetentlik (davlat institutlari va odamlar bilan o'zaro munosabatlar sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, professional muloqot va xulq -atvor texnikasini o'zlashtirish);

-maxsus kompetentlik (muayyan faoliyat turlarini mustaqil bajarishga tayyorlik, odatiy kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z ishining natijalarini baholash qobiliyati, mutaxassislik bo'yicha mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash qobiliyati);

-shaxsiy kompetentlik (doimiy kasbiy o'sish va malaka oshirish qobiliyati, shuningdek, kasbiy ishda o'zini namoyon qilish qobiliyati);

-auto kompetentlik (o'z ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va kasbiy tushunmovchilik va muammolarni bartaraf

etish texnologiyalarini o'zlashtirish) kabilardan iborat bo'lib, shaxsning ma'lum kasbiy vazifalarini hal qilishda muhim o'rin tutadi.

Kasbiy kompetentlik tarkibi: kasbiy faoliyat (o'z ishini bilish); kasbiy muloqot (ijtimoiy-pertseptiv, psixologik diagnostik jihatdan o'rganish, axloqiy, empatik); ijtimoiy-madaniy (ziddiyatlarni psixologik, individual, madaniy me'yorlarni o'zlashtirish jihatlarini hisobga olgan holda hal qilish) jihatlaridan iborat bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishda uning nazariy va amaliy tayyorgarligida nazariy, tahliliy, prognostik, proektsion va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bu o'rinda pedagogik kompetentligining quyidagi tarkibiy qismlari muhim o'rin tutadi:

1. O'qitiladigan fan sohasidagi maxsus kompetentlik (o'qitiladigan fan va egallanadigan mutaxassislik sohasida chuqur bilim, malaka va ishlab chiqarish faoliyati tajribasini o'z ichiga oladi; ma'lum bir ishlab chiqarish bilan bog'liq texnik ijodiy muammolarni hal qilish yo'llarini takomillashtiradi).

2. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish sohasidagi metodik kompetentlik (o'qitishda turli metodlar, didaktik usullar, texnikalar va ularni o'quv jarayonida bevosita qo'llash ko'nikmalarini o'zlashtirishning psixologik mexanizmlari).

Pedagogik diagnostikaga ega bo'lish bu talabalar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rnatish va ular bilan individual ish olib borish, shaxslararo va pedagogik muloqot psixologiyasini bilish, talabalarda tanlangan mutaxassislikka oid o'qitiladigan fanga doimiy qiziqishni uyg'otish va rivojlantirish. Talabalarning ichki, tashqi, ijtimoiy motivlari, qobiliyatlari, yo'nalishlari kabi shaxsiy xususiyatlarini, munosabati va yo'nalishini tahlil qilib borish, odamlarning hissiy holatini aniqlash va hisobga olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda esa o'qituvchi hamkasblar hamda talabalar bilan barkamol munosabatlar o'rnatishga erishiladi.

Pedagogik faoliyat yoki autopsixologik kompetentlikning aks etishida bilish qobiliyati, kasbiy yo'llarini takomillashtirish, o'zidagi kamchiliklarning sabablarini ko'rish, o'zini yaxshilash istagi rivojlanadi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi- bu pedagogik faoliyatga tayyorlik, ishga munosabat, shaxsiy fazilatlar, shuningdek, o'z ishini yangicha, ijodiy tushunishga intilishdir. Bu murakkab va ko'p qirrali hodisa jarayonida uning kasbiy bilim va ko'nikmalari, balki uning qadriyatlari, yo'nalishlari, faoliyat motivlari, o'zini va atrofidagi dunyoni anglashi, u bilan ishlaydigan odamlar bilan munosabatlar uslubi, uning

umumiy madaniyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi shaxsiy va kasbiy sohasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni rag'batlantirish ishlarini ijobiy yaratish, talabalar bilan oson va erkin muloqot o'rnatish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanida "kasbiy kompetentlik" tushunchasi mehnat unumdorligini, vazifani bajarish ko'nikmalarining hajmini, shaxsiy fazilatlar va xususiyatlarning kombinatsiyasini, bilimlar majmuasi va kasbiy mahoratini belgilaydigan bilim va ko'nikmalar majmui sifatida qaraladi. Unda talabalarning psixologik va pedagogik jihatdan shaxsini shakllantirishda pedagogik me'yor talablariga amalga qilish, pedagogik muammolarni hal qilish, ilmiy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik mahoratga ega bo'lish, aqliy va amaliy harakatlarning bajarilishida mantiqiy ketma-ketlikni tashkil etish, umumiy holda, pedagogik faoliyatning normativ prognostik kontseptual modelini yaratish ma'lum bir fan uchun ta'lim tizimining konkret qurilishi haqidagi kengaytirilgan bilimlar tizimi vujudga keltiradi, ya'ni pedagogik psixologik kompetentlik ko'rsatkichlari rivojlanadi. Bunda ta'lim vazifalarini belgilash va ishlab chiqish, o'zgaruvchan metodologiyani o'zlashtirish, o'z tajribasini tahlil qilish, talabalar o'rtasida ishonch muhitini hamda ruhiy xavfsizlikni yaratish, barqaror psixoemotsional holat, o'zini o'zi hurmat qilish, xotirjamlik va o'ziga ishonch, o'ziga xos texnikani qo'llash sifatlari takomillashadi. Demak, pedagogik va psixologik kompetentlikni kasbiy kompetentlik tarkibidagi eng muhim tizim sifatida o'qituvchining imkoniyatlarini talqin qilishda pedagogik qobiliyat, pedagogika va psixologiya sohasida o'zlashtirilgan bilimlari, shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy va insoniy fazilatlar jamlanmasi deyish mumkin. Ushbu jarayonda o'qituvchilarda: psixologik va pedagogik savodxonlik (umumiy kasbiy bilimlar); psixologik va pedagogik mahorat (o'qituvchining o'z bilimlarini pedagogik faoliyatda, o'zaro aloqani tashkil qilishda ishlatish qobiliyati); kasbiy shaxsiy fazilatlar (kasbiy faoliyat motivatsiyasining yo'nalishi, bilim barqarorligi va chuqurligi, gumanistik, shaxsiy pozitsiyasi, qadriyatlar va e'tiqodlar tizimi), yangi pedagogik fikrlash kabilar psixologik kompetentlikning o'ziga xos xususiyati sifatida o'z-o'zini aks ettirish, o'zini rivojlantirish, shaxsiy o'sish, o'z-o'zini tashkil etish, ijtimoiy va professional tajribani birlashtirishni vujudga keltiradi.

Psixologik kompetentlik o'zining o'tmish tajribasi, boshqa odamlarni xayotiy tajribasi va ijtimoiy-tarixiy imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishni nazarda tutadi. U umumlashtirilgan psixologik bilimlarning o'zi, ma'lum bir shaxs, muayyan vaziyat haqidagi bilimlar bilan birlashishini o'z ichiga oladi. Savodli odam biror narsa haqida mavhum biladi va malakali odam

aniq bilimlar asosida har qanday psixologik muammoni samarali hal qila oladi. Psixologik bilimdonlik aloqa sohasidagi qoidalar va belgilar, xulq - atvor, aqliy faoliyat va ko'nikmalarni, ramzlar xaqidagi tushunchalarni o'zlashtirishni anglatadi.

O'qituvchilarning psixologik kompetentligini belgilaydigan kasbiy mahorat, kasbiy fazilatlar tizimining o'ziga xos xususiyatlari bu psixik jarayonlar, o'quvchining shaxsini o'rganish va tashxis qo'yish usullari, uning rivojlanishi, ta'lim shakllari, bilim va pedagogik amaliyot, aqliy o'zini o'zi boshqarish, faoliyat maqsadlariga erishishga qaratilgan va muammoli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan jarayonlardir.

Psixologik kompetentlik - bu murakkab shaxsiy shakllanish bo'lib, ular psixologik bilim va ko'nikmalarning hukmronligi birikmasi sifatida psixologik pedagogik ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning natijasi bo'lib, shaxslararo munosabatlarda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, psixologik kompetentlik o'qituvchining shaxsiy mulki, uning psixologik bilimlarini pedagogik amaliyotda mujassamlashishiga oid tajriba muammolarini psixologik konstruktiv hal qilishga imkon beradigan kasbiy va shaxsiy ta'lim demakdir. O'qituvchining kompetentligi mazmunli va texnologik tomonga ega bo'lib, u professional va keng doiradagi ma'lumotlarni to'plash va o'zlashtirish, shuningdek, o'zi va dunyo bilan o'zaro munosabatlarning psixologik savodli usullari tezaurusini kengaytiradi.

O'qituvchining psixologik kompetentligi orqali qiyin murakkab pedagogik vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqib ketishi, hamkasblar, talabalar, ota-onalar va boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishi qobiliyatini anglatadi. Psixologik kompetentlik pedagogik faoliyat tarkibidagi fundamental xususiyatlar sifatida talabalarni kuzatish, tushunish, tahlil qilishdan iborat. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir mutaxassis uchun psixologik kompetentlik uning faoliyatida psixologik madaniyat, kasbiy mahorat, kasbiy faoliyatini samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Psixologik kompetentlik intellektual, amaliy jihatdan psixologik fikrlash shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va faoliyat sub'ektining o'zini o'zi tartibga solishning funktsional tizimi, bu uning maqbul amaliy holatini ta'minlaydi. Bunda psixologik kompetentlikning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy, autokompetentlik kabi turlari muhim hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarning psixologik kompetentligi doirasida psixologik bilim va ko'nikmalar majmuasi bu kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishiga imkoniyat yaratadi.

O’qituvchi faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik nafaqat ijtimoiy-psixologik hodisalarni hal qilishda bilimlarga egalik bo’lishni, balki ma’lum vaziyatlarda munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik bu rahbarning biznes va shaxslararo munosabatlar tizimida bo’ysunuvchilar bilan samarali o’zaro munosabatlarni tashkil etish, integral muloqot jarayonida shakllanadigan, namoyon bo’ladigan va rivojlanadigan biliml, ko’nikmal va qobiliyatlarni, o’ziga xos bo’lgan xulq-atvor, ishonchli xatti-harakatlar, strategiya va rejalarni moslashuvchan ravishda o’zgartirishni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy kompetentlik jamoada ishlash qobiliyatida, muloqotda, nizolarni hal qilishda, chidamlilikda va boshqalarda namoyon bo’ladi. Ijtimoiy kompetentsiyani "muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keladigan xulq-atvorning bilim, hissiy va qator usullarini vujudga keltiradi.

Kompetentlik insonning o’z bilimlarini kasbiy harakatlarga (qobiliyatlarga, ko’nikmalarga) aylantira olish qobiliyati, doimiy ravishda yuqori natijalarni ta’minlovchi va aniq vaziyatda belgilangan maqsadlarga erishishga imkon beradigan jarayon hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik ham o’qituvchi faoliyatida kasbiy rivojlanishni loyihalashtirish ijtimoiy (samarali, birgalikda ishlash qobiliyati), shaxsiy (shaxsiy o’zini o’zi egallash, tartibga solish, o’zini namoyon qilish va o’zini rivojlantirish), kasbiy (shaxsning deformatsiyasiga qarshi turish, qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va individual kasbiy o’sishga tayyorlik, ularni oqilona tashkil qilish, mehnat, yutuq motivatsiyasi, o’z ishining sifatiga intilish, optimizm jihatlari mavjudligi) faoliyatida yetuklikka erishganligini anglatadi.

Xulosa. Shunday qilib, kasbiy kompetentlikning tarkibi va mazmuni asosan mehnat faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Kompetentlik inson faoliyatini muvaffaqiyatli ijro etish qobiliyatini ko’rsatadi. Ushbu jarayonda oliy ma’lumotli mutaxassisning kompetentligi-bu o’zining ijtimoiy ahamiyatini va shaxsiy javobgarligini anglab, kasbiy va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati uchun o’z potentsialini ro’yobga chiqarish qobiliyati bilan ko’rsatiladigan istak va natijalardir. Menejment psixologiyasida kompetentlik nafaqat bilim va tajribaning borligi va muhim miqdori, balki ularni o’z vaqtida amalga oshirish, shuningdek, rasmiy funktsiyalarni amalga oshirish jarayonida foydalanish qobiliyati sifatida qaraladi. Shuningdek, menejment psixologiyasining aksariyat tadqiqotchilari kompetentlikni belgilovchi omil bu-shaxs umumiy madaniyatining yuqori darajasi va uning

tarkibidagi asosiy elementlar bilim, tajriba (ko'nikma, mahorat, professional sezgi), umumiy, boshqaruv va axborot madaniyati, xodimning shaxsiy fazilatlari deb bilishadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda kompetentlik mansabdor shaxsning o'ziga xos qobiliyatlari, uning kasbiy bilimlari va tajribalarini amalda samarali tatbiq etish qobiliyatining ajralmas xarakteristikasidir.

Talabalarida kompetentsiyani shakllantirish haqida gapirar ekanmiz, bunda ta'lim kompetentsiyalarini alohida tahlil qilish muhimdir. A. V. Xutorskiy (x) o'quv mashg'ulotlarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan haqiqat ob'yektlarining ma'lum doirasiga oid bilim, ko'nikma va tajribalari to'plami bilan ifodalanadi. Bizning fikrimizcha, kompetentsiyalarning birinchi tasnifi ta'limga yaqinroq bo'lsa, ikkinchisi umumlashtirilib, hayotning har qanday sohasiga taalluqlidir.

O'qituvchi faoliyatida maxsus va professional; o'qitiladigan fanlar sohasi; bilim, ko'nikmalarni shakllantirish usullari sohasida uslubiy ishlar; ijtimoiy-psixologik; talabalar jarayonlari motivlari, qobiliyatlari sohasidagi autopsixologik doirasidagi bilim, ko'nikma, tajribasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishdagi tayyorligi, shuningdek, qadriyatlar va komponentlari shaxsiy xususiyatlari sifatida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan ham, talabalarda kompetentsiyalarni shakllantirishning pedagogik psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim, chunki izlanishlarimizda yetakchi bo'lgan shaxsga va faoliyatga yo'naltirilgan, atrof-muhit va kontekstual uslubiy yondashuvlar o'quv jarayonida talaba shaxsini rivojlantirish, uning individualligini shakllantirish va o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini yaratadi. Demak, talaba shaxsi rivojlanishida nafaqat kasbiy faoliyatga tayyorlabgina qolmay, balki uning ijtimoiy faolligini, insonparvarlik yo'nalishini rivojlantirishi, dunyoqarashini kengaytirishi, pedagogik psixologik ahamiyatga ega fazilat va sifatlarni shakllantiradi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining maqsadi shaxsning shakllanishi va rivojlanishida kasbiy faoliyatning umumlashtirilgan usullarini o'zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash xisoblanadi. Ushbu yondashuv faoliyatga asoslangan xolda ta'lim jarayonini tashkil etishga, amaliyotga yo'naltirilgan va faol ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan talabalarning o'quv jarayonida kasbiy faoliyatning ma'lum bir tajribasini egallashi, kasbiy kompetentliklarni o'zlashtirishida va uni asosida zamonaviy moddiy-texnik bazaga asoslangan yangi ilmiy va o'quv muhitini yaratish muhim o'rin tutadi. Chunki, ta'lim jarayonini kompetentsiyaviy yondashuv asosida qurish kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy malakalarini samarali shakllantirish, o'quv

faoliyatida talabalarda ehtiyoj, motiv, maqsad, harakat va vositalari bosqichma-bosqich kasbiy faoliyatga aylanishi uchun sharoit yaratish metodlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Buning uchun talabalarida kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Yangi texnika va texnologiyalarning uzluksiz ta'lim tizimiga ko'plab kirib kelishi ushbu sohada faoliyat olib borayotgan barcha pedagoglar zimmasiga ham amaliy, ham nazariy bilimga ega bo'lgan, maxsus fanlarni yaxshi o'zlashtirgan malakali mutaxassislarni yetishtirish talabini qo'ymoqda.

Darhaqiqat, o'qituvchilar har bir mashg'ulotni zamon talablariga javob beradigan, yangi pedagogik texnologiyalar, mediavositalar, mukammal metod va usullar asosida olib borishlari, nafaqat talabalarning qobiliyati va imkoniyatlari, balki ular shaxsiyatining maksimal rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Albatta bunda o'qituvchining kompetentligi uning kasbiy va pedagogik faoliyatida, ruhiy va shaxsiy salomatligida muhim o'rin tutadi. O'qituvchi talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik g'oyalar asosida ularning bilim olish, mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida pedagogik, psixologik, ijtimoiy, psixodiagnostik kompetentsiyalarga ega bo'lishi lozim.

Bu o'rinda o'qituvchi shakllanib kelayotgan shaxs bilan munosabatlardagi mas'uliyati, birinchi navbatda, uning ruhiy salomatligi va intilishlarini saqlashda o'z qobiliyatlarini namoyon qilishi, psixodiagnostik bilimlar bilan kasbiy ongini kengaytirishi, kasbiy faoliyatning konstruktivligini oshirishi va kasbiy mahoratini samarali namoyon qilishi, xar bir hodisaga tadqiqotchi nuqtai nazaridan psixologik qonuniyatlar va mexanizmlarga asoslangan holda yondashishi talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi uning asosida yotadigan "kompetentsiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetentlik", "ijtimoiy kompetentlik" "pedagogik kompetentlik", "psixologik kompetentlik", "psixodiagnostik kompetentsiya" kabi tushunchalarning mohiyatini chuqur bilishi muhimdir. Ularni o'zlashtirish jarayonida talabalarning diagnostik bilimlar imkoniyatlari yanada kengayib boradi va bo'lg'usi mutaxassis kasbiy faoliyati vositasiga aylanadi. Natijada, o'qituvchining kasbiy, pedagogik, psixologik tayyorgarligi, kontseptual bilimlari, psixodiagnostik kompetentsiyalari rivojlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

имняя И. А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? 2006: 115.

еревозчикова Л. С. Либеральная парадигма высшего профессионального образования и компетентностный подход. 2012:

саров Ж. Э. , Динамика қонунларининг тажрибавий асосланишига ўқувчиларнинг мантиқий муносабатини шакллантириш. 2017: 40.

уторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное

5. Хуторской А. В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты //Интернет-журнал «Эйдос». 23 апреля 2002 г. URL: http://www. eidos. ru/journal/2002/0423. htm

образование – https://nardnoe.org/journal/

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDAMANTIQIY FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISH

dotsent Esanov Nuriddin Qurbonovich

o’qituvchi Mirzaqobilova Lola Niyatqobilovna

Navoiy shahri 14-maktab

talaba Qurbonova Adiba Nuriddin qiz

Boshlang’ich sinflarda matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama bilimli qilib tarbiyalash Matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchunko‘nikma va malakalarni shakllantirish matematik ta‘limning asosiy vazifalaridan biri Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining matematika faniga bo’lgan qiziqishini ta’lim samaradorligini oshirish masalalari o’z ifodasini

Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha o‘qitish samaradorligini oshirish usullari haqida fikr yuritilgan. Shuning bilan birga bir nechta usullarni samarali qo‘llash misol tariqasida ko‘rsatilgan.

DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING USING INTERACTIVE METHODS WHEN TEACHING MATHEMATICS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract

One of the main tasks of teaching mathematics in primary school is the comprehensive education of students. One of the main objectives of mathematics education is to provide them with knowledge of mathematics and develop skills and abilities to develop their thinking abilities in mathematics classes. This article highlights the issues of increasing the educational effectiveness of primary school students' interest in mathematics.

There is described in the article the methods of teaching mathematics in elementary grades by learning sources and ways to implementing these effectively. Also, there are provided some examples of these methods implementation in practice.

Kalit so'zlar: arifmetik amallar, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, perimetr, yuza, hajm tushunchasi, matematik tushuncha.

Keywords: arithmetic operations, primary education, interactive methods, perimeter, area, concept of volume, mathematical concept.

KIRISH

Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ayniqsa, boshlang‘ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari dolzarbligini talab etmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Hozirgi paytda an'anaviy ta'lim bo‘yicha katta tajriba to‘plangan va an‘anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji tafovudni vujudga keltirdi. Uni ta‘limda boshqa yondashuvlarni qo‘llash yo‘li bilan hal etish lozim.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori

bo‘ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o‘zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlar, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy masalalar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi. Bizga ma’lumki, o‘qitish uslublari, ularni tizimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasita’lim tizimida yuqori metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari bo‘lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarga uchun zamonaviy fan-texnika va axborot texnologiyalarining ilg‘or yutuqlari asosida boyitib borilgan o‘qitish metodlari tarbiyalash

O‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi rag‘batlantirish va nazorat qilishni nazarda tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang’ich sinfda o’quvchilarning matematika fanidan quyidagi test topshiriqlarini bajarish orqali ularning matematik savodxonliklarini oshirish mumkin.

1- Topshiriq. Quyidagi nisbatlardan qaysi biri 1:4 nisbatga teng?

a) 4:16b)4:7c)4:5d)4:1

2- topshiriqQaysi kasr qolgan kasrlarga teng emas?

a) ½b) 4/8c) 2/4d) 2/8

3- topshiriq. 9x22 ga eng yaqin bo'lgan javob qaysi?

a)5x20b)5x25c)10x20d)10x25

4- topshiriq. Qaysi sonda 4 raqami 40 ni bildiradi?

1. 1468 b)473 c)1249 d)2674

5- topshiriq. Qaysi kasr ½ ga teng? a) 3/5 b)3/6 c)3/ 10 d)3/8

Mantiqiy fikrlash har qanday fikrlashni, shu jumladan matematikani ham o'z ichiga oladi. Bizning muammomizni hal qilish uchun o'quvchining matematik tafakkurini uchta asosiy yo'nalishda rivojlantirish talab etiladi: arifmetik, fazoviy- geometrik va mantiqiy. Noan'anaviy vazifalar va mashqlarni muvaffaqiyatli hal qilishga o'rgatish uchun boshidanoq o'quvchilarni muvaffaqiyatga, "o'zlariga ishonish" ga yo'naltirish kerak. Buning uchun o'quvchilarning barcha musobaqa va musobaqalarda o'z vakolatlari doirasida qatnashishi muhim. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu ularning faolligi va kayfiyatini doimiy ravishda rag'batlantirishda ifodalanadi; matematik bilimlarni eng yuqori darajaga olib chiqish; har xil turdagi kognitiv qiziqishlarga ega bo'lgan barcha talabalarni "infektsiyalash" da va bu qiziqishlarni sinfdoshlariga o'tkazishga yo'naltirilganlikda.

ASOSIY QISM

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish, befarq qaramasligini ta'minlash har bir bugungi kun pedagogining vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashining asosiy xususiyatlaridan biri uning o'ziga xosligi va tasavvuridir. Biz quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: Agar aqliy harakatlar muayyan narsalar yoki ularning tasvirlari bilan yashirilsa, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar bunday fikrlash harakatlariga nisbatan oson kurashishadi. Matematika fanida to'rt amalning bajarilishini o'rgatish bilan birga shakllar, ular tuzilishi, farqini va o'lchamini o'rgatish zaruriyati ham ahamiyatga ega.

Buyuk yurtdoshlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek va ularning shogirdlari geometriya fanini o'z asarlari va ilmiy natijalari bilan boyitdi.

Farobiyning fikricha, ta'lim – tarbiya jarayonining har bosqichida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishi, o'ziga xos tarzda fikrlashi, tasavvur qilishi va his etishi orqali amalga oshadi. Inson tug'ilganidan fikrlash quvvatiga ega bo`ladi va u bolaning o'sishi bilan rivojlanib boradi. Olimning fikricha, inson aqliga sig'adigan tushunchalarning kishi ongida saqlanib qolishi, bilishningnatijasi sanaladi. Farobiyning: "Bolada katta imkoniyatlarga ega bo'lgan ko'ngil bor. U his tuyg'uga, tafakkur orqali

anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bilan jismlar tushuniladi", - degan xulosasi fikrimiz isbotidir.

Matematika boyicha standart ko'rsatkichlari bolalarda natural sonlar va nol to'g'risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlar va arifmetik amallarni qo'llay olishda o'rgatish, eng sodda geometrik shakllar, ularni tekislikda tasvirlash xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai nazardan izohlanadi.

Agar o'quvchiga fazoviy tasavvurlar yaxshi shakllansa, har qanday qiyinchilikdagi masalalarni soddagina yechish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bitta obektni turli xil ko'rinishlari ustida fikrlash, o'quvchilarda steriometrik figuralarni kesma holida chizmalarda qaralishi fazoviy tasavvurlarni shakllantiradi.

Hozirgi kunda maktablarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun har bir o'qituvchi Arifmetik amallar deganda sonlar ustida bajariladigan to'rt amal: "qo'shish", "ayirish", "ko'paytirish", "bo'lish" bu amallar bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari dastlab tanishib, har bir amal xossalarini o'rganib, amalda sonlar ustida hisoblashlarni bajarish o'quv topshiriqlarini bajarishadi. O'quvchini og'zaki va yozma hisoblash usullari orqali arifmetik amallar qonunlari va xossalarini o'zlashtirishga 10 ichida qo'shishni o'rganishda bolalar qo'shishning o'rin almashtirish qonuni bilan tanishadilar. 100 ichida qo'shish va ayirishning hisoblash usullari sonni yig'indiga qo'shish va ayirishning hisoblash usullari sonni yig'indiga qo'shish, yig'indini sondan ayirish qoidalariga asoslangan holda ochib beriladi.

"Juft-juft muloqot" usuli - Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash.

Ba'zi hollarda o'quvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilan yuzlanishlari ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergan o'quvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim bo'ladi.

Juftlikda ishlash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyot bo‘lish zarur. Bu mavzu ko‘pchilik tomonidan o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin.

Topshiriqlardan namunalar:

a) Har bir o‘quvchi 2 minut davomida “O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga bo‘lish” mavzusiga oid 5 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 7 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

b) Har bir o‘quvchi 2 minut davomida “O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 4 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kun o‘quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o‘qitish lozim.

Mantiqiy fiklashga o`rgatish y o‘ l l a r i;

1. O‘qituvchilar uchun murakkab, o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan mavzular bo‘yicha metodik tavsiya va ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalarini tuzish;

2. Darslarga qo‘llaniladigan interfaol usullardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatish(ochiq darslarda)

3. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga qo‘llash bo‘yicha ochiq darslar uyushtirish;

4. Ota-onalarning farzandlarini o‘zlashtirishdagi ta’sirini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish;

5. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning saviyasini oshirish;

6. O‘quvchilarni test bilan ishlash malakasini oshirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar berish;

7. O‘quvchilarni fan to‘garaklariga jalb etish, qo‘shimcha mashg’ulotlarni tashkil etish

8. O‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirish maqsadida o‘quvlar tashkil etish.

Boshlang‘ich sinflarda 10, 100 va 1000 ichida qo‘shish va ayirish amalarini bajarishda va mantiqiy fikrlashni o‘stirish uchun quyidagi og’zaki ko‘proq bajarish lozim.

Quyidagi jadvalda 1 dan 25 gacha bo‘lgan sonlar tartibsiz joylashtirilgan.

30 soniyada tartib bilan sonlarni ko‘zdan kechirib chiqing (o‘qituvchi 30 soniyada har bir o‘quvchidan qaysi raqamga kelganini so‘rab baholashi

17	**9**	**24**	**25**	**12**
8	**6**	**1**	**15**	**7**
23	**21**	**19**	**3**	**11**
20	**13**	**4**	**16**	**5**
2	**14**	**10**	**18**	**22**

? So‘roq o‘rnidagi sonni 30 soniyada toping.

Yechish:Bu masalada sonlarga e’tibor berish kerak, birinchi sonda yo‘q vahokazo oxirgi sonda 2 ta aylana bor. Javob 2 edi.

s
o
‘
r
o
q
k
o
‘
r
n
i
g
a
q
a
n
d
a
y
s
o
n

Bu masalada sonlar ketma-ketligiga e’tibor berib, teskarisidan qarab

Miqdorlardanbiri harfbilanberilgan masalalarni og’zakiyechish.

4-masala Masalaning yechimini harfni o’zichigaolganifodabilan og’zaki ayting, harflarning qiymatlarinimustaqil tanlashvaharfiyifodalarni og’zaki hisoblash:

a) Ranoning a takitobiboredi. Uning tug’ilgan kunida yana 5 takitobsovg’a qilishdi. Ranoda nechta kitobbo’ldi?

b) Do’konda *d* ta futbolto’pi bor edi. Bir kunda 27 ta to’psotildi. Do’kondanechtato’pqoldi?

v) Brigadada *x*nafarkishibor edi. Bir smenadabrigadaningharbir azosi20 tadan detal tayyorladi. Brigadabir smenadaqanchadetaltayyorladi?

g)m kgsilos60 ta sigirgaberildi. Harbir sigirgaqanchadansilos berilgan?

1- sinfdan boshlab o'quvchilarni muammoli xususiyatga ega bolgan masala topshiriqlar bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

5-masala Bozordan 8 kg kartoshka va 6 kg piyoz sotib olindi, so'ngra 5kg anor va 8 kg olma sotib olindi. Sabzavotlardan ko'p olinganmi yoki mevalardan? Bunday masalalarni yechishda yechimga oid ifodalarni tuzib, so'ngra ularni taqqoslash yechim usulini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Fikrlashni o'stiradigan og'zaki mashqlar:

1-mashq Yulduzchalaro'rniga«**+**»yoki « **–** »belgilarinishunday qoyingki, to'g'ritengliklarhosilbo'lsin (og'zaki):

38 * 3 * 7 = 34, 38 * 3 * 7 = 42, 38 * 3 * 7 = 28, 38 * 3 * 7 = 48.

2-mashq Yulduzchalar o'rniga amallarishoralarinishunday qoyingki, tengliklarto'g'ribo'lsin (og'zaki):

12 * 5 * 2 = 4, 12 * 6 * 2 = 9,

12 * 6 * 2 = 24, 12 * 6 * 2 = 0.

Eslatma

Qaysiamalengkeyinbajarilishini aniqlang.

Buamaldagi sonlarqandaynombilan atalishini eslang.

Busonlarnimabilan ifodalanganliginio'qing.

Ifodanio'qing.

Harfiy ifodalarga doir og'zaki mashqlar

3-mashq Harfiyifodaningqiymatini harflarningberilgan qiymatlarida og'zaki hisoblash:

agar$a$ = 784, 852 bo'lsa, a + 808 ifodaningqiymatini og'zaki hisoblang.

agar$k$ = 97, 59 bo'lsa, 128 – k ni og'zakihisoblang.

b = 10, 20 30bo'lsa209 · b ni og'zaki hisoblang.

s = 48, 96, 144, 192bo'lsa, s:12ni og'zaki hisoblang.

Umumlashtirib, o'quvchi bundayxulosa qiladi: harfiyifodaningqiymati ifodaga kiradiganharfningqiymatigabog'liq.

4-mashq Ifodalarningqiymatlariniuchxilusulda og'zaki ayting:

30 + (40 – 20), 90 – (60 + 10) – 4, (20 + 34) – 4.

Engqulay usulniko'rsating.

5-mashq Tenglikning chaptomonida yozilgan ifodalarnitaqqoslang. Ularningnimasio'xshash, nimasi bilanfarqqiladi?

(10 + 6) + 3 = 10 + (6 + 3) = 10 + 9 = 19

(10 + 6) · 3 = 10 · 3 + 6 · 3 = 30 + 18 = 48.

O'qitishda ijodiy mashqlardan ham keng foydalanishmumkin:

Bir xil raqamlardan tuzilgan barcha ikki xonali sonlarni ortib borish tartibida yoki kamyib borish tartibida o'qing

11, 22, 99

99, 88, . . 11

Bunday mashqlarni bajarishda bir xil raqamlardan tuzilgan ikki xonali sonlarni idrok qiladi, ko'z oldiga keltirib, har bir oldingi son keyingisidan 11 taga farq qilish qonuniyatini idrok qiladi

3, 4, 5, 6 raqamlaridan foydalanib, o'nlik xonasi birlik xonasidan katta bo'lgan uchta uch xonali son tuzing.

6, 7, 8, 9 raqamlaridan foydalanib, o'nlik xonasi birlik xonasidan kichik bo'lganuchtaikki xonali son tuzing.

7, 8, 9 raqamlaridanqanday qilib o'nlik xonasiva birlik xonasi bir xil bo'lganikkixonali son tuzish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qismida shuni aytish kerakki, har bir berilgan misollarni o'quvchilar o'zlari mustaqil bajarib yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'rnida ko'rib, xattosini to'g'rilasa, bilimlaridagi bo'shliqni o'rnida bartaraf etishlariga muvaffaq bo'lishadi.

Sifatli ta'lim olish uchun bitta sinfda o'quvchilarning o'rtacha soni 19–20 nafar bo'lsa, har bir o'quvchi bilan shug'ullanishga imkoniyat

bo’ladi. Va boshlangich sinf o’quvchilariga mantiqiy masalalarni ko’proq bajartirsak, hozirgi avlodga sifatli ta’lim zaruratini shakillantirgan bo’lamiz. Har qanday mamlakatning rivojlanishida ta’limning o’rni judda katta hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish bugungi kunning o‘ta dolzarb muammosi sifatida davlat siyosatining kuntartibiga kiritilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, o‘quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishitirish orqali biz ularda ko‘plab insoniy fazilatlarni tarbiyalashga erishishimiz mumkin bo‘ladi. Shunday ekan biz o‘quvchilarga mavzuni tushuntirishda ularni har tomonlama bilimlarni oson o‘zlashtirishlari uchun yetarli sharoit yaratib berishimiz, zamonaviy ta’limning barcha yutuqlaridan foydalangan holda darslarni samarali tashkil qilishimiz lozim. Bunda albatta texnik vositalardan foydalanishining ahamiyati juda katta bo‘lib, bunda biz 70-80% gacha samaradorlikka erishishimiz mumkin.

Ma'lumki, ta'lim nutq orqali muloqotga kirishish yo‘li bilan olib boriladi. O‘quvchilar ustozlari nutqini tinglab va kitob mazmunini uqib olish bilan bilimlarini o‘zlashtiradilar.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati bir tomondan, o‘quvchilar idrok qilgan nutqlarning sifatiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘quvchilar nutqining taraqqiyot darajasiga shuningdek, ta‘lim qaysi tilda olib borilayotgan bo‘lsa, shu tildan o‘quvchilarning erkin foydalana olishlariga bog‘liqdir. Nutq ravonligi darajasi va sifati - grammatik jihatdan to‘g‘riligi va boshqa kishilarga tushunarli bo‘lishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarga o‘zlari idrok qiladigan va ishlatadigan har bir so‘zning ma’nosi tushunarli bo‘lishi uchun harakat qilish kerak.

Yana shuni ta’kidlab o‘tamanki, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash dars samaradorligini yanada oshiradi. „Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi“ degan edi Konfutsiy. Konfutsiyning ushbu fikri orqali shuni anglab yetishimiz kerakki, bo‘shliqni bartaraf etish uchun avvalo o‘qituvchi-tarbiyachi metodik tomondan kuchli qurollangan bo‘lishi, har qanday vaziyatda o‘quvchining ichki va tashqi imkoniyatlarini anglay olishi lozim. Men ushbu metodik tavsiyam orqali nafaqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga, shuningdek, yuqori sinf o‘qituvchilariga ham bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilari bilan ishlash faoliyatida samarali natijalarga erishishlarini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi. "Cho'lpon" – T. 2011. 320s.

2. Jumaev M. E, Matematika o'qitish metodikasi (KIIK uchun) Toshkent. "Ziyo" 2003 yil.

3. Jumaev M. E, Tadjiyeva Z. G. Boshlang'ich sinflarda matematikada fakultativ darslami tashkil etish metodikasi. Toshkent. "TDPU" 2005 yil.

4

.

5. 2-sinf Matematika darsligi, O'rinboyeva L. , Ismailov Sh, Ruzikulova N. , Raxmonov U. , Jumayev M., Ismailova N. , Usmanova N. Toshkent-2021

Boshlang'ich ta'limdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari. Metodik tavsiyalar. – T. : library. ziyonet. uz/ru/book/ download/16233, 2015.

6. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Moliya, 2003. - 172 b.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI SO'ZLASHISHGA DOIR IJTIMOIY ME'YORLAR BILAN TANISHTIRISH

PhD Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

Annotatsiya

Zamonaviy ta'limning ahamiyati oʻquvchilarda faol ijtimoiylashuv koʻnikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari boʻlishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishi oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, boshlangʻich ta'lim yoshidagi oʻquvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish koʻnikmalarini shakllantirish pedagogikaning muhim ilmiy muammolaridan hisoblanadi. Jamiyatda kishilar oʻrtasidagi oʻzaro ijtimoiy munosabatlar muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadi. Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar tizimiga rioya qilish ishtirokchilarning madaniyatlilik darajasini ifoda etadi. Bu esa oila, maktabgacha tarbiya va umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, ularga qat'iy rioya qilish koʻnikmalarini shakllantirish lozimligini koʻrsatadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishga ta'sir koʻrsatuvchi omillar va shart-sharoitlar oʻquvchilar tafakkurini motivatsion va refleksiv koʻnikmalarga oʻrgatish vositalari, shakllari, usul va yoʻllarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun oʻqituvchidan ta'lim va tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda boʻlish talab etiladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishning koʻnikma va malakaga asoslangan refleksiv texnologiyalar mazmunini tayanch, umumiy va xususiy kompetentsiyalar bilan bogʻliq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan va maqsaddan natijaga yoʻnaltirilgan nomativlik, izchillik va universallik xarakteriga ega funktsional modelini ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish oʻquvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish koʻnikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta'sir koʻrsatadi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ahamiyatli bo’lgan ijtimoiy me’yorlardan biri so’zlashish jarayonida amal qilinadigan me’yorlardir. So’zlashish jarayonida ikki yoki undan ortiq kishilarning bir-birlariga, nisbatan munosabatlarini bildirish muhim ahamiyat kasb etib, jamoatchilik tomonidan tan olingan me’yorlarga amal qilish har bir shaxs zimmasidagi burch sanaladi. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni so’zlashish jarayonida amal qilishlari kerak bo’lgan ijtimoiy me’yorlar xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: me’yor, ijtimoiy, muomala, madaniyat, ma’naviyat, muloqot.

INTRODUCING SOCIAL NORMS ON THE TALKS OF SMALL SCHOOL AGE

The importance of modern education is determined by the formation of active socialization skills in students. Successful mastering of socio-legal norms by primary school students is of particular importance in order to become active participants in the process of social relations. Therefore, the formation of the skills of following social and legal norms in students of primary education age is one of the important scientific problems of pedagogy. In society, mutual social relations between people are regulated on the basis of certain social and legal norms. Compliance with the system of relations regulated on the basis of socio-legal norms expresses the level of civilization of the participants. This shows that it is necessary to prepare children for social relations, to familiarize them with social and legal norms, and to form the skills of strict adherence to them in family, pre-school education and general secondary education institutions. Factors and conditions affecting the formation of respect for social and legal norms in primary school students, determining the means, forms, methods and ways of teaching students' thinking to motivational and reflexive skills. will decide based on For this, the teacher is required to have a creative attitude to the process of education and training. Forming a sense of respect for social and legal norms in elementary school students, developed on the basis of interpretation of the content of reflexive technologies based on skills and competences in relation to general and private competencies the application of the universal functional model to educational practice has an effective and positive effect on the formation of students' ability to follow social and l e g a l n o r

One of the social norms that is important for elementary school students is the norms that are followed in the process of speaking. In the process of speaking, it is important to communicate the relationship of two or more people to each other, and it is the duty of each person to follow the standards recognized by the public. This article talks about the social norms that students of junior school age should follow in the process of speaking.

Keywords: norm, social, conversion, culture, spirituality, communication.

Kirish

Jahon ta'lim amaliyotida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning jamiyatda jadal ijtimoiylashuvini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion yangiliklar, zamonaviy pedagogik yondashuv va paradigmalar samarasi o'qituvchining kasbiy-pedagogik kreativligiga bevosita bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, xususan, Sorbonn deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration, 1998), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum, 2000), BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" (UN "Millennium Declaration", 2000) va Lissabon tan olish konventsiyalarida (Lisbon Recognition Convention, 1997) zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida maktab o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy jihatdan kompetentli qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida innovtsion yondashuvlar asosida boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy jihatdan savodli, zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan modernizatsion didaktik tizimni takomillashtirish asosida mediasavodxonlikning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. SHu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy savodxonlikni kognitiv, motivatsion, faoliyatga doir va kreativ darajalarga muvofiq shakllantirishning amaliy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish, innovatsion-ta'lim sharoitida o'quvchining o'quv-biluv ko'nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston jamiyatini barpo etish ijtimoiylashuv jarayonlari bilan bog'liq ravishda kechmoqda va bu maktab o'quvchilari, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga qat'iy amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo qilmoqda. Zero, "yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, ularga Konstitutsiyaning muhim jihatlarini bolaligidan boshlab o'rgatish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish" ga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarda shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish va umummadaniy kompetentsiyalariniqaror toptirish muammoning ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur o'rganilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish orqali ularning tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va shaxsiy hayotini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari O. Musurmonova, N. A. Muslimov, O. Karimova, M. Quronov, H. Boboev, Sh. Mardonov, A. Saidov, G'. Ahmedov, H. Q. Yo'ldoshev, R. Mahmudov, A. Rafikovlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida umumta'lim maktab o'quvchilarining huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, ular orasida huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni pedagogik aspektda o'rganish, o'quvchilarning jamiyatga faol singishini ta'minlovchi ijtimoiy omillar Ye. Репькova, M. Bobnev, V. Brojik, Ye. Lukasheva, A. Rafikov, Ye. Golovchenko, V. Kufaev, P. Blonskiy, L. Vыgotskiy, S. Danilov, A. Zimin, L. Zyubin, A. F. Nikitin, A. Mishkevich, V. Obuxov L. Semenova, A. Ostrovskiylar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan Kin Djon (John Keane), Syuzan Tompson (Susan Thompson), Djeyms Merill (James Merrill), Kerolayn Uilson (Caroline Wilson), Eleanor Byord (Eleanor Bird), Richard Sayers (Richard Sayers)larning tadqiqotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ijtimoiylashuv jarayoni, maktabda o'quvchi shaxsiy hayotini tashkil etish va boshqarish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Metodologiya. Zamonaviy ta'limning ahamiyati o'quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko'nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tashkil etiladi. SHaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. SHaxs ta'lim olish jarayonida ijtimoiy-madaniy muhit bilan bevosita o'zaro ta'sirlashadi va u shaxsning intellektual kamolotga erishuvini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar tizimi ishtirokchilarning faol ijtimoiylashuviga yo'naltirish asosida shakllantiriladi. Xususan, jamoat joylarida o'zini tutish, kinoteatrlarga tashrif buyurish, umumiy ovqatlanish muassasalarida, maishiy xizmat turlari hamda jamoat transportidan foydalanish, shuningdek, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish jarayonida shaxsning umummadaniy kompetentsiyalari namoyon bo'ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalarni so'z yuritilgan jarayonlarga taalluqli bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, ularga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan sanaladi.

Globallashuv sharoitida boshqa sohalar qatori uzluksiz ta'lim mazmuni ham tubdan yangilandi. O'zgarayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mazmun-mohiyati, shaxs kamolotini ta'minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyat masalalarini yangilanayotgan ta'lim mazmunida aks ettirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlar muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida yo'lga qo'yiladi. Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarning madaniyatlilik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy munsabatlarga tayyorlash, ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, ularga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish mazkur sub'ektlarning ta'lim va tarbiya borasidagi funktsiyalarining muhim tarkibiy qismlaridir.

Muammoni yoritishda, eng avvalo, u bilan bog'liq ayrim tushunchalarni tahlil qilib olish maqsadga muvofiq. Mavzuga aloqador tushunchalardan biri "madaniy xulq-atvor" tushunchasi bo'lib, uning etimologiyasi, mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. "Madaniy xulq-

atvor" tushunchasi ikkita alohida: "madaniy" va "xulq-atvor" tushunchalarining o'zaro birikuvi asosida shakllangan. Manbalarda "madaniy" atamasi "madaniyat" tushunchasi negizida shakllanganligi qayd etilgan. SHu sababli, dastlab, "madaniyat" tushunchasining mazmuni bilan tanishib olamiz.

Ilmiy adabiyotlarda "madaniyat" tushunchasiga shunday ta'riflar beriladi:

1. Lotincha "kulьtura" atamasidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi; mumtoz lotin tilida "madaniyat" tushunchasi "erni parvarish qilish", "erga ishlov berish" ma'nosida qo'llanib kelingan. Keyinchalik "madaniyat" tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta'riflashda ham ishlatila boshlanadi.

2. Dunyo to'g'risidagi tasavvurlar va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi; shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma'lum ketma-ketlik asosida shakllangan tizimi; jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar majmui; inson faoliyatining mahsuli, natijasi.

3. Arabcha "madiniyat" (Madina shahrida VII asrdan boshlab targ'ib etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafdorlari va ular izdoshlarining qarashlari, nuqtai nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui) so'zidan olingan bo'lib, kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar, ularni qayta tiklash hamda rivojlantirish yo'llari, uslublari majmui; inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi.

4. Insonning ijodiy kuchi aks etadigan fikriy, ma'naviy yoki badiiy faoliyat mahsuli. Tushunchaning mohiyatini quyidagi uch talqinda ifodalash mumkin: 1) moddiy va ma'naviy qarashlar mohiyati; 2) bir qator bilimlar sohasi: tafakkur, mehnat, nutq, xulq-atvor va boshqalarning rivojlanish bosqichlari; 3) inson mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy va mental rivojlanish darajasi.

5. Intellektual, ma'naviy va estetik taraqqiyotning umumiy jarayoni; huquq, tartib, axloqiy talab va boshqalarga asoslangan jamiyat holati (shu jihatiga ko'ra "madaniyat" so'zi "tsivilizatsiya" atamasiga mos keladi); qandaydir jamiyat, kishilar guruhi yoki tarixiy davrning mavjudligi yoki turmush tarziga xos belgilarning ifodalanishi (Abdullayeva Sh 2005).

Yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, "madaniyat" tushunchasining shakllanishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining ilk davrlari

bilan bog'liq. Ovchilik va terib-termachlab kun ko'rgan insonlar tomonidan yerga ishlov berish, ya'ni dehqonchilik sirlarining o'rganilishi madaniylashuv tushunchasi bilan bog'langan. Dehqonchilikning paydo bo'lishi mo'l-ko'l oziq-ovqat manbalarini izlaydigan odamlar guruhining o'troq hayotga moslashishini ta'minladi. Keyinchalik muqim bir joyda yashaydigan inson faqatgina dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish haqidagina emas, shu bilan birga, turmush tarzida ma'lum qulayliklarni yaratish to'g'risida ham o'ylay boshladi. Dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga o'troq qabila va urug'lar chorva (ot, tuya, sigir va boshka) hayvonlarini ham tobora ko'proq qo'lga o'rgata boshladi, ularni ko'paytirish to'g'risida ham g'amxo'rlik qila boshladi. Inson hayotida muhim o'rin tutgan bu ikki sohaning rivojlanishi o'z navbatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarda yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishini ta'minladi.

Maishiy hayotda ro'y berayotgan doimiy o'zgarishlar kishilarda nafaqat moddiy, ayni paytda ma'naviy ehtiyojlar doirasini ham kengaytirdi. Moddiy borliq va insoniyatga xos hayotiy faoliyat mazmunini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj esa ilmiy bilimlarning keng ko'lamda rivojlanishi uchunzamin yaratdi. Bu davrga kelib, "madaniyat" tushunchasi jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar mohiyatini ham ifodalay boshladi. Shunga ko'ra "madaniyat" tushunchasiga inson faoliyatining mahsuli uning darajasini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi hamda xulq-atvor mohiyati nuqtai nazaridan yondashish mantiqan to'g'ridir. Demak, "madaniy xulq-atvor" tushunchasi shaxs xulq-atvorining insoniyat tomonidan asrlar davomida o'zlashtirilgan hayotiy tajribalarga muvofiq asoslangan qoida, me'yorlarga muvofiq xatti-harakatlari majmui ekanligini anglatadi.

Z. Freyd fikriga ko'ra, madaniyat o'zida boshqa mavjudotlardan yuqori bo'lgan insoniyatga xos hayotiy tajribalarni ifodalaydi. Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyotida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda vorisiylik tamoyiliga asoslangan ulkan hayotiy tajribaga ega bo'ldi. To'plangan hayotiy tajribaning ajdodlar tomonidan avlodlarga uzatilishida ularning xulq-atvorini axloqiy jihatdan boshqarishga yo'naltirilgan ijtimoiy me'yorlar ham o'ziga xos o'rin tutadi (Z. Freyd, 2000).

Shaxsga xos bo'lgan madaniy xulq-atvor shakllari jamoat joylarida yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda yoshlarni jamoat joylarida o'zlarini tuta bilishga o'rgatish nihoyatda muhim hisoblanadi. Zero, keyingi vaqtlarda yoshlarning jamoat joylarida jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishi borasida muayyan kamchiliklar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Jamoat joylarida ijtimoiy me'yorlarga rioya qilmaslik atrofdagilar uchun noqulayliklarni yuzaga

keltirish bilan birga shaxsning qanday tarbiya ko'rganligidan ham dalolat beradi. Bu esa boshlang'ich ta'lim davrida yoshlarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirish yo'lida pedagogik faoliyatni tashkil qilar ekan, undan ijtimoiy me'yorlar to'g'risida ma'lumot beradigan manba va vositalardan yaxshi xabardor bo'lishi talab qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda pedagoglar fan o'qituvchisi hamda sinf rahbari sifatida o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat ruhida tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. O'qituvchining muayyan sinf jamoasiga rahbarlik qilishi nafaqat ta'lim jarayonida, shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlar chog'ida ham ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlar targ'ibotiga doir tadbirlarni izchil tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ta'lim muassasalarida, reja asosida olib boriladi. SHu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar targ'ibotiga oid tadbirlarning o'rin olishi pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga o'quvchilar qoidasi, salomlashish odobi, to'g'ri ovqatlanish tartibi, kiyinish madaniyati, shaxsning jamoat joylarida o'zini tutishi, harakat xavfsizligi, jamoat transportidan foydalanish, madaniy dam olishni tashkillashtiruvchi muassasalar: kinoteatr, muzey va istirohat bog'lariga tashrif buyurish, yong'in xavfsizligi hamda elektrotexnika vositalaridan foydalanish qoidalari bilan o'quvchilarni tanishtirishga doir tadbirlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

To'rt yillik muddatni o'z ichiga oladigan boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilish faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining rivojlanganligiga ko'ra shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ham ana shu ikki bosqich inobatga olinishi lozim. (1. 2-rasm)



Natijalar

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi va ikkinchi sinflarida o'quvchilar ijtimoiy va huquqiy me'yorlar borasida oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida egallagan u qadar murakkab bo'lmagan tushunchalar borasidagi bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu bosqichda o'quvchilar maktab tartib-qoidasi, salomlashish va so'zlashish odobi, to'g'ri ovqatlanish tartibi, shuningdek, jamoat joylarida o'zni tutishiga oid, harakat xavfsizligi va jamoa transportidan foydalanish qoidalari bilan birinchi marta yoki qayta (maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtirilgan tushunchalar bilan) tanishish orqali ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va shaxsga yo'naltirilganlik xususiyatini anglab boradilar. Qayd etilgan ijtimoiy me'yorlarning turlari bilan tanishish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining uchinchi va to'rtinchi sinflarida tahsil olish chog'ida o'quvchilar bir qadar murakkab bo'lgan ijtimoiy me'yorlar bilan tanishadilar. Jumladan, kiyinish madaniyati, madaniy muassasalar: kinoteatr, muzey va istirohat bog'larida bo'lish, yong'in hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan yaqindan tanishadilar. SHunga ko'ra boshlang'ich sinf o'qituvchilari yuqorida ko'rsatilgan ikki bosqichning har birida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishga e'tibor qaratishlari lozim. Birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirishda o'yinlar, ertak qahramonlari ishtirokidagi tomoshalar, ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yorituvchi, to'qima ertak va topishmoqlar kabi vositalardan samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Ertak va topishmoqlarni bevosita o'qituvchining o'zi to'qishi yoki hamkasblar, yozuvchi va shoirlar tomonidan yaratilgan namunalaridan foydalanishlari ham mumkin.

Uchinchi va to'rtinchi sinflarda esa bu yo'lda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning musobaqa, muayyan amaliy topshiriqlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda ham o'qituvchining ijobiy qobiliyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, uning mashg'ulot yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorlikka erishishni kafolatlabgina qolmay, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

Insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishning o'ta ta'sirchan vositalaridan biri nutqdir. Kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni nutq vositasida ifodalanishiga asrlar davomida katta

e’tibor qaratib kelingan. Har bir millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida nutqni ifoda etish, uning yordamida atrofdagilar bilan o’zaro aloqa qilish qoida (talab, me’yor)lari ishlab chiqilgan. Kishilarning muloqotga asoslangan birgalikdagi faoliyatlari u yoki bu jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar asosida aks etuvchi ijtimoiy nazorat mavjud bo’lgan sharoitda kechadi. Ijtimoiy sub’ektlarning har qanday hayotiy faoliyatlarikabi ular tomonidan tashkil etiladigan muloqot jarayoni muayyan me’yor va qoidalar asosida tartibga solinadi.

Nutq insonlargagina xos bo’lgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Faoliyat turi sifatida aniq maqsadga yo’naltirilgan nutq kishilik taraqqiyoti tarixida yuzaga kelgan va o’zaro muomalani tashkil etish uchun zarur so’zlashuv ko’nikmalarining rivojlanishi natijasida mustahkamlangan. Nutqning og’zaki va yozma shakllari mavjud bo’lib, kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida asosan og’zaki nutqdan foydalaniladi. Insoniy faoliyatning ushbu turi mavhum-mantiqiy fikrlash va ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Nutq negizida kechadigan fikriy faoliyat jarayonida esa tasavvurning shakllanishi ro’y beradi. . . Nutqining hissiy imkoniyati tufayli inson u yoki bu voqea-hodisaga o’z munosabatini bildiradi.

Muloqot (so’zlashish) insonlar orasida oddiy, kundalik so’zlashuv aloqasi bo’lib, ko’p qirrali faoliyat turidir. Muloqotning eng umumiy ko’rinishi hayotiy faoliyat sifatida namoyon bo’ladi. Uning ijtimoiy ma’nosi shundaki, muloqot madaniyat shakli va jamoatchilik munosabatlarining vositasi bo’lib xizmat qiladi. Muloqotning xususiyati, mazkur jarayonda bir insonning sub’ektiv dunyosi boshqa kishi uchun ochiladi. Muloqotda inson o’z xususiyatlari orqali o’zini namoyon qiladi. Amalga oshirilgan xatti-harakat shakliga qarab, insonning xarakteri borasida xulosa chiqarish mumkin.

Nutq orqali ma’lumot berish xususiyatiga ko’ra esa uning umumiy madaniyati hamda ma’naviyatiga baho berish mumkin. Boshlang’ich ta’lim davrida o’quvchilarda yosh xususiyatlariga ko’ra nutq zarur darajada o’sgan bo’lib, aktiv (faol) va passiv (sust) lug’ati ancha taraqqiy etganligi tufayli, o’qituvchi tushuntirishlarining ma’nosini yaxshi anglay oladi. SHu bois boshlang’ich sinflarda o’quvchilarga so’zlashuv (muomala) me’yorlari to’g’risida ma’lumotlarni berish orqali ularni atrofdagilar bilan o’zaro muloqotni to’g’ri tashkil etish ko’nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratish bu yo’lda pedagogik faoliyatni samarali olib borishda qiyinchilik va murakkabliklarni yuzaga keltirmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda so'zlashuv me'yorlariga amal qilish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish quyidagi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanadi:

1. O'quvchilarni "so'zlashish", "muomala", "so'zlashish me'yorlari", "muomala me'yorlari" kabi tushunchalar bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarga so'zlashuv va muomalaning, kishilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etishdagi ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini ko'rsatib berish.

3. O'quvchilarda so'zlashuv va muomala me'yorlariga amal qilmaslikning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish.

4. O'quvchilarni nutqiy murojaat turlari bilan yaqindan tanishtirish.

5. O'quvchilar tomonidan so'zlashuv va muomala me'yorlari to'g'risidagi tushunchalarning yetarlicha o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratish.

6. O'quvchilarda ijtimoiy sub'ektlar (ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, o'qituvchilar, sinfdoshlar, tengdoshlar, shuningdek, ularning atrofidagi boshqa kishilar) bilan to'g'ri so'zlashish ko'nikmalarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanishishi lozim bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan yana biri hayot va texnika xavfsizligi qoidalari bilan bog'liq. Mazkur qoidalar barcha yoshdagi ijtimoiy sub'ektlarda bo'lgani kabi boshlang'ich sinflarda ham o'quvchilarni turli xavf-xatarlardan muhofazalash, kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ko'ngilsizliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

"Hayot xavfsizligi" va "texnika xavfsizligi" kabi tushunchalarning mohiyatini yetarlicha anglash uchun dastlab xavfning o'zi nima, "xavfsizlik" tushunchasi qanday lug'aviy ma'nolarda qo'llaniladi, xavfsizlikni qanday qilib ta'minlash mumkin kabi savollarga javob topib olish mantiqiy jihatdan to'g'ri sanaladi.

Ayni o'rinda o'zbekcha atama va tushunchalarni ta'riflashda "O'zbek tilining izohli lug'ati" asosiy va muhim manba bo'lib, unda "xavf" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: xavf - bu "biror xatarli hodisa sodir bo'lishi ehtimolligi, xatar"(Jumayev M. E, 2021).

j
a
r
a
y
o
n

v

to’g’ridan-to’g’ri zarar yetkazishi kabi holatlarga alohida urg’u berilgan. Agarda pedagogika va psixologiya aynan shaxs kamoloti va inson ruhiyatini o’rganuvchi sohalar ekanligi nazarda tutilsa, u holda internet manbasida keltirilgan ta’rif muallifni to’la qoniqtiradi.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da “xavfsizlik” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: xavfsizlik - bu “xavf-xatarning yo’qligi, xavf bo’lmagan holat”. (V. M. Zaplatinskiy 2000.) V. M. Zaplatinskiy “xavfsizlik” tushunchasini umumiy hamda ijtimoiy sub’ektga taalluqligi nuqtai nazaridan ta’riflashga urinadi. Chunonchi, uning fikriga ko’ra umumiy ma’noda “xavfsizlik” tushunchasi quyidagi mazmunni anglatadi: xavfsizlik murakkab tizimning shunday holatiki, unga ko’ra ichki va tashki omillar harakati tizimning yomonlashuviga olib kelmaydi yoki uning ishdan chiqishiga yo’l qo’ymaydi, rivojlanishiga to’siq bo’lmaydi. (Абдуллаева, М. Д. 2021). Muallifning qayd etishicha, shaxs (inson) xavfsizligi - uning shunday holati bo’lib, ichki va tashqi omillarning harakati o’limga, umumiy holda organizm va ongning ishlashi, ruhiyat va rivojlanishning yomonlashuviga olib kelmaydi, shuningdek, insonga ma’lum istak va maqsadlariga erishishga to’sqinlik qilmaydi. B. Sirliboyevaning yondashuviga ko’ra esa, shaxs xavfsizligi - bu turli ko’rinishdagi xavf ta’siridan muhofazalanish hissiga ega bo’lish demakdir (Абдуллаева, М. Д. 2020).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shaxsning ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga munosabati nuqtai nazardan “xavfsizlik” tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin: xavfsizlik shaxsning salbiy ichki hamda tashqi omilardan biologik (shaxsiy salomatlikni saqlash uchun amaliy harakatlarni tashkil etish), ijtimoiy (salbiy ijtimoiy omillarga keskin munosabat bildirish, ularga qarshi tura olish), ruhiy (asab tizimini mustahkamlash, har qanday holatga ta’sirlanaverishdan saqlanish) muhofazalanishini anglatuvchi tushunchadir.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida boshlang’ich sinf o’quvchilarini xavfsizlik qoidlari bilan tanishtirish ularning hayotlarini muhofaza qilish, shuningdek, texnologiya hamda jismoniy tarbiya darslarida texnik ko’rsatmalarga qat’iy rioya qilishga o’rgatib borishni anglatadi. Maktab amaliyoti bilan tanishish natijasida boshlang’ich sinf o’quvchilarining hayotlariga xavf quyidagi sharoitlarda yuzaga kelishi mumkinligi aniqlashtirildi:

1) texnologiya darslarini tashkil etish jarayonida;

2) jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida;

3) yo’llarda, transportlarda harakatlanish vaqtlarida;

4) tasodifiy boshqa holatlarda.

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari hayot xavfsizligini ta'minlash borasidagi amaliy pedagogik harakatlar jismoniy tarbiya hamda texnologiya darslarida, shuningdek, ularni yo'lda to'g'ri yurishga o'rgatish (yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish), texika xavfsizligiga rioya qilish maqsadida ta'lim jarayonida, sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtirilayotgan mashg'ulotlar davrida tashkil etiladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlar targ'ibotini izchil tashkil etilishini ta'minlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar targ'ibotini yorituvchi tadbirlarni kiritish zarurligini anglatadi.

Ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga rioya qilish ishlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishida boshlang'ich sinf o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar. Ularning mashg'ulot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda o'tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishni shakllantiradi. O'quvchilarning hayotlari, sog'liqlarini muhofaza qilish uchun ularni hayot va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishga boshlang'ich sinflarda ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Nazariy o'rganish va maktab amaliyoti bilan yaqindan tanishish boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotlariga xavf texnologiya darslarini tashkil etish jarayonida, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, shuningdek, ular yo'llarda, transportlarda harakatlanayotganlarida yuzaga kelishi aniqlandi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtiradilar. Biroq, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o'yin faoliyati o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qish faoliyati o'quvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o'quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Bilishga nisbatan ham hissiy yondashish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. SHu bois ularni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda

berilayotgan ma’lumotlarni qiziqarli tarzda bayon etish, imkon qadar hayotiy misollar yordamida obrazli talqin qilish ijobiy natijalarni qo’lga kiritishga yordam beradi. His-tuyg’ularini ifodalashga qo’zg’aluvchanlik xosligi, shu bilan birga tengdoshlariga taqlid qilishning kuchliligi bois ijtimoiy hamda huquqiy me’yorlarga amal qilish yoki amal qilmaslik holatlarini ularning xatti-harakatlari, xulq-atvori, odatlari misolida yoritish orqali tasavvurlarining yetarli bo’lishiga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

N. Ismatova va b**.** Tarbiya: 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. - T. : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. - 64 b.

N

.

N

.

Абдуллаева Ш. Педагогические технологии развития познавателных творческих способностей учашихсия младших классов. Дисс. канд. пед наук - Т. : 2005. -175 ст.

B

Ô’quv jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining pedagogik

s

h

l

Inoyatova M. E. Uzbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyoti bosqichlari va didaktik asoslari: Ped. fanl. nomz. . . . diss. avtoref. - T. : 2006. -23 6.

Nazarova X. P. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kommunikativ savodxonligini tahminlashning didaktik asoslari: Ped. fanl. nomz. . . . diss. -T. : 1999. -245 6.

Shodmonova Sh. S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz. . . . diss. avtoref. - T. : 2001. - 19 b.

Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkilqilish metodikasi. Respublika o’quv metodik markazi, 2011. - 86 b.

Абдуллаева, М. Д. (2020). Знакомство с социальными нормами, реализуемыми в процессе приветствия учащихся начальных

-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. -T. : G'afur G'ulom nomidagi

n

a

s

h

r

классов. Американский журнал социальных наук и инноватsiй в образовании, 2(12), 174–179.

Абдуллаева, М. Д. (2021). МЕТОДИКА ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ. Европейская наука, (1 (57)), 48-50.

Абдуллаева, М. Д. (2021). Роль родителей в воспитании детей в семье. Американский журнал социальных наук и инноватsiй в образовании, 3 (01), 410-415.

EXTENDED ABSTRACT

INTRODUCING SOCIAL NORMS ON THE TALKS OF SMALL SCHOOL AGE

Speech is considered one of the types of activity inherent only in humans. As a type of activity, speech aimed at a specific goal arose in the history of the development of personality and was strengthened as a result of the development of the necessary eloquence skills for the organization of reciprocity. There are oral and written forms of speech, and in the process of social relations between people, mainly oral speech is used. This type of human activity serves for abstract-logical thinking and the formation of consciousness. And in the process of thought activity, which takes place on the basis of speech, the formation of imagination occurs. . . Due to the emotional possibility of his speech, a person expresses his reaction to this or that event.

Communication (eloquence) is a simple, everyday colloquial communication among humans and is a multifaceted type of activity. The most general view of communication is manifested as a vital activity. Its social meaning is that communication serves as a form of culture and a means of Public Relations. The feature of communication is that in this process, the subjective world of one person opens up for another. In communication, a person manifests himself through his characteristics. Depending on the form of behavior performed, it is possible to draw conclusions about the character of a person.

By the nature of information through speech, however, it is possible to assess its general culture as well as its spirituality. During primary education, speech in students by age characteristics has grown to the required level, and due to the fact that the active (active) and passive (sluggish) vocabulary is much more progressive, the teacher is able to understand well the meaning of his explanations. Therefore, focusing on the formation of skills and qualifications for the correct Organization of interaction with those around them by giving students information about

the norms of eloquence (attitude) in elementary grades does not cause difficulties and complications in the effective conduct of pedagogical activity along the way.

In elementary grades, the formation of skills and competencies in students to follow the norms of eloquence is ensured by performing the following tasks:

1. Introducing readers to concepts such as “speaking”, “attitude”, “speaking standards”, “attitude standards”.

2. To show readers the social and personal importance of eloquence and treatment, the organization of interaction between people.

3. Awareness of the negative consequences of not following the norms of eloquence and treatment in students.

4. Familiarization of readers with the types of colloquial address.

5. Creating conditions for adequate appropriation of concepts about the norms of eloquence and treatment by students.

6. The formation of proper verbal skills in students with social subjects (parents, other members of the family, teachers, classmates, peers, as well as others around them).

Another of the socio-legal norms that elementary school students should get acquainted with is related to the rules of life and Technical Safety. These rules are important in protecting students from various risks in primary classes, as in social subjects of all ages, in preventing possible frustrations of origin.

A special place in the successful organization of work on compliance with socio-legal norms is occupied by primary school teachers. Their creative approach to organizing and conducting training and spiritual and educational events forms an interest in students in mastering socio-legal norms, while improving the effectiveness of pedagogical activity. In order to protect the lives, health of students, it is required to pay close attention even in elementary grades to introduce them to the rules of safety of life and technology. Theoretical learning and close acquaintance with school practice the danger to the lives of elementary students was found to occur in the process of organizing technology classes, physical education classes, as well as when they are moving on roads, traffic.

Students studying in elementary grades master the first simplest concepts about socio-legal norms, their content in family and preschool institutions. However, the stage of primary education is considered a

special period in the life of students. The child will be fully prepared to receive education according to his physical and mental maturation. As the main way of life, gaming activities are replaced by reading activities. Reading activity strongly affects the further mental improvement of students, the formation of character traits. There is an increased interest in acquiring knowledge and studying the environment. All these phenomena help students to adequately understand the essence of socio-legal norms.

The emotional approach to knowledge also manifests itself as one of the characteristics of elementary students. Therefore, an interesting statement of the information given in their introduction to socio-legal norms, figurative interpretation using as many life examples as possible will help to achieve positive results. The specificity of arousal to the expression of emotions, while the strength of imitation of peers, therefore, leads to the possibility of achieving the sufficiency of their imagination by illuminating situations of adherence or non-observance of social and legal norms on the example of their behavior, behavior, habits.

katta o‘qituvchi Aliyeva Dilbar

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsiya, innovatsiyaning kirib kelishi, uning shakllari, innovatsion faoliyat, ta’limda innovatsiyaning o‘rni, psixologiyada tarbiyaviy texnologiyaning o‘rni, pedagogik texnologiyalarning turlari:muammoli o‘qitish texnologiyasi, tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuterli o‘qitish texnologiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi modulli o‘qitish texnologiyasi, tarbiya texnologiyalarining mazmuni, qo‘llanilishi haqida ma’lumot berilgan

Kalit so‘zlar: pedagogika, psixologiya, oliy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, SMART texnologiyasi, “keys-stadi” texnologiyasi, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim

INNOVATIVE RESEARCH IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Senior TeacherAliyeva Dilbar

Annotation

In this article, innovation, the introduction of innovation, its forms, innovative activity, the role of innovation in education, the role of educational technology in psychology, types of pedagogical technologies: problem teaching technology, differentiated teaching technology, individualized teaching technology computer teaching technology, business game technology, modular teaching technology, the content of educational technologies, the application of innovations, the use of current information in the educational program to solve educational problems, preparing students to solve practical problems, organization of students' independenknowledge, research, project activities, implementation of the educational process in a distributed educational environment, the educational environment is not limited to the territory of the educational institution or the distance education system, the educational process is continuous, flexible educational trajectories, individualization of learning, diversity of educational activities for students to study educational programs and courses, providing information to students about the nature of education and moral relations and their importance in the life of society, creating the need for students to acquire educational and educational knowledge, and as a result of determining spiritual education, innovations are currently plays a major role in the reform of the education system, the goal of pedagogical technologies is to ensure the necessary efficiency of the educational process in the conditions of mass education and achieve the desired results of study by students, through the use of innovative research, pedagogy and it is concluded that the teaching of psychological sciences is the most effective way

Keywords: pedagogy, psychology, higher education, pedagogical technologies, SMART technology, “keys study" technology, formal education, informal education

“Innovatsiya- intellektual mahsulot-ixtiro,

axborot, nou-xou, yoki g‘oya iqtisodiy

mazmuniga ega bo‘ladigan jarayon”

(T. Brayan)

Kirish

O’zbekistonimizda yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda kelajakavlodlarimizni, ma’naviy boy, axloqanyetuk, intellektualrivojlangan, yuqoribilimlivahartomonlamayetuk, shaxssifatida shakllanishida alohida ahamiyat berilmoqda [INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION/ “TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNING O'RNI”/Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi, “Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi Saidova F. A. 411-bet].

Prezidentimizning 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026 yillargamo‘ljallanganYangiO‘zbekistonningtaraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsionloyihavatashabbuslarniqo‘llab - quvvatlashning zamonaviymexanizmlarinijoriyetishborasidaqatorvazifalarbelgilangan. Bundantashqari“Ta’lim- tarbiyatiziminiyanadatakomillashtirishgaoid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ4884 – son2020 –yil 7-yanvardagi qaroriva “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davridata’lim-tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF – 6108- son 2020 – yil 7 – noyabrda tasdiqlangan farmonlari mazmuni ham O‘zbekistonda ta’lim sohasinikompleksrivojlantirishningustuvorjihatlarinibelgilabberganibilan ahamiyatlidir.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi esa yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash hamda mamlakatning kelajagini yuksaltirish ekanligi aniq. Jamiyat yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilgan islohotlar samarasi taqdiri , mos ijtimoiy – iqtisodiysiyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog’liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishdaoliy ta’lim

tizimidaishlab chiqilganva tadbiq qilinayotgan innovatsiyadir. Innovatsion faoliyat- yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat bo’lib [O‘zbekiston Respublikasining 24. 07. 2020-yildagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” 630-son qonuni], mana shu mazmunda“ ta’lim- tarbiya jarayonini rivojlantirish uchunqilinganharbirish, ta’limjarayoniniyangichatexnologiktarkibda loyihalash, o‘qitish, bilimlarningturlishakldabirlashuvigaerishish, fanlararo tadqiqotlar, fanning ishlab chiqarish bilan birlashtirilishigaqaratildi”- desak xato bo‘lmasa kerak. Bu jarayonlarning asosiy qatnashchilari esata’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilardir [Dissertatsiya/ “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar”/Ismoilova M. Sh. , BuxDu “pedagogika” kafedrasi. , -Buxoro-2022].

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G’arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan. Dastlab innovatsion faoliyatF. N. Gonobolin, S. M. Godnin, V. I. Zagvyazinskiy, V. A. Kan-Kalik, N. V. Kuzmina, V. A. Slatenin, A. I. SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan.

Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg’or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Edemishlaridainnovatsiontaraqqiyotlarni boshqarish, ta’limdagio‘zgarishlarnitashkiletish, innovatsiyaning«Hayotiva faoliyati» uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspektiamerikalikinnovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan [INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION/ “TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNING O'RNI”/Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi, “Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi Saidova F. A. 412-413-bet].

Adabiyotlar sharhi

Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashga yo‘naltirilgan jarayon murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonni tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning turli shakl, metod va vositalar

asosida amalga oshirilishi talabalarda bu borada uyushtirilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etishga nisbatan rag‘bat uyg‘otadi.

Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ikkiguruhga bo‘linadi, ya‘ni, muayyan mazmunga ega bo‘lgan o‘quv faoliyati hamda shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat.

Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning muhim qismi sifatida namoyon bo‘ladigan auditoriyadan tashqari sharoitda va talabalarning ommaviy ishtirokiga asoslangan holda uyushtiriladigan tadbirlar pedagogik texnologiyalar va ularni qo„llashga katta imkoniyatlarga egadir. Mazkur tadbirlarning bu imkoniyati ularning talabalar xohish-istak va ehtiyojlari, muayyan sharoitning mavjudligi, shuningdek, tashkil etuvchilarning layoqati, mahorativaijodiyfikrlashqobiliyatiningdarajasigatayanilishibilan tavsiflanadi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida auditoriyadan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan tadbirlarning imkoniyatlaridan keng foydalanishga harakat qilindi. Mazkur tadbirlarning ham dastur asosida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratildi [Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. - 120 b.].

SMARTta’limnio‘qitishtexnologiyalaridanfoydalanishningnazariyasiv aamaliyoti masalalari, uning didaktik va metodik asoslari, shuningdek, SMART ta’limning yurtimizda qo‘llash muammolari, o‘quvmazmuniningvariativligiyurtimizolimlariA. Abduqodirov, N. Muslimov, U. Begimkulov, A. Hayitov, M. Lutfillaev, N. Taylaqov, MDHolimlariYe. Polat, A. Andreev, N. Naydenova, G. Levkin, I. Varganova, N. Valyushina, R. Pimonov, N. Gavrilov, I. Zadorojnyaya, S. Berejnaya, M. A. Malsheva, S. BogdanovavaXorijolimlariA. Amadco, I. Allen, J. Seaman, D. Keegan, H. Kappel, B. Lehmann, J. Loeper, B. Holmberg, M. Dougiamas, P. Taylorlar tomonidan tadqiq etilgan [A. I. Soyibnazarov. Ta’lim jarayonida onlayn o‘quv kurslarning ijobiy va zaif tomonlari. FDU. Ilmiy habarlari jurnali. 2022-yil 6-son. (Advantages and disadvantages of online courses in education)].

Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining rolini oshirish;

- axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarishda band bo‘lganlar sonining ko‘payishi;

- telefoniya, radio, televidenie, internet, shuningdek, an’anaviyvaelektronommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirishning kuchayishi;

- odamlarningsamaraliaxborothamkorligini, ularningjahonaxborotresurslaridan foydalanishini, axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni ta’minlaydigan global axborot makonini yaratish.

So‘roqlarga mos so‘zlar topib, gap tuzishlaridan oldin o‘quvchilarimizga shunday tushuncha, yo‘nalish beramiz. Bunda dastlab tuzadigan gapimizdagi har bir gap bo‘laklarini o‘rnini aniqlab olishimiz, ya’ni qaysi gap bo‘lagidan keyin qaysi gap bo‘lagi kelishini aniqlab olishimiz kerak. Demak, ikkinchi darajali bo‘lak, ega, ikkinchi darajali bo‘lak va kesim tarzida so‘zlarni bir-biriga bo‘g‘lab joylashtirishimiz zarurligini ko‘rishimiz mumkin.

Shundan so‘ng o‘quvchilar topshiriqni bajarishga kirishadilar va quyidagicha yechimlarni bizga havola etishlari mumkin bo‘ladi.

1. Uchqur chavandozlar marrani egallashdi.

2. Bilimdon insonlar kitob o‘qishadi.

3. Botir yigitlar dushmanni yer tishlatdi.

4. To‘lin oy aksini ko‘rsatdi.

5. Chopqir otlar bizga yetishdi.

6. Saxiy quyosh nurini sochdi.

7. Mohir qo‘llar kashta tikadi.

8. Uddaburon o‘quvchilar vazifani bajarishdi.

9. Chiroyli gullar hidini taratdi.

10. Mehribon buvijonlarimiz mehrini ulashadi .

Bu topshiriqni bajarishda ham har bir o‘quvchi bittadan yoki bir nechtadan gap tuzishi mumkin. Tuzilgan har bir gap o‘quvchilarning o‘zi tomonidan tahlil qilinadi. Yuqorida aytganimizdek topshiriqlarni bu usullarda bajartirish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida kombinatorik masalalarni yechish murakkabligi tufayli ularga fikrlash orqali o’rgatiladi. Chunki kichik yoshdagi bolalar uchun bunday ilmiy terminlar bilan tushuntirish, ularni psixologik tarafdan bu qiyin ish ekan degan fikr paydo bo’ladi va ular bunday masalalardan cho’chib qoladi. Shuning uchun boshlang’ich sinflar darsligiga kombinatorik masalalar boshlang’ich tushunchalar bilan

kiritgan ma’qul. Shuning uchun avvalo ularningtafakkurini o’stirish, ma’lum bir hodisaga tanqidiy fikr bildira olish qobilyatlarini shakllantirishimiz lozim. Bunitarbiyaviy jarayonda shakllantirish, avvalambor, og‘zaki nizolar ko‘rinishida emas, balki tug‘iladigan konsepsiyalarning hissiy asosini ta’minlaydigan ob’ektiv va o‘yin harakatlari shaklida amalga oshirilishi kerak.

Tarbiya fani misolida

1. “Oilaviy kitobxonlik- muvaffaqiyat poydevori” mavzusida quyidagicha aqlni charxlaydigan savollar beriladi.

1)Qaysi kitoblarni o'qishni tavsiya qilgan bo’lardingiz?

2) Kitoblardan olgan taassurotlaringizni kimlar bilan

bo'lishasiz?

Kunlardan bir kuni Luqmoni hakimdan: «Shuncha ilmni qanday to'pladingiz?» - deb so'rashibdi. Shunda donishmand: «Kitob o'qiyotgan paytlarimda yondirgan chiroq moyini hisoblasangiz, uning qiymati yeb-ichgan narsalarimdan ko'proqdir», -

deb javob bergan ekan. (“Hadis”dan).

Bu mavzuda biz o‘quvchilarga “Qaysi kitoblarni o'qishni tavsiya qilgan bo’lardingiz?” nomli hikoya tuzishlarini topshiriq qilib beramiz. Bunda topshiriqni bajarishda har bir o‘quvchi o‘zi yoqtirgan kitobni hikoya qiladi. O‘quvchilar o‘z hikoyalarini aytish barobarida har bir o‘quvchi boshqa o‘zi bilmagan kitoblarhaqida bilimlarni egallab olishlari mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilarni hikoyalaridan namunalar keltiramiz.

a) Sariq devni minib. Bu kitob menga juda yoqadi men bu kitobni o’qishni tavsiya qilaman. Shunki bu kitob menga odam o’qimasdan turib katta odam bo’la olmasligini, yolg’onning oxiri voy ekanligini o’rgatadi. Bu asarda Hoshimjon ismli bola o’qimasdan katta odam bo’lmoqchi bo’ladi, ammo bu xato ekanligini asarni oxirida anglab yetadi.

b)Guliverning sayohatlari. Menga bu asari juda yoqadi men bu kitobni o’qishni tavsiya qilardim. Bu asar sarguzashtlarga boy va juda qiziqarli. Bu kitobda Guliver turli mamlakatlarga boradi va unda turli xil odamlarni ko’radi. Bu asardagi odamlarning fikrlashi va dunyoqarashi boshqachaligi bilan asar juda qiziqarli.

c) Shum bola. Men bu asar tavsiya qilaman. Bu asar juda ham qiziqarli kitob menga bu kitobni buvijonim o’qib berganlar. Shum bola asari

yolg’onning oxiriyomonlik ekanligi, hamma narsani borida qadriga yetish kerakligini o’rgatadi.

2. Halollik-muvaffaqiyat kaliti. Bu mavzuda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagicha savollar beriladi. “Nima uchun halol insonga nisbatan rostgo'y iborasi ishlatiladi?Inson halol bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?«Birovning haqi» deganda nimani tushunasiz?”

Yaxshi kishi yaxshilik qila oladigan emas,

yomonlik qilishni bilmaydigan kishidir. (Hikmat)

O‘quvchilarni izohlaridan namunalar keltiramiz.

1. Har doim haqiqatni gapiradigan odam rostgoy odamdir. Halol odam esa hech qachon birovning haqiga hiyonat qilmaydigan odamdir. Bunday odam xattoki so’zida ham hiyonat qilmaydi.

2. Birovning haqi deganda bu birovga tegishli narsa tushuniladi. Bunga hech qachon ularning ruxsatisiz tegmasligimiz kerak bo’ladi. Agar uni o’sha odamning ruxsatisiz olsak bunga hiyonat qilgan bo’lamiz va bunday odam halol inson hisoblanmaydi.

2022-2023- o'quv yilidan boshlab Maktablarda Ona tili va O'qish fani birlashdi va bu Ona tili va o'qish savodxonligi fani sifatida kiritildi. Bu bilan Ona tili va O'qish fani uchun ajratilgan dars soatlari kamaymadi, ikkala fan uchun ajratilgan soat qo'shildi. Quyida boshlang'ich ta'limda o'tiladigan fanlardan Ona tili va o'qish savodxonligi va Tabiiy fan darslaridagi mantiqiy tafakkur orqali yechiladigan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Ona tili va o’qish savodxonligi fani misolida

Bu turdagi topshiriqda o’quvchilar mantiqan tafakkur qilgan holda bajarishadi.

Oftob so’zi quyosh so’zi bilan ma’nodosh hisoblanadi. Bu topshiriqni bajarishda o’quvchilarga kombinatorika kerak bo’ladi ya’ni oftob so’ziga ma’nodosh so’zni topish uchun ular har bitta so’zni oftob so’zi bilan birgalikda aytib ko’rishadi.

Oftob- Quyosh

Yurt- Mamlakat

El- Xalq

Xush- Yaxshi

Fe’l- Xarakter

2-topshiriq. Yo’nalishni toping. Bunday topshiriq “Jamoat transporti” bobida berilgan. Bu bobda o’quvchilar jamoat transportida o’zlarini qay holda tutishlari va qanday qoidalarga rioya qilish zarurligi o’rgatiladi. Hamda o’quvchilar qaysi manzilga borayotganini bilishi va uyi qaysi manzilda ekanligini bilib qoyishlari kerakligini o’rgatiladi.

Bu topshiriqda Madina va Ibrohim maktabga borishi uchun qaysi avtobusda borishi va qaysi yo’nalishdan borishi lozimligi to’g’risida turli xil bekatlar berilgan.

1)Madina 14-maktabga borishi uchun 20- avtobusga chiqadi, bu avtobus “Tantana” bekatidan boshlanib, “Quvonch” bekatida to’xtaydi. Madina bu avtobusda “Bolalik”, “Mehnat”, “Vatan” bekatlaridan o’tadi.

2) Ibrohim 37-maktabga borishi uchun 17-avtobusga chiqadi, bu avtobus “O’zbekiston” bekatidan boshlanib, “Ishonch” bekatida to’xtaydi. “Do’stlik”, “Ilm” va “Mehnat” bekatlarini bosib o’tadi.

Bu topshiriq o’quvchilarning mantiqiy tafakkurini o’stirishga ham ularda mantiqan fikrlashga o’rgatadi.

3-topshiriq. Mashq. Quyidagi mashq ona tili va o’qish savodxonligi darsligidan keltirilgan. Bunda tushuri

b qoldirilgan joylarga kelishik qo’shimchalardan mosini topib qoyishlari kerak. Bu topshiriq ham o’quvchilardan kelishik qo’shimchalari qaysi ekanini bilishlari talab qilinadi. Bu topshiriqni bajarishda o’quvchilar so’zga barcha kelishik qo'shimchalarini qo’shib ko’rishadi va qaysi biri mos bo’lsa shu qo’shimchani tanlashadi. Barcha kelishik qo’shimchasini tanalsh jarayonida o’quvchilar kombinatorikadan foydalanishadi.

1. Shundanso’ng chag’alay unga qoyaning atrofidan quruqlikka o’tadigan yo’lni ko’rsatibdi.

2. Hozirgina yosh bolakayning qo’lidan muzqaymog’ini tortib olganingni ham o’z ko’zim bilan ko’rdim.

Xulosa qilib shuni, Boshlang‘ich sinf darslarida kombinatorik mazmundagitopshiriqlarni o‘rgatishga oidbilim qayd etish lozimki, asosiy e’tibor ko‘ribchiqilayotganmaterialningbolalarning kombinatorikaga oidbilim olish jarayonida tasavvur va tafakkurnio‘stirishga amaliy jihatiga, aqliyqobiliyatlarni rivojlantirishiga, bolalari amaliy faoliyatidan samaralifoydalanishga qaratilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini loyihalashtirish, darslar va sinfdan tashqari ishlarni olib borish, pedagogik faoliyatini tahlil qilish uchun Kombinatorik mazmundagi masalalarga muhtoj hisoblanadi. Binobarin, Kombinatorik mazmundagi masalalar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonining mazmuni ochishdava tashkillashtirishni tanlashda yordam beradi.

Mashg‘ulotlarning yanada samarali, esda qolarli, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlash, boshlang‘ich ta’lim fanlarining go‘zalligini, jozibasini, fikrlarning izchilligi va nafisligini ko‘rsatib, o‘quvchini shu olamga kirita olish, o‘qituvchining mahorati, bilimi va kompitensiyaviy yondashishiga bog‘liq.

Kombinatorik mazmundagi masalalar yechishni rivojlantirishning pedagogik usullarini hisobga olgan holda, Kombinatorik mazmundagi masalalar yechishni rivojlantirishning eng muhim usuli - munozarani tashkil etish, bolaning tarbiyaviy vaziyatini yaratish deb hisoblaymiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan “bolalarda konstruksiyaga oid bilim berish”ni shakllantirishning metodik tayyorgarligi “Milliy o‘quv dasturi” asosida takomillashtirilib, kombinatorikagatushunchasining didaktik tamoyillarga asoslangan imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

boshlangich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatish ko‘nikmalarini shakllantirishning yuqori, o‘rta, past daraja ko‘rsatkichlari me’zonlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinimetodik tayyorgarlik samaradorligini belgilovchi mezonlari va daraja ko‘rsatkichlari aniqlangan;

maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga konstruksiyalash ko‘nikmalarini shakllantirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kombinatorikaga oid metodik tayyorgarlik jarayonini samarali shakllantirishni ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan va jarayon modeli ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, boshlangich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatish matematik tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Xulosa va tavsiyalar esa quyidagilardan iborat:

1. Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasini2022-2026 yillarda amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekistonni rivojlantirishning2020-2030 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturida vata’lim to‘g‘risidagi Qonun va

farmonlarga tegishlidavlat metodik tayyorgarlikka jiddiy e’tibor berilganligiko‘rsatildi.

Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 mayda O‘zbekistonda sohalar bo‘yicha matematika fanini rivojlantirish, o‘qitilishini rivojlantirishga doir chora tadbirlar rejasi mazmuniga javobligi bilan asoslanadi.

2. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidhozirgi holatinitahlil qilishnatijasida kombinatorikaga oid bilim berishda bolani ijodiy shaxsini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari ochib berildi .

3. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidmatematik qobiliyatini shakllantirish tasavvurvlarasosida fikrlash, tasavvurqilish, bolalarning ijodiyrivojlanishiningboshqayo‘nalishlarini matematik tayyorlash nazariyasivaamaliyotiga qo‘shganmuhim hissadir.

4. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oid“kombinatorika ” tushunchasiningmohiyatiochib berildi. Shumunosabatbilanmazkur tushunchalargata’rif berildi.

5. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidbolalarning kombinatorikaga oidbilim olishining metodik- matematik tayyorgarligi” tushunchasiningmohiyati ochib berildi.

Shunday qilib, amalgaoshirilgantadqiqot ishiga yakun **yasab quyidagi tavsiyalarni** ishlab chiqdik:

1)Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidmatematika mashg‘ulotlari orqaliijodiy malakaga ega bo‘lishga ko‘maklashish. Buning uchunfikrlashgavamushohada qilishgao‘rgatish lozimbo‘ladi;

2) Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidijodiy tasavvurva intuisiyani rivojlantirish -birinchi navbatda, ularni geometrik materialniva geometriyaga oidtopshiriqlariintegratsiyalash asosidarivojlantirish;

3)Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidbolaga qiziqish uyg‘otuvchi talabchanliknioshirib, topshiriqlarning yangiligi va qiziquvchanligiasosida faoliyatni rag‘batlantirish.

4) Boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidbolalarida kombinatorikaga oidbilim berishni rivojlanitirishda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirishga olib kelish.

Matematikanio‘qitishda bolalarda kombinatorikaga oidbilim berishni rivojlanitirish boshlang‘ich sinf matematika darslarida kombinatorik mazmundagimasallarini o‘rgatishga oidbiz tomondan kombinatorikaga oidbilim berishni rivojlanitirish haqida fikr yuritish mumkin bo‘lgan ijodiy ko‘rsatkichlarkeltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O ‘
O ‘
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312 - sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi kichik maktab ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish
4. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish c h
5. Djumaev M. I. . Matematika o‘qitishda kombinatorika masallarini o‘rganishning o‘ziga
6. Djumaev M. I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5* **ISSN: 2754-6705**
Адамар Ж. Исследование психологии процесса изобретения в области математики. - М. , 1970. - 152 с.
Артемов АJК. Преемственность в развивающем обучении математике как методическая проблема // Тезисы докл. федер. научно-практ. конфер. Н. Новгород, - С. 34-36.
Гжесяк Я. Научно-методические основы обучения математике младших школьников посредством целесообразной системы задач: Автореф. . . . канд. пед. наук. - Минск, 1998. - 40 с.
Гусев В А. Как помочь ученику полюбить математику?- М. : Авангард, - 168 с.
Гусев В А. Как помочь ученику полюбить математику?- М. : Авангард,
Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теоретического и экспериментального психологического исследования. - М. : Педагогика, -240 с.
Дсндсберя Н. Г. Формирование готовности к развитию математических

способностей школьников у студентов педагогических вузов: Дисс. . . . канд. пед. наук. - Армавир, 1998. -184 с.
Демидова Т. Е. Подготовка студентов к формированию познавательных;
Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. - М. : ИНТОР, 1996. - 544 с.
Задачник-практикум по математике / НЯ. Виленкин, Н. Н. Лаврова, В. Б. Рождественская, ЛЛ Стойлова. - М. , 1977. - 205 с.
Житомирский В. Г. , Шеврин Л. Н. Геометрия для малышей. М. , 1975. - 136 с.
Задачник-практикум по математике / НЯ. Виленкин, Н. Н. Лаврова, В. Б. Рождественская, ЛЛ Стойлова. - М. , 1977. - 205 с.
Зак А. З. Развитие теоретического мышления у младшего школьника. М. , 1984. - 152 с.
Зацепина Т. В. Формирование конструктивных методических уменийстудентов факультета начальных классов при изучении 21. курса «Методика обучения математике». Дис
Ильин В. С. Формирование личности школьника. - М. , 1984. - 144 с.
Кабанова-Меллер Е. Н. Учебная деятельность и развивающее обучение. М. : Знание,
Кабанова-Меллер Е. Н. Формирование приемов умственной деятельности и умственного развития учащихся. М. : Просвещение, 1968. - 288 с.
Колягин Ю. М. Задачивобучении математике:Математические задачи каксредствообученияиразвития учащихся. - М. , 1977. Ч. 1. -110 с.

PSIXOLOGIYADA BAG‘RIKENGLIKNI O‘RGANISHGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR

Xolmatov Mansur Abdiraxim o‘g‘li

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy psixologik adabiyotlarda bag`rikenglik muammosining nazariy va amaliy muammolari turli nazariy

yondashuvlarga asoslangan holdamuhokama qilingan. Shuningdek, bag`rikenglikka doir klassik va zamonaviy yondashuvlarning konseptual va differensial tahlillari amalga oshirilgan. Maqolada Psixolog olimlar bag‘rikenglikning qadriyatlarga asoslangan tabiatini ta’kidlab, uni inson axloqi rivoji bilan bog‘lab o’rganganligi ko’rib chiqilgan. Shuningdek maqolada bag'rikenglikni turli xil psixologik maktab asoschilari tomonidan diniy va dunyoviy tomondan o'rganganligi ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy psixologik tadqiqotlarda, bag‘rikenglik insonning alohida, o‘ziga xos sifatlaridan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Maqolada tolerantlikni tenglikni hurmat qilish va tan olish, ustunlik qilish va kuch ishlatishdan voz kechish, insoniy madaniyat, me’yorlar, e’tiqodlarning ko‘p o‘lchamliligi va turli-tumanligini tan olish, bu turli-tumanlikni bir turlilikka yoki qandaydir nuqtai nazarning ustunlik qilishiga keltirishdan voz kechish tadqiq etilgan. «Chidamlilik» va «tolerantlik» tushunchalarining o‘zaro bog‘liqliginiko‘rib chiqilgan. Chidamlilik shaxsning turli fikrlarga munosabat, insonlar va voqealarni baholashda oldindan bir fikrga ega bo‘lmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyati sifatida o'rganilgan. Bag‘rikenglik – bu har doim shaxsiy-xissiy xatti-harakat ekanligi maqolada etirof etilgan.

Kalit so’zlar. Bag’rikenglik, diniy bag’rikenglik, konsepsiya, zamonaviy tadqiqotlar, shaxslararo munosabatlar, fenomen, individuallik, diniyidentifikatsiya.

THEORETICAL APPROACH TO THE STUDY OF TOLERANCE FROM THE SCIENCE OF PSYCHOLOGY

Kholmatov M. A

Annotation

This article discusses the theoretical and practical problems of tolerance in modern psychological literature based on various theoretical approaches. Also, conceptual and differential analyzes of classic and modern approaches to tolerance were carried out. In the article, it is considered that psychologists emphasized the value-based nature of tolerance and studied it in connection with the development of human morality. The article also examines the study of tolerance by the founders of various psychological schools from a religious and secular point of view. In the article, in modern psychological research, tolerance is studied as one of the special, unique qualities of a person. The article defines tolerance as respect and recognition of equality, rejection of domination and the use of force, recognition of the multidimensionality and diversity of human culture, norms, beliefs, and this diversity does not equate to uniformity or the superiority of some point of view. research has been done to avoid causing it. The interdependence of the concepts of "endurance" and "tolerance" is considered. Resilience has been studied as a characteristic of a person related to the attitude to different opinions, not having a preconceived opinion when evaluating people and events. The article recognizes that tolerance is always a personal-emotional behavior.

Keywords. Tolerance, religious tolerance, concept, modern studies, interpersonal relations, phenomenon, individuality, religious identification.

Kirish

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda, bag‘rikenglik insonning alohida, o‘ziga xos sifatlaridan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Tolerantlikni tenglikni hurmat qilish va tan olish, ustunlik qilish va kuch ishlatishdan voz kechish, insoniy madaniyat, me’yorlar, e’tiqodlarning ko‘p o‘lchamliligi va turli-tumanligini tan olish, bu turli-tumanlikni bir turlilikka yoki qandaydir nuqtai nazarning ustunlik qilishiga keltirishdan voz kechish A. G. Asmolov va G. U. Soldatova ishlarida o‘z aksini topgan.

Olimlardan A. V. Petritskiy, A. V. Zimbuli, Yu. A. Іщenko, V. M, Zolotuxin, S. Yu. Golovin, A. G. Asmolov i G. U. Soldatovalar nuqtai nazaridan chidamlilik tolerantlikning tarkibiy qismi bo‘lib, tolerantlik o‘z navbatida yanada «kengroq» tushuncha, deb hisoblanadi.

Tolerantlik tushunchasigaturli soha mutaxassislari ta’rif berib o‘tganlar. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma’noda – lotincha chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfellik ma’nosida «tolerantia» so‘zidan olingan bo‘lib, falsafada bag‘rikenglik, halimlik va xayrihohlik tushunchalarini ifodalaydi.

Metodologiya. Psixologik ma’noda tolerantlik bu – individning o‘z asab va ruhiy muvozanatini tiklash, muvafaqqiyatli moslashish, adovatga yo‘l qo‘ymaslik va uni o‘rab turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobilyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat.

«Chidamlilik» va «tolerantlik» tushunchalarining o‘zaro bog‘liqliginiko‘rib chiqishda A. A. Rean fikri qarama-qarshidir. Uning fikricha, tolerantlik psixofiziologik tushunchadir va u biror-bir nomuvofiq omil tasiriga sezuvchanlikning susayishi natijasida unga ta’sirlanishning pasayishini bildiradi. A. A. Rean fikriga ko‘ra, «chidamlilik»tushunchasi tolerantlikni o‘z ichiga oladi va yanada umumiyroq hisoblanadi. Chidamlilik shaxsning turli fikrlarga munosabat, insonlar va voqealarni baholashda oldindan bir fikrga ega bo‘lmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatideb tushuniladi.

A. A. Rean bag‘rikenglikning umumiy hodisa sifatidagi strukturasida toqatning turli mexanizmlari asosida bir-biri bilan bog‘langan ikki turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Shaxsning sensual chidamliligi uniatrof-muhit ta’siriga bardoshliligi bilan bog‘liq va sezuvchanlik pasayishi hisobiga qandaydirsalbiy omillarga ta’sirchanlikning kamayishi bilan bog‘liq, bu «chidamlilik-bag‘ritoshlik, chidamlilik-devor».

2. Shaxsning dispozitsion chidamlikligi uni atrof-muhitga chidamlikligi reaksiyatsiyasini tayyorgarligi moyilligi bilan sifatlanadi. Buning orqasida shaxsning muyayn ustanovkasi, voqelikka nisbatan munosabatlarining yig‘indisi, ya’ni «chidamlilik-pozitsiya», «chidamlilik- ustanovka», «chidamlilik-dunyoqarash».

A. V. Petrovskiy va V. V. Yurchuklarning fikricha, bag‘rikenglikni frustratorlar yoki stressorlar mavjud bo‘lgan psixologik barqarorlik

sifatida ko‘rish mumkin, qachonki u takrorlanadigan ta’sirga sezuvchanlikni pasayishi natijasida shakllangan bo‘lsa, albatta.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bag‘rikenglik – bu har doim shaxsiy-xissiy xatti-harakatdir. Insonning shunday ruxiy holatini V. S. Solovev ma’naviyat deb ataydi. Bunday taxmin bag‘rikenglikni emotsional-xissiy darajada axloq bilan chambarchas aloqadaligi haqidagi xulosalar bilan ta’kidlanadi. Bundan tashqari bag‘rikenglik emotsional-xissiy darajada tarixiy hisoblanmaydi, chunki u ko‘pgina xalqlarning madaniy-tarixiy an’nalarida mustahkamlanib qo‘yilgan. Haqiqiy bag‘rikenglik kishining ichki ruhiy erkinligi yordamida ta’minladi va u har doim ham tashqi erkinlik bilan muvofiq kelavermaydi.

Bag‘rikenglik fenomeniniP. F. Kolmogorov uch xil pozitsiyadan turib tahlil qiladi. Birinchidan, «Men va Sen» ko‘rinishidagi antropologik muammo kontekstida, ikkinchidan, qadriyatlarning muammolarini aksiologik jihatdan, uchinchidan prakseologiya, jumladan muloqat faoliyati jihatidan. Dastlab «Men va Sen» mavzusi nemis mutafakkiri L. Feyerbax tomonidan ishlab chiqilgan edi. «Alohida inson deb ta’kidlaydi u, qandaydir ajralib turuvchi bo‘lib, o‘zida insoniylikning axloqiylik va fikrlovchilik mohiyatini aks ettirmaydi. Insoniy mohiyat faqatgina muloqotda, insonni inson bilan birgaligida bo‘lib u faqatgina «Men va Sen» farqining voqeligiga tayanishda namoyon bo‘ladi». Bunda L. Feyerbax insoniy mohiyat kishiga tabiatdan unga tug‘ilishi tufayli berilmaydi, lekin odam naturalizm pozitsiyasidan e’tirof etiladi deb hisoblaydi. M. Buber, L. Feyerbaxdan farqi o‘laroq«Men va Sen» munosabatlariga sakral (muqaddas) xususiyat bag‘ishlaydi. Uning fikricha bag‘rikenglik insonlar bir-birlari bilan muloqat qiladigan kichik jamoalar va guruhlarda kechadigan hayotlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bag‘rikeng inson o‘zining betakrorligini «Men va Sen» munosabatlarini anglash orqali qo‘lga kiritadi, ya’ni boshqa kishilar bilan o‘zaro muloqatga kirishishi tufayli, albatta. Intolerant shaxs esa o‘zini boshqalardan ajratadi.

«Men va Sen» muammosi XX asr rus diniy falsafasida boshqacha yo‘nalishda tahlil qilingan. N. A. Berdyayev «Men va Sen», «U» dan tashqari «Biz» ning mavjudligini ta’kidlaydi. Lekin «Biz» ikki taraflamalik tabiatiga egadir. Birinchidan, «Biz» bu - ijtimoiy jamoa sifatida tashqaridan har qanday «Men» ga berilgan sifat, ikkinchidan, «Biz» ichki sotsial jamoa va«Men» orasidagi muloqatlardir. «Biz» dastlabki sotsial birlik, «Men» hayotining mazmuni va sifati tariqasida qaror topadi va u nafaqat «Sen» ga nisbatan, balki insoniy ko‘plikka munosabatni taqazo etadi.

Mazkur «Biz» ni N. A. Berdyayev ob'ektivlik, muloqot olami deb nomlaydi va u tinchlik, do'stlik, muhabbat, hamfikrlik va murosani o'zida namoyon qiladi. Individ doim o'z yolg'izligidan qutilishga intiladi. S. L. Frank fikricha «Biz» Vatan tuyg'usi, diniy birlik, oila, armiya, cherkov, iqtisodiy ho'jaliklar va h. z. larda insonlarni qamrab oladigan ma'naviymaslakdoshliklaridagi faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Yana uning fikricha «Men» va «Sen» munosabatlari ziddiyatlidir. Bu munosabatlarda salbiy holat ham mavjud bo'lib, u boshqa kishi mening hayotimga aralashyapti, bu hol esa mening shaxsiyatimga xavf paydo qiladi degan xulosada namoyon bo'ladi. Shuningdek pozitiv holat ham uchraydi. Chunki«Men» «Sen» da qardoshlik ruxini topishim mumkin va bunda yolg'izlikdek balodan xolos bo'laman. «Men» va «Sen» munosabatlarining chuqur mohiyati inson barcha hayotiy faoliyatini ota-onalarning bolalarga, ustozlarni shogirdlariga, e'tiqod qiluvchilarning xudoga muxabbatini boshqarishga yo'naltiradigan universal hodisa – muhabbat yordamida ochiladi. Mazkur muhabbat boshqalarga nisbatan g'amxo'rlik, hurmat, hamdardlik va h. z. larda namoyon bo'ladi.

«Men» va «Sen» munosabatlarining shaklida, «Sen» «Men» ning o'ziga xosligining xavf-xatari bo'lib e'tirof etiladi va bu holat intolerantlikni vujudga kelishining sababi bo'lishi mumkin. «Men» va «Sen» munosabatlaridagi o'xshashlik va yaqinliktolerantnlikning shakllanishi va vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Psixolog olimlar bag'rikenglikning qadriyatlarga asoslangan tabiatini ta'kidlab, uni inson axloqi rivoji bilan bog'laydilar. Shunday yondoshuvni S. M. Shalyutin asarlarida ko'rishimiz mumkin. U bag'rikenglikni asrdan-asrga o'tib kelayotgan umuminsoniy qadriyat sifatida tadqiq etadi. Bixiviorizmda bag'rikenglik avvalambor insonning alohida bir hulq-atvori sifatida ko'riladi. Shuningdek, kognitiv yondoshuvda bag'rikenglik asosini bilim va ratsional dalillar tashkil etadi. Ekzistensial-gumanitar nuqtai nazardan qaraganda to'laqonli va puxta bag'rikenglik bevosita anglangan, faxmlangan va ma'suliyatli ijtimoiy hodisadir. S. L. Bratchenko fikricha bunday bag'rikenglik avtomatizm va xarakatlarning oddiy qolip-andozlariga olib kelmaydi, bu – qadriyat va hayotiy pozitsiya bo'lib, ularni konkret vaziyatda amalga oshirish ma'lum bir ma'noga kasb etadi va bag'rikenglik sub'ektidan mazkur ma'noni va ma'suliyatli qarorni izlash talab qilinadi.

Shunday yondoshuv, A. G. Asmolov nuqtai nazaridan qaraganda bag'rikenglik mustahkam qoida yoki iste'mol uchun tayyor retsept sifatida, ayniqsa jazolash uchun majburiy talab emas, aksincha insonning ma'suliyatli tanlovi – hayotga qadriyatli bag'rikenglik asosidagi yogdoshuvi bo'lib xizmat qilishi lozim.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bag‘rikenglik (tolerantlik) muammosining metodologik, nazariy va texnologik ishlanmalari keltirilgan. Gumanistik pedagogika g‘oyalari Sh. A. Amonashvili, M. A. Danilova, M. Montesorri, V. A. Suxomlinskiy va boshqalar, hamkorlik pedagogikasi muammolari O. S. Gozman, P. Ya. Galperin, V. V. Davidov, I. P. Ivanov, S. T. Shaskiy, D. B. Elkonin va boshqalar ishlarida o‘rganilgan.

Adabiyotlar taxliliga ko‘ra, fanda «bag‘rikenglik (tolerantlik)» fenomenining shakllanishida asosiy ulushni faylasuflar qo‘shishgan bo‘lib, ushbu tushuncha ular qarashlarida (odatda sabr-toqatlilik tushunchasi sifatida qabul qilingan) qator boshqa fenomen va sinonim tushunchalar sifatida talqin etilgan. Jumladan, «qalb ombori» (Aristotel), ijtimoiy birdamlilik (Platon), hamjihatlilik darajasi (G. Leybnis), diniy erkinlikni e’tirof etish (Dj. Lokk), ezgulik (I. Kant), o‘zigi xoslik mustaqillik va barcha insonlarni birdek ko‘rish yoki anglash (rus faylasuflaridan – N. S. Trubetskoy, I. A. Ilin, N. A. Berdyaev, V. Solovev) va shu kabilar. Zamonaviy falsafa konsepsiyasida bag‘rikenglik (tolerantlik) liberalizm muammolari, milliy o‘xshashlik va ko‘pmadaniyatltlik hodisalari bilan bog‘liqlikda o‘rganilgan (M. Uolser, M. B. Xomyakov). Shuningdek falsafa konsepsiyalari doirasida kritik ratsionalizmga kirish asosini tashkil qilish uchun bag‘rikenglik (tolerantlik) chegaralari aniqlangan va bag‘rikenglik (tolerantlik) paradoksi shakllantirilgan (K. Popper).

Rus psixologlaridan B. G. Ananev o‘tgan asrning 60-yillarida bag‘rikenglik (tolerantlik) atamasidan birinchi bo‘lib foydalangan bo‘lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olima G. L. Bardier (2007) tadqiq etgan.

Psixologik adabiyotlarda tolerantlik ko‘pincha sotsial munosabatlar yoki sotsial ustanovkalar sifatida ko‘rib chiqilganligiga duch kelinadi. «Tolerantlik noxush yoki begona kishilarga hech qanday ortiqcha zulm ko‘rsatmasdan sabr qilish yoki ularga muruvvat ’ ko‘rsatish usuli deb qayd etiladi» (L. G. Pochebut).

«Tolerantlik o‘zida sub’ektni ob’ektning tashqi belgilari, xulq-atvor xususiyatlari va boshqa ifodalaridagi sotsial madaniy tafovutlarni qabul qilishga shayligini xarakterlovchi tolerantlik sub’ekti bilan ob’ekti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning ma’lum sifatlarini ifodalaydi» (M. S. Markovskiy). Tolerantlik sotsial ustanovka va uning xulqiy, emo- sional, kognitiv jabhalarini aks ettiruvchi tuzilmasi sifatida qaraladi» (N. V. Nedorezova). «Tolerantlik shaxslar, guruxlar va jamiyatlarning bir- biriga munosabatidagi muloyimlik yoki o‘zaro bir birini qabul qilishini xarakterlaydi » (O. Yu. Xarlamova).

A. V. Persev esa tolerantlikni kognitiv va konativ tomonlarini tadqiq etgan. Uning ta'rificha, tolerantlik nizo, zulm kilishdan o'zaro tushunish va ҳamkorlikka o'tish ҳolatidir.

G. U. Soldatova esa tolerantlikning psixologik barqarorlik, ijobiy ustanovkalar tizimi, individual si- fatlar to'plami, shaxslilik va guruҳiy qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo'luvchi to'rtta asosiy rakursini ajratib ko'rsatadi.

Tolerantlikning moҳiyatini yoritishga doir boshka bir izlanishda ''tolerantlik ongi" fenomen sifatida ko'rib chiqishga ҳarakat qilingan.

Shuningdek, tolerantlikni mustaqil yoritishga nisbatan urinishlar ҳam mavjud. Masalan, ingliz-rus tilidagi psixologik lug'atda tolerantlikning psixologik mazmuni quyidagicha ta'riflanadi: o'zlashtirilgan barkarorlik; noaniqlikka barqarorlik; etnik barkarorlik; insonning barqarorlik (chidamlilik) chegarasi; stressga barqarorlik, nizoga barqarorlik; xulqdagi og'ishlarga barqarorlik.

V. M. Zolotuxin o'zining «Tolerantlikning ikki konsepsiyasi» asarida «tolerantlik» tushunchasining moxiyatini taҳlil qila turib, ijtimoiy ҳayotning ko'po'l- chamliligi bilan ҳisoblashgan va uni tan olgan xolda, tolerantlikning falsafiy mazmunini aniqlaydi. Uning fikriga kura, tolerantlik bir tomondan inson faoliyatini boshqarib turadigan, dunyoqarashning aloҳida turini shakllantiradigan axloqiy prinsip bo'lsa, ikkinchi tomondan - ziddiyat va nizolarni samarali ҳal qilishga imkon beradigan amaliy instrumentdir.

Adabiyotlar sharhi. F. A. Brokgauz va I. A. Efronlarning 1909 yilda chop etilgan ensiklopedik lug'atida "tolerantlik", go'yoki o'zgacha diniy dunyoqarashga chidamlilik deganma'noni anglatadi. V. Dalning lug'atida «chidamlilik» xususiyat yoki sifat, nimagadir yoki kimgadir "faqat rahm-shafqat yoki ko'ngilchanlik tufayli chidashga qodirlik", deb talqin qilinadi. S. I. Ojegovning lug'atida esa, lug'atida insonning birovning fikriga, xarakteriga adovatsiz, sulhparvarlik munosabatida bo'la olish qobiliyatini ifodalovchichidamlilik so'zi tolerantlik so'zining analogi deb aytiladi. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki "tolerantlik" va "chidamlilik" so'zlari sinonimlardir.

Bu tushunchalar chegaralarini tahlil qilish ya'ni uning mazmuni hajmi, voqelikni aks ettirgan qismini aniqlash, tushunchani aniqlashning boshqa bir muammosidir. Tolerantlik chegaralari to'g'risidagi muammo uni tadqiq qilgan ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan. Masalan, Platon "chidamlilik paradoksi" ni ta'riflagan: chegaralanmagan chidamlilik chidamlilikning yo'qolishiga olib kelishi kerak. Agar

chidamsizlarga nisbatan cheksiz chidamli bo‘lib, chidamli jamoani chidamsizlardan himoyalashga tayyor bo‘linmasa, u holda chidamlilar harob bo‘ladilar. Bu muammo bo‘yicha K. Popper shunday degan edi: “chidamlilik yo‘lida chidamsizlarga nisbatan chidamli bo‘lmaslik xuquqini e’lon qilmoq lozim”. V. A. Tishkov ta’kidlashicha, tolerantlik – bu hamma narsaga ijozat berilishi va hamma gunohlarning kechirilishi emas, balki tolerantlik intolerantlikning keskin shakllariga nisbatan faol harakatni o‘ziga amrab oladi. Tadqiqotchilardan G. U. Soldatova tolerantlik chegaralari muammosini tolerantlik va beparvolik, konformizm, loqaydlik chegaralari muammosi bilan bog‘laydi. Chidamlilik va beparvolik – bu bir-birini inkor etuvchi tushunchalardir, ya’ni chidamlilik muholiflik qiluvchi boshqa pozitsiyani, boshqa nuqtai nazarni e’tirof etishni bildiradi. Bunda individ boshqa, ikkinchi fikr bilan hamjihat emas, lekin uning mavjudlik huquqini tan oladi. Tolerantlikniindeferentlik bilan tenglashtirish, boshqani xush ko‘rmaslik hissini yengib chiqish zarurligiga olib kelish mumkin, chunki bu holatlar muloqotning - ziyraklik va sherigiga e’tiborlilik, empatiyani namoyon etish, atrofdagilarga nisbatan hayrixoxlik kabi muhim tarkibiy qismlarini nazardan chetda qoldiradi. Tolerantlik passiv emas, u aktivdir.

Tolerantlikni pozitiv tushunishga uning qarama-qarshiligi – o‘zining qarashlar tizimi, turmush tarzi, o‘zi tegishli bo‘lgan guruhi boshqa hammadan yuqori turishiga qat’iy ishonishga asoslangan intolerantlik yoki chidamsizlikni aniqlash orqali erishiladi. Hozirgi zamonaviy psixologik-falsafiy adabiyotlarda chidamlilik chegaralari haqidagi savol quyidagi sabablarga ko‘ra, munozarali muammo bo‘lib kelmoqda:

1. Tolerantlik tushunchasi polimodal, hamma qabul qilgan ta’rif mavjud emas.

2. Etik kelib chiqishiga ko‘ra “tolerantlik” baholovchi kategoriyadir. Biz o‘zimizga, boshqa kishilarga, o‘zimizning va boshqalarning hatti-harakatlariga hamma tan olgan pozitsiyalarga mos ravishda baho beramiz. Masalan, muhabbat, rahm-shafqat, hamdard bo‘lish va boshqalar hamma tan olgan ijobiy qadriyatlardir. Xoinlik, nafrat, yovuzlik va shu kabilar noma’qul hatti-harakatlardir. Lekin bu qadriyatlar ham yetarlicha mavhumdir, shu tufayli ularga nisbatan chidamlilik chegarasini aniqlash qiyin.

3. Qadriyatlar hamma tomonidan tan olinmagan bo‘lsa, chidamlilik chegarasini aniqlash yanada qiyinroq bo‘ladi. Evtanaziya, najot uchun yolg‘on ishlatish, abort, qaytmas og‘ir patologiyali bemorlar hayotini saqlab qolish, jonivorlar ustida tajriba o‘tkazish kabi ijtimoiy hodisa va hatti-harakatlarni «yaxshi-yomon» nuqtai nazaridan baholash qiyin.

4. Shaxs uchun muhim bo‘lgan qadriyatlar muhokama qilinayotganda tolnrantlik chegaralarini aniqlashning aslida imkoni yo‘q.

Toleranlik muammosi murakkab, tolerantlik undan tashqarida o‘z ahamiyatini yo‘qotadigan va barcha hatti-harakatlar mumkin bo‘lgan chegarani uzil-kesil o‘rnatadigan yagona yechimga ega emas.

Bu tushunchaga hammasidan ko‘ra umumlashtirilgan nuqtai nazar falsafada taqdim etilgan. A. I. Ilin tolerantlikni o‘zgalar fikriga, xulq-atvoriga va e’tiqodiga chidam bilan munosabatda bo‘lish deb tushunib, rus pravoslav cherkovi an’analarida doimo boshqa diniy e’tiqoddagi kishilarga nisbatan yuqori toleranlik mavjud, deb hisoblaydi.

Yu. A. Ichenko chidamlilikni «muloqotning amaliy me’yori» deb qaraydi. U chidamlilikni shaxsning o‘z-o‘zini anglashi borasida ahamiyati orta boradigan, uning esa turmushning keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan vaqtda dolzarbligi ma’lum bo‘ladigan umuminsoniy qadriyat deb asoslaydi. V. O. Tishkov fikriga ko‘ra tolerantlik shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, uning faoliyat va muloqotda bir butunligi bilan bog‘liq. V. O. Tishkov o‘zining «Tolerantlik haqida» degan asarida tolerantlik sub’ektini aniqlashga urinib ko‘radi. Sub’ekt uchun tolerantlik «tug‘ma guruhga oid yoki individual xususiyat emas, balki konstruksiyalashga va ma’lum shaxsiy hamda umumiy qadriyatlar, axloq normalarini amalga oshirishga doimiy va yo‘naltirilgan zo‘r berib urinishdir».

Milliy chidamsizlik muammolarini hal qila turib, I. B. Gasanov tolerantlikni agressivlikning antipodi, deb ataydi, va neofreydizm vakillari: V. Rayx, K. Xorni, G. Markuze, A. Mitterlix, N. Braun, A. Ballok, E. Fromm asarlariga tayangan holda ushbu shaxsiy sifatlarning ijtimoiy bog‘liqligini asoslab beradi, hamda agressivlik - adovatning, tolerantlik esa – tinchliksevarlikning asosidir, deya xulosa qiladi.

Natijalar. Tolerantlik hissini rivojlantirish ta’lim sohasi uchun bosh maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. Aynan shuning uchun ham tolerantlik masalasi so‘nggi yillarda psixologiya va pedagogika fan doiralarida aktual muammoga aylanmoqda. Tolerantlik muammosiga bag‘ishlangan ishlar juda ko‘p, har bir ish o‘zining ahamiyatiga ega, biroq tolerantlik masalalariga oid barcha ilmiy ishlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin, bular, nazariy va amaliy ishlanmalar.

Nazariy ishlar orasida falsafiy, madaniy va ijtimoiy xarakterdagilari ustunlik qilsa, amaliy ishlanmalar ichida pedagogik texnika va metodikalar etakchilik qiladi. Bu tabiiy va xatto foydali holat hisoblanadi; biroq muammo nazariy va amaliy ishlanmalar orasida o‘ziga xos «jarlik» ning hosil bo‘lgani vao‘rta oraliqdagi ishlanmalarning yo‘qligida. Ayni shu

o‘rinda juda muhim bo‘g‘in – tolerantlikning psixologik tavsifi e’tiborsiz qolib ketmoqda.

E’tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg‘ulariga dahldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo‘yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubligidan qat’iy nazar qonun oldida tengligi tamoyili. Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e’tiqodidan qat’iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi tamoyili. Diniy qadriyatlar millat ma’naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g‘ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganligini alohida qayd etish lozim.

Bag‘rikenglik bo‘yichaxorijiy va mahalliy ishlar shundan dalolat beryaptiki, bag‘rikenglik tushunchasiga umum ma’noli ta’rif berish mushkul bo‘layapti.

Shuningdek, har bir kishining huquq va erkinliklarini tan olish, boshqalar bilan birga yashay olishlik, ular bilanzulm dan yirioq bo‘lgan o‘zarohamkorlikka kirishish, ya’ni dialogga kirishishga tayyor bo‘lish.

Xulosa. Dialog konsepsiyasida shaxslararo bag‘rikenglik shuningdek «shaxsning kommunikativ huquqi» konstrukti yordamida ochib berilishi va tadqiq etilishi mumkin. Uning yordamida muloqotning psixologik-huquqiy tizimi izohlanib, u suxbatdoshlar erkinliklari chegarasini shunday belgilab beradiki, bu hol ularning o‘zaro hamkorligini bir-birlarini e’tirof etishlari va zulm qilmasliklarini ta’minlaydi.

Tolerantlik insonlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar va turli diniy e’tiqodlardagi kishilarni bir-biri bilan bog‘lab, ular o‘rtasidagi munosabatlarda do‘stona muhitning yuzaga kelishini va mamlakatning barqarorrivojlanishini ta’minlaydi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. A. Rasulov, L. Tursunov Religious tolerance as a socio-psychological phenomenon. Tashkent Islamic University Research Center for Islamic Studiyes. 2015 y.

2. A. I Rasulov, B. N Valiyev Innovative methods of teaching the psychology of religion. "New Age Generation" 2013

3. Lebedova N. M. Teoretiko-metodologicheskiye osnovy izucheniya etnicheskoy identichnosti i tolerantnosti v polekulturnyx regionax Rossii i SNG // Tolerantnost i identichnost: SB. statey. M. : 2002. S. 26.

4. Shkuratova I. Cognitive complexity as the basis of tolerant thinking // Century of tolerance. 2003. №5. S. 44-51.

5. Shlyagina E. I. Ethnic tolerance lichnost: opyt empericheskogo issledovaniya // Vek tolerantnosti. 2001. № 3-4. S. 124-131.

6. Alexander Asmolov. Tolerance as a culture. XXI century. T . : Uzbekistan. 2000

7. Declaration "Principles of Tolerance". T. : 2002. - B. 9

ADABIY TA’LIMDA SCAFFOLDING METODI ORQALI YONDASHUV

o‘qituvchi Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’limning maktab bosqichida, mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy metodlar asosida o‘rganish haqida so‘z yuritiladi. Xususan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoninio‘rganishda “Scaffolding” metodi orqali yondashuvning afzalliklari, imkoniyatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar bildiriladi. O‘quvchilarning darajasi va ehtiyojlarini tushungan holda o‘quv-topshiriqlarishlab chiqish masalalari yoritiladi**.** Shoir ijodini o‘qitishda o‘quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlarini yanada rivojlantirishmaqsadida, bir qancha o‘qitish usullari tavsiya qilingan. Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodini o‘qitishda akademik yo‘nalish hamda shoir asarlaridagi g‘oyalarni hozirgi turmush tarziga bog‘lab, hayotiy misollar bilan asoslab tushuntirish juda muhim. Mutafakkir asarlarida umumbashariy dolzarb muammolarga to‘xtalgan. Oradan besh asr o‘tibdiki, uning olam va odam haqidagi qarashlari o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadal rivojlanayotgan dunyoda shoir asarlarini o‘qitish yangi usullarni talab qiladi. Shuning uchun noan’anaviy metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Hozirgi glaballashuv zamonida inson ma’naviy kamoloti masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni yechishda Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish dostonlar mavzusi vamohiyatini to‘g‘ri anglash zarur. “Xamsa”ni o‘rganish, o‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur olami, umuminsoniy sifatlari va ma’naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Kalit so‘zlar:metod, tahlil, ko‘nikma, iskala, topshiriq, mahorat, imkoniyat, multimedia, noan’anaviy, akademik, dolzarb, umumbashariy, “Farhod va Shirin”, mumtoz, meta-kognitiv, “Zinama-zina”, miniatura, konsepsiya.

SCAFFOLDING APPROACH TO LITERARY EDUCATION

teacher Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna

Annotation

This article is about studying classical literature samples at the school stage of education based on modern methods. In particular, in the study of Alisher Navoi's epic "Farhad and Shirin", opinions are expressed about the advantages and possibilities of the approach through the "Scaffolding" method. Understanding the level and needs of students, the issues of developing educational tasks will be covered. In order to further develop the possibilities and interests of students in teaching the poet's work, several teaching methods have been recommended. Today, it is very important to teach the works of Alisher Navoi in an academic direction and to explain the ideas of the poet's works by connecting them to the current lifestyle and justifying them with real life examples. In the works of the thinker, he touched on the current problems of the whole world. Five centuries have passed, and his views on the world and man have not lost their relevance. In the rapidly developing world, teaching the poet's works requires new methods. Therefore, we think that it is appropriate to use non-traditional methods and multimedia tools. In the current era of globalization, the issue of human spiritual maturity is of great importance. In order to solve this problem, it is necessary to correctly understand the essence of the theme and idea of promoting the universal ideals of Navoi's "Khamsa" epics. There is no doubt that learning "Khamsa" serves to form the student's outlook, world of imagination, universal human qualities and spiritual maturity.

Keywords: method, analysis, skill, scaffolding, task, skill, opportunity, multimedia, non-traditional, academic, current, universal, "Farhod and Shirin", classic, meta-cognitive, "Zinama-zina" , miniature, concept.

Kirish. Shoir ijodi bugungi kungacha keng qamrovda o‘rganilgan. Adabiyot darslarida “Xamsa” asarini o‘rganish jarayonida shunchaki syujetni so‘zlash yoki ijodkorning hayoti va ijodi bilan bog‘liq raqamlargagina to‘xtalish, asar qahramonlari(Farhod) ijobiy (Xusrav, Sheruya) salbiyga ajratish bilanNavoiy ijodini o‘rganib bo‘lmaydi.

Birinchidan, Navoiy so‘z san’ati tasvir vositalariga xos xususiyat shoir ijodida badiiy san’atlarningqo‘llanilish sfetsifikasig‘azallaridagi bir so‘zningbir qancha ma’nolarda aks etganligi: ikkinchidan, Navoiy lirikasi aruz bilan bilan bog‘langanligi, aruz nazariyasidan faqat tor doiradagi mutaxassislargina yetarli bilimga ega bo‘lib, maktab o‘quvchilarida bu masala qator qiyinchiliklarni tug‘dirayotganligi: uchinchidan Navoiy yashagan davrda eski o‘zbek adabiy tilida ko‘plab forsiy va arabiy so‘zlarning mavjudligi va bu adib asrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunilishida ko‘plab qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi bilan izohlanadi. (Til va adabiyot jurnali. 2020:4)Aslida esa belgilangan soatda mavzuni o‘rganish uchun adabiyot o‘qituvchisi, shoirning ichki olami, hayotda qanday shaxs bo‘lganligi, olam va odam munosabatlarini talqin etishi, nega aynan uning ijodi zamon va makon tanlamasligi, voqealarni bayon etish san’ati, so‘z qo‘llash mahorati, asarlari o‘quvchini ezgulikka yetaklashi kabilarni san’at darajasida o‘quvchiga yetkazishni maqsad qilsa, ko‘zlagan natijaga erishishi va o‘quv rejada ajratilgan soatni qamrab olishi mumkin. Metod eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli ma’lum tarzdatartibga solingan faoliyat. (N. Sayfullayeva, T. 2019)

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiasosiy bo‘g‘inni tashkil etadi. O‘quvchining qobiliyatlarini, qiziqishlarini ro‘yobga chiqarish, mumtoz adabiyot borasidagi bilim va ko‘nikmalarni egallash, hayoti davomida maqsadli foydalanish ustuvor vazifa. Bugungi kunda sir emaski, o‘quchilar adabiyotdan bir qadar uzoqlashishgan. Mumtoz asarlar tugul, zamonaviy asarlarni ham o ‘qishga u qadar qiziqishmaydi. O‘qituvchi imkon qadar o‘quvchilarnifanga qiziqtirishga urinadi. Lekin, internet asrida ulg‘ayayotgan bolani oddiy shunchaki asarni o‘qitishyoki og‘zaki tahlil, savol-javob usullari zeriktiradi.

Metodologiya. Adabiyot orqali o‘quvchigaiqtisod, siyosat, tarix, falsafa, aniq fanlarni ham o‘rgatish mumkin. Jamiyatda sodir bo‘layorgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o‘z munosabatini to‘la-to‘kis bildira oladigan avlodni tarbiyalash muhim. M. A. Rubnikovaning yozishicha, metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi. Biz zamonaviy metodlardan foydalanib adabiyot darslarini tashkillashtirsak, o‘z maqsadimiz sari tezroq odimlashimiz mumkin. L. V. Shcherbanning fikriga ko‘ra, har qanday fanni o‘qitish metodikasi fan bo‘lishiga qaramasdan nazariy fan bo‘lmasligi kerak. Mumtoz adabiyotni maktabda o‘qitishdaasosan darsda o‘qituvchi hukmron bo‘ladi. Bugungi kun ta’lim talabi dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchininghamkorligini taqozo etmoqda. Lekin mumtoz matnlardagi so‘zlarning ma’nosi va talaffuzi o‘quvchiga noqulaylik keltirib chiqaradi. Shu kabi muammolar natijasi o‘laroq aksariyat hollarda o‘qituvchining o‘zi matnnio‘qiydi va tahlil qiladi. Darslar ma’ruza kabi

taassurot qoldiradi. O‘quvchining diqqati 15 daqiqani tashkil qiladi. Undan keyingijarayon o‘quvchining xotirasida saqlanmaydi. Tabiiyki, 15 daqiqa misralarni ma’ruza shaklidatahlil qilishga yetmaydi. Shuning uchun mumtoz matnlarni tahlil qilishda o‘quvchining o‘zi amaliy faoliyatga kirishgani afzal o‘qituvchi yordam beradi va yo‘l –yo‘riq ko‘rsatadi. Biz ushbu maqolada mumtoz matnlarni o‘quvchilarga o‘qitishda “Scaffolding” metodi orqali yondashishning ba’zi masalalarini ko‘rib chiqamiz.

Scaffolding nazariyasi birinchi marta1950-yillarning oxirida kognitiv-psixolog Jerom Brunu tomonidan kiritilgan. “Scaffolding “ so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, qurilishlarda devor yoniga yog‘och yoki metalldan qavat-qavat qilib ishlangan, “narvon”, “iskala” degan ma’noni bildiradi. Gibbonisning (2002) ta’kidlashicha “iskala”- binoni qurish yoki, ta’mirlash vaqtida o‘rnatiladigan vaqtinchalik inshootdir. (P. Gibbons, 2015) Ushbu atama birinchi marta Lev Vegotskiy tomonidan o‘qitish strategiyasi sifatida ishlab chiqilgan. (K. Diniyati) “Scaffolding” o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ishlashga qaratilgan metod. Ushbu metod uchta asosiy funksiyaga ega.

1. O‘quvchiga kerakli bilim va ko ‘nikmalarni berish.

2. O‘quvchilarni bilimini o‘zlashtirish jarayonida vaqtinchalik yordam berish.

3. Ularning makro va mikro ko‘nikmalarini aniqlash.

O‘qishdan oldingi topshiriqlar o‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlash. Asarda tasvirlangan voqealar, muhit haqida tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Amerikalik psixolog va kognitivist olimlar Devid Rumelhart va Donald Norman ilgari surgan sxemalar nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi yangi ma’lumotlarni qabul qilayotganda ularni o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan solishtiradi.

Modellashtirish. O‘qituvchi o‘quvchilarga nima qilish kerakligini va berilgan topshiriqlarni qanday bajarish kerakligini bilish va tushunish imkoniyatini beradi. O‘qituvchi batafsil tushuntirish berish yoki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undash uchun bir qancha savol va topshiriqlar berishi mumkin. Biz “Farhod va Shirin” dostonini , maktabda “Scaffolding” metodini qo‘llab qanday o‘zlashtirish mumkinligi haqida fikr-mulohazalarimizni o‘rtoqlashamiz. Meta-kognitiv qarashlar o‘qish va o‘qilgan matnni tushunishninginteraktivligi tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchi (uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, bilimlari, o‘qiyotgan paytdagi imotsional holati, kontekst, vaziyat) va matn(tovushlar ohangi, alohidaolingan so‘zlar ma’nosi, matnning

sintaktik va semantik qurilishi) mutolaa jarayonida bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladi va o‘quvchi matn ustida ishlash jarayonidama’noni o‘zi yaratadi. (Fisher D. & Frey, N. 2008.)

Tengdoshlarning muvaffaqiyati eng yuqori baholanadi. O‘smirlarning harakatlarini baholash kattalarga qaraganda ko‘proq maksimal va hissiydir, chunki sharaf kodeksiga oid o‘z tushunchalariga ega. O‘smirlar tengdoshlari orasida o‘zini namoyon qilishga qaratilgan barcha yo‘nalishlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Guruh o‘smirni qo‘llab-quvvatlovchi va uning ichki pozitsiyasini mustahkamlaydigan “Biz” tuyg‘usini yaratadi. O‟z muhitida, bir-biri bilan muloqotda bo‘lgan o‘smirlar o‘zlari va tengdoshlari haqida fikr yuritishni o‘rganishlari juda muhimdir. O‘smirning qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlariga bo‘lgan qiziqishi boshqasining tajribasi va harakatlarini ajratib ko‘rsatish va baholash qobiliyatining oshishiga, shuningdek, aks ettirish va aniqlash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Bu o‘smirlik davriga xosdir. Bu yerda rivojlanishning yangi ijtimoiy holati shakllanmoqda. Maktabda o‘smir uchun asosiy narsa nima bo‘ladi? Bolalar muloqot qilishadi, ularning munosabatlari ishonch va mutlaq tushunish istagi bilan to‘la hamkorlik kodeksiga asoslanadi. Bu davrda o‘smir uchun ta’lim faoliyati orqada qoladi. Hayotning markazi ta’lim faoliyatidan, garchi u ustun bo‘lib qolsa ham, muloqot faoliyatiga o‘tkaziladi.

Asosiy narsa tanaffus paytida sodir bo‘ladi. U erda barcha eng samimiy va shoshilinch narsalar ta’kidlangan. O‘qituvchi bilan munosabatlar tizimi qiziqarli tarzda rivojlanmoqda, bolaning jamoada egallagan o‘rni o‘qituvchining bahosidan ham muhimroq bo‘ladi. Muloqotda shaxsga munosabat aynan shaxsga bo‘lganidek amalga oshiriladi. Aynan shu erda axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish sodir bo‘ladi, axloqiy qadriyatlar tizimi o‘zlashtiriladi. Bu erda kelajakdagi hayotning barcha eng qiyin tomonlarini tasavvur qiladi. Bu birgalikda - ishlash, intilishlaringizni, quvonchlaringizni ro‘yobga chiqarish uchun ichki hayotni rivojlantirish uchun muhimdir. Agar inson yolg‘izlik uni hushyorlikka chaqirayotganiga ishonch hosil qilmasa, u holda yolg‘izlikka qarshi faol kurashishi, uni bartaraf etish uchun kuch sarf qilishi zarurligini anglab yetadi. Vaqti-vaqti bilan uni salbiy hissiy holatlar – zerikish, afsuslanish, o‘zining jozibador emasligini his qilish, ojizlik, vahimali qo‘rquv, umidsizlik, o‘ziga achinish, qo‘zg‘aluvchanlik, tashlab qo‘yilganlik hissi kabi kechinmalar qamrab oladi. Yolg‘iz kishilar muloqotchan va baxtli insonlarni unchalik xushlamaydilar. Bu ularning o‘ziga xos himoya reaksiyasi bo‘lib, boshqalar bilan samimiy munosabat o‘rnatishga halaqit beradi. Yolg‘izlik ba’zan spirtli ichimlik va giyohvand moddalar qabul qilishga ham undashi mumkin.

Bunday kishilar butun e'tiborini o'zlarining muammo va kechinmalariga qaratadilar. E'tiborli jihati shundaki, bu qiyinchilik va kechinmalardan chiqish uchun hech qanday asosli harakat qilmaydi. Yolg'izlar boshqalar bilan muloqot jarayonida ko'proq o'zlarining muammolari haqida gapiradilar, suhbat mavzusini tez-tez o'zgartirib turadilar. Muloqotdagi suhbatdoshning fikriga unchalik e'tibor qilishmaydi, o'ta tajovuzkor, asossiz ravishda tanqid qiladigan bo'lib qolishadi, boshqalarga psixologik bosim o'tkazishadi. Boshqalarga unchalik ishonmaydi, ulardan o'z fikrlarini yashiradi, o'z xulq-atvorlarini boshqarishga qiynaladi.

Yolg'iz kishilar turli davralarda quvnab o'tira olmaydilar, kim bilandir telefonda nimanidir kelishishga, zarur shaxsiy va ish yuzasidan muammolarni hal qilishga qiynaladilar. Bunday kishilar shaxslararo nizolarni bartaraf etishda o'ta ta'sirchan va qaysar bo'lib qoladilar. Ularni shaxsiy muloqotchanlik va boshqalar bilan tanishish muammosi ko'proq tashvishlantiradi, o'zlarini ko'plab sohalarga yaroqsiz kishi deb hisoblaydilar. Shaxslararo munosabatlar o'rnatishdagi muammolarni o'zlarining uquvsizliklari bilan bog'liq ekanligini to'g'ri baholay oladilar. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yolg'izlik muammosi doimo mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Psixologiya fani rivojlanib borar ekan, yolg'izlikning turlicha talqinini kuzatish mumkin bo'ladi. Masalan, qadimda yolg'izlik uch holat natijasida kelib chiqqan: turli tadbir va marosimlarda ishtirok etishni cheklash; yolg'izlikda jazolash – quvg'in qilish. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shaxsni ijtimoiy chegaralash eng og'ir jazo hisoblangan; ko'ngilli yolg'izlik – tarki dunyo qilish. O'z mayl, istaklaridan voz kechib, Alloh yo'lida tarki dunyo qilish. Turli diniy oqimlarda yolg'izlik muammosiga o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Yolg'izlik nasroniylik dinida xudoga murojaat qilishning shakli sifatida tavsiflanadi. Kishilik jamiyatida, odamlar orasida halovat topmagan, tarki dunyo qilgan kishilar ko'pincha diniy aqidalarga amal qilib, toatibodatni ixtiyor qiladilar. O'rta asrlarda yolg'izlik ruhiy poklanish, ozodlik, quvonchu-shodlik sifatida talqin etilgan. O'z davrida bu g'oyaning rivojlanishiga romantiklar katta hissa qo'shdilar. Shu sababdan ham yolg'izlikka ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida qarash tushunchasi paydo bo'ldi. XVIII asrda yashab o'tgan romantiklar yolg'izlikni o'zlarining shiori sifatida qabul qildilar. Ular kishilik olamidagi vahshiyliklar, hayot qiyinchiliklaridan qochib, yolg'izlikda umr kechirishni afzal bilganlar. Bevosita ijodiy faoliyat bilan shug'ullangan ijodkorlar uchun yolg'izlikda ijod qilish, bu jarayonda o'z individual-psixologik xususiyatlarini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Shunday qilib, insonni jismoniy cheklash yolg'izlikning birgina sharti emasligi ayon bo'ldi. Yolg'izlik muammosini ilmiy jihatdan chuqur anglash, asoslash XIX

asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Yolg‘izlik – shaxsning hissiy holatiga ta’sir ko‘rsatadigan, odamlardan alohida, o‘zgargan sharoitlarda yuzaga keluvchi psixogen omildir.

Yolg‘izlik holatiga tushib qolgan odamlar darhol atrofdagilar bilan munosabatlarni to‘xtatishga harakat qiladilar, muloqotga kirishmaydilar. Bu holat o‘tkir hissiy reaksiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, yolg‘iz qolgan odamda xavotirlanish, depressiya holati kuchayadi. Inson yolg‘izlikda qanchalik ko‘p qolsa, o‘zgalar bilan bo‘ladigan muloqotga ehtiyoji shunchalik ortib boraveradi.

B. Miyuskovich o‘zining «Yolg‘izlik» nomli maqolasida bu muammoni har taraflama ochib berishga, ilmiy tahlil qilishga intiladi va bunda Z. Freyd nazariyasiga tayanadi. B. Miyuskovich: «Bolalar qorong‘ulikdan qo‘rqadilar, chunki bu yolg‘izlik timsolidir. Bolalar uxlab qolib qayta uyg‘onmaslikdan emas, balki uyquda yolg‘iz qolishdan qo‘rqadilar», deb yozadi. Inson o‘z ongida, xayolida yolg‘izlik hissini tuyadi, tanho qolishdan qo‘rqadi. B. Miyuskovichning fikricha, yolg‘izlik kasallik emas, tibbiy, ijtimoiy jihatdan ham yolg‘izlik insonning ichki dunyosi, holatida mavjud. Yolg‘izlik fenomenini chuqur tahlil qilgan olim Odi Dj. Relf o‘zining «Odam – yolg‘iz mavjudot, yolg‘izlikning biologik ildizlari» asarida o‘z qarashlarini bayon qiladi.

Odamning shunchaki yolg‘iz qolishi bilan uzoq davom etadigan tanholikni farqlash zarur. Ba’zan yolg‘iz qolishning zarari yo‘q, lekin bu holat surunkali davom etsa, bu holat psixologik patologiyaga olib keladi. Odi Dj. Relfning fikricha, vaqti-vaqti bilan yolg‘iz qolish normal holat, lekin bunday holat tez-tez takrorlanib, uzoq davom etsa, bu xavfli hisoblanadi. Inson ba’zan o‘z xohishi bilan yolg‘iz qolishni istab qoladi. Ayrim odamlar yolg‘iz bo‘lmasalarda, xayol surib ketadilar. Yolg‘iz inson vaqti vaqti bilan insonlar bilan muloqotga kirishib turishi zarur. Ko‘pincha tanho qolgan odamlarga o‘z yaqinlarining mehr-muhabbati yetishmaydi va aksincha o‘zi yoqtirmagan odamlar bilan yaqin muloqotda bo‘lish yolg‘izlik holatini chuqurlashtirib yuborishi mumkin. «Psixologik yolg‘izlik o‘z istagiga binoan muloqotga kirishmaslik, o‘z shaxsiga bo‘lgan ichki bir achinish, insoniy munosabatlardan qochish ko‘rinishida bo‘ladi. Bunday holatga tushgan odamlarda faollik susayadi, holsizlik, depressiya holati kuzatiladi».

Yuqorida fikrlari, qarashlari keltirilgan olimlar o‘z ilmiy asarlarida yolg‘izlik fenomenini inson hayotidagi salbiy hodisa deb baholaydilar. Mazkur olimlar yolg‘izlikni iqtisodiy munosabat sharoitida hissiy, ijtimoiy cheklanganlik holati bilan bog‘liq holda tahlil qiladilar. K. Mustaskas o‘zining «Yolg‘izlik» kitobida «Inson olg‘a borar ekan, o‘z qobiliyatlarini

namoyon etishga, ko‘kka intilishga harakat qiladi. Inson yolg‘izlikda qolar ekan, o‘z ichki dunyosi bilan yashaydi», deb aytadi. Mustaskas yolg‘izlik inson uchun salbiy holat, ayni damda ijod qilish uchun sharoit yaratadi, deb ta’kidlaydi.

XX asrda yolg‘izlik muammosiga falsafiy yondashuvlar ijtimoiy, psixologik xarakter kasb etdi. XX asrda, xususan xorijiy davlatlarda insoniy munosabatlar shaxsning individualligi ta’siri ostida taraqqiy etadi, degan umumiy fikr paydo bo‘ldi. Shunday bo‘lsada, yolg‘izlik tushunchasi doimiy ravishda rivojlanib bordi. Individning muloqotga kirisha olmasligi ko‘pincha ijtimoiy munosabatlarga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Doimiy ravishda yolg‘iz qolish insonning turmush tarzi, hayotidagi salbiy vaziyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Amerikalik psixolog Margaret Mid yolg‘izlik muammosiga muhim xarakter xususiyati sifatida qaraydi. Amerika oilasida bolalar juda erta mustaqillikka o‘rgatiladi. O‘zi mustaqil ravishda uyquga yotish bu yo‘lda qo‘yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Amerikalik bolalar yolg‘izlikni mustaqil ravishda boshdan kechirishga odatlantirib boriladi. «Bolalar ulg‘ayib borar ekan ijtimoiy jihatdan faollasha boradi. Yolg‘iz holda vaqt o‘tkazishga ishonchsizlik bilan munosabatda bo‘ladi, bu samarali va bekorchi vaqt o‘tkazish hisoblanadi.

Bola ulg‘ayib, kasbiy mahorati ortib borgan sari muayyan ijtimoiy guruhga qo‘shiladi. O‘z shaxsiy, kasbiy malakasi, qiziqishlarini amalga oshirishda bevosita muloqotga kirishish yuzaga keladi. Agar shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmasa, yaqinlari hamdardligini his etmasa, bu og‘ir psixologik muammoga sabab bo‘ladi.

Natijada insonda o‘zini yolg‘iz sezish hissi yuzaga keladi. Yolgizlikka qarshi bo‘lgan g‘oyalar tashviqotchilarning vakillaridan biri faylasuf va psixolog Erix Frommdir. Olim insonning yolg‘iz qolish oldidagi qo‘rquvi inson psixikasining xususiyati, deb ta’rif beradi. Erix Fromm o‘zining «Yolg‘izlik» nomli kitobida shunday yozadi: «Yolg‘izlikni his qilgan odam qiyin ahvolga tushib qoladi.

Ijtimoiy aloqalardan oladigan hissiy qoniqishni olish imkoniyati cheklanadi va inson yakkalanib qoladi. Insonda yolg‘izlik oldida qo‘rquv paydo bo‘ladi, o‘zini haddan ziyod yolg‘iz his etgan kishilarda psixik buzilishlar yuzaga keladi».

Bundan tashqari, shaxsning yolg‘izlikka bo‘lgan salbiy munosabatlarini shakllantiruvchi ijtimoiy ehtiyojlarni ko‘rsatib o‘tadi. Shunday qilib, shaxsning odamlar jamoasidan cheklanganligi, yolg‘izlikni boshdan kechirish holati, xudo bilan muloqot yoki ma’naviy jihatdan takomillashuv imkoniyatining paydo bo‘lishi muammosi o‘tmishda ham

dolzarb muammolardan hisoblangan. Ijtimoiy munosabatlar tizimida muloqotga kirishuvchanlik, oila, ta'lim muassasalari ijtimoiy institutlar faoliyatida ishtirok etish yolg'izlik muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib biron bir jamiyat qotillik va buzg'unchilik kabi illatlardan xoli emas. Yon-atrofimiz serma'no saxnalarga to'la: kochada jirkanch mast mushtlashuv, rashkka asoslangan qotillik, o'g'irlik, zo'ravonlik qo'rquvga soladi, xayron qoldiradi va g'azablantiradi.

Tajovuzkorlik, zo'ravonlik raqibni yengish vositasidir. Lekin nima sabadan kuch ishlatuvchi o'z raqibini u mutlaq yengilgandan so'ng xam tinch qo'ymaydi?

Ushbu toifadagi o'smirlarni tengdoshlari, kattalar yoqtirmaydilar.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, har bir ta'lim fidoyisi bo'lgan pedagog har qachongidanda psixologik bilimlarni ko'proq o'zlashtirishi, shaxsning individualligi haqidagi bilimlarni chuqurroq egallashi va amaliyotga tadbiq etishi lozim bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

енисова Т. Ю. Одиночество как экзистентсиально-социальный ф

лдашева М. Б. , Эргашова З. Экспериментальное изучение чувства одиночество // Universum: психология и образование : электрон. научн. журн. 2021. 5(83). URL: https://7universum.

3. В

4. Bityanova M. R. , Adaskina A. N. , Druzhinin V. N. , Popova L. V. , Ushakov D. V. , Churbanova S. M. Psikhologiya odarennosti. Ot teorii k praktike. 1999: 128. https://www. researchgate. net/publication/327283470_Toward_the_Study_of_Loneliness_as_a_Psychological_Phenomenon

5. Personality and Psychology of Human Existence]. Moscow, Institut psikhologii RAN Publ. , 2005:384. https://dspace. susu.

ru/xmlui/bitstream/handle/0001. 74/33958/37_44. pdf?sequence=1&isAllowed=y

6. Nikolaeva N. A. Izolirovannost’ i odinochestvo v yunosheskom vozraste. 2005: 139 p. https://search. rsl. ru/ru/record/01002712144

7. Baumeister R. F. , Leary M. R. The need to belong: Desire for interpersonal attachments as a fundamental human motivation. P

s

y

c

h

o

l

o

g

i

c

a

l

B

u

l

l

e

t

i

n

,

1

9

9

5

,

n

o

.

3

,

p

8. Burgess K. B. , Ladd G. W. , Kochenderfer B. J. , Lambert S. F. , Birch S. H. Loneliness during early childhood: the role of interpersonal behaviors and relationships. Loneliness in Childhood and Adolescence. Cambridge, 1999, pp. 109–134. DOI: https://doi. org/10. 1017/CBO9780511551888. 006.

9. Cassidy J. , Asher S. R. Loneliness and peer relations in young children. Child development, 1992, vol. 63, pp. 350–365. DOI: https://doi. org/10. 2307/1131484.

ихайлова, Н. В. К исследованию природы одиночества как психологического феномена. Вестник ЮУрГУ. 2018: 37–44. DOI: 10.

ODAM SAVDOSIGA IXTISOSLASHGAN UYUSHGAN JINOIY FAOLIYAT MEXANIZMI VA TAKTIKASIDA PSIXOLOGIK OMILLAR

Dotsent Yuldashev Sanjar Ro‘zimurodovich

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda global xavfsizlik uchun tahdid solayotgan odam savdosi jinoyatiga bag‘ishlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yondashuviga ko‘ra, odam savdosi transmilliy jinoyatlar ro‘yhatiga kiradi. Odam savdosi jinoyati, o‘z psixologik tabiatiga ko‘ra, zo‘ravonlik jinoyatlar toifasiga kiradi, hamda u bevosita insonlarga zo‘ravonlik ko‘rsatish va shu orqali jinoiy daromad orttirishga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada aynan ushbu jinoyatni sodir etish bosqichlari, har bir bosqichda qo‘llaniluvchi usullar, jabrdiydalarni nazorat qilish va ularni majburiy ushlab turishda qo‘llaniladigan vositalar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Mazkur material, jinoyatchilikning bir ko‘rinishiga bag‘ishlanganligi sababli, odam savdosi hodisasi psixologiya va yurisprudensiya kesimida ko‘rib chiqiladi.

Ekspluatatsiya bosqichida jabrlanuvchi shaxs ustidan noqonuniy nazorat o‘rnatiladi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, odam savdosi jabrlanuvchilari ustidan olib boriladigan noqonuniy nazorat turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: shaxsiy hujjatlarini olib qo‘yish va ushlab turish; to‘liq izolyatsiya, erkin xarakat qilish va yaqin kishilari bilan muloqot qilishini cheklab qo‘yish; uzoq muddatli tobe’lik va tutqinlik;jismoniy kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish;psixologik zo‘rlash, shantaj, tahdid (deportatsiya qilish bilan tahdid qilish, yaqin qarindoshiga tahdid qilish yoki foxishaligini oshkora qilish bilan tahdid qilish); aldov va boshqalarko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: Odam savdosi, uyushgan jinoyatchilik, ekspluatatsiya, yollash, olib o‘tish, transportirovka, donor mamlakati, iste’mol mamlakati, odam savdosi marshruti, shahvoniy turizm.

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE MECHANISM AND TACTICS OF ORGANIZED CRIMINAL ACTIVITY SPECIALIZING IN TRAFFICKING

Annotation

This article is devoted to the crime of human trafficking, which is a threat to global security today. According to the approach of the United Nations, human trafficking is included in the list of transnational crimes. The crime of human trafficking, by its psychological nature, belongs to the category of violent crimes, and it is directly aimed at inflicting violence on people and thereby obtaining criminal income. In this article, the stages of committing this crime, the methods used at each stage, and the tools used to control and detain the victims have been carefully considered. Since this material is devoted to a form of crime, the phenomenon of human trafficking is considered in terms of psychology and jurisprudence.

At the stage of exploitation, illegal control over the victim is established. From international practice, the types of illegal control over victims of human trafficking can include: seizure and detention of personal documents; complete isolation, free disposition and restriction of communication with loved ones; long-term subordination and incontinence; use of physical force or threat of force;psychological rape, blackmail, threat (threat of deportation, threat of a close relative or threat of disclosure of foxishality); deception, etc. are considered.

H

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan paytdan boshlab kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan bozor iqtisodiyotini tashkil etish hamda demokratik davlatni barpo etish hamda o‘zbek xalqining milliy va ma’naviy qadriyatlariga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan bosqichma-bosqich bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz dunyoning barcha mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan konstruktiv hamkorlik olib borishdan manfaatdordir. O‘zbekiston Respublikasida ohirgi yigirma yillikda transmilliy jinoyatlar sodir etilishining o‘sib borayotganligi esa mamlakatda olib borilayotgan ijtimoy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa islohotlar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ana shunday jinoyatlar sirasiga odam savdosi ham kiradi.

Odam savdosining kun sayin rivojlanib borayotganligi va unga qarshi kurash olib borishning yagona strategiyasini barpo etishning

murakkabligi shundan iborat-ki, ushbu fenomenning ko‘p qirraligi, asosan tabiatan latent xususiyatiga ega ekanligi, iqtisodiy globallashuv va mehnat safarbarligi, texnologik taraqqiyot, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarga qarab moslashib borayotganligidadir. Agar boshqa bir transchegaraviy tahdidlarda insonlarning mehnati evaziga yaratiladigan hosila predmetlar (masalan: giyohvandlik vositalari, qurol-yarog‘ va h. k.) jinoiy daromad manbai bo‘lib hisoblansa, odam savdosida esa insonning o‘zi, qolaversa uning tana a’zolari va to‘qimalari daromad manbaiga aylanadi.

Odam savdosi jinoyati aksariyat hollarda uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan mukammal jinoiy rejalar asosida sodir etiladi. Ushbu jinoiy guruh a’zolari o‘rtasida ularning imkoniyatlari, qobiliyatlari va boshqa shart-sharoitlarga tayangan holda vazifalar maqsadli taqsimlab olinadi. Bundan tashqari, mazkur jinoyatning ikki yoki undan ortiq davlatning hududida sodir etilishi sababli deyarli uni nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligidan dalolat beradi. Shu sababli, odam savdosi jinoyatining yuzaga kelish shart-sharoitlarini aniqlash va unga qarshi keskin siyosiy-huquqiy choralar qabul qilish uchun, eng avvvalo uyushgan jinoiy guruhlar taktikasini o‘rganib chiqish orqali unga qarshi kurash taktikasini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq sanaladi.

Rossiyalik mutaxassis Y. M. Buryakning fikricha, ushbu jinoyatni sodir etish uchun jinoyatchilar quyidagi mexanizm asosida harakat qiladi: 1) jinoyat qurbonlarini yollash; 2) davlat hududidan olib chiqish uchun kerakli xujjatlarni rasmiylashtirish; 3) davlat ichida yoki chetga chiqarish uchun ko‘chirish; 4) yollanuvchilarga ekspluatatsiya qilish usullarini qo‘llash. O‘z o‘rnida, mazkur usullarga iqtisodiy qaram ahvolga solib qo‘yish, fuqarolik pasporti yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarini olib qo‘yish, shaxsiy huquqlarini ta’qiqlab qo‘yish, tibbiy ko‘rikdan o‘tishni ta’qiqlab qo‘yish, oila a’zolarini qo‘rqitish yoki turli tazyiqlar o‘tkazish, jismoniy va ruhiy tazyiq o‘tkazish, ichkilikka va giyoxvandlikka jalb qilish, o‘z davlatiga qaytirish yoki boshqa yollovchiga sotib yuborish kiradi.

Amerikalik tadqiqotchi Donna Xyuz ham ayollarni shahvoniy ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq odam savdosini sodir etishda, transmilliy jinoiy guruhlar tomonidan aynan ta’kidlab o‘tilgan usullar qo‘llanilishini ma’lum qilgan. Odam savdosi bilan bog‘liq hodisalarda ko‘p o‘xshash tomonlar mavjud. Bunda jabrlanuvchining qayerdan ekanligining unchalik ahamiyati yo‘q. Chunki, nafaqat muayyan bir davlatda, balki butun dunyoda odamlar bir-biriga o‘xshash ssenariy bo‘yicha odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi jinoiy uyushma va uyushgan jinoiy guruhlarning o‘ljasiga aylanadi.

Odam savdosiga qarshi kurash yo‘nalishida huquq tartibot idoralari faoliyatida ham shunga o‘xshash amaliyot shakllangan va ana shu tajribadan kelib chiqqan xolda, jinoiy uyushma va uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan odam savdosi jinoyatini sodir etilishini uch ketma-ket bosqichda ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqich - ***“yollash”*** O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida odam savdosi jinoyatining yangi kiritilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Oliy Sudi yollashni quyidagicha sharhlaydi: *yollash deganda, ekspluatatsiya qilish maqsadida odamni biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etishga qaratilgan faoliyat (ekspluatatsiya obyektini qidirish, to‘plash, u bilan muzokara yuritish va h. k.) tushuniladi.* Huquqshunos-olim Rustamboyev M. X. ning ta’kidlashicha esa, yollash odam savdosining bir ko‘rinishi bo‘lib, odamlarni biror faoliyatga, ushbu xolda ekspluatatsiyaga jalb qilishdan iboratdir. Shaxsni olish-sotishdan avval doimo u yollanadi va odatda, yollash aldov yo‘li bilan amalga oshiriladi.

To‘g‘ri, huquqiy nuqtai nazardan agar jinoyatchi odam savdosi jinoyati mexanizmi doirasida odamlarni yollagan bo‘lsa va uning jinoiy faoliyati faqat shu ish bilan cheklangan bo‘lsa xam, formal ravishda uning jinoyati tamomlangan hisoblanishi va umumiylik asosida odam savdosi jinoyatini sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Lekin keng ma’noda ushbu jinoyatni sodir etishga mo‘ljallangan uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, yollash mazkur transmilliy jinoyatning dastlabki bosqichidir.

Bizning fikrimizcha, **yollash** *(keng ma’noda)* – odam savdosi jinoyatining boshlang‘ich bosqichi bo‘lib, u uyushgan jinoiy guruhlarning maxsus a’zolari tomonidan ma’lum bir odamlar muhitidan moddiy, psixologik va boshqa usullardan foydalangan holda ekspluatatsiya qilish uchun taxmin qilinayotgan “qurbonlarni” tanlab olish hamda aldov, firibgarlik yo‘llari bilan ularni belgilangan davlatga olib o‘tishga roziligini olish bilan bog‘liq bo‘lgan hatti-xarakatlarnio‘zida mujassam etadi. Yollash o‘z tabiatiga ko‘ra jinoiy guruhlarning tugallanmagan jinoiy epizodi hisoblanadi va agar vakolatli idoralar tomonidan o‘z vaqtida aniqlanib, ushbu harakatlarga chek qo‘yilsa, uyushgan jinoiy guruhlarning qolgan jinoiy epizodlari umuman sodir etilmasligi ham mumkin.

Yollash ishlari ko‘p xolatlarda bevosita donor mamlakatlarining o‘zida, ya’ni odam savdosi qurbonlari yashovchi davlatlarda amalga oshiriladi. Yollash tadbiri uyushgan jinoiy guruh tarkibiga kiruvchi maxsus tuzilma, ya’ni *“yollovchilar guruhi”* tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu guruh

tarkibi ham donor mamlakatining o‘zida yashovchi fuqarolar, ham chet el fuqarolaridan iborat bo‘lishi mumkin. Yollash jarayonida yollovchining fuqarolik masalasi yollanish muhitiga qarab belgilab olinadi. Chunki, ayrim aholi punktlarida yashovchi fuqarolar faqat o‘z vatandoshlariga ishonishsalar, qolganlari esa chet el fuqarosining shaxsan taklif etayotganligi tufayli, haqiqatdan ham rost deb o‘ylaydilar. Markazdan uzoq bo‘lgan xududlarda joylashgan axoli puntlari fuqarolari esa o‘z etnogenezi va psixologiyasiga ko‘ra shaharliklarga qaraganda bir-biri bilan etnik yaqinlik hissiyoti asosida turmush faoliyatini olib boradilar. Shu sababli, ushbu axoli qatlami bilan chetdan kelgan yollovchilar guruhi o‘rtasida simpatiya his-tuyg‘ularini shakllantirish murakkab kechishi mumkin, yoxud umuman o‘z maqsadlariga erisha olmasliklari ham mumkin. Bunday vaziyatda uyushgan jinoiy guruh tashkilotchilari moddiy va psixologik rag‘batlantiruv metodlaridan foydalangan xolda yollovchilar guruhini aynan ana shu axoli punktlarida yashovchi fuqarolar orasida shakllantiradi.

Odatda guruh tarkibi aniq son bilan cheklanmaydi, u jinoiy rejalar, donor mamlakatidagi vaziyat va voqea rivojiga qarab o‘zgarib turadi. Agar jinoiy guruh o‘z tuzilmaviy-funksional jihatlari va moliyaviy qudratiga ko‘ra kuchli bo‘lsa hamda vakolatli idoralar mansabdor shaxslari orasida xomiylik qiluvchi sheriklariga ega bo‘lsa, unda u rasmiy tashkilotlar niqobi ostida ham faoliyat yuritishi mumkin. Bugungi kunda dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda ushbu tashkilotlarga misol qilib qo‘yidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: *ish topib berish va ishga joylashtirish agentliklari; sayoxatga chiqishni tashkil etuvchi turistik firmalar; maxalliy va xalqaro ko‘lamdagi tanlab olingan kuyov va kelinni uchrashtiruvchi xilma-xil nikoh agentliklari; ko‘ngilochar davralar, shou-bizneslar, go‘zallik tanlovi, festivallar, musobaqalar kabi turli madaniy-hordiq tadbirlari tashkilotchilari; ta’lim bilan bog‘liq tuzilmalar, chet ellarda o‘quv, malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar tashkilotchilari; bolalarga tibbiy va gumanitar yordam ko‘rsatishni taklif qiluvchi ko‘ngilli markazlar* va h. k.

Yollash jarayonida qo‘llaniladigan asosiy vosita – bu *moliyaviy vositadir.* Asosan pul va qimmatbaxo buyumlar odam savdosi jinoyati qurbonlarini tanlab olishga yordam beradi. Shuningdek, ularning ishonchlarini qozonish va belgilangan davlatga chiqish uchun roziligini olish jarayonini tezlashtirish maqsadida qo‘yidagi vositalar ham qo‘llaniladi: *qalbaki ravishda tayyorlangan yuridik shaxs rekvizitorlari, mexnat shartnomalari; ishga taklif etish to‘g‘risidagi soxta e’lon va murojatnomalar;internet tarmoqlarida uyushgan jinoiy guruh “aktyorlari” bilan yollanuvchilar o‘rtasida maxsus ssenariy asosidavirtual suhbatlar*

tashkillashtirish; borish rejalashtirilayotgan mamlakatning go‘zal maskanlari tushirilgan fotosuratlar va videomateriallar bilan tanishtirish va h. k. Ushbu vositalar yordamida yollanuvchi fuqaroning tasavvurida noto‘g‘ri vaziyat shakllantiriladi va shuning bilan bir qatorda yollangan fuqarolar orqali ham boshqa fuqarolarni yollashga erishiladi.

Yollovchilar guruhi fuqarolarni yollash jarayonida, odatda, ularning ixtiyoriy roziligini olishga xarakat qiladi. Chunki, olib ketiluvchi shaxslarning ixtiyoriy roziligi tranzit mamlakatni kesib o‘tishni yengillashtiradi va odam savdosi jinoyatining risk darajasini kamaytiradi. Buning uchun ular turli xil psixologik usullardan foydalanadi. Masalan, mexnat ekspluatatsiyasi maqsadida yollanayotgan fuqarolarga mamlakatdagi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan kelib chiqib, tayinlov mamlakatiga yetib borgach mumaygina daromad topishi mumkin bo‘lgan ish joyi, bepul oziq-ovqat va yashash joyi bilan ta’minlash haqidagi yolg‘on ma’lumotlarni ularga yetkazib ularning ishonchini qozonishga urinadi.

Yollash jarayonida xalqaro tarmoqdagi uyushgan jinoiy guruhlar ko‘proq ayollarni “o‘lja” sifatida belgilab oladilar. Chunki, *birinchidan,* ayollarni “seks-turizm”ga jalb qilish orqali odam savdosining boshqa turlariga qaraganda ko‘proq moliyaviy daromad topish mumkin bo‘lsa, *ikkinchidan,* ularni yollash mexanizmi ancha osonligidadir. O‘zbek olimlari N. B. Qurbonov va S. S. Niyozovalarning fikriga ko‘ra, odam yollashni amalga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘ziga xos omil bo‘lib dunyo miqyosida ayollar va erkaklarning jinsiy notengligi xisoblanadi. Sotsiologik tahlil nuqtai nazaridan ayollar ijtimoiy diskriminatsiyasi asosida ularning erkaklar bilan ijtimoiy notengligi yotadi. Bunday notenglikni amerikalik sotsiolog N. Smelzer “insonlarning pul, hokimiyat, obro‘yi kabi ijtimoiy ne’matlarga bo‘lgan noteng imkoniyatlarni belgilovchi sharoitlardir” deb izohlaydi. Ayollar hayotdagi har qanday salbiy hodisaga, o‘zgarish va jarayonlarga, o‘z turmushidagi keskin voqealarga erkaklarga nisbatan g‘oyat tez va kuchli ta’sirlanishda bo‘ladi, natijada yomon holat va vaziyatlarning qurboni bo‘lib qoladi. Shu sababli, uyushgan jinoiy guruhlar seksual ekspluatatsiya maqsadida yollanayotgan ayollarga, ularning genderlik va reproduktiv o‘ziga xosligini boshqacha shaklda talqin qilish, horijiy mamlakatlarga borib barcha orzu-istaklariga erishishi mumkinligini aytish yo‘li bilan emotsional reaksiyasini kuchaytiradi. Bugungi kunda dunyodagi odam savdosi qurbonlarining 80 % ga yaqinini ayollar tashkil etishi ham buning yaqqol dalilidir.

Odam savdosi jinoyati mexanizmining **ikkinchi bosqichi – “olib o‘tish”** deb nomlanadi. Ikkinchi bosqichning birinchi bosqichdan farqi

shundaki, yollash jarayonida jinoiy guruhlar a'zolari ko'proq axolini qiziqtirish, ishontirish, isbotlash uchun verbal va noverbal psixologik uslublardan foydalanadi. Shuningdek, birinchi bosqichda yollovchilar guruhining o'zining ishtiroki bilan cheklanishi mumkin. Ikkinchi bosqichda esa, jinoiy guruhlar tomonidan bir qancha rasmiy va norasmiy tadbirlar o'tkaziladi. Undan tashqari, jinoiy guruh tarkibiga turli xil davlat va jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot idoralarining xodimlari jalb qilinadi.

Ushbu bosqichda yollangan fuqarolar davlat chegarasi orqali bevosita tayinlov mamlakatiga olib o'tiladi yoki tranzit mamlakati orqali tayinlov mamlakati tomon bo'ylab olib o'tiladi. Masalan, O'zbekiston sharoitida, Qozog'iston xududida ekspluatatsiya qilish nazarda tutilgan shaxslar bevosita o'zbek-qozoq chegarasi orqali Qozog'istonga olib o'tkaziladi. Boshqa davlatga olib ketish uchun esa O'zbekiston bilan chegaradosh davlatlar tranzit mamlakati rolini bajaradi.

Ushbu bosqichda uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan ***donor mamlakatidan chiqib ketishni ta'minlovchi guruh*** shakllantiriladi. Shu o'rinda, ushbu guruh a'zolarini tasniflashda AQShning Terrorizm, transmilliy jinoyatchilik va korrupsiyani o'rganish markazi (TraCCC)ning metodikasiga tayanishni o'rinli deb topdik. Ushbu Markazning tasniflashiga ko'ra, odam savdosi jinoyatining ishtirokchilari ikkiga bo'linadi. 1) *"yadro"ga mansub ishtirokchilar* – bevosita jinoiy rahbarlar, yollovchilar, olib o'tuvchilar; 2) *"priferiya"ga tegishli ishtirokchilar* – qo'riqchilar, legitimlikni ta'minlovchi shaxslar, soxta hujjatlarni tayyorlab beruvchilar, ijrochilar, jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni legallashtirish bilan shug'ullanuvchilar. Davlat chegarasini kesib o'tishda "yadro" a'zolari "priferiya" tarkibining rasmiy kuchlari va imkoniyatlaridan foydalanadi.

Davlat chegarasidan rasmiy va norasmiy yo'llar bilan "tirik tovar"ni o'tkazilishiga ishtirok etuvchi "priferiya" tarkibiga quyidagi shaxslarni kiritish mumkin: bevosita davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida faoliyat yurituvchi chegarachilar; bojxona xizmati xodimlari; ichki ishlar tizimining xorijga chiqish va kelish ishlarini rasmiylashtiruvchi bo'limlari xodimlari; aeroport, temir yo'l bekatlari ma'muriyati va ishchilari; turizm firmalari; tibbiy muassasalar, xususan tug'ruqxonalar mansabdor shaxslari; vasiylik va xomiylik tashkilotlari xodimlari;transport vositalari xaydovchilari va h. k.

Olib o'tish bosqichida aynan odam savdosini sodir etishga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy guruhlar odam savdosi marshrutini belgilab oladi va yo'lga qo'yadi. Rus kriminalisti Smirnov G. K. , **"odam**

savdosi marshruti"ga ta'rif berar ekan, uning ikki xil elementdan tashkil topganligini bayon qiladi:

1) *statik element* - odamlarni yollash va/yoki o'g'irlash, tranzit punktlariga vaqtinchalik saqlanishi hamda odam savdosi qurbonlarini ekspluatatsiya qilish joylari;

2) *dinamik element* – odam savdosi jabrlanuvchilarini olib o'tish yo'nalishlari.

Odam savdosi marshrutini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- *mahalliy* (O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-xududiy subyektlari ichida) va *transmilliy* (O'zbekiston

- *oddiy* (O'zbekistondan faqat bitta chegaradosh davlatga) va *murakkab* (O'zbekistondan tranzit davlati orqali boshqa tayinlov mamlakatlariga qarab);

- *importli, eksportli* va *import-eksportli* marshrutlar.

Transmilliy xarakter kasb etuvchi odam savdosini sodir etishga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy guruhlar yo'lga qo'yilgan marshrutning rentabilligini va xavfsizligini saqlash maqsadida, ushbu marshrutni nazorat qilib borishga hamda marshrut bilan bog'liq rasmiy shaxslarni jinoiy guruh yoki uyushma "priferiyasi"ga jalb qilishga xarakat qiladi.

Yevropalik mutaxassislarning fikricha, aynan mansabdor shaxslarning korrupsiyasi sababli, Finlyandiya-Rossiya va Rossiya-Estoniya chegaralari jinoiy uyushmalar tomonidan nazorat qilinadi. Undan tashqari, Estoniyaning Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirishi uyushgan jinoyatchilik diqqatini yanada o'ziga jalb qiladi.

Odam savdosi jinoyati mexanizmining ikkinchi bosqichi yollangan shaxslarni tayinlov mamlakatiga olib kelinishi bilan tugallanadi.

Uchinchi bosqich – ***sotish va/yoki ekspluatatsiya qilish bosqichi.*** Ushbu bosqichda xarakat qiluvchi jinoiy guruhlar funksional jihatlarga ko'ra ikki xil shaklda tashkil topishi mumkin:

1) Jabrlanuvchilarni qabul qiluvchi va sotuvchi guruh;

2) Jabrlanuvchilarni qabul qiluvchi va bevosita ekspluatatsiya qiluvchi guruh.

Jinoiy faoliyat ko'rsatib o'tilgan shakllarning qay birida namoyon bo'lishidan qat'i nazar, ushbu bosqichda yollangan fuqaro odam savdosi qurboni yoki jabrlanuvchisiga aylanadi hamda u marginal xolatga tushib qoladi. Ushbu bosqich jinoiy uyushma yoki guruhlarning jinoiy rejalari va

motivatsiyasi amalga oshadigan hamda jinoiy daromadlar kelib tushadigan bosqich sanaladi. Shuningdek, jabrlanuvchilar ekspluatatsiyaning turiga qarab jinoyatchilar tomonidan boshqariladigan punktlarga tarqatiladi.

Shahvoniy ekspluatatsiya qilish maqsadida jabrlanuvchilar quyidagi muassasalarda joylashtiriladi: fohishaxonalar; pornografik filmlar ishlovchi kino studiyalari; hammom va massaj salonlari; eksport xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar; barlar, ko‘ngilochar yoki striptiz klublar; model studiyalari va boshqalar.

Mehnat ekspluatatsiyasi maqsadlarida foydalaniladigan shaxslar qo‘yidagi manzillarga joylashtiriladi: qishloq xo‘jaligi dalalari va maydonlari; turli ishlab chiqarish korxonalari; uy-joy xo‘jaligi (uy xizmatkorlari, enagalar); qurilish obyektlari; umumiy ovqatlanish joylari va boshqalar.

Ekspluatatsiya bosqichida jabrlanuvchi shaxs ustidan noqonuniy nazorat o‘rnatiladi. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, odam savdosi jabrlanuvchilari ustidan olib boriladigan noqonuniy nazorat turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: shaxsiy hujjatlarini olib qo‘yish va ushlab turish; to‘liq izolyatsiya, erkin xarakat qilish va yaqin kishilari bilan muloqot qilishini cheklab qo‘yish; uzoq muddatli tobe’lik va tutqinlik;jismoniy kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish;psixologik zo‘rlash, shantaj, tahdid (deportatsiya qilish bilan tahdid qilish, yaqin qarindoshiga tahdid qilish yoki foxishaligini oshkora qilish bilan tahdid qilish); aldov va h. k.

Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, odam savdosiga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy faoliyat mexanizmi va taktikasi murakkab tabiatga ega. Shu sababli, uni fosh qilish va oldini olish ishlarini amalga oshirish ham mushkul xisoblanadi. Ushbu transmilliy jinoyatni o‘z vaqtida oldini olish uchun, unga qarshi kurash borasidagi tadbirlarni puxta ishlab chiqish, to‘g‘ri rejalashtirish, kuch va vositalardan maqsadli foydalanish hamda shu bilan birgalikda har qanday ijtimoiy faoliyat kabi odam savdosiga qarshi kurash jarayonini samaradorligini oshirishda ilmiy asoslash hamda metodologik ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

1. Adabiyotlar ro‘yhati:

2. Akimjanov T. Organizovannaya prestupnost kak obyekt kriminologicheskogo issledovaniya // Rossiyskiy sledovatel. - 2006. №3. -S. 27.

3. Buryak Y. M. Torgovlya lyudmi i borba s ney. Dis. . kand. yur. nauk. –Vladivostok. : 2005. - S. 13.

4. Hughes Donna. Transnational Shadow Market of Trafficking in Women // Journal of International Affairs. – 2000. – Spring.

5. Rustamboyev M. X. Odam savdosi (risola). - T. : - 2009. , - B. 12

6. Usmonaliyev M. , Karaketov Y. KriminologiY. - T. : «Yangi asr avlodi», 2001. – B. 453.

7. Klochkova A. V. Vzglyad yevropeyskix kriminologov na problemu torgovli jenshinami i detmi v selyax seksualnoy ekspluatatsii // Vestnik Moskovskogo universiteta. Ser. 11. Pravo. – 2007.

8. Torgovlya lyudmi v Rossiyskoy Federatsii: obzor i analiz tekushey situatsii po probleme. Issledovaniye vipolneno k. e. n. YE. V. Tyuryukanovoy sovmestno s Fondom «Institut ekonomiki goroda» dlya rabochey gruppi agentstv OON i Mejdunarodnoy organizatsii po migratsii (MOM) po problemam torgovli lyudmi. Moskva, 2006. - S. 29.

9. Smirnov G. K. Metodika rassledovaniya torgovli lyudmi: avtoref. diss. na k. Y. n. -M. 2008. - S. 9.

10. Yuldashev S. R. Kriminal globallashuv va odam savdosining transmilliylashuvi // “O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat: integratsiyalashuvning siyosiy, huquqiy va tashkiliy jihatlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T. : TDSHI -2011. -B. 226

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 24. 11. 2009 y. dagi “Odam savdosiga oid ishlar bo‘yicha sud amadiyoti to‘g‘risida”gi 12-sonli qarori// O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarorlari. T. - 2009 y.

12. Qurbonov N. B. , Niyozova S. S. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollashning ijtimoiy xavfliligi va oldini olish. – TDYUI, 2008. -B. 20.

13. Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). vilucheno iz https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

14. Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, *9*(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

15. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

16. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

17. Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). vilucheno iz https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

18. M Raimdjanov. (2021). COOPERATION BETWEEN SCHOOL, FAMILY AND COMMUNITY ON VOCATIONAL TRAINING OF STUDENTS AS A SOCIAL PEDAGOGICAL PROBLEM Conferencious Online, 28-30 https://cyberleninka. ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer.

19. M Raimdjanov. (2021). FORMATION OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN FUTURE TEACHERS Scientific progress 2 (4), 988-991 https://cyberleninka. ru/article/n/formation-of-pedagogical-and-psychological-knowledge-in-future-teachers/viewer

20. L. V. Zankov; APN SSSR: Vixodniye danniye: Moskva : Pedagogika, 1990: Fizicheskoye opisaniye: 418, [6] s.

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY MA’NAVIYATGA QARSHI TAHDIDLARNI OLDINI OLISH

PhD Mardiyeva Gulnoza Qo’chqarovna

So‘nggipaytlarda siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sirko‘rsatib, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar, g‘oyalar va ijtimoiy ongning o‘zgarishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida zamonaviyavIoddunyoqarashining o‘zgarishiga olib

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, madaniyat, milliy qadriyatlar, sharqona yod g‘oya, mafkuraviy, yosh avlod.

political and socio-economic changes have affected all aspects of society’s

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrdaijtimoiy ongimizda haminqilob sodir bo‘ldi. Bu, albatta, yangi qadriyatlarga taraqqiyoti internet olamidagi cheksizlik inson ongini fikrini buzg‘unchi g‘oyalar bilanhar soniyada qamrab olishga qodir. Bugungi kunga kelib zamonaviy o‘zbek jamiyatida nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki ijtimoiy-psixologik bo‘linish holati ham mavjud, buning natijasida hozirda Jamiyatimizda ikkita g‘oya tarafdorlari mavjud: biri birdamlik, o‘z oldiga ma’lum umumiy maqsadlarni qo‘yadi. Ikkinchisi – individualist,

Jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy bo‘linish abadiy davom eta olmaydi va bu jarayonning dinamikasi an’anaviy o‘zbek milliy qadriyatlariga iyatlar tizimini shakllantirish bilan yakunlangan muqobil yo‘llarga ega. Ko‘rinib turibdiki, avvalgi, mohiyatan o‘zbek milliy qadriyatlari tizimiga to‘liq qaytishimkonsiz, chunki psixologik qatlamga ta’sir qilgan va milliy qadriyatlarnio‘zgarishlar o‘zgartirgan.

ma’naviy suverenitet O‘zbek jamiyati rivojlanishining muhim sharti global axborot makonining shakllanishi sharoitida o‘zligimizniyod madaniyatidan ancha uzoq bo‘lgan begona madaniyatning salbiy ta’sirining oldini olish, millatimizni, ayniqsa yoshlarniommaviy

Ma’naviyat uning jamiyat hayotidagi ahamiyati

Avvalo ma’naviy tushunchasini tahlil qiladigan bo‘lsak, “Ma’naviyat” – bu inson tabiatining o‘ziga xos xususiyati, uning ongining atributi, idealga bo‘lgan faol intilish, bilim, uyg‘unlik, doimiy o‘zini-o‘zi

Ma’naviyatli shaxs esa- O‘lim qo‘rquvidan xoli, kuchli ruhga ega shaxs.

“Ma’naviyat” tushunchasining mantiqiy tahlili uning instrumental xususiyatini ko‘rsatadi, bu zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan bir ma’lum darajada ijtimoiy munosabatlarning barcha darajalarida ko‘payishning inertial an’analari bilan bog‘liq. Boshqa tomondan, ma’naviyat ijtimoiy yaxlitlik kelajakdagi holatlarini uning o‘tmishi va hozirgi mazmunini oqilona tushunish asosida modellashtirishga tayyor

Bu tahlil cheklanish

bo‘lishning zaruriy shartini tashkil etuvchi axloqiy talablar tizimiga

Ma’naviy tahdidlar -Inson ruhiyati uning ruhiy salomatligi axloqiy, madaniy xati harakatlar me’yoriga salbiy ta’sir etuvchi har qanday usul

Ma’naviytahdidlar:

avjud ma’lumotlar miqdori-uni idrok etish va ishlatish uchun inson

damlarning bir avlod hayoti davomida yuzaga keladigan yashash sharoitidagi tub o‘zgarishlarga moslasha olmasligi, stress, yo‘nalishni yo‘qotish, noqulaylik hisi, tashvish ;

odamlarni madaniyatdan chetlashtirishning tahdidli ko‘lami;

oddiy iste’molchilik ruhiyati;

televizor ekranlarida zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi, pornografiya, diniy tuyg‘ularni haqorat qiluvchi, tajovuzkor guruhlarni qondiradigan antisosial ma’lumotlarning paydo bo‘lishi;

uqori san’atni, dunyo madaniyatining durdonalarini jurnal sahifalaridan, televizion ekranlardan ibtidoiy ta’mga mo‘ljallangan ommaviy madaniyat

Ma’naviy-axloqiy xavfsizlik – bu jamiyatga o’zining hayotiy belgilangan me’yorlar doirasida saqlashga imkon beradigan sharoitlar Ularning me’yordan chetga chiqishi jamiyatni tashkil etuvchi ma’naviy-axloqiy asoslarning yo‘q bo‘lib ketishi tufayli yaxlit tizim sifatida

ma’naviyxavfsizligini ta’minlashningengmuhimomiliyosh avlodning ma’naviy-axloqiy holatidir, chunki aynan yoshlar jamiyatning asosiy bog’liq muammolarorasidaengdolzarb muammolar ijtimoiy salomatlik va y o ’ l - y o ’

So’nggipaytlarda siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sirko’rsatib, ma’naviy-axloqiy yo’nalishlar, g’oyalar va ijtimoiy ongning o’zgarishiga olib keldi, bu esa o’z

Ma’naviyatsizlik targ’ibotida ommaviy axborot vositalari va internetning ta’siri zamonaviy jamiyat oldida turgan dolzarb ma’naviyatgazidbo’lganekstremistik g’oyaningtarqalish sur’ati

fikrini shakllantirish uchun ideal maydondir va shuninguchunekstremalvaziyatlarda ijtimoiy qo’rquvni kuchayririshda “hayoliy” xarakterga ega (xayoliy tahdidlardan qo’rqish), ular nafaqat qamchilash bilan hambog’liq. Ko’pginazamonaviy siyosatchilar qo’rquv

Davlatimiz tomonidan ta’lim sohasiga, yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish yo’nalishlariga katta e’tiborqaratilmoqda, ta’lim muassasalariningmoddiysharoitini yaxshilashga katta mablag’lar yo’naltirilmoqda, har yili maktablar, oliy o’quvyurtlari,

aytganidek “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, ijtimoiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[99] bo‘lmog‘i lozim .

o’rganish predmeti va o’rganilayotgan muammoning mohiyatiga muvofiq

Ma’naviyat, eng avvalo, insonning o’z ruhiga mos hayotdir .

[99] Shavkat Mirziyoyev https://president. uz/oz/site/multi-video?menu_id=14

Axloqiy poklanishga omillar qanday ta’sir qilishini yaxshiroq inson kelajakda ko’proq axloqiy bo’lmagan xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lishi mumkinligi haqida xabardorlikni

am axloqiy qadriyatlar haqida buzilgan g’oyaga ega bo’lishi mumkin, bu boshqa odamlar bilan muloqot qilish va o’zaro munosabatlarda tushish xavfi kattaroq bo‘ladi – ichkilikbozlik va giyohvandlikka ruju qo‘yish, jinoyatga qo‘l urish, do‘st va qarindoshlarni qadrlash va hurmat qilishni tushunchalarini yo‘qotish;hayot yo’l-yo’riqlarini yo’qotish, ichki bo’shliq va mavjudlikning ma’nosizligi hissini keltirib chiqarishi mumkin. depressiya hissi o’z joniga qasd qilish fikriga olib kelishi mumkin. [6]

Ma’naviy rivojlanish muhimligini tushungan inson esa va o’zini-o’zi takomillashtirish bilan shug’ullanadigan odam hayotda mustahkam pozitsiyaga ega bo’ladi, hayotdagi maqsadlarini aniq shakllantiradi, o’zi

Insonning ma’naviy rivojlanishining ahamiyatini ortiqcha baholab bo’lmaydi. Ko’pchilik uchun hayotidagi qiyinchiliklar o’z hayoti, unda e’tiqod va ma’naviyatning o’rni haqida jiddiy o’ylashga turtki bo’ladi. Imon insonga o’z shaxsiyatini, boshqa odamlarga hurmat va axloqiy O’z-o’zini takomillashtirish har birimiz uchun eng muhim vazifalardan biri bo’lib, o’z ustingizda ishlash uchun vaqtni kutish o‘rinsiz.

Zamonaviy dunyo global siyosiy to’ntarishlar va o’zgarishlar bilan

Aytish joizki biz o’quvchiga uning tabiatida yetishmayotgan narsani qo’sha olmaymiz O’qituvchining vazifasi esa bolaning, o’smirning, yigitning ruhini (ma’naviyatini) uyg’otish jarayonida xavfsiz sharoitlarni Ta’lim va tarbiya jarayonida tashuvchining ruhining asl mohiyatini ochib berish va u bilan kollektiv stereotiplarni o’rnatmasdan o’zaro munosabatda bo’lishni maqsad qilish muhimdir.

bo‘sh vaqt sarfini tahlil qilish shu oraqa ularning madaniy ma’rifiy darajasini tahlil qilish maqsadida so‘rovnoma shuningdek suhbat o‘tkazildi. (1-diagramma)

iagramma -Yoshlarning bo‘sh vaqtini qanday o‘tqazishi yuzasidan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari

Yoshlar bo‘sh vaqtini nimaga sarflashmoqda degan savolga qatnashchi yoshlarning bo’sh vaqtlarining katta qismini vidioo‘yinlar (19, 2%), 8%) bilan o’tkazadilar. So’rov natijalariga ko’ra, yoshlarning asosiy bo’sh vaqti “ko‘ngilochar joylar”, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuterda o‘tkazishmoqda deyataxmin qilish mumkin.

Mamlakatimiz o‘z tarixi davomida turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar qo‘shnining o‘zicha e’tiqod qilish, o‘z diniy e’tiqodini erkin va ongli

Ko’pincha, ma’naviy tajriba yoki ma’naviy bilimga ega bo’lmagan uchun jamiyatning ma’naviy madaniyatini har tomonlama yuksaltirish

Jamiyat ma’naviy hayotining asosiy tarkibiy qismlari fan va ta’limdir . asoslangan bilimlarni to’plashdir. Bugungi kunda ilmiy bilimlar moddiy

Ta’lim tizimi jamiyat xavfsizligiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi . O‘z fuqarolariga ma’lum darajada ta’lim bera olmagan davlat halokatga

Mamlakatimiz fuqarolarining ma’naviy va axloqiy xavfsizligi ko’p jihatdan ularning jismoniy salomatligiga bog’liq. Salomatlik har bir inson uchun ne’mat va baxt, davlat mavjudligining zarur shartidir. Milliy psixotrop moddalarni iste’mol qilishning tez sur’atlarda o’sishi va odamlar salomatligining yomonlashuvida namoyon bo’ladi. Bunday

- Milliy va jahon madaniyati qadriyatlarini yo’q qilishdan saqlash
- Butun ta’lim va tarbiya tizimini modernizatsiya qilish,
- Har bir yosh avlodga qo’yiladigan talablar: ma’naviy boylik, jamiyatning ma’naviy hayotini murakkablashtirish sharoitida axloq o’zgaruvchan dunyo muammolariga mustaqil ravishda javob berishga

“barcha ijtimoiy jabhalarda” samarali ishlashni ham inobatga olish: oila

’i va Telegram kanallarida tuzilgan guruhlardajami 1135 ta auditoriyaga

Bunda dominant kadrlar: “Mahalliy madaniyat”, “Milliy manaviyat”, “Bolalik”, “An’anaviy qadriyatlar”, “Xotira”, “Yangi O‘zbekiston”, “Shon-sharaf va qadr-qimmat”ni tashkil etdi. Hozirda an’anaviy qadriyatlar qilmoqda: “Global madaniyat qobiq vazifasini o‘taydi, unga milliy qadriyatlarni birlashtirish mumkin “. Respondentlar bilan suhbatlar natijasida ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan ko’ngilochar ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog’langanligini aniqlash

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, jamiyatning ma’naviy xavfsizligi nazariyasi markazida shaxsning ma’naviy sohasini himoya qilishni ta’minlash muammolari turadi va buning uchun tashqi va ichki dunyo o‘rtasida ma’lum bir uyg‘unlik bo‘lishi kerak. U joylashgan joyda,

yosh avlodning ma’naviy-axloqiy holati muammosi mamlakatimiz ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning eng muhim omili sifatida 10 million kishini tashkil qiladi va mamlakatning kelajagi millatimiz kelajak avlodlari qanchalik tayyor bo’lishiga bog’liq.

o
‘

—

— ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish rolini yoshlarga oid milliy siyosatni ta’minlash doirasida samarali va adekvat yoshlar siyosatini shakllantirishni nazarda tutuvchi ma’naviy xavfsizlik

Avlodlar o‘rtasidagi aloqalar va madaniy yo‘nalishlarni mustahkamlamay

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

иллий ғоя тарғиботмаркази“Дунёнинг мафкуравийманзараси” электрон дарслиги , Тошкент, 2010 й

а’навий ва диний етуклик – давр талаби. - Т. :”Тошкент ислом университети” Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009. - 381-б.

нвар Чориев. Инсон фалсафаси 2021 -56-б

Полатова, Ахлоқшунослик 2021-34-б

инченко, Я. Г. Контуры взросления глазами современной молодежи / Я. Г. Зинченко // Материалы X международной социологической Грушинской конференции «Жить в России. Жить в мире. Социология повседневности», 20 мая – 14 ноября 2020 г. / отв. Ред. А. В. Кулешова. – М. : ВЦИОМ, 2020.

андыбович, С. Л. Особенности социализации молодежи в условиях современной цифровой среды / С. Л. Кандыбович, Т. В. Разина. –

астельс, М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / М. Кастельс ; пер. С англ. О. И. Шкаратана. – М. : ГУ ВШЭ,

еонова, О. Г. Глобальные универсальные ценности: интерпретация и смыслы / О. Г. Леонова // Ценности и смыслы. – 2017. - № 6 (52). – С. 29-35

Abstrakt

So‘nggipaytlarda siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sirko‘rsatib, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar, g‘oyalar va ijtimoiy ongning o‘zgarishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida zamonaviyavIoddunyoqarashining o‘zgarishiga olib kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaritaraqqiyotijamiyat hayotining barcha jabhalariga faol kirib bormoqda. Ko‘pgina zamonaviy yoshlarning ijtimoiylashuvi ko‘p jihatdan Internet orqali amalga oshiriladi. Bu esa bolalarda gadjetlarga erta qulliq axborot oqimdan noto‘g‘ri foydalanish uning natijasida ma’nan passiv axborot iste’molchisiga aylanishiga yo‘l ochadi . Yoshlarning passiv axborot iste’molchilariga aylanishi ma’naviy qaloqlikni keltirtib chiqaradi shuningdek axborot resurslarida milliy qadriyatlarmizga zid bo‘lgan yod g‘oya va mafkuralar kuchsiz ruhiy holatga ega bo‘lgan yoshlarni osongina ongu shurini buzg‘unchi g‘oyalar bilan qamrab olishga qodir. Shunday ma’naviy tahdidlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin .

Ma’naviytahdidlar:

avjud ma’lumotlar miqdori-uni idrok etish va ishlatish uchun inson

damlarning bir avlod hayoti davomida yuzaga keladigan yashash sharoitidagi tub o‘zgarishlarga moslasha olmasligi, stress, yo‘nalishni yo‘qotish, noqulaylik hisi, tashvish ;

Madaniytahdidlar:

odamlarni madaniyatdan chetlashtirishning tahdidli ko‘lami;

oddiy iste’molchilik ruhiyati;

televizor ekranlarida zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi, pornografiya, diniy tuyg‘ularni haqorat qiluvchi, tajovuzkor guruhlarni qondiradigan antisosial ma’lumotlarning paydo bo‘lishi;

uqori san’atni, dunyo madaniyatining durdonalarini jurnal sahifalaridan, televizion ekranlardan ibtidoiy ta’mga mo‘ljallangan ommaviy madaniyat

Ma’naviy-axloqiy xavfsizlik – bu jamiyatga o’zining hayotiy parametrlarini (birinchi navbatda, madaniy, axloqiy va intellektual) tarixan belgilangan me’yorlar doirasida saqlashga imkon beradigan sharoitlar tizimi. Ularning me’yordan chetga chiqishi jamiyatni tashkil etuvchi ma’naviy-axloqiy asoslarning yo‘q bo‘lib ketishi tufayli yaxlit tizim sifatida yemirilishiga olib keladi.

Ushbu muamoni o‘rganish maqsadida yoshlarning bo‘sh vaqtini qanday o‘tqazishi va vaqtini asosiy qismi qanday mashg‘ulot uchun sarflashi yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazildi natijalarga ko‘ra Yoshlar bo‘sh vaqtini nimaga sarflashmoqda degan savolga qatnashchi yoshlarning bo‘sh vaqtlarining katta qismini video o‘yinlar (19, 2%), ijtimoiy tarmoqlarda (33, 8%), kompyuter (20, 3%) va kitob o‘qish (14, 8%) bilan o‘tkazadilar. So‘rov natijalariga ko‘ra, yoshlarning asosiy bo‘sh vaqti “ko‘ngilochar joylar”, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuterda o‘tkazishmoqda deyataxmin qilindi. Biz jamiyatimizga, ayniqsa, yoshlargamamlakatimizning o’tmishiga buyuklik va g’urur bilan qarashga, bugungi va kelajak uchun to’liq javobgarlikni anglab etishga imkon beradigan munosib milliy mafkurani shakllantirishni ko’rib chiqishimiz zarur. Bunday mafkura vatanparvarlik mafkurasi bo’lishi mumkin, ammo uni amalga oshirish “barcha ijtimoiy jabhalarda” samarali ishlashni ham inobatga olish : oila institutini yo’q bo’lib ketishdan, ta’lim tizimini intellektual zaiflikdan, iqtisodiyot va siyosatni korruptsiyadan qutqarishga ham imkon beradi.

Biz bu boradagi VK ijtimoiy tarmog’i va Telegram kanallarida tuzilgan guruhlardajami 1135 ta auditoriyaga ega yoshlar jamosiga , aynan postlar milliy davlat manfaatlaridan mafkuraviy jihatdan unchalik farq qilmaydigan kun tartibini yaratdik.

Bunda dominant kadrlar: “Mahalliy madaniyat”, “Milliy manaviyat”, “Bolalik”, “An’anaviy qadriyatlar”, “Xotira”, “Yangi O‘zbekiston”, “Shon-sharaf va qadr-qimmat”ni tashkil etdi. Hozirda an’anaviy qadriyatlar nafaqat ommaviy axborot vositalarida, balki “raqamli yoshlar”ning

ommaviy axborot vositalarini iste’mol qilish paradigmasida ustunlik qilmoqda: “Global madaniyat qobiq vazifasini o‘taydi, unga milliy qadriyatlarni birlashtirish mumkin “. Respondentlar bilan suhbatlar natijasida ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan ko’ngilochar ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog’langanligini aniqlash mumkin edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, jamiyatning ma’naviy xavfsizligi nazariyasi markazida shaxsning ma’naviy sohasini himoya qilishni ta’minlash muammolari turadi va buning uchun tashqi va ichki dunyo o‘rtasida ma’lum bir uyg‘unlik bo‘lishi kerak. U joylashgan joyda, hayotiy ehtiyojlarning shaxsning imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

Shu munosabat bilan, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy holati muammosi mamlakatimiz ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning eng muhim omili sifatida yangilanmoqda, chunki aynan yoshlar jamiyatning asosiy ijtimoiy resursi mamlakat kelajagining timsolidir. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari 10 million kishini tashkil qiladi va mamlakatning kelajagi millatimiz kelajak avlodlari qanchalik tayyor bo'lishiga bog'liq.

.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NAMOYON BO'LADIGAN XAVOTIRLI HOLATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

dotsent Maxmudova Dilorom Axmadovna

magistrant Alixanova Nigina Baxtiyor qizi

Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tashvishlarning paydo bo'lishining sabablari va oqibatlarini o'rganishga, uni tashxislash, oldini olish va bartaraf etishning nazariy va amaliy masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tashvishlarni o'rganish bolalarning hissiy va shaxsiy rivojlanishi va ularning sog'lig'ini saqlash muammosi bilan bog'liq holda juda muhimdir. Ushbu maqolada uning kam o'rganilgan jihatlaridan biri, maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori tashvishning namoyon bo'lishini qo'zg'atuvchi omillar masalasi ko'rib chiqiladi. bolalar salomatligining turli jihatlariga bo'lgan zamonaviy talablari bilan bog'liq holda uning oldiga qo'yilgan psixologik-pedagogik amaliyot vazifalari bilan belgilanadi. Bolalik, ayniqsa maktabgacha yosh, bolaning shaxsiyatining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki hayotning ushbu davrida asosiy xususiyatlar va shaxsiy fazilatlar shakllanadi va asosan uning barcha keyingi rivojlanishini belgilaydi. Bola va oiladan tashqaridagi boshqalar o'rtasidagi munosabatlarning yangi turlariga o'tishning dastlabki bosqichlari qanday bo'lishiga va maktabgacha ta'lim muassasasiga kirishda faoliyatning tabiati qanday o'zgarishiga e'tibor berish ayniqsa muhimdir. Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda turli sabablarga ko'ra paydo bo'ladigan xavotirli holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'z: maktabgacha yosh, xavotir, tashvish, maktabgacha ta'lim muassasasi, ijtimoiy-psixologik.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CAUSES OF ANXIETY IN PRESCHOOL CHILDREN

Annatation

Dedicated to studying the causes and consequences of anxiety in preschool children, considering theoretical and practical issues of its diagnosis, prevention and elimination. The study of anxiety in preschool children is very important in relation to the emotional and personal development of children and the problem of maintaining their health. This article examines one of its less studied aspects, the factors that provoke the manifestation of high anxiety in preschool children. determined by the tasks of psychological and pedagogical practice. Childhood, especially preschool age, is of decisive importance in the development of a child's personality, because it is during this period of life that the main characteristics and personal qualities are formed and basically determine all his further development. It is especially important to pay attention to the early stages of the transition to new types of relationships between the child and others outside the family, and how the nature of activities changes when entering preschool. This article reveals the socio-psychological characteristics of anxiety states that appear in preschool children for various reasons.

Key words: Preschool ae, anxiety, concern, preschool educational institution, socio-psychological.

Kirish

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarini ta'minlash mamlakatimiz ta'lim tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar shu masalani yechimini topishga va uni amalga oshirishga qaratilgan. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bir qaraganda osondek tuyilishi mumkin, lekin bu bola tarbiyasidagi eng mushkul ishlardan biri hisoblanadi. Xususan, psixologiya nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, bolani har tomonlama yetuk bo'lishi avvalo uning ruhiy holatini sog'lom bo'lishiga bog'liqdir. Ruhiy holati sog'lom bola, har qanday holatni to'g'ri baholay oladi va hozirgi paytda ko'p kuzatilayotgan turli xil stresslarga tushmaydi. Biz siz bilan bugungi kunda ko'p kuzatilayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotrli holatlari haqida, ularning paydo bo'lish sabablari va ulardan kelib chiqadigan oqibatlarni o'rganamiz.

Bolaning yoshi, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolaning yoshi uning shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan davr hisoblanadi. Sababi bu yoshda bolaning shaxsiy fazilatlari shakllana boshlaydi va uning keying hayotini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bola oiladagilaridan tashqari boshqalar bilan munosabatga kirishishi biroz vaqt talab etadigan va ancha murakkabroq davr hisoblanadi. Ayniqsa bola maktagacha ta'lim muassasasiga qadam qo'ygan ilk kunlarida havotrga tushishi, o'zini boshqalardan olib qochishi, kam gapirishi, yoki umuman gapirmasligi, begonasirashi bularning barchasi tabiiy hol. Agar bu holat 3-4 kunda uzog'i bilan 1 haftada o'tib ketsa, bu normal holat hisoblanadi. Lekin bu holat o'tib ketmasa, battar yomonlashsa, bola injiqlik qilishni boshlasa, hattoki boxchadan qochib ketishga urinish holatlari kuzatilsa, boshqalar bilan aloqa o'rnatishga harakat qilmasa bu endi tabiiy holat sifatida qabul qilinmasligi kerak. Ortiqcha tashvishlanish bolada xavotrli holatlarning borligini va ularning keragidan ortiqligini namoyon qiladi. Bunda bolaga psixologik yordam zarur. Yangi joyga moslashsishda bolalar kuchli hissiy emotsional davrni boshdan kechiradilar. Bunda bolalarda yig'lash, injiqlik qilish, hissiy taranglik kabi holatlar kuzatiladi. Ayni paytda bolaning psixo-emotsional farovonligini saqlashni nazorat qilish ayniqsa muhimdir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yangi ijtimoiy munosabatlarga qo'shilish, boshqa kattalar bilan birgalikdagi faoliyat, ilgari olingan tajriba bolaga g'ayrioddiy sharoitlarga moslashishga yordam berishi yoki uning moslashish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Noqulay holatlar, hayotiy vaziyatlarda salbiy hissiy tajriba turli xil istalmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin, ulardan biri bolalarda yuqori xavotirni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Bolalarning bunday xavotirli holatlarini o'rganish, ularni tashxislash va oldini olish alohida e'tiborga loyiq muhim masala hisoblanadi. Sababi, maktabgacha yoshdagi bolaning mulki va shaxsiy sifatini shakllantirgan holda, xavotir maktab yoshida barqaror shaxsiy xususiyat bilan ham, kattalar hayotida ham nevroz va psixosomatik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Anksiyete birinchi marta Zigmund Freyd tomonidan tasvirlangan. Freyd nuqtai nazaridan, tashvish "Ego" ning funktsiyasidir va "Ego" ni yaqinlashib kelayotgan xavf, tahdid haqida ogohlantiradi, shaxsga bunday vaziyatlarda (xavf, tahdid holatlarida) xavfsiz, moslashuvchan tarzda javob berishga yordam beradi. Freyd tashvishni kutilgan xavf haqida signal bo'lgan yoqimsiz hissiy tajriba deb ta'riflagan. Anksiyete uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi: 1) o'ziga xos yoqimsiz hissiyot;

2) mos keladigan somatik reaktsiyalar, birinchi navbatda yurak tezligini oshirish; 3) xabardorlik.

Bu masala bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Asosan xorijiy psixologiyada ko'plab va to'liq ma'lumotlar topsa bo'ladi. Mahalliy o'rganib chiqishda ma'lumotlar kam hisoblanadi. Ammo tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalarda uchraydigan xavotirli holatlar ancha jiddiy masala bo'lib, uni o'rganish va bilish nafaqat psixolog yoki shifokorlarga balki, har bir ota-ona uchun muhim masala hisoblanadi. Bu masala bo'yicha V. R. Kislovskaya, A. M. Prixojan, Yu. L. Xanina, I. A. Musinoy, V. M. Astapova, T. A. Nejnova, V. S. Rotenberg, S. M. Bondarenko, A. I. Zaxarov va boshqa ko'plab xorijliklar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mamlakatimizda ham bolalar psixologiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar, izlanishlar olib borilgan, ammo aynan maktabgacha davrdagi bolalarda uchraydigan xavotrli holatlar yuzasidan aniq tadqiqot ishlari hali mukammal tarzda yoritib berilmagan. Hattoki Rus psixologiyasida ko'proq tadqiqotlar o'smirlar va kattalardagi tashvishlarni o'rganishga bag'ishlangan, maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotir va uni tuzatish imkoniyatlarini o'rganish deyarli yo'q. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasligidan dalolat beradi. Shu bilan birga bolalikning bir qator psixologik qiyinchiliklarining paydo bo'lishiga olib keladi.

O'rganilgan tadqiqotlarga nazar tashlaydagigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirga tushishiga ko'plab narsalar, hodisalar sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Ulardan biri ota-onalarning bolalariga bo'lgan munosabatlarining buzilishidir. To'g'ri, adabiyotda bunday munosabatlarning xususiyatlari, shuningdek, ota-onalarning shaxsiy fazilatlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda tashvish paydo bo'lishiga ta'siri to'g'risida deyarli ma'lumotlar yo'q. Ammo bu munosabatlar bolalarda xavotirli holatlarni keltirib chiqishiga sabab boladi. Eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirning xususiyatlari va ularning yaqin muhitidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, bu psixologik tuzatishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon berdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirni tuzatish kompleksi ishlab chiqilgan bo'lib, u tashvish intensivligining pasayishini ta'minlaydi va bolalarning yetarli darajada ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida xavotirga tushgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish ijtimoiy integratsiya jarayonini osonlashtiradi, bu bola uchun ham, umuman jamiyat uchun ham muhimdir.

Psixologik adabiyotlarda xavotir tushunchasining turli xil ta'riflarini topish mumkin, garchi ko'pchilik tadqiqotchilar uni differentsial – situatsion hodisa va o'tish holati va uning dinamikasini hisobga olgan holda shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib chiqish zarurligini tan olishgan. Xususan, A. M. Parishionerlarning ta'kidlashicha, xavotir "muammoni kutish bilan bog'liq bo'lgan hissiy noqulaylikni boshdan kechirish, yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan bilish" deganidir. R. S. Nemova ta'rifiga ko'ra esa. : "Xavotir - bu odamning doimiy yoki vaziyatda namoyon bo'ladigan xavotirlik holatiga tushishi, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo'rquv va xavotirni boshdan kechirishidir. ". G. G. Arakelov, N. E. Lysenko, E. E. Shott, o'z navbatida, xavotir– bu ko'p ma'noli psixologik atama bo'lib, u cheklangan vaqtda shaxslarning ma'lum bir holatini ham, har qanday odamning barqaror xususiyatini ham tavsiflaydi- deya fikr bildirishgan. So'nggi yillardagi adabiyotlarni tahlil qilish xavotirli holatlarni turli xil nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi, bu esa odamning turli xil stresslarga duchor bo'lishi bilan qo'zg'atilgan kognitiv, affektiv va xulq-atvor reaktsiyalarining murakkab o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan va amalga oshirilgan degan xulosaga olib keladi.

Metodologiya

Anksiyete ya’ni xavotir -shaxsiy xususiyat sifatida, insonning ishlaydigan miyasining genetik jihatdan aniqlangan xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bu hissiy hayajon va tashvish hissiyotlarini doimiy ravishda oshirib boradi.

Mahalliy psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarda o'z-o'zini hurmat qilishning yetarli emasligi noto'g'ri tarbiya, kattalar tomonidan bolaning muvaffaqiyatlarini haddan tashqari baholash, uning yutuqlarini maqtash, bo'rttirish natijasida rivojlanadi va bu ustunlikka bo'lgan tug'ma intilishning namoyon bo'lishi emas. Yuqori da'volar va haqiqiy imkoniyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar og'ir hissiy holatga olib kelishi mumkin.

Bolaning ehtiyojlarini qondirishdan himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular muvaffaqiyatsizlikka, ishonchsizlikka va o'z-o'zini hurmat qilishni yo'qotishga imkon bermaydi. U muvaffaqiyatsizlikning sababi o'zida ekanligini tan ololmaydi, uning kamchiliklarini ko'rsatadigan, asabiylashish, teginish, tajovuzkorlikni ko'rsatadigan har bir kishi bilan ziddiyatga tushadi. M. Z. Neymark buni "noadekvat affekt" deb ataydi. . . o'zini zaifligidan himoya qilish uchun o'tkir hissiy intilish, o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni ongga har qanday yo'l bilan kiritmaslik, haqiqatni chetga surish, g'azab va hamma narsaga va hammaga qarshi

g'azablanish. Bunday holat surunkali bo'lib, oylar va yillar davom etishi mumkin. O'z-o'zini tasdiqlashga bo'lgan kuchli ehtiyoj bu bolalarning manfaatlarini faqat o'zlariga yo'naltirishga olib keladi.

Xavotirning ikkita asosiy turi mavjud bo'lib, ulardan birinchisi-vaziyatli xavotir. Ya'ni ob'ektiv ravishda xavotirli vaziyatni yuzaga keltiradigan ma'lum bir vaziyatdan kelib chiqadi. Ushbu holat har qanday odamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va hayotiy asoratlar arafasida paydo bo'lishi mumkin. Bu holat nafaqat normal holat, balki uning ijobiy rolini ham o'ynaydi. Bu odamga yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga jiddiy yondashishga imkon beradigan mobilizatsiya mexanizmi vazifasini bajaradi. Vaziyat xavotirining pasayishi g'ayritabiiy bo'lib, unda odam jiddiy holatlarga duch kelganda beparvolik va mas'uliyatsizlikni namoyon qiladi, bu ko'pincha o'z-o'zini anglashning yetarli darajada shakllantirilmaganligini ko'rsatadi.

Yana bir tur – bu shaxsiy xavotir. Bu turli xil hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan ob'ektiv ravishda bunga ega bo'lmagan tashvish tajribalariga doimiy moyillikda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyat sifatida qaralishi mumkin. Bu hisob-kitobsiz qo'rquv holati, tahdidning noaniq hissi, har qanday hodisani noqulay va xavfli deb qabul qilishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Bunday holatga duchor bo'lgan bola doimo hushyor va tushkun kayfiyatda bo'ladi, u tashqi dunyo bilan aloqa qilishda qiynaladi, bu esa uni normal hayot kechirishiga to'sqinlik qiladi. Xarakterni shakllantirish jarayonida o'zini past baholash va g'amgin pessimizm shakllanishiga o'tish holatlari kuzatiladi. Shaxsiy xavotirning kelib chiqishi psixologik o'zini o'zi boshqarish mexanizmining buzilishida namoyon bo'ladi. [100]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq vaziyatli xavotir ustunlik qiladi. Chunki bolalar aynan hozir sodir bo'layotgan vaziyatlardan kelib chiqib xavotirga tushadilar. Ular kattalarga o'xshab fikrlamaydilar. Masalan, endi bog'chaga qadam qo'ymoqchi bo'lgan bolaning xavotirini oladigan bo'lsak, u ko'proq atrofdagi tengdoshlari bilan aloqaga kirishishda qiyinchiliklarga uchrashi, yangi joyga moslasholmasligi, ota-onasidan ko'p vaqt ajralgan holatda bo'lishi uni xavotiriga sabab bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori xavotirli holatlarni:

- onadan ajralish, ota-onadan ajralish, odatiy muhitning keskin o'zgarishi kabi vaziyatlarni qo'zg'alishi;

[100] G. Sh. Gabdreyeva, Psixologiyada xavotir muammosining asosiy jihatlari, "Tonus" 2000 yil, № 5.

-oila va bola-ota-ona munosabatlarining buzilishi, shuningdek, ijtimoiy aloqalarning noqulay oqibatlari va atrof-muhit ta'siri;

- bola rivojlanishining individual xususiyatlari;

-bolalar bog'chasiga kirish va boshqalar maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori tashvish shakllanishining asosiy omillari bo'lishi mumkin. [101]

Yana bir holat - bu mas'uliyatni bolani yoshiga va ko'tara olish darajasidan koproq yuklash holatidir. Qachonki bolada bu mas'uliyatni oqlamaslik qo'rquvi va xavotiri kelib chiqsa bola bundan bezovtalanadi va xavotirga tusha boshlaydi.

umid, kattalarning umidlari va u tomonidan rad etilishi

Tuyg'ular bolalar hayotida muhim rol o'ynaydi: ular haqiqatni idrok etishga va unga munosabat bildirishga yordam beradi. Xulq-atvorda namoyon bo'lib, ular kattalarga bolaga yoqadigan, g'azablantiradigan yoki xafa qiladigan narsalar to'g'risida xabar berishadi. Bu, ayniqsa, og'zaki muloqot mavjud bo'lmagan chaqaloqlik davriga to'g'ri keladi. Bola o'sib ulg'aygan sayin, uning hissiy dunyosi yanada boy va xilma-xil bo'ladi. Asosiy (qo'rquv, quvonch va boshqalar) dan u yanada murakkab his-tuyg'ularga o'tadi: u quvonadi va g'azablanadi, hayajonlanadi va hayratlanadi, hasad qiladi va xafa bo'ladi. Tuyg'ularning tashqi ko'rinishi ham o'zgaradi. Bu endi qo'rquvdan ham, ochlikdan ham yig'laydigan chaqaloq emas, balki his-tuyg'ularini hatti-harakatlari bilan namoyon qila oladigan bola obraziga aylanadi.

Natija

Maktabgacha yoshda bola his - tuyg'ular tilini o'rganadi. Jamiyatda qabul qilingan qarashlar, tabassumlar, imo-ishoralar, pozalar, harakatlar, ovoz intonatsiyalari va boshqalar yordamida tajribalarning eng nozik soyalarini ifodalash shakllari bilan tanishadi. Besh yoshli bola, ikki yoshli boladan farqli o'laroq, endi qo'rquv yoki ko'z yoshlarini ko'rsatmasligi mumkin. U nafaqat his-tuyg'ularining ifodasini boshqarishni, ularni madaniy qabul qilingan shaklda kiyintirishni, balki ongli ravishda ulardan foydalanishni, atrofdagilarga o'z tajribalari haqida ma'lumot berishni, ularga ta'sir qilishni o'rganadi.

Ammo maktabgacha yoshdagi bolalar hali ham impulsiv bo'lishadi. Ular boshdan kechirayotgan his-tuyg'ular yuzda, pozada, imo-ishorada, barcha xatti-harakatlarda osongina o'qiladi. Amaliy psixolog uchun

[101] В. В. Кобыльченко, Становление личности дошкольника в норме и при нарушениях зрения, Saarbrücken 2015.

bolaning xulq - atvori, his-tuyg'ularini ifoda etish kichik odamning ichki dunyosini tushunishda muhim ko'rsatkich bo'lib, uning ruhiy holati, farovonligi va rivojlanishning mumkin bo'lgan istiqbollarini ko'rsatadi. Bola xavotirining salbiy kelib chiqishi tushkunlik, yomon kayfiyat, chalkashlik bilan tavsiflanadi. Bola deyarli tabassum qilmaydi yoki buni ishtiyoq bilan qiladi, boshi va yelkalari pastga tushadi, yuz ifodasi qayg'uli yoki befarq. Bunday hollarda aloqa va aloqa o'rnatishda muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bola tez-tez yig'laydi, osonlikcha xafa bo'ladi, ba'zida hech qanday sababsiz yig'lashi ham mumkin. U ko'p vaqtini yolg'iz o'tkazadi, hech narsaga qiziqmaydi. Tekshiruv paytida bunday bola tushkunlikka tushadi, tashabbus ko'rsatmaydi, aloqa qilishda qiynaladi.

Ma'lumki, xavotir paydo bo'lishining zaruriy sharti yuqori sezuvchanlik (sezgirlik)dir. Biroq, sezgirligi yuqori bo'lgan har bir bola xavotirga tushadi degan fikr ham to'g'ri emas. Ko'p narsa ota-onalarning bola bilan muloqot qilish usullariga bog'liq. Ular ba'zida bolalarining xavotirini kuchayishiga hissa qo'shishi mumkin. Masalan, giperprotektsiya (haddan tashqari g'amxo'rlik, kichik nazorat, ko'plab cheklovlar va taqiqlar, doimiy tortishish) kabi tarbiyalayotgan ota-onalar tomonidan xavotirli bolani tarbiyalash ehtimoli juda katta.

Bunday holda, kattalarning bola bilan aloqasi avtoritar xarakterga ega, bola o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi, u doimo salbiy baholashdan qo'rqadi, u noto'g'ri ish qilayotganidan xavotirlana boshlaydi. Giperopekka o'xshash tarbiya simbiyotik bilan birlashtirilishi mumkin, ya'ni, bolaning ota-onalardan biri, odatda onasi bilan juda yaqin munosabatlari. Bunday holda, kattalarning bola bilan aloqasi ham avtoritar, ham demokratik bo'lishi mumkin (kattalar bolaga o'z talablarini aytmaydi, balki u bilan maslahatlashadi, uning fikri bilan qiziqadi). Muayyan xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan ota - onalar bola bilan tashvishli, shubhali, o'ziga ishonchsiz munosabatlarni o'rnatishga moyil bo'ladilar. Bola bilan yaqin hissiy aloqani o'rnatgan holda, bunday xavotirli munosabatlarni ota-ona o'z qo'rquvi bilan o'g'li yoki qizini yuqtirish xavfi ham yuqori bo'ladi. Bu esa bolada hali paydo bo'lmagan xavotirni shakllantirishga yoki mavjud havotirni kuchayishiga yordam beradi.

Agar bolada xavotir kuchaysa, qo'rquv paydo bo'lsa - tashvishlanishning ajralmas sherigi bo'lsa, unda nevrotik xususiyatlar rivojlanishi mumkin. O'ziga ishonchsizlik, xarakter xususiyati sifatida, o'ziga, kuchiga va qobiliyatiga o'zini o'zi yo'q qiladigan munosabatdir. Xarakter xususiyati sifatida kop xavotirga tushish hayotga pessimistik munosabat bo'lib, u tahdid va xavf-xatarlarga to'la bo'lib tuyuladi.

Ishonchsizlik tashvish va qat'iyatsizlikni keltirib chiqaradi va ular o'z navbatida tegishli xarakterni shakllantiradi. Shuningdek, psixologik himoya reaksiyasi aloqani rad etish va "tahdid" soladigan odamlardan qochish bilan ifodalanadi. Bunday bola o'zini yolg'iz sezadi, o'z qobig'iga oralib, tashqi olamga yopiq munosabatda bo'ladi, faolligini namoyon etmaydi. Bundan tashqari, bola "xayolot dunyosiga kirish" psixologik himoyasini shakllantirishi mumkin. Fantaziyalarda bola o'zining hal qilib bo'lmaydigan to'qnashuvlarini hal qiladi, tushida u o'ziga xos bo'lmagan ehtiyojlarini qondiradi.

Xavotirga tushgan kattalarga xos bo'lgan hamma narsani tashvishli bolalar bilan bog'lash mumkin. Odatda bu juda ishonchsiz bolalar, o'zlarini beqaror baholaydilar, ular kamdan-kam hollarda tashabbus ko'rsatadilar. Itoatkor bo'lib, ular boshqalarning e'tiborini jalb qilmaslikni afzal ko'rishadi, o'zlarini uyda ham, bolalar bog'chasida ham tutishadi, ota - onalar va o'qituvchilarning talablarini aniq bajarishga harakat qilishadi-ular intizomni buzmaydilar, o'yinchoqlarni olib tashlashadi. Bunday bolalar kamtar, uyatchan deb ataladi. Ularning qo'polligi, aniqligi, intizomi himoya xarakteriga ega - bola muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun hamma narsani qiladi.

Xavotirga tushgan bolalar ko'pincha o'zlarini past baholashlari bilan ajralib turadi, shuning uchun ular boshqalarning muammolarini kutishadi. Bu ota-onalari ularga haddan tashqari vazifalar qo'yadigan, bolalar bajara olmasligini talab qiladigan va muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, qoida tariqasida, ular jazolanadigan, kamsitiladigan bolalarga xosdir.

Xavotirga tushgan bolalar o'zlarining muvaffaqiyatsizliklariga juda sezgir, ularga keskin munosabatda bo'lishadi, ular rasm chizish kabi faoliyatdan voz kechishga moyil bo'lishadi. Chunki ular uchun bu qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday bolalarda siz sinfda va darsdan tashqari xatti-harakatlarda sezilarli farqni sezishingiz mumkin. Darsdan tashqari, ular jonli, ochiqko'ngil va to'g'ridan-to'g'ri bolalardir, sinfda ular siqilib, taranglashadi. Ular o'qituvchining savollariga jim va kar ovoz bilan javob berishadi, ular hatto duduqlanishni boshlashlari mumkin. Ularning nutqi juda tez, shoshilinch yoki sekin, qiyin bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, uzoq muddatli hayajon paydo bo'ladi: bola kiyimlarini qo'llari bilan silkitadi, kiyimlarini tortib o'ynashadi, biror narsani boshqaradi, ko'zlarini olib qochadi. Hattoki, xavotirli bolalar nevrotik tabiatning yomon odatlariga (tirnoqlarini tishlash, barmoqlarini so'rish, sochlarini tortib olish va hk) moyil bo'ladilar. O'z tanasi bilan manipulyatsiya ularning hissiy stressini kamaytiradi, tinchlantiradi.

Rasm chizish xavotirli bolalarni ajratib olishga yordam beradi. Ularning rasmlari lyuklarning ko'pligi, kuchli bosim, shuningdek tasvirlarning kichik o'lchamlari bilan ajralib turadi. Ko'pincha bunday bolalar tafsilotlarga, ayniqsa kichik narsalarga "yopishib qolishadi". Shuning bilan birga, ular to'q ranglardan, ayniqsa, qora rangdan ko'p foydalanishadi.

Xavotirga tushgan bolalarda jiddiy, o'zini tutib turadigan yuz ifodasi, ko'zlari tushirilgan, stulda ehtiyotkorlik bilan o'tiradi, keraksiz harakatlar qilmaslikka harakat qiladi, shovqin qilmaydi, boshqalarning e'tiborini jalb qilmaslikni afzal ko'radi. Bunday bolalar kamtar, uyatchan deb ataladi. Ammo uyatchanlik emas, balki o'z o'ziga ishonchning pastligidan dalolatdir. Bunday bolalar nafaqat psixologik rivojlanishdan, balki jismonan rivojlanishda ham bir qator muammolarga duch keladilar. Asab tizimida qo'zg'alish jarayonlarining ustunligi natijasida tashvish va qo'rquvni namoyon etadigan bolalarning mushaklari haddan tashqari taranglashadi (qisqaradi). Ko'pincha mushaklarning, ayniqsa orqa, qo'llar, buzoq mintaqasining giperaktivligi kuzatiladi. Yoshi bilan bu giperaktivlik gipertonik holatga aylanishi mumkin. Mushaklardagi kuchlanish, neytral vaziyatda ham, xavfni o'tkazib yubormaslik uchun mushak tizimining "qo'riqlashi" natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun bunday bolalarning mushak tizimi bilan to'g'ri ishlash talab etiladi. Agressiv yo'nalishni boshdan kechirayotgan bolalar bilan ishlashda bo'lgani kabi, mushaklarni ularning neyrologiyasi darajasida qayta tayyorlash kerak, ya'ni, ularning reaksiyalarini "reabilitatsiya qilish" zarur.

Xavotirga tushgan bolaning ko'zlari keng ochiladi, jag'lari va qo'llari qisiladi. Ko'z mushaklarining ishi uyg'unlashmaydi. Bu fokal ko'rishning zaiflashishiga, diqqatni jamlashning qiyinligiga, ko'p narsalarni anglashga qiynalishlariga sabab bo'ladi. Bolalarda qo'rquv paytlarida qonga ko'p miqdorda adrenalin chiqarilishi tufayli beixtiyor motor faolligi va og'riq sezuvchanligi chegarasi oshadi. Bu holat, shuningdek, kinestetik darajada "qaror qabul qilishdan" oldin hissiy yoki vosita zarbasi bilan birlashtirilishi mumkin. Shuning uchun ham ular qaror qabul qilishda juda qiynalishadi. Xavotirga "moyilligi" bo'lgan bolalar oyoqlarida beqaror, harakatlar jarayonida muvofiqlashtirilmagan bo'ladi. Ular asab tizimidagi qo'zg'alish jarayonlarining haddan tashqari ustunligi tufayli harakatlarda kelishmovchilik va xatoli harakatlarning ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Bunday bolalarning xatti-harakatlari tashvish va xavotirning tez-tez namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi, ulardoimiy taranglikda yashaydilar, har doim tahdidni his qiladilar, har qanday vaqtda muvaffaqiyatsizlikka duch kelishlari mumkinligi haqida o'ylaydilar.

Xulosa

Shunday qilib, katta maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda tashvish hali ham barqaror xususiyat emas va tegishli psixologik va pedagogik tadbirlarni o'tkazishda nisbatan teskari bo'ladi, shuningdek, agar uni tarbiyalayotgan o'qituvchilar va ota-onalar kerakli tavsiyalarga amal qilsalar, bolaning tashvishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Xavotirning kuchayib ketmasligini oldini oldishning eng samarali usuli ota-ona va tarbiyachi pedagoglarning birgalikdagi hamkorligidir. Agar har ikkala tomon bola o'zini erkin va tashvishsiz his qilishiga kerakli shart-sharoitlarni yaratib bera olishsa, o'zini xavfsiz his qilishiga ishontira olishsa bolaga katta yordam bergan bo'lishadi.

Agar quyidagi tavsiyalarga amal qilinsa, xavotirga tushgan bolaning hayotini yaxshilash mumkin:

- bolaning o'ziga bo'lgan hurmatini oshirish, uning qobiliyatiga ishonch hosil qilish;

- bolani mushaklarning kuchlanishini yengillashtirishga, dam olishga, o'zi uchun qulay muhit yaratishga o'rgatish;

- eng tashvishli vaziyatlarda o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish.

Buning uchun o'qituvchilar o'z ishlarida o'yinlardan, mashqlardan va turli terapiyalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, o'yin terapiyasi-kuchlanish, mushak qisqichlari, tashvish, qo'rquvni kamaytirish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish uchun ishlatiladi.

Tana terapiyasi-mushaklarning qisilishi, kuchlanish, xavotirni kamaytirishga yordam beradi.

Art-terapiya-qo'rquvni aktuallashtirish, ishonchni oshirish, nozik vosita mahoratini rivojlantirish, xavotirni kamaytirishga yordam beradi.

Dam olish-tanani va psixikani faoliyatga tayyorlash, uning ichki dunyosiga e'tibor qaratish, haddan tashqari asabiy taranglikdan xalos bo'lishga yordam beradi.

Konsentratsiya-vizual, tovush va tana sezgilariga, his-tuyg'ularga va tajribalarga e'tibor qaratishga ko'maklashadi.

Funktsional musiqa-tinchlantiruvchi va tiklovchi musiqa hissiy taranglikni kamaytirishga yordam beradi, diqqatni o'zgartiradi.

Xavotirlik har qanday jiddiy hissiy buzilish, jismoniy yoki ruhiy kasallik bilan birga bo'lishi mumkin. Agar bunday sababdan shubhalanishga asos bo'lsa, mutaxassisga murojaat qilish yaxshiroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

браменкова В. В. Социализация психологии детства : ребенок среди взрослых и сверстников в онто-социогенезе / Мир психологии. - - №6. -115 с.

брамова Г. С. Возрастная психология: Учебник для студентов вузов. - М. : Академический Проект, 2001.

аркан А. И. Практическая психология для родителей, или Как научиться понимать своего ребенка. – М. , АСТ-ПРЕСС, 2009

4. G. Sh. Gabdreyeva, Psixologiyada xavotir muammosining asosiy jihatlari, "Tonus" 2000 yil, № 5.

5. В. В. Кобыльченко, Становление личности дошкольника в норме и при нарушениях зрения, Saarbrücken 2015.

еятельность и взаимоотношения дошкольников/ под ред. Т. А. Репиной. – М. : Педагогика, 2007. – 150 с.

T
T
Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda xatti-harakatlarni psixologik va 2022 may. 60-64 b.
абдреева Г. Ш. , Основные аспекты проблемы тревожности в психологии, «Тонус» 2000, № 5.

медадзе Н. В. Тревожность как фактор учения в дошкольном возрасте / Психологические исследования, Тбилиси, Изд-во Мецнисреба, 1966. - с. 45-57.

ученко Т. О детской тревожности. // Воспитание школьников. 2002. - №5.

рихожан А. И. Тревожность у детей и подростков : психология природы и возрастная динамика. – М. :МПСИ, 2010. – 226 с.

авина Е. , Шанина Н. , Тревожные дети, «Дошкольное воспитание»

YOSHLARNI OTA-ONALIK MAS'ULIYATIGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Phd Bilolova Zamira Baxtiyarovna

Annotatsiya

Jahonda otalik yoki onalik maqomiga ega bo‘lishning noan'anaviy ko‘rinishlarining ko‘rayishi, oila-nikoh munosabatlarining transformatsiyasi, yoshlarning quradigan oilalarida tarbiyaviy funksiya rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizlik xolatlarining jamiyatga salbiy ta'sir etishi sababli oilani mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Ushbu maqolada yoshlarda ota-onalik ma'suliyatini oshirish, ularni ota-onalikka tayyorlash bo‘yicha G‘arb va Sharq olimlarining ilmiy qarashlari berilgan. O‘zbekiston yoshlarini mustahkam oilaviy munosabatlarga va ota-onalikka tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq qilish maqsadida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazilganligi, so‘rovnomada O‘zbekistondagi barcha viloyatlar bo‘yicha 1400 nafarga yaqin 16 yoshdan oshgan qizlar va 18-24 yoshdagi yigitlar qatnashganligi haqidagi ma’lumotlar va ularning natijalari bayon etilgan. O‘zbek oilalarida ota-onalarning ota-onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabatlari xususiyatlarini o‘rganish va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash orqali turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashda etibor berish kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilab olish maqsadida nemis olimi ye. Shefer tomonidan taklif etilgan “Ota-onalik ustanovka va munosabatlarini aniqlash” (PARY) metodikasining modifikatsiyalangan variyantidan foydalanilgan va natijalari berilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda yoshlarni ota-onalik mas’uliyatiga tayyorlashga oid muallif xulosalari va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ota-onalik mas’uliyati, ota-onalikka tayorlash, oilaning tarbiyaviy funksiyasi.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR PARENTAL RESPONSIBILITY

Annotation

Particular attention is paid to issues of strengthening the family due to the negative impact on the society of the non-traditional manifestations of having the status of fatherhood or motherhood, the transformation of family-marriage relations, neglect of the official requirements of the educational function in the families of young people. attention is becoming more relevant. This article presents the scientific views of Western and Eastern scientists on increasing parental responsibility among young people and preparing them for parenthood. A socio-psychological survey was conducted for the purpose of scientific research on the socio-psychological aspects of preparation of young people of Uzbekistan for strong family relations and parenthood. - The information about the participation of 24-year-old young men and their results is presented. In order to determine the directions that should be paid attention to when preparing young men and women of marriageable age for parenthood by studying the features of the institution and relationship of parents to the role of parents in Uzbek families and determining their unique aspects. scientist A modified version of the method "Parental establishment and determination of relations" (PARY) proposed by Shefer was used and the results were given. Also, the author's conclusions and recommendations on preparing young people for parental responsibility in Uzbekistan are given in the article.

Keywords: parental responsibility, preparation for parenthood, educational function of the family.

Jahonda otalik yoki onalik maqomiga ega bo‘lishning noan'anaviy ko‘rinishlarining ko‘payishi, oila-nikoh munosabatlarining transformatsiyasi, yoshlarning quradigan oilalarida tarbiyaviy funksiya rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizlik xolatlarining jamiyatga salbiy ta'sir etishi sababli oilani mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. «. . . Bunday tendensiyalar, jumladan, oilani ijtimoiy institut sifatida qayta qurish bilan bog‘liq bo‘lib, bu shaxsning rivojlanishi uchun yangi ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqaradi. . . » [1] Bu borada ota-ona ma'suliyati va farzandlar tarbiyasi masalalarining o‘zaro aloqalarini saqlab qolish, oila muhitida kelajak avlod shakllanishini inobatga olish, turmush qurmagan yigit-qizlarda oila muqaddasligi va oila munosabatlariga mas'uliyat bilan yondashish psixologiyasini

shakllantirishda ularning nikohgacha ijtimoiy tasavvurlarini prognozlash masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Bo‘lajak onalarimiz - hozirgi kunimizning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning “Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go‘zal axloqqa o‘rgating”, - degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyali hamda aqlli bo‘lsa, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo‘lsa, oiladaga muhit ham sog‘lom bo‘ladi, farzandlar yetuk inson bo‘lib tarbiyalanadilar. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga va onalikka ma'naviy-psixologik tayyorgarlik holati, psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir. [2] Shuningdek, o‘zbek oilasining etnopsixologik xususiyati oilada otaninig yetakchiligini belgilaydi. Oilada o‘g‘il bola tarbiyasida otaning o‘rni ustuvordir. O‘g‘il bolada erkaklik (maskulinlik), yigitlikka xos jihatlar ota timsoli orqali shakllanib boradi. O‘g‘il otadan munosabat ko‘rinishlarini, yurish-turishni, muomalani, o‘zini tutishni o‘rganadi. Bola xarakterida u yoki bu salbiy illatlar shakllanishida ham ota-onaning o‘zaro munosabatlari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga nisbatan munosabatlari, yurish-turishi, ma'naviyati, axloqi, uy-ro‘zg‘or tutumidagi pala-partishligi albatta o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Ota-onaning bir-biriga nisbatan munosabatini ko‘rgan, undan namuna olgan o‘g‘il bola kelgusida oila qurganda o‘z turmush o‘rtog‘i bilan shunday yashashga tayyor bo‘lib boradi. [2] Oilani mustahkamlashda yigitlar ongida oila munosabatlariga adekvat munosabatni shakllantirish borasida muammolarimiz bisyor. Yil sayin oila ajrimlari soni ortib borayotganligi, har bir yetim qolayotgan farzand, yolg‘iz ona tarbiyalayotgan bolalarning ijtimoiy himoyasi, ayniqsa, yigitlar o‘rtasidagi jinoyachilik kabi muammolar yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muayyan kamchiliklar borligini ko‘rsatib turibdi. Afsuski, bugungi kunda erkaklarning oila, umuman, jamiyatdagi roliga nisbatan munosabat asta-sekinlik bilan o‘zgardi. Yosh oilalar o‘rtasida ajrashishlardagi mavjud tendensiyaning o‘sishi o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda muammolar paydo bo‘lganini ko‘rsatdi. Oilalar, avvalo, erkak kishining o‘z oilasi, rafiqasi va farzandlari oldida mas'uliyatni his qilmasligi oqibatida barbod bo‘lmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, ajrashishdan so‘ng 86 foiz bola o‘z onasi qaramog‘ida qoladi. Otasiz o‘sgan bolalar, odatda, agressiv bo‘ladi (tajovuzkor), doim o‘zini kamsitilgandek his qiladi. Natijada o‘smirlar orasida jinoyatchilik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy ijtimoiy xodisalar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. [3]

20-yillarning oxirlariga kelib chet ellarda bola shaxsining shakllanishi, unda biologik va ijtimoiy omillarning nisbati borasidagi tortishuvlarning

avj olishi munosabati bilan, ya'ni «tabiat» (irsiyat, tug‘ma layoqatlar va boshqa individ dunyoga kelishida unda bo‘ladigan jamiki narsalar) va «tarbiya» (odam tug‘ilganidan so‘ng u tashqaridan oladigan barcha ta'sirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi) o‘rtasidagi nisbatlar masalalariga oid materiallarning o‘zaro munosabatlari borasida Z. Freyd ta'limotlari asosida yangicha yondashuvlar yuzaga kela bordi. Z. Freyd jamiyatda sodir bo‘layotgan jinoyatlarning aksariyati bolaligida ota-onasi bilan o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lmagan, nosog‘lom psixologik muhit hukm surgan oilalarda tarbiyalangan, ota-ona mehriga qonmay o‘sgan shaxslar tomonidan sodir etilishini asoslab berdi. Bu bilan u ota-ona va farzandlarning o‘zaro munosabatlarini maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinishi nafaqat shaxsning shakllanishida, balki jamiyat taraqqiyoti, odamlarning dahlsizligining taminlanishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [4]. Freyd ta'limotining davomchilaridan biri neofreydist E. Fromm ota-ona va bola munosabatlarining ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan turli tirlarini tadqiq etib, bu munosabatlar rivojlanishining madaniy-ijtimoiy qonuniyatlarini, bolaning ijtimoiylashuvi mexanizmlarini asoslab berdi. [5] Ota-ona va bolaning o‘zaro munosabati muammolariga neofreydistik yondashuvning ijobiy jihati shundan iboratki, unda bola tarbiyasi, avlodlararo munosabatlar masalalariga u yoki bu xalq madaniyati nuqtai nazaridan, differensial yondashish masalasi ilgari surildi va etnologik tadqiqotlar natijalari ilk bor yangi psixologik metodlar: proektiv testlar, turmush tarixini o‘rganish, tushlar va fantaziyani mazmuniy-psixologik talqin etish kabilar bilan boyitildi.

O‘zbek oilalarining jamiyat oldidagi asosiy vazifalaridan biri bu - farzandni tarbiyalashdir. Ushbu vazifani bajarish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. G‘. B. Shoumarovning ishlarida oila, uning turi, oilaviy munosabatalarda er va xotin, qaynona va kelin, ota ona va farzandlar orasida yuzaga keladigan muammolar yuzasidan o‘rganish olib borilganligi kuzatiladi. Uning oila psixologiyasida ahamiyatga molik ishlaridan yana biri nikoh oldi va yosh oilani shakllanishida nomutanosiblikni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Olimning ta'kidlashicha, ziddiyatlarning asosiy sababi, ularning ota-ona oilasida qabul qilingan noto‘g‘ri er-xotin rolli xatti-harakatlari hisoblanadi. [6]

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston yoshlarini mustahkam oilaviy munosabatlarga va ota-onalikka tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq qilish maqsadida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada O‘zbekistondagi barcha viloyatlar bo‘yicha 1400 nafarga yaqin 16 yoshdan oshgan qizlar va 18-24

yoshdagi yigitlar qatnashdi. So‘rovnomada qatnashgan qizlarga “Siz o‘zingizni oila qurgandan so‘ng onalik mas'uliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?”-degan savol bilan murojaat etildi. 88 % qizlar onalik mas'uliyati katta ekanligini anglagan holda, bunga tayyor bo‘lish uchun bilimlari va tasavvurlari kamlik qilyotganligini, o‘zlarida onalik mas'uliyatiga nisbatan to‘liq ishonch bo‘lishi uchun yanada ko‘r izlanishlari va aniq bilimlarni olishga nisbatan yuqori istaklari borligini ko‘rsatadi. Bu esa birinchidan, qizlarning tasavvurlarida reproduktiv salomatlik; homiladorlik va tug‘ruq; onalik mas'uliyati; komil insonni tarbiyalashda oilaning va onaning o‘rni; farzand tarbiyalashda yosh xususiyatlarini inobatga olish; onalikka tayyorlashda ma'naviy-psixologik bilimlarini shakllantirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimgini, ikkinchidan, erta tug‘ruqni oldini olish zarurati o‘z isbotini toradi. 44 foiz sinaluvchi-yigitlar tasavvurlarida oilaning tarbiyalash vazifasiga faqatgina ayollarni mas'ul deb biladilar. Bu esa, yigitlarda 44% tarbiyada otaning o‘rnini, otalik ma'suliyatini anglamasligini ko‘rsatadi Lekin, tarbiyada er-xotin birgalikda mas'uldir. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra, bola tarbiyasining asosi otaning qattiqqo‘lligi, onaning mehribonligidadir. Bola ota-onaning butun faoliyatidagi harakatlarini ibrat bilib ongiga joylab, ulg‘aygach, ularni hayotiga joriy etadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, oilada ota rolining kuchsizlanishi bu katta ijtimoiy fojiadir. Boisi, bu holatda oilaning barcha ichki va tashqi tizimi, o‘zini idora qila bilish va mukammal intizomga bo‘lgan intilish ham yo‘qoladi. Demak, olingan natijalardan yigitlarimizga oilada otaning mas'uliyati, tarbiyada otaning o‘rni, komil va barkamol avlodni tarbiyalashda erkaklar rolini oshirishga qaratilgan choralarni ko‘rish zarurati ko‘rinadi.

O‘zbek oilalarida ota-onalarning ota-onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabatlari xususiyatlarini o‘rganish va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash orqali turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashda etibor berish kerak bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilab olish maqsadida nemis olimi ye. Shefer tomonidan taklif etilgan “Ota-onalik ustanovka va munosabatlarini aniqlash” (PARY) metodikasidan foydalandik. Quyida shu ma'lumotlardan bizning nazarimizda alohida e'tiborga loyiq jihatlari ustida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Ota-onalarning farzandiga nisbatan munosabatlari ko‘rsatkichlari, ye. Sheferning PARU metodikasi bo‘yicha, n=300

№	Шкалалар	ота	она	t
1.	Bolaga fikrini garirib olishga imkon berish	17. 87	**18. 58**	4. 31**
2.	Bolani qiyinchiliklardan saqlash	17. 89	**18. 84**	2. 43*
3.	Uy bekasi rolidagi ona	16. 32	**17. 38**	3. 63**
4.	Bolanining(iroda) xohish-istagini bosish	17. 34	17. 54	3. 64**
5.	Ota-onalar“o‘zini qurbon qilishi”	17. 32	**18. 68**	3. 88**
6.	Bolaga ziyon yetkazib qo‘yishdan qo‘rqish	17. 81	**18. 8**	3. 41**
7.	Er-xotinlik nizolari	17. 7	18. 5	2. 75**
8.	Ota-onalarning qattiqo‘lligi	17. 98	17. 92	0. 61
9.	Ota-onalarning serjahlligi	16. 21	**17. 8**	4. 18**
10.	Bolalarni ona boshqarishligi	17. 96	**18. 9**	**4.** 27**
11.	Bola ota-onaga tobeligini rag‘batlantirish	**18. 43**	**18. 94**	0. 86
12.	Boladagi tajovuzkorlikni bosish	16. 7	**17. 28**	1. 44
13.	Ota-onaning “jabrlanuvchanligi”	15. 89	**16. 96**	1. 77
14.	Ota-onalar va bolalarning tengligi	**18. 57**	17. 94	5. 25**
15.	Bola faolligini rag‘barlantirish	**18. 24**	**19. 2**	3. 9**
16.	Bola bilan muloqotdan qochish	17. 11	17. 24	0. 52
17.	Erning xotinga e'tiborsizligi	16. 68	**18. 94**	2. 96**
18.	Boladagi shahvoniylikni bosish	17. 23	**18. 54**	4. 44**
19.	Onaning hukmronligi	17. 06	**18. 28**	4. 2**
20.	Ota-onaning bola hayotiga aralashishi	17. 43	**18. 44**	3. 48**
21.	Ota-ona-bola o‘rtasidagi do‘stona munosabat	17. 64	**19. 12**	5. 92**

22.	Bola rivojlanishini tezlashtirish	**17. 47**	16. 68	0. 45
23.	Bolani tarbiyasida boshqalar yordami	17. 91	**19. 26**	5. 62**
	Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkich	**17. 38**	**17. 83**	**2. 25***

Natijalardan ko‘rinadiki, bugungi kun o‘zbek ota-onalarning ota-onalik roliga ustanovkalari va munosabatlari ota-onalarning farzandlarga nisbatan o‘ta g‘amxo‘rligi, ularga ziyon yetkazib qo‘yishdan qo‘rqish, bolalardagi tobelikni rag‘batlantirish, tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchliligi bilan tavsiflanadi; farzandlar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish kabi xususiyatlar bilan birga bola bilan bo‘ladigan muloqotdan qochish holatlari, tarbiyadagi diktat, bola irodasini, xohish-istagini bosish, ularga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan bo‘lish kabi xususiyatlar, otalarning erlik vazifalariga ustanovkalarining pastligi, bola tarbiyasi borasida ko‘proq qayg‘urish onalarda otalarga nisbatan kuchliroq ifodalanganligi bilan izohlanadi. Bunday natijalar kelusida oiladagi o‘zaro munosabatlarga salbiy ta'sir etishi, nizolarni yuzaga kelishiga zamin yaratishi nuqtai nazaridan bo‘lg‘usi ota-onalarni farzand tarbiyasi va psixologiyasiga doir bilimlarini kengaytirishga ahamiyat berish kerakligini ko‘rsatadi.

Turmush qurish yoshidagi yigit-qizlarda ota-onalik ma'suliyatini oshirish, ularni ota-onalikka tayyorlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni **tavsiya** qilishimiz mumkin bo‘ladi:

Yigit-qizlarni ota-onalikka tayyorlashda eng muhim andoza ularning ota-onalari ekanligini inobatga olib, ajrashishlarni oldini olish, noqonuniy va noto‘liq oilalar sonining ko‘rayishiga yo‘l qo‘ymaslik, oilada farzand tarbiyasi va ota-onalik ma'suliyatini anglab yetishlarida oilalar mustahkamligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amaliy qo‘llash zarurdir.

Yigitlarni oilada otaning o‘rni va mas'uliyati, komil va barkamol avlodni tarbiyalashda erkaklar rolini oshirishga qaratilgan choralarni ko‘rishda asosan shaxsiy irodaviy sifatlarni rivojlantirish, rollarning ongli ravishda anglanganligiga etiborni qaratish, sabr-toqat, iroda va mas'uliyatni his etishni tarkib tortirish uchun jismoniy va ta'limiy jarayonning bevosita hamkorligini ta'minlash lozim;

Amaliy psixologlar va oila psixologlari faoliyatida foydalanishlari uchun ota-onalik mas'suliyati mavzusiga bag‘ishlangan zarur ilmiy-metodik qo‘llanmalarni chop etish va targ‘ibotini olib borish maqsadlidir;

O‘zbekiston oilalari yangi modelga o‘tib borayotgan bir vaqtda, oilalar bilan ish olib borishning yangi innovatsion modellarini yanada ko‘paytirish uchun AKT - axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, muammoga bag‘ishlangan axborot saytlari, portal, badiiy va xujjatli kinolar, ijtimoiy roliklar, video darsliklar va mobil ilovalar yaratishga oid loyihalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

онцепция развития психологической службы в системе образования в

– T. : TDRU, 2023. – 152 b

O‘zbekistonda yosh oila. (Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida). Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston Resrublikasi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot

в психоанализ: Лекции. - СПБ. : Питер, 2007. -384 с

reud A. Research at the Hlamsted child theropy clinic and other papers. 1956 – 1965. – London, 1970

Фромм. Искусство любви. Исслед. природы любви Пер. с анг. Л. А. Чернышевой. - Минск: Полифакт;1990. –79с

6. Shoumarov G‘. B. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. G‘. B. Shoumarov tahriri ostida - Toshkent: “Sharq”, 2008. - 296 b.

KASBIY FAOLIYATDA STRESS VA ULARNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARINING NAZARIY TAHLILI

magistrant Mamatkulov G‘afur Dilshodovich

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada psixologik va biologik omillarning birligi psixik holatlarni baholashning obyektivligi tamoyiliga asoslanib, psixik holatlarni o‘rganish ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: funksional va emotsional holatlarni o‘rganish. Psixik holatlarni tasniflashda har xil yondoshuvlar mavjud. Ularga ko‘ra aqliy, emotsional, irodaviy faollik va passivlik, stress, ko‘tarilish, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, to‘yinish, kutish, yolg‘izlik va boshqalarni ajratish mumkin. Umumlashganlik darajasiga ko‘ra holatlar umumiy, turga xos va individual bo‘lishi mumkin. Masalan, holatlarlarning tavsificha ularning subyekt tomonining anglanganlik darajasiga bog‘liq.

So‘nggi paytda odamlar orasida ruhiyatga, ruhiy holatlarga, asab tizimi holatlariga qiziqish ortishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga psixologik maslaxatga kelgan mijozlar: “meni stressga tushibsiz, davolanishingiz kerak, psixologga uchrang, deb shifokorlar jo‘natishdi”, degen fikr bilan kelishmoqda. stress, frustratsiya, monotoniya, distress, sistematik stress, psixik stress, psixik stress, vahima bu holat va so‘zlarning zamirida nima borligi haqida fikr yuritiladi.

Quyida biz sizlarga insonning ruhiy holatlarida uchraydigan va uning faoliyatiga bevosita ta’sir etuvchi psixik hodisalarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Zero inson ularni farqlay olishi hamda ularni boshqara olishi lozim.

Kalit so’zlar: *stress, frustratsiya, monotoniya, distress, sistematik stress, psixik stress, psixik stress, vahima*

THEORETICAL ANALYSIS OF THE CHARACTERISTICS OF STRESS AND THEIR MANAGEMENT IN PROFESSIONAL ACTIVITIES

Annotation

Based on the principle of objectivity of the assessment of psychological and biological factors in the scientific article, the study of psychic States is carried out in two directions: the study of functional and emotional states. There are different approaches to the classification of psychic States. According to them, mental, emotional, volitional activity and passivity, stress, lifting, loss of consciousness, satiety, expectation, loneliness, etc. can be distinguished. According to the degree of generality, cases can be general, type-specific and individual. For example, the description of states depends on the degree of awareness of their subject side.

Recently, there is an increase in interest among people in the psyche, mental states, states of the nervous system. At the same time, clients who came to psychological counseling: "you stress me, you need to be treated, fly to a psychologist, doctors sent, " degen agrees with the idea. stress, frustration, monotony, distress, systemic stress, psychic stress, psychic stress, panic are the conditions and thoughts about what is in the Zamir of words.

Below we want to touch you on the psychic phenomena that occur in a person's mental states and directly affect his activity. After all, a person should be able to distinguish them and control them.

Keywords: stress, frustration, monotony, distress, systemic stress, psychic stress, psychic stress, panic

Kirish

Qariyib bundan 3000 yillar muqaddam, bizning zaminimizda yaratilgan, insoniyatning ilk qo‘lyozma manbalaridan bo‘lmish "Avesto"ning asosiy shiori: "Ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal"-deyilganining o‘ziyoq yoki buyuk allomamiz Abu Rayxon Beruniy ta’kidlaganidek: "Jon osmondan bir holat va kayfiyatda tushadigan yomg‘ir suviga o‘xshaydi. Asl moddasi turlicha bo‘lib, yomg‘irga qo‘yilgan tilla, kumush, shisha, chinni, sopol va sho‘r tuproqdan yasalgan idishlarga yomg‘ir suvi yig‘ilsa, suvning ko‘rinishi, mazasi va hidi o‘zgaradi" [15] kabi fikrlarning o‘ziyoq zaminimizda psixologiyaga tegishli ildizlar qadim-qadimga borib taqalishini asoslaydi.

Biz ularning bebaho fikrlari va tengsiz meroslarini o‘rganish orqali nafaqat hayotda ko‘p narsalarni bilib olishimiz, balki o‘rganilayotgan muammo yuzasidan ham ularning qimmatli fikrlar bildirganligini tahlil qilishimiz va bu ma’lumotlardan o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-ruhiy barkamolligini ta’minlash maqsadida foydalanishimiz mumkin.

Psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, stressga barqarorlik tushunchasi stressogen vaziyatlarda sabrlilik, chidamlilik, shukronalik bilan munosabatda bo‘lishni ifodalaydi. Qadimgi manbalar tahlili esamazkur masalaning tarixdanoq dolzarb bo‘lganligini asoslashga doir ma’lumotlar bilan tanishish imkonini beradi.

Bizga ma’lumki, ota-bobolarimizning hayot tarzida bag‘rikenglik, chidamlilik, sabrlilik, ayniqsa shukronalik tarbiyasi uzoq tarixga ega. Ular farzandlariga yoshligidan boshlab taqdirida sodir bo‘ladigan barcha mushkulotlarga, favqulodda vaziyatlarga, muammolarga, qiyinchiliklarga sabr bilan munosabatda bo‘lish, shukrona keltirish, ularni engib o‘tish, bag‘rikeng bo‘lish kabi sifatlarni tarbiyalashga alohida urg‘u berganlar. Bunday munosabatning zamirida hatto boshqa din va millat vakillariga nisbatan hurmat, o‘zga xalqlarning madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilishdan tortib, toki o‘zining yoki yaqinlarining boshiga biror-bir mushkulot tushganida, qiyinchiliklarga duch kelganida sabr qilishlik hamda bu vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlash, yo‘l topilmaganda esa shukronalik bilan o‘zini qo‘lga olish kabi fazilatlarni singdirganlar. Shu asosda ular sabrlilik va shukronalik tarbiyasini avloddan-avlodga targ‘ib qilganlar.

Antik davr faylasuflaridan Suqrot[96]ning fikrlarida stressga barqarorlikning asosida yotuvchi sabr haqidagi mulohazalar mavjudligini ko‘rish mumkin. Uning quyidagi fikrini o‘zbek xalqining suyukli adiblari ham o‘z asarlarida qayd etishgan: “Ne’mat va davlatingiz bor paytda shukur bajo keltirib, boshingizga qiyinchilik tushganda sabrni o‘zingizga yo‘ldosh qiling. Sabr har bir engillikning ochqichi bo‘lib, ne’matga shukr qilish esa davlat va osoyishtalikning ko‘payishiga sabab bo‘ladi [96]. Bu fikrlarni mavzu doirasida tahlil etilsa, shaxs ma’lum bir faoliyat jarayonidagi muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tganidan so‘ng o‘zida qandaydir “egillikni” his qiladi, bu holat uning o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonchini ham orttiradi va nihoyat bu uning osoyishtaligini ta’minlashga xizmat qiladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, talaba o‘quv faoliyati jarayonida duch kelayotgan muammolarni engib o‘tgani sayin uning o‘ziga ishonchi mustahkamlanib, engil tortadi. O‘ziga ishongan va ruhiyati engil bo‘lgan talaba esa stressli vaziyatlarga nisbatan barqaror munosabatda bo‘la

oladi. Bu esa uning o‘quv faoliyati samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, malakali va raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Tadqiqotimiz predmetiga doir fikrlar buyuk ajdodlarimizdan biri mavlono Jaloliddin Rumiy[130]ning qarashlarida ham katta mahorat bilan yoritib berilgan bo‘lib, u o‘z asarlarida insonga azob etgandagi sabr, taqdir ishlariga shukronalik kabi sifatlar haqida juda qimmatli fikrlarni bildirgan. Xususan, uning “Ko‘ngli xastalarning dardini tinglab, oliy jonning ehtiyojini anglasang, bu bir zakotdir. Dardli odamning taraddud va tutun bilan to‘lgan ko‘ngil uyi bordir. Dardini eshitsang, shu uyga bir dereza ochgan bo‘lasan” degan fikrini aynan dard etib qiynalgan yoki stressogen vaziyatga tushgan kishilarning ko‘nglidagi dardlarni eshitishga va ularga dalda berishga da’vat deb ham tushunish mumkin. Bu esa psixologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixologik xizmatning muhim tamoyili sifatida tahlil etiladi.

Allomaning “Sabrdek tasbeh yo‘qdir. Sabr qilsang asl to‘g‘ri tasbeh shudir. Sabr qil”, “Sabr tanglikning, iztirobning kalitidir” [130], - degan fikrida esa jonga tanglik va iztirob etganda sabr qilish eng yaxshi yo‘l ekanligini ta’kidlanmoqda. Ya’ni, bu fikrlar orqali inson stressli vaziyatlarga tushganida albatta sabr-toqat, chidam kabi xislatlar unga madad berishi anglashiladi.

Jaloliddin Rumiy[131] o‘z qarashlarida sabr haqida juda go‘zal tasbehlarni qo‘llaydiki, ushbu tasbehlarni o‘qigan har bir kishi o‘zida ushbu sifatning mavjud bo‘lishi naqadar muhim ekanligini anglaydi. Jumladan, “Sabr qilsang yomon do‘st yaxshi bo‘ladi. Sabr inson ko‘nglini kengaytiradi. Tunda oyning sabr qilishi uni oydinlashtiradi. Atirgulning tikanga sabr etishi uni muattar bo‘yli qiladi”;“Taqdir Senga bir shapaloq tushurdimi, kut, endi yaxshi libos kiydiradi. Payg‘ambarlar ham musibatlar, dardlarga sabr qilganliklari bois boshlari baland bo‘ldi”, kabi fikrlar taqdirning qiyinchiliklarga sabr qilganlarning albatta yaxshilikka erishuvi, sabrning ketidan albatta mukofoti borligi haqidagi g‘oyalar bilan kishilarni sabrlilikka va g‘am-alamlarga nisbatan og‘ir-bosiq bo‘lishga undaydi. Rumiy hazratlarining “Shoshqaloqlik shaytonning hiylasidir, sabr va tadbir esa Allohning lutfidir”, degan purma’no fikri ham aynan mavzu doirasida tahlil etilishga mosdir. Ya’ni qiyinchiliklar va murakkab hayotiy vaziyatlarda stressga tushganda faqat sabr qilish bilan cheklanmasdan, balki albatta tadbir – muammoning echimiga yo‘nalish ham lozimligini uqtiradi. Bu esa aynan biz mavzu doirasida determinant sifatida ko‘rib chiqayotgan – koping strategiyaning faol usuli bo‘lgan “muammoni hal etish” usuliga mos keladigan fikrdir. Buyuk allomaning “Bu dunyo bir kapalak umri qadardir. Na xafa qilishingga arzir, na-da xafa bo‘lishingga” degan qisqa, lekin purma’no fikri ham mavzu doirasida

tahlil etilsa, hozirgi zamon kishisi uchun juda katta hikmat kaliti sifatida xizmat qilishi mumkin. Darhaqiqat, inson o‘z umrining o‘tkinchi ekanligini anglasa, u o‘z hayotida sodir bo‘layotgan qiyinchilik va muammolarga o‘z hayoti va salomatligi bilan to‘lov to‘lash darajasida jiddiy qaramaydi. Hayotdagi arzimas muammolar uchun kimnidir xafa ham qilmaydi va kimdandir xafa ham bo‘lmaydi.

Buyuk turonni olamga mashhur qilgan buyuklardan biri, kubroviya ta’limotining asoschisi Najmiddin Kubro asarlaridagi asosiy g‘oya ham komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’na, nifoq, riyo, fosiqlik kabi yomon xulq-atvordan xalos bo‘lib, faqat yaxshi ishlar qilishga, ruhiy poklikka chorlashdan iboratdir [73], [81].

Buyuk tariqat peshvosi sabr haqida yoshlarga ibrat bo‘larli darajadagi qimmatli fikrlarni targ‘ib qilgan, uning fikriga ko‘ra, “Sabr – insonning chidami, bardoshi, toqati, qanoatdagi ustuvorligi, insonning boshiga tushgan har bir qiyinchilikka chidashi”, deb ta’riflangan. “Sabr tufayli inson moddiy va ma’naviy yaxshiliklarga erishish yo‘lida yo‘liqadigan jismoniy va ruhiy mashaqqat va alamlarga chidashga o‘rganadi”. Shuningdek, alloma o‘z asarlarida qanoat haqida ham fikr yuritganligi ma’lum. “Odatda oziga va boriga ko‘ngan, bori bilan kifoyalangan, nafsini tiygan, chidamli, sabrli, o‘sha holatda ham mamnuniyat va qoniqish bilan rozi bo‘lgan kishilar qanoatli deyiladi” [73]. Ushbu fikrlar orqali alloma kishilarni sabr-toqatli bo‘lish, maqsad yo‘lidagi to‘siqlarga yo‘liqqanda chidamli bo‘lish kabi xislatlarga ega bo‘lishga targ‘ib qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kalom va hadis ilmining yetuk bilimdoni bo‘lgan Najmiddin Kubro o‘z asarlari orqali insonlarga sabr va qanoatdan saboq bergan.

Shuningdek, kubroviya tariqati asoslarida ham ayni tushuncha haqida etarlicha tavsiflar keltirilgan bo‘lib, jumladan, tariqat ahlining ruhiy-ma’naviy kamoloti bosqichlaridan biri sifatida sabr haqida quyidagicha fikr keltiriladi: “Sabr - toqat, chidam. So‘fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) o‘zini balo girdobiga solib, balolardan qo‘rqmaydigan odamdir. «Sabr . . . ruhiy-ma’naviy mushkulliklar yuz berganda, sabr qilgan solih kushoyish topadi, yangi manzillarni kashf etadi. Sabr-iymonning yarmi deydilar, chunki so‘fiyning dushmani bo‘lgan nafs sabr orqali jilovlanadi, toatdan halovat topish ham sabr bilan bo‘ladi” [81].

Ushbu fikrlar tahlil etilsa, haqiqatan ham talaba boshiga tushgan “qiyinchiliklardan shikoyat qilmasdan”, hayotida va o‘quv faoliyati jarayonida“ruhiy-ma’naviy mushkulliklar yuz berganda” sabr qilsa u

albatta “yangi manzillarni kashf etadi”, ya’ni muvaffaqiyatlarga erishadi. Shunday qilib, allomaning sabr haqidagi qarashlarining asosiy g‘oyasi - boshga nima kelsa toqat qilishdir.

Qomusiy olimlarimizdan Abu Ali Ibn Sino[11], [12] asarlarida kishilarni kamolot sari undaydi va bu yo‘lda asosiy maqsad ilm-ma’rifatga ergashish ekanligini ta’kidlaydi, shu maqsadga erishish yo‘lida inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi kerakligini targ‘ib qiladi. Uning fikricha, odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Mushkulotlardan va uning echimidan bosh tortgan kishi esa odamlarning eng qo‘rqog‘i hisoblanadi [11]. Alloma yuksak axloqiyxislatga yana kishilarning bir-biriga do‘st bo‘lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda odamlar bilan yashar ekan, ular bilan do‘stona yashashga intiladi. Demak, alloma kishilarni o‘zaro munosabatlarda frustratsion tolerant bo‘lishga undaydi. Ibn Sino insonning kamolotga yetishida to‘sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko‘rsatib o‘tadi. Johillikni - ilmga, nodonlikni - zehn o‘tkirligiga, shafqatsizlik va takabburlikni - adolatga, nafratni - sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta’riflaydi [11]. Allomaning ushbu fikrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, aytish mumkinki, insondagi yomon xususiyatlar uning murakkab (stressogen) vaziyatlarda oqilona yo‘l tutishiga (stressga barqaror munosabatda bo‘lishiga) xalaqit beradi. Ibn Sinoning stressogen vaziyat yoki voqea-hodisalarga barqaror munosabat bildirishga chorlovchi va bugungi kunda barcha uchun birdek muhim bo‘lgan: “Xotirjamlik – yarim sog‘likdir, Sabr esa shifoning boshidir” [12] degan fikri esa nafaqat bugungi kun, balki har bir davr uchun dolzarbdir.

Shuningdek, Ibn Sino[12]ning asarlarida aynan ruhiy zo‘riqish, xavotirlanish va ularning salbiy oqibatlari haqidagi fikrlari ham mavjuddir. Quyidagi fikrlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: “Melanxoliya – gumonlar va fikrlarni tabiiy yo‘ldan . . . qo‘rqish va yomonlikka tomon o‘zgarishidan iboratdir. . . Melanxoliya tanglik, (odamlarga) tashlanish va yomonlik bilan birgalashib kelsa, uni maniya deb ataladi. . . . Melanxoliyada miya yurakka hamkor bo‘ladi, chunki nafsoniy ruh hayotiy ruhga tutash bo‘lib, o‘zi uning moddasidandir. . . Goho (melanxoliya) faqatgina yurakdan bo‘lmagan sovituvchi va qurituvchi sabablardan ham paydo bo‘ladi, biroq (melanxoliya ham) yurakning hamkorligisiz bo‘lmaydi, balki bunda ham sababning asosiy ismi yurakdan bo‘lsa kerak. Shuning uchun bu kasallikda miyani davolash bilan birga yurakni ham davolash kerak. Oshiqcha g‘amginlik yoki qo‘rqish ham melanxoliyani vujudga keltiradigan kuchli sabablardan sanalgan”. Bu fikrlar orqali inson qiyin vaziyatga tushganida uning

ruhiyatida sodir bo‘ladigan holatlarning inson salomatligi uchun qay darajada zararli ekanligiga urg‘u berilgan.

Ta’kidlash joizki, A. Navoiy [19] insonni tavsiflashda bir yoqlama mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan oladi. Ammo inson o‘z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatlari ustun chiqishiga chuqur ishonch izhor etadi. Shu fikrlar tahlilining o‘zi ham talaba stress vaziyatiga tushganida o‘zining ojiz tomonlarini o‘rsatmasdan, “o‘z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa”, unda albatta stressga barqarorlik sifatlari tarkib topishini tasdiqlash uchun etarlidir.

Shoir shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan turli xil vaziyatlarda kishilar o‘zini tutishiga qarab ikki xilda - “halm inson” va “yengiltak insonlar” - bo‘lishini ko‘rsatadi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib beradi. Uning fikricha, halmlik (yumshoqlik) “ahloqli odamning qimmatbaho libosi”ga o‘xshaydi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. Halm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi; halm tufayli kattadan kichikkacha iltifot va marhamatga etishadi. Aksincha ularning teskarisi bo‘lgan “yengiltak insonlar”ni ta’riflashda ham ajoyib o‘xshatishlar qiladiki, bunday odamlar biror muammoga duch kelganida yoki atrofidagi kishilar bilan munosabatda bo‘lganida o‘zlarini go‘yo quyundek tutishlari va “quyundek tuproqni havoga to‘zitishlari” ta’kidlanadi.

Navoiy ushbu fikrlari orqali kishilarning shaxslararo munosabatlar jarayonida bir-birlarining diliga ozor berib, ham o‘ziga, ham boshqalarga jabr etkazishi frustrasion va stress holatlariga olib kelishi mumkinligi, har qanday vaziyatda ham xushsuxan bo‘lish lozimligi, bunday odam o‘z arzini yumshoqlik bilan aytishi va natijada “ko‘ngilga xush tushishi mumkin bo‘lgan g‘am uning so‘zi bilan daf bo‘lishi”ni uqtirib, so‘z orqali “har qanday yaxshilikning imkoni bor”ligini, ya’ni har qanday muammoning, xususan stressga barqaror munosabat bildirishning ham imkoni borligini asoslaydi.

Alisher Navoiy [19]ning qarashlaricha, o‘z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan komil insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi va o‘ta murakkab muammolarni ham hal qila oladi.

Allomaning ushbu fikrlarini tadqiqot ishi yuzasidan tahlil qilsak, talabalarda o‘quv faoliyati davomida turli xil muammolar va qiyinchiliklarning yuzaga kelishi tabiiydir. Ularda ana shu muammo va qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun zarur bo‘lgan psixologik immunitetni oshirish uchun ularning dunyoviy va diniy ilmlardan xabardorligini

kuchaytirish orqali stressga barqarorligini oshirish mumkinligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, A. Navoiy[19] asarlarida sahovat va uni qanday amalga oshirish haqida ham juda teran fikrlar berilgan. Mutafakkir saxovatni "odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi"ga qiyoslaydi. U odamlarni saxovatli – ya'ni "yaxshilik qiluvchi, yaxshilik izlovchi", o'zini boshqalarning "kamchiliklarni ko'rmaslikka soluvchi" bo'lishga da'vat etadi.

Demak, talabalarda stressga barqarorlikni oshirish maqsadida yuqorida sanalgan sifatlarining o'rni kattadir. Shunday ekan, mazkur sifatlarning shakllantirilishi va mavjudlarining rivojlantirilishi talabalarda stressga barqarorlikni oshirish uchun muhim determinantlar sifatida katta rol o'ynaydi. Buning uchun esa o'sha manbalarga ko'proq murojaat qilish, ularning mazmun, mohiyatini psixologik jihatdan yoshlarimizning ongiga singdirish hamda bu sifatlarni o'zlarida tarkib topdirishga undash muhimdir.

Fiziologiyada psixik holatlarni o'rganish bilan bog'liq yana bir magistrlik dissertatsiyasilar P. S. Kupalov nomi bilan bog'liq. Uning fikricha, vaqtinchalik holat tashqi muhit ta'sirida shartsiz refleks mexanizmlari asosida ro'y beradi. V. I. Myasishev psixik holatni shaxs tarkibidagi tuzilmalardan biri sifatida jarayonlar, holatlar va munosabatlar bilan bir qatorga qo'yadi. B. F. Lomov fikricha esa, "Psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar inson organizmidan tashqi holda mavjud bo'lmaydi. Ular inson miyasining vazifasi sifatida biologik taraqqiyot va insoniyat tarixi davomida rivojlanib kelgan. Shuning uchun psixika qonunlarini aniqlash, eng avvalo, inson miyasi, asab tizimi va butun organizmning ish faoliyatini o'rganishdan iborat bo'lishi kerak".

Psixologik va biologik omillarning birligi psixik holatlarni baholashning obyektivligi tamoyiliga asoslanib, psixik holatlarni o'rganish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: funksional va emotsional holatlarni o'rganish. Psixik holatlarni tasniflashda har xil yondoshuvlar mavjud. Ularga ko'ra aqliy, emotsional, irodaviy faollik va passivlik, stress, ko'tarilish, o'zini yo'qotib qo'yish, to'yinish, kutish, yolg'izlik va boshqalarni ajratish mumkin. Umumlashganlik darajasiga ko'ra holatlar umumiy, turga xos va individual bo'lishi mumkin. Masalan, holatlarlarning tavsificha ularning subyekt tomonining anglanganlik darajasiga bog'liq.

P. K. Anoxinning fikricha, mazkur xususiyatlar ichida eng muhimi insonning munosabatlaridir. Holat tarkibida inson ongi va o'z-o'zini anglash darajasini bildiradi. Ong xususiyati sifatidagi munosabat –

borliqqa bo‘lgan munosabatdir. O‘z-o‘zini anglash tavsifi sifatida – o‘zini boshqarish, nazorat qilish, baholashdir.

Holatning tavsifi va parametrlari bilan bir qatorda uning funksiyasi (vazifalari)ni ham ko‘rsatish mumkin. Ular ichida eng muhimi sifatida: a) boshqarish (regulyatsiya); b) alohida psixik holat va xususiyatlarni birlashtirish (integratsiya) vazifasini ko‘rsatish mumkin.

Chirkov diagnostik maqsadlarda psixik holatlarga ta’sir etuvchi beshta omil borligini ko‘rsatadi. Ular: kayfiyat, muvaffaqiyat ehtimolligini baholash, motivatsiya, tetiklik darajasi va ishga munosabat. Bu beshta omilni u uch guruhga birlashtiradi: motivatsion undovchi (kayfiyat va motivatsiya), hissiy baholovchi (muvaffaqiyat ehtimolligini baholash va ishga munosabat), faollashtiruvchi- quvvatlantiruvchi (tetiklik, bardamlik darajasi).

O‘zining dinamik tabiatiga ko‘ra psixik holatlar jarayonlar va xususiyatlar o‘rtasidagi oraliq o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, ba’zi psixik jarayonlar (diqqat) ayrim holda shaxsning holati sifatida ham qaraladi. Xususiyatlar mohiyatini tushuntirishda psixik holat tushunchasidan foydalanish xususida A. O. Proxorov shunday deydi: [3]”Harakter xislatini tushunish uchun, eng avvalo, vaqtinchalik holatlarni tahlil qilish, tushunish kerak bo‘ladi. Shundan keyingina uning harakter tarkibidagi barqarorligi va mustahkamligi haqida fikr yuritish mumkin”. A. S. Puni esa [4]“Psixik holatlar shaxs tavsiflarining nisbatan barqaror va muvozanatlashgan tizimi bo‘lib, uning fonida psixik jarayonlar dinamikasi namoyon bo‘ladi” degan fikrni ilgari suradi. A. G. Kovalyov fikricha esa: [5]”Psixik holatlar ko‘p hollarda mazkur shaxs uchun tipik bo‘lgan xususiyatga aylanadi va shaxsning psixologik xususiyatlarida o‘z aksini topadi”. Psixik holatlar ko‘p hollarda vaziyat yoki faoliyatga javob (reaksiya) sifatida namoyon bo‘ladi, moslashuvchanlik tabiatiga ega bo‘lib, insonning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirini muvofiqlashtirib, o‘zgarayotgan sharoitga moslashishni ta’minlaydi. Chet el psixologlari U. Kennon, G. Sele, I. P. Pavlov, N. S. Chetvernikova, Ye. K. Seppa, G. V. Arxangelskiyva boshqalarning tekshiruvlari nazariy va tabiiy biologik jihatdan to‘liq o‘rganilib chiqqan.

So‘nggi paytda odamlar orasida ruhiyatga, ruhiy holatlarga, asab tizimi holatlariga qiziqish ortishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga psixologik maslaxatga kelgan mijozlar: “meni stressga tushibsiz, davolanishingiz kerak, psixologga uchrang, deb shifokorlar jo‘natishdi”, degen fikr bilan kelishmoqda. ***Stress, frustratsiya, monotoniya*** bu holat va so‘zlarning zamirida nima bor?

Quyida biz sizlarga insonning ruhiy holatlarida uchraydigan va uning faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi psixik hodisalarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Zero inson ularni farqlay olishi hamda ularni boshqara olishi lozim.

Stress (ing. Stress- taranglik) bu – psixik reaksiya bo'lib, ya'ni boshqa sharoitga o'rganishni, o'tishni bildiradi. Hayotdagi o'zgarishlar, tez olib boriladigan ishlar odam organizmida reaksiya keltirib chiqaradi. Stress organizmning total mobilizatsiyasi xisoblanadi, ya'ni o'ta og'ir, murakkab vaziyatdan chiqish yoki qiyin sharoitga moslashish. Stressorlar (qo'zg'atuvchilar) vegetativ o'zgarishlar – qon-tomirning urishi tezlashuvi, qonda qand miqdorining oshishi, qon bosimining ko'tarilishi va h. k. ni vujudga keltirib, organizmni intensiv harakatlarga tayyorlaydi.

Distress (ing. Distress- g'am-tashvish, uqubat)-hayot uchun xavfli bo'lgan, stressning eng og'ir salbiy ko'rinishi. Eng inson uchun azobli va zararli bo'lgan stress holati xisoblanib, bu qiyin ahvolga tushib qolganda biron-bir yaqinlaridan ajraganda yoki shaxsiy tomondan juda qiyin ahvolga tushganda yuz beradi.

Sistematik stress va ***psixik stress***. Sistematik stress biologik bosimni keltirib chiqaradi. Ular zaharlanishdan, to'qimalarni shamollanishidan yoki lat yeyishi tufayli sodir bo'ladi.

Psixik stress – esa bu tashqaridan gap orqali yoki harakatlar orqali kelib chiqadi.

Masalan: shaxmat o'ynayotganda yoki qattiq quchoqlashib ko'rishganda stress paydo bo'ladi, lekin u zararsiz hisoblanadi. Stressning ozgina foydali tomonlari ham bor bu paytda odam harakat qilishga intilib qoladi, organizmini kurashishga tayyorlaydi yoki undan qochishga harakat qiladi. Ma'suliyatli vazifani yoki topshiriqni bajarish jarayonidagi ayrim kamchiliklar va yuzaga keladigan psixologik to'siqlar natijasida ***xronik (doimiy) stress holatlari yuzaga keladi.***

Doimiy stresslar 6 taga bo'linadi.

1. Uyqusizlik.
2. Ko'krakdagi og'riq, ya'ni muskullarning yurak atrofidagi og'riqlar.
3. Yo'tal (tez-tez tomoqni tozalash uchun bo'ladigan yo'tal).
4. Jinsiy qoniqmaslik.
5. Emotsional disbalans, ya'ni kayfiyatning tushib ketishi.

6. Doimiy toliqish va haddan tashqari semirish.

O‘smirlik davridagi ko‘p uchraydigan stress holatlardan biri bu o‘smir “MEN” nining o‘zgalar tomonidan o‘z vaqtida tan olinmasligidir. Shuningdek, shaxs faoliyatidagi ko‘p uchraydigan stresslardan biri bu pul muammosiga taqaladi. Eng jiddiy stresslardan biri bu oiladagi ijtimoiy muxitning nosog’lom shakllanlanganligidir. Ya’ni oiladagi ayrim salbiy holatlar, yo‘qotishlar, o‘zaro kelishmovchiliklar, ajrashish, o‘lim, nizoli vaziyatlar, oiladagi muhitning nosog‘lomligi. Masalan: ota-ona o‘rtasidagi nizoli holatlar bolaga qattiq ta’sir etadi. Bularning barchasi o‘smir psixologiyasida o‘z aksini topishi va unga nisbatan o‘smir tomonidan obyektiv yondashish stressning kuchayishiga olib keladi. Stressni kuchaytirishga olib keladigan yana bir psixologik holatlardan biri frustratsiyadir.

Vahima – ***vas-vasa***. Bunda odam vahimaga tushadi, har xil hayollarga boradi. O‘tib ketgan yomon voqeani eslab siqilishi yoki bo‘lar-bo‘lmas narsalarni o‘ylashi, hali sodir etilmagan, aytib bo‘lmaydigan yomon fikrlarga borib vahimaga tushish. Bu narsalar ichki holatni o‘zgartirib, xotirjamlikni yo‘qotadi. Bunda odamning faolligi yo‘qolib o‘zini qo‘lga ololmaydi. Bunday narsalarni og‘riq bilan tenglashtirish mumkin. Vahimani keltirib chiqargan narsa kerakli axborotning yetishmasligidan, dunyoqarashning torligidan yoki kelgan to‘g‘ri maslahatni ana shu vahimani keltirib chiqargan sababga qarama-qarshiligi va uni battar oshirishi vahimani avjga chiqaradi.

Monotoniya – stressning qarama-qarshi holatidir. Masalan, bu holat ko‘proq ishda, shaxsiy hayotda kuzatiladi. Har kuni bir xil ishni qayta-qayta bajarish natijasida odam monotoniya holatiga tushib qoladi. Bu holat insonda zerikish, loqaydlik, hayotga nisbatan qiziqishni kamaytiradi, tashqi qiyofasida g‘amginlik, nimadandir norozilik alomatlari kuzatiladi. Buning natijasida shaxsda iroda, fikrlash qobiliyati sustlashadi, maqsadga yetish uchun harakat kamayadi. Shaxsda miyaning tormozlanish natijasida tevarak – atrofdan kelayotgan ongsiz signallarni qabul qilmasdan faqat o‘z joniga qasd qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Monotoniyaga chalingan shaxslar ustidan kuzatuv olib borilganda alaxsirash, gallyutsinatsiyalar, xuddi hayolida nimadadir suzib ketayotgandek bo‘ladi, xavotirlanadi.

Yolg‘izlik – keyingi turdagi qiyin holatlaridan biri. Yolg‘izlik natijasida odam o‘zi bilan o‘zi muloqot qiladigan holatga tushib qoladi. Uzoq vaqtda yolg‘izlikda qolgan inson haqiqiy nevroz kasalligiga chalinishi mumkin. Mana shu holatga tushgan shaxslarni 3 guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh: 18-28 yoshgacha bo‘lgan yoshlarda bu holat quyidagi holat bilan kuzatiladi (oilasidan yiroqda bo‘lish, masalan, boshqa shaharga ishga borishi yoki o‘qishga, sevgilisidan ajralish).

Ikkinchi guruhga 29-38 yosh va uchinchi guruhga 39-55 yoshda bo‘lganlarda krizis holat kuzatiladi. Masalan, oilasidan, yaqin odamidan ajralish (o‘lim). Bunday holatda inson tushkunlikka tushib qolishi, ya’ni hayotda hech kimga kerakmasdek, yurak siqilishi, chorasiz, kelajakka ishonchsiz bo‘lib qoladi.

Tunggi psixika bu – mujassamlangan hodisalardan biri bo‘lib, u kech uyqu vaqtida kuzatiladi. Kunduzi bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar tunda yolg‘izlik paytida qaytadan ko‘z o‘ngida ifodalanadi. Masalan, kechqurun yolg‘izlik hissi kuchayadi, inson o‘z hayollari bilan yolg‘iz qoladi, ba’zida qo‘rquv obrazlari bilan. Qorong‘ulik insonda xavotirlikni yuzaga keltiradi, real holatni o‘zgartiradi, u sirli bo‘lishi mumkin, bunda odam o‘zini kuchsiz, yolg‘iz, atrofdagilar uni tushunmasligini sezadi. Tunggi psixika ko‘proq nevroz, yurak yoki boshqa kasalliklarga chalingan odamlarda muammolarni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

– T. : A. Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.

: O‘zbekiston, 2011. -344 b.

-

4-kitob – T. : Qomuslar Bosh taxririyati, 1991. -569 b.

– www ziyouz. com. T. : Fan, 2018. – 198 b.

–T. :O‘zbekiston, 2018. – 230 b.

rovskiy Yu. A. Sotsialno-stressovыe rasstroystva // Russkiy med. jurn. - 1996, T. 3, №11. - S. 689-694.

ina A. N. Stress i zaщita ot stressa /A. N. Amelina. – M. : Smart, 2018. – 202

– 27 s.

№ 4. – S. 32-44.

ordov V. A. Kognitivnыe protsessы i psixologicheskiy stress. //Psixol.

odrov V. A. Psixologicheskiy stress: razvitie i preodolenie /V. A. Bodrov. – M. : Perse, 2006. – 528 c.

raun D. , Farber M. Vvedenie v psixoterapiyu. Prinsipы i praktika

Psixologiya jiznennыx situatsiy. Uchebnoe posobie. - M. : Rossiyskoe pedagogicheskoe agentstvo, 2007. - 263 s.

№ 1. S. 180-184.

//Sovremennaya psixologiya: ot teorii k praktike: Materialы XXV Mejd. "Psixologiya". – M. : MGU. – 2018. – №2. – S. 114-117.

– M. : Izd. Mosk. un-ta, 2014. – 122 s.

asserman L. I. Metodika psixologicheskoy diagnostiki sposobov sovladaniya so stressovыmi i problemnыmi dlya lichnosti situatsiyami: posobie dlya vrachey i med. psixologov /L. I. Vasserman. i dr. – SPb. : NIPNI

in Ye. P. Psixologiya individualnыx razlichiy. - SPb. : Piter, 2011. –701s.

hoqova Z. Shayx Najmiddin Kubro. – T. : "O'zbekiston" – 2013. -134 b

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF ESP STUDENTS ON THE BASIS OF CORPUS BASED APPROACH.

Durdona PULATOVA

Annotation

This article reveals the concept of a corpus-based approach to the development of professional communicative competence. Intercultural communication, as the need to build a foreign language education system for graduates of higher education institutions in a new way, especially at the undergraduate level, is becoming increasingly urgent and focused on the self-development of students as pedagogical support in the educational system of the educational institution. In recent decades, a number of large-scale changes have been taking place in the higher education system of Uzbekistan, the country's entry into the world education system, socio-cultural changes, and the country's support for university graduates. Based on the new requirements, attention is being paid to improving the quality of foreign language teaching at various stages of education, in particular, to ensure that graduates of higher education institutions enter the world labor market competitively. The rapid development of information and communication technologies is

currently opening up wide opportunities and creating a real possibility of a global multilingual system, expanding the scope of education, which opens up great opportunities for the student and indicates the need to learn a foreign language as a means of learning. . The goals of the multi-level system of higher education, taking into account the current needs of the economy and the labor market, are to expand the capabilities of universities to meet the many cultural and educational needs of the individual and society as a whole, to increase the flexibility of the general cultural, professional and scientific training of graduates. Non-linguistic pedagogic directions vocationally oriented foreign language communicative competence of undergraduate students is defined as an integrated set of personal qualities and abilities, foreign language knowledge, skills and abilities formed in the process of teaching a foreign language. Students and personnel in the field of university and professional activity are required to have their place in the world professional market and to be competitive, to have professional communicative competence in the implementation of independent oral and written communication in a foreign language within the framework of the profession. In today's fast-paced and interconnected world, effective communication is a key skill for professionals across various industries. Professional communicative competences encompass a wide array of abilities that enable individuals to navigate complex work environments, convey ideas, and establish productive relationships. This article provides a detailed overview of the concept of professional communicative competences, highlighting key components and their significance in the workplace.

Key words: professional competencies, corpus based approach, communicative competencies

Introduction/Kirish

Nowadays, effective communication is a key skill for professionals across various industries. Professional communicative competencies encompass a wide array of abilities that enable individuals to navigate complex work environments, convey ideas, and establish productive relationships. This article provides a detailed overview of the concept of professional communicative competencies, highlighting key components and their significance in the workplace. [16]

There are key components to develop professional communicative competencies.

- Verbal communication skills: This section delves into the importance of articulate and persuasive verbal communication, covering aspects such

as active listening, clarity of expression, and adaptability to diverse audiences. [12]

- Non-verbal communication skills: Here, we discuss the role of body language, facial expressions, and gestures in conveying messages effectively, emphasizing the significance of non-verbal cues in building rapport and establishing trust. [15]

- Written communication skills: This segment focuses on the crucially of concise, organized, and error-free written communication in professional contexts. It covers areas like email etiquette, report writing, and effective use of digital communication tools. [14]

In today's interconnected world, effective professional communicative competencies have become paramount for success in the globalized workplace. Effective communication skills play a vital role in conveying ideas, building relationships, and showcasing expertise. This article will explore the significance of professional communication skills in various aspects of the modern workplace and provide insights on how individuals can enhance their competencies in this area.

Understanding the Global Landscape:

The globalized workplace brings together professionals from diverse cultural backgrounds, languages, and communication styles. Effective professional communicative competencies enable individuals to bridge cultural gaps, overcome language barriers, and foster a sense of inclusivity. This section will highlight the importance of cultural awareness, active listening, and adaptability skills in ensuring effective communication within an international team.

Building Strong Relationships:

In today's fast-paced business environment, strong relationships are the foundation of success. Effective communication skills help establish trust, resolve conflicts, and enhance collaboration. This portion of the article will delve into the role of interpersonal skills, empathy, and emotional intelligence in building strong relationships within a professional setting. [3]

Enhancing Leadership Effectiveness:

Leadership roles demand exceptional communication skills. It will explore how effective professional communication can enhance leadership effectiveness by enabling leaders to articulate a clear vision, motivate their teams, and provide constructive feedback. It will also

discuss the significance of communication in decision-making processes and crisis management within organizations. [6]

Amplifying Cross-Cultural Collaboration:

Globalization has led to increased cross-cultural collaboration within workplaces. This segment will focus on the importance of effective professional communication in facilitating cross-cultural collaboration, emphasizing the need for intercultural competence, flexibility, and open-mindedness. It will also highlight the role of technology in connecting individuals across borders and the importance of effective virtual communication. [8]

Literature review/ Adabiyotlar sharhi

Effective communication skills are essential for individuals aiming to advance their careers and showcase their expertise. This portion of the article will explore how individuals can improve their professional presence, enhance their written and verbal communication skills, and make a lasting impression through effective storytelling and persuasive communication techniques.

The English language plays a crucial role in enhancing professional communicative competencies for several reasons. Proficiency in English is increasingly seen as a valuable skill in today's globalized professional world. Here are some key points, highlighting the importance of English language skills in professional communication:

Global Language: English is considered the lingua franca of international communication, particularly in business and academia. It is estimated that over 1. 5 billion people speak English to some degree worldwide (Crystal, 2003). The ability to effectively communicate in English opens up opportunities for networking, collaboration, and conducting business globally (Jenkins, 2015).

Career Advancement: In many industries, companies have a preference for candidates who possess strong English language skills. Proficiency in English can help individuals stand out among their peers and increase their chances of career advancement (Sophia Education, 2020).

Business Communication: English is widely used in global business transactions, negotiations, and meetings. Having a good command of the

language enables professionals to effectively communicate their ideas, negotiate deals, and build relationships with clients and partners from different cultures (Tsui & Bunton, 2000).

Technical and Academic Knowledge: Many scientific and technical fields primarily publish their research and findings in English. Proficient English language skills are fundamental for successful participation in international conferences, publishing papers, and collaborating with colleagues from different countries (Belcher & Braine, 2010).

Access to Information and Resources: The majority of online content, including educational resources, research papers, and business publications, are in English. Proficiency in English allows professionals to access a vast amount of information; stay updated with industry trends, and learn from global thought leaders (Crystal, 2012).

Methodology/Metodologiya

To accomplish above mentioned strategies, students should learn ESP as English for Specific Purposes (ESP) refers to a branch of English language teaching that focuses on developing skills and knowledge required for specific professional contexts. It is essential for enhancing professional communicative competence in various industries. Here are some of the key reasons why ESP is important:

1. Relevance: ESP courses are designed to meet the specific needs and interests of learners in their professional fields, reflecting the language tasks they will encounter. As a result, learners acquire vocabulary, grammar, and skills that are directly applicable to their chosen profession. (Dudley-Evans, T. , & St John, M. J. (2005))

2. Enhanced Communication Skills: ESP courses focus on developing effective communication skills necessary for professional life, including writing reports, participating in meetings, giving presentations, and negotiating in specific contexts. This improves proficiency and confidence in professional communication. (Hyland, K. (2006))

3. Targeted Vocabulary and Language Use: ESP courses emphasize the vocabulary and language structures relevant to different professional fields, equipping learners with the specific linguistic tools required for effective communication within their domain. (Hutchinson, T. , & Waters, A. (1987))

4. Increased Employability: Effective communication is a crucial skill sought after by employers globally. By developing professional communicative competence through ESP, individuals improve their

chances of finding employment in their desired field or advancing their careers. (Robinson, P. (1991).)

5. Tailored Content and Methods: ESP instructors tailor course content and teaching methods to suit specific professional contexts, ensuring that learners receive targeted instruction and practice in authentic workplace situations. (Hutchinson, T. , & Waters, A. (1996).)

In recent decades, a number of large-scale changes have been taking place in the higher education system of Uzbekistan, the country's entry into the world education system, socio-cultural changes, and the country's support for university graduates. It is related to prospects that increase the demand for food. Based on the new requirements, attention is being paid to improving the quality of foreign language teaching at various stages of education, in particular, to ensure that graduates of higher education institutions enter the world labor market competitively. English for Specific Purposes (ESP) is a field of applied linguistics that focuses on the teaching of English for specific professional or academic purposes. ESP students are typically those who need to use English in their work or studies, such as engineers, nurses, and business professionals. [1]

One of the key skills that ESP students need to develop is professional communicative competence. Professional communicative competence is the ability to communicate effectively in a professional setting. This includes the ability to use language accurately and appropriately, to understand the cultural norms of the workplace, and to build and maintain relationships with colleagues and clients. [5]

According to N. A. Muslimov, competence is a set of knowledge, skills, qualifications and personal qualities necessary for professional activity in the relevant field. [10]

Professional competence is a competence that corresponds to the specialty under consideration in terms of its description and level of application, and professional competence is to be able to apply the acquisition of knowledge, skills and abilities necessary for the implementation of professional activities by a specialist and their practical use at a high level. [3]

Communicative competence is the ability to achieve communicative goals in a socially appropriate manner. It is organized and goal-oriented, meaning the ability to select and apply appropriate and effective skills in an appropriate context. It includes oral and written communication

behaviors. Communicative competence refers to students' ability to use a foreign language to communicate. [11]

Professional communicative competencies are a combination of the components of communicative competencies (pragmatic, linguistic, strategic, cultural, intercultural and sociolinguistic) [7], and the ability to use professional words and language units that cause misunderstandings in the complex processes of professional activity.

There are a number of different models of professional communicative competence. However, they all share a number of common features. Linguistic competence: This refers to the ability to use language accurately and appropriately. This includes grammar, vocabulary, and pronunciation. [8]

Cultural competence: This refers to the ability to understand and appreciate the cultural norms of the workplace. This includes things like body language, humor, and eye contact.

Interpersonal competence: This refers to the ability to build and maintain relationships with colleagues and clients. This includes things like active listening, empathy, and conflict resolution.

Strategic competence: This refers to the ability to use language strategically to achieve specific goals. This includes things like persuasion, negotiation, and decision-making. [3]

Professional communicative competence is essential for ESP students for a number of reasons. It helps them succeed in their careers. In today's globalized economy, the ability to communicate effectively with people from different cultures is essential for success in many fields. [1]It helps them build relationships with colleagues and clients. Strong communication skills are essential for building and maintaining relationships with colleagues and clients. It helps them to advance in their careers. Employees with strong communication skills are more likely to be promoted and earn higher salaries. [2]

It helps them feel confident in their work. When ESP students have strong communication skills, they feel more confident in their ability to do their jobs effectively. [2]There are a number of ways that ESP students can develop professional communicative competence.

Take communication courses. There are a number of communication courses available that can help ESP students improve their linguistic, cultural, interpersonal, and strategic competence.

Practice communication skills. The best way to improve your communication skills is to practice. This can be done by joining a Toastmasters club, taking part in role-playing exercises, or simply talking to people more often. [1]

Get feedback. Getting feedback from others is a great way to identify areas where you can improve your communication skills. This feedback can be given by friends, family, colleagues, or mentors.

Read books and articles. There are a number of books and articles available that can help ESP students learn more about professional communication.

Attend workshops and conferences. There are a number of workshops and conferences available that can help ESP students improve their communication skills.

Corpus based approach. A corpus-based approach to teaching ESP is a method of teaching . English for specific purposes that uses corpora, or collections of naturally occurring language data. This approach is based on the idea that the best way to learn how to use language effectively is to study how it is actually used by native speakers. [9]

RESULT/Natijalar

The corpus-based approach to language teaching is relatively new, but it has gained popularity in recent years. This is because corpora can provide teachers and learners with a wealth of information about how language is used in real-world contexts. This information can be used to help learners improve their accuracy, fluency, and comprehension. [11]

In the context of ESP, the corpus-based approach can be used to help learners develop the linguistic, cultural, and strategic competencies that they need to communicate effectively in professional settings. [9] For example, corpora can be used to help learners identify the vocabulary and grammar that are used in specific professional contexts. They can also be used to help learners understand the cultural norms of different professional settings. Additionally, corpora can be used to help learners develop the strategic competence they need to use language effectively to achieve specific goals.

There are a number of ways that a corpus-based approach can be used to develop the professional communicative competencies of ESP students. [6]Corpus-assisted language learning (CALL):CALL is the use of corpora to support language learning. This can be done in a number of ways, such as by providing students with access to corpora so that they can search

for examples of specific words or phrases or by using corpora to create exercises and activities.

Corpus-informed teaching:Corpus-informed teaching is a method of teaching that uses corpus data to inform the teaching process. This can be done by using corpus data to identify the most frequent words and phrases in a particular genre or by using corpus data to create activities that help students understand the patterns of language use.

Corpus-driven learning:corpus-driven learning is a method of learning that is driven by the data in a corpus. This means that students are not given any explicit instruction but instead learn by exploring the corpus and discovering patterns of language use for themselves. [12]

The corpus-based approach has a number of advantages over traditional methods of teaching ESP. It is more realistic: corpora provide students with access to real-world language data, which helps them learn how language is actually used.

It is more efficient: corpora can be used to identify the most important language features for a particular genre, which helps students focus their learning.

It is more motivating. Corpus-based activities can be more engaging and motivating for students than traditional grammar exercises. [4]

However, there are also some challenges associated with the corpus-based approach. Corpora can be expensive and time-consuming to create and maintain. Corpus data can be complex and difficult to interpret. Corpus-based activities may not be suitable for all students. [13]

Conclusion/Xulosa

In conclusion, professional communicative competence is essential for ESP students who want to succeed in their careers. By developing their communication skills, ESP students can increase their chances of getting a job, getting promoted, and being successful in their careers. The corpus-based approach is a promising method of teaching ESP that has the potential to improve the communicative competence of students. However, it is important to note that the corpus-based approach is not a silver bullet and should be used in conjunction with other methods of teaching ESP. [21] ESP plays a significant role in developing professional communicative competencies. It provides learners with the necessary language skills and knowledge required to excel in their chosen professional fields, improving employability and enabling effective communication within specific contexts. Effective professional

communicative competencies form the foundation for success in the modern workplace. This article has provided a comprehensive overview of the concept, emphasizing its importance and key components. Developing strong verbal, non-verbal, and written communication skills, along with self-awareness and emotional intelligence, enables professionals to thrive in their respective fields. By continuously honing these competencies, individuals can enhance their career prospects, foster collaboration, and drive organizational growth. Effective professional communicative competencies have become indispensable in today's globalized workplace. By developing cultural awareness, interpersonal skills, leadership effectiveness, cross-cultural collaboration, and expertise showcasing abilities, individuals can propel their careers forward and contribute to their organizations' overall success. Invest in enhancing these skills to navigate the challenges and reap the benefits of the evolving workplace landscape. The corpus based approach has revolutionized language learning and can significantly contribute to the development of professional communicative competences. By utilizing corpora and analyzing authentic texts, professionals can enhance their vocabulary, grammar, and discourse skills. By adopting a systematic approach and utilizing available resources, individuals can improve their overall communication proficiency in their respective fields.

References:

1. Adams, B. (2019). Effective Communication in the Workplace: How and Why It Matters. Harvard Business Review.

2. Adler, R. B. , Rodman, G. , & Du Pre, A. (2016). Understanding human communication. Oxford University Press.

3. Arnold, J. , & Brown, G. (1999). Socializing the learner into professional communication, English for Specific Purposes, 18(1), 2–18.

4. Bardovi-Harlig, K. (2001). The negotiation of communicative competence in instructed settings Language Learning, 51(3), 677–711.

5. Byrnes, H. (2001). Learning strategies for the acquisition of foreign language communicative competence Annual Review of Applied Linguistics, 21, 163–183

4. Belcher, D. , & Braine, G. (2010). Teaching Academic Writing in a Second Language: Understanding the Needs of Second Language Writers. Routledge.

5. Caruso, D. (2019). Emotional competence: What it is and why it matter

6. Crystal, D. (2012). English worldwide. The Cambridge Encyclopedia of the English Language, 555-562.

7. Dudley-Evans, T. , & St John, M. J. (2005). Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press.

8. Guffey, M. (2019). Essentials of Business Communication (11th ed.). Cengage Learning

9. Gudykunst, W. B. , & Kim, Y. Y. (Eds.). (2017). Theorizing about intercultural communication. Sage Publications.

10. Hutchinson, T. , & Waters, A. (1996). English for Specific Purposes: A learner-centered approach. Cambridge University Press.

11. Hyland, K. (2006). English for Academic Purposes: An advanced resource book. Routledge.

12. Huczynski, A. , & Buchanan, D. (2013). Organizational behavior. Pearson Education.

13. Hutchinson, T. , & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge University Press.

14. Jenkins, J. (2015). Global Englishes: A Resource Book for Students. Routledge.

15. O'Connor, J. , & Seymour, J. C. (2018). Introducing Neuro-Linguistic Programming: Psychological skills for understanding and influencing people. Jessica Kingsley Publishers.

17. Pulatova , D. , (2023) Pedagogical opportunities in improving

professional communicative competencies. Science and innovationinternational scientific journal.

17. Robinson, P. (1991). ESP Today: A practitioner's guide. Prentice Hall.

18. - Sophia Education. (2020). The Benefits of Learning English for Career Advancement. Retrieved from https://www. sophia. org/tutorials/the-benefits-of-learning-english-for-career-advancement.

19. Shell, G. (2003). The Importance of Effective Communication. AORN Journal, 77(3), 576-577.

20. Tsui, A. B. , & Bunton, D. (2000). The discourse of negotiation: Studies of language in the workplace. Routledge.

21. Yukl, G. (2005). Effective Leadership Behavior: What We Know and What Questions Need More Attention? The Academy of Management Perspectives, 4(1), 66-85.

O‘QITUVCHILARDA KASBIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARI

DSc Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarni faol va samarali tatbiq etish yangi, zamonaviy ta’lim tizimini yaratishga xizmat qilishi davlat ahamiyatiga molik dolzarb vazifa ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, muallif ta’limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishning bosqichma-bosqich, uzviy va uzluksiz pedagogik omillarni ochib bergan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tizimlashtirilmagan, o‘zaro bog‘lan- magan bilim va ko‘nikmalarni berishdan iborat bo‘lishi kerak emas. uni fanlararo yondashish asosida o‘tkazish zarur. Buning uchun esa oliy ta’lim muassasasi kasbiy ta’lim yo‘nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlar o‘qituvchilari talabalarga o‘quv fani mohiyatini ochib berar ekan o‘z fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni

shakllantirish bilan birga maktabda, kasb-hunar kollejlarida uni o‘rganish metodikasi elementlari bilan va ishlab chiqarish sohasida ularni qo‘llash doirasi bilan ham tanishtirishi kerak.

Boshlang‘ich axborot – bu birlamchi, qayta ishlanmagan, “xom”. Oraliq axborot qayta ishlangan, lekin hali modelli tajribani boshqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan darajada emas. Yakuniy axborot modelli tajriba natijasi hisoblanadi, tartibliligi, tizimlashtirilganligi va qo‘llashga tayyorligi bilan ifodalanadi. Bashoratlashtiruvchi axborotning haqiqiy vaziyat bilan bog‘liqligi o‘tmishda tizimning faoliyati to‘g‘ri- sidagi dastlabki axborot asosida amalga oshiriladi. dastlabki axborotni mantiqiy ishlab chiqish uni yangi sharoitlarda tizimning taxmin qilinayotgan holatga ko‘chirishga imkon beradi. Bashoratlashtiruvchi axborot taxminiy xususiyatga ega bo‘ladi, ya’ni kelajakda tizimning tendensiyalari va mumkin bo‘lgan variantlari haqidagi bilimdan iborat.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya, texnologiya, ko‘nikma, jarayon, takomillashtirish, mutaxassis, vosita, ehtiyoj.

TOOLS FOR FORMING AND IMPROVING THE PROFESSIONAL SKILLS OF TEACHERS

In this article the author substantiates active and effective implementation of information and communication technologies that serve as the creation of a modern education system, as the urgent task of national importance. the author also reveals the factors of information and communication technologies in education, both in-phasing and continuity.

Professional training of future teachers should not consist of imparting unsystematized, unrelated knowledge and skills. it is necessary to conduct it on the basis of an interdisciplinary approach. For this purpose, the teachers of general and special subjects in the professional education areas of the higher educational institution reveal to the students the essence of the academic subject, while forming knowledge and skills in their subject at school, profession- in vocational colleges, he should be introduced to the elements of the learning methodology and the scope of their application in the field of production.

Primary information is primary, unprocessed, "raw". Intermediate information has been processed, but not yet to the extent that it can be used to control the model experiment. The final information model is the result of experience, it is expressed by its orderliness, systematization and readiness for use. Correlation of predictive information with the real situation is carried out on the basis of preliminary information about the

system's activity in the past. logical development of initial information allows to transfer it to the expected state of the system under new conditions. Predictive information has an approximate nature, that is, it consists of knowledge about the trends and possible options of the system in the future.

Keywords: Information and communication technology, numenius, process improve- ment specialist, means need.

Kirish

Axborotlashgan jamiyatni yaratish va rivojlantirishda bir qator omillar bilan aniqlanadigan ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashni taqozo etadi. Birinchidan, ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish bilim- larni va insoniyat tomonidan to'plangan texnologik va ijtimoiy tajribalarni nafaqat avloddan avlodga balki, bir kishidan boshqa bir kishiga uzatish jarayonini keskin tartibda tezlashtiradi. ikkinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'qitish va ta'lim sifatini oshirib, insonning atrof-olamga va ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarga tez moslashishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta'limga faol va samarali jalb etish axborotlashgan zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi ta'lim tizimini yaratishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyatning barcha sohalariga ommaviy ravishda tatbiq etish, yangi kommunikatsiya va yuqori darajada avtomatlashtirilgan axborot muhitini shakllantirish nafaqat an'anaviy tizimni o'zgartirishning dastlabki, balki axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning o'zaro birinchi qadami bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga, yangi tarbiyaviy ta'sirlarni yaratishga, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining kompyuter texnikasi bilan samarali o'zaro ta'sirlashuviga imkon beruvchi yangi avlod axborot ta'lim texnologiyalarini yaratishga olib keldi. Respublikamizning axborotlashgan jamiyat qurish va ta'limda axborot-kommuni- katsiya texnologiyalarini joriy etish yo'lidagi harakatini quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin: – asosan, ta'lim tizimini boshqarish, uni ma'muriy boshqarish va boshqarish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni saqlash uchun kompyuterlardan individual foydalanish bilan bog'liq boshlang'ich bosqich; – kompyuterli tizimlar, internet va axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning konvergensiyasi bilan bog'liq zamonaviy bosqich; – yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasiga asoslangan kelajak bosqichi.

ta’lim sohasidagi jahon tendensiyasi ta’lim oluvchida tizimli, obrazli va egiluvchan fikrlashni, ekologik, refleksiv va axborot madaniyatini, ijodiy faollik va yangilikni his etishni, tolerantlikni shakllantirishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa ta’lim jarayoniga yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish lozim. Chunki ulardan foydalanilgan vaqtda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish muammolari samarali hal etiladi, ta’lim oluvchi iste’dodi va qobiliyatiga mos holda bilimlarning turli sohalarida maksimal darajadagi natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Metodologiya: Zamonaviy sharoitda kompyuterli o‘qitishni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki har bir bosqichda o‘qituvchining axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirish faollashadi. ta’lim oluvchida mavjud bo‘lgan shaxsiy resurslar, motivlar, qiziqishlar, qobiliyat va ko‘nikmalar safarbar qilinadi, shuningdek, kompyuterni qo‘llashning talab etilgan eng yuqori darajasi shakllanadi va rivojlanadi. nafaqat insonni yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirish, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini foydalanuvchining ehtiyoji va imkoniyati, so‘rovi va qobiliyatiga moslashishini ham ta’minlashi muhim. Bo‘lajak mutaxassis kasbiy faoliyatda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarinidan samarali foydalanishga imkon beradigan bilimlar va ko‘nikmalar tizimini egallashi lozim. iqtisodiyotda ro‘y berayotgan globallashuv va axborotlashtirish, ichki hamda tashqi bozorda kuchayib borayotgan raqobat oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchisini tayyorlashga munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Birinchi navbatda, yuksak kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lgan mutaxassislarga mehnat bozorida talab oshmoqda.

Ma’lumki, har qanday soha mutaxassisining kasbiy salohiyati uning kasbiy masalalarni hal qilishga tayyorligi, shu bilan bir vaqtda olgan bilim va ko‘nikmalaridan samarali foydalanishi bilan belgilanadi. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining rivojlanish jarayonlari yo‘nalishlarini tushunish va baholash hamda ularning borishiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini takomillashtirish uning kasbiy tayyorgarligi konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ratsional foydalanishga tayyorligi ana shu qobiliyat asosini tashkil qiladi. Oliy ta’lim muassasasi kasb ta’lim yo‘nalishlari o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta’lim metodlarini, balki ta’limning tashkiliy shakllari va vositalarini takomillashtirish sohasida keng imkoniyatlar yo‘lini ochib beradi. Oliy ta’lim muassasalari kasb ta’lim

yo‘nalishlari o‘quv jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim texnologiyalari, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini takomillashtirish sohasida keng imkoniyatlar ochib berishi bilan birga ta’lim- ning turli pog‘onalarida tashkil etiladigan o‘quv jarayonini rejalashtirish amaliyotini tubdan o‘zgartirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun ham o‘quv jarayonini yaxshilash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tadqiqotlarda ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta e’tibor berilmoqda. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida kasbiy ko‘nikmalarni takomillashti- rish muhim ahamiyat kasb etmoqda. ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi pedagogikada nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi, shu sababli uning mazmuni, ta’rifi va xajmiga yagona nuqtayi nazar mavjud emas, har bir muallif o‘zining tadqiqoti uchun eng muhim deb hisoblagan tomonlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, axborot vositalari tarkibiy qismlari va ko‘rsatkichlari ularning imkoniyatlari, maqsadli vazifalari va foydalanish metodikalarini tez o‘zgarishi ushbu tushunchani yana qayta anglab yetish va qayta ishlashni talab etadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda kompyuterli ta’lim sharoitlarida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va bo‘lajak mutaxassis shaxsini tarbiyalash jarayoni tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tizimlashtirilmagan, o‘zaro bog‘lan- magan bilim va ko‘nikmalarni berishdan iborat bo‘lishi kerak emas. uni fanlararo yondashish asosida o‘tkazish zarur. Buning uchun esa oliy ta’lim muassasasi kasbiy ta’lim yo‘nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlar o‘qituvchilari talabalarga o‘quv fani mohiyatini ochib berar ekan o‘z fani bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga maktabda, kasb-hunar kollejlarida uni o‘rganish metodikasi elementlari bilan va ishlab chiqarish sohasida ularni qo‘llash doirasi bilan ham tanishtirishi kerak. Bular esa, talabalarning ko‘plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o‘taydi, chunki har qanday yangi g‘oyani taklif qilishda ilgari qaralayotgan sohani batafsil o‘rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan yechim bilan bog‘lashni o‘rganish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa, albatta, oddiy inson xotirasida saqlab bo‘lmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. Axborot texnologiyasi imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o‘quv-axborot tizimlari, bilimlar va ma’lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi. Kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni ta’lim sharoitlarini aniqlashni, ularni tahlil qilishni, tayyorgarlik sifati o‘lchamlari asosida bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligi natijalarini baholash, mavjud ta’lim sharoitlaridan eng yaxshilarini tanlash, nazariy

xulosalarni tajriba asosida tekshirish, o‘rganilayotgan tizimning faoliyati o‘zgargan hollarda uni kelajakda amalga oshirishni nazarda tutadi. ichki tizim tashkil qiluvchi omil tizimning barcha elementlarining o‘zaro bog‘liqligi kabi taqdim etilgan.

Tashqi tizim tashkil qiluvchi omil o‘rganilayotgan tizim tabiatini bashorat qilish bloklari qaytar (teskari) aloqasi, natijalarni tajriba asosida tekshirish, ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy ko‘nikmalarini shakllan tirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalari kasbiy ta’lim yo‘nalishlarida umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning mavjud holatini tahlil qilib, ularni shakllantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlari sifatida d. Xenning konsepsiyasini asos qilib oldik. u o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning quyidagi beshta mezonini ko‘rsatgan. 1) o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ko‘p sonli axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va saqlashning zamonaviy tizimlari imkoniyatlari asosida axborot texnologiyalarining talabalar ehtiyojlariga moslashishga qodirligi; 2) ta’lim yaxlit pedagogik tizimini yaratish uchun axborot texnologiyasining ma’lumotlar bazalarini boshqarishga qodirligi; 3) o‘quv jarayonini rejalashtirishga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish asosida o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini belgilaydi. Shu bilan birga tegishli dasturiy vositalarni tanlash va moslashtirish zaruriyati bilan birga qaror qabul qilish uchun aniq vazifalar uchun avtomatlashtirishgan tizimlar va ularni qo‘llash sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi; 4) o‘quv muassasasi tuzilishini o‘zgartirishni ifoda etadi. telekommunikatsiya texnologiyalar oliy ta’lim muassasasi tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritadi, natijada individual reja asosida ishlaydigan talabalar soni ortadi; 5) axborot texnologiyalari o‘quv dasturi konsepsiyasini umuman yangidan qurish- ga imkon beradi, chunki axborotlar yuqori sifat darajasida taqdim etiladi. Multimedia texnologiyalari ayniqsa keng imkoniyatlar taqdim etadi, ular ko‘plab ta’lim metodlarini amalga oshirish, yuqori sifat darajasida talabalarning idrok etish faoliyatlarini nazorat qilish va faollashtirishga imkon beradi. Yangi axborot texnologiyalari kompyuterli ta’lim shakllarini – elektron darsliklar, elektron ta’lim trenajyori, multimedia-so‘rovnomalar va ensiklopediyalar, amaliy darslar, shuningdek, yangi axborot texnologiyalari ta’lim shakllarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Elektron darslikda ta’limning quyidagi shakllari modellashtirilishi mumkin:

– o‘quv vazifalarini qo‘yish, turli xil muloqotlardan foydalanish (monolog, guruh, bo‘lajak faoliyati usullari to‘g‘risida yo‘riqnomalar, tushuntirish va shu kabilar);

– bilimlarni ko‘rgazmali namoyon etishni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar (ko‘rgazmalilik, tushunarlilik, tizimlilik tamoyillarini amalga oshirish);

– o‘quv vazifalarini hal qilish uchun qulay psixologik muhitni yaratish (materialni taqdim etishda psixologik qonuniyatlardan foydalanish). Elektron darslik o‘quv harakatlarini tashkil qilishni modellashtirish imkonini beradi. Kompyuter talabani nazariy bilimlarni o‘rganishga, elektron ma’lumotnomada so‘rovlar shakllantirishga, elektron masalalar bilan ishlashda topshiriqqa javob kiritishga yordam beradi. Laboratoriya mashg‘uloti rejimida ko‘pincha fan sohasida o‘rganilayot-gan obyektlar ustida o‘quv harakatlarini namoyon qiluvchi biror bir model qaraladi, shu bilan birga talabalar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘quv harakatlarini boshqarish, kuzatishlar natijalarini qayta ishlab chiqish va olingan bilimlaridan amaliyotdafoydalanish imkoniyatini baholashga ega bo‘ladilar. ushbu ishda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda elektron mashg‘ulot imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Elektron ta’lim trenajyori deganda, o‘quv jarayonini didaktik kompyuterli ta’minlash vazifalarini bajaruvchi ko‘p sonli elektron ta’lim resurslar sinfi tushuniladi.

Bunday resurslarga alohida fayllar, masalan, o‘quv topshiriqlari yechimlari fayllari, masalalar parametrlari generatsiyasi fayllari, o‘quv topshiriqlar kartochkalari, interfaol testlar hamda giperilovalar va qo‘yilgan o‘quv masalalarini amalga oshiruvchi yagona didaktik resurslardan iborat obyektlar bog‘liqligi yordamida birlashtirilgan faylli tizimlar kiradi. Elektron ta’lim trenajyorining maqsadlari quyidagilar: – nazariy bilimlarini mustahkamlash va zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; – ishlab chiqarish masalalarini hal qilish ko‘nikmalarini ishlab chiqish; – mustaqil bilim olishga o‘rganish, o‘zini o‘qitish va nazorat qilish uslublari va usullarini egallash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Elektron ta’lim trenajyorini yaratishning asosiy tashkiliy-metodik tamoyillari sifatida N. A. Muslimov tomonidan masofali ta’lim o‘quv-metodik to‘plamlari uchun taklif etilgan quyidagi tamoyillarni asos qilib oldik: – o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan fanni o‘rganishning maqsadini ifoda etishi; – o‘quv materiallarining atamalar va shartli belgilarni aniq hamda to‘g‘ri ifodalash talablariga to‘la javob bera olishi; – elektron o‘quv materialining talaba tomonidan avval o‘rgangan muhitning yaratilishini ta’minlay olishi; – gipermatnli texnologiyalardan foydalanish,

shuningdek, elektron o‘quv materialining talabalarning ilovalar bo‘yicha harakatlanishlarida to‘g‘ri yo‘lni topa olish hamda oddiy talablarga javob bera olishlariga imkon yaratishi; – talaba faoliyatining mustaqil faoliyatga, o‘qituvchi faoliyatining esa o‘z-o‘zini nazorat qilish faoliyatiga almashtirilishi;– o‘quv fanlari mazmunining to‘laligi; – talabalarning qo‘shimcha o‘quv ma’lumot manbalariga murojaat etishining bir qadar kamaytirilishi; – o‘quv fanlarining tuzilmasini yaratishda moduldan foydalanilishi; – o‘quv materiallari tarkibida nazorat topshiriqlari, glossariy, shaxsiy faoliyatni mustaqil nazorat qilish uchun taklif etilgan javobli testlar hamda mashq qilishga asoslangan pedagogika hamda ishlab chiqarishdagi muammoli – vaziyatli topshiriqlar kabi majburiy elementlarning mavjudligi. Elektron ta’lim mashg‘uloti o‘quv jarayoni natijalarini bashoratlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar: Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik va metodik shartlarni aniqlashdagi butun harakatlar davomida esa u asosiy hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining “kasbiy ko‘nikmasi” tushunchasining o‘zi tashqi va ichki sharoitlarga qarab tizimning o‘zini tutishini bashoratlashtirish bilan bog‘liq. tizimning kelajakda o‘zini tutishi haqidagi axborot o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon faoliyati to‘g‘ri- sidagi dastlabki axborotni qayta ishlash, tahlil qilish, tadqiqot predmetiga ko‘chirish va sintez qilish natijasi hisoblanadi. Boshlang‘ich yoki dastlabki axborot tizim faoliyati maqsadlari va sharoitlari, uni olish, saqlab qolish, o‘zgartirish, qo‘yilgan ustuvor vazifalarni hal qilish, o‘quv jarayoni va uning natijalari normativ ko‘rsatkichlari haqida bilimlarni namoyon etadi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni bashoratlashtirishda talab etilishi va qayta ishlanganligi darajasiga qarab axborotlarni dastlabki, oraliq va yakuniy axborotlarga ajratiladi.

Boshlang‘ich axborot – bu birlamchi, qayta ishlanmagan, “xom”. Oraliq axborot qayta ishlangan, lekin hali modelli tajribani boshqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan darajada emas. Yakuniy axborot modelli tajriba natijasi hisoblanadi, tartibliligi, tizimlashtirilganligi va qo‘llashga tayyorligi bilan ifodalanadi. Bashoratlashtiruvchi axborotning haqiqiy vaziyat bilan bog‘liqligi o‘tmishda tizimning faoliyati to‘g‘ri- sidagi dastlabki axborot asosida amalga oshiriladi. dastlabki axborotni mantiqiy ishlab chiqish uni yangi sharoitlarda tizimning taxmin qilinayotgan holatga ko‘chirishga imkon beradi. Bashoratlashtiruvchi axborot taxminiy xususiyatga ega bo‘ladi, ya’ni kelajakda tizimning tendensiyalari va mumkin bo‘lgan variantlari haqidagi bilimdan iborat. Oliy ta’lim muassasasi kasbiy ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan umumkasbiy va maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida elektron ta’lim trenajyorini qo‘llash quyidagi pedagogik va metodik maqsadlarga

erishishda boshqa kompyuterli ta’lim vositalariga nisbatan samarali ekanligini ko‘rsatdi: o‘quv jarayoniga faoliyatli yondashuvni shakllantirish; o‘quv jarayonining butunligini saqlagan holda uni individuallashtirish; talabaning bilish faoliyatini rag‘batlantirish; o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini to‘g‘rilash; o‘quv jarayonining mashq qilinuvchi stadiyasini (bosqichini) nazorat qilish; teskari aloqa orqali, o‘quv faoliyati natijalarini tashxislash va baholash orqali nazoratni amalga oshirish; o‘quv materialini o‘rganish uchun ajratilgan o‘quv vaqtini tejash; o‘quv jarayonining anglanganligini kuchaytirish; o‘quv jarayoni axborot kanallarining o‘tkazish qobiliyatini kuchaytirish (vizual va boshqa murakkab obrazlarni qurishga kompyuterlarning qobiliyatligi hisobiga); o‘quv jarayoniga yangi bilish vositalarini (o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish va imitatsiyalash va boshqalar) kiritish; katta hajmli axborotni qayta ishlash va umumlashtirish bilan bog‘liq ijodiy tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, mualliflarning ishlari tahliliga asoslanib axborotli yondashish nuqtayi nazaridan kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish – axborotlar to‘laligi va sifatini ta’minlash, ya’ni tizimning barcha elementlari bo‘yicha barcha kerakli axborotlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday axborot esa yechimlarning eng mos variantini tanlashga, ta’limda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga (bizning holatda elektron ta’lim trenajyori), ushbu jarayonni tezlashtirishga va kasbiy bilim va ko‘nikmani shakllanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. M. Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l//Uning o‘zi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom

ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – B. 35

2. Azizxodjaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T. : TDPU, 2003. – 174 b.

Хен Д. Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании // Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. – С. 43-49.

Шолохович В. Ф. Информационные технологии обучения: дидактические

основы, проблемы разработки и использования. – М. : МГПУ, 2005. –

6. Raxmanova M. Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.

7. Rakhmanova M. Q. Features of Development of Social Competence of Students // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X2021 Journal Impakt Faktor:8. 2, 2023, - 130-137 b

8. Rakhmanova M. K. Formation of development of sosial astivity in students // International Journal on Integrated Edusation 2021 Journal Impakt Faktor:7. 242 2021, - 241-244 b

9. Rakhmanova Mukaddas. "Scientifik and pedagogisal bases of preparation of students for development of sosial astivitu in the prosess of professional and pedagogisal edusation" // Volume: 7 Issue: 11 November 2021 SJIF Impast Fastor 2021: 8. 047|| ISI Value: 1. 188. 2021 EPRA IJMR | www. eprajournals. som | Journal DOI URL: https://doi. org/10. 36713/epra2013 B. 283-287.

10. Raxmanova M. Q. Problems of Improving Sosial Sompetense of Students in the Prosess of Higher Pedagogisal Education // Sentral asian journal of literature, philosophy and sulture 12 Des 2022 B. 48-52

11. Raxmanova M. Q. O'quvshilar kasbiy ta'limining psixologik jihatlari va motivlari // O'zMU xabarlari. 2021. –№1/3/ – B. 114-116.

BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

magistrant Saipova Tozagul Risboy qizi

Annotatsiya

Ushbu maqola bolalar o'rtasida ijtimoiy kompetentsiyalarni tarbiyalashda texnologiyaning muhim rolini o'rganadi. Unda raqamli vositalarni bolalikni rivojlantirishga integratsiya qilish bilan bog'liq potentsial afzalliklar va muammolar muhokama qilinadi, ota-onalar va o'qituvchilar uchun amaliy tushunchalar mavjud. Bolalarda texnologiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan tadqiqotlarni aniqlash uchun turli manbalar, shu jumladan akademik jurnallar, ilmiy maqolalar va ta'lim hisobotlari sinchkovlik bilan o'rganildi. Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari rivojlantirish haqida bayon qilingan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari ko’rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to’xtalib o’tilgan. Hamda bola tarbiyasiga va uning kelajagiga doir hikmatli so’zlar tahliliy o’rganilgan. Shuningdek bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari Yaponiya va Xitoy xorijiy davlatlar bilan solishtirish orqali tahliliy yoritilgan. Hamda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarbligi borasidagi fikrlar taxliliy faktlar bilan keltirilgan. Bolalarda ushbu kompetentsiyalarni tarbiyalashda texnologiyaning rolini o'rganadi, usullar, natijalar va ularni bolalarning doimiy kelajakdagi rivojlanishi uchun potentsial ta'sirlar haqida tushuncha beradi.

Kalit so’zlar: Bola, rivojlanish sohalari kompetensiyalari, jismoniy rivojlanish va sog„lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o„qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish, maktabgacha ta‟lim, islohot, huquqiy asos, davlat standarti, o„quv dastur, tarbiyachi pedagog, ota-ona, yangi O’zbekiston, Renesans. ijtimoiy kompetentsiyalar, texnologiyalar, bolalar, rivojlanish, ta'lim, interaktiv platformalar, hissiy intellekt, muloqot qobiliyatlari, hamdardlik.

Annototsiya

This article explores the important role of technology in the education of social competencies among children. It discusses potential advantages and challenges associated with integrating digital tools into childhood development, with practical concepts for parents and teachers. A variety of sources, including academic journals, research articles, and educational reports, were scrutinized to identify studies examining the relationship between technology and social skills development in children. In this article, the compartments of the child's development areas are described. The methodological basis of the child's development field of competences is indicated. In particular, the normative and legal documents on preschool education and training were touched upon. And the words of wisdom about the upbringing of the child and his future are studied analytically. Also, the areas of development of the child are analyzed by comparing the state of Japan and China with the state of Japan. There are also opinions on the relevance of the issue of the formation of compensations in the areas of development of the child. Explores the role of technology in fostering these competencies in children, providing insight into methods, outcomes, and potential implications for children's continued future development.

Kalit so'zlar: Child, compartments of development, formation of physical development and healthy lifestyle, socio-emotional development, speech, communication, reading and writing skills, development of the cognitive process, creative development, preschool education, reform, legal basis, state standard, educational program, educator, parent, new Uzbekistan, Renaissance. social competencies, technologies, children, development, education, interactive platforms, emotional intelligence, communication skills, empathy.

KIRISH

Raqamli dunyoda texnologiya bolalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Haddan tashqari ekran vaqti haqida xavotirlar saqlanib qolsa-da, bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni ijobiy rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanish imkoniyati ham mavjud. Muloqot, empatiya, hamkorlik va hissiy intellekt kabi ko'nikmalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy kompetentsiyalar bolaning umumiy o'sishi va farovonligi uchun juda muhimdir. Ushbu maqola bolalarda ushbu kompetentsiyalarni tarbiyalashda texnologiyaning rolini o'rganadi, usullar, natijalar va ularning kelajakdagi rivojlanishi uchun potentsial ta'sirlar haqida tushuncha beradi.

Texnologiyalarning bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga ta'sirini o'rganish uchun tegishli adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish o'tkazildi. Bolalarda texnologiya va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan tadqiqotlarni aniqlash uchun turli manbalar, shu jumladan akademik jurnallar, ilmiy maqolalar va ta'lim hisobotlari sinchkovlik bilan o'rganildi. Ushbu sharhga kiritilgan tadqiqotlar interfaol platformalar, ta'lim dasturlari, virtual haqiqat va ijtimoiy tarmoqlarni o'z ichiga olgan ko'plab texnologiyalarni qamrab oldi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi[1, 3-modda]hisoblanib, bolaning ilk rivojlanish yoshidan to 7 yoshgacha bo'lgan davrigacha uning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni qarBolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Chunki, birinchidan, har qaysi davlat va millat yoki xalq o'zining avlodini barkamol bo'lishini eng oliy maqsadlar qatoriga qo'yadi. Ikkinchidan, aholining o'sish darajasini 1991 yilga nisbatan 2020 yilni oladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisi 7, 4 foizga o'shgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3, 5 foizga, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1, 8 foizga, rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2, 5 foizni, Tojikistonda esa 4, 3 foizni tashkil etmoqda. [12] Bu tahlillar mamlakatimizda aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga O'zbekistonda bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirganda ham tug'ilish darajasi yuqori ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga keladigan bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga doir dasturlarni, o'quv-uslubiy adabiyotlarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Chunki kechagi va bugungi hamda ertangi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta farqlarni sezayapmiz. Uchinchidan, yangi O'zbekiston bugungi kunda o'z oldiga ezgu maqsad-uchinchi Renesansni barpo etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Mana shu maqsadga erishishda bugungi avlodning kuchli, bilimli va dono bo'lishi talab etiladi. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimi isloh qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Bu tizimni yanada riojlantirish uchun huquqiy asoslar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Xullas, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi. atish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar;-" Har qaysi davlat, har qaysi millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirishda mardlik va fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir" [2, 165-bet]

Darhaqiqat, bugungi avlod istiqbolda yangi O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlashi uchun ham jismoniy va ma'naviy sog'lom, intellektual salohiyatli bo'lishi talab etiladi. Bu talab maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida voyaga yetayotgan yosh avlodning ta'limi va tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni oshirishni taqozo etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

2020-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-sonli Qarori[3] qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berildi. Bularga asosan 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori[4], Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-802-sonli qarori[3] kiradi.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar,

ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030 yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek birinchi prezidentimiz Islom Karimov hamda amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalari ham bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini o'rganishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimiz mustaqilligining me'mori Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida shunday yozadi;-"Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi - bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi.

Bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirish ularning umumiy o'sishi va farovonligining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Ijtimoiy kompetentsiyalar bolalarga boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ijobiy munosabatlar o'rnatish va ijtimoiy dunyoda harakat qilish imkonini beruvchi bir qator ko'nikma va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ba'zi asosiy omillari va bosqichlari:

1. Go'daklik (0-2 yosh):

- Ilova: chaqaloqlar kelajakdagi ijtimoiy munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladigan asosiy tarbiyachilariga qo'shimchalarni shakllantira boshlaydilar.

- Ijtimoiy havola: chaqaloqlar turli vaziyatlarda qanday munosabatda bo'lishni tushunish uchun boshqalardan, masalan, ota-onalarining yuz ifodalarini o'qishni o'rganadilar.

2. Erta bolalik (2-6 yosh):

- Play: Play ijtimoiy rivojlanish uchun muhim yo'ldir. Bolalar parallel o'yin bilan shug'ullanadilar (boshqalar bilan birga o'ynaydilar), keyin ular baham ko'rishni, navbatchilikni va muzokara qilishni o'rganganlarida kooperativ o'yinlarga (birga o'ynashga) o'tadilar.

- Empatiya: bolalarda empatiya, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va baham ko'rish qobiliyati rivojlana boshlaydi, bu ijobiy munosabatlarni shakllantirish uchun zarurdir.

- Aloqa: tilni rivojlantirish ijtimoiy kompetentsiyada muhim rol o'ynaydi. Bolalar o'zlarini og'zaki va og'zaki bo'lmagan holda ifoda etishni o'rganadilar, shu jumladan imo-ishoralar va tana tili yordamida.

3. O'rta bolalik (6-12 yosh):

- Tengdoshlar bilan munosabatlar: bolalar maktabga kirganda, ular tengdoshlari bilan mustaqil ravishda muloqot qilishadi. Ular do'stlar orttirish, nizolarni hal qilish va tengdoshlarning bosimi bilan kurashish kabi qimmatli ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadilar.

- O'z-o'zini boshqarish: bolalar impulslarni boshqarish va hissiy tartibga solishni yaxshi rivojlantiradilar, bu ularga ijtimoiy vaziyatlarda his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini boshqarishga imkon beradi.

- Perspektiv-olish: bolalar narsalarni boshqa odamning nuqtai nazaridan yaxshiroq ko'rishadi, bu ularning boshqalarni tushunish va ularga hamdard bo'lish qobiliyatini oshiradi.

4. O'smirlik (12-18 yosh):

- Shaxsiyatni rivojlantirish: o'smirlar o'zlarining shaxsiyatlari va qadriyatlarini o'rganadilar, bu esa o'z-o'zini anglashga va boshqalar bilan chuqurroq munosabatda bo'lish qobiliyatiga olib kelishi mumkin.

- Tengdoshlar guruhlari: Do'stlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va o'spirinlar yanada murakkab ijtimoiy dinamikani, shu jumladan kliklar va tengdoshlar guruhlarini boshdan kechirishlari mumkin.

- Mojarolarni hal qilish: o'smirlar nizolarni hal qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirishda davom etmoqdalar.

5. Voyaga (18 + yil):

- Mustaqillik: yosh kattalar o'zlarining ijtimoiy vakolatlarini yanada rivojlantiradilar, chunki ular ko'proq mustaqil hayot o'rnatadilar, yaqin munosabatlarni o'rnatadilar va ishchi kuchiga kiradilar.

- Hissiy aql: o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish, hamdardlik va ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan hissiy aql kattalar davomida rivojlanishda davom etmoqda.

Bolalar, ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun tarbiyalovchi va sezgir muhitni ta'minlash, tegishli ijtimoiy xatti-harakatlarni modellashtirish, muloqot va muammolarni hal qilishni

rag'batlantirish, ijtimoiy o'zaro ta'sir va o'yin uchun imkoniyatlar yaratish mumkin. Bundan tashqari, o'z-o'zini hurmat qilish va chidamlilik tuyg'usini tarbiyalash bolalarga ijtimoiy muammolarni hal qilishda va hayotlari davomida sog'lom munosabatlarni o'rnatishda yordam beradi.

Bolalarning ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta texnologiyalar va yondashuvlar mavjud. Ushbu texnologiyalardan ta'lim sharoitida, uyda yoki bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun boshqa usullar bilan birgalikda foydalanish mumkin. Bu erda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi texnologiyalar va yondashuvlar:

Ijtimoiy ko'nikmalar ilovalari va o'yinlari: bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish va mustahkamlash uchun mo'ljallangan ko'plab ilovalar va o'yinlar mavjud. Ushbu interaktiv vositalar ko'pincha bolalarga navbatchilik qilish, do'stlar orttirish va nizolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni mashq qilishda yordam beradigan qiziqarli grafikalar va stsenariylardan foydalanadi.

Virtual haqiqat (VR): VR texnologiyasi bolalarga xavfsiz va boshqariladigan muhitda ijtimoiy o'zaro aloqalarni amalga oshirishga imkon beradigan immersiv ijtimoiy stsenariylarni yaratishi mumkin. VR simulyatsiyalari, ayniqsa, ijtimoiy tashvish yoki autizm spektrining buzilishi bo'lgan bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Video modellashtirish: Video modellashtirish bolalarga tegishli ijtimoiy xulq-atvor va o'zaro munosabatlarning videolarini ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bu ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin, chunki bolalar ijobiy misollarni kuzatishi va o'rganishi mumkin.

Onlayn jamoalar va ijtimoiy tarmoqlar: ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq potentsial xavflar mavjud bo'lsa-da, bu bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni mashq qilish va tengdoshlari bilan bog'lanish uchun platforma bo'lishi mumkin. Ota-ona nazorati xavfsiz va tegishli onlayn aloqalarni ta'minlash uchun ushbu kontekstda juda muhimdir.

Ijtimoiy robotlar: ba'zi maktablar va terapevtlar bolalar bilan ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha ishlash uchun ijtimoiy robotlardan foydalanadilar. Bu robotlar izchil va nooziq-hukm teskari ta'minlash, buyruq fayli shovqinlarni shug'ullanish mumkin.

Ta'lim dasturi: ko'pgina o'quv dasturlari o'quv dasturining bir qismi sifatida ijtimoiy ko'nikmalar darslarini o'z ichiga oladi. Ushbu dasturlardan maktablarda yoki uyda ijtimoiy vakolatlarni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin.

Videokonferentsaloqa vositalari: ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida Zoom va Skype kabi videokonferentsaloqa vositalari virtual o'yinlar va ijtimoiy aloqalar uchun ishlatilgan, bu esa bolalarga do'stlari va oilasi bilan bog'lanish imkonini beradi.

Onlayn darslar va vebinarlar: bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan onlayn darslarda yoki vebinarlarda qatnashishlari mumkin. Ular hamdardlik, muloqot va nizolarni hal qilish kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

Kengaytirilgan haqiqat (AR): AR ilovalari va tajribalari ijtimoiy hamkorlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Masalan, interaktiv AR o'yinlari bolalarni muammolarni hal qilishda birgalikda ishlashga undashi mumkin.

Ota-ona nazorati va Monitoring ilovalari: ijtimoiy ko'nikmalarni bevosita o'rgatmasa-da, ota-ona nazorati ilovalari ota-onalarga farzandlarining xavfsiz va tegishli o'zaro aloqalarini ta'minlash uchun onlayn faoliyatini kuzatish va boshqarishda yordam berishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni targ'ib qilish uchun qimmatli vosita bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uni haqiqiy dunyo, yuzma-yuz muloqot va ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilarning ko'rsatmalari bilan birgalikda ishlatish kerak. Xavfsiz va ijobiy o'rganish tajribasini ta'minlash uchun texnologiya yoshga mos bo'lishi va kuzatilishi kerak.

Texnologiya bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda rol o'ynashi mumkin, ammo u ham afzalliklari, ham kamchiliklari bilan birga keladi. Mana ulardan ba'zilarining parchalanishi:

Afzalliklari

o Ta'lim resurslaridan foydalanish: texnologiya bolalarning ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan keng ko'lamli ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlaydi. Ta'lim dasturlari, veb-saytlar va interaktiv o'yinlar bolalarga hamdardlik, hamkorlik va muloqot haqida ma'lumot berishi mumkin.

o Virtual ijtimoiy o'zaro ta'sir: videokonferentsiyalar va ijtimoiy media platformalari virtual ijtimoiy o'zaro ta'sirni osonlashtirishi mumkin. Bolalar jismonan ajratilgan bo'lsa ham, do'stlari va oila a'zolari bilan bog'lanishlari mumkin. Bu muloqot va munosabatlarni rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

o Multimedia orqali empatiyani o'rganish: filmlar va interaktiv hikoyalar kabi texnologiya bolalarga turli nuqtai nazarlarni tushunishga

va turli xil kelib chiqishi bo'lgan belgilarga hamdard bo'lishga yordam beradi. Bu ularning hissiy intellektini va ijtimoiy ongini oshirishi mumkin.

o Hayotiy stsenariylarni mashq qilish: simulyatsiya va rolli o'yinlar bolalarga hayotiy ijtimoiy stsenariylarni mashq qilishlari uchun xavfsiz muhitni yaratishi mumkin. Ular nizolarni hal qilishni, qaror qabul qilishni va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganishlari mumkin.

o Individual ta'lim: ba'zi ta'lim texnologiyalari bolaning individual o'rganish tezligi va uslubiga moslasha oladi, bu ularga ijtimoiy ko'nikmalarni o'z tezligida shakllantirishga imkon beradi.

Kamchiliklari

o Ekran vaqti: haddan tashqari ekran vaqti ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yuzma-yuz ijtimoiy aloqalarning etishmasligiga olib kelishi mumkin. Ekranlarda juda ko'p vaqt sarflash izolyatsiyaga va Real ijtimoiy ko'nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin.

o Kiberhujum va onlayn ta'qiblar: bolalar kiberhujum va onlayn ta'qiblarga duch kelishlari mumkin, bu ularning o'zini o'zi qadrlashi va ijtimoiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, ayniqsa, to'g'ri hal qilinmasa, zararli bo'lishi mumkin.

o Jismoniy faollikning pasayishi: texnologiyadan haddan tashqari foydalanish harakatsiz turmush tarziga olib kelishi mumkin, bu umumiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan jismoniy mashqlar va shaxsiy ijtimoiy aloqalar imkoniyatlarini kamaytiradi.

o Maxfiylikni yo'qotish: shaxsiy ma'lumotlar va fotosuratlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish bolaning shaxsiy hayoti va xavfsizligini buzishi mumkin. Bolalar uchun raqamli maxfiylikning ahamiyatini va ortiqcha yuklashning mumkin bo'lgan oqibatlarini tushunish juda muhimdir.

o Qaramlik va giyohvandlik: bolalar ijtimoiy munosabatlar texnologiyasiga qaram bo'lib qolishlari mumkin, bu esa giyohvandlikka o'xshash xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Bu oflayn ijtimoiy faoliyatdan voz kechishga olib kelishi va ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

o Noto'g'ri ijtimoiy ta'lim: internetdagi barcha kontent bolalar uchun mos emas. Noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarga ta'sir qilish ularning ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar haqidagi tushunchalarini buzishi mumkin.

Texnologiya me'yorida va ota-onalarning rahbarligi bilan foydalanilganda bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni oshirish uchun qimmatli vosita bo'lishi mumkin. Biroq, texnologiyadan ortiqcha yoki nazoratsiz foydalanish ularning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haqiqiy dunyo shovqinlari bilan ekran vaqtini muvozanatlash va mas'uliyatli onlayn xatti-harakatlarni o'rgatish texnologiyaning afzalliklarini yig'ish va uning kamchiliklarini yumshatish uchun juda muhimdir.

Ushbu sharh natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologiya bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni tarbiyalashda qimmatli vosita bo'lishi mumkin. Biroq, barcha texnologiyalardan foydalanish foydali emasligini va haddan tashqari ekran vaqti va nomaqbul tarkibga ta'sir qilish bilan bog'liq potentsial xavflar mavjudligini tan olish muhimdir. Shuning uchun ota-onalar, o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun bolalarning texnologiyasidan foydalanishga rahbarlik qilish va yoshga mos va ta'lim mazmunini tanlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy kompetentsiyalarni targ'ib qilishda texnologiyaning samaradorligi ko'p jihatdan uning bolalar hayotiga qanday qo'shilishiga bog'liq. Bolalar shunchaki kontent iste'molchilari bo'lgan passiv ekran vaqti faol ishtirok etish va faollikni rag'batlantiradigan interaktiv va ta'lim texnologiyalari tajribalari kabi samarali bo'lmasligi mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, texnologiya o'ylangan va me'yorida foydalanilganda bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ota-onalar va o'qituvchilar quyidagi takliflarni ko'rib chiqishlari kerak:

Yoshga mos tarkibni tanlang: bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va hissiy intellektni oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan texnologiya va ilovalarni tanlang.

Ekran vaqtini kuzatib boring: ekran vaqti va jismoniy o'yin, o'qish va yuzma-yuz muloqot kabi boshqa harakatlar o'rtasida muvozanatni saqlang.

Birgalikda ishtirok eting: texnologiyadan umumiy faoliyat uchun imkoniyat sifatida foydalaning. Birgalikda o'quv o'yinlarini o'ynang yoki o'quv videolarini tomosha qiling va olingan saboqlarni muhokama qiling.

Raqamli fuqarolikni o'rgating: bolalarga mas'uliyatli va hurmatli onlayn xatti-harakatlar, shu jumladan onlayn o'zaro munosabatlarda maxfiylik va hamdardlikning ahamiyati haqida ma'lumot bering.

Xabardor bo'ling: texnologiya va bola rivojlanishi bilan bog'liq so'nggi tadqiqotlar va tavsiyalardan xabardor bo'ling.

Texnologiya bolalarda ijtimoiy kompetentsiyalarni tarbiyalashda kuchli ittifoqchi bo'lish imkoniyatiga ega, ularga raqamli asrda odamlarning o'zaro ta'sirining murakkabliklarini boshqarishda yordam beradi. Mindfully texnologiyasi quchoq va yo'l-yo'riq va qo'llab-quvvatlash bilan, ota-onalar va o'qituvchilar bolalar ijtimoiy vakolatli va hamdard shaxslar bo'lib o'sadi yordam berish uchun uning foyda jabduqlar mumkin.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Chunki, birinchidan, har qaysi davlat va millat yoki xalq o'zining avlodini barkamol bo'lishini eng oliy maqsadlar qatoriga qo'yadi. Ikkinchidan, aholining o'sish darajasini 1991 yilga nisbatan 2020 yilni oladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisi 7, 4 foizga o'shgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3, 5 foizga, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1, 8 foizga, rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2, 5 foizni, Tojikistonda esa 4, 3 foizni tashkil etmoqda. [12] Bu tahlillar mamlakatimizda aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga O'zbekistonda bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirganda ham tug'ilish darajasi yuqori ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga keladigan bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga doir dasturlarni, o'quv-uslubiy adabiyotlarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Chunki kechagi va bugungi hamda ertangi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta farqlarni sezayapmiz. Uchinchidan, yangi O'zbekiston bugungi kunda o'z oldiga ezgu maqsad-uchinchi Renesansni barpo etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Mana shu maqsadga erishishda bugungi avlodning kuchli, bilimli va dono bo'lishi talab etiladi. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimi isloh qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Bu tizimni yanada riojlantirish uchun huquqiy asoslar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Xullas, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilganadabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. https://president. uz.

2. O„zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‟lim vazirligi va YUNESKO hamkorligida. (2018) I. V. Grosheva, L. G. Evstafeva, D. T. Maxmudova, Sh. B.

3. Parmonov B. E. (2018) Maktabgacha ta‟lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. “Science and Education” Scientific Journal. 350-bet.

4. Kilichova M. , Hamrayeva E. (2021) Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Impact factor SJIF-7. 696/ April, 4, P. 668

5. Fazilova D. X (2021) Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o„quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 61-bet.

6. Qilichova M. X. (2021)Maktabgacha ta‟lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. //XXI asr ta‟lim tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. Jizzax, 633-bet.

7. https://countrymeters. info/ru/ Istoriya naseleniya Uzbekistana (1951 – 2021g); Istoriya naseleniya YAponii (1951 – 2021g); Istoriya naseleniya SSHA (1951 – 2021g); Istoriya naseleniya Kazaxstana (1951 – 2021g); Istoriya naseleniya Tadjikistana (1951 – 2021g).

YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TA'SIR ETISH USULLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

katta o‘qituvchi G‘. B. Salohiddinova

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik ta'sir etish usullari haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda ta'limning eng asosiy talablaridan biri bolalarni erkin va mustaqil, ularni har tomonlama kamol topgan, yetuk va rivojlangan shaxs qilib tarbiyalashdir. Bu o‘rinda pedagogik ta'sir etish usullaridan foydalanish juda muhimdir. Maqolada ta'lim–tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir etish orqali bolalarda axloqiy xususiyatlarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, jamiyatning faol a'zosi etib tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi. Ushbu maqolani yoritishda Kouching texnologiyasi (ushbu texnologiya amaliyot darslarida talabalar o’rtasida qo’llanildi va yuqori natija berdi) dan, so’z orqali ta’sir etish usulidan, ishontirish va tajribali o’qituvchilarning usul va vositalaridan foydalanildi. O’quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik ta’sir etish texnologiyasiga doir kerakli tavsiyalar ishlab chiqildi. Pedagogik ta’sir etish usulining pedagogik optimizm, o‘quvchilarga hurmat, o‘quvchining ruhiy holatini tushunish, o‘quvchi tabiatining tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish, o‘quvchining taqdiri bilan qiziqish kabi tamoyillari keng yoritib berildi. Maqolani yozish jarayonida professor O. Musurmanovaning va pedagog Sitarov B. A. ning adabiyotlaridan foydalanildi.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy faollik, pedagogik ta'sir etish usuli, ta'lim sifati, Amonashvili tehnologiyasi, ishontirish texnologiyasi, o‘zaro hamkorlik, mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch, bola shaxsiga hurmat.

Annotation

This article focuses on the methods of pedagogical influence on increasing the social activity of youth. Today, one of the main requirements of education is to raise children as free and independent, fully matured and developed individuals. In this case, it is very important to use methods of pedagogical influence. The main goal of the article is to

form moral characteristics in children, expand their horizon and educate them as an active member of society through pedagogical influence in the process of education. Coaching technology (this technology was used among students in practice classes and gave high results), verbal influence, persuasion and methods and tools of experienced teachers were used to elucidate this article. Necessary recommendations on the technology of pedagogical influence in increasing the social activity of students were developed. The principles of the method of pedagogical influence, such as pedagogical optimism, respect for students, understanding of the student's mental state, revealing the external characteristics and reasons of the student's nature and interest in the student's fate, were widely explained. In the process of writing the article, the literature of the professor O. Musurmanova and the pedagogue Sitarov B. A. were used.

Keywords: social activity, method of pedagogical influence, quality of education, Amonashvili's technology, mutual cooperation, independent thinking, self-confidence, respect for a child personality.

O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasining asosiy masalasi xususida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e’tiborga molik: “. . . mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, bu yo‘lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo‘lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun eng muhim masaladir” Sh. Mirziyoev.

Kirish

Zamon qanchalik shiddat bilan rivojlanib borar ekan, ta'limga va o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj shu darajada kuchayib boradi. Bu esao‘z navbatida biz pedagog va tarbiyachilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Pedagog - yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi shamchiroq, ularga bilim va tarbiya beruvchi mas'ul shaxsdir. Har bir bola qiyofasida shaxsni ko‘rmoq, o‘quvchilarning ko‘zga ko‘rinmagan qirralarini shakllantirmoq, ularni o‘z kuch va bilimiga ishontirish, barcha muammolarni to‘g‘ri taxlil qilish va yechimini topa olishlariga qodir ekanligiga ishontirish, bu jarayonda ularni qo‘llab-quvvatlash biz pedagoglarning oldimizda turgan eng muhim va asosiyvazifamizdir. Yoshlarniijtimoiy faol ya'ni jamiyatning faol a'zosi qilib tarbiyalash ta'lim sohasida bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir.

Sitarov B. A. (2007) fikriga ko`ra, Ijtimoiy faoliyat shaxsning tizimli omillaridan biri bo‘lib, uni jamiyat va boshqa odamlar uchun qadrlash nuqtai nazari deb tavsiflaydi. Ijtimoiy faoliyat orqali insonning hayotiy pozisiyasi, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shish istagi, o‘zini shaxs

sifatida faoliyatda amalga oshirish istagi namoyon boʻladi. Ijtimoiy faollik oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, u vaziyatga, shaxsiy motivasiyaga koʻproq yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonga bogʻliq. Bu esa pedagoglarga pedagogik jarayonda sub'ekt-sub'ekt hamkorligini yoʻlga qoʻyish, oʻquvchilarni erkin va mustaqil fikrlashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllatirish vazifalarini yuklaydi.

Insonning atrofdagi ijtimoiy voqelik bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish uchun u turli xil faoliyat shakllarini namoyon qiladi, tadqiqotchilar "inson-jamiyat" umumlashtirilgan tizimini ko'rib chiqadilar. Inson o'z ijtimoiy faolligini faqat transformatsiya jarayonida amalga oshirishi mumkin, deb ishoniladi. ijtimoiy munosabatlarni o'z-o'zidan qayta quradigan, kuchli tomonlar, qobiliyat va iste'dodlarning maqbul namoyon bo'lishini yaratadigan faoliyat.

Insonning jamiyat bilan o'zaro munosabati shaxsning ijtimoiy faolligini tahlil qilish uchun o'ziga xos baholash tizimini belgilaydi. Buni butun ijtimoiy taraqqiyot yoʻnalishi va maqsadlari nuqtai nazaridan koʻrib chiqish mumkin. Bu maqsadlarni qoʻyish va ularga erishish orqali inson ijtimoiy munosabatlarni tiklaydi, ularni oʻzgartiradi, shu bilan tarixning yaratuvchisi sifatida harakat qiladi. Ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos "tashuvchisi" ishlab chiqaruvchi, ongli, ijtimoiy, sub'ekt-ob'yekt xarakteriga ega bo'lgan inson faoliyatidir. Faoliyat havaskor ijro xarakteriga ega bo'lishi muhimdir, ya'ni shaxs o'z tashabbusini amalga oshiradi, jamiyat oldidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi (Sitarov, Romanyuk, Lugovoi, 2007).

Ijtimoiy faollikni asosiy omillaridan biri mustaqil fikrga ega boʻlishlikdir. Dars jarayonlarida oʻquvchilarni faolligi ta'minlash, ularni fikrini oʻstirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Yoshlarda mustaqil fikrga ega boʻlishlikni tarbiyalash - oʻz-oʻzini bilishning yuqori darajada rivojlanganligi natijasidir. Oʻz mustaqil fikriga ega boʻlgan oʻsib kelayotgan yosh avlod oʻz-oʻzini kuzatishi, oʻz faoliyatini tahlil qilishi, oʻziga-oʻzi baho berishi, oʻz dunyoqarashi, bilimlarini boyitib borishi mumkin, bu jarayonda pedagoglarning ta'siri muhim rol oʻynaydi.

Shaxsning oʻz-oʻzini bilishiga koʻra uning jamiyatdagi oʻrni qadrlanadi. Bu oʻrinda oʻz-oʻzini tarbiyalash muhim oʻrin egallaydi. Bunday yoshlarda gʻoyaviy-siyosiy madaniyat darajasi ham yuqori boʻladi. Shaxsning erkinligi va mustaqilligi ikki tomonlama baholanadi. Ularning biri ijtimoiy hayotda mavjud, ya'ni tan olingan tartib va qoidalar, qonunlarga nisbatan shaxsning munosabatini bildirsa, ikkinchisi insonning oʻz rejalari, oʻz maqsadi, vazifalari, burchini qay darajada baholay va belgilay olishidir.

Albatta, bunda ikkinchi baho birinchi bahoga nisbatan hal qiluvi rol' o‘ynaydi. Chunki inson birinchi navbatda o‘zining mustaqil fikri, maqsad va rejalari, erkinligiga ega bo‘lmog‘i kerak. Yoshlarni ijtimoiy faolligi oshirishning yana bir muhim omillaridan biri o‘quvchilarga pedagogik ta'sir etish usullarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir.

Tarbiyachilar o‘z ish faoliyatlari davomida asosiy e’tiborni doimiy ravishda o‘quvchilar tarbiyasi, xulq-atvori, tartib-intizomiga tuzatishlar kiritishlari, ulardagi kerakli shaxsiy xislatlar va tabiatlaridagi qirralarni rivojlantirishlari, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratishlari lozim. Bunday jarayonni tashkil etishda tarbiyachilar pedagogik ta’sirning turli usullaridan foydalanishlari mumkin.

Professor O. Musurmanova *Pedagogik ta’sir usuliga quyidagicha ta`rif beradi:*

Pedagogik ta’sir usuli – bu aniq pedagogik holatlarni tashkil qilish usulidaniborat bo‘lib, unda ma’lum qonuniyatlar asosida o‘quvchilarning ijobiy ishlarida o‘z kamchiliklarini yo‘qotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlar uyg‘onadi.

Tarbiya jarayonida zarur pedagogik ta’sir usulni tanlash uchun o‘quvchining hissiy holati, xarakatning tabiati va sababi oldindan aniqlanishi lozim. Bu, o‘z navbatida, ushbu harakatning psixologik tahlili, uning o‘quvchi shaxsiyati bilan yaqin aloqasini ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Pedagogik holat tarbiyachining ijodiy fikrlariga binoan yaratiladi. *Birinchidan,* tarbiyachi foydalanishni mo‘ljallagan ta’sir usulini amalga oshirish uchun mos sharoitlarni hayolan tanlashi kerak. *Ikkinchidan,* tarbiyachi o‘z mo‘ljallagan ishi va xulqini o‘quvchining harakatiga bo‘lgan munosabatiga binoan mos ravishda o‘ylab chiqishi lozim.

Pedagogik ta’sirining har bir usuli o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ikkita unsurning o‘ziga xos birligidan vujudga keladi: a) yaratilayotgan pedagogik holatlar xususiyatlari; b) yangi pedagogik holatga o‘quvchilarda tug‘iladigan yangi fikrlar, tarbiyaning yangi sabablari va shaxsiy kamchiliklarini engib o‘tishga asos bo‘ladigan hissiyotlar mazmuni.

Pedagogik ta’sir usullarini ikkita guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh usullari o‘quvchini ilhomlantiruvchi ijobiy hissiyotlar asosida uning ahloq-odobi, tarbiyasi, tartibiga o‘zgarishlar kiritadi, bular xursandchilik, minnatdorlik, tarbiyachiga hurmat, o‘z kuchiga ishonchdan iborat.

Ikkinchisi- uyatchanlik, epsizlik, hafsalasizlik, o‘kinch, xafagarchilik, achinish kabi salbiy xislatlarni yo‘qotishga yordam beradigan usullardir.

Ijodiy faoliyatda nafaqat o‘quvchilar tarbiyaviy ishlarining yaxshi natijalariga erishiladi, balki tarbiyachilarni o‘zlarining shaxsiy hissiyotlari ham rivojlanadi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini qo‘llash jarayonida tarbiyachining g‘oyaviyligi, tabiatidagi insonparvarlik, mehribonlik, sezgirlik kabi, tabiatning chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, maqsadga intiluvchanlik, tezkorlik, tashabbuskorlik kabi hissiy qirralari hamda tabiatning topqirlik, ziyraklik, aqliy barkamollik, kuzatuvchanlik kabi iroda qirralari ko‘zga tashlanadi.

Tarbiyaviy usullarni egallash va ularni ish jarayonida tadbiq etish tarbiyachining tarbiya maqsadlarini yanada maqsadli va qulay bo‘lishiga yordam beradi.

Professor O. Musurmanovaning “Umumiy pedagogika”darsligi 2-qismida pedagogik ta’sir usullarining tamoyillariquyidagicha asoslanadi:

- pedagogik optimizm;
- o‘quvchilarga hurmat;
- o‘quvchining ruhiy holatini tushunish;
- o‘quvchi tabiatining tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish;
- o‘quvchining taqdiri bilan qiziqish.

Pedagogik optimizm. Tarbiyachilar yuqori optimizm, ya’ni kelajakka katta ishonch bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yangi qonunlarini hayotga tatbiq qilmoqdalar. O‘quvchilar shaxsiyatining cheksiz imkoniyatlariga ishongan tarbiyachilarning pedagogik optimizmi, ayniqsa, turli yoshdagi turli aqliy darajadagi o‘quvchilarga nisbatan, ularning dam olish va o‘qish qoidalarini, shartlarini tashkillashtirishda yaqqol ko‘rinadi. Ta`lim-tarbiya jarayonida pedagog har qanday sharoitda ko`tarinki ruhda faoliyat olib bormog`i lozim. Pedagogdagi yomon kayfiyat hech qachon o`z ta`sirini o`quvchiga bildimasligi, bu xolatdan o`quvchi shaxsi aziyat chekmasligi kerak.

O‘quvchilarga hurmat. Insonga hurmat – insonlararo munosabatlarning asosiy talabidir. Tarbiyachining faoliyatida o‘quvchilarga hurmat alohida o‘rin tutadi, ularda ishonch, samimiylik, kattalarning maslahatlariga va takliflariga moyillik uyg‘otadi. Qo‘pollik, o‘quvchilar shaxsiyatiga hurmatsizlik эca o‘quvchilarda qo‘rquv va havotirni keltirib chiqaradi, bunday holatlarda o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi to‘la yo‘qoladi. Natijada uning mustaqilligi, faolligi

sezilarli darajada kamayadi. Yoki aksincha o‘qituvchilarning qo‘pol munosabatigajavoban xafagarchilik, g‘azab, hattoki, ba’zi narsalarni aytaylab teskarisini qilishga intilishni tug‘diradi. Bunday paytlarda o‘quvchilar hatto adolatli talablarni bajarishdan ham bosh tortadilar. Tarbiyachiga bo‘lgan bunday munosabat ba’zan ular olib borayotgan fanga, ishga, mashg‘ulotga, hatto o‘zi tahsil olayotgan ta’lim muassasasiga, o‘quv xonasiga bo‘lgan munosabatga ko‘chadi. Bunday noxush xolatlarning oldini olish uchun esa o‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishi, sinf jamoat ishidan birortopshiriqni ishonch bildirgan xolda vazifani yuklashi va bu jarayonda o‘quvchini qo‘llab-quvvatlab turishi lozim. Shundagina o‘quvchi jamoada faollikka erishadi, nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatishga harakat qiladi, axloqiy jihatdan shakllanadi, to‘g‘ri yo‘ldan borayotganligiga ishonch hosil qiladi.

O‘quvchining ruhiy holatini tushunish. O‘quvchilar xulqining buzulishini, tarbiyasidagi salbiy o‘zgarishlarni sezish qiyin jarayon emas. Tarbiya jarayoniga pedagogik ta’sir usulini to‘g‘ri tanlash uchun o‘quvchilarning tartibbuzarlik sabablarini o‘rganish kerak, chunki shaxsning turli psixologik holatlarining tashqi ko‘rinishi bir xil bo‘ladi. Masalan, o‘quvchining guruhdagi faolligining susayishining asosiy sabablari, uning injiqligi, ko‘z yoshlari, uydan chiqib, uzoqroqqa ketishi va ota-onasidan uzoqda (ba’zi o‘quvchilarning turar joylarda) yoki uydagi yetishmovchilik, ota-ona o’rtasida murosaning yo’qligi kabi sabablardan iborat bo‘lishi mumkin.

O‘quvchining ruhiy holatini tushunish uchun tarbiyachilar o‘quvchilar shaxsning fazilatlarini, xususiyatlarini, ularning yashash sharoitlarini bilishlari va chuqur tahlil qilishlari kerak. Tarbiyachining kuzatuvchanligi va sezgirligi o‘quvchining xulqida namoyon bo‘layotgan ruhiy holatini tushunishga yordam beradi.

O‘quvchi harakatlarining sabablari va tashqi xususiyatlarining ochilishi. O‘quvchilarning harakatlari etakchi, tarbiyachi, jamoa, atrofdagi insonlar tomonidan yaxshi, oliyjanob yoki yomon deb baholanadi. Tarbiyachining o‘quvchiga bo‘ladigan munosabat (yondashuv)lari, ularning harakatlari tabiatiga bog‘liq. O‘quvchi harakatlarini to‘g‘ri baholash uchun, harakat mohiyatini, ya’ni ichki sabablarini ochish lozim. Ko‘pincha o‘quvchilar harakatining ichki sabablari tashqi ko‘zdan yashiringan bo‘ladi, ya’ni tashqi tomondan darrov ko‘rinmaydi. Ularni tarbiyachi tomonidan tushunishga, ba’zan o‘quvchining o‘zi katta yordam berishi, ya’ni bo‘lgan voqea haqida o‘zi hurmat qiladigan tarbiyachisiga ochiq gapirib berishi mumkin. Tarbiyachi bunday yomon holatni keltirib chiqaruvchi tashqi holatlardan xulq sabablarini ajrata olishi lozim.

O‘quvchining taqdiriga qiziqish. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiya mobaynida o‘quvchilarning taqdiriga qiziqish tarbiyachilarda o‘quvchilarga muhabbat va ularning taqdiriga javobgarlik hissi tufayli rivojlanadi. Tarbiyachilar har bir o‘quvchining taqdiri, ayniqsa, guruh hayotidan qoniqish hosil qilmaydigan, guruhdoshlaridan yotsiraydigan va guruh ishlaridan o‘zini olib qochadigan o‘quvchilar taqdiri bilan qiziqishlari lozim. Lekin o‘quvchining taqdiri bilan astoydil tashvishlangan va unga yordam berishni xohlagan tarbiyachilar o‘quchilarga mehribonlik, ularga e’tibor va g‘amxo‘rliklarini ko‘rsatishlari uchun dastlabki omadsizlikdan cho‘chimasliklari, turli yangi usullarni izlashlari lozim. Tarbiyachilarning kundalik faoliyatlaridagi o‘quvchiga g‘amxo‘rliklari, xayrixohlik munosabatlari va pedagogik ta’sirning usullarini to‘g‘ri tanlashlari o‘quvchilarda o‘z tarbiyachisiga muhabbat, sadoqat, ularda xursandchilik xohishini uyg‘otadi, shuningdek, yangi ijobiy xislatlarni rivojlantirishga va salbiy xislatlarni yo‘qotishga yordam beradi.

Endi tarbiyachilarning o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida foydalanishlari mumkin bo‘lgan pedagogik ta’sir usullaridan ba’zilari bilan tanishtiramz:

Ishontirish – bu aniq xulq-atvor yoki qaysidir ishni mumkin emasligini, to‘g‘riligini va zarurligini isbotlash va tushuntirishdir.

Ishontirish jarayonida o‘quvchilarda yon-atrofidagi insonlarni hatti-harakatlarini va o‘z xulqlarini baholash mezonlariga mos bo‘ladigan axloqiy qarashlar shakllanadi.

O‘quvchini ish bilan ham, so‘z bilan ham ishontirish mumkin. O‘quvchini ishlatish orqali ishontirish jarayonida tarbiyachi isbotlanayotgan holat, vaziyat va muammolarni, hayotiy tajriba sharoitlaridan kelib chiqqan holda, yaratadi. Ishontirish ta’sir usuli o‘quvchi xulqini tuzatuvchi usul bo‘lib xizmat qilishi mumkin. So‘z bilan ishontirish jarayonida, o‘quvchilarga yo‘l qo‘yilgan xatolar tabiati axloqiy me’yor nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Ishontirish usuli samimiylikni va jo‘shqinlikni talab qiladi. Bu jarayonda tarbiyachilarning kechinmalari o‘quvchilarga o‘tadi. Ishontirish bilan ixlos tug‘dirish usullari juda o‘xshash. Bu usullarning o‘xshashligi ishontirish ham, ixlos tug‘dirish ham suhbat orqali amalga oshirilishidan iboratligidadir, lekin ixlos tug‘dirishda tarbiyachilar o‘quvchi qilayotgan hatti-harakatlarning to‘g‘ri yoki xatoligini isbotlamaydilar. Bu jarayonda ular tarbiyalanuvchiga o‘z fikrlarini sekin va ohistalik bilan aytadilar. O‘quvchi tarbiyachining so‘zlarni tinglab turib, o‘z hatti-harakatini tanqidiy baholay boshlaydi va o‘z xulqini to‘g‘irlashga harakat qiladi.

Shu o‘rinda Amerikaning Minnesota shtatida yuz bergan matematika o`qituvchisining insonparvarliktamoyili asosidaqo`llagan metodini barcha pedagoglarga saboq sifatida esga olamiz.

Minnesota shtatida yashovchi matematika o‘qituvchisi o‘quvchilarga shunday vazifa berdi: sinf ro‘yhatini tuzish, har bir bolaning xulq-atvoridagi o‘zingizga yoqqan tomoni haqida o‘ylab ko‘ring va bu sifatni uning qarshisiga yozing. Darsning ohirida u o‘quvchilardan bajarilgan vazifalarni yig‘ishtirib oldi. O‘sha kuni juma edi. Damolish kuni o`qituvchibarchanatijalarini taxlil qilib chiqdi va dushanba kuni har bir o‘quvchiga sinfdoshlarining u haqidagi ijobiy fikrlarini yozib tarqatdi. O‘quvchilar ularni o‘qiy boshlashdi, u yer-bu yerdan pichirlagan ovozlar eshitildi: “Nahotki bularning barchasi men haqimda? Meni bunday yaxshi ko‘rishlarini bilmas ekanman. ” Ular natijalarni sinfda muhokama qilishmadi, lekin o‘qituvchi maqsadiga erishgani va o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortgani aniq edi.

Yillar o‘tib o‘quvchilardan biri – Mark EklandV`etnamda halok bo`ldi. Uni o‘z vatani, Minnesotada dafn qilishdi. Mark bilan hayrlashishga uning do‘stlari, sinfdoshlari, o‘qituvchilari kelishdi. Dafn marosimida uning otasi matematika o‘qituvchisining yoniga yaqinlashdi: “Men sizga bir narsa bermoqchiman, u karmonidan to‘rt buklangan qog‘ozni oldi. Ko‘rinishidan u ko‘p marta ochib o‘qilgan edi. – Buni Markni kiyimlari ichidan topishdi, u bu qog‘oz bilan ajralmasdi. -Taniyapsizmi?Bu Markning ijobiy xislatlari bitilgan qog‘oz edi. – Sizga katta rahmat - dedi Markning onasi, o‘g‘limiz bu xatni juda qadrlar edi.

Shu payt kutilmagan voqea sodir bo‘ldi: Markning sinfdoshlari ketma-ket ijobiy xislatlari yozilgan qog‘ozlarni ola boshlashdi. . . Maqolaning xulosasida, barcha o‘quvchilarni birgina ijobiy xislatlari yozilgan qog‘oz, ularga o‘ziga bulgan kuch va ishonchni ortishiga, jamiyatda har bir o‘quvchining o‘z o‘rnini topishiga va katta yutuqlarga erishishiga sabab bo‘lgan edi. Ushbu maqola “ Riders Dayjest” jurnalida “O‘quvchilarning xotrasida bir umrga muxrlanib qolgan vazifa” - maqolanomi bilan chop etiladi. Bu maqolani misol qilishdan maqsad ba'zi o‘qituvchilarga (avtoritar tizimdagi) ta'sir qilsa, bolalarga bo‘lgan munosabat bir oz ijobiy tomonga o‘zgarsa ajab emas. Demak, matematika o‘qituvchisining bolalarga ishonch bag‘ishlagan bu usuli o‘quvchilarga pedagogik ta'sir etishning eng ishonchli vositasidir.

Sitarov o`quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirishda muammoli vaziyatlarni yaratishning muhimligini alohida ta`kidlaydi. O‘quvchilarning o‘z faoliyatining kelajakka bo‘lgan ehtiyojini tushunishlari, kattalar va ayniqsa, tengdoshlari oldidagi mas’uliyatini his

qilishlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham muammoli vaziyatlarni yaratishda o`qituvchi qo`yilgan vazifalarni jamoaviy va guruhli hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarni ta`minlashi kerak. Ayniqsa, o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi munosabatlarning ahamiyati e`tiborga loyiqdir. Uning doirasida olib boriladigan ta'lim faoliyati va muloqot insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi kerak (Sitarov, Romanyuk, Onishchenko, 2004).

Ta'lim faoliyatida shaxsiy tashabbuslarni rag'batlantirishga imkon beradigan muammoli vaziyatlarni yaratish usullari qanday (Sitarov, 2014). Talabalarda boshlanishi kerak bo'lgan tashabbus turlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lgan holda va materialning ijtimoiy mazmunini tanlash va to'ldirish to'g'risida qaror qabul qilgan holda, muammoli vaziyatlarni yaratishning bir qator usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Usulning dinamik kategoriya ekanligini va maqsadli sozlamalar bilan belgilanadigan tarkib harakatining shakli sifatida harakat qilishini hisobga olsak, biz maqsad sozlamalari jihatidan farq qiluvchi guruhlarni tashkil etuvchi ba'zi usullar va usullar haqida gapirishimiz mumkin. Bu sizga usullarni ajratib ko'rsatish va maqsadlarga qarab ularni belgilash imkonini beradi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib muammoli vaziyatlarni yaratish usullari va usullarining quyidagi guruhlarini o'quvchilarning turli xil tashabbuslari amalga oshiriladigan o'quv vaziyatlarining maxsus sinfi sifatida ajratamiz.

Kichik sinf o'quvchilarning kognitiv savollarini rag'batlantiradigan usullar. Masalan, kutilmagan yechimlar usuli. O'qituvchi maktab o'quvchilarining ustun g'oyalariga zid bo'lgan ma'lum bir muammoning yangi stereotipsiz echimini taklif qiladi. Ikkinchisi, intellektual va hissiy jihatdan muhim vaziyatga tushib qolgan holda, "nima uchun", "qanday qilib" bu vazifani hal qildi? Ushbu usullar guruhining yana bir xilma-xilligi o'quvchilarga qo'shimcha ma'lumot olishga qaratilgan savollarni berishga majbur qiladigan noaniq tugallangan vazifalarni taqdim etishdir.

Tashabbusning mustaqilligining namoyon bo'lishini rag'batlantiruvchi usullar. Bunga o'zgartirilgan kontent bo'yicha o'xshash vazifalarni mustaqil ravishda tuzish, shuningdek, kundalik hayotda analoglarni qidirish usullari kiradi.

Sitarov faoliyatni amalga oshirish jarayonida ilgari surilgan tashabbuslarni rag'batlantiruvchi usullar: Bu qasddan qilingan xatolarni qabul qilishni o'z ichiga oladi, bunda bolalar faoliyat jarayonida o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yilgan xatoni aniqlab, uni tuzatishi kerak; yechimni birgalikda qidirish usuli, o'qituvchi maqsadga erishish uchun

ataylab noto'g'ri yo'lni tanlaganida, bolalar buni kashf etadilar va muammoni hal qilishning o'z usullari va vositalarini taklif qila boshlaydilar, amalga oshirilgan faoliyatni qayta qurish; "labirint" metodi, talabalarga besh-oltita tayyor echim taklif qilinganda va ular maqbul echim topishda tashabbus ko'rsatishi kerak; o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega (masalan, sayohat) vaziyatni yaratganda amaliy muammolarni hal qilish va talabalar maqsadli tashabbuslarni ko'rsatishi kerak. deb hisoblaydi.

O‘quvchilarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun quyidagi kouching texnologiyasi ishlab chiqildi, uni pedagogik jarayoda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu texnologiyada o‘qituvchi o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlarini bayon qilishlari uchun, o‘zlarini muhim shaxs sifatida xis qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermog‘i lozim.

Kouching texnologiyasi

Uslubning maqsadi: shaxsni, uning personal va kasbiy faoliyatida natijaviyligini maksimal ko‘tarishdan iborat.

Uslubning mohiyati: salohiyatni ochishga mo‘ljallangan quroldir.

Harakatlar rejasi: muloqot, samarali savollar berish va diqqat bilan javoblarni eshitish.

Kouching bosqichlari:

1. Kouching maqsadini aniqlash.

2. Joriy vaziyatni tahlil qilish.

3. Maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash.

4. Harakalar rejasini tuzish.

5. Rejani joriy etish jarayonida nazorat va qo‘llab-quvvatlash.

Kutiladigan natija: shaxs faoliyati samaradorligini jiddiy oshirish.

Kouching tamoyillari:

‘z-o‘zini takomillashtirish;

i

;

‘zgarishlar;

o‘nalish va ruhlanish;

;

;

Kouching koʻrinishlari:

;

***Shaxsiy samarali kouching (shaxs faoliyatini shakllantirishga qaratiladi)** tanlab olindi.

Biz shaxsiy samarali kouchingni maqolani mazmuni vamaqsadidan kelib chiqib tanlab oldik va qo`lladik.

Shaxsiy samarali kouching vazifasi – qatnashuvchiniruhlantirish, energiya bilan toʻldirish, unga oʻzini-oʻzi rivojlantirishiga, barcha maqsadlariga erishishiga ishontirish. (Pedagogik ta'sir etish orqali)

Shaxsiy samarali kouching bosqichlari:

1 - bosqichda oʻquvchilar oʻz oldilariga maqsadlarini aniq qoʻyadilar. Shaxsiy muvaffaqiyatning maqsadi ifodalanishi bilan, biz "Shaxsiy rivojlanish rejasi" nomli dastlabki bosqichga oʻtamiz. Maqsadga muvofiq holda unga erishish uchun qilinadigan yuz qadamni yozish zarur. Maqsad bir yilga, ikki yilga, uch yilga, besh yilga moʻljallanishi mumkin. Bu yerda chegara muhim emas. (bu bosqichda har bir oʻquvchining maqsadi va rejasi oʻqituvchi tomonidan nazoratga olinadi, yil yakunida taxlil qilinadi; shundagina oʻquvchilarda oʻsish yuzaga keladi)

2 - bosqichda oʻquvchilar shaxsiy rivojlanishi uchun toʻsiq boʻlayotgan muammolar haqida oʻzaro fikrlari bilan oʻrtoqlashadilar. Bu jarayonda barcha qatnashchilar oʻz fikrlarini ochiq bildirishi soʻraladi, hech qanday kulgu yoki tanqidga oʻrin berilmaydi. Oʻqituvchi tomonidan quyidagicha savollar beriladi:

-Sizga qanday yordam kerak?

- Yoʻlingizda qanday toʻsiqlar boʻlishi mumkin?

- Siz buni qachon bajarmoqchisiz?

- Agar sizning oʻrningizda boshqa kishi boʻlganda, Siz unga nima maslahat bergan boʻlar edingiz?

3 - **bosqichda** har bir qatnashchi boshqa ishtirokchilarni har biriga eng yaxshi xislatlari haqida o‘z fikrini yozib qoldiradi va javoblar umumlashtiriladi, qarabsizki har bir o‘quvchi haqida ajoyib tavsifnoma yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini shakllantiradi.

4 - bosqichda o‘z-o‘zini rivojlantirishda qilinishi kerak bo‘lganvazifalar haqida o‘qituvchi tomonidan tavsiyalar beriladi, masalan: kitoblar o‘qish (buyuk allomalarimiz va ular erishgan yutuqlar haqida yoki Deyl Kornegi asarlari)

5 - bosqichda o‘qituvchi tomonidan muammoli savollar qo‘yiladi, berilgan savollarga barcha o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini erkin bayon qiladilar. Bu jarayonda tanqidiy fiklash yuzaga keladi. (tanqidiy fikrlash qoidalariga barcha o‘quvchilar amal qilishi shart)

6 - bosqichda Shaxsiy samarali tizimli kouchingning finalida besh – yetti yil oldinga va hayotiy sikllarni dasturlash va qayta dasturlash bilan ishlash boradi.

Natijalar

Yuqorida ko`rsatilgan kouching texnologiyasi “Ta`lim texnologiya” si fani3-kurs talabalari o`rtasida qo`llandi va yuqori natijaga erishildi. Talabalarning faolligi to`liq ta`minlandi. Demak, yuqorida ko‘rsatilgan kouching texnologiyasini barcha fanlar doirasida qo‘llash mumkin. Bu texnologiya albatta o‘z samarasini beradi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashi, mustaqil qaror qabul qila olishi, jamiyatning faol a'zosi bo‘lishi barobarida vatan ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sha olishi uchun pedagogik jarayonga, pedagoglar faoliyatiga**quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

aktablarda tajribali o‘qituvchilarning ish usullarini ommalashtirish,

- sinf rahbarlarining tarbiyaviy ta'sir etish texnologiyalari bilan bog‘liq metodlari bilan o‘zaro tajriba almashish;

ta-onalar bilan o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini (pedagogik bilim berish orqali) yo‘lga qo‘yish, bola tarbiyasiga so`z orqali ta`sir etish

quvchi shaxsini hurmat qilish va unga ishonch bildirish, bajargan ishlarini so‘z orqali ta'sir etish orqali bo‘lsada o`zvaqtida rag‘batlantirib

‘quvchilarnixato qilishdan qo‘rqmaslikka, tavakkal qilishga o‘rgatish,

- o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabatning mavjudligi;

- o

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, insonning ijtimoiy faolligini shakllantirish uchun eng qulay yosh - bu boshlang'ich maktab yoshi, chunki bu erda tashabbuskorlik va mehnatsevarlikni, ijtimoiy impulsivlik va ijtimoiy faollikni jadal rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Passivlik bartaraf etiladi. Albatta bu jarayonlar pedagoglarning ta`siri ostida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh. M. Mirziyoev 2022 yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi.

2. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. -Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012.

3. O. Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika2-qism - T: 2020 y. “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti.

4. Aynisa, M. (2022). PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES-THE FACTOR OF EDUCATIONAL EFFICIENCY. *Thematics Journal of Education*, *7*(4).

5. Мусурманова, А. (2019). Профессионализм педагога в духовном формировании подростков средствами книг. *Academy*, (2 (41)), 77-79.

6. Ситаров, В. А. (2009) Проблемное обучение как одно из направлений современных технологий обучения // Знание. Понимание. Умение. №1. С. 148–157.

7. Ситаров, В. А. (2014) Теория обучения. Теория и практика : учебник для бакалавров. М. : Юрайт. 447 с.

8. Ситаров, В. А. , Романюк, Л. В. , Луговой М. В. (2007) Жизнеспособность «Концепция воспи% тания жизнеспособных поколений» // Сибирский педагогический журнал. №1. С. 134–137.

9. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Social pedagogue’s responsibilities in cooperation with a family to increase child sociability. Достижения науки и образования, (19 (41)), 59-61.

10. Salokhiddinova Gazalkhon Bekmirzayevna (2018). Creativity and artistic thinking as important components of professional competencies of future teachers. Academy, (5 (32)), 69-70.

11. G. Salohiddinova. Formation of High Moral and Aesthetic Qualities in the Minds of Preschoolers Based on the Activities of Family and Educators *Volume 2 Issue 3, Year 2023*. *ISSN: 2835-3048* *https://univerpubl. com/index. php/semantic*

Associate Professor Dilnoza USTA-AZIZOVA

Annotation

In this state, innovative research and modern education systems are considered. The author's special attention is focused on significant methodological approaches that have wide application in pedagogic science, as well as innovative technological transformation and innovation in modern science. Vydeleny etapy innovatsionnykh issledovaniy v ramkhax sovremennoy pedagogiki, principley approaches to management of knowledge, kotorye otrajayut pedagogicheskuyu deystvitelnost i organizational approaches to the pedagogical process.

Keywords: innovative research, methodological approach, pedagogical process, professional analysis.

In the era of global changes, the problem of preservation of historical and cultural national heritage is becoming more and more acute. The rapidly changing appearance of cities and human-developed land not only leads to the appearance of new objects, but also causes the destruction of the past. Old buildings and streets can't compete with new ones in terms of convenience, and gradually lose their prestige and former brilliance. At the same time, even in the modern age, the soul of any place remains a cultural center, acting in one way or another as a storehouse of traditions, a link between ancestors and descendants in history.

In the decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to improve the organization of primary health care institutions of the Republic of Uzbekistan" dated March 29, 2017 No. 04. 04. 2017 No. 174 on additional measures to improve the training and retraining system, andin the decision of the President of May 6, 2017 "On measures to further reform the system of medical education in the Republic of Uzbekistan", it was decided to significantly increase the quality of medical education, higher and secondary special, professional the necessity of consistent formation of the education system was notedproviding medical education at the level of advanced international practice, increasing the level of medical care.

Revising the standards of higher medical education, expanding the block of professional sciences, setting new shortened study periods and targeted admission of students with specialization indicated in the diplomas of graduates of higher medical educational institutions, professors, undergraduates and measures such as attracting undergraduate staff were determined to carry out scientific-research work in the current directions of medical development aimed at the fundamental improvement of the higher medical education system for graduate students and clinical ordinators; quality of education and health care for the population. At the same time, attention is paid to the fact that the teaching of subjects not related to the specialty takes away the time of students for independent education.

A characteristic feature of the medical profession is the need for constant, daily, hourly communication with the patient, readiness to solve problems that require analyzing the situation and making decisions on which the patient's life often depends.

To solve the problem of improving the quality of training of future doctors, it is necessary to make fuller use of the achievements of the

theory and practice of professional pedagogy - especially in the field of self-education and self-awareness as the most important factors in the professional and personal development of students of higher medical educational institutions.

However, today, in higher vocational education institutions, personnel training is mainly focused on the formation of knowledge, skills and qualifications, but insufficient attention is paid to the independent cognitive activity of students, the development of their inquisitiveness, and the desire to constantly replenish them and their professional and general cultural horizons. In the educational process of universities, including medicine, there is no communication, individual responsibility of students for the results of their studies, no or low level of cognitive interest, students are closed for self-development.

Today, higher education is tasked with ensuring the personal and professional development of a new generation of specialists, a responsible citizen, capable of independently assessing what is happening and building his activities in accordance with the interests of the surrounding society, capable of improving his professional activities.

In this regard, all departments of higher educational institutions need to teach today's students to systematically work and prepare themselves for independent life, to preserve folk traditions, historical memory, because without traditions, without fame, without memory, without high ideas it is impossible to become a highly qualified specialist morally and spiritually rich.

In the process of learning in practical classes, one of the most important components is the educational aspect; it is inseparable from the learning process and professional communication itself and forms a single and indestructible whole with it. In this regard, educational activities should literally permeate all aspects of professional work, as well as theoretical, fundamental and applied scientific research.

A pedagogical system that includes a deep combination of principles, forms, methods, types of activities, the use of new pedagogical technologies helps to determine the work of students and diversify their free extracurricular time in the form of a mechanism associated with a variety of activities, alternating a certain proportion of academic studies, analysis and analysis works, artistic reading, short presentations, conversations, debates, creative tasks, designing aesthetic activities with moral content, heuristic seminars.

Students have the opportunity to demonstrate independence and reveal their abilities, increase the level of spiritual and moral education, improving the ethics of behavior and generalization, with systematic educational work involving them in analytical, active-perceptual, artistic-communicative, creative and constructive activities.

The process of forming the professional and ethical culture of university students will be more effective if this culture is understood as a measure and method of assimilation and implementation of general and professional knowledge, abilities, skills, norms and values, as a special type of professional activity based on meaning-forming motives and aimed at the implementation value-laden actions that generate moral feelings.

The process of forming the professional and ethical culture of university students will be more effective if this culture is understood as a measure and method of assimilation and implementation of general and professional knowledge, abilities, skills, norms and values, as a special type of professional activity based on meaning-forming motives and aimed at the implementation value-laden actions that generate moral feelings.

Based on the data presented, it is legitimate to assert that there is practically no holistic theoretical justification and practical confirmation of the potential opportunities for self-educational activities of higher school students that meet the new needs of modernizing the vocational education system in the country.

Thus, the need for theoretical justification and practical solution to the problem of developing students' self-education as an important component of their professional training is obvious.

of a society that strives to maintain its unity, order, and stability.

and values of others.

human way to find the meaning of life and a real option to achieve immortality (or longevity) in the lives and values of their descendants.

.

References

остановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию организации деятельности учреждений первичной медико-санитарной помощи Республики Узбекистан» от 29 марта 2017 г. № ПП-2857.

остановление Кабинета министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы повышения квалификации и переподготовки медицинских работников» 04. 04. 2017 г. n 174.

3. Постановление Президента «О мерах по дальнейшему реформированию системы медицинского образования в Республике Узбекистан» от 6 мая 2017. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонун. www. lex. uz

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. www. lex. uz

5. “Алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудларни ташкил этиш ва уларни сақлаш тартиби тўғрисида низом”. www. lex. uz.

6. Ahmedova M. A. , Usta-Azizova D. A. , Karimova M. J. , Makhametova D. B. Modern methods of teaching social sciences at medical university. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) №14. 2022.

7. Кучмаева, И. К. Культурное наследие: современные проблемы / И. К. Кучмаева. М. : Наука, 1987. – 173 с.

8. Лебедев, А. В. Музей как системообразующее предприятие (на примере Соловецкого архипелага) / А. В. Лебедев // 60 параллель. – 2005. –№2. – С. 22.

9. Словарь музейных терминов. Новая музеология [Электронный ресурс]. – Сектор Российской музейной энциклопедии. – 2002. – Режим доступа: http://www. museum. ru/rme/dictionary. asp?109 (Дата обращения: 05. 04. 2015)

10. Стернз, Э. Избранное: Религия, культура, литература / Э. Стернз. – Книга света. –М. : РОССПЭН, 2004. – 57 с.

11. Уста-Азизова Д. А. , Мирхошимова Х. М. Совершенствование инновационных методов в учебном процессе. “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yiliga bag’ishlangan “Bugungi kun ilmiy izlanishlar yoshlar nigohida” mavzusidagi TIJ 51-respublika ilmiy amaliy konferensiya. Toshkent. 2023.

12. Уста-Азизова Д. А. Инновационные подходы к уровню образования в медицинском вузе. Междунароная онлайн-конференция “Наука и образование: актуальные вопросы, достижения и инновации в медицине” Сборник научных трудов. Ташкент. 16 апреля. 2021.

Уста-Азизова Д. А. , Юлдашев С. "Духовно-нравственное воспитание учащихся в условиях современной образовательной системы.

14. Usta-Azizova D. A. , Ahmedova M. A. , Muhammadiev N. E. , Khudoiberdiev A. K. Innovative mechanisms for protecting youth from global information attacks. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) №14. 2022.

SHAXS KOMMUNIKATIV XULQ-ATVORI PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING O‘RGANISH OB’YEKTI SIFATIDA

katta o‘qituvchi RAIMDJANOV MIRKARIM TOLIBJON O‘G‘LI

Annotatsiya

IlmiymaqoladaShaxskommunikativxulq - atvori psixologiktadqiqotlarning o‘rganishob’yektisifatida nazariy manbalar sharq va g’arb olimlari qarashlarining tahlili to’liq ochib berilganbo’lib, bunda shaxs xulq-atvoriga o’qtuvchi ta’siri, muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari, xulq-odob qoidalari, insonlar o‘rtasidagi muloqot, psixik holatni doimiy o‘zgarishi, o‘zini o‘zi va boshqalarni tushunish, muloqotga nisbatan moyilligi uchta komponentdan tashkil topgan kompleks hissiy-motivatsion va kognitiv komponentlar kommunikativ kompetentlikni o‘ziga xos xususiyatlari, muloqot nimaligi uning qandayturlari mavjudligi, fazalari va rivojlanish qoidalari, yozma xabarlarni to‘g‘ri shaklga sola olish qobiliyati, tashqi va ichki hodisalarni mo‘tadillashtirish, muloqot to‘siqlardan o‘ta olish qobiliyati, muloqotchanlik holatlariga tayanib muloqotning ijtimoiy–psixologik jihatdan tizimlashtirish, kommunikativ kompetentlikningrivojlanishi xarakter, aqliy va umumiy faollikka bog‘liqligi, Individning muloqotchanlik faolligi uning kommunikativ kompetentlikka ya’ni, muloqotchanlik qadriyatlari, muloqotdagio‘ziga xos ehtiyoj va motivlarga bog‘liqligi, empatiya, xayrixohlik, autentlik, aniqlik, initsiativlik, bevositalik, ochiqlik, hissiyotlarni qabul qilish, konfrontatsiya, o‘zini-o‘zi bilish, muloqot, muloqotchanlik, kommunikatsiya, kommunikativ kompetentlik, kognitiv, interaktiv, pertseptivtushunchalari tahlil etiladi.

Kalit so’zlar*:* empatiya, xayrixohlik, autentlik, aniqlik, initsiativlik, bevositalik, ochiqlik, hissiyotlarni qabul qilish, konfrontatsiya, o‘zini-o‘zi bilish, muloqot, muloqotchanlik, kommunikatsiya, kommunikativ kompetentlik, kognitiv, interaktiv, pertseptiv.

PERSONALITY COMMUNICATIVE BEHAVIOR AS AN OBJECT OF STUDY OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

RAIMDJANOV MIRKARIM TOLIBJON O‘G‘LI

Annotation

Shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining asosiy sabablari sifatida ota-ona va oilaning katta yoshdagi a’zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini nazorat qilishning sustligi, qarovsizlik, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo‘sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari, ijtimoiy-pedagogik e’tiborsizlik, ijobiy bilim, ko‘nikma yetishmasligi yoki noto‘g‘ri tarbiya tufayli o‘zini noto‘g‘ri tutish orqali xatti-harakatlarning salbiy stereotiplari shakllanganligi va boshqa omillar aniqlangandi.

Qishloq joylarida yashovchi voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida esa bekorchilik, tarbiyada yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma’ishiy yetishmovchilik, nosog‘lom oilaviy munosabatlar, oiladagi salbiy mikroiqlim, tizimli akademik muvaffaqiyatsizliklar, tengdoshlar va sinfdoshlari bilan

muvaffaqiyatsiz munosabatlar, ota-onalar, o‘qituvchilar, do‘stlar va boshqalar bilan noto‘g‘ri (adolatsiz, qo‘pol, shafqatsiz) munosabatda bo‘lish malakasining shakllanganligi, foydali faoliyat bilan bandlikning yetishmasligi, ijobiy va mazmunli ijtimoiy va shaxsiy hayot maqsadlari va rejalarining mavjud emasligiva boshqalar izohlangan.

Abstract

The article analyzes some aspects of deviant behavior of minors due to a violation of social adaptation. The types, forms and types of deviant behavior are analyzed, which is interpreted as a violation of the quantitative and qualitative characteristics of the internal boundaries of personality, as a deviation from generally accepted social norms. The article also analyzes the procedures developed by society, acting in accordance with the will of the people, directly combined with folk customs, practical actions consistent with the goals of desire, and social norms that are observed in marriage and social life. Deviant behavior, its nature and description are described. Such socio-psychological factors as demographic ones are analyzed: the level of education of children and parents, the socio-economic situation of the family, family conditions, lifestyle, gender and age characteristics that affect the occurrence of behavioral deviations and learning disabilities in minors.

The main causes of behavioral deviations and learning disorders among minors living in urban areas are the lack of control over the free time of children and adolescents by parents and older family members, neglect and control over their free time due to parents' employment with government work, negative behavior stereotypes due to lack of education, socio-pedagogical neglect, positive knowledge, lack of skills or improper upbringing and other factors annotated.

The main reasons for the deviant behavior of minors living in rural areas are idleness, defects in upbringing, material and household shortages, unhealthy family relationships, negative microclimate in the family, systemic academic failures, dysfunctional relationships with peers and classmates, parents, teachers, explains the formation of skills of improper (unfair, rude, cruel) treatment with friends and other persons, insufficient employment in useful activities, lack of positive and meaningful social and personal life goals and plans, etc. d.

Kalit so‘zlar: *Shaxs, voyaga yetmaganlar, xulq og‘ishi, deviant xulq, tarbiya, tarbiya buzilishi, ruhiyat, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy me’yor, xatti-harakat, xulq atvor, ijtimoiy xulq, turmush tarzi, tartiblilik, umumiylik, barqarorlik, xulq-atvor ko‘rsatkichlari, assimilyatsiya, buzg‘unchi, asotsial, g‘ayriqonuniy, ijtimoiy voqelik, ijtimoiy muhit, yosh*

davri xususiyatlari, ijtimoiy ko‘nikmalar, psixosotsial rivojlanish, huquqbuzarlik, norozilik reaksiyalari.

Keywords*: personality, minor, behavior deviation, deviant behavior, upbringing, parenting disorder, psyche, socio-psychological factors, social norm, behavior, behavior, social behavior, lifestyle, orderliness, community, stability, behavioral indicators, assimilation, destructive, antisocial, illegal, social reality, social environment, features of the age period, social skills, psychosocial development, offenses, protest reactions.*

Kirish

Mustaqillikni mustahkamlash yo‘lida dadil qadamlar bilan borayotgan Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlod kamoloti va ularning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishi masalasiga har qachongidan-da, katta e’tibor berilmoqda. Yoshlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi masalasini ilmiy va nazariy jihatdan o‘rganish boasida ham katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yurtimizda deviant xulq-atvorning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar jahondagi boshqa xalqlarga nisbatan Markaziy Osiyo halqlarida uzoq o‘tmishdan boshlab e’tibor qartilgan bo‘lib, ijtimoiy me’yordan chetga chiqish, axloq-odobdan chekinish holatlari qat’iyan man qilingan, unga yo‘l qo‘yilmagan, harakatdagi qonunlar va ijtimoiy me’yorlar, talablar ham ta’sirchan kuchga ega bo‘lib, ham dunyoviy, ham diniy yo‘l bilan insonlar ruhiyatiga ta’sir etguvchi kuchga aylangan va hozir ham xalqimiz ana shunday ijtimoiy me’yorlar doirasida yashamoqda [Umarov B. M. , 2009:5]. Chunki ijtimoiy hayotda insonlar faoliyatini, ularning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini diniy, dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar boshqaradi.

O‘zbek xalqi ma’naviy, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali farzandlarini tarbiyalab voyagayetkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhidatarbiyalangan farzandlar odob-axloqda, aql-zakovatda, mehr-oqibat va xalqparvarlikda, jasurlik va mardlikda nom qozongan.

Xabaringiz bor xalqimiz uzoq yillar mobaynida yevropacha turmush tarzini boshidan kechirdi. Bir necha ming yillik urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’analar va milliy tarbiya usullari o‘rniga yevropacha tarbiyamadaniyati kirib keldi. Ular ba’zan tazyiq orqali ham kiritildi. Natijada xalqimiz tarixan shakllangan boy madaniy va ma’naviy merosidan, oilaviy tarbiya usullaridan ayrila boshladi.

Nazarimizda bunday holat, bugungi kunda o‘zbek oilalaridagi tarbiya samarasiga qaysidir ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmayapti. Buning natijasida oilaviy tarbiyaning ta’sirchanlikroli pasaydi. Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Oilalarda mehr-oqibat, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat kamayib bormoqda. Bu oxir oqibat atrofga, jamiyatgaham ta’sir eta boshladi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, bugun ko‘cha-ko‘yda yoshlarning o‘zini tutushlari, muomala munosabatlari ba’zan kishining g‘ashini keltiradi. Bu o‘z navbatida ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘zini o‘zi boshqarish mahalla fuqarolar yig‘ini maslahatchilari, mahalla posbonlari o‘z faoliyatlarini pedagogik jamoa, ota-onalar, vasiylik kengashlari, tibbiyot xodimlari, balog‘atga yetmagan o‘smirlar bilan ishlash tuzilmalari va jamoatchilik tashkilotlarining uzviy aloqada hamkorlikda ish olib borishlarini taqoza etadi.

Tadqiqotimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, gender va yosh hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishva shu asosda yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni, ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

Shuningdek, mazkur tadqiqotimiz natijalari voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining yosh davri xususiyatlariga ko‘ra, qiyosiy tahlil va o‘smirlarda xulq og‘ishi kelib chiqishining yosh davri xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan mexanizmini ochib berishga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining oshishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili

Deviant xulq tabiatini tushuntirish dastlab, E. Dyurkgeym, R. Merton, E. Fromm, J. Dollard va boshqalar tomonidanko‘rib chiqiladi. Aksariyat tadqiqotchilar deviant xulq-atvorni tushuntirishda me’yordan og‘ish kabi muhim xususiyatni alohida ta’kidlaydilar. Deviant xulq– atvor ko‘pincha ijtimoiy va madaniy xulq-atvor normalarining buzilishi sifatida belgilanadi

Maxsus adabiyotlarda “og‘ishgan xulq” atamasi ko‘pincha deviant axloq (deviatio –lotin tilida og‘ishgan) sinonimi bilan almashtirilib ishlatiladi. Shunda kelib chiqib, biz maqolada bu atamalarni ayrim o‘rinlarda o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ya’ni, “og‘ishgan”, “deviant” so‘zlarini qo‘llaymiz. Shu bilan bir qatorda o‘rganilayotgan muammoning o‘ziga xos murakkabligi hamda uning fanlararo xarakterga ega ekanligini ham alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

Hozirgi vaqtda ilmiy manbalarda yuqoridagi atamalar ikki asosiy mazmunga koʻra, foydalaniladi. Deviant xulq birinchidan, "rasman oʻrnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan muomala va insoniy harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida namoyon boʻladi. Ikkinchidan, "Inson faoliyatining ommaviy va mustaqkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman oʻrnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud boʻlgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy koʻrinish" ma'nosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi.

Ana shu jihatlardan kelib chiqib, turli yillarda xorij va yurtimiz tadqiqotchilaridan: Yu. A. Kleyberg, A. A. Rean, Ch. Lombrozo, Z. Freyd, K. Xorni, U. Shuts, A. Adler, E. Fromm, Krechmer Ernst, M. N. Alemaskin, Z. V. Baeryunas, A. M. Dolgova, A. A. Vdovchenko, I. P. Bashkatov, A. S. Belkin, N. D. Levitov, Yu. V. Gerbeev, A. V. Zavalyuk, Ye. V. Zmanovskaya, A. I. Ostrovskiy, B. A. Mirenskiy, A. I. Kochetov, S. V. Kudryavsev, U. S. Djekebaev, Y. Karaketov, Q. Abdurasulova, Z. S. Zaripov, Gʻ. B. Shoumarov, E. Gʻoziev, V. M. Karimova, B. M. Umarov, N. Gʻ. Komilova, N. A. Sogʻinov, G. N. Tulaganova kabi kriminalist, sotsiolog, pedagog, psixolog olimlar oʻz tadqiqotlarida bolalar va oʻsmirlarda xulq ogʻishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik omillarini hamda uning oldini olish borasida izlanishlarni amalga oshirganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, voyaga yetmaganlarda xulq ogʻishining kelib chiqishiga shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ta'lim-tarbiya nosogʻlom ijtimoiy muhit, moddiy va maishiy jihatdan yetarlicha ta'minlanmaslik va shu singari bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir koʻrsatadi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, deviant xulqni tushunish uchun avvalo, xulq ogʻishiga ega boʻlgan voyaga yetmaganlarning yosh davri xususiyatlarini tahlil qilish, har bir bola, oʻsmir va oʻspirin hayotini, turmush tarzini chuqur oʻrganish zarurdir [Zmanovskaya Ye. V, 2007:2]. Bu esa, yosh davrining ular xarakteri, fe'l-atvori va xulqidagi oʻzgarishlarning psixologik qonuniyatlari asosida yondashish maqsadga muvofiqdir. Shunga koʻra, oʻz davrida Amerikalik psixolog A. Gezell oʻsmirlik yoshining davrlanishiga alohida e'tibor qaratib, ularning yoshlarda xulq ogʻishining kelib chiqishiga ta'sirining oʻziga xos xususiyatlarni sharhlab oʻtgan edi [Ganyushkina I. S. , 2006:1].

Metodologiya

Odamlarning ijtimoiy xulq-atvorini va ularning jamiyat bilan munosabatlarini tartibga soluvchi, odamlar faoliyatida ma'lum bir jamiyatda ruxsat etilgan xatti-harakatlarning tarixan belgilangan

oralig‘ini belgilaydigan ijtimoiy, axloqiy va huquqiy normalar deviant xulq-atvor ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi. Ijtimoiy norma qonunlar va an’analarda, odamlarning turmush tarzida o‘z ifodasini topadi. Shunday qilib, huquqiy normalar qonunlar to‘plami shaklida rasmiylashtiriladi, ularning buzilishi qonunda nazarda tutilgan jazoga olib keladi.

Shaxs hayot jarayonida umume’tirof etilgan me’yorlarni, ruxsat etilgan va taqiqlangan harakatlar tizimini o‘zlashtiradi. Bu jarayonda ular tashqi chegaralar sifatida harakat qilishadi, unga ko‘ra inson o‘z xatti-harakatlarini dasturlashtiradi. Atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada tartibga solish chegaralarining kengayishi yoki torayishi kuzatilishi mumkin. Ushbu chegaralarning sifat va miqdoriy xususiyatlari tartibga solish funksiyasini bajaradigan tartiblilik, umumiylik, hajm, barqarorlikdir. O‘smirlik davrida normativ xatti-harakatlarning murakkab tizimlarini ichkilashtirish ya’ni o‘zlarining qarashlari bo‘yicha ifodalashga harakat qiladilar. Bunda o‘rganilgan me’yorlar asosida o‘z xatti-harakatlarini ichki tartibga solishning murakkab mexanizmlaridan foydalanishga o‘tish amalga oshiriladi. Ongli, qabul qilingan, assimilyatsiya qilingan me’yorlar ko‘rinishidagi tashqi chegaralar shaxsiyatning ichki chegaralariga aylanadi. Shu bilan birga, tashqi me’yor o‘zining ichki ekvivalentiga ega bo‘lishi kerak. O‘smirlik davrida normativlik qiymat-semantik shakllanishlarga ham ega bo‘ladi. Qiymat-semantik sohaning ichkiga aylantirilishi bilan o‘lchanadi. Bu jarayonda tajriba va mulohaza muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pchilik yoshlarda esa tajriba va mulohaza yetarli bo‘lmaydi. Oqibatda xulq og‘ishi ichki omillar asosida yuzga kelishi mumkitn.

Biroq, buzg‘unchi, deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan ba’zi odamlar uchun ichki chegaralar yetarli darajada shakllanmaganligi uchun qandaydir ijtimoiy voqelik ijobiy darajada amalga oshmaydi. Bunday holda, ichki chegaralar noaniqlik, tartibsizlik bilan harakatlanadi. Shaxs ichki chegaralarining tabiati uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Shu sabadan deviant xatti-harakatlarning sabablari uning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi omillar yoki shart-sharoitlar sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Shunday qilib, deviant xulq-atvorning mohiyati shaxsning ichki chegaralarining miqdoriy va sifat xususiyatlari shakllanishi yoki buzilishi natijasida jamiyat tomonidan qoralangan umume’tirof yetilgan ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqishdir, bu esa o‘z navbatida shaxs va jamiyatning o‘zaro ta’sirining buzilishiga olib keladi.

Deviant xulq-atvor tushunchasining mohiyatini aniqlashning asosiy yondashuvlarini tahlil qilish asosida uning asosiy xususiyatlarini ajratish mumkin. Bu umume’tirof etilgan yoki rasman belgilangan ijtimoiy

me’yorlarga mos kelmaydigan xatti-harakatlar, boshqa odamlarning salbiy bahosini keltirib chiqaradi, bu ommaviy qoralash yoki ijtimoiy sanksiyalar, shu jumladan jinoiy jazo shaklida bo‘ladi va shaxsga yoki uning atrofidagi odamlarga zarar yetkazadi (o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlari, zo‘ravonlik jinoyatlari, giyohvand moddalarni iste’mol qilish), va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi [Mendelevich V. D. , 2008:3]. Deviant xatti-harakatlar doimiy ravishda takrorlanadi, ijtimoiy moslashuvchanlikning turli ko‘rinishlari bilan birga keladi, individual va yosh-jinsiy o‘ziga xoslikning ifodasidir.

Deviant xulq-atvorni rivojlantirishda xavfning ortishi davri o‘smirlik davri hisoblanadi. Bu, birinchidan, o‘tish yoshidagi qiyinchiliklar, ikkinchidan, o‘smirning ijtimoiy holatining noaniqligi, uchinchidan, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini qayta qurish bilan bog‘liq (bolalarning tashqi me’yorlarga rioya qilish va itoatkorlikka asoslangan nazorat shakllari endi kuchga kirmaydi va ongli ravishda ishtirok etadigan kattalar usullari intizom va o‘z-o‘zini nazorat qilish hali rivojlanmagan va kuchaymagan), to‘rtinchidan, ta’kidlangan xarakter xususiyatlarining mavjudligi.

Deviant xulq - bu shaxsning ijtimoiy moslashuvining namoyonidir. Shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy moslashuv qaytariladigan jarayondir. Ta’lim vazifasi nafaqat o‘spirinning psixosotsial rivojlanishidagi og‘ishlarning oldini olish, balki moslashmagan o‘spirinlarni ijtimoiylashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish jarayonini tashkil etishdir. Ijtimoiylashtirish deganda odatda ijtimoiy mavqeini tiklash, moslashmagan voyaga yetmaganlarning yo‘qolgan yoki shakllanmagan ijtimoiy ko‘nikmalarini tiklash, yangi ijobiy yo‘naltirilgan munosabatlar va pedagogik tashkil yetilgan muhit faoliyatiga kiritish orqali ularning ijtimoiy munosabatlarini qayta yo‘naltirish bo‘yicha uyushgan ijtimoiy-pedagogik jarayon tushuniladi.

Deviant xatti-harakatlar turli xil huquqbuzarliklar va tarbiyasizliklarda o‘zini namoyon qilishi mumkin:

- intizomga qarshi (darslarni o‘tkazib yuborish, intizomni buzish va hokazo.);

- antisotsial, barcha turdagi "ijtimoiy patologiyalar" yoki deviant xulq-atvor shakllari bilan ifodalanadigan alkogolizm, giyohvandlik, fohishalik, beparvolik va tilanchilik, o‘z joniga qasd qilish va boshqalar. ;

- huquqbuzar (antisosial) xatti-harakatlar (vandalizm, bezorilik, o‘g‘irlik va hokazo.) [Umarov B. M. , 2006:4].

Deviant xatti-harakatlar, tabiiy omilga qarab, patologik va patologik bo‘lmagan turlarga ega bo‘lishi mumkin. Deviant xatti-harakatlarning patologik bo‘lmagan turlari orasida quyidagilar kuzatilishi mumkin:

- mikrosotsial pedagogik e’tiborsizlik. Bunday holda, asosiy deformatsiyalar o‘quv jarayoni, o‘quv faoliyatiga munosabat, o‘qituvchilar, maktab hayoti normalari va maktab tartibi bilan bog‘liq;

- xarakterologik reaksiyalar bilan bog‘liq vaziyat. Vujudga keladigan xatti-harakatlarning buzilishi nisbatan qisqa muddatli, vaziyatga bog‘liq va psixologik jihatdan tushunarli. Ular faqat ma’lum bir shaxslarda va ma’lum bir muhitda o‘zini namoyon qiladi, atrof-muhitdan tashqariga chiqmaydi va psixofiziologik funksiyalarning buzilishi bilan birga kelmaydi. Vaziyatli shartli reaksiyalar orasida quyidagilar mavjud: passiv norozilik reaksiyalari (ovqatdan bosh tortish, muloqot qilish, uydan chiqish va hokazo.), faol norozilik reaksiyalari (qo‘pollik, tajovuzkorlik), kompensatsiya reaksiyalari (xulq-atvorda xarakter xususiyatlarini yashiradigan yoki psixologik himoya vositasi bo‘lgan ba’zi shaxsiy ko‘rinishlarni kuchaytirish); taqlid reaksiyalari (obro‘ga yega bo‘lgan tengdoshlar yoki kattalarning xatti-harakatlarini takrorlash bilan bog‘liq xatti-harakatlar).

Deviant xulq-atvorning patologik turlari-aqliy rivojlanish patologiyasi, organik tabiatning neyropsik kasalliklari (o‘tkir affektiv reaksiyalar, patoxarakterologik reaksiyalar)natijasida kelib chiqadigan xatti-harakatlarning buzilishi.

Natijalar

Tadqiqotimizda voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender-psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida bolalar va o‘smirlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining umumiy holatini tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqotimizda 193 nafar xulq og‘ishi va tarbi buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘qish faoliyati, ularning ijtimoiy ahvoli, oilaviy shart-sharoiti va turmush tarzi mualliflik so‘rovnomasi orqali o‘rganildi.

Shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining asosiy sabablari sifatida esa ota-ona va oilaning katta yoshdagi a’zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini nazorat qilishning sustligi, qarovsizlik, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo‘sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari, ijtimoiy-pedagogik e’tiborsizlik, ijobiy bilim, ko‘nikmaning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri tarbiya tufayli

o‘zini noto‘g‘ri tutish orqali xatti-harakatlarning salbiy stereotiplari shakllanganligi va boshqa omillar aniqlandi.

Qishloq joylarida yashovchi voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida esa bekorchilik, tarbiyada yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma’ishiy yetishmovchilik, nosog‘lom oilaviy munosabatlar, oiladagi salbiy mikroiqlim, tizimli akademik muvaffaqiyatsizliklar, tengdoshlar va sinfdoshlari bilan muvaffaqiyatsiz munosabatlar, ota-onalar, o‘qituvchilar, do‘stlar va boshqalar bilan noto‘g‘ri (adolatsiz, qo‘pol, shafqatsiz) munosabatda bo‘lish malakasining shakllanganligi, foydali faoliyat bilan bandlikning yetishmasligi, ijobiy va mazmunli ijtimoiy va shaxsiy hayot maqsadlari va rejalarining yo‘qligiva boshqalar namoyon bo‘ldi.

Bolalar va o‘smirlarda turmush sharoitining yaxshi yoki yomonligi holati ham xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishida asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga ko‘ra, o‘rganilgan respondentlarning 70, 19% oilada yomon sharoitda yashashligi ma’lum bo‘ldi. 29, 81% xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar oilada yaxshi sharoitda yashaganliklari kuzatildi (1-jadval).

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qaerda ishlamaydiganlar oilasiga ko‘proq to‘g‘ri kelayotganligi kuzatildi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma’lumotli, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og‘ishi namoyon bo‘lishi holalari kuzatildi. Bizningcha, buning sababini ota-onalarning ish bilan bandligi natijasida farzandlarining bo‘sh vaqtlarini, ularning faoliyatini nazorat qilish borasida sustkashlikka yo‘l qo‘yishlari bilan izohlash mumkin.

1 - jadval

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy shart- sharoitlari ko‘rsatgichlari (% hisobida)

№	Yosh davri	Qish-loq	Shahar	Yaxshi sharoitda yashaydi	Yomon sharoitda yashaydi	Ko‘p qavatli Uyda turadi	Hovlida turadi
1.	12-15 yosh	45, 80	54, 20	28, 38	71, 62	67, 48	32, 42
2.	16-17 yosh	42, 61	57, 39	31, 42	68, 58	62, 30	37, 00
3.	O‘rtacha	43, 26	56, 74	29, 81	70, 19	64, 32	35, 68

Olingan natijalardan ko‘rinadiki, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta’sirchanlik darajasi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbulardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda ularga oilalarda imkon qadar moddiy-maishiy shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqligini unutmaslik lozim.

Hovlida yashayotgan bolalar va o‘smirlarga nisbatan, ko‘p qavatli uylarda yashayotgan bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi darajasi holati bir muncha yuqoridir. Buning sababi yuqorida ta’kidlanganidek, aholi qatlamining zichligi bilan bir qatorda mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik ta’sirining sustligi, shaxslararo munosabatlar doirasining kengligi, ijtimoiy nazoratning sustligi va shu kabilarga bog‘liqdir.

Xalqimizda “Bir bolaga yetti qo‘shni ham ota, ham ona”, “Otang mahalla, onang mahalla” degan naqllar mavjud. Zero, mahallalar xonadonlarida farzandlar qariyalarning, mahalla faollarining ko‘z o‘ngida o‘sib, voyaga yetadi. Mahalla oqsoqoli va uning har bir yoshi katta a’zosi mahalla bolasinig nojuya xatti-harakatini, tamaki chekishi, birovlarga gap otib turishini ko‘rib-ko‘rmaslikka olmasdan, hech bo‘lmaganda ularga fikr bildirish, pand nasihat qilish, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash mahalla bolalari orasida g‘ayriqonuniy xulqning kelib chiqishini oldini olishga

muayyan darajada xizmat qiladi. Natijada mahallalardagi ana shunday an'anaviy qo'ni-qo'shnichilik ta'sirining yuqoriligi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi darajasining pasayishiga olib keladi. Afsuski, bugungi kunda mahalla bolasi nojo'ya harakatni qilib o'tirsa ham ayrimlar menga nima, ota-onasi borku, mening farzandim bo'lmasa deya unga aralashishni o'ziga ep ko'rmaydiganlar ham uchrab turadi. Bunday holat o'z-o'zidan bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Ota-onasi, mahalla a'zosi nazoratidan chetda qolgan o'smir o'zini erkin, mustaqil deb bilib, turli xil g'ayriqonuniy, g'ayriaxloqiy harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Bolalar va o'smirlarning ma'lumotlilik, bilimlilik darajasi ham xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'rifatlilik, ilm olishga nisbatan bo'lgan intilish, aqliy va ma'naviy barkamollik voyaga yetmaganlarni sog'lom turmush tarziga, axloqiy va huquqiy qoidalarga itoat etishga yetaklaydi.

2 - jadval

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarningma'lumoti darajasi ko'rsatkichlari(% hisobida)

№	**Ma'lumoti**	**11-13 yosh**	**14-15 yosh**	**16-17 yosh**	**O'rtacha**
1	1-5 sinf	-	-	0, 80	0, 80
2	6-7 sinf	22, 14	12, 74	3, 42	9, 41
3	8-9 sinf	77, 86	72, 64	35, 26	51, 14
4	10-11 sinf	-	11, 80	41, 60	28, 25
5	Kasb-hunar kolleji o'quvchisi	-	2, 72	18, 90	10, 40

Aksincha, maktabga borishdan bo'yin tovlash, darslarni o'z vaqtida bajarmaslik, bilim olishga nisbatan qiziqishning yo'qligi bolalar va o'smirlarda turli xil g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra, o'rganilganrespondentlarning eng ko'p qismi 8-9 sinf ma'lumotiga (51, 14 %) ega bo'lgan bo'lsalar, 28, 25% 10-11 sinf ma'lumotiga, 9, 41% 6-7 sinf ma'lumotiga ega ekanligi aniqlandi. (2-jadval).

Shuningdek, tadqiqotimizda o‘rganilgan respondentlarning 10. 40 % ni o‘rta maxsus bilim yurti talabalari tashkil qildi. Yosh davriga ko‘ra, tahlil qilganimizda 14-15 yoshdagi voyaga yetmagan xulq og‘ishiga ega bo‘lganlar asosan 8-9 sinf ma’lumotiga (72, 64%), 16-17 yoshda esa ko‘proq 10-11 sinf ma’lumotiga (41, 60%) ega ekanliklaroi aniqlandi. (2-jadval).

O‘rganilgan respondentlarning katta qismi o‘qish faoliyatidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ancha past darajaga ega bo‘lganlarni tashkil etadi. Xususan, respondentlarning 49, 0 foizi maktabda fanlarni yomon o‘zlashtirganliklari bilan ajaralib turadiganlardir. Atigi 10, 6 foiz respondentlar fanlarni o‘zlashtirishda biroz yaxshi natijalarga ega ekanliklarining guvohi bo‘ldik. Shuningdek, ularning 13, 2 foizi 1 yil sinfdan qolganlar bo‘lsa, 6, 4 foizi 2 yil sinfdan qolganlarni tashkil qiladi. (3-jadval)

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarda fanlarni o‘zlashtirishdagi ijobiy ko‘rsatgich asosan kichik maktab yoshi davrida kuzatilgan bo‘lsa, yosh ulg‘ayib borish bilan bu ko‘rsatkich darajasi pasayib borganligi kuzatildi. Buning sababi bizningcha, bu yosh davridagi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining yetarli darajada shakllanib ulgurmaganligi, yosh ulg‘ayib borishi bilan esa, ular xulq-atvorida xulq og‘ishining chuqur o‘rin egallay boshlaganligiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olish tadbirlarini imkon qadar ertaroq, ilk yoshdan boshlab, amalga oshirish maqsadga muvofiq dpeb hisoblaymiz.

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlarda o‘qishga nisbatan qiziqishning sustligi, hayotiy maqsadli faoliyatning yetitshmasligi, o‘z kelajagi haqida o‘ylash, kelajakda qaysi mutaxassislikni egallashga nisbatan qiziqishning mavjud emasligi holatlari ham kuzatildi. Shuning uchun ham xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida fanlarni a’lo bahoga o‘zlashtirayotganlar deyarli uchramadi.

3 - jadval

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘qish faoliyatidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari(% hisobida)

№	**O‘qish faoliyati ko‘rsatgichlari**	**11 – 13 yosh**	**14 – 15 yosh**	**16 – 17 Yosh**	**O‘rtacha**
1.	O‘zlashtirish darajasi yaxshi	14, 8	8, 4	3, 6	10, 6
2.	O‘zlashtirish darajasio‘rtacha	28, 7	24, 7	17, 3	20, 8
3.	O‘zlashtirish darajasi yomon	40, 0	45, 3	53, 1	49, 0
4.	1 yil sinfda qolgan	12, 3	15, 4	17, 4	13, 2
5.	2 yil sinfda qolgan	4, 2	6, 2	8, 6	6, 4

Bolalar va o‘smirlarning to‘liq (TO), noto‘liq (NTO) oilalarda va ota-onalarning ikkalasi ham yo‘qligi holati natijasida qarindoshlari yoki boshqa birovlarning qaramog‘ida tarbiyalanayotganliklari holati ham ularda xulq og‘ishining kelib chiqishiga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Buni tadqiqotimizda oilada ota-onalardan birining yoki ikkalasining ham yo‘qligi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lganligi (31, 78-12, 68%) holati ham ko‘rsatib turibdi. Shuningdek, ota-onalardan birining ilgari sudlanganligi holati ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi kuzatiladi. Bunga ko‘ra, ota-onalardan biri ilgari sudlangan oilada tarbiyalangan bolalarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi ko‘rsatkichi 30, 52 foizni ko‘rsatgan bo‘lsa, ota-onalari sudlanmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi bu ko‘rsatkich 8, 68 foizni tashkil qiladi (4-jadval).

Jadvaldagi ko‘rsatkichlarni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, oilada ota-onadan birining yoki ikkalasining ham yo‘qligi bola tarbiyasida nuqsonlarning kelib chiqishiga, ular faoliyatini nazorat qilishning susayishi va ayrim moddiy-maishiy yetishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lar ekan. Tabiiyki, bunday holat bolalar va o‘smirlar xulqida o‘zgarishlarning kelib chiqishiga imkoniyat yaratishi ham mumkin ekan.

Shuningdek, oilada ota-onalarning biri yoki ikkalasining ham sudlanganligi holati ham oilada kriminogen muhitning paydo bo‘lishiiga olib keladi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar xulqida salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit mavjud bo‘ladi, hamda ularning yosh davri va individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra, kriminogen muhit bola tomonidan qabul qilinadi va xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’mir ko‘rsatadi.

4 - jadval

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning oilaviy tarbiya sharoitiga ko‘ra tarbiyalanganlik ko‘rsatkichi (% hisobida)

№	Oilaviy tarbiyalanganlik sharoiti	Yo sh d a v r l a r i			O‘rtacha
		11 - 13 yosh	14 – 15 yosh	16 – 17 yosh	
1.	Ota-onasi tarbiyasida	26, 48	18, 76	12, 29	16, 36
2.	Ota-onadan birining tarbiyasida	32, 76	30, 68	26, 72	31, 78
3.	Ikkalasi ham yo‘q oilada	10, 52	11, 74	16, 22	12, 66
4.	Ota-onalardan biri sudlangan oilada	20, 74	28, 86	38, 46	30, 52
5.	Ota-onasi sudlanmagan oilada	9, 60	9, 96	6, 65	8, 68

Ota-onalarning ma’lumotlilik darajasi ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ota-onalarning ilmu-ma’rifat, aqlu-zakovatliligi bolalar tarbiyasiga, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra ota-onalari to‘liqsiz va o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi darajasi (28, 6% - 43, 42%) boshqa ma’lumotlilik darajalari ko‘rsatkichidan ancha yuqori ekanligi kuzatiladi. (5 - jadval)

5 - jadval

Ota-onalarning ma'lumotlilik darajasi bo'yicha bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi darajasining ifodalanishi ko'rsatgichi (% hisobida)

№	Ma'lumot darajasi	Yo sh d a v r l a r i			O'rtacha
		11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	
1.	To'liqsiz o'rta	27, 8	29, 7	28, 2	28, 6
2.	O'rta	45, 2	41, 4	45, 0	44, 2
3.	O'rta maxsus	18, 6	21, 4	17, 3	19, 7
4.	Oliy	8, 4	7, 5	9, 5	7, 5

Xulosa

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender va individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalardan xulosa qiladigan bo'lsak, shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishi va tarbiya buzilishining asosiy sabablari sifatida ota-ona va oilaning katta yoshdagi a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtlarini nazorat qilishning sustligi, qarovsizlik, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo'sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari, ijtimoiy-pedagogik e'tiborsizlik, ijobiy bilim, ko'nikmaning yetishmasligi yoki noto'g'ri tarbiya tufayli o'zini noto'g'ri tutish orqali xatti-harakatlarning salbiy stereotiplari shakllanganligi va boshqa omillar aniqlandi.

Qishloq joylarida yashovchi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida esa bekorchilik, tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma'ishiy yetishmovchilik, nosog'lom oilaviy munosabatlar, oiladagi salbiy mikroiqlim, tizimli akademik muvaffaqiyatsizliklar, tengdoshlar va sinfdoshlari bilan muvaffaqiyatsiz munosabatlar, ota-onalar, o'qituvchilar, do'stlar va boshqalar bilan noto'g'ri (adolatsiz, qo'pol, shafqatsiz) munosabatda bo'lish malakasining shakllanganligi, foydali faoliyat bilan bandlikning

yetishmasligi, ijobiy va mazmunli ijtimoiy va shaxsiy hayot maqsadlari va rejalarining yo‘qligiva boshqalar namoyon bo‘ldi.

Ijtimoiy kelib chiqishigako‘ra, voyaga yetmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qaerda ishlamaydiganlar oilasiga to‘g‘ri kelayotganligi kuzatiladi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma’lumotlilar, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og‘ishi namoyon bo‘lishi holalari kuzatilishining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta’sirchanlik darajasi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, yosh va demografik xususiyatlarini o‘rganishi natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1) xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsida asotsiallik, psixik beqarorlik, impulsivlik, qo‘zg‘aluvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik va boshqa shu kabi xususiyatlar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar va o‘smirlar shaxsidagi nevrotizm, psixotizm va yosh davri xususiyatlariham xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

2) voyaga yetmaganlarda yosh davri inqirozlari xususan, o‘smirlik yoshi davri inqirozi, o‘tish davri qiyinchiliklari hamda ularningpsixofiziologik taraqqiyotidagi noturg‘unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo‘lishga intilish), gedonistik (o‘zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, guruhlanish reaksiyasi va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasining namoyon bo‘lishi va boshqalarxulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta’sir qiladi;

3) voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi ko‘rsatgichi aholi qatlami zich, shaxslararo munosabatlar doirasi keng hisoblangan hududlar va shahar joylarida boshqa hududlar va qishloq joylariga nisbatanyuqoridir;

4) voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalarining ilmlilik, ma’lumotlilik darajasi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga olib keladi;

5) to‘liq oilalarga nisbatan noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi ko‘rsatkichiyuqoridir;

6) oilada moddiy-maishiy shart-sharoitning yetarli emasligi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR

Ganyushkina I. S. Neblagopoluchnaya semya i deviantnoe povedenie nesovershennoletnix: Uchebnoe posobie - M. : 2006. Izdatel. MPSI. - 345 s.

Zmanovskaya Ye. V. Deviantologiya (psixologiya otklonyayuщegosya povedeniya) – M. , 2007, 4 -oe izdanie. - 285 s.

Mendelevich V. D. Psixologiya deviantnogo povedeniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M. , 2008, Izdatelstvo «Rech» - 346 s.

Umarov B. M. Semeynыe faktorы sotsialnogo riska i otkloneniya povedeniya nesovershennoletnix. //UzGMUYa, sbornik materialov nauchno-prakticheskoy konferensii "Molodoy uchenыy - 2006" Tashkent, 2006. - S. 193-197.

Umarov B. M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya T. : 2009. B. 78.

EXTENDED ABSTRACT

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF BEHAVIORAL ABNORMALITIES AND PARENTING DISORDER IN MINORS

The article analyzes some aspects of deviant behavior of minors due to a violation of social adaptation. The types, forms and types of deviant behavior are analyzed, which is interpreted as a violation of the quantitative and qualitative characteristics of the internal boundaries of personality, as a deviation from generally accepted social norms. The article also analyzes the procedures developed by society, acting in accordance with the will of the people, directly combined with folk customs, practical actions consistent with the goals of desire, and social norms that are observed in marriage and social life. Deviant behavior, its nature and description are described. Such socio-psychological factors as demographic ones are analyzed: the level of education of children and parents, the socio-economic situation of the family, family conditions, lifestyle, gender and age characteristics that affect the occurrence of behavioral deviations and learning disabilities in minors.

The main causes of behavioral deviations and learning disorders among minors living in urban areas are the lack of control over the free time of children and adolescents by parents and older family members, neglect and control over their free time due to parents' employment with government work, negative behavior stereotypes due to lack of education, socio-pedagogical neglect, positive knowledge, lack of skills or improper upbringing and other factors annotated.

The main reasons for the deviant behavior of minors living in rural areas are idleness, defects in upbringing, material and household shortages, unhealthy family relationships, negative microclimate in the family, systemic academic failures, dysfunctional relationships with peers and classmates, parents, teachers, explains the formation of skills of improper (unfair, rude, cruel) treatment with friends and other persons, insufficient employment in useful activities, lack of positive and meaningful social and personal life goals and plans, etc. d.

In accordance with their social origin, it was found that behavioral deviations and parenting disorders among minors are mainly observed in the families of employees or those who are currently not working anywhere. However, our study also noted that children from families with higher education, families whose parents work as a monk, also experience many manifestations of deviant behavior. It is established that the material and living conditions of the family, lifestyle, economic opportunities and educational level of influence are manifested as the main socio-psychological causes that affect the occurrence of deviant behavior and educational disorders in children and adolescents.

Based on the results of the study of socio-psychological, age, demographic and individual psychological characteristics of behavioral deviations and educational disorders in minors, the following conclusions were developed:

1) in the case of minors with deviant behavior and upbringing disorders, basicity, mental instability, impulsivity, excitability, sensitivity, hyperthymia, predisposition to affect and other similar characteristics are observed. In addition, the features of neuroticism, psychoticism and the age period in the personality of children and adolescents can also influence the origin of behavioral deviations;

2) Age crises in minors, in particular, the crisis of adolescence, difficulties of the transition period and the manifestation of uncertainty in their psychophysiological development, acceleration processes, features of puberty development, imitation, emancipation (the desire to be free from adult control and supervision), hedonistic (pleasure, pleasure from special

methods) psychology, manifestations of the reaction of grouping and reactions of opposing views, etc. ;

3) the indicator of deviance of behavior and violations of upbringing among minors is dense, the range of interpersonal relationships is high compared to other areas and rural areas in areas and cities considered wide;

4) the level of awareness, education of minors and their parents leads to deviant behavior and violation of upbringing in children and adolescents;

5) in relation to full families, the indicator of deviant behavior and parenting disorders is higher in children and adolescents raised in unproductive families;

6) insufficient material and living conditions in the family can lead to behavioral deviations and violations of upbringing in children and adolescents.

YOSHLARDA AMALIY BILIM VA KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

dotsent, PhD Abror Sanaqulov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti
ORCID 0000-0001-5475-9424

Annotatsiya

Maqolada axborot texnologiyalarining yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyati, yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo‘naltirish uchun yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish zaruriyati, yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal etish, axborot madaniyatining intellektual mulk huquqini himoya qilish, yuqori sifatli axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va yoshlarda axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yoritilgan. Axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlari, virtual reallikni namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholashning strategik ma’no-mazmuni, virtuallikni tadqiq etishning yo’nalishlari, virtual reallikning insoniyat uchun ta’siri hamda inson hayotini tashkil qilish va tartibga solishdagi ahamiyati, virtual reallik texnologiyalarining ta’limni rivojlantirishdagi o‘rni, uning imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishda samarali foydalanishning ahamiyati va istiqbollari, yoshlarga o‘quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalarga ma’lumotlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradigan yangi va innovatsion ta’lim usullari hamda virtual reallik texnologiyasidan foydalanib real o‘quv muhitini yaratish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, axborot jamiyati taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy institutlar transformatsiyasi, ommaviy axborot vositalari aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda foydalanishga foydalanishga o‘tishining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni, onlayn birlashmalar rivoji va ularning an’anaviy birlashmalar bilan hamkorligi, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o‘zgarishiga Internet tarmog‘i rivoji va ta’siri hamda zamonaviy ta’lim transformatsiyasi, bugungi kunda

virtual reallik texnologiyalaridan ta’lim sohasida foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari tadqiq qilingan.

Калит сўзлар: virtual reallik, virtual tarmoq, texnologiya, idividual ta’lim, virtual laboratoriya, virtual kutubxona, virtual muzey, virtual sayohat, simulyatsiya, amaliy tajriba, ijodiy ko’nikma.

KIRISH

ularga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Virtual reallik texnologiyalari kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta’sir ko‘rsatib,

Mamlakatimizda yoshlar axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirish, ularni virtual makondagi turli ko‘rinishdagi tahdidlardan asrash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirishda axborot to‘plash, saqlash va uzatish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni bilan bog‘liq axloqiy mezonlar va ijtimoiy-huquqiy asoslarni ilmiy tadqiq

Xususan, Sh. Mirziyoyev (Mirziyoyev, 2021: 192), J. Bodriyyar, (Bodriyyar, 2018: 240), V. Babenoko (Babenko, 1997: 56), Ye. Yudkina (Yudkina, 2021: 19), Ye. Radionseva (Radionseva, 2021: 152), N. Nosov (Nosov, 2000: 91), M. Fayziyeva (Fayziyeva, 2016: 44), M. Xorijev (Xorijev, 2001: 269), A. Sanaqulov (Sanaqulov, 2020: 901), G. Tulenova, A. Sanaqulov (Tulenova, G. , & Sanaqulov, A. (2022: 101), A. Sanaqulov (Sanaqulov, 2020: 56)tomonidan virtual reallikning kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta’siri, virtual reallik va uning yoshlar hayotiy qadriyatlariga ta’siri, virtual reallikning ta’lim tizimidagi o‘rni, virtual reallikning ontologik, gnoseologik va sosiologik muammolari, virtuallikni kompleks o‘rganishga oid ilmiy-amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, A. Tulyayev virtual reallikning axloqiy jihatlarini o‘rgangan, A. Sanaqulov virtual reallikni ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilgan, M. Normamatova virtualistikadagi postnoklassik epistemologiya g‘oyalarni o‘rgangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida analiz va sintez, tarixiy va mantiqiy, qiyosiy tahlil, nazariy, umumlashtirish, tizimli tahlil, sababiyat va o‘zaro aloqadorlik kabi ilmiy va falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

NATIJALAR

XXI-asrda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli axborot jamiyati haqiqatga aylandi: insoniyat turli axborotlar olishga, real vaqtda ularga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunday sharoitda axborotlardan foydalanish qoidalarini bilish, kerakli manbalarni qidirish va tanlashning ma’lum madaniyati bo‘lishi yoki sifat jihatidan yangi ma’lumotlarni yaratishi muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda axborot iste’molini shakllantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham bu muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyati deganda innovatsiyalarni o‘zlashtirish jarayonida axborot muhiti bilan samarali, oqilona, axloqiy muvozanatni ta’minlaydigan va tashqi ma’lumotni transformasion faoliyatning shaxsiy vositasiga aylantirish sifatida xizmat qiladigan inson fazilati tushuniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo‘llanilayotgan va jadal rivojlanayotgan bir davrda axborot jamiyatini shakllantirish zamonaviy talablar asosida insonlarning axborot almashishi va muloqotini amalga oshirishning zarur shartiga aylandi. Shu munosabat bilan kelajak jamiyatimiz a’zolari – yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan asosiy vazifadir. Ma’lumotlarning bir qismi texnik drayvlarda saqlanadi va ularni kompyuter orqali olish mumkin. Ma’lumotlarning aksariyati bosma nashrlarda kutubxona va arxivlarda saqlanadi. Axborot jamiyatida inson faoliyati uchun kompyuter savodxonligi yetarli emas. Axborot savodxonligi va madaniyatining muhim tarkibiy qismi kompyuterlar bilan bir qatorda kutubxona hisoblanadi. Bu borada kutubxona bilan ishlay olish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi» (Mirziyoyev, 2021: 192).

Axborot madaniyati bu tegishli ma'lumotni o'qish, o'qilgan narsani anglash va qo'llash madaniyatidir. Ammo bozorning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar o'zlarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash jarayoni ancha qiyin kechmoqda. Bu borada o'quv muassasalarida o'quv va tadqiqot kurslarining joriy etilishiga qaramay, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ilm-fanning rivojlanishi, jamoatchilik bilan aloqalar, inson hayotining barcha jabhalarida juda katta miqdordagi yangi ma'lumotlar va yangi axborot texnologiyalari kasbiy tayyorgarlik muammolariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bularning barchasi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muammosiga yangi ilmiy nuqtai-nazardan qarashni talab qiladi. Shu boisdan ham ochiq axborot jamiyati va yagona ta'lim makoni sharoitida kasbiy mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan bo'lajak mutaxassisning axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning jamiyatdagi faolligi tobora oshib bormoqda. Yangilanish, qonunlar bilan boshqariladigan mamlakat qurilishi davom etmoqda. Yoshlarning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ustuvor o'rinni egallamoqda. Innovasion, kelishilgan, yashil, ochiq va umumiy rivojlanish konsepsiyasi yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shishga to'liq e'tibor berishni, islohotlar, rivojlanishi va barqarorlikni ta'minlashning muhim ko'rsatgichiga aylanmoqda. Biroq yoshlar hayotiy faoliyatini yuksaltirishda muayyan muammolar uchrayotganligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Jumladan, ayrim yoshlarning salomatligi muammolari bilan bog'liq masalalarni hal etish, ularni o'z vaqtida aniqlab hal etish zaruratini paydo qilmoqda. Buning uchun avvalo yoshlarning ijtimoiy va amaliy bilimlarini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ta'lim tizimi sifatini oshirish bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida hal etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kun yoshlarining virtual olamdagi faoliyatini tanqidiy tahlil qilishhar qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jarayonda virtual tarmoqlarni yoshlar tarbiyasiga ta'siri tizimini yanada takomillashtirish, internet imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib va tashviq qilish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirish, virtual tarmoqlarning yoshlar tarbiyasidagi ijobiy energiyasini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo'naltirish uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog'liq muammolarni o'z vaqtida hal etish,

axborot madaniyatining intellektual mulk huquqini himoya qilish, yuqori sifatli axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish (mikro-filmlar, animatsiya, o‘yinlar va boshqalar) va yoshlarda axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb hisoblanadi (Sanaqulov, 2020: 901).

Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi diqqat, xotira va tafakkurning o‘sishiga sharoit yaratadi. Psixologlarning ma’lumotlariga ko‘ra, bola intellekti 4 yoshgacha 50% ga, katta guruhlarda 80 - 90% ga rivojlanish imloniyatiga ega.

Ma’lumki, maktabgacha yoshda bolaning yetakchi faoliyati o‘yin sanaladi. Shu sababli bolaning MTT hayotiga muvaffaqiyatli moslashishi uchun faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o‘tishini bir maromda amalga oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachimashg‘ulotlarda turli intellektual o‘yinlardan foydalanadi. Intellektual-syujetli o‘yinlar rivojlantiruvchi yoki bilish xarakteriga ega bo‘lib, bolaning fikr doirasini kengaytirishga, bilishga qiziqishini shakllantirishga qaratiladi. O‘yinlar mazmuni, xarakter xususiyatlari, bolalar hayotida tutgan o‘rni, ta’lim va tarbiyaga munosabatiga ko‘ra farqlanadi.

Intellektual rivojlanishga ko‘maklashadigan didaktik o‘yin-ermaklar orqali maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning lug‘at zahirasi kengaytiriladi va individual salohiyati oshadi.



3-rasm. Intellektual rivojlanishga ko‘maklashadigan didaktik o‘yin-ermaklar

Bunday didaktik o‘in-ermaklar bolalarda nazariy ong va tafakkur asoslarini hamda ular bilan bog‘liq qobiliyatlar (refleksiya, tahlil, rejalashtirish va h. k.)ni shakllantiradi.

Intellektual mazmunga ega syujetli-rolli o‘yin bolada bilishga qiziqishning yuzaga kelishiga ko‘maklashadi. Bola tomonidan anchagina murakkab rollarningbajarilishi unda tasavvur va simvolik funksiya bilan bir qatorda kasblar olami haqida rang-barang ma’lumotlarni egallash, bu ma’lumotlar mazmuniga xos yo‘nalganlikning yuzaga kelishini nazarda tutadi.

Bolalar jamoasida ermak-o‘yinlarni tashkil qilishda bolalarning erishilgan rivojlanish darajasi, mayl-istaklari, odatlari va qobiliyatlariga tayanish zarur. Bolalardagi mavjud qiziqishlarni chidam va qat’iyat bilan rivojlantirish orqaliasta-sekin korrektsiyalash, qayta qurish, ularga nisbatan talablarni oshirish lozim.

Ermak-o‘yinlar katta qismining rivojlantirish vositasi sifatidagi foydalilik darajasi ularni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi, texnikasi, o‘yin uslubi, eng muhimi, uning xarakteri va maqsadiga bog‘liq.

Bolaning butun borlig‘i o‘yinlarda namoyon bo‘ladi. Ermak-o‘yinlar puxta o‘ylab tanlansa, to‘g‘ri o‘tkazilsa, aynan ular vositasida bolaga ta’sir ko‘rsatishning boshqa shakl va metodlariga nisbatan ko‘p narsaga erishish mumkin. O‘yin davomida bolani kuzatish va baholash orqali pedagog undagi salbiy odatlarni yo‘qotishi, unga yordam berishi mumkin. O‘yinlarda bolaning ijobiy va salbiy jihatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Pedagog shaxsiy fazilatlarning hammasiga birgalikda va har biriga alohida ta’sir ko‘rsatish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan adabiy o‘yinlar intellektual-ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Biror ertak bilan tanishgach, bolalar guruhga berilgan vazifani birgalikda tayyorlab, o‘yinda ishtirok etishadi, bunday o‘yin intellektual-ijodiy topshiriqlar va tanlovlarni o‘z ichiga oladi.

Syujetli o‘yinlar kasb-hunarga oid tushunchalarning shakllanishi va ichki mazmun bilan boyishida katta ahamiyatga ega faoliyatdir. O‘yin jarayonida bola faoliyatning to‘laqonli subyektiga aylanadi. U bola shaxsining rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatib, intensiv taraqqiyot davrida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o‘yinnig asosiy elementlaridan biri qoidalar hisoblanib, ular o‘yin mazmuni kontekstida o‘yin harakatlari xarakteri va usullarini belgilaydi, bolalarning o‘zaro munosabatlarini tashkil qiladi va yo‘naltiradi. Mustaqil o‘ylab topilgan qoidalar yordamida bolalarda o‘zgaruvchan sharoitlarda yo‘nalish olish, hislarni jilovlash, emotsional-irodaviy sa’y-harakatlarni namoyon qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Psixologiyada syujetli o‘yinлapning bir qator muhim xususiyatlari ta’kidlanadi. Ulardan biri – ko‘p funksiyalilik, bolaninig axborotning passiv o‘zlashtiruvchisi o‘rniga faol subyekti pozitsiyasiga o‘tishdir (2. 3. 5. -rasm).

Qizchalar “Go‘zallik salonida”, “Tikuvchi ayol”, “Pilla boquvchi”, “Kompyuter operatori”, “Magazin”, “Maktab-maktab”, “Doktor-doktor”, “Jurnalist” , o‘g‘il bolalar esa “Haydovchi”, “Avtobusda”, “Kinorejessyor”, “Bank”, “Pochta”, “Garaj”, “Qutqaruv brigadasi”, “Kosmik uchuvchi”, “Usta” kabi rolli-syujetli o‘yinlarni sevib o‘ynaydilar. Bu o’yinlar kasb-hunar bilan bevosita aloqador bo‘lgani sababli bolalarda kasb-hunarga qiziqishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘yinlarga metodik rahbarlik, avvalo, dasturiy mazmunni saralash va o‘ylab ko‘rish, vazifalarni aniq belgilash, yaxlit tarbiyaviy jarayonda uning o‘rni va rolini aniqlash, boshqa o‘yin va ta’lim shakllari bilan birlashtirish kabilarni nazarda tutadi. U bilish faolligi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi, o‘yin vazifalarini hal qilishning turli usullarini qo‘llash va rag‘batlantirishga qaratilishi, qatnashchilar o‘rtasida xayrixohlik munosabatlarini, yordamga tayyorlikni ta’minlashi kerak.

O‘yinning bolalarni garmonik rivojlantirishdagi ahamiyatini inobatga olib, ularga quvonch bag‘ishlovchi o‘yin faoliyatiga yetarlicha vaqt ajratish kerak. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin bolalarning

aqliy imkoniyatlarini safarbar qiladi, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantiradi, hamkorlikdagi faoliyat quvonchini beradi. Tafakkurning intensiv rivojlanishi o‘qilayotgan matnlarni yaxshiroq tahlil qilish va chuqurroq tushunishga ko‘maklashadi. Shu sababli o‘quv-tarbiya jarayonigaintellektual o‘yinlarni faol tatbiq qilish tarbiyachining eng muhim vazifasi sanaladi.

Intellektual-syujetli o‘yinlarni tashkil qilishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim, zero maktabgacha yosh pozitiv o‘zgarishlar davridir. Bu yosh davrida har bir bola tomondan erishilgan muvaffaqiyatlar darajasi aynan shuning uchun ham muhim. Bu yoshda bola kashfiyotlar va bilish zavqini his qilmasa, keyinchalik buni uddalashi yanada qiyin kechadi, undan nihoyatda katta jismoniy va aqliy kuchlarni talab qiladi.

Syujetli o‘yinlar tematikasini odamlar hayoti, tabiat hodisalari, hayvonlarning yashash tarziga oid ayrim epizodlar tashkil etadi. Bularning hammasi o‘yin jarayonida bolalar tomonidan shartli aks ettiriladi (masalan, “Sayohatchilar”, “Uchuvchilar”, “G‘ozlar, oqqushlar” “Lochin va kurk tovuq” o‘yinlari). Bola tashqi dunyoni to‘g‘ri idrok qilishi uchun (o‘yinning barcha shartlariga rioya qilgan holda) o‘yin vaziyati va qoidalari to‘g‘ri izohlanishi zarur. Pedagog o‘yin qoidalarini tushuntirishda emotsional bayon uslubini qo‘llaydi.

Syujetli-rolli o‘yinlarni bolalar tarbiyachi rahbarligida o‘zlari tuzadi. Ularning asosini bolalarning ijodi (havaskorligi) tashkil qiladi.

Bunda bolalar u yoki bu xatti-harakatlardan shunchaki nusxa ko‘chirmay, ularni qayta ijodiy anglaydilar, obrazlar va o‘yin harakatlarida qayta yaratadilar. Shu sababdan ularning bolani intellektini o‘stirishdagi ahamiyati ham e’tiborga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, mashg‘ulotlarda zamonaviy intellektual-rivojlantiruvchi o‘yin texnologiyalari uyg‘unligini ta’minlash orqali mashg‘ulot jarayonida tarbiyachi bilan bolalar orasida hamkorlik, o‘zaro muloqot qilish va ijodiy faollik ko’rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi. Topshiriqlarni individual bajarish jarayonida bolalar aqliy faoliyatga jalb etiladi, ularning o‘z bilimi, kuchi va qobiliyatiga ishonchi ortadi. Buning natijasida har bir bola shaxsi o‘z imkoniyati darajasida rivojlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бердалиева Г. А. Мактабгача таълим муассасалари нутқ ўстириш машғулотларида болаларни мустақил фикрлашга ўргатиш методикасини такомиллаштириш. Фалсафа доктори (phd), . . . дисс. Т. , -2019. -178 б

2. Чингаркина Д. А. Воспитание трудолюбия у детей старшего дошкольного возраста в процессе ознакомления с миром взрослых. – автореф. дисс. . канд. пед. наук. , 13. . 00. 07- Челябинск: Толяттинск. Гос. Университет, 2009. – 24 с.

3. Sharipov Sh. S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dokt. . . diss. avtoref. –T. : 2012. – 46 b.

4. Жукова З. П. Развитие интеллектуальных способностей младших школьников в ходе игры // Начальная школа. 2006. - № 5. - 30-31 с.

5. Abidov B. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi). - https://CYBERLENINKA. ru

6. Ранняя профориентатция как компонент социально-коммуникативного развития дошкольников - https://ssh1413sv. mskobr. ru/files/proforientasiya. pdf.

7. Шингаркина Д. А. . Воспитание трудолюбия у детей старшего дошкольного возраста в процессе ознакомления с миром взрослых. – автореф. дисс. . kand. ped. nauk. , 13. . 00. 07- Челябинск: Толяттинск. Гос. Университет, 2009. – 24 с.

Didactic support for the formation of interest in the profession through game technologies in the students of the state preschool education organization

Annotation

"Didactic provision of vocational interest formation" of "preschool educational organizations" to open several opportunities for their teachers to increase vocational interest through game technologies, and this educational organization by increasing the potential of learners through games, interactive textbooks and methods for teachers to successfully organize the educational process with the help of computers, smartphones, tablets and other electronic devices, by in-depth study of future careers and their functions is to form an interest in the craft. This type of didactic technologies helps to increase the interest of students in mastering, simplifying theory into practice and developing the spirit of cooperation. With them, teachers can organize more interesting times for teaching the main concepts of academic subjects, developing skills and gaining insight. For example, as a student, using a single mobile app, students can access interactive tutorials, games, and level-based activities where they can test their reading skills and learn independently. This increases the student's interest in the educational process and makes

learning more interesting and convenient. Action games are considered the fruit of children's imitative actions, interests, creativity, they are physical exercises based on observing natural and social events, labor processes, their own age, thinking capabilities, visual and figurative thinking. It is a voluntary and enjoyable, intense activity that is created by moving to yin. emphasizes the importance of yin types.

1. Sports games: Children's interest in sports games requires a lot of attention. Sports help in the development of muscular professions. For example, football, basketball, tennis, golf, track and field and other sports.

2. Mathematical and mechanical games: These types of games are very important for the development of children's knowledge. Through these games, children can learn numbers and counting, pronounce mathematical principles, and understand mechanical concepts.

3. Social Games: Children learn community, cooperation, teamwork and thinking through social games. These games help with community work, giving value to others, using literature or humor.

4. Speaking games: Speaking games are educational games for children to improve their language development, speaking and writing skills. For example, we see chess, sudoku, divination, vocabulary games and juggles.

5. Technological games: With technological games, the pre-school educational institution can provide children with professional development. For example, computer games, robotics games, coding games.

At the facility, children can pursue their interests, especially in the STEM (Science, Technology, Engineering and Math) fields, thereby enhancing and strengthening a number of career skills. It is very important that teachers also support their interests and find out exactly what career direction a young person is interested in. Thus, "Pre-school educational organizations" can use the loss of game technologies in order to increase the didactic support of the formation of interest in the profession to teachers. It provides interactive and hands-on opportunities for students to make their learning, learning, and activities more meaningful and engaging.

Key words: Action games, didactic games, principles of action games

KO‘P TARMOQLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISH OLIB BORISHDAINNOVATSION TEXNOLOGIYALARFDAN FOYDALANISH

o‘qituvchi Zulfiya KARİMOVA

Annotatsiya

Ayni damda ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari ta’lim-tarbiya va korreksion ish olib borish jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanishni yo’lga qo’yib kelmoqdalar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’limdavlat talablarini maktabgacha ta’lim yo’nalishiga tatbiq etishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar ta’lim – tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Buning uchun ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari tomonidan bolalarni tarbiyalash va intellektual rivojlantirishning boshqa maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan ajralib turadigan eng yangi modellari ishlab chiqildi. Pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatida qabul qilingan modelga to‘liq mos keladigan uslubiy vositalar, o‘qitish usullari va uslublaridan foydalandilar. Bunday texnologiyalar qatoriga sog‘liqni saqlovchi texnologilar, art texnologiyalar, axborot-kommunikativ texnologiyalarni olishimiz mumkin. Pedagoglar bu innovatsion texnologiyalarni qo‘llar ekanlar, har bir bolaning o‘ziga xos alohida ehtiyojini, jismoniy imkoniyatlarini, xarakter xususiyatlarini hisobga olishlari, unga mos bo‘lgan metodika va texnologiyalardan foydalanishlari, shuningdek, samara beradigan yo‘lini izlashlari kerak bo‘ladi. Buning uchun ular quyidagi sifatlarga ega bo‘lgan pedagog sifatida o‘zini namoyon etadilar:

Muloqotchan – u hamkasblari bialn ham, tarbiyalanuvchi bolajonlar bilan ham tez va oson muloqotga kirisha oladi, nutqi ravon va ifodali. Suhbatdoshini nafaqat nutqi, shirinsuhanligi, balki hislarini emotsiya bilan aks ettirishibilan ham jalb eta oladi.

Yaratuvchan – uning qiziqishlari ko‘lami keng, tez fikrlab qisqa muddatda yangiliklar, o‘z uslubi, o‘z ijod mahsulini yaratishga qodir. U hoh ta’lim-tarbiya sohasida, hoh qo‘l mehnatlarida bo‘lsin.

Izlanuvchan – biron muammoning yechimini topmaguncha qo‘ymaydigan, doimiy yangiliklarni izlab, ularni amaliyotda qo‘llashga harakat qiluvchi.

Ijodkor – iste’dodli, qobiliyatli, san’atni pedagogik faoliyatga bog‘lab olib boruvchi pedagog.

O‘z ustida ishlovchi – dunyodagi, yurtimizdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta’limiy sohadagi barcha yangiliklardan xabardor, turli o‘quv kurslari, seminar-treninglarda tahsil olib boruvchi, faoliyati doirasidagi muhim va dolzarb muammolar yuzasidan respublika va dunyo miqiyosidagi jurnal va ilmiy konferensiyalarda maqolalari bilan ishtirok etuvchi, ish tajribasi bilan bo‘lishvchi, uni ommalashtiruvchi pedagog.

Innovatsion faoliyatini tashkil etish ko‘p hollarda pedagoglardan bilim, tajriba, shaxsiy pedagogik qobiliyat va sifatlardan tashqari vositalarni ham talab qiladi.

Kalit so’zlar: art-terapiya, musiqa terapiya, qo‘g‘irchoq terapiya, mnemotexnika, kreativ o‘yin terapiya, kulgiterapiya, neyropsixologik texnikalar.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN WORKING WITH CHILDREN WITH DISABILITIES IN MULTI-NETWORK PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Karimova Zulfiya

Abstract

At the moment, pedagogues of the multidisciplinary preschool educational organization are introducing the use of modern educational technologies in the process of education and correctional work. Modern pedagogical technologies are aimed at implementing the state requirements of preschool education in the direction of preschool education.

Innovative technologies in preschool educational organizations are aimed at modernizing the educational process. For this, the editors of the specialized preschool education organization for the blind have developed the newest models of children's upbringing and intellectual development, which are different from other preschool education organizations. In their professional activity, editors used methodological tools, teaching methods and methods that fully correspond to the adopted model. Among such technologies, we can take healthcare technologists, art technologies, and information and communication technologies.

When using these innovative technologies, educators should take into account each child's specific needs, physical capabilities, and character traits, use appropriate methods and technologies, and look for an effective way. To do this, they present themselves as editors with the following qualities:

Communicative - he can quickly and easily communicate both with his colleagues and with foster children, his speech is fluent and expressive. He can attract the interlocutor not only with his speech and sweetness, but also with his emotional expression of his feelings.

Creative - he has a wide range of interests, he is able to think quickly and create news, his own style, his own creative product in a short period of time. Be it in the field of education or manual labor.

Inquisitive - a person who does not give up on a solution to a problem, constantly looks for new things and tries to apply them in practice.

The artist is a talented, capable editor who connects art with editorial activity.

Working on himself, he is aware of all the news in the world, in the political, economic, cultural, and educational spheres of our country, he attends various training courses, seminars and trainings, he writes about the important and current problems of the republic and the world-wide magazine and scientific an editor who participates in conferences with his articles, shares his work experience, and popularizes it.

The organization of innovative activities in blind cases requires from editors not only knowledge, experience, personal editorial skills and qualities, but also tools.

Keywords: art therapy, music therapy, puppet therapy, mnemonics, creative game therapy, laughter therapy, body-oriented technique.

Kirish

Hozirgi kunda ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya va korreksiya ishlarini loyihalashda pedagoglarning asosiy kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirishini yaxshilash uchun ularning pedagogik mahoratlaridan foydalangan holda ta’limning innovatsion texnologilarining turli shakllari va usullaridan tobora ko‘proq foydalanilmoqda.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limi, ular uchun maxsus korreksion-rivojlantiruvchi muhit, reabilitatsiyani ta’minlash, oqitish, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuv sharoitini yaratishni ko‘zda tutadi. Ko‘pgina rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ruhiy bilish jarayonlari va aqliy faoliyatidagi muammolar kuzatiladi; jismoniy rivojlanish va sensor funksiyalardagi turli darajadagi buzilishlar; shuningdek, tez charchash, chalg‘ish va giperfaollik kuzatiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning to‘liq rivojlanishini ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim sohasiga noan’anaviy yondoshuvlar, yakka dasturlar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim. Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya so‘zi pedagog va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘zaro faoliyatini tashkil etishda yangicha shakl, maqsad, mazmun va uslublarni tatbiq etishga qo‘llanadi. Ta’lim

jarayoni samaradorligining oshishida innovatsion texnologiyalarning faol qo‘llanishi asosiy mezon hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar mualliflari bo‘lib V. V. Konovalenko, T. A. Tkachenko, T. B. Filicheva, S. V. Konovalenko, L. N. Smirnova, N. V. Nishevalar hisoblanadi. Innovatsiyalarning asosiy funksiyasiga pedagogik jarayonnig komponentlarni: maqsad, mazmun, shakl, uslub, o‘qitish va tarbiya vositalarini o‘zgartirish kiradi. Alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash ular uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlovchi, maxsus ta’lim standartlari doirasida sog‘lom bolalar bilan o‘qish uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi maxsus korreksion-rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishni nazarda tutadi

Metodologiya

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishning shartlaridan biri nuqsonning tuzilishini bilish va birlamchi nuqson deb ataladigan rivojlanishdagi og‘ishlarini korreksiyalash mumkinligini tushunishdir. Alohida ehtiyojli bolalar uchun salomatlikni asrashga qaratilgan texnologiyalar birmuncha dolzarb hisoblanadi. Bu texnologiyalarning maqsad: alohida ehtiyojli bolalar sog‘lig‘ini saqlash imkoniyatini yaratish, bolada sog‘lom turmush tarzini yuritish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish, shuningdek, uni olingan ijtimoiy tajribadan kundalik hayotda foydalanishga o‘rgatish hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion texnologilarning bir qancha shakli mavjud: sog‘liqni saqlovchi texnologiyala, art texnologiyalar, axborot kommunikativ texnologiyalar.

Sog‘liqni saqlovchi texnologiyalar bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, sog‘lom imkoniyatlarini oshiradi. Buning uchun pedagogik jarayonga turli jismoniy mashqlar va o‘yinlar (jismoniy daqiqa, ertalabki badantarbiya; nafas, barmoq, ovoz mashqlari; harakatli va musiqiy terapiya), fizioterapiya, aromaterapiya, fitoterapiya, chiniqtirish, uqalash kabilar kirgaziladi.

Qulay ta’limiy-davolovchi muhitni yaratish uchun maxsus profilaktik tadbirlar o‘tkaziladi:

- sanitar-gigiyenik talablarga amal qilish, mebellarni to‘g‘ri joylashtirish;

- har bir bolaning ruhiy-jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondoshish;

- o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning turli shakllarida davomiylik meyorlariga amal qilish;

- bola faoliyatini tez-tez almashtirib turish, bo‘shashtiruvchi daqiqalar, jismoniy daqiqalar, harakatli terapiyalar o‘tkazish;

- bola rivojlanishining ruhiy-jismoniy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus ko‘rgazmalarni tanlash;

- harakatlar cheklanish doirasini yordamchi harakatlanish vositalar i hisobiga kengaytirish;

-asosiy kasallikning salbiy oqibatlari, shuningdek jismoniy, ruhiy charchoqni profilaktika qilish maqsadida chora-tadbirlar o‘tkazish;

-har bir bolaning jismoniy va ruhiy tomondan samarali rivojlanishi va shikastlangan sohalarini reabilitatsiya qilish, umumiy salomatligini tiklash uchun shart-sharoitlar yaratish.

Sog‘liqni saqlovchi texnologiyalar borasida so‘z yuritar ekanmiz, hozirgi kunda pedagoglar tomonidan ham sog‘lom, ham rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta’lim-tarbiyasida keng qo‘llanilayotgan, samarali natijalar berayotgan neyropsixologik texnologoyalarga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik. Sir emaski, jamiyatimizd tamomila sog‘lom deb topilgan bolajonlarimizda ham ruhiy yoki psixosomatik o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Jamiyat jadal rivojlanmoqda, texnika undanda tez sur’atda rivojlanyapti, bolalarimizning sog‘lig‘ida esa ko‘p hollarda orqaga ketish kuzatilyapti. Intellektual darajasi pasayib, o‘qish imkoniyatlari tushib bormoqda. shu bilan birga ular egallashi kerak bo‘lgan bilim ko‘lami kengayib bormoqda. Dasturni egallashdagi qiyinchiliklar dangasalikdan emas, zamonaviy bolalarning, shuningdek rivojlanishda orqada qolgan bolalarning bosh miyasining o‘ziga xosligi natijasidadir. Ko‘pincha nevrolog shifokorlar bolalarga MMD (miyaning minimal disfunksiyasi), SDVG (diqqat tarqoqligi va giperfaollik)kabi tashxislar qo‘yadilar.

Neyropsixologik texnologiyalar bosh miya funksiyalari buzilishini to‘ldirishga yo‘naltirilgan maxsus usulllar to‘plamidan tashkil topgan. Neyropsixologik (psixomotor) yondoshuvning samaraligigi fan va amaliyot bilan o‘z tasdig‘ini topgan. U sog‘liqni saqlovchi va o‘yin texnologiyasi hisoblanadi. Neyropsixologik yondoshuv ruhiy jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, nutq va boshq.) va hissiy-irodaviy sohalarning korreksiyasini nazarda tutadi. Ko‘pgina olimlar bola rivojlanishida psixik va motor rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidalaydilar. Jumladan, A. R. Luria oliy psixik funksiyalar nisbatan boshlang‘ich motor va sensor jarayonlar asosida vujudga keladi. Masalan, raqs, ritmika, harakatli o‘yinlar, musiqa asboblarni chalish orqali tana motorikasini rivojlantirish bilan birga nutq, tafakkur kabi jarayonlarning shaklllanishiga zamin yaratiladi.

Bizga ma’lumki, bolalar ta‘limining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan yarimsharlarning o‘zaro ta’siriga bog‘liqdir, rivojlanishning senteziv davri esa bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘i to‘liq shakllanib bo‘lmagan maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri keladi.

Ertalabki badantarbiyaning inson organizmiga foydalari ko‘pchilikka ma’lum, biroq nafaqat insonning tanasi, balki miyasi ham mashqlarga ehtiyoj sezadi. Neyrodinamik mashqlar kompleksi bola miyasining samarali ishlashiga, axborotlarni oson qabul qilib, qayta ishlashiga tayyorlab beradi.

Keling, mashqlarni boshlashdan oldin, miyamiz qanday ishlashini ko‘rib chiqaylik. Buning uchun biz uni shartli ravishda ikki qismga: chap va o‘ngga ajratamiz. Miyaning chap yarimshari tananing o‘ng tomonini boshaqarishga, o‘ng yarimshar esa chap tomonni boshqarishga javob beradi, ya’ni biz chap qo‘limiz bilan harakatlanganimizda o‘ng yarimsharni faollashtiramiz. Huddi shu holat ko‘z, oyoq, va boshqalarda kuzatiladi, chap yarimshar abstrakt-mantiqiy tafakkur, o‘ng yarimshar esa fazoviy-obrazli tafakkur uchun javob beradi. Biz hisob-kitob qilganimizda, so‘zlashganimizda, tahlil qilganimizda chap yarimsharlar, rasm chizganimizda, jim turganimizda, hayol surganimizda o‘ng yarimsharlar faolroq ishlaydi. Yarimsharlararo faollikning taqsimlanishi doim almashib turadi, ikkala yarimsharlar bir vaqtda faollashgan lahzada esa miyaning maksimal samaradorligiga erishiladi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, miyani ishga sozlash va tayyorlashdagi asosiy vazifa chap va o‘ng yarimsharlar o‘rtasidagi aloqa va faoliyat muvozanatini tiklashdir.

Zamonaviy psixologik va pedagogik amaliyot bolalarda yarimsharlararo ta’sirni rivojlantirish uchun ko‘plab o‘yinlar va mashqlarni taklif qiladi. Neyropsixologik gimnastika tufayli bolaning miya po‘stlog‘ining ishlashi oshadi, ikkala yarimsharning keng maydonlari faollashadi va miya integratsiyalashgan ish tartibiga o‘tadi. Barchasi uyg‘un rivojlanishi uchun esa ikkala qo‘lda yaxshi ishlashni o‘rganib olishning o‘zi yetarli.

Alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriluvchi texnologiyala haqida gap ketar eka, Art terapiya haqida kengroq yoritib o‘tishni lozim deb topdik. Quyida endi shu o‘rinda “Art-terapiya” so‘ziga ham izoh berib o‘taylik.

“Art Therapy” atamasi ikkita so‘zning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. “art” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib-“san‘at”, “terapiya” so‘zi esa yunoncha“therapeia” so‘zidan olingan bo‘lib — davolash degan ma‘noni anglatadi. Art terapiya- san‘at bilan davolash demakdir. Art terapiya -bu

san’at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotganyo‘nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o‘z ichiga oladi.

Art terapiya - bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o‘z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art-terapiya yordamida tuzatish eng yoqimli va samarali usul hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi bolada o‘zini-o‘zi bilish jarayonini o‘zlashtirish va uning o‘zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

"Art terapiya" tushunchasi hozirgi vaqtdabir necha ma’noga ega:

- davolash va tuzatishda ishlatiladigan san’at to‘plami;

- art-terapiya texnikasi to‘plami;

- psixoterapevtik va psixoreksiya amaliyotining yo‘nalishi;

- usul.

"Art terapiya" (art-terapiya) atamasi birinchi bo'lib 1938 yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriylarda sil kasalligi bilan og‘rigan bemorlarning badiiy mashg‘ulotlarini tasvirlashda ishlatilgan. Keyin bu atama terapevtik san‘atning barcha turlariga qo‘llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida artoterapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada psixoterapiya bilan bog‘liq holda rivojlana boshladi. Ijodkorlikda qasddan o‘zini oshkor qilish bilan terapiya Z. Freydning psixoanalizidan, K. G. Yungning analitik psixologiyasidan Moreno psixo-dramasidan va amerikalik o‘qituvchi M. Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi.

A. Kopitinning so‘zlariga ko‘ra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badiiy amaliyotdir, chunki art-terapiya mashg‘ulotlari paytida mijozlar vizual faoliyat bilan shug‘ullanishadi[21].

Art-texnologiyalarning maqsadi - bo‘lajak defektologlar, alohida yordamga muhtoj bolalarni art texnologiya yordamida ularning hissiy-irodaviy sohasini, bilish jarayonlarini, umumiy va mayda motorikasini rivojlantirishdan iborat.

Art-texnologiyaningvazifalari:

-. mavjud art-texnologiya usullarini moslashtirish va ulardan alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari bilan psixo-korreksion ishlari tizimida foydalanish;

- turli yoshdagi va shaxsiy rivojlanishning turli xil buzilishlari bo‘lgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan psixo-korreksion ishlarda artterapiyadan foydalanishning xususiyatlarini ochib berish va samaradorligini aniqlash;

-. alohida yordamga muhtoj bolalardagi turli xil kasalliklarni tuzatishni ta'minlaydigan art-texnologiyalari va korreksiondasturlarini ishlab chiqish;

-alohida yordamga muhtoj bolalardagi o‘zini-o‘zi nazorat qilishga o‘rgatish, iqtidorini namoyon qilishga yordam berish va o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahoni ko‘tarishga o‘rgatishdan iboratdir.

-Art-texnologiya nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning, nutq nuqsonlarini bartaraf etish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish. Ularning ruhiyatini barqarorlashtirishva yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Musiqa terapiya –. musiqani ohangiga, uning ritmik asosi va ijrosiga qarab hissiy idrok etishga asoslangan psixoterapiya usulidir. Musiqa alohida ehtiyojli bolalarning hissiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro ishonchni, bir-birini tushuna olishga yordam beradi. Jumladan, alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion ishda Karl Orfning “Musiqa bolalar uchun” metodikasi elementlaridan foydalanilganda, musiqa va harakatdagi improvizatsiya orqali bolalarning musiqiy iste’dodi ochib beriladi. Bunda bolalar biron nodir asar ijro etishlari emas, o‘zlarini namoyon eta oladigan ijodiy jarayon muhim. Orf-mashg‘ulotlardagi improvizatsiyalar jamoaviy ijro etiladi. Aynan shu xususiyat har bir bolaga uning nuqsoni, musiqiy layoqati darajasidan qat’iy nazar o‘z o‘rnini topish imkonini beradi.

Izoterapevtik uslublar (noan’anaviy rasm chizish) “bostirish”, barmoq bilan chizish, yumshoq qog‘oz bilan chizish, shisha sirtiga chizish, irmik yormasi bilan chizish, barglar, paxta, tayoqchalar, tosh bilan chizish texnikasi, qopqoqni botirib chizish, kaft bilan chizish kabilar alohida ehtiyojli bolalarning kognitiv rivojlanishlari uchun qo‘llaniladi.

Qo‘g‘irchoq terapiyasi – art terapiyaning bo‘limi hisoblanib, unda qo‘g‘irchoq asosiy ta’sir usuli sifatida bola va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning oraliq ob’ekti sifatida ishlatiladi.

Mnemonika – sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi hamda xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Mnemotexnikaning mohiyati shundaki, har bir so'z yoki ibora uchun timsollar yaratiladi, matn esa to'liq chizmada ifodalanadi. Bu chizmalarni qo'llash orqali bola she'r yoki matnni oson aytib bera oladi.

Ijodiy o'yin terapiyasi – nutqni yaxshiroq tuzatishga va tasavvurni, shuningdek, hissiy-irodaviy sohani rivojlantirishga yordam beradigan usul. Qum terapiyasi alohida ehtiyojli bolalarning amaliy muloqot ko'nikmalarini yaxshilash, so'z boyligini boyitish, bog'langan nutqi, mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga, faollikka va diqqatni jamlashga, tasavvur va obrazli tafakkurini kengaytirishga yordam beradi.

Kulgi terapiyasi psixoterapiyaning bir turi bo'lib, og'riqni yengillashtirish, hissiy stressni bartaraf etish, bo'shashish, shuningdek, uyatchanlikdan xalos bo'lishga yordam beradi. Hazil va kulgu kayfiyatni ko'taradi, muloqotga kirishuvchan bo'lishga, stressli vaziyatlarga turib bera olishiga yordam beradi.

Aromaterapiya – sog'liqni mustahkamlash uchun efir moylari va moyli suspenziyalardan foydalanish. Iforlar kayfiyatni boshqarib, asab tizimini tinchlantirish, ishchanlikni oshirish va yaxshi kayfiyatni ushlab turishga yordam beradi. Aromaterapiyaning iforli vanna qabul qilish, xonani xushbo'ylantirish va xushbo'y yog'lar vositasida uqalash kabi turlari bor.

Xromoterapiya (rang terapiyasi) – maxsus tanlangan rang yordamida alohida ehtiyojli bolalarning individual biologik ritmni tiklash. Maktabgacha yosh davri bu bolaning intensiv hissiy rivojlanishi davri hisoblanadi. Rang terapiyasi yordamida alohida ehtiyojli bolalarning intellektual va hissiy rivojlanishini rag'batlantirish asoslangan va samarali uslub hisoblanadi. Rang terapiyasi, shubhasiz, bolalar jamoasidagi muhitni yaxshilashga, alohida ehtiyojli bolalarning intellektual rivojlanishini rag'batlantirishga, psixofizik dam olish ko'nikmalarini egallashga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi

O'qitishning axborot texnologiyalari bu – axborotishlashda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy axborot texnologiyasi L. S. Vigotskiy, V. Y. Davidov, P. Y. Galperin, A. R. Luriya, A. B. Zaporojes, A. N. Leontev, D. B. Elkoninlar tomonidan ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik va metodologik qoidalarga asoslangan. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ish olib borishda AKTni qo'llash ularning kognitiv faoliyatini tashkillashtirishda motivasiyasini oshiradi; hissiy tonusning oshishi hisobiga qisqa fursatda o'z didaktik qo'llanmasini yarata olish

imkonini beradi, bu esa o‘quv dasturini mazkur kategoriyadagi maktabgacha yoshdagi bolalarning uzoq muddatli xotirasida qolish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda pedagog faoliyatidagi innovatsion texnologiyalar korreksion ishning istiqbolli vositasiga aylanmoqda. Kompleks yordam innovatsion usullar qatorida alohida kuch talab etmasdan, nogiron bolalar korreksiyasi jarayonini optimallashtirish, butun organizmni yaxshilashga hissa qo‘shadi, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va umumiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, bolalarning yangi bilimlarni qabul qilib, o‘zlashtirishga ishinchini oshiradi, bu esa o‘z navbatida ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi. (Abdujalilova, Karimova, 2023, aprel 4)

Hozirgi kunda respublikamizda ta’lim tizimini raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim tizimlarida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron ta’lim resurslari va o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan maxsus multimedia dasturlari, elektron platformalar buning yaqqol dalilidir. Ammo ta’limning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimi nisbatan ancha orqada qolgan. O‘zbekistonda ushbu muammoning sabablaridan biri sifatida o‘zbek tilidagi maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslarining juda kamligini va MTTlar axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlanmaganligini keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan (PF-6108, PQ-4884, 2020, noyabr, 6) . O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunining 53-moddasida ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan. (O‘RQ-595, 2019, dekabr, 16) Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar S. L. Novoselova, I.

Yu. Pashiliti, G. P. Petko, Xanter va M. I. Jumayevlarning fikricha ta'lim jarayoni davomida kompyuterdan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat kompyuter texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini, balki bolaning intellekti va shaxsiyatini rivojlantirishda alohida o‘rin egallaganligini va hozirgi kunda multimedia o‘qitish vositalaridan foydalanish maktabgacha ta’lim tizimidagi ko‘plab uslubiy yangiliklarni ishonchli isbotlamoqda. Ularning fikriga qo‘shilgan holda shuni aytish mumkinki, multimedia maxsulotlari bolaning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, dunyoqarashi, tafakkuri va intelektual salohiyatini o‘stiradi va mustaqil bilim olishi imkoniyatini yaratadi. (Jumayev, Xalikova 2021, aprel, 15)

Yildan-yilga axborot kommunikativ texnologiyalarning inson hayotidagi o‘rni mustahkamlanib bormoqda. Bolalar kichik yoshdanoq elektron qurilmalar ta’siriga tushyaptilar, ular kunda televizion dasturlar, internet tarmog‘i, kompyuter yoki smartfon o‘yinlari orqali katta hajmdagi axborotni o‘zlariga singdirib boryaptilar. Yangi avlodning hayot standartlari ta’limni axborotlashtirish darajasining oshishi bilan chambarchas bog‘liq. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yurtimizda maktabgacha ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, korreksiya va rivojlantirish ishlarida alohida o‘rin tutadi. Bolalar bog‘chasidagi kompyuter alohida o‘quv o‘yin qurilmasi sifatida emas, balki o‘quv jarayonining turli sohalari bilan integratsiyalashuvi, bolalar bog‘chasining rivojlanayotgan muhitini boyitishi va o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan universal axborot tizimi sifatida qaraladi. Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan dasturni amalga oshirish doirasida pedagoglarga axborot texnologiyalaridan foydalanish vazifasi yuklatilgan, chunki bu nutq va tafakkurni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, idrok, diqqat, xotira qobiliyatlari kabi turli ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Ular yordamida bolaning nafaqat intellektual qobiliyatlari, balki diqqatning ixtiyoriyligi, diqqatni jamlash, mustaqillik, vazminlik, qat’iyatlilik kabi irodaviy fazilatlari tarbiyalanadi, bundan tashqari bilim, ko‘nikma va malakalar zaxirasi shakllanadi.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar ayniqsa texnologiya haqida gap ketganda juda qiziquvchan. O‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish materialni og‘zaki bayon qilishdan katta afzalliklarga ega. Multimedia taqdimot ranglarning yorqinligi, yaxshi taqdim etilishi va shunga mos ravishda materialning yaxshi tushunarliligi bilan ajralib turadi. Bolaga materiallar og‘zaki taqdim etilganda bir daqiqada bir ming shartli birlikdagi axborot qabul qilishi va qayta ishlashi, ko‘ruv va eshituv a’zolarining birgalikda ishlashi natijasida esa yuz ming birlikka yetishishi tadqiqotlar bilan isbotlangan.

Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar tasavvurini kengaytirishga mo‘ljallangan asosiy axborot vositalaridan biri bo‘lib multimediali texnologiyalar hisoblanadi. Ular o‘z ichiga taqdimot, slayd-shou, fotoalbom, interfaol o‘yinlar, video-sayohatlarni oladi. Materialning bunday taqdimotida bolada xotiraning uch turi ishga tushadi.

Multimediali texnologiyalar materialni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, o‘zlashtirilishi qiyinchilik tug‘dirgan bo‘limlarda to‘xtab, ortga qaytish imkonini beradi. Taqdimotda turli effektlarning qo‘llanishi bolalarda qiziqishning ortishi va intellektual sustlikni yengishga yordam beradi. Multimediali taqdimotlar bolalardagi toliqishni kamaytiradi, turli patologiyali bolalarning bilish faolligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda birinchi navbatda o‘yin faoliyati shaklida, keyin esa bilish-tadqiqot faoliyati sifatida katta qiziqish uyg‘otadi. Bu qiziqish kognitiv motivatsiya, ixtiyoriy xotira va diqqat, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar kabi muhim tuzilmalarning shakllanishiga asoslanadi.

Korreksiya ishlarida axborot texnologiyalarini qo‘llashni boshlashdan oldin dasturning barcha bo‘limlari bo‘yicha bir qator tezislarni ishlab chiqdik, bu bizga o‘quv jarayonini xilma-xil qilish, bolalarni qiziqtirish va o‘ziga jalb qilish imkonini beradi. To‘g‘ri tanlangan topshiriqlar va axborot texnologiyalari yordamida namoyish etilgan video materiallar bolalarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga yordam berishi kerak.

Ishga kirishishdan oldin pedagog bolalarni o‘rganilayotgan mavzu va keyingi faoliyat bilan bog‘liq o‘yin vaziyatiga jalb qiladi, bajariladigan ishga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yaratadi, o‘yinning qoidalarini tushuntiradi. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda har bir mashg‘ulot 20–25 daqiqadan ortiq davom etmasligi va an’anaviy tuzilishga ega bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotni o‘tkazish 3 bosqichda:tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi bosqichda bo‘lishi kerak.

Natijalar

Alohida ehtiyojli bolalar bilan bunday mashg‘ulotlarni o‘tkazishning quyidagi afzalliklari bor:

multimedia texnologiyalari yordamida o‘yin tarzida taqdim etilgan ma’lumotlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otdi;

ko‘rgazmali turdagi ma’lumotlar, ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun tushunarli;

multimedia texnologiyalarida dinamika, ovoz va animatsiyaning mavjudligi bolalarni ko‘proq jalb qiladi;

bolalarning bilish jarayonlari faolligini oshiradi;

ta’limni individuallashtirish imkoniyatini beradi;

kundalik hayotda ko‘rish mumkin bo‘lmagan hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi;

alohida ehtiyojli bolaga kompyuterda ishlash jarayonida o‘ziga ishonch hosil qilishiga yordam beradi.

Alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion ishlarda axborot texnologiyalaridan foydalanishda rivojlanishning quyidagi ijobiy tomonlari qayd etildi:

1. Bilish faoliyatining rivojlanish darajasi oshdi. Diqqat, xotira, idrok yaxshilandi. Umumlashtirish va taqqoslash qobiliyati rivojlandi. Fazoviy tasavvurlar shakllandi va nutq jarayoni yaxshilandi.

2. Bilish jarayonlarining rivojlanish darajasining ortishi quyidagi sohalarda kuzatildi: aqliy operatsiyalarning tezligi, vazifani hal qilishda yo‘lini topish vaqtining qisqarishi; diqqatning barqarorligi (kontsentratsiyaning davomiyligi), uning taqsimlanishi va konsentratsiyasi; analiz va sintez qilish.

Xulosa. Shunday qilib, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkiloti axborot texnologiyalaridan foydalanish bolaning shaxsi uchun ham, umuman maktabgacha ta’lim tashkiloti uchun ham yutuq deb aytishimiz mumkin. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik amaliyotga yangi uslubiy ishlanmalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi, alohida ehtiyojli bolalarning maqsadli rivojlanishiga yordam beradi, bolaning o‘qish va rivojlanish jarayonining yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi, nafaqat bola, balki pedagog uchun ham ta’limning yangi imkoniyatlarini ochadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Sh. A. Abdujalilova, Z. Karimova(2023, aprel 4). Use of innovative technologies in working with children with disabilities in multidisciplinary preschool educational organizations. /SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE https://zenodo. org/records/7876442

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. https://lex. uz/ru/docs/-5085999

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PQ-4884 sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex. uz/docs/-5085887

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 https://lex. uz/ru/docs/-4646908?ONDATE=12. 10. 2021%2000

Jumayev J. , Xalikova U. M. (2021, aprel, 16) Maktabgacha ta’limda axborot texnologiyalarining qo’llanishi. / Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2021-yil, 15-aprel https://journal. buxdu. uz/index. php/journals_buxdu/article/view/4374

EXTENDED ABSTRACT

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN WORKING WITH CHILDREN WITH DISABILITIES IN MULTI-NETWORK PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

At the moment, pedagogues of the multidisciplinary preschool educational organization are introducing the use of modern educational technologies in the process of education and correctional work. Modern pedagogical technologies are aimed at implementing the state requirements of preschool education in the direction of preschool education.

Innovative technologies in preschool educational organizations are aimed at modernizing the educational process. For this, the editors of the specialized preschool education organization for the blind have developed the newest models of children's upbringing and intellectual development, which are different from other preschool education organizations. In their professional activity, editors used methodological

tools, teaching methods and methods that fully correspond to the adopted model. Among such technologies, we can take healthcare technologists, art technologies, and information and communication technologies.

When using these innovative technologies, educators should take into account each child's specific needs, physical capabilities, and character traits, use appropriate methods and technologies, and look for an effective way. To do this, they present themselves as editors with the following qualities:

Communicative - he can quickly and easily communicate both with his colleagues and with foster children, his speech is fluent and expressive. He can attract the interlocutor not only with his speech and sweetness, but also with his emotional expression of his feelings.

Creative - he has a wide range of interests, he is able to think quickly and create news, his own style, his own creative product in a short period of time. Be it in the field of education or manual labor.

HOZIRGI KUNDA TA'LIM BERISHDA (INGLIZ TILI FANI MISOLIDA) ONLAYN TA'LIMNING IMKONIYATLARI

v. b. dotsent Mansurbek ONGAROV

Annotatsiya

An'anaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi guruhdagi barcha talabalarga kerakli darajada e'tibor bera oladi, onlayn ta'limda esa mazkur jarayonni to'la qonli bajarish imkoniyati cheklangan mazkur maqolada onlayn ta'limning o'ziga xosligi va undan qay tarzda foydalanish shuningdek onlayn ta'lim imkoniyatlariga kengroq to'xtalib o'tilgan. Onlayn ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali individual yondashuvni tashkil qilish samarali xisoblanadi. O'quvchi onlayn ta'limda o'zlashtirish darajasinio'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi, shuningdek ushbu maqoladaingliz tilidan onlayn ta'lim berishda zamonaviy yondashuv yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

O'quvchining yosh hususiyati bo'yicha o'rganish qobiliyati, masofadan tahsil olayotganlar boshqa o'quvchilaridan ortda qolishidan xavotirlanishga hojat yo'q sababi, ingliz tili fanidan murakkab so'zlarnio'rganishga qaytishingiz, bir necha bor video ma'ruzalarni tomosha qilishingiz, o'qituvchi bilan yozishmalarni qayta o'qishingiz va o'zingiz biladigan mavzularni o'tkazib yuborishingiz mumkin.

Ta'limning yuqori natijalari erishish tadqiqotlarga qaraganda olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish natijalari an'anaviy ta'lim shakllarining natijalaridan qolishmaydi. Masofaviy o'qiyotgan o'quvchi ko'pgina o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganadi. Bu o'tilgan mavzularni yodlash va tushunishni yaxshilaydi va darhol yangi o'zlashtirgan yangi so'zlarni amalda qo'llash orqali o'quvchining qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

An'anaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi guruhdagi barcha o'quvchilarga kerakli darajada e'tibor berishi, har bir o'quvchining ish sur'atigamoslashish juda qiyin. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish individualyondashuvni tashkil qilish uchun javob beradi. O'quvchi o'zi o'rganishtezligini o'zi tanlaganiga qo'shimcha ravishda, u paydo bo'lgan savollarga o'qituvchidan tezda javob olishi mumkin.

Kalit so‘zlar: onlayn, masofaviy, ilm-fan, o‘qituvchi, dars, sinf, kompyuter, kuzatish, texnologiya, video, audio, metod.

NOWADAYS, THE POSSIBILITIES OF ONLINE EDUCATION IN EDUCATION (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE SCIENCE)

Associate Professor. Mansurbek ONGAROV

Annotation

In the traditional learning process, the teacher can pay enough attention to all the students in the group, whereas with onlayn learning, this article limits the specifics of onlayn learning and how to use it, as well as a broader emphasis on onlayn learning opportunities. Effectively organize an individual approach through the use of information technology in onlayn learning. In addition to the student choosing the level of proficiency in onlayn learning, there are ways in which he or she can quickly get answers from the teacher to the questions that arise.

Learner's age-specific learning skills, distance learners don't have to worry about falling behind other learners, return to learning complex English vocabulary, watch video lectures multiple times , you can re-read the correspondence with the teacher and skip the topics you know.

Boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblaridagi hayvonlar haqidagi ertaklar orasida inson va hayvon munosabati asosiga qurilgan ertaklar uchramaydi, ularning barchasi o‘zaro hayvonlar munosabati asosida ertaklardir. “Sher va sichqon” ertagida voqealar sher va sichqon orasida, “Tulki va xo‘roz” ertagida tulki bilan xo‘roz o‘rtasida, “Tabiatning ne’mati ko‘p” ertagida chumchuq hamda eshak orasida bo‘lib o‘tadi. G‘oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o‘rinda turuvchi mazkur so‘zlashadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar garchi majoziy mazmun kasb ularda har bir hayvonning tabiiy xususiyatini bo‘rttirib ko‘rsatish yetakchi o‘rinda turadi. Bunday ertaklarda hayvonlar qanchalik hayvonot dunyosi uchun xos bo‘lgan xususiyatlar ularda mujassamlashgan bo‘ladi. Hayvonlar va parrandalarning hayotda bajara oladigan ishlarining ertakda mahorat bilan ko‘rsatilishi undagi reallikning qiziqarli chiqishiga asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: ertak, qahramon, o‘qituvchi, sahna ko‘rinishi, dars, kuzatish, metod, rasm.

THE ROLE OF FOLK TALES IN INCREASING STUDENTS' WORLD VIEWS AND SKILLS

Associate Professor, Mansurbek ONGAROV

magistrant Dilnoza SHOKIROVA

Annotation

Pupils listen to the fairy tale with interest, the events in it have a strong emotional impact on the hero-pupil, even though the years pass, with the help of fairy tales, the pupils develop economic knowledge and skills, they develop frugality, hard work, initiative. Establishment of economic activity, formation of unity , patriotism, is widely covered.

Among the animal stories in elementary school textbooks, there are no stories based on human-animal relationships, they are all stories based on animal interactions. In the fairy tale "The Lion and the Mouse" the events take place between the lion and the mouse, in the fairy tale "The Fox and the Rooster" between the fox and the rooster, in the fairy tale "The bounty of nature is abundant" between the sparrow and the donkey. In these fairy tales, in which metaphor plays a major role in the ideological content and interpretation of images, animals act and speak like people. Tales about animals, although they have figurative content, exaggerate the natural characteristics of each animal. No matter how much animals are humanized in such fairy tales, the characteristics of the animal world are embodied in them. The skillful presentation of the work that animals and birds can do in life in a fairy tale increases its reality and is the basis for a believable and interesting plot.

Tales about animals are structurally different from other types of tales. Their compositional device is distinguished by its simplicity. The number of images and events that make up the scope of the subject will be small. In such fairy tales, there is always a conclusion that injustice can be escaped with the power of reason. Tales about animals are of particular importance with their instructive idea and educational function, as well as education.

Keywords: fairy tale, hero, teacher , scene, lesson, observation, method, picture.

Kirish

O‘quvchilarni maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab odob-axloq me’yorlari darajasida tarbiyalash o‘qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi. Chunki o‘quvchilarning ma’naviyati yuksak inson bo‘lishida maktab asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bilim poydevorini qurish bilan birga tarbiya jarayoni ham shakllantirib boriladi. Bola yoshlikdan tarbiyalab borilsa, uning ma’naviyati yuksak, obro‘si baland, kelajagi porloq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qishning birinchi kunlaridan boshlab, o‘quvchilarga ta’lim berish bilan birga, tarbiya ham berib borilishi eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ta‘limning maqsadi o‘quvchilarga jahon andozalariga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo‘lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirishdan

O`zbek xalq ertaklarini o‘qishni to‘g‘ri tashkil qila olish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimi, pedagogik tajribasi, mahoratiga bog‘liq. O‘qish darslarida beriladigan ta’lim-tarbiya sinfdan O`zbek xalq ertaklarini o‘qishlarida yanada chuqurlashtirilishi, kengaytirilishi zarur. O‘quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda elga mehr, do‘stga sadoqat, oqibat, insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lsa, bu vazifani amalga oshirishda ertak o‘qish jarayoni muhim ko‘makchidir. Xalq ertaklari bolalarning

ari o‘zlarining yosh xususiyatlariga qarab, ertaklarning u yoki bu turiga ko‘proq qiziqadilar. Tavsiya etiladigan ertaklarning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga xizmat qilishini ko‘zda tutish, ertaklar mavzusining har xilligiga e’tibor berish lozim.

insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g‘oyalar, asosan, ular o‘qiydigan asarlarda jamuljam bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash bu kunning ustuvor

tarbiyaning o‘rni beqiyos. Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro

axloqiy faoliyat ko‘nikmalari axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Har bir ertak axloqiy tarbiya bera singdirishga xizmat qiluvchi ertaklar sifatidagi “Rostgo‘y bola”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Ahillik – ulug‘ baxt”, “Omonatga xiyonat”, “Hiylagarning jazosi”, “Eng ulug‘ fazilat”ertaklarini sanash

“Rostgo‘y bola” ertagida aytilishicha, bir befarzand podshoh bo‘lib, u vazirning maslahati bilan farzand asrab olmoqchi bo‘libdi. Bolalarga gul urug‘i tarqattirib, kimning guli chiroyli bo‘lsa, o‘shani farzand qilib Oradan vaqt o‘tib podshoh gul o‘stirgan bolalarni ko‘rish niyatida shahar Bir ko‘chada gulsiz tuvak ushlab, yig‘lab turgan bolani uchratibdi. Bola gul urug‘i o‘sib chiqmaganligini aytibdi. Podshoh rost gapirgani uchun shu Chunki podshoh gul urug‘larini qaynattirgan ekan. Mazkur ertakda rostgo‘ylik, halollik ulug‘lanib, o‘quvchilar rost so‘zlashga da’vat etilgan.

O‘quvchilarni maktabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab odob-axloq me’yorlari darajasida tarbiyalash o‘qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi. Chunki o‘quvchilarning ma’naviyati yuksak inson bo‘lishida maktab asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda bilim poydevorini qurish bilan birga tarbiya jarayoni ham shakllantirib boriladi. Bola yoshlikdan tarbiyalab borilsa, uning ma’naviyati yuksak, obro‘si baland, kelajagi porloq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qishning birinchi kunlaridan boshlab, o‘quvchilarga ta’lim berish bilan birga, tarbiya ham berib borilishi eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ta‘limning maqsadi o‘quvchilarga jahon andozalariga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo‘lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirishdan iboratdir.

Yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash bog‘chadan, hatto undan oldinroq ham boshlanishi hammaga ayon. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf alohida o‘rin tutadi. Sababi, bu davrda ta’lim-tarbiyaning asosiy poydevori qo‘yiladi. Ta’lim-tarbiya uchun o‘qish darslari o‘ta muhim bo‘lib, sinfdan tashqari o‘qish bu jarayonni to‘ldiradi, mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari o‘qishni to‘g‘ri tashkil qila olish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimi, pedagogik tajribasi, mahoratiga bog‘liq. O‘qish

darslarida beriladigan ta’lim-tarbiya sinfdan tashqari o‘qish darslarida yanada chuqurlashtirilishi, kengaytirilishi zarur. O‘quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda elga mehr, do‘stga sadoqat, oqibat, insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lsa, bu vazifani amalga oshirishda sinfdan tashqari o‘qish jarayoni muhim ko‘makchidir. Xalq ertaklari sinfdan tashqari o‘qish darslarini har jihatdan bezaydi.

Metodikaning asosiy vazifalaridan biri sinfdan tashqari o‘qish uchun asarlarni tavsiya etish bo‘lib hisoblanadi. Sinfdan tashqari o‘qish uchun ertaklar tanlashda kichik maktab yoshi o‘quvchilari qiziqishlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘zlarining yosh xususiyatlariga qarab, ertaklarning u yoki bu turiga ko‘proq qiziqadilar. Tavsiya etiladigan ertaklarning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga xizmat qilishini ko‘zda tutish, ertaklar mavzusining har xilligiga e’tibor berish lozim.

yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishuvida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Boshlang‘ich ta’lim esa bu jarayonda alohida mavqega ega. Bolalarning har jihatdan komil bo‘lishida badiiy adabiyotning o‘rni muhimdir.

- o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, ijobiy qahramonlar har qanday yovuzlik ustidan g‘alaba qozona oladi.

O`qituvchi- Yosh avlod tarbiyasi har kungidan muhim bo‘lib turgan pallada dars samaradorligini oshirish o‘ta muhim. Bu borada xalq ertaklari qudratli ta’sir vositasi bo‘la oladi. Ertak g‘oyaviy jihatdan o‘quvchini vatanparvar, mehribon, mehnatsevar, oqibatli, demakki, har jihatdan barkamol bo‘lishiga hissa qo‘shishi,

O`quvchi- bu maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal qiluvchi ta’siri ostida shakllanadi. Shu bois, o‘quvchilarni asriy urf-odatlar, tarixiy-milliy

Adabiyot sharhi. Mazkur ilmiy ishlarni amalga oshirishda Abdullayeva Q, Rahmonbekova S, Afzalov M. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, O‘zbek xalq ertaklari haqida bir qancha kerakli ma`lumotlar kiritib o`tgan.

Ta`lim oluvchilarningsafi kengayganligi.

Dunyo qarashi keng `oquvchilar.

Ham o‘qituvchiga, ham o‘quvchiga ertak turlarini, ularning sujetini to‘g‘rianglashga o‘rgatish usullari

O‘quvchini ertaklardagi obrazlar tizimini to‘gri talqin qilishga o‘rgatish yo‘llari.

undan ta’limiy-ma’rifiy xulosa qilishga o‘rgatish usullarining rang-barangligi xalq ertaklarini o‘qib darslarida o‘qib-o‘rganiladigan ertaklarni to‘g‘ri tanlay olish. Darslarda tanlangan ertaklarning erkin mavzularni to‘ldirishga, kengaytirishga xizmat qilishi.

Eshonqul ertaklardagi tush motivlarini tadqiq qilgan bo‘lsa, N. Do‘stxo‘jayeva sehrli ertaklarning struktual tahlilini amalga oshirdi. O‘zbek olimlari ertakni o‘rganish jarayonida rus olimlaridan V. Y. Proppning tadqiqotiga tayangan holatlari ko‘p uchraydi.

Bugunning boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga ertakni ifodali o‘qitish bilan cheklanmay, ularda badiiy asarni, jumladan, xalq ertagini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantira boshlash lozim. Ilmiy ishning asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari boshlang‘ich sinflarda ertakni g‘oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ertaklarni o‘tish jarayonidao‘ziga xos nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. (Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida 1964)

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng ko‘p tarqalgan, eng qadimgi, ommaviy janrlardan biridir. Unda xalqning ming yillar davomida yig‘ilgan hayotiy tajribalari, tabiat va jamiyat haqidagi tushunchalari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Ertaklar folklor asarlarining boshqa janrlari kabi avloddan-avlodga o‘tib, og‘zaki an’ana shaklida bizgacha yetib kelgan. Ertak folklorning epik turiga mansub bo‘lib, xayol asosida qurilgan badiiy uydirmadan iborat janr sanaladi. Uning o‘ziga xos xususiyati – voqeabandligi, biror voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilishidir.

Yuqorida tilga olingan ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg‘otib, muayyan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘ladi. O‘quvchilar botirlik, himmat va saxovat haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘ladilar. O‘zlarida ham xuddi ertak qahramonlaridagi kabi yaxshi fazilatlar bo‘lishini

ertak janridagi asar o‘quvchiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Yillar o‘tsa-da, ertak uning yodidan chiqmaydi.

Xalq ertaklaridan bahramand bo‘lgan har bir bola ota-bobolarimizdan qolgan ulug‘ fazilatlarga ega bo‘lib o‘sishi tabiiy. Bolalarni kichik maktab yoshidan boshlab kitobga mehr qo‘ydiradi, mas’uliyatli vazifalarni

Psixologlar bugungi kunda bolalar diqqatini lirik ko‘tarinkilik bilan his-tuyg‘ulari va xayoliga ta’sir ko‘rsatib, xotirasida uzoq yashashini ta’minlashini ta’kidlashmoqda. Kichik yoshdagi bolalarda emotsionallik kuchli bo‘lib, u diqqatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agar o‘quv materiali o‘zining yorqinligi, obrazliligi vajonliligi bilan ajralib tursa, diqqat ancha kuchli namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilar diqqatini darsga jalb qilishning eng muhim sharti o‘qitishni ko‘rgazmali qilish, illyustratsiyalardan foydalanish hamda o‘qituvchi nutqining yorqin, obrazli bo‘lishidir.

Ertaklar ustida fikr yuritar ekanmiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ertaklarni qay darajada o‘zlari mustaqil tahlil qila oladilar, qahramonlarga qay darajada munosabat bildira oladilar, ertakni qanday vositalar bilan to‘la tushuna oladilar kabi savollar beixtiyor e’tiborimizni tortadi. Buni biz ertak matni ustida ishlash jarayonida qo‘llanadigan usul va vositalar orqali amalga oshirishimiz mumkin. (Abdullayeva Q. , 2-sinfda o‘qish darslari 2004)

Ertak matni ustida ishlashni tashkil qilishda timsollar va asarda tasvirlangan voqealarga munosabat tahlil markazida turadi. Boshlang‘ich sinflarda ertakni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Ertak ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o‘qituvchi sinfda o‘qish darslarining ta’limiy-tarbiyaviy vazifalariga, ertakning o‘ziga xos xususiyatlariga va o‘quvchilarning yoshlariga mos ravishda ertakni idrok etish xususiyatlariga amal qiladi. Ertak ustida ishlash badiiy asar ustida ishlashning uch bosqichiga ko‘ra amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (birinchi tarkib) – bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni bilan, uning sujet chizig‘i bilan tanishtirish, asarning hissiy ta’sirini aniqlashdir. O‘qituvchi ertakni o‘qib beradi hamda uning mazmunini so‘zlab beradi, o‘quvchilarga ertak qanday ta’sir qilayotganini his qilib boradi, savollar berib aniqlaydi.

bosqichda ertakdagi sujet rivojining sabab-natija bog‘lanishini belgilash; ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash; ertak kompozitsiyasini ochish, ertakning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholashdan iborat. Masalan, “Uch o‘g‘il” (2-sinf) ertagidagi voqealarning bir-biriga bog‘lanib davom ettirilishi o‘quvchilarga tushuntirib boriladi. Keyin esa ota, to‘ng‘ich va o‘rtancha o‘gillar hamda kenja o‘g‘ilningxulq-atvori qanday ekanligi aniqlanadi, ertakda ishtirok

etayotgan mana shu qahramonlarning xulq-atvori bir-biriga qiyoslanadi va baholanadi.

Uchinchi bosqichda esa ertakda ishtirok etayotgan qahramonlarning muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlarni taqqoslash va baholash, g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Ertak g‘oyasidan kelib chiqqan holda, odobli, kamtar, mehnatsevar, halol, kattalarni hurmat qiladigan kishilar hamisha baxtli bo‘lishga haqli ekanligi o‘quvchilarga tushuntiriladi.

Xalq ertaklaridan bahramand bo‘lgan har bir bola ota-bobolarimizdan qolgan ulug‘ fazilatlarga ega bo‘lib o‘sishi tabiiy. Bolalarni kichik maktab yoshidan boshlab kitobga mehr qo‘ydirish o‘qituvchining mas’uliyatli vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rgatish mashg‘ulotlarida quyidagi ish turlarini bajarish talab etiladi:

O‘qituvchining kirish suhbati. Bu bosqichda o‘qituvchi ertaklar haqida, xalq og‘zaki ijodi haqida ma’lumot beradi.

O‘quvchilarning ertakda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqida ertakni ongli idrok etishlariga ta’sir qiladigan yangi ma’lumotlar berish, ertakda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘z hayotlarida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkazilishi Bunda o‘quvchilar asarni hissiy idrok etishga tayyorlanadi. Ertakni o‘quvchilar bilan birga o‘qishdan oldin ularning ertakka bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishi lozim, ya’ni ertakni boshidan qisqagina aytib beradi. Keyin “Bolalar, ertakning davomi qanday bo‘larkin? Buni bilib olish uchun sizlar bilan uni o‘qib chiqamiz” deb, ertakni o‘qishni boshlaydi.

O‘qituvchi ertakni so‘zlab berishi lozim. Ertaklar leksik va sintaktik xususiyatlari saqlangan holda og‘zaki hikoya tarzida aytib beriladi yoki ifodali o‘qib beriladi. Yoki bu ishni tashkil etishda o‘quvchilar faoliyatidan o‘qitish yo‘li bilan tanishtirmoqchi bo‘lsa, buni faqat maxsus so‘ng esa mazmuni so‘zlab beriladi.

Ertak mazmunini mustahkamlash maqsadida savol-javob o‘tkaziladi. Savol-javob o‘tkazish ertak haqidagi tasavvurlarni mustahkamlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Savollarning xilma-xil bo‘lishi bola tasavvurining kengayishiga, fikrlashining o‘sishiga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan

Ertakning qaysi o‘rni sizga yoqdi?

Siz ertak qahramoni o‘rnida bo‘lishni istarmidingiz?

Ertak o‘qilganda siz qaysi o‘rinda juda xursand bo‘ldingiz?

4

.

E
Ertakni tanlab o‘qitish. Ertakda ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini tushunib olishda tanlab o‘qish juda katta yordam beradi.

r
t
a
k
Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qitish, Ertakni obrazlari bo‘yicha bo‘lib o‘qitish yoki yana ham maydaroq qismlarga – jumlalarga ajratib o‘qitish ertakni tez va osontushunish imkonini beradi. Bu qaysi sinfda o‘qitilayotganiga bog‘liq.

n
i
Ertak mazmuni asosida reja tuzish, o‘quvchilarni reja asosida gapirib berishlariga erishish. Bu usul o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi va matn hamda bayon yozishga tayyorlaydi.

t
o
l
Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);

l
a
Ertakni so‘zlab berish. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar

i
g
a
Ertakni uyda mustaqil o‘qib kelishni vazifa qilib topshirish.

b
o
Mana shu usullar qo‘llanishi natijasida o‘quvchilarda ertakni mustaqil aytib bera olish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Bu ertakni g‘oyaviy-badiiy tahlil

b
a
Ertaklarni o‘qitishning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, bulardan biri ertaklarni o‘qitishda bolalarning mehnat qilishga qiziqishini orttirishdir.

d
O
‘
quvchilar o‘z qahramonlarining gaplarini ravon, ta’sirchan qilib o‘qib berishadi. Bu ertak mazmunini, g‘oyasini, qahramonlar munosabatini so‘zlab berishlarini ta’minlaydi. Xalq ertaklarini ifodali o‘qishga o‘rgatish, ertak mazmunini do‘stlariga, ukalariga mustaqil hikoya qilib berishadi.

y
o
‘
Bolalarni o‘z fikrini mustaqil yozishga, o‘qigan ertakni hikoya qilishga o‘rgatadi.

O
‘

q
u
v
c

Yoshlarni sharqona qadriyatlar, milliy urf-odatlar ruhida barkamol etib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. O‘qish kitoblarida axloqiy tarbiyani singdirishga xizmat qiluvchi qator ertaklar jamlangan.

Tabiatni sevish, undan zavqlanish, uni asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir. O‘quvchilarda ekologik va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishda eusrtaklarni ko‘makka chaqirish yaxshi natija beradi. O‘qish kitoblaridagi o‘zbek xalq va rus xalq ertaklari ekologik tarbiyani tashkil etish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qish kitoblarida tadbirlilik, aql-idroklilikni ulug‘lovchi bir necha sara xalq ertaklari mujassamlashgan. O‘quvchilarda aqliy tarbiyani kamolga yetkazishda mazkur ertaklar katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitob”laridan joy olgan ertaklarning yordamchilarsiz ish ko‘radilar, aqlkuchi, tadbirlilik, chidam, jasorat,

O‘quvchilarni garchi ertak fabulasi hammadan ko‘proq qiziqtirsa-da, o‘qituvchi unga singdirilgan g‘oyani, qissadan hissani ham o‘quvchilarga Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning qahramonlaridan biri ikkinchisi salbiy bo‘ladi. O‘qituvchining ertak g‘oyasini to‘la ochib bera olishi o‘quvchida ertak qahramonining g‘alabasidan xursand bo‘lib, salbiy qahramonga nisbatan nafrat uyg‘onishida ko‘mak bo‘ladi.

multimediali darslar o‘quvchining dunyoqarashi, ongini rivojlantiribgina ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent: 2010. – 144 b.

Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 176 b.

Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Abdullayeva Q. , Rahmonbekova S. 2-sinfda o‘qish darslari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004. – 128 b.

Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: “Fan”, 1964. – 274 b.

Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, *9*(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

Профессионально-методическая подготовка студентов к учебной практике Наука и образование сегодня. – Россия, 2021. - №2. – С. 75-

2022 ISSN: 1856-4194 31, 12, 2022 https://www. provinciajournal. com/index. php/telematique/article/view/1097.

EXTENDED ABSTRACT

THE ROLE OF FOLK TALES IN INCREASING STUDENTS' WORLD VIEWS AND SKILLS

When we think about fairy tales, we involuntarily draw our attention to questions such as to what extent elementary school students can independently analyze fairy tales, to what extent they can relate to the characters, and with what tools they can fully understand the fairy tale. We can do this through the methods and tools used in the process of working on the fairy tale text.

When organizing work on the text of a fairy tale, symbols and the attitude to the events described in the work are in the center of analysis. It is necessary to take into account the psychological features of young students' perception of the artistic work in the methodology of fairy tale analysis in primary grades. When working on a fairy tale and determining its main stages, the teacher follows the educational and educational tasks of reading classes in the classroom, the characteristics of the fairy tale and the characteristics of the perception of the fairy tale in accordance with the age of the students. Work on a fairy tale is carried out according to three stages of work on a work of art:

The role of moral education is incomparable in educating young people in the spirit of oriental values and national traditions. Ethical education is the formation of ethical culture in students based on inculcating the rules and criteria of order, manners, interaction, communication and behavior recognized by a particular society and required to be followed. is a directed pedagogical process. Reading books contain a number of fairy tales that serve to inculcate moral education.

It is the duty of every citizen to love nature, enjoy it, and preserve it. It will be a good result to call on eusrtaks to help students in forming the skills of organizing ecological and environmental protection. Uzbek folk and Russian folk tales in textbooks serve as an important factor for organizing environmental education.

Several folk tales glorifying resourcefulness and intelligence are embodied in textbooks. These fairy tales are of great importance in improving the mental education of students.

The ability of the teacher to fully reveal the idea of the fairy tale will help

O‘SMIRLIK DAVRIDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

PhD Norqo‘ziyev Doniyorbek Baxtiyorovich

talaba Tohirova Hamida Lutfulla qizi

hamidatohirova7@gmail. com

Annotatsiya

Hozirgi globallashuv davrida jahonda bugungi yoshlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylanishga ulgurgan. Biz bilamizki, bugungi kunda o‘sib kelayotgan yoshlarning hayotida irodaviy sifatlar bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yashab turgan jamiyatimizda yoshlarning o‘rni beqiyosdir. Yoshlarda bugungi kelajak uchun jamiyat rivojlanishi xususida o‘z hissalarini qo‘shgan holda xohish-iroda bo‘lsa, bugungi hayotimiz tubdan o‘zgarib, yoshlarning yangi-yangi g‘oyalar, innovatsion ya’ni yangiliklar ixtiro qilishi, boshqa rivojlangan mamlakatlarga borib, u yerdagi innovatsion g‘oyalarni o‘rganib kelib, yurtimizga tadbiq etishlari bu juda yaxshi va shu jumladan prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ham asosiy e’tiborni yoshlarga qaratmoqdalar. Lekin bizni qiynayotgan narsa bu yoshlar orasidagi ijtimoiy tarmoqlarga berilish, yod g‘oyalar ta’sirida dunyoqarashning tubdan o‘zgarishi, mustaqil qaror qabul qila olmaslik kabi jihatlar ko‘zga tashlanmoqda. Bu nafaqat yoshlarda bo‘ladigan holat, balki, yosh bolalar va kattalar ham ijtimoiy tarmoqlarga anglagan yokida anglanmagan holda o‘rganib qolish oqibatida oilada nosog‘lom muhit yaratilib, bola tarbiyasida kattalar tomidan e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yilmoqda. Bu insonning nafaqat onggiga balki qalbiga ham hujum qilishga qaratilgan

yod g‘oyalar eng avvalo irodasi zaif yoshlar va kattalarni o‘z qarmog‘iga tortib olmoqda.

Ushbu ilmiy maqolada o’smirlik davrining shaxs hayotida muhim jarayon ekanligi haqida fikr yuritib, o’smirlik davrida irodaviy sifatlarni shakllanishining o’ziga xos psixologik xususiyatlari va iroda borasidagi nazariyalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: iroda, irodaviy sifatlar, irodaviy harakat, iroda erkinligi, irodani tarbiyalash, qat’iylik, shaxsning irodaviy xususiyatlari.

Annotation

In the current era of globalization, solving problems related to today's youth in the world has had time to become one of the most pressing issues. We know that it is important that young people who are growing up today have volitional qualities in their lives. Because the role of youth in our living society is incomparable. When young people have a desire to contribute to the development of society for today's future, today's life is radically changed, young people can invent new ideas, innovation, innovations, go to other developed countries and study innovative ideas there and apply them to our country, which is very good, and including our President Sh. M. Mirziyoyev is also focusing on young people. But what afflicts us is the obsession with social networks among young people, the radical change of worldview under the influence of iodine ideas, the inability to make independent decisions. This is not only the case in young people, but also as a result of the fact that young children and adults get used to social networks without realizing it or not, an unhealthy atmosphere is created in the family and neglect from the roof of an adult is allowed in the upbringing of a child. It aims to attack not only the mind of a person, but also the heart of iodine ideas that above all pull young people and adults with weak will into their care.

This scientific paper reflects on the specific psychological characteristics of the formation of volitional qualities in adolescence and theories about willpower, reflecting on the fact that adolescence is an important process in the life of an individual.

Keywords: will, volitional qualities, volitional action, Free Will, will upbringing, determination, volitional characteristics of the individual.

Kirish

Ma’lumki, bugungi jamiyat hayotimizda, insoniylik fazilati bo‘lmish irodaviy sifat, bugungi kunga kelib katta rol o‘ynamoqda. Xususan, bu borada yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev bir anjumandagi so‘zlagan

nutqlarida shunday degan edilar: “Biz o‘z yo‘limizda qanday xavf-xatarga duch kelmaylik, uni faqat mustahkam irodamiz, din-u diyonatimiz bilan yenga olamiz. Biz qanday marraga erishmoqchi bo‘lsak, unga faqat ona yurtimizga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoiylik bilan erishamiz”, deb aytadilar.

Sharq allomalarimizning ko‘plab asarlarida yuqorida aytib o‘tganimizdek komil inson sifatida irodaning muhim fazilat deb qarashlari bunga misol bo‘la oladi. Sharq mutafakkirlari komil inson talqinida jumladan, Abu Nasr Farobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Farobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy hislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti, tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. Farobiyo‘zining"Baxt-saodatgaerishuvhaqida", "Fanlarningtasnifi", "Falsafanio‘rganishdanoldinnimanibilishkerakligito‘g‘risida", "Ilmlarva san’atlarfazilati"kabiko‘plabrisolalaridainsonningma’naviyrivojlanishiil m-ma’rifatga bo‘liqligini ta’kidlaydi. Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni tarbiyalashdir. Adib o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg‘u bilig» («Saodatga yo‘llovchi») asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlari, usullari va chora tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan axloq va odobga doir ma’naviy manbadir. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlari hakidagi fikrlari ifodalangan. Navoiyning “Xamsa” asarining har bir dostonida bukilmas iroda, qat’yatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg‘ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan.

Shuningdek, bu borada Mahmud Qoshg‘ariy, Ulug‘bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o‘qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o‘rni, axloq-odob, fe’l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta’kidlash mumkin. Beruniy inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega

bo‘lishi zarur, deydi. Beruniy bu fikrni “Mineralogiya” asarida quyidagicha ifodalaydi: “Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda, asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”. Al-Moturidiy insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo‘naltirilmasligi, shaxs oldida mas’ul bo‘lgani kabi, davlat ham, shaxs oldida mas’ul bo‘lish g‘oyasini ilgari suradi. Shuningdek, shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi (sharqona demokratiya), jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi.

Bobur yozigan ‘Risolai Volidiya” asarida ham, uning falsafiy, ilmiy-irfoniy, axloqiy qarashlarida alohida o‘rin tutadi. Bu asar 1528-yilda Boburning otasi Naqshbandiya Xojagoniya tariqatiga, xususan, Xo‘ja Ahror Valiy Fuqarotiyga aqli irodasini ifodalash uchun, pirning “Risolai volidiya”sini turkiy nazm bilan bayon etgan. Xususan, islom dinida insonning xohish-irodasi haqida«Qur’oni Karimda»da insonning ma’naviy pok bo‘lish, havoyi nafsdan saqlanish masalalariga ham e’tibor berilgan. Unda kishilarni havoyi-nafsga berilmaslik, o‘zini turli rag‘bat va shahvatlardan saqlash kerakligi haqida ta’kidlanadi, havoyi-nafsga bcrilishning sabablari to‘g‘risidagi ma’lumotlar beriladi. Havoyi-nafsga berilishining asosiy sababi sifatida kishi irodasining zaifligi va ilmsizligi yoki ilmning kamligidir, deya ko‘rsatiladi. Chunki, inson bilimsizligi tufayli havoyi-nafsga mahkum etiladi, shunga ko‘ra, aqlniishlatib, hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishgada'vat etiladi. Masalan, «An’om»surasining 119-oyatida «Shubhasiz, ko‘p kishilaro‘z hoyu-havaslari bilan bilmagan hollarda o‘zlarini yo‘ldan ozdirurlar». «Rum» surasining 29-oyatida «zolim kimsalar biron bilim-hujjatsiz havoyi-nafslarga ergashib (Ollohga) shirk keltiradilar» kabi fikrlar buning dalilidir. Hatto g‘azabni bosish bilan birga, g‘azabni ko‘zlagan shaxsni kechira olish darajasida o‘zini boshqara olish irodasiga ega bo‘lishi kerakligini ham uqtirilidi. “Oli Imron” surasining 134-oyatida “Yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g‘azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (hato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi”, deyiladi. Muslihiddin Sa’diy jismoniy yetuklik axloqiy kamolot bilan uyg‘un bo‘lishiga alohida e’tibor beradi. Darhaqiqat, jismoniy yetuklikning muhim belgisi kuchli iroda hamda mustahkam xarakter yordamida jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy me’yorlarga amal qilishga erishilsa, ayni vaqtda axloqiy sifatlarni o‘zida aks ettira olish, xususan, mehnatga muhabbat qo‘yish iroda va xarakterni tarbiyalaydi. «Guliston»da bu boradagi fikrlar yoritiladi. Muslihiddin Sa'diy «Guliston» asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma’naviy-axloqiy

hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o‘rganishning o‘ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so‘z yuritadi. S. Ayniyning hayoti va ijodi, pedagogik faoliyati o‘sib kelayotgan avlod uchun namunadir. Undagi mehnatkashlik, irodalilik, ilm-ma’rifatni e’zozlash va uni boyitishga mardlik kabi oliyjanob hislatlar yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchiar shaxsiyatini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Professor E. G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” darsligida iroda-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni engishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi. ”Iroda”- tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladiganharakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishi. Umuman olganda, iroda - shaxs faolligining ko‘rinishi hisoblanadi. Irodaviy harakat bosqichlari maqsad va unga erishishga intilish, maqsadga erishish imkonini toppish, motivlarning paydo bo‘lishi va imkoniyatlarni mustahkamlash, bir qarorga kela olish, qabul qilingan qarorni amalga oshirish orqali shakllantiriladi. Iroda shaxsning har bir hayotida bir maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak, sport sohasida muntazam sport bilan shug‘ullanib yuruvchi baksyor deymizmi, yoki boshqa bir sport vakili deymizmi, ringga chiqib yutkazayotganda, “shaxsning iroda kuchi” juda muhim sifatlardan sanaladi. Masalan, baksyor yutkazayotgan joyidan “o‘z iroda”si ustunlik qilib, o‘rnidan turib ringni davom ettirish ham bir jasoratdir. Bu faqatgina yutkazayotgan paytda emas, balki, boshqa bir masalarsa ham “iroda” talab qilinadi. Be’mor inson, tezroq oyoqqa turib, sog‘ayib ketishi uchun ham, insonning “iroda”si muhim rol o‘ynaydi.

Irodaviy sifatga to‘xtaladigan bo‘lsak, *Irodaviy sifatlar* bu – har birimizning o‘z oldimizga maqsad qo‘yib, unga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta’minlovchi ma’lum sifatlarimiz majmuini o‘z ichiga oladi. Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o‘ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni irodaviy harakat deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo‘lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so‘ng hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan qoniqishga butun e’tiborini qaratishdan iboratdir.

Iroda erkinligi - falsafiy-axloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U o‘z-o‘zini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bog‘liq. Ana endi irodaning tarixiga keladigan bo‘lsak, inson onggini kashf

qilishda, bilimlar to‘planishi natijasida, shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuvlar vujudga kela boshladi. XVII asrda Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o‘tganlaridek, faollik manbai bemashsul sohaning paydo bo‘lishi deb tushunish mumkin emas, chunki uni shaxsiy kuch-quvvatining hissiy intilishi bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinoza fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday tasdiqiy munosabatning tug‘ilishi irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirilgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya (lot. Substantia-mohiyat Narsa va hodisalarning mohiyatini, asosini ifodalovchi tushuncha.)sifatida tan olindi ham. Vilgelm Vundtning mulohazasiga ko‘ra, irodaning negizida appersepsiya aktining (lot. ad - ga, perception - idrok, qabul qilish) sub’ekti tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. Uilyam Jemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo‘lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g‘oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo‘lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g‘oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir. Psixologiyada qat’iy fikr qaror yetarli darajada topilganki, iroda – bu insonning qo‘yilgan maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan ongli faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson maqsad qo‘ya olish qobiliyati, o‘zining emotsiyalarini boshqara olish, o‘z xulqini iroda qilish kiradi. Irodani tadqiq etish negizidan ishlab chiqqan holda V. I. Selivanovayrim xulosalar chiqaradi:

a) iroda - bu shaxsning o‘z faoliyatini va tashqi olamdagi o‘zini o‘zi boshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda - insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha
shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda - bu amaliy ong, o‘zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning
o‘zini ongli idora qilishlikdir;

g) iroda - bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanmaydi.

Irodaning individual xususiyatlari. Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o‘z-o‘zini boshqarish sifatida avvalo o‘ziga, o‘z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir.
Abulyasiya - bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga

intilishning yo‘qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda ish qila olmaslik. Apraksiya-miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Agar nerv to‘qimalarining buzilishi miyaning peshona qismlarida to‘xtab qolsa, xattiqharkatlarni erkin to‘g‘rilashni buzilishida namoyon bo‘ladigan apraksiya boshlanadi.

Bu berilgan programma va irodaviy aktning bajarilishini qiyinlashtiradi.

Irodaning ijobiy fazilatlari, uning kuchining namoyish qilinishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan koʻrsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarning roʻyxati juda katta: qahramonlik, sabotlik, qat'iylik, mustaqillik, oʻzini tuta bilish va boshqalar.

Qat'iylik - irodaning individual xususiyati boʻlib, mustaqil ravishda qaror qabul qilish hamda uni faoliyatda soʻzsiz amalga oshirish qobiliyati va malakasi bilan bogʻliq. Qat'iy odamda boshlangan motivlar kurashi tezda qaror qabul qilish va qarorni ijro etish bilan tugallanadi. Umumiy psixologiya predmetiga daxldor ma'lumotlarni umumlashtirish irodaviy faoliyatning o ʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligiga imkon yaratdi:

1) irodaviy harakatlarni shaxs doimo ularning subyekti sifatida amalga oshiradi;

2) irodaviy akt, harakat shaxs tomonidan toʻla - toʻkis mas'ullikni olgan ish, amal, akt sifatida ichdan (ruhiy dunyosida) kechiriladi;

3) irodaviy faoliyat tufayli inson koʻp jihatdan oʻzini o ʻzi shaxs

sifatida anglaydi (oʻzlikni anglash bosqichi yuzaga keladi);

4) irodaviy faoliyat ta'sirida shaxs oʻzining hayot yoʻlini hamda taqdirini oʻzi belgilashi shart ekanligini tushunib yetadi. Shu bilan birga irodani faollashtiruvchi va uni jilovlab turuvchi (tormozlovchi) funksiyalari birgalikda, uygʻunlikda hukm sursagina, muvofiqlik yuzaga kelishi mumkin, faqat ana shundagina shaxsni oʻz maqsadiga erishish yo ʻlida uchraydigan toʻsiqlarni, qiyinchiliklarni yengishni kafolatlashi toʻgʻrisida mulohaza yuritsa boʻladi.

L. S. Vigotskiy irodani yuksak ruhiy funksiya sifatida talqin etib, uni tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini, har bir irodaviy akt avvalo ijtimoiy, jamoaviy, umumruhiy, inter psixologik jarayon deb ta'kidlaydi. Irodaning keyingi taraqqiyotini esa u kollektiv faoliyatda koʻradi. Masalan, deydi L. S. Vigotskiy, bola oʻyin va oʻqish jarayonida boshqalaming buyruq va koʻrsatmalari, oʻyin qoidalarini bajarib, oʻzini boshqarishga oʻrganadi. Oʻyin haqida K. Levin irodaning mohiyati affektlar va xatti-harakatlami boshqara olishlikdan iborat deydi. Darhaqiqat, koʻp psixologlar kuchli iroda egalari kam affektga tushadi deb ta'kidlaydilar. L. Vekker irodaning xulq-atvorni tartibga solib turuvchi alohida funksiyasi borligini ta'kidlaydi. L. Vekker regulyatsiyaning 3 ta shaklini ajratadi:

- ixtiyorsiz;

- ixtiyoriy;

- irodaviy.

Shaxs tomonidan xulq-atvorni irodaviy tartibga solinishi ixtiyoriy regulyatsiyaning oliy shakli bo‘lib, bunda regulyatsiya intellektual (aql-idrok), hissiy-axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar mezoni asosida amalga oshiriladi. V. I. Selivanov irodani “Odamning o‘z xulq-atvorini, ongli tartibga solish qobiliyati”, deb ta’riflab buni miyaning tartibga soluvchilik funksiyasidan iborat deydi.

O‘smirlik - bu hayotning eng muhim bosqichi bo‘lib, u asosan insonning keyingi taqdirini belgilaydi. O‘smirlik - bu jamiyatda o‘z-o‘zini anglash, xulq-atvor va muloqot normalari haqidagi bilimlar shakllanadigan davr. O‘smirlik 10—11 yoshdan14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmokda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, turli xilziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga etish davri hisoblanadi. Bu davryangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi.

Bu davrda o‘smirning fiziologik hamda psixologik rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bo‘yga o‘sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar biryilda 5-7 sm, o‘g‘il bolalar esa5-10 sm o‘sadilar. Bo‘yiga karab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi.

Og‘iz bo‘shligi va xalqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri xam o‘zgaradi. Bu xolat kiz bolalarga nisbatan o‘g‘il bolalarda ko‘proq darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminroq bo‘lib qoladi, do‘rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur’at bilan o‘sib, mustaxkamlashsa xam, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur’ati orqada qoladi.

Ko‘pginao‘smirlarda o‘zidanqoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir

bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi, unda juda ko‘p noqulay va tashvishgatushuvchi xolatlar bo‘ladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiyfikrva qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek, psixikasidagi o‘zgarishlarbilan hambog‘liqdir. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologiko‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do‘sti o‘smirga ijobiy ta’sir qiladimi yoki uni yo‘ldan urib, yomon ta’sir qiladimi — bu narsa uning aqloqiy qiyofasi bilan bog‘liq. O‘smirni ijtimoiy muammolar, qadriyatlar, hayotiy pozitsiyasi alohida qiziqtiradi. O‘z qobiliyatlarini o‘z-o‘zini anglash istagi bor. Bola o‘zi uchun haqiqatan ham nima qiziq ekanligini, kelajakda nima qilishni xohlashini farqlay oladi. O‘smirlik davrining psixologik xususiyati - kattalar tuyg‘usi bo‘lib, uning sababi fiziologik o‘zgarishlardir. Bola kattalar - ota-onalar, o‘qituvchilar unga endi teng huquqli munosabatda bo‘lishlarini, uni shaxs sifatida ko‘rishlarini, uning pozitsiyasini hisobga olishni xohlaydi. U kattalardan nazorat va vasiylikni qabul qilmaydi. Uning uchun jamoaning o‘zi haqidagi fikri, harakatlari ustuvor bo‘lib qoladi. O‘smir o‘zining ichki fikrlari va sirlarini baham ko‘radigan do‘stiga muhtojligini his qiladi. Bu davrda o‘ziga e'tibor, o‘z-o‘zini tekshirish, introspektsiya mavjud. Bola boshqalar tomonidan uning fazilatlarini tan olishga intiladi. U juda sezgir va himoyasiz, hissiy jihatdan beqaror. Ko‘pincha nevrozga o‘xshash holat bilan chegaralangan tajovuzkorlik namoyon bo‘ladi. Barcha sohalardagi bunday o‘zgarishlar o‘smirni bir butun sifatida o‘ziga singdiradi. Bu davrda bolaga hayotdagi bu qiyin davr tez orada o‘tib ketishini tushunishga yordam berish juda muhim, faqat kattalar yo‘lidagi keyingi bosqichni engish kerak. Balog‘at yoshidagi bola uchun juda muhim bo‘lgan tengdoshlar bilan muloqot qilish tabiatini ajratish mumkin yosh guruhlari:

10-11 yosh. Tengdoshlar jamiyatida, birgalikdagi faoliyatda bo‘lish zarurati.

12-13 yosh. O‘smirlar jamiyati ierarxiyasida o‘z shaxsini tasdiqlash zarurati, tengdoshlar orasida to‘g‘ri pozitsiyani egallash istagi.

14-15 yosh. Mustaqillikka intilishning ustunligi, o‘z shaxsiyatining muhimligini tan olish.

Qoida tariqasida, o‘smirlar jamoalarida, kattalar xulq-atvori modeli barcha inkor etilishiga qaramay, umume'tirof etilgan insoniy qadriyatlar ierarxiyasi o‘rnatiladi. Tarbiya va atrof-muhitga bog‘liq bo‘lgan turli xil buzilishlar mumkin, ammo jamiyatda halollik, sadoqat, do‘stlik va boshqa xatti-harakatlar normalari asosiy hisoblanadi. Qizlarning ham, o‘g‘il bolalarning ham o‘smirlik davri, qoida tariqasida, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Kattalar bilan munosabatlarda o‘smirni kattalar jamiyatidan ajratish va uning ba'zi qoidalari haqida gapirish odatiy holdir. Shu bilan birga, kattalar bilan ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama xarakterga ega:

O‘smir jamiyatning barcha vakillari bilan teng asosda o‘z huquqlarining tengligi va mustahkamlanishiga ishonadi, chunki u allaqachon voyaga etgan.

O‘smir kattalardan yordamga, himoyaga muhtoj. Shu bilan birga, o‘smirning faoliyati ustidan nazoratning avvalgi shakllarining saqlanib qolishi shiddatli norozilik uyg‘otadi.

O‘smirlik maqsadiga intilish, diqqatni, diqqatni jalb qiladigan masalada maksimal natijaga erishish bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, o‘smir mustaqillikka intiladi, ikkinchi tomondan, u ota-onasi, o‘qituvchilari va tengdoshlari bilan munosabatlarni o‘rnatish zarurligini his qiladi. Bu bolalik va kattalik o‘rtasidagi chegarada. O‘smir emansipatsiya reaktsiyasi bilan ajralib turadi - kattalar vasiyligidan chiqib ketish, o‘zini katta avlodning murabbiyligi va nazoratidan ozod qilish istagi. Ammo u mutlaq ozodlikni xohlamaydi, bundan tashqari, u bundan qo‘rqadi, chunki u hali o‘zini to‘liq parvarish qilish va mustaqil yashash imkoniyatiga ega emasligini tushunadi. Bu davrda guruhga bo‘lish, o‘z guruhida muhim o‘rinni egallash ehtiyoji shakllanadi. Ba'zida tengdoshlar o‘rtasida nizolar mavjud. O‘g‘il bolalarda bu yetakchilik uchun raqobat tufayli sodir bo‘ladi - kim kuchli, aqlli, jismonan rivojlangan va hokazo.

O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘sishida, o‘z-o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig‘i bo‘lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o‘zi bilan o‘rtoq bo‘lgan bir guruh tengdoshlariga bog‘liq bo‘lmay qoladi. O‘rtoqlari o‘smirga o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o‘ylab ko‘rishga uni majbur qilmoqchi bo‘lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o‘z fikrida qat’iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z

xatti-harakatlarini o‘zi tahlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O‘smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obroiarini ko‘radilar hamda havas qiladilar. O‘smirda katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘lmaganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish, intilish paydo boladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo‘lib ko‘rinadi. O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa murabbiylari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bolishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini uluglab, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlar ko‘proq qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O‘smirning sinf jamoasi hayotida faol qatnashishiga intilish juda ham kata ahamiyat kasb etadi. Sinf jamoasi a’zolarining o‘zaro yordami, birdamliligi, bo‘ysunish odati, shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Xulosa

Ko‘plab psixolog olimlar olib borgan tadqiqotlarda, o‘quvchilar tomonidan berilgan materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog‘liqdir. Irodaviy aktivlik ta’limning zarur sharti hisoblanadi. Ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilar tomonidan, irodaviy sifatlarni o‘stirish omillaridan biri sanaladi. Bunda o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to‘g‘ri almashtirib turish katta rol o‘ynaydi.

Ta’limning psixologik asoslari muammosi birmuncha ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog‘liq bo‘lib, avvalo o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini aytadigan bo‘lsak, bu munosabat diqqatga, his-tuyg‘ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ish jarayonida chalg‘ituvchi omillardan

o‘zini tiya bilishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda ta’lim jarayonida alohida muhim kasb etadi.

Shunday qilib, irodaviy sifatlarni aniqlash va baholash metodlari o‘zlarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar o‘z faoliyatlarida
harakatlarning odatiy va qiyinlashtirilgan sharoitlardagi xususiyatlari, ularning
mahsuldorligi kabi hodisalarni qayd qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. To‘plangan ma'lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, iroda motivlarda, maqsadlarda,
o‘zini - o‘zi baholashda, harakatlarda, faoliyatda o‘z ifodasini topar ekan. Xuddi
shu bois, iroda - bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan
qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarishdir.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, shaxsning irodaviy harakatlarida muhim rol o‘ynaydigan hayotiy maqsadlari va tamoyillari xuddi ana shu dunyoqarashdan kelib chiqadi. Shuning uchun dunyoqarash va axloq tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan maqsadlar, qarorlar va harakatlar yuksak iroda ko‘rsatishdir. Axloq nuqtayi nazaridan, iroda kishining o‘z shaxsiy, individual intilishlarini jamiyat manfaatiga bo‘ysundira olishiga qarab baholanadi. Mana shuning uchun biz, o‘z intilishlarida qaror va harakatlarida mehnatkashlarning manfaatlariga sodiq bo‘lgan, Vatanga muhabbat qo‘ygan va unga sodiq bo‘lgan, mehnatni sevuvchi, qat’iy barqaror, dadil, sabotli, chidamli va o‘zini tuta biladigan kishilarni yuksak qadrlaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutq. 2017-yil 15-iyun.

2. Kodirjon Odilovich Maxkamov. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta’limoti (o‘quv qo‘llanma). Namangan-2020.

3. K. Hoshimov. S. Nishonova. Pedagogika tarixi (darslik) II-qism. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti/ Toshkent-2005.

4. K. Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. (Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent”O‘qituvchi” 1996.

Buxoro “Durdona” nashriyoti. 2019.

6. M. Sharipov. Falsafa tarixi(“Antik davr falsafasi”) darslik. Toshkent “Go To Print” 2020.

7. A. K. Shamshetova, R. N. Melibayeva, X. E. Usmanova, I. O. Xaydarov. Umumiy Psixologiya o‘quv qo‘llanma. –T. :”Barkamol fayz media”, 2018.

8. Umarova N. Sh. Umumiy Psixologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent.

9. T. M. Bekmirov. Shaxsning emotsional irodaviy holatlari. O‘quv – uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2022.

10. E. G‘oziyev. Umumiy psixologiya (Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik). Toshkent-“Universitet”-2002.

11. L. B. Sultonova. “Psixologiya” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2014.

12. Sh. A. Do‘stmuhamedova, Z. T. Nishanova, S. X. Jalilova, X. K. Karimova, Sh. T. Alimbayeva yosh davrlariva pedagogikpsixologiya Darslik (Qayta nashr) Toshkent 2021.

Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik Psixologiya **O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta ’Lim Vazirligi tomonidan 5110900 — Pedagogika Va Psixologiya Ta’lim Yo‘nalishi Talabalari Uchun Darslik Sifatida Tavsiya etilgan. « O‘zbekiston faylasuflari m**

14. N. S. Safayev. N. A. Mirashidova. N. G. Odilova. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013.

15. E. G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperimental tahlil. “Noshir” Toshkent 2010.

16. F. A. Akromova, N. X. Lutfullayeva, X. R. Haydarova “Pedagogik psixologiya” ma’ruzalar matni. –T. :TDIU, 2005.

MILLY BADIIY TAFAKKUR HOSILASIMAQOLLARNING SHAKLLANISH OMILLARI

professor Rahmatov Yo‘ldosh G‘aybullayevich,

Annotasiya

Og‘zaki poetik ijodning kichik, ixcham, ammo purma’no shakli bo‘lgan maqollarda insonlarning turmush tajribasidan kelib chiqqan xulosa, hukm, kechinmalari, sinovdan o‘tgan hayotiy bilimlari, ma’naviy-ruhiy dunyosi badiiy aks etadi. Maqollar evolyutsiyasi yozma adabiyotda yangi janrlar, poetik san’atlar va badiiy ifoda uslublarining shakllanishiga olib kelganki, buning sabab va omillarini aniqlash yozma adabiyot bilan folklor munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlarini ochishda ahamiyat kasb etadi.

Maqollar ham mazmunan hayotning barcha jabhalarini qamrab olgani, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tushunchalarni poetik ifodalashi nuqtayi nazaridan folklorning eng nodir namunalaridan biri sifatida qabul qilinadi. Ularning makon va zamon jihatidan xalq hayotidagi har qanday sabab-oqibat munosabatlarini o‘zida aks ettirishi, tipologik, tarixiy, strukturaviy xususiyatlari, genezisi, tematikasi, badiiyati, evolyutsiyasini aniqlash xalqimizning milliy tafakkur tarzi tadrijini yaxlit holda kuzatish imkonini bera oladi.

Mazkur maqolada o’zbek milliy tafakkurining eng kichik va chuqur mazmunga ega bo’lgan xalqmaqollar va ularning shakllanish omillari haqida so’z boradi. Maqollarning avvalo ijtimoiy hayot va milliy qadriyatlar hosilasi o’laroq yuzaga kelishi nazariy xulosalar bilan dalillanadi. Maqollarning didaktik xarakteri ulardagi xalq hukmining qat’yligi misollar yordamida tushintiriladi.

Kalit so‘zlar:maqol, matal, milliy qadriyat, tafakkur, e’tiqod, milliy kolorit, tarbiya, evrilish, millatlararo munosabat, didaktika

Annotation

Proverbs, which are a small, concise, but comprehensive form of oral poetry, artistically reflect the conclusions, judgments, and experiences

of people, verified by life knowledge, the spiritual and spiritual world. The evolution of proverbs has led to the formation of new genres, poetic arts and styles of artistic expression in written literature, and determining the reasons and factors for this is important for identifying the patterns of development of the relationship between written literature and folklore.

Proverbs are also considered as one of the rarest examples of folklore in terms of covering all aspects of life, poetic expression of socio-economic, political and cultural concepts. Their reflection of any cause-and-effect relationships in the life of the people in space and time, the determination of their typological, historical, structural features, genesis, themes, artistry, evolution allows us to observe the development of the national way of life. think about our people as a whole.

This article talks about folk proverbs that have the smallest and deepest meaning of Uzbek national thought and the factors of their formation. Theoretical conclusions have proven that proverbs are created primarily as a product of social life and national values. The didactic nature of proverbs and the severity of popular judgment in them are explained with the help of examples.

Keywords: proverb, saying, national value, thinking, faith, national color, education, development, interethnic relations, didactics.

Arabcha “maqol” so‘zi ilmiy adabiyotlarda hayotiy tajriba asosida xalq

Har qanday badiiy so‘zning asl manbai ilohiy kitoblar bo‘lib, qolgan barcha ijod namunalari undagi g‘oya, mazmun va tasvir zamiridan o‘sib chiqqanligi haqidagi qarashlarga tayanib, maqol oldingilar so‘zini sintezlash va bu fikrlarni yashab turgan muayyan zamonga moslab olib kirishdan paydo bo‘lgan, deyish mumkin. Bunday xulosaga kelishga esa quyidagilar asos bo‘la oladi:

a) barcha xalqlar folklorida maqolning mavjudligi;

b) aynan bir maqolning shakl va mazmun o‘zgarishisiz (faqat til jihatdan farqlanadi) barcha xalqlarda uchrashi;

v) bayon uslubining o‘xshashligi, yaxshilik va yomonlik haqida parallel so‘z yuritilishi;

g) so‘z yordamida insonni har narsadan ogoh etish;

d) ezgulikka da’vat, yomonlikdan qaytarish;

e) ixcham shaklda teran ma’noni ifodalash;

f) fikrning ohangdosh so‘zlar bilan ifodalanishi, ya’ni maqolning she’riy namunasida qofiyaning, nasriy namunasida sajning mavjudligi;

j) pand, nasihat, o‘git, mav’izadan iboratligi.

Maqol va matallar bir kunda paydo bo‘lib qolmaydi. Ommaga ma’qul kelgan ibratomuz xarakterga ega bo‘lgan jumla yoki ixcham nutq shakli vaqt o‘tishi bilan ko‘pchilik tafakkurida sayqal topib maqolga aylanadi. Ular doimiy va ijtimoiy hayot bilan yonma-yon yashagan holda rivojlanib, takomillashib va kengayib, variantlashib boraveradi. Bundan tashqari, maqollarning mazmuni yangi zamon va makonga moslashib, mavjud zamon hayoti va falsafasi uchun xizmat qiladi, ya’ni mazmunan yasharib boradi. Shaklan makon va zamonga taalluqlashadi, hajman kengayib yoki ixchamlashib borishi ham tabiiy hol. “Odatda, maqolni, – deb yozadi professor B. M. Karriyev, – dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qo‘llanishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boradi”(Karriev B. 169. 162).

Darhaqiqat, maqol dastlab individual, xalqning uzoq tajribaga ega vakili nutqida paydo bo‘lishi tabiiy hol. Biroq uning evolyutsion tadrijdagi shakli bilan ilk shakli mutlaq farq qilishi ham mumkin. Shunga ko‘ra maqollarning hosil bo‘lishida ma’lum qoida bo‘lmog‘i lozim:

birinchidan, maqol shunchaki kishilar orasidagi gap emas, balki ijtimoiy hayot voqealarini sinchkovlik bilan kuzatish asosida vujudga kelgan fikrlarning teran xulosasi bo‘lishi kerak;

ikkinchidan, bu xulosa ko‘pchilik tomonidan ma’qullangan, ommaning tafakkuri va xohishiga mos bo‘lishi shart. Demak, maqol tabiatiga ko‘ra tasodif aytilgan fikr emas, balki maxsus tayyorgarlik, tajriba va hayotiy kuzatish asosida yuzaga kelgan, o‘zida yuksak axloqiy ideallarni mujassam qilgan xulosa, dastlab bir kishi tomonidan aytilgan nutq parchasi. Bu individual tajribaviy xulosa vaqt o‘tishi bilan og‘izdan-og‘izga o‘tib ommalashadi. Ba’zan mazmunga yangi zamon ruhini berish uchun maqoldagi qadimiy so‘zlar o‘rnida yangisi ishlatiladi, ya’ni tarixiy so‘z tushib, o‘rniga zamonaviy so‘z qo‘llaniladi. Folklorshunos M.

Hakimov ham yuqoridagi fikrni tasdiqlab: “Tildagi har bir maqol qachonlardir ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan bo‘lib, davrlar o‘tishi natijasida yaratuvchining nomi noma’lum bo‘lib qoladi. Yakka shaxs tomonidan yaratilgan aforizm uzoq muddat davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib, silliqlashib, pardozlanib keladi va umumxalq maqoliga aylanib ketadi”(Hakimov M. 1965. 9.), – deydi. To‘g‘ri, har qanday fikr ham muayyan bir shaxsga tegishli bo‘ladi, biroq maqol dastlab aforistik xarakterga ega oddiy hayotiy kuzatuvga asoslangan fikr tarzida shakllanib, bu fikr uzoq tabiiy kuzatuvlar jarayonida o‘z tasdig‘ini topadi. Ijtimoiy hayot jarayonida ayni holat, hodisaga duch kelingach, shunday deyishgan edi, deya o‘sha tarixiy xotira jonlanadi. Avvaldan bor bo‘lgan fikrga ikkinchi kishi ham o‘z munosabatini bildiradi. Zero, B. Sarimsoqov ta’kidlaganidek: “Maqollarda aks etgan voqea-hodisaga nisbatan izchil munosabat – u yoki tasdiq, yoki keskin inkor yotadi. Binobarin, u yoki bu maqolni eshitgan kishida ana shu maqolda aks etgan voqea-hodisaga nisbatan aniq munosabat yuzaga keladi. Natijada maqol kishiga g‘oyaviy yo‘nalish beradi, ijobiy ideallarning shakllanishiga, rivojlanishiga yo‘l ochadi”(Carimsoqov B. 1987. 24.). Shu sabab maqol qo‘llashdan oldin “deydilarki”, “donishmandlarning aytishicha”, “xalq bekorga bunday demagan” kabi kiritmalardan foydalaniladi. Chunki so‘zlovchi voqeaning kuzatuvchisi sifatida, xalq maqollarini qandaydir holat, jarayonni tasdiqlash uchun keltiradi. Maqollar makon va zamon ta’sirida ko‘pchilikning nutqi va tafakkurida sayqallanib, umumlashma xulosa hayotiy kuzatuv, tajriba natijasi o‘laroq yuzaga keladi.

Ilmda maqol va matallarning paydo bo‘lish omillari turli xil izohlangan. Maqol va matallar milliy madaniyat va koloritni ifodalaganligi bois ko‘pchilik olimlar ularning shakllanish omillarini o‘z millati ijtimoiy-madaniy xususiyatidan kelib chiqib tasniflagan.

axloqiy hurlikka erishishning aniq ko‘rsatmalari berilgan. Bunday ko‘rsatmalar, ko‘pincha ixcham va tugal shaklda bir baytda ifodalanadi. O‘ziga xos ohang va quyma tafakkur hosilasi bo‘lgan bu baytlar asarlardan og‘zaki nutqqa o‘tib, og‘izdan-og‘izga o‘tish natijasida o‘zgarishga “roviylar”, “bobolar” kabi xalqona so‘zlar qo‘llanadiki, aforizmlar

Rus olimi N. T. Fedorenko aforizmga ta’rif berib, shunday deydi: “Qisqa, chuqur mazmunli va ma’no jihatdan tugallangan, obrazli va esda qoladigan shaklga ega, muallifi aniq ibratomuz fikrlar “aforizmlar” deb yuritiladi”(Федоренко Н. Т. , Сокольская Л. 1990. 3.). Bundan ko‘rinadiki, maqol va aforizmlar mazmun va shakl jihatidan bir-biriga

juda yaqin, faqat farq ularning muallifida. Shunday bo‘lsa-da, aforizm va maqollarni farqlashning boshqa muhim belgilari ham kuzatiladi. Bu belgilar quyidagicha:

1. Aforizm yozma adabiyot mahsuli va uning muallifi aniq.

2. Aforizmlar maqollarga nisbatan hajman kengroq va so‘zlar sof adabiy til normalariga bo‘ysunuvchan bo‘ladi. Maqollar hajman ixcham va tarkibidagi so‘zlar sodda va so‘zlashuv uslubiga mos bo‘ladi.

3. Aforizmlar ko‘p hollarda ijtimoiy hayot va jamiyatga munosabat tarzida bo‘lib, aniq siyosiy va ijtimoiy qarashlarga to‘yingan, murakkab va izchil fikr ifodasi bo‘ladi. Maqollarda esa ijtimoiy hayot sohasiga oid ma’lum masalaga xalqqa xos donishmandona munosabat bildiriladi.

4. Aforizmlar ibrati aniq va xulosasi tugalligi bilan maqolga yaqin, biroq ichki qofiya va ohang aforizmda doim bo‘lavermaydi. Maqollar uchun ritm, ohang va qofiya nihoyatda muhim sanaladi.

5. Maqollar nutq vaziyatidan kelib chiqib, bir necha ma’no ifodalaydi. Aynan shu xususiyat maqollarning og‘izdan-og‘izga o‘tib kengayishiga sabab bo‘ladi. Aforizmda esa bunday xususiyat bo‘lmaydi. U aniq bir mazmunni anglatadi va vaziyatga individual baho beradi. Shu bois aforizmlar maqollar kabi keng tarqalmaydi va o‘zgarishga uchramaydi.

Folklorshunoslikda maqol va aforizmlarning umumiy tomoni o‘rganilgan. Olimlar e’tiroficha, maqollarni ham qachonlardir aniq shaxs aytgan, biroq ular xalq ongiga mustahkam o‘rnashib, uzoq vaqt mobaynida sayqallanib, og‘izdan-og‘izga ko‘chib, zamondan-zamonga o‘tib, muallifi unutilib ketgan.

Mavjud xulosalarga tayangan holda, o‘zbek xalq maqollarining kelib chiqish omillarini quyidagicha belgilash mumkin:

jtimoiy hayot va turmush tajribalari asosida paydo bo‘lgan maqollar.

’tiqod, diniy manbalar negizida paydo bo‘lgan maqollar.

ozma adabiy yodgorliklar ta’sirida paydo bo‘lgan maqollar.

oshqa tillardan o‘zlashgan yoki tarjima asarlar asosida paydo bo‘lgan

ASOSIY QISM

Mazkur maqolamizda faqat Ijtimoiy hayot va turmush tajribalari asosida paydo bo‘lgan maqollar xususida so’z yuritamiz. Maqol – asrlar osha kelayotgan xotira, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, hayot haqidagi falsafiy xulosalari, tarixi, madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi ixcham shaklga ega ibrat. U o‘zida o‘tmishni jam etish jihatdan bugun va kelajak uchun dastur bo‘la oladi. Shu bois o‘z tarixi, o‘z qadriyati, tafakkur rivoji

uchun qayg‘urgan xalq maqollarni og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llash orqali uni asrashga, to‘plash, o‘rganish va ommalashtirishga intiladi.

Maqollarga qiziqish va ularni xalq hayoti qonuniyatlari sifatida qabul qilish ilk yozma manbalar shakllangan davrdayoq yuzaga kelgan. Izlanishlarimiz bugun maqol deb qaraladigan ibratomuz fikrlarning bitiktoshlar, tarixiy solnoma, yozma manbalarda u yoki bu shaklda uchrashini tasdiqlaydi. Buni esa o‘z davri uchun muhim xulosaviy xarakterga ega fikrlarning keyingi avlodlarga yetkazilishidagi ilk harakat sifatida baholash mumkin. Dastlab asosiy mazmunni dalillash, fikrni quvvatlash maqsadida manbalarga kiritilgan ibratli hukmlarga keyinchalik alohida hodisa sifatida qarash, ularga nisbatan fikr bildirish va bu fikrlarni xalqning nodir xazinasi sifatida qayd etib borish lozim ko‘rilgan. Turkiy xalqlar orasidagi maqollarni bir joyda jamlash (garchi bir o‘rinda bo‘lmasa-da), ya’ni maqolshunoslik harakatini O‘rta asrlar qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy boshlab berdi. Uning “Devonu lug‘ati-t-turk” muqaddimasida bitgan: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, **maqollar**, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, **qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim**”[102] (ta’kid bizniki – *Y. R*), – degan e’tirofi olimning turkiy xalq maqollarining ilk to‘plovchisi va talqinchisi ekanini dalillaydi.

Necha ming yillarni o‘z ichiga olgan bu tarix bizgacha turli manbalar orqali ma’lum darajada aks ettiradi. Inson butun yaratiqlar ichida o‘zining o‘rganadi, tahlil qiladi va ma’lum to‘xtamga keladi. Yashash va amalda ko‘rish jarayonidagi xulosalari kuzatish va o‘rganishdagidan ko‘ra qat’iylashadi va shunga mos hukmlar chiqaradi. Ayni shu tajribaviy hukmlarga “pardoz” beriladi. Siqiq shakl, o‘ziga xos ohang va mazmun butunligiga ega bu tajribaviy xulosalarning og‘izdan-og‘izga o‘tib yurishidan juda ko‘p badiiyat qatralari yuzaga keladi. Bu qatralarda umrning o‘tkinchiligidan tortib, tabiat olami, insonning fe’l-atvori, yashash tarzi – barchasi zuhur topadi. Ayni shu munosabatlarda xalq maqollar ulkan vazifa bajaradi: ajdodlar an’anasining avlodlarda davom etishini ta’minlaydi, insoniyatning o‘tmishi, kelib chiqishi, yashash tarzi

[102] Кошғарий М. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 34. (Ishda asar nomi «Devonu lug‘ati-t-turk» tarzida yozildi, biroq foydalanilgan manbalarda nom nashr etilgani bo‘yicha berildi – Y. R).

bilan bog‘liq xotirani saqlashga xizmat qiladi. Maqollar ijtimoiy hayot, xalq turmush tarzi, urf-odatlarining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maqollarning shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy hayot, xalq turmush tarzi, urf-odatlarining ahamiyati katta. Maqollarning shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy hayot, xalq turmush tarzi, urf-odatlarining ahamiyati katta.

b) Tabiiy hodisa va evrilishlarni kuzatish asosida shakllangan maqollar. Inson tabiatning bir bo‘lagi bo‘lib, undagi o‘zgarishlar va evrilishlarga qarab ko‘p narsani bilishga va anglashga harakat qiladi. Tabiatdagi barcha o‘zgarishlar odamni bee’tibor qoldirmaydi. Tabiiy hodisalardan falsafiy xulosalar chiqarishga, o‘z hayotiga qiyoslab, ibrat olishga harakat qiladi va buning natijasida tabiiy hodisalar bilan bog‘liq maqollar shakllanadi. Nutqimizdagi “Asad kirsa, suv oqaradi”, “Bahorgi beg‘amlik – kuzgi pushaymonlik”, “Kun qizarib botsa, qizingni uzat – tong qizarib otsa, tomingni tuzat” kabi maqollar ayni shu holat va hodisalar sabab yuzaga kelgandir.

v) Millat va millatlararo munosabat asosida paydo bo‘lgan maqollar. Xalq orasida eng ko‘p ishlatiladigan maqollar hayotiy tajriba asosida shakllangan. Bunday maqollarda asosan, kundalik hayotda kerak

bo‘ladigan axloqiy-tarbiyaviy masalalar yoritiladi. Masalan, “Aytgan joyga erinma, aytmagan joyga ko‘rinma” maqolida tarbiyaga doir qimmatli fikr mavjudligini anglaymiz. Maqol ikki komponentli bo‘lib, birinchi qismi “Aytgan joyga erinma”ga tavoze va hurmat ma’nosi yuklatilgan, ya’ni aytilgan joyda chaqirilgan kishining hurmati bor, bunday joyda o‘sha kishining kutilishi tabiiy, bormay qolsa, mezbon ranjib qolishi mumkin. Bu joyga o‘zi uchun emas, balki kutuvchilar uchun ham bormoq lozim. Maqolning ikkinchi qismi birinchi qismiga nisbatan zid ma’noga ega: “Aytilmagan joyda ko‘rinma”. Odatda, o‘z qadrini bilgan odam chaqirilmagan joyga bormaydi. U yerda ham vaziyat har xil bo‘lishi mumkin, demak, chaqirilmabdimi, ma’lum sabab bor. Yoki “Bir uy to‘la jonsan, bir-biringga mehmonsan” maqolida ham yuqoridagi maqolning mantiqiy davomini kuzatish mumkin.

g) Milliy tabiat, xarakter asosida paydo bo‘lgan maqollar. Xalq maqollarining yana bir guruhi qardosh va yondosh yashaydigan xalqlarga munosabat asosida paydo bo‘lgan. Bunday maqollar o‘zbek va boshqa xalqlar xarakteridagi xilma-xillikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, ikki qardosh xalq – qirg‘iz va o‘zbekka xos azaliy odatni e’tiborda tutgan “O‘zbek boyisa, uy solar, qirg‘iz boyisa, mol olar” maqoliga e’tibor qilsak. Maqolda ikki xalq xarakteri qiyoslangan. Maqolning tag ma’nosida o‘zbek va qirg‘izning hayot tarziga kinoya mavjud. Aksar xalqlarda, o‘zni hurmatlash, o‘zini yaxshi ko‘rish, o‘zi uchun qayg‘urish birinchi o‘rinda turadi. Ularda o‘z xotirjamligi, sog‘ligini barcha narsadan ustun sanash hissi bor. Shu bois puli ko‘paysa, uni yana ko‘paytirish, daromadini oshirish payida bo‘ladi. Biroq O‘rta Osiyo xalqlari bunday emas. Ayniqsa, o‘zbeklar bolalarining ertasi bilan yashaydi. Maqolning “O‘zbek boyisa, uy solar” tarzidagi birinchi qismida xalqimizning ana shu qayg‘usi ifodalangan. Bizning xalqimiz bolam-chaqam deydigan xalq. Ne mashaqqat bilan pul topsa ham, uni o‘ziga emas, bolasiga sarflaydi. Maqol mazmunida shunga ishora bor. Maqolning ikkinchi qismida qirg‘iz xalqiga xos xarakter ochiladi. “Qirg‘iz boyisa, mol olar” bu qismda qirg‘iz xalqi kamsitilmaydi. Balki ularning chorvador xalq bo‘lgani, ko‘pincha ko‘chib yurgani bois kichik o‘tovda yashab ketaverishi o‘zbeklar uchun ibrat tarzida ko‘rsatilgan. Shuningdek, uy solishdan ko‘ra, mol olish iqtisodiy ahvolni o‘nglashga yordam berishiga ishora qilingan. Yoki “O‘zbekka osh yaxshi, qozoqqa – go‘sht” maqoliga e’tibor qaratamiz. Bu maqol majoziy ma’noga ega bo‘lib, har kimning ta’bi va didi o‘ziga xos, birovga yoqqan birovga yoqavermasligi haqidagi dalil tabiiy jarayondan olib keltirilgan: qozoq va o‘zbek hayotidagi oshxo‘rlik va go‘shtxo‘rlik qiyoslangan.

Vodiy tomondan yozib olingan maqollarning ko‘pchiligi o‘zbek va qirg‘iz xalqi munosabatlarini ifodalaydi. Masalan, “Qirg‘iz xalqi mol bilan,

o‘zbek xalqi bog‘ bilan” maqoli ikki xalqdan birining chorva, birining dehqonchilik bilan shug‘ullanishi zamirida yuzaga kelgan. “Qirg‘iz boyisa mol olar, sart boyisa xotin olar” maqolida esa ikki xalqning fe’liga xoslik berilar ekan, xalqimiz qardosh xalqini kamsitmagan holda, o‘z nuqsonlarini kinoya yordamida ochib beradi.

Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida qozoqlar bilan bog‘liq maqollarni uchratish mumkin: “Qozoqning shu yer degani – uch tosh”. Qardosh xalqlar haqida aytilgan maqollarda o‘zbek va o‘sha qondosh xalq urf-odati, xarakteri va madaniyatiga xos xususiyatlar o‘zaro qiyoslanadi. Qiyoslashda har ikkala xalqqa xos ustuvor jihat e’tiborga olinadi. Shuningdek, bunday maqollar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noni anglatishga ham xizmat qiladi. Parallel qiyos usulidagi bunday maqollarda xalqimizning o‘ziga xos tomonlari, tipik belgilari, o‘zgachaligi yorqin ifodalanadi.

d) Milliy qadriyat va urf-odatlar asosida paydo bo‘lgan maqollar. O‘zbek xalq maqollarining katta bir qismini ota-onaga hurmat, aka-ukachilik, qon-qarindoshlik mavzusidagi maqollar tashkil etadi. Bu xalqning azaldan qon-qoniga singib ketgan, har doim dolzarb sanalgan va eskirmaydigan mavzusidir. Sharqshunos Herman Vamberi o‘zining “Turkiy xalqlar” asarida o‘zbeklarda ajoyib qadimiy odatlar saqlab qolinganini e’tirof etib shunday yozadi: “O‘zbeklarning oilaviy munosabatlarini asl namuna deb hisoblasa bo‘ladi. O‘zbeklarning o‘z xotiniga munosabati fors-tojik va sartlarga nisbatan ancha yaxshiroq, shunisi juda ta’sirliki, o‘rta yoshlarga borib qolgan farzandlar o‘z ota-onalariga juda hurmat va ehtiromli bo‘lishadi. O‘zi 30 yoki 40 yoshlarga borib qolgan o‘g‘il otasining bir qarashidayoq cho‘chib ketadi va hech qachon otasi bor paytda chilim chekmaydi, birinchi o‘tirmaydi va birinchi gapirmaydi”(https://ziyouz. uz/ilm-va-fan/tarix/herman-vamberi-turkiy-halq/).

Ko‘rinadiki, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan oilaviy munosabatlar azaldan boshqa xalq vakillari uchun ham namuna bo‘lib kelgan. Bunday qon-qarindoshlikka muhabbat ham aslida xalq maqollari orqali keyingi avlodlar ruhiyatiga singdirilgan. “Ota rozi – xudo rozi”, “Onalik uyning ori bor, otalik uyning – zari”, “Otangni sog‘insang, tog‘angni ko‘r”, “Xeshlik – xushlik”. Aslida bu kabi maqollar ilohiy kitoblarda kelgan hukmlar asosida shakllangan. Qur’oni karimning “Baqara” surasi 83-oyatida “Faqat Ollohgagina ibodat qilinglar, ota-onaga yaxshilik qilasizlar, qarindosh urug‘, yetim va miskinlarga ham (yaxshilik qilasizlar) . . . deb bani Isroilga ahdu-paymon olganimizni eslanglar!”(Alouddin Mansur. 2019. 53.) deyilgan. Oyati karimada eramizdan 1200-yil avval yashagan Muso alayhissalom qavmi, ya’ni bani Isroil qavmi bilan Olloh taolo o‘rtasidagi

ahd esga olingan. Yaratgan zot odamzodga o‘ziga ibodat etishdan so‘ng ota-ona, qarindosh-urug‘, yetim va miskinlarga yaxshilik qilishni buyurgan. Haq taoloning mazkur ko‘rsatmasi insoniyat uchun dasturulamal bo‘lgan, insonlar tomonidan yodlangan va asrlar osha bu hukmlar nutqda qo‘llanish asosida turli shakldagi hikmat-maqollarga aylangan. VI asrdan so‘ng bu hukmlar Qur’on bilan yanada mustahkamlangan. Shu bois ota-ona, qarindosh-urug‘, yetim va miskinlarga yaxshilik qilish to‘g‘risidagi maqollar butun xalqlarda bor. Masalan, Dog‘iston Respublikasida yashaydigan darg‘in xalq maqollari orasida “Onangga kaftingda tuxum pishirib bersang-da, uning haqini ado qilolmaysan”(Jahon xalqlari maqollari. 2016. 116.), qozoq xalqida “Onangga og‘ir so‘z aytma, otangga og‘ir yuk ortma!” (“Анаңа ауыр сөз айтпа, әкеңе ауыр жүк артпа") (Hakimov M. 1965. 177.), rus xalqida “Ota-onangni tirigida qadrla, vafot etgach xotirla” (“Живы родители – почитай, померли – поминай”) (Пословицы и поговорки русского народа. 1987. 306.), o‘zbek xalq maqollaridan “Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar, Onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lar” (Jahon xalqlari maqollari. 2016. 325) yoki yetimlar haqidagi “Cherkov qurma, yetimni obod qil” (“Не строй церкви, пристрой сироту” (Пословицы и поговорки русского народа. 1987. 3. 306), “Yetimni yetim dema, Yetimning haqini yema”, “Yetimni yig‘latma”kabi maqollar bundan necha ming yillar avval Ollohning bandalari bog‘lanishga buyurgan hukmlari asosida yuzaga kelganini inkor etib bo‘lmaydi.

XULOSA

Xullas maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janri bo‘lib, u uzoq tarixiy-folkloriy jarayonda shakllangan. Maqollar so‘zlar kabi ijtimoiy hayot bilan yonma-yon yashab, takomillashib, kengayib, variantlashib boravergan. Davrdan davrga o‘tish bilan maqollar mazmuni yangi zamon va makonga moslashib, mavjud zamon hayoti va falsafasi uchun xizmat qilgan.

Maqol va matallar milliy-madaniy koloritni ifodalaydi, shu bois maqollarning shakllanish omillarini har bir millatning o‘z ijtimoiy-madaniy hayoti va dunyoqarashidan kelib chiqib tasniflash lozim. Shunga ko‘ra, ijtimoiy hayot va turmush tajribalari; e’tiqod, diniy-ilohiy manbalar; yozma adabiy yodgorliklar; boshqa tillardan o‘zlashish yoki tarjima asarlar o‘zbek xalq maqollarining shakllanganishida muhim omil bo‘lgan.

SUMMARY

The word “proverb” in scientific literature is a short, figurative and wise expression, a saying created among the people on the basis of life

experience, usually containing advice. It is interpreted as one of the folklore genres, which has a short, deep meaning, often used in speech, and a stable form (Khotamov M. , Sarimsakov B. 1979. 239.). These proverbs, which are the product of centuries of life observations, are also called "words of the fathers", "words of the people" (Fitrat A. 2006. 69). Based on this, the proverb can be understood as the word of the ancestors. This, naturally, allows us to say that the origin of the proverb goes back very far, to the first periods of human history. After all, as it is written in the preface of the collection "Sahih-ul-Bukhari", Allah Almighty conveys his religious teachings to people through the prophets and entrusted them with the task of showing how to apply it in life. The prophets conveyed revelations from Allah to people. Those who heard this message from the messengers tried to spread it and pass it on to others. In this way, messages were passed down from generation to generation. Therefore, we can say that since the history of mankind began with Adam Safiullah, the indisputable fact is that all information came to others in the form of instructions, advice, invitations and returns. After all, as folklorist Sh. Turdimov pointed out, the presence in literature of a semantic layer that artistically expresses a person's spirituality, thinking, his will and his search for self-identity shows that he belongs to the BIG WORD. Accordingly, the responsibility of preparing descendants for life, distinguishing between good and evil, knowing the high and the low, and preparing for life's trials has developed throughout humanity. This teaching and lesson is deepened, especially through literature and the arts of speech. Humanity began its life on earth based on the instructions and judgments of God, and then, mixed with the conclusions of the life process, unique "laws of life" were created, which were increased and updated as a result of oral transmission, adapted time and speech, and thus subtle expressions appeared and proverbs. This is how stories, legends, fairy tales, and epics were created, and it is appropriate to study these works as works that are closest to early history, the real style of life, "which in no way departs from reality, the material world" (Bakhtin M. 2015. 125.).

Based on the opinion that the primary source of every artistic word is divine books, and all other examples of creativity grow from the essence of the idea, content and image in it, we can say that the proverb arose as a result of the synthesis of words. predecessors and bringing these ideas into line with current times. The basis for this conclusion may be the following:

a) the existence of proverbs in the folklore of all nations;

b) the fact that all nations have exactly one proverb without changes in form and content (it differs only in language);

c) the similarity of the narrative style, parallel conversations about good and evil;

g) warn a person about everything using words;

d) a call to good, renunciation of evil;

e) expression of deep meaning in a concise form;

f) expression of thought in melodic words, that is, the presence of rhyme in a poetic example of a proverb and saj in a prosaic example;

j) consisting of exhortations, advice, lessons and sermons.

Proverbs and sayings do not appear overnight. A sentence or short form of speech that is instructive in nature and popular among the masses becomes a proverb over time. They continue to develop, improve, expand and diversify, living side by side with public life. In addition, the content of proverbs adapts to new time and space and serves the life and philosophy of the current time, that is, it lives in the content. Shapes are related to space and time, and it is natural for them to expand or contract in size. "Usually a proverb, " writes Professor B. M. Karriev, "is first created by a person who has keen powers of observation and the ability to clearly express his thoughts in just a few words. " This is a well-expressed opinion, this individual conclusion can be accepted, applied, processed, polished by the team. This gives rise to a proverb. Such a proverb is first dedicated to one specific event, some particular occasion. Depending on how it is used by the masses, such an eloquent statement gradually acquires a broad general meaning" (Karriev B. 169. 162).

In fact, it is natural that the proverb first appeared in the speech of an individual, a representative of the people with great experience. However, its form in the evolutionary process may be completely different from the original form. Accordingly, when forming proverbs

When a person looks at the world with his thinking, he understands the types, characteristics and conditions of causes and events and expresses either a positive or negative attitude accordingly. In forming these relationships, of course, a person relies on the conclusions of those who lived before him, the memory of the past, education and experience. He even reacts to opinions expressed before him. That is why there are many proverbs and proverbs that contradict each other in content and contradict each other. For example: If you have a friend, don't hide a secret – Don't trust a friend with a straw; Before the thinker has thought

through his game, the risker finishes his work - An act committed without thinking causes anxiety. Folklorist B. Sarimsakov speaks about this: "The close connection of folk proverbs with the life of the people determines their national identity and at the same time their universal character. These two aspects are expressed in the theme of Uzbek folk proverbs, in the ways of reflecting reality, in artistic and visual means and, finally, in the language" (Mirzaev T. Sarimsokov B. 1987. 25). In fact, every nation has its own views on the world and people, they see the world based on their environment and conditions. Therefore, the theme of folk proverbs is formed based on the mentality and identity of each nation. Accordingly, the factors in the emergence of folk proverbs can be classified as follows as a result of observations for life and national worldview:

a) Proverbs were formed on the basis of the first ideas about the Universe and man. If we look at the long history of Central Asia, it will be proven that this land was a field of wars, robberies, invasions and wars. This land witnessed the invasion of the Huns, Kushans, Hephthalites, Greeks, Arabs, Mongols and Russians. As a result of these wars and migrations, the culture, customs and beliefs of these peoples penetrated into Central Asia. On this occasion, the scholar-historian Kh. Karamatov writes: "Within civilization, the religious faith of the ruling (metropolis) state was accepted by the upper class of the conquered countries, and because of this they received a "fatwa" to rule their people. Among the middle and lower classes, ancient forms of belief either persisted or were replaced by "foreign" ones. Conversely, when settlers invaded settled lands, they were often assimilated and assimilated into the culture of the conquered, but still retained their identity by incorporating elements of their faith into their adopted religion. As a result, a complex of different beliefs arose" [Karamatov Kh. 2008. 9.]. This religious diversity also influenced the worldview of the Uzbeks and formed a complex ethnoculture. This is reflected in folk proverbs. Therefore, it is impossible to express a clear attitude towards the period of formation of folk proverbs. It is correct to say that the first proverbs appeared with the formation of human social consciousness. These proverbs are mainly related to the understanding of existence, the universe and man. For example, such proverbs as "Death is not enough, the fly is immortal", "The Akl stone is a human head", "The matter of the world is the life of two people", "The owner of the earth is a god", "The owner of water is the Sultan" were created in connection with man's understanding of existence and the Universe. can be estimated as

b) Proverbs were formed based on observations of natural phenomena and events. Man is part of nature and tries to know and understand many

things depending on changes and developments in it. All changes in nature do not leave human attention. He tries to draw philosophical conclusions from natural phenomena, compare them with his own life, as a result of which proverbs are formed related to natural phenomena. In our speech there are sayings such as “If Assad enters, the water will turn white”, “Spring confusion is autumn regret”, “When the day is red, give your daughter - when the morning is red, fix the roof. ” the reasons for these situations and events.

c) Proverbs that arose on the basis of national and interethnic relations. The most common proverbs among people were formed on the basis of life experience. Such proverbs highlight moral and educational issues necessary in everyday life. For example, we understand that a valuable idea about education is contained in the proverb “Don’t go where you want, don’t go where you don’t want to. ” The proverb has two components, the first part “Do not go where you are told” is loaded with the meaning of humility and respect, that is, a person invited to a specified place is respected, it is natural to expect that person in such a place, if he does not go, the owner may be offended . It’s not just yourself who needs to go to this place, but also those who are waiting. The second part of the proverb has the opposite meaning of the first part: “Do not appear where it is not mentioned. ” Usually a person who knows his worth does not go where he is not invited. The situation there may be different, which means there is a reason why he was not called. Or a logical continuation of the above proverb in the proverb “You are a house full of souls, you are each other’s guests”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жаҳон халқлари мақоллари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – Б. 116.

2. Караматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Ғ. Ғулом. НМИУ, 2008. – Б. 9.

3. Карриев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад, 1961. – С. 162.

4. Мирзаев Т. , Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу нашри ҳақида / Ўзбек халқ мақоллари. I жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 25.

5. Пословицы и поговорки русского народа. – М. : Правда, 1987. – С. 306.

6. Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу нашри ҳақида / Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А–О. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 24.

7. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 69.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II томлик. I том. – М. : Русский язык, 1981. – Б. 456.

9. Қазақтың мақал-мәтелі. – Алматы: Жазушы, 1980. – Б. 177.

10. Қуръони азим мухтасар тафсири. (Шайх Алоуддин Мансур) – Тошкент: Movarounnahr, 2019. – Б. 53.

11. Ҳакимов М. Ўзбек совет ёзувчиларининг асарларида мақол, матал ва афоризмлар: Филол. фан. номз. . . . дисс. – Тошкент, 1965. – Б. 9.

12. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 239.

13. https://ziyouz. uz/ilm-va-fan/tarix/herman-vamberi-turkiy-halq/

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XOTIRA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mushtariy Abdullayeva Mirza qizi

mushtariy. abdullayeva@mail. ru

Annotatsiya

Xotira zaruriy aqliy jarayonlardan biri bo'lib, ularsiz bolaning intellektual rivojlanishi mumkin emas. Uning rivojlanishi uchun maktabgacha yoshda yetarlicha e'tibor berilishi kerak. Aynan xotira yordamida bola yangi bilimlarga ega bo'ladi, dunyoni o'rganadi yoki maktabda o'qiy oladi, kerakli bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Xotirani rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda biz bolalarni oddiy mashqlar va o'yinlar yordamida ma'lumotlarni yodlash, saqlash va mustahkamlashshga o'rgatamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi berilgan ma'lumotlarni tushunmasdan, mexanik yodlash bilan tavsiflanadi. Ota – onalar va tarbiyachilarningvazifasi bolaga yangi bilimlarni mantiqiy anglatgan holda ongli ravishda bajarishga o'rgatishdir. Ma'lumotni ixtiyoriy yodlash va takrorlash asta-sekin ongli ravishda yodlashga o'tishi kerak. Tasviriy xotira ikki yilgacha rivojlanadi. Bu yoshda bola asab tizimining faol rivojlanib, ma'lumot hajmi ortadi.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda oliy nerv tizimi, xotiraning samaradorligi, eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi xususida so'z boradi. Bundan tashqari xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'lishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xotira, jarayon, muomala, obrazli, mantiqiy, emotsional.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF MEMORY IN PRESCHOOL CHILDREN

Mushtariy Abdullaeva Mirza qizi

Annotation

Memory is one of the necessary mental processes, without which a child's intellectual development is impossible. Sufficient attention should be paid to its development in preschool age. It is with the help of memory that the child acquires new knowledge, learns the world or can study at school, acquires the necessary knowledge, skills and abilities. In memory training, we teach children to memorize, store and consolidate information using simple exercises and games. The memory of preschool children is characterized by mechanical memorization without understanding the given information. The task of parents and educators is to teach the child to consciously implement new knowledge in a logical way. Voluntary memorization and repetition of information should gradually be transferred to conscious memorization. Visual memory develops up to two years. At this age, the child's nervous system is actively developing, and the volume of information increases.

This article deals with the higher nervous system, the efficiency of memory, the scope and speed of remembering, the duration of remembering, and the accuracy of remembering in children of preschool age. In addition, memory is an active process, which is directly related to a person's ability to work with various information, his attitude to it, and his perception of the value of the material.

Keywords: memory, process, treatment, figurative, logical, emotional.

Kirish

2017 yil 7 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarini ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘lardi: “Ayni paytda farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha

ta’lim tizimining zamon talablariga mos kelmasligi ham sir emas. Ushbu sohaga bir paytlar e’tiborimizni susaytirib yuborganimiz oqibatida ko‘pgina muammolar yig‘ilib qolganini ochiq aytish lozim. Bog‘cha tarbiyasini ko‘rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo‘lishini bugun kimgadir isbotlab o‘tirishning, o‘ylaymanki, hech qanday hojati yo‘q. Bu so‘zlarning amaliy isbotini kundan-kunga amalga oshirilayotgan ishlar misolida yaqqol kuzatish mumkin. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash doirasini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, tadbirlarning mazmuniga e’tibor qaratilayotganligi quvonarli xol albatta. Yuqorida aytilgan fikrlarning me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinayotganligi ishning tizimli tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni, ichki ruhiy olamni ham ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Psixikaning jarayonlari quyidagicha:

1. Bilish faoliyati: diqqat, nutq, faoliyat

2. Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur

3. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi: hissiyot, iroda

4. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat

Psixologiya – juda qadimiy va shu bilan birga navqiron fandir. Psixik hodisalarning ilk talqini qadimiy yunon olimi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yillar)ning “Ruh haqida” nomli asarida berilgan. Psixik hodisalar va ularning qonuniyatlariga taalluqli ilmiy tadqiqot ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy psixologiya asoslari esa XIX va XX asrlar o‘rtasida yuzaga kelgan. Hozirgi kunda psixologiyaning 300 dan ortiq tarmog‘i fan sifatidarivojlanib kelmoqda. (Рогов Е. И. Настольная книга практического психолога. Т. 1-2. –М. , 1999 г.)

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillarni ham o‘rganadi. Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalari turadi, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni, ya’ni bolalarning idrokiga, sezgi-tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish;

2. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab berish;

3. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish;

4. Bola shaxsi va shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish;

5. Bolani maktab ta’limiga tayyorlash;

6. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish;

7. Ta’lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish;

8. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish;

9. Ta’lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir. Odam ko’rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma’lum bo’lishicha, bir vaqtning o’zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo’lgan ma’lumotning qolishi qiyin ekan. Bu yettita so’z, son, belgi, narsaning shakli bo’lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo’lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo’larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma’lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni — xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi. (Абрамова Г. С. Практическая психология. Москва, «Академический проект», Москва, 2001.)

Odatda biz biror bir materialni o’qiydigan bo’lsak, uni hech bir o’zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma’lum o’zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo’lib saqlanadi. Ba’zi bir material yoki ma’lumot xohlasak ham xotiradan o’chmaydi, boshqasi esa juda qattiq xohlasak ham kerak paytda yodimizga tushirolmaymiz. Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muhim savollar bo’lib, ba’zan o’z taraqqiyotimiz va kamolotimizni ham ana shunday omillarga bog’lagimiz keladi.

Ma’lum bo’lishicha, inson miyasi har qanday ma’lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma’lumot biror sabab bilan odamga kerak bo’lmasa, yoki o’zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo’qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatiiz manfaatlariga mos ma’lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko’pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug’ullanadi.

Xotira — bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, yaьni qis-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq:

esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;

Quyida fanni o‘rganishga darajali yondashuv tahlili va ta’lim sifatini baholashning innovatsion tizimi sifatida klasterli modeli taqdim qilinadi. O‘rganilayotgan muammoni hal qilish qator vazifalarni ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Avvalo, u yoki bu kasbiy kompetensiyalarga, erishganlik (yo erishmaganlikni) baholashning “klasterli modeli” tushunchasi mazmunini aniqlab olish, ikkinchidan, harbiy ta’lim sohasida kasbiy kompetensiyalarga, erishganlikni baholashning klasterli modelini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish lozim.

Klaster (ingl. *Cluster* – to‘plash, to‘planish) ma’lum hossalarga ega mustaqil birlik sifatida qarash mumkin bo‘lgan bir turdagi bir necha elementning birlashuvi. “Klasterli model” deganda klaster a’zolarining “muammo ustida ishlar barobarida” o‘zaro va o‘zini o‘zi rivojlantirishi tushuniladi. Bu jarayon alohida qatnashchilar kabi umuman klasterning ham afzalliklarini kuchaytirib boradigan sheriklikni barqaror rivojlantirish asosida amalga oshadi [4].

O‘z navbatida, u yoki bu kasbiy kompetensiyalarga erishganlik (yo erishmaganlik)ni baholashning klasterli modeli xodimlarning kasbiy darajasi (ta’lim oluvchining tayyorgarlik darajasi)ni baholash uchunvosita sifatida qaraladi. Ularning har biri uchun alohida kasbiy va shaxsiy sifatlar muhim bo‘lgani sababli bu modelni har bir kasbiy guruh uchun alohida shakllantirish maqsadga muvofiq. Model ta’lim oluvchining kasbiy kompetentligida zaif nuqtalarni ko‘ra bilish, demak, ularni pedagog bilan yakka tartibda ishlash, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, maslahatlar, mashqlar yo‘li bilan tuzatish, shuningdek, ta’lim samaradorligi natijalari past ekani sabablarini mayda xulq-atvor markerlari darajasida aniqlash uchun imkon yaratadi. N. N. Grigorenko va A. A. Zaripovning fikricha, bu modelni ta’lim oluvchilar (kursantlar) va harbiy OTM bitiruvchilari tayyorgarligining kasbiy darajasini baholash uchun mos keladigan va uning rivojlanishi bo‘yicha aniq, batafsil vositasini o‘zida mujassamlaganklasterli model sifatida ta’riflash mumkin [5].

Iste’dodli va tajribali lashkarboshi sifatida Amir Temur vatanimiz hududida harbiy ish va taktikaning rivojlanishida chuqur iz qoldirdi, u nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon harbiy ilmini rivojlantirishga, yangi usulllar va taktikani shakllanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Amir Temur jahon harbiy san’ati tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida yetti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etdi. Sohibqiron shaxsiyatining hozirgi zamon angiliyalik tadqiqotchisi Xilda Xukxem g‘arb

temurshunosligida birinchi bor bor haqiqatni ko‘rsatib berdi. “Temur dunyoga kelgan yurtda, – deb yozadi olima, – falsafa, tibbiyot, tarix, adabiyot va boshqa sohalarda olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg‘onish davriga turtki bo‘ldi”. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘n beshinchi asrni temuriylar Renessansi davri deb atash mumkin. Amir Temur saltanatni o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzganligini davlatning o‘n ikki oyiga taqqoslab, mazkur o‘n ikki toifaning beshinchi toifasi haqida fikr yuritib shunday deydi: “Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida 15 tortib ko‘rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini ko‘rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko‘tardim…”

Professor A. X. Doniy uzoq vaqtlardan beri temuriylar tarixini o‘rganib, o‘zining ingliz tilida yozilgan “Timur Legacy” (“Temur merosi”) kitobida shunday fikrlarni qayd etadi: “ Sohibqiron qaysi mamlakatda bo‘lmasin, u yerdagi olimlar va ijod ahli bilan uchrashar, ular bilan qizg‘in suhbatlar qilar va ularga sharoitlar yaratib berar edi…” .

S. I. Ojegovning talqinicha, “kompetensiya” shaxs tomonidan juda yaxshii o‘zlashtirilgan masalalar doirasini, T. V. Pankovaning fikriga ko‘ra, muayyan fan sohasini bilish, uning kategoriyalari yordamida fikrlashni ifodalovchi, ta’lim jarayyonida shakllangan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuini, G. S. Vyalikovaga ko‘ra, muayyan predmet bo‘yicha axborotli o‘zlashtirilgan chuqur bilimlar, A. A. Cheremisinaning yondashuviga asoslanadigan bo‘lsak, biror sohada malakali, bilimdon, hurmatga sazovor bo‘lishni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holatda quyidagi xulosani ilgari surish maqsadga muvofiqdir: kompetensiya – muayyan sohada bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisining bilimdonlik, unga oid chuqur bilim, ko‘nikma, malakalarga egalik, tezkor qaror qabul qilish, optimal yechimlar asosida tegishli masalalarni hal qilish vakolati, huquqiga egalik. J. Ravenning fikriga ko‘ra, kompetentlikning asosini quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi: muayyan turdagi kompetentlik uchun zarur bo‘lgan motivasya, qadriyat yo‘nalishlari va ish sifatlari; insonning jamiyat tarkibidigai ahamiyatiga nisbatan his tuyg‘ulari va munosabati; ijtimoiy munosabatlar va ularni samarali tashkil etish tartibi. R. J. Mirabilening fikricha, kompetensiyani baxolash tizimi mutaxassis tomonidan iste’molchiga yetkazilgan foyda xajmi bilan belgilanishi lozim. A. K. Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak.

Metodologiya

Ma’lum mutaxassislik uchun kompetensiyaning klasterli modelini ishlab chiqish ikki-uch haftagacha vaqt talab qiladi. Tayyor modelni harbiy OTM bitiruvchisining mutaxassisligi me’yorlari va unga qo‘yiladigan talablar ro‘yxati bilan nisbatlash mumkin, ammo bu kabi ro‘yxatdan farqli ravishda model me’yor va talablarini Qurolli Kuchlar tomonidan jangovar topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun maksimal darajada aniq tanlab olingan me’yor va talablarning alohida ro‘yxatidir. Modelni yaratishda bevosita ekspertlar, o‘z qo‘l ostidagilarni yaxshi biladigan va mazkur sohada real amaliy tajribaga ega bo‘lgan kursantlar bo‘linmalari komandirlari (kurs ofitserlari) ishtirok etishi lozim. Bundan tashqari, modelni yaratishda har bir ta’lim muassasasida mavjud bo‘lgan kasbiy saralash laboratoriyasi xodimlari qatnashadi.

1-tavsifiy bosqich. Modellashtirishda ishtirok etuvchilarning hammasi har bir kursantni“o‘qishda yordam beradigan xulq-atvor va unga to‘sqinlik qiladigan xulq-atvor” tushunchalari bo‘yicha tavsiflaydi. Barcha kursantlar shu tarzda tavsiflanadi.

Kursantning sifatlari emas, aynan o‘qishga yordam yoki xalaqit beradigan xulq-atvorni tavsiflash zarurligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Guruhdagi har bir kursantga shu kabi tavsiflar yig‘ilgach, harbiy OTM ideal bitiruvchisini aks ettiradigan repertuar “panjarasi” analogi quriladi. Bu ham maksimal darajada samaradorlikka erishishga ko‘maklashadigan ijobiy xulq-atvorni sanab ko‘rsatish, hamo‘qishga xalaqit beradigan xulq-atvor tahlili asosida buning aksini ko‘ra bilishdan iborat.

2-sifatlarni tasniflash bosqichi. Guruh uchun muhim bo‘lgan sifatlarning hammasini klasterlarga bo‘lish va jadvalgda keltirilgani kabi nomlash zarur *(1-jadval).*

1-jadval: Sifatlarni klasterlar bo‘yicha tasniflash namunasi

№		***O‘qishga yordam beradigan sifatlar***
	harbiy intizomni va qo‘shinlar	O‘rtoqlik O‘z ishini rejalashtira bilish O‘zi va boshqalarga nisbatan talabchanlik
	m a ’	
	Odatiy sharoitda va keskinlik ortib ketgan vaziyatlarda ma’nan-ruhiy barqaror bo‘la olish	O‘z faoliyatida ustuvorliklarni aniqlash O‘z faoliyati natijalarini tahlil qila bilish Muvaffaqiyatsizlikdan keyin tezda “o‘zini anglash” va hokazolar

3- klasterlarni kompetensiyalarga o‘tkazish bosqichi. Sifatlarni tegishli repertuar “panjara”lariga kiritgandan keyin kursantlar guruhlari komandirlari va kasbiy saralash laboratoriyasi xodimlari bilan u yoki bu sifatlarning to‘g‘riligi va muhimligini tekshirish, shuningdek, korreksiyalash maqsadida davra suhbati o‘tkaziladi. Bu bosqichda, odatda, ko‘plab bahs-munozarali vaziyatlar yuzaga keladi, biroq ta’lim oluvchining (bitiruvchining) portreti va “buyuriladigan” sifatlarning aniqlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Ko‘p hollarda bitta davra suhbati davomida bir-ikki kasbiy kompetensiyani tasdiqlashga muvaffaq bo‘linadi. Alohida ta’kidlash kerakki, bu o‘rinda kompetensiya nazariy bilimlar, amaliy

koʻnikma va malakalar, harbiy xizmatga va oʻrtoqlariga munosabatlar kombinatsiyasi sifatida tushuniladi. Bu sifatlarning hammasi harbiy OTM bitiruvchisining ideal portretini aks ettiradi. Klasterlar nomi kompetensiyalar nomini belgilamaydi, kompetensiya kengroq tushuncha, u mazmunan yaqin boʻlgan bir necha klasterni birlashtirishi mumkin. Uning mazmuni va shakli klaster hosil qiluvchi hisoblanadi. Bunda kompetensiyalar oʻzi ierarxik munosabatlarga kompozitsion "saflanishi", ontologik modelga kiritilishi mumkin [4].

Natijalar

Shunday qilib, ekspertlar muhokamasi jarayonida kompetensiyalarning bir necha guruhi ajratilishi mumkin. Kompetensiyalar dekompozitsiyasiga misollar quyida (2- va 3-jadval) keltiriladi.

2-jadval

"Yuqori darajadagi harbiy-kasbiy tayyorgarlik, harbiy savodxonlik vazifalariga ijodiy yondashuv, harbiy intizomni va qoʻshinlar hizmatini mustahkamlash" kompetensiyasi dekompozitsiyasi

№	
	Oʻrtoqlik
	Oʻz ishini rejalashtira bilish
	Oʻzi va boshqalarga nisbatan talabchanlik
	Oʻzini oʻzi takomillashtirishga intilish

3-jadval

“Yuqori darajadagi harbiy-kasbiy tayyorgarlik, bo‘linmaning harbiy tayyorgarlik vazifalarini hal qilishga ijodiy yondashishga qodirlik” kompetensiyasi dekompozitsiyasi

№	
	Ma’naviy-axloqiy rivojlanish darajasini takomillashtirish
	Namunali tashqi ko‘rinish va safda qaddi rostliknitutib turish
	keskinlik ortib ketgan vaziyatlarda ma’nan-ruhiy barqaror bo‘la olish

Ko‘rinadiki, HKK-4 tarkibiga (3-jadval) “Kasbiy, intellektual, ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlanish darajasini oshirish, namunali tashqi ko‘rinish va safda qaddi rostliknitutib turish” kompetensiyasi kiritilgan. Bundan tashqari, 7- “Qarorlar qabul qilishda huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarni hisobga ola bilish” markerida harbiy xizmat, qo‘shinlar va o‘rtoqlariga nisbatan munosabat mazmuni xulq-atvor darajasida keltirilgan.

Model bilan keyingi ishlashni murakkablashtirmaslik uchun har bir kompetensiyaga ko‘pi bilan sakkizta marker kiritiladi. Kompetensiyalarning klasterli modelini aynan xulq-atvor markerlarida tavsiflashning muhimligi shundaki, xulq-atvor – kursant (bitiruvchi) da uning faoliyati davomida, muayyan kursantningu yoki bu ishchi sifatiga (ular juda ko‘p) shaxsiy talqinlarga o‘tmasdan turib, bevosita kuzatiladiganidir. Kompetensiyalar modelida ishchi sifatlarni baholashning afzalligi yana shundaki, bu kursant bevosita faoliyatining “jarayondagi” kesimi. Attestatsiya – ko‘proq kursantning o‘z kasbiy kompetensiyalari sohasidagi nazariy bilimlarini baholash. Albatta, bu yondashuv ideal emas, xatolik va ayrim kamchiliklar ham yo‘q emas. Bunda eng avvalo, kursantni (bitiruvchini) baholashda bevosita komandirning (o‘qituvchining) noxolisligi ehtimolini ko‘rsatish mumkin. Biroq bu yondashuvning afzalligi kursantni mashg‘ulotlar, kundalik

tadbirlar davomida bir necha ekspert tomonidan kuzatilishi orqali ishchi sifat va xulq-atvor markerlarini korreksiyalash imkoniyati mavjudligidir.

Xulosa

Rivojlanish borishtartibida bu quyidagi baholash ko‘rsatkichlari bo‘lishi mumkin: “kompetensiyaga qisman erishilgan”, “kompetensiyaga erishilgan”, “kompetensiyaga to‘liq erishilgan”.

“Kompetensiyaga qisman erishilgan” baholash ko‘rsatkichi – ko‘proq xizmat-jangovar topshiriqlarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Qurolli Kuchlar umumqo‘shin nizomlari va boshqa huquqiy-normativ hujjatlarda belgilanganidek amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni ifodalaydi. Kursant (bitiruvchi) faqat asosiy materialni o‘zlashtirgan, biroq, uning detallarini bilmaydi, ayrim o‘rinlarda to‘g‘ri qaror qilish uchun yo‘naltiruvchi savollarga muhtoj, ayrim noaniqliklarga yo‘l qo‘yadi. Qo‘shimcha o‘qitish va nazoratga muhtoj.

“Kompetensiyaga erishilgan” baholash ko‘rsatkichi – kursant (bitiruvchi) zarur ko‘nikma va malakalarga ega. Ko‘p hollarda majburiyatlarini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek bajara oladi va natijalarga erisha biladi. Murakkab vazifalarni tashqi yordamsiz hal qila oladi. Olingan bilimlarini amaliy masalalarni hal qilishda to‘g‘ri qo‘llaydi, qurol-aslaha va texnik bilan ishlash usullarini to‘g‘ri egallagan. Ko‘nikmalarni takomillashtirish talab etiladi.

“Kompetensiyaga to‘liq erishilgan” baholash ko‘rsatkichi – kursant (bitiruvchi) bilim, ko‘nikma va alakalarni qo‘llashni mutlaqo tushunadi va favqulodda qo‘llaydi, shuningdek yuqori natijalarga erisha oladi. To‘g‘ri qarorlarni tezkor qabul qiladi, qurol-aslaha va texnika bilan mukammal darajada ishlay oladi. Xizmat-jangovar topshiriqlarni bajarishda bo‘linmaga rahbarlik qilishga tayyor.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, taklif qilinayotgan klasterli model individual rejalarni yo‘nalganlik bilan qurish, ta’lim oluvchining pedagog bilan yakka tartibda ishlashini rejalashtirish, maslahatlar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, mashqlar va hokazolar imkonini beradi. U bo‘lajak ofitserning kasbiy rivojlanishining individual traektoriyasini belgilab beradi va bitiruvchini OTMni tamomlaganidan keyin bevosita xizmat joyiga taqsimlashga yo‘naltirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аршинов В. А. Философия образования и синергетика: Как синергетика может способствоват новой модели образования? [Электронный ресурс]. – (09. 11. 2014).

2. Зимняя И. А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (Теоретико-методологический аспект) // Высш. образование сегодня. – 2006. – № 8. – С. 20–26.

3. Кагакина Е. А. Проектирование процесса компетентностно-ориентированного обучения в вузе на основе онтологической модели // Профессионалное образование в России и за рубежом. – 2014. – № 3(15). – С. 31–36.

4. Корецкий Г. А. , Лапыгин Д. Ю. Предпосылки интегratsii в образовательный кластер [Электронный ресурс] // ВлГУ: электрон. журн. – 2006. – № 4. 5. Смирнов А. В. Образовательные кластеры и инноватsионное обучение в вузе: моногр. – Казан: Изд-во МОиН РТ, 2010. – 92 с.

5. Bayjonov, F. (2021). CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF GENDER CULTURE AS A SOCIAL EVENT. InterConf, (79). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/15139.

6. Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, *9*(4), 2021. https://www. idpublications. org/wp-content/uploads/2021/05/Full-Paper-STAGES-OF-FORMATION-OF-GENDER-CULTURE-IN-YOUTH. pdf.

7. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534. https://doi. org/10. 33619/2414-2948/89/70.

8. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146. https://doi. org/10. 15863/tas. 2021. 06. 98. 21.

9. Bayjonov, F. (2022). Factors for forming gender culture in adolescents in family and educational institutions. InterConf, (96). вилучено із https://ojs. ukrlogos. in. ua/index. php/interconf/article/view/18170.

MEHNAT MUHOJIRLIGINING SABAB VA OQIBATLARI (MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MISOLIDA)

magistrant Shavkatov Shaxboz Shavkatovich

sh. shavkatov@mail. ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholi migratsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, Yangi O'zbekistonda migratsiya sohasidagi islohotlarning mohiyati, migratsiyaning jamiyatimizda qaror topgan milliy ma'naviy qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga sabab bo'layotganligi, ushbu sohada mavjud muammolar va ularni echish uchun lozim bo'lgan vazifalar, istiqbolda yurtimizda ma'naviy muhit va aholi migratsiyasining o'zaro ta'sirlashuvini tadqiq etish bilan bog'liq muammolar haqida so'z yuritilgan. Xususan, so'nggi yillarda yurtimizda migratsion siyosatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijdagi o'zbek diasporalari bilan ikki tomonlama foydali hamkorlik aloqalarining o'rnatilayotganligi, mehnat muhojirlarining migratsiyagacha maxsus tayyorlov kurslarida o'qitish tizimi tashkil etilganligi, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi kontseptsiyasining yaratilganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy muhit, mehnat muhojirlari, mehnat migratsiyasi.

Abstract. In this article, the influence of population migration on the spirituality of young people in the Republic of Uzbekistan, the nature of reforms in the field of migration in New Uzbekistan, the fact that migration is the cause of the transformation of the national moral value system established in our society, the existing problems in this area and the tasks necessary to solve them, the interaction of the spiritual environment and population migration in our country in the future Research problems are discussed. In particular, the reforms implemented in the migration policy in our country in recent years, the establishment of mutually beneficial cooperation relations with Uzbek diasporas abroad, the establishment of a training system for labor migrants in special training courses before migration, and the creation of the concept of safe, orderly and legal labor migration were analyzed.

Keywords: migration, youth spirituality, spiritual environment, labor migrants, labor migration.

Kirish

Jahon xo‘jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o‘ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo‘lib, iqtisodiyoti og‘ir ahvolda bo‘lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqinig o‘tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Tabiiyki, siyosiy mustaqillikka erishgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o‘tmishdan qolgan merosning og‘ir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan Markaziy Osiyo davlatlari ham mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qolish imkonini topolmadi. Mehnat muhojirlari Markaziy Osiyoning xorijdagi aholisining salmoqli qismini tashkil qiladi. Ilgari muhojirlarning asosiy oqimi Rossiyada ishlagan bo’lsa, so‘nggi besh yil ichida mehnat migratsiyasi geografiyasi tubdan o‘zgarib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili

O’zbekistonlik olimlardan E. M. Muhiddinov, S. A. Ishanxodjaev, L. X. mamlakatimizga ta’siri, ushbu fenomenning ijtimoiy, huquqiy, siyosiy oqibatlari kabi jihatlarini o’rganishgan. F. Ya. Parmonovning ilmiy izlanishlarida migratsiya jarayonlari transformatsiyasiga ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy omillarni tadqiq etilib, soha bo’yicha mutasaddi tashkilotlarning migratsiyaga oid faoliyati samaradorligini oshirishga e’tibor qaratilgan. D. A. Madjidova, D. G’. Xusanova, A. A. Bazarov, B. A. v a

r e i n t e g r a t s i y

ijtimoiy so’rov, qiyosiy tahlil usullaridan, shuningdek, tarixiylik, o’zaro

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq tub o‘zgarishlar

Bugungi kunda Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat muhojirlarining asosiy donor davlatlari O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistondir. Agar 2017 yilda Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 822 933 kishi mehnat muhojiri sifatida ro’yhatdan o’tgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 2 007 407 kishiga yetdi [3]. Tojikistonda xuddi shu davrda 936 752 nafar muhojir bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 1 018 497 nafarga yetdi. 2017-yilda 376 863 nafar qirg‘izistonlik Rossiyada ishlagan bo‘lsa, bir yil o‘tib ularning soni 351 959 nafarga ko‘paydi. Hamma mehnat migratsiyasi qonuniy bo‘lmagani uchun mehnat muhojirlarining aniq sonini aytish qiyin – aksariyat muhojirlar Rossiyada ro‘yxatga olinmagan [4]. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2022 yil 1 oktyabr holatida O’zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 35, 8 million nafardan ortiq. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma’lumotiga ko’ra, 2021 yil yanvar oyi holatida 1, 7 mln nafar yurtdoshlarimiz mehnat muhojiri sifatida chet elda mehnat qilmoqda3. Demak, rasmiy ma’lumotlarga asoslanib, O’zbekistonning mehnatga layoqatli yoshdagi umumiy aholisining deyarli 8, 5 foizi, doimiy o’rtacha aholining esa deyarli 5, 0 foizini ishlash maqsadida mamlakatni qonuniy tarzda tark etgan deb hisoblashimiz mumkin [5].

Umuman olganda, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi migratsiya jarayonlari SSSR parchalanganidan keyin dunyodagi eng barqaror yo‘laklardan biriga aylandi. 1990 yildan 1992 yilgacha beqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyat tufayli Rossiyaga majburiy migratsiyaning ko'p oqimi kuzatildi. Bu esa 1992 yilda Rossiya Federal Migratsiya Xizmatining tuzilishiga olib keldi va migrantlarning maqomi va huquqlarini qandaydir tarzda belgilaydigan migratsiya qonunchiligining rivojlanishining boshlab berdi5. Shu bilan birga, 1990-yillarda Rossiyada aholi, jumladan, mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi kuzatildi va bu o'z navbatida ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqardi. Markaziy Osiyoda ishsizlik ortib borayotgan bir paytda bu omillar mehnat migratsiyasining kuchayishiga olib keldi.

Rossiya an’anaviy ravishda Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan mehnat muhojirlari uchun asosiy davlat sifatida qaraladi. O‘zbekiston,

Qirg‘iziston, Tojikistonlik ishsizlarning aksariyati Rossiya Federatsiyasiga borib mehnat muhojirlariga aylana boshlashdi. 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab doimiy yashash uchun migrantlarning asosiy oqimi Rossiyaga yo'naltirildi, bu esa 2006 yilda qabul qilingan chet elda yashovchi vatandoshlarning Rossiya Federatsiyasiga ixtiyoriy ravishda ko'chirilishiga yordam berish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilishiga olib keldi [6].

2000 yilda Qozog‘iston Markaziy Osiyo mintaqasidan mehnat muhojirlari uchun jozibador bo’la boshlagan edi. Iqtisodiy o‘sish, yuqori turmush darajasi, vizasiz rejim va geografik yaqinlik ishchilarni qo‘shni Qozog‘istonga ishlash uchun borishga undar edi. 2000-yillarning o‘rtalaridan 2014-yilgacha mehnat migratsiyasi jo‘natuvchi mamlakatlar uchun asosiy daromad manbai sifatida mustahkam o‘rin egalladi. 2014-2016 yillarda iqtisodiy inqiroz fonida Rossiya asosiy mezbon davlat sifatida migrantlarni nazorat qilish choralarini kuchaytirdi, Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan noqonuniy mehnat migrantlarini haydab chiqara boshladi va ma’lum muddatga ularning mamlakatga kirishni taqiqladi. Bu esa 2014-yildan keyin nazorat kuchaytirilgani sababli Rossiyadan kelgan muhojirlarning Qozog‘istonga qaytib kelishi uchun uni tranzit davlatga aylantirdi [7].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'istonda barcha toifadagi 3, 5 mlndan ortiq muhojir istiqomat qiladi. Bu raqamlarga oralmanlarning repatriatsiyasi va shaxsiy sabablarga ko'ra yoki universitet almashinuvi doirasidagi migratsiya, shuningdek mehnat migratsiyasi oqimlari kiradi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda 17, 5 millionlik Qozog'iston aholisining 20 foizini migrantlar tashkil qilgan edi. O’tgan yillar davomida Qozog‘iston postsovet hududida qabul qilingan muhojirlar soni bo‘yicha Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o‘rinda turadi [8].

Markaziy Osiyodan mehnat muhojirlari Qozog‘istonga vizasiz rejim mavjudligi sababli qonuniy yo‘l bilan kelishadi, biroq YeOII a’zosi bo‘lgan Qirg‘izistondan kelgan migrantlardan boshqa davlat fuqarolari noqonuniy – rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan va ishlash uchun ruxsatnomasiz ishlaydilar. Demak, so‘nggi 19 yil ichida Qozog‘istonga eng ko‘p migrantlar O‘zbekistondan kelgan. Keyingi o‘rinlarda Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston turadi.

Xalqaro migratsiya eksperti Yelena Sadovskaya tomonidan 2000-yillarning o‘rtalarida mehnat migratsiyasi avjiga chiqqan paytda o‘tkazgan so‘roviga ko‘ra, Qozog‘istondagi mehnat muhojirlarining 31 foizi do‘stlari va tanishlari orqali, 22 foizi qarindoshlari orqali, 20 foizi

esa o‘zlari orqali ish topgan. Muhojirlarning atigi 5-7 foizi bandlik agentliklari orqali ish topdi. Bu ma’lumotlar Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga mos keladi. Bu o'z-o'zidan paydo bo'lgan qora mehnat bozorlarida faoliyat yurituvchi vositachilar orqali noqonuniy yollash tizimlari ustunlik qilayotganidan dalolat beradi. 2011 yilda Sadovskaya muhojirlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarining ommaviy ravishda buzilishini aniqlagan sotsiologik so'rov ham o'tkazdi. “Ularning 47, 5 foizi ish beruvchilar bilan rasmiy huquqiy maqomga ega bo‘lgan mehnat shartnomasini imzolashdan bosh tortgani, 53 foizi ish haqini kechiktirish bilan olgani, 17, 8 foizi esa umuman olmagani holatlariga duch kelgan. 12, 5 foizi haq to‘lanmaydigan ishlarga majburlangan, 30, 7 foizi pasporti olib qo‘yilgan, 41, 6 foizi ish joyini tark etmagan, 17, 8 foizi esa tibbiy xizmatdan mahrum etilgan”, - deydi Elena Sadovskaya EXHT jurnalidagi o‘zining “Markaziy Osiyodagi mehnat migratsiyasi” maqolasida [9].

Qozog‘istonda muhojirlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarining ommaviy ravishda buzilishi hali ham boshqa tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd etib kelinmoqda. 2016-yildan boshlab Qozog‘istondan mehnat emigratsiyasi ortib bormoqda. Mamlakat aholisining aksariyati Rossiyaga chiqib ketmoqda. Biroq, ekspertlarning ta'kidlashicha, G'arb va Amerika mamlakatlariga sayohat qilayotganlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Yelena Sadovskaya ta’kidlaganidek, Qozog‘istondan mehnat emigratsiyasining o‘sishi migratsiya sabablari kelib chiqqan mamlakatdagi turtki beruvchi va boradigan mamlakatdagi tortuvchi omillarning murakkab kombinatsiyasida ekanligining tasdig‘idir. Qozog‘istonda bular iqtisodiyotdagi inqirozli hodisalar, zavod va fabrikalarning yopilishi, turmush darajasining pasayishi, korrupsiya, qarindosh-urug‘chilik, siyosiy turg‘unlik, o‘zini-o‘zi band qilishning mumkin emasligi. Aynan yangi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, kasbiy imkoniyatlar va istiqbollar G‘arb mamlakatlaridagi fuqarolarimizni o‘ziga tortadi.

G'arbning rivojlangan mamlakatlariga ko'chib o'tishning asosiy sabablari sifatida ular yuqori turmush darajasini, shuningdek, shaxsiy rivojlanish imkoniyatini ko'rsatadi.

Siyosatshunos Marat Shibutovga ko‘ra, Janubiy Koreyada 2016-yilda Qozog‘istondan 3238 nafar noqonuniy muhojir bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilda ularning soni 11561 nafarga yetgan. Yil yakunlariga ko‘ra, bu raqam 120-130 ming kishiga chiqishi mumkin. U AQSh va Janubiy Koreyaga borayotgan mehnat migratsiyasi sonining oshishini viza olish tartibi

yaxshilangani bilan izohlaydi. Masalan, AQSh ularga 10 yilga viza bera boshladilar, Janubiy Koreya esa 30 kunga vizasiz qolish imkonini bera boshladi. Shuningdek, ekspertning fikricha, aholi real daromadlarining pasayishi, yirik va o'rta korxonalarda bandlikning qisqarishi, ijtimoiy ko'tarilishning zaifligi va ish o'rinlarining mamlakat bo'ylab notekis taqsimlanishi bunga qo'shimcha omillar sifatida qaraladi. "Shuning uchun odamlar o'z shahrida eng yaxshi holatda 200 dollar ishlab olishdan ko'ra, noqonuniy muhojir sifatida sayohat qilishadi va qurilish maydonchalarida 1500-2000 dollar ishlab olishadi va hokazo", deydi Shibutov [10].

Katta xarajatlarga qaramay, muhojirlar pulni tejashga muvaffaq bo'layotganini, Qozog'iston sharoitida buni amalga oshirishning iloji yo'qligini ta'kidlashadi. Bu jamg'armalar kvartira sotib olishga va boshqa katta xarajatlarga sarflanadi. Umuman olganda, ikkita strategiya mavjud bo'lib: agar muhojirlar Janubiy Koreyaga pul ishlash uchun borishsa, AQShda qozog'istonliklar pul ishlashdan tashqari, qonuniy qolish imkoniyatini ham qidirishadi.

Mutaxassislarning fikricha, Qozog'istonni yoshlar, o'qimishli, chet tillarini biladigan o'g'il-qizlar tark etmoqda. O'rta yoshlilar yaxshi ish topishsa, oilasi bilan ketishadi. Immigratsiyaga kelganlarning aksariyati oliy ma'lumotli va ish tajribasiga ega mutaxassislardir.

Mustaqillik davrida Qirg'iziston uchun migratsiya eng xarakterli va muhim jarayonlardan biriga aylandi. Qirg'iziston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilda o'tkazilgan uy xo'jaliklari byudjeti va mehnat resurslari bo'yicha integratsiyalashgan tanlama tadqiqotiga ko'ra, 15 yosh va undan katta yoshdagi mehnat muhojirlari soni 263 ming kishini, jumladan, erkaklar – 77 foiz va ayollar – 23 foizni tashkil etdi. Mehnat muhojirlarining asosiy qismi – ya'ni 79 foizi respublikaning qishloq xo'jaligida mehnat qilgan aholisidir.

Qirg'izistonning YeOIIga qo'shilishi tufayli respublika fuqarolari Rossiya Federatsiyasi hududida erkin harakatlanish va ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar, shuning uchun mehnat muhojirlarining eng ko'p qismi Rossiya va Qozog'istonda ishlaydi. Qirg'izistonlik mehnat muhojirlarining aksariyati past malakali bo'lib, og'ir ish joylarida ishlashadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qirg'izlarning 96 foizi Rossiyada, 2 foizi Qozog'istonda, 1 foizi Turkiyada mehnat qiladi va so'nggi yillarda qirg'izlar mehnat migratsiyasi uchun Janubiy Koreyaga ketishni boshlagan [11].

Ekspert Oygul Sadvoqasovaning aytishicha, Qirg'izistondan turli yosh va ta'limga ega bo'lgan ayollar va erkaklar migratsiyaga ketadi. Aytishim kerakki, qirg'izistonlik muhojirlar mezbon mamlakatlarda eng

muvaffaqiyatli moslashadilar va etnik-madaniy birlashmalar oldida ijtimoiy aloqalarga ega bo'lishadi.

Tojikistonda mehnat migratsiyasi 1992 yildan boshlangan. O'sha paytda mamlakatda keskin siyosiy vaziyat hukm surdi - SSSR parchalanishi natijasida mamlakat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin fuqarolar urushi boshlandi. Shuningdek, SSSR parchalanishi bilan ko'plab yirik ishlab chiqarish korxonalari ilgari Ittifoqning boshqa davlatlaridan kelgan xomashyo etishmasligi tufayli inqirozga uchradi. Bularning barchasi ishsizlikka olib keldi va aholining kayfiyatiga ta'sir qildi, bu esa mehnat migratsiyasining kuchayishiga yordam berdi. Tojikistonda mehnat migratsiyasining eng yuqori nuqtasi 2005-2013 yillarda kuzatilgan. Respublikadan tashqi mehnat migratsiyasining asosiy oqimi MDH davlatlariga kuzatildi.

Tojikiston mehnat, migratsiya va aholi bandligi vaziri o'rinbosari Emin Sanginzodaning so'zlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, 2018 yilda Tojikistondan Rossiyaga mehnat muhojirlari oqimi o'tgan yilga nisbatan 1 foizga kamaygan. Oxirgi besh yil ichida Tojikistondan chet elga ishlash uchun ketayotgan muhojirlar oqimi 39, 5 foizga kamaydi9. "2018 yil davomida 484 176 nafar mehnat muhojiri migratsiya kartalari asosida respublikani tark etgan. Ularning 86, 7 foizi erkaklar, 13, 3 foizi ayollardir. Rossiya Federatsiyasiga 463 552 kishi, Qozog'istonga 13 586 kishi ishlash uchun ketgan", — dedi Mehnat vaziri o'rinbosari.

2019 yilga kelib Tojikistondan mehnat muhojirlari soni o'tgan yilga nisbatan 27 foizga oshgan. Shunday qilib, 2019-yilning dastlabki 7 oyida, Sputnik Tojikiston respublika Mehnat vazirligining Migratsiya xizmati ma'lumotlariga tayanib, Tojikistondan 357 mingdan ortiq fuqaro mehnat migratsiyasiga ketgan. Birgina 2019 yilning iyul oyida Tojikistondan 57 mingga yaqin kishi ish izlab chiqib ketgan, bu 2018 yilning shu davriga nisbatan 26, 7 ming kishiga ko'pdir [12].

2018-yilda Tojikistondan ikki mingdan ortiq mehnat muhojiri Xorijda bandlik agentligi orqali Turkiya va Polshaga jo'nab ketgan. 2019-yil boshida 1000 dan ortiq fuqaro Polsha, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus va Qozog'istonga ishlash uchun yuborish uchun ariza topshirgan.

Tashqi mehnat migratsiyasida asosan 17-62 yoshdagi mehnatga layoqatli aholi - erkaklar va 17-57 yoshli ayollar ishtirok etadi. Yosh tarkibiga ko'ra, bular asosan 17-29 yoshli yoshlar - 262, 8 ming kishi yoki jami migrantlarning 39, 2%ini tashkil etadi. Tashqi mehnat migratsiyasi ishsizlarning katta qismini qamrab oladi. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, u aholining iqtisodiy faol qismining 30 dan 40 foizigacha yetadi.

Ekspert Elena Sadovskaya ta’kidlaganidek, Tojikiston mehnat migratsiyasining mamlakat va butun mintaqa hayotida tutgan o‘rni haqida yaqqol misoldir. Avvalo, bu migrantlarning pul o'tkazmalarida ko’rinadi. 10-15 yil oldin ularning hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmiga teng edi. Bugungi kunda birgina Rossiyadan migrantlar jo‘natgan pul o‘tkazmalarining ulushi Tojikiston yalpi ichki mahsulotining 30% dan ortig‘ini, mutlaq hisobda esa qariyb 2, 5 mlrd dollarni tashkil etadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda (2013-2018) mehnat muhojirlari faqat rasmiy shaxslar orqali 15 mlrdni tashkil etib ushbu shu vaqt ichida Tojikistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmidan bir necha baravar ko‘proqdir.

Pul o‘tkazmalari Tojikistondagi ko‘plab oilalarning yashashi uchun asosiy daromad manbayidir. Pul oziq-ovqat, dori-darmon, bolalar ta'limi, uy qurish va ta'mirlash, mebel sotib olish, shuningdek, o'g'il, qiz yoki o'zining to'yiga sarflanadi. Ko'pincha, nafaqat oila, balki qarindoshlar va qo'shnilar ham migrantlardan yordam oladi. Ayrim muhojirlar qaytgandan so’ng o‘z bizneslarini boshlashlari mumkin, chunki ular mamlakatga yangi ko‘nikma va bilimlar bilan qaytishadi. Migrantlar yordamida milliy iqtisodiyot darajasida ham ijobiy holatlar kuzatiladi, xususan ichki iste'mol jonlanadi, mamlakatga kiruvchi valyuta tovarlar importini va boshqa moliyaviy operatsiyalarni ta'minlash uchun ishlatiladi.

O‘zbekiston ham mintaqadagi yirik mehnat muhojirlari donori bo‘lgan davlatdir. Aholining asosiy qismi Rossiya va Qozog‘istonda ishlaydi. Ammo so‘nggi 5 yil ichida mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgara boshladi – AQSH, Turkiya, Qozog‘iston, Saudiya Arabistoni, Isroil, Janubiy Koreya hamda Birlashgan Arab mamlakatlariga ishchi kuchi oqimining barqaror o‘sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, Qozog‘istonga 5 yil ichida migrantlar soni 10 barobarga oshgan va 355 540 kishini tashkil qilgan. 2018 yilda Turkiyada 34 399 kishi, BAAda 4 578 kishi ishlagan bo’lsa, Rossiyaga mehnat migratsiyasi 2018 yil davomida 944 328 dan 852 008 ga kamaydi. Mutaxassislarning fikricha, bu 2014-yilda Rossiya rublining qadrsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, buning natijasida mehnat muhojirlarining dollar hisobidagi daromadlari ikki barobar qisqardi.

Ko'pincha o'rta ma'lumotli yosh va o'rta yoshli erkaklar ishlash uchun O'zbekistondan chiqib ketishadi. Ularning maqsadi pul topish va uyga jo'natishdir. “Yigitlar ota-onasiga yordam berish, turmush qurish uchun pul topishga boradi. Ular odatda uyda turmush qurishadi, keyin esa ishga

qaytishadi. Qozog‘iston bilan chegaradosh viloyatlarda ular xotini bilan kelishlari mumkin, bolalar O‘zbekistonda ota-onalari bilan qolishadi”, - deydi Sadvoqasova.

Shuningdek, mutaxassisning so‘zlariga ko‘ra, chegara hududlariga yosh va o‘rta yoshli ayollar ham kundalik yumush bilan kelishadi. Ular uy-joy izlashlari shart emas, uzoq vaqt qolishmaydi. Qozog‘iston va O‘zbekiston chegaralari ochilishi bilan bu, ayniqsa, yozda kundalik amaliyotga aylanib qoldi.

XULOSA

Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyoda, ayniqsa Rossiya va Qozog‘istonda mehnat migratsiyasi siyosiy muammo sifatida qaralmoqda. Migrantlar ijtimoiy-iqtisodiy muhitga, keyin esa siyosiy muhitga bosim o'tkazishi mumkin, deb ishoniladi. Ammo shu bilan birga, iqtisodiy nochorlik tufayli davlat ko'tara olmagan yukni migrantlar o'z oilalari uchun o'zlari hal qiladilar. Pul o‘tkazmalari aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, ommaviy migratsiya esa milliy mehnat bozoridagi keskinlikni pasaytiradi va aholining muhim guruhlari farovonligini oshiradi.

Bizning nazarimizda, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun O‘zbekiston “Bandlik va mehnat munosabatlari” vazirligining bevosita boshchiligida ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar, yirik kompaniyalar buyurtmalariga muvofiq yollanma, malakali ishchi va mutaxassislarni tayyorlash mexanizmini takomillashtirish lozim.

Bunda kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega iqtidorli yoshlar tanlov asosida saralab olinadi, muayyan davr davomida ularga borib ishlashi lozim bo‘lgan mamlakatning tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari o‘rgatiladi, tanlangan ish, kasb, hunar bo‘yicha zaruriy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladiki, toki migrant o‘zi tashrif buyurgan mamlakat yoki korxona talablari darajasida vazifalarni bajara oladigan tayyorgarlikka ega bo‘lsin. Bu esa so’nggi yillarda ko’plab salbiy oqibatlarga olib kelgan xususiy bandlik agentliklarida (XBA) kuzatilgan firibgarlikdan holi davlat tomonidan kafolatlangan fuksiyasi kengaytirilgan tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ko’rinishida bo’lishi lozim. Ishchi kuchi eksportini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yilishi respublikaga juda katta manfaat keltiradi:

Birinchidan, ishchi kuchi eksportidan keladigan daromad miqdori keskin oshadi;

Ikinchidan, yoshlarda malakali ishchi yoki malakali mutaxassis bo‘lishga, ya’ni yaxshi o‘qishga qiziqishi ortadi;

Uchinchidan, yoshlarda xirijiy tillarni o‘rganishga moyillik va tajriba ortadi;

To‘rtinchidan, xorijda malakali ishlarni bajargan yoshlarimiz, o‘z yurtiga qaytganda, milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi taklif. Mamlakatda ishsizlik muammosini hal etish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarni munosib ish haqi bilan ta’minlash bevosita iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bog‘liq. Shu sababli davlat arboblari, mas’uliyatli lavozimlardagi amaldor shaxslar, partiya rahnomalari, profesor-o‘qituvchilar va olimlarning maoshlarini mamlakatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan uyg‘unlikda oshirib borish tartibini joriy etish. Sababi, mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, milliy iqtisodning o‘sish sur’atlari, qolaversa, tirikchilik o‘tkazish, oilani tebratish ilinjida o‘zini o‘z Vatanida oila va ota-onasi bag‘rida yashab, ishlab yurish baxtidan mahrum qilgan, begona yurtlarda ne-ne mashaqqatlar bilan halol mehnat qilib, barcha kamsitish va kezi kelganda haqoratlarga matonat bilan bardosh berib, daromad topayotgan mehnat migrantlariga emas, aynan nomlari yuqorida zikr etilgan toifadagi mutasaddi shaxslarning hatti-harakati va mas’uliyatiga bog‘liq.

Uchinchi taklif. “Ish haqi minimumi” va “Yashash minimumi” to‘g‘risida qonunlarni qabul qilish va amaliyotga joriy etish. Ushbu chora mamlakatda yaratilgan va bozor subyektlari orasida taqsimlanishi loim bo‘lgan milliy daromadda yollanma ishchilarning ulushini adolat yuzasidan oqilona darajada ko‘tarish orqali nafaqat mehnat migratsiyasini xohish qiluvchilar sonini qisqartirish, balki mamlakatda boshlangan kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasini amalga oshirishning ham muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchi taklif. Barcha tumanlarda dastlab 1 ta, keyinchalik 2-3 tagacha qishloq xo‘jaligi sohasida yirik-yirik davlat xo‘jaliklarini tashkil etish. Yaqinda saytda e’lon qilingan Kun. uz muxbirlarining intervyusida ishtirok etgan yigit aqalli 0, 5 ga yer maydoni bo‘lsa, O‘zbekistonga qaytishga tayyor ekanligini, hattoki yerga nima ekib, qanday daromad olishni ham yaxshi bilishini ma’lum qilgan. Lekin yerni bunday taqsimlab berish yer resurslaridan unumli foydalanish tamoyillariga mos kelmaydi. Biroq mingta, ikki mingta ehtiyojmandlarga ajratiladigan yer maydonlarini birlashtirib, 500 ga yoki 1000 ga yer maydonida yirik xo‘jalik tashkil etilib, barcha yerga talabgorlarni yerda ishlashga jalb etilsa, unda ko‘lam samarasi evaziga katta daromad olish mumkin. Bunday yirik xo‘jaliklarni tashkil etish dastlab kambag‘allikka qarshi kurash uchun nazarda tutilgan davlat resurslarini jalb etish hisobidan

amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, xo‘jalik investitsion faoliyatiga yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantiruvchi va undan bank foiz stavkalaridan yuqori daromad olishni ta’minlovchi samarali mexanizmlar tizimi yaratilishi va amaliyotga joriy etilmog‘i lozim. Xo‘jalik faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish uchun unga konkurs asosida eng kuchli, iste’dodli rahbarlarni va soha mutaxassislarini jalb etish lozim. O‘ylaymizki, biz tasavvur qilgan shakldagi davlat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etishning, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta’imnlashning haqiqiy andozasiga, qolaversa, agrar sohada ulkan monopol mavqega ega bo‘lgan O‘zbekistonning ushbu sohadagi bepoyon imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, joiz bo‘lsa butun jahonga yoyishning samarali markazlariga aylantirilishi qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda ham, bandlik va qashshoqlik muammolarini hal etishda ham juda katta natijalar beradi. Yirik davlat xo‘jaliklaridan qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or va innovatsion agrotexnik usullardan foydalanish, fan yutuqlarini keng tatbiq etish va yuqori natija olishning eksperimental bazasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ularni tuman hududidagi fermer xo‘jaliklariga amaliy yordam ko‘rsatish, ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash, ularni innovatsion asosda rivojlantirishning lokomativlariga aylantirish lozim. Tuman hududida ishlab chiqarilgan xom ashyoni sanoat miqyosida qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish, talaygina qismi nes-nobud bo‘layotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, ularni tashqi bozorlarga eksport qilishni tashkil etishdek bugungi kunning dolzarb muammolarini hal etish davlat xo‘jaliklari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlariga aylanmog‘i lozim.

Beshinchi taklif. O‘zbekistonda ta’lim sifatini tubdan radikal darajada ko‘tarish. Milliy iqtisodiyotda katta resurslar sarfi va xalqimizning mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan tovar va xizmatlprning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun ular, birinchidan, sifati yuqori, ikkinchidan esa, narxi arzon bo‘lishi kerak (Xitoy tajribasi). Sifati yuqori, lekin narxi arzon raqobatbardosh mahsulotni faqat sifatli mehnat bilan yaratish mumkin. Sifatsiz mehnat bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish to‘g‘risida o‘ylash – bulutsiz musaffo osmondan yomg‘ir yog‘ishiga umidvor bo‘lishdek ma’nosiz. Qadimdan bizga meros qolgan naqlda “Shayxda hunar bo‘lmasa machit ham torlik qiladi”deyilgan. Qimmatbaho resurslardan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, demak, mamlakatda ko‘plab yangi ish o‘rinlari barpo etish, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning eng samarali yo‘li – xalqimizning hunarini oshirish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarinng malakasini, bilim saviyasini, kreativ qobiliyatini rivojlantirishdir. Xalqimizda bunday

noyob fazilatlarni shakllantarishda ta’limning roli benihoya katta. To‘g‘ri, keyingi yillarda davlatimiz rahbari, O‘zbekiston hukumati ta’limni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta’lim sohasida ko‘proq miqdor o‘zgarishlar sifatida natija bermoqda. O‘zbekiston ravnaqi uchun aynan sifat o‘zgarishlar juda muhim. Mazkur mavzu doirasida ta’limning barcha murakkab muammolarini yoritish imkoni mavjud emas. Lekin, lo‘nda qilib ifodalaganda, mamlakatda ta’limnng shunday modeli yaratilishi kerakki, u butun xalqning asosiy diqqat-e’tiborini ta’limga, butun kuch-g‘ayratini uni tubdan yaxshilashga yo‘naltirsin. Nazarimizda, bu noyob model xalqimizning qonida azal-azaldan mustahkam joylashgan, buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan yashirin imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga va uni mamlakatimizni nafaqat mehnat migratsiyasi illatlaridan xolos etishga, balki jonajon O‘zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmog‘i lozim. Sifatli ta’lim O‘zbekistonni katta taraqqiyotning ravon yo‘liga olib chiqishning eng kam xarajat va eng qisqa yo‘lidir.

REFERENCES

1. https://parliament. gov. uz/uz/events/committee/34644/

Алимов Сардор Комил ўғли. Аҳоли миграцияси ижтимоий-ахлоқий муҳит трансформацияси омили сифатида. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2022.

Министерство Внутренних Дел Российской Федерации. Отдельные показатели миграционной ситуации в Российской Федерации за январь-декабрь 2017 года с распределением по странам и регионам.

5. The number of international migrants reaches 272 million, continuing an upward trend in all world regions. UN. org. https://www. un. org/development/desa/en/news/population/international-migrant-stock-2019. html

Статистика трудовой миграции в Кыргызской Республике. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики.

За пять лет поток мигрантов из Таджикистана за рубеж снизился на

В Таджикистане трудовая миграция выросла на треть. Sputniknews. ru. https://tj. sputniknews. ru/migration/20190910/1029833969/Tajikistan-trudovaya-migratsiya-vyrosla. html

Мигранты отправляют в Таджикистан гораздо больше денег, чем поступающие в страну иностранные инвестиции. Avesta. http://avesta. tj/2019/12/27/migranty-otpravlyayut-v-tadzhikistan-gorazdo-bolshe-deneg-chem-postupayushhie-v-stranu-inostrannye-investitsii/

Особенности процессов трудовой миграции в Центральной Азии (на примере Республики Узбекистан и Республики Казахстан). Cyberleninka. ru. https://cyberleninka. ru/article/n/osobennosti-protsessov-trudovoy-migratsii-v-tsentralnoy-azii-na-primere-respubliki-uzbekistan-i-respubliki-kazahstan

Мигранты отправляют в Таджикистан гораздо больше денег, чем поступающие в страну иностранные инвестиции

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

dotsent Jumanova Fotima Uralovna

zumanovafatima@gmail. com

Annotatsiya

Oliy ta’limda innovatsion ta’limning o‘ziga xos xususiyati oliy o‘quv yurtlarida o‘zlashtirilgan bilimlarning funksiyalari va ularni egallashni tashkil etish usullarining o‘zgarishiga bog‘liq. Bu jarayon odatiy yodlash, takrorlash xususiyatiga ega emas, ijodiy jarayon sifatida turli ta’lim-tadqiqot tadbirlarida tashkil etiladi. Ta'lim jarayonining asosi - bilim va o'zlashtirish usullarini o'zlashtirish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish. Oliy pedagogik ta’limdagi islohotlar va uni modernizatsiya qilish dars jarayonida talabalardan tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlashni talab qiladi. Oliy pedagogik ta’limdagi dars pedagogik ijodning asosiy sohasi hisoblanadi. O'qituvchining asosiy pedagogik ehtiyoji - o'qitish, etkazish - dars jarayonida amalga oshiriladi.

Shuning uchun dars yangicha yondashuvni, oliy pedagogik ta’limni tashkil etishda yangicha yondashuvni talab qiladi. Standartlashtirilgan darslar jarayonida o‘qituvchi oldida muhim masala, ya’ni o‘quvchilarni ilg‘or zamonaviy bilimlarga jalb etish, ularni innovatsion ta’lim sari olg‘a siljitish masalasi turibdi. Bu o'qituvchi va talabalarni birgalikda ishlashga jalb qiladi. Buning uchun talabalarni o'qitishga majburlamaslik kerak.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, innovatsion ta’lim, odatiy yodlash, takrorlash, ijodiy jarayon, bilim, o'zlashtirish, ta’limdagi islohotlar, modernizatsiya qilish, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, pedagogik ehtiyoji, o'qitish, yetkazish, standartlashtirilgan darslar.

PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Abstract

The unique feature of innovative education in higher education depends on the changes in the functions of the acquired knowledge in higher education and the methods of organizing their acquisition. This process does not have the usual memorization, repetition, and is organized in various educational research activities as a creative process. The basis of the educational process is the acquisition of knowledge and methods of assimilation, development of students' abilities. Reforms in higher pedagogical education and its modernization require initiative, creative thinking, and independent thinking from students during classes. The lesson in higher pedagogical education is the main field of pedagogical creativity. The main pedagogical need of the teacher - teaching, delivery - is realized during the lesson.

Therefore, the lesson requires an innovative approach, a new approach to the organization of higher pedagogical education. In the process of standardized lessons, the teacher faces an important issue, that is, to attract students to advanced modern knowledge, to move them forward towards innovative education. This will attract teachers and students to work together. For this, it requires that students not be forced into teaching.

Key words: The unique feature, innovative education, memorization, repetition, educational process, pedagogical education, modernization require, initiative, creative thinking, higher pedagogical education, pedagogical need, teaching, delivery, standardized lessons.

Kirish

Dunyoni idrok etish va talqin etishning yangi usullari, madaniy, ijtimoiy jarayonlaring tez o‘zgaruvchanligi, texnologiya, raqamlashtirish, hayotning ko‘plab sohalarini robotlashtirish, zamonaviy ijtimoiy sharoit va o‘zgarishlar ta’lim tizimi oldiga yangi paradigmalarni joriy qilish, zamonaviy ta’lim tendensiyalariga mos ravishda ta’lim sifatini takomillashtirib borishni taqazo etadi. Kattalar ta’limining rivojlanishiga YuNESKOning ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiyasi tomonidan hayot davomida uzluksiz ta’lim olishning asosiy tamoyillarini ya’ni, “anglashni o‘rganing”, “amalga oshirishni o‘rganing”, “birgalikda yashashni o‘rganing”, “yashashni o‘rganing” kiritilishi asos bo‘ldi. Bunda, yangi ta’lim dasturlarini yaratishga, ta’lim sifatini ta’minlashda yangicha

yondashuvlarga, ta'lim-tarbiyaning yangi shakllarini joriy qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini va paradigmasini, hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan konsepsiyasini o'zgartirish zaruriyati tug'ildi. Shu bois, YUNESKO tomonidan ta'lim xizmatlarini tashkil etishning turli darajalarini aks ettiruvchi rasmiy, norasmiy va informal ta'lim shakllarin kiritildi. Endilikda hayot davomida uzluksiz ta'lim olishda individual ta'lim olish traektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish ta'limning jozibadorligini ta'minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta'limning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi.

Metodologiya

Jahon miqyosdagi ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablardan biri XXI-asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta'lim tranformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko'nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo'lsa, XXI-asr pedagogi uzluksiz ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Finlyandiyada Kattalar Ta'limi Tashkiloti (FAEA), Fransiyada "tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash" ("Validation des Aquis de l'Expérience" (VAE) tushunchasining kiritilishi natijasida norasmiy va informal ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi.

Mamlakatimizda yangi professional ta'lim uchun pedagoglarni tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish, ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish masalalarga e'tibor qaratildi [5]. Shu nuqtai nazardan professional ta'lim pedagog kadrlarni kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirishda rasmiy, norasmiy ta'lim shakllarini qo'llashning didaktik imkoniyatlarini va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Globallashgan dunyo "yangi bilim va kompetensiyalar davri"ga qadam qo'ydi, buning natijasida jamiyat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Kompetensiyalarga asoslangan iqtisodiyot va jamiyatga muvaffaqiyatli o'tish mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi uchun

katta ahamiyatga ega bo‘lgan “hayot davomida ta’lim olish” bilan bevosita

Bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta’limi rivojlanishi yoki uzluksiz ta’lim olish XXI-asrdagi tezkorlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarin egallashi, ta’limni raqamlashtirilishi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oqibati bilan bog‘liq.

Katta yoshlilar ta’limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligining ongli o‘ziga xos differansial yondashuv, andragogik tamoyillar, zaruriy

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagiPF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni respublikada kasb-hunar ta’limini modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Farmonda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etish vazifasi belgilab berildi [2]. Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirish esa professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuvlar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishga bo‘lganehtiyojini oshishi tabiiydir. Bu jarayonda kasbiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va paradigmalarini o‘rganish, malaka oshirishning muqobil shakllarni joriy qilishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish, to‘ldiruvchi va qo‘shimcha ta’limga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan ehtiyojga asoslangan kurslarni, qisqa muddatli kurslarni ishlab chiqish metodikalarinio‘rganish nihoyatda zarur.

Ma’lumki, pedagogik tadqiqotning metodologiyasini ishlab chiqish pedagogik hodisa va jarayonlarning tadqiqot ob’ekti sifatidagi

Uzluksiz ta’lim olish to‘g‘risidagi ilk g‘oyalarni faylasuf olimlar Suqrot,

“beshikdan to qabrgacha ilm izla” degan xadisda ham hayot davomida ta’lim olish mazmuni aks ettirilgan. Uzluksiz ta’lim g‘oyasining paydo bo‘lishi o‘z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida,

Ta’lim tarbiya berish, umr davomida ta’lim olish masalalarining uzoq tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy asarlarida ham aks etgan.

Abu Nasr al Farobiy “Namunali ta’lim” risolasida ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o‘zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi ilgari e’tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi”.

Farobiy “Baxt – saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim [6].

Mahmud Qoshg‘ariy, o‘zining “Devonu lug‘otit turk” (“turkiy so‘zlar to‘plami”) nomli asarida “Ilmli Aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o‘rganib, amalga oshir”, – deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi, ilm va hunar sohiblarini e’zozlaydi, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Abu Rayhon Beruniy o‘quv jarayonida pedagog quyidagi didaktika prinsiplariga qat’iy amal qilishi lozimligini ta’kidlaydi:

ta’lim oluvchini zeriktirmasligi;

bilim berishda turlilikka asoslanishi;

uzviylikka, tizimlilikka, izchillikka va mantiqiylikka rioya qilishi;

yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etishi va h. k. bn Sinoning ilmiy bilimlarni egallash usullari va yo‘llari, ta’lim oluvchilarni sinf-dars shaklida o‘qitish haqidagi didaktik prinsiplari muhim ahamiyatga egadir:

– ta’lim oluvchini bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;

– o‘qitishda jamoa (sinf) bo‘lib o‘qitishga e’tibor berish;

– bilim berishda ilm o‘rganuvchilarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

– o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish va h. k. [6].

Tadqiqot ishi doirasida zamonaviy ta’limda professional ta’lim pedagogining uzluksiz ta’lim olish imkoniyatlarini tahlil qilish va uzluksiz ta’lim olish paradigmalarini o‘rganishni birinchi darajali vazifa sifatida belgilab oldik.

kreativ mahsulot yaratishga bo‘lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini

menejment asoschilaridan biri Piter Ferdinand Druker asarlarida keltirilgan “bilimga asoslangan jamiyat” (knowledge-based society)

2015-yil dekabrda e’lon qilingan “XXI-asrda kattalarni o‘qitish manifesti” da Kattalarni o‘qitish Yevropa assotsiatsiyasi uzluksiz ta’limni barqaror rivojlanishning hamda Yevropa hozirgi davrda to‘qnashayotgan muammolarga, ular ichida eng kuchlisi bo‘lgan migrantlar oqimiga muvaffaqiyatli qarshi turishning asosiy vositasi deb hisoblaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta’lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari: “uzluksiz ta’lim-butun hayot davomida egallaydigan ta’lim”, “uzluksiz ta’lim – kattalar uchun ta’lim”, “uzluksiz ta’lim – bu uzluksiz kasbiy ta’lim” kabi iboralar qo‘llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta’lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida “davom etuvchi ta’lim”, “hayot davomida o‘qish”, “doimiy o‘qish” iboralari keng qo‘llaniladi.

Butun umr davomida o‘qish va kattalar uchun ta’lim “2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturi”ga ilk bor maqsad sifatida kiritildi (“Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development”) [4]. Kattalar ta’limi Yevropa assotsiatsiyasi esa 2017 yilni

“Ta’limning kuchi va undan mamnun bo‘lish” shiori ostida Yevropada kattalar ta’limi yili deb e’lon qildi.

Uzluksiz ta’limni xalqaro darajada o‘rganishning ustuvorliklari o‘z ichiga ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlovchi uzluksiz professional ta’lim, qo‘shimcha ta’lim, kattalar ta’limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta’limini va iqtisodiy modellarni qamraydi [6].

Ta’limdagi keskin o‘zgarishlar ta’lim paradigmalarini ham o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy pedagogikaning nazariy-konseptual asoslariga inson va uning ta’lim-tarbiyasiga oid falsafiy, sotsiologik, ontologik Taklif etilayotgan paradigmatik tizimlar nafaqat pedagogik hodisalarni o‘rganish uchun konseptual modellarni ishlab chiqish, balki ular asosida zamonaviy ta’lim modellarini loyihalashga imkon berdi.

Pedagogika faniga oid lug‘atlarda paradigma va paradigmal, ilmiy metodologik ko‘rsatmalar to‘plami sifatida talqin qilinadi [2].

N. A. Savotinaning tadqiqotlarida paradigmial yondashuv muayyan tarixiy davrda bilimlar tarmog‘idan qat’iy nazar, darsliklarda, ilmiy ishlarda qayd etilgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy dunyoqarashning boshqa kategoriyalariga nisbatan eng yuqori darajadagi muammolarni yechish uchun namuna sifatida qabul qilingan yetakchi nazariya sifatida e’tirof etiladi [3].

Pedagogikada paradigmallik haqiqatan ham ilmiy masalani tadqiq etishning pragmatik modelini yaratadi: “Pedagogikaga oid tadqiqotlarning universal tamoyil va yondashuvlarga yo‘naltirilganligini ta’minlaydigan, xususiy nazariyalarga nisbatan uslubiy-metodologik funksiyani bajaradigan umumiy ijtimoiyilmiy nazariyalarning manbasi sifatida ilmiy ishlarning uslubiy ta’minoti tarkibiga kiritilishining maqsadga muvofiqligi uzoq vaqtdan beri isbotlangan” [5].

N. A. Muslimovning ta’kidlashicha zamonaviy pedagogika fanining asosiy muammosi – mavjud ta’lim paradigmasining ob’ektiv asoslari va ularning rivojini ta’minlovchi qonuniyat mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

Mazkur o‘rinda, insoniyatning yangi bilimlar hamda fikrlashmezonlariga tayanuvchi yangi paradigmani yaratish zaruriyati namoyon bo‘lib, u mazmun, metod, tashkiliy mezonlari hamda kadrlar ta’minoti kabi jihatlarni keng ko‘lamda aks ettiruvchi ta’lim muammolarini alohida dolzarb masala sifatida oldingi o‘ringa olib chiqishini ko‘rsatadi [3; 20-b.]

I. Ilinskiy ta’lim-tarbiya muhitidagi paradigmal jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlari bilan uzviy bog‘liqligini, “yangi texnologiyalar xodimga nafaqat bilim, ko‘nikma, balki uning ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlari (tashabbuskorlik, tadbirkorlik) jihatidan yangi talablar qo‘yishini” ta’kidlaydi [6].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ta’lim paradigmalarini o‘zgaruvchanligi bo‘yicha tahlillardan xulosa qilish mumkinki xozirda pedagog-kadrlarda nafaqat kasbiy bilimlarni balki, kasbiy-funksionalfaoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish lozim. Qobiliyatlar bevosita kasbiy kompetensiyalar va shaxsning ijodiy o‘ziga xosligiga bog‘liq bo‘ladi. Kasbiy faoliyatda shaxsning umumiy va maxsus olgan ta’limi amaliyotda olgan bilimlari, ko‘nikmalari va kompetensiyasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Shaxsning professional xususiyatlari shundayligicha qobiliyat deb hisoblanmaydi, lekin ular uning mazmuni va tuzilishining ajralmas qismidir. Erishilgan natijalarning yengilligi, tezligi va yuqoriligi, bilimlar, ko‘nikmalar va mahorat kabi individual sifatlari birgalikda qobiliyatning amaldagi xarakteristikasi bo‘lib hisoblanadi (bu ayniqsa, raqobatbardosh mutaxassis uchun muhimdir).

Uzluksiz ta’lim olish davlat uchun har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta’minlash borasidagi uzluksiz ta’lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta’lim xalqaro hamkorlik asosida milliy o‘zaro boyitish usuli hisoblanadi. Bu, eng avvalo, bilimlarni egallashni

YUNESKOning “Ta’lim – yashirin xazina” (“Learning: The Treasure Within”) deb nomlangan 21 asr uchun ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiyasining ma’ruzasida ilmiy taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllari butun hayot davomida o‘qishni talab etayotgani alohida ta’kidlanadi [5].

A. A. Alimovning fikriga ko‘ra, ta’lim tizimiga zamonaviy talablar – ta’lim oluvchini ijodiy faoliyatga, nostandart tafakkur qilishga, o‘z ijodiy salohiyatini namoyon qilishga va rivojlantirishga qodir bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashdir. Shuning uchun hozirgi zamon ta’limining vazifalaridan biri – shaxsning imkoniyatlarini maksimal darajada ochish va uni o‘stirishdan iborat [2; 44-b.].

O‘rganilgan tahlillarga ko‘ra aytish mumkinki, O‘zbekistonda katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish darajasi boshqa mamlakatlar

bilan qiyoslaganda juda past. Zero, davlatning rivojlanishi, iqtisodiy jihatdan o‘sishi bevosita ta’lim tizimining holatiga, shu jumladan katta yoshdagilarga ta’lim berishning qay darajada tizimlashtirilganligigabog‘liq.

Natijalar. Prezident Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlaganidek, **O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Ushbu muhim jarayonda esa, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish mamlakatimiz taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynashi kerak.** Bu, ayniqsa, yangi, ilg‘or axborot texnologiyalariga asoslangan raqamli bilimlarni o‘zlashtirish, zamonaviy kasblarni puxta egallashda yaqqol namoyon bo‘lishi kerak [6]. Shu bois, bugungi kun talablariga javob berish uchun professional ta’lim pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish ta’lim tizimida yuz berayotgan muammo va jarayonlarga mos bo‘lgan, asoslangan va yetarli darajada ishonchli bo‘lgan metodologik bazani tanlash; malaka oshirish tizimining muammolari va ziddiyatlarini ta’lim tizimi rivojlanishining asosiy g‘oyalari va tamoyillariga tayangan holda aniq metodologik pozitsiyalarda turib ko‘rib chiqish; malaka oshirish tizimining asosiy konseptual rivojlanishi yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish usullarini belgilash; malaka oshirishda to‘ldiruvchi ta’lim va qo‘shimcha ta’lim dasturlarni ishlab chiqish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish asosida takomillashtirilmog‘i lozim.

Shaxsiy tajribalarimiz, adabiyotlar tahlili, tajribali pedagoglar va professor-o‘qituvchilar bilan o‘tkazgan suhbatlarimiz natijalariga ko‘ra, oxirgi yillarda professional ta’lim muassasalari boshqaruv xodimlari, o‘qituvchilar, pedagoglar, o‘quv ustalarilarning kattagina qismi yaxshi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasligi, ularning bilim va kasbiy kompetensiyasi pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, professional ta’lim muassasalarida malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog‘lanmagan. Professional ta’limda malaka oshirish kurslarining amaldagi holatini tahlili bizga quyidagicha xulosa chiqarishimizga imkon beradi:

malaka oshirish kurslari ehtiyojga asoslanmay, balki majburiy rejaga binoan tashkil etilib amalga oshirildi, mustaqil, muqobil kabi malaka oshirish shakllarini amalda qo‘llash mexanizmini (malaka oshirish

platformalari, ochiq ta’lim platformalari, ehtiyojga asoslangan kurslar, intensiv kurslar) ishlab chiqilmaganligi;

o‘quv rejalarni modulli ta’lim tamoyillariga rioya etmasdan tuzilishi;

modullar o‘rtasida uzviylik va aloqadorlikni yo‘qligi;

modullarda bitta mazmunni qayta-qayta takrorlanishi;

o‘quv rejalariga kiritilgan modullarning umumiy xarakterga egaligi. Pedagoglarning kasbiy standarti talablarini e’tiborga olinmasligi;

modullar shaklida o‘rganilayotgan materiallarning yaxlit tizim shaklida bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga imkon bermasligi;

malaka oshirish ta’limiga oid xorijiy pedagogik tajribalardan, yangi pedagogik paradigmalardan yetarli darajada foydalanilmaslik;

malaka oshirish kurslarida ta’lim berayotgan andragog kadrlarning kasbiy mahoratini talab darajasida emasligi;

malaka oshirish kurslarida ishlayotgan professor-o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda xorijiy davlatlarga stajirovkalarni tashkil etilmaganligi, ularning malakasini oshirishining tizimli yo‘lga qo‘ymaganligi;

malaka oshirish jarayonida baholash (yaxlit) tizimining aniq mezonlari va ko‘rsatkichlarini mavjud emasligi.

Malaka oshirish ta’limini mustaqil ilmiy va amaliy sohasi sifatidagi shakllanishi va rivojlanishi bilan pedagog kadrlar malakasini oshirish xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan sezilarli ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Professional ta’lim pedagoglarining “Hayot davomida ta’lim olish”ida o‘qitishning turli xil – masofaviy o‘qitish, onlayn-o‘qitish, an’anaviy uzluksiz o‘qitish, kechki va sirtqi kurslar shakllarida amalga oshirish mumkin. Uzluksiz kasbiy ta’lim shakllariga masofaviy o‘qitishning turli shakllarini oluvchi, mustaqil va ijodiy yondashuvlarga asoslanadigan o‘qitishning faol-ijodiy metodlari kiritiladi. “Hayot davomida o‘qitish” shakllaridan biriga biz har bir kishining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda ishga joylashishi uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat va kompetensiyalarni takomillashtirish maqsadlarida doimiy asosda amalga oshiriladigan, maqsadga qaratilgan o‘qitishni ko‘zda tutuvchi mustaqil ta’lim olishni kiritamiz.

Har qanday ilmiy soha sifatida, kasbiy pedagogika yig‘ilgan amaliy tajribalar ilmiy xulosalashni talab qilganda o‘zining tarixida

rivojlanishning empirik holatidan nazariy bosqichga bir necha bor o‘tadi. Bunda nafaqat bevosita amaliy faoliyatdagi obektlar, balki fanning o‘zining bevosita rivojlanish jarayonidagi aniqlangan yangi ob’ektlar ham ko‘pchilik hollarda ular amalda qo‘llanilishidan ancha oldinroq o‘rganiladi.

Uzluksiz pedagogik ta’lim – pedagogik ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasini amalga oshirishning yetakchi vositalaridan biri, pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi uzluksizligini ta’minlash uchun sharoitlar tizimi bo‘lib, aynan, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik va malaka oshirishnig barcha pog‘onalarining uzviyligi; formal va noformal kasbiy-pedagogik mustaqil ta’limning birligi; umumiy (umummadaniy, umumrivojlantiruvchi) va kasbiy-pedagogik ta’limning birligi; pedagogik ta’lim tizimi barcha elementlarining o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga mos ravishda uzluksiz yangilanishidan iborat.

Uzluksiz ta’lim olishning konseptual prinsiplari ta’lim tizimlari maqsadlari uzviyligi, o‘qitish mazmuni, tashkiliy tuzilmalari va pedagogik texnologiyalarini aniqlaydi. Boshqacha qilib aytganda, uzluksiz ta’lim olish, hayt davomida ta’lim olish nazariyasi zamonaviy ta’lim metodologiyasi sifatida shakllanadi.

Uzluksiz ta’lim olish nazariyasining konseptual holatlaridan farqli o‘laroq, kattalar ta’limi nazariyasi va amaliyoti asosida katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi: katta yoshdagi odam ehtiyoj sezmaguncha o‘qimaydi, u faqat o‘z fikriga ko‘ra zarur bo‘lgan narsalarni o‘rganadi va ish jarayonida o‘qiydi. Boshqacha qilib aytganda yoshi katta odam ta’lim jarayonida, aniqrog‘i bu jarayonning barcha parametrlari: maqsadlar, mazmun va o‘qitishning tashkiliy shakllarini aniqlashda yetakchi rol o‘ynashga tayyor.

Xulosa. Uzluksiz ta’lim olish an’anaviy o‘qitish ta’lim tizimidan bir qator farqli jihatlarga egadir.

Birinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish shaxsning butun umri mobaynida yaxlit rivojlanishiga, tezda o‘zgaruvchan dunyoda mos mehnatga va ijtimoiy turmushga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratiladi, an’anaviy ta’limda esa kishi ta’lim tizimining dasturiy elementi sifatida olib qaraladi.

Ikkinchidan, uzluksiz ta’lim olish butun jamiyatning, kasbiy, shaxsiy ko‘nikma va sifatlarining hamda amaliyotdagi boshqa sohalarning rivojlanish xususiyatini belgilaydi. Uzluksiz ta’lim olish umumiy va kasbiy ta’limning izchilligini va ko‘p variantliligini ham ko‘zda tutadi.

Uchinchidan, uzluksiz ta’lim olish bilim, ko‘nikma va malakalar va kompetensiyalarni mustaqil egallash, ularni izlab topish va kashf etish, mustaqil ta’lim olish usullari orqali shakllanadi.

To‘rtinchidan, uzluksiz ta’limda o‘qitish har bir ta’lim oluvchining o‘zi mavzularni yakka holda o‘zlashtiradigan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida quriladi [7].

Shunday qilib, Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillarini asosiy nazariy yondashuvlar, tamoyillar, metodlar, modellar, texnologiyalar jamlanmasi sifatida olib qarash bilan biz shuni aniqladikki, bunga ko‘ra uzluksiz ta’lim olish bir tomondan, ta’lim va tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarining birligini, ikkinchi tomondan esa, kasbiy va shaxsiy rivojlanishning birligini ta’minlab, uning asosida “shaxs hayot faoliyatining oliy shakliga – o‘zini-o‘zi ijodiy yuzaga chiqarishiga olib keluvchi shaxsning o‘z hayot faoliyatini amaliy qayta o‘zgartirish predmetiga qodir bo‘lgan o‘zini-o‘zi rivojlantirish tamoyili yotadi” .

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanova, F. U. (2022). Yangi O‘zbekistonda umumta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarish. Архив научных исследований, 2(1).

2. Sayupova, A. M., & Jumanova, F. U. (2022). Early diagnostic analysis of creativeness ability of school-aged children. international conference on learning and teaching, 1(4), 296-299.

3. Uralovna, J. F., & Fayzullaevich, R. J. (2021, March). FORMATION OF STUDENTS SCIENTIFIC THINKING IN THE LESSON PROCESS. In The 6th International scientific and practical conference “Science and education: problems, prospects and innovations”(March 3-5, 2021) CPN Publishing Group, Kyoto, Japan. 2021. 643 p. (p. 37).

4. Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, *1*(8), 322-326.

5. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *13*(8), 19-23.

6. Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, January). Maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi talabalarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).

7. Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta’lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea, 76–79. Retrieved from.

O‘QUVCHILARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA XALQ OG’ZAKI IJODINING AHAMIYATI

PhD AbdullayevaMaryambibi Djumaniyazovna

magistr Sabirova Yoqitjon O‘ktambayevna

abdullayeva. maryambibi@gmail. com

madaniy yodgorliklardan to’g’ri va oqilona foydalanish ta’lim-tarbiya sohasining ustivor yo’nalashlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu muammoga alohida o’rin ajratilgan. Keyingi yillarda ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida ta’lim va tarbiya mazmunini tubdan isloh an’analarimiz, axloq-odob madaniyatimiz qayta tiklanib, ta’lim-tarbiya unvonga ega bo’ladi.

O’zbek xalqi tarixan ta’lim-tarbiya sohasida o’ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi tarbiya maqsad va vazifalarini hal etishda uning o’rni beqiyosdir. Bugungi kunda milliy tarbiya an’analariga oid muammolar yuzasidan ko’plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagog olimlarimiz tomonidan yaratilgan bir necha risola, qo’llanma, ilmiy tadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo’la oladi. Ayniqsa «Xalq ta’limi», «Boshlang’ich ta’lim» jurnallaridan ko’plab maqolalar, topishmoqlar shu mavzuga bag’ishlangan.

Mazkur maqolada o’quvchilarini xalq og’zaki ijodiyotiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash masalalarini atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: folklor, qadriyat, tez aytish, ertak, maqol, asotir, afsona.

THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN EDUCATING STUDENTS IN THE NATIONAL SPIRIT

Annotation

The correct and rational use of our national values, cultural monuments, the heritage of our ancestors in the upbringing of the perfect generation and their upbringing as a perfect person in every possible way is one of the main directions of the educational sphere. A special place is allocated to this problem in the National Training Program. In the following years, in all branches of the educational system, the content of education and upbringing was radically reformed. Thanks to independence, our national values, customs, traditions, culture of morality were restored and became the basis of educational content. After all , the growing young generation should assimilate its national values, culture of morality and look with respect. Only then will he receive the noble title of true representative of his land.

The Uzbek people have historically created a kind of dorulfun in the field of Education. Folk pedagogy in this regard has a rich experience. Its role in solving the goals and objectives of today's upbringing is incomparable. Today, a lot of research is being carried out on the problems related to the traditions of national upbringing. Several brochures, manuals, scientific research works created by our pedagogical scientists are a clear example of this. Especially many articles from the magazines" Public Education", " Primary Education", riddles are devoted to this topic.

This article covers the issues of educating his readers in the spirit of love for folk oral creativity in detail.

Keywords: folklor, value, say fast, fairy tale, proverb, asotir, myth.

Kirish

Boshlang'ich ta'lim mazmuni milliy qadriyatlar materiallariga boy. Ko'plab darslik va qo'llanmalarga xalq og'zaki ijodi bo'lgan ertak, maqol, rivoyat, doston, qissa, afsona, topishmoq, folklor, xalq kuyi va qo'shiqlari kiritilgan. Ular o'z mazmuni mohiyatiga ko'ra o'quvchilarda milliy odob-axloq madaniyati asoslarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi vositalaridan maqsadli va unumli foydalanish uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim.

O'zbek xalqi boy madaniy me'rosga ega ekanligi hech kimga sir emas. Ajdodlarimiz azaldan yosh avlodning kamol topishiga qayg'urishgan. Ularni axloq-odobli, jasur, sadoqatli, o'z yurtiga vafodor, fidokor, kattalarga, ota-onalariga va boshqalarga mehribon, to'g'ri, halol pok

bo'lishlariga harakat qilishgan. Buning uchun tarbiya vositalari bo'lmish xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridan samarali foydalanilgan. Chunki, dastlabki tarixiy taraqqiyot davrida yozma nutq rivojlanmagan, boy madaniy me'roslar og'izdan-og'izga o'tib kelgan va keyinchalik ular yozma tarzda o'z ifodasini topgan.

Yuqorida qayd etganimizdek diniy qadriyatlar bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodiga ertak, doston, rivoyat, afsona, maqol, topishmoq, xalq kuy va qo'shiqlari kabilar kiradi. Ular tirbiya vositasi sifatida yosh avlodni har tomonlama shakllanishiga ta'sir ko'rsatish kuchiga ega.

Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqan pok, ma'nan barkamol, o'z xalqi, o'z ona vataniga fidoiy, jismonan sog'lomkishilarni yetkazish kerak. Darhaqiqat, Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi-ya'ni, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi masalalardandir. Juda qiyin, o'ta mas'uliyatli, katta g'ayrat-shijoat, kuch-quvvat, mehnat talab etadigan bu vazifani uddalashimizda o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz va hozirgi zamon adabiyotining o'rni beqiyosdir.

Xalq og'zaki ijodi yosh avlodda ma'naviy-axloqiy, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik, adolat, insof va insofsizlik, do'st-birodarlik, og'a-inichilik, odob va qon-qarindoshchilikning ahamiyatini, botirlik va qo'rqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, sahiylik, bahillik va kamtarlik, sabr qanoat va sabrsizlik oqibati, qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andishalik va andishasizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, reja va rejasizlik, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, sog'lom tarbiya, tozalik va ozodalik, kattaga hurmat, yoshga mehr-shavqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, so'zlashish, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, muomala, jamoat va kattalar oldida o'zini tutish, kattalarga qarashish kabi fazilatlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodidagi har bir janr bir olam, odob, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos darsligi deyish mumkin. Folklorning har bir janr namunasi tarbiyaning umumiy jihatlarini aks ettirishdan tashqari, yaxshilik, ezgulik va odamiylikni go'zal, ibratli misollarda tasdiqlanish, da'vat etishi, yuqtirishi bilan birga aniqlik ham kasb etadi.

Epik ijod namunasi qahramonlik, ijodiy-romantik, tarixiy dostonlar ko'proq ishq muhabbat va vafo qanday bo'lishligi, o'zligini tanish, or-

nomus, burchni anglash, iymon-e'tiqodli bo'lish, inson va hayvonot dunyosi, qiyinchiliklar, to'siqlar va mushkul ahvollarni mardona yenga olish, maqsad yo'lida qat'iyatlilik ko'rsatish, iroda, matonat kabilardir.

Xalq kuyi va qo'shiqlari go'zallak, samimiyat, mehar-shavqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa, armon, qisqasi mazmun va ma'lum tuyg'ularni tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuyg'ularni o'stiradi, hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi. Ertaklar orqali bolalar sirli-sehrli olam bilan tanishadi, bu boradagi bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi badxulqlar bilan xabardor bo'lib, yaxshilikka mehri toblanadi, yomonlikka nafrati ortadi. Xalq donishmandligining yuksak badiiy timsoli, qisqa, sodda, ammo har birining ma'nolari katta-kattakitoblarga jo bo'la oladigan-maqollar, matallar, xikmatlar, qayroqi so'zlar, aforistik iboralar, ham xalq pedagogikasi an'analarining sarrin sahifalaridandir. Bunday odobnoma, ibratnoma, qadriyatshunoslikka oid sahifalar orasida kishini aql-zakovat, uddaburronlik, topqirlik, fikr-mulohazaga o'rgatuvchi topishmoqlar, yaxshi kayfiyat, tetiklik, bardamlik, umidvorlik uyg'otuvchi, umrga-umr qo'shishda muhim ta'lim-tarbiyaviy rolni o'ynovchi latifalar, askiya, qiziqchilik namunalari ham o'ziga xos odobnomalardir.

Asotirlar, afsona va rivoyatlar esa donolar-donoligi, ibratli, shuningdek tabiatni asrab-avaylab, qadriga yetish, saqlash, chiroyiga-chiroy qo'shishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish, ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish, kamol toptirishda muhim manbalardan bo'lishi, pedagogika tarbiyaning yetakchi sohalariga aylanishi tabiiydir.

Xalq pedagogikasi an'analarida muhim o'rin tutuvchi inson odobi, ta'lim-tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynovchi, xalqimizning asrlar bo'yi o'z orzu-umidlari, dard-alamlari, quvonch-shodliklari, yaxshi kunlar orzulari, mustaqillik axloqiy qarashlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlari aks etgan folklor namunalari tarbiyaviy ahamiyt kasb etadi.

Milliy istiqlol mafkurasini yosh avlodga singdirish, maqsadida tarbiyaning asosiy manbalaridan biri bo'lgan xalq og'zaki ijodini har tomonlama tadqiq etish muammosi oldida quyidagi vazifalar turibdi:

Yosh avlodni milliy odob-axloqiy tarbiyasida folklor, shuningdek, qadimiy qadriyatlarimizda ifodalangan milliy va umumbashariy xislatlar asosida tarbiyalashga erishish;

Maktab, boshqa o'quv yurtlari tizimini butunlay o'zgartirib, uni xalqimizning milliy ta'lim-tarbiyasi, milliy an'analari asosida butunlay qayta qarish;

Xalq og'zaki ijodi tom ma'nosi bilan odobnoma, xalq pedagogikasining Shuning uchun ham halq og'zaki ijodi odobnomasi, uning ta'lim-tarbiyaviy tomonlaridan kundalik hayotimizda har qachongidan ham ko'proq foydalana bilish davrimiz, istiqlolimiz talablaridandir;

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda o'zbek xalq pedagogikasi an'analarining nafaqat axloqiy, ma'rifiy-estetik, jihatlaridan foydalanish bilan uning ulkan qismi-xalq an'anaviy sporti, jismoniy tarbiya va folklor o'yinlarining, bayram an'analarining farzandlar jismoniy, axloqiy tarbiyasi, baquvvatligi, chaqqonligi, epchilligi, qisqasi har tomonlama aqliy-jismoniy rivojlanishning sinalgan an'analaridan maqsadga muvofiq foydalani bilish zarur bo'lmoqda.

Qirq nasihatda inonni sevish, ardoqlash, qadrlash, e'zozlash uning baxt saodati uchun kurashishi zarurligi kabilar qirq chilton nasihat-duo-olqishlarining asosiy mag'zini tamoyil etadi. Kishilarga muhabbat, dastavval biri aql, biri idrok bo'lishi ota-onaga sidqidildan muhabbatdan, hayot bag'ishlagan azizlarni izzat-hurmatini joyiga qo'yishdan boshlanishi insoniy burch ekanligi uqtiriladi, insonga insonning hurmati, sadoqati, mehr-muhabbati ifodalanadi.

Bugungi kun ta'lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi ana shu me'rosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin. CHunki, insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatlarimizning ustivor iymon-etiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadrli qadriyatlarimizning qadrlanishi guvohidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilish, uning mazmunini milliylashtirish va insonparvarlashtirish o'quv muassasalarining ustivor yo'nalashlaridan biridir. SHuning uchun ham bu masalalarni hal etishda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ta'lim-tarbiya sohasidagi o'rni katta. Ta'lim-tarbiya jarayoni aniq maqsadga ko'ra tashkil etishning asosiy shakllaridan biridir. Boshlang'ich sinflada o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan kiritilgan o'quv predmetlari va darslari ko'p. Bular o'qish, ona tili, odobnoma, musiqa kabi darslaridir.

Ushbu o'quv predmetlari dasturlarini mazmuni o'zbek xalqining milliy-ma'naviy –axloqiy me'roslarga boy. Aslida, avlod-ajdodlarmizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to'ng'ich pedagog-o'qituvchi xalqidir. U asrlar davomida bola tarbiyasi sohasida katta tajribaga ega, uning bugungi kundagi o'rni ham beqiyosdir.

O’zbek xalq og’zaki ijodi to’g’ridan to’g’ri tarbiyaviy ta’sir etish vositasi bo’lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda.

Jumladan, tez aytish-bolalar nutqini o’stirishga, topishmoq-bolalarning topqirligini tarbiyalashga, maqol-bolalarning odob-axloq tarbiyasiga, qo’shiq-bolaning nafosat va axloqiy tarbiyasiga, doston va ertaklar-bolaning turli tomonlama, ma’naviy –axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilib kelgan. Toshpishmoq-qadimdan xalqimiz orasida, xususan yoshlar o’rtasida eng ko’p tarqalgan janrlardan biridir.

Bolalarning topqirligini tarbiyalash va zehnini o’tkirlashtirishda, fikrlash qobiliyatlarini o’stirishda topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi. O’z xususiyatiga ko’ra topishmoq ikki va undan ortiq bolalar o’rtasida mustaqil fikrlash yo’li bilan qizg’in savol-javob usulida, tortishuvlar, baxslar orqali olib boriladi. Topishmoq bolalarni tobora ko’proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hadislarini idrok qilishga yordam beradi.

Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to’plagan tajribalari, dunyoqarashi, o’zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo’lgan munosabati, o’tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta’sir ko’rsatishga qodir.

Maqollarning o’ziga xos xususiyati shundaki, o’zbek maqollari asosan ikkinchi shaxs-tinglovchiga nisbatan o’git-nasihat yo’sinida badiiy o’xshatishlar orqali aytiladi.

Odob-kishining zebu-ziynati.

Odob-oltindan qimmat.

So’z kishining o’zagi,

Odob kishining bezagi.

Yaxshi bola yog’ keltirar,

Yomon bola dog’ keltirar.

Singari maqollarda odob-axloqning qimmati haqida ham gap yuritilsa,

Oltin olma, duo ol,

Duo oltin emasmi.

Onanga boshingni ham qil,

Otanga gapingni kam qil.

kabi maqollarda o’git-nasihat birinchi darajaga ko’tariladi.

Qo’shiq-janri yoshlarning ma’naviy-estetik tarbiyasida alohida o’rin egallaydi. O’zbek xalq qo’shiqlari o’q mazmun va mohiyatiga ko’ra bolalarni nafaqat estetik, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vositasi bo’lib ham xizmat qiladi. Masalan, mardlik, vatanpavarlik, do’stlik, ota-onaga xurmat, kishining xulq-atvorini tarannum etuvchi kuy va qo’shiqlar juda ko’p.

Ertak va dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati xususida gapiradigan bo’lsak, ular bolani har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi. O’zbek oilasida ertak eshitmay ulg’aygan yoshlarni tasavvur etish qiyin. Buni tarixda o’tgan ilm-fan vakillari, shoir va adiblar, jamoat arboblari e’tirof etadilar. Jumladan, H. Olimjon bolalik chog’larida tinglagan ertaklari va uning ta’sir kuchini xotirlab o’tgani ko’pchilikka ayon.

Ertak va dostonlarning tarbiya uchun muhim tomoni shundaki, unda xalq og’zaki ijodidagi topishmoq, maqol, qo’shiq kabi janrlar jamlangan bo’lib, ular pedagogik g’oyalarning mukammalroq, ta’sirchan bo’lishini ta’minlaydi. Ertak va dostonlarda bola tarbiyasining nafaqat axloqiy, balki jismoniy, aqliy kamoloti, ilm va hunarga muhabbati, mehnatsevarlik, ma’naviy sifat va nafis didlarning tarkib topishiga oid ko’pdan-ko’p pedagogik materiallarni uchratish mumkin.

Masalan, «Qorasoch pari» ertagida Nodir juda yoshlik chog’ida otadan yetim qoladi. Uning onasi-doya Qambar. U Nodirning safarga jo’natishdan oldindan «, , , Nodirni bag’riga bosib mening uch nasihatimni qulog’ingdan chiqarma, birinchi-birovga hiyonat qilma, ikkincha-birovning dilini og’ritma va uchinchi-qaysi shaharga borsan eng avvalo o’sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish ko’r!» deb, nasihat qiladi va bola umrining oxirigacha ona nasihatiga amal qilib, murod maqsadiga yetadi. Shunga o’xshash boshqa ertak va dostonlarda ham axloqiy fazilatlar ulug’lanadi, noaxloqiy xulq-odatlar qoralanadi.

Demak, folklor namunalari to’g’ridan-to’g’ri tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Kichik yoshdagi o’quvchilarda ahloqiy fazilatni shakllantirishda o’zbek xalq og’zaki ijod namunalaridan oqilona foydalanishda bir qator tarbiya usullari qo’llaniladi.

Pedagogikadan bizga ma’lumki, tarbiya usullari-bu bola shaxsini har tomonlama kamolga yetkazish maqsadida, uning ongi, his-tuyg’ulari, xulq-atvori irodasiga ta’sir ko’rsatish yo’llaridir. Ular shartli ravishda to’rt guruhga bo’linadi:

O’quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirish usullari: suhbat, hikoya, tushuntirish, pand-nasihat, maslahat kabi usullar;

O’quvchilarda ijtimoiy hulqni shakllantirish usullari: namuna, mashq, odatlantirish, o’rgatish, o’yin va h. o;

Rag’batlantiruvchi va jazolovchi usullari: maqtov, qo’llab-quvvatlash, uyaltirish, tanbah berish, musobaqa va h. o;

O’z-o’zini tarbiyalash usullari: shaxsiy majburiyat, o’z-o’zini nazorat qilish, o’z-o’zini baholash kabilar.

O’quvchilarni o’zbek xalq og’zaki ijodiyotiga mehr-muhabbat ruxida tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: suhbat, hikoya, tushuntirish, namuna ko’rsatish, taqlid, odatlantirish, o’rgatish, mashq, o’yin, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, maslahat, undash, maqullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish kabilardir. Undan tashqari xalqimizda keng qo’llaniladigan tarbiya usullariga ta’qiqlash, ta’na (gina, o’pka), qarg’ish, qo’rqitish, uzr so’rash, la’natlashlarini ham kiritish mumkin.

O’zbek xalq og’zaki ijodi o’zbek xalqining sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham, insoniyat alla, qo’shiqlar, afsonalar, ertak, dostonlarda, o’zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavq-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og’zaki ijodi o’zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g’oyalar bilan yo’g’rilganligixalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog’liqligi bilan ham g’oyatda e’tiborlidir.

Xalq og’zaki ijodi ko’pincha kattalar tomonidan ijodqilinadi (alla), ba’zi hollardabolalar o’z o’yinchoqlari asosida o’zlari ham alla, qo’shiq va ovutmachoqlar to’qiydilar. Bularning o’ammasi bir bo’lib o’quvchilarning ongiga faqat yaxshi tarbiyani targ’ib etadi. Bolalar xalq og’zaki ijodining pedagogika bilan bog’lanishi alladan boshlanadi.

Alla Xalq og’zaki ijodining eng rivojlangan janirlaridan biridir. Alla bolalar beshikligida, hali tili chiqmasidanoq aytiladi. Boshqacha aytganda beshik qo’shig’i bolaga ona suti bilan kiradi.

Allalar poetik jihatidan ham, onalarning ichki tuyg’ulari bayoni sifatida g’am xalq ijodining bo’lak turlaridan ajralib turadi. Ularning bolaning onasi yoki tarbiyachisi aytadi.

Onaning yurakdan aytgan allasida bola obrazi qisqa, ammo chuqur mazmunli so’zlar yordamida ifodalanadi.

Alla bolam alla

Jonim bolam, alla,

Ikki ko'zim alla,

Shirin so'zim alla.

Alla bolam baxti bor,

Har narsaning vahti bor.

Alla bolam alla

Jonim bolam, alla,

Ikki ko'zim alla,

Yot, bolam, uxla, qo'zim,

Uylarda o'chdi chiroq,

Uxlar asalarilar,

Uxlar baliqlar tinchroq.

Ko'kda oy yarqiraydi,

Derazadan qaraydi,

Ko'zlaring yumgin qo'zim,

Yot quvonchim kunduzi.

Alla, alla, alla.

O'quvchilarini xalq og'zaki ijodiyotiga mehr-muhabbat ruxida tayyorlash yordamida o'qituvchi bolani keng bilimlar dunyosiga yetaklaydi. Bola bilim olishga qadam qo'ygan kundan boshlab o'qish uning asosiy mashg'uloti bo'lib qoladi. Endi bola o'quvchi bo'lganidan keyin esa maktabning ma'lum qoidalariga bo'ysungan holda o'quv topshiriqlarini bajarishga, faqat o'ziga yoqqan narsalarnigina bo'lib qolmasdan, balki zarur bo'lgan paytda o'zini qiziqtirmayotgan narsalarni ham bajarishga to'g'ri keladi. Ana shunday vaqtda bolalar o'rtasida do'stlik o'rnatish, bir - birlariga yordam beradigan darajada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday xususiyatlar bolani har qanday qiyinchiliklarni yengishga, ularda mustahkam irodani tarkib topib borishiga, qiziqishlar doirasining kengayishiga asos bo'ladi. Bularning hammasi mehnatsevarlik tizimini yaratishga zamin bo'ladi.

Birinchi sinf o'quvchilarining mehr-muhabbat haqidagi bilimlari, malakalari dastlab darslarda namoyon bo'ladi. Ularning ba'zilari o'qish,

so’zlab berish, qo’shish va ayrishdan tashqari o’z sinfdoshlariga yordam beradilar. O’qituvchi ko’pincha ta’lim jarayonida yozish va sanash malakalariga egabo’lgan bolani o’z sinfdoshiga yordam berish uchun ma’lum tayyorgarligi bo’lmagan bolalarga biriktirib qo’yadi. O’qituvchining pedagogik mahorati natijasida bolalarda o’qishdagi dastlabki qadamlari muvaffaqiyatli bo’ladi. O’qishga bo’lgan qiziqishi, uning vijdoniyligi, tirishqoqlik, o’z kuchi bilan muvaffaqiyatga erishishga intilish kabi ajoyib xususiyatlari shakllanib boradi. Xususan, o’qishga tayyorgarlik jarayonida bilim, ko’nikmalar bilan birga ko’pgina psixologik sifatlar ham tarkib topadi. Bu sifatlar esa bolaning hatti - harakatida, sinfdoshlariga bo’lgan munosabatida aks etadi. O’qish jarayonida mehnatsevarlik bola ongiga singdirib boriladi.

Umuman, o’quvchilarini xalq og’zaki ijodiyotiga mexr-muhabbat ruxida tayyorlash davrida, bolalar qalbida mehnatsevarlik poydevori qo’yiladi. Bular: rostgo’ylik, halollik, to’g’rilik, do’stlik, o’rtoqlik, saxiylik, hamjihatlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabilar. Xalq maqollari, masallari, topishmoqlari, ertaklari, qo’shiqlari, laparlariyordamida, o’quvchilaridaxalq og’zaki ijodiyotining namunalarini shakllantirishda birinchi sinfdan to’rtinchi sinfgacha bo’lgan davr mobaynida muhim o’zgarishlar ro’y beradi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib mehnatsevarlik haqidagi bilimlar, tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ongliroq tus oladi, umumiylashadi. Birinchi va ikkinchi sinf o’quvchilari o’z hatti-harakatlari tajribasiga, o’qituvchilari hamda ota-onalarning bergan ko’rsatmalariga va tushuntirishlariga asoslangan holda mehnatsevarlik haqida mulohazalar yuritadilar.

Uchinchi, to’rtinchi sinf o’quvchilarining xalq og’zaki ijodiyotining namunalari haqidagi mulohazalarida o’z hatti-harakatlari tajribasiga asoslanish bilan ular boshqa kishilarning odamlarga ko’rsatgan g’amxo’rligini tahlil qilishga intilish ko’zga tashlanadi. 7-8 yoshdagi bolalar ko’pincha to’g’ridan-to’g’ri kattalarning, chunonchi o’qituvchining ko’rsatmalari bilan mehnatsevarlik ishlarini amalga oshiradilar. 4- sinf o’quvchilari esa tashqaridan bo’ladigan ko’rsatmalarni kutib o’tirmay, bunday ishlarini o’z tashabbuslari bilan amalga oshiradilar. Bu yoshdagi bolalarda mehnatsevar hatti - harakatlar o’zining barqarorligi va qarama - qarshiligi bilan ajralib turadi. O’quvchilarning hatti - harakatlarida insonpavarlik, mehnatsevarlikka xos bo’lgan xususiyatlar ancha aniq va yorqin bo’ladi. Bu xususiyatlar keyinchalik hayotda tarkib topgan mehnatsevarlik xarakterlari bilan shakllanadi. Shuni aytish kerakki, bolalarda uchraydigan beixtiyoriylik, o’zini tuta bilmaslik jarayonining kuchsizligi natijasida namoyon bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham

bolaga g'amxo'rlik qilish, unga hurmat munoasabatida bo'lish va keng jamoa orasida ana shunday muhitni vujudga keltirish undan mehnatsevarlikka, insonparvarlikka xos xususiyatlarning namoyon bo'lishiga olib keladi.

O'quvchilar xarakter jihatdan o'zaro farqlanib turadilar. Ularning ba'zilarida o'ylamasdan, mayllar va tasodifiy sabablar ta'sirida harakat qilishlar uchrab turadi. Buning asosiy sababi mazkur yoshdagi bolalar yosh bo'lgani tufayli hatti - harakatlarini idora qila bilmasliklari va tashqaridan faol ta'sir etadigan vaziyatdan kelib chiqishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. «Avesto»da inson mehnati moddiy noz-ne'matlarni yaratish manbai (qishloq xo'jalik mamsulotlarini yetishtirish hamda turmush sharoitini yaxshilash nazarda tutiladi) bo'lganligi uchungina mehnat qilishga da'vat etilmaydi. Bunda mehnat axloqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. Ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy boylik yaratishi zarur. Ishyoqmaslik esa barcha noxushchiliklarni keltirib chiqaruvchi sababdir. Binobarin, Zardusht ta'limotiga ko'ra, dehqonchilik mehnati ezgulik va farovonlik namoyon bo'lishining asosiy shakli bo'lib, Axura Mazda shaxsiyatida mujassamlashgan qonunga buysunishdir. «Don ekkan kishi ezgulik urug'inimustamkamlaydi». Bu qonunning bajarilishi o'z ahamiyatiga ko'ra o'n ming duo o'qish, izlab qurbonlik qilishdan a'lodir, ekin ekmoq yovuzlikni yer izidan tugatmoq demakdir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, insonda oliy mavjudot sifatida mehnat qilish, moddiy noz - ne'matlaryaratish va ishlab chiqarish qobiliyati mavjud. Inson bu qobiliyatini ishga solmas ekan, u insoniy qiyofasini yo'qotadi, vahshiylashadi, yovuzlashadi. Ikkinchidan, mehnat insondagi saxiylikni ko'rsatadi, uning ma'naviy xatti-harakatini va xulq-atvorini baholashda asosiy o'lchov mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ham tarixiy manbalarning guvohlik berishicha' qadim-qadimdan ota-bobolarimiz bolalarini mehnatsevarlikka da'vat etib, o'z hunarlarini farzandiga o'rgatganlar.

Zardushtiylar boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etish yetti yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Zardushtiylarning madrasa tipidagi o'quv dargohlarida boshlang'ich ta'lim jarayonining yakuni sifatida olti san'at turini mukammal bilish va egallash e'tirof etilgan Bular:

1. Yozuvni o'rganish,
2. Hisoblay olish,

3. Kamondan o’q otish,
4. Chavandozlik,
5. Diniy ahkomlarni bajara olish,
6. Qiroat, qo’shiq aytish.

Zodagon oilalarning farzandlari o’qitiladigan maxsus maktablardagi boshlang’ich ta’lim jarayonida taxsil olayotgan bolalar asosan siyosiy va diplomatik yo’nalishlarda tayyorlnishgan. Shuningdek butun aqliy tafakuri va donishmandlik zaxirasini ishga solib hukmdoga maslahatlar beradigan dono maslahatchilar, shahar viloyatlar valiylari, boshqaruvchilari elchilar tayyorlaydigan maxsus yo’nalishlar mavjud bo’lgan. Ushbu maktabda taxsil oladigan bolalar mustaqil mushohada qila olish, o’z fikri va qarashini isbot qila olish va unda sobit turish xislatlariga ega bo’ladilar.

Boshlang’ich ta’limni olgan har bir zardushtiy ta’lim yakunida qasamiyod qa’bul qilgan. “Avesto”da keltirilgan shogird qasamiyodi diqqatga sazovordir “Toki jonim bor ekan, toki qudratim qoim ekan, o’z hoxishim va yo’lboshchilarim amr-irodasi bilan ezgulikni istayman”.

Metodologiya. Ko’rinib turibdiki buyuk kelajakka intilayotgan mustaqil respublikamizning ertasi bo’lgan yoshlarni tarbiyalash jarayonida ham ajdodlarimizning boshlang’ich ta’lim bosqichida qo’llagan pand-nasihatlari, o’gitlar va hikoyalar sifatidagi qarashlari va fikrlaridan foydalanish maqsadga muofiqdir.

Milliy g’oyamizning asosiy maqsadlaridan biri ham har tomonlamabarkamol insonni tarbiyalashdan iborat. Komil insonni esa, bu-ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o’z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o’z Vatanigahalol xizmat qiluvchi kishidir. Bobolarimiz aytadilarki: - O’z Vatanini sevmagan odam- yomon odamdir. XI asrda Markaziy osiyoda yashab ijod etgan Maxmud Qoshqariy o’zining “ Devoni lug’atit turk” asarida turk xalqlarning Vatanga bo’lgan muhabbat va sadoqatlari, Vatanni ardoqlash, Vatanga tegishli har bir narsani muqaddas bilish, o’zini shu Vatanning farzandi deb xis qilish haqiyqiy insonga xos fazilat ekanligini uqtiradi.

Turkman shoiri Maxtumquli insonning baxti va tinchligi xalq va vatan baxti bilan bog’liq shu sababli ham odamlar vatan, xalq uchun jonlarini fido qilishi kerak degan fikrni ilgari suradi: Vataparvar chidamli, xushyor bo’lmog’i karak.

Boshlang’ich sinf o’quvchilario’z oldiga qo’ygan maqsadni uzoq vaqt davomida ko’zlab borishni, qiyinchilik va to’siqlarni qat’iyatlilik bilan

yengishni hali bilmaydi. U muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotib qo'yishi mumkin. Xalq og'zaki ijodining bunday namunalarini shakllantirishda qarama–qarishliklarni ham uchratish mumkin. Bu kamchiliklar oila tarbiyasida yo'l qo'yilgan nuqsonlar oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Bunda bola o'zining barcha talab va hoxishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo'ladi. Boladagi bu salbiy illatlar asosan o'z oldiga maktab tomonidan qo'ygan talablarga, norozilik alomatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu yoshdagi o'quvchilarda mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik kabi ijobiy xislatlar mavjud bo'ladi. Bu yoshdagi o'quchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biritaqlidchilikdir. Ular katta yoshli kishilarga va ba'zan tengqurlariga, shuning bilan birga yaxshi ko'rgan kitoblari va kino filmlaridagi qahramonlarga taqlid qiladilar. Bu esa shaxsiy namuna bo'lish orqali shaxsga xos ijtimoiy qimmatli xislatlarini tarbiya topish imkonini beradi. Ammo buni xavfli tomoni ham yo'q emas. Chunki bu yoshdagi o'quvchi kattalardan faqat ijobiy tomonlarinigina qabul qilmaydi, balki taqlid ob'yektidagi salbiy xislat, qiliq va odatlarni ham shundayligicha ko'chirib olishi mumkin. Xususan, xalq maqollari, ertaklari, masallari, o'gitlarni o'rganish yordamida o'quvchilar juda ta'sirlanuvchi bo'lib qoladilar. Bu yoshdagi bolalarda idrok, kuzatish, hayollar va aqliy faoliyat hissiy buyoqlarga boy. Ya'ni xalq maqollari, ertaklari, masallari, o'gitlarni yordamida bolalar, ayniqsa, birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari o'z hissiyotlarini tiyib tura olmaydilar, bu hissiyotlarni namoyon bo'lishini nazorat qila olmaydilar.

Bolalar o'z xursandchiliklarini, tashvishlarini, g'amginliklarini, qo'rquvlarini, qanoat hosil qilganliklarini yoki qanoatlanmaganliklarini samimiy ravishda, ochiq - oydin izhor qiladilar. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining hissiyotlarining beqarorligi, kayfiyatlarining tez-tez o'zgarib turishi, ruhiy hayajonlanishga moyilliklari, xursandlik, g'amginlik, g'azab, qo'rquvlarining qisqa muddatli va jo'shqin bo'lishi bilan ajralib turadilar. Yoshlari ulg'aygan sari ularda o'z hissiyotlarini boshqarish va bu hissiyotlarning yoqimsiz namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik qobiliyati rivojlana boradi. Uchinchi sinfning boshlariga kelganda tobora ortib borayotgan talablar va to'g'ri tashkil qilingan ta'lim - tarbiya ishlarining ta'siri tufayli bu yoshdagi o'quvchilarda menatsevarlik, tirishqoqlik, batartiblik kabi fazilatlar paydo bo'ladi. Sekin-asta ularning hatti-harakatlarida mehnatsevarlik xususiyatlari rivojlana boradi. O'zini tuta bilish va hatti - harakatlarini nazorat qilish hamda bevosita hissiyotlarga berilmaslik malakasi yuzaga keladi. qat'iyat va qiyinchiliklarni yengish malakasi o'sadi

Natijalar. Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini o'rganishda, yoshlardabarkamol insonfazilatlarini tarbiyalash uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgani, ularning xilma-xil shakl va metodlariga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Xususan, pand-nasihat mazmunidagi topishmoq, maqol, masal, she'r va xalq o'gitlarida bunday fazilatlar maslahat, nasihat, istak, buyruq shakllarida namoyon bo'ladi.

Chin do'st

Mening juda ham quvnoq,

Bir do'stim bor, chin o'rtoq.

Aqlli ishda choqqon,

O'zi juda bilag'on.

O'rnak har chog' odobda,

Doim ko'zi kitobda.

Qiyin damimda hamkor,

Bu mening do'stim- Sardor.

Seniki

Shirin-shakar mevali,

Bog'lar bari seniki.

Oltin ungan dala uy,

Konlar bari seniki.

Amir Temur, Navoiy,

Al Farg'oniy, Buxoriy,

Ardoqlab o'tgan tuproq,

O'zbekiston-seniki.

Bunday ta'lim-tarbiyaga oid pandu-nasixatlarni xalq og'zaki ijodining ertak, doston, aytishuv kabi janrlarida ham juda ko'p uchratish mumkin. Biz yuqorida ko'rsatib o'tgan ta'limiy - axloqiy asarlarda ham barkamol shaxsni shakllantirishga doir metod va usullar bayon etilgan. Xalqning buyuk siymolaridan Muslihiddin Sa'diy ta'lim va tarbiya to'g'risida fikr yuritar ekan, u bolalardagi tug'ma qobiliyat e'tirof etib yozadi: Qobiliyat bo'lsa aslida

Tarbiyat unga qiladi asar.

Qancha urinma, bo'lmas sayqal,

Temir aslida bo'lmas javhar.

Xulosa. Xalq maqollari yordamida o'quvchilarining mehnatsevarlik fazilatlarini kamol topishida birgalashib, jamoa bo'lib o'ynaydigan bolalar o'yinlari ham katta rol o'ynaydi. Chunki bolalar o'yini faqat iroda, batartiblik, hozirjavoblik va tashabbuskorlikni tarbiyalash bilan birga o'rtoqliq, ahillik hissini va o'z hatti - harakatlarida jamoa manfaatlarini ko'zlab ish ko'rish fazilatlarini ham tarbiyalaydi.

Shuningdek, xalq maqollari yordamida o'quvchilarida mehnatsevarlikni shakllantirishda mehnatning ahamiyati kattadir. Bolalar o'z - o'ziga xizmat qilish, o'qiyotgan joylarinibelgilash uchun bo'ladigan xatchup, qutichalar, sanash materiallari, daftar jildlari kabi o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda bir - biriga yordam berish fazilatini tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunonchi, sinf xonasini tozalash, maktab tomorqasida ishlash, sport maydonchasini supurish, o'zlaridan kichik o'quvchilar uchun foydali narsalar tayyorlash va boshqalar bu yoshdagi o'quvchilarning bajarish uchun kuchlari yetadigan ijtimoiy - foydali ishlardir. Zotan ularning mehnat faoliyatlarida mehnatsevarlik xususiyatlari namoyon bo'ladi. U o'zi uchun bo'lgan narsani qunt bilan berilib tayyorlaydi. Boshqalar uchun ishlash tajribasi hali ularda shakllanmagan bo'ladi.

Umuman, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z mehnatlari bilan tevarak - atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin - asta anglay boshlaydi. Bu esa bolalarda g'ururlanish, shodlanish va o'z ishidan mamnun bulish tuyg'ularini shakllantiradi. Aslida, aynan mana shutuyg'ularni kichik yoshdagi o'quvchilarda mustahkamlanib borish kerak.

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –"O'zbekiston" -2016. 488 B.

2. Sh. MirziyoyevQonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –"O'zbekiston" -2016. 488 B.

3. Sh. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –"O'zbekiston" -2017. 104 B.

4. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

6. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. -T. :Fan. 2015. -172 b.

7. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. -T. : O’qituvchi. 2016. -62 b.

8. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. - T. : Fan. 2017. -172 b.

9. Dolimov S. va boshq. Adabiyot o’qitish metodikasi. T. : O’qituvchi,

10. 2017. 230 b.

11. Jumaboev M. O’zbek va chet el bolalar adabiyoti. T. : O’zbekiston,

12. 2017. 157 b.

13. Jumaboev M. O’zbek bolalar adabiyoti. T. : O’zbekiston, 2002. 320

14. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T. : 2016. 225 b.

15. Krilov I. A. . Bo’ri bilan qo’zichoq. T. : 2017. 50 b.

Internet manzillari

1. http:www. cspu. uz

2. www. bookland. ru

3. www. pedagog. uz

4. www. edu. uz

O‘ZBEK OLIMLARI TADQIQOTLARIDA IPAK YO‘LI LOYIHALARI

Mamatalimov Zafar Mamaraimovich

Annotatsiya

Maqolada ipak yo‘li loyihalari, bu loyihalarning Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayotida tutgan o‘rniga e’tibor qaratiladi. Amerika, Xitoy, Yaponiya Ipak yo`li loyihalarining o`zaro farqli va o`xshash jihatlari o`rganilib, ularning mintaqa davlatlari hayotida tutgan o`rni, ijobiy, salbiy jihatlari xususida fikr bildiriladi. “Bir makon – bir yo‘l” loyihasida O‘zbekistonning ishtiroki masalalari doirasida o‘zbekistonlik olimlarning fikri xorijlik olimlarning tadqiqotlariga qiyosan o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada ipak yo‘li loyihalarining bugungi kundagi dolzarb ahamiyati, zamonaviy Ipak yo`li strategiyasining tobora globallashib borayotgani xususida so‘z boradi. O‘zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkor mamlakatlari va tashqi savdo aylanmasi Ipak yo‘li loyihasi ishtirokchi davlatlari ulushiga to‘g‘ri kelishi aniq misollar yordamida ko‘rsatib beriladi. Ipak yo‘li loyihalari doirasida turizm sohasini rivojlantirish maqsadida mintaqa mamlakatlari o‘rtasida amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar ijrosini jadallashtirish lozimligiga urg`u beriladi. O‘zbekiston Ipak yo‘li loyihasining ishtirokchisi sifatida unga a’zo mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamda energetika sohasida faol hamkorlik aloqalarini olib borayotgani, ushbu aloqalar mamlakatning iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, davlatni yanada rivojlantirish, xalqaro nufuzini oshirishga qaratilganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ipak y’oli, konsepsiya, ipak yo‘li diplomatiyasi, “yumshoq kuch”, sivilizatsiya, turizm, madaniy meros, strategiya, diplomatiya, “aql markazlari”

SILK ROAD PROJECTS IN THE RESEARCH OF UZBEK SCIENTISTS

Annotation

The article focuses on the Silk Road projects, the role of these projects in the economic, political, and spiritual life of the peoples of Central Asia. The different and similar aspects of the American, Chinese, and Japanese

Silk Road projects are studied, and an opinion is expressed about their role in the life of the countries of the region, as well as their positive and negative aspects. Within the framework of the participation of Uzbekistan in the "One place - one road" project, the opinions of Uzbek scientists were compared to the researches of foreign scientists. Also, the article talks about the current importance of the Silk Road projects today, the increasingly globalizing of the modern Silk Road strategy. The main trade and economic partner countries of Uzbekistan and the share of the foreign trade turnover of the participating countries of the Silk Road project will be shown with the help of concrete examples. Emphasis is placed on the need to accelerate the implementation of joint projects between the countries of the region in order to develop the tourism sector within the framework of the Silk Road projects. It is noted that Uzbekistan, as a participant of the Silk Road project, maintains active cooperative relations with its member countries in the field of trade, economy and energy.

Key words: silk road, concept, silk road diplomacy, "soft power", civilization, tourism, cultural heritage, strategy, diplomacy, "think tanks".

Kirish

Garchi ipak yo‘li tarixi qadim-qadimga borib taqalsa-da, “Ipak yo‘li” atamasi dastlab 1877-yil nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofenning “Xitoy” nomli asarida uchraydi. Olim bu asarida ipak yo‘lining paydo bo‘lishi, iqtisodiy-siyosiy ahamiyati, rivojlanish omillari xususida so‘z yuritar ekan, ipak yo‘lida Markaziy Osiyoning tutgan o‘rni borasida ham qimmatli ma’lumotlar berib o‘tadi. Kitob so‘ngida Markaziy Osiyo xaritasi ilova qilinadi. Shuningdek, Andre Gander Frank muallifligida chop etilgan “Markaziy Osiyoning markaziyligi” *(The Centrality of Central Asia)* essesida ipak yo‘lining Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotida tutgan o‘rni aniq misollar yordamida ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, ipak yo‘li taraqqiy topishida hududning markaziy o‘rin egallashiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Tadqiqotchilar ipak yo‘li loyihalari bashariyat tarixida xilma-xil vazifalarni bajarganini takidlaydilar. Dunyo hamjamiyati XX asrda ikkita jahon urushini boshdan kechirdi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshlangan «sovuq urush» jahondagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo‘linish jarayoni yanada tezlashdi. Ammo 1970-80-yillarga kelib, xalqaro vaziyat biroz yumshadi. Bu esa xalqaro munosabatlarning barqarorlashuvi, o‘zaro aloqalarning tiklanishini talab

qildi. Ayni vaziyatda ko‘plab muammolarning yechimi sifatida ipak yo‘li loyihasini qayta tiklash g‘oyasi yana o‘rtaga tashlandi. Bu, birinchi navbatda, davlatlar o‘rtasida madaniy munosabatlarni rivojlantirish orqali, siyosiy va iqtisodiy muammolar yechimiga yo‘l ochdi. Keyinchalik xalqaro munosabatlarda trend bo‘lgan yumshoq kuch (ruscha – “myagkaya sila”, inglizcha – “soft power”) siyosatining yuzaga kelishiga ham olib keldi.

Buyuk ipak yo‘li Sharq va G‘arb mamlakatlarining o‘zaro yaqinlashuviga katta hissa qo‘shdi. Xitoyshunos olim A. Xo‘jaevning ta’kidlashicha, «Buyuk Ipak yo‘li ikkiga bo‘linib ketgan Sharq va G‘arb mamlakatlarini o‘zaro bog‘lab, yaxlit bir dunyoga aylantirgan, insoniyat tarixi rivojini yangi o‘zanga solib yuborgan tarixiy katta karvon yo‘lidir”[A. Xo‘jaev, 2007].

1994-yil 5-oktyabr kuni Samarqand shahrida «Ipak yo‘li – muloqot yo‘li» kompleks tadqiqot dasturi doirasida Jahon turizm tashkiloti va O‘zbekiston hukumati o‘rtasida «Ipak yo‘lida turizm Samarqand Deklaratsiyasi» imzolandi. Ushbu Deklaratsiyaga asosan O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari belgilab olindi va respublikamizrasmiy ravishda turli loyihalarda o‘z ishtirokini boshladi.

“Dunyo mamlakatlari + Markaziy Osiyo” formatida tashkil qilingan AQShning Ipak yo‘li strategiyasi, Yaponiya Ipak yo‘li diplomatiyasi, Xitoy Ipak yo‘li loyihasi kabilar o‘zining maqsad-muddaosi, iqtisodiy, giyosiyosiy maqomi bilanMarkaziy Osiyo mamlakatlarini, shu jumladan, O‘zbekistonni ham qiziqtirib kelgan.

AQShning Ipak yo‘li strategiyasi. Markaziy Osiyo mamlakatlari birin-ketin o‘z mustaqilligini e’lon qilgach, Qo‘shma Shtatlar bu mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni yaxshilash maqsadida ushbu strategiyani ilgari sura boshladi. Bu keyinchalik «Ipak yo‘lining Amerika strategiyasi» deb yuritila boshladi. Ittifoq parchalangandan so‘ng, Kavkaz Osiyo transport va kommunikatsiya koridorini yaratish orqali Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz bilan munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan edi. Keyinchalik, 1997-yil oktyabr oyida AQSh senatori Braunbek va doktor Frederik Starr bilan hamkorlikda Ipak yo‘li strategiyasini ilgari surishdi. Strategiyaning asosiy g‘oyasi va maqsadi AQSh va Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy hamkorlik strategiyani rivojlantirish edi. Shuningdek, Amerika strategiyasi Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga ta’sirini kesish, Eronning bu hudud bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirishining oldini olish singari bir qator maqsadlarni ko‘zlagan edi. Keyinchalik Xitoy tomonidan yangi

strategiyaning ishlab chiqilishi oqibatida Amerika Ipak yo‘li loyihasi sekin-astalik bilan mohiyatini yo‘qota bordi.

Xitoy Ipak yo‘li loyihasi. Xitoy Xalq Respublikasining ushbu loyihani amalga oshirish g‘oyasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmadi. Uni shakllantirish va amalga oshirish uchun harakatlar o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlandi. 1990-yilga kelib Markaziy Osiyo mamlakatlari hayotidagi siyosiy o‘zgarishlar mintaqada yangi bozorlar ochish, investitsiyalar kiritish, savdo-iqtisodiy aloqalarni samarali tashkil etish va rivojlantirish negizida mazkur loyihaning amaliy bosqichiga kirishildi. Shundan so‘ng, siyosiy va iqtisodiy aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. 1991-yil noyabr oyida Uyg‘ur avtonom hukumati rahbari Temur Davamatning O‘zbekistonga tashrif buyurishi, Islom Karimov bilan uchrashuvi davomida qadimiy Ipak yo‘li orqali o‘tadigan Andijon – O‘sh – Qoshg‘ar avtomobil yo‘li va temir yo‘lini modernizatsiya qilish masalalarining muhokama qilinishi bunga misoldir. Shundan so‘ng, XXR hukumatining turli darajadagi vakillari mintaqa mamlakatlariga tashrif buyurib, Ipak yo‘lini qayta tiklash masalalarini muhokama qildilar. Yangi Ipak yo‘lini yaratish g‘oyasi rasman 2013-yil Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin tomonidan ilgari surildi. Ayni vaqtda, Yangi Ipak yo‘li loyihasi Xitoy yangi rahbarining tashqi siyosat konsepsiyasi maqomini o‘tadi.

Yaponiya Ipak yo‘li diplomatiyasi. Yaponiya «Ipak yo‘li diplomatiyasi» g‘oyasi 1997 yilda mamlakat Bosh vaziri Xashimoto tomonidan taklif etilgan bo‘lib, Yaponiyaga energiya manbalarini jalb etish maqsad qilingan. Mazkur strategiya raqamli texnologiya, energiya ta’minoti, madaniy aloqalar borasida Markaziy Osiyoda ustuvor mavqelarni egallash, ayni yo‘nalishlarda izchil hamkorlik olib borish, shuningdek, Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi mavqeini mustahkamlashni ko‘zlagan edi.

Ipak yo‘li konsepsiyalari bo‘yicha xalqaro miqyosda anchayin salmoqli

I p a k y o ‘ a m l a k a t l

O‘zbek olimlari ham bu sohada kengqamrovli ilmiy izlanishlar olib Respublikasining ushbu loyihadagi ishtiroki masalalarini yoritishni ko‘zda tutadi. Bu borada xalqaro munosabatlar yo‘nalishida T. Dadabaev; iqtisodiyot yo‘nalishida I. Qoraboev, A. Zoxidov; tarix yo‘nalishida A. Xo‘jayev, N. Karimova, R. Mirzayev, O. Kobzeva, R. Farmonov, Q. Jo‘rayev,

Bu izlanishlar orasida zamonaviy ipak yo‘li loyihalari monografik planda o‘rganilgan A. Mullayev, M. Rahimovlar hammuallifligida yozilgan “O‘zbekiston va zamonaviy ipak yo‘li diplomatiyasi” nomli tadqiqot alohida ahamiyatga ega. Kitobning birinchi bobi “Ipak yo‘li va uni o‘rganish paradigmalari” deb atalib, unda ipak yo‘li diplomatiyasining tiklanishi va uning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni, xorijiy ilmiy markazlarda Ipak yo‘lini tadqiq etishning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy xalqaro munosabatlarni tadqiq etishda fanlararo yondashuvlar, O‘zbekiston xalqaro munosabatlari va ipak yo‘lining qayta tiklanish jarayonlari haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchi bob O‘zbekiston xalqaro munosabatlari rivojlanishning yangi dinamikasiga bag‘ishlangan va mazkur bobdaXXR Ipak yo‘li konsepsiyasi va uning mintaqalararo integratsiyalashuvidagi o‘rni, xalqaro transport-kommunikatsiya loyihalarida O‘zbekistonning ishtiroki masalalari o‘rganilgan bo‘lsa, uchinchi bobda O‘zbekistonning xalqaro madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi hamkorligi, ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik, madaniy-gumanitar aloqalar, turizm yo‘nalishidagi aloqalar aniq faktlarga tayangan holda, tadqiq qilinganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek olimlari tadqiqotlari orasida V. V. Paramonovning ilmiy izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning qator maqolalarida mintaqa davlatlari bilan Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy, sanoat va transport-kommunikatsiya sohalaridagi kabi munosabatlarni jadal rivojlantirish, chegara-hududiy muammolarni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui va harbiy-siyosiy ishonchni mustahkamlash, «uch yovuzlik»(separatizm, terrorizm va ekstremizm) bilan kurashish prinsipial ahamiyat kasb etishi, xamda Xitoyning "Bir kamar – bir yo‘l" tashabbusini amalga oshirishda faol ishtirok etishi ochib berilgan, postsovet hududida, shu jumladan, Rossiya va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari, nafaqat ularning yanada yuqori ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, shuningdek, Xitoy bilan strategik, do‘stona va yaqin hamkorlik aloqalarini uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan ahamiyati asoslangan. Rossiya, Xitoy va boshqa omillar prizmasida Markaziy Osiyoda xalqaro munosabatlar rivojlanishining mintaqadagi barcha mamlakatlarning umumiy integratsiya makonini shakllantirish darajasiga yetguncha sa’y-harakatlarini yanada yaqinroq muvofiqlashtirish zarurligini nazarda tutadigan ssenariylari o‘rganilgan. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyalashuvning siyosiy ahamiyati, Afg‘onistonni jalb qilgan holda g‘arbiy yo‘nalishda muqobil transport-kommunikatsiya va harbiy-strategik aloqalarni rivojlantirish ko‘rsatilgan [V. Paramonov, 2023].

Ipak yo‘li tarixda turli mintaqalar, davlatlarni siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘lab turishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, Ipak yo‘li barcha qit’alarni qamrab olganligi bilan ham o‘z davri uchun global ahamiyatga ega edi. Biroq davrlar o‘tishi va siyosiy jarayonlar o‘zgarishi bilan ham Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu jihatdan, zamonaviy dunyoda ro‘y berayotgan xalqaro munosabatlarni muvofiqlashtirishda ham Ipak yo‘li diplomatiyasi o‘z o‘rniga ega.

XX asrda yuz bergan geosiyosiy jarayonlar xalqaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Jahon mamlakatlari munosabatlarini qayta tiklash hamda o‘zaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ham dolzarb masalaga aylandi. Bu borada xalqaro munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega edi. Xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan «sovuq urush» tendensiyasi xalqaro munosabatlar tizimiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday sharoitda xalqaro munosabatlarni tizimli rivojlashtirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Shunday sharoitda Ipak yo‘li diplomatiyasi xalqaromunosabatlardagi asosiy vosita sifatida yuzaga keldi. Bu, o‘z navbatida, «sovuq urush» holatida yuzaga kelgan bipolyar tizimda o‘ziga xos holatini yuzaga keltirishga sabab bo‘ldi. Bu, birinchi navbatda, madaniy munosabatlarda ko‘zga tashlandi. Jahonning yetakchi mamlakatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlari tomonidan xalqaro munosabatlarda o‘z strategiyalarini Ipak yo‘li brendi asosida amalga oshira boshladi.

O‘zbekiston ushbu loyihaning iqtisodiy, madaniy gumanitar, transport-kommunikatsiya loyihalarida ishtirok etmoqda va ishtirokchi davlatlar bilan o‘z manfaatlari doirasida munosabatlar olib bormoqda. O‘zbekiston ushbu loyiha asosida mamlakatga yangi investorlar, sarmoyalarni jalb qilish, sog‘lom iqtisodiy raqobat muhitini yaratish, xorijiy qo‘shma loyihalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Shunday holda Ipak yo‘li loyihasi O‘zbekistonga qulay iqtisodiy platforma yaratadi hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish hamda yangi transport yo‘laklari asosida mintaqa bozorlariga chiqish, mamlakatni Markaziy Osiyoning iqtisodiy va logistika markaziga aylanish imkonini beradi. O‘zbekiston Yangi Ipak yo‘li konsepsiyasi doirasida «Angren–Pop» temir yo‘li qurilishini hamkorlikda amalga oshirdi. O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Xitoy temir yo‘li doirasida hamkorlik olib bormoqda. O‘zbekiston ishtirokchi mamlakatlar bilan loyihaning rivojlangan davlat lari tajribasidan keng foydalanishi, innovatsion qishloq xo‘jaligini va inson kapitalini rivojlantirishda ilmiy salohiyatdan yetarlicha foydalanish, savdoiqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha

yangi yo‘nalishlar yuzasidan o‘zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O‘zbekiston Ipak yo‘li konsepsiyasining ishtirokchisi sifatida unga a’zo mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamda energetika sohasida faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Ushbu sohadagi o‘zaro munosabatlar O‘zbekistonning milliy va iqtisodiy manfaatlari dan kelib chiqqan holda, mamlakatni yanada rivojlantirish, xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkor mamlakatlari va tashqi savdo aylanmasi Ipak yo‘li loyihasi ishtirokchi davlatlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda [A. Mullayev, 2016]. O‘zbekistonning Ipak yo‘li konsepsiyasi doirasida energetika sohasidagi o‘zaro munosabatlari mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston mazkur sohada Ipak yo‘li loyihasi ishtirokchi davlatlari bilan ko‘plab yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, energetika sohasida yirik manba va imkoniyatlarga ega mamlakat sifatida O‘zbekiston ushbu loyiha ishtirokchi mamlakatlarining ilg‘or tajribasini o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishi maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Ipak yo‘li konsepsiyasi doirasida madaniy-gumanitar sohada o‘zaro aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Ular ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, sport, turizm, san’at va madaniyat sohalarida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu loyiha ishtirokchi mamlakatlari bilan bir qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda, ilmiy anjumanlar, nashr va akademik almashinuvlar ilm-fan sohasida yo‘lga qo‘yilgan. Xalqlar va mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro madaniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda «xalq diplomatiyasi» tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Ipak yo‘lidagi madaniy munosabatlar ham shunday rivojlangan. Chunki «xalq diplomatiyasi» mexanizmini rivojlantirish madaniy munosabatlarni yuksaltirishning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa

XX asrning 70-80-yillaridan boshlab dunyoning rivojlangan mamlakatlarida Ipak yo‘li tadqiqotlari bo‘yicha markazlar vujudga kela boshladi. Bunday markazlar turli mamlakatlar tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayrim davlatlar xalqaro aloqalarini yo‘naltirib turishga ko‘maklashuvchi «aql markazlari» vazifasini ham bajaradi. Ular tomonidan ilgari surilgan ilmiy xulosalar natijasida yirik aktorlarning Ipak yo‘li mamlakatlariga nisbatan tashqi siyosiy va iqtisodiy strategiyasi shakllantirila boshlandi. AQSh, Rossiya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan tashqi siyosatida ushbu masalalarni kuzatish mumkin. Biroq ayrim tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi va ichki siyosati to‘g‘risida yetarli darajada isbotlanmagan tahliliy materiallarni kuzatish mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekistondagi tadqiqot markazlari salohiyatini kuchaytirish, bu borada jahon tajribasini o‘rganish, halqaro hamkorlikni yanada kengroq rivojlantirish, mamlakatda yuz berayotgan jarayonlar to‘g‘risida ko‘proq tahliliy materiallar nashr etish, bunday tadqiqot markazlarini O‘zbekistonning ilmiy salohiyati kuchli bo‘lgan hududlarida ham tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Xo‘jayev A. Buyuk Ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.

– Toshkent: Yangi nashr, 2011.

Kobzeva O. Velikiy Shelkovыy put: analiz problem izucheniya i

O‘zbekiston va zamonaviy Ipak yo‘li diplomatiyasi. – Toshkent: Zilol

Rol “Velikogo Shelkovogo Puti” v mejdunarodnых svyazax gosudarstv

e B. 7-11.

Markaziy Osiyo va Rossiyaning zamonaviy tadqiqot markazlari

GLOBALLASHUVNING INQILOBIY MOHIYATI

***PhD* Sherov Mansur Boltayevich**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

Ushbu ilmiy maqolani yozishdan asosiy maqsad bo‘lib qachondan beri amal qilib kelayotgani haqida ham to‘xtalib o‘tish amalga oshirilgan: globallashuvning boshlang‘ich bosqichi haqida mualliflar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil qilish; XX asrning yutug‘i ham tafakkurda, ham texnikada afsonaviy tezlik va tezlanishlarni

Kalit so‘zlar: Globallashuv, inqilob, globallashuvning boshlang‘ich g‘oya, tafakkur, afsonaviy tezlik, sun’iy materiallar, zamonaviy

THE REVOLUTIONARY NATURE OF GLOBALIZATION

Abstract (annotation)

The main purpose of writing this scientific article is to think about the revolutionary nature of globalization, to dwell on how long it has been in practice. Based on this goal, the following tasks were solved: analysis of the ideas put forward by the authors about the initial stage of globalization; to analyze the achievements of the 20th century, both in thinking and in technology, the ability to control legendary speeds and accelerations and the creation of opportunities to produce artificial materials. At the same time, studying the possibilities of using the economic advantages created by the process of globalization for any country moving towards modern technologies.

Key words: Globalization, revolution, initial stage of globalization, idea, thinking, legendary speed, artificial materials, modern technologies.

Insoniyat har doim ziddiyatlar va xavotirlar girdobida yashab kelgan. U o‘z boshidan jahon urushlari, yadro qurollari xavfi, turli tabiiy va texnogen fojialarni kechirgan, ular bugun ham davom etib kelmoqda. Bugun u o‘zining ta’sir kuchi bilan yuqorida keltirilgan xavflardan kam bo‘lmagan globallashuvning xavf-xatarlariga duch kelmokda. Asosiy xavf shundan iboratki, u yuksak rivojlangan mamlakatlarga endi taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan mamlakatlardagi millatlar va elatlarni qaram qilish, ularning moddiy boyliklarini qulga kiritishda qirg‘inbarot qurol kuchi bilan emas, balki o‘zlarida mavjud bulgan fan va texnika, texnologiya yutuklarini ommalashtirish, investitsiyalar kiritish, iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish kabi omillardan foydalanish vositasida ularning ongi, qalbi va ruhiyatini egallash, oxir-oqibatda ular ustidan hukmronlikni to‘la o‘rnatish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilmokda.

Ko‘rinishidan, har ikki tomon ham globallashuv jarayonidan manfaat ko‘rayotgandek bo‘lsada, amalda asosiy manfaatni katta intellektual salohiyat, fan-texnika, texnologiya yutuklari va zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalarga ega bo‘lgan mamlakatlar ko‘rmoqda, bunga ega bo‘lmaganlar esa ana shu taraqqiy etgan mamlakatlarga o‘zlari oxirigacha anglab yetmagan holatda ularga bog‘lanib qolayotir. Negaki, globallashuv zamirida gegemonlik g‘oyasi mavjud bo‘lib, turli mazmunda, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy kabi sohalarda o‘zini namoyon etib kelmokda. Buning natijasida taraqqiyot yo‘lidan borayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar, millatlar, ellatlarning milliy ma’naviyati va moddiy imkoniyatlari globallashuvning qurboniga aylanmoqda.

Jamiyat tarixini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, insoniyatning ilk o‘tmishi, dastlabki moddiy va ma’naviy madaniyat makonlari Sharqda shakllangan va insoniyatning keyingi taraqqiyotiuchun zamin tayyorlab bergan. Sharq juda katta geografik hududga ega bo‘lib, asosan to‘rt qism: Yaqin Sharq, O‘rta Sharq, Janubiy va janubi-sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqqa bo‘linadi.

Sharq mamlakatlari mamlakatimiz milliy manfaatlari tizimini ta’minlash borasida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, yosh mustaqil davlatimiz tegishli tashqi siyosiy muassasalar uchun aynan shu o‘ziga xos va biz uchun muhim hisoblangan bu geografik makonlarning parametrlarini o‘rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umuman olganda, Sharqning bu qismlardagidavlatlari O‘zbekiston uchun yangilik emas, desa ham bo‘ladi. Zotan, mamlakatimiz bir vaqtlar Buyuk Ipak Yo‘li orqali bu mintaqa xalqlari bilan qadimdan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, bugun kunda Yaqin va O‘rta Sharqdajoylashgan mamlakatlarning mavqei, jahon geosiyosiy koordinatalari orasida tutgan o‘rni ilgarigidan keskin farq qiladi. Bu masala to‘g‘risida so‘z yuritar

ekanmiz, tashqi siyosatimiz samaradorligi nuqtainazaridan ulargaxosayrim xususiyatlarni hisobga olmasligimiz mumkin emas.

Mazkur geografik makon joylashgan mamlakatlarning bugunga xos bo‘lgan jihati birinchi navbatda ularning kuchli davlat strategiyasining muhim nuqtasiga aylanib qolganligi bo‘lsa, ikkinchidan ularga xos permanent (uzoq davom etuvchi) mojaroli holatning mavjudligi. Ayni paytda o‘z yechimini topmayotgan Isroil-Falastin, Isroil-Arab davlatlari, Kurdiston muammosi, umuman, mintaqada joylashgan davlatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan an’anaviy ishonchsizlik holati, eng avvalo, Afg‘oniston hududidagi mojaroli vaziyat to‘g‘risida bormoqda. Bu singari noaniq vaziyat, birgina mintaqa davlatlari emas, balki manfaatlari ushbu mintaqa jarayonlari bilan tutash davlatlarning geosiyosiy imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda.

Shuni aytish kerakki, vaqt o‘tishi bilan globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo‘la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o‘sgan bog‘liqligi shuni ko‘rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea - hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya’ni an’anaviy tahdidlar bilan o‘zaro qo‘shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, ko‘p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan - ochiq da’volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida xalqaro xavfsizlikning yangi noan’anaviy tahdidlari: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, separatizm vujudga kelishi kuzatiladi. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv natijasida kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda.

So‘nggi davrlarga kelib, geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi hamda raqobat kuchayishi natijasida yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari, ilgari kuzatilmagan tahdidlar yuzaga kela boshladi. Ayrim g‘arb davlatlari tomonidan o‘z milliy manfaatlarini kengaytirishda «demokratiya eksporti»

«ikkilamchi meyor» siyosiy va «axborot huruji» kabi asosiy vositaga aylanmoqda. Globallashuv jarayonini bevosita axborot bilan bog‘liq ekanligini tushinish qiyin emas, albatta.

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSH Strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o‘z shaxsiy manfaatlariga o‘ta arzon, o‘ta qulay yo‘llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta’minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga e’tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati «Xavfsizlik»ka bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e’tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali «ezgulikka» xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo‘lgach, uning o‘rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston bilan bog‘liq jarayonlarda uchratish mumkin.

Millat insonlar joni va qoni bilan yaratilgan oliy kadriyatlardan biridir, uning ma'nan o'lishi esa muqarrar ravishda butun insoniyatning jismonan o'lishiga ham olib keladi. Shuning uchun ham millatni asrash uchun, uning asosiy kuchi – "men"ini ta'minlaydigan ma'naviyatini asrash globallashuvning avj olishi sharoitidagi o'ta muhim milliy manfaatlarga molik vazifaga aylanib bormoqda. Chunki, u jadallashgani sari milliy ma'naviyatlarga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar ham oshib bormoqda. Bunga befarq bo'lish esa, ertaga milliy ma'naviyatni asrash uchun kech bo'lishi mumkinligini bugungi milliy ma'naviyatimizning tobora yemirilish jarayoni tasdiqdamoqda.

Umuminsoniy ma'naviyat turli-tuman millatlarning o'ziga xos boshqa millatlar uchun ham ma'naviy oziqa bera oladigan qirralarini o'zida mujassamlashtirganligi bois, tabiiy ravishda keng yoyilib boradi hamda jahonda yashayotgan turli millatlarning ma'naviyati rivojlanishiga yordam beradi.

Shuning bilan birga umuminsoniy ma'naviyatning shakllantirish jarayonining o'zi ham milliy ma'naviyatlar rivojlanishiga yordam beradi. Chunki bu jarayonda turli millat va elatlar teng huquq imkoniyatga ega bo'lib, ularning har biri o'z ma'naviyatining boshqalar uchun ham zavq - shavq va ilhom bera oladigan jihatlarini rivojlantirishga harakat qiladi hamda uni ommaviylashtirishda o'zi faol ishtirok etadi. Uning zaminida zo'ravonlik yo'li bilan o'zga millat va elatlar ongi, qalbini egallash maqsadi turmaydi, balki ma'naviy tenglik, samimiylik, o'zaro do'stlik, qardoshlik va bir-birini ulug'lash kabi umuminsoniy qadriyatlar turadi. Shuning uchun ham turli millatlarni o'zaro boyitib boradi, ularni yaqinlashtiradi va ma'naviyatlarning yuksalishiga yordam beradi.

Axborot globallashuvi va yoshlar ma'naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi - yoshlar ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir.

Gap shundaki, axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsad sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog'liq.

O‘tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bog‘liq vaziyatning murakkabligi, ya’ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo‘qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarining ko‘pchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning o‘ziga xos barometri bo‘lib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon bo‘lsa, beqarorlik ko‘rsatkichi, siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining o‘ziga xos alomati sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi masalada avvalo, yoshlarimizning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo bo‘ladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan o‘rganadigan bo‘lsak, mafkuraviy immunitet - har qanday axborot ta’siriga tushib qolmaslik, avvalo, o‘sha inson ongu-tafakkuri, idroki nechog‘lik o‘tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog‘liq.

To‘g‘ri, avvalo hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko‘nikmalarini hosil qilish, inson tug‘ilganidan to shaxs sifatida shakllanguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma’lum bir yoshning ko‘p kitob o‘qishi, o‘z mamlakati tarixini o‘rganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so‘z bilan aytganda, unda milliy e’tiqod - milliy faxr shakllanishi muhim o‘rin tutadi. O‘z millati qadriyatlarini qadrlagan, o‘z tarixini bilgan, Vatanga e’tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta’siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o‘ziga xos psixologiya va masalaga o‘ziga xos yondashuv paydo bo‘lgan bo‘ladi. U har qanday axborot zamirida ma’lum bir maqsadni o‘rgana boshlaydi.

Ma’naviyati qashshoq inson, millat va xalqda ana shu tuyg‘ular mavjud bo‘lmaydi, u ruhan tushkunlikka mubtalo bo‘lgan, o‘zgalarga itoatkor, ularning orqasidan yuradigan bo‘lib qoladi. Ko‘rinib turibdiki, ma’naviyatning yemirilishi, uning barbod bo‘lishi boshqa barcha sohalarning ham barbod bo‘lishiga olib keladi.

Shu ma’noda ham O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin” [1] - deb, ta’kidlagan edilar. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bugun milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan masalalardan biriga aylandi.

Globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mazmunlarga ega bo‘lib, unga jarayon yoki hodisa sifatida qaraganda nima o‘zgaradi, bu tushunchalarning

mazmuni nimalarda o‘z ifodasini topadi, degan savolga javob izlashimiz lozim.

Jarayon hodisa bilan uzviy bog‘liq. Agar hodisa obyektiv borliqning tez o‘zgaruvchan tashqi tomonini ifoda ettirsa, jarayon hodisaga nisbatan passiv jihatini o‘zida ifoda etadi va ayni paytda, hodisa jarayonning moddiy borlikdagi ifodasi hamdir. Jarayon tabiat, jamiyat va insoniyat xayotida kechadigan voqea va hodisalarning uzluksizligini anglatuvchi tushunchadir. Uning o‘zak mohiyatini ana shu uzluksizlik tashkil qiladi. U tabiat, jamiyat va inson hayotida kechadigan hodisa bo‘lganligi uchun ham ulardagi obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida o‘zgarib boradi. Ammo jarayon obyektiv qonuniyatlar asosida yuzaga kelsa, uni subyektiv kuchlar aralashuvi bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Agar bunday jarayonlar ma’lum maqsadni amalga oshirishga yo‘naltiriladigan bo‘lsa, uni boshqarish mumkin bo‘ladi.

Bugun globallashuvning avj olishi va uning poyoni yo‘qligidan, oxiri ko‘rinmayotganligidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, unga jarayon sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat va insoniyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Ya’ni, uni biz xoxlaymizmi-yo‘qmi, bunga bog‘liq bo‘lmagan holda kechadi. Chunki u borliqning yashash qonuni hisoblanadi. Uchinchi tomondan, globallashuv garchand jamiyat va insoniyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyati bo‘lsa-da, u inson omilini, uning ishtirokini absolyut tarzda inkor etmaydi. Chunki globallashuv fan, texnika, texnologiya va hozirgi zamon kommunikatsiyalarisiz hech narsa emas, u mavhum tushuncha, faqat ularning yutuqlari hamda ommaviylashuvi natijasidagina moddiy kuch sifatida o‘z ifodasini topadi.

Globallashuv jarayonining barcha sohalardagi ko‘lami, salohiyatini dunyo va xalqlar hayotini o‘zgartirishdagi qudrati, kuchini o‘tmishda xalqlar va mamlakatlar hayotida bo‘lib o‘tgan inqiloblar bilan tenglashtirish mumkin. Ayni paytda, u o‘zining hali tarixda insoniyat erishmagan yutuqlari, darajalari jihatdan har qanday inqiloblardan ham yuksakdir. Ana shu jihatlarini hisobga olib, globallashuv jarayonini insoniyat va jamiyat taraqqiyotining yangi zamon inqilobi deyish mumkin.

Globallashuv jarayonining inqilobiy mohiyati haqida fikr yuritganda, eng avvalo, “inqilob” tushunchasining ma’no-mazmuni haqida to‘xtalish lozim bo‘ladi. Chunki uning ma’no-mazmuni, mohiyati va nimalar ta’sirida yuzaga kelishini tushunib yetmasdan turib, globallashuv bilan uning qanday aloqasi borligini ham anglash qiyin bo‘ladi.

Ma’lumki, inqilob turli sohalarda sodir bo‘lah-digan katta burilishlarni o‘zida ifoda etadi. Jumladan, bu jarayon fanda, texnika texnologiyasida va

jamiyatda sodir bo‘ladi. Fandagi inqilob uning taraqqiyotidagi ulkan burilish, yuksaklikka ko‘tarilgan yangi bosqich hisoblanadi.

U oddiy taraqqiyotning davomi emas, balki uning rivojlanishida ma’lum bosqichda sodir bo‘lib turadigan, o‘z kuchi, qudrati bilan yangi taraqqiyot va davrni boshlashga olib keladigan katta burilishni o‘z ichiga oladi. Fan-texnika texnologiyalaridagi inqiloblar ijobiy ahamiyatga ega bo‘lib, butun insoniyatga xizmat qiladi. Jamiyatda sodir bo‘ladigan inqiloblar esa alg‘ov-dalg‘ovlar va katta fojialarga olib keladi.

Jahon taraqqiyotida sodir bo‘lgan inqiloblar insoniyat boshiga katta bugungi kunda ba’zi to‘dalarning “quyushqon”dan chiqib ketishi natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday “inqilob” lar uning boshiga misli ko‘rilmagan darajada halokatlarni yog‘dirayotganining guvohi bo‘lib turibmiz [2].

s
h

Globallashuv jarayonining avj olishi ham milliy o‘zlikni anglashning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. U yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zga mamlakatlarning fan yutuqlari, texnika, texnologiya va investitsiyalari bilan ularning ma’naviyati, axloqi, ularning o‘zligini anglash rivojida beqarorlik vujudga keladi.

i
l

Chunki millatlar hayotiga kiritilayotgan ma’naviyatga daxldor barcha lardan milliy ma’naviyatga salbiy ta’sir o‘tkazuvchi mahsulotlarning farqini anglab yetish darajasiga ko‘tarish amaliy ahamiyatga egadir. Bugun xuddi mana shu muammoning mohiyatini anglashga e’tibor

a
r
n
i

Til insonni atrof-muhit bilan bog‘laydi. Uni olam sirlarini bilish, o‘z ongidan o‘tkazish va bundan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish imkoniyatini muloqot esa o‘zaro ma’naviy va ma’rifiy jihatdan boyishning muhim omili ko‘z, quloq qanchalik muhim bo‘lsa, til ularni “moddiylikka aylantirish”da shu darajada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Professor Q. X. Xonazarov ta’kidlaganidek: “Biz olamni tildan uzib faraz qila olmaymiz. Biz bilgan

i
q
b
o
l
i

n
a
f
a

o‘rganilmagan noma’lum qismlari ham tilda qamrab olingan, uning aniq Bunday ta’rif bizni ongimizni bilishga safarbar qiladi, tafakkurimizni

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyoning ko‘zga ko‘ringan

i
q
t
bilan bir qatorda globallashuvni siyosat va davlatchilik bilan bog‘lab
i
s
o
d
i
y
Jozef Stiglitsning fikri quyidagicha: “globallashuv insonlar hayotini hozirning o‘zida, masalan, ilmning globallashuvi sog‘liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi” [4].
ʋ
o
‘
uning qachondan beri amal qilib kelayotgani haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi. Ular haqida qisman bo‘lsa-da, ushbu satrlar muallifining yuqorida nomi zikr etilgan kitobida fikr yuritilgan bo‘lsa ham, fan bu boshlanganligi haqida ham o‘zimizning mulohazamizni bildirishimiz lozim bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

m

s
h
u
n
i

t
Ayni paytda globallashuvning dunyo miqyosida qarama-qarshiliklarga ta’siri goyasini N. Eyndjel o‘zining 1909 yilda yozgan “Buyuk xomxayol” (Великая иллюзия) nomli asarida asoslab bergan edi [5].

O‘zbek olimlaridan biri, filologiya fanlari doktori, professor savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o‘sish bilan bog‘laydilar hamda uning boshlanishini XIX va XX asr bilan va moliyaviy qudrati bilan globallashuv to‘lqinining birinchi bosqichi kafolati bo‘lgan. Globallashuvning ikkinchi bosqichi (yoki tiklanishi)ning bo‘lgan inqiloblar asosida boshlanganligi ta’kidlanadi[5]
r
i

qo‘yishi bilan bu atamaga moyillik sezildi va u hayotimizdan mustaqil o‘rin oldi. . . miloddan oldingi IV asrda yunon sarkardasi Makedoniyalik qudratli davlat barpo etmoqchi bo‘lgan va shu tariqa insoniyat tarixida

Yoki miloddan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar ham xuddi shunday yo‘l tutib, butun Yevropani ishg‘ol qilgan va qudratli imperiya Ta’bir joiz bo‘lsa, insoniyat tarixida zo‘ravonlik bulsa-da, ikkinchi lashuvga asos solgan” [6].

adabiyotda globallashuv jarayoni o‘rta asrlarda (IV -XIV) ham sodir bo‘lgan va insoniyat globallashuvning o‘zgacha ko‘rinishini boshdan tarixida ilk bor o‘zaro hamjihatlik, ya’ni globallashuvga intilish yuzaga

XIV-XVII asrlarda qadimgi yunon-rim va islom tamaddunidan baxra olgan ilg‘or fikrli ziyolilar G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish davri Madaniy hayotdagi globallashuv G‘arbiy Yevropaga ko‘chdi. 1789 yili Fransiya Burjua inqilobi g‘alaba qildi. Shu tariqa XVIII asrda globallashuv ma’rifatparvarlik harakatlarida ko‘rindi va ular tomonidan amalga

XX asrda Marks ta’limotiga asoslangan sotsialistik realizm va Kyerkegor hamda Nitsshe nazariyasini targ‘ib qilgan modernizm (postmodernizm) adabiyot va san’at XXI asrda kaysi yo‘ldan boradi, iktisodiyot va siyosatda kutilayotgan globallashuv adabiy jarayonga qanday ta’sir o‘tkazadi, degan

jarayonining shiddat bilan rivojlanishi shuni ko‘rsatmosdaki, milliy intellektual bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir jiddiy masala - unda munosib yetish jadal rivojlanayotgan jarayonlardan bir qadar orqada qolayotganga o‘xshaydi. Vaholanki, millatimiz istiqbolining muhim omili o‘zgalarning bo‘lgan mahsulotlarimizni ko‘proq sotishga erishishimizdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T. : “Ma’naviyat”, 2008. 12-bet.

2. Otamuratov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). - T. : «Yangi asr avlodi», 2008. 12-bet.

3. Xonazarov Q. Globallashuv va til falsafasi. - T. : Falsafa va huquq instituti, 2009. 13-6.

4. Uzbekistan and Central Asia. - Центр политических исследований. И..

Глобалистика: международный междисциплинарный энциклопедический словарь. - Москва-Санкт Петербург -Нью-Йорк, 2006. - С. 163.

Xo
ı
b
e
k
o
v

TALABALARDA MILLIY IDENTIKLIKNI ETNOPEDAGOGIKA VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

M.

A
d
a
b
i
y
o
t
d
a
g
i
o
b
a
l
i
m
e
s
h
u
v
.

–

Eng ibtidoiy zamonlardan boshlab insoniyat fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdan ko‘ra uni harakatlar ko‘rinishida ijro etish ancha ta’sirchan ekanligini anglagan. Qozog‘iston o‘zbeklarining milliy raqslari gultoji “Lazgi” turkumi hisoblanadi. Inson tuyg‘u va hissiyotlar olamida yashaydi, shuning uchun unga fikr yoki g‘oyani raqs va qo‘shiq shaklida yetkazish katta samara beradi. Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniyat birlashmalarining “Do‘stlik” hamjamiyati qoshidagi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor N. Almetov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “700 mingdan ortiq o‘zbeklar istiqomat qiladigan Janubiy Qozog‘iston o‘zbeklarining folkloristikada hali o‘rganilmagan ko‘plab ilmiy muammolari bor. Shulardan biri – Qozog‘iston o‘zbeklarining laparlari. Xalqning bir necha avlodlari og‘zaki holda transformatsiya qilib kelgan laparlarning faqat ba’zi bir parchalari yozib qoldirilgan, eng asosiysi – hanuzgacha Janubiy Qozog‘istonda istiqomat qilayotgan o‘zbeklar laparlari bir tizimga tushirilmagan(Hoy-hoy o‘lan, jon o‘lan. . . , 2019:3)”. Qozog‘iston o‘zbeklarining raqslari haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Tarix – millat va xalqning hayot falsafasidir. Qadim zamonlardan buyon Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan Xorazm Sharq bilan G’arb, Yunon, Rum, Vizantiya, Xitoy, Hindiston va Eron xalqlari o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar ravnaqida muhim ahamiyat kasb etgan. Ming afsuski, ijtimoiy ziddiyatlar, o‘zaro urushlar, turli tabiiy ofatlar natijasida xalq ijodiy mehnati va zakovati bilan ko‘p asrlar davomida yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar, ilmiy kashfiyotlar, bebaho san’at asarlari tufayli birda yo‘qolib, birda tiklanib boraverardi. Lekin yo‘qotishlar ko‘proq bo‘lgan va bular tamaddunning haqiqiy tanazzuli edi. Uch ming yillik davlatchilik an’analariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi tarixida Xorazm davlatchilik tarixi alohida o‘rin tutadi. Akademik A. Muhammadjonov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Qadimgi Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiati, shubhasiz, faqatgina qadimiy aholisining turmush tarzini belgilabgina qolmay, bu diyorda yuzaga kelgan qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta’sir etgan (Muhammadjonov A. , 2015:4) ”.

Azaliy va abadiy qadriyatlar, tarixiy hodisalar, o‘tkinchi voqealar to‘qnashib turadigan bu dunyoda tarix haqiqatlarini tiklash nihoyatda mushkul. Xususan, Xorazm san’ati va madaniyati to‘g‘risidagi muhim ma’lumotlar “Avesto” hamda Gerodotning “Tarix”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, S. P. Tolstovning “Drevniy Xorezm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”, R. L. Sadokovning “Muzыkalnaya kultura drevnego Xorezma”, “Tыsyacha oskolkov zolotogo saza”, I. Jabborovning “Ko‘hna xarobalar siri”, “Jahon

xalqlari etnografiyasi”, T. Qilichevning “Xorazm xalq teatri”, V. I. Avdeyevning “Qadimgi sharq tarixi”, M. Rahmonovning “O’zbek teatr tarixi”, S. P. Senserevning “Legenda o Xorezme” kitoblari orqali yetib kelgan. Arxeologik qazilmalar natijasida Tuproqqal’a, Jonbosqal’a, Ayozqal’a, Qo‘narliqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Chilpiqqal’a, Xazorasp, Dovudqal’a, Qirqqiztepa, Kaltaminor yodgorliklaridan topilgan, Ma’mun akademiyasi arxivlarida saqlanayotgan nodir manbalar o‘z tadqiqini kutib turibdi.

NATIJALAR

Bizning buyuk ajdodlarimiz qadimdan yuksak salohiyat, ma’naviy-ma’rifiy xislat sohiblari bo‘lishgan. Arxeologik qazilmalarda topilayotgan qadimiy shahar va qal’alarning arxitektura yodgorliklari, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar qoldiqlari, devorlarga chizilgan suratlar, qadimiy haykaltaroshlarning yorqin iste’dodlari namoyon bo‘lgan asarlar, ko‘hna zaminning ming yillik afsonaviy tarixi, o‘sha zamon xalqlari hayoti, san’ati va madaniyati buyuk ekanligini isbotlaydi. Bu milliy-ma’naviy boyliklarni o‘rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hali ko‘p vaqt va katta mehnatni talab qiladi. Albatta, san’at turlari ichida milliy raqs inson ruhiyati va ongu shuuriga tez ta’sir etuvchi vosita sifatida ajralib turadi. Yoshlar qalbida tarixga qiziqish va hurmat, qadim qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda, mafkuraviy tahdidlar va ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi tura oladigan komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xorij davlatlarida ham “Lazgi” turkumining dovrug‘i baland. Negaki, qoni-jonida raqsning sehrli tarovati jo‘shib turgan xalqning nafosat va go‘zallikka bo‘lgan mehru muhabbati beqiyos. Insoniyatni ezgulikka chorlab, qalblarga jo‘shqin kayfiyat, ko‘tarinkilik in’om etadigan “Lazgi” raqsining o‘tmishi, yaratilishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish orqali o‘zbek xalqi madaniyatiga oid muhim ma’lumotlar aniqlanadi. Atoqli san’atshunos R. Karimova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “O’zbek xalqining milliy iftixori bo‘lgan raqs san’ati necha-necha asrlar davomida shakllandi, rivoj topdi. Lekin bu san’at turi yozma ravishda o‘z aksini topmaganligi uchun turli davrlarda unutilib ketar, mohir usta san’atkorlar davrida yana shakllanar edi. Ular shu ko‘rinishda bizning davrimizgacha qisman yetib kelgan(Karimova R. , 2003:5)”. Demoqchimizki, bu fikrlar o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tayotgan “Lazgi” raqslar turkumiga ham taalluqli. Ularning janr

xususiyatlarini, terminlari, atributlari va bezaklarining nomlarini yozib olish, ularning multimedia to‘plamlarini tayyorlash dolzarb muammolardan biridir. Raqs can’ati – inson tafakkurining mevasi sifatida, uning dunyoni anglashi va tevarak-atrofidagi milliy-madaniy muhit ta’siridagi his-tuyg‘ularini o‘z harakatlari orqali ifodalash ehtiyoji natijasida yuzaga kelgan. Keyingi yuz yilliklar davrida jamiyatning shiddat bilan taraqqiy etishi milliy raqs san’atiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Inson bolasining komillikka intilishi, avvalo, uning o‘z vatani tarixini, milliy qadriyatlarini bilishi, undan faxrlanib yashashida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy meros insonlarning bir biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanib, sayqallanib boradi. Millatlarning ma’rifiy - madaniy aloqalari qadriyatlarining avlodlardan avlodlarga o‘tishi va boyib borishi jarayonida rivojlanadi, xalqaro miqyosga chiqadi. Turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib, do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi eng bebaho madaniy boyliklardan biri, shubhasiz, betakror “Lazgi” raqsidir. 2019 yilning 12 dekabr kuni “Lazgi” Insoniyat nomoddiy merosining reprezentativ ro‘yxatiga O’zbekiston madaniy merosining elementi sifatida kiritildi. YuNESKOning Nomoddiy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi “Lazgi”ning Insoniyat nomoddiy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishini ovoz bermasdan, keng konsensus asosida ma’qulladi. “Lazgi” raqsida hayotsevarlik tamoyillari yuksak mahorat va zavq bilan tarannum etilgan. Haqiqiy san’at hamma zamonlarda ham istedod va mehnatni, salohiyat va izlanishni mahorat bilan uyg‘unlashtirgan ijodkorga nasib qiladi. Odamlar o‘rtasidagi do‘stona insoniy munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlashda sanat va madaniyatning, nomoddiy boyliklarning ahamiyati beqiyos. “Avesto” da ifodalangan harakatlarning raqs elementlari bilan mushtarak ekanligi “Lazgi”ning nihoyatda qadimiy ekanligidan dalolat beradi. “Lazgi”ni hayotsevarlikni ulug‘lovchi, targ‘ib etuvchi sharaf va go‘zallik raqsi deyish mumkin. Turli millatlarni bir davraga jam qiluvchi, ularni birlashtiruvchi asos hayotsevarlik va muhabbatdir. “Lazgi” o‘zining shunday mo‘‘jizaga egaligi bilan ajralib turadi. “Lazgi”ning qadim ildizlarida Xorazm raqs maktabiga oid eng nozik elementlarning mohiyati mujassam. “Masxaraboz Lazgisi”, “Qayroq Lazgisi”, “Dutor Lazgisi”, “Surnay Lazgisi”, “Saroy Lazgisi”, “Changak Lazgisi”, “Xiva Lazgisi”, “Garmon Lazgisi”, “Xorazm Lazgisi” kabi bir-birini takrorlamaydigan to‘qqiz muhtasham asar o‘zbek milliy raqs san’atining qanchalar serqirra ekanligini anglatuvchi bebaho xazinadir. “Lazgi” nafaqat o‘zbeklarning, balki dunyo xalqlarining mehrini qozongan go‘zal raqsgina emas, balki sirli musiqa, sehrli so‘zga vobasta muazzam asar sifatida namoyon bo‘ladi. “Lazgi”ning hayotbaxsh, jozibali kuchi, inson kayfiyati va ruhiyatini ko‘targuvchi sehri haqiqiy mo‘‘jiza ekanligini, dunyo sahnalarini, turli tilda

so‘zlaguvchi odamlarni bir-biriga yaqinlashtirguvchi muhim vosita ekanligini bugun butun jahon e’tirof etmoqda. “Lazgi”ning tarixi, uning “Avesto” bilan bog‘liq jihatlari, milliy qadriyatlar va an’analarni jamlovchi xususiyatlari, 9 ta “Lazgi”ning mifologik ildizlari, bir - biriga yaqin va farqli tomonlari, ular bilan bog‘liq afsonalar, rivoyatlar, asrlar mobaynida tildan-tilga o‘tib keladigan aytimlar raqsning jozibadorligini yanada oshiradi. Qozog‘iston o‘zbeklari orasida mashhur “Lazgi” turkumining lingvomadaniy, lingvodidaktik jihatlarini o‘rganish, uni asrab-avaylash, zamonaviy ijro uslublari namunalari bilan yanada takomillashtirish, uning ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini olimlar va ijrochi mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, O’zbekiston xalq artisti G. Matyoqubovaning fikricha, “Lazgi” raqsi milliy qadriyatlarga asoslangan alohida xususiyatlari va o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy raqslar ular uchun nafaqat sahna tomoshasi, balki hayotcevarlikning tarkibiy qismidir. Raqslar faqat vaqtni chog‘ o‘tkazish, ko‘ngilni ko‘tarish vositasi emas, ayni chog‘da bu o‘ziga xos madaniyat belgisi hisoblanadi. Insonlarni yaqinlashtiradi, ularni yaxshilik va ezguliklarga da’vat etadi. Bu ulug‘ e’tirof o‘zbek xalqi nomini dunyoga tanitayotganlar safida “Lazgi” raqsi alohida nufuzga ega ekanligini bildirish barobarida san’atkorlar, san’atshunoslar va amaliyotchi pedagoglar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi(Karimova R. , 2003:6)”. Darhaqiqat, jozibali “Lazgi” Xorazm vohasida shakllanib, butun O’zbekiston hududida, shuningdek, Markaziy Osiyoda yashovchi o‘zbek xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Eng muhimi, “Lazgi” raqsi doimiy va muttasil harakatdagi, o‘sib-o‘zgarishdagi, davr o‘tgani sayin sayqallanib, takomillashib borayotgan taraqqiyot jarayonidir. Bu raqs VIII-XX asrning boshlarigacha Xorazmshoh – xonliklar davrida saroy bazmlarida ham o‘ziga xos ravishda ijro etib kelingan, qo‘shni davlatlarda ham keng tarqalgan. Qozog‘iston o‘zbeklarining qadimdan hozirgi kunga qadar Navro‘z,

Mehrjon, Hosil bayramlari kabi xalq sayillarining, beshik to‘y, muchal to‘y, nikoh to‘y, keyinchalik sunnat to‘ylarning, oddiy oilaviy tadbirlarning ko‘rki va gultoji ham barchani birdek davraga tortadigan jo‘shqin “Lazgi” hisoblanadi. Shuningdek, u farovonlik ramzi bo‘lib, raqs uchun maxsus libos, bezak va taqinchoqlarning zarurati qadim zamonlardan boshlab an’anaviy hunarmandchilik turlarining kengayishi va ravnaqiga sabab bo‘ldi. Bu sehrli raqs XX asrning 30-40 yillarida O’zbekistonning barcha hududlarida keng tarqaldi. XX asrning ikkinchi yarmidan Toshkent shahri Xorazm “Lazgi”sining nafaqat an’anaviy-ma’rifiy, balki professional-sahnaviy shakllari tarqalishida o‘ziga xos markazga aylandi. Qozog‘istonning Chimkent, Turkiston, Jambul, Almati shaharlarida ham keng tarqaldi. Turkiy xalqlar uchun madaniy meros va milliy qadriyatlarni asrash eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir. Zero, har bir millat o‘z kelajagiga nazar tashlar ekan, eng avvalo, o‘zining o‘tmishi, tafakkur salohiyatini chamalab ko‘rishi zarur. Qozog‘iston o‘zbeklari milliy raqslarining, xususan, “Lazgi” turkumining tizimli ta’limi va keng miqyosda targ‘ib qilinishi dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqadigan yoshlarimizning tafakkuri va zehnini yanada charxlab, ikki qardosh xalq o‘rtasidagi totuvlikni mustahkamlashda o‘ziga xos omil vazifasini o‘taydi. San’atshunoslarning fikricha, “Har bir milliy raqs o‘zi mansub xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi va xalq musiqasi hamda qo‘shiqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Milliy raqs – xalq tomonidan yaratiladi va uning madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi (Volodkina N. A. , 2019:7)”.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash zarurki, tinchlik va birodarlik madaniyati, eng avvalo, milliy madaniyatlar muloqoti, o‘zaro ishonch va bag‘rikenglik falsafasidir. San’at va madaniyat orqali yoshlarimiz bir-birini hurmat qilish, yanada yaqinlashish, umuminsoniy fazilatlarni birgalikda qadrlash ilmini o‘rganadilar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Azilxanov M. O. Milliy madaniyatlar integratsiyasi – xalqaro hamkorlik vositasi. O’zMTRK “O’zbekiston” teleradiokanaling “Bedorlik” eshittirishi. 2022yil, 26 sentabr.

Toxtasimov Sh. https://uza. uz/oz/society/

Hoshimjonov I. , Qirg‘izboyev G’. , Turdiqulov B. , Tursunmetov S. Janubiy Qozog‘iston viloyati o‘zbek madaniyati markaziga 25 yil. Chimkent. : 2019.

Hoy-hoy o‘lan, jon o‘lan. . . Qozog‘ston o‘zbeklarining xalq og‘zaki ijodi. Shimkent. : 2019.

Turkiston tarixi. To‘plam. 1-j. Chimkent. : 2018.

Jabborov I. O’zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent. : “O’qituvchi”nashriyoti, 1994.

Avdeyeva L. O’zbek milliy raqsi tarixidan. Birinchi kitob. Toshkent. : G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.

O’zbek xoreografiyasi san’atida vorislik masalalari. To‘plam. Toshkent, 2015.

Volodkina N. A. Urok narodno-ssenicheskogo tansa. Sankt-Peterburg, izd. ”Planeta muzыki”, 2019.

Matyoqubova G. Toxtasimov Sh. Hamroyeva H. “Xorazm Lazgi raqsi”: tarixi va tavsifi. Toshkent, 2022.

Matyoqubova G. “Lazgi” raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya. Toshkent. : “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023.

KENGAYTIRILGAN ANNOTASIYa

Hamma zamonlarda ham dunyo xalqlari san’at va adabiyot orqali bir-birining tarixini, turmush tarzini, madaniyati va qadriyatlarini muntazam o‘rganib, bir-birlarini ruhan boyitib boradilar. Arxeologik qazilmalarda topilayotgan qadimiy shahar va qal’alarning arxitektura yodgorliklari, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar qoldiqlari, devorlarga chizilgan suratlar, qadimiy haykaltaroshlarning yorqin iste’dodlari namoyon bo‘lgan asarlar, ko‘hna zaminning ming yillik afsonaviy tarixi, o‘sha zamon xalqlari hayoti, san’ati va madaniyati buyuk ekanligini isbotlaydi. Bu milliy-ma’naviy boyliklarni o‘rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hali ko‘p vaqt va katta mehnatni talab qiladi. Albatta, san’at turlari ichida milliy raqs inson ruhiyati va ongu shuuriga tez ta’sir etuvchi vosita sifatida ajralib turadi. Yoshlar qalbida tarixga qiziqish va hurmat, qadim qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda, mafkuraviy tahdidlar va ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi tura oladigan komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda adabiy-madaniy, ilmiy-ma’rifiy aloqalarning mustahkamlanishi, umuminsoniy qadriyat sifatida yuqori bosqichga ko‘tarilishi xalqaro munosabatlar taraqqiyotida yangi sahifa ochdi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog‘iston va O’zbekiston Respublikalari o‘rtasidagi yaqin qo‘shnichilik, do‘stlik va birodarlik munosabatlarining kundan - kunga yuksalib borayotganligi hech kimga sir emas. Zero, Qozog‘iston o‘zbeklarining folklori, milliy raqs san’ati o‘ziga xos xususiyatlari, tarixi va shakllanish jarayoni bilan ajralib turadi.

Qadim ildizlari tutash ikki qardosh mamlakatda hamkorlikda o‘tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, adabiy uchrashuvlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar haqiqiy san’at bayramiga aylanib ketadi. O’zbek va qozoq xalqlarining farzandlari bir ota-onaning bolalaridek ahil va totuv ekanligi ularning raqslarida ham aks etadi hamda Qozog‘iston va O’zbekiston davlatlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikning istiqboli porloq ekanligidan darak beradi. Davrlar o‘tishi bilan xalq ijodiy namunalariga aylanib borgan bu raqslar turli-tuman shakllarda jilolanib, o‘zining milliy jozibasi bilan barchani birdek rom qiladi. Ma’lumki, o‘zbek milliy raqs san’atida harakat shunchaki jismoniy ma’nodagi hodisa emas, balki so‘zda izhor qilish mumkin bo‘lmagan qalb tug‘yonlarining yorqin va jonli ifodasidir. Bugungi kunda xorij davlatlarida ham “Lazgi” turkumining dovrug‘i baland. Negaki, qoni-jonida raqsning sehrli tarovati jo‘shib turgan xalqning nafosat va go‘zallikka bo‘lgan mehru muhabbati beqiyos. Insoniyatni ezgulikka chorlab, qalblarga jo‘shqin kayfiyat, ko‘tarinkilik in’om etadigan “Lazgi” raqsining o‘tmishi, yaratilishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish orqali o‘zbek xalqi madaniyatiga oid muhim ma’lumotlar aniqlanadi. Eng ibtidoiy zamonlardan boshlab insoniyat fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashdan ko‘ra uni harakatlar ko‘rinishida ijro etish ancha ta’sirchan ekanligini anglagan. Qozog‘iston o‘zbeklarining milliy raqslari gultoji “Lazgi” turkumi hisoblanadi. Inson tuyg‘u va hissiyotlar olamida yashaydi, shuning uchun unga fikr yoki g‘oyani raqs va qo‘shiq shaklida yetkazish katta samara beradi. Hamma zamonlarda ham milliy raqslar hayotcevarlikning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. O’zbek raqslarini Qozog‘istonda barcha millatlar birdek sevadi, ayniqsa, “Lazgi” va ”Andijon polkasi”ga hamma erkin, jo‘shib o‘ynaydi. O’ziga xos madaniyat belgisi sifatida milliy raqslar turli millatlarni yanada yaqinlashtirib, ularni yaxshilik va ezguliklarga da’vat etadi. Mazkur maqolada Qozog‘iston o‘zbeklari raqslarining milliy qadriyatlar va madaniy an’analar bilan uyg‘unligi, lingvodidaktik va lingvomadaniy xususiyatlari “Lazgi” turkumi misolida tadqiq qilinadi.

EXTENDED ANNOTATION

In all times, the peoples of the world regularly study each other's history, lifestyle, culture and values through art and literature, enriching each other spiritually. Architectural monuments of ancient cities and fortresses, remains of palaces, castles, temples, paintings on the walls, works of ancient sculptors' brilliant talents, thousands of years of legendary history of the ancient land prove that the life, art and culture of the peoples of that time were great. Studying these national-spiritual treasures, conducting scientific research still requires a lot of time and a lot of work. Of course, among art forms, national dance stands out as a

tool that quickly affects the human psyche and consciousness. Interest and respect for history in the hearts of young people is important in forming a sense of love for ancient values, in raising them to be perfect people who can resist ideological threats and the influence of mass culture, opened a new page in the development of relations. It is not a secret to anyone that the close neighborly, friendly and fraternal relations between the Republics of Kazakhstan and Uzbekistan among the countries of Central Asia are increasing day by day. After all, the folklore and national dance art of the Uzbeks of Kazakhstan are distinguished by their own characteristics, history and formation process. Scientific-practical conferences, literary meetings, cultural-educational events held in cooperation in two brotherly countries with ancient roots will turn into a real art festival. The fact that the children of the Uzbek and Kazakh peoples are as harmonious as the children of one parent is also reflected in their dances, and it indicates that the prospect of friendship and cooperation between the countries of Kazakhstan and Uzbekistan is bright. Over time, these dances, which have become examples of folk art, are refined in various forms and captivate everyone with their national charm. It is known that movement in the art of Uzbek national dance is not just a physical phenomenon, but a bright and lively expression of the emotions of the heart that cannot be expressed in words.

Today, the popularity of the "Lazgi" series is high even in foreign countries. Because the people's love for elegance and beauty is incomparable. Important information about the culture of the Uzbek people will be determined by studying the past, creation, formation and development stages of the "Lazgi" dance, which invites humanity to goodness and gives the soul a lively mood and enthusiasm. From the most primitive times, mankind has realized that it is more effective to express thoughts in the form of actions than to express them directly. The "Lazgi" series is the national dance of the Uzbeks of Kazakhstan. A person lives in the world of feelings and emotions, so it is very effective to convey a thought or an idea to him in the form of dance and song. National dances have always been a part of life. Uzbek dances are equally loved by all nationalities in Kazakhstan, especially "Lazgi" and "Andijan Polka" are played freely and enthusiastically by everyone. National dances, as a sign of a unique culture, bring different nations closer together and encourage them to be good and virtuous. In this article, compatibility of Kazakh Uzbek dances with national values and cultural traditions, linguo-didactic and linguo-cultural features are studied on the example of the "Lazgi" group.

O‘ZBEK ISMLARINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

DSC Muyassar SAPARNIYAZOVA

Annotatsiya. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish borasida bugungi kunda yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, o‘zbek ismlarining izohli hamda imlo lug‘atlarini yaratish va lug‘atlardan foydalanishning zamonaviy va qulay usullarini ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir. Ismlar kishining jamiyatdagi mavqei, kelajaganining yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgarishini ta’minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. U qaysi tilgan olingan bo‘lmasin eshitilishi yoqimli, idrok etilishi qulay bo‘lishi kerak. Evfemik niyatlar, ijtimoiy sabablar jamiyat umumqabul qilingan qoidalariga, yozilmagan lingvokulturologik qonunlarga bo‘ysunishi kerak. Ismning go‘zalligi faqat bir til egalari uchun go‘zal bo‘lishi kerak emas. Zero, o‘zbek millatining yutuqlari natijasida ismlari ham dunyo oynasida o‘z aksini topmoqda.

Ushbu maqolada o‘zbek ismlarining milliy-madaniy xususiyatlari, ismlar imlosi va izohidagi ayrim munozarali masalalar, o‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘atini yaratish zarurati va uning tamoyillari xususida fikr yuritiladi. Tilning rivojlanish jarayonida uning antroponimik fondi ham boshqa sohalari kabi sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar antroponimik leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Globallashuv, jamiyat taraqqiyoti, xalqning tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar, milliy, diniy qadriyatlarga e’tiborning kuchayishi, nomlash motivatsiyalari kengayishi kabi omillar ta’sirida o‘zbek xalqi antroponimlar tizimi, uning lug‘at fondida o‘zgarishlar, yangilanishlarni vujudga keltiradi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa jahon leksikografiyasidagi zamonaviy tajriba hamda tendensiyalarni hisobga olgan holda o‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘atini yaratish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ismlar, antroponim, o‘zbek ismlari lug‘ati, imlo, lingvomadaniyatshunoslik, mobil ilova.

NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF UZBEK NAMES

DSC Muyassar SAPARNIYAZOVA

Abstract. There are a number of urgent problems that are waiting to be solved today in terms of increasing the status and prestige of the Uzbek language as a state language. In particular, creating explanatory and spelling dictionaries of Uzbek names and developing modern and convenient methods of using dictionaries is one of the tasks that cannot be delayed. Names are the most important factors that determine a person's position in society, change his future for better or worse. Whatever language it is taken from, it should be pleasant to hear and easy to understand. Euphemistic intentions, social reasons must obey the generally accepted rules of society, unwritten linguistic and cultural laws. The beauty of the name should not be beautiful only for the speakers of one language. After all, as a result of the achievements of the Uzbek nation, their names are reflected in the mirror of the world.

This article discusses the national-cultural characteristics of Uzbek names, some controversial issues in the spelling and interpretation of names, the need to create an explanatory spelling dictionary of Uzbek names and its principles. In the course of the development of the language, its anthroponymic fund, like other areas, undergoes significant and serious changes. These changes reflect the development of the anthroponymic lexicon not only quantitatively, but also qualitatively. Under the influence of factors such as globalization, development of society, changes in people's way of thinking, increased attention to national and religious values, expansion of naming motivations, the Uzbek people create changes and updates in the system of anthroponyms, its vocabulary. When such changes reach a certain level, there is a need for research that reflects them theoretically and practically. One of the main practical tasks is to create an explanatory spelling dictionary of Uzbek names, taking into account modern experience and trends in world lexicography.

Keyvords: names, anthroponym, dictionary of Uzbek names, spelling, linguistics and culture, mobile application.

KIRISH.

Bugungi globallashuv sharoiti millatning eng muhim qadriyatlaridan biri bo‘lmish kishi ismlarini millat tili lug‘at fondi, milliy va diniy qadriyatlar asosida va ularga mos tarzda muntazam boyitib borilishini taqozo qiladi. Ism masalasi shu qadar muhimligidan Yevropaning ba’zi davlatlarida tarixiy-milliy ismlar qo‘yish, boshqa xalqlardan ism olmaslik haqida alohida qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk tomonidan o‘z xalqi uchun ismlar borasidagi islohotlari tarixdan ma’lum va bugun dunyo maydonida turklarning ismi orqali ularning turk ekanligini tanib olish mumkin.

Bu boradagi e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalardan yana biri bu tilning an’anaviy antroponimiya fondini asrash, uning kamayishiga qarshi kurashish masalasidir.

Tilning rivojlanish jarayonida uning antroponimik fondi ham boshqa sohalari kabi sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar antroponimik leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Globallashuv, jamiyat taraqqiyoti, xalqning tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar, milliy, diniy qadriyatlarga e’tiborning kuchayishi, nomlash motivatsiyalari kengayishi kabi omillar ta’sirida o‘zbek xalqi antroponimlar tizimi, uning lug‘at fondida o‘zgarishlar, yangilanishlarni vujudga keltiradi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘iladi.

Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa jahon leksikografiyasidagi zamonaviy tajriba hamda tendensiyalarni hisobga olgan holda o‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘atini yaratish hisoblanadi.

Bugungi kunda Davlat xizmatlari agentligi tizimida, xususan, FHDY bo‘limlarida, shuningdek, fuqarolik pasportlarini rasmiylashtirish jarayonida o‘zbek ismlarining lotin hamda kirill alifbosidagi imlosi, ismlar ma’nosi izohi, shuningdek, pasport tizimida ularning ingliz tilidagi variantining to‘g‘ri yozilish holatlarida bir qator muammolar mavjud.

Bu esa kun tartibiga o’zbek ismlari izohi va imlosi masalalariga yechim bo’la oladigan yangi lug’atlarni yaratish masalasini kun tartibiga qo’ydi. Ushbu masalaning yechimi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi buyurtmasiga asosan Alfraganus universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlato‘zbek tili va adabiyotiuniversiteti, O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari bilan hamkorlikda “O’zbek ismlarining izohli imlo lug’ati” yaratildi. Lug’atning mobil ilovasi

hamda veb-sayti ham yaratildi va lu'at bazasi Adliya vazirligi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilindi. Leksikografiya sohasida yangilik sifatida qaralayotgan lug'atning mobil ilovalari va veb-sayti ismlarni tilimiz qonuniyatlari va me'yorlariga mos to'g'ri rasmiylashtirish jarayonida soha mutaxassislari tomonidanunumli foydalanishlari uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari, lug'atlar muntazam to'ldirib, boyitib borish imkoniyatining yaratilishi bilan ham afzallik kasb etadi. Qolaversa, lug'at hamda uning mobil ilovasi va veb-sayti o'zbek ismlari leksikasini qadriyatlarimizga mos ismlar bilan boyitish va zaxirasini tartibga solishga yordam beradi; Davlat xizmatlari agentligi tizimi, FHDY bo'limlari, fuqarolik pasportini qayd qilish sohalari mutaxassislariningismlarni til qoidalari va qonuniyatlariga mos tarzda qilishlari uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi; lug'atning zamonaviy elektron shakllarini yaratish kelgusida uni muntazam boyitib borish imkonini beradi va ulardan istalgan paytda foydalanish uchun qulayliklar yaratadi.

METODOLOGIYA.

Umuman onomastika va xususan antroponimika til tizimida o'ziga xos ichki qonuniyatlarga ega. Bugungi globallashuv sharoiti millatning eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lmish kishi ismlarini millat tili lug'at fondi, milliy va diniy qadriyatlar asosida va ularga mos tarzda muntazam boyitib borilishini taqozo qiladi.

Ism berish rasm-rusumlari, buning qadimiy va an'anaviy ko'rinishlariga e'tibor qratish, nomlash motivlariga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zbek ismlarining boy fondini saqlash va asrashga intilish lozimligi E. A. Begmatovning deyarli barcha ishlarida qayta-qayta ta'kidlangan. U bu haqda quyidagilarni bayon qilgan edi: "Tilimizning boshqa lug'aviy boyliklari kabi o'zbek nomlari, familiyalari ham ma'lum e'tibor va g'amxo'rlikka muhtojdir. Chunki ba'zi hollarda chaqaloqni nomlashga yetarli e'tibor bermaslik yoki "chiroyli", "mazmundor" ism orqasidan quvish natijasida xalqning an'anaviy ismlar boyligidan unumli foydalanmaslik, ko'p qadimiy ismlarni unutib yuborish hollari ychpab turibdi. Keyingi sabab tufayli hozirda o'zbeklar foydalanayotgan ismlar doirasi anchagina torayib ketganligini ijobiy hodisa deb bo'lmaydi. Qo'yiladigan ismlar miqdoran qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Chunki ismlar shaxslarni oilada, avlod, mahalla, jamoa doirasida bir-biridan ajratishga imkon beradi" (Begmatov, 1991: 5).

Olim boshqa bir o'rinda yuqoridagi fikrni yanada kengroq izohlagan va to'ldirgan: "Zamonaviy ismlarni axtarish, ismlarni faqatgina "chiroylilik" mezoni bilan o'lchash o'zbek tilida ko'p davrdan beri qo'llanib kelgan kishi nomlarini "chiroyli" va "xunuk", "zamonaviy" va "eski" kabi guruhlarga

ajratishga sabab bo‘ldi. Natijada paydo bo‘lishiga ko‘ra, ba’zi rasm-rusumlar, diniy tasavvurlar va aqidalar bilan bog‘liq, shuningdek, ba’zi mahalliy xalq shevalari xususiyatlari bilan aloqador ismlar “nozamonaviy”, “eskirgan” nomlar deb baholanadigan bo‘lib qoldi. Bolalarga bunday nomlarni qo‘yish hozir ancha kamaydi. Ba’zan “zamonaviy”, “chiroyli” ismlar haqida gap ketar ekan, tilimizda qadimdan qo‘llanib kelgan *Tojiboy, Boltaboy, Temirboy, O‘roqboy, Turdiqul, Tirkash, Ulansin, Qo‘ysin* singari ismlarni tasodifiy otlar deb atash hollari uchrab turadi. Bu mazkur ismlarning berilish sabablarini bilmaslik, ota-onalarning bu nomlar zamirida yotgan ezgu niyatlaridan bexabarlik oqibatidir (Begmatov, 1991:192).

Nominatsiya prinsiplari davriy bo‘ladi, o‘zgarib turadi. Aholining turmush tarzi, madaniyati, tafakkur olami nominatsiya prinsiplarini belgilaydi. O‘tmish davrlarga xos nominatsiya prinsiplarini hozirgi davrga xos omillar bilan qiyoslash va sharhlash xatodir. Yoki aksincha yo‘l tutish mumkin emas” (Begmatov, Do’simov, Nafasov, Qorayev, 1991: 11).

“Qachonlardir o‘zbek xalqi antroponimlari tarkibidan o‘rin olgan va qo‘llanilishi odatiy bo‘lgan *Buqa, Itolmas, Sotqinboy* kabi ismlarning bugungi kunda iste’molda bo‘lmasligi ikkinchi muhim omil – tafakkur tarzining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Vaholanki, misol sifatida qayd etilgan ismlarni yuzaga keltirgan tamoyillar – jonzotlar xususiyatlariga havas qilib ism tanlash, totemizm va turli irim-sirimlarga asoslanib ism qo‘yish hozirda ham mavjud. Lekin qayd etilgani kabi ismlarning iste’moldan chiqishi yillar davomida xalq tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar natijasida ayrim apellyativlarning semantik ko‘lamidagi o‘zgarishlarga ham bog‘liq. Masalan, bugunga kelib *buqa* so‘zining ijobiy ottenkaga ega semalari (masalan, *quvvatli, qaytmas, kuchli*)dan ko‘ra salbiy ottenkaga ega semalari (*o‘ng‘aysiz, farosatsiz, kuchi boru aqli yo‘q* kabi) faollashgan. Bu kabi holatni *Qutuz* (*quturgan it*), *Qapag‘an* kabi ismlar misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, *Sotqin* (eski o‘zbek tilidagi *Sotqun // Sotg‘un*) ismi aslida go‘yoki *sotib olingan* (nazr-niyozlar, darvishlarga sadaqalar evaziga) *bola* ma’nosini beradi” (Yuldashev, 2020: 18).

Ko’rinadiki, antroponimlarda ismning bolaga qo‘yilish motivlarida o‘tmishda yashagan ajdodlarimizning urug‘chilik, qabilachilik davriga xos, shuningdek, elat va xalq bo‘lib shakllangan tarixiy bosqichlarda amal qilgan madaniy-maishiy, ijtimoiy-iqtisodiy turmushiga oid e’tiqodlari o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimiz hududidagi ismlar davrlarga bog‘liq holda yuzaga kelgan deb aytish mumkin. Islom madaniyatining kirib kelishi, ommaga tanilishi, o‘rganilishi yoki avj olishi bilan bog‘liq zamonlar turlicha kechib, shaxs nomlarida u o‘z aksini topgan. Yoki sovetlar tuzumi davrida o’zbek ismlari tarkibida shu davr idealogiyasiga tegishli birliklar,

taniqli vakillari ismlario'zbek antroponimiyasi leksikasidan o'rin olganligi barchamizga sir emas.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy hayot, globallashuv sharoiti kabi omillar, jamiyat tafakkur tarzidagi o'zgarishlar natijasida ismlar lug'at fondi ham o'zgarib boradi. Biz bu boradagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida Adliya vazirligi tizimidagi bir necha FHDY bo'limlari bilan kichik tadqiqot o'tkazdik.

1-jadval

Namangan viloyatida FHDY bo'limlarining statistik hisobotiga ko'ra

2021- yilda eng ko'p qo'yilgan ismlar yuzasidan

MA'LUMOT

№	O'g'il			
		0	SOLIXA	**815**
	DALI	**9 5**	XADICH A	**651**
		358	MUBINA	**464**
	ABDULL OH	**257**	IYMONA	**349**

Izoh: *Namangan shaxar, Namangan tuman, Pop 1-son, Pop tuman 2-son, Chortoq tumani, Chust tuman, Yangiqo'rg'on tuman, Uychi tuman, Kosonsoy tumanlari FHDY bo'limlarining statistik xisobotidan olindi.*

2-jadval

Andijon viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra 2020- yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan

MA’LUMOT

№	O‘g‘il			
		1153		**1392**
		2606		**115**
		155		**136**
		501		**111**
		876		**348**
		863		**446**
		755		**1666**
		115	XADICHA	**1591**
		607	OYSHAXON	**970**
	AYUB	**437**	SAMIYA	**199**
	RIZO	**168**	IYMONA	**135**
			SHUKRONA	**82**
13	UMAR	**98**	FARANGIZ	**120**
14	ZUBAYR	**73**	MUHLISA	**95**
15			XONZODABEGIM	**69**

Izoh: *Andijon shahar, Andijon tuman, Asaka 1-son, Asaka tuman 2-son, Baliqchi tuman, Buloqboshi tuman, Bo‘cton tuman, Jalaquduq tuman, Izboskan tuman, Qo‘rg‘ontepa tuman1-son, Qo‘rg‘ontepa tuman 2-son, Marhamat tuman, Oltinko‘l tuman, Paxtaobod tumani, Ulug‘nor tuman, Xo‘jaobod tuman, Xonobod shaxar, Shahrixon tumanlari FHDY bo‘limlarining statistik hisobotidan olindi.*

3-jadval

Buxoro viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra 2020- yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan

MA’LUMOT

№	**O‘g‘il**			
			IYMONABONU	**515**
	D		IYMONA	**510**
	NURMUHAMMAD	**158**	MADINA	**464**
	ISLOMBEK	**150**	BAHORA	**149**
	ALIXAN	**143**	CHAROS	**110**
		102	IFORA	**125**
	ALISHER	**103**	SOLIXA	**184**
		118	XADICHA	**109**
	ABDURAXMON	**150**	ASAL	**90**
	AKOBIR	**92**	MUBINA	**36**

Izoh: *Buxoro shahar, Buxoro tuman, Kogon tuman, Kogon shahar, Buxoro shahar “Nikoh uyi”, Buxoro shahar 1-son FHDY, Buxoro shahar2-son FHDY bo‘limlarining statistik hisobotidan olindi.*

4-jadval

Farg‘ona viloyatida FHDY bo‘limlarining statistik hisobotiga ko‘ra

2020- yilda eng ko‘p qo‘yilgan ismlar yuzasidan

MA’LUMOT

№	O‘g‘il			

Izoh: *Farg‘ona, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlari hamda Toshloq, Beshariq, Quva va Farg‘ona tumanlari FHDY bo‘limlarining statistik hisobotidan olindi.*

Tahlillardan ko‘rinadiki, xalqning tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar, diniy qadriyatlarga e’tiborning kuchayishi, nomlash motivatsiyalari kengayishi kabi omillarning ta’sirida o‘zbek xalqi antroponimlar tizimi, uning lug‘at fondida yangilanishlar vujudga kelgan. Bu o‘rinda esa ularning imlosi masalasida ham bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ismlar o‘zbek tili orfoepik va orfografik tamoyillariga mosbo‘lishi lozim. Yuqoridagi taqdim etilgan ma’lumotlarga nazar solsak:

- bir qator ismlarning yozilishida imlo xatolarga yo‘l qo‘yilgan: MUHLISA, HADICHAXON, SOLIXA, IYMONA kabi;

- bir xil ismlar ikki (ba’zan uch)ko‘rinishda qayd etilgan: HADICHA, XADIJA, XADICHA; OYSHA, AISHA kabi;

- qo‘shma ismlar ba’zan qo‘shib, ba’zan ajratib yozilgan: MUHAMMAD ALI // MUHAMMADALI, MUHAMMADUMAR // MUHAMMAD UMAR, MUHAMMADMUSTAFO // MUHAMMADMUSTAFO kabi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilining imlo qoidalariga ko‘ra qo‘shma ismlar

ajratib emas, qo‘shib yozilishi lozim. Mazkur lug‘atda bu kabi ismlar qo‘shib yozilishi taklif qilingan.

Mazkur lug‘atleksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘at bo‘lib, soha mutaxassislarihamda keng ommaga mo‘ljallanganligi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini va qiziqishlarini oshirishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Xalq lisoniy xotirasi, madaniyati, ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lgan antroponimlar jahon fanida nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator yo‘nalishlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Tilshunoslikning onomastika sohasi ham yangi asrda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini taqozo qilmoqda, shu bois onomastik birliklar tadqiqiga sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik, lingvokulturologik, lingvopoetik aspektda yondashuvlar shakllanmoqda.

Turkologiya sohasida atoqli otlarning tadqiqi bo‘yicha ancha samarali ishlar amalga oshirilgan (Ginatulin, 1973; Naumov, 1985; Danilina, 1986). Shuningdek, Maxpirovning “Древнетюркская ономастика”, V. E. Staltmanening “Ономастическая лексикография”, I. V. Dron va S. S. Krogloning “Современная гагаузская топонимия и антропонимия” asarlari shular jumlasidandir. Hatto atoqli otlarning tadqiqi masalalari aks etgan “Социолингвистический аспект имени собственого” (M. , 1984), “Вопросы ономастики” (Almati, 2004) to‘plamlari ham nashr qilingan.

O‘zbek tilshunosligida ham atoqli otlar masalasida E. Begmatov, G‘. Sattorov, S. Rahimov, I. Xudoynazarov, R. Xudoyberganov, D. Yuldashevlarning ishlari diqqatga molik.

NATIJALAR.

Tilning rivojlanish jarayonida uning antroponimik fondi ham boshqa sohalari kabi sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Bu o‘zgarishlar antroponimik leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Bu boradagi e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalardan yana biri bu tilning an’anaviy antroponimiya fondini asrash, uning kamayishiga qarshi kurashish masalasidir.

“O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘ati” leksik tarkibi haqida quyidagilarni ta’kidlash lozim.

1. O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘atini tuzishda mavjud o‘zbek ismlari lug‘atlari materiallaridan foydalanildi.

2. Globallashuv, jamiyat taraqqiyoti, xalqning milliy va diniy dunyoqarashidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lgan 3000dan ortiq yangi ismlar lug’at tarkibiga kiritildi.

3. Davlat xizmatlari tizimi, FHDY bo‘limlarida qayd qilingan ismlar ro‘yxati olindi, tarixiy manbalardagi turkiy ismlar yig‘ildi, statistic tahlil qilindi va ilmiy tadqiqot olib borildi.

4. Lug‘at so‘zligiga o‘zlashma ismlarni kiritish va uni izohlashda xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, motivatsiyasi kabi jihatlar nuqtayi nazaridan yondashildi. Masalan, arab tilida *Xadicha* ismi “chala tug‘ilgan” ma’nosini anglatadi, lekin ushbu ism o‘zbek tilida pretsedent nom bo‘lib, Payg‘ambarimizning sevimli ayoli ma’nosida qo‘llanadi hamda nomlash motivatsiyasida tilimizda uning keying ma’nosi ustuvorlik qiladi. Yoki *Maftuna* ismi fleksiyasida “fitna” ma’nosi, *Ahror* ismi o‘zagida “hurlar” qismi mavjudligiarab tili me’yorlariga muvofiq. Bu kabi ismlarni izohlashda o‘zga til qonuniyatlari jihatidan emas, o‘zbek tili me’yorlari, xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlari, o‘z farzandiga bo‘lgan ezgu orzulari, tilak va niyatlari bilan bog‘liq. Masalan, Ahror– (a.) olijanob, himmatli, muruvvatli. Bu nom “xo‘jayi ahror” – olijanoblar, oliyhimmatlilar boshlig‘i iborasining qisqargan qismi.

5. Ushbu lug‘at, tabiiyki, o‘zbek ismlarining barchasini to‘liq qamrab olgan emas. Bu jarayon mualliflar tomonidan yana davom ettirishi maqsad qilingan. Lug‘atning mobil ilovasi hamdaveb sayti (ismlar-imlo. uz) orqali ismlar bazasining to‘ldirib borish imkoniyati mavjud.

Lug‘atning tuzilishi, inda ismlarning berilish xususiyatlari yuzasidan quyidagilarni ta’kidlash lozim:

- ismlar alifbo tartibida joylashtirilgan;

- o‘g‘il bolalar ismi va qiz bolalar ismi qismlari alohida ro‘yxatda berilgan;

- o‘zbek ismlari alifbo tartibida 4ta ustun - lotin hamda kirill alifbosidagi imlosi, ingliz tilidagi varianti, ismlar ma'nosii izohi ustunlariga bo‘lib berilgan;

- lug‘atda ismlarning qaysi tilga mansubligi ko‘rsatib berildi. Masalan, *(o‘z.), (a.), (f. t.), (hind.) (mo‘g‘.) (tur.);*

ismlarning variantlari*Abdulla //Abdulloh, Sa'dulla // Sa'dulloh, Asadulla // Asadulloh* shaklida berildi;

ismlarning shakllari bitta ism tarkibida berilgan. Masalan, Po‘lat - *po‘latdek mustahkam, yashaydigan, umri uzoq bola. Shakllari: Po‘latboy, Po‘latjon, Po‘latxon, Bekpo’lat. (E’tibor qarating: ismning shakllari, ya’ni Po‘latboy, Po‘latjon, Po‘latxon, Bekpo‘lat) kabi;*

lug‘atda qo‘shma ismlar o‘zbek tili imlo qoidalariga muvofiq qo‘shib yozildi: *Muhammadumar, Muhammadsodiq, Caidkamol* kabi;

qo‘shma ismlarni tashkil qiluvchi ismlar etimologik jihatdan boshqa-boshqa tillarga mansub bo‘lsa, ularning har qaysisi ta’kidlandi. Masalan, Alimyor - *(a. -f. t.)* – bilim va donolik sohibi, ya’ni Alloh qo‘llovchi, yor bo‘luvchi bola.

XULOSA.

Xullas, ismlarning hosil bo‘lishi va shaxsga atoqli ot sifatida tanlanishi motivlaridan ma’lum bo‘ladiki, xalqimizning qadimiy e’tiqodlari, yuksak madaniy-estetik didi ismlar lug‘at fondida aks etadi va ijtimoiy hayot, globallashuv sharoiti kabi omillar, jamiyat tafakkur tarzidagi o‘zgarishlar natijasida antroponimlar ham o‘zgarib boradi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa zamonaviy leksikografiya tamoyillari asosida ismlarning yangi lug‘atlarini tuzish va jamiyatda ommalashuvini ta’minlash maqsadida internet tarmog‘ida ularning zamonaviy dasturiy ta’minotini yaratishdan iborat.

Mazkur lug’atning me’yoriyligi shundan iboratki, unda o‘zbek ismlarini qayd etishda adabiy tilning imlo, talaffuz, so‘z yasash va uni ishlatish me’yorlari tavsiya etiladi. Buning uchun ismlar lug‘atga, o‘zlarining umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o‘rni va qo‘llanish doirasiga ko‘ra tanlab kiritilgan. Lug‘atda har bir ismning maqbul yozilish shakli, kelib chiqishi – etimologiyasi ko‘rsatilgan, ma’nosi (yoki ma’nolari) aniqlangan va izohlangan. “O’zbek ismlarining izohli imlo lug’ati” o‘zbek antroponimik fondini qadriyatlarimizga mos ismlar bilan boyitish va zaxirasini tartibga solishga yordam beradi; Davlat xizmatlari tizimi, FHDY bo‘limlari, fuqarolik pasportini qayd qilish sohalari mutaxassislariningismlarni til qoidalari va qonuniyatlariga mos tarzda qayd qilishlari uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi; lug‘atning zamonaviy elektron shakllari esa kelgusida uni muntazam boyitib borish imkonini beradi va ulardan istalgan paytda foydalanish uchun qulayliklar yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1991. – Б. 5-6.

Бегматов Э. , Дўсимов З. , Нафасов Т. , Қорев С. Ўзбек тилшунослиги: тадқиқ йўналиши ва усуллари // Хива – Урганч, 1991. - № 1. – Б. 11.

Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. –Т. , 2020.

Ахметов А. Туркі Тілдеріндеп табу мен эвфемизмдер. Алмати: Ғўлўм, 1995. 176 б.

Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с.

Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.

Бегматов Э. , Дўсимов З. , Нафасов Т. , Қорев С. Ўзбек тилшунослиги: тадқиқ йўналиши ва усуллари // Хива – Урганч, 1991. - № 1. – Б. 11.

Бегматов Э. , Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2005. – Б. 79.

Гинатулин М. М. К исследованию мотвации лексических единиц. – Алма-ата, 1973. – С. 27.

Данилина Н. В. Нижнегородская антропонимия XIV-XVII веков. – Горький, 1986. – С. 24.

Исмларнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 176 б.

Кадирова Х. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal, AZƏRBAYCAN, Baku, 2021. St: 17-22. DOI: https://www. doi. org/10. 36719/2663-4619/71/17-22

Кадирова Х. Б. Приспособление стратегии и тактики дисфемизации политических понятий. // ИННОВАЦИИ. НАУКА. ОБРАЗОВАНИ. 2021/4/5, № 33. Ст. 924-930. https://www. elibrary. ru/item. asp?id=46168731

Наумов В. Г. Явления мотвации в системе диалекта (лексикологический аспект). – Томск, 1985. – С. 17.

Носиров Ў. Ўзбек тилининг киши номлари ҳақида мулоҳазалар // Қарши ДПИ илмий асарлари. 17-китоб. – Тошкент, 1965. – Б. 194-197.

Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. 27 Б.

Пастухова О. Д. От эвфемизма к дисфемизму. // Слово, высказывание, текст в когнитивным, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции, Челябинск, 20-22 апреля 2016 года. Из-во: Энциклопедия. С. 329-331

Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.

Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.

Сатторов Ғ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.

Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.

Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол. фан. докт. дисс. –Т. , 2020.

Berezovich E. L. Russkaya onomastika na sovremennom etape: kriticheskie zametki //Izvestiya Akademii nauk. ser. lit-ры i yaz. T. 60, № 6. Noyabrь-dekabrь 2001. S. 34-46.

Sadiqov Z. Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasi. Monografiya / Namangan:, «Vodiy Media», 2021. 120 bet.

Saralangan ismlar ma’nosi. Tuzuvchi Z. Hamdamova. – Toshkent: Meriyus, 2014-yil. 80 bet.

Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko–Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. – Chicago– London: University of Chicago Press, 1983. – 52 p.

Лутфуллаева Д. Э. , Сапарниязова М. Проблема ассоциативного подхода к языку на современном этапе узбекского языкознания.

//ВОПРОСЫ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ. Издательство: Общероссийская общественная организация "Российская ассоциация лингвистов-когнитологов" (Тамбов) ISSN: 1812-3228. Номер: 2 Год: 2020 Страницы: 139-146.

Saparniyazova M. , (2023). ERGONOMICS AS A BRANCH OF ONOMASTICS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(05), 60–67. https://doi. org/10. 37547/philological-crjps-04-05-13.

EXTENDED ABSTRACT

NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF UZBEK NAMES

Today's globalization conditions require that personal names, which are one of the most important values of the nation, be regularly enriched on the basis of the vocabulary of the national language, national and religious values and in accordance with them. One of the issues that should be paid attention to in this regard is the issue of preserving the traditional anthroponymic fund of the language and fighting against its decrease. Onomastics in general and anthroponymics in particular have their own internal laws in the language system.

In the course of the development of the language, its anthroponymic fund, like other areas, undergoes significant and serious changes. These changes reflect the development of the anthroponymic lexicon not only quantitatively, but also qualitatively. Under the influence of factors such as globalization, development of society, changes in people's way of thinking, increased attention to national and religious values, expansion of naming motivations, the Uzbek people create changes and updates in the system of anthroponyms, its vocabulary. When such changes reach a certain level, there is a need for research that reflects them theoretically and practically. One of the main practical tasks is to create an explanatory spelling dictionary of Uzbek names, taking into account modern experience and trends in world lexicography. Today, in the system of the State Services Agency, in particular, in the departments of the Civil Registry Office, as well as in the process of issuing civil passports, the spelling of Uzbek names in the Latin and Cyrillic alphabets, the explanation of the meaning of the names, as well as the correct spelling of their English version in the passport system there are a number of problems. This put on the agenda the issue of creating new dictionaries that could be a solution to the problems of interpretation and spelling of Uzbek names. Alfraganus University, Alisher Navoi Tashkent State

in this article, the problems related to the activities of printed publications published in english and russian languages, which make a significant contribution to the development of the tourism sector, and their effective working mechanisms are solved. “Правда Востока” is an Uzbek national socio-political and socio-economic newspaper published in Russian. It is one of the oldest newspapers published in Uzbekistan. It is published in Russian. The newspaper has a long history and has been an important source of information for the people of Uzbekistan. The newspaper has a website where readers can get articles online. The website provides readers with up-to-date news and information on various topics. It also has an archive section where readers can view past issues of the newspaper. This opportunity is extremely rare in Uzbek publications. “Правда Востока” is a strong and independent newspaper that has been providing readers with news and information for over a century. “Правда Востока” newspaper is in Russian, some of its articles are published in Uzbek and other languages of Central Asia. The language of the newspaper is official and often didactic, which means that it is important for the Uzbek government. “Правда Востока” uses a variety of rhetorical devices to persuade its readers, including repetition, parallelism, and emotional appeals. For example, in the title of the article "Точки роста бизнеса, или как ускорить его развитие" dated September 12, 2023, a tone of rhetorical questioning can be felt. The article reads as follows: "Today, economic development cannot be imagined without the activities of entrepreneurs. From the owner of the farm to large businessmen, they contribute to the economic development of our country by establishing production, service, and export in one or another direction. Therefore, the necessary conditions and opportunities are being created for the representatives of the business sector to operate freely. The structure of the article is in official language, seriousness is

felt. In terms of style, we can say that newspaper is enviable. The style of “Правда Востока” newspaper is journalistic, focusing on factual reporting and analysis. Newspaper articles are usually well-organized and concise, and they often use statistics and expert opinion to support their claims. “Правда Востока” uses various literary devices such as metaphors, similes, symbols to make its writing more attractive and convincing.

Keywords

festival, tourism militia, cultural center, association, forum, video communication, license, company, image, tourism industry, website, rhetorical tool, factual report, statistical information, metaphor, business.

Kirish

Bugungi kunda respublikamiz hududida muntazam ravishdafaoliyat olib borayotgan barcha bosma nashrlar, gazeta va jurnallar o‘z nomi, yo‘nalishi, ixtisosligi, auditoriyasi, maqsadi, yosh qatlami, adadi va mavzu ko‘lami jihatidan bir-biridan farq qiladi. Buning isbotini ularda e’lon qilib boriladigan materiallar orqali bilish mumkin. Xususan, yurtimiz, unda kechayotgan o‘zgarishlar, yangilanishlar haqidagi axborotlarning xorijiy tillarda e’lon qilinishining o‘zi katta gap. Chunki butun boshli bir gazetaning ingliz tilida nashr etilishi dunyo hamjamiyatida ham e’tirof etilib kelinmoqda. “Uzbekistan Today” gazetasida turizm yo‘nalishi bo‘yicha maqolalarning keng ko‘lamda berib borilishi tahsinga sazovor. Yana bir jihat:“Правда Востока” gazetasi ham rus, ham ingliz tilida chiqadi, buham yana bir yutuq. Yoki bo‘lmasa “Uzbekistan Airways” jurnalining 25 ming nusxada bosilishi, eng muhimi, uni 1 million xorijlik o‘qishi fikrimizning tasdig‘idir. O‘zbekistonda turizm sohasida qo‘lga kiritilayotgan zafarlar tobora ortib, yanada keng quloch yozib bormoqda. Boisi, mamlakatimizda bir necha yillardan buyon muntazam ravishda har ikki yilda bir marotabao‘tkazib kelinayotgan“Sharq taronalari” musiqiy festivali ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida dunyoning eng olis burchaklaridan tashrif buyurgan musiqa shaydolarini bir joyga ham ruhan, ham qalban birlashtiradi. Mazkur musiqiy tadbirni jonli tarzda ko‘rishuchun bir necha minglab masofani bosib kelganxorijlik mehmonlar, sayyohlar bu jozibador kechaga o‘zlari guvoh bo‘ladilar. Bu bilanyurtimiz nufuzi jahon hamjamiyatida yanada yuqori odimlaydi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb topdik: “Dunyoning ko‘plab qit’a va mintaqalarida turli san’at va musiqa anjumanlari o‘tkazib kelinadi. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali

ular orasida o‘zining alohida o‘rni, shuhrati va maqomi bilan ajralib turadi. Ushbu festival sababli bugungi kunda afsonaviy Samarqandning uzoq o‘tmishini aks ettiradigan munavvar koshonalari, muattar havosi bilan birga, bu muqaddas zamindan taralayotgan dilbar va maftunkor taronalar ham dunyo ahlini o‘ziga chorlamoqda. O‘tgan salkam chorak asr davomida Samarqandning moviy gumbazlari, yulduzli osmoni ostida qanchadan-qancha sehrli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi. Festival o‘nlab mashhur xonanda va sozandalar, noyob yosh iste’dodlarni kashf qildi, ularning parvoziga qanot, kuch va ilhom bag‘ishladi. Eng muhimi, ushbu anjuman turli sivilizatsiyalar, xalqlar va millatlar o‘rtasida o‘ziga xos madaniy hamkorlik hamda muloqot maydoniga aylandi”. Chunki festivalga ishtirok etish uchun O‘zbekistonga tashrif buyurgan mehmonlar, eng avvalo, o‘zbek oshxonasining shox taomi “Palov” ni iste’mol qilmay ketmaydilar. Bundan tashqari, Samarqandga kelganliklaridan foydalanib, bu yerni obdon aylanib, ziyoratgohlarga boradilar. Bizning nechog‘lik boy tarixga, adabiy-badiiy, ilmiy merosga, noyob topilmalarga, o‘lmas durdona asarlarga, ajdodlarimizdek ulkan bebaho xazinaga ega ekanligimizga yana bir bor amin bo‘ladilar. Xalqimizning naqadar samimiy, mehmondo‘st, bolajon, soddaligini ko‘rib hayratda qoladilar. Yurtimizning qadimiy obidalari, osori-atiqalari ularda katta taassurot uyg‘otadi. Shuning bilan bir qatorda, bubday xalqaro musiqa festivalini keng va batafsil yoritish maqsadida yurtimizga jahon ommaviy axborot vositalari xodimlari ham tashrif buyuradi. Bu orqali xorij OAV da O‘zbekiston imiji yanada mustahkamlanadi, mamlakatimiz haqida ko‘pgina ijobiy fikr-mulohazalar aylanadi, ro‘znomalarda, gazeta va jurnallarda biz haqimizda yozishadi, televedeniye va radioda ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlashadi, qolaversa, internet saytlari orqalibu haqda to‘liq axborot berib borishadi. Anglashiladiki, bularning barchasi mamlakatimiz imijini oshirishda turizmning muhim ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Adabiyotlar sharhi

“Правда Востока” gazetasining 2019-yil 7-dekabr sonidagi “Безопасный туризм” nomli maqolada keltirilishicha, bundan buyon xavfsiz turizmni yo‘lga qo‘yish uchun Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida IIV tomonidan “turizm militsiyasi” tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, yurtimizga tashrif buyuradigan xorijlik mehmonlar va sayyohlarga birinchi navbatda, qulaylik, xavfsizlik yaratish. Shuningdek, ularni to‘g‘ri yo‘nalishli sayohat kartalari bilan ta’minlash, murakkab vaziyatlardan chiqishda ko‘maklashishdan iborat. Bundan ko‘rinib turibdiki, fidoyi insonlarimiz hamisha o‘zgalarning tinchligi va barqarorligini o‘ylaydi. “Правда Востока” gazetasining2019-

yil14-fevral sonidagi N. Ziyodullayevaning “Для удобство туристов” nomli maqolasi e’lon qilingan. Unga ko‘ra, yurtimizga tashrif buyuradigan sayohatchilar, ya’ni, turistlar bundan buyon katta qulayliklarga ega bo‘ladi. Endilikda yurtimizda “Gross Insurance” kompaniyasi va uning yuzdan ortiq filiallari yordamida sayyohlarning professional darajada tibbiy ko‘rikdan o‘tishi ta’minlanadi. Turistlarning xavfsizlik jihatdan salomatliklarining yuksak darajada ta’minlanishi ularning o‘zlari bormoqchi bo‘lgan davlatga bo‘lgan ishonchini belgilovchi omildir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, har bir sayyoh avval o‘zi mutlaqo ishonch hosil qilgach, so‘ng biror-bir mamlakatga tashrifni amalga oshiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jonkuyar, xalqimiz hamisha o‘zgalar manfaatini ko‘zlab ish qiladi, ularning g‘amini yeydi. “Uzbekistan Today” gazetasining 2018-yil 12-yanvar sanasidagi “Seven Saints of Bukhara” maqolasida qadimiy va hamisha navqiron Buxoroyi Sharif va undagi 7 pirlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Hech kimga sir emaski, biror-bir zot yo‘qki, u Buxoro haqida bilmasa, u haqida eshitmagan bo‘lsa, u zamindn yetishib chiqqan avliyo-yu anbiyolar, benazir allomalar, ularning oltinga teng bebaho xazinalaridan foydalanmagan bo‘lsa. Yetti iqlimga ma’lum va mashhur bu muqaddas go‘sha bir necha asrlardan buyon dillardan tillarga o‘tib, yanada sayqallanib, bashariyat mulkiga aylanib bormoqda. Mana shunday teran tafakkur, ulkan salohiyatga ega 7 pir majmualari aynan Buxoroyi Sharifda qad rostlagan. Ularning barchasida sirlilik, tarixiylik bor. Ularning har biri yaralish va dunyoga kelish tarixiga ega. Birinchisi – Xo‘ja Azizon Ali Romitani, ikkinchisi - Bahouddin Naqshband, uchinchisi - Shayx Abdul Abduxoliq G‘ijduvoniy, to‘rtinchisi – Xo‘ja Mahmud Anjir Fag‘naviy, beshinchisi - Bobo as-Samosi, oltinchisi - Said Amir Kulol, yettinchisi - Muhammad Orif ar-Revgariydir. Bu sanab o‘tilgan afsonalarni endilikda biz ajdodlardan -avlodlarga bezavol, o‘z holicha asrab-avaylab yetkazishimiz lozim. Buxoroga tashrif buyuruvchi xorijlik sayyohlarga bizning zamin naqadar boy tarixga egaligi, qancha sinovlarni boshdan kechirganligi haqida to‘liq axborot berishimiz kerak. Bundan fahmlash mumkinki, O‘zbekistonning tashrif qog‘ozi sifatida biz afsonalarni va boy madaniyatimizni qo‘rqmay aytish joiz. “Uzbekistan Today” gazetasining 2018-yil 2-fevraldagi “Uzbekistan a Blooming joyful and Bright country” nomli maqolada O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi muxbirining Rossiya Boshqarma boshlig‘i Rossiya televideniyesi Akademiyasi a’zosi taniqli telejurnalist Eduard Sagalayevdan olgan intervyusi (suhbati) o‘z aksini topgan. Maqolada keltirilishicha, Eduard Sagalayev asli Samarqandda tug‘ilgan, maktab va universitetni ham shu yerda tamomlagan va dastlab shu yerdagi radioda boshlovchilik qilgan. Shuningdek, Eduard janoblari o‘zbek xalqining samimiy, mehmondo‘st, ochiqko‘ngil kabi sifatlarga ega ekanligini qayta-

qayta takrorladi va men mana shunday ajoyib yurtda tug‘ilib, voyaga yetganimdan yaxshi insonlar davrasida ulg‘ayganimdan faxrlanaman. O‘zbek xalqi nihoyatda buyuk millat deya ta’kidladi. Shuningdek, u ona makoni bo‘lmish Samarqand va unda kechayotgan o‘zgarishlar haqida gapirdi. Bugungi kunda turizm, sohasi aynan Samarqandda juda rivojlangan. O‘zbekiston ko‘p mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini o‘rnatgan. Ayniqsa, yurtning tabiiy boyliklari bo‘lgan paxta, oltin, tabiiy gaz va boshqa metallar eksporti bo‘yicha peshqadamlik qilmoqda. Men ishonaman, O‘zbekistonning kelajagi porloq, sababi, uning bir necha ming yillki buyuk tarixi, madaniyati bor. Xususan, O‘zbekistonning Rossiya bilanham mustahkam aloqa o‘rnatgan. Xullas, Eduard Sagalayev O‘zbekistondan mamnun, uning istiqboliga befarq bo‘lmaganyana bir o‘zga millat vakili.

Metodologiya

Gazetalar media landshaftining muhim qismidir. Ular mahalliy va global miqyosdagi dolzarb voqealar haqida turli xil ma'lumotlar va istiqbollarni taqdim etadi. Ular, shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarida eshitilmaydigan ovozlar va istiqbollar uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida gazetalarning o‘ziga xos ahamiyati hamma sohada bo‘lgani kabi turizmda ham muhim hisoblanadi. Gazetalar so‘z va fikr erkinligi uchun platforma yaratadi. Ular hukumat yoki yirik korporatsiyalar tomonidan nazorat qilinmaydigan kam sonli ommaviy axborot vositalaridan biridir. Bu ularga keng ko‘lamli mavzular, jumladan, hukumatni yoki kuchli manfaatlarni tanqid qilishi mumkin bo‘lgan mavzularda hisobot berish erkinligini beradi. Gazetalar jamoatchilikni axborot va tahlillar bilan ta'minlaydi. Ular o‘quvchilarga mahalliy va global miqyosdagi dolzarb voqealar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, ular ushbu voqealar tahlilini taqdim etib, o‘quvchilarga atrofdagi dunyoning murakkabligini tushunishga yordam beradi. Gazetalar ko‘ngilochar va ta'lim maqsadlarida ham ahamiyatlidir. Fillip Mayer o‘zining “Gazeta kelajagi” kitobida shunday yozadi: “Raqamli asrda gazetalar duch keladigan muammolarni osongina hal qilish mushkul, ammo o‘zgaruvchan media landshaftiga moslashish ularni demokratiyada muhim rol o‘ynashini ta’minlay oladi. Gazetalar hanuz o‘yin-kulgi va ta'lim manbai bo‘la olishmoqda, demakki, ularning kelajagini butkul yo‘q deyish asossizdir”[120]. So‘nggi yillarda gazeta sanoati onlayn ommaviy axborot vositalarining yuksalishi bilan bog‘liq muammolarga duch keldi. Biroq, gazetalar ommaviy axborot vositalarida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Ular jamoatchilikni xabardor qilish

[120] Meyer, P. The future of newspapers. New York, NY: Columbia University Press. 2019. 88-b.

va jalb qilish orqali qimmatli xizmatni taqdim etadi va ular yangilik va ma'lumotlarning ishonchli manbasi bo‘lishda davom etadilar.

Natijalar

“Uzbekistan Today” gazetasining 2018-yil 27-iyul sonidagi “Not just Samarkand and Bukhara” nomli maqolada ikki buyuk shaharlarimizgina emas, balki boshqa madaniy markazlarimiz ham boy o‘tmishi va istiqboli bilan bemalol bellasha olishi haqida so‘z boradi. Grigoriy Putinsevning ta’kidlashicha, BMT ning Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan barcha qadimiy obidalar va ularning bugungi kundagi ahvoli, ular bilan bog‘liq muammolar, ekologik muammolar, qolaversa, yechimini kutib turgan savollar, eng muhimi, ularni asrab-avaylash va kelgusi avlodga bezavol yetkazish haqidagi qarori o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston - bu faqatgina Samarqand, Buxoro yoki Xiva emas. Uning ajoyibotlarga boy dunyosi va betakror manzillarinikelsangizgina ko‘rib guvoh bo‘lasiz deb yozadi, jahonning eng mashhur OAV dan biri. Quvonarli jihati, Italiyaning Acqua&Sapone jurnalida mashhur italyan fotomuxbiri, shu bilan bir qatorda, “Sayyohlik fotografiyasi” nomli jamoa Prezidenti Roberto Gabrielening “Ko‘pkari” deb nomlanuvchi asari mazkur jurnalda chop etilganligining o‘zi har bir o‘zbek fuqarosida cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Muallif bu asar uchun O‘zbekistonga sayyohlik guruhining 12 nafar a’zosi bilan kelgan. Tayyor bo‘lgan material dastlab Italiyaning O‘zbekistondagi elchixonasida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, jurnalist asarni tayyorlash jarayoni haqida to‘lqinlanib so‘zlaydi. Roberto Gabriele yurtimizda ayni Navro‘z bayrami arafasida kelib, Samarqanddan uncha uzoq bo‘lmagan qishloqlardan biriga“Ko‘pkari” ni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga borgani, u yerdagi mehmondo‘st, samimiy, oqko‘ngil odamlarning darrov dasturxon yozib, choyga taklif qilmay yubormasligi, u ilgari bunday bellashuvda ishtirok etish ham tajriba talab qilishi, har bir tomoshabin o‘ziga bir olam zavq olishi, odamlarning qiyqiriqlari, otlarning ovozi-yu hidi, issiq havoda pishayotgan shahshliklarning isiga qo‘shilib, ajoyib ifor taratayotganligi va uni xatto kamera ham his qilayotgani haqida to‘lib-toshib so‘zlaydi. Muallif yurtiga qaytgach, o‘zi guvoh bo‘lgan hamma narsalar haqida badiiy tasvir vositalari va badiiy bo‘yoqdor so‘zlarsiz o‘z holicha yurtdoshlariga taqdim etadi. Biz yuqorida tahlil qilgan maqolada keltirilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, O‘zbekiston va undagi bayramlar hech bir xorijlik mehmon va sayyohlarni befarq qoldirmaydi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimiz imjini rivojlantirishda, OAV, xususan, bosma nashrlarning o‘rni naqadar beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Chunki xorijliklarning diqqat markazida bo‘lish va ular tomonidan e’tirof etilishdan yoqimli lahza yo‘q. “Uzbekistan Today” gazetasining 2018-yil 25-noyabrdagi “Investment Tourism Forum” nomli

maqolada Xalqaro turistik tashkilot kotibi Xayme Alberto Kabala bilan maxsus videomuloqot tashkil etilib, O‘zbekistonning bugungi turizm salohiyati, yurtimizdagi 18 ta mamlakatga vizasiz chiqish rejimi, 50 ta mamlakat bilan viza tizimini tartibga solish, qolaversa, qolaversa, diyorimizga keluvchi turistlar sonini bundanda oshirish masalalari muhokama etildi. Shuningdek, forumda ishtirokchilarga iste’molchilarning investitsiya ortidan olayotgab rag‘batlari, soliq va bojxona tizimida iste’molchilarga qulaylik yaratish, litsenziya va sertifikatlashni tartibga solish xususida ham bahs-munozaralar o‘tkazildi. “O‘zbekistonda turizm industriyasi sezilarli darajada oshdi”, deydi Turkiya turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi maslahatchisi Sodiq Badak. Quvonarlisi shuki, endilikda dunyoning eng yirik investorlik kompaniyalari, ya’ni, AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Singapur, Turkiya O‘zbekistonda turizm imkoniyatlari va salohiyatini yanada oshirish maqsadida investitsiya kiritishlari haqida ma’lum qildilar. Yana bir xorijlik vakil, Hindistonning “Cox&Rings Global Services” kompaniyasi vakili Santanu Bxatgachauyaning quyidagi fikri yurtimiz imijini ko‘tarishga xizmat qiladi: “O‘zbekistonda keng qamrovli islohotlar turizm industriyasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda”. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimiz imijini yuqori ko‘tarishga xizmat qilib kelayotgan bosma nashrlarning aksariyati xorij tillarida nashr etiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, dunyoning ko‘plab gazeta va jurnallarini o‘rganish jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun dastlab bir qancha chet tillarini puxta o‘rganish biz jurnalistlar uchun birinchi galdagi asosiyvazifadir. Zero, til bilgan - el biladi. Bugungi kunda kim eng tezkor, bilimdon, yangilikka intiluvchan va jahon axborot maydonida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga xolis baho bera olish qobiliyatiga ega yetuk mutaxassis bo‘lsa, marra shuniki bo‘ladi. Buni davrning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Zero, har bir o‘zgarish, tarqalayotgan har bir axborot issiz ketmaydi, u jamiyat va davlatning yo taraqqiyoti, yo tanazzuliga sabab bo‘ladi, deydi taniqli jurnalist Halim Saidov o‘zining “Reportyorlik mahorati” kitobida.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://uzreport. news/politics/shavkat-mirziyoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-tim Shavkat Mirziyoyev: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir" . T. : 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni// Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. 2009.

www. turism. uz

3. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) Qonuni//Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagime’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. 2018.

4. www. uzbektourism. uz

5. Meliboyev A. Jurnalistika: kasb, ijod, mahorat 100 savolga 99 javob. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent. : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2015-yil.

6. www. uzbektourism. uz

7. www. unwto. com

8. www. turofed. tr

EXTENDED ABSTRAKT

It is known that Uzbekistan has norms for expanding tourism infrastructure, improving their quality and providing diverse services. Among them, the service sector is one of the main factors in ensuring youth employment. On the basis of the decree of the President of January 27, 2022 on "Additional measures to further improve the service sector", the work that needs to be done in this field has been determined. The development of the service sector is considered the most important criterion of the market economy. The reforms that are being carried out in our country put before us a number of socio-political issues regarding the provision of services. Kitob district of Kashkadarya region has a lot of opportunities in this field. Service here is one of the driving directions of the region. According to statistics, today there are 1899 subjects in the book, of which 607 trade, 507 services (bytavaya), 25 education, 120 tourism and culture, 402 agriculture, 44 health care, 57 transport services, 9 banking and finance, 23 communication and information services. Also, by the decision of the President, on April 30, 2012, a loan of 680 million soums was allocated to the firm "Kitob sayyoh" for tourist organizations for the improvement of domestic tourism and service provision, which will create 15 jobs. Newspapers are an important part of the media landscape. They provide a variety of information and perspectives on local and global current events. They also serve as an important platform for voices and perspectives not heard in other media. The unique importance of newspapers in mass media is as important in

tourism as in any other field. Newspapers provide a platform for freedom of expression and opinion. They are one of the few media outlets that are not controlled by the government or large corporations. This gives them the freedom to report on a wide range of topics, including those that may be critical of the government or powerful interests. Newspapers provide the public with information and analysis. They inform students about local and global current events. They also provide analysis of these events, helping readers understand the complexity of the world around them. Newspapers are also important for entertainment and education purposes. In his book The Future of the Newspaper, Phillip Mayer writes: "The challenges facing newspapers in the digital age are difficult to solve easily, but adapting to the changing media landscape can ensure they play an important role in democracy. Newspapers can still be a source of entertainment and education, so it is unreasonable to say that they have no future at all. "

In recent years, the newspaper industry has been challenged by the rise of online media. However, newspapers continue to play an important role in the mass media. They provide a valuable service by informing and engaging the public, and they continue to be a trusted source of news and information.

We can say that Genres is the most praiseworthy section of "Pravda Vostoka". Pravda Vostoka publishes news and commentary in a variety of genres, including:

News articles: "Pravda Vostoka" newspaper talks about events in Uzbekistan and the world, focusing on events related to the Uzbek government and its policies.

Editorial: "Pravda Vostoka" editorial team comments on current events and political issues from the point of view of the Uzbek government.

Features: Pravda Vostoka articles provide in-depth reporting on specific topics such as economic development, social welfare, and cultural trends.

Summary: Pravda Vostoka publishes commentary by a variety of authors, including government officials, academics, and journalists.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘RNI:ALISHER NAVOIY MA’NAVIY MEROSINING TAHLILI ASOSIDA

professor, Dildor PULATOVA

Annotatsiya

Mazkur maqola buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning asarlaridagi axloqiy qadriyatlarga oid hikmatli fikrlarning tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, asosiy maqsad ularning chuqur falsafiy ma’nosi, mohiyati va ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan.

Uchinchi ming yillikning boshiga kelib, insoniyatyangi, shu bilan birga turfa ma’noli reallik va muammolar bilan yuzma-yuz kela boshladi. Ko‘plab tadqiqotchilar ularning komplimentar yechimini topish maqsadida Sharq falsafasiga murojaat eta boshladilar. Negaki, ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxs kamolotiga oid masalalar asrlar davomida aynan Sharq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlarida, xususanTemuriylar davrida yashab ijod etgan, o‘zining betakror ijodi tufayli Sharqiy uyg‘onishning yorqinsiymolaridan biriga aylangan buyuk mutafakkir, shoir, davlat arbobi bo‘lgan Alisher Navoiyma’naviy merosi va hayotiy faoliyatida o‘z aksiniva oqilona yechimini va topib kelgan.

Alisher Navoiy Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq musulmon xalqlarining ko‘p asrlik madaniy an’analaridan foydalangan holda, o‘ziga xos badiiy va ilmiy asarlar yaratdi. Navoiy o‘z asarlarida shaxs ma’naviy kamolotiningasosini tashkil etuvchi – majoziy ishqniezgulik, adolat, mehr-muhabbat, saxovat g‘urur, kabi oliy darajadagi axloqiy qadriyatlar orqali yuksak badiiy usullar vositasida ifodalab berdi. Barcha davrlar uchun birdek ahamiyatli bo‘lgan Navoiyning qarashlari ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar

Alisher Navoiy, «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», axloqiy qadriyatlar, komil inson, “ahli ma’ni”, “ahli suvrat”, tasavvuf, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, insonparvarlik.

THE ROLE OF MORAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY: BASED ON THE ANALYSIS OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF ALISHER NAVOI

professor, Dildor PULATOVA

Abstract: This article is devoted to the analysis of wise thoughts about moral values in the works of the great poet and thinker Alisher Navoi, and the main goal is to clarify their deep philosophical meaning, essence and significance. At the beginning of the third millennium, humanity began to face new, at the same time complex realities and problems. Many researchers began to turn to Eastern philosophy to find an additional solution to them. After all, the priority of spiritual values and issues of personal improvement have lived and been created for centuries in Eastern philosophy, in particular, in the works of Central Asian thinkers, in particular during the Timurid period, and thanks to their unique creativity, they became one of the brightest figures of the Eastern Renaissance. Alisher Navoi, great thinker , poet and statesman, found its reflection and rational solution in his spiritual heritage and life activities. Alisher Navoi created unique artistic and scientific works using the centuries-old cultural traditions of the Muslim peoples of Central Asia and the Middle East. The thoughts about morality in Navoi's works, regardless of whether they are related to practical ethics or theory, are always worthy of study. Navoi's views, equally important for all eras, have incomparable importance in the education of a spiritually mature person.

Key words: Alisher Navoi, "Khamsa", "Mahbub ul-Kulub", moral values, perfect person, "ahli mani", "ahli surat", Sufism, knowledge, education, humanism.

KIRISH. Uchinchi ming yillikning boshiga kelib, insoniyatyangi, shu bilan birga turfa ma'noli reallik va muammolar bilan yuzma-yuz kela boshladi. Ko'plab tadqiqotchilar ularning komplimentar yechimini topish maqsadida Sharq falsafasiga murojaat eta boshladilar. Negaki, ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxs kamolotiga oid masalalar asrlar davomida aynan Sharq

falsafasi, xususan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlaridao‘zinining oqilona yechiminitopib kelgan.

Buyuk ajdodlarimiz insonning mohiyatini uning ma’naviyati belgilaydi, deb hisoblashgan. Mustaqillik davriga kelib, O‘zbekistonda milliy ma’naviyatimizga juda katta e’tibor qaratila boshladi. Asrlar davomida bu tushuncha turlicha ta’riflansada, uning mohiyati – insonning shaxsiy manfaatlari va sodda ehtiyojlari doirasidan chiqa olishlik, individual maqsad va hayotiy intilishlarini milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘zaro uyg‘unlikda anglash qobiliyati sifatida tushuniladi. Ma’naviyatning har qanday ko‘rinishlaridaasosiniaxloq tashkil etadi.

Insonning ma’naviy kamoloti masalasi buyuk vatandoshlarimiz Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, AlisherNavoiy kabi faylasuf va mutafakkirlarning asarlarida asosiy o‘rinni egalladi.

Temuriylar davrida buyuk Alisher Navoiy yashab, ijod qilib, o‘zining betakror ijodi tufayli Sharqiy uyg‘onishning yorqinsiymolaridan biriga aylandi. Alisher Navoiy (1441-1501) – ilmiy, falsafiy, badiiy fikrlashning eng yorqin vakillaridan biri, faylasuf, shoir, davlat arbobi va homiysi bo‘lgan. Bir necha tilni mukammal egallagan va turkiy milliy tillar va tilshunoslik rivojiga ulkan hissa qo‘shgan.

METODOLOGIYA

Navoiy ijodiga katta qiziqishning sabablaridan biri –Navoiy o‘z asarlarida shaxs ma’naviy kamolotiningasosini tashkil etuvchi – majoziy ishqniezgulik, adolat, mehr-muhabbat, saxovat g‘urur, kabi oliy darajadagi axloqiy qadriyatlar orqali yuksak badiiy usullar vositasida ifodalab berdi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy Musulmon Sharqida shakllangan komil inson («al-insan al-kamil») g‘oyasini yangi mazmun bilan boyitdi. Uning asosini mohiyatiga ko‘ra ancha chuqur hisoblangan «vafo» tushunchasi tashkil etadi. «Vafo» – Navoiyijodida, ma’lum ma’noda hayo, karam, muruvvat, saxovat, qahramonlik, shijoatlik, nomuslik, sabr, qanoatni, shu bilan birga donolik, halollik, mehnatsevarlik, fidoiylik kabi qadriyatlarni qamrab olgan axloqiy tushunchadir. Mutafakkirning axloqiy idealini o‘z nafsi, ehtiroslari bilan doimiy kurashib, uniyenggan komil inson tashkil etadi. Shu bilan birga uning asarlarida odil hukmdor va ideal fozil davlat haqidagi g‘oyalar ham o‘rin olgan.

Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishiga nafaqat Abu Nasr Forobiy, balki Qadimgi Yunon va O‘rta asr Sharqi ilmiy yutuqlarini umumlashtirgan Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi ta’siri katta bo‘lgan.

Olimning falsafiy qarashlari tabiatni bilishga, tajriba, dalillarga asoslanib fikr yuritishga tayangan. Ulug‘ alloma o‘z ijodi orqali insonlarda ilm-ma’rifatga nisbatan hurmat va intilish uyg‘ota olgan.

Ta’kidlash joizki, AlisherNavoiylarning ijodiga Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, shuningdekkabi buyuk shoir va mutafakkirlarning asarlari kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, ularning ijodi o‘rtasidagi eng ko‘zga ko‘ringan o‘xshashliklardan biri ilohiy ishq-muhabbat vashaxs ma’naviy kamolotiga bo‘lgan qiziqishlaridir. Bu g‘oyalar XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan vamuayyan mavqega ega bo‘lgan tasavvuf ta’limotida, xususan Naqshbandiyada o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy Naqshbandiya tariqati g‘oyalaridan ta’sirlanib, o‘tkinchi foniy dunyo cheklovlarini yengib o‘tib, ruhiy komillikka intilish orqalieng oliy haqiqatga erishish haqida yozgan. Bunda shoir ajoyib badiiy tasvirlarni yaratgan va bu fikrlarni etkazish uchun metaforalardan foydalangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Alisher Navoiy Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq musulmon xalqlarining ko‘p asrlik madaniy an’analaridan foydalangan holda, o‘ziga xos badiiy va ilmiy asarlar yaratdi. Mutafakkirning ijodiy merosi ulkan va ko‘p qirrali bo‘lib, bular – 30 ga yaqin yirik devonlar, dostonlar, falsafiy va ilmiy asarlardir. Ularda muallif insonparvarlik tamoyillarini ilgari surdi, insonning aqli va imkoniyatlarini ulug‘ladi, ijtimoiy adolatsizlikni rad etdi.

Alisher Navoiyning asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan, ko‘plab asarlari hali ham dolzarb va tadqiqotchilar va tilshunoslarga qiziqish uyg‘otmoqda. O‘zbekistonda buyuk mutafakkirning ijodini o‘rganish bo‘yicha butun bir ilmiy maktab tashkil topdi. Ushbu maktab asoschilari orasida akademiklar Oybek, Vohid Zohidov, Izzat Sultonov, Aziz Qayumov va boshqa ko‘plab taniqli olimlar ham bor edi. Navoiy ijodini o‘rganishga professorlar Hamid Sulaymonov, Suyuma G‘aniyevalar ulkan hissa qo‘shganlar.

Hamid Sulaymonovning asosiy ilmiy faoliyati Alisher Navoiy lirikasining tekstologik tadqiqotlariga bag‘ishlangan. Olim Navoiy qo‘lyozmalari bibliografiyasini tuzgan (1946-1947) va shoirning «Badoe ul-bidoya», «Navodir un-nihoya» devonlari qo‘lyozmalarini topib (1959), ular shoir tomonidan tuzilganligini isbotlagan. «Xazoyin ul-maoniy» tanqidiy matnini tuzgan va nashr ettirgan (1958-1960). «Devoni Foniy» qo‘lyozmalarini (Fransiyadan) topib, fotonusxa asosida nashr ettirgan (1965).

Taniqli olima Suyima G‘aniyeva Alisher Navoiy ijodini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib bordi va butun umrini shu ishga bag‘ishladi. Suyima G‘aniyeva yigirmadan ziyod kitob, Navoiy ijodiga bag‘ishlangan to‘rt yuzdan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Olima Alisher Navoiy ijodini o‘rganish sohasidagi xizmatlari uchun 2016 yilda yuksak davlat mukofotiga– “O‘zbekiston Qahramoni” unvonini olishga sazovor bo‘ldi.

Ushbu olimlarning sa’y-harakatlari tufayli Alisher Navoiy asarlarining yangi o‘n jildlik to‘liq to‘plami 2011-yilda tayyorlanib, o‘zbek tilida muhim ilmiy sharhlar, lug‘atlari bilan nashr etildi. Bugungi kunda bu ish ularning shogirdlari va izdoshlar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, madaniyat va sivilizatsiya, madaniyat va ma’naviyat, ta’lim va tarbiyada ma’naviy merosning o‘rni masalalari bir qator o‘zbekistonlik olimlar, jumladan S. A Pulatova, Z. G‘. Kasimova tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Sharq mutafakkirlari ma’naviy merosida axloqiy qadriyatlarning o‘rni masalalari prof. D. A. Pulatovaning bir qator nashr ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR

Alisher Navoiy tasavvuf ta’limoti falsafasidan ilhomlangan va uning rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirdir. Uning tasavvufiydunyoqarashi «Lisonut-Tair» («Qushlar tili») dostonida yorqin aksini topgan. Asarning asosigainson va tabiat go‘zalliginingmohiyatini so‘fiyona talqini, ya’ni Allohning yerdagi tajalliysi, har bir insonga Yaratuvchi tomonidanAlloh huzuriga kelishning o‘ziga xos hayot yo‘litayyorlanganligi va har bir kishi Unga ma’lum bir tarzda yetib kelishi mumkinligi haqidagi g‘oyalar qo‘yilgan.

Alisher Navoiy shuningdek, tasavvuf tarixiga bag‘ishlangan alohida asar ham yaratdi. Uning mashhur «Nasoyim-ul-muxabbat min Shamoyim ul futuvvat» asari Markaziy Osiyoda tasavvuf tarixini o‘rganish uchun o‘ziga xos manbadir. Unda ilk bor Markaziy Osiyodagi so‘fiy-turkiy shayxlar haqida ma’lumot beriladi.

Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari so‘fiylik g‘oyalaridan ilhomlanib yozilgan. Ayni paytda, Navoiy tasavvufning naqshbandiya tariqati namoyandasi sifatida axloqshunoslik nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. U naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahovuddin Naqshbandning “Dast ba koru, dil ba Yor”, ya’ni “Qo‘ling ishda, qalbing Allohda bo‘lsin” shioriga yuqori baho beradi, uning g‘oyalarini

asarlarida madh etadi. «Hayrat ul- abror»ning alohida bobini shu mavzuga bag‘ishlaydi. Xususan, unda quyidagi misralar bor:

Xojaki, naqqoshi sipehri baland,

Bo‘lg‘ali yer safg‘asiga naqshband.

Ayladi avroq munaqqash base,

Naqsh raqam ayladi dilkash base.

Lek aning naqshi kabi dilnavoz,

Chekmadi to xomasidur naqshsoz.

Sobit aning ko‘ngli aro naqshi jud,

Mahv o‘lub ul sahfada naqshi vujud. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. 2011).

U «Qanoat naqshining ifshosiyu naqshbandiya tariqatining adosi» degan qit’asida o‘zi mansub bo‘lgan tariqatning to‘rt tamoyilini shunday tushuntiradi:

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasun,

Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Vatan ichra sokin bo‘lib soyir o‘l,

Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga.

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,

Bu yo‘l azmi agar bo‘lsa rag‘bat sanga.

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,

Ki yuzlanmag‘ay har dam ofat sanga.

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro,

Cholinmoq ne tong ko‘si davlat sanga.

Bu ohang ila bo‘lg‘usi naqshband,

Navoiy, agar yetsa navbat sanga. (Alisher Navoiy. Qit’alar. 2011).

Yuqoridagi qit'ada Alisher Navoiy naqshbandiya tariqatining quyidagi asosiy qoidalarini o'ziga xos yuqori badiiy mahorat bilan sharhlagan:

1. Hush dar dam (har nafasda hushyorlik bilan yashash, g'ofillikdan chekinish).

2. Nazar dar qadam (o'zgalar qadamini muhokama qilishdan ko'ra o'z qadamining pok, harom-xarishdan yiroq bo'lishini kuzatib borish, qadam-baqadam ma'naviy yuksaklikka erishish).

3. Safar dar Vatan (Vatanni kezmoq, kezib riyozat chekmoq, uni sevmoq, Vatanda yashash ham bir safar ekanini anglamoq).

4. Xilvat dar anjuman (xalq orasida ichki tanholikka erishmoq, gunohkorlar anjumanidan forig' va Tangri bilan birga bo'lmoq, o'zligini topmoq).

Umuman olib qaralganda, mazkur tamoyillarning har birida axloqiy talablar ustuvor bo'lib, ular Navoiy dunyoqarashining asl mohiyatini ochib beradi, shoirning naqshbandiya tariqatining namoyandasi sifatida ijod etganligini ko'rsatadi.

Navoiy asarlari orasida tasavvuf axloqiga doir yana bir mashhur qit'a borki, uning ichki – botiniy mazmuni alohida diqqatga sazovor:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,

Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq . (Alisher Navoiy. Qit'alar. 2011).

Bu she'rda, yuzaki qaraganda, gap dunyodan biror kasbning boshini tutmay o'tib ketish yaxshi emasligi haqida ketayotgandek ko'rinadi. Aslida esa u, yuqoridaaytib o'tganimiz – tasavvufaxloqshunosligining«kasb» tushunchasi bilan bog'liq. Navoiy bu dunyoga kelib, Alloh inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va ezguliklarni o'ziga kasb qilib olmagan, yuqtirmagan kishi tiriklik olamidan boshi quyi solinganicha chiqib qetadi, chunki dunyodan notamom, ya'ni komillikka erishmay o'tish xuddi hammomga kirib, yuvinmay chiqib ketish bilan barobar, deydi. Demak, ulug' mutafakkirning fikriga ko'ra, har bir inson bu dunyoda Alloh unga atab ne'mat sifatida yaratgan fazilatlar egasi bo'lmog'i, komillikka intilmog'i zarur, ana o'shandagina u o'z insonlik burchini bajargan, inson degan nomni oqlagan sanaladi.

Navoiy fikricha, komil inson o'zining ezgulik haqidagi niyatlarini amalda, xulq-atvorida ham namoyon etishi kerak. Buning yorqin namunasini buyuk

shoir va mutafakkirning hayot yo‘lida ham kuzatishimiz mumkin. U ko‘plab buyuk ishlarni amalga oshirgan noyob shoir noyob davlat arbobi edi.

Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini tarbiyasi barkamol shaxs – ideal insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar timsolida gavdalantirgan. Shu bilan birga, ilm-ma’rifat, aql-idrok, odob-axloqning kishi va umuman xalq hayotidagi ahamiyatiga doir fikrlari ilmiy-falsafiy, badiiy asarlarida bayon etilgan. Aql kuchiga Alisher Navoiy cheksiz ishonadi. Uning ijodida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarimarkaziy o‘rinda turadi.

Alisher Navoiy ulkan lirik shoirgina bo‘lib qolmay, balki shu bilan birga buyuk epik shoir – dostonnavis hamdir. Aynan shu ma’noda uning «Xamsa»si jahon adabiyotining o‘lmas obidalaridan biri, xamsachilik an’analarida yangi va ulkan bir hodisa bo‘lib qoldi. Insonning ma’naviy kamoloti masalasi shoirning nafaqat lirik poeziyasida, balki, mashhur epik asarlarida hammarkaziy o‘rinni egalladi.

Alisher Navoiy insonni mavjudotlar orasida a’losi va Tiriklik gultoji deb hisoblaydi. Xususan, “Xamsa” dostonlarida mukammal davlat, adolatli hukmdor va jamiyat, kishilarni baxt-saodatga eltuvchi fozil va odil shoh timsollarini yaratdi hamda xalqning orzu-niyatlari va o‘y-fikrlarini batafsil bayon eta oldi. Asarlarida fozil va adolatli jamiyat g‘oyalarini targ‘ib qilgan, adolatli jamiyatni yuksak ma’naviyatli insonlargina barpo etishi mumkin deb hisoblagan. U insoniyatni ikkitoifaga – “ahli ma’ni” va “ahli suvrat”ga bo‘ladi. “Ahli suvrat” toifasiga mansub kishilar kibrlanish, viqorli bo‘lish, zebu ziynatga berilish, o‘zgalarga zulm o‘tkazishdan huzurlanadilar. “Ahli ma’ni” yuksak tafakkur sohiblaridir. Bu toifa insonlarga aql va idrok bilan ish ko‘rish xosdir.

Navoiy «Xamsa» sining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» (ma’nosi – Yaxshi kishilarning hayratlanishi) pandnoma xarakteridagi falsafiy-didaktik dostondir. Navoiy bu dostonida o‘z oldiga falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta’lim va o‘git berish maqsadini qo‘yadi.

Farzandlarni komil inson qilib tarbiyalashda ota-ona ikki narsaga alohida e’tibor berishi kerakligini uqtiradi:

Birisi qo‘ymoqlik erur yaxshi ot,

Kim desalar yetmagay andin uyot. . . .

Qilmoq erur biri muallim talab,

Qilg‘ali ta’lim anga ilmu adab. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. 2011).

Demak, Navoiy fikricha, ota-ona farzandga avvalo yaxshi ism qo‘yish, uni ustozga berib yaxshi ta’lim va tarbiya berishi kerak.

Navoiy insonning mehnatga muhabbat, rostgo‘ylik, sadoqat, to‘g‘rilik kabi olijanob xislatlarini ulug‘laydi. U tamagir, ochko‘z, nafsini jilovlay olmaydigan kishilarni tanqid qilib, xalol mehnat bilan, qanoat qilib yashashniafzalroq deb biladi:

Tarki qanoat ani aylab jalo,

Kelgurbon boshig‘a yuz ming balo. . . .

Tinch ko‘ngul birla qatiqsiz umoch

Behki, birov minnati birla quloch. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. 2011).

Navoiy kamtarlik, qanoat, saxovat, himmat, sadoqat, to‘g‘rilik kabi insoniy fazilatlarni kuylaydi, xudbinlik, baxillik, shafqatsizlik, bevafolik va egrilik kabi xislatlarni qattiq qoralaydi. Shu bilan birga, insonga eng muhim fazilatlardan xayo, andisha va burch xos bo‘lishi zarurligini uqtiradi:

Kimgake andesha bu surat bo‘lur,

Avval anga burch zarurat bo‘lur.

Burch ishidin o‘zga chu fan topmadi,

Oldi, vale bergali tan topmadi. (Alisher Navoiy. Hayratul abror. 2011).

Insonga xos fazilatlarning orasida adolat va shukronalikka alohida e’tibor qaratib, bu sifatlar avvalo Sultonlarga xos bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Navoiyning fikricha, ilm egallashdan maqsad, xalq va mamlakatning baxt-saodati, farovonligi uchun xizmat etishdir: bunday olijanob kishilar xalq hurmatiga sazovor bo‘ladilar, nomlari xalq orasida abadiy saqlanadi va tarix sahifasidan aslo o‘chmaydi, deydi:

Qayu fan kim shuru’ etmaklikanda,

Kishidin yaxshi ot qolg‘ay jahonda.

Kila olg‘ancha ul bo‘lsun shioring –

Ki yaxshi ot qolg‘ay yodgoring . (Alisher Navoiy. Xamsa, 1960).

Shunday qilib, Alisher Navoiy har bir kishining turli bilimlarni, hunar egallashi zururligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Navoiy bilimlarni o'rganish zarurligini qayd etish bilan cheklanmadi, u bir qancha ma'rifatparvar olimlar bilan birgalikda mamlakatda ilm va fanni taraqqiy ettirish uchun ish olib bordi. Olimlarni asarlar yozishga da'vat etdi va rag'batlantirdi. Navoiy tufayli, Hirot shahariga har tomondan olimlar to'plandi. Hirot ilmiy markazga aylanib qoldi. Atoqli olimlarning yig'ilgan o'rni va hurmat egalari – fozillarning joyi bo'lgan Hirot shahriga atrofdan ilm toliblari kelib, ilm ola boshladilar. Hirot madrasalarida Xuroson va Markaziy Osiyodan kelgan ko'plab ilm toliblari tahsil olar edilar. Navoiy ilmiy ishlar chegarasini kengaytirish va yoshlarning dunyo ilmlaridan bahramand bo'lishlari uchun boshqa mamlakatlarda ta'lim olishlari zarur ekanligini Farhod misolida ochiq ko'rsatadi. Farhod kishilik donishmandligining eng yuksak cho'qqisini egallash uchun qadimdan ilmlar markazi Yunonga boradi. U yerda donishmandlar donishmandi bo'lgan Suqrotdan ta'lim oladi. Farhod shu bilan o'zini qiynab qo'ygan masalalarni yechish yo'lini topadi. Bu bilan Alisher Navoiy ilmlarni egallashda o'z yurtingdagi bilimlar bilangina qanoatlanmay, dunyodagi eng ilg'or bilimlarni ham egallash zurur, degan fikrni aytmoqchi bo'ladi.

«Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») qahramonlik epopeyasi, Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin ko'zgusidir. Adolatli va ma'rifatparvar podsho boshchiligidagi markazlashgan davlat uchun kurash «Saddi Iskandariy»ning bosh g'oyasidir. Lirik asarlarida, «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor» dostonlarida bu masalaga alohida e'tibor berib, ijobiy va salbiy podshohlar obrazini yaratgan Navoiy, «Saddi Iskandariy»da adolatli va ma'rifatparvar podshoning mukammal qiyofasini ko'rsatish, o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ideallarini badiiy mujassamlashtirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

Navoiy dostonining bosh qahramoni Iskandar tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy bo'lmay, ayrim o'xshashliklari (nomi, yurti, ayrim yurishlari)ga qaramay, Navoiy orzusidagi odil va ma'rifatparvar podshoning badiiy obraziga aylanadi. Navoiy Iskandarning murakkab va ziddiyatli hayot yo'lini tasvirlaydi. Iskandar boshidan kechirgan qiyinchilik va ziddiyatli holatlardan xulosa chiqarib, adolat va ma'rifatning kurashchisi va qo'riqchisi sifatida kamol topadi, o'z yurtida ham, o'zga yurtlarda ham osoyishtalik va adolat o'rnatadi.

Sharqshunos olim, akademikN. I. Konrad o'zining "Renessans va Navoiy" asaridaAlisher Navoiy «Xamsa»siga kiruvchi dostonlarni tahlil qilar ekan, uning buyuk daho shoir ekanligini «Saddi Iskandariy»da Iskandarning joni uzilayotgan, u o'layotgan holatda atrofdagilarga qilgan so'nggi vasiyatini tasvirlashorqali yana bir bor isbotlaydi. Alisher Navoiy Iskandar vasiyatini shunday bayon etadi:

Boshim uzra ko‘p iztirob aylamang,

Jahonni azodin xarob aylamang.

Manga na’sh ichinda maqom aylangiz,

Demay kecha-kunduz xirom aylangiz.

Vale qilsangiz na’sh aro ustuvor.

Hamul lahza zinhor yuz zinhor

Chiqoring bir ilkimni tobutdin,

Qiling naql jahdu jild aylab bori,

Skandarni Iskandariya sori.

Tiriklikda ul yer edi ma’manim,

O‘lim vaqti ham aylangiz madfanim.

Hamul nav’kim rishta yoqutdin.

Ki el solib ul sori hayrat ko‘zi,

Ne hayrat ko‘zi, balki ibrat ko‘zi:

“Bu panjaki barmog‘lari chekdi saf,

Jahonni jahon ahlidin urdi kaf.

Kafi ichra oldi jahon kishvarin,

Baru bahrning la’l ila gavharin…

Jahondin shal ilgi misoli borur,

Nechukkim chinor ilgi holi borur.

Angakim madadkor bo‘lg‘ay bilik,

Jahon shug‘lidin bori chekkay ilik”.

Bu yerlarga yetkurdi chun shah so‘zin,

Tugandi so‘zi, dog‘i yumdi ko‘zin. (Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. 2011).

N. I. Konradyozadi: “…Iskandar o‘ldi. Uning o‘limoldi qilgan vasiyatiga ko‘ra dafn etish uchun uning jasadini u yaxshi ko‘rgan Misr Aleksandriyasiga olib ketadilar. Tobutda olib ketishadi. Tobutdan esa hovuchi ochiq bir qo‘li chiqarib qo‘yiladi… Bu qo‘lda hech narsa yo‘q. Ochiq hovuchli osilib turgan bu qo‘l — hayratomuz kuchga ega badiiy timsoldir. Agar Alisher birgina shu timsolni yaratganida ham biz baribir qarshimizda daho shoir turganini

anglagan bo‘lar edik. ”(N. I. Konrad. 1968, 2006). Demak, Alisher Navoiy o‘zining betakror asarlarida inson hayotining ma’nosi, qadr qimmati, axloqiy qadriyatlarni badiiy obrazlar, asar qahramonlarining ibratli fazilatlari orqali jonli va juda ta’sirchan shaklda yetkazib bergan. Asrlar davomida keyingi avlodlarga ham bu hikmatlar ma’naviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Shaxsning aloqiy kamoloti masalasi Navoiyning 1500 yilda yaratgan so‘nggi yirik asari – «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani»)da o‘zining chuqur falsafiytahlilini topdi. Sharqshunos-faylasuf olim fikricha, Navoiyning mazkur asari “tom ma’noda ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalarga to‘liq bo‘lib, XV asrda mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyati mufassal ochib berilgan, ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligi ishonarli ta’kidlangan” (M. Qodirov. 2009.)

Asar uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi 40 fasldan iborat bo‘lib, 15 asrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, jamiyat turli sohalarining o‘zaro aloqadorligi, ijtimoiy toifalar va kasb egalari, xususan hokimlar, saroy a’yonlarining axloqiy-psixologik sifatlari, fazilatlari va ularning xulq-atvorlari haqidagi g‘oyalari bayon etilgan.

Kitobning ikkinchi qismida axloqiy qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va roli masalalariga e’tibor qaratilgan. Unda inson axloqiy hayotining falsafiy tahlili berilgan, axloqiylik mezonlari aniqlangan.

Uchinchi, yakuniy qismidashoirning hikmatli fikrlari, chuqur falsafiymulohazalari keltirilgan. Ular orqali mutafakkir yuksak ma’naviyatining asosini axloqiy qadriyatlar va tafakkur tashkil etishini, shu bilan birga bu – insonning olamdagi boshqa mavjudotlardan muhim farqli jihati ekanligini ta’kidlaydi.

«Mahbub ul-qulub» Navoiyning butun hayotiy tajribasining hosilasi sifatida yaratilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy asardir. U Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma” va “Ro‘shnoyinoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarlarikabi nasihatnoma, pandnomasifatida yozilgan.

Asarning yaratilishida Alisher Navoiy Zamaxshariyning “Atvak uz – zahab” kitobidagi g‘oyalardan ta’sirlanganligi seziladi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir bir qator asarlarida Zamaxshariyni o‘z ustozi sifatida e’tirof etadi va uning ijodiga cheksiz hurmatini bildiradi. «Mahbub ul-qulub»daZamaxshariyning “Atvak uz – zahab”idan farqli jihati – Alisher Navoiy axloq falsafasiga oid g‘oyalarni tahlil etadi, asoslaydi, she’riy to‘rtliklarda sharhlabberadi.

Shoir ilm ahli va ilm-fan yutuqlaridan behad mamnunligini bildiradi. Chunonchi, Mirzo Ulug‘bekning falakiyot ilmi sohasidagi kashfiyotlari bilan faxrlanadi. Ta’kidlash joizki, mutafakkir bu g‘oyani “Hamsa”sida ham ilgari suradi.

Shu bilan birga buyuk mutafakkir ilm va amalning birga bo‘lishi, inson egallagan bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishi kerakligi haqidagi qimmatli fikrlarni ilgari surgan:

. . . ikki kishi umr zoe’ o‘tkazdilar va go‘rga hasrat va armon olib bordilar. Bir ulkim, ilm o‘rganurga ranj torttiyu amal qilmadi, bir ulkim mol yig‘arga emgak chekti-yu sarf qilurin bilmadi.

Qit’a:

Olimekim, ilmu erdi bemalol,

Yo g‘aniykim, molig‘a buxl erdi yor.

O‘ldilar yuz hasratu armon bila,

Elga bo‘ldi ishlaridin e’tibor. (Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 2011)

XULOSA

Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu satrlar mazmunida ta’limning tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmasligi haqidagi sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi o‘zining yorqin ifodasini topgan. Bunda, bir umr ilm to‘plab, uni o‘z amaliyotida jamiyat manfaatlari yo‘lida sarflamagan inson molu dunyo to‘plab uni qanday sarflashni bilmagan insonga qiyoslanadi. Ularning har ikkisi ham faqat o‘zi uchun yashab, jamiyatga hech qanday naf keltirmagan kishilardir.

Buyuk mutafakkirning ushbu misralariga murojaat qilgan-ligimizning boisi shundaki, asrlar davomida yaratilgan falsafiy bilimlar ham insoniyat baxt-saodatiga xizmat qilishi kerakligini yana bir ta’kidlab o‘tishdan iborat.

Alisher Navoiyning fikricha, komil inson ilm olishga intilishi va olgan bilimlarini ezgu ishlarga sarflashi kerak. Shu ma’noda, buyuk mutafakkirning ilm – faqat ilm uchun emas, insonva jamiyat uchun xizmat qilishi kerak, degang‘oyasi bugungi kunda ham o‘ta dolzarb ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy – davlat arbobi sifatida mamlakat ravnaqi va xalq tinchligiga yordam bergan. U ko‘plab ta’lim muassasalarini o‘z mablag‘lari bilan qurdirgan, oddiy odamlarga ma’naviy va moddiy yordam ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Navoiy ko‘plab iqtidorli ijodkorlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Tarixchi Mirxond, shoir Atulla Husayni, yozuvchi Husayn Voiz Koshifiy, taniqli rassom Kamoliddin Behzod kabi ko‘plab noyob iste’dod

5) The terms that make up the smallest part are four-component terms, which make up 5. 2% of the vocabulary.

As the tourism sector is developing globally, the need to translate restaurant menus, airline tickets, tourism statistics and tourism promotion materials with this terminology is increasing.

Nowadays, tourism is a factor that accelerates socio-economic development, so we have to cover all areas to study it from a linguistic point of view. It goes without saying that in the translation of foreign language tourism terms, national cultures also play an important role and interfere, which increases the reasons for the emergence of translation issues as the content of tourism expands.

Sulayman emphasized that 4 criteria should be followed when translating the terms of intercultural tourism (Mohamed Zain Sulaiman, 2001: 58). They are as follows:

1) The translator must be a direct participant or a native speaker of the target language. Because, only a native speaker can fully understand all the meanings of this language and create effective translation materials;

2) study of the local cultural conditions allows to determine the needs and desires in the tourism service in advance and create translation materials accordingly;

3) It is also important to have the ability to be creative in creating understandable and impressive material texts for students;

4) Having excellent knowledge and skills about the tourism materials being translated is important in delivering the product to the reader in a high-quality and accurate manner.

Currently, finding a highly skilled professional translator to be attached in order to have a flawless and excellent translation product remains a major problem in the industry. Based on the above-mentioned information, we can say that the translation of tourism terms and materials is a labor process carried out not only by a translator, but also by historians, economists, marketers, representatives of local culture, and artists. The task of this research work is focused on the linguistic aspect of materials related to tourism, the problems that arise in the process of translating them into English and Uzbek languages. The fact that the main reason for the origin of these problems is the difference between languages shows that we should also work with the cultural sphere of the language.

When we work with materials related to tourism, we use the language of this field, that is, the language of tourism, as is the case in all fields. But there are a number of defaults in this process begins with complexities, which are:

First, it is to help tourists visiting the country to form their first impressions about the city (historical and modern buildings, food and eating places, clothing, customs, local population, etc.) and to prepare materials that reveal the reality (such as flyers, brochures, websites). They are called realities (Ledina Merkaj, 2013: 69-78)

The next complicated situation depends on reality and arises in the process of translating the given names. Accordingly, they create 2 different situations, i. e. some common nouns require inversion, while others are limited to graphic-phonetic transformation. When using any method, as a result, it is important that the tourist can go to the destination and take full advantage of the services there. Therefore, as we mentioned above, the linguistic approach is superior to the functional approach.

In the process of translation, domestication method (F. Schleimacher) is widely used (Schleimacher F. 1977: 47). It carries out the translation while preserving the features and words of the language text. For example, Big Ben Clock Tower Translation as “Big Beg Clock” is linguistically close to this content to the tourist. However, its translation as "Big Ben's clock" causes the loss of the culture of the source language. This method is important to facilitate the process of understanding of tourism materials for the tourist.

From a linguistic point of view, the fact that the translated material preserves its originality and national-cultural concepts brings the consumer closer to the culture of the language. Also, in order to ensure

compliance with the needs of the customer and the consumer, the texts cover three main functions, they are: expressiveness, illumination and calling functions (He Sanning, 2010: 125). Communicative translation is needed in the translation of the illuminating and inviting functions of texts related to tourism, but in such translations, linguistic means are important, while semantic means are important in the function of expressiveness.

The tone of the text, coloring, complementary image, paper color is also necessary in the implementation of these functions. In addition to these three functions, special attention is paid to the aesthetic function and cultural value of tourism texts. In the aesthetic function, the texts related to tourism are short, but understandable and impressive, and in the cultural function, the natural scenery of the tourist area, the cultural heritage and traditions reflecting the long-term history, and the architecture created by human hands. monuments emphasis is placed on reflecting the image.

Conclusion

It is worth noting that in the translation of materials related to the field of tourism, it is clear that a perfect translation cannot be done using just one method, because the consumer usually not specialists in the field, but non-specialists. For this reason, while preserving the cultural aspects of tourism materials, using translation methods in the right place requires high knowledge and skills from the translator. For this reason, the use of word-for-word translation in the translation of tourism terms does not help in achieving the expected result.

The purpose of translation is to deliver information in a comprehensible manner to a non-linguistic consumer. It is important to find the right space that preserves the culturally informative status of the tourism material. This requires the correct application of the techniques of civilization, foreignization, and neutralization.

References

Yurko N. A. , Styfanyshyn M. I. , Romanchuk O. V. , (2019) The characteristics of English terms structure in tourism industry // Scientific journal of the Lviv State University of Life Safety «Philological Periodical of Lviv». – № 5, p. 178

Mohamed Zain Sulaiman. The misunderstood concept of translation in tourism promotion, The International Journal for Translation &Interpreting Research, University Kebangsaan Malaysia. P. 58.

Ledina Merkaj, (2013) Tourist communication: a specialized discourse with difficulties in translation, European Scientific Journal December, Albania, P. 69-78.

Schleimacher F. (1977) On the Different Methods of Translating, in André Lefevere (ed. & trans.) Translating Literature: The German Tradition from Luther to Rosenzweig. Assen & Amsterdam: Van Gorcum. P. 47.

Rahimov G‘. (2016), “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” darslik majmuasi, Toshkent - p. 132.

He Sanning. (2010) Lost and Found in Translating Tourist Texts Domesticating, Foreignizing or Neutralizing Approach. Nanjing University of Information Science and Technology, The Journal of Specialized Translation. Issue 13, January. – P. 125.

Sulaiman M. Z. (2013) Translating tourism: a cultural journey across conceptual spaces. PhD thesis, Monash University, Melbourne. P. 154-155.

Sumberg C. (2004) Brand leadership at stake: Selling France to British tourists. The translator, 10(2). – P. 329-353.

Sun Yingchun. (2004) Zhang Guruo's Translation Art Research, Beijing: China Foreign Translation and Publishing Corporation, – P. 431.

Anarbaev O. R. , (2022) Specific features of the publicistic style in English, South Asian Academic Research Journals, . https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=XdwAZK0AAAAJ&citation_for_view=XdwAZK0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

Anarbaev O. R. , (2021) Corpus of parallel texts-As anefficient working tool of a modern translator, Asian Journal Of Multidimensional Research, . https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=XdwAZK0AAAAJ&citation_for_view=XdwAZK0AAAAJ:2osOgNQ5qMEC

Anarbaev O. R. , (2020) ИНГЛИЗ ТИЛИДА НЕОЛОГИЗМЛАР ҲОСИЛ БЎЛИШИДА ҚЎШМА СЎЗЛАР САМАРАДОРЛИГИГА ДОИР, Международный Журнал Искусство Слова.

Anarbaev O. R. , (2020) Linguistic features of compound words in english and Uzbek languages, European Journal of Molecular and Clinical Medicine.

https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=XdwAZK0AAAAJ&citation_for_view=XdwAZK0AAAAJ:u5HHmVD_uO8C

Anarbaev O. R. , (2023) METHODS AND PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH NEWSPAPER TEXTS INTO UZBEK Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, /2/20 https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=XdwAZK0AAAAJ&citation_for_view=XdwAZK0AAAAJ:UeHWp8X0CEIC

Anarbaev O. R. , (2022) Specific features of the publicistic style in English ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, /12/5 https://scholar. google. com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=XdwAZK0AAAAJ&citation_for_view=XdwAZK0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Mastona GOZIYEVA

Annotasiya

Mazkurmaqolada pragmalingvistikaning markaziy masalalaridan biri hisoblangan nutqiy akt nazariyasi va uning xorijiytillarnio`rganishda suhbat tuzilishi, suhbatniboshqarish, nutqnitashkilqilishvadiskurs shakllarinitanlashkabitildanfoydalanishningsosiolingvistik jihatlarihamdabuboradag`arbhamda mahalliy olimlarningfikrlarito`g`risidaso`z boradi. Nutqiyaktjamiyata'zolari tomonidanqabulqilinib, nutqxulqi qoidalarigamuvofiqtarzdaamalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo`naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Kommunikativ aloqaning nutqiy harakatni anglatuvchi verbal ifodali birligi nutqiy akt sanaladi. Nutqiy aktda xabar, so`roq, buyruq, izoh berish, kechirim so`rash, tashakkur bildirish, tabrik ifodalash kabi turli nutqiy harakatlar amalga oshiriladi. Nutqiy aktning shakllanishida verbal birliklar bilan birga ishtirok etuvchi noverbal vositalar muloqotning èrdamchi vositalari sanaladi. Ma'lumki, nutqiy akt muayyan jamiyatda qabul qilingan nutq xatti-harakati tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan pragmatikvaziyat doirasida ko`rib chiqiladigan normativ ijtimoiy-nutq xatti-harakatningmaqsadli birligi hisoblanib, uningasosiy xususiyatlari: niyat (maqsad), maqsadga muvofiqlik va an'anaviylik doimso`zlovchini yuzi bilan bog`liq. Nutqiy akt ketma-ketligi ma'lum birmuloqot matniniyaratadi. Nutqiy aktlar nazariyasi doirasida qabul qilingan vaziyatlardan biri shundan iboratki, nutqiy muloqotning eng kichik birligi sifatida lisoniy birlik yoki nutqiy tuzilma emas, balki hukm, tasdiq, buyruq, tasvirlash, ta'kid, kechirim so`rash, tashakkur, taklif va tabriklash kabi ma'lum nutqiy harakatlardan biri voqelangan nutqiy akt tan olingan.

Kalit so`zlar

nutqiy aktlar, adresat, adresant , diskurs, nutqiy etiket.

THEORY OF SPEECH ACTS AND EXISTING PROBLEMS

Mastona GOZIEVA

Annotation (Abstract)

This article will talk about the theory of speech acts, which is considered one of the central issues of pragmalinguistics, and its sociolinguistic aspects of language use, such as conversation structure in the study of foreign languages, conversation management, speech organization and selection of discourse forms, as well as the opinions of western and domestic scientists in this regard. A speech act is a speech act that is adopted by members of society and carried out in accordance with the rules of speech behavior, aimed at a specific purpose. The verbal expressive unit of communicative communication, which means a speech action, is considered a speech act. In a speech act, an apology, greeting, request, complaint, invitation, compliment, or refusal various speech actions are performed. In the formation of the speech act, the nonverbal means involved along with verbal units are counted as the associate means of communication. It is known that the speech act is considered the target unit of normative socio-speech behavior, which is considered within the framework of the pragmatic situation, which is carried out in accordance with the principles and rules of speech behavior adopted in a particular society, the main features of which: intention (purpose), purposefulness and tradition are always associated with the face of the speaker. The sequence of the speech act creates a certain text of communication. One of the situations adopted within the framework of the theory of speech acts is that as the smallest unit of speech communication, not a linguistic unit or a speech structure, but one of the specific speech acts, such as judgment, affirmation, command, description, interpretation, apology, thanks, invitation and congratulations, is recognized as an actual speech act.

Key words

speech acts , addressee, discourse, speech ethics.

Kirish

Nutqiyakt tushunchasioldingi davrlarda ham Vilgelm fon Humbold, Sharl Balli, Karl Lyudvig Byuler, Emíl Benvenist, Mixail Mixaylovich Baxtinkabiolimlarningta'limotlaridamavjudbo`lgan, ammo nutqiyakt nazariyasi to`liq bir ta'limot sifatida ingliz mantiqshunosi J. Ostin, amerikalik psixolog Djona Rodjersa Syorlya va boshqalarning ishlarida shakllandi. Shahriyor Safarovning fikricha, "nutqiy akt so`zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir", "nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir", "nutqiy akt – muloqot uchun «qurilish materiali»dir, u kommunikativ jaraèn mantiqiy davomliligini aks ettirmaydi [1]. Tilshunoslikda nutqiy akt muammosining yuzaga kelishi, o`rganilishi avstraliyalik filosof Lyudvig Vitgenshteynning lisoniy faoliyat masalasiga oid falsafiy qarashlari bilan bog`liq. U nutq inson faoliyatining tarkibiy qismi , til esa ma'lum vazifani bajarishga yo`naltirilgan vosita, qurol sifatida gavdalantirilgan vosita degan fikrni olg`a suradi[2]. Nutqiy akt yuzasidan olimlar fikr va mulohazalarini o`rganar ekanmiz, ushbu tushunchaning rang– barangligiga guvoh bo`ldik. Nutqiy akt nazariyasi ilk bor ingliz filosofiDjon Lengsho Ostin tomonidan ilgari surildi. U asosiy e'tiborini nutqiy akt nazariyasini ishlab chiqishga, xususan, nutqiy aktni shakllantiruvchi performativ fe'llar tahliliga hamda nutqiy akt turlarini tasniflash masalasiga qaratdi. Uning ta'kidiga ko`ra "biror bir gapni talaffuz qilish-bu ma'lum bir faoliyat olib borishdir"[3]. Djon Lengsho Ostinning o`limidan so`ng nashr etilgan «How to do things with words» kitobida olimning bu masalaga oid qarashlari jamlandi. Ruminiyalik tilshunos olim Shoshana Blum Kulka suhbatdoshlarni muloqotga kirishi, xaqli ravishda ularning bir –biriga lisoniy faoliyat orqali ta'sir ko`rsatish deb ta'kidladi. U A Cross-Cultural Study of Speech Act Realization Patterns (CCSARP)nomli loyihasida nutqiy aktlarni iltimos hamda uzr so`rashturlarini 8 ta tilda qiyoslab chiqdi[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy akt tilning uch jihatidan biri psixologik "nutqni tashkil etish" va "til tizimi" "til materiali", jumladan, gapirish va tushunishning alohida aktlari yig`indisi. "N. A"konsepsiyasidan bunday foydalanish Lev Vladímirovich Shérba hamda 1920-30-yillarda ijod qilgan olimlar ishlarida uchraydi[5]. N. A. tushunchasi umumiy chet tilini o`qitish metodikasi bilan bog`liq bo`lib , chet tillarida N. A. turlarini tushunish demakdir. (gapirish, tinglash, o`qish va yozish). N. Adan foydalanishni Lev Semyonovich Vgótskiy birinchilardan bo`lib fanga olib kirdi[6]. Nutqiy akt-nutqiy faoliyatning namoyon bo`lishidir. Nemis tilshunosi Karl Lyudvig Byuler nutq aktining uchta tarkibiy qismini ajratib oldi:" axborot

uzatuvchi", "axborot qabul qiluvchi", " ob'ektlar va vaziyatlar " va ularni tilning muayyan funksiyalari bilan bog`ladi. K. Byuler nutq aktning uchta tarkibiy qismini ajratib oldi:" yuboruvchi", " qabul qiluvchi", " ob'ektlar va vaziyatlar " va ularni tilning muayyan funksiyalari bilan bog`ladi[7]. Román Ósipovich Yakobsón esa ifodalar (emotiv, "adresantga qaratilgan"), murojaatlar (konativ, adresatga qaratilgan) va uning namoyishi (muloqot mazmuni yoki kontekst, voqelik haqidagi xabar)modelini ishlab chiqdi [8]. Roman Osipovich YakobsonKarl Lyudvig Byuler ajratib olgan nutq akt komponentlari tarkibiy qismiga yana uchta : aloqa , til kodi, xabar kabilarni qo`shdi va ularni komponentlar vazifalariga mos tarzda (fatik yoki aloqa o`rnatuvchi; metatil nutqni amalga oshirishda nutq predmetining til kodiga ega bo`lishi; va poetik)deb nomladi. "axborot yuboruvchi" , "axborotni qabul qiluvchi", "predmet va vaziyat" atamalariga Yakobson Byulerdan farqli ravishda"adresant" , "adresat" va "kontekst"deb ta'rif berdi. Niderland tilshunosi Tyon Adrianus van Deyk nutqiy aktlar nazariyasini pragmalingvistikaning ajralmas qismi, deb ta'riflaydi [9].

Nutqiy aktlarga g`arb olimlarining ta'riflar

Maykl Aleksandr Kirkvud Xallidey[10]tilning "semantik k u	tilning "semantik kuchi"ni hosil
u	
	nutqiy tuzilmadan kattaroq hajmda bo'la olgani kabi, undan kichikroq ya'ni u lisoniy birlikning tashkil
	o'zida verbal va noverbal

Turli xil lingvistik tushunchalar orqali ajralib turadigan nutq aktining asosiy xususiyatlari haqida mahalliy olimlarimizning fikr mulohazalarini keltirib o`tamiz:

M. Sabirova, gazeta matnlarida nutqiy ta'sir ko`rsatishning eng faol va samarali usuli bu — savol aktidir deb ta'kidlaydi va matbuot matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishidagi o`ziga xoslik matnda nutq egasi muayyan kommunikativ niyatini turli pragmatik maqsadlarga yo`naltirishi xaqida o`z fikr mulohazalarini keltirib o`tadi [14].

V. Xolmatova nutqiy aktlar mazmunini voqelantiruvchi vositalarning ilmiy nazariy tahlili yuzasidan muloqot vaziyatida yuzaga kelayotgan talablarni qondirish amaliyoti nutqiy aktlarni alohida ta'kid, qat'iyat bilan bajarishi, shuningdek, ta'kidsiz va neytral (betaraf) nutqiy aktlar ham hosil bo`lishi kuzatilishini o`z ilmiy ishida tadqiq qilgan[15]. D. Abduazizovaga ko`rahis-tuyg`ular nutqiy aktning rivojlanishi, muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga va har bir muloqot ishtirokchisining emosional holatini ifodalashga ta'siri hamda imo-ishoralar kommunikantning temperamentida, hissiy holati va suhbatdoshiga munosabatida kuzatiladigan milliy, hududiy va ijtimoiy xususiyatlarni ifodalaydi[16]. M. Hakimov nutqiy aktda quyidagi komponentlar ishtirok etishini qayd etgan: so`zlovchi, tinglovchi, nutq ob'ekti – faktik material hamda nutqiy vaziyat [17].

Nazarimizda, nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur bo`lgan komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til ko`nikmasini ham kiritish lozim. Nutqiy aktning kommunikativ maqsadga bo`ysundirilishi, voqelanishida muhim o`rin tutuvchi ijtimoiy muhit, muloqot vaziyati, nutq egalarining til ko`nikmasi kabilar pragmalingvistikaning tadqiq ob'ektlari hisoblanadi. Tilshunoslikda nutqiy aktni bayon etishning bevosita va bilvosita turlari ham farqlanadi. Nutqiy aktni uni ifodalashga xoslanmagan sintaktik struktura orqali bilvosita bayon etishda ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qoladi, unga qo`shimcha sintaktik ma'no yuklanadi; b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butkul yo`qoladi, uning o`rnini o`zga sintaktik ma'no egallaydi. Nutq harakati-bu muloqot uchun xizmat qiluvchi so`z. Biz uzr so`rashda, tabrik, so`rov, shikoyat, taklif, iltifot yoki rad etganimizda nutq aktlarini bajaramiz. Nutqiy akt uzr so`rashda birgina"Uzr", yoki"Meni kechiring tug`ilgan kuningizni unutib qo`yibman , xayolimdan ko`tarilibti" kabi bir nechta so`zdan iborat bo`lishi mumkin. Biz har kuni eshitadigan va foydalanadigan nutqiy aktlarga quyida misollar keltiramiz:

	I’ve already been waiting three weeks
	"We’re having some people over Saturday evening and wanted to know if you’d like to join us. "
	I’d love to see that movie with you but this Friday just isn’t going to work. "

Nutq aktlarni o`rganilayotgan ikkinchi tilda namoyon etish birmuncha murakkab, buning birdan bir sababi esa talabalarning o`zlari o`rganayotgan ikkinchitilidagi frazeologik birliklarni va ularni ifodalanishini hamda o`zlari o`rganayotgan mamlakatning madaniy me’yorlardan xabardor bo`lmasliklari yoki ona tili qoidalari va konvensiyalarini ikkinchi tilgato`g`ridan to`g`ri tarjima qilishya’ni unversal qoidalar orqali ifoda etishlaridir. Til o`rganuvchilar uchun tabiiy tendensiyaga aylangan eng muhim jihat bu ularningo`rganayotgan chet tilini o`z ona tilidaifoda qilishdir, ya’ni to`g`ridan to`g`ri gaplarni tarjima qilish, bunday yondashuv asosida ikkinchi tilda gapirish muloqotchilar o`rtasida ba’zi tushunmovchiliklarga sabab bo`ladi, shunday ekan til o`rganuvchilar o`zga millat tilida muloqotga kirishar ekanlar , avvalo o`z ona tillarida nima demoqchi yoki qilmoqchi ekanliklari yoki ular tanlagan nutqiy aktlar ona tilidan ikkinchi tilga o`tkazish qanchalik maqsadga muvofiq ekanligini yaxshi anglab etishlari lozim. Ingliz tilida ayni ma’noga egaba’zi nutqiy aktlar ikkinchi tilga tarjima qilinganidako`zlangan ma’noni bermasligimumkin. Masalan, quyida inglizzabon so`zlovchi tomonidan aytilgan fikr xitoylik tinglovchi tomonidan noto`g`ri talqin qilingan:

Sarah: "I couldn't agree with you more. " (Сара: Сизни фикрингизга ортиқ қўшилаолмайман.)

Cheng: "Hmmm…. " (Thinking: "She couldn't agree with me? I thought she liked my idea!")

Cheng:Xmmm. . . (O`ylayapti: U meni fikrimga boshqa qo`shilolmaydi? Men unga meni g`oyamyoqdi deb o`ylagan edim.) Cheng bilan suhbat mobaynida Sara amerikaliklarga xos tarzda uni ma'qullagani, suhbat oxirida esa rad etishi bilan yakun topishi xitoylik suhbatdoshda tushunmovchilik uyg`otdi , muloqot muvaffaqiyatsiz yakun topdi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, nutq aktlari instruksiyasiga asoslangan o`quv mashg`ulotlari talabalarga o`z nutq aktlarini ifoda etishlarini yaxshilashga va til sohiblari bilan o`zaro muloqotga kirishganda kerakli nutqiy aktdan foydalana olishi yoki suhbatdoshi ifodalagan nutqiy aktni tushinishiga yordam beradi. Nutq harakatlari ba'zi ikkinchi til o`rgatuvchi o`quv mashg`ulotlarida talabalarga o`qitilgan bo`lishiga qaramasdan ko`pgina o`quv materiallari, darsliklar mualliflarning ichki intiusiyasi asosida yozilgan. Demak inglizzabon til sohibi ma'lum e'tiqodlar asosida o`z ichki sezgilari orqali o`z tillarida qanday o`zaro muloqot qilishni biladilar shunday ekan til o`rganuvchilarga ham ingliz tilini ijtimoiy o`rni tushuntirib berilishi lozim. Biroq, bu odatiy intiutiv yondashuvlar to`g`ri bo`lib chiqmasligi ; aslida, til sohibining intiusiyasi ba'zan ishonchsiz ham bo`lishi mumkin. Masalan, darslik muallifi biror o`spirin va uning do`stiniaeroportdagi salomlashuv suhbatini o`z darsligida misol tariqasida keltiradi, suhbat taxminan ushbu ko`rinishda beriladi:"Hello , Mark. How was flight? I see you got a new T-shirt ", aslida esa til sohiblari tomonidan " Hey , men-what's happening? Ilike you T-shirt. It 's awesome " tarzida ifoda etilishi darslik mualliflari tomonidan taqdim etilmaydi. Ko`pincha tildan ongsiz holda foydalaniladi va biror chet tilida muloqot qiluvchilardan"mana shunday aytilsa yaxshi bo`ladi" deb tushuntirib berishlarigaba'zan ehtiyoj seziladi , biroq aminmizki, insonlar bilan o`zaro muloqotga kirishishda aniqlik, tushunarlilik yoki ob'ektiv tasvir qanday ekanligi noma'lumligicha qolaveradi. Masalan ESL (English as a second language) mo`ljallanganaksariyat darsliklarda maqtov nutqiy aktlarini o`ziga xos kamtarlik va minnatdorchilik tarzida qabul qilishlari misol tariqasida keltiriladi :

A: What a beautiful dress!(A: Qanday ajoyib libos!)

B: Thank you. I'm glad you like it. (B: Rahmat. Sizga yoqqanidan xursandman.)

Vaholanki, xaqiqiy hayotdabiror inson bizni maqtasa javobimiz quyidagicha bo`lishi ham mumkin:

A: *That's a cute dress you're wearing*. (A: Egningizdagi libos juda xushbichim ekan.)

B: *Really? This old rag? I got it at the Salvation Army for $2. 00!*(B: Nahotki, rost gapiryapsizmi? Rosdan shueski matoh xaqida aytyapsizmi? Men uni *Salvation Army*dan (Xalqaro xristian mehr-muruvvat tashkiloti) bor yo'g'i $2ga sotib olganman!).

Or(yoki quyidagicha bo`lishi mumkin)

B: *You're the third person today who's complimented me on it. I must have done something right!*! (Bugun siz 3-insonsiz meni shu libosimni kiyib olganim uchun maqtayotgan. Nimanidir to`g`ri qilganga o`xshayman!

Xulosa o`rnida aytolamizki, til sohiblari ESL darsliklarida taklif etilayotgan grammatik jihatdan to`g`ri lekin xaqiqiy til terminlarining autentikbo`lmagan, til egalari bilantabiiy o`zaro muloqotga kirishishlari uchun misol tarzida keltirilgan iltifot , uzr so`rash maqtovlarni faqatgina taxminan uchdan biriniqabul qilishgan. Bu esa, nutqiy aktlarni talabalarga o`rgatish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri ekanligini ko`rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T. : O`zbekiston, 2008. -286s.

Wittgenstein L. Philosophical investigations. Oxford, 1963

Ostin Dj . Kak sovershat deystviya pri pomoshi slov / / Izbrannoe. Perevod s angl. Makeevoy L. B. , Rudneva V. P. — M. : Ideya Press, Dom intellektualnoy knigi, 1989. — S. 13-136.

Blum-Kulka, S. , House, J. , & Kasper, G. (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation.

Sherba, JT. B . O troyakom aspekte yazkovx yavleniy i ob eksperimente v yazkoznanii Tekst. / JT. B Sherba // Izvestiya Akademii nauk SSSR, Seriya VII, Otdelenie obshestvennx nauk. M. , 1931. - S. 24-39.

Vgotskiy, L. S. Vskazvanie kak ob'ekt lingvisticheskoy semantiki i teorii kommunikasii. // Tez. dokl. respubl. nauchn. konf. Ch. 1-2. Omsk, 1992.

Byuler K. Teoriya yazika (izvlechenie) // Istoriya yazkoznaniya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. M. , 1960, ch. 2. - S. 21-37.

Yakobson R. Razrabotka selevoy modeli yazka v evropeyskoy lingvistike v period mejdu dvumya voynami. — «Novoe v lingvistike», vp. ИВ. M. , 1964, s. 374

Deyk, van T. A. Vopros pragmatiki teksta // Novoe v zarubejnoy lingvistike. M. : Progress, 1978. - Vp. 8: Lingvistika teksta. - S. 259-336.

Maykl Aleksandr Kirkvud Xallidey2002. Lingvisticheskie issledovaniya teksta i diskursa v Гоогле Knigi, izd. Djonatan Vebster, Continuum International Publishing.

Habermas J. Theorie des kommunikativen Handeln. B. I. Handlungsrationalität und gesellschaftliche Rationalisierung — Frankfurt: Suhrkamp Verlag, 1981.

Morgan J. L. Two types of covention in indirect speech acts // Syntax and Semantics. Vol. 9: Pragmatics / Eds. by Cole P. N. Y. , 1978. - P. 261 - 280.

R. Wright“Meaning and conversational implicature” Talladega College p363

Sabirova M. ”Gazeta matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanish usullari” Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3 (32), 42-51 https://journal. fledu. uz ISSN: 2181-8215 (online).

Xolmatova V “Kommunikativ tilshunoslikda nutqiy tuzilmalar pragmatik mazmuni va modal birliklarning o`rni” Internauka: elektron. nauchn. jurn. 2021. № 18(194). URL: https://internauka. org/journal/science/internauka/194 (data obrasheniya: 26. 02. 2023).

Abduazizova D. A. Social relationships in paralinguistics / Kulturologiya, iskusstvovedenie i filologiya: sovremenne vzglyad i nauchne issledovaniya: sb. st. po materialam xB Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Kulturologiya, iskusstvovedenie i filologiya: sovremenne vzglyad i nauchne issledovaniya». – № 9(13). – M. , Izd. «Internauka», 2018. – S. 93-98.

Hakimov M. O`zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri . . . dis. – Toshkent, 2001. – B. 94

AMERIKA YOZUVCHISI REY BREDBERINING “MUZ VA OLOV” HIKOYASIDA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRI

dotsent, Ulug‘bek KO‘CHIMOV

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada quyidagi masalalar tahlil etilgan: Xorijiy fantastlar orasidan mamlakatimizda Rey Bredberi eng taniqlilaridan biri. Rey Bredberi fantastik asarlarida qahramon ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ijodkorlarning qahramon ruhiyatini ochib berish mahorati va umuminsoniy muammolarning badiiy asardagi talqiniilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada Amerika yozuvchisi Rey Bredberining “Muz va olov” hikoyasida qahramon ruhiyatini ochishda muallif nutqi, peyzaj, monolog, diolog, tush ko‘rish va nutqning boshqa ko‘rinishlaridan foydalanishda o‘ziga xos individual tomonlari ochib berilgan. Rey Bredberi “Muz va olov” hikoyasida Sim va Kayon o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyat orqali o‘zining ham o‘zgalarning ham qadr-qimmatini bilmaydigan Kayon obrazining ma’naviy dunyosi, ruhiy olamini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Yozuvchi nutqida berilgan tabiat kuchlari tasviri esa kishilar o‘rtasidagi g‘oyaviy kurash psixologiyasini ochishga xizmat qilgan. Hikoyada “inson tabiat yetkazadigan ozor oldida ojizdir” degan muallif g‘oyasi o‘z isbotini topmaydi. Shuningdek, muallif asar syujeti, peyzaj, portretdan tashqari asar qahramonlarining nutqi orqali ham hikoyada ko‘tarilayotgan masala – xalq o‘z ijtimoiy ahvolini yaxshilashi uchun harakat qilishi, harakatda yashashi lozim, degan fikrni ochishga muvaffaq bo‘lgan. Faqat bunga bosqinchilik emas, halol yo‘l bilan erishish lozimligi asar konsepsiyasini tashkil etgan. Rey Bredberi urush olovini yoquvchilarni qoralaydi. U Sim fantastik obrazi orqali ijtimoiy va shaxslararo urushlarga qarshi ekanligini bildiradi. “Muz va olov” hikoyasidan ham muallifning asl maqsadi, asosiy konsepsiyasi inson qancha umr ko‘rishidan qat’i nazar urush olovini yoqmasdan yashashi lozimligini uqtirishga erishadi.

Rey Bredberi ma’naviy qadriyatlar, fantaziya va erkin ijod vakili sifatida insonning ichki dunyosini, qarashlarini, tasavvurlarini eng oliy qadriyat deb biladi. Insonlarning boshqalar dardiga hamdard bo‘lish,

jonkuyarlik hissini yozuvchi birinchi o‘ringa qo‘yadi. Yozuvchi insonni ruhan poklash, qalban ulg‘ayishga chorlash, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qilish, vijdonini uyg‘otish leytmotivi asosida qahramonlarning ichki kechinmalarini badiiy psixolozim aspektlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Yozuvchining bu konsepsiyasi ushbu maqolada ilmiy jihatdan tahlil qilib beriladi.

Kalit so‘zlar

fantastika, ruhiyat, pisixologizm, obraz, badiiy fantaziya, monolog, diolog, tush ko‘rish, fan va texnika, badiiy olam, kelajak, bashorat, nutq shakllari, psixologik holat.

THE IMAGE OF THE INNER WORLD OF THE HERO IN THE STORY OF THE AMERICAN WRITER RAY BRADBURY "FROST AND FIRE"

associate professor, Ulugbek KUCHIMOV

Annotation

in this scientific article, the following issues are analyzed: among foreign fiction, Ray Bradbury is one of the most famous foreign science fiction writers in our country. In Ray Bradbury's fiction works, the peculiarities of the hero's psyche, the ability of the creators to reveal the inner world of the hero and the interpretation of universal problems in fiction are scientifically analyzed. The article reveals the individual aspects of the author's speech, landscape, monologue, diologue, dreaming and using other manifestations of speech in the showing of the hero's inner world in the story "Frost and fire" by the American writer Ray Bradbury. Ray Bradbury in the story "Frost and Fire" was able to show the spiritual world, the inner world of the image of Chion, who knows no value to himself or others, through the conflict that arose between Sim and Chion. And the image of the forces of nature, given in the writer's speech, served to show the psychology of ideological struggle between people. In the story, the author's idea of "man is helpless before the pain that nature conveys" does not find its confirmation. Additionally, the author managed to open the idea that the plot of the work, in addition to the landscape, portrait, is the issue raised in the story even through the speech of the heroes of the work – that the people should act, live in motion so that they can improve their social status. Only the fact that this should be achieved in an honest way, not an invasion, formed the concept of the work. Ray Bradbury condemns the warmongers. He expresses his opposition to social and interpersonal wars through his fictional character Sim. Even from the story "Frostand fire", the original goal of the author, the basic concept of which is able to explain the fact that a person must live without burning the fire of war, no matter how long he lives.

R. Bradbury, as a representative of spiritual values, fantasy and free creativity, considers the inner world of a person, his views and imagination as the highest value. The writer puts people's empathy for the

pain of others and care in the first place. The writer depicts the inner experiences of the characters, using aspects of artistic psychologism, based on the leitmotiv of a person's vocation to spiritual purification, spiritual growth, inner peace of a person, making his will strong, faith whole, awakening conscience. This concept of the writer will be scientifically analyzed in this article.

Keywords

fiction, psyche, pisichologism, image, artistic fantasy, monologue, diologist, dreaming, science and technology, artistic world, future, prophecy, forms of speech, psychological state.

Kirish

Jahon adabiyotshunosligida ruhiyat muammosini tadqiq etish, qahramon his-tuyg‘ularining butun murakkabligi, ziddiyati, ko‘zga ko‘rinmas, sirli jihatlarini badiiy talqin etish jihatidan doimiy e’tiborni tortib kelmoqda. XX asrda psixoanalitik ta’limotning asosini tashkil etuvchi ong osti qatlamlarining chigal va cheksiz kengliklari, adabiy-poetikxususiyatlari, fantastik adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichiga xos jihatlar, ijtimoiy, falsafiy, maishiy fantastika yo‘nalishlari takomili, antiutopiya, apakaliptika, postakaliptika, stimpank, turborealizm, post-kiberpank, alternativ fantastika kabi yo‘nalishlarining yuzaga kelishi singari muammolarni yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida psixologizm hodisasiniilmiy-nazariymuammosifatidatadqiq qilish borasida shuni ta’kidlashlozimki, badiiy adabiyot markazida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish, ichkiolamidakechuvchitizginsizevrilishlarni tasvirlash, yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, fantastik asarlarda psixologizm ko‘rinishlari, ularning qahramon xarakterini ochib berishdagi badiiy vazifalari, badiiy obrazda yozuvchining ruhiy olami, ma’naviy dunyoqarashi, go‘zallikni his qilishi, olam va odam haqidagi falsafiy qarashlari ham o‘z ifodasini topishi bilan bog‘liq muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan konsepsiyalarni ishlab chiqishga alohida diqqat qaratilmoqda. Biz mazkur maqolada Amerika fantast yozuvchisi Rey Bredberining “Muz va olov” hikoyasida qahramon ruhiyatini ochishda muallif nutqi, peyzaj, monolog, diolog, tush ko‘rish va nutqning boshqa ko‘rinishlaridan foydalanishda o‘ziga xos individual tomonlarini ochib berishni maqsad qildik.

Metodologiya

Jahon adabiyotida, shu jumladan, o‘zbek adabiyotida ham badiiy psixologizm muammosi atroflicha o‘rganilgan. Badiiy psixologizm – “badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami” (Quronov, D, Mamajonov, Z, Sheraliyeva, M, 2013, T. b. 48.). Mavzu o‘rganilishining asosiy mohiyati botiniy olamni tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyojdir. Ayniqsa so‘nggi yillarda botiniy olamning murakkabligi, ruhiy holatning tez-tez almashib turishi falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik fanlarining tadqiq ob’yektiga aylandi.

O. B. Zolotuxina “. . . ushbu muammo bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar hajmining ko‘pligi va uning har tomonlama (nazariy, tarixiy-adabiy, tahliliy jihatdan) o‘rganilganligiga qaramasdan, hozirgi kunda: 1) badiiy psixologizm fenomeni, uning tarkibiy qismi va asar tizimidagi o‘rni haqida to‘liq tasavvurning; 2) terminologik aniqlik; 3) metodologiya va tahliliy vositalarning yo‘qligini ta’kidlagan” ”(Zolotuxina, O. 2009, G. 180).

Istalgan janrdagi badiiy asarda yozuvchi o‘z qahramonlarining tuyg‘u, iztiroblari, ichki kechinmalarini tasvirlash orqali uni kitobxoniga tanishtiradi. Ba’zi tadqiqotchilar psixologizmni inson ichki dunyosini kashf etuvchi usul deb hisoblashmaydi. Shu bois, qahramonruhiy olamining tadqiqida psixologizm usul emas, balki badiiy adabiyotda ruhiyatning o‘ziga xos tasviri deb qabul qilinadi (Zamyatin, Ye. Strijeva, A. M. 1988. 136–139). Yozuvchi qahramoni ichki olamini tasvirlashida, uning qalbini nechog‘lik chuqur anglata olganiga qarab baholanadi. Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (monolog, xotira, assosiasialar va tasavvur obrazlari) va tashqi (mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko‘rinish holatlarining hissiy o‘ziga xosligini namoyon qilish) formalariga ajratish mumkin. Tahlil jarayonida biografik, psixologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi

Jahon adabiyotshunosligida, xususan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”(Quronov, D, Mamajonov, Z, Sheraliyeva, M, T. 2013, 48.). “Psixologizm v literature: posobiye po speskursu dlya stud”(Zolotuxina, O. M. 2009, 180). , “Psixologiya tvorchestva” (Zamyatin, Ye. Publ. A. N. Strijeva i literaturnaya ucheba. M. , 1988, 136–139). , . “Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm” (Tulabayeva, R. T, 2019, 17.). , “Ruhiyat rassomi”(Shodiyev, N. T. 1977, 30.). , “Psixologicheskiy analiz v

literaturnom tvorchestve"(Straxov, I. V. M. 1976, 84 s. https//www. lites. ru). , "Short Stories. Dark Carnival" (Bradbury, R. 1947, 273/ http://www. shortstoryguide. com/ray–bradbury–short–stories/). . , . "Muz va olov" (Bredberi, R. 2000, 167). , "Fantasy genre and its scientific interpretation in George RR Martin's saga" a song of Ice and fire"(ND A'Zamkulovich, KG Iskandarovna 2020, elibrary. ru). , "Theoretical and Poetic Peculiarities of The Chronotope In the Novel "The Place of The Skull" By Ch. Aitmatov" (Turaeva, B. 2021, T. 84-103). Psixologizm va psixologik tahlil muammolari uzoq vaqtlardan beri adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. O'zbek adabiyotshunosligida psixologizmga bag'ishlangan ilk tadqiqot o'tgan asrning 40-yillar oxirida yaratilgan bo'lsa-da, 70-yillarga kelib mazkur muammoga bag'ishlangan dastlabki maxsus tadqiqotlar amalga oshirildi. XX asrning 90-yillaridan boshlab, fantastik asarlarni turli rakursda ilmiy o'rganish ishlari o'zbek olimlarida katta qiziqish uyg'ota boshladi. Shu o'rganishlarning mantiqiy davomi sifatida biz, Rey Bredberining "Muz va olov" hikoyasini maqola ob'yekti, qahramon ruhiyati masalasini maqola predmeti etib tanladik.

Natijalar

Psixologizm bevosita muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi (Tulabayeva, R. T. 2019, 17). Ayni bir xil psixologik holatni turli xil ko'rinishda tasvirlash mumkin: a) bevosita – yozuvchi qahramon qalbiga, ongiga, shuuriga kirib boradi. Bunda muallif qahramonning og'zaki, yozma yoki ichki nutqi – monologidan, tushidan foydalanishi mumkin; b) bilvosita – muallif qahramoning ichki olamini berishda tashqi omillar: imo-ishora, xatti-harakat, ma'noli imo-ishora kabilardan ham foydalanadi.

Odatda ichki holat birinchi yoki uchinchi shaxs tilidan tasvirlanadi. Ichki holat birinchi shaxs nomidan ifodalangandaistig'for etishni eslatadi. Bu ayniqsa G'arbiy Yevropa adabiyotida sentimentalizm keng avj olgan davrga xos bo'lib, epistolyar janr, maktub, esdalik, tush va ichki monologlarda o'z aksini topgan. N. Shodiyev "Ruhiyat rassomi" risolasida "qalb dialektikasi"ning (N. G. Chernishevskiy bu terminni adabiy qahramon his va kechinmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni, deb ta'riflaydi) asosiy poetik vositalari – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, hislarning tashqi ekspressiyasi, gallyusinatsiya, tush, psixologik timsollar va ularning turli xususiyatlarini tahlil qiladi"(Shodiyev, N. T. 1977, 30).

Uchinchi shaxs (roviy) nomidan tasvirlanganda kuzatish imkoniyuzaga keladi, ya'ni bir nechta qahramonning psixologik holatini

tasvirlash mumkin. Kitobxon tasvirlanayotgan ichki holatga o‘zi baho bera oladi ”(Straxov, I. V. M. 1976, 84). Garchand, uchinchi shaxs orqali qahramonni tasvirlash usuli jahon adabiyotida biroz keyin qo‘llanilgan, chunki bir shaxsning ichki dunyosini uchinchi shaxs tomonidan yoritilishi etiketga to‘g‘ri kelmaydi, degan aqida bo‘lgan.

Bundan tashqari, «ishora bilan cheklanish» (umolchaniye) usuli ham mavjud, ya’ni muallif qahramonning ichki holatini tasvir etmasdan, balki holatga ishora qiladi. O‘quvchi o‘zi umumlashma xulosa chiqarishiga to‘g‘ri keladi.

Qahramon olami yozuvchi tomonidan qay yo‘sinda tasvirlanmasin, ichki, tashqi, muhimi, badiiy psixologizm qahramonning botiniy olamini chuqurroq yoritishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Badiiy psixologizmni uch aspekt asosida tadqiq etiish mumkin: a) muallif psixologizmi, 2) qahramon psixologizmi, 3) kitobxon psixologizmi. Bu tasnif jahon adabiyoti miqyosida e’tirof etilgan. Boz ustiga, psixologik tasvirda psixologik analiz va o‘zini-o‘zi analiz qilishdan ham foydalaniladi.

Rey Bredberining romanlaridan tashqari qisqa hajmli hikoyalarida ham o‘tkir dramatik, ruhiy holatlar, asosan harakatlarga emas, balki qahramonlarning o‘y-kechinmalari, dialoglar, monologlar asosiga qurilgan. Mana shu jihatlari bilan R. Bredberi asarlari keyingi fantastlar uchun andoza va ibrat maktabi bo‘ldi. Uningqahramonlari jahon adabiyotida mavjud abadiy mavzular atrofida aylansa-da, asarlarida ham badiiy psixologizm aspektlarialohida ahamiyat kasb etadi.

Rey Bredberi betakror syujetlarni o‘ylab topishga usta, biroquning ijodi mundarijasida syujetsiz, metafora qabilidagi va ichida yashirin mazmunli yoki umumanhar qanday ma’nodan xoli hikoyalari ham bor. Hatto chiroyli, pishiq «bichilgan» asarlarida ham Rey Bredberi hikoyani eng qiziq nuqtasida uzib qo‘yib, tafsilotlarini tashlab ketishi, harakatlarni ehtiroslar junbushga kelgan paytga kechiktirishi mumkin. Voqealar rivojini muallif “kadr” ortidan turib boshqaradi. Vaziyat rivoji qaysi tarafga yo‘l olishi mumkinligini o‘zi ham bilmaydi, ammo Rey Bredberi hech qachon kitobxonga xulosa chiqarishga yordamlashmaydi, undamaydi. “Men kitobxonning ehtiroslarini junbushga keltirdim, hayajonga soldim, chuqur o‘yga toldirdim, kitob ustida uzoq o‘ylab, xayol surib, keyin qanday xulosa chiqarish o‘ziga havola” (Bredberi, R. https//www. lites. ru. 2023. 13. 54), – deb yozgan qaydlari ham fikrimiz isbotidir.

Rey Bredberi ijodida hikoyalar hajm jihatidan eng katta qismni tashkil etadi. Muallifning yirik janrga mansub asarlari, qissa hamda romanlari aynan shu shaklda oliy mahorat cho‘qqilariga erishdi. Yozuvchining

e'tirofiga ko'ra, u hayoti davomida 400 dan ortiq hikoya yaratdi. Ulardan ba'zilari nisbatan yirikroq asarlar uchun asos, eskizvazifasini o'tadi.

Rey Bredberining "Muz va olov" fantastik hikoyasida syujet ekspozisiyasi, peyzaj va boshqa vositalardan qahramonlar ruhiyatini ochib berishda keng foydalanilgan. Hikoya qahramoni "During the night, Sim was born. He lay wailing upon the cold cave stones. His blood beat through him a thousand pulses each minute. He grew, steadily" (Bredberi, R. http://www. shortstoryguide. com/ray–bradbury–short–stories/). "Sim tunda tug'ildi. U g'orning muzdek toshlari ustida g'ingshib yotardi. Jajjigina tanachasida qon zarb bilan bir daqiqada ming marta aylanardi. U odamlar ko'z o'ngida ulg'aya borardi" (Bredberi R. 2000, dekabr. 167). Bu o'rinda hikoya ekspozisiyasi sifatida muallifning asar qahramoni tug'ilishining tarixi bilan bog'liq tasvirini qabul qilish mumkin. Simning ota-bobolari bir necha ming yillar ilgari olimlarning xatosi tufayli, kemasi halokatga uchrab, shu "qarg'ish tekkan sayyora"ga kelib qolishgan. Sim bu zaminning besh minginchi avlodi hisoblanadi. Sim tavallud topgan joy quyoshning yonginasida joylashgan birinchi sayyora edi. Bu sayyorada kechasi chidab bo'lmas darajada sovuq, kunduzi kuydiradigan darajada issiq bo'ladi. Shu tufayli odamlar g'orda umr kechirishadi. Bu tasvir-tushuntirishlar muallifning Simga yuklatilgan vazifani bajarishi, yuzaga kelgan to'siqlarni yengishi, hikoya qahramoni xarakteriga xos chizgilarni psixologik jihatdan asoslash bilan bog'liq.

Yozuvchi e'tiborni Simning tunda tug'ilgani, muzdek tosh ustida g'ingshib yotganiga qaratadi. Sabab, tun – qahramon taqdirining bir bo'lagi. U yashab shakllanayotgan muhit –qora, qo'rqinchlitun misol. Besh ming yil mobaynida, to Simularni bu ahvoldan qutqarguniga qadar ularning hayoti mazmundan holi edi. Ular istagan yoki belgilangan vaqtda emas, balki tongda va shomda yeyish mumkin bo'lgan ildizlarni yig'ib-to'plab olishardi. Pirovardida umrlari faqat ovqat yeyish bilan o'tadi. Vaholanki, umr ularga faqat "sakkiz kun"gina berilgan. Mana shu qisqa vaqt ichida ular sevib, oila qurib, nasl qoldirishga ham ulgurishlari kerak. Ammo quyosh yaqinida joylashgan birinchi sayyora odamlari bu vazifaning uddasidan o'zlari mustaqil chiqa olmaydilar. Shu bois muallif bu vazifani hikoya qahramoni Simga yuklaydi.

Sim – fantastik obraz, u oddiy insonlardan farq qiladi. Uning yuragi bir daqiqada besh yuzdan ming martagacha uradi. Yozuvchi bu dalilni keltirishidan maqsad, Simning umri sakkiz kunligini mantiqan asoslash, pirovardida kitobxonni bunga ishontirish bilan bog'liq. Biroq Simning real shaxslardan farqli tomonlari bilan birga uyg'un chizgilari ham ko'p. Sim yuzaga kelgan vaziyatning yechimini ilmda deb biladi. Buning uchun u g'orda yashayotgan olimlarni topadi, ulardan ilm o'rganadi. Sim

maqsadiga yetishish uchun ko‘pgina to‘siqlarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda yozuvchi fantastik unsurlar (Simning zehni, xotirasi o‘zga sayyoraliklarga xos favqulodda samoviy kuchga egaligi, botinan bilish, nasliy xotiraning mavjudligi)dan keng foydalanadi. Yozuvchining ijodiy maqsadi–fantastik unsur va usullar orqali Sim imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Yozuvchi hikoyada badiiy psixologizmning ichki monolog shakli orqali qahramon psixologiyasini ochib boradi: "War!" The thought stood in Sim's brain. It shocked and beat at him. These men were running to fight, to kill, over there in those small black cliffs where other people lived. But why? Wasn't life short enough without fighting, killing? (Bredberi, R. http://www. shortstoryguide. com/ray–bradbury–short–stories/). “Urush!» – aks-sado berdi Simning miyasi. Yangi fikr uni larzaga soldi. Bular qora qoya ahlini o‘ldirmoqqa chog‘langandilar. Nega axir? Shundoq ham umr qisqa bo‘lsa, urushib bir-birlarini o‘ldirib nima qilishadi” (Bredberi R. 2000, dekabr. 174). Simning miyasiga kelgan bu fikr uning nuqtai nazari, hayotdagi pozisiyasini belgilab beradi. U umuman urushga qarshi. U urushda ma’no yo‘q deb biladi, chunki umr qisqa. Qabiladoshlarining fikri esa Simning qarashlariga to‘g‘ri kelmaydi. Ular umrlarini uch kunga uzaytirish uchun Qora qoya ahliga qarshi urush ochsa arziydi, degan fikrdalar. Garchand urushda yengilsalar, niyatlariga yetolmasliklari ham mumkin, lekin shunga qaramasdan ular urush tarafdori. Bu o‘rinda asar qahramoni Simning da’vati orqali uning pozisiyasi anglashilsa, qabiladoshlarining qarashlari orqali yuz berayotgan voqealar baholanadi.

Asar qahramonlaridan biri Kayonning maqsadi – urush orqali bo‘lsa ham, umrni uch kunga uzaytirishga erishish. Bundan maqsad uch kun ortiq umr ko‘rish ma’nosida emas, albatta. Balki inson harakatda bo‘lishi, hayotning har bir kuni uchun kurashib yashamog‘i lozim, degan fikrni ilgari surishdir.

Voqealar rivojidan Sim keyinchalik fikrini o‘zgartirgani ma’lum bo‘ladi. Kayon nutqidan Sim uning yo‘lini tanlagani anglashiladi. Qabila Qora qoya ahliga urush ochadi. Urushda qabila yengiladi. Qabila yengilganiga qaramasdan Qora qoya ahli Simni tan oladi. Chunki u yakkama-yakka kurashda halol yengadi. Qora qoya ahli Sim va u bilan birga qolishni istagan sevgilisi Laytni o‘z g‘orlariga qabul qilishadi. Sim va Laytni qabul qilishlariga sabab Qora qoya polvoni Nixoyning nutqidan anglashiladi: “If you die, I will give your mate shelter and she will live as she pleases, because she is the wife of a good man” (Bredberi, R. http://www. shortstoryguide. com/ray–bradbury–short–stories/). “Agar g‘olib bo‘lsam, – deydi u, – Laytni o‘z g‘orimga olib kiraman, chunki u sendek

sharafli jangchining xotini" (Bredberi R. 2000, dekabr. b. 176). Bu o'rinda muallif asar syujeti, peyzaj, portretdan tashqari asar qahramonlarining nutqi orqali ham hikoyada ko'tarilayotgan masalaga e'tiborni tortadi.

Asar davomida Sim qanday tarbiya olgani, shakllanishi bilan bog'liq o'rinlar, atrofidagilarga bo'lgan munosabati, tabiatiga xos chizgilar opasi Dak, dushmani Kayon va olimlar bilan uning o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Tarbiya bobidagi nutq matni**:** "Enemies are made over things like stolen foods; gifts of long grasses make friends. Enemies come, too, from opinions and thoughts. In five seconds you've made an enemy for life. Life's so short enemies must be made quickly" (Bredberi, R. http://www. shortstoryguide. com/ray–bradbury–short–stories/). "Ovqatingni o'g'irlagan – sening dushmaning, mevali shox in'om etgan odam do'sting bo'ladi. . . o'tmishdan qolgan bir ahmoqona irim bor. Go'yoki o'ldirilgan kishining hayotiy quvvati qotilga o'tar emish. Shuning evaziga u uch kun ortiq umr ko'rarmish. Tushundingmi? Kimki bu irimga ishonar ekan, hayotim xavf ostida deyaver!" (Bredberi R. 2000, dekabr. 175). – deyishiga ko'ra, Dak ukasi Simga kim do'st, kim dushman ekanligini anglatmoqda.

Muallif o‘z g‘oyasini, badiiy niyatini kitobxonga yetkazish uchun roviy (hikoyachi) obrazidan foydalanadi. Badiiy asarni hikoya qilishda xoh u muallif bo‘lsin, xoh hikoyachi, roviy bo‘lsin barchasida ham muallifning insoniyat va hayotga munosabati, dunyoqarashi matndagi barcha elementlarni bir g‘oya, maqsad asosida birlashtiradi. Hikoyachi – bu muallif obrazining umumiy tuzilish formasi. U asardagi peyzaj yoki voqealarni kimnidir nigohi orqali ko‘radi. U hech qanday nomga ega emas. U ko‘z oldimizda gavdalanmaydi. Bunday o‘z qiyofasini o‘zgartirgan hikoyachi – muallifning ongida mavjud. Bu muallif va badiiy asar o‘rtasidagi yozuvchi tomonidan kashf qilingan ko‘z ilg‘amas, mavhumlikka tayangan obrazdir. R. Kojinov hikoyachi (roviy) haqida to‘xtalib*:“Hikoyachi – insonning shartli obrazidir. Uning nomidan adabiy asar yuritiladi. Hikoyachi obrazi o‘z ma’nosida eposda hamma vaqt qatnashmaydi. Balki hikoyachilik “neytral”, “obyektiv” xabardir, unda muallif o‘zi qandaydir chetga chiqadi va bevosita bizning oldimizda hayot kartinalarini yaratadi” [Kojinov V, 1964]* deydi.

Keyingi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida “roviy obrazi” deb yuritilayotgan unsur haqida adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov o‘z kuzatishlarini quyidagicha ifodalaydi: “Roviy – yozuvchining ishonchli vakili. Roviy – rakursnuqtasi, baholovchi markaz. Roviy – asardagi ruh

ifodachisi, ayni vaqtda roviy yozuvchining o‘zi emas. Roviy – yozuvchi inon-ixtiyorini bajaruvchi, san’atkorlik uquvini ifoda etuvchi vosita. ”[Rasulov A, 2007]. Ko‘ringanidek, roviy obrazining vazifasi kitobxonni badiiy haqiqat dunyosiga silliqqina olib kirishdir. Muallif va badiiy asar o‘rtasida roviy(hikoyachi) obrazi vositachilik qilgani uchun muallif va hikoyachi qandaydir darajada, ma’lum ma’noda ajraladi, ya’ni gohida u muallif o‘ylagandek emas, balki reallik, makon va zamon nuqtai nazaridan kelib chiqib harakat qiladi. V. V. Vinogradov hikoyanavis obraziga “asar mohiyatining jamlangan tarzda namoyon bo‘lishi”, deya izoh beradi. [Vinogradov V. V, 1971]. Badiiy asarda hikoyachining o‘rni g‘oyat muhim vazifa. Gohida hikoyachi jim turib, qahramonlar ko‘p so‘zlab yuboradi, gohida qahramonlar gapirmasdan hikoyachi ko‘p chaynalib qoladi. Bu hol asarning qurilish shakliga va mazmuniga jiddiy ta’sir o‘tkazadi.

Hikoyachi asarda ishtirok etishi uchun gohida o‘z obrazida, gohida qahramon qiyofasida, gohida personaj qiyofasida harakatlanadi. Demak, muallifning fikri, xarakteri, dunyoqarashi ma’lum darajada roviy (hikoyachi)ga yuklanib, u asarga va asar qahramonlariga ko‘chadi. Hikoyachi o‘z tabiatiga, xarakteriga ko‘ra: quvnoq, g‘amgin, og‘ir, bosiq, ezma va kamgap bo‘lishi mumkin. Hikoyachi kayfiyati badiiy asarga juda katta ta’sir qiladi. Agar u achchiq fojiani hajviy ruhda bayon qilsa, kitobxon o‘ta fojiali asarni ham miyig‘ida kulib o‘qiydi. Hikoyachi kayfiyati yuqumli. Bu kayfiyat kitobxonga yuqadi. Agar hikoyachi ezilgan, xo‘rlangan, g‘amgin ruhda asar bayon qilsa, kitobxon ham yuragi ezilib, rahmi kelib, tushkun holda o‘qiydi, agar hikoyachining kayfiyati jo‘shqin bo‘lsa, kitobxonga ham jo‘shqin kayfiyat yuqadi. Hikoyachi ma’naviy onggiga ko‘ra: dunyoqarashi keng va dunyoqarashi tor hikoyachi bo‘lishi mumkin.

Natijalar

Tadqiqotchi uchun bu qisqa, aniq va o‘ta kuchli mulohaza juda ko‘p narsani anglatadi. Birinchidan, u qat’iy ravishda hikoya qilishning o‘ziga xos mohiyati haqida eslatib turadi. Ikkinchidan, u yozuvchi o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan vazifaga qo‘llash imkoni mavjud bo‘lgan hikoyachini u yoki bu yetakchi turini tanlashning, estetik tushunishning chuqurligini ko‘rsatadi. Uchinchidan, u hikoya qilishningbir turidan ikkinchi turiga o‘tishning zaruriyati va badiiy samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Va nihoyat to‘rtinchidan, muallifning “men”ini kuzatib izohlanishidan har qanday chekinish va shunga qaramasdan badiiy adabiyot nimagadir uni e’tiborga olmaydigan, ma’lum turdagi noqulayliklarni e’tirof etishni qamrab oladi. Bu borada Ye. I. Orlovaning qarashlari birmuncha farq qiladi: “Hikoya qiluvchi kimligidan kelib chiqqan holda, hikoya qilishning

uchta asosiyturi: muallif – hikoyachi; qahramon bo‘lmagan hikoya qiluvchi; qahramon – hikoyachi”larga ajratadi. [Orlova Ye. I, 2008]

Badiiy asarda *muallif – hikoyachi* bo‘lishi mumkin. Ehtimol, nasriy asarlar yozuvchi shoirga qulay va odatiy bo‘lgan va albatta, ma’lum adabiy vazifa bilan mos keluvchi yuqori darajada ochiq va to‘g‘ri gapira olish imkonini beradi. Vaholangki, bunday hikoya qilishda avtobiografiyani bo‘rttirib yuborish kerak emas: hattoki lirikani subyektivligini drama va epos bilan solishtirganda ham, lirik “men” nafaqat biografik muallifga aynan o‘xshash, balki poetik o‘z-o‘zini namoyon qilishning birgina yo‘li hamdir.

Bunga Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasi misol bo‘la oladi. Zamonaviy tadqiqotchilar shaxsga oid bo‘lmagan jamoaviy qissa haqida gapiradilar: bu yerda o‘zining “men”iga ega bo‘lgan, gavdalantirilganhikoyachi yo‘q, ammo shunisi ham aniqki, bunday hikoyani mualliflik hikoyasi deb ham atash mumkin emas, aksincha, hikoyada (muallif o‘zi ataganidek “qissa”da) ko‘p hodisalar aynan o‘zini faqatgina istehzoda namoyon qiluvchi, xuddi mavjud bo‘lmagandek ko‘ringan muallifning va ijodkorning hayot tarixini soddalik bilan so‘zlayotgan jamoaviy hikoyachining nuqtai nazarlarini o‘zaro mos kelmasligida ko‘rinadi.

Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasidagi roviy bevosita qissadagi voqea ishtirokchisi bo‘lmasada, qissa qahramonlari bilan bir makonda turgandek, voqealarga guvohdek so‘zlaydi. [Erkin A’zam, 2001] Bu haqda professor Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Fojia bilan kulgu omuxta bo‘lib ketgan bu asarning o‘qishliligini, yuqumliligini ta’minlagan asosiy omil –roviyning tilidir. Erkin A’zam o‘zbek tilining tovlanish imkoniyatlarini g‘oyat puxta biladi“[Yo’ldoshev Q, 2010]. Uning uzoq o‘tgan zamon fe’lidan foydalangani uchun roviy va voqea bo‘lib o‘tgan vaqt bilan tavfovut borligi seziladi. Erkin A’zam roviyni mahkam tizginlab olgan. Roviy tabiatan og‘ir, bosiq, lekin uning tizgini muallifning qo‘lida bo‘lganligi uchun muallif ruhiyatidagi (sezilmas) g‘azab, nafrat tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Qissadagi muallif nuqtayi nazari turli nuqtayi nazarlarga ega personajlardan kelib chiqib hikoya qilinadi: muallif o‘z pozitsiyasini belgilashda Otashqalb shoir, Oqsoqol shoir, Alvastixonim, Ajoyib domla, Mafkuraxonim, Tepakal, Ma’shuqaxonim, Fan arbobi, Jiyanbeka, Yosh shoir kabi bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi xarakterdagi obrazlarini bir tizimga teradi. Qissani ikkita roviy boshqaradi, hamma joyda hoziru nozir bo‘lgan ko‘p qiyofali, xuddi voqea ko‘z o‘ngida bo‘layotgandek so‘zlayotgan roviy va qahramon-roviy (Oqsoqol shoir) boshqaradi. Qissada hikoyachi uchinchi shaxs nomidan hikoya qiladi, hikoyachi asardagi voqealarning tashqarisida, ya’ni makondan tashqarida bo‘ladi.

Bu klassik asarlarda ko‘p uchraydi. Bunday hollarda hikoyachi chetdan yoki yuqoridan turib hamma narsani boshqarayotgan, har narsaga qodir, daxlsiz, har bir mayda-chuyda yoki buyuk narsalarni kuzatuvchi, lekin tasvirlanayotgan olamdan tashqaridagi bir shaxsga aylanadi.

N. Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasidagi roviy muallif – hikoyachi. Roviy makondan tashqarida turib so‘zlaydi. Hikoyachi “U” shaxsidan “sen”ga, so‘ng esa “men”ga o‘tib ketadi. Bu haqda yozuvchining o‘zi shunday yozadi: “Men ham bir voqelikni “Men”, “Sen”, “U” tilidan va nuqtai nazaridan hikoya qilishga uringanman”. Ikkinchi shaxs “sen” tilidan hikoya qilinayotgan asarlarda esa hikoyachining pozitsiyasini aniqlash qiyin, umuman olganda, ikkinchi shaxsda muammo ko‘p. Ikkinchi hikoyachi “sen” ortida tasvirlanayotgan olamga tegishli bo‘lmagan hamma narsani biluvchi “U” ham yashirincha bo‘lishi mumkin. [Eshonqul N, 2008] Qissa “U” tilidan hikoya qilinadi: “*To‘rtta hasharchi daraxtzordan chiqaverishda to‘xtab qolgan, go‘yo qimir etsalar dunyoning ulug‘ mo‘jizasidan quruq qolishadigandek, ko‘zlarini ham yummay turardilar”.* Keyingi satrlarda esa muallifning ovozimi yoki Shamsi Salohningovozimi, aniqlash qiyin bo‘lgan ham “sen”ga o‘tib ketadi: *“. . . O sen momoqo‘shiq! Qalbimning muqaddas qo‘shig‘i. Sen bu biyobondan, bu mardumlar dilidan nelar izlab yuribsan? Sen bu ruhlar qabristonidan nelar izlayapsan?*”. Qissada ko‘p bora takrorlangan bu ovoz qissaning asosiy roviy monologi sifatida ko‘rinadi. Qissa so‘nggida roviy tili “men”ga ko‘chadi, ya’ni muallif ovozi ochiqdan-ochiq o‘zini namoyish qiladi: “*Muazzam, men sening sodda qalbingning tepishlarini, sening xayol va orzularingni irkit bo‘yoqlarimda aks ettira oldimmi, bilmayman, men chizgan suratlarga qarab, seni biron kishi sevib qolarmikin va seni men his etganchalik tushunarmikin, buni ham bilmayman. . . ”*[Eshonqul N, 2008]. Mana bu satrlarda muallif – roviy endi o‘z yuzini ochib, Shamsi Saloh bilan bir makonga va zamonga ko‘chib, o‘zi roviy ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muallif-hikoyachi shaxsi muallifning o‘quvchi (kitobxon) bilan suhbatiga qurilganini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyaning qanday yozilganligi haqidagi voqea, xuddi hikoya kitobxon ko‘z o‘ngida yozilgandek qilib ko‘rsatish imkonini beradi. Muallif aynan shu yerda qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkillashtiradi. Vaholangki, har bir qahramonmunosabatlarning murakkabligini biz muallifning o‘ziga xos “xulqi” sababli tushunib olamiz.

Barcha voqealarda ishtirok etuvchi va buni gapirib beruvchi shaxs – *muallif – qahramon – hikoyachidir.* Shu yo‘l bilan hikoya qilish jarayonida “ko‘rinmas” muallif butun sodir bo‘layotgan harakatlarni rost ekanligi illyuziyasini yaratadi. Shuning uchun qahramon – hikoyachiobrazining

tez-tez paydo bo‘lishi tasodif emas: buni ehtimol, yozuvchilarning insonning ichki dunyosiga ko‘proq e’tibor qaratganlari bilan tushuntirish mumkindir (qahramonning istig‘forlari, uning o‘zi haqidagi hikoyalari).

Sh. Xolmirzayevning “Yozuvchi” hikoyasi birinchi shaxs “men” tilidan hikoya qilinib, shunday boshlanadi: “*Ketayapmiz. Yo‘l uzun, o‘ng yonda – Jiportepa qolib ketdi. Chap qo‘lda – sayoz Izmasoy*. . . ”. [Xolmirzayev Sh, 2005] Chunki adibning o‘zi voqea yuz berayotgan makonda mavjud va barcha voqealarga guvoh ravishda so‘zlab beradi. Demak, adib bu yerda muallif – hikoyachi vazifasini o‘zi bajaradi. Agar birinchi shaxs nomidan, ya’ni “men” yoki kamdan – kam holatda “biz” nomidan bo‘lsa, hikoyachi asar voqealarida boshqa qahramonlar bilan aralashib ketadi. Birinchi shaxs tilidan so‘zlaganda qahramonlar ichki dunyosini to‘liq va mufassal ko‘rsatib bera olish mumkin emas. Shuning uchun yozuvchi hikoya qilishda “*shekilli”, “balkim*” kabi so‘zlarni ishlatadi. Roviy qahramon haqidagi xulosalarni taxmin qiladi.

Demak, muallif-qahramon-roviy shartsiz ravishda o‘z qiyofasini kitobxonga ko‘rsatadi. Bu bilan u kitobxon oldida qalb kechinmalari namoyishi orqali o‘zini kashf qiladi.

“Men” nomidan qahramon deb atash mumkin bo‘lmagan hikoyachi ham gapirishi mumkin: u voqealarda qatnashmaydi, faqatgina ular haqida hikoya qiladi. Biroq *qahramon bo‘lmagan hikoyachi* badiiy dunyoning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi: u ham xuddi personajlar kabi tasvirlash predmetidir. U odatda ismga, tarjimai holga ega, asosiysi, uning hikoyasi nafaqat u gapirib berayotgan personajlar va hodisalarni, balki uning o‘zini ham tasvirlaydi. Masalan, E. A’zamning “Yozuvchi” hikoyasini so‘zlab beruvchi roviy voqealarda ishtirok etuvchi, personajlardan kam bo‘lmagan jozibali shaxs. U o‘zini shunday namoyon qiladi: “*U o‘rtamiyona yozuvchi edi. Bu endi har baloni o‘qiyverib osmonga sapchiydigan bo‘lib qolgan bizga o‘xshash “dono”larning fikri. . . bizning davra bayroq qilgan Joys, Prust yoki Dos Passos degan mashhuri jahonlardan esa mutlaqo xabarsiz bir “lodon” edi”. [Erkin A’zam, 2011]* Bu jumlalardan ko‘rinib turibdiki, roviy voqea makonida joylashib olgandek so‘zlaydi, ammo u voqealarda ishtirok etmaydiAdibning “Yozuvchi” hikoyasi voqea ortida turib hamma narsani bilgan hikoyachi tomonidan beriladi. Hikoyada roviy tabiatan bosiq, har bir gapi istehzoli, hajviy ruhda ifodalanadi. U ko‘p qiyofali roviy. U gohida muallif qiyofasiga kirsa, gohida qahramon qiyofasiga kirib oladi, ba’zida esa o‘z pozitsiyasiga o‘tib, ezmalik qilib yuboradi. Roviy hikoya qahramonlarini umuman gapirishga qo‘ymaydi. Har bir voqeaga munosabat bildirib, xulosani ham o‘zi chiqaradi.

Xulosa

Jahon adabiyotida muallif muammosi turli olimlar tomonidan turli aspektda, turli konsepsiya sifatida o‘rganildi va ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslandi; muallifning ishtiroki asardagi aynan bir nuqtada ko‘rinmaydi. Muallif g‘oyalarini tashuvchi uning o‘ziga eng yaqin bo‘lgan qahramon muallifning o‘ziga xos, balki badiiy strukturaning barcha darajalarida bir xilda namoyon bo‘ladi. Syujetdan tortib eng kichik detallarigacha, asarning sub’ekt qurilishida muallif intihosi (muallif) qay darajada namoyon bo‘lishini, ya’ni hikoyachilik nuqtai nazaridan qanday qurilganini ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi.

Hikoyachiliknimuallif va qahramon ishtiroki qay darajada sezilarliekaniga qarab uch turga bo‘lish mumkin. Bunga quyidagilar misol bo‘la oladi: *Muallif hikoyachiligi, muallifga tegishli bo‘lmagan hikoyachilik, hech kimga tegishli bo‘lmagan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq* asosida o‘rganildi.

Badiiy asarni hikoya qilishda xoh u muallif bo‘lsin, xoh hikoyachi, roviy bo‘lsin barchasida ham muallifning insoniyat va hayotga munosabati, dunyoqarashi matndagi barcha elementlarni bir g‘oya, maqsad asosida birlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Tamarchenko N. D. Teoreticheskaya poetika:ponyatiya i opredeleniya. Xrestomatiya dlya studentovfilologicheskix fakultetov. – M. : RGGU, 1999. – Slovar . Wielpert G. von. Sachw? rterbuch der literature. –S. 264-265.

Kojinov V. Rasskazchik // Slovar literaturovedcheskix terminov. 1964. – S. 310-411.

Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T. : Sharq, 2007. – B. 310.

Vinogradov V. V. O teorii xudojestvennoy rechi. – M, 1971. – S. 118.

O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. // Suvon Meli. “O‘g‘rigina bola”ning izzati (yoxud mehr sehri). – T. : Turon-iqbol, 2011. – B. 367.

Losa M. V. Yosh romannavisga xat // Sharq yulduzi. – 2012. № 4. – B. 157.

Eshonqul N. Momoqo‘shiq. / Yalpiz hidi. Toshkent: Sharq, 2008. – B. 161.

Mandelshtam O. Yegipetskaya marka. – L. , 1928. – S. 67.

Orlova Ye. I. Obraz avtora v literaturnom proizvedenii: uchebnoe posobie. – M. : MGU, 2008. – S. 44.

Ilin I. P. Implitsitnыy avtor Tekst / I. P. Ilin // Zapadnoe literaturovedenie XX veka: Ensiklopediya / Gl. red. Ye. A. Surganova. – M. : Intrada, 2004.

Yo‘ldoshev Q. Hozirgi o‘zbek qissachiligining taraqqiyot tamoyillari // Sohibqiron yulduzi. – 2010. № 2.

Losa M. V. Yosh romannavisga xat // Sharq yulduzi. – 2012. № 4

Орлова Е. И. Образ автора в литературном произведении: учебное пособие. – М. : МГУ, 2008. – С. 44.

http^\\ www. ulugbek hamdam. uz. Ҳамдам У. Янги авлод овози. , Суҳбат.

Mahmudova Sh. . A. Artistic psychologizmin uzbek literature of the twentieth century// Omega science. – Kirov, 2019. https://os-russia. com/arh-conf

Mahmudova Sh. A. The concept ofpsychologism in the literature, techniques and metods of psychological image. – Nauchniy vesti, 2019

EXTENDED ABSTRACT

THEORETICAL FOUNDATION OF THE NARRATIVE STYLE OF A WORK OF ART

Today, the narrative style of a work of art occupies an important place in the study of the relationship between the artist and the work of art. Usually, the characters of the work are somehow connected with the narrator. We believe that the narrator and the author are the same person when we get acquainted with works of art. In fact, the narrator is a person created by a writer –he is not a writer and not a specific person. This is the ideological style of the writer in the narrative of a work of art. In fiction, the narrator is also interpreted as a “storyteller". In fiction, “storytelling” is understood in different ways.

In the work, the presence of the narrator acquires a deep meaning. In this peculiar way of artistic expression of a person, the narrator acts as a witness of everything, as an intermediary between the described state, action, phenomenon and the reader. The role of the narrator in a work of fiction is an extremely important task. Sometimes the narrator is silent and the characters talk a lot, and sometimes the narrator talks a lot instead of the characters. This circumstance strongly influences the form of construction and the content of the work. A work of fiction may contain a narrator author. However, in such a narrative, autobiography should

not be exaggerated: even when comparing the subjectivity of lyrics with drama and epic, the lyrical “I” is not only exactly similar to the biographical author, but it isonly a way of poetic self-expression.

The narrator in the story of Erkin Azam "The poet's wedding", although he is not a direct participant of the event in the story, speaks as a witness of the events, standing in the same place with the heroes of the story.

In the story, the narrator tells in the third person, as the narrator is outside the events. This is often found in classical works. In these cases, the narrator becomes a person from the outside or from above, controlling everything, omnipotent, invulnerable, observing every little thing or great, but located outside the described place.

The narrator in N. Eshonkul's story “Eve's Song” is the author–narrator. The narrator stands outside the place and speaks. The narrator moves from the “he” personality to the “you” personality, and then to the "I" personality. The writer himself writes about this: “I also tried to tell one reality in language and from the point of view of “I”, “you”, “he”. ” In works where it is told in the second person in the language of "you", however, it is difficult to determine the position of the narrator, as a rule, there are many problems in the second person. The second narrator ”you“ may also hide an omniscient ”he" that does not belong to the described universe[Eshonqul N, 2008].

So, in these stories, the author is the narrator. This allowed him, a poet writing prose works, to speak openly and correctly at a high level, which was convenient and familiar and, of course, corresponded to a certain literary task. We see that the personality of the author-narrator is based on the author's dialogue with the reader (reader). The story of how the story is written allows you to make the story look as if it was written in front of the reader's eyes. It is here that the Author organizes the relationship between the characters. Although we can understand the complexity of the relationship of each character because of the peculiar “behavior" of the author. The author's words can cover the voices of the characters (in this case, the words hero and character are used as synonyms).

The person who participates in all the events and tells them is the author – the hero – the narrator. Thus, in the process of narration, the ”invisible" author creates the illusion that all the actions taking place are true. Therefore, the frequent appearance of the image of the hero-narrator is not accidental: this is probably due to the fact that writers paid

more attention to the inner world of a person (the desires of the hero, his stories about himself

The narrator, who cannot be called a hero, can also speak on behalf of the "I", does not participate in the events, but only tells about them. However, the narrator, who is not a hero, appears as part of the artistic world: is also the subject of the image, as are the characters. Usually he has a name, a biography, the main thing is that his story describes not only the characters and phenomena he talks about, but also himself.

In the world literature, the author's problem has been studied by different scientists in different aspects, as a different concept and justified by scientific and theoretical considerations; the author's participation does not manifest itself at the same point of the work. The hero, who is the bearer of the author's ideas, is closest to himself, manifests himself in the unity not only of the author himself, but also at all levels of the artistic structure. From the plot to the smallest details, we will be able to show to what extent the author's intrigue (the author) manifests itself in the subject construction of the work, that is, in how it is constructed from the point of view of narration.

The narrative can be divided into three types, depending on how noticeable the participation of the author and the main character is. An example is the following: an author's narrative, an unauthorized narrative studied on the basis of direct speech that does not belong to anyone.

The author uses the image of the narrator (narrator) to convey to the reader his idea, artistic intent. When narrating a work of fiction, whether it is the author, the narrator, the author's attitude to humanity and life, the worldview combine all the elements in the text on the basis of one idea or goal. The narrator is the general structural form of the author's image. This is an image that relies on abstractness, and not on the eye discovered by the writer between the author and the work of art.

Revealing the characters of the heroes of the stories, the sages give a picture of the social environment and social conditions. The influence of the social environment on the creative worldview is assessed differently.

ALISHER NAVOIYNING MIRZO ULUG‘BEK ZAMONI ESTETIK TAFAKKURIGA DOIR QARASHLARI

professor, Nurboy JABBOROV

Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Maqolada buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning temuriyzoda hukmdor, ensiklopedik olim Mirzo Ulug‘bek davri adabiyotiga doir qarashlari tahlil etilgan. Muallif Alisher Navoiy asarlaridagi ushbu mavzuga doir fikrlar va talqinlarni quyidagi tasnif asosida o‘rgangan: 1) ulug‘ shoir asarlarida Mirzo Ulug‘bek vasfi;2) Mirzo Ulug‘bek zamonida yuzaga kelgan adabiy muhit va ushbu muhit namoyandalari ijodiga munosabat; 3) bu hukmdor davrida adabiy-estetik tafakkur rivoji.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni xotimasida hamda “Majolisu-n-nafois”da Mirzo Ulug‘bekning Qur’oni karimni yetti qiroat bilan yodida tutgan benazir hofiz, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ni bitgan buyuk astronom, shuning barobarida, noziktab’ shoir ekani vasf etilgani xususida so‘z yuritilgan. Mirzo Ulug‘bek tabiatidagi she’riyatga bo‘lgan mayl farzandlariga ham o‘tgani Abdullatif Mirzo misolida yoritilgan. Alisher Navoiyning Abdullatif Mirzo xarakteri, qismati, she’r aytishga qobiliyati va havasi zo‘r bo‘lgani haqidagi qarashlari ma’lumot sifatida keltirilgan.

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda o‘ziga xos ijodiy an’analariga ega adabiy muhit mavjud bo‘lgani, bu ijodiy muhit namoyandalarining asarlari milliy badiiy-estetik tafakkur rivojida alohida o‘rin tutgani Alisher Navoiyning ular ijodiga bergan bahosidan kelib chiqib tadqiq qilingan. Bu davrda badiiy ijodda yuksak natijalarga erishgan Kamol Badaxshiy, Mavlono Muhammad Olim, Sakkokiy, Lutfiy, Mirzo Alibek, Xoja Ismatullo Buxoriy, Muhammad Solih, Xoja Xurd singari shoirlarning milliy adabiyot rivojidagi o‘rni Alisher Navoiy asarlariga tayanilib yoritilgan. Bu davr adabiyotida poetik janrlar va obrazlar takomilimasalalarinitadqiq qilishda asosiy manba sifatida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi ma’lumotlarga tayanilgan.

Bundan tashqari, maqola muallifi o‘z qarashlarini dalillash uchunAbdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilishi”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlaridagi ma’lumotlardan ham foydalangan. Ushbu manbalardagi ma’lumotlar Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi qarashlarni to‘ldirishi, yangi fakt va dalillar bilan boyitishi jihatidan qimmatli ekani ilmiy dalillangan. O‘rni bilan V. V. Bartoldning “Ulug‘bek va uning zamonasi”, Ergash Rustamovning “XV asr birinchi yarmi o‘zbek she’riyati” monografiyalaridagi qarashlar tahlilga tortilgan.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarining yaratilishi, tarkibiy tuzilishi, ilmiy ahamiyati bilan bog‘liq tahliliy fikrlar Mirzo Ulug‘bek davrida nafaqat she’riyat, balki adabiy-nazariy tafakkur ham rivojlanganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, adabiy muhit, she’riyat, shoir, tazkira, qasida, adabiy-estetik tafakkur, ilmiy tahlil.

ALISHER NAVOI'S VIEWS ON AESTHETIC THINKING IN THE ERA OF MIRZO ULUGBEK

Nurboy JABBOROV

Abstract

The article is devoted to the analysis of the views of the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi on the literature of the reign of Mirzo Ulughbek, encyclopedic scholar, and Timurid ruler. The author studied the ideas and interpretations on this theme in the works of Alisher Navoi on the basis of the following classifications: 1) the praising of Mirzo Ulughbek in the works of the great poet; 2) the literary environment that emerged during the period of Mirzo Ulughbek and the attitude to its representatives' work; and 3) the development of literary and aesthetic thinking during the time of this ruler.

In the concluding section of Alisher Navoi's epic poem "Farhod and Shirin" and in "Majolis un-nafois" ("Tender Meetings") Mirzo Ulughbek is described and praised as a unique hafiz who memorized and learned the Holy Qur'an with seven recitations, a great astronomer who wrote "Ziji jadidi Koragoniy" ("Koragoni's Table of Stars"), as well asa poet withgreat taste. In the example of Abdullatif Mirzo, it was illustrated that Mirzo Ulughbek's natural inclination towards poetry was passed on to his children too. Alisher Navoi's views on Abdullatif Mirzo's character, destiny, ability to recite poetry, and his great interest in poetry were cited as information.

During the reign of Mirzo Ulughbek there was a specific literary environment in Samarkand with its own creative traditions which played a special role in the works of representatives of this creative environment for the development of national artistic and aesthetic thinking which has been studied on the basis of Alisher Navoi's assessment of their work. During this period, the role of such poets as Kamol Badakhshi, Mavlono Muhammad Olim, Sakkoki, Lutfi, Mirzo Alibek, Khoja Ismatullo Bukhari, Muhammad Solih, and Khoja Khurd in the development of national literature, and their high achievements and results in art were assessed on the basis of Alisher Navois works. In the literature of this period, in

researching issues of the development of poetic genres and images the information of the treatises, "Majolis un-nafois" by Alisher Navoi served as a main source.

In addition, the author of the article used information from Abdurazzoq Samarkandi's "Matla'i sadayn va majmai bahrain" ("The Rise of Two Blessed Stars and the Joining of Two Seas") and Davlatshah Samarkandi's "Tazkirat ush-shuaro" (“Memory of Poets”) to prove his views. It has been scientifically proven that the information in these sources is valuable in terms of supplementing the views of Alisher Navoi provided in the "Majolis un-nafois" and enriching it with new facts and evidence. In turn, the views in the monographs of V. V Bartold "Ulughbek and His Time", Ergash Rustamov’s "Uzbek Poetry of the First Half of the XV Century" were analyzed too.

Analytical thoughts on the creation, structure and scientific significance of Sheikh Ahmad Tarozi's work "Funun ul-baloga" show that during the time of Mirzo Ulughbek there developed not only poetry, but also artistic and theoretical thinking.

Keywords

literature, literary environment, poetry, poet, tazkira, qasida, artistic-aesthetic thinking, scientific analysis.

Kirish

Turkiy mumtoz she’riyat taraqqiyotini mislsiz yuksaklikka olib chiqqan, milliy badiiy-estetik tafakkurni jahoniy miqyosga ko‘targan buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida temuriylar davri adabiyoti haqida nodir ma’lumotlar berilgan. Jumladan, ulug‘ adib Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394–1449) hukmronligi davrida Movarounnahrda matematika, astronomiya, tarix kabi fanlar qatorida adabiyot va adabiyotshunoslik ham taraqqiy etgani haqida qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan. Alisher Navoiy va temuriylar davri adabiyoti mavzusida bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa ham, ushbu ilmiy muammo shu paytga qadar to‘laqonli yoritilgan emas. Buyuk mutafakkirning “Majolisu-n-nafois” tazkirasida va boshqa asarlarida, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va uning davri adabiyotiga doir qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Bu ma’lumotlarni tizimga solib, ilmiy tadqiq qilish navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Hazrat Alisher Navoiy asarlaridagi ushbu mavzuga doir fikrlar va talqinlarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) ulug‘ shoir asarlarida Mirzo Ulug‘bek vasfi;2) uning zamonida yuzaga kelgan adabiy

muhit va ushbu muhit namoyandalari ijodiga munosabat; 3) bu hukmdor davrida adabiy-estetik tafakkur rivoji.

Ushbu mavzuni o‘rganish Alisher Navoiy ilmiy-ijodiy qarashlarini o‘rganish barobarida Mirzo Ulug‘bek davri adabiyoti hamda uning zamonida adabiy-estetik tafakkur rivojiga doir yangi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Alisher Navoiy asarlarida Mirzo Ulug‘bek vasfi. Hazrat Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” xotimasida Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li Shoh G‘arib Mirzoga nasihat so‘zlarini bitar ekan, uning ulug‘ temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bekdan o‘rnak olmog‘ini istab, mana bunday yozadi:

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek –

Ki, olam ko‘rmadi sulton aningdek.

Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod –

Ki, davr ahli biridin aylamas yod.

Valek ul ilm sori topti chun dast,

Ko‘zi ollinda bo‘ldi osmon past.

Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,

Jahon ichra yana bir osmondur.

Bilib bu nav’ ilmi osmoniy –

Ki, andin yozdi «Ziji Ko‘ragoniy».

Qiyomatg‘a degincha ahli ayyom,

Yozorlar oning ahkomidin ahkom [Navoiy 2011 (6): 719].

Olam Mirzo Ulug‘bekday sultonni ko‘rmagani haqida yozar ekan, ulug‘ shoir uning “abnoyi jinsi” – tengqurlari barchasi dunyodan o‘tib ketganini, davr ahli ulardan birortasini ham yod etmasligini uqtiradi. Tengdoshlaridan farqli ravishda ilmga dast topgani bois Ulug‘bekning ko‘zi oldida osmon past bo‘ldi. U qurdirgan rasadxona “zebi jahon”, ya’ni jahonga ziynatdir. Hatto uni jahon ichra yana bir osmon deyish mumkin. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”si uning osmoniy ilmlarni nechog‘liq yuksak darajada bilishiga dalildir. Bu asarning ahamiyati shu qadar balandki, qiyomatgacha astronomiya ilmi bilan shug‘ullanuvchilar uning ilmiy hukmlariga tayanadilar. *“Bilik garchi ko‘runur ko‘zga ziynat, Vale shahlarg‘a bordur o‘zga ziynat”* deb hisoblagan hazrat Navoiy bu so‘zlari orqali faqat Shoh G‘arib Mirzogagina emas, barcha zamonlardagi hukmdorlar va ularning avlodlariga bilimli bo‘lish zaruratini ta’kidlaydi.

Ulug‘ shoir fikricha, birgina bilim bilan qanoat qilmaslik, barcha imlarni egallamoq kerak:

Vagar ilm ichra bo‘lmay birga qone’,

Baridin bahravar bo‘lsang ne mone’.

Mirzo Ulug‘bek qomusiy bilimlar egasi ekani bilan ham hammaga o‘rnakdir. Hazrat Alisher Navoiy “Majolisu-n-nafois”da ta’kidlashicha: “Kamoloti bag‘oyat ko‘p. . . Qur’oni majid yetti qiroat bila yodida” bo‘lgan, “hay’at va riyoziyni xo‘b bilgan, zij bitigan, rasad bog‘lagan” Mirzo Ulug‘bekdagi “bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur” [Navoiy 2011 (9): 412]. Ya’ni u she’rlar ham ijod etgan. Tazkirada uning ijod namunasi sifatida quyidagi bayt matni keltiriladi:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,

Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust.

Mazmuni

Go‘zallik mulki qanchalik qo‘l ostingda bo‘lsa-da,

Sho‘xlik qilmaginki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqda.

Hazrat Alisher Navoiyning yozishicha, Mirzo Ulug‘bek tab’idagi nazmga bo‘lgan mayl uning farzandlariga ham o‘tgan. Jumladan, garchi “Majolis un-nafois”da ulug‘ sultonning uchinchi o‘g‘li Abdullatif Mirzoning “savdoyi mizoj, vasvasiy tab’ va devonaosor kishi” bo‘lgani, “bundan boshqa badfe’lliqlari bor”ligi, “o‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o‘lturgani” aytilishi barobarida “tab’i nazmi bor erdi va she’rni obodon aytur erdi”, deya ta’kidlanadi. Quyidagi matla’ bunga misol sifatida keltiriladi:

Bar dilu jon sad balo az yak nazar ovard chashm,

Chun biguyam shukri in, yo Rab, nabinad dard chashm.

[Navoiy 2011 (9): 413]

Mazmuni

Ko‘z bir qarash bilan dil va jonga yuz balo keltirdi.

Buning shukrini nechuk qilay, yo Rab, ul ko‘z dard ko‘rmagay!

Mirzo Ulug‘bek vasfi hazrat Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni xotimasida hamda “Majolisu-n-nafois”da kelgan, xolos. Uning avlodlaridan faqat Abdullatif Mirzo xarakteri va tab’i nazmi bo‘lib, “she’rni obodon aytgan”i haqida ma’lumot berilgan. Mirzo Ulug‘bek va

Abdullatif Mirzoning she'riy asarlarini topish va tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan vazifalardandir.

Adabiyotlar sharhi

Alisher Navoiyning Mirzo Ulug'bek davri adabiy muhiti va ushbu muhit namoyandalari ijodiga munosabati. Ilmda kamolotning yuksak cho'qqisiga erishgan Mirzo Ulug'bek hukmdor sifatida, tabiiyki, ilmu ma'rifat rivojiga alohida e'tibor qaratgan. Bu ulug' hukmdor o'sha davrning oliy ta'lim maskanlari bo'lgan madrasalar faoliyatini yuksaltirish uchun barcha kuchlarni safarbar etgan. Buning natijasida fanning turli sohalarida mashhur olimlar, shuningdek, milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan atoqli shoiru adiblar yetishib chiqqan. Jumladan, mashhur Abdurahmon Jomiy Samarqanddagi Sharq madaniyati va fani tarixida muhim o'rin tutuvchi Ulug'bek madrasasida tahsil olib, bu yerda Qozizoda Rumiy ma'ruzalarini tinglagani ma'lum. Keyinroq hazrat Alisher Navoiy ayni shu madrasada Fazlulloh Abullaysiydan saboq oladi.

Mirzo Ulug'bek davrida "ahli zurafo ustozi" deya ta'riflangan Xatoiy taxallusli Mavlono Mir Qarshiy, Xoja Ismatullo Buxoriyning shogirdi Mavlono Xayoliy, Mavlono Kavsariy kabi yana o'nlab shoiru adiblar qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullangan [O'zbek adabiyoti tarixi 1978: 235-238]. Natijada Movarounnahr poytaxti Samarqand va Xuroson markazi Hirotda o'ziga xos ijodiy an'analarga ega adabiy muhit shakllangan va taraqqiy etgan.

Hazrat Alisher Navoiyning "Majolisu-n-nafois" tazkirasi hamda boshqa manbalardagi ma'lumotlar, o'zbek va xorij olimlari tadqiqotlaridagi e'tiroflar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, rus olimi, akademik V. V. Bartold "Ulug'bek va uning zamonasi" monografiyasida ulug' temuriyzodaning adabiyotga bo'lgan e'tibori, uning saroyida "Malik ul-kalom" deya e'tirof etilgan Kamol Badaxshiy boshchiligida o'ziga xos adabiy muhit bo'lgani haqida ma'lumot beradi [Bartold 1964: 139-141]. Ahmad Zaki Validiyning "Lutfiy va uning devoni" asarida [Validiy 1914], F. Ko'pruluzodaning "Chig'atoy shoirlari" maqolasida [Ko'pruluzoda 1914], akademik A. N. Samoylovichning Lutfiy va Atoiy haqidagi ma'ruzalarida [Samoylovich 1927], bu davr adabiyotiga oid e'tiborga molik fikrlar bildirilgan.

Adabiyotshunos Ergash Rustamov "XV asr birinchi yarmi o'zbek she'riyati" kitobida yozishicha: "Ulug'bek davrida Samarqandda, xuddi Hirotda bo'lgani singari, turkiy adabiyotning qadimiy yodgorliklarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. Jumladan, 1444 yilda Samarqandda Arslon Xoja Tarxon xohishiga ko'ra, Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") dostoni uyg'ur yozuvida kitobat

qilindi. Matn ilovasida Adib Ahmad va uning dostoniga bag‘ishlangan turkiy tildagi ikki she’r keltirilgan. Ulardan birining muallifi – Amir Temur saroyida xizmat qilib, Sayfiy taxallusi bilan turkiy va forsiyda she’rlar yozgan amir Sayfiddin Barlos, ikkinchisining muallifi – Arslon Xoja tarxon” [Rustamov 1963: 35]. Mirzo Ulug‘bek saroyida “Amiri kabir” deya e’tirof etilgan Arslon Xoja Tarxon “qilich va qalam sohibi” sifatida shuhrat qozongan.

V. V. Bartoldning ma’lumoticha: “Ulug‘bek Nizomiyni afzal bilsa, Boysunqur Xusrav Dehlaviyga ixlos qo‘ygan va bu borada aka-ukalar o‘rtasida bahs kechgan. Garchi Boysunqur adabiyot muhibi va bilimdoni sifatida keng shuhrat qozongan bo‘lsa-da, bu masalada Ulug‘bekning tab’i mumtoz poeziya bo‘yicha zamonaviy yevropalik ilm sohiblarining didiga mutanosib edi” [Bartold 1964: 139].

Mashhur tarixnavis Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilishi”) asarida Mirzo Ulug‘bekning “. . . haqiqat ahllariga e’tibor ko‘rsatishda jahon podshohlaridan ustun va afzal” bo‘lgani, “adl maktablarini yangilash va fazl qoidalarini mustahkamlashda katta jiddu jahd va go‘zal sa’y-harakat ko‘rsatgani” [Samarqandiy 2008: 344] alohida ta’kidlanadi. Ushbu manba professor Shuhrat Sirojiddinov tomonidan ancha chuqur o‘rganilgan (Sirojiddinov 2011: 207).

Tarixchi Ashraf Ahmedov “Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay” risolasida: “Ulug‘bek Samarqandga olimlarni, shoir va me’morlarni to‘playdi. . . Samarqand bilan bir qatorda Hirot ham Shohrux va Ulug‘bek davrida Sharqning yirik madaniyat markaziga aylanadi. Albatta, bunda eng avvalo Ulug‘bekning xizmati beqiyos kattadir”, [Ahmedov 2011: 28-29] deb yozadi.

Mirzo Ulug‘bek zamonida Samarqand va Hirotda o‘ziga xos adabiy muhit shakllandi, benazir badiiy asarlar yaratildi. Sharqshunos Turg‘un Fayzievning “Mirzo Ulug‘bek avlodlari” kitobida yozilishicha: “Ulug‘bek Mirzo yirik olim bo‘lishi bilan birga, o‘z davrida fan taraqqiyotiga rahnamolik ko‘rsatib, ilm-fan ahliga homiylik qilgan. Uning davrida Samarqand shahri ilmu fan va madaniyat markaziga aylanib, ko‘plab yetuk olimlar, o‘nlab hassos shoir va suxandon adiblar saroyda o‘zlariga munosib mavqega ega bo‘lib yashaganlar va ijod qilganlar. Zabardast shoirlardan Mavlono Lutfiy, Mavlono Xayoliy, Ismatulla Buxoriy, Kamol Badaxshiy, yirik adabiyotshunos hamda tilshunos Xoja Fazlulloh Abullaysiy shular jumlasidandir” [Fayziev 1994: 22-23].

Bundan tashqari, Ulug‘bek Mirzo tarjima sohasiga katta e’tibor ko‘rsatgan. Arab va fors tillaridagi qimmatli badiiy va ilmiy asarlarni turkiyga tarjima qildirgan.

Metodologiya

Hazrat Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da bu davrda ijod etgan quyidagi shoiru adiblar haqida qimmatli ma’lumotlarni bergan:

Kamol Badaxshiy

Navoiy uning fozil kishi bo‘lganini, “Ulug‘bek mirzo zamonida Samarqandda shuaro uni xushgo‘yliqg‘a musallam tutgan”ini, “mirzoning (Ulug‘bekning – N. J.) dag‘i ko‘p iltifoti bor”ligini ta’kidlaydi. “Majolis un-nafois”da misol tariqasida shoirning mashhur g‘azallaridan quyidagi matla’ keltirilgan:

Ey zulfi shab misoli turo dar bar oftob,

Az shab ki did soyaki uftad bar oftob.

Mazmuni:

Qaro zulfung qaro tundek to‘sibdur oftobni,

Solib tun soya, kim ko‘rdi, to‘sibdur oftobni.

Hazrat Alisher Navoiy fikrlariga qo‘shimcha tarzda Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sida Mavlono Badaxshiy haqida quyidagilarni o‘qiymiz: “Fozillar jumlasidan erdi. Samarqand shahrida Ulug‘bek Ko‘ragon hukmronligi davrida so‘zamollikda oliy martabaga erishdi va shu zamon shoirlarining yetakchisi erdi. Nomi zikr etilgan sulton va o‘sha zamon akobirlari uning so‘zamolligiga tan bermishlar. Mavlono Badaxshiyning mazkur podshoh (Mirzo Ulug‘bek – N. J.) madhida aytgan pokiza qasidalari bor. Devoni o‘sha diyorda (Movarounnahrda – N. J.) mashhurdir” [Davlatshoh 1981: 166].

Akademik V. V. Bartold Davlatshoh Samarqandiyning “zamon shoirlari yetakchisi erdi” degan so‘zlariga tayanib bo‘lsa kerak, Mavlono Badaxshiyni “Sar poetov pri dvore Ulugbeka” [Bartold 1964: 140] deb ataydi.

Mavlono Muhammad Olim

“Majolis un-nafois”da bu shoir haqida: “Samarqand ulamosidin Ulug‘bek Mirzo bila hamsabaq va musohib erdi. Ammo bag‘oyat daler va sho‘xtab’. . . kishi erdi” [Navoiy 2011 (9): 299], deya ma’lumot beriladi. Mavlono Muhammad Olim Mirzo Ulug‘bek bilan birga Samarqand madrasasida Qozizoda Rumiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fazlulloh

Abullaysiy kabi allomalar ta'limini olgan. She'rlari yaxshi bo'lishiga qaramay, hazrat Navoiy ta'biricha: "bahsda ko'p gustohona so'zlar va javoblar aytish" odati boismi, Hirotga ketishga majbur bo'ladi.

Hazrat Navoiy uning quyidagi baytini keltiradi:

Mo siyah baxtemu bad ro'zemu axtar so'xta,

Sham'i maqsude ba umri xuld shabe nafro'xta.

Mazmuni:

Qarobaxtu yomon kunga qolib yulduzi so'ngan biz,

Butun umrimda maqsad sham'i bir kecha ham yonmagan.

MavlonoSakkokiy

o'sha zamonning mashhur shoirlaridan. Uning ijodiy kamolotida Ulug'bek Mirzoning xizmatlari beqiyos. Shu bois shoir unga atab to'rtta qasida yozgan. Ulug'bek Mirzoning amiri kabiri Arslon Xoja Tarxonga bag'ishlangan 4 ta qasidasi ham mumtoz qasidanavislikning yuksak namunasidir. "Majolis un-nafois"da bu shoir haqida mana bunday ma'lumot beriladi: "Mavlono Sakkokiy – Movarounnahrdindur. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar" [Navoiy 2011 (9): 333].

Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan qasidalaridan birida shoir mana bunday yozadi:

Falak yillar kerak sayr etsayu keltirsa ilkiga,

Meningdek shoiri turku seningdek shohi dononi.

Bunday faxriyani turkiy she'riyatda mumtoz o'ringa ega shoirgina aytishi mumkin ekani isbot talab qilmaydi.

Sakkokiy qasidalarida Mirzo Ulug'bekni "Sulaymoni zamon", "No'shiravon", "Musotek shubon", "atodin mehribon", "xurshidi jahon" deya vasf etadi. Uning fikricha, tarixda ne-ne sultonlar kelib-ketmagan, biroq Ulug'bekday hukmdor kamdan-kam uchraydi:

Salotin dunyoda ko'p keldiyu ketti, seningtek bir,

Falakning gar tili bo'lsa, aytsunkim, qachon keldi?

Ilm-fan, adabiyot va san'at ahliga katta ehtirom bilan qaragan Mirzo Ulug'bek Sakkokiyning bu qasidalarini ixlos bilan mutolaa qilgani va yuksak baholagani aniq. Shu ma'noda, akademik V. V. Bartoldning: "Temuriylar davrida turkiy she'riyatni yaratishga harakat qilgan chig'atoy shoirlarining devonlari Ulug'bekning e'tiborini qozongani mutlaqo

ma’lum emas” [Bartold 1964: 140], degan fikriga qo‘shilish qiyin. Professor Abduqodir Hayitmetovning “O‘zbek tilida asar yozishga, o‘zbek adabiyotini boyitishga, uni rivojlantirishga bel bog‘lagan qobiliyat egalari Ulug‘bek davrida tobora ko‘payib borar edi” [Hayitmetov 1996: 7], degan so‘zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Adabiy va tarixiy manbalarni sinchiklab o‘rganish asosida bu masalani yanada chuqurroq tadqiq qilish galdagi vazifalardandir.

MavlonoLutfiy

Hazrat Navoiyning e’tiroficha, Lutfiy “. . . o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzir ul-javob matla’lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,

O‘z haddini bilib, belidin o‘lturur quyi.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,

Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin”. [Navoiy 2011 (9): 331]

“Majolis un-nafois”da Lutfiyning “Zafarnoma” tarjimasida o‘n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor”ligi aytiladi. Shuningdek, “forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she’rlarig‘a javob aytgani va yaxshi aytgan”i ta’kidlanadi.

Mavlono Lutfiy bir kam yuz yil umr ko‘rgan. Hayotining so‘nggi yillarida forsiy tilda yozgan «oftob» radifli g‘azali shoirga katta shuhrat keltirgan. “Majolis un-nafois”da yozilishicha: “zamon shuarosi barcha tatabbu’ qildilar, hech qaysisi matla’ni oncha ayta olmadilar va ul matla’ budurkim:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,

Shomi zulfatro ba joi moh dar bar oftob.

[Navoiy 2011 (9): 331].

Hazrat Navoiy Lutfiyning Mavlono Shihobiddin Xiyoboniy qoshida “sufiya tariyqida ham suluk qilg‘on”i, aziz va tabarruk kishi bo‘lgani to‘g‘risida yozadi. Adabiyotshunos Ergash Rustamovning yozishicha: “Ulug‘bek turkiy adabiyotga katta e’tibor bergan, shoirlardan Lutfiy va Sakkokiyga homiylik qilgan” [Rustamov 1963: 35]. Lutfiyning bir qancha she’rlarida zamona hukmdori Mirzo Ulug‘bek vasf etilgan. Mana, shunday baytlaridan biri:

Ulug‘bekxon bilur Lutfiy kamolin –

Ki, rangin she’ri Salmondin qolishmas.

Bayt mazmuniga ko‘ra Lutfiy Ulug‘bekning adabiyotni chuqur bilgan va qadrlagan hukmdor bo‘lganini ta’kidlaydi. Rus olimi Ye. E. Bertels “Navoiy” monografiyasida Lutfiyning ushbu baytini keltirar ekan, yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi [Bertels 1948: 61].

Mirzo Alibek

Ulug‘bek zamonida Samarqandda turkiy tilda Mirzobek taxallusi bilan ijod qilgan salohiyatli shoir. Hazrat Alisher Navoiy ta’rificha, u: “. . . insoniyat va xush axloqliqda Xuroson va Samarqand mulkida yagona erdi. Tab’ va fahm va otaru tutarda bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona bu nav’ ta’riflardin mustag‘niy”. Bu matla’ aningdurkim:

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur,

Kim jonga qaro balo bo‘lubtur.

Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur. Agarchi aning tiliga bu nav’ abyot ko‘p o‘tar erdi, ammo hargiz parvo qilib bir yerda bitimas erdi” [Navoiy 2011 (9): 336].

Mirzo Alibekning bu baytiga yuksak baho bergan Alisher Navoiy, ma’lumki, unga tazmin o‘laroq mashhur g‘azalini bitgan va devoniga kiritgan. Biroq iste’dodli shoir Mirzo Alibek qisqa umr ko‘rgan. “Majolis un-nafois”da bu haqda: “Hayf va yuz hayf va darig‘ va yuz ming darig‘kim, hayot chashmasidin serob bo‘lmadi va umri naxli mevasidin bar yemadi. Mazori Samarqand mahfuzasida Ahmad Hojibek (sallamahulloh) madrasasida muttaayyin madfanlaridadur. Makoni ravzai jinon va ruhig‘a firdavsi a’loda makon bo‘lsun”, deya ma’lumot berilgan.

Xoja Ismatullo Buxoriy

“Majolis un-nafois”da bu shoir quyidagicha ta’rif etiladi: “Movarounnahr buzurgzodalaridandur. Zohir ilmin takmil qilg‘ondur. G‘oyat xushtab’lig‘idan o‘zin she’rg‘a mansub qilib devoni mashhur bo‘ldi. Va Xalil Sulton otig‘a yaxshi qasidalari bor. . . Va Xojaning qabri Buxoroda o‘z hujrasidadir. . . Va Xalil Sulton ash’orining devoni ta’rifida rangin qasidasi bor. Matlai budurkim:

In bahri begaronki, jahonest dar barash,

G‘avvosi aqli kull nabarad pay ba gavharash”

[Navoiy 2011 (9): 296]

Mazmuni

Bu bepoyon dengiz jahonni qamrab olgan,

Aql g‘avvosi undagi gavharni payqay olmaydi.

Adabiyot ahliga alohida e’tibor bergan Mirzo Ulug‘bek atoqli shoir Xoja Ismatullo Buxoriyni saroy xizmatiga taklif etgani ma’lum. Garchi bu ulug‘ shoir uzlatni, darveshlar orasida bo‘lishni afzal bilsa-da, Ulug‘bek uning ijodiy faoliyatiga katta rag‘bat ko‘rsatgan. Qariyb sakkiz ming baytdan iborat she’rni o‘z ichiga olgan devoni, «Ibrohim Adham» nomli masnaviysi adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin tutadi.

Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha: “Xoja Ismatning oshiqona g‘azallari, orifona so‘zlari Ulug‘bekning otasi Shohrux sulton zamonida shu qadar ko‘p shuhrat topdiki, xalq boshqa shoirlar she’rlarini qo‘lga olmay qo‘ydi. . . Ammo Xoja Ismat olam podshosi Ulug‘bek Ko‘ragon hukmronligi davrida hokimlarni madh etmoqni tark etdi. Nomi zikr etilgan sulton (Mirzo Ulug‘bek – N. J.) undan she’r aytishni yolvorib so‘radi. Shuning uchun zaruratdan ul hazrat madhida bir necha qasida yozdi” [Davlatshoh 1981: 147-148].

“Tazkirat ush-shuaro”da e’tirof etilishicha: “Olim, odil, g‘olib va himmatli podshoh” Ulug‘bek Ko‘ragon. . . yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qirqni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho‘qqisiga ko‘tarildi” [Davlatshoh 1981: 148].

Muhammad Solih

Hazrat Navoiy ta’rificha: “. . . ismi munosabati bila «Solih» taxallus qilur. Nur Saidbekning o‘g‘lidurkim, ko‘p vaqtlar Chahorjo‘y navohisidin Adoq navohisig‘a degicha amorat qildi va Sulton Abu Said Mirzo eshigida, Ulug‘bek va Jo‘gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi. . . Tab’ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko‘pdur. Bu matla’ aningdurkim:

Nayam oshufta gar po‘shida kokul mohi tobonash,

Chi g‘am az tiragi shab, chu boshad subh poyonash?”

[Navoiy 2011 (9): 398]

Mazmuni:

Yuzini yorqin oydek kokuli yopmish, parishon emasman,

Oxiri tong bo‘lgandan keyin tun qorong‘uligidan nima g‘am.

Xoja Xurd

Hazrat Navoiy Samarqandning o‘sha kezdagi bosh qozisi, «Ulug‘bek Mirzo» madrasasining mudarrisi Xoja Xurd faoliyatiga, ayniqsa, yuqori baho beradi: “Bovujudi fazlu kamolu aql va donish hulyasi bila orastadur va bovujudi zuhdu taqvo, husni axloq zevari bila piyrostadur. Muncha mashog‘il va avoriz bila chun lutfi tab’i g‘olibdur, nazm va insho va tarix va muammo fununida ham ishtig‘ol ko‘rguzur”.

“Majolisu-n-nafois”da Xoja Xurdning ta’rixlariga bir qancha misollar keltirilgan. Jumladan, Bobo Xudoydod ismli valiy zot Samarqandda vafot etganda ta’rixini “Majzubi solik” jumlasi orqali ifodalagan. Hazrat Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asari ta’rix moddasini “Min vaqfi Alisher” jumlasida aks ettirgan. Bu ma’lumot Xoja Xurdning donishmand va nuktadon ijodkorlardan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mirzo Ulug‘bek davrida mumtoz she’riyatimizning g‘azal, noma, qasida, munozara, masnaviy, ruboiy, tuyuq, mustazod, muxammas, musaddas, muammo kabi janrlari rivoj topdi. Bu janrlarda yozilgan nazmiy asarlar, birinchidan, mumtoz she’riy janrlar takomilini ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchidan, turkiy she’riyatning poetik jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

Natijalar

Mirzo Ulug‘bek davrida adabiy-estetik tafakkur rivoji. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek temuriy hukmdorlar orasida salohiyatli davlat rahbari bo‘lishi barobarida, yetuk olim ekani, ilm-fan, adabiyot va san’atga yuksak e’tibori bilan alohida ajralib turgani ma’lum. Uning zamonida Samarqand va Hirotda o‘ziga xos ijodiy an’analariga, yuksak badiiyat namunalariga ega adabiy muhit shakllangan va taraqqiy etgan. Budiiy adabiyot bilan bir qatorda adabiyotshunoslik ham yuksak darajada rivojlangan. Atoqli adabiyot nazariyotchisi Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning bevosita bu ulug‘ ma’rifatparvar hukmdorga bag‘ishlab yozilgan “Fununu-l-balog‘a” (“Balog‘at ilmlari”) asari buning isbotidir. Asar muqaddimasida Mirzo Ulug‘bek quyidagicha vasf etilgan: “saltanat daryosining gavhari va ma’dalat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, shahanshohi a’zam, shahriyori a’lam, sohibu-s-sayfu-l-qalam, ma’dani lutfu karam, moliki riqobi umam, farmondehi turku arabu ajam, mag‘isiddin va-d-davron Amir Ulug‘bek Ko‘ragon. . . ” [Taroziy 1996: 31].

Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asari 840 hijriy/ 1436-1437 milodiy yillarda yozilgani e’tiborga olinsa, hazrat Alisher Navoiy bu asardan xabardor bo‘lgan bo‘lishi zarur edi. Lekin nima sababdandir,

Metodologiya

Arab tililarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Arab tililarni o‘rganish va o‘rgatish ko’p jihatdan arab tili o’qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo‘llanilishiga bog’liqdir. Arab tililarini o‘rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o‘zga madaniyat ta’limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o‘z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Dunyoda arab tililarni o‘rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta’lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo’lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Bunda metodika o‘qituvchining qanday dars o‘tishini o‘rganadi. Psixologiya esa, o‘quvchilarning bu predmetni qanday o‘zlashtirib olayotganliklari bilan shug’ullanadi. Lekin, bu fikrga to‘la qo’shilib bo’lmaydi. Chunki o‘qituvchi dars berish jarayonida, o‘quvchi esa o‘zlashtirish davrida ma’lum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilarmi, yo‘qmi psixologiyaning qonunlariga ro‘baro bo‘ladilar va ta’sirlanadilar. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o’rganish shuni ko‘rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san’at deydilar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya’ni “yaxshi” yoki “yomon” metod yo’q “yaxshi” yoki “yomon” o‘qituvchilar bor. (Abdussamad Gammuh, 2006)

Arab tili o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim sistemasi, ta’lim metodi, ta’lim prinsipi, ta’lim vositasi, metodik usul. Arab tili o‘qitish metodi deyilganda arab tili o‘rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi muallim va talaba faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta’lim usullari yig’indisi” va “ta’limning yo‘nalishi” ma’nolarida qo‘llaniladi. Birinchisi ta’lim nazariyasida jarayon metodlar ma’nosida ishlatilsa, ikkinchi ma’noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Arab tili o‘qitishning tarjima metodi, tog’ri metod, ongli- qiyosiy metod, an’anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat hodisalari o’zaro bog’langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo‘la oladi, misol uchun, “til” ijtimoiy hodisasini o‘z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta’limshunoslik (didaktika) o‘rganadi. “Arab tili o‘qitish metodikasi” atamasi kishi ongida quyidagicha ya’ni assotsatsiya “bog’lanish” uyg’otadi: avvalam bor, tilni o‘rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig’indisi tushuniladi yoki o‘qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko‘z oldimizga keladi. Arab tili o‘qitish metodikasi didaktika bilan uyg’un, o‘zaro bog’langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o‘quv fanlarining o‘qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma’lum. Arab tili o‘qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta’limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o‘quv predmetini o‘qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o‘qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o‘qitish ilmi sifatida qaraladi. “Metod” atamasi bilim, malaka, ko‘nikmani egallash, o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo‘lidagi o‘qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta’riflarga ega. Arab tili o‘qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to’rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “tog’ri”, “qiyosiy”, “aralash” deb atash qabul qilingan(Mirolyubov A, 2018)Tarjima metodi asosan ikki ko‘rinishda bo‘lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan arab tili umumta’limiy maqsadda o‘rganilgan. Grammatik mashqlar til o‘rganuvchining mantiqiy tafakkurini o‘stirish maqsadida bajarilgan.

Grammatik bilimlarni bayon etish ta`limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar:

1. Til o‘rganish yozma nutqqa asoslangan.

2. O‘rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan va grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo’lgan.

3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so‘ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.

4. Grammatik shakl va so‘zlarning ma’nosi so‘zma-so‘z tarjima vositasida ochib berilgan.

5. So‘zma-so‘z tarjima va quruq yodlash yo‘li bilan til materiali o‘zlashtirilgan.

6. So‘zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Tarjimasiz metodning turli ko‘rinishlari tarixan ma’lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va tog’ri metodlar. Tabiiy metodda arab tilini o‘rganish ona tilini egallash sharoitiga monand bo‘lishi kerak. Metodning bosh maqsadi arab tilida gapirishni o‘rganish orqali o‘qish va yozishni o‘rganib olishga imkoniyat yaratiladi, degan g’oya amaliy maqsad tarzida shakllangan. Tabiiy metod tarkibiga kiritilgan prinsiplardan eng muhimi-til muhitini yaratishdir. Olg’a surilgan metodik prinsiplarni amalda qo‘llash bobida turli yondashuvlar paydo bo‘lgan. Metod namoyondalarining ijodiy faoliyatida buni yaqqol sezish mumkin. Arab tili o‘tishdan ko’zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikning bu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi (Radjabova, 2022, fevral)

Natijalar: Chet tillarini o‘qitishta’lim sohasida 70-yillarning boshidan beri to‘plana boshlangan yangi xulosalar majmui ta’lim maqsadini belgilash sohasida qizg’in munozaralariga olib keldi. Ushbu ta’limining asosiy yo’nalishlarini belgilovchi maqsadi o‘quvchilarga “muomala qilishni o‘rgatish” bo‘lgan yangi o‘quv rejalari qabul qilindi. 70-yillarda “kommunikativ metod” bir qator urinishlardan so‘ng bir necha bosqichda o‘z isbotini topdi. Shunday asnoda metodika fani rivojlanib bordi. Arab tili o‘qitish metodikasida “kommunikativ didaktika” metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o’zida mujassamlashtiradi:

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;

- Mavzu va mazmun muhim;

- Darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo‘lib ishlash;

- O‘quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e’tibor katta bo‘lishi zarur;

- Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e’tibor berish;

- Ma’noni ochishda, harakat ko‘lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko‘rish tayanchi) muhim ro‘l o‘ynaydi;

- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o‘rganish (dialogni mashq qilish);

-Tildan og’zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi. (Ziyomuhamedov B. , 2001)

Kommunikativ didaktika tinglab tushunish materiali sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o‘ringa qo‘ydi, ya’ni, transportdagi, vokzaldagi e’lonlar, radio va televideniyedagi reklamalar, telefondagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish qabul qilish bo‘yicha qo‘yilgan maqsadlar o‘zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinlab tushunishning quyidagi turlarini ajratib berdi:

- Keng ma’noda matnning ba’zi bir detallariga ahamiyat bermay, uning asosiy mazmunini tushunish;

- Aniq informatsiya muhim bo‘lganda, masalan, ma’lum bir joy uchun obhavoning zarurligi, poyezdning kelishi-ketishi tog’risidagi e’lon va boshqalar shu metod jumlasidandir; (Abrorova M. , 2022)

Aynan bu bilimlarni ongimizda saqlab qolishimiz, kommunikativ didaktikaga oid ma’lumotlarni o‘rganishimiz, “kommunikatsiya” tushunchasidan kelib chiqqan holda, “madaniyatlararo muloqot” terminiga o‘zaro mazmuniy jihatdan bog’lanadi. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo‘llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urfodatlari, qadriyatlari sistemasi va boshqalar tog’risidagi muloqoti-ma’lumotidir. Mazkur jarayonda talabalarni o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o‘zga mamlakat madaniyatini tog’ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim. Har bir arab tili

darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti hisoblanadi. Chunki mazkur jarayondagi har bir tilidagi so‘z chet el hayotini va madaniyatini o‘zida aks ettiradi. O‘qituvchilar oldidagi vazifa talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobilyatini o‘stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o‘rgatuvchi o‘quv qo‘llanmalar va arab tilidagi to‘rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limning yangi metodlarini o’zlashtirish zarurdir (Yabborov G., 2020)

So‘z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog’laydi. Yangi materialni bir vaqtning o’zida barcha nutq faoliyati turlarida qo‘llash natijasida malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko‘rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari, izchillik prinsipi ta’minlansa, ta’limning sifati va samaradorligi oshib boraveradi. O‘qituvchi-muallimning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat– muloqot qila olish ko‘nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi. Inson go‘dakligidan boshlab muloqot malakalarini egallay boshlaydi. Ammo katta bo‘lganidan keyin hamma ham kerakli darajada muloqot o‘rnata olmaydi. Pedagoglik kasbi o‘z xususiyatiga ko‘ra „inson-inson“ tipidagi kasblar sirasiga kiradi va shuning uchun ham muloqot qila olish ko‘nikmasi pedagog uchun yetakchi, kasbiy muhim ko‘nikmalardan sanaladi. Pedagogning talabalar bilan olib boradigan muloqot va muomalasiga qarab talabalarning o‘quv predmetiga qiziqishi, demakki, o‘quv motivlari shakllanadi. Pedagogik muloqot usuli talabalar tomonidan predmetli bilim, ko‘nikmalarning natijaviyligi, shaxslararo munosabat madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim jarayonida o‘ziga xos axloqiy–psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Muloqot shaxs ijtimoiylashuvining muhim sharti hisoblanadi. Shu o‘rinda pedagogik muloqot aslida nima ekanligini bilish zarur hisoblanadi. Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi bo‘lib, u o‘zaro axborot, eng avvalo o‘quv axboroti, almashinishiga asoslanadi, pedagogik muloqot sherigini anglashga, shuningdek, o‘zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bunda axborot ham verbal ya’ni, nutq orqali, ham noverbal – vositalar orqali yetkaziladi. Pedagogik muloqot jarayonida o‘qituvchi asosiy rolni o‘ynashi va talabalar uchun namuna bo‘lishi lozim. Bu uning kommunikativ madaniyati bilan baholanadi. O‘qituvchining kommunikativ madaniyati – bu uning o‘quv-tarbiya jarayoni subyektlari bilan professional-pedagogik muloqotdir. Kommunikativ madaniyatning zaruriy darajasi sifatida shuni belgilash mumkinki, bunda o‘qituvchi o‘z talabalari va hamkasblarini ijobiy qabul qila oladi hamda ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishishni so‘zsiz ta’minlay oladi. Kommunikativ madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni egallagan o‘qituvchi

ta’lim jarayoni barcha subyektlari o‘zaro munosabatlarida ijobiy psixologik iqlimni yarata oladi, ta’limni modernizatsiayalashning muhim prinsiplari bo‘lmish – insonparvarlik va demokratlashtirishni amalga oshiradi. Shaxsiy ahamiyati shundaki, kommunikativ madaniyatga ega bo‘lgan pedagogning o‘ziga ishonchi yuqori bo‘ladi, tarbiyalanuvchisi bilan qurilgan muloqotdan zavqlanadi, tanlangan ish faoliyatida o‘zini erkin his etadi. O‘qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kommunikativ ko‘nikmalar.

2. Pedagogning muloqotga kirishuvchanligi.

3. Pedagogning muloqot madaniyati.

4. Pedagogik muloqot metodlari. (Ziyomuhamedov B. , 2001)

Kommunkiativ ko‘nikmalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1. Ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar. Ular o‘quvchilarni muloqotga kirishish uchun tayyorlaydi, ijobiy ta’surot uyg’otadi, har bir o‘quvchi shaxsini, uning mavqei darajasini qabul qilishiga, shaxslararo munosabat rivojini bashorat qilishga yordam beradi, psixologik ta’sir vositalarini qo‘llashga, ishontirish, singdira olish, identifikatsiya qilishga imkon yaratadi. 2. Axloqiy-estetik ko’nikmalar. Bu muloqotni insonparvar, demokratik asosda ko‘ra olish, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish, har bir o‘quvchining shaxs sifatidagi qadr-qimmatini o‘rniga qo‘yish, o‘quvchilar jamoasi va har bir o‘quvchi bilan ijodiy hamkorlikni o‘rnata olish ko‘nikmalari sanaladi. 3. Estetik kovnikmalar. Bu ichki va tashqi holatlarni uyg’unlashtira olish, artistlik qobilyatiga ega bo‘lish, estetik ifodalanganlik, o‘smirlarni muloqotning yuqori madaniyatliligа jalb qilish, ularning emotsional kayfiyatini, optimistik idrokini faollashtrish bilan belgilanadi. 4. Texnologik ko‘nikmalar. Bu o‘quv–tarbiya vositalari, metodlar, usullar o‘zaro hamkorligining turli shakllarini tanlay olish, muloqotni boshqarishning optimal metodini tanlash, pedagogik nazokatga rioya qilish, uning tarbiyaviy samaradorligini oshirish bilan belgilanadi. Pedagogik muloqot madaniyati uchun zarur bo‘lgan qator shaxsiy sifatlar haqqoniylik, ochiqlik, o‘z-o‘zini boshqara olish, talabchanlik, samimiylik, sabrtoqatlilik, chidamlilik, taktika kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi faqat o‘z kommunikativ mahoratini emas, balki o‘quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchi-yoshlar psixologiyasini yaxshi bilishi, ularning ijtimoiy qarashlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini puxta bilishi talab etiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko‘ra muaffaqiyatga erishishi yoki muaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala

metodini tanlashi va uni qanday amalda qo‘llay olishiga bog’liqdir. Pedagog dars mobaynida nafaqat o‘zi ishlashi balki o‘quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqtira olishi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina, darsni tog’ri tashkil etish, ilg’or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin. Pedagogning innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni ham qamrab oladi. Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, bunday ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog arab tilini o’qitishda keyingi qadam, ya’ni “mashq texnologiyasi”ga murojat etishi lozim va uni amalda qo’llash bilim olishdagi ko’nikma va malaka sari yetaklaydi. (Lebedev V. , M. :2007)

Xulosa: Metodika va texnologiyalar arab tili o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Arab tili o‘qitish metodikasida keng qo‘llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog’liq va bir-birini to‘ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog’liq bo’lganligi sababli, arab tili o‘rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunukativ didaktika metodinini qo‘llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Arab tili o’rganish natijasida arab madaniyatni ham o’zlashtiriladi. Arab tili ta’limida kerakli bilimlarni egallash uchun “mashqni tashkil qilish texnologiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o‘zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat arab tili ta’limida balki barcha soha bilimlarini o‘zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Arab tili o‘rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so‘ngi qadam, “mashq texnologiyasi”ga e’tibor qaratish muhim. Arab tili o‘rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

J. Jalolov. “Chet tilini o‘qitish metodikasi”. T. : “O‘qituvchi” nashriyoti, 1996. B. 240 https://lib. cspi. uz/index. php?newsid=2190

Lebedev V. V “Arabskaya grammatika ” M. : 2007https://obuchalka. org/20220127140706/arabskaya-grammatika-bazovii-kurs-na-russkom-i-arabskom-yazikah-lebedev-v-v-2016. html

Abdussamad Gammuh. “Arabskiy yazik v dialogah” M. : 2006 https://fayllar. org/oquvchi-ifodali-oqishga-orga-abdullayeva-s. html?page=5

Mirolyubov A. A. Chet tillarni o‘rgatishning ongli qiyosiy metodi. – M. : 2018. http://csl. isc. irk. ru/BD/Ucheb/202010. pdf

Ziyomuhamedov B, Abdullayeva Sh. Ilg’or pedagogik texnologiya : nazariya va amaliyot. – T. : “Abu Ali ibn Sino” 2001. https://elibrary. namdu. uz/20M. pdf

Yabborov G. Ya. Oliy o‘quv yurtlarida arab tilini o‘qitish metodikasi va texnikasi. – Boku, 2020. https://www. researchgate. net/publication/359855750_Arab_tilini_o'qitish_metodikasi

Tolipov O’. Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T. : “Fan” 2006. https://uzsmart. uz/kitoblar/view/10936

Madina Abrorova. Arab tili o‘rganuvchilarida leksik ko‘nikmalarni shakllantirish va tekshirishga qaratilgan metodlar. Academic Research in Educational Sciences. February, 2022 ISSN: 2181-1385 https://cyberleninka. ru/article/n/arab-tili-o-rganuvchilarida-leksik-ko-nikmalarni-shakllantirish-va-tekshirishga-qaratilgan-metodlar

Muxtasar Radjabova. Arab tilini o‘qitish metodikasi. Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415 https://www. researchgate. net/publication/359855750Arab_tilini_o'qitish_metodikasi

EXTENDED ABSTRACT

MODERN METHODS OF TEACHING THE ARABIC LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

A foreign language is the language of a foreign country. Western European languages (English, Spanish, German, French) and Eastern languages (Arabic, Turkish, Persian, Chinese, Indian) are taught in our republic. These languages are included in the curricula of educational

institutions. The process of teaching all three languages is different. The mother tongue and the second language are learned in a natural situation, and a foreign language is learned in an artificial environment. Communication in foreign languages, especially in Arabic, takes place mainly under the guidance of the teacher. Learning and teaching the Arabic language differs sharply in certain aspects. This, in turn, requires the use of appropriate teaching technology. By carefully mastering the achievements of the methodical science, the teacher of the Arabic language will be able to clearly know the standard of language experience of the student and to improve it further.

In recent years, certain works have been carried out in the study of Eastern languages, in particular Arabic. In particular, programs, training manuals and textbooks on the subject of the Arabic language began to be written in Uzbek. Currently, the Arabic language is taught as a main subject in higher educational institutions such as Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent Islamic University, University of World Languages, Oriental University and Alfraganus University. is being taught as an additional language in faculties. Currently, textbooks such as "Arabic Language" by E. Talabov, "Grammar of the Arabic Language" by N. Ibrohimov and M. Yusupov, "Arabic Language" by A. Abdujabborov, and "Arabic Language" by A. Khasanov are the Arabic language for students of higher education institutions. are educational and methodical manuals.

Around the world, learning Arabic has long been considered a privilege in higher education, and public schools are seen as educating the privileged few. In this case, the methodology studies how the teacher conducts the lesson. Psychology deals with how students learn this subject. However, one cannot fully agree with this opinion. Because the teacher in the process of teaching, and the student in the period of mastering, experience certain mental processes and situations, whether they want to or not, they face the laws of psychology and are affected by them. A deeper study of the literature on the history of methodology shows that some researchers call methodology an art. They usually refer to the idea of the French Methodist Penlach, that there are no "good" or "bad" methods, there are "good" or "bad" teachers.

The expression of intercultural communication is widely used in the methodology of Arabic language teaching. It is this concept that we can apply in different contexts. In fact: Intercultural communication is communication-information about the social origin, mentality, national character, way of life, traditions, value system, etc. of representatives of different cultures. In this process, it is necessary to educate and develop

students in the spirit of respect, patience and correct understanding of the culture of the country they are studying. Every Arabic language lesson is a cultural intersection, a practice of intercultural communication. Because every word in this process reflects the life and culture of a foreign country.

The task before teachers is to develop the ability of pupils and students to communicate. For this, it is necessary to learn new methods of education aimed at developing four speech activities in the Arabic language and training manuals that teach people to communicate effectively. The formula of intercultural communication is patience and tolerance. It is necessary to avoid socio-cultural mistakes in intercultural communication.

In order to acquire the necessary knowledge in Arabic language education, "exercise organization technology" is of great importance. Practice is the best way to master all knowledge. The exercise gives a positive result not only in learning the Arabic language, but also in the acquisition of knowledge in all fields. Effective organization of the lesson, the role of the pedagogue and modern pedagogical technologies in it is incomparable. It is important to organize the process of learning the Arabic language with a communicative approach, to bring the next stage to the level of intercultural communication, and to achieve such results, the last step is to pay attention to the "exercise technology". In order to effectively organize the process of teaching the Arabic language, it is necessary to acquire knowledge of modern pedagogical information and communication technologies.

HIKOYA OBRAZIGA DOIR QARASHLARNING NAZARIY TALQINI

O‘qituvchi Bobur NUSRATOV

Annotatsiya

Dunyo adabiyotshunosligida XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib badiiy asarda obraziningqonuniyatlarini tahlil etish, uning tadrij tamoyillarini yoritishga jiddiy e’tibor qaratildi. Jumladan, formalizm, strukturalizm va poststrukturalizm kabi ilmiy maktablarda badiiy asar obrazining poyetik qonuniyatlari turli aspektda dolzarb muammo sifatida o‘rganilgan. Zotan, har qanday badiiy san’at hodisasi badiiy obraz bilangina bir butunlikda zohir bo‘ladi. Badiiy adabiyot bisotida badiiy obrazlar talqinining tarixiy tadriji muntazam yangilanib turadi.

Mustaqillik davri o‘zbek hikoyalari misolida badiiy obrazning poyetik qonuniyatlarini atroflicha o‘rganish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligini jahon badiiy tafakkurining mana shunday global jarayonlariga dahldor etishi bilan dolzarbdir.

Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi ijodkorlar fenomeni maxsuli o‘laroq kamol topgan hikoya janri va undagi badiiy obrazlari Abdulla Qahhor ijodida yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lsa, Shukur Xolmirzayev mazkur janrning poyetik imkoniyati serqatlam ekanligini asoslab zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi maktabiga asos soldi.

Mavzuga mos ravishda o‘zbek hikoyachiligidagi badiiy obraz bilan bog‘liq asosiy tushunchalar ushbu maqolada yoritildi hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotining serqirra badiiy ko‘lamini ochib berishga harakat qilindi.

Maqolada badiiy obrazning mavjud voqelikni so‘z san’ati, adabiyotga xos tarzda o‘zlashtirib, qayta xarakterlab beruvchi estetik hodisa ekanligi, ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi har qanday voqelik, detallar, voqea-hodisalar ham keng ma’noda obraz deb yuritilishi haqida, obraz mavhum tushunchadan farqli ravishda ko‘rgazmalilik xususiyatini

namoyon etishi, u mavhum mulohazalar bilan emas, voqealarni hissiy yaxlit, takrorlanmas tarzda bir butun aks ettirishi, mavjud voqelikni aks ettirish, uni anglash xususiyati bilan obrazning badiiyligi belgilanmasligi, balki badiiylik obrazning misli ko‘rilmagan, yangi o‘ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqishi, obrazda obektivmavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi, ya’ni turmushning emosional-irodaviy tomonlariga munosabat, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq xususiyatlari ham muxrlangan bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Shuningdek, maqolada mustaqillik davri o‘zbek hikoyalarida obraz muammosining o‘ziga xos jihatlari, xususiyatlari, kriteriylari va badiiy obrazning poyetik talqini masalalari ko‘rilgan. Maqoladahikoya obrazi va badiiy obrazning nazariy talqini, obraz va janr munosabati, obrazlilik va poyetik nutq haqidagi farazlarilgari surilgan.

Kalit so‘zlar

Obraz, badiiylik, tasavvur, jamlash, prototip, motiv, topos, arxetip, detal obraz, voqea-hodisalar obrazi, xarakter va sharoit.

THEORETICAL INTERPRETATION OF VIYeWS ON THE IMAGE OF THE STORY

Teacher Bobur NUSRATOV

Abstract

From the end of the 19th cyentury to the beginning of the 20th cyentury, in the world literary studiyes, serious attention was paid to the analysis of the laws of brazi in the literary work, and to the clarification of its development principles. In particular, in sciyentific schools such as formalism, structuralism, and poststructuralism, the poyetic laws of the image of an artistic work are studiyed as an actual problem in various aspects. After all, any artistic phenomenon appears as a whole only with an artistic image. The historical procyess of interpretation of artistic images in the literature is regularly updated.

A detailed study of the poyetic laws of the artistic image in the example of Uzbek storiyes of the period of independencye is relevant as it introducyes modern Uzbek literary studiyes to such global procyesses of world artistic thinking.

Abdulla Qadiri, Abdulhamid Cholpon, and Abdurauf Fitrat created the story genre and its artistic images, which wyere matured as a product of the phenomenon, and reached a new level in the work of Abdulla Kahhor. founded the school of storytelling.

In accordancye with the topic, the main concyepts related to the artistic image in Uzbek storytelling wyere covered in this article and an attempt was made to reveal the rich artistic scope of modern Uzbek literature.

In the article, the artistic image is an ayesthetic phenomenon that recharacterizes the existing reality in a manner typical of the art of words and literature, any reality, details, events in the work created by the creator are treated as an image in a broad sense, an image. unlike an abstract concyept, it shows the characteristic of visuality, it reflects the events in an emotional whole, in an unrepeatable way, not with abstract

considerations, the artistic nature of the image is not determined by the feature of reflecting the existing reality, understanding it, but the artistry of the image creates an unprecyedented, newly concyeived world It is said that along with the objective and important aspects of the image, the features related to the potential, the goal, the desire, that is, the relationship to the emotional and volitional aspects of life, and the characteristics related to the internal capabilitiyes are also sealed.

Also, the article examines the uniquye aspects, characteristics, criteria of the image problem in the Uzbek storiyes of the period of independencye, and the issuyes of poyetic interpretation of the artistic image. The article puts forward hypotheses about the narrative image and the theoretical interpretation of the artistic image, the relationship betwyeyen image and genre, imagery and poyetic speyech.

Key words

Image, artistry, imagination, synthesis, prototype, motif, topos, archetype, detailed image, image of events, character and circumstancyes.

Kirish

Badiiy obraz deganda mavjud voqelikni so‘z san’ati, adabiyotga xos tarzda o‘zlashtirib, qayta xarakterlab beruvchi estetik hodisa tushuniladi. Ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi har qanday voqelik, detallar, voqea-hodisalar ham keng ma’noda obraz deb yuritiladi.

Badiiy obrazda anglashning obektivva subektiv ijodiy tafakkur qobiliyati birlashib ketadi. Badiiy Obrazning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlari haqiqiy voqelikka va insonning fikrlash jarayonidagi munosabatlarida real namoyon bo‘ladi. Badiiy in’ikos tufayli Obraz voqelikning haqiqiy mavjud bo‘lgan narsa-hodisalarning hissiy aniq, real zamonda va makonda davom etgan, moddiy tugal, o‘zicha mukammal xususiyatlariga ega bo‘ladi. Badiiy Obrazni haqiqiy hodisa bilan bitta narsa deb bo‘lmaydi; u shartli, ramziy xususiyatlari bilan real voqeliklardan farqlanib turadi va asarning ichki, o‘zigagina xos bo‘lgan «illyuziyalashgan» dunyosini tashkil qiladi. Obraz voqelikni oddiy in’ikosi emas, balki, voqelikni umumlashtirib, tasviriylik va obrazlilik orqali alohida, o‘tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o‘zgarmas, yagona muqim, adabiy jihatlarini ko‘rsatib beradi.

Hikoya janri tarkibida badiiy obrazlar butunligini ta’minlash va bosh hamda ikkinchi darajali personajlarni joylashtirishda kompozisiyaning roli muhim. Badiiy asar kompozisiyasining har bir elementi: sarlavha, epigraf, prolog, peyzaj, qistirma epizod, portret, detal kabi

komponentlar badiiy obraz tabiatini belgilashda o‘zaro poyetik munosabatga kirishib, muallif va asar badiiy konsepsiyasini ifodalaydi.

Adabiyotlar sharhi

Hikoyada badiiy obraz tasviri kompozision qonuniyatlar talabi asosida o‘z tasdig‘ini topadi”, deb K. Hamrayev o‘zining“Hikoya kompozisiyasi” nomli monografiyasida ta’rif beradi. (Hamrayev, K. 2020, 30)

“Yozuvchi qay darajada mohir bo‘lmasin, – deb yozadi Matyoqub Qo‘shjonov, – asar uchun obrazlarni jalb qilishda juda ham erkin harakat qila olmaydi. San’atkor bu ishda doim ikkita mantiqqa asoslanadi: ulardan biri – hayot mantig‘i, ikkinchisi muayyan asarda kuzatilgan badiiy mantiqdir”, - deya ta’kidlaydi. (Qo‘shjonov, M. 1983: 279-280)

Obraz mavhum tushunchadan farqli ravishda ko‘rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u mavhum mulohazalar b-n emas, voqealarni hissiy yaxlit, takrorlanmas tarzda bir butun aks ettiradi. Mavjud voqelikni aks ettirish, uni anglash xususiyati b-n Obrazning badiiyligi belgilanmaydi, balki badiiylik obrazning misli ko‘rilmagan, yangi o‘ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obektivmavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi, ya’ni turmushning emosional-irodaviy tomonlariga munosabat, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq xususiyatlari ham muxrlangan bo‘ladi. Badiiy Obrazda xayolotlar, tovushlar, bo‘yoq, so‘zlar va boshqalarni ijodiy qayta ishlash yo‘li bilan badiiy san’at asari yaratiladi.

Masalan, hikoya janrida sarlavha, epigraf, prolog, epilog, ilk va oxirgi jumla kabi qismlarda muallif obrazining ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Negaki, ushbu komponentlar, avvalo, ijod jarayonida muallifning tanlovi o‘laroq badiiy asar tarkibidan joy oladi. Ularning har birida yozuvchining dunyoqarashi, estetik didi va badiiy g‘oyasi yashaydi. M. Baxtin ta’kidlaganidek, adibning badiiy rejasi kompozisiyada o‘z aksini topadi. (Baxtin, M. 2015: 65)

Bu haqida prof. Q. Yo‘ldoshev yozadi: “Olomonlik psixologiyasidan qutulib, shaxslashayotgani uchun badiiy did va qarashlarida ham turfalikka erishib borayotgan millatga bugun san’at bobida hukm o‘qiydigan qozilar emas, estetik yaratiqning mohiyatini anglatadigan chinakam tadqiqotchilar kerak. Millat shaxslashganda har bitta odamning o‘z dunyoqarashi, o‘z xohish-istagi, axloqiy mezoni, o‘z didi paydo bo‘ladi va shu barobarda har kimning ichki tanqidchisi ham yuzaga keladi”. (Yo‘ldoshev, Q. T. 2008, yanvar 4)

Badiiy obrazning chizgilarini ijodkor alohida-alohida qolipga quyar ekan, uning psixologiyasini ham shakllantirib boradi. Taniqli adabiyotshunos H. Umurov ta'kidlaganidek: "Psixologizmning formalari turli-tuman bo'lganidek, uning portret, dialog, monolog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyusinatsiya kabi poyetik vositalari ham rang-barangdir. Ularning har biri qahramon ichki dunyosining yashirin sirlarini oshkora qilishda yozuvchiga qo'l keladi". (Umurov, H. 1983:32)

Badiiy obrazni va undagi xarakterni talqin qilishda esa doim asosli misollarga tayanishimiz lozim. Chunki "Biz mavjud yetuk asarlarimizni, ulardagi xarakterlarni asosli talqin, tahlil qilsak, modern, absurd mohiyatini to'liqroq anglab yetamiz". (Rasulov, A. 2007: 22)

Mustaqillik davri hikoyalari obrazlarini talqin qilayotganda qadim an'analar bilan bir qatorda yangicha fikrlaydigan va kelajakka intilayotgan yozuvchilarning mahoratini ham inobatga olish zaruriyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holdako'radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda". (Karimov, I. 2007: 30)

Hurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev e'tirof etganlaridek: "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". (Mirziyoyev, Sh. 2017) Shunday harakat qilayotgan, ijod etayotgan Yangi O'zbekistonimizdagi mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligiga o'z asarlari bilan hissa qo'shgan yozuvchilarimiz asarlari yuqoridagi aytilgan badiiy obrazga xos xusisiyatlarni anglash bizning asosiy vazifamizdir. Ammo badiiy obraz faqat reallikdan iborat bo'lmaydi.

V. G. Belinskiy ta'kidetganidek, san'atdagieng oliy predmetinsonhisoblanarkan, demak, «obraz»atamasiniinsonga(badiiyasardagiinsonga)nisbatanq o'lla s h m a'quldir. Chunki, «Yozuvchiningmateriali—uningo 'zikabixususiyatlar, niyatlar, xohishlargaegabo'lgan, did vakayfiyatlario 'zgaribturadiganinsondir» (Ulug'ov, A. 2000)

Metodologiya

Demak, umumlashmadan individuallik, individuallikdan umumlashmalik tug'ilgandagina, to'g'rirog'i ular bir— birlarining ichlarida mujassamlashganlaridagina (mazmun va shakl hodisasiga o'xshab) — yaxlitlik vujudga kelgandagina obraz betakrorlikka, jonlilikka,

ta’sirdorlikka erishadi. Obraz yaratila boshlaydi. Uning yaratilish jarayonida badiiy to ’qima (uydirma, yolg‘on) faol ishtirok etadi. «Zotan, butun adabiyot badiiy to‘qimalardan iborat, chunki turmush hodisalari zamon va makon ichida sochilib yotadi. Masalan, bir odamni olaylik: u o ’zining mohiyatini, tabiatini ochib beradigan bir so‘zni bugun aytsa, ikkinchisini bir haftadan, uchinchisini bir yildan keyin aytishi, balki hech bir aytmay o‘tib ketishi ham mumkin. Yozuvchi ana shunday odamni ketma-ket so‘zlatadi. Uning mohiyati va tabiati uchun xarakterli so‘zlarning hammasini ayttiradi. Bu esa turmushni badiiy to‘qimalar vositasida aks ettirish bo‘ladi. Ammo, badiiy to‘qimadagi hayot oddiy turmushdan ko‘ra realroq va to‘liqroqdir» (A. Tolstoy). (Ulug‘ov, A. 2000)

“Badiiy obraz, - Gorkiyning so‘zlariga ko‘ra, - deyarli har doim g‘oyadan ko‘ra kengroq va chuqurroqdir, u insonni ma’naviy hayotining rang-barangligi, his-tuyg‘ulari va fikrlarining barcha qarama-qarshiliklari bilan oladi". (Ulug‘ov, A. 2000)

Demak, obraz inson hayotining suratidir. Tasvirlar yordamida hayotni aks ettirish, odamlarning inson hayotining rasmlarini bo‘yashni anglatadi, ya’ni. hayotning ma’lum bir sohasiga xos bo‘lgan odamlarning harakatlari va tajribalari, uni hukm qilish imkonini beradi.

Natija

Gyotening aytishicha, mazmun tasavvurning ichki tajribasidan bevosita va erkin oqib chiqsa, shaklni voqelik ta’sirida aql kashf etadi. Ularning ikkalasi birlashadi, bu o‘zaro birlashish yaxlit va go‘zal bo‘lishi uchun – u tahlil qilinishi, anglanishi shartdir.

Go‘yo yozuvchida ikki qiyofa birlashadi: biri fikr-g‘oya bilan mahliyo bo‘lgan san’atkor, ikkinchisi “Buni qilish kerak, undan qochish kerak” deb fikr beruvchi tanqidchi. Lekin tasavvur bilan aqlning vazifasi turlichadir. Agar tasavvur – ijodiy kuch bo‘lsa, xotira va tajribaning turli vositalarini guruhlashtirib yangilik yaratsa, bu ideal voqelik talablariga javob bersa, aql tasavvur yaratayotgan ishni nazorat qiladi, uning butunligini va qismlarining garmonik birligini ta’minlashga xizmat qilmaydigan ortiqchaliklarga barham beradi.

Badiiy asar deb atalmish chin iste’dod sohib va sohibalari tomonidan yaratilgan mukammal ijod namunasini hali hech bir adabiyotshunos to‘liq anglay olgan emas va anglab ham bo‘lmaydi. Chunki ijodkor chiqqan cho‘qqining yolg‘izoyoq yo‘llaridagi sir-sinoat va mashqqatlar faqat ungagina a’yondir. Faqatgina mohir adabiyotshunos o‘z cho‘qqisidan turib yozuvchi qoyasiga termulishi va haminqadar asarni tushuntirishi mumkin. Buni ilmiy tilda badiiy asar talqini deb ataymiz. Biroq

adabiyotshunoslikning bahaybat harsang toshlarini endigina chetga surishga intilib, oradagi tirqishdan bo‘ylayotgan bizdek g‘o‘r tolibi ilm har qancha chiranmasin, ijodkor asarining bor-bo‘yini his eta olmaydi.

Xulosa

Ushbu maqolada hikoya obrazining nazariy talqini, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida obraz poyetikasi va hikoya obrazida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi yuzasidan quyidagicha xulosalar qilindi:

Birinchidan, Obraz atamasi keng tarixga ega, uning ko‘lami juda keng, tabiatdagi barcha narsa obraz bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, hikoya kichik hajmliligi sababli kishi ko‘z o‘nggida turgani uchun u bilan bog‘liq obrazlar o‘quvchi tasavvurida tiniq namoyon bo‘ladi, badiiy qahramonning abstrakt va o‘quvchiga qorong‘u kechinmasi obraz tasviridagi biz qo‘limiz bilan ushlab, ko‘zimiz bilan ko‘rgan predmetga chog‘ishtirilsa yoki o‘xshatilsa, o‘sha ramz yoki metaforani ilg‘ash oson kechishi orqali hikoyadagi konkretlik xususiyati oshadi.

Aks holda u obrazga yuklayotgan ma’no muallifga mutlaqo aloqasiz, ya’ni uning o‘ziga tegishli subektiv ma’no bo‘lib qolishi tabiiy.

Hikoya obrazi- bu badiiy ijodning umumiy kategoriyasi: estetik ta’sir qiluvchi ob’ektlarni yaratish orqali san’atga xos bo‘lgan hayotni takrorlash, talqin qilish va o‘zlashtirish shakli. Obraz deganda ko‘pincha badiiy yaxlitlikning elementi yoki bo‘lagi, odatda mustaqil hayot va mazmunga ega bo‘lgan parcha tushuniladi (masalan, adabiyotdagi personaj, ramziy obrazlar). Ammo umumiyroq ma’noda hikoya obraziasarning ta’sirchanligi, ta’sirchan kuchi va ahamiyati tarafidan olingan mavjud bo‘lish usulidir.

Hikoya obrazi turlariga mifalogik, afsonaviylik, xayoliylik – fantastik simvolik, realistik obrazlar hisoblanadi va ularning har biri o‘zida ma’lum badiiy yukni tashiydi, obrazning turli qirralarini namoyon etishda ahamiyatli hisoblanadi.

Hikoya obrazining tarix va zamona materialiga murojat qilishiga ko‘ra, hayotni ikki xil yo‘l bilan tadqiq etadi: biri-tasdiqlash, ikkinchisi-inkor etishiga ko‘ra, asar qurilishida tutgan o‘rniga qarab, shuningdek, o‘zgaruvchan va o‘zgarmasligiga ko‘ra hikoya obrazi yaratishning turli usullari mavjud va ular hozirgi mustaqillik o‘zbek hikoyachilida keng qo‘llanilib kelmoqda.

Albatta, asar Obrazlari xarakteriga xos asosiy xususiyatlar (parametrlar) avval boshda yozuvchining o‘zi tomonidan belgilanadi.

Keyin, asar voqealari rivoji davomida to‘la shakllangan va mustahkamlangan xarakter endi muallif diktatini qabul qilmaydi, o‘z boshicha harakatlanadi.

Hikoya obrazi turlariga quydagilar kiradi: mifalogik, afsonaviylik, xayoliylik – fantastik simvolik, realistik obrazlar kiradi.

Realistik obraz – hayot haqiqatiga monand obrazlar bo‘lib ular jonli odamlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Romantik obrazlar – hayotda aynan bo‘lmagan, ammo bo‘lishi orzu qilingan mo‘jizakor kuch – quvvat egasi bo‘lgan, ko‘tarinki ruh bilan yaratilgan obrazlar kiradi.

Xayoliy- fantastik obrazlar haddan tashqari bo‘rtirilgan, ilohiylashtirilgan mo‘jizaviy xarakterga ega bo‘lgan obrazlar.

Afsonaviy obrazlar esa butunlay xayoliy obraz bo‘lib ular bitmas – tuganmas kuch – qudratga ega bo‘ladi.

Asar qurilishida tutgan o‘rniga qarab hikoya obrazlar quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigacha rivojlantiradigan, asar bosh g‘oyasini o‘zida tashiydigan shaxslar – Bosh obraz yoki Bosh qahramon deb yuritiladi.

2. Badiiy asarda ma’lum bir g‘oyani (asardagi bosh g‘oyaning kichik bir bo‘lagini) ifodalovchi, syujet davomida bir, ikki ko‘zga ko‘ringan obrazlar epizodik yoki yordamchi obrazlar deyiladi.

Adabiyot hayotni ikki xil yo‘l bilan tadqiq etadi: biri-tasdiqlash, ikkinchisi-inkor etish. Shunga ko‘ra obrazlar quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan asosan ijobiy xislatlarni o‘zida tashisa va kitobxon uchun o‘rnak bo‘la olsa, jamiyatni ezgulik va komillikka yetaklay bilsa, u – ijobiy obrazdir.

2. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan, asosan salbiy xislatlarni o‘zida tashisa, kitobxonni o‘ziga nisbatan nafratini uyg‘otsa, jamiyatni tanazzulga tortsa, salbiy obrazdir.

Adabiyot tarix va zamona materialiga murojat qilishiga ko‘ra quyidagi obrazlarni vujudga keltiradi:

1. Yozuvchi “tarix orqali zamonaning ichiga kirsa” (A. Tolstoy), tarixda bo‘lib o‘tgan voqelikni obrazlarda gavdalantirsa, ular tarixiy shaxslar obrazi deb yuritiladi.

2. Yozuvchi bugungi jamiyatning taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan yangi g‘oyalarni ifoda etsa, bu g‘oyalarni zamondosh, “tanish bo‘lgan notanish” xarakterlarda gavdalantirsa, bu zamonaviy obraz yoki zamondosh obrazi deb yuritiladi. Mustaqillik mafkurasini qalbiga ko‘chirgan, Istiqlol mohiyatini o‘zida jam qilgan, el-yurt ravnaqi uchun kuyib, yashayotgan, O‘zbekistonining buyuk davlat bo‘lishiga asos va kuch berayotgan zamondoshlarimiz obrazi – bunday obrazlarning yaqqol timsolidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

Karimov I. A. O‘zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo‘li. / I. A. Karimov. -Toshkent: 2007. -B. 30.

Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T:2017.

Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T:Navoiy universiteti, 2018.

Sulton I. Adabiyt nazariyasi, -Toshkent, 1980.

Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent, 2002.

Do‘stmuhammadX. Hikoyaning takomil yo‘li (Sarchashma mavjlari). – T. : Mashhur-press – 2016, –B. 167.

Qo‘shjonov M. Saylanma. 2 jildlik. –T. : Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. -B. 279-280.

Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Rus tiladanU. Jo‘raqulov tarjimasi. –T. :2015

Jo‘raqulov U. Nazariy poyetikasi. T. : G‘afur G‘ulom, 2015. –B. 233.

Hamrayev K. Hikoya kompozitsiyasi. - Toshkent, 2020

EXTENDED ABSTRACT

THEORETICAL INTERPRETATION OF VIYeWS ON THE IMAGE OF THE STORY

From the end of the 19th cyentury to the beginning of the 20th cyentury, in world literary studiyes, serious attention was paid to the analysis of the laws of the image in a work of art, and to the clarification of the principles of its development. In particular, in sciyentific schools such as formalism, structuralism, and poststructuralism, the poyetic laws of the image of an artistic work wyere studiyed as an actual problem in various aspects. After all, any artistic phenomenon appears as a whole only with an artistic image. The historical procyess of interpretation of artistic images in the literature is regularly updated.

A detailed study of the poyetic laws of the artistic image in the example of Uzbek storiyes of the period of independencye is relevant as it introducyes modern Uzbek literary studiyes to such global procyesses of world artistic thinking.

Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, and Abdurauf Fitrat created the narrative genre and its artistic images reached a new level in the work of Abdulla Qahhor, while Shukur Kholmirzayev, based on the rich poyetic potential of this genre, founded the school of a modern Uzbek storytelling.

In accordancye with the topic, the main concyepts related to the artistic image in Uzbek storytelling wyere covered in this article and an attempt was made to reveal the rich artistic scope of modern Uzbek literature.

In the article, it is said that the artistic image is an ayesthetic phenomenon that recharacterizes and recharacterizes the existing reality in a way typical of the art of words and literature, that any reality, details, and events in the work created by the creator are treated as an image in a broad sense, an image unlike an abstract concyept, it shows the characteristic of visuality, it reflects the events in an emotional whole, in an unrepeatable way, not with abstract considerations, the artistic nature of the image is not determined by the feature of reflecting the existing reality, understanding it, but the artistry of the image creates an unprecyedented, newly concyeived world, it is said that along with the objective and important aspects of the image, the features related to the potential, the goal, the desire, that is, the relationship to the emotional and volitional aspects of life, and the characteristics related to the internal capabilitiyes are also sealed.

Also, the article examines the uniquye aspects, characteristics, criteria of the image problem in the Uzbek storiyes of the period of independencye, and the issuyes of poyetic interpretation of the artistic image. The article puts forward hypotheses about the narrative image and the theoretical interpretation of the artistic image, the relationship betwyeyen image and genre, imagery and poyetic speyech.

In the story, the image of the artistic image finds its confirmation based on the requirements of the compositional laws, " explains K. Hamrayev in his monograph entitled "Story Composition". (Hamrayev, K. T. 2020, 30)

"No matter how skilled a writer is, " writes Matyakub Koshjanov, "he cannot act very freyely in attracting images for the work. " In this work, the artist is always based on two logics: one of them is the logic of life, and

the other is the artistic logic observed in a particular work, " he says. (Koshjanov, M. 1983: 279-280)

Unlike an abstract concyept, the image shows the characteristic of visuality, it reflects the events in an emotionally integrated, unrepeatable way, rather than abstract thoughts. The art of the image is not determined by the ability to reflect the existing reality, to understand it, but the artistry appears in the image's ability to create an unprecyedented, newly concyeived world. In the image, along with objective and important aspects, possible, goal, desire, i. e. attitude to emotional and volitional aspects of life, features related to internal possibilitiyes are also sealed. In Artistic Image, a work of art is created by creative procyessing of imagination, sounds, paint, words, etc.

So, only when individuality is born from generalization, and generalization from individuality, or rather, when they are embodiyed in each other (similar to the phenomenon of content and form) - only when unity is created, the image becomes uniquye, vivid, and effective. The image begins to be created. In the procyess of its creation, artistic fabric (fiction, liye) takes an active part. "Indeyed, all literature consists of artistic tissuyes, because life events are scattered in time and spacye. For example, let's take a person: if he says one word that reveals his essencye and nature today, he may say the second one a wyeyek later, the third one a year later, or he may pass without saying anything at all. The writer talks about such a person one after another. He says all the words characteristic of its essencye and nature. This will be a reflection of life through artistic textures. Howyever, the life in artistic fabric is more real and fuller than ordinary life" (A. Tolstoy). (Ulugov, A. T. 2000)

And so. This is an ayesthetic feyeling. The purpose of art is ayesthetic percyeption of reality, awakening ayesthetic feyeling in a person. Ayesthetic sense is related to the ideal idea. Such percyeption of the ideal embodiyed in life, percyeption of beauty causes us ayesthetic feyelings: excitement, joy, pleasure. So, the importancye of art is that it should awaken an ayesthetic attitude to life in a person. Thus, wye came to the conclusion that the important aspect of the image is its ayesthetic valuye.

According to the observations of the sciyencye of literature, there are two ways to create an image: 1. Summary. 2. Prototype. What an artistic image depicts and what it expresses do not always coincide. Based on this, autological, metalological and superlogical images are distinguished according to the planar relation of expression and image. The degreye of objectivity of an image refers to the scope of what the image depicts. In this respect, artistic reality consists of four levels: 1) details; 2) image of

events; 3) character and circumstancyes; 4) the image of the world and destiny (artistic reality).

olgancha buyruq kutmoqda edilar. “Havo-Havo” rusumli raketalar allaqachon jangovar holatga keltirilgan, Himoya vositalari va chalg‘ituvchi termik vositalar jangga shay holatda edi” [Sulton I., 2011, B. 80.]. Yozuvchi Muborak Kishi zamonidagi O‘lim lashkarini va bugungi havo laynerini bir xil “Maxes” deb nomlagan. Yovuzlik zamon va makonlarni tan olmaydi, to qiyomatga qadar tusini o‘zgartirib, butun olamni boqiy darbadar singari kezadi. Avliyo, karvonboshi, professor Ziyo, uning o‘g‘li va u yaratgan genom mikroxronotopida apokalipsis ro‘y beradi. Ayrizamonlarda sodir bo‘lgan qiyomat zaminu zamonlarni yo‘qlikka mahkum etgan. Yaratganning ishlariga aralashish oqibatini o‘ylamaganlar tomonidan barpo etilgan “Kuyten-Nayramdal cho‘qqilaridan yuz ellik chaqirim masofada joylashgan Inson takomili markazining bir qavatli beton binosi ham sahro qumlari ostida mangu qolib ketadi” [Sulton I. , 2011, B. 88.]. Ch. Aytmatov va I. Sulton texnokratlashgan olam mezonlarining buzilishi oqibatlarini badiiy bashorat qilishyapti. Romanlar megaxronotopi mikroxonotop bilan parallellik kasb etib, voqealar dramatizmini kuchaytirgan. Voqealar zanjiri o‘tmish va bugun, xayolot va haqqoniylik, mavhumot va borliq oralig‘ida g‘ayritabiiy bir uyg‘unlik bilan bog‘lanib ketadi. . . . Voqealar zanjirini yagona markazga birlashtiruvchi halqa – boqiylikka mahkum odam muammosidir.

Yaxlit tizimga ega bo‘lmagan voqealar o‘tmish (Brokgauz va Efron qomusidagi rivoyatga ko‘ra la’natlangan etikdo‘zning zamonlar osha darbadar kezishi; qachonlardir Hindistondan yo‘lga chiqqan lo‘lilar karvonining juda ulkan maqsad bilan safarga chiqishi, ammo yillar o‘tavergach va avlodlar almashgach, butun boshli xalq nima maqsadda yo‘lga chiqqanini unutishi natijasida dunyo bo‘ylab vatansiz va makonsiz besamar daydishga mahkum bo‘lishi; na til, na millat, na madaniyatdan asar qolmagan afsonaviy shahri Haybardagi odamlarning o‘lim saodatini jim, qo‘rqituvchi itoatkorlik bilan xomush kutishi – zeriktiruvchi boqiylikka duchor bo‘lishi) va hozir (professor Ziyo yaratgan genom o‘zining yaralishidan murod neligini anglamoq maqsadida Yaratganni izlab, darbadar yo‘l olishi)ning almashinuvida ro‘y beradi. Badiiy zamon va makon diskret tarzda tasvirlanadi. Yozuvchining ayrizamon va makonlarda ro‘y bergan voqealar silsilasini asarda tizimlashtirishdan muddaosi shuki, insoniyat azaliy qonunlarni buzib, Yaratgan irodasiga qarshi chiqar ekan, darbadarlikka mahkum. Shu bois ham intihoda jamiki tiriklikni yer yuzidan qum bo‘roni supurib tashlaydi. Asar leytmotivi kitobxonni sergaklantiradi, chuqur mushohadaga chorlaydi.

Asarda la’natlangan etikdo‘z, lo‘lilar, *“halokatli barcha ta’sirlarga chidamli va jarohatlangan a’zosini tezda tuzata oladigan, boz ustiga, aqlu*

tafakkur jihatidan sizu bizdan bir necha baravar ustun" [Sulton I. , 2011, B. 35.] genom darbadarligi alohida syujet chiziqlarida aks etadi. Yozuvchi darbadarlar sirasiga *"g'oyalar va fikrlar orasida u qirg'oqdan bu qirg'oqqa surilib yashayotganlar. . . o'z qo'nimini topolmasdan, bor hayoti hissiy va fikriy darbadarlikda o'tayotganlar. . . sevgiyu ishq deb darbadar bo'lganlar. . . iste'dodini yo'lga sololmaganlar. . . va hatto ma'lum bir maqsadni o'z oldiga qo'yib, qat'iyatu sabot bilan olg'a intilayotgan va shu holida ham darbadarlikka mahkumlar. . . yoshlar. . . . qariyalar. . . ayollar. . . . darbadarlik darslari miyalariga quyilayotgan beozoru beg'ubor bolakaylar, jamalaksoch qizchalar. . . jannat ilinjida darbadarlikni kasb qilib olgan zohidlar. . . tarix bo'ylab sochilib ketgan xalqlaru elatlar. . .* [Sulton I. , 2011, B. 53.]ni kiritadi. Kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydigan holat shuki, muborak kishiga qo'l ko'targan osiyga – Xizr alayhissalomga – Azozilga qiyomatga qadar tiriklik berilgani, faqatgina Xizr alayhissalom "Tangri taolo iroda etgan botiniy yumushlarni bajarishi"[Sulton I. , 2011, B. 53.], qolgan ikkisi esa darbadarlikka mahkumligidir. Muborak zotdan devorini qizg'angan etikdo'z o'zini Azozildan mal'un emasligini astrolog Gvido Bonattining "Mangu darbadarning qaytishi" pyesasidagi sahnada isbotlamoqchi bo'ladi va Parvarigordan "Ayshu safo ichida, may xilvatlarida" bo'lgan odamlardan panoh berishini so'raydi.

Insoniyat tarixi – darbadarlik tarixi hamdir [Sulton I. , 2011, B. 53.], deya adib e'tirof etadi. Darbadarlik motivi turli syujet chiziqlarida turlicha talqin qilinadi. Etikdo'z – lo'li chol; etikdo'z – avliyo; etikdo'z – astrolog Gvido Bonatti; professor Ziyo – o'g'li; professor Ziyo – DNA halqalarida avstraliya kaltakesagi va Osiyo cho'llarida goh-goh paydo bo'lib turuvchi ulkan toshbaqa genlari mavjud [Sulton I. , 2011, B. 35.], baland bo'yli, yosh va zabardast, yalangoyoq yigit (genom) – "Fir'avn" va "Maxes" harbiy uchoqlari syujet chiziqlarida an'anaviy tizimlilik mavjud emas, ammo ularni darbadarlik motivi birlashtiradi. S. Quronov darbadarlikning mohiyatini shunday e'tirof etadi: "Boqiy darbadar" romanida ketar yo'lidan adashgan bashariyat qismati qalamga olingan bo'lib, unda o'rgimchak to'riday chirmashib ketgan o'nlab yo'llarda manzilga intilayotgan, hayotdan, yashashdan ma'ni qidirayotgan qahramonlarni ko'rish mumkin. Tom ma'noda asar "men kimman?", "otim nima?" savollari tegrasiga qurilgandek tasavvur uyg'otadi».

Hazrat darbadarlikka mahkum qilingan bolaning qismatini bashorat qiladi. Lo'li chol esa etikdo'z tug'ilmasidan ikki ming yil avval lo'lilar karvoni muayyan maqsadni ko'zlab safarga chiqqani, ammo davrlar o'tib, safar mohiyati yo'qolib, o'zlarini *darbadarlikka* mahkum bo'lishganini afsus-nadomat bilan so'zlaydi: *"Safar manzilini biladiganlar o'sha mahallarda dunyodan o'tib ketdilar. Taxmin qila oladiganlar ham*

allaqachon tuproqqa aylanganlar, balki ularning zarralari hozir shamolga qo‘shilib uchib yurgan bo‘lsa ne ajab. . . Biz uchun hech yerda qo‘nim yo‘q, dunyoning qayeriga borsak chodir tikib, Alloh xohlagancha vaqt turamiz, keyin yana dunyo kezishga ravona bo‘lamiz. Bola-chaqalarimiz ham darbadarlikda tug‘iladilar va shu qismat bilan o‘ladilar” [Sulton I. , 2011, B. 16-17.].

Etikdo‘zni darbadarlik va abadiyat sharobidan bebahralik nadomati qiynaydi, lo‘li cholga qalb evrilishlarini oshkor qiladi: – «*Odam bolasi borki, barhayotlikni orzu qiladi. – Men esa abadiyat bilan jazolandim. Men uchun na vatan, na millat, na elat, na til qoldi. Dunyoni kezarkan, butun boshli millatlarning yo‘q bo‘lib ketganini, o‘rniga boshqalarining kelganini ko‘rdim. . . Aslida, siz mendan ko‘ra xushbaxtroqsiz. Chunki, qismatingizga darbadarlik bitilgan bo‘lsa ham, bir necha yildan keyin Uning rahmati tomonga ravona bo‘la olasiz. Menga esa u yo‘llar berkilgan, qopqalar yopilgan, tavbamdan va pushaymonimdan naf yo‘q»* [Sulton I. , 2011, B. 18.]. Yozuvchi darbadarlikka mahkum etikdo‘z uchun vatan, millat, elat va tilning mohiyatini yo‘qolganini uning tilidan ta’kidlab, nimaga ishora qilmoqda? Javobni o‘g‘li professor Ziyoga yozgan maktubdan izlaymiz: *«Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir go‘shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham ko‘rmoqdaman. . . Shunday darbadarlikka mubtalo bo‘lmaslikning yo‘llarini izlamoqdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yo‘l olganida, mukammallikka erishgan zotlar bilan bir qatorda bo‘lishni orzu qilaman»* [Sulton I. , 2011, B. 49.]. Har bir qahramon dunyoni o‘zicha anglaydi, darbadarlik borasida chuqur mushohada yuritadi. Professor Ziyo, uning o‘g‘li va yaratgan genomining fikr-mulohazalaridagi mushtaraklik shundaki, har biri o‘z aqliy maqomi darajasida o‘zligini anglashga, mohiyatga yetishga intiladi. «Boqiy darbadar» romanida Isajon butun insoniyatning peshanasiga darbadar degan tamg‘a bosgan, Tangri taolo yaratgan hudud-chegaralardan chiqishga uringanlar Etikdo‘z qismati kabi, qarg‘ish oqibatida olamda bemaqsad va mangu daydib-tentirab yurish ekanini (va mangu bo‘lmagan shu yorug‘ olamning oxirida yana mudhishroq bir hukmga ro‘para kelishini) ko‘rsatgan».

Xulosa

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanidagi g‘oyalar “Kassandra tamg‘asi” asari voqealarning mantiqiy davomidek tuyuladi. Akademik B. Nazarov “Kassandra tamg‘asi”dagi bosh qahramon Filofey, professor Andrey Kriьsovning darbadarlik tabiati va dunyoqarashidagi tizim badiiyatini tasvirlash luzumlari Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanidagi yetakchi qahramonni tasvirlashdagi “chiqish nuqtasi” bo‘lgan[Meliboyev A. 2018, B. 46.] ta’kidi orqali kassandra embrionining

yorug‘ olamda boqiy darbadarlikka mahkumligi, Yaratganning irodasiga qarshi o‘laroq dunyoga kelgan mavjudotning insoniyat orasida yashashga haqli emasligi haqidagi Ch. Aytmatov va I. Sultonning insoniyatni sergak tortishga majburlovchi g‘oyalarida tutashuv borligini e’tirof etgan.

Genetika mutaxassisi Georg Mendel anjumandagi nutqida gen o‘ramlari qarshisida soatlab termilib turgan onlarida “Yaratgan Parvardigorimning nizomini buzishga urinib, xato qilmayapmanmi?” [Sulton I. , 2011, B. 30.], degan savol qiynaganini aytadi. «Tangrining irodasiga isyon o‘laroq, ya’ni u belgilab bergan hayot-mamot va taqdir chegaralaridan jasurona sakrab o‘tib, halokatli barcha ta’sirlarga chidamli va jarohatlangan a’zosini tezda tuzata oladigan, tafakkur jihatidan odamlardan bir necha baravar ustun»[Sulton I. , 2011, B. 35.] qilib yaratilgan genom uni kim nima maqsadda yaratganiga javob istaydi. Bu makonda bo‘lishi Uning yaratishdan ko‘zlagan irodasiga mos kelgani taqdirda, albatta, qaytishini, mos kelmagan taqdirda esa mos keladigan makon va zamon izlashini ma’lum qilib, laboratoriyani tark etadi. Voqealar yakunida ko‘tarilgan to‘fon jamiki yaratiqni chilparchin qilib, hammasini yo‘qlikka mahkum qiladi. Har ikki romanda ham *Yaratganning ishiga aralashgan* olimlar hayoti halokatli yakun topadi. Adiblarning falsafiy bashorati bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlarning ezgulikka xizmat qilishi haqidagi da’vati sifatida kitobxonni sergak torttiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Айтматов Ч. (2016) Кассандра тамғаси: Фалсафий роман. /Русчадан Суюн Қораев таржимаси. – Т. : Янги аср авлоди.

Айтматов Ч. (2019) Тавро Кассандры: (Из ересей XX века): роман. – Санкт-Петербург: Азбука-Аттикус.

Ғафуров И. (2017) Ёзувчи, табиат ва табиият. /Исажон Султон насри бадийяти. – Т. : Турон замин зиё.

Ёқубов И. (2017) Юрак пўртаналаридан баҳс этувчи асар. . . / Исажон Султон насри бадийяти. – Т. : Турон замин зиё.

Кўчимов У. Рэй Брэдбери ва Ҳожиакбар Шайхов асарларида қаҳрамон руҳияти тасвири //Филология масалалари. – №3. –Т. 2021. –Б. 22-36.

Мелибоев А. (2018) Чингиз Айтматов ва Ўзбекистон/ тўп. – Т. : Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.

Раҳимжон Раҳмат. (2017) «Муножот»дан «Боқий дарбадар»гача. Исажон Султон насри бадийяти. – Т. : Турон замин зиё.

Султон И. (2011) Боқий дарбадар: роман, қисса, ҳикоялар. –Т. : Ўзбекистон.

LITERARY-AESTHETIC OBSERVATIONS OF CHINGIZ AITMATOV AND ISAJAN SULTON ON THE CREATION OF ARTIFICIAL MAN

Bahor TURAEVA

Abstract

The article analyzes Chingiz Aytmatov and Isajon Sultan's artistic predictions about the creation of an artificial human based on the system-structural method. Chingiz Aitmatov's "Cassandra's Brand" and Isajon Sultan's "The Eternal Wanderer" were selected as the object of the research. The subject of the article is the comparative typology of the event of the apocalypse in modern novels. In "Cassandra's Brand" the reality of the x-generation and Cassandra's embryos derailing the destiny of humanity, in "The Eternal Wanderer" the destruction of artificial beings whose parents are unknown, created on the basis of the gene packages of humans and various creatures, efforts to find the reason for the creation of a perfect genome, also the tragic consequences of scientific discoveries that are being carried out against the will of the Creator in today's global world through the relentless struggle of hegemonic countries to acquire it, are pointed out. The content of the novels has a prospective character, because the philosophical tone of the writers about the fact that humanity is axing its future, various wars, interference in the work of the Creator will eventually lead to destruction. From the point of view of features, theme and idea of an intellectual novel, the novels "Cassandra's Brand" and "The Eternal Wanderer" are close to each other. It even creates an imagination as a logical continuation of the events of the novel. The common features of both novels are shown in the following: **mythological thinking:** it was created on the basis of the myth of "Cassandra's Brand", "Cassandra and Apollon", "The Eternal Wanderer" and "Agaspherus". Both creators used the content of the myth as an artistic template, that is, the myth formed the basis of the content of the novel; **scientific thinking:**in the novels, the tragic consequences of scientific discoveries about the creation of artificial embryos, that is, when Philofeus faced

eternal death in space, Professor Zia was destroyed by a storm. The reality in the novels runs parallel to the sky and the earth. Writers skillfully described the secrecy of the technocratic world precisely in the parallel of horizontal and vertical space. The social chronotope in the novels "Cassandra's Brand" and "The Eternal Wanderer" is like a prophecy warning of the danger that may occur in the future due to the current scientific and technical discoveries. The social chronotope in the novels includes issues such as man and nature, man and society, man and modern discoveries, and their conflicting relations. In both novels, religious and worldly imaginations, writers' observations about the Truth and reality provided the parallelism of psychological and fantastic chronotopes. The philosophy of life, the world and human relations are created in a unique style. In the novel " The Eternal Wanderer " there is a synthesis of scientific-philosophical and artistic laws, that is, the influence of scientific-technical development on the fate of mankind, the problems of philosophical perception of the world are artistically interpreted.

The novel "Cassandra's Brand" is a science fiction novel, in which the main character conducts experiments aimed at destroying the human gene pool, first on earth, then in the sky. A. Rashidov, a skilled translator of the writer's literary works, emphasizes that such experiments bring destruction to mankind: "The reader who gets acquainted with the novel seems to hear the writer's exclamation: "O people, if God has given you one of his innumerable qualities, creativity, why are you abusing it and trying to create a person in your own way, destroying the eternal stability of life? As if earthquakes, ecological tragedies, nuclear tests, massacres between neighboring peoples, crime, terrorism, drug addiction, and prostitution are not enough, you are interfering with the work of the Creator by creating an artificial person? Don't you incur His wrath by these actions?". The protagonist describes himself as "the stalker and invisible executioner of Fatherhood and Motherhood". The fate of the x-generation created today fills the writer with deep thoughts.

Philopheus laments his researches in his penitence to the Pope and Anthony Junger: "Nobody knows that I'm cursing myself, calling myself a filthy masochist and a puppy!" So, the writer, with his fantastic ideas, strongly emphasizes that any scientific discovery should be mobilized for the development of mankind. The ideas in Isajon Sultan's novel " The Eternal Wanderer" seem like a logical continuation of the events of "Cassandra's Brand". The first chapter in " The Eternal Wanderer " is presented in the form of an address to the hero of Hazrat's prophecy, this prospectus prophecy is repeated three times in the text of the work

according to the creative goal of the writer. He points out that he was not the only one who was destined with wanderlust, that there are countless people who rejected the divine gospel and lost their destination in life: "You will be condemned to such a fate because of an apparent blessing in the eyes of the people. But during your lifetime, you will see countless people who have rejected the divine gospel in their lives and have taken wanderlust on their necks. Their life will not be a bit different from yours, but unlike you, they will die a hard and painful death. But your name will remain in history, while others live with this fate, they will be swept off the face of the earth without a trace. . . ". The author, who made good use of the prospecting method, gives the first information about the life of the hero, his condemnation to eternal wander. I. Sultan creatively used the plot of the legend of Agasfer in the novel. The legend of Agaspherus (or Eternal, the Wandering Jew) originated in Italy in the 13th century and spread throughout Europe. The most famous is the German version of the legend, which served as the basis for later versions from the 1770s onwards. The legendary image of the shoemaker Agaspherus (lat. Ahasuerus) from Jerusalem, who offended Jesus Christ, being taken to Gulqaf, and was condemned to eternal wander, entered the German literature at the end of the 18th century and later spread widely in the literature of various nations. Abdugafur Rasulov explains the history of this image in the article "Mangulik suvi"(“The water of eternity”) as follows: "The image of The Eternal Wanderer, which appeared in the world's fiction quite late - in the thirteenth century, first appeared in 1228, in the "Great Chronicle" of the Englishman Roger Wendoversky, compiled by Matthew from Paris. This information is interpreted in almost the same way in the Brockhaus and Efron encyclopedia, the free encyclopedia "Wikipedia", the encyclopedia "Academic Literature" and the "Great English Encyclopedia". According to Roger's interpretation, he is the doorman of the procurator Pontius Pilate, whose name is Kartaphilos (meaning poor), and he is not an eternal wanderer, but an eternal resident. . . . In other later interpretations, his name appears as Buttadeus, Malchus, or Jan Rhoduin (the name of Caiaphas' slave). Now he appears as a wretch doomed to wander among stone cellars. In these interpretations, we see that the narrative is adapted to the requirements of the novel-adventure, which was a tradition in the sixteenth-seventeenth centuries”.

So, the writers managed to synthesize Eastern and Western traditions in their novels and rework the plot with Islamic ideas. The narrative presented in the novel "The Eternal Wanderer" serves the purpose of revealing the difference between living as a real wanderer and creating the eternal living gene of mankind in the modern era, and how ineffective and useless both of them are. I. Sultan's prospecting prediction is consistent with Ch. Aitmatov's dangerous prediction about the future of humanity in the novel "Cassandra's Brand". The prospectus prediction of both writers has become a global problem that is extremely difficult to solve today.

TILO'QITIShDA KOMMUNIKATIV TA'LIM VA KOMMUNIKATIV KOMPeTeNSIYa NAZARIYaSI TATBIG'I

Zilola XUDAYBERGENOVA

ANNOTASIYA

Tillarni o'qitish metodikasida so'nggi yillarda faol tatbiq etilishi tavsiya etilayotgan kommunikativ ta'lim usullari va texnologiyasi ona tilini o'qitishda ham, chet tilini o'qitishda ham asosiy talablardan biriga aylanmoqda. Zero, ona tili yoki chet tilini bilish nafaqat tilning grammatik qurilishini, leksik boyligini bilishni taqozo etadi, balki muloqotga kirishish chog'ida so'zlar va jumlalarni, hattokiqo'shichalarni ham to'g'rihamda o'rnida qo'llashni taqozo etadi.

Chet tilini kommunikativ o'qitishda asosiy o'rinni o'yin vaziyatlari, sherik bilan ishlash, xatolarni topish egallaydi, bu nafaqat so'z boyligini oshirishga imkon beradi, balki analitik fikrlashni ham o'rgatadi. Kommunikativ texnika - bu, birinchi navbatda, chet tilini o'rganishga pragmatik yondashuv. O'quvchini chet tilidan qisqa muddatda hayotda qo'llashga tayyorlash uchun bilimning fundamental xususiyatini ma'lum darajada qurbon qiladi.

Biroq, kommunikativ ta'lim sohasidagi so'nggi tadqiqotlar kommunikativ yondashuvga mos keladigan til o'rganish nazariyasini aniqlashga harakat qilmoqda. Bizning fikrimizcha, kommunikativ til o'rganish nazariyasi o'quvchilarning lingvistik, ijtimoiy, kognitiv va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak, degan xulosaga keldik.

Kommunikativ yondashuv o'quv jarayoni o'quvchiga qaratilganligini nazarda tutadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagi vazifasi sinfda muloqot va kommunikativ vazifalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarni kuzatadi, ularni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ularning lug'atidagi bo'shliqlarni to'ldirmaydi; keyingi muhokama va o'qitish uchun grammatik yoki kommunikativ xatolarni qayd etadi;

mashqlar bajarilgandan so‘ng, o‘qituvchi faoliyat tahliliga rahbarlik qiladi va guruhga o‘zini o‘zi nazorat qilishga yordam beradi.

Kommunikativ ta’lim bo‘yicha adabiyotlarda tilning kommunikativ jihatlari batafsil muhokama qilinadi, biroq tilni kommunikativ o‘rganish nazariyasi amalda tasvirlanmagan. Uning ayrim elementlarini kommunikativ ta’lim vazifalarida ko‘rish mumkin. Ushbu elementlardan birini kommunikativlik tamoyili deb atash mumkin, unga ko‘ra haqiqiy muloqotni o‘z ichiga olgan faoliyat til o‘rganishga yordam beradi. O’quv topshiriqlarining turlari va ularning tartibi talabani tildan faol mazmunli foydalanishga jalb qilish darajasiga qarab tanlanadi. Mazkur maqolada kommunikativ ta’limning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivoji tarixi, kommunikativ kompetensiya nazariyasi, kommunikativ ta’limning texnologiyasi va usullari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar

Til, Metodika, Kommunikativ Ta’lim, Kommunikativ Kompetensiya, Usul, O’qituvchi

APPLICATION OF COMMUNICATIVE LEARNING AND COMMUNICATIVE COMPETENCE IN LANGUAGE TEACHING

ABSTRACT

Communicative education methods and technology, which are recommended to be actively implemented in language teaching methodology in recent years, are becoming one of the main requirements in both mother tongue and foreign language teaching. After all, knowing the mother tongue or a foreign language requires not only knowledge of the grammatical construction and lexical richness of the language, but also the correct and appropriate use of words and sentences, even phrases, when communicating.

In the communicative teaching of a foreign language, the main place is occupied by game situations, working with a partner, finding mistakes, which not only allows to increase vocabulary, but also teaches analytical thinking. Communicative technique is, first of all, a pragmatic approach to learning a foreign language. In order to prepare the student to use the foreign language in life in a short period of time, it sacrifices to some extent the fundamental nature of knowledge.

However, recent research in the field of communicative learning attempts to define a theory of language learning that is consistent with a communicative approach. In our opinion, it was concluded that the theory

of communicative language learning should be developed taking into account the linguistic, social, cognitive and individual characteristics of students.

Communicative approach assumes that the learning process is focused on the student. Therefore, the task of the teacher as an organizer of the educational process is to create a comfortable environment for the implementation of communication and communicative tasks in the classroom. During the lessons, the teacher observes the students, supports them, but does not fill in the gaps in their vocabulary; notes grammatical or communicative errors for further discussion and teaching; after the exercises are completed, the teacher guides the analysis of the activity and helps the group to self-monitor.

The communicative aspects of language are discussed in detail in the literature on communicative learning, but the theory of communicative language learning is not described in practice. Some of its elements can be seen in communicative educational tasks. One of these elements can be called the principle of communicativeness, according to which activities involving real communication contribute to language learning. The types of educational tasks and their order are selected depending on the level of involvement of the student in the active meaningful use of the language.

This article provides information about the history of emergence, formation and development of communicative education, theory of communicative competence, technology and methods of communicative education.

Key words

Language, Methodology, Communicative Education, Communicative Competence, Method, Teacher

Kirish

Ma'lumki, chet tillarini o'rganish har bir sohaning rivojiga, dunyo miqyosida tanilishiga olib boradi. Har qanday sohaning bir shahar, qishloq yoki o'lka miqyosidan tashqariga chiqishi uchun dunyo tillarini o'rgatish va o'rganishga jiddiy e'tibor qaratiladi. Basharti tillarni o'qitish nazariyasi amaliyoti tarixiga diqqat qaratsak, til o'qitish metodikasi sohasida o'tgan asrda va bu asrda yangidan-yangi texnologiyalar va metodikalarning yaratilayotgani va amalda tatbiq etilayotgani kuzatiladi. Yangi asrda, xususan, til o'qitishning asosan og'zaki ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarini yaratish, amalda qo'llash va ularning samaradorligini aniqlashga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Avvalgi asrning ikkinchi yarmida o‘rtaga chiqqan madaniyatlararo muloqot nazariyasi, ayniqsa, til o‘qitish borasida madaniyatni va muloqot qilishni o‘rgatish vazifalarni dolzarb holatga keltirdi. Chunki tilning grammatik tuzilishi va grammatik qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, so‘z va iboralarni yodlashning o‘zi chet elliklar bilan muloqot qilish va bu muloqotdan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yetarli emasligi kunday ayon bo‘ldi. Natijada chet tilida samarali muloqotga erishishga qaratilgan yangicha til o‘qitish nazariyalari va amaliyotlari kashf etildi. Chet tillarini o‘qitishning kommunikativ nazariyasi va kommunikativ kompetentlik tushunchasi ham ana shunday tadqiqotlar natijasi sifatida maydonga chiqdi.

Adabiyotlar shahri

Chet tillarini o‘qitishga kommunikativ yondashuvni rivojlantirish tilning kommunikativ nazariyasiga asoslanadi. Til o‘rganish maqsadi Deli Xayms "kommunikativ kompetensiya" deb ataydigan malakani egallashga aylandi [11 : 217–239]. Deli Xayms ushbu atamani – tilga bo‘lgan kommunikativ nuqtai nazarni Xomskiyning kompetensiya nazariyasiga qarama-qarshi qo‘yish uchun kiritdi[12 : 316–333]. Zero, N. Xomskiyning fikricha, til nazariyasi mutlaqo bir hil nutq hamjamiyatidagi ideal so‘zlovchi-tinglovchi bilan shug‘ullanadi [8 : 182—191]. Bunday ideal odam tilni mukammal biladi va xotiraning cheklanganligi, diqqatni chalg‘ishi, qiziqishning farqli bo‘lishi va shu kabi boshqa omillarga ta’sir qilmaydi [9 : 81—86]. Xomskiy uchun til nazariyasining asosiy vazifasi so‘zlovchining mavhum qobiliyatlarini tavsiflashdan iborat bo‘lib, unga chet tilida grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarni yaratishga imkon beradi, Xayms bu nuqtai nazarni samarasiz deb hisobladi; chunki til nazariyasi umumiyroq muloqot va madaniyat nazariyasining bir qismi sifatida qaralishi kerak [12 : 316–333]. Xaymsning kommunikativ kompetensiya nazariyasi ma’lum bir nutq jamoasida tushunilishi uchun ma’ruzachi nimani bilishi kerakligi haqidagi ta’rifga aylandi. Xaymsga ko‘ra, kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs quyidagi fikrlarni hisobga olgan holda tilni bilish va ishlatish qobiliyatiga ega [10 :74]:

- so‘z yoki ibora rasmiy nutqda qo‘llaniladimi (va qay darajada);

- so‘z yoki ibora qo‘llanilayotgan va baholanayotgan kontekstda maqbulmi (va qay darajada);

- so‘z yoki ibora bormi (va qay darajada) ma’no ifodalashning mumkin bo‘lgan vositalari nuqtai nazaridan mos keladi.

Kommunikativ yondashuvning asosini tashkil etgan muloqotning yana bir lingvistik nazariyasi M. Xollideyning tildan funksional foydalanishga

asoslangan qarashidir. “Tilshunoslik nutqiy harakatlar yoki matnlarni tavsiflash bilan shug‘ullanadi, holbuki, tilni harakatda o‘rganish orqaligina uning barcha funksiyalari va ma’no qirralarini ko‘rib chiqish mumkin” [1 : 145; 2]. M. Xollidey ona tilini o‘rganayotgan bola uchun til bajaradigan yettita asosiy funksiyani aniqladi:

1. Instrumental funksiya - biror narsani olish uchun tildan foydalanish.

2. Tartibga solish funksiyasi - boshqalarning xatti-harakatlarini boshqarish uchun tildan foydalanish.

3. Interaktiv funksiya - boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun tildan foydalanish.

4. Shaxsiy funksiya - o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini ifodalash uchun tildan foydalanish.

5 Evristik funksiya - dunyoni o‘rganish va bilish uchun tildan foydalanish.

6. Tasviriy funksiya - til yordamida xayolot dunyosini yaratish.

7. Reprezentativ funksiya - axborotni yetkazish uchun tildan foydalanish.

Kommunikativ yondashuv tarafdorlari chet tilini assimilyatsiya qilish bir xil tamoyillarga muvofiq - ma’lum bir funksiyani ifodalashning lingvistik vositalarini assimilyatsiya qilish bilan sodir bo‘ladi, deb ishonishgan.

Bir necha yil ichida ta’limga bunday yondashuv G’arbiy Yevropa va Amerika metodologiyasida yetakchi mavqega ega bo‘ldi. O’tgan asrning 60-yillarida Yevropa Kengashining ishiga asoslanib, "kommunikativ inqilob"ning birinchi to‘lqini til birliklarini kommunikativ funksiyaga (amerikalik tilshunoslarning terminologiyasida nutq akti) ko‘ra guruhlash g‘oyasiga asoslangan edi, masalan: uzr so‘rash, iltimos, maslahat va h. k. Til va funksiya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatni o‘rnatish ko‘pincha mumkin emas edi, chunki bir xil vazifani bir qancha lingvistik vositalar bilan bir qatorda tilga oid bo‘lmagan vositalar bilan ham ifodalash mumkin. Biroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan joylarda (masalan, uzr so‘rash, ruxsat so‘rashva boshqalar) bu metod haqiqiy lingvistik tavsif uchun emas, faqat ta’lim uchun kelishuv shakli sifatida ko‘rib chiqildi. Tilning bunday birliklari "namunalar" deb nomlangan. Rasmiy uslubdan norasmiy uslubgacha bo‘lgan “hudud”ni qamrab olgan "namunalar" to‘plami har qanday til funksiyasi bilan bog‘lanishi mumkin. Talabalarga ko‘pincha grammatika hisobiga bunday "namunalar" o‘rgatilgan. Rivojlanishning ushbu

bosqichida chet tilini o‘rgatishning o‘ziga xos usuli hali taklif qilinmagan, shuning uchun "tinglang va takrorlang", "tinglang va davom eting" kabi mashqlar darsda qo‘llanila boshlandi. Bunday namunaviy iboralarning nutqda qo‘llanilishi ko‘p jihatdan to‘g‘ri ritm va intonatsiyaga bog‘liq. Shunday qilib, har xil turdagi "mashqlar" o‘rganishning asosiy vositasi bo‘lib qoldi.

Kommunikatsiya inqilobining ikkinchi to‘lqini 1980-yillarning boshlarida paydo bo‘lib, asosan Buyuk Britaniyadan tarqaldi. Uning asosiy tamoyili o‘quvchilar nutqining to‘g‘riligi va uning ravonligi ustida ishlash bo‘ldi. Nutq to‘g‘riligini shakllantirishning maqsadi tilning yangi birliklarini (grammatik qoliplar, funksional modellar, lug‘at va h. k.) eslab qolish bo‘lsa, nutq ravonligini ta’minlash maqsadi o‘rganilayotgan materialdan nutqda foydalanishga EMAS, talabalarni erkin munozaraga jalb qilishga qaratilgan. Chet tili o‘qituvchilari ushbu ikki turdagi ishning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rishni o‘rgatishga harakat qilganda, nutqning to‘g‘riligi ustidagi ishlar muqarrar ravishda ravonlik ustida ishlashga aylanadi. Nutqning to‘g‘ri yoki ravonligiga qaratilganligidan qat’i nazar, barcha kommunikativ vazifalarning asosiy tamoyili "axborot bo‘shlig‘i" edi.

«Kommunikativ inqilob» chuqur asoslarga ega edi. "Axborot bo‘shlig‘i" orqali u nutqning to‘g‘riligi va uning ravonligiga o‘rgatishning barcha jabhalariga kirib bordi. Axborot bo‘shlig‘idan foydalangan holda nutqning to‘g‘riligiga o‘rgatish vazifasiga misol sifatida talabalar bir-birlaridan kundalik faoliyati haqida so‘rashganda qo‘llaniladigan "kommunikativ mashqlar"ni eslatib o‘tishimiz mumkin. Nutqning to‘g‘riligiga o‘rgatishda axborot bo‘shlig‘idan foydalanishga qaratilgan vazifaga misol sifatida talabalarning biron-bir haqiqiy muammoni muhokama qilganda kirishadigan erkin muhokama usuli e’tiborga loyiqdir. O’qituvchi muhokamani to‘xtatmaydi, unga aralashmaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni keyinroq ko‘rib chiqish uchun qayd etadi, xolos.

70-yillarning oxirida Stiven Krasheni tomonidan ishlab chiqilgan chet tilini o‘qitish nazariyasi tarqaldi, unga ko‘ra talabalar "haqiqiy muloqot ratsioniga rioya qilsalar" (bolaning ona tilini o‘rganishi kabi)chet tilini o‘rganishadi, ammo ular faqat tilni o‘rganishadi, chunki ular mashqlar bilan til o‘rganishadi [4]. Natijada ko‘pgina chet tili o‘qituvchilari ongsiz “o‘rganish” ongli “o‘rganish”dan ko‘ra samaraliroq va yaxshiroq degan fikrga keldilar. Bunday o‘qituvchilar sinf o‘ziga xos haqiqiy muloqot uchun joy bo‘lishi kerak, deb qaror qilishdi. Bu munosabat ongli ravishda til o‘rganishdan deyarli butunlay voz kechish evaziga hozir ham ko‘plab auditoriyalarda saqlanib qolmoqda. Entoni Xovatt kommunikativ ta’limning kuchli xilma-xilligi deb atagan bu o‘rganish turi edi [3 : 24].

Xovattga ko‘ra, kommunikativ ta’limning ikkita turi mavjud mavjud:

kuchli kommunikativ ta’lim;

zaif kommunikativ ta’lim.

70-yillarning ikkinchi yarmi - o‘tgan asrning 80-yillari boshlarida mashhur bo‘lgan "zaif kommunikativ ta’lim" versiyasi o‘quvchilarni maqsadli tildan kommunikativ maqsadlarda foydalanishga tayyorlashga qaratilgan va shuning uchun chet tilini o‘rgatish jarayoniga tegishli faoliyatni kiritishga harakat qiladi. Kommunikativ ta’limning "kuchli" versiyasida tilga muloqot orqali erishiladi, degan g‘oyani ilgari suradi, shuning uchun masala nafaqat til bo‘yicha mavjud passiv bilimlarni faollashtirish, balki til tizimining rivojlanishini rag‘batlantirish haqida ham ketadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, agar birinchi variantni "foydalanishni o‘rganish" deb qisqacha tavsiflash mumkin bo‘lsa, ikkinchisini"o‘rganish uchun foydalanish" deb atash mumkin.

Biroq, o‘shandan beri kommunikativ ta’limning bir qancha turli o‘rganish va idrok etishga asoslangan aralash modellari paydo bo‘ldi. Va mazkur aralash model hozirgi paytda eng mashhur bo‘lib ko‘rinadi, chunki o‘quvchi doimo ikkala jarayonni - o‘rganish va idrok etishni - u yoki buning qanchalik faolligini e’tiborga olgan holdaishlaydi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda o‘qituvchi ushbu mexanizmlarni o‘quvchilari tomonidan qanday, qanday ketma-ketlikda va qanday intensivlik bilan qo‘llashiga ta’sir qila olmaydi, deb ishoniladi.

Ba’zi tadqiqotchilar uchun tilni o‘rganishning kommunikativ usuli grammatika va funksional o‘rganishning oddiy birlashuvidan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi.

Uillyam Littlvudning fikricha, kommunikativ til ta’limining muhim xususiyatlaridan biri tilning o‘sha jihatlaridir. Ba’zilar buni o‘quvchilarning nutqiy fikrlash vazifalarini hal qilish jarayonida barcha to‘plangan lingvistik salohiyatdan foydalangan holda juftlik yoki guruhlarda ishlaydigan faoliyatdan foydalanish deb hisoblashadi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish milliy dasturi, asosiy tamoyili kommunikativ shart-sharoit tamoyili bo‘lib, til shakllarini belgilaydi» [5; 6 : 243-249]. Ushbu hujjatning kirish qismida kommunikativ maqsadlari juda boshqacha bo‘lishi mumkinligi aytiladi:

– kontent darajasi (til aloqa vositasi sifatida);

- lingvistik va instrumental daraja (til, semiotik tizim va o‘rganish ob’ekti);

- shaxslararo munosabatlar va xulq-atvorning hissiy darajasi (til o‘zi va boshqalar haqida baholash va mulohazalarni ifodalash vositasi sifatida);

- individual ta’lim ehtiyojlari darajasi (xatolarni tahlil qilish asosida tuzatuvchi ta’lim);

–umumiy ta’lim darajasi.

Ushbu maqsadlar umumiy, har qanday o‘quv sharoitida qo‘llaniladigan maqsadlar o‘laroq qabul qilinadi. Kommunikativ ta’limning maqsadlarini aniqroq tavsiflab bo‘lmaydi, chunki o‘qitish talabalarning ehtiyojlariga qaratilgan. O’qish, yozish, tinglash yoki gapirishga ustunlik berilishi mumkin. Har bir aniq kurs bo‘yicha reja va o‘quv maqsadlari talabalarning ehtiyojlari va ularning tayyorgarlik darajasiga muvofiq kommunikativ kompetensiyaning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi.

Kommunikativ ta’lim maqsadlarini aniqlashda kamida ikkita ishtirokchi ishtirok etishi muhimdir, bunda tomonlardan birining niyati til o‘rganish bo‘lsa, ikkinchi tomon o‘zaro ta’sirda bo‘lgan birinchi ishtirokchining nutqiniu yoki bu tarzda rivojlantiradi yoki unga munosabat bildiradi.

Chet tilini kommunikativ o‘qitishda asosiy o‘rinni o‘yin vaziyatlari, sherik bilan ishlash, xatolarni topish vazifalari egallaydi, bu nafaqat so‘z boyligini oshirishga imkon beradi, balki analitik fikrlashga o‘rgatadi. Kommunikativ texnika - bu, birinchi navbatda, chet tilini o‘rganishga pragmatik yondashuv. O’quvchini chet tilidan qisqa vaqt ichida hayotda foydalanishga tayyorlash uchun ma’lum darajada bilimning fundamental xususiyatini qurbon qiladi.

Devid Nunan kommunikativ ta’limning beshta asosiy xususiyatini aniqlaydi [7 :34]:

1. O’rganilayotgan tilda real muloqot orqali muloqotga o‘rgatishga urg‘u berish.

2. O’quv vaziyatiga autentik matnlarni kiritish.

3. Talabalarga nafaqat o‘rganilayotgan tilga, balki o‘quv jarayoniga ham diqqatini qaratish imkoniyatini berish.

4. O’quv jarayonining elementlaridan biri sifatida tinglovchilarning shaxsiy tajribasini jalb qilish.

5. Tilni akademik o‘rganishni uning haqiqiy muloqotda qo‘llanilishi bilan bog‘lashga urinish.

Kommunikativ yondashuvning mashhur namoyandalaridan biri D. Braun bunday o‘rganishga quyidagi tavsifni beradi: “Biz muloqotning grammatik elementlaridan tashqari, tilning ijtimoiy, madaniy va pragmatik xususiyatlarining tabiatini ham o‘rganamiz. Biz sinfda "haqiqiy" muloqotni yaratishning pedagogik vositalarini o‘rganamiz. Biz o‘quvchilarimizga nafaqat to‘g‘ri so‘zlashni, balki ravon so‘zlashni ham o‘rgatishga harakat qilamizki, bu masala ko‘p asrlar davomida chet tili o‘qituvchilarini qiziqtirib kelgan. Biz o‘quvchilarimizni sinfdan tashqarida tayyorlanmagan nutqni yaratish uchun vositalar bilan ta’minlaymiz. Biz o‘quvchilarimizni faqat bir lahzalik sinf topshiriqlari bilan emas, balki butun umri davomida chet tilini o‘rganishga undash haqida qayg‘uramiz. Biz talabalarni birgalikdagi faoliyatda teng huquqli sheriklar deb hisoblaymiz. Bizning sinfdagi mashqlarimiz talabalarni tilni o‘zlashtirishda eng yaxshi natijalarga erishishga ilhomlantiradigan har qanday vositalarni topishga qaratilgan.

Metodologiya

Chet tillarini o‘qitishning kommunikati nazariyasi va kommunikativ kompetentlik masalalarini o‘rganish uchun avvalombor mavzu yuzasidan adabiyotlarni aniqlash va tahlil etish usuli qo‘llanildi. Xususan, mavzuga aloqador atamalar va tushunchalarni ta’riflash va tavsiflash usullari tatbiq etildi. To‘plangan materiallar analiz usuli vositasida chuqur tahlil etildi. Qo‘lga kiritilgan natijalar sintez usuli yordamida umumlashlashtirildi. Bundan tashqari, mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlilida induksiya va deduksiya metodlari qo‘llanildi. Muallifning turk tilini chet tilida o‘qitish bo‘yicha 20 yillik hamda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish bo‘yicha 6 yillik amaliy tajribasi, chet tilini o‘qitish amaliyotida qo‘llanilgan metodlarining samarasi diqqatga olindi.

Natijalar

Kommunikativ ta’lim bo‘yicha adabiyotlarda tilning kommunikativ jihatlari batafsil muhokama qilinadi, biroq tilni kommunikativ o‘rganish nazariyasi amalda tasvirlanmagan. Uning ayrim elementlarini kommunikativ ta’lim vazifalarida ko‘rish mumkin. Ushbu elementlardan birini kommunikativlik tamoyili deb atash mumkin, unga ko‘ra haqiqiy muloqotni o‘z ichiga olgan faoliyat til o‘rganishga yordam beradi. Ikkinchidan, o‘quvchi uchun mazmunli bo‘lgan, o‘rganishga hissa qo‘shadigan vazifalarni bajarish uchun tildan foydalaniladigan vazifalarahamiyatli tamoyil sifatida shakllantirish mumkin. Uchinchidan, - o‘quvchi uchun ma’lum bir ahamiyatga ega bo‘lgan til o‘quv jarayoniga hissa qo‘shadi. O’quv topshiriqlarining turlari va ularning tartibi talabani tildan faol mazmunli foydalanishga jalb qilish darajasiga qarab tanlanadi.

Biroq, kommunikativ ta'lim sohasidagi so'nggi tadqiqotlarda kommunikativ yondashuvga mos keladigan til o'rganish nazariyasini ta'riflashga harakat qilinadi. Bizningcha, tilni kommunikativ o'rganish nazariyasini o'quvchilarning lingvistik, ijtimoiy, kognitiv va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish kerak, degan xulosaga keldi.

Boshqa olimlar (masalan, S. Krasen) tilni kommunikativ o'rgatish bilan mos keladigan tamoyillarni ishlab chiqdilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, u o'zlashtirishni til ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy jarayon deb hisoblaydi va uni o'rganishdan ajratadi. O'zlashtirishchet tilini real muloqotda qo'llash natijasida uni ongsiz ravishda o'rganishga asoslanadi. O'rganish – grammatik bilimlarni o'qituvchi tomonidan dastlabki tushuntirishdan keyin ongli ravishda ishlatish. O'rganish tilni o'zlashtirishga olib kelmaydi. Spontan nutq jarayonida biz faqat tilning o'zlashtirilgan tizimiga murojaat qilishimiz mumkin, o'rganilgan tizim esa nutqning to'g'riligini faqat "nazorat qiluvchi" bo'lishi mumkin. Krasen va kommunikativ ta'limning boshqa tarafdorlari til mashqlarda emas, balki faqat nutq jarayonida olinadi, deb hisoblashadi.

Kommunikativ ta'limdagi o'qituvchining roli an'anaviy ta'limdagi o'qituvchi rolidan ancha farq qiladi. Buniquyidagicha ta'riflashimiz mumkin:

O'qituvchining ikkita asosiy vazifasi bor:

Birinchisi, sinfdagi barcha o'quvchilar, turli topshiriqlar va matnlar o'rtasidagi muloqot jarayonini osonlashtirish.

Ikkinchisi – mustaqil va teng huquqli ishtirokchi sifatida muloqotda ishtirok etish. Bu ikki vazifadan bir nechta ikkinchi darajali vazifalar kelib chiqadi:

1)ta'lim manbalarini tanlash;

2)o'qituvchining o'zining manbaga aylanishi;

3)topshiriq va mashqlarni bajarishda yo'l-yo'riq ko'rsatish;

4)ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lish.

Bundan tashqari, tahlilchi, maslahatchi va o'quv jarayonining tashkilotchisi rolini ham bajaradi.

Tahlilchi sifatida o'qituvchi talabaning kognitiv ehtiyojlarini anglay olishi va ularni qondirish uchun hamma narsani qilishi kerak. Bu norasmiy tarzda, har bir o'quvchi bilan individual muloqotda amalga

oshirilishi mumkin. Bunday suhbatlarda o‘qituvchi o‘quvchi o‘z ta’lim uslubi va vositalarini, ta’lim ehtiyojlari va maqsadlarini qanday bo‘lishi lozimligini aniqlashi kerak. Rasmiy so‘rovnomada o‘quvchining tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan savollar qo‘llaniladi. Masalan, talabadan quyidagi fikrlarni besh balli tizimda baholash so‘ralishi mumkin (qat’iy roziman - qat’iyan qo‘shilmayman):

Men . ni o‘rganmoqchiman, chunki:

- O’ylaymanki, qachondir yaxshi ishga kirishimda menga foydali bo‘ladi.

- menga bu tilda gapiradigan odamlarni va ularning turmush tarzini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

- hurmat qozonishimga yordam beradi.

- menga qiziqarli odamlar bilan tanishish va muloqot qilish imkonini beradi.

- menga ish uchun kerak.

- menga shu tilda gapiradigan odamlar kabi fikrlash va o‘zimni tutishimga imkon beradi.

Bunday so‘rovlar natijalarini tahlil qilish asosida o‘qituvchi samarali til o‘qitish metodlarini maksimal darajada aniqlashga harakat qilishi kerak.

Xulosa

Kommunikativ yondashuv o‘quv jarayonining o‘quvchiga qaratilganligini nazarda tutadi. Shuning uchun o‘qituvchining o‘quv jarayoni tashkilotchisi sifatidagi vazifasi sinfda muloqot va kommunikativ vazifalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratishdan iborat. Mashg‘ulotlar davomidao‘qituvchi o‘quvchilarni kuzatadi, qo‘llab-quvvatlaydi, lekin ularning lug‘atidagi bo‘shliqlarni to‘ldirmaydi;grammatik yoki kommunikativ yanglishlarni keyingi muhokama qilish va o‘qitish uchun hisobga oladi; mashqlar bajarib bo‘lingach, o‘qituvchi faoliyatni tahlil qilishga rahbarlik qiladi va guruhga o‘z-o‘zini nazorat qilishiga yordam beradi.

Chet tilini kommunikativ o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘quv materiallari haqida gapirganda, shuni ta’kidlash kerak. ularning deyarli cheksiz xilma-xilligi kuzatiladi. Kommunikativ yondashuv tarafdorlari o‘quv materiallarini ta’lim kommunikatsiyasi sifativa tildan foydalanish sifatiga ta’sir qilish usuli sifatida ko‘rib chiqadilar. Shunday qilib, o‘quv materiallari tildan kommunikativ foydalanishni rag‘batlantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Halliday, M. , (1973), *Explorations in the Functions of Language at Google Books*, London, Edward Arnold.

2. Halliday, M. , (2002), On Grammar, Vol. 1 in The Collected Works of M. ,

3. Howatt Anthony, P. R. , (2004), *A history of English language teaching*, Oxford, Oxford University Press.

4. Krashen Stephen, D. , (1982), Principles and Practice in Second Language Acquisition (PDF). Oxford: Pergamon, .

5. Littlewood, W. , (2007), "Communicative and task-based language teaching in East Asian classrooms", *Language Teaching*, № 40 (3), 243-249.

6. Littlewood, W. , (1981), *Communicative language teaching: An introduction*, Cambridge, Cambridge University Press.

7. Nunan, D. , (1991.), *Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers (Prentice Hall International English Language Teaching)*, Prentice Hall.

8. Guryanova, N. V. , (1999), «Ponyatiye yazыka, znaniya yazыka i ovladeniya etim znaniyem v konsepsii yazыka i mыshleniya N. Xomskogo*», Uchyonыe zapiski Ulyanovskogo gosudarstvennogo universiteta*, (Seriya: Obrazovaniye), Ulyanovsk, UlGU, Vыp. 2, 182—191.

9. Kapishin, A. Ye. , (2002), «Generativnaya lingvistika» N. Xomskogo, *Inostrannыy yazыk v shkole,* 2, 81—86.

10. Xayms, D. , (1974), *Issledovaniya po istorii yazыkoznaniya: traditsii i paradigmы.* Blumington, Izdatelstvo Indianskogo universiteta.

11. Xayms, D. , (1976), "K lingvisticheskoy kompetensii", *Sotsiologicheskiye voprosы*, 4, 217–239.

12. Xayms, D. , (1974.), "Retsenziya na Noama Xomskogo", O Noeme Xomskom: kriticheskiye ocherki, Garden-Siti, Nyu-York, 316–333.

APPLICATION OF COMMUNICATIVE LEARNING AND COMMUNICATIVE COMPETENCE IN LANGUAGE TEACHING

EXTENDED ABSTRACT

Communicative education methods and technology, which are recommended to be actively implemented in language teaching methodology in recent years, are becoming one of the main requirements in both mother tongue and foreign language teaching. After all, knowing the mother tongue or a foreign language requires not only knowledge of the grammatical construction and lexical richness of the language, but also the correct and appropriate use of words and sentences, even phrases, when communicating. This article provides information about the history of emergence, formation and development of communicative education, theory of communicative competence, technology and methods of communicative education.

Based on the work of the Council of Europe in the 60s of the last century, the first wave of the "communicative revolution" was based on the idea of grouping language units according to the communicative function (speech act in the terminology of American linguists), for example: apology, request, advice, etc. It was often impossible to establish a direct relationship between language and function, since the same task could be expressed by a number of linguistic as well as non-linguistic means. However, where direct relationships can be established (e. g. , apologies, permission requests, etc.), this method has been considered only as a form of educational agreement, not for actual linguistic description. Such units of language are called "patterns". A set of "patterns" covering the "range" from formal style to informal style can be associated with any language function. Students were often taught such "patterns" at the expense of grammar. At this stage of development, a specific method of teaching a foreign language has not yet been proposed, so exercises such as "listen and repeat", "listen and continue" have been used in the lesson.

The second wave of the communications revolution emerged in the early 1980s, spreading mainly from Great Britain. Its main principle was to work on the correctness of students' speech and its fluency. If the goal of forming correctness of speech is to remember new units of language (grammatical patterns, functional models, vocabulary, etc.), the goal of ensuring fluency of speech is NOT to use the studied material in speech, but to engage students in free discussion. When foreign language teachers

try to teach how these two types of work are closely related, work on correctness of speech inevitably turns into work on fluency. The basic principle of all communicative tasks, regardless of whether the focus was on correctness or fluency of speech, was the "information gap".

In the late 1970s, the theory of foreign language teaching developed by Stephen Krasheny spread, according to which students learn a foreign language if they "follow a real communication diet" (like a child learning his mother tongue), but they only learn the language because they learn the language through exercises. As a result, many foreign language teachers have come to the conclusion that unconscious "learning" is more effective and better than conscious "learning". Such teachers decided that the classroom should be a place for authentic communication. This attitude persists in many audiences even now, at the cost of a conscious almost complete abandonment of language learning.

In the communicative teaching of a foreign language, the main place is occupied by game situations, working with a partner, finding mistakes, which not only allows to increase vocabulary, but also teaches analytical thinking. Communicative technique is, first of all, a pragmatic approach to learning a foreign language. In order to prepare the student to use the foreign language in life in a short period of time, it sacrifices to some extent the fundamental nature of knowledge.

However, recent research in the field of communicative learning attempts to define a theory of language learning that is consistent with a communicative approach. In our opinion, it was concluded that the theory of communicative language learning should be developed taking into account the linguistic, social, cognitive and individual characteristics of students.

Communicative approach assumes that the learning process is focused on the student. Therefore, the task of the teacher as an organizer of the educational process is to create a comfortable environment for the implementation of communication and communicative tasks in the classroom. During the lessons, the teacher observes the students, supports them, but does not fill in the gaps in their vocabulary; notes grammatical or communicative errors for further discussion and teaching; after the exercises are completed, the teacher guides the analysis of the activity and helps the group to self-monitor.

O‘ZBEKISTONNING KO‘P MADANIYATLI JAMIYATIDA XORIJIY TILLAR: IJTIMOIY-MADANIY JIHAT

Sh. M. Sultonova

Maqolada zamonaviy dunyoda ko‘p tillilik fenomenining empirik tavsifi va nazariy tadqiqotlar yo‘nalishlari haqida umumiy ma’lumot berilgan. Ta’kidlanadiki, ko‘p tillilikning asosiy sababi tarixdan shakllangan bir hududda ikki yoki undan ortiq xalqlarning birgalikda yashashidir. Bunday holatlar zamonaviy dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, natijada yer aholisining yarmidan ko‘pi u yoki bu darajada ko‘p tilli hisoblanadi. Bir madaniyat chegaralarida bir nechta tillardan foydalanish zamonaviy sharoitda davlat va mintaqaviy darajada tartibga solishni talab qiladi. Maqolada O‘zbekistonning bu boradagi tajribasi ko‘rib chiqilgan. Amaliy ehtiyojlar ko‘p tillilikni chuqur nazariy tushunish zarurligini taqozo etadi. Bunday tushunish amalga oshiriladigan bilimlarning asosiy yo‘nalishlari sifatida tilshunoslik (sotsiolingvistika, neyrolingvistika), pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik ajratib olindi va har bir fan tomonidan ko‘p tillilik fenomenini o‘rganish yo‘nalishi aniqlandi. Shunday qilib, tilshunoslikda ko‘p tillilikning har xil turlari ko‘rib chiqiladi (xususan, ijtimoiy va individual, tabiiy va ta’lim ko‘p tilliligi farqlanadi), neyrolingvistikada turli tillardan foydalanganda miya faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, psixologiya va pedagogikada ko‘p tillilikni shakllantirishning didaktik usullari va ushbu jarayon bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan muammolar, madaniyatshunoslikda ko‘p tillilik va shaxsning madaniy o‘ziga xoslik aloqalari, madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda ko‘p tillilikning mumkin bo‘lgan roli o‘rganiladi. Hozirgi vaqtda ko'p tillilik fenomenining aniq ta'rifi yo'qligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun muammodir hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda, subyektning tilni bilish darajasidan kelib chiqqan holda ko'p tillilik haqida gapirish imkoniyatini beruvchi mavjud o’rinlar va ushbu savolga mumkin bo'lgan javoblar keltirilgan.

Kalit so‘zlar

ko‘p tillilik, ikki tillilik, madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, madaniy o‘ziga xoslik, madaniyatda til maqomi.

FOREIGN LANGUAGES IN MULTICULTURAL SOCIETY OF UZBEKISTAN: SOCIO-CULTURAL ASPECT

Sh. M. Sultonova

Annotation

The article provides general information about the empirical description of the phenomenon of multilingualism in the modern world and the directions of theoretical research. It is noted that the main reason for multilingualism is the coexistence of two or more peoples on the same historical territory. Such situations are common in the modern world, and as a result, more than half of the world's population is multilingual to one degree or another. The use of several languages within the boundaries of one culture in modern conditions requires regulation at the state and regional level. The article discusses the experience of Uzbekistan in this regard. Practical needs require a deep theoretical understanding of multilingualism. Linguistics (sociolinguistics, neurolinguistics), pedagogy, psychology, cultural studies were identified as the main areas of knowledge in which such understanding is carried out, and the direction of studying the phenomenon of multilingualism was determined by each discipline. Thus, in linguistics, various types of multilingualism are considered (in particular, social and individual, natural and educational multilingualism are distinguished), in neurolinguistics, specific features of brain activity when using different languages are determined, in psychology and pedagogy, didactic methods for the formation of multilingualism and possible problems of this process related to cultural studies are studied, the connection between multilingualism and human cultural identity, the possible role of multilingualism in the development of intercultural ties. Currently, the lack of a clear definition of the phenomenon of multilingualism is a problem for theoretical and practical research. In this study, based on the level of language proficiency of the subject, the available positions that give the right to talk about multilingualism and possible answers to this question are presented.

The most important achievement of this period is the inter-ethnic and inter-religious agreement, which served as a guarantee of peace and

stability, improvement of the effectiveness of reforms. The people of Uzbekistan have gone through a difficult path to achieve international harmony. From the first days of independence, tolerant ethnopolitics was aimed at abandoning the old dogmas and introducing the ideas and principles of national independence into people's minds and morally renewing the society. In our opinion, in order to improve inter-ethnic relations and interpersonal understanding, mastering the national language by representatives of all nationalities living in the territory of Uzbekistan is important.

The functioning of the educational system in 7 languages is a proof of the effectiveness of the ethnic and language policy of the Republic of Uzbekistan. It should be noted that the number of schools where education is conducted in the Russian language is second only to the schools taught in the Uzbek language.

Education is conducted in Uzbek and Russian languages in all higher educational institutions of Uzbekistan, and in Karakalpak, Uzbek and Russian languages in the Republic of Karakalpakstan. In addition, many higher education institutions have departments and groups that teach in the languages of the local ethnic groups of Uzbekistan: Kazakh, Tajik, and Turkmen.

The country pays serious attention to learning foreign languages. Based on regional characteristics, there are lyceums for in-depth study of English, German, Korean, Chinese, Japanese, Arabic, Iranian and Hebrew languages.

Support and popularization of multilingualism helps to better understand and penetrate into the national traditions of other cultures, expand the knowledge and opportunities of the citizens of Uzbekistan, as well as learning the languages of other nations provides an opportunity for understanding and cooperation in any sphere of social life, and not only in language policy's strategic goal, but also state security policy. If, according to the previous traditional understanding, the language was accepted in the educational system only as an object of learning, today there is a tendency to learn the language as a means of acquiring other knowledge and skills, because there is a great demand for modern professionals who know the language and have the following skills: application in the field of professional activity; computer literacy and use of information and communication technologies; to be able to use almost all types of speech activity in a foreign language and to communicate professionally in a foreign language in the context of business cooperation; ability to work in a team, i. e. : be outgoing, courteous,

quickly solve problems and prevent conflicts, pay attention to proposals and innovative ideas; constantly improving the level of knowledge of a foreign language, because many companies and enterprises, as well as educational institutions, have foreign partners and develop relations with them. Therefore, it can be noted that many languages cease to exist only as a language of instruction, and the need to create an innovative foreign education strategy that corresponds to the spirit of the times is becoming clear.

Key words

multilingualism, bilingualism, cultural interaction, cultural identity, language status in culture.

Kirish

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo aholisining yarmidan ko‘pi kamida ikkita tilni bilishadi. Tarixan shakllangan ikki yoki undan ortiq tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning bir hududda yashashi va natijada guruhlararo/millatlararo aloqa tili yoki tillarini tanlash zarurati tabiiy ko‘p tillilikning asosiy sababidir. Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan ushbu hodisa hozirda davlatlar yoki ittifoqlarning til siyosati doirasida tartibga solinadi, bu Konstitutsiya matnlari va til siyosati to‘g‘risidagi qonunlarda mustahkamlangan.

Adabiyotlar sharhi

Ko‘p tillilik muammolari o‘nlab yillar davomida g‘arb olimlarining fikrini egallab kelmoqda. Shu bilan birga, ikki tillilik tadqiqotchilari D. Xamers va M. Blanshning ta’kidlashicha, “bilingvizm” tushunchasining o‘zi hali ham aniq ilmiy ta’rifga va aniq mezonlarga ega emas va bu so‘zning orqasida nima borligi haqidagi munozaralar bugungi kungacha davom etmoqda [14].

Katta yoshlilar tomonidan ikkinchi tilni o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, S. Krashen ongosti yoki tabiiy jarayon deb hisoblanuvchi “o‘zlashtirish” (acquiring) va ongli yoki boshqariladigan jarayon sifatida qaraladigan “o‘rganish (learning) tushunchalarining tubdan farqli ekanligini ta’kidlaydi. O‘zlashtirishning zaruriy sharti – bu tilda mazmunli o‘zaro ta’sir (meaningful interaction), ya’ni tabiiy aloqa, bunda so‘zlovchilar gap shakli haqida emas, fikrni yetkazib berish yoki tushunishlari kerak bo‘ladi; bu jarayonda xatolarni tuzatish yoki qoidalarni tushuntirish noo‘rin. Aksincha, ongli ravishda o‘rganilganda, xatolarni tuzatish va qoidalarni tushuntirish foydali hisoblanadi [12, 2-b.]. Tadqiqotchi, shuningdek, til muhitining ikki turini

qiyoslaydi: o‘rganish paytidagi sun’iy yoki rasmiy sinf muhiti va o‘zlashtirish paytidagi tabiiy yoki norasmiy muhit [15, 40-b.].

Ikki va ko‘p tilli odamlarning ijtimoiy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib shiqqan holda, tadqiqotchilar bilinguallarning madaniy o‘ziga xosligini aniqlash muammosini ilgari suradilar, bu esa til va umuman madaniyatning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq. Mashhur sovet va Rossiya tilshunosi Ye. S. Kubryakovaning fikricha, “. . . qaysidir vaqtda bir madaniyatda yaratilgan va uning xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita o‘zida saqlamagan lingvistik hodisalar yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” [4, 129-bet].

Psixolingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, til o‘z-o‘zicha mavjud emas, balki insonning ma’lum bir madaniyat doirasida o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan umumiy xulqida qo‘llaniladi. Ya’ni, til madaniyatning namoyon bo‘lishi yoki madaniyatni belgilaydigan o‘zgaruvchilardan biridir [3, 5], ammo shu bilan birga, teskari jarayon ham sodir bo‘ladi – til xulqi madaniyatni shakllantiradi. Bir nechta tillarda so‘zlashuvchilar aloqa sohasida ko‘proq tajribaga ega va aloqa qiyinchiliklarini yaxshiroq yengib o‘tishlari, turli madaniyatlar vakillari bilan muloqotda o‘zlarini dadil his qilishlari taxmin qilinadi. Biroq, F. Grojan ikki tilli odamlarga qaraganda ikki madaniyatli odamlar kamroq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, barcha ikki madaniyatli odamlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: ular ikki yoki undan ortiq madaniyatlarda yashaydilar, ular hech bo‘lmaganda qisman ushbu madaniyatlarga o‘zlarining qarashlari, qadriyatlari, xulq-atvori va boshqalar nuqtai nazaridan moslashadilar, ular ushbu madaniyatlarning ba’zi jihatlarini aralashtiradilar.

Ko‘p tillilik va ko‘p madaniyatlilik o‘rtasidagi muhim farqi shundaki, ikki tillilar odatda ma’lum vaziyatlarda tillardan birini deaktivatsiya qilishi va faqat ikkinchisidan foydalanishi mumkin, ikki madaniyat tashuvchilari esa bir madaniyatli muhitda bo‘lsa ham har doim ham boshqa madaniyatning xususiyatlarini deaktivatsiya qila olmaydi [8]. Shu bilan birga, alohida shaxsning ko‘p tillilik darajasi va boshqa odamlarning fikrlari va kechinmalarini tushunish qobiliyatini anglatuvchi kognitiv empatiya darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlangan. Qayta aloqa ham bo‘lishi mumkin, bunda kognitiv empatiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar chet tillarini faolroq o‘zlashtiradi va ishlatadi, shuning uchun ko‘p tillilikning yuqori darajalariga erishadi [11].

Yuqorida aytilganlarning barchasi, ikki tillilik tabiiy ravishda (erta bolalik davrida tilni o‘zlashtirish), ta’lim olish jarayonida (maktab va universitetda tilni o‘rganish) yoki uzoq vaqt boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tib o‘rganishdan qat’iy nazar, ikki tillilar nafaqat ko‘p tilli, balki

ko‘pincha ko‘p madaniyatli odamlar deb hisoblanishi mumkin degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, chunki tegishli madaniyatni bilmasdan tildan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin emas. Ikki tilli odam o‘zini ikki til jamoasiga tenglashtiradi va ikki madaniy an’anani egallagan bo‘ladi yoki hech bo‘lmaganda ikki xil madaniyatni tushunishi mumkin. Bu esa unga turli xil g‘oyalar, xulq shakli va urf-odatlarni tushunishda bir tilli odamlarga nisbatan ustunlik beradi.

Metodologiya

Til – bu erkin tabiatning ko‘p funksiyali belgilar tizimi bo‘lib, u orqali inson aloqasi turli xil kommunikatsiya va translyatsiya darajalarida, shu jumladan fikrlash operatsiyalari, xabarlarni (signallar, ma’lumotlar, bilimlar) olish, saqlash, o‘zgartirish va uzatish amalga oshiriladi. Til madaniyatning eng muhim toifalaridan biridir, chunki inson dunyoqarashi aynan til orqali shakllanadi va ifodalanadi. Biroq, til nafaqat vosita, balki insonning hayotiy tajribasini belgilaydigan, inson shakllanadigan va yashaydigan muhitdir. Hatto aytish mumkinki, odam go‘yo til ichida yashaydi, bunda doimo uning ta’sirini boshdan kechiradi.

Til nafaqat inson dunyosi va uning madaniyatini aks ettiradi. Tilning eng muhim vazifasi shundaki, u madaniyatni saqlaydi va uni avloddan-avlodga yetkazadi. Shuning uchun til shu qadar muhim rol o‘ynaydiki, uni shaxsni, milliy xarakterni, xalqni, millatni shakllantirishda hal qiluvchi deb ham atash mumkin.

19-asrda nemis faylasufi va pedagogi Gumboldtning lingvistik konsepsiyasida – “xalq ruhi” va tilining tengligi haqidagi ta‘limotda til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri masalasi ko‘tarilgan, bu mutaxassislar – madaniyatshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar uchun ilmiy qiziqish doirasiga kirgan.

Konferensiya mavzusi va biz tanlagan ma’ruza mavzusiga asoslanib, siz bilan ko‘p millatli O‘zbekiston hududida ko‘p tilli bo‘lish, shuningdek, chet tillarini o‘rganish bo‘yicha ba’zi fikrlar bilan bo‘lishishni lozim topdik.

Til ta’limi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari yangi avlodini madaniyatlararo tarbiyalash va xalqaro rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan davlat mustaqilligini e’lon qilish nafaqat o‘zbek xalqi, balki O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar hayotida yangi davrning boshlanishi bo‘ldi.

Ushbu davrning eng muhim yutug‘i tinchlik va barqarorlik, islohotlar samaradorligini oshirish garovi bo‘lib xizmat qilgan millatlararo va dinlararo kelishuvdir. Millatlararo totuvlikka erishish yo‘lida O‘zbekiston

xalqi qiyin yo‘lni bosib o‘tdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tolerant etnopolitika eski dogmalardan voz kechishga va odamlarning ongiga milliy mustaqillik g‘oyalari va tamoyillarini joriy etishga va jamiyatni ma’naviy yangilashga qaratilgan edi. Bizning fikrimizcha, millatlararo munosabatlar va shaxslararo o‘zaro tushunishni yaxshilash uchun O‘zbekiston hududida yashovchi barcha millat vakillari tomonidan davlat tilini o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek: “Agar rus millati vakillari o‘zbek tilini, o‘zbeklar esa chet tilini bilsalar va bizning yoshlarimiz uchinchi tilni ham o‘rgansalar yaxshi emasmi?”. Albatta, bunday qiyin vazifa ko‘p vaqt va kuch talab qiladi va eng muhimi, har qanday til muammosini boshqa millatlarning manfaatlariga putur yetkazmasdan hal qilish kerak.

Ta‘lim tizimining 7 tilda faoliyat yuritishi O‘zbekiston Respublikasining etnik va til siyosati samaradorligining isboti hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar soni o‘zbek tilida o‘qitiladigan maktablardan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekistonning barcha oliy o‘quv yurtlarida ta’lim o‘zbek va rus tillarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa qoraqalpoq, o‘zbek va rus tillarida olib boriladi. Bundan tashqari, ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekistonning mahalliy etnoslari: qozoq, tojik, turkman tillarida o‘qitiladigan bo‘limlar va guruhlar mavjud.

Mamlakatda chet tillarini o‘rganishga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Mintaqaviy xususiyatlarga asoslanib, ingliz, nemis, koreys, xitoy, yapon, arab, eron va ivrit tillarini chuqur o‘rganadigan litseylar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Jamiyatda ko‘p tillilik ommaviy axborot vositalarining 12 tilda yuritilishida ham aks etadi. Ushbu tillar orasida chet tili eng faol til hisoblanadi, aksariyat axborot-ko‘ngilochar dasturlar ikki tilda – o‘zbek va rus tillarida efirga uzatiladi. Respublikaning ko‘plab aholisi, ayniqsa yirik shaharlar uchun rus tili ko‘p millatli muhitda vositachi til sifatida, turli sohalardagi shaxslar uchun esa ilmiy-texnik axborot tashuvchisi sifatida qabul qilinadi.

Ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlash va ommalashtirish boshqa madaniyatlarning milliy an’analarini yaxshiroq tushunish va ularga kirib borish, O‘zbekiston fuqarolarining bilim va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, shuningdek, boshqa xalqlar tillarini o‘rganish ijtimoiy hayotning har qanday sohasida tushunish, hamkorlik qilish imkoniyatini beradi va nafaqat til siyosatining strategik maqsadi,

balki davlat xavfsizligi siyosati hamdir. Agar ilgarigi an'anaviy tushunchaga ko'ra til ta'lim tizimida faqat o'rganish obyekti sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda tilni boshqa bilim va ko'nikmalarni egallash vositasi sifatida o'rganish tendensiyasi mavjud, chunki til biluvchi, quyidagi qobiliyatlarga ega, zamonaviy kasb egalariga talab katta: olingan bilimlarni kasbiy faoliyat sohasida qo'llash; kompyuterni bilish va axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; chet tilidagi nutq faoliyatining deyarli barcha turlaridan foydalana olish va biznes hamkorligi sharoitida chet tilida professional muloqot qilish; jamoada ishlay olish, ya'ni: chiqishimli, xushmuomala bo'lish, muammolarni tezda hal qilish va nizolarni oldini olish, takliflar va innovatsion g'oyalarga diqqat bilan qarash; chet tilini bilish darajasini doimiy ravishda oshirish, chunki ko'pgina kompaniyalar va korxonalar, shuningdek, ta'lim muassasalari xorijiy sheriklarga ega va ular bilan aloqalarni rivojlantirmoqdalar. Demak, shuni ta'kidlash mumkinki, ko'plab tillar shunchaki o'qitish tili sifatida mavjud bo'lishni to'xtatmoqda va zamon ruhiga mos innovatsion xorijiy ta'lim strategiyasini yaratish zarurati aniq bo'lmoqda.

Shunday qilib, ushbu muammoni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi rahbariyati respublikaning barcha xalqlariga teng huquq va imkoniyatlar yaratib, lingvistik sohadagi etnik siyosat masalalarini hal etishga ustuvor ahamiyat berayotganini ko'rsatdi.

Ma'lumki, har qanday til ta'limining natijasi shakllangan til shaxsi bo'lishi kerak, chet tillari sohasidagi ta'limning natijasi esa insonning madaniyatlararo aloqada to'liq ishtirok etish qobiliyatining ko'rsatkichi sifatida ikkinchi darajali til shaxsi bo'lishi kerak.

Ushbu qobiliyat o'rganilayotgan tilning verbal-semantik kodini, ya'ni ushbu til tashuvchilarining "dunyoning lisoniy manzarasini" (ikkilamchi lingvistik ongni shakllantirish) va "dunyoning global (konseptual) manzarasini" o'zlashtirishdan iborat.

Boshqacha qilib aytganda, ikkilamchi lingvistik shaxs konseptini metodologik sifatida qabul qilish shuni anglatadiki, chet tillarini o'qitishning zamonaviy jarayonida turli xil lingvistik hodisalarni emas, balki jahon va milliy madaniyatlar kontekstida turli xil konseptual tizimlarni taqqoslashga alohida e'tibor berilmoqda. Taqqoslash o'quvchilarning o'zlarini madaniy-tarixiy subyekt sifatida universal mohiyatini anglashlarini ko'zlaydi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda chet tillarini o'qitish sohasidagi mutaxassislarning aksariyati o'qitishda muhim vazifalardan biri ikkilamchi lingvistik shaxsni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi

sharoitida esa boshqa madaniyat vakillari bilan ijtimoiy hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir bo‘lgan ko‘p madaniyatli til shaxsini shakllantirishdir, deb hisoblaydilar.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, so‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekiston ta’lim tizimida chet tillarining rolini aktuallashtirish jarayoni kuzatilmoqda. Ma’lumki, ko‘plab ota-bobolarimiz o‘z ona tillari bilan bir qatorda bir nechta tillarni yaxshi bilishgan va chet tillarini o‘rganish orqali o‘z bilimlarini takomillashtirishgan, ular tarixda poliglot sifatida qolganlar. O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining aksariyati bir nechta tillarni yaxshi bilishgan. Ular orasida buyuk mutafakkir Abu Nasr Al-Farobiy alohida ajralib turadi, manbalarda tilga olinishicha, u 70 dan ortiq tillarni bilgan.

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr o‘rtalarida ko‘plab tillarni bilish keng tarqalgan. Ma’rifatli jadidlar odamlarni chet tillarini o‘rganishga undashar edi, chunki ona tilidan tashqari chet tillarini bilish boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, turmush tarzi va rivojlanishini o‘rganishga imkon berardi. Bir nechta tillarni yaxshi bilgan Behbudiyning lingvistik konsepsiyasi uning ***“Biz nafaqat ikkita, balki to‘rtta tilni bilishimiz kerak”*** maqolasida bayon etilgan. U ko‘plab tillarni bilish millatning rivojlanishi uchun zarur deb hisoblagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishini e’lon qilar ekan, shunday dedi: ***“Biz raqobatbardosh davlat bo‘lishni maqsad qilib qo‘ydik. Bundan buyon maktab, litsey, kollej va universitetlarning har bir bitiruvchisi kamida ikkita chet tilini mukammal bilishi kerak”.***

Chet tillarni o‘zlashtirishni ommalashtirish va rag‘batlantirish bilan bog‘liq qonun hujjatlarining amalga oshirilishini O‘zbekistondagi abituriyentlar uchun quyidagi imtiyozlar tasdiqlashi mumkin:

– abituriyentlar ma’lum darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikat mavjud bo‘lganda til imtihonidan ozod qilinadi;

– abituriyentlarni magistratura mutaxassisligiga qabul qilish bakalavriat diplomi ballari va chet tili sertifikati asosida imtihon topshirmasdan amalga oshiriladi.

Natijalar

Bizning fikrimizcha, respublikamiz hududida ingliz va rus tillarini o‘rganish juda istiqbolli, sababi ularga katta talab va yaxshi sharoitlar mavjud!

Bugun biz chet tilini o‘rganishning ba’zi afzalliklarini sanab o‘tmoqchimiz.

Boshqa ko‘nikmalarni o‘rganish tezligini oshiradi

Yangi tilni o‘rganayotganda sizning bilim qobiliyatingiz oshadi, masalan, so‘zlarni yodlashda siz xotirangizni yaxshilay olasiz.

Matematik qobiliyatlar oshadi

Til o‘rganish miyadagi strukturaviy va mantiqiy jarayonlarni faollashtiradi, matematika ham xuddi shunday.

Yaxshi tinglovchiga aylantiradi

Bu bizga har doim va hamma joyda kerak bo‘lgan ajoyib mahorat. Agar bu haqda o‘ylab ko‘rilsa, har qanday vaziyatda odamni gapini bo‘lmasdan tinglashning afzalligini ko‘rish mumkin (Karnegi o‘z kitobida bu masalaga butun bobni bag‘ishlagan). Yangi tilni o‘rganayotganda, aslida odamni diqqat bilan tinglashdan, uning talaffuzini va aytilganlarning ma’nosini tushunishga harakat qilishdan boshqa ilojimiz yo‘q. Bu empatiyani rivojlantirishga imkon beradi.

Diqqatni kuchaytiradi

Nafaqat o‘rganish, balki yangi qoidani anglash, jumlani tushunish uchun siz diqqatni jamlashingiz kerak.

Ishonchni oshiradi

Biz oldimizga har qanday maqsadni qo‘yganimizda va unga erishganimizda, bu muqarrar ravishda o‘zimizga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Inson shunday yaratilgan. Notanish tilda 30 soniya davomida dialog o‘tkazishga muvaffaq bo‘lganimizda, bu juda katta energiya beradi, bizning idrokimiz sezilarli darajada oshadi.

Potensial miya kasalliklarining oldini oladi

Yangi tilni o‘rganish aqli zaiflik va Alsgeymer kasalligining paydo bo‘lishini 4, 5 yilga kechiktirishi mumkin, bu zamonaviy dorilar qila oladiganidan ancha katta. Mohiyati shuki, ko‘p tilli odamlarning miyasida ko‘proq nerv yo‘llari hosil bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida miyada bir xil fikrlar va shablonlarni aylantiravermaslikka imkon beradi (bu ko‘pincha shizofreniyaga olib keladi).

Ona tilini yaxshilaydi

Yangi tilni o‘rganayotganda, biz ona tiliga tayanamiz, unda o‘rganilayotgan tilda duch kelgan o‘xshash hodisalarni topishga harakat qilamiz, avvallari hech o‘ylamagan narsalarni seza boshlaymiz.

Madaniy xabardorlikni oshiradi

Gap shundaki, siz uchun yangi tilda so‘zlashuvchi o‘z mamlakati madaniyatining bevosita timsolidir. Bu sizni shaxs sifatida yanada xilma-xil qiladi va ko‘plab mojarolardan qochishga imkon beradi, chunki siz boshqa madaniyatni, boshqa psixologiyani tushunishni va hurmat qilishni boshlaysiz va eng yaxshisini olasiz.

Yangi martaba imkoniyatlarini ochadi

Biz globallashuvga keldik, keyin Internet ham paydo bo‘ldi. Turli statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ikki tilni bilish bizga ish haqimizning 10-50 foizini qo‘shadi. Biznesda to‘g‘ri foydalanish bilan esa biz katta imkoniyatlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Sayohatlarda yangi qirralarni ochishga imkon beradi

Bu siz uchun oddiy sayohat emas, bu siz tilini biladigan mamlakatga sayohat. Chet elda bo‘lishning noqulayligi yo‘qolganda siz ilgari sezmagan ajoyib tuyg‘uni his qilasiz.

Baxtni topishga yordam beradi

Mamlakatimizda chet tilini biladigan yoshlar, ayniqsa qizlar, o‘z baxtini qidirayotganlar orasida ko‘proq mashhurdir.

Xulosa

O‘zbekistonda chet tili bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash uchun javobgarlikni davlat o‘z zimmasiga olgan. O‘zbekiston hukumati qaroriga muvofiq, rus tilini C1 darajasida bilishini tasdiqlagan barcha o‘qituvchilar ish haqiga 50 foiz qo‘shimcha haq to‘lanadi. Bu ularni til qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu malaka oshirish tizimini, yangi darsliklarni talab qiladi. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda chet tili o‘qituvchilari haqiqiy fidoyilar, o‘z ishining ustalaridir. Ular doimiy ravishda o‘quv jarayonini tashkil etishning eng samarali usullarini izlaydilar, murakkab nazariyani qiziqarli amaliyotga aylantirishni afzal ko‘radilar.

Bugungi konferensiya kabi uchrashuvlar an’anaviy va masofaviy formatda turli mamlakatlardan kelgan mutaxassislarga nafaqat hamfikr

odamlar bilan yaxshi tajriba almashishda, balki professional hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tasdiq olishda yordam beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

Ахметшина Л. В. Англификация языков в процессе глобализации // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2015. № 7 (49). Ч. 1. С. 13-15.

Белякова И. Г. Модели межкультурной коммуникации в условиях культурно-цивилизационных трансформаций: дисс. … к. филол. н. М. , 2018. 380 с.

Замятин К. , Пасанен А. , Саарикиви Я. Как и зачем сохранять языки народов России? Хельсинки: Vammalan Kiijapaino Oy, 2012. 179 с.

Кубрякова Е. С. Лингвокультурологический статус драмы // В поисках сущности языка: Когнитивные исследования. М. : Знак, 2012. С. 128-146.

Меликов И. М. , Гезалов А. А. Диалог культур и культура диалога: концептуальные основы // Вопросы философии. 2014. № 12. С. 24-35.

Сысоев П. В. Эксплицитное обучение социокультурным стратегиям // Образованиеврегионе. - 2000. - № 6. - С. 17-22 (0, 5 ал.).

Таскаева Е. Б. К вопросу о двуязычной лингвистической подготовке студентов-экономистов // Проблемы антикризисного управления и экономического развития (ПАУЭР-2016): Материалы III Междунар. науч. практ. конф. , 27-31 октября 2016 г. : Сб. статей. Новосибирск: Изд-во СГУПСа, 2017. С. 303-307.

Тимофеев А. В. , Ворожбитова А. А. Билингвальная модель профессиональной подготовки будущего учителя иностранного языка. М. : ФЛИНТА, 2014. 129 с.

Bialystok E. The Bilingual Adaptation: How Minds Accommodate Experience // Psychological Bulletin. 2017. Vol. 143. № 3. P. 233-262.

BloomfieldL. Language. L. : George Allen & Unwin LTD, 1935. 566 c.

Dewaele J. M. , Wei L. Multilingualism, empathy and multicompetence // International Journal of Multilin-gualism. 2012. September. P. 1-15.

García O. , Lin A. M. Y. Translanguaging in bilingual education // Bilingual and Multilingual Education (Encyclopedia of Language and Education). Dordrecht: Springer, 2017. P. 117-130.

Grosjean F. Bilingual: Life and Reality. Cambridge: Harvard University Press, 2010. 276 p.

Hamers J. F. , BlancM. H. A. Bilinguality and Bilingualism. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. 458 p.

Krashen S. D. Second Language Acquisition and Second Language Learning. New Jersey: Prentice-Hall International, 1988. 150 p.

Kharkhurin A. V. The role of cross-linguistic and cross-cultural experiences in bilinguals‘ divergent thinking // Cognitive aspects of bilingualism. 2007. P. 175-210.

Li P. , Legault J. , Litcofsky K. A. Neuroplasticity as a function of second language learning: Anatomical changes in the human brain // Cortex. 2014. Vol. 58. P. 301-324.

Macnamara J. The Bilingual‘s Linguistic Performance - A Psychological Overview // Journal of Social Issues. 1967. № 23. P. 58-77.

Special Eurobarometer 386: Europeans and their languages // European Union Open Data Portal. URL: http://ec. europa. eu/commfrontoffice/publicopinion/archives/eb_special_399_380_en. htm#386 (дата обращения: 10. 10. 2017).

Sysoyev P. V. Identity, culture, and language teaching [Самоопределение, культура и обучение языку] // Identity, culture, and language teaching / Ed. by P. V. Sysoyev.

Toward a More Complete Understanding of the Link Between Multicultural Experience and Creativity / A. Leung, W. Maddux, A. Galinsky, C. Chiu // American Psychologist. 2009. February-March. P. 156-158.

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA BADIIY ADABIYOT VA BADIIY TARJIMANING O'RNI

dotsent, Sarvar ABDULLAEV

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada globallashuv davrida yoshlar ma'naviy olamini teran shakllantirishda xizmat qiluvchi omillar tahlil qilingan. Xususan, badiiy adabiyot va badiiy tarjimaning yoshlar ongida ezgulik g'oyalarini shakllantirishga xizmat qilishi borasida fikrlar keltirilgan. Muallif o'z g'oyalarini badiiy alabiyot va badiiy tarjima satrlarida keltirigan fikrlar bilan isbotlagan, shuningdek, mutafakkirlarning kitob borasidagi qimmatli fikrlari bilan o'z g'oyasini asoslashga harakat qilgan.

O'rganilgan ma'lumot asosida qilingan xulosalar bu borada avvallari amalga oshirilgan ishlar bilan qiyoslangan. Kitob o'qish borasidagi negativ holatlarni ijobiylashtirishning metodologik va psixologik asoslariga ahamiyat qaratilgan, shuningdek, amaliy jihatdan badiiy adabiyotning inson hayoti va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati isbotlab berilgan. Kitobga ahamiyatsizlikning asosiy argumentlari o'rganilib, uni bartaraf etish borasida tavsiyalar berishga harakat qilingan. Umuman olganda kitob o'qish keyingi asrlarda axborot almashinuvining boshqa turlari va ilm olishning yangicha yondoshuvdagi manbalri paydo bo'lgach yana o'z ahamiyatini yo'qotdi. Odamlar ma'lumotlarni o'qib tasavvur qilgandan ko'ra, ularni tayyor manbadan ko'rishni afzal bila boshladilar. Masalan teatr va kino, hozirda internet ham kitobning o'rnini bosgandek. Lekin muallif o'z fikrlari bilan kishilarni kitobga bog'lash mumkinligi borasida tavsiyalar belgilangan. Kitobxon ziyolilarning barchasi ham bir kunda kitobga bog'lanib qolmagan. Kitobxonlik ko'pchilikda oilaviy muhitda yuzaga keladi. Kitob o'qigan kishilar hayoti, yurish turishi, odob-axloqi, dunyoqarashining kengligi ham ko'plarni kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Umuman o'qish qiyin. Ammo kitob dunyosiga sho'ng'igan odamni kitobdan ayri tasavvur eta olmaysiz. Odam yoshi va mashg'ulotiga mos kitobcha yoki nisbatan kichikroq janrlar – qatra, hikoya kabilardan

o’qishni boshlagani yaxshi. Kitobni bir o’tirganda o’qib qo’yish shart emas. Bir yoki ikki xatboshini mutolaa qilib, boshqa ishlar bilan mashg’ul bo’lish ham mumkin. Bunda o’qilgan ma’nolar inson tasavvurida gavdalanadi, tasavvur boyidi. Sekin asta bir bet keyin besh, o’n. Qarabsizki, kishi kitobga bog’langanini o’zi sezmay qoladi. Ammo, doim turadigan jiddiy savol bor – qaysi kitobni o’qish kerak? Bu borada alabatta ustozlar ko’magiga muhtojmiz. Muallif “O’tkan kunlar” (Abdulla Qodiriy) romanini o’qishni tavsiya qiladi. Tavsiya qilar ekan asarning badiiy va syujet betakrorligi qatorida uning ilmiy ahamiyati, tarixiy ma’lumotlari va o’zbek tilining nozik jihatlarini ifoda etishini misollar bilan isbotlashga harakat qilgan.

Kalit so’z va iboralar

kitob, badiiy asar, badiiy tarjima, bilim, tarbiya, dunyoqarash.

IN EDUCATING YOUNG PEOPLE ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES THE ROLE OF FICTION AND FICTION TRANSLATION

dotsent, PhD SARVAR ABDULLAEV

ORCID: 0009-0007-1062-0042

ANNOTATION

This scientific article analyzes the factors that serve the thoughtful formation of the spiritual world of youth in the era of globalization. In particular, opinions are expressed that fiction and literary translation serve to form ideas about goodness in the minds of young people. The author justified his ideas with the ideas that he brought to the lines of fiction and literary translation, and also tried to base his idea on the valuable thoughts of thinkers about the book.

The conclusions drawn on the basis of the information studied were compared with the work carried out earlier in this regard. The importance is focused on the methodological and psychological foundations of the positivity of negative cases in reading, as well as on proving in practice the place and importance of fiction in human life and society. The main arguments in favor of the book's impropriety were studied and attempts were made to give recommendations for its elimination. Reading books in general lost its importance again in the following centuries, when other types of information exchange and a source of knowledge appeared in a new approach. People began to prefer to see data from a ready-made source than they could imagine after reading them. For example, theater and cinema, now the Internet also seems to replace the book. But the author sets out recommendations as to whether people with his thoughts can be attributed to the book. Not all the reading intelligentsia became attached to the book on the same day. Reading occurs in most people in a family environment. The breadth of life, gait, decency and worldview of those who read the book also arouse many people's interest in it. It's generally hard to read. But you can't imagine a person immersed in the world of books as a curve from a book. It is good that a person begins to read from a booklet or relatively small genres – a fable, a story suitable

for age and training. The book does not have to be read in one sitting. You can also read one or two paragraphs and do other activities. The meanings read in this are embodied in the human imagination. Slowly place a bet, then five, ten. It turns out that the person himself does not notice that he is attached to the book. But there is always a serious question – which book to read? In this regard, we need the support of our elders. The author recommends reading the novel "Bygone Days" (Abdullah Kadiri). Recommending the artistic and plot uniqueness of the work, he tried to prove by examples its scientific significance, historical data and the expression of subtle aspects of the Uzbek language.

Key words and phrases

book, work of art, literary translation, knowledge, education, worldview.

Kirish

Ma'lumki yurtimiz joylashgan o'rni geografik jihatdan qadim "Buyuk Ipak yo'li"ning qoq markazida bo'lib, bu qadimdan ham hozir ham ushbu zaminda yashovchi xalqlarning umuminsoniy va milliy qadriyatlariga, binobarin til, ta'lim va madaniyatida ahamiyatlidir.

Bugungi global muammolar yoshlarimiz dunyoqarashiga turli yot g'oyalar, asrlar davomida millatimiz axloqsizlik hisoblagan har xil ommaviy madaniyat ko'rinishlari ta'sir etib, jamiyatda bir qadar og'riqli vaziyatlarni vujudga keltirmoqda. Shu sababdan yoshlarimiz axloqini shakllantirishda badiiy adabiyot va badiiy tarjimaning o'rni borasida ayrim fikrlarni ilmiy muhokama qilmoqchi bo'ldik.

Adabiyotlar sharhi

Maqolani tayyorlashda o'rganilgan adabiyotlardan, jumladan, Alan Cummingning And You Might Be Too asaridan bevosita jamiyat a'zolari axloqining badiiy adabiyot ta'sirini yoritgan olimlar fikrini o'rganishda manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, Alan Bennettning Reveals that his lover asari ham yuqoridagi maqsadlarda o'rganildi. Neil Gaimanning Biography & Books asarida ham kitoblar ayniqsa badiiy adabiyotning roli masalasiga oid manbalar o'rganildi. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" barcha davrlar yoshlari uchun badiiy, tarixiy masalalardan tashqari, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy masalalarga oid manba ekaniga e'tibor qaratildi. Maqolada muallif o'z fikrini quvvatlash uchun muqaddas manbalarga murojaat qilgan va bunda Abdulaziz Mansurning "Qur'on oyati ma'nolari tarjimasi" kitobidan ilmiy asosda foydalangan. Atoqli adib Ch. Aytmatovning "Qulayotgan tog'lar" asari tarjimasi tarjima san'ati va uning ijobiy ta'siri borasidagi faktlarni dalillash uchun foydalanildi. Yelina Ye. ,

G. Morozovning Russkie pisateli: Biobibliograficheskiy slovarьda e'lon qilingan maqolasi, Zatonskiy D. V. Kafka i problemы modernizma maqolasi badiiy adabiyot va badiiy tarjimaning inson estetik didi va dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rnini o'rganishda manba sifatida o'rganilgan.

Maqola metodologiyasi

asoslilik, ochiqlik, ilmiylikdan iboratdir.

Badiiy adabiyot va badiiy tarjima borasida so'zlashdan avval, bugun yoshlar orasida kitobxonlik darajasini tahlil qilib ko'raylik. Xususiy tarzda o'tkazilgan so'rovnoma xulosalari bizga shunday ma'lumotlarni taqdim etdi. Aytish kerakki, so'rovnoma anonim o'tkazilgan bo'lib, yosh va jins, kasb-kor ko'rsatkichlariga e'tibor qaratilmagan. Shu sababdan bu o'rinda natijalarni mutloq deyishdan yiroqmiz. Shuday bo'lsada, ayrim natijalarni keltirish joiz. Respondentlar (jami 100 kishi) orasidan 54 tasi umrida biron marta badiiy kitob o'qimagan. Kitob o'qigan repondentlarning 32 tasi kitob nomi yoki muallifini aniq aytib berolmaydi. So'rovnomada ishtirok etgan 8 nafar respondent yuzga yaqin va undan ko'roq kitob o'qiganligini tasdiqladi. Ular orasida 5 kishi asar syujeti va kitobning jamiyatga taqdim qilgan falsafiy-axloqiy, ma'naviy-mafkuraviy g'oyalari haiqda ham o'rtoqlashdi. Aksar respondentlar kitob o'qigandan internet orqali kino yoki boshqa shu kabilarni ko'rish manfaatliroq deb hisoblaydilar.

Shu o'rinda aslida nima uchun kitob o'qish lozim, degan o'rinli (asli o'rinsiz) savol tug'iladi. Dunyo madaniylishgandan buyon kitobning manfaati borasida ko'p aytilgan va bilaks qusuri bor deganlar e'tiborli emas ham juda ozdirlar. «Kitob sehrgar. Kitob dunyoni o'zgartirdi. Kitobsiz dunyo vahshiylar dunyosidir» [Елина Е. Г. 1999: 56].

Kitob-bu tasavvurni alanga oldiruvchi qurilma [Alan Cumming. 2015: 24].

Kitob-bu sizning qo'lingizda ushlab turgan orzuingiz [Neil Gaiman. 2019: 123].

Menga kitoblarimni qoldiring. Kitob mendagi bor yaxshilikdir va bu yaxshilik chegarasizdir [Затонский Д. В. 1972: 63].

Yaxshi kitob ruh hayotining muhim manbaidir [Alan Bennett. 2009: 29].

Bu kabi qimmatli ma'lumot va iqtiboslarni ko'p keltirish mumkin. Ammo, e'tirof etish lozimki, "kitob o'qish zerikarlidir". Mana shu kitobga ahamiyatsizlarning asosiy argumenti, desak xato bo'lmaydi. Bu argument

qadimdan mavjud. Shunday ekan, qanday qilib kishilarni kitobga bog'lash mumkin? Kitobxon ziyolilarning barchasi ham bir kunda kitobga oshino bo'lib qolmaganlari aniq. Aslida kitobxonlik aksar kishilarda oilaviy muhitda yuzaga keladi. Ayrimlarga ustozlari sabab bo'ladi va juda kam holatlarda fikr egasi kitobga mustaqil mehr qo'yadi. Aytish mumkinki, kitob o'qigan kishilarning hayoti, yurish turishi, odob-axloqi, dunyoqarashining kengligi ham ko'plarni kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Kitob o'qish, umuman o'qish tan olish kerakki, mashshaqatli, chunki u zerikarli. Ammo kitob dunyosiga sho'ng'igan odamni kitobdan ayri tasavvur eta olmaysiz. Ustozlar deydilar: birdaniga katta kitoblardan boshlash to'g'ri emas. Kishi yoshi va mashg'ulotiga mos kitobcha yoki nisbatan kichikroq janrlar – qatra, hikoya kabilardan boshlagan yaxshi. Kitobni bir o'tirganda o'qib qo'yish shart emas. Bir yoki ikki xatboshini mutolaa qilib, boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lish ham mumkin. Bunda o'qilgan ma'nolar inson tasavvurida gavdalanadi, tasavvur boyi boshlaydi. Sekin asta bir bet keyin besh, o'n. Qarabsizki, kishi kitobga bog'langanini o'zi sezmay qoladi. Ammo, doim turadigan jiddiy savol bor – qaysi kitobni o'qish kerak? Bu borada alabatta ustozlar ko'magiga muhtojmiz. Bu boradagi bahsni shu yerda to'tatsam-da o'zim tavsiya qiladigan kitob haqida gapirsam. "O'tkan kunlar" (Abdulla Qdodiriy) – men yilda bir marta bo'lsa ham bu badiiy javohirni qo'limga olaman. Qahramonlar mening do'stlarimga aylanib ketgan. Ular bilan suhbatlashaman. Kitobni dastlabki o'qigan chog'imdagidek, ularga fikr berib, syujet liniyasini o'zgartirishga harakat qilmayman. Ularning hech biri taqdiri oson kechmaganligini bilsam-da, buni endimuhim hisoblamayman. Ulardan o'rganaman. Har biridan o'rganaman. Xoh u ijobiy xoh salbiy obraz bo'lsin, o'rganaman. Yaxshidan yaxshilikni, yomondan yomonlik qilmaslikni, umuman hayotni o'rganish mumkin.

"O'tkan kunlarni" birinchi bor mutolaa qilganimda 15-16 yoshlar chamasi o'spirin bola edim. Unda Otabek menga aka edi. Uning mardligi, pokiza tuyg'ulari, el, vatan fidoyisi, to'g'ri so'zligi meni o'ziga rom qilib, hayratga solgandi. Otabekning ittifoqo Usta Alimnikida tunab qolgandagi so'zlari va hazart Abdulla Qodiriyning qahramon yuragidagi hissiyotlarni bildirib o'tishi inson qalbini bir ajib shavqqa soladi:

- Yo'q. . . Man asli Qo'qong'a kelgan edim, ammo Marg'ilonda otam tanishlaridan bittasida ozroq olasimiz bo'lib, shu kishiga uchrashib ketayin, deb Marg'ilong'a o'tkan edim, — Otabek o'zining yolg'onlashidan o'ng'aysizlanib bir oz to'xtab oldi: — bu kishining qaerda turishi manga ochiq ma'lum emas edi va Marg'ilonda boshqa tanishim bo'lmag'anliqdan va vaqtning kechligidan adashib qoldim. . . [Abdulla Qodiriy. 2003: 153].

“o’zining yolg’onlashidan o’ng’aysizlanishi” qanchalar qisqa va ayni chog’da butun hissiy holatning bayoni o’laroq o’quvchi yodida qoladi. Kishi ilk bor gunoh ishga qo’l ursa, dastlab ko’p hijolat chekadi. Chunki, gunoh inson tabiatiga zid bir voqelik. Go’yo uning butun borlig’i do’zoh otashida yonayotgandek va barcha uni qo’li bilan bigiz qilib ko’rsatayotgandek tuyuladi. Agar banda shu chog’da robbisiga qaytib, chin dildan tavba qilsa va boshqa bu ishga qo’l urmasa yaxshi, aks holda qalbi qorayib, yomon ishlar uning odatiga aylanib qoladi (hadis).

Qisqasi Otabek bilan ilk tanishganimda u menga aka edi. Keyinroq tengqur bo’lib qoldik. Bu kezlarda uni ayrim hollarda ayblasam, ko’p hollarda hamfikr chiqardik. Ayblashim uning bo’zaxonalarda tunab qolgani va yana so’nggida ota-onasini firoqqa qoldirib ketgani edi.

Bora-bora u mening ukamga aylandi. Unga nisbatan mehrim tovlanib, ayblari ham ko’zimga ko’rinmadi. Lekin qipchoqqa qirg’in voqeasi va qudalarni kelish masalasi oralig’ida otasi Yusufbek hoji bilan suhbatdagi mulohazasizligi bir tomondan kulgimni qistatsa (bunga hojining mana bu haq so’zi sabab: Ba’zi yengil muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek!), ikkinchi tomondan g’azabimni keltiradi. Zero, hojiga otilgan tosh mening yuragimga otilgandekdir. Yillar asnosi, kitobni qayta-qayta mutolaa qilar ekanman, Yusufbek hojiga bo’lgan e’timodim kuchayib boradi va dilimga bir mulohaza keldi: Hadislarda aytilishicha Haq taolo payg’ambarimiz Muhammad Musatfo sollollohu alayhi vasallamni yaratmaganida olamni yaratmas ekan. Binoan alayh, ta’bir joiz bo’lsa, Abdulla Qodiriy Yusufbek hojini tanitmoq uchun shu romanni yozgandek, nazarimda nazarimda. Vallohu a’lam. Bu ayniqsa, Kumushbibining quyidagi so’zlari bilan yanada aniqlashgandek: Siz ranjisangiz ham aytay: qayin otamni o’z dadamdan ham yaxshi ko’raman. Bu yaxshi ko’rishim kuyavingizning dadasi bo’lg’ani uchun emas, balki uning nur ichiga cho’milg’andek bo’lib ko’ringan siymosini, oyim deb xitob qilg’andagi muloyim, beozor va muassir so’zini yaxshi ko’raman. Ul nasihat uchun og’iz ochsa vujudim erib ketkandek va bir turluk uxlab huzurlang’andek. Qisqasi, Zaynab bilan janjallashishning o’zi bir huzur va janjaldan bo’shalg’ach, qayin otamning qarshisig’a o’lturib nasihat eshitish undan ham yaxshi huzur. . . Siz manim telba so’zlarimdan achchig’lanmang. Agar bu gapimning to’g’rilig’ini bilmakchi bo’lsangiz, Toshkand kelingizda, qayin otamning nasihatini o’z qulog’ingiz bilan eshiting-da, undan keyin so’zimga qiymat bering [Alan Bennett. 2009: 293].

Bora – bora yoshim hali hoji darajasiga yetmagan bo’lsa ham, Otabekka otalik rutbasiga yaqinlab keldim. Farzandlarim yoki yoshlar hayotidagi g’o’rliklarga ro’baro’ kelganda Yusufbek hojining kitobda

tasviri kelgan nurli va ziyoli qiyofasini o'zimda shakllantirgim keladi. Xullas, kitob umr bo'yi bizni yashashga o'rgatadi.

Tarjima kitoblar orasida tavsiya uchun ko'plab asarlarni keltirgim keladi. Ammo, ular orasida Chingiz og'a Aytmatov asarlari alohidadir. Men bu safar "Asrga tatigulik kun", Qiyomat haqida emas, adib qalamining so'ngi siyohi tomgan "Qulayotgan tog'lar" haqida aytmoqchiman. Ushbu asar taniqli tarjimon va adabiyotshunos, so'z ustasi ustoz Ibrohim G'afurov tarjimasi bilan o'zbek kitobxonlari hukmiga havola etilgan. Jahonshumul adibning ushbu romani ham xuddi avvalgi asarlari kabi uchta muhim jihati bilan ajralib turadi: birinchidan – kitobda nafaqat bugungi kun, balki insoniyatni yaqin kelajakda kutayotgan eng dolzarb masalalar qalamga olingan; ikkinchidan –yozuvchining bepoyon taxayyul doirasi jamiyat va tabiat, inson va hayvonot olami o'rtasidagi uzviy rishtalarni bir butun kartina sifatida gavdalantiradi; uchinchidan – rivoyatlar asosidagi haqiqatlarni bugungi o'quvchi diqqat markaziga havola etar ekan, har bir afsona asosida yotuvchi ulug' bir hayotiy xulosalar mavjudligiga ishora qiladi.

Ikki tilda sermahsul ijod qilgan Chingiz Aytmatov ushbu asarini rus tilida bitganda, uni "Kogda padayut gorы" deb nomlagan. Bu iborani "Qachonki, tog'lar qulasa" yoki "Tog'lar qulayotganda" deb ham tarjima qilish mumkin bo'lgani holida so'z sexrgari I. G'afurov "Qulayotgan tog'lar" degan nomni ma'qul ko'rgan va juda to'g'ri qilgan nazarimda. Chunki, bu ilohiy matnlardagi qiyomat dahshati tasviridagi so'zlarga hamohang ko'ranadi: "وَإِذَا الْجِبَالُ سُيِّرَتْ" – "tog'lar ham (o'z joylaridan) jildirilganida" ("Takvir": 3) [1:592].

Muallif bashariyat oldida turgan global muammolarni ochib berar ekan, uning negizida yotgan sabablarga qahramonlar nigohi vositasida chuqur e'tibor qaratadi, asar kulminatsiyasidagi tog' bag'ridagi portlash epizodi asosida tabiat bilan jamiyat orasida kechayotgan evrilishlarni namoyon qiladi va bu orqali "Ey odam bolalari, qaerga ketmoqdasiz? Ko'zingizni oching!" demoqchi bo'ladi go'yo. Shu so'zni yozayapmanu, Qur'on oyati dilga keladi: "فَأَيْنَ تَذْهَبُونَ" – "Bas, sizlar (uni inkor etib) qayoqqa ketmoqdasiz?!" (Abdulaziz Mansur. 2017. "Takvir": 26).

Asar hajman unchalik katta bo'lmasa-da, bir o'tirishda o'qib chiqib bo'lmaydi. Har bir qism, har bir sahifa hatto har bir xat boshini, ba'zan esa bitta jumlani o'qib ham kishi bir muddat o'yga tolib qoladi. Masalan, Arsen tog'asi uning uyiga kelayotganidan xabar topganida ". . . uy ichini yig'ishtirishga tushdi". Bir qarashda muallif Bektur og'aning besaranjomlikka jim qarab turolmaslik, kishi mehnat bilan tirik ekanini doim eslatib turuvchi o'ziga xos xarakterini ochib berish uchun aytgandek

so’z. Biroq bu jumlaga boshqacharoq bo’yoq berish ham mumkin. Holbuki, Arsen mana shu qarindoshi telefon qilmasidan avval poymol bo’lgan muhabbati dardida yonayotgan eng avvalo qalbi xuddi uyi singari besaranjom edi. U uyini yig’ishtirar ekan, bir vaqtning o’zida qalbini ham yig’ishtirib olar edi.

Asar qahramonlari ko’p ham emas. Shunga qaramay ularning har biri har kuni yonimizda yurgan odamlarning tipik obrazi ekaniga iymoningiz komil bo’ladi. Arsen Samanchin kabi hassos qalb egasi bo’lmish, zamona muammolariga ko’z yumib ketavermaydigan ziyolilar hamon topiladi. Pul, boylikni xudo yo payg’ambar o’rnida ko’ruvchi, pul bo’lsa hamma narsaga erishish mumkin, degan sayoz xulosa yurituvchi Ertosh Kurchallar ham atrofimizda ko’p. Tirikchilik deb muhabbati, ori nomusidan voz kechgan Oydanalarni esa, sanog’iga yetib bo’lmaydi. “Dunyo noto’g’ri taqsimlangan, biz undan o’z ulushimizni tortib olishimiz lozim” – degan yovuzlik ortidan boy bo’lish istagidagi Toshtanafg’onlar ham yo’q emas [Aytmatov. Ch. “Qulayotgan tog’lar”. tarjimon I. G’ofurov. Toshkent. 2016: 79].

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya, bilingvizm va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalao'tkazgich — nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish-o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga

oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Ammo shuni ham aytish o‘rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o‘rinsiz, sun’iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so‘zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, bankrot – sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro‘znoma, deputat – noib (xalq noibi), jurnal – majalla (jarida, oybitik, oynoma), institut – oliygoh, (ta’limgoh), klub - tomoshagoh (tadbirgoh), kompensatsiya – tovon, medal – nishon, fakultet – kulliyot, kurs – bosqich, fonetika – tovushshunoslik, sinonim – ma’nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma’noli va hokazo.

Murakkab tuzilgan terminlar yasashda quyidagi talablarga e’tibor berilishi lozim: a) termin mumkin qadar ixcham, kam sonli so‘zlardan iborat bo‘lishi kerak. Terminlarning ixcham bo‘lishi ularni qo‘llashda qulaylik tug‘dirishdan tashqari, ulardan yangi terminlar yasash imkoniyatini beradi. Chunki, mavjud terminlardan so‘z yasovchi affiks yordamida yangi termin yasash (*son-teskari son, yoy-yoyning gradusi*) hodisalar, tushunchalar orasida mavjud bo‘lgan aloqani ham ko‘rsatib turadi; b) murakkab termin tarkibidagi ba’zi so‘zni izohlaydigan yana boshqa so‘z bo‘lmasligi (qavs ichida berilmasligi) kerak. Aks holda termindan foydalanishda qiyinchilik bo‘ladi. Masalan, tuproqshunoslik sohasida yaratilgan degradasiyalangan (aynigan) qora tuproq, matematika sohasidagi erkin (bog‘liq) miqdor, o‘xshashlik (analogiya) metodi kabi terminlar muvaffaqiyatli chiqmagan bo‘lib, ularni ishlatish ancha noqulaylik tug‘diradi. Murakkab terminlar tarkibidagi har bir so‘z boshqasi bilan affikslar yordamida yoki sintaktik tartib orqali birikkan bo‘lishi kerak. Ularning ko‘makchilar va bog‘lovchilar vositasi bilan grammatik munosabatga kirishishlari ma’qul emas. Chunki yordamchi so‘zlar vositasi bilan birikkan so‘zlardan iborat bo‘lgan murakkab terminlarning terminlik xususiyati bilinmay qoladi, oddiy, erkin birikmaga o‘xshab ketadi. Masalan, burchak bilan o‘lchash, o‘rta va chet nisbatga bo‘lish (“zolotoye secheniye”) kabi. Ko‘rinib turibdiki, bu terminlar tarkibidagi bilan ko‘makchisi hamda va bog‘lovchisining kelishi ularni jonli nutq elementlariga o‘xshatib yuborgan.

Hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo‘lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadug‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq”, Sayfi Saroiyning “Gulistoni bit-turkiy”, Qutbning “Xisrav va Shirin”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” kabi asarlaridan olingan terminlar misollar bilan isbotlab berilgan. Shu bilan

birga, terminlarning paydo bo‘lish tarixiga, ularning yasalish qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o‘zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga ham alohida e‘tibor berilgan. Albatta, bunday o‘zgarishlar o‘zbek tilining ish ko‘rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi.

Ma’lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Terminlarning aniqligi va qat’iylashishi shumillatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo‘lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog‘liq. Bu taraqqiyot to‘xtovsiz bo‘lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo‘ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo‘llanmalar tuzish uchun ham, o‘zbek tilida dars olib borish uchun ham zarur bo‘lgan manbadir. Shu boisdan bugungi o‘zbek tilshunosligida terminologiya masalariga ahamiyat yildan yilga takomillashib bormoqda. Zeroki, atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Raximova F. Sh. Rolterminologichksoyrabotina zanyatiyax po ovladevaniyu yazikami// Farg’ona davlat universiteti, Filologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari // 2022/

2. Muhiddinova X. S. , Salisheva Z. I. , Po‘latova X. S. O‘zbek tili. – T. : “O‘qituvchi”, 2012.

3. Dadaboyev H. Hozirgi o‘zbek tili qurilishida o‘zbek tilining o‘rni// Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –T. , 2015.

THE HISTORY OF THE STUDY OF ETYMOLOGICAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ZOONYM COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK

Iroda IBRAXIMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti.

Abstract

This article deals with the field of etymology, the etymological research conducted in English and Uzbek languages, and the results of research on the history of the origin and formation of phraseological units.

Key words: phraseological units, zoonym, etymology, proverbs, etymological anaylsis, etimological dictionaries.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI O'RGANILISHI TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada etimologiya sohasi, bugungi kunga qadar ingliz va o'zbek tillarida olib borilgan etimologik tadqiqot ishlari, frazeologik birliklarning kelib chiqish va shakllanish tarixiga bag'ishlangan izlanishlar natijalari xususida so'z boradi.

Tayanch so'zlar

frazeologik birliklar, zoonim, etimologiya, maqollar, etimologik tahlil, etimologik lug'atlar.

Kirish

Dunyo xalqlar, madaniyatlar, qadriyatlarning turfa xilligi bilan go'zal. Ammo xalq va millat o'zaro yakdil axloqiy normalar, o'xshash qadriyatlar va mushtarak maqsadlar bilangina o'zligini yo'qotmasligi, taraqqiy etishi va o'z jozibasini saqlab qolishi mumkin. Shunday xususiylik va go'zallikni namoyon etuvchi qadriyatlardan biri, shubhasizki, tildir. Til bu nafaqat muloqot vositasi, u unda so'zlashuvchi insonlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi, qarashlari, axloqi, donishmandligi, odatlari, ishonchi, e'tiqodi, tarixi, buguni va kelajagiga oid ma'lumotlarni aks ettiruvchi misli bir ko'zgu. Til – o'rganish, tadqiq etish, taqqoslash uchun eng boy manbalardan biridir. Balki shu sababdan tilshunoslik so'nggi yillarda

ilmiy tadqiqotlar soni bo'yicha yetakchi sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda biz tilshunoslik ilmining material va mazmun jihatdan nihoyatda boy bo'lgan tarmog'i - frazeologiya borasida so'z yuritamiz.

So'nggi yillarda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tadqiqi borasida qator izlanishlar olib borildi. Biroq bu ishlarning asosiy qismi ularning semantikasi, struktur xususiyatlari va lingvomadaniy aspektlariga qaratilgan bo'lib, etimologik tahlil bo'yicha yondashuv anchayin kam. Asosiy qismi xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblangan frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi xususida so'z borganda, aniq manbalarni namoyish etuvchi etimologik lug'atlar o'zbek tilshunosligida hali mavjud emas. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi masalasida izlanishlar olib borishga qaror qilindi va tarixiy-tadrijiy taraqqiyot davomida frazeologik birliklar ma'nosining anglashiluvidagi o'zgarishlar, o'ziga xosliklari sabab va omillarini ochib berishda lingvokognitiv tadqiq ham olib borilishi nazarda tutildi.

Material jihatdan boy bo'lgan frazeologik birliklar qatlamidan zoonim komponentli frazeologik birliklar qismining tanlab olinishi ish spesifikasini ta'minlab, tahlillash jarayoni obyektlarini aniq belgilaydi va tadqiqotning guruhlash tamoyili asosida amalga oshirilishiga zamin yaratadi. Aynan zoonim komponentli frazeologik birliklarning tanlanishi esa insoniyat hayotida hayvonlar va ular bilan bog'liq munosabatlarning tutgan o'rni, ahamiyati, zoonimlarning ramziy ma'noda faol qo'llanilish darajasini inobatga olganligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu omillar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi (Literature review)

Ushbu soha XX asrda fan tarmog'i sifatida rivojlanishni boshladi. Tilshunoslar ushbu taraqqiyot tarixini shveytsariyalik fransuz olimi Charles Bally (1865-1947)nomi bilan bog'laydilar. U frazeologiyani "bog'langan birikmalarni o'rganish" ilmi deb hisoblagan. U "tilning bir qismiga aylangan kombinatsiyalar frazeologik iboralar deyiladi" -deya ta'rif bergan. Olim "French stylistics" va "Essay on sytlistics" kabi asarlarida frazeologiya uchun alohida bo'lim bag'ishlagan va ushbu ishlari orqali frazeologiya nazariyasiga asos solgan.

Rus tilshunosi Kunin "Frazeologik birliklar tilning yuqori informativ birliklaridir; ularni "bezatish" yoki "ortiqchalik" deb hisoblash mumkin emas. Frazeologik birliklarning shunga o'xshash talqini ba'zi asarlarda uchraydi va hozirda eskirgan. Frazeologik birliklar lingvistik universaliyalardan biridir, chunki frazeologik birliklarsiz tillar mavjud emas", - deb frazeologizmlarning ahamiyatini baholaydi. Frazeologiyani olimlar shu kunga qadar turli ta'riflar bilan ifodaladi. Biroq, hali umum

qabul qilingan yakdil ta’rif mavjud emas. Klassifikatsiya nuqtai nazaridan ham 2 xil yondashuv bor (keng va tor). Tadqiqotlar ikkala doirada ham amalga oshirib kelinmoqda. Uning so’z sifatida yasalishi esa yunon tili bilan bog’liq bo’lib, *phrasis* – “gapirish usuli”, “ifoda” va –*logia* – “ta’limot” so’zlari birlashmasidan kelib chiqqan.

Frazeologiyani o’rganishda rus tilshunoslari ham salmoqli ishlar olib borishgan; o’zbek olimlari tomonidan ularning ishlari keng qamrovda o’rganilgan. Xususan, Bekmurod Yo’ldoshevning “O’zbek frazeologiyasi va frazeologiyasining shakllanishi hamda taraqiyoti” monografiyasida keltirib o’tilganidek, “Rus tilshunosligida frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug’illanib kelmoqdalar. Jumladan, M. V. Lomonosov rus adabiy tili lug’atini tuzar ekan, bunda so’zlar bilan bir qatorda “xalq (Rossiya) maqollari”, “frazeslar” va “idiomatizmlar”o’z ifodasini topishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi. ” N. N. Amosovaning “Основи Английской Фразеологии” kitobida quyidagi mazmundagi izlanishlar sharhini o’qishimiz mumkin: “Akademik V. V. Vinogradovning rus tili frazeologiyasi xususidagi mashhur ishi sovet tilshunosligida ingliz frazeologiyasi muamolarini mustaqil tadqiq etish uchun muhim omil bo’lib xizmat qildi. Shu vaqtga qadar biror tadqiqot yoki mashhur tavsif yo’qki, ingliz frazeologik fondi haqida gap ketganda uning frazeologik konsepti yo’nalishidan chiqqan bo’lsa. ” Darhaqiqat, Vladimir Vinogradov 200 dan ortiq nashrlari bilan rus tili, rus adabiy tili tarixi, so’z boyligi, leksikologiya, frazeologiya, rus tilshunosligi tarixi va umumiy tilshunoslikga oid ko’plab masalalarda o’z so’zini ayta olgan olim. U o’z ishlarida tilning frazeologik vositalari tahliliga alohida e’tibor qaratib, soha rivojiga munosib hissa qo’shdi. V. Vinogradov frazeologik birliklarni *frazeologik birikma, frazeologik chatishma, frazeologik butunlik* kabi turlarga ajratadi. Bu tor doiradagi klassifikatsiya edi. Shuningdek, frazeologiya sohasining o’rganish obyekti sifatida nafaqat birikmalar, balki maqol va matallarni ham tahlil qiluvchilar yo’nalishi ham mavjud bo’lib, ushbu yondashuv Kuninning 4-guruh – kommunikativ frazeologik birliklarni klassifikatsiyaga kiritgani va “frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko’chma ma’noni ifodalagan turg’un birliklardir” dagan ta’rifni bergani bilan xarakterlanadi. Biz ham ishimizni keng yondashuv asosida olib borishga qaror qildik va maqol va matallarni ham tadqiqotimiz o’rganilish obyekti sifatida oldik.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Frazeologik birliklar etimologiyasini o’rganish juda keng va chuqur yondashuvli tadqiqotni talab qiladi. Shuning uchun, ilmiy aniqlikni ta’minlash maqsadida imkon qadar ko’p manbalarni o’rganib, solishtirib, tekshirib chiqish, berilajak xulosalar uchun dalillar to’plash, asosga ega

bo'lmagan farazlar borasida esa bir to'xtamga kelish zarurati mavjud. Zoonimlar - bu fauna olami vakillari nomlari bo'lib, bu nomlar turli xil hayvonlar, qushlar, hasharotlar, sudralib yuruvchilar, o'rgimchaksimonlar, baliqlarni anglatishga yordam beradi. Frazeologik birliklar - tilda tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalardir. Etimologik tadqiqot - bu so'zning kelib chiqish tarixini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanish turi bo'lib, u diaxron yondashuv asosidagi tahlillarni talab etadi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini umumiy tilshunoslik va frazeologiya sohasidagi taniqli olimlarning nazariy qarashlari va amaliy xulosalari tashkil etadi. Ko'plab olimlar ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borishgan: A. I. Smirnitskiy, V. V. Vinogradov, N. N. Amosova, A. V. Kunin, Ch. Balli, N. F. Alefirenko, L. P. Smit, A. I. Molotkov, N. M. Shanskiy, V. N. Telia. Frazeologiya sohasida o'zbek olimlarining ham o'z o'rni bo'lib, ular: Sh. Rahmatullaev, M. K. Xaliqova, Sh. D. Abdullayev, G. E. Hakimova, A. Haydarov, A. Mamatov va boshqalardir.

Tadqiqotimizni o'tkazish uchun biz - tavsif usuli (tadqiqot ishining asosiy nuqtalarini tavsiflash uchun); -qiyosiy tahlil (ingliz va o'zbek tillaridagi tadqiqot ishlarini solishtirish), - komponentli tahlil (komponent: butun frazeologik birlik yoki maqoldan zoonimlarni olish va uni tahlil qilish); -tekshirish muammosi bo'yicha adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish (tadqiqot mavzusiga bag'ishlangan ilmiy masalalarni tahlil qilish) kabi metodlardan foydalandik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Tadqiqot izlanishlari davomida shunga amin bo'lindiki, frazeologik birliklar obyekt sifatida ko'plab tilshunos olimlarni o'ziga maftun etib kelmoqda. Ularning ayniqsa, semantik, struktur va lingvomadaniy xususiyatlari ko'p o'rganilgan. Etimologik tadqiqotlar doirasida esa o'rganilishga ehtiyoj mavjud bo'lgan mavzular, javobini topib ulgurmagan savollar bisyor. Buning sabablari haqida mulohazalarini bo'lishar ekan, filologiya fanlari doktori, professor Do'stmamat Qulmamatov, o'zbek tili so'zlari etimologiyasiga oid tadqiq etilishi kerak ko'plab muhim manbalar arab yozuvida mavjudligi va unday adabiyotlar bilan ishlay oladigan, yoki ishlashni xohlaydigan tilshunos mutaxassislarimiz yetishmasligi masalasini ta'kidlab o'tadi. Etimologiya tilshunoslikning muhim va qiziqarli bo'limlaridan biri bo'lib, u so'z va morfemalarning kelib chiqishi va shakllanishini o'rganadi. Uni shuningdek, so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui sifatida ham ta'riflash mumkin bo'lib, tarixiy nuqtai nazardan esa "grammatika" ma'nosida qo'llanilish holatlari ham kuzatiladi (XIX asr). Rus tilshunos-olimi, etimologi Vasiliy Abayev italyan tilshunosi Vittore Pisanining

“L’etimologiya: storia – questioni – metodo” asari ruscha tarjimasi - “Etimologiya: istoriya, problemi, metod” (1956) nashriga so’zboshi yozar ekan, quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

“So’z tarixi xalq tarixi bilan chambarchas bog’liq. Shuning uchun ham muhim tarixiy va etnogenetik muammolarni hal qilishda etimologik tadqiqotlar birinchi darajali ahamiyatga ega. So’z tarixi, ularning kelib chiqishi va rivojlanishi ayni paytda inson tafakkurining tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini idrok etish, ularni o’zlashtirishga qaratilgan ko’p asrlik sa’y-harakatlari tarixidir. Shunday qilib, etimologik tadqiqotlar tilshunoslikning 2 ta asosiy muammosi: “til va tarix”, hamda “til va tafakkur” muammolari bilan bevosita bog’liq. ”

So’z tarixining eng taniqli tadqiqchilaridan biri miloddan avvalgi 116-27 yillarda yashab ijod qilgan Rimlik ensiklopedist-olim Mark Terensiy Varron (lotincha *Marcus Terentius Varrō)* bo’lib, u etimologiyani fan sifatida e’tirof etadi va “So’zlar nega va qayerdan kelib chiqadi?” degan savolga javob beradi. Garchi u zamonlarda so’zlar ma’nosini izohlashda hali biror ilmiy metodologiya mavjud bo’lmagan bo’lsa-da, Varron katta tadqiqotni amalga oshirgan. Uning so’z boyligi tarixida tovush o’zgarishi va so’z yasalishining o’rnini aniqlash borasidagi ishi tahsinga sazovor, deb baholanadi.

Varronning *“Uni izlashingiz kerak o’rmonda quyuq zulmat hukm surmoqda. Biz qadam bosmoqchi yo’llar yo’g’u, biz yurmoqchi yo’llarda yurishni kechiktiruvchi turfa to’siqlar mavjud”* degan etimologiya haqidagi gapi epigraf sifatida qo’llangan “K istokam slova” kitobida muallif Y. V. Otkupshipov rus tilidagi bir qator so’zlar tarixi xususida so’z yuritib, etmologiya ilmi haqida ham ko’plab ma’lumotlar taqdim etgan.

Kundalik hayotda ishlatadigan so’zlarimiz o’ziga xos xususiyat va shakliyatlarga, hali ochilmagan sir va topishmoqlarga, o’z tarixiga egaligini e’tirof etar ekan Y. V. Otkupshipov etimologik tahlil tamoyillarining murakkab va xilma-xilligini ta’kidlaydi:

“Etimologiyada o’z kashfiyotchisini kutayotganyechimga muhtoj ko’plab masalalar bor. Rus tilidagi (va boshqalarda ham) istalgan etimologik lug’atni olib qarang. Bunda “kelib chiqishi noma’lum”, “aniq tushuntirishi mavjud emas” mazmundagi izohli so’zlar ko’plab topiladi. Endi o’zingizni minglar orasidan birgina so’zni tadqiq etgan, va nihoyat masalaga yechim topgan etimolog o’rniga qo’yib ko’ring. Bu so’z paydo bo’lgan paytdagi ming yillik tarix qatlamlari ostida yashiringan ma’noni hali hech kim bilmaydi. Va faqat kashfiyotchi-etimologning mashaqqatli mehnati bu so’zning kelib chiqishini tushuntirishga imkon beradi. Ushbu onda tadqiqotchi boshdan kechirayotgan ijodiy mamnuniyatni yangi

quruqlikni kashf etgan dengizchi, yangi neft konini topgan geolog, yo kutilmagan yangi kombinatsiya yurishini o'ylab topgan shaxmatchi zavqiga qiyoslash mumkin. "

O'rta asrlarda etimologiya sohasida u qadar ko'p ishlar amalga oshirilmagan. Ispaniyaning Sevili arxiyepiskopi O'rta asrlar etimologiyasining eng ko'zga ko'ringan vakili bo'lgan. O'rta asrlar Ensiklopediyasi asoschisi Isidor Sevilsky (ispancha *San Isidoro de Sevilla*) (mil. av. 560-636) "Etimologiya" (Lotin etimologiyasi) kitobi muallifi hamdir. U narsalarning qiymatini etimologiyaning asosiy obyekti sifatida e'tirof etgan va ma'lum bir so'zlar etimologiyasini juda oddiy usulda tushuntirishga harakat qilgan.

Tilni tarixiy jihatdan ham o'rganish ahamiyatining yuqoriligi XIX asr boshlarida yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodi bilan yana-da isbotlandi. Chunki u vaqtga qadar tilni o'zgarmas hodisa sifatida bilishgan va nega ba'zi tillar o'rtasida o'zaro o'xshashlik borligi masalasiga ilmiy yechim topa olishmagan.

1816-yilda nemis tilshunosi Frans Bopp (1781-1867) "Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash" asarini yozish va boshqa qator tadqiqotlari orqali Hind-Yevropa tillarining qarindoshligini isbotlab berishga erishdi. Garchi u tillarning qarindoshligi masalasida bir qancha xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib berdi.

Etimologiyaning fan tarmog'i sifatidagi taraqqiyoti xususida tasavvurga ega bo'lish uchun ETYMOLOGY so'zini Google qidiruv tizimi orqali izlaganimizda, 1 230 000 000 ta natijani topishga muvaffaq bo'lgan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich mashhur ilmiy ishlar bazalari hisoblangan springer. com saytida 28 778 tani, base-search. net saytida 115 945 tani, webofscience. com bazasida 5 112 tani tashkil qildi (05. 05. 2023 yil holatiga ko'ra). bookauthority. org sayti tomonidan tuzilgan "Barcha zamonlarning 20 ta eng yaxshi etimologiya kitoblari" ro'yxatida *Word Power Made Easy (Norman Lewis, 2014), The Concise Oxford Dictionary of English Etymology (T. F. Hoad, 1986), From Etymology to Pragmatics (Eve E. Sweetser, 1991), Etymology (Yakov Malkiel, 1993), Barnhart Concise Dictionary of Etymology (Robert K. Barnhart, 1995), Concise Dictionary of English Etymology (Walter W. Skeat, 1998), Chambers Dictionary of Etymology (Robert K. Barnhart, Sol Steinmetz, 1999), The Oxford Dictionary of English Etymology (C. T. Onions, G. W. S. Friedrichsen, R. W. Burchfield, 1966), The Oxford Guide to Etymology (Philip Durkin, 2011),*

The Unexpected Evolution of Language (Justin Cord Hayes, 2012) kabi kitoblar o'rin olgan.

"Etimologik tahlilning maqsadi muayyan so'zning qachon, qaysi tilda, qanday yasalish qolipi bo'yicha, qaysi til materiali asosida qanday shakl va ma'noda paydo bo'lganini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy usul bo'lib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik o'zgarishlarga tayanib ish ko'radi. Bunday tadqiqot natijalari til tizimi va strukturasidagi turli jarayonlarni hamda so'zlarning etimologik ma'nolarini aniqlashda, etimologik lug'atlar tuzishda ahamiyatlidir. "

Ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiya va lug'atlarni o'rganib tahlil etar ekanmiz, sohada o'z yechimini kutayotgan qator masalalar borligiga guvoh bo'ldik. Frazeologik birliklar etimologik lug'atini tuzish ahamiyatli vazifa bo'lib, uning uchun materiallar yig'ish, tadqiqotlar olib borish lozim. M. Dadaboyev ta'biri bilan aytganda, "Har qanday tilning so'z boyligi u tarixiy, yoki zamonaviy tusda bo'lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug'atlarda ma'lum darajada aksini topadi. Lug'at til so'z boyligini o'zida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug'atlarning turi, miqdori va sifati bilan o'lchanmoqda. "

Etimologiya tilshunoslikning ko'plab sohalari bilan chambarchas bog'liq. Leksikologiyada so'zning semantikasi o'rganiladi, so'zning ma'nolari qanday va qanday ketma-ketlikda rivojlanishi, ulardan qaysi birini birlamchi deb hisoblash kerakligi aniqlanadi. Etimologik ma'lumotlarsiz so'zlarning tarixiy rivojlanishida yuzaga keladigan murakkab semantik siljishlarni tushunish qiyin, ba'zan esa imkonsizdir. So'z yasashning ko'plab savollari etimologik ma'lumotlar asosida hal qilinadi. Morfologiya tadqiqotchilari, ayniqsa, gap bo'laklarning paradigmatikasiga, so'zning morfemik tuzilishiga kelganda, etimologiyaga ham murojaat qilishadi.

Etimologiya oxiri yo'q ummon kabidir. Chunki so'zning paydo bo'lgandan bugungacha bo'lgan davrdagi shakl va ma'nolarini tahlil qilib bo'lganimizda ham, u yana o'zgarishda davom etaverishi mumkin. Ma'lumotlar doimiy ravishda ilmiy izohlar bilan qayd etib borilmasa, kun kelib avlodlarimiz bugungi yoziqlarni noto'g'ri talqin qilishi, natijada tarix, madaniyat, qadriyat, e'tiqod va deyarli barcha sohalar xususida yanglish xulosaga kelishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida etimologiya tadqiqi borasida so'z yuritganda esa o'zbek tilshunosligining zabardast vakillaridan biri hisoblanmish

Shavkat Rahmatullayev nomi birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Uning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" kitobi 3 jilddan iborat bo'lib, jildlar 2000, 2003, 2009-yillarda nashr etilgan va kitoblar o'zlashma so'zlarning qaysi tildan kirib kelganiga ko'ra turkumlangan. Shuningdek, Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978), "O'zbek frazeologiyasining ayrim masalalari" (1966) kabi qator ishlar muallifi hamdir.

O'zbek frazeologik birliklari mazmuni, variantlari va ba'zilarining kelib chiqish tarixi xususida ma'lumotlar taqdim etuvchi to'plam Shotursunqori Shomaqsudov va Shuhrat Shoraxmedovlarning birgalikdagi mehnati samarasi bo'lib, 2001-yilga nashrdan chiqqan ushbu kitobni mualliflar "Ma'nolarmaxzani" deya nomlashgan. Alifbo kesimidagi ketma-ketlikda berilgan qariyb 20 ming hikmatli so'zga izoh berilarkan, olimlar ularning variantlari, hozirgi kunda muomaladan chiqqan so'zlarining lug'aviy ma'nosi va kelib chiqish tarixiga oid ma'lumotlarni taqdim etadilar. Ushbu kitob o'zbek xalqi maqollari etimologiyasi xususida yozilgan kam sonli manbalardan biri hisoblanadi.

"O'zbek frazeologiyasi va frazeologiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti" monografiyasida (2-nashr, 2013) Bekmurod Yo'ldoshev sohada olib borilgan ishlarni, vazifa va kamchiliklarni atroflicha tahlil etgan. Frazeologiya xususidagi doktorlik dissertatsiyalari, monografiyalar, maqola va lug'atlarni tilga olar ekan, muallif ishlarning topilmalari barobarida kamchilik, yo g'alizliklariga ham ilmiy tanqid ko'zi bilan qaraydi. Monografiyaning umumiy xulosalarini bayon qilar ekan, "frazemalarning tarixiy taraqqiyotini diaxron yo'nalishda tadqiq etish e'tibordan chetta qolib ketmoqda. . , " deya kuyunib, "O'zbek tilining frazeologik kartoteka fondini tashkil etish bilan bir qatorda kelgusida dialektal, tarixiy, etimologik frazeologik lug'atlar, frazeologik sinonimlar, frazeologik antonimlar lug'atlarini tuzishga kirishish lozim"ligini ta'kidlaydi

Yusuf Nurmuhammedovning "Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari" monografiyasida (Samarqand, 2021) muallif til va madaniyat munosabatining lingvomadaniy aspekti, frazeologik birliklar tushuncha ko'lami, istifodagi atamalari, ularni tadqiq etish metod va usullari xususida ilmiy izlanishlari xulosalarini bayon etib, bir qancha tahlil namunalarini o'quvchi e'tiboriga havola etgan.

O'zbek xalq maqollari tadqiqi borasidagi dissertatsion ishlardan biri Bibish Jo'rayeva tomonidan olib borilgan bo'lib, u "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" (2019) deb nomlanadi. "Maqolning yondosh hodisalarga munosabatini aniqlash,

shu asosda uning lisoniy mavqeini belgilash, maqol paydo bo'lishining introlingvistik va ekstrolingvistik omillari hamda pragmatik xususiyatlarini tizimli o'rganish" maqsadida olib borilgan tadqiqot bir necha ilmiy yangiliklar qatorida "tilda barqaror kategoriyalar bilan bir qatorda oraliq hodisalar ham uchrashi, maqol va matal o'rtasida maqol-matal tipidagi paremalarning mavjudligi"ni asoslab bergani bilan ahamiyatlidir. Olima shuningdek, maqollarning kelib chiqishini asosan lisoniy, folkloristik, etnografik, diniy manbalar bilan bog'laydi va tahlillar vositasida maqollarni guruhlashtiradi.

So'zning kechasi va buguniga bo'lgan qiziqish adabiyotshunos olim Zuhriddin Isomiddinov ilmiy ijodida ham o'z aksini topdi. O'zbekiston xalq shoiri va qahramoni Erkin Vohidovning "Shunday kitob yozilishini orzu qilaman. Uning nomi "So'zning qismati" bo'lsa. Ona tilimizdagi so'zlarning uzoq bosib o'tgan yo'llari, boshdan kechirganlari, zafar va mag'lubiyatlari, goh shuhrat topib, goh unut bo'lishlari, kamolu zavollari tasvir etilsa… " degan so'zlaridan ilhomlanib yaratilgan "So'z qismati" (Etnografik etyudlar) asarida 20 ta maqola jamlangan (2020). Zoonim komponentli frazeologik birliklarning etimologik xususiyatlari tadqiqi Gulsara Xakimova ilmiy izlanishlarida ham tahlilga tortilgan bo'lib, olima Qutadg'u bilig va Alp-er-To'nga matnlaridagi zoonimlarni lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatlarini yoritib bergan (2019). Zoonimlarni so'z sifatida etimologik tadqiq qilish Baxtiyor Abdushukurovning "XI-XIV asr Turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar" (1998) nomzodlik dissertatsiyasida uchraydi. Funksional-semantik, leksik-semantik va struktur-grammatik tahlil asosida o'rganilgan qadimiy manbalarda qo'llanilgan hayvon nomlari arab yozuvi bilan ham ifodalanib, ularning iste'moldagi mazmun va shakl o'zgarishlari, boshqa tillar bilan bog'liqligi, turli olimlarning fikr va xulosalari o'rganilgan. Ingliz tilidagi etimologik tadqiqotlar masalasi esa anchagina taraqqiy etgan. Buni so'zlar va frazeologik birliklar uchun yaratilgan ko'plab lug'atlar, ularda keltirilgan etimologik ma'lumotlar, internet tarmog'idagi boy manbaga ega bo'lgan saytlar va loyihalar misolida ko'rishimiz mumkin. The Oxford dictionary of Proverbs (2008), Dictionary of Idioms and their Origins (Linda&Roger Flavell) (1992), Phraseology Thousands of bizarre origins, unecpected connections, and fascinating facts about English's best expressions (2008), The American Heritage Dictionary of Idioms (1997), Oxford Concise Dictionary of English Etymology (2000), Oxford Dictionary of English Etymology (1966), The Barnhart Concise Dictionary of Etymology (1995), Dictionary of Idioms and their Origins (Flavell, Linda) (1992), The Concise Dictionary of English Etymology (Skeat, Walter W.) (1993) lug'atlari, www. phrases. org. uk – Phrasefinder, www. etymonline. com

– Online Etymology Dictionary, www. bookbrowse. com internet saytlari shular jumlasidandir.

- **Xulosa (Conclusion)**

- Frazeologiyani, xususan zoonim komponentli frazeologik birliklar va ularning kelib chiqish tarixi - etimologiyasi o'rganilishini tahlil etar ekanmiz, ingliz va o'zbek tilshunoslari qo'lga kiritgan natijalar borasida keskin tafovut borligini ko'rdik. O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar etimologiyasining yanada chuqur va keng qamrovda tadqiq etilishi xalqning tarixi, ijtimoiy, siyosiy, diniy, madaniy hayoti o'tmishi va buguni, qadriyatlari va falsafasi haqidaboy madaniy me'rosimizning yana ko'plab yillar davomida yozma manbalarda saqlanishiga, o'zlikni yanada chuqqurroq anglashimizga, o'zbek tili jozibasini ilmiy asoslar bilan yanada mazmunliroq ochib berilishiga asos yaratadi. Chunki frazeologik birliklar xalq nutqining eng go'zal qismlaridan biri bo'lib, u milliy o'ziga xoslikni yaqqol namoyon etadi, nutqni ta'sirchan qiladi; katta qatlamni tashkil etadi. Shunga qaramasdan, o'zbek tilshunosligida, xususan frazeologiyasida barqaror birikmalarning kelib chiqish tarixi xususida ishlar juda kam. Frazeologik birliklarning etimologik lug'ati mavjud emas. Mavzu vaqtida o'rganilmasa qo'lga kiritilishi mumkin ma'lumotlar va manbalarni ham yo'qotishimiz mumkin. Tarixni o'rganishni kechiktirish o'rganish imkoniyatini butkul yo'q qilishi mumkin!

ADABIYOTLAR

Kunin A. V. Kurs frazeologii sovremennogo angliiskogo yazyka. Moscow. 1996. - 5b

Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeologiyasining shakllanishi hamda taraqiyoti. Samarqand. 2013. 112-113-b.

Amosova N. N. Osnovy angliyskoy frazeologii. - M. 1963. - 3b.

Kashapova V. A. V. V. Vinogradov and his contribution in stylistics. XII Mejdunarodnoy studencheskoy nauchnoy konferensii "Studencheskiy nauchniy forum". 2020.

Vinogradov V. V. Osnovniye ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissiplini. Izbraznniye trudi. Leksikologiya i leksikografiya. – M. , 1977. – 118 b.

Kunin A. V. Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika. M. :Vissh. shk. , 1996. – 380 b.

V. Pisani. "Etimologiya: istoriya, problemi, metod". M. , 1956

Otkupshipov Y. “K istokam slova”. Sank-Peterburg -2005, 5-6-betlar.

Irkashev J. , Khalimov S. “Istoriya etimologii” – Vestnik nauki I tvorchestva №2, 2019, 28-30-betlar.

Usmonov S. “Umumiy tilshunoslik”. T. -1972, 61-bet.

Dadaboyev H. “O’zbek terminologiyasi”. T. -2019, 16-bet.

Yo’ldoshev B. “O’zbek frazeologiyasi va frazeologiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti”. SamDu, 2013. 112-113-b.

9. OTURUM

POSTNATAL DEVELOPMENT OF THE THYROID GLAND IN CONDITIONS OF INTRAUTERINE EXPOSURE TO SMALL DOSES OF PYRETHROID PESTICIDES

Prof. Zokirova Nargiza

Olimboeyeva Donohon

Azizjon Oydinov

Islomova Sh. A.

Abstract

The influence of the mechanisms of the effect of pesticides through the mother's body on the formation of the thyroid gland of the offspring would make it possible to develop methods of prevention, early diagnosis and prediction of possible negative consequences in the younger generation. All this determines the high degree of relevance and scientific and practical significance of the planned work. The aim of the study was to identify the structural and functional features of the postnatal development of the thyroid gland of offspring under the conditions of intrauterine exposure to small doses of pyrethroid pesticides. The experiments were carried out on white adult female rats, for which the pesticides cyhalothrin fipronil were obtained respectively during pregnancy and lactation. The offspring from the experimental and control animals were studied at 3, 7, 14, 21 and 30 days after birth using morphology, electron microscopy, immunohistochemistry and biochemistry. It has been shown that the toxic effects of exposure to pesticides on the maternal body during pregnancy and lactation are manifested in the form of impaired growth and formation of thyroid cells. In the mechanism of action of pesticides, the imbalance between proliferation and apoptosis of thyroid cells, caused by both the direct

toxic effect of drugs, and the development of hypothyroidism and oxidative stress, plays a leading role.

Keywords

pesticides, developmental immunotoxicity, postnatal ontogenesis, immune system, apoptosis, cell proliferation.

Introduction

The use of pesticides is characteristic of modern agricultural production in all economically developed countries, because without their production and use, agriculture incurs huge losses. Of the pesticides allowed for use in the republic, more than half belong to the groups of pyrethroid and pyrazole preparations. Despite the relatively low toxicity of these compounds, the probability of their negative effects on the endocrine system remains very high. In this regard, pesticides pose the greatest danger to pregnant women and their offspring due to the high sensitivity of the developing endocrine systems of the fetus and newborn to toxic effects. It has been shown that the introduction of even small doses of pesticides into the body of pregnant and breast-feeding females negatively affects the state of the thyroid gland of their offspring [3, 4, 5]. Exposure to small doses of pesticides can have a negative impact on morbidity and the general population, and especially on indicators In this regard, the problem of studying the more subtle mechanisms of the toxic effect of pesticides, the search for means and methods for detecting preclinical negative changes in the human body or their offspring that occur under the influence of small doses of pesticides is currently very relevant. The results of these studies will undoubtedly contribute to the disclosure of the mechanisms of the toxic effect of pesticides and allow us to develop measures for secondary prevention and pathogenetic therapy of toxic effects. In addition, they can serve as a basis for reviewing the hygiene regulations of pesticides.

- The purpose of the work. Identification of structural and functional mechanisms of the toxic effect of pyrethroid pesticides on the thyroid and thymus glands of offspring under conditions of their exposure through the mother's body.

Object and methods of research. For the experiments, the insecticide titanium was used, registered in the Republic of Uzbekistan by the Uzbek-German LLC EuroTeam. The active ingredient of titanium is LST. Another drug registered in our Republic as an effective insecticide is vigor, the active ingredient of which is FPN. The physicochemical and toxicological characteristics of vigor and titanium are described in sufficient detail in

our publications [1, 2]. Experiments were carried out on white adult virgin female Wistar rats weighing 150-170 g, and mature male rats were used only for fertilization. The female rats were then divided into three groups of 45 rats each. The first (experiment 1) group of rats was administered LST through the mouth using a probe at the rate of 8 mg/kg/ daily. The second (control) group received in the same way. The second (experiment 2) group of rats was similarly injected with FPN at the rate of 3. 6 mg/ kg / daily, which corresponded to 1/100 of the LD50 of the drugs. The third group of rats, which received the same volume of sterile saline solution, served as a control. The administration of both pesticides to experimental groups of rats was carried out daily for 75 days until the end of the experiments. On the 31st day of the experiments, females of all groups were joined with males for fertilization. The onset of pregnancy was controlled by the presence of spermatozoa in vaginal smears. After pregnancy, the females are separated from the males and placed in separate cells for further research. Offspring from all groups of animals were killed on 7, 14, 21 and 30 days after birth, under mild anesthesia with ether. After killing, the serum concentrations of thyroxine (T4), triiodothyronine (T3) and thyrotropic hormone (TSH) were determined by immuno-enzyme analysis using special kits from Human (Germany) and the Singl spectrophotometer (Germany). The thyroid gland was studied using morphometric, immunohistochemical and electron microscopic methods. All digital data were statistically processed using a computer software package, differences satisfying $P<0.5$ were considered reliable.

The results of our own research. Exposure to pesticides through the mother's body significantly reduced the rate of growth and formation of thyroid in the offspring. There was a significant decrease in the average area of the thyroid slices compared with the corresponding age of the control group, which indicated a decrease in the volume of the organ as a whole. The average total area of follicles of all classes, and, accordingly, the number and height of thyrocytes in them, were significantly lower than the control. A marked lag in the rates of neoplasm and follicle formation in experimental groups of animals was revealed. A decrease in the size of mitochondria, as well as components of the endoplasmic network and the Golgi complex of thyrocytes was found. The morphological data fully corresponded to the hormone indicators, indicating a significant decrease in the concentration of T4 and T3. At the same time, the TSH level decreased moderately, which indicated a violation of the thyrotropic function of the pituitary gland.

Conclusions

Chronic intoxication of the mother's body with pesticides leads to a significant slowdown in the rate of postnatal growth and formation of secretory follicles of the thyroid of the offspring. Ultrastructural changes in the form of disorganization of the granular endoplasmic network and destruction of other cytoplasmic organelles of thyrocytes are a morphological substrate of thyroid dysfunction that occurs in the postnatal ontogenesis of the organ under conditions of chronic intoxication.

Literature

1. Corsini E., Sokooti M., Galli C. L., Morettoc A., Colosio C. Pesticide induced immunotoxicity in humans: A comprehensive review of theexisting evidence // Toxicology. – 2013. –Vol. 307. – P. 123–135.

2. Dhouib I., Jallouli M., Annabi A., Marzouki S., et al. From immunotoxicity to carcinogenicity: the effects of carbamate pesticides on the immune system // Environ Sci Pollut Res Int. – 2016. –Vol. 23. – P. 9448–9458.

3. Fukuyama T., Kosaka T., Tajima Y., Ueda H., et al. Prior exposure to organophosphorus and organochlorine pesticides increases the allergic potential of environmental chemical allergens in a local lymph node assay // Toxicol. Lett. – 2010. –Vol. 199. – P. 347–356.

4. Jiang J. Wu Wu S., An C., Cai X., Zhao L. X. Embryonic exposure to carbendazim induces the transcription of genes related to apoptosis, immunotoxicity and endocrine disruption in zebrafish (Danio rerio) // Fish Shellfish Immunol. – 2014. –Vol. 41. – P. 493–500.

5. Jin Y., Zheng S., Fu Z. Embryonic exposure to cypermethrin induces apoptosis and immunotoxicity in zebrafish (Danio rerio) // Fish Shellfish Immunol. – 2011. –Vol. 30. – P. 1049–1054. 6. Lin H. Y., Glinsky G. V., Mousa S. A., Davis P. J. Thyroid hormone and anti–apoptosis in tumor cells // Oncotarget. – 2015. – 6(17). – P. 14735–14743.

7. Mokarizadeh A., Faryabi M. R., Rezvanfar M. A., Abdollahi M. A comprehensive review of pesticides and the immune dysregulation: mechanisms, evidence and consequences // Toxicol Mech Methods. – 2015. –Vol. 25. – P. 258–278.

8. Skolarczyk J., Pekar J., Nieradko–Iwanicka B. Immune disorders induced by exposure to pyrethroid insecticides // Postepy Hig Med Dosw. – 2017. –Vol. 8. – P. 446–453.

9. Tukhtaev K. R. , Tulemetov S. K. , Zokirova N. B. , Tukhtaev N. K. Effect of long term exposure low doses of lambda–cyhalothrin on the level of lipid peroxidation and antioxidant enzymes of the pregnant rats and their offspring // Medical and Health Science Journal. – 2012. –Vol. 13. – P. 93–98. URL: http: www. pradec. en

10. Tukhtaev K. R. , Tulemetov S. K. , Zokirova N. B. , Tukhtaev N. K. et al. Prolonged exposure of low doses of Fipronil causes oxidative stress inpregnant rats and their offspring //The Internet Journal of Toxicology. – 2013. –Vol. 10. – No. 1. URL: http: www. ispub. com /IJTO/10/1/14550

11. Tukhtaev K. R. , Zokirova N. B. , Tulemetov S. K. , Tukhtaev N. K. Effect of prolongedexposure of low doses of lamda–cyhalothrin on thethyroid function of the pregnant rats and their offspring // Medical and Health Science Journal – 2012. –Vol. 13. – P. 86–92. URL: http: www. pradec. en

12. Tukhtaev K. R. , Zokirova N. B. , Tulemetov S. K. , Tukhtaev N. K. et al. Effect of Prolonged exposurelow doses of Fipronil on thyroid function of pregnant rats and their offspring // The Internet Journal of Toxicology. – 2013. – Vol. 10. –No. 1. URL: http: www. ispub. com /IJTO/10/1/14549

13. Tukhtaev N. K. , Zokirova N. B. The influence of in utero and early postnatal exposure to pesticides on the process of cells apoptosis and proliferation in immune and endocrine organs of the offspring // European Science Review –Austria, –Vienna, – 2017. –No. 3–4. – P. 57–58.

14. Zokirova N. B. Morphological and functional features of thyroid gland of posterity under in utero and early postnatal exposure to pesticides // European Science Review. –Austria, –Vienna, – 2017. –No. 3–4. – P. 33–34

TOXIC EFFECT OF PESTICIDE FASTOKIN ON THE MUCOUS MEMBRANE OF THE STOMACH

Prof. Zokirova Nargiza

Olimboyeva Donohon

Azizjon Oydinov

Shodmonova Dilsora

Sultonova Xurshida

Summary

The aim of the study was to identify the toxic effect of intrauterine and early postnatal exposure to pesticides on the development of the endocrine and immune system of offspring. The experiments were performed on white adult male rats, who respectively received pesticides cyhalothrin or fipronil during pregnancy and lactation. Progeny from experimental and control animals was studied on the 3rd, 7th, 14th, 21st and 30th days after birth using methods of morphology, electron microscopy, immunohistochemistry and biochemistry. It was revealed that the toxic effect of pesticide exposure during pregnancy and lactation is manifested in the form of growth retardation and formation of the thyroid and thymus glands of offspring. In the mechanism of toxic effect of pesticides on the immune-endocrine system, the leading role is played by the imbalance between proliferation and apoptosis of cells, caused both by direct toxic effects of drugs, both developing hypothyroidism and oxidative stress in mother and offspring.

Key words

pesticides; offspring; thyroid gland; thymus.

Actuality

Most pollutants are pesticides, but without them it is impossible to imagine the future development of agriculture. Their advantages are low toxicity for humans and animals and high pest control effectiveness even when used in small doses. Fastokin is an insecticide of a wide range, used for plants using a variety of methods, ranging from foliar sprays to treating seeds and soil to irrigate. The toxic effect of this drug, which is widely used in the republic, has not yet been fully studied in the digestive system.

Aim

The aim of this work was to learn the gastric mucosa in experimental animals with acute and chronic poisoning with pesticide "Fastakin".

Materials and methods

The experiments were performed in white rats with a body weight of 150-180 g. In acute poisoning, the drug was administered orally at ½ LD50, and the animals were tested at 3, 24, 72 hours and 7-15 days after poisoning. In the model of chronic intoxication, the drug was administered orally in a dose of LD50 1/20 for 45 days, and the rats were examined at 1, 3, 7, 15, 30 and 45 days of the experiment. The stomach was studied with the help of microscopic and morphometric methods.

Results and discussion

After the administration of the drug, the surface of the gastric mucosa is uneven, in places there are accumulations of mucus, in many places the gastric dimples are narrow, in places there are destructive areas of the covering epithelium with small detachments. The epithelium is low, with a low content of secretory granules, the nuclei of cells are euchromatized, in places picnotic. The glandular glands are densely located, the bottom of the glands is enlarged. Mucous cells are filled with secretory granules, in them the secretion synthesis is strengthened. From the side of the main cells there is a basophilia. Parietal cells are more resistant. In small vessels there are noticeable changes, the venules are enlarged, the endothelium is flattened, there are accumulations of cells around the vessels, between the glands and the muscular plate of the mucous membrane there are strands of connective cells, among which there are many lymphocytes. After 5 hours of mucus formation and the general deformation of the mucosa increases, swelling appears between the glands, the lumen of the glands in many places is clearly visible, in smooth parietal cells the smooth vesicles are smaller. The thickness of the mucous membrane is reduced by 1. 2 times.

Conclusion

Thus, in the early hours of poisoning in the mucosa there are destructive changes, accompanied by edema, blood filling, changes in the cells of the fundal glands and vessels of the stroma.

References

1. Khmelnitsky O. K. Cytological and histological diagnosis of thyroid diseases //St. Petersburg. - Medicine. -2002.

2. Yurina G. Yu. , Nevorotin A. I. , Bykov V. A. Ultrastructural and metabolic characteristics of thyrocytes under the action of cyclophosphane// Morphology-2004. Volume 125. -No. 1. -pp. 66-71.

3. Khamrokulova M. A. Clinical manifestations in patients with chronic intoxication with pesticides, treatment by correcting metobolic disorders// Theoretical and clinical medicine. -2014. -No. 1. -pp. 67-70. 4. Diamanti-Kandarakis E. , Soto A. M. , Zoller R. T. , Gore A. C. Endocrine-disrupting chemicals: an Endocrine Society scientific statement//Endocrr Rev-2009. -Vol. 30- P. 293-342.

5. Zoller T. R. Environmental chemicals targeting thyroid//Hormones (Athens). -2011. Vol. 9. -P. 28-40.

MORPHOLOGICAL ANAMNESIS OF THYROID DYSFUNCTION OCCURRING IN POSTNATAL ORGAN ONTOGENESIS IN CONDITIONS OF CHRONIC INTOXICATION.

Zokirova Nargiza

Rozieva B. O.

Annotation

The thyroid gland of the offspring obtained from mothers with chronic pesticide poisoning was examined on 1-90 days after birth using electron microscopic methods. It was revealed that intoxication of the mother's body significantly slows down the pace of postnatal formation of secretory follicles. Ultrastructural changes were detected in the form of disorganization of the granular endoplasmic network and destruction of other cytoplasmic organelles of thyrocytes. These changes are a morphological substrate of thyroid dysfunction that occurs in the postnatal ontogenesis of the organ in conditions of chronic intoxication.

Keywords

pesticides and thyroid hormones.

Relevance

A number of large-scale research works are being carried out all over the world aimed at developing and improving methods of prevention, early diagnosis and treatment of negative effects of pesticides on offspring in conditions of intrauterine and early postnatal exposure through the mother's body.

In this regard, of particular relevance are: issues of disclosure of biological mechanisms of toxic effect development; development of toxicological tests to determine the residual amounts of endocrine-destroying pesticides and their metabolites; improvement of methods for

determining pesticides in water, soil and air in hot climates and assessing the degree of their negative effects; identification of mechanisms of endocrine-destroying effect of pesticides on progeny and development of methods for early diagnosis of latent toxic effects. Nevertheless, many issues related to the endocrine-destroying effect of small doses of modern pesticides, through the mother's body to the fetus and child, remain insufficiently clarified to date.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yo‘nalishlar	O‘zbekiston	
Kimyo fanini o‘qitishi	7-11 sinf - o‘rta maktab, 10-11 akademik lisey,	5-6 sinf – boshlang’ich 7-9 sinf o’rta maktab
Fanga oid dasturlar	standart talablari asosida ishlab chiqiladi	maktab talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladi
Fanning nomi	anorganik kimyo, organik	anorganik kimyo, organik
Fanga ajratilgan soatlar	xaftasiga 2 soat	xaftasiga 2 soat
Darsliklar	har bir sinflar buyicha darsliklar mavjud	darslik va o‘quv qo‘llanmalar Internet materiallari asosida
Texnik ta'minot	laboratoriya xonalari kimyoviy jixozlar va moddalar etishmovchiligi mavjud.	Har bir maktab bazasidan kelib chiqqan holda mavjud
Didaktik materiallar	darslik, o‘quv qo‘llanma, tarqatma materiallar, texnik vositalar, kompyuter taqdimotlari	Internet materiallari va unda foydalaniladigan platformalar
Baholash usullari	umumta'lim maktablarida chorak va yakuniy akademik litsey va kollejda joriy, oraliq va yakuniy nazorat	o’rtacha, qoniqarli) yani raqamli baho qo’yilmaydi.
	Og’zaki, yozma	Prezentatsiya ko’rinishda beriladi

Jadval mualliflar tomonidan tuzilgan

Korreyada tabiiy fanlarni o'qitishda atrof- muhitda sodir bo'ladigan hodisalar orqali tushuntirish hamda ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin

qilish; tadqiqotlarni baholash va rivojlantirish uchun amaliy kompetensiyalardan foydalanishadi. Janubiy Koreyada ta'lim asosan taqqoslashga moslashtirilgan. O'quvchilarni internetdan foydalanishga o'rgatiladi yani Googl, sunniy intelekt kabilar. Mustaqil tadqiqot qilish, ijodkorlik, yaratgan narsalarini kundalik xayotda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Har bir darsda o'rganilgan ma'lumotlarni qayerda qo'llay olish mumkin va iqtisodiy jixatdan qanday foyda olish mumkin degan savol qo'yiladi. Darslar kasbga yo'naltirilgan holda olib boriladi. O'quvchilarga mustaqil ishlash ucun loyiha ishlar beriladi. Loyiha ishini individual yoki kichik guruhlarda bajariladi. Loyiha ishini bajarishda muammo o'rtaga tashlanadi, muammoni hal qilish uchun o'quvchilar ma'lumot yig'shadi va o'z qo'llari bilan bajarishadi. O'quvchilarga kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni dizayni, materialini ozgartirishlari taklifi beriladi. Bu usul kreativ fikrlash, ijodgorlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlikni shakillantiradi.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations).

Koreyada o'quv tizimidaturli xil interaktiv metodlardan foydalaniladi: jamoali o'qish, hamkorlikda o'qitish, guruhli ishlash, intervyu, mustaqil o'qish. Bu usullar kimyo fanini o'qitishda keng qo'llaniladi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimining yutug' tomonlari ko'p, masalan: qiyosiy tahlili mavjudligi, sifatni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilganligi; ijodiy muhit yaratilganligi; ishlab chiqarish korxonalarda o'quvchilar uchun shartnoma asosida ishlash imkoniyati yaratilganligi; har bir o'quvchiga tarqatma material kelgusi dars uchun berib yuborilishi; javob bera olmagan o'quvchilarni ham o'qituvchi xushmuomalalik bilan to'g'ri yo'naltira olishi; ta'lim maqsadi individuallashganligidir.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib quyidagilarni O'zbekiston ta'lim tizimiga ham joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Janubiy Koreyada kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishni ta'minlovchi metodlarni mamlakatimiz ta'lim tizimiga tatbiq etish;

2. Kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv dastur va o'quv reja, dars soatlarini xorij davlatlari asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

3. Kimyo fanini ishlab chikarish bilan bog'lab o'qitish

4. Mamlakatimizda xususiy maktablarni ko'paytirish;

5. Ishlab chiqarish korxonalarda o'quvchilar uchun shartnoma asosida ishlash imkoniyati yaratish;

Foidalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oli ta'lim berdi tizimin yanada rebohlanting chorasi-samarali chora" gi PK-2909-sonli qarori. 2017 yil, aprel 20.

2. Qiyosiy Ta'lim. Sohail Naqvi. Jurnal-srpnember No. 6. 2012yil / sahifa 55/

3. Miralieva D. Jahon tizimidan dars beradi. Vinkvu uslubi majmua. T. : Iqtisodiyot. , 2016 y, 30-darajasi

4. Qiyosiy Ta'lim. Sohail Naqvi. Jurnal-srpnemberatakliflar 6. 2012yil / sahifa 56

5. Fayzullayeva N. Jahon tizimidan dars beradi. T. : TDIU. Onkuv kulanma. "Iqtisodiyot". , 2016 y

6. Fayzullayeva D. zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Bin uslubidagi majmua. T. : TDIU. , "Iqtisodiyot". , 2017 y

7. Miralieva D. Jahon tizimidan dars beradi. Bin uslubidagi majmua. , T. : Ekonomika. , 2016 y

8. Mamadjonov I. T. D. , "Iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar" elektron fan jurnali. # 6, noyabr-dekabr, 2017 yil

The South Korea State Of Ham.

POLIVINILXLORIDNI TIOKARBAMID ISHTIROKIDA MODIFIKATSIYALAB ANIONIT OLINISHI.

Babojonova G. Q

Bekchanov D. J

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,

Muxamediyev M. G

Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Annatatsiya

Ma'lumki polivinilxlorid polietilen va polipropilen bilan bir qatorda eng muhim katta tonnajli arzon qurilish polimeridir. Shu sababli xam uning chiqindilari miqdori doimiy ravishda oshib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri polimer transformatsiyalari orqali PVX ni kimyoviy modifikatsiya qilishdir. Ushbu sharxda PVX nitiokarbomid bilan modifikatsiya qilinishidan oldin sirt yuzasi va g'ovakligini oshirish uchun ekstraksiya qilinib ekstraksiya qiluvchi aralashma etilasetat va etil spirtlarining hajmiy nisbatlari 8:2 bo'lgan aralashmadan foydalangan holda ekstraksiyalangan granulalangan polivinilxloriddan foydalanilgan. Ekstraksiya davomiyligi 4 soat qilib belgilangan. Shuningdek anionit sintez qilish sharoitlarimuhokama qilinib, massa nisbati 1:4 olingan, modifikatsiyalash harorat bo'yicha maqbul sharoit 448 K qilib belgilandi. modifikatsiyalash davomiyligini 7 soatgacha oshirib borilganda olingan anion almashinuvchi materialning statik SAS qiymati 6 soatgacha ortib bordi, keyinchalik esa sezilarli darajada o'zgarish kuzatilmadi. Shunga asoslanib PVXni tiokarmbamid bilan modifikatsiyalash maqbul vaqt 6 soat etib belgilandi.

Kalit so'zlar

PVX, modifikatsiya, tiokarbamid, anionit.

Annotation

It is known that polyvinyl chloride, along with polyethylene and polypropylene, is the most important large-tonnage cheap construction polymer. For this reason, the amount of its waste is constantly increasing. One way to solve this problem is to chemically modify PVC through polymer transformations. In this review, before modifying PVC with thiocarbamide to increase its surface area and porosity, the extracting mixture is an 8:2 volume ratio of ethyl acetate and ethyl alcohol. used granulated polyvinyl chloride extracted using The duration of extraction is set to 4 hours. Also, the conditions of synthesis of anionite were discussed, the mass ratio was 1:4, and the optimal condition for the modification temperature was set at 448 K. when the duration of modification was increased to 7 hours, the static SAS value of the obtained anion exchange material increased up to 6 hours, and then no significant change was observed. Based on this, the optimum time for modification of PVC with thiocarbamide was determined to be 6 hours.

Keywords

PVC, modification, thiourea, anionite.

Kirish

Jahon miqiyosida ionalmashinuvchi sistemalarda qo‘llaniladigan sintetik ionitlarni ishlab chiqarish oxirgi yillarda ikki barobar ortgan. Biroq sanoat korxonalari kengayib va rivojlanib borgan sari anionalmashinuvchi va kationalmashinuvchi materiallarga bo‘lgan talab dinamik ravishda ortib boraveradi. Polivinilxlorid (PVX) arxetektura , elektronika, kimyo muhandisligi, qadoqlash, transport kabi sohalarda keng qo‘llaniladigan besh turdagi umumiy plastik materiallar orasida polietilendan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bunga sabab ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi va uning ko‘p qirraliligidir[1]. Polimerni plastifikatorlar, stabilizatorlar kabi modifikatsiya qiluvchi moddalar yordamida juda keng miqyosda fizik va kimyoviy hususiyatlarga ega bo‘lgan turli mahsulotlarga aylantirish mumkin. Granulalangankamxarj plastifikat PVX va mahalliy modifikatorlar ishtirokida ionitlar ishlab chiqarish va sanoat korxonalar ehtiyojini qondirish dolzarb muammodir. So‘nggi yillarda sanoat korxonalarida hamda gidrometallurgiyada eritma tarkibidagi rangli va qimmatbaho metall ionlarini ajratib olishda, suvlarni tuzsizlantirishda va oqova suvlarini zaharli ionlardan tozalash uchun eng keng qo‘llaniladigan, iqtisodiy jihatdan arzon va samarali bo‘lgan usuli ionitlar ishtirokida ionalmashinish usulidir [2; 3].

Eksperimental qism

Bizga ma'lumki, granulalangan plastikat polivinilxlorid donador o'lchami 0, 063 mm bo'lgan suspenzion usulda olingan kukunsimon polivinilxloridni plastifikatsiyalash orqali olinadi. Olingan granulalangan plastikat polivinilxlorid tarkibida PVX bilan birgalikda plastifikator, stabilizator va boshqa to'ldiruvchilarni saqlaydi. Granulalangan plastikat polivinilxlorid tarkibida plastifikator sifatida asosan alkilftalatlar qo'llaniladi. Polivinilxloridni modifikatsiyalashdan oldin tarkibidagi plastifikator va boshqa qo'shimcha materiallarni chiqarib yuborish lozim. Plastikat PVX ni ekstraksiya qilish orqali tarkibidagi qo'shimcha moddalarni chiqarib tashlanadi. Biz tadqiqot ishimizda ekstarksiya qilish uchun etilasetat va etil spirtining turli hajmiy nisbatdagi aralashmalaridan foydalanib ekstraksiya davomiyligini 1, 2, 3, 4 va 5 soat davomida olib bordik. Buning natijasida granula o'lchami 1-3 mm bo'lgan granulalar o'lchami 0, 5-2, 5 mm gacha kichiklashgani ekstraksiyadan keyin polimerning massasi dastlabgi massaga nisbatan 5-38% gacha kamaygani kuzatildi.

Quyidagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, ekstraksiya qiluvchi aralashma tarkibidagi etilasetatning hajmiy miqdori ortishi bilan ekstraksiya qilingan PVX ning massasi kamayib borgan va ekstraksiya uchun maqbul hajmiy nisbat 8:2 bo'lganda kuzatilgan. Maksimum 100% etilasetat ishtirokida ekstraksiyalangan polivinilxloridni maqbul sharoit sifatida olinmaganiga, 100% etilasetat ishtirokida ekstraksiyalangan PVX granulyar shaklini yo'qotganligi sabab bo'ldi.



Ekstraksiya natijasida PVX ning massa kamayishi plastikat polivinilxlorid tarkibidan plastifikator va boshqa qo'shimchalar chiqib

ketganidan dalolat beradi. Bu esa ekstraksiyadan keyin polivinilxlorid granulalar ichida yangi g‘ovaklar paydo bo‘lishiga va materialning sirt yuzasi kengayishiga olib keladi va modifikatsiya unumi yuqori bo‘lishiga olib keladi. Buni geterogen reaksiyalarda qattiq moddalar sirt yuzasi ortishi bilan reaksiyaga kirishish ko‘lami ortishi bilan oldindan xulosa qilishimiz mumkin. Keyingi modifikatsiyalash ishlarini amalga oshirishda ekstraksiya qiluvchi aralashma etilasetat va etil spirtlarining hajmiy nisbatlari 8:2 bo‘lgan aralashmadan foydalangan holda ekstraksiyalangan granulalangan polivinilxloriddan foydalanilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarimizda granulalangan polivinilxloridni mahalliy quyi molekulyar reagent tiokarbamidlar ishtirokida modifikatsiyalab yangi anion almashinuvchi materiallar olish maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. Buning uchun ion almashinuvchi materiallarga standart bo‘yicha qo‘llaniladigan talablardan kelib chiqib “NAVOIYAZOT” AJ da ishlab chiqariluvchi donador polivinilxloridni mahalliy tiokarbamid ishtirokida modifikatsiyalab anion almashinuvchi materiallar sintez qilindi. Dastlab modifikatsiya jarayonini amalga oshirishdan oldin modifikatsiyalash uchun olingan donador plastifikat polivinilxloridni g‘ovaklik darajasi va sirt kengligini oshirish maqsadida oldin polimer materialni etilatsetat va etil spirti aralashmalari yordamida plastifikatordan ekstraktsiyalanadi. Ekstraktsiyalashdan so‘ng donador polivinilxlorid shishib, g‘ovaklik darajasi ortadi, bu esa modifikatorlarning polivinixlorid ichgi g‘ovaklarigacha kirib borishiga imkon beradi. Ekstraksiya qilinib g‘ovaklik darajasi oshirilgan polivinilxloridni modifikatsiyalovchi reagent “NAVOIYAZOT” AJ da ishlab chiqariluvchi karbamid va tiokarbamid tanlab olindi, chunki ishimizning asosiy maqsadi to‘liq mahalliy xomashyolar asosida anion almashinuvchi materiallar olish bo‘lgan. Bu modifikatorlarning ikkalasida ham bir xil tarkibida ikkitadan amino guruh mavjud. Polivinilxloridni modifikatorlar ishtirokida modifikatsiyalash uchun polivinilxlorid va modifikator turli massa 1:2, 1:3, 1:4, 1:5, 1:6, 1:7, 1:8 nisbatlarda olingan.

Tadqiq qilinadigan reagentlar PVX va $CS(NH2)_2$ larning o‘zaro turli massa nicbatlarida modifikatsiyalash reaktsiyalari olib borildi(1-jadval).

1-jadval

ПВХ-NH-(CS)-NH_2 масса нисбати	1:1	1:2	1:3	1:4	1:5
САС(HCl) мг-экв/г	0, 98	1, 25	1, 87	2, 34	2, 34

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, massa nisbati 1:4 olingan SAS statik almashinuv sig‘imi) yuqori chiqadi. Modifikatsiyalash reaktsiyasini temperatura 428 K, 438 K, 448 K, 458 K, 468 K larda va 3, 4, 5, 6 , 7 soat vaqt davomida o‘tkazilgan. Modifikatsiyalash jarayoni muhit harorati ortishi bilan hosil bo‘lgan anionitning SAS qiymati 448 K gacha ortgan, keyin harorat yana oshirilganda statik almashinish sig‘imi ham massa o‘zgarishi ham kamaygan, bunga sabab, harorat 443 K dan boshlab PVX termik destruktsiyaga uchray boshlaganligi va 448 K haroratda polivinilxlorid termik destruktsiyasi modifikatsiyaga nisbatan sezilarli darajada ortganligidan dalolat beradi.



(a)



(b)

(a)-rasm. PVX va tiokarbamid asosidagi anionit SAS qiymatini reaktsiya haroratiga bog‘liqligi (massa nisbat 1:4, harorat 448K).

(b)-rasm. Reaktsiya davomiyligi (soat).

Olib borilgan mazkur tadqiqotlar natijasida polivinilxloridni tiokarbamid ishtirokida modifikatsiyalash harorat bo‘yicha maqbul sharoit 448 K qilib belgilandi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, granulalangan PVXni karbamid ishtirokida modifikatsiyalash davomiyligini 7 soatgacha oshirib borilganda olingan anion almashinuvchi materialning statik SAS qiymati 6 soatgacha ortib bordi, keyinchalik esa sezilarli darajada o‘zgarish

kuzatilmadi. Shunga asoslanib PVXni tiokarmbamid bilan modifikatsiyalash maqbul vaqt 6 soat etib belgilandi.

Natija va xulosalar. Granulalangan polivinilxloridni tiokarbamid ishtirokida modifikatsiya qilish orqali sintez qilingan anion almashinuvchi materialni identifikatsiya qilish va tarkibidagi mavjud funktsional guruhlarini aniqlash maqsadida FT-IR spektraskopik tahlili olib borildi olingan natijalar quyidagi (s)-rasmda keltirilgan:



1-rasm. Polivinilxlorid va tiokarbamid asosidagi polimer materiallarning FT-IR spektrlari IQspektr analizi

Hosil bo‘lgan polimerlarning IQ-spektrlarida 807 sm-1 doiralarda jadal yutilish chiziqlari aniqlanib, ular o‘z navbatida C-Cl valent tebranishlari uchun, 1402 sm-1 dagi chiziq esa tion guruhining (C=S) valent tebranishiga hos. Barcha o‘rganilgan namunalar uchun 1017-1097 va 2809 sm -1 doiralarda yutilish chiziqlari kuzatilib, deformatsion =C-H va defarmatsion -CH2 tebranishlariga hosdir. 1630-1650 sm-1 doiralarda yutilish chiziqlari kuzatildi, ushbu yutilishlar >C=C< bog‘larning valent tebranishlariga hosdir. Ushbu chiziqlarning paydo bo‘lishi vinilxloridli pog‘onalarning degidroxlorlanishi bilan bog‘liqdir. 2045 sm-1 yutilish sohalarida esa N=C=S bog‘lanishiga hos bo‘lgan shuningdek, 3043-3131 sm -1 yutilish sohalarida aminlarga tegishli bo‘lgan yutilish sohalari aniqlandi[4;5].

Shuningdek sintez qilingan material ko‘ndalang kesimi sirt yuzasidagi element atomlarining tarqalish energiya dispersiv X-ray (EDX) analizi yordamida tekshirildi va natijalar xaritasi keltirildi.



2-rasm. anion almashinuvchi materialining (g)-X-ray (EDX) analizi

PVX asosida sintez qilingan anionitining energiya dispersion mikro X-ray radiation (EDS) analizida keltirilgan natijalardan shuni ko‘rish mumkinki, olingan material tarkibida 9, 5 % N azot atomlarini saqlagan material sintez qilingan, bu esa sintez qilingan anionit yuqori sorbtsion xossaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Olingan anion almashinuvchi materialning yuqorida keltirilgan tarkibi va tuzilishini zamonaviy usullar yordamida olib borilgan tadqiqotlar natijasi asosida umumiy xulosa qilib polivinilxloridni tiokarbamid ishtirokida modifikatsiyalash reaktsiyasi qo‘yidagi qo‘rinishda bo‘ladi deb taxmin qilindi va shu ko‘rinishda ifodalash tavsiya qilindi.



3-rasm. Polivinilxloridni tiokarbamid ishtirokida modifikatsiyalash sxemasi

Polivinilxloridni tiokarbamid bilan reaktsiya sxemasidan ko‘rinib turibdiki, hosil bo‘lgan polimer material tarkibida birlamchi -NH2 va ikkilamchi >NH aminoguruhlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, olingan polimer material tarkibini EuroEA Elemental Analyzer uskunasida tekshirish natijalari ham sintez qilingan polimer material tarkibidaazot atomlari saqlaganligi, PVX va tiokarbamid asosida sintez qilingan anion almashinuvchi material tarkibida birlamchi va ikkilamchi aminoguruhlar saqlaganligi bu materialning anion almashinish xossasiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa

Sanoat oqava suvlarini tozalashning bir qancha usullari bo‘lib, bularning ichida ionalmashinuvi materiallar orqali oqava suvlarni tozalash usuli eng ahamiyatlisidir. Shuning uchun ham tan narhi arzon bo‘lganmahalliy xomashyolar asosida ionitlar sintez qilish bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

[1]. S. Moulay, Chemical modifikacion of poly(vinly chloride)-Still on the run. Progress in Polymer Scence 35(2010) 303-331

[2]. Li, Zhili. Synthesis of a carbamide-based dithiocarbamate chelator for the removal of heavy metal ions from aqueous solutions. Journal of Industrial and Engineering Chemistry, 2014. 20(2), 586–590 pp.

[3]. Diniz C. V. , Doyle F. M. , Martins A. H. Uptake of heavy metals by chelating resins from acidic manganese chloride solution, Minerals Metallurgy Processing, 2000; Vol. 17, pp. 217-222.

[4]. Mukhamediev, M. G. , Bekchanov, D. Z. New Anion Exchanger Based on Polyvinyl Chloride and Its Application in Industrial Water Treatment. Russ J Appl Chem 92, 1499–1505 (2019). https://doi. org/10. 1134/S1070427219110053.

[5]. Davron B, Mukhtar M, Nurbek K, Suyun X, Murod J. Synthesis of a new granulated polyampholyte and its sorption properties. Int J Technol. 2020; 11(4):794-803. https://doi. org/10. 14716/ijtech. v11i4. 4024.

THE EFFECTS OF 14-BENZOYLKARAKOLINE ON CONTRACTIVE ACTIVITY OF RAT AORTA SMOOTH MUSCLE CELLS

Mirzayeva Yu. T.

Usmanov P. B.

Saidmurodov S. A

Abrayeva Z. Ch

acad. S. Yu. Yunusov AS RUz

Ymirzayeva@mail. ru

Abstract

It was investigated how 14-benzoylkarakoline affected the rat aortic smooth muscle cells' ability to contract. According to the results, rat aorta preparations that had been constricted by the beta-adrenergic receptor agonist phenylephrine are successfully relaxed by 14-O-BK. It can be deduced that the relaxant effect of the studied alkaloid is caused by the suppression of the transport of Ca^{2+} ions at the SR level in light of the fact that the contractions induced by this antagonist are primarily caused by the activation of the release of Ca^{2+} ions from the SR through IP_3R.

Keywords

smooth muscles, sarcoplazmic reticulum, aorta, phenylephrine, Ca^{2+} channel, 14-benzoylkarakoline.

Introduction

Cardiovascular disease is one of the most common pathologies and today occupies one of the first places among the mortality and disability of the population of the developed countries of the world [1]. According to modern data, in the development of diseases of the cardiovascular system, there are violations of the contractile activity of smooth muscle cells (SMC), vascular tone, transport of Ca^{2+} ions [2]. In this regard, one of the most urgent tasks of modern medicine is the development of new approaches to adequate treatment of arterial hypertension, based on the latest advances in molecular pharmacology.

The purpose of the study: to characterize the effect of the alkaloid 14-benzoylkarakoline (Fig. 1) on the transport of Ca^{2+} ions in the sarcoplasmic reticulum (SR). 14-benzoylkarakoline (14-BK), a derivative of diterpenoid alkaloid karakoline, isolated from Aconitum karakolicum, has been reported to possess diverse pharmacological properties, including spasmolytic, antiarrhythmic and anesthetic activities [3, 4].



Figure 1. Chemical structure of 14-benzoilkarakoline

Materials and Methods

Tissue Preparation. All experimental protocols and conditions for preoperative care were approved by the animal use committee of our institution. Adult male Wistar rats weighing 200 – 250 g were anesthetized with sodium pentobarbital and their thorax was opened and the thoracic aorta was quickly removed and immediately placed in Krebs solution contained (in mmol/l); 118 mM NaCl, 5 mM KCl, 25 mM NaHCO3, 1. 2 mM MgSO4, 2 mM CaCl2, 1. 2 mM KH2PO4, 11 mM glucose. All the dissection procedures were performed with extreme care to protect the endothelium from inadvertent damage. The aorta was cleaned of adipose and connective tissue and cut into rings (2–3 mm long) [5].

Aortic-ring contraction studies

The aortic rings were mounted using two stainless hooks, one fixed to the bottom of the organ bath (Radnoti Glass, NSW, AUS) and the other connected to a force transducer. The organ bath was superfused with Krebs solution, bubbled with a 95% O2-5% CO2 gas mixture, and maintained at 37 C. The aortic rings were equilibrated in Krebs solution under the tension of 1 g, for 60 min during which period the Krebs solution was replaced at least twice. Aortic ring contraction was recorded, isometrically using a force transducer (FT-03; Grass Instrument Company, USA) coupled to a computer-based data acquisition system (PowerLab, ADInstruments) connected to a chart recorder Endim 621-02 (Germany) [5].

Results and Discussion

In the past, we discovered that the diterpenoid alkaloids talatizamine and 14-benzoylkarakoline may successfully relax rat aortic preparations that had been previously constrictive due to the presence of norepinephrine and hyperkalium solutions. In our experiments, PE (1μM) in the presence of verapamil (0. 1μM) induced aortic contractions, the strength of which was 10, 9 ± 2, 3% less than the force of contractions caused by it in the absence of verapamil. Under these circumstances, the addition of 14-BK alkaloid significantly reduced the force of PE-induced aortic contractions, which fell by 62. 7 ± 4. 1% of the control, respectively.

The results indicate that the observed effect of the studied alkaloid may be due to the blockade of receptor-gated Ca^{2+} channels. This is confirmed by experiments with the blocker of α-phenadrenergic receptors - phentolamine, in the occurrence of which the effect of the alkaloid 14-BK on FA-induced short aorta decreased by 45. 2 ± 3. 8%, respectively, from the control obtained in the absence of phentolamine (Fig. 2).



Figure 2. Effect of phentolamine (10 μM) on the relaxant effect of 14-BK (*p<0. 05, **p<0. 01; n=5).

These findings suggest that the receptor-gated Ca^{2+} channel blockage may also contribute to the relaxing effects of the 14-BK alkaloid. Thus, analysis of the data obtained in these experiments shows that the alkaloid 14-BK effectively relaxes rat aortic preparations previously reduced by the α-adrenergic receptor agonist fenlephrine.

References

1. Roth G. A. , Johnson C. , Abajobir A. , et al. Global, regional and national burden of cardiovascular diseases for 10 causes, 1990 to 2015. // J. Am. Coll. Cardiol. – 2017. – V. 70. – P. 1-25.

2. Wright P. , Thomas M. Pathophysiology and management of heart failure // Clinical Pharmacist. – 2018. – V. 10 (12). – P. 261-269.

3. Boronova, Z. S. , Sultankhodzhaev, M. N. , "Alkaloids of Delphinium poltoratskii", Chemistry of Natural Compounds. 2000, 36, 390-392.

4. Dzhakhangirov F. N. , Sultankhodzhaev M. N. , Tashkhodzhaev B. , Salimov B. T. , 1997. Diterpenoid alkaloids as a new class of antiarrhythmic agents. Structure–activity relationship. Chem. Nat. Compd. 1997, 33, 254-269. 262-263

5. Mirzaeva Yu. T, Ismailova D. S, Shkinev A. V, Usmanov P. B, Elmuradov B. Zh. The effect of 5-(4-aminophenyl)-4-amino-1, 2, 4-triazole-3(2h)-thion on rat aortic smooth muscle cells. Experimental and Clinical Pharmacology 2023; 86 2 Ñ. 3 – 7. doi: 10. 30906/0869-2092-2023-86-2-3-7

BOLALARDA KAMQONLIKNI DAVOLASHDA AMALDA QO'LLANILAYOTGAN (STANDART) VA TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBLARINI QIYOSIY TAQQOSLASH

Ozod Kuliev

Annatotsiya

Amalda bolalardagi kamqonlik holatini davolash va oldini olish masalalariga yondashish har doim ham individual, differentsiallashgan tarzda olib borilmaydi, ko'p hollarda shifokor faqat gemoglobin ko'rsatkichlariga tayangan holda kamqonlik tashxisini qo'yadi va temir preparatlaridan iborat monoterapiyani tayinlaydi. Amaldagi davolash muolaja kursidan keyin o'rtacha 5-10 g/l ni tashkil qildi, bu davolash standartlarida ko'rsatilgan muddatlarda gemoglobin darajasi tiklanishini ta'minlab bermaydi. Amalda qo'llanilayotgan va takomillashtirilgan davolash uslublarini qiyosiy taqqoslash uchun baholash mezonlari sifatida gemoglobin, retsidivlar uchrash tezligi, o'tkir respirator kasalliklar va o'tkir ichak infektsiyalari bilan kasallanish ko'rsatkichlari olindi va taqqoslandi.

Kalit so'zlar

Kamqonlik (anemiya), bolalar, mikronutrientlar, davolash, taqqoslash

Abstract

The modern approach to the treatment and prevention of anemia in children is not always individualized, differentiated, in many cases the doctor diagnoses anemia, based solely on hemoglobin, and prescribes a monotherapy consisting of. The current treatment averaged 5-10 g / l after the course of treatment, which does not ensure restoration of hemoglobin levels during the periods indicated in the treatment standard. Hemoglobin, relapse rate, incidence of acute respiratory infections and incidence of acute intestinal infections were obtained and compared as

evaluation criteria for comparative comparison of applied and improved treatment methods.

Keywords

Anemia, children, trace elements, treatment, comparison

Muammoning dolzarbligi

Amalda bolalardagi kamqonlik holatini davolash va oldini olish masalalariga yondashish har doim ham individual, differentsiallashgan tarzda olib borilmaydi, ko'p hollarda shifokor faqat gemoglobin ko'rsatkichlariga tayangan holda kamqonlik tashxisini qo'yadi va temir preparatlaridan iborat monoterapiyani tayinlaydi. Bunday yondoshish esa odatda, kerakli natijalarni bermaydi. Bundan tashqari, ko'pchilik hollarda kamqonlikning haqiqiy sababi aniqlanmaydi, yondosh kasalliklar e'tiborga olinmaydi, ferroterapiyaning dozalari va muddatlariga rioya qilinmaydi, bolalar ovqatlanishi masalalariga ham yetarlicha ahamiyat bermaydi.

Bolalarni sog'lomlashtirish masalalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, gemoglobinning o'sish ko'rsatkichi past va amaldagi davolash muolaja kursidan keyin o'rtacha 5-10 g/l ni tashkil qildi, bu davolash standartlarida ko'rsatilgan muddatlarda gemoglobin darajasi tiklanishini ta'minlab bermaydi. Barcha yosh guruhlari ularga xizmat ko'rsatayotgan oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punktlaridan olingan ko'rsatkichlar bir biriga o'xshash hamda ular orasida ishonarli farq aniqlanmadi (R>0, 05).

Material va usullar

Toshkent shahar va Toshkent viloyatining oilaviy poliklinikasi va qishloq vrachlik punktlaridagi 1 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 434 nafar bolalarda retrospektiv usulda xozirgi mavjud davolanish (sog'lomlashtirilguncha va sog'lomlashtirilgandan keyingi ko'rsatgichlar) dinamikasi o'rganib chiqildi. Bundan tashqari 76 nafar shahar va 58 nafar qishloq bolalarida kamqonlikning taklif etilyotgan takomillashtirilgan davolash usulining sog'lomlashtirilguncha va sog'lomlashtirilgandan keyingi ko'rsatgichlar dinamikasi o'rganildi. Bunda Gemoglobin-Gemokyu usulida o'rganildi. Qon zardobidagi temir va ferritin biokimyoviy analizatorda o'rganildi. Qon zardobidagi foliy kislotasi ko'rsatkichlarini mikrobiologik usulda aniqlandi. Mikroelementlar sochdan olinib neytron-aktivatsion usulda o'rganildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Retrospektiv materiallar asosida olingan natijalar negizida, shuningdek bolalardagi MKN va foliy kislotasi disbalansini, bolalarda gelьmintozlar aniqlanishini o'rganish natijalariga asoslanib biz hozirda mavjud bo'lgan davolash standartlariga quyidagi o'zgartirishlarni kiritdik:

1. Bolalarda kamqonlik tashxislanganda gelьmintozlarni tashxislash, aniqlashga qaratilgan tekshirishlar 100% bajarilishi kerak.

2. Kamqonlikni differentsial diagnostikasi zarur bo'lganda foliy kislotasini tekshirishni amalga oshirish kerak.

3. Kamqonlik aniqlangan bolalar orasida rux, mis, kobalt, marganets, yod kabi MKND yuqori uchrash tezligini hisobga olib davolash jarayoniga temir preparati bilan birga ushbu MKNni ham qo'shish kerak.

4. Kamqonlik mavjud bolalarda gelьmentozlarni ko'p darajada tarqalgan- ligini e'tiborga kerak va ularda gelьmentozlar aniqlanganda kompleks terapiyaga antigelьment preparatlarni qo'shish zarur.

5. Kamqonlik bilan kasallangan bolalarni sog'lomlashtirish va kamqonlikni oldini olish uchun ovqatlanish ratsioniga yuqorida keltirilgan MKN bilan to'yintirilgan ovqat mahsulotlarini qo'shish tavsiya etiladi. Bizlar yuqorida ko'rsatilgan uslub bo'yicha oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punkti sharoitida kamqonlik bilan kasallangan bolalarni sog'lomlashtirish va bir yil mobaynida dispanser kuzatuv ishlarini amalga oshirdik.

Bolalardagi kamqonlikni davolashning takomillashtirilgan uslubi tamoyillari:

1. Asosiy davolash sifatida o'zida temir, rux, foliy kislotasi, askorbin kislotasini tutgan "Globeks" preparatini qo'lladik. Kamqonlikni davolash kursi davomiyligi quyidagicha: kamqonlikning yengil darajasida 4 oy, o'rta og'irlik darajasida – 5 oy, og'ir kamqonlik darajasida – 6 oy. Preparat dozasi bemor yoshiga va kamqonlik og'irligi darajasiga mos holda tayinlandi.

2. MKN bilan boyitilgan undan tayyorlangan non va un mahsulotlarini tayinlash.

3. Antigelьment preparat sifatida har 6 oyda 2 kursdan yoshga oid dozalarda "Kyuravorm" preparati tayinlandi.

4. Bolalar ovqatlanishi negizi sifatida O'zR SSV tomonidan tasdiqlangan JSST tavsiyasiga ko'ra – "sog'lom ovqatlanishning 12 ta tamoyili" olindi.

5. Davolash kursi tugagandan so’ng retsidivga qarshi terapiya tayinlandi: haftada bir marta MKN bilan birga temir preparatlarini qabul qilish, kvartalda bir marta antigelmint preparatlarni va MKN bilan boyitilgan mahsulotlarni qabul qilish.

1-Jadval

Qishloq va shahar bolalarini takomillashtirilgan uslub yordamida sog’lomlashtirish samaradorligini baholash, M±m.

№	Кўрсаткичлар Ko`rsatkichlar	Sog`lomlashtirilguncha	Sog`lomlashtirilgandan keyin	Ishonchlilik chegarasi (P)
1	Гемоглобин Gemoglobin	96, 47±1, 25 85, 09±1, 94	13, 34± 1, 22 5, 65±0, 88	P<0, 01
2	Zardob temiri, mkmol/l	7, 43±1, 04 5, 79±0, 23	15, 11±1, 56 14, 91±0, 40	P<0, 01
3	Ferritin, ng/ml	11, 43±1, 27 8, 45±0, 81	22, 88±1, 63 19, 13±1, 24	P<0, 01
4	Foliy kislotasi, mkg/l	5, 35±0, 25 5, 0±0, 37	10, 17±0, 35 8, 33±0, 25	P<0, 01
5	Gelmintozlar	65, 51% 75, 08%	5, 46% 8, 14%	P<0, 01

Oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punktlarida bolalarni sog’lomlashtirish amalga oshirildi, qon ko’rsatkichlari dinamikada tekshirildi, gelьmintozlarga analizlar olindi.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko’rsatdiki, bolalarida tekshirilayotgan barcha indikatorlar – gemoglobin, zardob temiri, ferritin, foliy kislotasi bo’yicha ko’rsatkichlarning anchagina o’sishiga erishildi, gelьmintozlar bilan infitsirlanish ko’rsatkichlari jiddiy kamaydi. Bolalarni sog’lomlashtirishda hozirgi vaqtda qo’llanilayotgan uslublarga nisbatan bizlar tomonidan tavsiya etilgan uslublar ishonarli darajada yuqori (R<0, 01) va samarali ekanligi aniqlandi.

Kamqonlikning turli darajalariga ega va turli yosh guruhlaridagi bolalarni sog’lomlashtirishni o’rganish shuni ko’rsatdiki, davolash kursi tugaganidan so’ng bolalar orasida og’ir va o’rta darajadagi kamqonlik holatlari kuzatilmadi. Yengil darajadagi kamqonlik holatlari 5, 1% dan

oshmadi. Barcha yosh guruhlarida sog'lomlashtirish ko'rsatkichlari o'xshash bo'ldi (2-jadval).

2-jadval

Takomillashgan usulda kamqonlik bilan kasallangan bolalarni sog'lomlashtirish natijalari%

Bolaning yoshi	Kamqonlikning og`irlik darajalari											
	Jami			Yengil			O`rta			Og`ir		
	A	Б	B	A	Б	B	A	Б	B	A	Б	B
1–3	35, 2	5, 1	30, 1	25, 7	5, 4	20, 2	8, 5	0	8, 5	1, 0	0	1, 0
4–6	25, 9	4, 6	21, 3	19, 5	4, 5	15, 0	6, 3	0	6, 3	0	0	0
7–14	29, 5	3, 2	26, 2	20, 9	3, 7	17, 2	7, 6	0	7, 6	1, 0	0	1, 0

Izoh: A-Sog'lomlashtirilguncha; B-Sog'lomlashtirilgandan keyin, V-kamayish darajasi; A va B- ko'rsatkichlar orasidagi farqlar har doim R<0, 01ga teng

Hozirda qo'llanilayotgan va takomillashtirilgan davolash uslublarini qiyosiy taqqoslash uchun baholash mezonlari sifatida gemoglobin, retsidivlar uchrash tezligi, o'tkir respirator kasalliklar va o'tkir ichak infektsiyalari bilan kasallanish ko'rsatkichlari olindi (3-jadval).

3-jadval

Kamqonlik bilan kasallangan bolalarni taklif etilayotgan va amalda qo'llanilayotgan usullar bilan davolashning samaradorligini qiyosiy baholash

Кўрсаткичлар	таклиф этилаётган даволаш усули	амалда қўлланилаёт ган даволаш усули	Ишончлилик чегараси(P)
Гемоглобин, M±m	12. 9±1. 0	10. 0±1. 1	P<0. 01
ТТКнинг рецидивлари(%)	8. 2	65, 8	P<0. 01
ЎРВИ билан касалланиш кўрстакичи(%)	15. 5	42. 1	P<0. 01
Ўткир ичак инфекциялари(%)	4. 2	15. 5	P<0. 01

Kamqonlikka chalingan bolalarni sog'lomlashtirilgandan keyin gemoglobin darajasi hozirda qo'llanilayotgan davolash usulida 10, 02±1, 1 g/l ni, takomillashtirilgan usulda esa 17, 2 ±1, 2 g/l ni tashkil qildi (R<0, 01). Hozirda qo'llanilayotgan davo usulida retsidivlar uchrash tezligi 65, 8% ni, takomillashtirilgan davolash uslubida esa 8, 2% ni tashkil qildi, o'tkir respirator kasalliklar bilan kasallanish, mos ravishda 42, 1% va 15, 5% ni, o'tkir ichak infektsiyalari bilan kasallanish 15, 5% va 4, 2% ni tashkil etdi. Barcha taqqoslanayotgan ko'rsatkichlar orasidagi farq ishonarli (R<0, 01;). Olingan natijalarga asoslanib biz kamqonlikni tashxislash, davolash standartlariga qo'shimchalar kiritdik .

Xulosa

Bolalarda kamqonlikni tashxislash, davolash va profilaktika standartlarini takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida, kamqonlik aniqlangan bolalarni sog'lomlshtirish uchun hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan davolash-profilaktika uslublarining samaradorligi juda past: yoshga bog'liq holda gemoglobin ko'rsatkichlari o'sishi faqat 5, 10±0, 53 g/l dan 10, 23±0, 49 g/l gachani tashkil qildi, bu holat bolalarning to'liq

sog'lomlashtirishni 7-10% holatdagina ta'minlaydi, kamqonlik retsidivlari 75-90 % holatlarda qayd qilindi.

2. Umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan kamqonlikka chalingan bolalarni sog'lomlashtirishning past samaradorligi sabablaridan biri, bolalarda uchrayotgan gelьmintozlarni aniqlanmayotganligi va ularni tahlil etilmayotganligidadir, kamqonlik mavjud bolalarning 90 % da gelьmintoz-larni aniqlashga qaratilgan tekshiruvlar olib borilmagan.

3. Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida kamqonlikka chalingan bolalarni sog'lomlashtirish samaradorligining pastligi sabablaridan yana biri bu bolalardagi foliy kislotasi, rux, mis, kobalьt, selen, molibden, yod kabi MKNDni, shuningdek gelьmentozlar rolini to'g'ri baholamaslik hisoblanadi.

4. TEKni davolash standartlariga foliy kislotasi, mis, rux, selen, yod, kobalt, shuningdek antigelьment terapiyani qo'shish kamqonlikka chalingan bolalarni sog'lomlashtirish samaradorligini oshirishga, retsidivlar uchrashini kamaytirishga, sog'ayish muddatlarini qisqartirishga imkon beradi. Bolalarda kamqonlikni davolash va kamaytirish bolalar orasida o'tkir respirator kasalliklar, o'tkir ichak infektsiyalari bilan kasallanishni 2-3 marta kamaytirishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RUYXATI

1. Karimov X. Ya. , Suleymanova D. N. Profilaktika defitsita jeleza v Respublike Uzbekistan. Monograf. -2010. –Tashkent. –102 str.

2. Vorobьyov P. A. Anemicheskiy sindrom v klinicheskoy praktike. M:Nьyudiamed, 2014, 168 s.

3. Narmetova M. U. , Raimova D. A. , Shokirova F. J. Chastota vьyavlyaemosti defitsita folievoy kislotы u devochek podrostkov. \\ Jurnal teoreticheskoy i klinicheskoy meditsinы. 2019. №2. S. 96-98.

4. Eremina, O. V. Narusheniya adaptatsii i soderjanie nekotorыx mikroelementov v sыvorotke krovi malovesnыx novorojdennыx: Avtoref. dis. kand. med. nauk / O. V. Yeremina. Saratov, 2005. - 20 s.

5. Zaxarova I. N. , Machneva Ye. B. Korrektsiya defitsita jeleza: istoricheskie i sovremennыe aspektы // Voprosы prakticheskoy pediatrii. — 2014. — 9 (4). — S. 2—7. .

6. Otto N. Yu. , Sagitova G. R. , Suprun S. V. , Chershembeeva E. S. , Chernigovskiy R. A. , Otto A. I. Problema jelezodefitsitnoy anemii u detey i podrostkov Astraxanskoy oblasti // Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya. – 2018. – № 5. ;

7. Rumyantsev A. G. i dr. Lechenie jelezodefitsitnoy anemii u detey i podrostkov: osnovnыe printsipы i naibolee chastыe oshibki . // Pediatriya, 2015 g, tom 94 №5 str. 114-121

8. Rumyantsev A. G. , Kazyukova T. V. Profilaktika defitsita jeleza u detey rannego vozrasta\\Trudnыy patsient. 2012. №2. S. 38-42

9. Suleymanova D. N. , Rasulova M. I. , Saidov A. B. , Babadjanova Sh. A. Temir tanqislik kamqonlikni tashxislash, davolash, oldini olish standartlarini sog'liqni saqlash birlamchi bo'g'inida joriy etish: Metodicheskoe posobie. - Tashkent, 2017. - 32s.

10. Suleymanova D. N. , Saidov A. B. Jelezodefitsitnыe sostoyaniya i izuchenie effektivnosti primeneniya sovremennыx parenteralьnыx preparatov jeleza\\ . Jurnal teoreticheskoy i klinicheskoy meditsinы. 2019. №2. S. 116-119.

11. Tarasova I. S. Jelezodefitsitnaya anemiya u detey i podrostkov \\ Voprosы sovremennoy pediatrii. 2011. №10(2). S. 40-48

GLILAGIN SUBSTANTSIYASINING GEL SHAKLINI YARATISH VA STANDARTLASH

PhD F. A. Sobirova

o'qituvchi U. A. Yulchiyeva

Katta o'qituvchi N. K. Xasanova

PhD G. K. Babojonova

PhD R. S. Esanov

Professor A. D. Matchanov

O'zRFA Bioorganik kimyo institutu

Annotasiya

Bugungi kunda dori vositalarining gel va liniment shakllariga tibbiyot amaliyotida (jarrohlik, fiziologiya, allergologiya, terapiya va boshqalarda) talab nisbatan ko'payib borishini kuzatishimiz mumkin. Hozirda gemostatik xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil gel ko'rinishidagi dori vositalari qo'llanilib kelinmoqda, jumladan: "Katerjel" (Avstriya), "Instillagel" (Germaniya), "Surjigel" (Angliya), "Retragel", "Endojigel" (Rossiya) va boshqalar. Yumshoq dori shakllari ko'plab jarrohlik amaliyotlarida keng qo'llaniladi, xususan, bodomsimon bezlarni olib tashlash va ginekologik jarrohlik amaliyotlari paytida, stomatologiyada boshqa dori shakllariga nisbatan ko'proq qo'llanib kelinmoqda Odatda turli xil jarrohlik amaliyotlarida parenximatoz qon ketish jarayonlarida, gemofiliya kasalliklarida tabletka va vena qon tomiri orqali qo'llaniladigan dori vositalari yaxshi samara beradi. Lekin ko'pchilik xolatlarda kundalik xayotimizda, yul transport xodisalari ro'y berganida, tashqi yaralanish xolatlarida, maishiy jaroxatlarda tashqaridan qo'llaniladigan gemostatik hamda yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega yumshoq dori vositalari nisbatan samarali hisoblanadi. Yuqoridagilardan

kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutida GKMAT va lagoxilin asosida suvda eruvchan supramolekulyar kompleks olingan bo'lib, ulargemostatik, yallig'lanishga qarshi, shishlarga qarshi, analьgetik va to'qimalarni tiklovchi ta'sirga ega(Matchanov A. D. , 13-14 maya 2011. - S. 265-267.

Ushbu kompleks asosida tashqi ta'sir ko'rsatadigan gel ko'rinishidagi gemostatik vositasini ishlab chiqishni, uning maqbul dozasini aniqlash ishlari ushbu ishning vazifalariga kiritildi.

Shuning uchun ishimizning navbatdagi bosqichi lagoxilinning GKMAT bilan supramolekulyar kompleksi – Glilagin substantsiyasi asosida uning yangi yumshoq dori shaklini ishlab chiqish va standartlashga bag'ishlandi.

Kalit so'zlar

glilagel, metilparaben, gemostatik, lagoxilin, glitsirezin kislotasi, gel

CREATION AND STANDARDIZATION OF THE GEL FORM OF THE SUBSTANCE GLILAGIN

F. A. Sobirova,

U. A. Yulchiyeva

N. K. Khasanova

G. K. Babojonova

Chemistry R. S. Esanov

A. D. Matchanov

Annotation

Today, we can observe that the demand for gel and liniment forms of drugs in medical practice (surgery, physiology, allergology, therapy, etc.) is relatively increasing. Medicines that are usually used in various surgical procedures in parenchymatous bleeding processes, in hemophilia, and administered through a pill and vein have a good effect. But in most cases, in our daily life, when road traffic accidents occur, in cases of external injuries, in domestic injuries, soft drugs with hemostatic and anti-inflammatory effects are relatively effective. Glilagin is a supramolecular complex of GKMAT and lagoxilin (2:1). White powder, T.

liquid. -173-175oS, UB-251(3. 45), IR-spectrum: valence vibrations of 3400-3000 cm-1 (ON) group, 2942 cm-1 (SN2) deformation vibration, 1728 (S= O), 1044-1082(S-O-S-), Rf-0. 74. (II). A 100 mg sample (VFS 42 Uz 3123-2017) of the Glilagin substance is taken, placed in a 100 ml flask and dissolved in 75 ml of distilled water. The solution was diluted to the mark with water. Take 10 ml of the resulting solution and dilute it to 100 ml in the mobile phase (concentration 0. 1 mg/ml). A tablet form of Glilagin has been developed and is allowed to be used in medicine (VFM 42 Uz-3405-2018 tablet). To choose the optimal composition of Glilagel, 6 different concentrations are used. gel samples were prepared and their hemostatic activity was determined. Assays were performed 5 times and their average values were obtained. Based on the obtained results, the specification of Glilagel was developed, and according to it, the amount of Glilagin in 100 g of gel was 0. 21 to 0. 29 g, and the amount of methyl paraben was 0. 1 ± 0. 025 g and included in the quantitative analysis.

Keywords

glilagel, methylparaben, hemostatic, lagochilin, glycyrrhizic acid, gel

KIRISH

Hozirgi kunda jahonda dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganish, o'simlikdan asosiy ta'sir qiluvchi moddalarni (terpenoidlar, alkaloidlar, flavonoidlar, polifenollar, polisaxaridlar, kumarinlar, glikozidlar va boshqa moddalar) individual holda ajratib olib, ularning kimyoviy tuzilishlari va biologik faolliklarini o'rganish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. "Klatrogenlar" deb nomlanuvchi quyi molekulyar tabiiy birikmalar o'simlik tarkibidagi suvda kam eriydigan moddalarni suvda eruvchan holatga o'tkazish hamda ularning sinergistik xususiyatlarini kuchaytirish va kam dozada samarali ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar yaratish imkoniyatlarini bermoqda. So'nggi yillarda glitsirrizin kislotasi va uning hosilalari asosida suvda kam eriydigan dori vositalari bilan supramolekulyar komplekslarni olish orqali yangi samarali dori vositalari yaratilib, tibbiyot amaliyotiga tadbiq etilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Gemostatik preparatlar turli jarayonlarga ta'sirini hisobga olib, ularni to'g'ri koagulyantlarga (trombin, fibrinogen), ikkilamchi koagulyantlarga (K vitamin, vikasol), fibrinoliz ingibitorlariga (amben, aminokapron kislota, paraaminometiltsiklo-geksankarbon kislota), trombotsitlar agregatsiyasi va adgeziyasi stimulyatorlariga (kaltsiy, adrenomimetik moddalar, serotonin) bo'linadi .

GKMAT (glitsirrizin kislotasining monoammoniyli tuzi) va lagoxilin asosida olingan “Glilagin” gemostatik dori vositasi asosida gemostatik doka olingan. Gemostatik doka samaradorligi uning kam zaharliligi, teri ostiga kiruvchanligi, pirogenligi va gemostatik faolligi orqali xarakterlanadi. Glilagin saqlagan salfetkalar 5 ta seriyasining barqarorligini o’rganishdan olingan natijalar shuni ko’rsatdiki, salfetkaning 5 ta seriyasi zaharsiz, va teri osti to’qimalariga nojo’ya taьsir qilmaydi.

Trombotsitlar agregatsiyasi va adgeziyasini yaxshilovchi preparatlarning shifobaxsh ta’siri quyidagilardan iborat bo’lib, kalьtsiy trombotsitlar agregatsiyasi majburiy omili bo’lgan paytida trombotsitlardan ADF (agregatsiyaning kerakli komponenti) ajralishiga ham ta’sir etadi, fibrin hosil bo’lishini ta’minlaydi. Katexolamin va serotonin almashish oraliq zveno orqali trombotsitlardan kalьtsiy ionlari ajralishiga ta’sir etadi, trombotsitlar agregatsiyasi va adgeziyasini kuchaytiradi. Ta’kidlash joizki, kalьtsiy preparatlari trombotsitlar agregatsiyasi va adgeziyasini kuchaytiradi, ular gemorragik kasallikda gipokalьtsinemiya vaqtida tavsiya etiladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar yangi samarali gemostatik preparatlarni topish muammosi dolzarb ekanligini ko’rsatadi.

Shuning uchun gemostatik faollikga ega bo’lgan biologik faol moddalarni izlash maqsadida o’simlik xom ashyolarini kimyoviy tadqiq etishga katta e’tibor berilmoqda. O’simlik xom ashyolari asosida olingan preparatlarga bo’lgan qiziqish shundaki, ular keng terapevtik ta’sir qilish doirasiga ega, kam zaharliligi bilan sintetik preparatlardan ajralib turadi.

Gemostatik vosita sifatida ayrim turdagi qon ketish vaqtida ikki uyli krapiva, cho’pon xaltasi o’ti, bargizub, min gquloq o’ti, qalin po’stloq va Lagoxilus o’ti qo’llaniladi. Ushbu dorivor o’simliklar quruq ekstrakt ko’rinishida tavsiya etiladi.

Lagochilus inebrians – mast qiluvchi (gangituvchi bozulbang) o’simligini keng tadqiq qilish o’simlikda yuqori darajada gemostatik faolik mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Lagoxilin asosida olingan dori vositalari plazma va hujayra koagulyatsiyasi omillarini faollashtirib, antikoagulyant faolligini pasaytirib, qon quyilishini ta’minlaydi. «Lagoxilin» dori vositasi in vivo shaklda hayvonlar tomiriga yuborilganda, plazma ingibitorlarini faollashtirishi va fibrinoliz proaktivatorlari faolligini bloklashi hisobiga qonning fibrinolitik faolligini ingibirlaydi.

Lagoxilus o’simligining ekstrakti o’pka, burun, gemoradial, bachadon va travmatik qon ketishlarda samarali gemostatik vosita sifatida, shuningdek, jarrohlik amaliyoti paytida ko’p qon ketishini oldini olish

uchun qo'llaniladi. Gemofiliya A bilan og'rigan bolalarga Lagochilus inebrians o'simligining spirtli va quruq ekstraktini qo'llash paytida qonning tez ivishi va antigemafil tarkibining sezilarli darajada oshishi qayd etilgan. Klinik kuzatuvlarda gemofiliya bilan og'rigan bemorlarni lagoxilus asosida olingan dori vositalari bilan davolashda ularning umumiy holati yaxshilanadi, remissiya davrlari ko'payadi. Qon ketish vaqti qisqaradi va uning intensivligi pasayadi. Bundan tashqari, Lagochilus inebrians ning yig'ma shaklidagi dori vositasi markaziy asab tizimining funktsional kasalliklari, gipertoniya, allergik teri kasalliklari, gemorragik diatez, glaukoma, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralarida qo'llaniladi. Gemostatik va fibrinolitik faollikdan tashqari, o'simlikdan olingan dori vositalarining qo'shimcha xususiyatlari ham mavjud. Masalan, suvli ekstrakti sedativ, gipotenziv ta'sirga ega, shuningdek, bachadonning shilliq mushaklarining, mushak va mushakning kontraktil va motor funktsiyalarini qisqartirishga yordam beradi. Bundan tashqari o'simlik ekstrakti asosidagi preparatlar ichak karboxolin spazmi va shok holatlarni pasaytirish uchun qo'llaniladi.

Lagoxilin va uning hosilalarining asosiy kamchiligi, ularning suvda yomon erishidir. Bu o'z navbatida ularning biologik faolligini namoyon qilishida birmuncha cheklanishlarga olib keladi.

Lagoxilin diterpenoidining polivinil pirrolidon asosida olingan "Lagovin" preparati rezorbtiv ta'sirga ega. Bu preparat plazmali gemostazga ta'sir etish mexanizmi uning trombinga aylanishinini kuchaytirishi, ko'proq tashqi yo'l orqali (qon quyilishining 1 va 2 fazalari), qon fibrinolitik tizimining faollashishi va to'g'ridan-to'g'ri antikoagulyantlar miqdorining kamayishi bilan bog'liq. Bundan, lagoxilin va uning hosilalari qon quyilish jarayoni omillarini ishga tushirish hisobiga ta'sir qilishi aniqlangan.

Qon to'xtatish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy polimerlar orasida organizmdagi asosiy oqsillardan biri bo'lgan kollagen alohida o'rin tutadi. Kollagen tolalari trombotsitlarning faol adgeziya va agregatsiyasini keltirib chiqaradi. Tomirlarning mahalliy zararlanishidan keyin, trombotsitlar zararlangan joydagi kollagen tolasi bilan bog'lanishni boshlaydi. Ularning kollagen bilan ta'sirlashishida adenozindifosfat, serotonin va boshqa qon ivishidagi trombotsitar omillar ajralib chiqadi. Kollagen va trombotsitar massa asosida kombinatsiyalangan shimgich (Trombokol) ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Kollagen shimgichlar qisqa vaqtda qon oqishini to'xtatadi, biroq ular bir qator kamchiliklarga ega. Masalan, yaroqlilik muddati qisqa.

Mahalliy gemostatik vositalar jarohatlarda, yaralarda va boshqa holatlarda jarrohlik amaliyotda keng qo'llaniladi. Qon ketishini to'xtatishda qattiq holdagi dori vositalar va matolarni: kukun, pardalar, shimgich, noto'qima material, doka va boshqalarni qo'llash qulaydir.

Gemostatik vositalar asosan chet eldan valyuta hisobiga respublikamizga keltiriladi. Ko'pgina qon elementlari kompozitsiyasi saqlagan oqsil asosidagi preparatlar saqlanish muddati bo'yicha va saqlash sharoitiga oid muammolar mavjud.

Shuning uchun mahalliy o'simlik xom ashyosi asosida yangi, suvda eriydigan gemostatik birikmalarni olish, biologik, xususan gemostatik faolligini o'rganish hamda gemostatik faolligi bilan birikmalarning tuzilishi orasidagi bog'liqlik qonuniyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

METODOLOGIYA

Glilaginning olinishi. Glilagin – GKMAT va lagoxilinning (2:1) nisbatdagi supramolekulyar kompleksi. Oq kukun, T. suyuq. -173-175oS, UB-251(3. 45), IQ-spektri: 3400-3000 sm-1 (ON) guruhining valent tebranishlari, 2942 sm-1 (SN2) deformatsion tebranishi, 1728 (S=O), 1044-1082(S-O-S-), Rf-0. 74. (II). Glilaginning tabletka dori shakli ishlab chiqilgan va tibbiyotda qo'llashga ruxsat berilgan (VFM 42 Uz-3405-2018 tabletka). Glilagelning maqbul tarkibini tanlash uchun 6 xil kontsentratsiyadagi gel namunasi tayyorlanib, ularning gemostatik faolligi aniqlandi. Natijalar 3. 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

XIX asrda Vilgelm Gumboldt (1767-1835) tomonidan ilgari surilgan tamoyillar va ideallar (fan erkinligi, ta’lim va tadqiqotlarning birligi, fan sifatidagi ta’lim) falsafiy ta’limda amalga oshirilgan, uni amalga oshirish mexanizmida mujassamlangan va ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasining o‘sib borayotgan ahamiyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Olim maktabda ham, universitetda ham falsafiy ta’limning ahamiyatiga urg‘u bergan. Uning fikriga ko‘ra, falsafiy ta’lim har qanday fakultetda matematik, ijtimoiy-tarixiy va falsafiy-lingvistik tafakkurning rivojlanishiga hissa qo‘shadi [3, 232]. Natijada, V. Gumboldt I. Kantdan keyin umumiy ta’lim mafkurasini himoya qiladi va falsafiy ta’limdan maxsus kasbni yaratish mumkin emasligini tasdiqlaydi. Olim uchun falsafa barcha fanlarning “toji” ga yoki turli fanlarni qo‘llash sohasiga aylanadi va falsafaning umumiy ta’limi predmetning o‘zida emas, balki boshqa universitet fanlari doirasidagi falsafiy asosda bo‘ladi. Natijada, falsafiy fikrlash o‘rganilgan barcha fanlarning tarkibiy qismiga aylanadi. Falsafiy ta’limning vazifasi obyektiv fanni subyektiv ta’lim bilan bog‘lashdir. V. Gumboldt yondashuviga binoan universitetlar asosan gumanitar fanlarga yo‘naltirilgan edi, bu esa falsafiy bilimlarning tobora ommalashib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Keyinchalik Georg Gegel (1770–1831) falsafiy ta’lim masalalariga murojaat qildi hamda falsafiy fanlarni o‘qitish va tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalarga e’tibor qaratdi. U o‘zining “Universitetlarda falsafani o‘qitish to‘g‘risida” (1816) va “Gimnaziyalarda falsafani o‘qitish to‘g‘risida” (1821) kabm ma’ruzalarida talabaga falsafani o‘qitishning mazmun-mohyati haqida eng muhim g‘oyalarni bayon qilgan. Ta’lim muammolari bo‘yicha yozgan asarlarida Gegel falsafiy fanlarni ta’limning boshlang‘ich bosqichida – gimnaziya ta’limi sohasida o‘qitish masalalariga e’tibor qaratadi: falsafiy bilimlarni avvalo u yerda olish kerak, chunki bu

ruhiyatni rivojlantirish, falsafiy tafakkurni shakllantirish va qadimiy tillarni o‘rganishda tayyorgarlik bosqichidir. Faylasuf gimnaziya ta’limi masalasiga murojaat qiladi, chunki u shaxsni keyingi ta’lim uchun poydevorlarni shakllantiradi. “Falsafa o‘quv fani sifatida, – deydi Gegel, – ta’lim va tafakkur mashqlari bilan shug‘ullanish kerak” [4, 424].

Shunday qilib, nemis mutafakkirlari zamonaviy jamiyat e’tiborsiz qoldiradigan bir qator qadriyatlarni, universitet ta’limidagi falsafaning maqomini to‘g‘ri baholadilar. Darhaqiqat, birinchidan, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati bilan aql qonunlariga bo‘ysunadigan yagona fakultet – falsafa fakulteti edi. Ikkinchidan, Falsafa fakulteti va falsafiy tafakkur uslubini o‘qitish universitetda ilm-fan rivojiga hissa qo‘shib, jamiyat uchun foyda keltirdi, bu esa tafakkur erkinligi tufayli mumkin edi. Uchinchidan, nazariyada ilgari surilgan g‘oyalar Germaniya universitetlarida amaliyotga tatbiq etildi, ta’limni insonparvarlashtirish va Berlin universiteti modelida Gumboldt tamoyillarini hayotga tatbiq etish amalga oshirildi. Shunday qilib, falsafiy ta’lim va tafakkur apparatini falsafalashtirish klassik universitet ta’limining ajralmas qismi bo‘lib qoldi.

Zamonaviy universitetdagi falsafa inqirozi

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va gumanitar fanlarning, shu jumladan falsafaning universitet ta’limidagi mavqeining tushib borishi tendensiyasini kuzatish mumkin. Zamonaviy universitetda falsafaning o‘rni, uning mazmuni, roli va ahamiyati haqidagi munozaralar zamonamiz faylasuflari tomonidan tez tez ko‘tarilmoqda. Mualliflarning ta’kidlashicha, “qayta qurish”, “birlashish”, “qo‘shilish” va boshqa ma’muriy o‘zgarishlar ohir-oqibat universitet ta’limining ajralmas asosiy elementi bo‘lgan falsafani yo‘q qilish tendensiyasidan dalolat beradi va bu allaqachon ko‘plab universitetlarni bosib o‘tdi. Belorus faylasufi N. Semenov ta’kidlaganidek, hozirgi universitetlar uchun “kamroq ijodkorlik, ko‘proq filtrlangan va maxsus paketlangan ma’lumotlar, fikrlash emas, balki tanlangan va dozalangan narsani aniq bilish muhimdir” [5, 7].

Fan va ta’limdagi pragmatik yondashuv falsafiy bilimlarning jamiyatda saqlanib qolishiga tahdid soladi, chunki uning foydasini iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali aks ettirish qiyin. Ushbu umumiy tendensiya tibbiyot maktablariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Tibbiyot mutaxassislari va tibbiyot universiteti talabalari o‘rtasida falsafaning tibbiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyati yetarlicha baholanmaydi. Bunday munosabat dasturlarda falsafaga sarflangan soatlarning qisqarishida yaqqol ko‘zga tashlanadi, bu esa talabalarni ushbu predmetni o‘rganishga nisbatan befarq va skeptik qarashlarni keltirib chiqaradi.

Bunday vaziyatda qaror qabul qiluvchilarning e'tiborini jalb qilish, tibbiyot mutaxassisi ta'limi va kasbiy faoliyati uchun falsafiy ta'limning o'rni va ahamiyatini asoslash juda muhimdir. Ma'lumki, falsafani o'rganish har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadi, tanqidiy fikrlash, atrofdagi voqelikni har tomonlama, obyektiv baholash ko'nikmalarini hamda fikrlashning oqilona va mantiqiy asoslarini yaratadi. Bo'lajak mutaxassislarning madaniy rivojlanishida falsafa muhim rol o'ynaydi. Gippokrat ta'kidlaganidek: "Oxir oqibat faylasuf Xudo bilan tengdir. . . . Aql-idrokka aloqador hamma narsa: boylikka o'ch bo'lmaslik, vijdonlilik, kamtarlik, hurmat, fikrlar, bilimlarning ko'pligi – bularning barchasi tibbiyotda" [6, 8].

Rus faylasufi A. M. Rutkevichning "Oliy ta'lim tarixida falsafa" kitobida qadimgi dunyodan boshlab bizning kunlarimizga qadar bo'lgan Yevropa mamlakatlarining turli xil tarixiy davrlarida ta'lim tizimlaridagi falsafaning pozitsiyasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. O'quv fani sifatida falsafaning hozirgi holati haqida gapirganda, muallif universitetlarda ma'lum bir tor ixtisoslikka ega bo'lgan yevropalik talabalarning aksariyati uchun falsafaning keraksiz bo'lib qolganligini ta'kidlaydi. Ko'p mamlakatlarda ular falsafani litseylar yoki gimnaziyalarda juda katta hajmda (o'qish muddati 1, 5-2 yilgacha) tanishtirishadi. Ispaniyada hattoki falsafa bo'yicha majburiy imtihon mavjud bo'lib, u kollejga kirishda taklif etiladi. Agar bunday kurs talabaning universitetgacha bo'lgan ta'limida o'tilgan bo'lsa, unda u universitetda o'qimasligi mumkin. Amerika va Yevropa universitetlarida falsafa tanlov fani hisoblanadi. U adabiy va falsafiy matnlar bilan tanishish yoki tanqidiy fikrlash kursi sifatida belgilanadigan kengroq kurslarga kiritilishi mumkin. "Yaxshi holatda, – deydi A. M. Rutkevich, – falsafa bo'yicha kurslar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda analitik falsafaning asoslarini yoki Yevropa mamlakatlariga tarixiy va falsafiy kirishni o'z ichiga oladi". Shu bilan birga A. M. Rutkevich bo'lajak mutaxassislar va ziyolilarda falsafaga ehtiyoj katta ekanligi haqida gapiradi. Uning ta'kidlashicha, universitetdagi falsafaning hozirgi mavqeiga qaramay, haqiqiy tadqiqotchi va fan bilan shug'ullanuvchi kishi hali ham metafizikaga muhtoj, ammo shunga qaramay, "avvalgi davrlarda bo'lgani kabi, falsafaga qiziquvchilar ancha kam" [7, 51].

Atoqli fizik olim A. Eynshteyn ham o'z davrida o'ziga xos "falsafiy opportunizm" ga qaramay, olimlar yangi fundamental nazariyalarni yaratishda falsafaga murojaat qilishga majbur bo'lishganligini ta'kidlaydi. "Bilimlar nazariyasi, – deb yozadi A. Eynshteyn, – fan bilan aloqa qilmasa "g'ovak" sxemaga aylanadi. Bilimlar nazariyasisiz esa ilm-fan ibtidoiy va bo'sh narsaga aylanadi" [8, 321].

Gumanitar ta’limning ahamiyatini yaxshi tushungan yana bir taniqli fizik - nazariyotchi V. Geyzenberg, uning mazmuni amaliy faoliyatda har doim ham qo‘llanilmasligiga qaramay falsafaning juda foydali ekanligini ta’kidlaydi. Yuzaki amaliychilikni tanqid qilgan V. Geyzenberg shunday yozadi: “Bizning G‘arbiy Yevropa madaniyatining bor kuch-qudrati amaliy muammolarni emas, balki fundamental muammolarni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir”. Ko‘pchilik falsafiy ta’limni faqat moliyaviy jihatdan “o‘ziga to‘q” bo‘lganlar uchun kerak bo‘lgan hashamatli narsa, deb hisoblashadi. Biroq, ertami-kechmi o‘z faoliyatida kerakli natijaga erishishga intilayotgan olimlar bu noyob qobiliyat – fundamental muammolarning shakllanishini o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. “So‘nggi o‘n yilliklarda, – deb yozadi V. Geyzenberg, – turli xil tabiatshunoslik fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik avvalgidan ko‘ra ko‘proq sezilarli bo‘ldi. Hamma joyda ularning umumiy manbai tan olinadi va bu umumiy manba oxir oqibat ko‘hna tafakkurda yotadi” [9, 7]. Olimning fikrini davom ettirib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, barcha fanlarning birlashtiruvchi rishtasi va umumiy manbai falsafadir. Fanlar so‘nggi paytlarda faol qarshilik ko‘rsatganiga qaramay, falsafiy asos va muammolardan ozod bo‘la olmaydi. Fundamental muammolarni bayon qilish har qanday pozitiv fan uchun zaruriy harakat bo‘lib, uning oldida “o‘ta keskin” savollar paydo bo‘laveradi. Javob izlashda fan o‘zining asoslari va kelib chiqishiga murojaat qiladi va tabiiyki u yerda muqarrar ravishda falsafa bilan uchrashadi. Falsafa narsalarga nisbatan an’anaviy qarashga shubha tug‘diradi, muammolarga boshqa nuqtayi nazardan qarashga harakat qiladi. Umum qabul qilingan munosabat, tushuncha va g‘oyalarning sog‘lom skeptitsizmi fundamental va amaliy fanlarni tadqiq qilishda zarurdir.

Neyrologiya sohasidagi taniqli rus olimi, biolog va psixolingvist T. Chernigovskaya o‘zining “Til va miya” ma’ruzasida ta’kidlaganidek, tabiiy fanlar bilimlarini rivojlantirishda gumanitar fanlarning ahamiyati hozirda ko‘plab tabiatshunoslar tomonidan tan olinmaydi. Olimning pozitsiyasi esa aksincha. T. Chernigovskaya gumanitar fanlar falsafasiga alohida urg‘u beradi, chunki u kognitiv fanlar sohasining zamonaviy tadqiqotlarida muhim vazifani bajara oladi. Ushbu fanlar shunchalik ommalashib ketdiki, har kuni ma’lumot va tadqiqotlar oqimi tobora ko‘payib boraveradi, lekin avval savolni to‘g‘ri belgilash kerak bo‘ladi: miyani tekshirish orqali nimani topmoqchimiz? Bundan tashqari, T. Chernigovskaya falsafaning muhimligini ham tushunadi, chunki u o‘ziga xos “tushuntiruvchi kuch” rolini o‘ynaydi, chunki aks holda insonning kognitiv faoliyati faqat “tarkibiy elementlar” sifatidagina ko‘rib chiqilishi mumkin.

Yana bir rus olimi A. M. Pyatigorskiy shunday yozadi: “Falsafaning ahamiyati shundaki, unga hech kim muhtoj emas” va ta’lim tizimini falsafaga sovuq munosabatda bo‘lganligi uchun tanqid qilish ham unchalik to‘g‘ri ish emas. Ammo siz bu haqda o‘ylab ko‘rishingiz kerak: agar biz hayotimizdan “ixtiyoriy” tarzda keraksiz deb hisoblagan hamma narsani olib tashlasak, amaliy xarakterga ega bo‘lmagan nima qoladi? Bunday yo‘l hayot xilma-xilligining torayishiga, haddan tashqari ratsionalizmga, ikkinchi darajali ma’naviy qadriyatlarga olib kelmaydimi?

Bugungi kunda falsafa fanga hos bo‘lmagan funksiyalarni bajaradigan madaniyatning bir qismidir. Holbuki, ta’lim tizimida empirik, maxsus va kasbiy bilimlar talab qilinadi. Falsafa kursining vazifasi ma’lum bilimlar to‘plami yoki ma’lumotlarni yetkazish emas. M. Mamardashvilining so‘zlariga ko‘ra, falsafa bilimlarni o‘rgatmaydi, chunki “falsafiy bilimlarni shakllantirish har doim alangalanadigan, boshqa harakatlarga vositachilik qiladigan ichki harakatdir” [10, 14].

Falsafa insondan dunyoni, undagi o‘rnini anglashni talab qiladi. Falsafa talabaning shaxsiy ijodiy erkin fikrini shakllantiradigan bilimlarni beradi. Zamonaviy kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida ta’lim endi shunchaki bilim olishga va mustahkamlashga qaratilmasdan, balki mavjud bilimlarni doimiy o‘zgaruvchan hozirgi va oldindan aytib bo‘lmaydigan kelajakda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Shu sababli, falsafa kursi bitiruvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan umumiy madaniy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda global terrorchilik va yangi jahon urushi tahdidi tobora kuchayib borayotgani munosabati bilan shafqatsizlik va zo‘ravonlikning keng tarqalishi ta’limning oldiga gumanistik tafakkurni rivojlantirish, inson dunyoqarashida axloqiy, ijtimoiy va estetik mo‘ljallarni shakllantirishdan iborat vazifalarni qo‘ymoqda. Shuning uchun ham rus faylasufi va kulturologi V. S. Bibler “zamonaviy fikrlash va faoliyat shakllarining xususiyatlariga asoslanib, ta’limning ma’nosini yangicha tushunish kerak”[11, 21] deb hisoblaydi. O‘qimishli odam, uning fikricha, “madaniyat odami” – umuminsoniy, bilimli, ma’rifatli, nafaqat fikrlash va faoliyatning mavjud shakllarini qabul qilish hamda o‘zlashtirishga qodir, balki turli madaniyatlarni, qadriyatlarni va semantikalarni birlashtirgan holda ularning asoslarini isloh qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Ta’lim nafaqat bilim bilan ta’minlashi, balki uni egallash yo‘lini ham ko‘rsatishi kerak. Universitet ta’limida, bizning fikrimizcha, falsafa va falsafiy fanlar bunday vazifalarni bajarishga ko‘proq mas’uldirlar.

M. Mamardashvilining so‘zlariga ko‘ra, muhandislik va texnologiya asrida falsafa haligacha o‘zingizni, boshqa odamlarni va dunyoni bilish yo‘lida zarur bo‘lgan, mustaqil, mas’uliyatli, barkamol tafakkurni shakllantirish yo‘lida kerak bo‘lgan kuchli intellektual vositadir. “Biz fuqaro bo‘lishimiz uchun, –deb yozadi faylasuf, –ya’ni ijtimoiy jihatdan barkamol yashash uchun, biz o‘zimizga, bizning qobiliyatimizga oid ba’zi abstrakt haqiqatlarni tushunishimiz kerak”.

Zamonaviy ta’lim ma’lum bir harakatlar to‘plamini bajarishga qodir bo‘lgan funksional mutaxassisni emas, balki o‘qitish va o‘rgatishni talab qiladi. Bugungi kunda oliy ta’limda ma’lumotni tezkor ravishda qidirishga, sodir bo‘layotgan voqealarni doimiy ravishda tahlil qilishga tayyor bo‘lgan, mas’uliyatli tanlovlarni amalga oshiradigan va u uchun javobgar bo‘lgan malakani shakllantirish kerak. Albatta, kasbiy fanlar ushbu vazifalarga javob beradigan ba’zi kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ammo maxsus fanlar metodologik jihatdan cheklangan, shuning uchun ular inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan axloq normalari, axloqiy va estetik qadriyatlar to‘g‘risidagi savollarga javob bera olmaydilar.

Ko‘pincha, professional fanlarni o‘qitish jarayonida bunday muammolar hatto ko‘tarilmaydi. Masalan, ish etikasini o‘rgatishdagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, menejment fakulteti talabalari muvaffaqiyatli biznesning “daromadni ko‘paytirish” qoidasini mukammal o‘zlashtiradilar. Kasbiy faoliyat axloqi bilan tanishish, odatda, juda ko‘p hayratga sabab bo‘ladi: qanday qilib biznes yuritish qoidalarini axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtirish, qanday qilib ham tadbirkor, ham axloqiy mas’uliyatli shaxs bo‘lish mumkin? Bunday savollarni berish va ularga javob izlashga harakat qilish falsafiy fanlarning vazifasidir.

Axborot texnologiyalari sohasida muvaffaqiyatli ishbilarmon sifatida tanilgan rossiyalik tadbirkor Dmitriy Volkov o‘zining falsafaga bo‘lgan munosabatini shunday ta’riflaydi: “Men uchun falsafa bu dunyoda yashashning bir usuli. Men atrofimda ko‘p voqealarni ko‘rmoqdaman, bular siyosatdan tortib fan va texnologiyaga qadar bo‘lgan tarqoq, bo‘lakcha hikoyalar. Menga ularni birlashtirishga imkon beradigan tizim kerak. Va bunday tizim –falsafadir” [12]. D. Volkov o‘zining kasbiy mahoratini rivojlantirishda falsafaning rolini yuqori baholaydi, u doimiy ravishda o‘z ishida falsafiy sxemalar va tushunchalarni qo‘llaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash qobiliyati nafaqat olim, balki biznesmen uchun ham zarurdir. Boshqa fanlardan farqli ravishda, falsafa tanqidiy fikrlash va qiziquvchan aqlning asosini tashkil etadi, bizni nafaqat harakatlarimiz uchun, birinchi navbatda, har bir fikr va so‘zlarimiz uchun

mas'ul bo'lishga o'rgatadi. "Fikrlashning tiniqligi – bu insonning fikrlash bilan bog'liq bo'lgan axloqiy burchidir", deydi M. Mamardashvili.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti (YUNESKO) har doim falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga katta ahamiyat berib kelgan. Tashkilot axloqiy va intellektual vositalar orqali falsafa nafrat, adovat, obskurantizm va noto'g'ri fikrlardan xoli dunyoni mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblaydi. 1995-yilda YUNESKO tomonidan tashkil etilgan "Dunyodagi falsafa va demokratiya" xalqaro ilmiy konferensiyasi ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan "Falsafa bo'yicha Parij deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "falsafa ta'limi odamlar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda ong, fuqarolik javobgarligi, o'zaro tushunish va bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi. Falsafani o'qitish targ'ibotning turli shakllariga bardosh bera oladigan mustaqil fikrli odamlarni shakllantirish, har bir kishini zamonaviy dunyoning eng jiddiy muammolarini, xususan axloqiy masalalarini hal qilish uchun javobgar bo'lishga tayyorlaydi. Ta'lim va madaniy hayotda falsafiy munozaralarning rivojlanishi, odamlarni har qanday demokratiya uchun asos bo'lgan mulohaza qilish qobiliyatiga o'rgatish ularning fuqarolar sifatida shakllanishiga muhim hissa qo'shadi"[13]. Deklaratsiyaning e'lon qilingan prinsiplari orasida, falsafa ta'limini kengaytirish kerakligi, u mavjud bo'lmagan joylarda joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib shunday hulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, falsafa boshqa fanlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi, xolbuki falsafa barcha fanlar uchun bilish nazariyasidir. Fanlar o'rtasidagi radikal differensiallashuv va fragmentarlashuvda faqat falsafagina umumiy integratsiyani ta'minlay olishi mumkin;

Ikkinchidan, falsafiy ta'limning taraqqiyoti uzoq tarixiy an'analarga asoslanadi. Xususan, falsafaning oliy ta'limda o'qitilishi O'rta asrlar Yevropa universitetlarida shakllandi. Falsafaning hukmron kuchlar ambitsiyalaridan holi ravishda faqat haqiqat prinsipiga bo'ysunishi va uning tanqidiylik xususiyati mavjud muammolarni holis idrok etish imkonini berdi. Falsafa tarixan buyurtmalarni bajaruvchi faoliyat sohasi sifatida emas, balki erkin ijodiy faoliyat sohasi sifatida rivojlangan va har bir tarixiy davrdagi ijtimoiy ongning refleksiyasini amalga oshirgan. Falsafa hozirda ham tarixiy an'anani davom ettirib mustaqillik maqomini saqlab qolishi lozim. Zero, erkin bo'lmagan falsafa falsafa emas;

Uchinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ratsional-pragmatik tafakkur dominant o'rinni egalladi, bu o'z navbatida kadrlar

tayyorlash tizimiga tor doiradagi professional mutaxassislar tayyorlash vazifasini ustuvor qilib qo‘ymoqda. Ushbu jarayonlar ijtimoiy-gumanitar fanlarga, hususan falsafaga nisbatan amaliy bo‘lmagan keraksiz fan sifatidagi opportunistik munosabatning kuchayishiga olib keldi. Bunday tendensiya ohir-oqibatda oliy ta’limda falsafiy ta’limni qisqartirishga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda falsafa alohida mutaxassisliklarga nisbatan ixtisoslashishi kerak, zero unda bunday imkoniyat mavjud. Shuningdek, davlatning kadrlar tayyorlash siyosati pragmatik-texnokratik talablar asosiga qurilganligi inson va jamiyat hayoti faqatgina iqtisodiy ehtiyojlarga bog‘liq degan tor darajadagi tasavvurning mutlaqlashuvi natijasidir. Zero, ijtimoiy taraqqiyot ma’naviy ideallarsiz, xalqning umumiy tafakkur darajasining yuksalishisiz amalga oshmaydi. Bunda falsafa va falsafiy ta’limning ahamiyati beqiyos bo‘lib, faylasuf olimlar bu haqda ommaviy axborot vositalarida o‘z pozitsiyalarini faol namoyish etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Dummett M. The place of philosophy in European culture / M. Dummett // European Journal of Analytic Philosophy. – 2012. – Vol. 8, № 1. – P. 14–23.*

2. *Kant I. Spor fakultetov, 1798 / I. Kant // Sochineniya: v 6 t. / I. Kant. – M. :Mыsl, 1966. –T. 6. –S. 324.*

3. *Benner D. Wilhelm von Humboldts Bildungstheorie. Eine Problemgeschichtliche Studie zum egründungszusammenhang neuzeitlicher Bildungsreform / D. Benner. – Weinheim und München: Juventa Verlag, 1990. – 232 s.*

4. *Gegel G. O prepodavanii filosofii v universitetax / G. Gegel // Raboты raznыx let: v 2 t. / G. Gegel. – M. : Mыsl, 1970. – T. 1. – S. 424.*

5. *Semenov N. Topos. // Filosofsko-kulturologicheskiy jurnal. – 2012. – № 1. –S. 7.*

6. *Gippokrat. Klyatva. Zakon. O vrache. Nastavleniya / Gippokrat. – Minsk: Sovremennaya literatura, 1998. –S. 8.*

7. *Rutkevich A. M. Filosofiya v istorii vыsshego obrazovaniya: preprint WP/2014/02. – M. : Izd. dom Vыsshey shkolы ekonomiki, 2014. – S. 51.*

8. *Eynshteyn A. Zamechaniya k statyam // Sobr. nauch. trudov, T. IV. — M. : Nauka, 1967. -S. 321.*

9. *Geyzenberg V. Shagi za gorizont // Izbrannыe filosofskiye raboты. Spb. : Nauka, 2006. –S. 7.*

10. *Mamardashvili M. K. Filosofiya – eto soznaniye vslux // Kak ya ponimayu filosofiyu. — M. : Progress, 1990. –S. 14.*

11. *Bibler V. S. Dialog kultur i shkola XIX veka //Shkola dialoga kultur. Idei. Opыt. Problemы. – Kemerevo: ALEF, 1993. – S. 21.*

12. *Volkov D. Filosofiya delayet etot mir uyutnee [Elektronnыy resurs] URL: http://www. gq. ru/taste/social/148866_dmitriy_volkov_filosofiya_delaet_etot_mir_uyutnee . php?sphrase_id=1583579.*

13. *Parijskaya deklaratsiya po filosofii [Elektronnыy resurs] URL: http://unesdoc. unesco. org/images/0013/001386/138673r. pdf.*

PRIVATE ENTREPRENEURSHIP AND ENTREPRENEURSHIP THE SOCIAL ESSENCE OF THE CHANGE OF SPIRITUAL CULTURE OF YOUTH

Abstract

In this article, among the factors affecting the formation of the spiritual culture of the youth, the economy, entrepreneurship, business spheres, the practical works carried out by the leadership and the government of the Republic of Uzbekistan in these spheres and their results, the work on ensuring the employment of the youth, the youth book philosophical analysis of the directions of reforms in support of needy youth by the organization and youth notebook fund. Also, the article provides suggestions on crimes committed among young people and their causes, crime prevention and delinquency prevention. The fact that it is one of the main factors that cause crime and delinquency among today's youth has been researched based on the analysis of crimes in Uzbekistan in recent years. In particular, during the 8 months of 2022, 13, 657 crimes were committed by young people. 3, 180 in Fergana region, 1, 429 in Tashkent region, 1, 404 in Tashkent city, 1, 069 in Surkhandarya region, 995 in Samarkand region, 930 in Andijan region, 904 in Kashkadarya region, 845 in Namangan region, 789 in Bukhara region. , 532 in Navoi region, 438 in Jizzakh region, 421 in the Republic of Karakalpakstan, 300 in Syrdarya region, 249 in Khorezm region, 172 in Transport. 1, 743 of the youth who committed crimes were women, 761 were university students, and 3, 468 were unemployed youth. As a result, there is a high incidence of crime among unemployed young people. It was analyzed that one of the main ways to ensure the employment of young people is to create new jobs and open up favorable opportunities for young people for entrepreneurship. In the conditions of today's Uzbekistan, several changes have been made to the legislation on ensuring the employment of young people. In particular, in recent years, about 10 new decisions and decrees have been developed and implemented. In particular, in the article, the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6208 dated April 20, 2021 "Additional measures to support the entrepreneurial activity and employment of young people, their social protection and meaningful organization of free time "On

Activities" decree focuses on the analysis of new opportunities for young people, family entrepreneurship, women's involvement in private entrepreneurship.

Keywords

Culture, spiritual culture, youth, entrepreneurship, business, private entrepreneurship, family entrepreneurship, employment, crime.

XUSUSIY TADBIRKORLIK VA ISHBILARMONLIK YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATI O'ZGARUVCHANLIGINING IJTIMOIY MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy madaniyati shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan iqtisod, tadbirkorlik, ishbilarmonlik sohalari, ushbu sohalarda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati va hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlar va ularning natijalari, yoshlarning bandligini ta'minlash borasidagi ishlar, yoshlar daftarining tashkil etilishi va yoshlar daftari jamg'armasi tomonidan ehtiyojmand yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yo'nalishlari falsafiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar va ularning sabablari, jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish borasidagi takliflar berilgan. Bugungi yoshlar orasida jinoyatchilik va huqubuzarlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarning eng asosiylaridan biri sifatida sabab bo'layotganligi O'zbekistondagi oxirgi yillardagi jinoyatlar tahlili asosida tadqiq etilgan. Xususan, 2022 yilning 8 oyi davomida 13 657 ta jinoyatlar aynan yoshlar tomonidan sodir etilgan. Farg'ona viloyatida 3 180 ta, Toshkent viloyatida 1 429 ta, Toshkent shahrida 1 404 ta, Surxondaryo viloyatida 1 069 ta, Samarqand viloyatida 995 ta, Andijon viloyatida 930 ta, Qashqadaryo viloyatida 904 ta, Namangan viloyatida 845 ta, Buxoro viloyatida 789 ta, Navoiy viloyatida 532 ta, Jizzax viloyatida 438 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 421 ta, Sirdaryo viloyatida 300 ta, Xorazm viloyatida 249 ta, Transportda JXTBda 172 tani tashkil etadi. Jinoyatga qo'l urgan yoshlarning 1 743 nafarini xotin-qizlar, 761 nafarini oliy o'quv yurti talabalari, 3 468 nafarini band bo'lmagan yoshlar tashkil etgan. Bundan kelib chiqadiki, bandligi ta'minlanmagan yoshlar orasida jinoyatga qo'l urish holati ko'p uchraydi. Yoshlarni bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri bu yangi ish o'rinlarini yaratish va yoshlar uchun tadbirkorlik uchun qulay imkoniyatlarni ochib berish lozimligi tahlil etilgan. Bugungi O'zbekiston sharoitida yoshlarni bandligini ta'minlash borasida qonunchilikga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Xususan oirgi yillarda 10 ga yaqin yangi

qaror va farmonlar ishlab chiqilib hayotga tadbiq qilindi. Jumladan maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» farmoni bilan yoshlarga berilayotgan yangi imkoniyatlar, oilaviy tadbirkorlik, ayollarni xususiy tabdirkorlikka jalb qilish masalalari tahliliga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar

Madaniyat, ma’naviy madaniyat, yoshlar, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, bandlik, jinoyatchilik.

Kirish

Yoshlar ko‘p tomondan jamiyatning barcha sohalaridagi yangiliklarni faol o‘zlashtiruvchi ijtimoiy qatlamligini inobatga olgan holda juda ko‘p faylasuflarning tadqiqot obyektiga aylangan. Yoshlar ma’naviy madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etish esa har bir jamiyatning bugungi islohotlarining samarasini sarhisob qilish bilan barobar. Shuni hisobga olidagan bo‘lsak, kelgusi avlod ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarning bugungi iste’molchisi hamda kelajak avlodlarga qoldiriladigan ma’naviy merosning yaratuvchisi, ya’ni ijtimoiy hayotda yoshlar madaniyatlararo dialog, ma’naviy madaniyat uzatuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Viloyat, shahar, davlat va umuman jamiyatning kelajagi bevosita yangi avlodga bog‘liq. Uning qanday bo‘lishi, umumiy ijtimoiy yo‘nalishi qandayligi, hozirgi hayot sharoitiga moslashishi yoki butun dunyoni o‘zgartirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishiga bog‘liq.

Yoshlar ma’naviy madaniyati davr o‘zgarishi bilan o‘zgarib, moslashib borishi tufayli bu sohada doimiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Shu munosabat bilan yoshlar ma’naviy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni ilmiy o‘rganish, zamon ruhi bilan taqqoslash har qachongidan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlarsharhi

Yoshlar ma’naviy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri iqtisoddir. O‘zbekistonda so‘ngi yillarda iqtisodiy islohotlar jadal suratlarda hayotga tadbiq qilinmoqda. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, jamiyatning turli qatlamlari uchun tadbirkorlikka keng sharoitlar yaratish, yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatlarini oshirish, mazkur sohaga xorijiy investisiyalarni olib

kiritish bo‘yicha ulkan amaliy ishlar qilinmoqda. Buning oqibatida so‘ngi yillarda mamlakat iqtisodiyoti bir necha barobarga ko‘tarilishiga erishildi. Har bir millatning keyingi taqdiri albattada shu mamlakatda tarbiyalanayotgan yoshlarning har tomonlama, xususan, iqtisod, ishbilarmonlik va tadbirkorlik sohasida egallayotgan bilimlari darajasi, olayotgan amaliy ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Bu haqda millat kelajagi uchun jon kuydirgan bobolarimizdan M. Behbudiy o‘zing «Ehtiyoji millat» nomli maqolasida «Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa qurib tijorat etmoq lozim. Ilm tijorat bila turgan buxgalterik hisobi yuritadurg‘on boylarimizga kerak, ul dam o‘zimizdan bir nafar topilmaydur»[1] deb millatining iqtisod va tadbirkorlik sohasidagi bilimsizligini tanqid ostiga oladi.

Metodologiya

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bu sohada bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, yoshlarni tadbirkorlikka o‘rgatish va ularga bu borada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 10 dan ortiq O‘zbekiston Rspublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son«Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»[2] farmoni orqali yoshlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun bir qancha imkoniyatlar yaratildi. Mazkur qarorda yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni doimiy ish bilan band qilish, qo‘shimcha daromad olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha quyidagi tartib joriy qilindi. Birinchidan, ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to‘langan ijtimoiy soliq summasi Davlat byudjetidan to‘liq qaytarib berilishi, bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab[3] qaytarilishi belgilandi.

Shuningdek, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o‘zini o‘zi band qilishga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda «Yoshlar daftari» jamg‘armalari hisobidan subsidiya ajratilishi joriy qilindi. «Yoshlar daftari»ga kiritilgan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun bino va inshootlarini ijaraga olgan yosh tadbirkorlarga bir yillik ijara

xarajatlarining 30 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha bo‘lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg‘armalari hisobidan kompensasiya tizimi joriy qilindi. Bundan tashqari professional ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga ular ishlab-chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarida amaliyot o‘tagan vaqtida, biroq olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda professional ta’lim tashkilotlari tomonidan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oylik subsidiya ajratiladigan bo‘ldi. Bu kabi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar soni bir necha borabarga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlarning 22, 9% (106, 574) yosh tadbirkorlar (31 yoshdan kichik) [4] tashkil etadi.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan respublikaning barcha mahallalarida yoshlar yetakchisi va hokim yordamchisi lavozimlarining joriy qilinishi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan «Yoshlar daftari» tizimi bilan kunlik ishini amalga oshiruvchi institut yaratilganligining dalilidir. Xususan, bugungi kunda joylarda yoshlar yetakchilari hokimlik organlari bilan hamkorlikda:

– «Yoshlar daftari» bilan ishlarni samarali tashkil qilish;

– yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik va ishbilarmonlik borasidagi bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish;

– mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning bandligini ta’minlash, yoshlar o‘rtasida turli sport musobaqalari, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

– yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishlarida ko‘maklashish, turli sohalarga qiziquvchi yoshlarni aniqlash va ularning iste’dodi va tashabbuslarini yuzaga chiqarish kabi amaliy ishlar 9309 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda respublikada jami 62 mingdan ziyod qo‘shimcha ko‘makka muhtoj yoshlar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan.

Samarqand viloyatida 9 573 nafar, Surxondaryo viloyatida 6 279 nafar, Farg‘ona viloyatida 6 122 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 787 nafar, Andijon viloyatida 4 778 nafar, Qashqadaryo viloyatida 4 504 nafar, Toshkent viloyatida 4 288 nafar, Namangan viloyatida 3 896 nafar, Xorazm viloyatida 3 609 nafar, Navoiy viloyatida 3 282 nafar, Jizzax viloyatida 2 993 nafar, Buxoro viloyatida 2 957 nafar, Sirdaryo viloyatida 2 477 nafar, Toshkent shahrida 2 230 nafar.

Joylarda amalga oshirilgan ishlar natijasida 2022-yilning o‘zida yoshlar yetakchilari tashabbusi ostida:

– 1 589 nafar yoshlar doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlangan;

– 1 951 nafar yoshlarga kredit ajratilgan;

– 19 398 nafar yoshlarga yer ajratilgan;

– 691 nafar yoshlar «ustoz-shogird» an’anasi asosida hunarmandlarga biriktirilgan;

– 5 642 nafar yoshlarga subsidiya ajratilgan;

– 7 246 nafar yoshlarga (21%) ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko‘rsatilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida bugungi kunda jami 50 738 nafar (80, 8 %) yoshlar ro‘yxatdan chiqarildi. 2022-yilning noyabr oyi holatida «Yoshlar daftari»da 12 037 nafar fuqarolar ro‘yxatga olingan. Bundan tashqari, o‘tgan davrda «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning 2 619 nafariga safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tash badali hamda 1 506 nafariga haydovchilarni tayyorlash kurslarida o‘qish xarajatlari qoplab berilgan. Shu bilan birga, «Yoshlar daftari»ga kiritilganlarning 390 nafariga ijara xarajatlari, 5 642 nafariga esa mehnat qurollari xarid qilish uchun bir martalik subsidiya ajratilishida yaqindan ko‘mak ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ishsiz yurgan yoshlarning bandligini ta’minlash masalasiga ham kun tartibida turgan asosiy masaladir. Bu borada, 3-sektor rahbarlari tomonidan mahalladagi hokim yordamchilari bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar natijasida 64 379 nafar yoshlar va 12 483 nafar bitiruvchilar doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlangan. Shuningdek, 32 666 nafar yoshlarga oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishiga, 63 026 nafariga esa tomorqadan foydalanishiga ko‘maklashilgan. Bu ishlar mamlakatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning bir kichik qismi xolos.

Mazkur yuqoridagi amaliy ishlar oqibatida va jahonda yuz berayotgan globallashuv, madaniy almashinuvlar, iqtisod, ilm-fan, sport sohasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishi va tezlashuvi, ko‘plab aholi vakillarining ish, o‘qish va turizm sohasida boshqa davlatlarga borish va chet el fuqarolarining bizning davlatimiz turmush-tarzi bilan yaqindan tanishish holatlarining kuchayayotganligi oqibatida o‘zbek milliy mentalitetida, shu orqali ma’naviy-madaniyatida ko‘plab o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, bugungi o‘zbek yoshlarida ilm-fan bilan shug‘ullanish, o‘zini iqtidorini namoyon qilishga bo‘lgan intilish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun zamonaviy madaniyat namunalari bilan tanishish oqibatida ularda individualizmning ortishini yuzaga keltirmoqda. Bugungi jamiyat

hayotida yoshlar hayot poygasida o‘zining manfaatlarini jamiyat, jamoa manfaatlaridan ustun qo‘yishi ko‘plab kuzatilmoqda. Xususan, mahalla va oilada yosh avlodning o‘zini kattalar oldida erkin tutishi, ularning nasihatlaridan ko‘ra o‘z fikr va mulohazalarini to‘g‘ri deb hisoblashga urinishlarning ortishi kuzatilmoqda. Shuningdek, yoshlar mentalitetida axloqdan ko‘ra huquqning ustunlikka erishayotganligi ham jamiyatda tup o‘zlarishlarning amalga oshirilayotganligi bilan bog‘liqdir.

Ma’lumki, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda individual mehnat faoliyati bandlik muammosini yechishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Sh. Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida «Biz bundan buyon ham aholimizning daromadi va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga jiddiy ahamiyat qaratamiz. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning o‘ziga xos yangi tizimi yaratilgan. «Temir daftar», «ayollar daftari», «yoshlar daftari», «mehr daftari», «mahallabay» ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda» deb ta’kidlaydi. Mehnat jabhasiga mustaqil yo‘l olgan yoshlar xarakteridagi ayrim o‘zgarishlar professional faoliyatning yangi tamoyillarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, hulq-atvorning noan’anaviy strategiyasini namoyon qiladi. Shuning uchun, u faqatgina oilaviy shart-sharoitni yaxshilash vositasi hisoblanmay, balki iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. «Oilaviy biznes»da yoshlarning ijtimoiylashuvi ota-ona ta’siri doirasida ro‘y berganligi bois, ulardagi iste’molchilik munosabatlari ko‘lami kichik darajada bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonida mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik, muvaffaqiyatga erishish motivi kabi tushunchalarni anglanilishi o‘spirinlardagi ijobiy shaxsiy sifatlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Yoshlarning «oilaviy biznes»dagi ishtiroki ta’lim olishga xalaqit bermaydi, aksincha, ularga pul ishlab topish imkoniyatini yaratadi. «Oilaviy biznes» turli xil darajada sivilizasiyalashgan tadbirkorlikning shakllanishiga turtki beruvchi ijtimoiy muhitni yaratishi mumkin. Jumladan, oila a’zolari o‘rtasida bandlikni samarali taqsimlash, ularni har birining qobiliyati, bilimi, tafakkuri, ma’lumotlilik darajasi va imkoniyatlarini ijobiy baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bois, oila a’zolarining birida tadbirkorlik faoliyati uchun layoqat va tashkilotchilik qobiliyati bo‘lishi shart. Tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish – maqsadga intilishdagi matonat, tavakkalchilikka tayyorlik, o‘ziga ishonch, moslashuvchanlik, shaxsiy javobgarlik hissi, kirishuvchanlik, turli ma’lumotlarni tez yig‘ish va ulardan foydalanish qobiliyati kabi shaxsiy sifatlar majmuasining shakllanishiga bog‘liqdir. Buning uchun, «oilaviy biznes» sharoitida, barcha shaxsiy sifatlarni o‘zida jamlagan alohida bir kishining bo‘lishi shart emas. Oiladagi har bir a’zoning kuchli va kuchsiz

jihatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan rolini hamda shaxsiy salohiyatini maksimal darajada ochib berishga xizmat qiladigan bandlikni maqbul ravishda taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yosh avlod kuch-quvvati bilan kattalar tajribasini muvofiqlashtirish ham samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Xususan, yoshlardagi tez o‘zlashtirish qobiliyati va innovasion salohiyat mavjud muammoni hal etish jarayoniga nisbatan standartlashmagan yondashuvni keltirib chiqarishi mumkin.

Natijalar

Tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga yo‘naltirilgan dasturlar doirasida so‘nggiyillarda 600 mingdan ziyod aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga 15 trillion so‘mdan ortiq miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilgan. Aytish joizki, yurtimizda oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslari bir qator me’yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan. Yangi taxrirda qabul qilingan konstitusiyamizning 65-moddasida, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunning 7-moddasida jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirish mumkinligi nazarda tutilgan. Qonunda belgilanishiga ko‘ra, oilaviy korxonalar faoliyati sohasida yuridik shaxslar uchun belgilangan soliq yoki yagona yer solig‘i to‘lash nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirishlari mumkin. Bunda oilaviy korxonalar faoliyatining asosiy sohalari iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va sotish, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish va servis bo‘yicha faoliyat hisoblanadi. Faoliyat turlari ro‘yxatiga hunarmandchilik faoliyati ham kiritiladi. Oilaviy tadbirkorlikda mikrofirmalar va kichik korxonalarga o‘xshash moliyaviy xujjatlar va statistik hisobotlar yuritadi. Oilaviy biznes ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro mehnat munosabatlari ular tomonidan mehnat qonunchiligiga asosan mustaqil ravishda tartibga solinadi. Oilaviy biznes va yollangan ishchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar esa mehnat qonunchiligida belgilangan mehnat shartnomasi bilan amalga oshiriladi. Oilaviy biznes ishtirokchilari esa nafaqat mol-mulki negizidagi er-xotinlar, balki O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilanganidek (57-59-moddalar) karindoshlik hamda quda-andachilik munosabatlarida bo‘lgan

mehnatga layoqatli yoshga yetgan oilaning boshqa a'zolari ham bo'lishlari mumkin. [5] Shuningdek, oilaviy biznes, hukumat tomonidan aniqlangan ro'yxatga ko'ra, o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini sotishdan olingan tushumlar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod qilinadilar.

Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish kelajakda nafaqat oila rivojiga, balki mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik sohasida, ayniqsa qishloq joylarida barqaror yangi ish joylarini tashkil etish hisobiga, hozirgi vaqtda norasmiy sektorda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan ishchi kuchlarni, shu jumladan mehnat shartnomasini rasmiylashtirmasdan tadbirkorlarga yordam berayotgan oila a'zolarini rasmiy bandlik sohasiga bosqichma-bosqich jalb etishni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, bugungi globallashuv jarayonlari davom etayotgan bir davrda, oilaviy biznesni rivojlantirish va ushbu sektorda ayollar mehnatining rolini oshirish masalalari davlatimiz iqtisodiyotining har tomonlama yuksalishida alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ayollar mehnatidan foydalanish va bunday mehnatni samarali amalga tatbiq etish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ayollar mehnatini kengaytirish va imkoniyatlar yaratib borish borasidagi me'yoriy hujjatlar asosida iqtisodiyotni boshqarishni yangicha tashkil etishning eng zamonaviy uslub va qulayliklariga erishilmoqda. Shu nuqtai nazardan ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi hissasi to'g'risida mulohazalar bugungi kunda o'ziga xos dolzarbligicha qolmoqda.

Demak, bugungi kunda oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining rolini oshirish va uni amalda keng qo'llashning huquqiy jihatlari bo'yicha orttirilgan ijobiy tajriba mavjud, ammo ayollarning mehnat faoliyatlarini yanada yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan vazifalar ko'lamini kuchaytirish, qolaversa, eng muhimi uni huqumat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur.

Ayollar mehnatini erkaklar bilan teng tarzda tashkil etish hamda ularga teng sharoitlar yaratish bo'yicha huquqiy asos albatta yangi taxrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilab qo'yildi. Xususan, yangi taxrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 53 moddasida «Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi»[6] deb belgilab qo'yildi.

Yoshlar bandligini ta’minlash, ularni ertaroq biror faoliyat, ayniqsa tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun ko‘maklashilsa ularning bo‘sh vaqti bo‘lmaydi. Aynan doimiy ravishda biror faoliyat bilan band bo‘lgan yoshlar turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushmaydi hamda jamiyat uchun namuna bo‘ladigan, ijobiy natijalar olib kiradigan namunali shaxs bo‘lib shakllanishiga imkoniyat poydo bo‘ladi. Tahlillarning ko‘rsatishicha jamiyatimizda yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan ko‘plab jinoyatlar aynan bandligi ta’minlanmagan yoshlar o‘rtasida sodir etilmoqda. Shu sababli ham yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda tadbirkorlik omilini xisobga olish lozim.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlarning ma’naviy madaniyati - bu jamiyatda qaror topgan tarbiya vositalari orqali shakllangan, shuningdek, yoshlar tomonidan ijobiy qabul qilingan, ularning hayotiy faoliyat ko‘rinishiga aylangan ma’naviy madaniyatning ajralmas qismi xisoblanadi. Bu yoshlarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirishda xususiy tadbirkorlik va ishbilarmonlikning o‘rni o‘zaga xos xisoblanadi. Sababi yoshlar ertaroq iqtisodiy bilimlarni egallasa ularni jamiyat hayotida sodir bo’layotgan iqtisodiy islohotlarni ongli va chuqur anglab olish imkoniyati paydo bo‘ladi va ular jamiyat uchun ijobiy shasga anglanadi.

Yoshlarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirishda, ularning jahon yoshlari orasida raqobatbardosh avlod bo‘lib voyaga yetishida iqtisodiy islohotlarning o‘rni katta. Yoshlarning hayotda o‘z-o‘ziga ishonch xissi orqali faoliyat olib borishlarida, ularning iqtisodiy bilimlari, egallagan ko‘nikmalari yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli ham mamlakatimizda yoshlarning iqtisodiy bilim olishlari va jahon iqtisodiyotida, tadbirkorlik faoliyatida qanday yangi o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligini doimiy ravishda yetkazib borish va bu bilimlar bilan qurollantirish zarur va shartdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Беҳбудий М. Эҳтиёжи миллат. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 200.

2. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 20 апрелдаги ПФ-6208-сон фармони. https://lex. uz/docs/5382151

3. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 20 апрелдаги ПФ-6208-сон фармони. https://lex. uz/docs/5382151

4. Қаранг: Ёш тадбиркор. https://yoshtadbirkor. uz/

5. Очилова Г. Рақамли иқтисодиёт шароитида ёшларда тадбиркорлик қобилиятларини шакллантириш механизмлари. Архив научных исследований. 2022. №. 1 – Б. 167.

6. Ўзбекистон Республикаси Конститутицияси. https://lex. uz/docs/6445145#6445421

ADDRESSING MODERN TECHNOLOGIES AND APPROACHES IN EFFECTIVE TEACHING

Shirin Bekmuratova

prehensive article titled "Addressing modern technologies and approaches in effective teaching" delves into the intersection of pedagogy

Introduction

The article reviews the latest advancements in educational psychology, emphasizing the significance of understanding cognitive processes, memory retention, and motivation to design effective learning experiences. It also discusses the implications of neuroscientific research on pedagogical practices, offering a bridge between neuroscience and education.

Throughout the article, the authors emphasize the need for educators and psychologists to collaborate, drawing from each other's expertise to create a holistic approach to education. The article concludes by discussing the potential impact of these innovations on educational institutions and society as a whole, highlighting the importance of staying at the forefront of pedagogical and psychological research in an ever-evolving educational landscape.

This article serves as a valuable resource for educators, researchers, and policymakers seeking to stay informed about the latest trends and research findings in pedagogy and psychology, ultimately aiming to enhance the quality of education and promote the holistic development of learners.

Literature Review

While applying this topic to write the article, the researches and achievements of most linguists are examined in order to collect valuable data in this field for the article.

BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan “Bolalar huquqlari to’g’risidagi Konvenitsiya” barcha bolalarning huqularini hamma joyda amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan inson huquqlari borasidagi xalaro shartnoma ҳisoblanadi.

“Bolalar huquqlari to’g’risidagi Konventsiya” barcha bolalarning huqularini himoya qiladi. Mazkur Konventsiyaning 2-moddasida “Bolalar ularning ota-onalari, boquvchilarining irqlari, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa ehtiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog’lig’i, qanday holatda tug’ilganliklari va boshqa holatlaridan qat’iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak” – deb qathiy belgilangan. Konventsiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo’lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo’lish kafolatlanadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etish masalasi eng dolzarb masalalar qatorida qarala boshladi. Natijada, 1990 yilda Tailandda o’ta muҳim Umumjaҳon Konferentsiyasi bo’lib o’tdi. Bu konferentsiyada “Ta’lim hamma uchun” Umumjaҳon Deklaratsiyasi qabul qilindi. “Ta’lim ҳamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155ta davlat ҳukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. “Ta’lim hamma uchun ” Umumjaҳon Deklaratsiyasi har bir bolaning to’laqonli va mukammal ta’lim olishini kafolatladi.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilingan: “Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas ish sifati va maktab ta’limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Ular quyidagilardan iborat

-har bir bolaning huquqiommaviy maktabda ta’lim tarbiya olishni talab etadi;

-o’qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;

-maktabda to’laligicha korrektsion pedagogik yordam tashkil etiladi;

-bolalar to’g’risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;

-bolaning har bir shaxsiy juquqi kafolatlanadi;

-maktabda integratsiya tamoyiliga o’quv rejaning asosi sifatida qaraladi;

-inklyuziv maktablarning moddiy tahminoti yaxshilanadi”.

Inklyuziv ta’lim

(ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg’unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish mahnolarini bildiradi) bu davlat siyosati bo’lib, normal rivojlanishdagi va maxsus ehtiyojli bolalar o’rtasidagi to’siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar va o’smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qathiy nazar oilaning faol ishtirokida umumta’lim tizimiga to’liq qo’shishni va ijtimoiy ҳayotga moslashtirishni ifodalovchi ta’lim tizmidir.

Yuqorida keltirlgan mehyoriy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalar va o’smirlarni ҳam umumta’lim muassasalarida teng huquqlilik asosida o’qitish va tarbiyalash masalasi ҳuquqiy jiҳatdan kafolatlandi.

Chunki aloҳida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta’limining samarali tashkil etilishi natijasida

- imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo’lgan oilalarning moddiy va ma’naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;
- imknoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o’rtasida

tenghuquqlilik ta’minlanadi, do’stona munosabatlar shakllanadi;

- maxsus ehtiyojli bolaning o’z oilasi va jamiyat davrasida bo’lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;
- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;
- barcha uchun ta’lim sifati yanada yaxshilanadi;

- imkoniyati cheklangan bolalar sog’lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mexnat qilishga moslashadilar;

- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari tahminlanadi, yahni jamiyatda boshqalar ko’magiga qaramlar soni kamayadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi. Uning maqsadi nogironligi bo‘lgan shaxslarni ta’lim va tarbiyalashda to‘siqlarsiz muhit yaratishdir. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta'lim muassasalarini texnik jihozlash va o'qituvchilar va boshqa talabalar uchun nogironlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, umumiy ta'lim muassasasida nogiron bolalarni moslashtirish jarayonini engillashtirish uchun maxsus dasturlar kerak.

Inklyuzivlik eng yangi maxsus ta'lim strategiyalaridan biridir.

Inklyuzivlik - bu alohida ta'limga muhtoj bolani (SEN) maktab hayotiga to'liq jalb qilishni anglatadi. Inklyuzivlikning ma'nosi bolani kunning bir qismi yoki butun kun uchun oddiy sinfga joylashtirish emas, balki shu tarzda sinf makonini tashkil qilishni o'zgartirish, shuningdek o'rganish jarayoni g'ayrioddiy bolani sinf hayotiga to'liq jalb qilish.

- Ideal holda, inklyuziv sinf SENga ega bo'lgan bir nechta bolalar guruhlarini birlashtirishi kerak, shunda bolalar bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu ta'lim tizimining tarafdorlari bu tarzda bolalar haqiqiy hayotga eng yaxshi tayyorgarlik ko'rishlariga ishonishadi. va skeptiklar o'qituvchilarga SEN bo'lgan bolalar uchun juda ko'p mas'uliyat yuklanishidan qo'rqishadi, o'qituvchilarning o'zlari esa tegishli tayyorgarlik va zarur resurslarga ega emaslar. va bu alohida ehtiyojli bolalarga oddiy bolalarga qaraganda ko'proq e'tibor berilishiga olib keladi - bu umumiy ta'lim darajasining pasayishini anglatadi.

- Inklyuziv ta'lim - bu umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadi, bu SENga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Inklyuziv ta'lim bolalarga yo'naltirilgan metodologiyani ishlab chiqishga intiladi, bunda barcha bolalar turli xil ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslardir. Inklyuziv ta'lim turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun yanada moslashuvchan bo'lgan o'qitish va o'rganishga yondashuvni ishlab chiqishga intiladi. Agar inklyuziv ta’lim joriy etayotgan o‘zgarishlar

natijasida o‘qitish va o‘qitish yanada samaraliroq bo‘lsa, unda barcha bolalar (nafaqat alohida ehtiyojli bolalar) foyda ko‘radi.

Inklyuziv ta’limning sakkiz tamoyili:

1. Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq emas;

2. Har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega;

3. Har bir inson muloqot qilish va uni eshitish huquqiga ega;

4. Hamma odamlar bir-biriga muhtoj;

5. Haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;

6. Hamma odamlar tengdoshlarining yordami va do'stligiga muhtoj;

7. Barcha o'quvchilar uchun taraqqiyot ular qila olmaydigan narsadan ko'ra ko'proq bo'lishi mumkin;

8. Xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini oshiradi.

Nogiron bolalarni tarbiyalashning asosiy kamchiligi axloq tuzatish muassasalarining nogiron bolasi bo'lgan oilaning yashash joyidan sezilarli darajada uzoqligidir. Maktab o'quvchisini yoki maktabgacha tarbiyachini ushbu muassasalardan biriga joylashtirish oilani (ota-ona va bolani) to'liq muloqot qilishdan mahrum qiladi, oilaviy aloqalarni ko'proq buzadi.

Umumta’lim maktablarida nogiron bolalar uchun maxsus ta’lim olishning afzalliklarini saqlab qolish maqsadida korreksion sinflar tashkil etildi. Tuzatish sinflari uchun ijobiy jihat - sog'lig'ida muammolar bo'lgan bolalarning boshqa sinflardagi tengdoshlari bilan teng ravishda maktab tadbirlarida qatnashish imkoniyati, shuningdek, bolalarning uyga yaqinroq o'qishi va oilada tarbiyalanishi.

Masofaviy ta'lim - bu alohida ta'limga muhtoj bolalarga masofaviy ta'lim ma'lumotlarini almashish vositalariga asoslangan ixtisoslashtirilgan axborot-ta'lim muhiti yordamida ko'rsatiladigan umumiy ta'lim xizmatlari to'plami. Ta'limning ushbu shakli o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning tejamkor rejimini ta'minlashga, o'quvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni o'zgartirishga, ular tomonidan asosiy umumiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun turli muddatlarni belgilashga imkon beradi, ular tabiatiga qarab o'zgartirilishi mumkin. psixologik-tibbiy-pedagogik kengash tavsiyasiga ko‘ra o‘quvchining kasalligi kursi, shuningdek, maxsus o‘quv muhitida o‘quv ishini tashkil etish.

Uyda ta'lim - bu ta'lim tashkilotining o'qituvchilari maxsus tuzilgan jadvalga muvofiq bolaga tashrif buyurishi va u bilan bevosita yashash joyida mashg'ulotlar o'tkazishi uchun o'qitish variantidir. Bunday o'qitish, qoida tariqasida, eng yaqin ta'lim muassasasining o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

tanani tashkil etish. Rossiyada alohida ta'limga muhtoj bolalarni uyda o'qitish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar ham mavjud. Uyda ta'lim o'quvchining qobiliyatiga moslashtirilgan umumiy yoki yordamchi dastur bo'lishi mumkin. Bugungi kunda uyda ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun dunyodagi eng tez rivojlanayotgan ta'lim shaklidir.

Integratsiyalashgan ta'lim. Hozirgi vaqtda Rossiyada normallashtirish tamoyiliga asoslangan ta'limga muhtoj bolalarni o'qitishning integrativ modellari jadal rivojlanmoqda. Ushbu modelning afzalligi ta'lim tashkiloti va ota-onalar uchun bolaga qulay bo'lgan integratsiya shaklini tanlash imkoniyatidir. Ta'lim amaliyotida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning turli xil integratsiya modellari ishlab chiqilgan.

Doimiy qisman integratsiya, normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan bir qatorda, zarur ko'nikma va ko'nikmalarning ozgina qismini o'zlashtira oladigan, o'qish va darsdan tashqari vaqtlarining faqat bir qismini ular bilan o'tkaza oladigan bolalar uchun samaralidir.

Vaqtinchalik qisman integratsiya, bunda psixofizik va nutqni rivojlantirish darajasidan qat'i nazar, maxsus guruh (sinf) ning barcha o'quvchilari har oyda kamida 2 marta sog'lom bolalar bilan birgalikda turli xil ta'lim tadbirlarini o'tkazish uchun birlashtiriladi.

Aqliy rivojlanish darajasi yosh me'yoridan biroz past bo'lgan, tizimli va jiddiy tuzatish yordamiga muhtoj, lekin ayni paytda bir qator fanlar bo'yicha normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda va teng ravishda o'qishga qodir bo'lgan bolalar uchun doimiy to'liq bo'lmagan integratsiya. hududlar, shuningdek, ko'p vaqtini ular bilan o'tkazadi. darsdan tashqari vaqt.

Epizodik integratsiya - nogiron bolalarning tengdoshlari bilan minimal ijtimoiy o'zaro munosabatlarini maqsadli tashkil etish.

Doimiy to'liq integratsiya psixofizik va nutqni rivojlantirish darajasi bo'yicha yosh normasiga mos keladigan va sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'rganishga psixologik jihatdan tayyor bo'lgan bolalar uchun samarali bo'lishi mumkin. Integratsiyalashgan ta'limning ushbu modeli o'z xususiyatlariga qo'shilishga yaqin.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liq soha. Shuning uchun bugun uning aynan bitta yo‘nalishi – inklyuziv ta’limga batafsilroq to‘xtalib o‘tmoqchiman. Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq o‘qishda, o‘rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv maktab o‘qituvchisi va inklyuziv bog‘chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak? Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o‘qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo‘lishi va ta’lim sifati ma’suliyatini o‘z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta’lim berish o‘qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari – o‘qituvchi o‘quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Inklyuziv ta’lim umumiy ta’limni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, uning hamma uchun ochiqligini nazarda tutadi. Inklyuzivlikning asosiy g'oyasi - nogiron bolalarni alohida ixtisoslashtirilgan muassasalarda emas, balki oddiy umumta'lim maktablarida o'qitish, nogiron bolalar oddiy tengdoshlari bilan birga o'qish va ta'lim muassasalariga borish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun. Inklyuziv ta'lim - bu nogiron bolalar uchun

umumiy ta'lim muassasalarida sog'liqni saqlash, ular barcha bolalarni qamrab olishi, qabul qilishi va ta'lim olishi uchun maxsus sharoitlar yaratilgan.

Yana bir sifat – hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Chunki o‘qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhimdir. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo‘llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamroqli maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi xislatlarga ega bo‘lish kerak.

Ma’lumki, inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma’lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta’lim aqliy, jismoniy tashqi ko‘rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘ra belgilanadi. Maxsus ta’lim o‘qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o‘qitilsa, inklyuziv ta’lim bolaga yo‘naltirilgan va moslashtirilgan, yo‘riqnomali, barchaga mo‘ljallangan o‘quv dasturi asosida o‘qitiladi. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir -birlaridan o‘rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi. Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda

oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi O'qituvchilar o'rtasida inklyuziv kompetentsiyani rivojlantirish uchun e'tiborgaolish kerak bo'lgan ba'zi asosiy jihatlar:

- O'qitish va malakasini oshirish: o'qituvchilar inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan har

tomonlama o'qitish va doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini olishlari kerak.

Ushbu trening nogironlik va maxsus ta'lim ehtiyojlarini tushunish, o'qitishni farqlash, o'qitish strategiyasi va materiallarini moslashtirish, inklyuziv sinf muhitini targ'ib qilish va boshqa mutaxassislar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish kabi mavzularninqamrab olishi kerak.

- Inklyuziv pedagogikani bilish: o'qituvchilar inklyuziv pedagogika to'g'risida

qat'iy tushunchaga ega bo'lishlari kerak, bu turli xil o'quv ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish usullari, materiallari va baholarini moslashtirishni o'z ichiga oladi. Ular nogiron talabalarni qo'llab-quvvatlaydigan dalillarga asoslangan o'quv strategiyalari va yordamchi texnologiyalar bilan tanishishlari kerak. Ushbu bilimlarni ixtisoslashtirilgan kurslar, seminarlar va ta'lim resurslari orqali olish mumkin.

- Shaxsiy farqlarni anglash: o'qituvchilar talabalar o'rtasidagi individual farqlarni

tan olishlari va qadrlashlari kerak. Bunga turli xil ta'lim uslublari, madaniy kelib

chiqishi, lingvistik ehtiyojlari va nogiron talabalar duch keladigan o'ziga xos

muammolarni tushunish kiradi. Ushbu farqlardan xabardor bo'lish orqali o'qituvchilar barcha o'quvchilar uchun ishtirok etish va faollikni rivojlantiradigan inklyuziv o'quv muhitini yaratishi mumkin.

- Hamkorlik va jamoaviy ish: inklyuziv ta'lim o'qituvchilar, yordamchi xodimlar,

mutaxassislar va oilalar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi. O'qituvchilar birgalikda

muammolarni hal qilish, samarali muloqot va jamoaviy ish ko'nikmalarini

rivojlantirishlari kerak. Ular turli xil ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalar uchun tegishli

turar joylarni, modifikatsiyalarni va qo'llab-quvvatlash strategiyalarini aniqlash va

amalga oshirish uchun boshqa mutaxassislar bilan ishlashlari kerak.

- Ijobiy munosabat va e'tiqodlar: inklyuziv ta'limda munosabat va e'tiqodlar hal

qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchilar barcha talabalarning xilma-xilligi, inklyuzivligi vaqobiliyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlari kerak. Ular har qanday tarafkashlik yoki stereotiplarga qarshi chiqishlari va barcha talabalar o'zlarini qadrlashlari, hurmat qilishlari va qo'llab-quvvatlashlarini his qiladigan ijobiy va inklyuziv sinf muhitininyaratishga intilishlari kerak.

- Reflektiv amaliyot: o'qituvchilar o'zlarining o'qitish amaliyotini doimiy ravishda

baholash va takomillashtirish uchun aks ettirish amaliyoti bilan shug'ullanishlari kerak.

Bu o'z o'qitish usullari haqida mulohaza yuritish, talabalarning bilim olishiga ta'sirini

o'rganish, hamkasblardan fikr-mulohaza izlash va inklyuzivlikni ta'minlash uchun

zarur tuzatishlar kiritishni o'z ichiga oladi.

- Kirish mumkin bo'lgan o'quv muhiti: o'qituvchilar jismoniy va ijtimoiy inklyuziv o'quv muhitini yaratish haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Ular barchatalabalar uchun kirish va ishtirok etishni yaxshilash uchun sinf tartibi, o'tiradigan joylar, kirish imkoniyatlari va yordamchi texnologiyalardan foydalanish kabi omillarni hisobga olishlari kerak. Umuman, o'qituvchilar o'rtasida inklyuziv vakolatlari rivojlantirish tayyorlash birlashmasidan talab, bilim olish, o'ychan amaliyoti, va xilma-quchoqlab uchun majburiyat. O'qituvchilarni zarur ko'nikma va qarashlar bilan jihozlash orqali inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish mumkin va barcha talabalar o'rganish va muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv kompetentsiyani rivojlantirish dasturlari

o'qituvchilarning talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Ushbu dasturlarga ixtisoslashtirilgan treninglar, hamkorlikda o'qitish imkoniyatlari va ushbu soha mutaxassislarining doimiy ko'magi kiradi. Bunday dasturlarda ishtirok etadigan o'qituvchilar takomillashtirilgan o'qitish amaliyotini, ishonchni oshirishni va talabalarning faolligini va yutuqlarini namoyish etadilar.

Yuqorida samaradorlikka erishish uchun inklyuziv ta'limda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi

- barcha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zarur moddiy-texnik, psixologik-pedagogik va korrektsion yo'naltiruvchi sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilar o'rtasidagi ta'limdagitenglikhuquqinikafolatlash;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ta'minlash;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- jamiyat rivojining faol ishtirokchilarini ko'aytirish, ishsizlar sonini yanada kamaytirish;
- barcha uchun tahlim sifatini oshirish asosida davlat iqtisodini o'stirish va xalq ma'naviyatini yuksaltirish.

Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limi asosan umumiy, maxsus ehtiyojli bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan muassasalarda tashkil etiladi. Bunday muassasalar barcha bolalarning turlijismoniyehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'қitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi hamda ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, tabaqalashtirilganta'lim-tarbiyatiziminitashkiletadi.

Muhokama bo'limi natijalarning oqibatlarini o'rganadi va o'qituvchilar o'rtasida

inklyuziv kompetentsiyani rivojlantirishda duch keladigan muammolarni o'rganadi. Bu individual o'qituvchilarning ehtiyojlariga va o'qituvchilar, talabalar, oilalar va jamoat manfaatdor tomonlari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatiga qaratilgan

shaxsiylashtirilgan kasbiy rivojlanishning muhimligini ta'kidlaydi. Munozara,

shuningdek, inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirish va o'qituvchilarning inklyuziv kompetentsiyasini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishda maktab rahbariyatining rolini ta'kidlaydi.

2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bunga misol bo‘la oladi. Unga ko‘ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inlyuziv ta’lim joriy qilinadi. Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch sinflar ochiladi. Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb- hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashgan guruhlar tashkil etiladi. Shuningdek 2021-2022 o‘quv yilida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida majburiy o‘rta ta’lim 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonli bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab internatlarda 9 yillik muddatlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, ularni kasbga o‘qitish kurslari tashkil etilib, bitiruvchilarga sertifikat beriladi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishga har tomonlama sharoit yaratilmoqda. Inklyuziv ta’limni butun mamlakat bo‘ylab rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misol bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Xulosa va takliflar

Topilmalar va munozaralarga asoslanib, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga

oshirish uchun o'qituvchilar o'rtasida inklyuziv kompetentsiyani rivojlantirish juda

muhimdir. Inklyuziv kompetentsiyani oshirish uchun ta'lim muassasalariga

o'qituvchilar uchun har tomonlama va doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish tavsiya etiladi. Bunga seminarlar, murabbiylik dasturlari va hamkorlikdagi o'quv jamoalari kirishi mumkin. Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida inklyuzivlik madaniyatini tarbiyalash, o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ilg'or tajribalarni baham ko'rish, talabalar, oilalar va jamoat a'zolarini bu jarayonga jalb qilish inklyuziv ta'lim maqsadlariga erishish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilar o'rtasida inklyuziv kompetentsiyani

rivojlantirish inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi rol

o'ynaydi. O'qituvchilarni zarur bilim, ko'nikma, munosabat va amaliyot bilan jihozlash orqali biz xilma-xillikni qamrab oladigan, barcha o'quvchilarga kuch beradigan va ularni yanada inklyuziv va adolatli jamiyatga tayyorlaydigan ta'lim muhitini yaratishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных

систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian Education Science and

Innovation Journal, 1(22), 15-19.

2. Akhmedov, B. A., Shuhkrat, K, (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43.

3. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.

4. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M. (2021). Practical ways to learn and use the educational cluster. Экономика и социум, 2(81).

5. Akhmedov, B. A. (2021). Cluster methods for the development of thinking of

students of informatics. Academy, 3(66), 13-14.

6. Akhmedov, B. A. (2021). Innovative cluster model for improving the quality of education. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 528-534.

7. Ахмедов, Б. А. (2021). Динамическая идентификация надежности

корпоративных вычислительных кластерных систем. Academic Research in

Educational Sciences, 2(3), 495-499

XULQ-ATVORNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA BELGILARIDA INFANTILLIK XOLATI

Ma'lumki, inson faoliyatining mazmuni ehtiyojning yolg'iz o'zi bilangina belgilanmaydi, balki undan jamiyat talab qilayotgan biron maxsulotni tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi. Bu esa infantil odamning yana bir muhim xususiyati bilan bog'liq: u muammolarni qanday hal qilishni bilmaydi. Muammo tug'ilsa, "katta" odam (ota-ona, turmush o'rtoq, do'stlar) kelib, vaziyatni o'nglashini yoki hech bo'lmasa qanday o'nglash kerakligini aytishini kutadi. Bu esa shaxsning o'z xatti-harakatlari oqibatini baholay olmasligiga olib keladi, chunki bunday baholash tizimini uning uchun odatda boshqalar amalga oshiradi. Infantilizm — bolatabiatlik yoki aqlan kamol topmaganlik, shaxsda psixologik rivojlanishning kechikishi, xatti-harakatlari yoshiga mos kelmasligi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va ongli ravishda qaror qabul qilishni istamasligida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinib turibtiki odamning xatti-harakatlari tamoman boshqacha tarzda tashkil topgan. Ehtiyojning bir o'zigina uning formalarini tug'dirib qolmay, balki ehtiyojlarni qondirishning jamiyat tomonidan qabul qilingan usullari xatti-harakat shaklarini belgilay boshlaydi. Infantil erkak va ayol jiddiy tashvish va muammolardan xoli bo'lgan, bolalikdagi kabi yengil hayotga intiladi. Bolatabiat kishi o'z sohasida yaxshi mutaxassis bo'lishi mumkin, biroq kundalik hayotda va munosabatlarda o'zini o'smir kabi tutadi (bo'shang yoki injiq).

Kalit so'zlar

inson, xulq-atvorning, belgilar, infantilizm, infantil, ruxiy holat, xususiyat, ijtimoiy infantilizm.

THE STATE OF INFANTILISM IN THE MAIN FEATURES AND SIGNS OF BEHAVIOR

As you know, the content of human activity is determined not only by the need, but also by the purpose of making a product from it that is required by society. This is due to another important characteristic of an infantile person: he does not know how to solve problems. When a problem arises, the "older" person (parent, spouse, friends) waits for him to come and fix the situation, or at least tell him how to fix it. This leads to the fact that a person cannot assess the consequences of his actions, since such an assessment system is usually performed for him by others. Infantilism is manifested in childhood nature or mental immaturity, delay in psychological development in a person, incompatibility of behavior with age, unwillingness to take responsibility and make conscious decisions. From this it can be seen that the behavior of a person is formed in a completely different way. Only one form of need does not give birth to its forms, but the ways in which needs are accepted by society begin to define patterns of behavior. The infantile man and woman strive for a light life, as in childhood, free from serious worries and problems. A childhood nature person can be a good specialist in his field, but in everyday life and relationships he behaves like a teenager (empty or capricious).

Keywords

infantilism, infantilism, mental state, character trait, social infantilism of a person.

Shaxsiy qaror, his-tuyg'u va istaklar yo'qligi, muammolarni birovning yordamisiz hal qila olmaslik va boshqa salbiy faoliyatlar psixologiyada "infantilizm" atamasi bilan ifodalanadi. Faoliyat tushunchasi - istagan bir tirik organizmning faolligi, oqibat natijada uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Odam ham shu jihatdan istesno emasdir. Anglab bo'ladigan yoki anglab bo'lmaydigan tabiiy yoki madaniy, moddiy yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy ehtiyojlar odamda har turli shakldagi faollikni tug'diradi, bu esa odamning ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ishlab chiqarish sistemasida organizm, individ va shaxs sifatida tarkib topishi, yashashi hamda taraqqiy etishini ta'minlaydi.

Odamning xatti-harakati va uning ehtiyojlarini qondirish usullari. Agarda odamning xatti-harakatlarini va uning har turli shakldagi faolligini diqqat - e'tibor bilan olib qaraydigan bo'lsak, shu narsani aniqlaymizki,

bularning hammasi odamning ehtiyojlariga bo'lgan munosabati hayvonlardagi munosabatdan printsipial suratda boshqacha ekanligi ravshan bo'ladi.

Hayvonlarning xatti-harakatlari uning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirishga hamma vaqt bevosita qaratilgan bo'ladi. Ehtiyoj hayvonni faqat faollik ko'rsatishtagina undab qolmaydi, balki bu faollikning formasini ham belgilab beradi, qalb tashqi olamdan nimani ajratib, tanlab olishini va bu tanlab olingan narsaga nisbatan qanday javob harakat yuzaga kelishini hayvon organizmning talabi belgilab beradi.

Infantilizm — bolatabiatlik yoki aqlan kamol topmaganlik, shaxsda psixologik rivojlanishning kechikishi, xatti-harakatlari yoshiga mos kelmasligi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va ongli ravishda qaror qabul qilishni istamasligida namoyon bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibtiki odamning xatti-harakatlari tamoman boshqacha tarzda tashkil topgan. Ehtiyojning bir o'zigina uning formalarini tug'dirib qolmay, balki ehtiyojlarni qondirishning jamiyat tomonidan qabul qilingan usullari xatti-harakat shaklarini belgilay boshlaydi.

Infantilizm tushunchasi birinchi marta psixiatr tomonidan kiritilganligi sababli, ushbu konseptsiyani o'rganish birinchi bo'lib psixiatriyada paydo bo'ldi. Klinik jihatdan ushbu atamani tushunishda ilm-fan rivojlanishi jarayonida o'zgarishlar yuz berdi va hodisalarning tobora aniqroq tasniflari joriy etildi. Infantilizm tushunchasi shakllanishining birinchi bosqichida oligofrenik kasalliklar, psixo-va endokrinopatiyalar bilan bog'liq bo'ldi. 20-asrning boshlarida, bir qator tadqiqotchilar psixikaning motor infantilizmi va intellektual yetishmovchilik kabixarakterli namoyon bo'lishiga ishora qildilar (E. Bleyler, V. A. Gilyarovskiy, M. O. Gurevich).

Xulq-atvor genetikasi aslida ikki sohaga bo'linadi: nazariy jihatdan xulq-atvorni meros qilib olish mexanizmlari va tamoyillari savollari bilan so'raladi; genetikani to'g'ri amaliy o'rganish asosan eksperimentda muayyan xulq-atvor xususiyatlarini o'tkazishdan iborat.

Xulq-atvor infantizm genetikasi uchun Ch. Darvin aqliy moslashuvning ustuvorligi haqidagi tezisi asos bo'la oladi. Biroq, klassik infantizm genetikasi hali bunday moslashuvlarni tuzatish mexanizmini aniq tasvirlab bera olmaydi.

Xulq-atvorning infantizm xususiyatlari va belgilarida hayvonlarda L. V. Krushinskiy va uning hamkasblari, 1959-yilda sovet genetiki Dmitriy Belyaev tomonidan boshlangan Novosibirsk biologlarining tulkilarni

xonakilashtirish bo‘yicha amaliy tajribalarini keltirish mumkinligini isbotlagan. Maqsad itlarga o‘xshash tulkilarni ko‘paytirish edi. Ular boshqa odamlar bilan ko‘proq ijtimoiy xulq-atvorni, o‘ynoqi va do‘stona munosabatda bo‘lishlari taxmin qilingan. Tanlov faqat xulq-atvor xususiyatlari uchun o‘tkazilgan bo‘lsa-da, tashqi o‘zgarishlar ham mavjud edi. Natijada, xonakilashtirilgan tulkilar mo‘ynasining rangi va tuzilishida o‘zgarishlarni ko‘rsatdi, dumlari o‘ralgan va quloqlari osilgan holda bo‘ldi.

Taxlilarga ko’ra mashhur olim K. T. Sulimov tomonidan boshlangan it va shoqol (shakalaika), it va bo‘ri (bo‘ri it) duragaylarini yaratish bo‘yicha tajribalarni amalga oshirgan. Biroq, qat’iy aytganda, bu genetik infantizm tajriba emas edi. Bugungi kunga qadar yagona muvaffaqiyat Permda olingan Naida bo‘rining avlodini tajriba qilib ko’rgan. Ushbu muvaffaqiyatni boshqa hayvonlar qonlarida ko‘paytirishga urinishlar hali kutilgan natijani bermadi. [2]

Neyrofiziologiya va neyroanatomiya tushunchalari bilan birgalikda xulq-atvor genetikasi irsiy xususiyatlarning moddiy asoslarini o‘rganish uchun yangi istiqbollarga ega bo‘ladi; psixika va xulq-atvorni zamonaviy zoopsixologiya usullari bilan aniq tavsiflash genetik eksperimentlarni o‘rnatishda irsiy xususiyatlarni sifat jihatidan aniqlash imkoniyatini beradi. [1]

Insonning ijobiy va salbiy sifatlari ro'yxati juda katta. Dastlab, inson tabiati va mohiyatining barcha ta'riflari, uning xulq-atvori – subyektivdir. Jamiyatda ushbu yoki shaxsning qanday ijobiy yoki salbiy ekanligi va uning xulq-atvori qanday bo'lishini aniqlashga imkon beradigan muayyan normalar mavjud. Biroq, uning fazilati va yaxshi niyatlarini namoyon etgan insonning yuqori sifati bor. Ularning ro'yxati shunday ko'rinadi:

- Suburizm;
- Oqsoqollar veneratsiyasi;
- Mehr-shafqat;
- Va'dalarni bajarish;
- Axloqlilik;
- Mas'uliyat;
- Sodiqlik;
- Sabrlilik;
- Moderatsiya;
- Ta'sirchanlik;

- Halollik;
- Samimiyat;
- O'zgalar uchun va boshqalar.

Bu xislatlar, ularning tijorat vositalari bilan bir qatorda, inson xarakterining haqiqiy go'zalligining tabiatini tashkil qiladi. Ular oilada, ta'lim jarayonida, bolalar o'z ota-onalarining xatti-harakatlarini nusxa ko'chiradilar, shuning uchun yaxshi tarbiyalangan inson yuqoridagi barcha sifatlarga ega bo'ladi.

Psixologiyada yoshi katta kishilarning kundalik hayotda bolaga, aniqrog'i o'smirga xos xususiyatlarni namoyon qilishi esa infantilizm sifatida baholanadi. Ayni vaziyatda qarshingizda ulg'aymagan, infantil shaxs turgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, buning psixik patologiyalarga umuman daxli yo'q. Bundan kelib chiqadiki, infantil shaxs mutlaqo sog'lom, lekin uning fikrlash tarzi va xulq-atvori voyaga yetgan shaxsga xos emas. [2]

Aynan nima nazarda tutilmoqda?

Quyida infantilizmning eng yaqqol belgilarini ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, bu qaror qabul qila olmaslik, qilingan tanlov, bajarilgan ish va hokazolar uchun javobgarlikdan qochish. Voyaga yetgan shaxs o'zining har bir qarori ma'lum bir oqibatlarga olib kelishini biladi — muhim yoki ahamiyatsiz, yaxshi yoki yomon. Bolatabiat kishi esa javobgarlikni o'z zimmasiga olishni mutlaqo istamaydi.

Bu esa shaxsning o'z xatti-harakatlari oqibatini baholay olmasligiga olib keladi, chunki bunday baholash tizimini uning uchun odatda boshqalar amalga oshiradi. Ayrimlar har qanday qilmishning bahosini "maktab darajasida" qabul qiladi: hammasidan o'qituvchining tanbehlari va kundalik to'ldirish bilan qutulib ketsa bo'ladiganday. Lekin katta hayotda hammasi ancha jiddiyroq. Bolatabiat kishi mas'uliyatni boshqalarga yuklashga moyil bo'ladi. U deyarli har doim boshqalarni ayblaydi. Bunday odam nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, u juda xudbin. Bu boshqalar fikrini, his-tuyg'ularini va nuqtayi nazarini tushuna olmaslik natijasidir. Shu bilan birga, bu masalada barchasi ma'lum bir shaxs psixologiyasiga borib qadaladi.

Demak, jiddiy ish va o'yin-kulgidan birini tanlashga to'g'ri kelsa, infantil shaxslar aksar hollarda ikkinchisini ma'qul ko'radi (ba'zan juda muhim vazifa bo'lsa ham). Bolatabiat kishi ko'pincha o'zini biror ishni bajarishga majburlay olmaydi va bu qanday oqibatlarga olib kelishi

mumkinligi haqida o‘ylamaydi. U bir lahzalik istakni deb o‘zini o‘ta mas’uliyatsiz tutishi mumkin. U, shuningdek, o‘zining ham, boshqalarning ham kelajagi haqida deyarli bosh qotirmaydi. Bu Maklinning “Uch miya” modelidagi limbik miya va neokorteks o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yodga soladi. “Voyaga yetgan” kattalar limbik miyani bo‘ysundirib, neokorteksga quloq solishni biladi. Infantil esa ko‘p hollarda limbik tizimga bo‘ysunadi va uning impulslarini yengishga hatto harakat ham qilib ko‘rmaydi. [3]

Infantilizm turlari

Ushbu atama turli sohalarda turlicha talqin qilinadi. Psixiatriyada bu patologik rivojlanishning kechikishini, ya’ni o‘smirning xatti-harakatlari va hissiy reaksiyasi bolalarnikiga mos kelishini (yoki kattalar o‘zini bola yoki o‘smir kabi tutishini) anglatadi. Bundan tashqari, fiziologik infantilizm — fiziologik patologiya, ya’ni organlar va tizimlar rivojlanishida ortda qolish holati ham bor. Shunga qaramay, atamadan foydalanishda ko‘pincha patologiyalar bilan bog‘liq bo‘lmagan psixologik yoki ijtimoiy infantilizm nazarda tutiladi.

Ijtimoiy infantilizm

Ijtimoiy infantilizm ham psixologik infantilizmga juda yaqin. U ham qarshimizda ruhan sog‘lom, biroq mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni va muammolarni hal qilishni istamaydigan kishi turganini ta’kidlaydi. Ayni vaziyatda u ijtimoiylashuv, atrof-muhit sharoiti va ijtimoiy qadriyatlarga moslashish masalasini ko‘taradi. Bu, asosan, “kattalarga” xos vazifalar bilan bog‘liq mas’uliyatlarni zimmasiga olmaslikdir.

Ta’kidlash joiz, ijtimoiy infantilizm nafaqat obyektiv, balki baholash komponentini ham o‘z ichiga oladi. Gap shundaki, jamiyat qadriyatlari va odatlari bu yerda boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, qadriyatlar avloddan-avlodga o‘zgaradi va bunday o‘zgarish natijasida ota-onaga o‘z farzandi ijtimoiy infantil bo‘lib ko‘rinadi.

Misol uchun, hozir ayrim ayollar oila qurish va farzand tarbiyalashday an’anaviy qadriyatda ma’no ko‘rmaydi. Jamiyatning bir qismida bunday ayollar kamida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni istamaydigan go‘dak qizlar sifatida gavdalanadi. Lekin jamiyatning boshqa qismi farzand ko‘rmaslik qarorini, farzandli bo‘lishdan ham ko‘ra mas’uliyatliroq ish sifatida baholashi mumkin, agar ayol moliyaviy yoki ma’naviy jihatdan bunga hali tayyor emasligini tushunsa.

Infantil ishda va shaxsiy hayotda o‘zini qanday tutadi?

Infantil erkak va ayol jiddiy tashvish va muammolardan xoli bo‘lgan, bolalikdagi kabi yengil hayotga intiladi. Bolatabiat kishi o‘z sohasida yaxshi mutaxassis bo‘lishi mumkin, biroq kundalik hayotda va munosabatlarda o‘zini o‘smir kabi tutadi (bo‘shang yoki injiq). Shu bilan birga, uning mehnat faoliyatida ham muammolar yuzaga kelib turadi. Masalan, ayrimlari kichik bir to‘siqqa duch kelishi bilanoq, ortga chekinadi. Ular o‘sha ondayoq taslim bo‘ladi, loyihani boshqa xodimlarga topshirib yuboradi, uddalay olmasligidan qo‘rqib, istiqbolli lavozimlar va vazifalarni bajarishdan bosh tortadi. Boshqalari esa o‘ta mas’uliyatsiz, ularga ishonib bo‘lmaydi, chunki ular ishdan zerikib qolgani yoki boshqa nimadir bilan shug‘ullangisi kelib qolgani tufayli mas’uliyatni o‘z zimmasidan soqit qilishni normal hisoblaydi. Bularning barchasi, albatta, ish faoliyatini qiyinlashtiradi.

Infantilizm jins tanlamaydi: u erkaklarda ham, ayollarda ham tez-tez uchrab turadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bu hodisa yangilik emas, bolatabiat kishilar har doim bo‘lgan.

Oilaviy hayotga kelsak, bu toifa kishilar qalin munosabat o‘rnata olishi mumkin. Lekin ular o‘ziga turmush o‘rtoq emas, balki ota-onasining o‘rnini bosib, ular uchun barcha muammolarni hal qilib beradigan odamni izlaydi. Agar ularning turmush o‘rtog‘i talabga javob bersa, unda hamkorlik ancha uzoq davom etishi mumkin. Bolatabiat kishilar o‘zi va boshqalar uchun mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgangan va hamma narsa o‘zi istaganidek bo‘lishini afzal ko‘radigan kishilarga mos keladi. Infantil shaxslar ham farzand ko‘radi. Ko‘pincha bu ikki “turdagi” bola birga vaqt o‘tkazishni, o‘ynashni va hokazolarni yoqtiradi. Lekin baribir o‘g‘il yoki qiz uchun “voyaga yetgan” katta odam namunasi ancha foydaliroq.

Ba’zi kishilar fikriga qaramay, kompyuter o‘yinlari, ilmiy fantastika, filmlar, kitoblar, komikslar, o‘yinchoqlar yig‘ish va hokazolarga bo‘lgan ishtiyoq kattalardagi infantilizm belgisi emas. Shuningdek, xarakterdagi shaxsiy xususiyatlar yoki nikoh, farzand, ish kabi muayyan hayotiy masalalarga munosabatda jamoatchilikdan farq qilish ham infantilizmdan darak bermaydi (bu alohida mavzu). Ta’kidlab o‘tamiz: infantillik yuqorida sanalgan ko‘plab xususiyatlarni kompleks ravishda namoyish qilishdir.

Infantilizmning kelib chiqish sabablari

Ma’lumki, shaxsiyatga xos ko‘plab xususiyatlar bolalikda shakllanadi. Ijtimoiy va psixologik infantilizm ham bundan mustasno emas. Boz ustiga, bu aksar hollarda aynan ota-onaning tarbiya jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yishi bilan bog‘liq. Eng ko‘p uchraydigan sabab — g‘amxo‘rlikni haddan oshirib yuborish, doimo bolaning ko‘ngliga qarash istagi, uni barcha

muammo va tashvishlardan himoya qilish, u hatto so‘ramasa ham, yordam berishga oshiqish.

Doimiy aybdorlik hissi — ota-onaning xatosi tufayli paydo bo‘ladigan yana bir noxush holat.

Bolaning fikr va his-tuyg‘ulariga umuman e’tibor bermaslik, u uchun barcha qarorlarni qabul qilish (qanday kiyinish, nimani o‘ynash va nima qilish kerakligi), qiz yoki o‘g‘il orqali o‘zi erisholmagan orzularni amalga oshirishga urinish bolaning kelajagiga salbiy ta’sir qiladi. [4]

Bola shaxsiy rivojlanishda emas, balki passportda ulg‘ayishining boshqa sabablari ham bor. Lekin tarbiya juda katta mavzu bo‘lib, uni alohida ko‘rib chiqish lozim. Eng asosiysi: ota-onalar bolaning qarorlarini, orzularini, intilishlarini, istaklarini, ambitsiyalarini, his-kechinmalarini, niyatlarini muntazam ravishda va ayovsiz “kallaklab” turishi natijasida u oxir-oqibat fikrlash va qaror qabul qilishni butunlay to‘xtatadi.

Hamma narsa onasi yoki otasi aytganiday bo‘lsa, o‘zini qiynashdan nima foyda? Shu sababli rivojlanayotgan shaxsda shakllanish va kamolga yetish jarayoni buziladi va natijada u go‘dakligicha qolib ketadi.

Voyaga yetgach, bunday odam o‘zi odatlangan qulaylikni saqlab qolish uchun qo‘lidan kelganicha harakat qiladi — ya’ni hech nimani mustaqil hal qilmaslik, qiyinchiliklardan qochish, boshqalar ko‘magiga qaramlik. Buning ham o‘ziga yarasha afzalliklari bor. Lekin salbiy tomonlari-chi? Salbiy tomonlari anchagina ko‘p bo’lishi mumkin.

Infantil bo‘lishning nimasi yomon?

Ba’zi bolatabiat kishilar uchun asosiy muammolardan biri shundaki, ular chinakamiga baxtli bo‘lolmaydi. Ular hayotdan aslida nimani istayotganini bilmaydi, chunki shu vaqtgacha uning uchun boshqalar qaror qabul qilgan. Agar kimningdir omadi chopib, o‘z ishini chindan ham yoqtirsa, yaxshi. Lekin ko‘pchilik bu borada omadsiz, yillar davomida o‘zi yoqtirmaydigan ishni qilishga majbur bo‘ladi, chunki ish joyini yoki kasbini o‘zgartirishga jur’ati yetmaydi.

Oilaviy hayotda ham shu holat kuzatiladi — turmush o‘rtog‘i bo‘lishiga qaramay, bolatabiat kishi o‘zini juda yolg‘iz his qilishi mumkin. Sabablari: o‘ziga turmush o‘rtoq emas, balki hamma narsani o‘zi istagancha bajaruvchi ota-onasining o‘rnini bosadigan odam bilan yashaydi. Ikkinchidan, infantil u bilan o‘z qaroriga ko‘ra yashayotgani ham dargumon: uning uchun boshqalar qaror qilgan.

Ulg‘aymagan shaxs boshqalarga, ularing fikriga va harakatlariga qaram bo‘ladi. O‘z maylini birovga topshirish orqali nochor ahvolga tushib

qolish xavfi tug‘iladi. Albatta, kamol topgan kishilar ham yaqin munosabatlarga muhtoj, lekin bu qaram bo‘lish degani emas.

Hikoyamiz qahramonlari ichki muammo va qo‘rquvlardan qochishga urinadi, chunki aynan shu vaziyatda boshqalar ular uchun qaror qabul qilolmaydi. Lekin bu kabi muammo va qo‘rquvlar hech qayerga yo‘qolmaydi, balki kuchayadi.

Bundan tashqari, noyetuk shaxslarning ko‘pchiligi laqma, boshqalar ta’siri va manipulyatsiyasiga osongina ergashadi. Ko‘pchilik reklamalarga, qanchalik shubhali ko‘rinmasin, ishonib, keraksiz narsalarni sotib oladi. Ba’zilar firibgarlik, moliyaviy piramida va hokazolar qurboniga aylanadi. Bu ko‘plab bolatabiat kishilarning zahmat chekmay, qandaydir mo‘jizaviy yo‘llar bilan daromad topishga intilishi natijasida yuz beradi. Bu mo‘jizaga ishonishning bolalarga xos bo‘lmagan, g‘ayritabiiy shakliday namoyon bo‘ladi.

Infantilizmdan qutulish mumkinmi?

Infantilizmdan qutulish mumkin. Bunday dunyoqarashni yengish uchun inson o‘z hayoti faqat o‘ziga bog‘liqligini, uni faqat o‘zi o‘zgartira olishi mumkinligini, o‘z fikri, qarorlari, hissiyotlari va istaklariga ega bo‘lish, ularni hayotga tatbiq qilishga haqli ekanini anglashi kerak. Bir qarashda osonday, chunki bu xislatlar nazariy jihatdan bizda tug‘ma hisoblanadi. Lekin amalda ongli yoshdagi odam hech qachon o‘ziga quloq tutmagan va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilmagan bo‘lsa, uni qayta sozlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shu bois hamma ham psixolog yordamisiz infantilizmni yenga olmaydi.

Insonning o‘zi o‘zgarishni istashi muhim. Aksar bolatabiat kishilar o‘zining fikrlash tarzi va xatti-harakatidagi xususiyatlarni payqamaydi. Yuqorida sanalganlarning barchasi ulardagi ong ostida yotadi. Onam, dadam yoki turmush o‘rtog‘im kelib, muammoni hal qilib beradi, deb o‘ylamaydi. Mustaqil qaror qabul qila olmasligini o‘zi fahmlamaydi. Ular yakuniy qarorga kelishdan avval maslahatlashib olishi kerakligi haqida o‘ylaydi (va boshqalarga shunday deydi). Bu toifadagi kishilar barcha qarorlarni o‘zi qabul qilayotganiga ishonadi va g‘ururlanadi.

Bundan tashqari, kimningdir doimiy g‘amxo‘rligi ostida yashash ancha qulay bo‘lib, shu vaqtgacha “ota-ona va bola” modeliga amal qilgan bo‘lsa, bundan qulaylikdan voz kechish oson emas. Lekin inson o‘zini yolg‘iz, baxtsiz his qilsa, qandaydir muammo yoki qo‘rquvni boshdan kechirsa, dunyoqarashidagi yoki hayotidagi nimanidir o‘zgartirishni istab qolishi mumkin. Shuning o‘zi bolatabiat kishi qo‘ygan katta qadam hisoblanadi.

Yaqin kishingiz infantil bo‘lsa, nima qilish kerak?

“Do‘st yomon kunda sinaladi” — bu maqolda infantilni ajratib olishning eng oddiy usuli ko‘rsatilgan. Ishingiz o‘ngidan kelib, muammolarsiz yashayotgan vaqtingizda noyetuk shaxsiyat o‘zini umuman oshkor qilmasligi mumkin. Lekin ba’zi muammolarni hal qilish kerak bo‘lganda do‘stingiz yoki hamkasbingizning bolalarcha xatti-harakati va fikrlash tarzi sezilib qoladi.

Yaqin kishingizga infantilizmdan xalos bo‘lishda ko‘maklasha olasizmi? Ha, ko‘maklasha olasiz. Lekin ota-ona vazifasini o‘z zimmangizga olib, u yordamingizga muhtoj yoki yo‘qligi haqida o‘zingizcha qaror chiqarmasligingiz kerak. Sizga kimdir noto‘g‘ri yashayotganday tuyilsa-da, aslida bunday hayot tarzi unga yoqayotgan bo‘lishi mumkin. Boz ustiga, siz infantilning o‘rniga qaror chiqarsangiz, unda siz ham “ota-ona va bola” modeli doirasida harakat qilayotgan bo‘lasiz.

Qaysidir yo‘l bilan unga yordam berishni istasangiz, bu ishni tartib bilan bajaring. Kichik narsadan boshlang. Masalan, undan nimani xohlashi haqida ko‘proq so‘rashga harakat qiling. Boshlanishiga, dam olish kunini qanday o‘tkazish, nima pishirish va hokazolar tanlovini unga qoldiring, so‘ngra muhimroq masalalarga o‘ting. U o‘zini qanday his qilayotgani va nimani istayotgani haqida tez-tez so‘rab turing.

Lekin uning hislari va istaklari borasida hukm chiqarib, noto‘g‘ri ekanini aytmang — sizdan boshqalar ham infantilga bunday gaplarni ko‘p aytgan. Yaqin kishingiz o‘z qaroriga, hissiyotlariga va istaklariga ega bo‘lishga chindan ham haqli ekanini anglashi kerak. Biroq o‘z muammolarini ham o‘zi hal qilishiga qo‘yib bering — yonida bo‘lib, ko‘maklashing, ammo hech narsani uning uchun qilib bermang.

Yaqin kishingiz bolalikda qanday kasbni egallashni orzu qilgani haqida so‘rang va iloji bo‘lsa, ayni damda siz bilan birgalikda o‘sha orzu tomon ilk qadamlarni qo‘yishni taklif qiling. Balki, uning nisbatan “yangiroq”, amalga oshirish uncha qiyin bo‘lmagan orzulari ham bordir? Misol uchun, u rassomchilik yoki oshpazlik bilan shug‘ullanishni, Shekspirni asliyatda o‘qishni ista(yot)gandir. U bilan maxsus kurslarga a’zo bo‘ling. Qo‘llab-quvvatlashingiz juda zarur.

Asosiy qoidani yodda tuting — do‘stingiz uchun hech narsani bajarmang, uning o‘rniga qaror qabul qilmang. Buni o‘zi bajarsin, siz esa shunchaki yonida bo‘lib, kerak bo‘lganda qo‘llab-quvvatlang.

Ayrim bolatabiat kishilar birdan ulg‘ayadi, turfa xil jiddiy muammolar bolalarcha dunyoqarashga chek qo‘yadi. Lekin siz boshqalarni stress bilan “davolay” ko‘rmang (internetda shunga o‘xshash tavsiyalarni uchratish

mumkin). Unutmang, bunday holatlarda kimdir o‘sadi, kimdir esa sinadi — nevrozga chalinadi, depressiyaga tushadi va hokazo. [5]

Xulosa qilib aytganda, kattalar bolalikning bir qismini o‘zida saqlab qolishi, albatta, kerak. Arzimas narsalardan ham mamnuniyat hissini, orzu qilish, mo‘jizaga ishonish va boshqa tuyg‘ularni xis qilish kabilar. Bu jarayonlarkasallik emas. Lekin zarur vaqtda ulg’aygan shaxs sifatida tizginni qo‘lga olish juda muhim. Bolalik qanchalik go‘zal bo‘lmasin, o‘rnini katta hayotga tayyor bo’lgan, rivojlanishdagi mustaqil shaxsga bo‘shatib berishi zarur. Har bir individ hayoti uchun, turmush tarzi uchun muhim bo’lgan qarorlarni qabul qila olishi, muammolarga yechim topa olishi va mas’uliyatni o’z bo’yniga olishni bilishi lozim. Shaxsning ana shunday kamol topishi uchun oila va jamiyatning o’rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://daryo. uz/2022/02/16/infantilizm-shaxsiy-qaror-hissiyot-va-istaklar-yoqligi-muammolardan-qorqish

2. Yo‘ldoshyev, S. , Sultonaliyeva, G. (2023). Suitsidal holat va uning kelib chiqish sabablari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

3. Krushinskiy L. V. Evolyutsionno-geneticheskie aspekti povedeniya. Moskva: Nauka, 1991.

4. Krushinskiy L. V. , Zorina Z. A. , Poletaeva L. I. , Romanova L. P. Vvedenie v etologiyu i genetiku povedeniya. — Moskva, 1983.

5. Djumanov Sh. Z. (2018). Bo‘lajak o‘qituvchining shaxs bo‘lib shakllanishida kommunikativ qobiliyatning mohiyati. FarDU ilmiy xabarlar. Farg‘ona, 5.

6. Yo‘ldoshyev, S. , Sultonaliyeva, G. (2023). O‘quvchi xulq-atvorning psixologik korreksiyasi. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

7. Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3).

8. Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формирование агрессии у подростков. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 106-109.

9. Djumanov Sh. O‘qituvchi va talabalar pedagogik munosabatlarini ijtimoiy psixologik xususiyatlari //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 4.

10. Холова, М. , Аракулов, Г. (2022). Zamonaviy bilimlarni egallashda pedagogik psixologiyaning ahamiyati. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4), 219-221.

[1] Djumanov Sh. O‘qituvchi va talabalar pedagogik munosabatlarini ijtimoiy psixologik xususiyatlari //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 4.

[2] Krushinskiy L. V. Evolyutsionno-geneticheskie aspekti povedeniya. Moskva: Nauka, 1991.

[3] Холова, М. , Аракулов, Г. (2022). Zamonaviy bilimlarni egallashda pedagogik psixologiyaning ahamiyati. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4), 219-221.

[4] Yo‘ldoshyev, S. , Sultonaliyeva, G. (2023). Suitsidal holat va uning kelib chiqish sabablari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

[5] https://daryo. uz/2022/02/16/infantilizm-shaxsiy-qaror-hissiyot-va-istaklar-yoqligi-muammolardan-qorqish

Kompetentlik tarkibiga samarali muloqotni ta'minlovchi bilim, malaka, ko'nikmalar yig'indisi kiradi va bunday kompetentlik muloqot doirasining kengligini o'zgartirish, suhbatdoshni tushunish va unga tushunarli bo'la olishni nazarda tutadi. Demak, kommunikativ kompetentlikni takomillashtirish jarayoni shaxs rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bunda individual-shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajriba kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda ko'maklashadi. Zotan, pedagogik jarayon – o'quv-tarbiyaviy ishlarda talabalar bilan o'zaro aloqani nazarda tutadi. Har bir pedagogik vaziyat u

yoki bu darajada o'quv-tarbiyaviy vaziyatga aylanadi. Pedagogik faoliyatning samarasi o'zaro aloqa natijasida yuzaga keladigan munosabatlarnining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi. Bu esa pedagogning kommunikativ faoliyatiga, ya'ni muloqot turlari orqli talabalarga ta'lim-tarbiyani tashkil etishga bog'liq. Boshqacha aytganda, ta'lim va tarbiya -mohiyatiga ko'ra kommunikativ jarayondir.

Kommunikativ kompetentlik deganda muloqotda yuzaga chiqadigan murakkab shaxsiy xususiyatlar, kommunikativ qobiliyat va malakalar, shaxs xarakteri, temperamenti haqidagi psixologik bilimlar, psixologik holatlar tushunilar ekan, har bir pedagogik hatti-harakat o'qituvchining muloqot jarayonida yetakchi o'rnini ko'rsatadi. Konstruktiv muloqot uchun o'qituvchiga nafaqat bilim, talabalarning va o'zining individual xususiyatlarini bilish, balki pedagogik ta'sirning maqbul strategik metodlarini qo'lay olish ham zarurdir. Bu o'qituvchining o'zida va ta'lim oluvchilarda shaxsiy kommunikativ xislatlarni shakllantirishga yonaltirishda, shaxslararo munosabatlarni bir xil baholay olishda namoyon bo'ladi. Zero, pedagogning kommunikativ kompetentligi – aloqa, hamkorlik, birgalikdagi faoliyat, o'zaro ta'sir va oxir-oqibatda munosabatlar tizimini ta'minlaydi.

Demak, nutq madaniyati fikr almashishi jarayonida nutqning to'g'ri, aniq, ravon, ifodali, mazmunli bo'lishiga erishish, so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilish va to'g'ri talaffuz etish bo'lsa, kompetentlik muayyan lavozimga mos masalalar doirasida kasbiytajribaning ifodalanganlik darajasi; o'z kasbining mohir egasi bo'lgan shaxsga xos sifatdir. Kommunikativ kompetentlik esa ravon, chiroyli nutq, notiqlik usullaridan xabardorlik, hamsuhbatga individual yondasha olish malakasi, aloqa va munosabatlar o'rnatish, muloqotga moyillik layoqati hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

Pedagogik atamalar lug'ati, (2014). 15-17.

Tolkoviy slovar russkogo yazika (2009). V 4 t. T. 1. Pod red. D. I. Ushakova. –Moskva. 34.

Muslimov N. A. (2004). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T. : Fan, 126 b.

Markova A. K. , (1996). Psixologiya professionalizma. –Moskva, 308s.

Ishmuxamedov R. va b. (2008). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T. : Iste'dod.

Quronov M. (2008). Milliy tarbiya. –T. : Ma'naviyat.

Maxmudov N. , (2007). O’qituvchi nutqi madaniyati. – T. : Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona.

I. G. Zyabkina, (2014). Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja. Moskva.

A. Nurmonov, (2014). Talabalarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma'rifat” gaz. may 18.

N. A. Muslimov, M. J. Mutalipova, (2014). Bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo’llanma. Toshkent.

M. J. Mutalipova, (2017). “K voprosu formirovaniya garmonichno razvitoy lichnosti”. Novoinfo. Nauchno-metodicheskiy jurnal. Moskva, Rossiya.

Muslimov N. A. (2013). Kasb ta'limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. (monografiya)–T. : «Fan va texnologiya»,

Golovko E. A. , (2004). Texnologiya formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti molodix spetsialistov na etape adaptatsii k pedagogicheskoy deyatelnosti. Stavropol.

I. A. Zimnyaya, (2014). Klyucheviekompetentnostikak rezultativno - selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii. Moskva.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

senior teacher Mutalipova Mavlyuda Junaydullaevna

ALFRAGANUS UNIVERSITY

EXTENDED ABSTRAKT

In the composition of professional and personal qualities of a future teacher, it is necessary to harmonize the character, experience, knowledge and abilities of a person. This harmony can be called "competence", and by this term is understood the potential of the future teacher to achieve great success in the field of profession. In fact, professional competence is an important factor in achieving efficiency in the professional activities of future teachers. Professional competence, in turn, is closely related to communicative competence. Since the essence of pedagogical activity is interaction with students, communicative competence can be said to be the basis of a teacher's professional skills.

In the content of this article, communicative competence is analyzed as one of the methods of improving the quality of education and as an important factor indicating the professional competence of the teacher. It is said that the essence of pedagogical activity is the establishment of mutual speech communication with students, therefore professional and communicative competence are closely related. It was noted that if the future teacher does not have sufficient communicative competence, is not ready to successfully manage the interaction process in the educational process, and is not ready to use communicative technologies, it is impossible to implement modern educational technologies oriented to the individual.

The article provides detailed information about the role and importance of communicative competence in pedagogical activities, and it is emphasized that future teachers should not only have knowledge, but also the skills and abilities to use this knowledge appropriately in problematic situations, and for this, they should have communicative competence.

If the future teacher does not have enough communicative competence, it is argued that it is impossible to implement modern educational technologies that have been applied to an individual if he is not ready to competently control the process of interaction in the educational process, applying communicative technologies. Therefore, communicative, that is, speech competence, is an important factor indicating the professional competence of the future teacher. Because nowadays it is not enough to be a good specialist. For today's overall result, it is stated that it is necessary to be a good colleague with qualities such as being able to work as a team, participate in decision-making, be able to make his opinion understandable to others, take information without objections, tend to lose conflict, control emotions, lack of negative feelings, not striving for superiority, understanding the views of colleagues at work,

It is also mentioned that it is necessary to be able to work with data using various information technologies; find an effective solution to conflicts; be able to show the results of their labor taking into account meaningful criticism; be able to establish a warm relationship with colleagues, students, their parents.

If we define the main content of education as practical connoisseurs, qualifications necessary for temporary achievement in the personal, professional, social life of each person, then communicative competence is the most important of these. Individual-personal characteristics, socio-

cultural and historical experience contribute to the formation of competence in communication.

Competence includes the sum of knowledge, skills, skills that provide effective communication, and such competence implies changing the breadth of the circle of communication, understanding the interlocutor and being able to be understandable to him. Hence, the process of improving communicative competence is directly related to the development of the individual. In this, individual-personal characteristics, socio-cultural and historical experience contribute to the formation of communicative competence. Already, the pedagogical process implies interaction with students in educational and educational work.

Each pedagogical situation at one level or another becomes an educational and educational situation. The effect of pedagogical activity is determined by the content and nature of the relationship that occurs as a result of interaction. This is due to the communicative activities of the educator, that is, the organization of education for students with different types of communication. In other words, education and upbringing are a communicative process in essence.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA INNOVATSION TADQIQOTLAR INNOVATIVE RESEARCH IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Dilbar Aliyeva

“keys study" technology, formal education, informal education

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsiya, innovatsiyaning kirib kelishi, uning shakllari, innovatsion faoliyat, ta’limda innovatsiyaning o‘rni, psixologiyada tarbiyaviy texnologiyaning o‘rni, pedagogik texnologiyalarning turlari:muammoli o‘qitish texnologiyasi, tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuterli o‘qitish texnologiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi modulli o‘qitish texnologiyasi, tarbiya texnologiyalarining mazmuni, qo‘llanilishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar

pedagogika, psixologiya, oliy ta’lim, pedagogik texnologiyalar, SMART texnologiyasi, “keys-stadi” texnologiyasi, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim

Abstract This article provides information on innovation, the introduction of innovation, its forms, innovative activities, the role of innovation in education, the role of educational technology in psychology, types of pedagogical technologies: problem teaching technology, differentiated teaching technology, individualized teaching technology, computerized teaching technology, business game technology modular teaching technology, the content of educational technologies, application.

Keywords

pedagogy, psychology, higher education, pedagogical technologies, SMART technology, “keys study" technology, formal education, informal education

“Innovatsiya- intellektual mahsulot-ixtiro,

axborot, nou-xou, yoki g‘oya iqtisodiy

mazmuniga ega bo‘ladigan jarayon”

(T. Brayan)

Kirish

O’zbekistonimizda yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda kelajakavlodlarimizni, ma’naviy boy, axloqanyetuk, intellektualrivojlangan, yuqoribilimlivahartomonlamayetuk, shaxssifatida shakllanishida alohida ahamiyat berilmoqda[1].

Prezidentimizning 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026 yillargamo‘ljallanganYangiO‘zbekistonningtaraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsionloyihavatashabbuslarniqo‘llab - quvvatlashning zamonaviymexanizmlarinijoriyetishborasidaqatorvazifalarbelgilangan. Bundantashqari“Ta’lim- tarbiyatiziminiyanadatakomillashtirishgaoid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ4884 – son2020 –yil 7-yanvardagi qaroriva “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davridata’lim-tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlarito‘g‘risida” gi PF – 6108- son 2020 – yil 7 – noyabrda tasdiqlangan farmonlari mazmuni ham O‘zbekistonda ta’lim sohasinikompleksrivojlantirishningustuvorjihatlarinibelgilabberganibilan ahamiyatlidir.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi esa yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash hamda mamlakatning kelajagini yuksaltirish ekanligi aniq. Jamiyat yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilgan islohotlar samarasi taqdiri , mos ijtimoiy – iqtisodiysiyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga

javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" so'nggi yillarda ushbu yo'nalishdaoliy ta'lim tizimidaishlab chiqilganva tadbiq qilinayotgan innovatsiyadir. Innovatsion faoliyat- yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat bo'lib[2], mana shu mazmunda" ta'lim- tarbiya jarayonini rivojlantirish uchunqilinganharbirish, ta'limjarayoniniyangichatexnologiktarkibda loyihalash, o'qitish, bilimlarningturlishakldabirlashuvigaerishish, fanlararo tadqiqotlar, fanning ishlab chiqarish bilan birlashtirilishigaqaratildi"- desak xato bo'lmasa kerak. Bu jarayonlarning asosiy qatnashchilari esata'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilardir[3].

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab innovatsion faoliyatF. N. Gonobolin, S. M. Godnin, V. I. Zagvyazinskiy, V. A. Kan-Kalik, N. V. Kuzmina, V. A. Slatenin, A. I. SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan.

Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Edemishlaridainnovatsiontaraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagio'zgarishlarnitashkiletish, innovatsiyaning«Hayotiva faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspektiamerikalikinnovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan[4].

Adabiyotlar sharhi

Pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning muhim qismi sifatida namoyon bo'ladigan auditoriyadan tashqari sharoitda va talabalarning ommaviy ishtirokiga asoslangan holda uyushtiriladigan tadbirlar pedagogik texnologiyalar va ularni qo„llashga katta imkoniyatlarga egadir. Mazkur tadbirlarning bu imkoniyati ularning talabalar xohish-istak va ehtiyojlari, muayyan sharoitning mavjudligi, shuningdek, tashkil etuvchilarning layoqati,

mahorativaijodiyfikrlashqobiliyatiningdarajasigatayanilishibilan tavsiflanadi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida auditoriyadan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan tadbirlarning imkoniyatlaridan keng foydalanishga harakat qilindi. Mazkur tadbirlarning ham dastur asosida tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi[5].

SMART learing ning orqali YUNESKO tomonidan e'lon qilingan "Barcha uchun ta'lim" va "Hayot davomida ta'lim" XXI asr ta'limning yetakchi tamoyilini hayotga tatbiq etish uchun sharoitlar yaratilmoqda. Uzoq o'rganish "SMART – learing" har doim, hamma joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatini oshiradi[7].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi: a) Gendr pedagogikasi; b) Evristik pedagogika; v) Majburiy pedagogika; g) Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi[8].

Metodologiya

O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

- Ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin.

- O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lim, evristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari bilan izohlanadi.

- O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

- O’qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko’rishimiz mumkin. 1. Aktiv metod. Bu metodni dars jarayonida faollashuviga, ma’lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi. 2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo‘lishiga olib keladi. 3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o‘qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi.

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko‘rishimiz mumkin. a) Standart dars – dars ichidagi struktura o‘zgarmaydi. b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o‘zgaradi. v) Vertual dars – yani masofadan o‘qitish. Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg’otadi.

V. I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta’rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g’oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir[9].

Pedagogik texnologiyalarning bir nechtasiga to‘xtalib o‘tsak, muammoli o‘qitish texnologiyasi, tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuterli o‘qitish texnologiyasi, ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi modulli o‘qitish texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi.

- Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj. Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj. Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat[10].

- Tabaqalashtirilgan o‘qitish o‘quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo‘lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o‘quv jarayonini maxsuslashtirishni ta’minlaydi[11].

- Talabaning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishini ta’minlash, zamonaviy o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o‘qitish orqali erishish mumkin[12].

- Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot

texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideniya, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin[13].

- Talabalarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, talabalarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

Oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta"lim tizimidagi pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirishga va mustahkamlashga, talabaning ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, talabalarga turli holatlardan o'quv materialini tushunib yetish va o'rganish imkonini beradi. O'quv jarayonida ishbilarmonlar o'yinlarni turli xil shakllari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sotsiodramalar[14].

- Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta'limning fanli tizimida modul metodologiyasini qo'llashni anglatadi. Bunday modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida akademik litseylarda va Oliy ta'lim muassasalarida, pedagog va muhandis-pedagoglar malakasini oshirish tizimlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Odatda modul - 3-6 soatli ma'ruzaviy mashg'ulotlar va shu bilan bog'liq bo'lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlaridan iborat bo'ladi[15].

- Tarbiya texnologiyasi - pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda muhim hisoblanadi. Tarbiya texnologiyasi1) tizimli va izchil amaliyotda yuzaga chiqadigan, oldindanloyihalashtirilgantarbiyajarayoni;2)tarbiyaviyfaoliyatnimahorat darajasiga ko'tarishga yordam beruvchi ilmiy jihatdan ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazilgan metod. usullar, ish tartibi tizimi. Texnologik yondashuv ixtiyoriy bosqichlarda tuzatish imkonini beruvchi, doimiyqaytaraloqagaegatarbiyajarayoniningturlivaziyatlargatez moslashtiriladiganvaizchilanglabolinadigantarkibiytuzilmasiningishlab chiqilishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyat jarayoniga tarbiya texnologiyasini bosqichma-bosqich tatbiq etilishi barchauchun o'zlarida ijobiy sifatlami hosil qilish, rivojlantirishborasidagi muvaffaqiyatlarniqo'lgakiritilishigayordam beradi. Inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu faktorga mos, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi. Masalan: tanasining

tuzilishi, soch va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishimumkin. Lekin, shunihechqachonesdanchiqarmaslikkerakkki, odamga hech vaqt tarbiya uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilanbog'liqbo'lgansifatlarinasliyyo'lbilanberilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobilyatlar, masalan, musiqa, matematika qobilyatlarda nasliy yo'lbilanberilishimumkin. Bundayimkoniyatlarningamalgaoshirilishi, ya'ni ruyobga chiqishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak. Arastuaytganidek «Tarbiyauchnarsagaehtiyoj sezadi: iste'dod, ilmga, mashqqa»[16]. Shuningdek, SMART texnologiyasi, "kvest" texnologiyasi va "keys-stadi" texnologiyasiga ham mavjud:

- SMART ta'limdan foydalanish va joriy etishning asosiy sababi – mavjud ta'lim tizimini SMART iqtisodiyot va SMART jamiyatining yangi talablariga muvofiq takomillashtirish zarurati. SMART jamiyatining shakllanishi global tendensiya sifatida namoyon bo'ladi. Niderlandiya, Avstraliya, JanubiyKoreyaSMARTnimilliyg'oyavaasosiysiyosiyvazifasifatidae'lonqildi: Niderlandiyada2021-yilgacha"Yuqoriiqtisodiyot, SMARTjamiyat"rivojlanishstrategiyasi, Avstraliyada "Kuchliroq SMART-mamlakat sari 2020" strategiyasi qabul qilindi, Janubiy Koreyada – "SMART Education" – SMART jamiyatni qurishda asosiy tizim yechimi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashning asosiy usullaridan biri deb qaralmoqda[17].

- Hozirgi kunda o'qituvchilar malaka oshirish jarayoni dars mashg'ulotlarini loyihalashda mavjud pedagogik texnologiyadan foydalanishlari samarasiz bo'lib hisoblanmoqda va yang i uslub, usullarnio'rganishgahamdaularnikeraklibosqichlardafoydalanishkabimu ammolargaduch kelmoqda. Zamonaviydunyodainsonningharakatiniloyihalashqobiliyatisiztasavvurqilib bo'lmaydi. Bunda dars mashg'ulotlarini loyihalashda aynan inson harakatini ham hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Loyiha ma'lum bir mahsulot ko'rinishidagi aniq natijaga asoslanadi. Aynan dars jarayonini loyihalash ta'lim texnologiyasining variantlaridan biri bu "Kvest" deb nomlangan usuldir[18]. Kvest bu - bu axborot resurslaridan foydalanish mumkin bo'lgan rol o'ynaydigan o'yin elementlari bilan muammoli vazifa[19].

Kvest texnologiyasining vazifasi - ta'lim turi sifatida quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

- ta'limiy - har bir ta'lim oluvchilarni faol bilim jarayoniga jalb qilish (ta'lim oluvchilarlarning individualvaguruhfaoliyatinitashkil etish, mavzubo'yichamustaqilishlashko'nikmava malakalarini aniqlash;

- rivojlantiruvchi - ta'lim oluvchilarlarga qiziqish, ijodkorlik, tasavvurni rivojlantirish;

- ilmiy-tadqiqotfaoliyatiko'nikmalarini, axborotbilanmustaqilishlashko'nikmalarini shakllantirish, ufqlarni kengaytirish, bilimlarni rivojlantirish, motivatsiya;

- tarbiyaviy - vazifalarni bajarish uchun shaxsiy javobgarlikni tarbiyalash, madaniy an'analar, tarix, o'lkashunoslikni qardlash va jamoa ishtirochilari o'rtasida sog'lom muhitni shakllantirishdan ibora[20].

- "Keys-stadi"texnologiyasi(ingl. "case"– chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) - - talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya, realvaziyatlarnibayonetishdaqo'llaniladigano'qitishtexnikasideya e'tirof etiladi.

Zamonaviy o'qitish amalyotida ta'limiy xarakterdagi keyslarning quyidagi turlari qo'llanilmoqa: - muammoningyechimiva qarorlarni tahlil qilishga yo'naltirilgankeyslar;- qaroryokiyaxlitmuammoniifodalovchikeyslar;- talaba faoliyatinitahlilqilishvabaholashimkoniyatiniberuvchikeyslar.

Har o'qituvchikeys-stadigaasoslangano'quvtopshiriqlariningpuxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xaraktyerga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmasligi;

- savol yoki topshiriqlar ma'lum darajada murakkab bo'lishi;

- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yorita olishi;

- tyezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;

- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi;

- ta'limning barcha yo'nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;

- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;

- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;

- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;

- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta’minlay olishi kerak[21].

Pedagogik tadqiqotlar samaradorligi:

birinchinavbatda, ta’limvafanintegratsiyasiuchunshart-sharoitlarni ta’minlash, ilmiy ishlanma va natijalarni o’quv-kasbiy jarayonga joriy etish orqali mutaxassislar tayyorlashda ishtirok etish;

ta’limning dolzarb masalalari bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va olib borishda ilmiy jamoatchilikni faol ishtirok etishga jalb etish asosida ortishi mumkin.

Umuman olganda, ta’lim maydoni nafaqat tadqiqot muammolarini, balki fan va ta’limamaliyotiniintegratsiyalashuviningasosiymexanizmigaaylangan innovatsiyalar sohalarini ham belgilaydi[22].

Natijalar

1. Ta’limmuammolarinihalqilishuchunta’limdasturidadolzarbma’lumotlardan foydalanish: ta’lim har qanday kasbiy faoliyatda axborot oqimining tezligi va hajmi tez sur’atlar bilan o‘sibbormoqda, mavjudo‘quvmateriallarirealvaqtrejimidama’lumotlarbilanto‘ldirilishiva talabalarni amaliy masalalarni yechishga tayyorlash.

2. Talabalarning mustaqil bilish, tadqiqot, loyiha faoliyatini tashkil etish. Bu tamoyil bolalarni qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda ustunlik qiladi.

3. Ta’limjarayoninitaqsimlanganta’limmuhitidaamalgaoshirish. Ta’limmuhitita’lim muassasasi hududi yoki masofaviy ta’lim tizimi bilan cheklanmasligi kerak. O‘quv jarayoni uzluksiz bo‘lishi kerak.

4. Moslashuvchan ta’lim trayektoriyalari, o‘rganishni individuallashtirish. Ta’lim faoliyatining xilma-xilligio‘quvchilargata’limdasturlarivakurslarinio‘rganish, ularningsog‘lig‘i, moddiyva ijtimoiysharoitlarigamosravishdao‘quvjarayonidavositalardanfoydalanishuchunkeng imkoniyatlarni ta’minlashni talab qiladi[23].

Ta`lim jarayoniniinnovatsion tarbiya texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishmaqsadga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. Talabalarga tarbiya hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularningijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyatito‘g‘risida ma’lumotlar berish.

2. Talabalardata’limiy-tarbiyaviybilimlarniegallashgabo‘lganehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy tarbiyani qarortoptirish.

3. Talabalardaijobiymazmundagima’naviy-axloqiysifatlar(bilimlilik mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-oqibat, raqs shafqat, Vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat vahokazoni qarortopishini ta’minlash).

4. Talabalarda ma’naviy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani

shakllantirish[24].

Xulosa

Birinchidan, innovatsiyalar shunchaki yangilik bo‘lmasdan, mavjud tizimni tubdan isloh qilish uchun baza yaratib beradi, ayniqsa, hozirgi kunda ta’lim tizimini isloh qilish uchun katta rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalarning maqsadi- ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolatidan iborat.

Uchinchidan, innovatsion tadqiqotlarni qo‘llash orqali pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish eng samarali yo‘l hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 24. 07. 2020-yildagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” gi630-son qonuni

2. INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION/ “TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNING O‘RNI”/Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi, “Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi Saidova F. A.

3. Dissertatsiya/ “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar”/Ismoilova M. Sh. , BuxDu “pedagogika” kafedrasi. , -Buxoro-2022

4. A. I. Soyibnazarov. Ta’lim jarayonida onlayn o‘quv kurslarning ijobiy va zaif tomonlari. FDU. Ilmiy habarlari jurnali. 2022-yil 6-son. (Advantages and disadvantages of online courses in education)

5. Slastenin V. A. va hokazo Pedagogika: Proc. talabalar uchun nafaqa. yuqori ped. darslik muassasalar / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, E. N. SHiyanov; Ed. V. A. Slastenina . - M. : "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 576s

6. Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b

7. Deberdeeva. T. X. Axborot jamiyati sharoitida ta’limning yangi qadriyatlari / T. X. Deberdeeva // Ta’limdagi innovatsiyalar. - 2005. - No 3. - b. 79. (New values of education in the conditions of information society)

8. Буданова Н. Г. Методика проведения учебных занятий с применением педагогической технологии// «Квест» (метод проектов) – Оренбургск, 2017, https://urok. 1sept. ru

9. Abdullayeva O. O‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish//– Axborot kommunikatsion texnologiyalari jurnali. –, 2017й. , infocom. uz

10. Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali/Ta’lim jarayoni o‘quv mashg'ulotlarini o‘tkazishda "kvest" texnologiyasidan foydalanish muammolari/ Umirova K. Jild-01 Nashr 01 (2022)

11. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI/ TALABALARNING KREATIVLIGINIRIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH/ Norova N. F. , Ostonov J. Sh. , 21-son 20. 07. 2022

12. Салаева М. С. Педагог профессионализмининг шаклланиши интегратив психологикҳодисасифатида / “Педагогическиеипсихолингвистические особенностиразвития, формированияистановвленияличностиврача” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Самарқанд давлат тиббиёт институти, 2021 йил 5 май. Электронный сборник. СамГМИ. 5 мая 2021 года. – С. 178-180.

13. Салаева М. С. Профессионал даражага эришиш мақсадида педагогнинг виртуалмобиллигиниривожлантириш/ “Хорижийтилларниўқитишнинг

долзарбмасалалари:муаммоларваечимлар”мавзусидагиХалқароонл айн илмий-амалий конференция. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети, 2021 йил 5 май. Электрон тўплам. . 2021 йил 5 май. – Б. . 230-234.

14. Ijtimoiy gumanitar fanlar TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUV TAHLILI: SMART TA’LIM Soyibnazarov A. I. 2023/№1 63-64-bet

Internet saytlari

1. Akademiyafvv. uz

[1]INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION/ “TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNING O'RNI”/Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi, “Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi Saidova F. A. 411-bet

[2]O‘zbekiston Respublikasining 24. 07. 2020-yildagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” 630-son qonuni

[3]Dissertatsiya/ “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar”/Ismoilova M. Sh. , BuxDu “pedagogika” kafedrasi. , -Buxoro-2022

[4]INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION/ “TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNING O'RNI”/Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi, “Maktabgacha boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi Saidova F. A. 412-413-bet

[5] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b.

[6] A. I. Soyibnazarov. Ta’lim jarayonida onlayn o‘quv kurslarning ijobiy va zaif tomonlari. FDU. Ilmiy habarlari jurnali. 2022-yil 6-son. (Advantages and disadvantages of online courses in education)

[7] Slastenin V. A. va hokazo Pedagogika: Proc. talabalar uchun nafaqa. yuqori ped. darslik muassasalar / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, E. N. SHiyanov; Ed. V. A. Slastenina . - M. : "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 576s

[8] Akademiyafvv. uz

[9] Akademiyafvv. uz

[10] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 44-bet

[11] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 51-bet

[12] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 55-bet

[13] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 59-bet

[14] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 63-bet

[15] Monografiya, “Innovatsion ta’limda pedagogik texnologiyalar va ularni qo’llashning psixo-didaktik asoslari”/Toirov B. B. , To’xtayeva Z. Sh. , -Buxoro, 2020. -120 b. 70-bet

[16]Dissertatsiya/ “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar”/Ismoilova M. Sh. , BuxDu “pedagogika” kafedrasi. , -Buxoro-202242, 47, 48-bet

[17] Deberdeeva. T. X. Axborot jamiyati sharoitida ta’limning yangi qadriyatlari / T. X. Deberdeeva // Ta’limdagi innovatsiyalar. - 2005. - No 3. - b. 79. (New values of education in the conditions of information society)

[18] Буданова Н. Г. Методика проведения учебных занятий с применением педагогической технологии// «Квест» (метод проектов) – Оренбургск, 2017, https://urok. 1sept. ru

[19] Abdullayeva O. O‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish//– Axborot kommunikatsion texnologiyalari jurnali. –, 2017й. , infocom. uz

[20] www. mudarrisziyo. uz/Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali/Ta’lim jarayoni o‘quv mashg'ulotlarini

o‘tkazishda "kvest" texnologiyasidan foydalanish muammolari/ Umirova K. Jild-01 Nashr 01 (2022)

[21]O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI/ TALABALARNING KREATIVLIGINIRIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH/ Norova N. F. , Ostonov J. Sh. , 21-son 20. 07. 2023

[22] Салаева М. С. Педагог профессионализминингшаклланиши интегратив психологикҳодисасифатида / “Педагогическиеипсихолингвистические особенностиразвития, формированияистановвлениялличностиврача” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Самарқанд давлат тиббиёт институти, 2021 йил 5 май. Электронный сборник. СамГМИ. 5 мая 2021 года. – С. 178-180. Салаева М. С. Профессионал даражага эришиш мақсадида педагогнинг виртуалмобиллигиниривожлантириш/ “Хорижийтилларниўқитишнинг долзарбмасалалари:муаммоларваечимлар”мавзусидагиХалқароонлайн илмий-амалий конференция. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети, 2021 йил 5 май. Электрон тўплам. . 2021 йил 5 май. – Б. . 230-234.

[23] Ijtimoiy gumanitar fanlar TA’LIMDA YANGICHA YONDASHUV TAHLILI: SMART TA’LIM Soyibnazarov A. I. 2023/№1 63-64-bet

[24] Dissertatsiya/ “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitishda tarbiya texnologiyalariga innovatsion yondashuvlar”/Ismoilova M. Sh. , BuxDu “pedagogika” kafedrasi. , -Buxoro-2022

YOSHLARDA AMALIY BILIM VA KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Abror Nazarovvich Sanaqulov
Alfraganus University

Annotatsiya

texnologiyalarining yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini ro‘yobga o‘rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish zaruriyati, yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal etish, axborot axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yoritilgan. Axborotlashgan insoniyat uchun ta’siri hamda inson hayotini tashkil qilish va tartibga rivojlantirishdagi o‘rni, uning imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy yoshlarga o‘quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalarga ma’lumotlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradigan yangi va innovatsion ta’lim usullari hamda virtual reallik texnologiyasidan foydalanib real o‘quv anishga foydalanishga o‘tishining yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni, onlayn birlashmalar rivoji va ularning an’anaviy birlashmalar bilan hamkorligi, ijtimoiy kommunikatsiya tizimi o‘zgarishiga Internet tarmog‘i rivoji va ta’siri hamda zamonaviy ta’lim transformatsiyasi, bugungi kunda virtual reallik texnologiyalaridan ta’lim sohasida foydalanish imkoniyatlari va

’zlar

i
d
i
v
i
d
u

IN THE FORMATION OF PRACTICAL KNOWLEDGE AND SKILLS AMONG YOUNG PEOPLE THE ROLE OF VIRTUAL REALITY TECHNOLOGIES

XXI-asrda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli axborot jamiyati haqiqatga aylandi: insoniyat turli axborotlar olishga, real vaqtda ularga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunday sharoitda axborotlardan foydalanish qoidalarini bilish, kerakli manbalarni qidirish va tanlashning ma’lum madaniyati bo‘lishi yoki sifat jihatidan yangi ma’lumotlarni yaratishi muhim ahamiyatga ega. Yoshlarda axborot iste’molini shakllantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham bu muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyati deganda innovatsiyalarni o‘zlashtirish jarayonida axborot muhiti bilan samarali, oqilona, axloqiy muvozanatni ta’minlaydigan va tashqi ma’lumotni transformasion faoliyatning shaxsiy vositasiga aylantirishsifatida xizmat qiladigan inson fazilati tushuniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo‘llanilayotgan va jadal rivojlanayotgan bir davrda axborot jamiyatini shakllantirish zamonaviy talablar asosida insonlarning axborot almashishi va muloqotini amalga oshirishning zarur shartiga aylandi. Shu munosabat bilan kelajak jamiyatimiz a’zolari – yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jamiyat oldida turgan asosiy vazifadir. Ma’lumotlarning bir qismi texnik drayvlarda saqlanadi va ularni kompyuter orqali olish mumkin. Ma’lumotlarning aksariyati bosma nashrlarda kutubxona va arxivlarda saqlanadi. Axborot jamiyatida inson faoliyati uchun kompyuter savodxonligi yetarli emas. Axborot savodxonligi va madaniyatining muhim tarkibiy qismi kompyuterlar bilan bir qatorda kutubxona hisoblanadi. Bu borada kutubxona bilan ishlay olish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi

(ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi»[1].

Axborot madaniyati bu tegishli ma’lumotni o‘qish, o‘qilgan narsani anglash va qo‘llash madaniyatidir. Ammo bozorning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar o‘zlarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash jarayoni ancha qiyin kechmoqda. Bu borada o‘quv muassasalarida o‘quv va tadqiqot kurslarining joriy etilishiga qaramay, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ilm-fanning rivojlanishi, jamoatchilik bilan aloqalar, inson hayotining barcha jabhalarida juda katta miqdordagi yangi ma’lumotlar va yangi axborot texnologiyalari kasbiy tayyorgarlik muammolariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bularning barchasi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muammosiga yangi ilmiy nuqtai-nazardan qarashni talab qiladi. Shu boisdan ham ochiq axborot jamiyati va yagona ta’lim makoni sharoitida kasbiy mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan bo‘lajak mutaxassisning axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning jamiyatdagi faolligi tobora oshib bormoqda. Yangilanish, qonunlar bilan boshqariladigan mamlakat qurilishi davom etmoqda. Yoshlarning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ustuvor o‘rinni egallamoqda. Innovasion, kelishilgan, yashil, ochiq va umumiy rivojlanish konsepsiyasi yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘shishga to‘liq e’tibor berishni, islohotlar, rivojlanishi va barqarorlikni ta’minlashning muhim ko‘rsatgichiga aylanmoqda. Biroq yoshlar hayotiy faoliyatini yuksaltirishda muayyan muammolar uchrayotganligini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Jumladan, ayrim yoshlarning salomatligi muammolari bilan bog‘liq masalalarni hal etish, ularni o‘z vaqtida aniqlab hal etish zaruratini paydo qilmoqda. Buning uchun avvalo yoshlarning ijtimoiy va amaliy bilimlarini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ta’lim tizimi sifatini oshirish bilan bog‘liq vazifalarni o‘z vaqtida hal etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kun yoshlarining virtual olamdagi faoliyatini tanqidiy tahlil qilishhar qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu jarayonda virtual tarmoqlarni yoshlar tarbiyasiga ta’siri tizimini yanada takomillashtirish, internet imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib va tashviq qilish borasida bir qator

tadbirlarni amalga oshirish, virtual tarmoqlarning yoshlar tarbiyasidagi ijobiy energiyasini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarni virtual tarmoq imkoniyatlaridan ilmiy, huquqiy, madaniy bilim olishga oqilona yo‘naltirish uchun yoshlar o‘rtasida axborot madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda yoshlar axborot madaniyatini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni o‘z vaqtida hal etish, axborot madaniyatining intellektual mulk huquqini himoya qilish, yuqori sifatli axboriy madaniyat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish (mikro-filmlar, animatsiya, o‘yinlar va boshqalar) va yoshlarda axborot madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb hisoblanadi [2].

Buning uchun milliy badiiy fond va milliy nashriyot fondlari hamda bir qator madaniy rivojlanish jamg‘armalari yoshlar uchun muhim mavzularni tanlashlari uchun loyiha tanlovlarini muntazam e’lon qilib borishlari, taniqli olimlar, yozuvchilar va noyob iste’dod egalari faoliyati bilan bog‘liq kitoblar, filmlar, madaniyat va san’atning boshqa turlarini virtual tarmoq tizimiga joylashtirilib borishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda ekran madaniyati o‘smirlarning mutolaasiga kuchli ta’sir etib, ularning kitobxonlikka qiziqishlarini ma’lum darajada belgilab bermoqda. Yoshlarning kitobxonlik odatlarining tubdan o‘zgarish jarayonida bolalar kitob o‘qishiga xos tavsiflarning barchasi jadal o‘zgarmoqda.

Axborot qidirish, kitoblarning ma’lumotnomalari ro‘yxatidan, kutubxona kataloglari va fayl kabinetlaridan foydalanish, kutubxona fondlarida bepul yo‘nalish berish, hujjatlarni tartibga solish tamoyillarini bilish, tizimlashtirish va mualliflik belgisini bilish, ulardan foydalanish tamoyillari, adabiyotlar ro‘yxatini tuzish qobiliyati, qoidalarni bilish. tavsiflari va tegishli davlat standartlarini bilish ham axborot madaniyatining asosiy xarakterlovchi jihatlarini aks ettiradi.

Axborot texnologiyalari yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda samarali vositadir. Texnologiyalarning rivojlanishi va o‘qishning turli sohalarida o‘qitishning innovasion usullarida texnologiyalarni qo‘llash bilan yoshlarning axborot madaniyati, mustaqil o‘qitish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etish mumkin. Shuning uchun ham tegishli vazirlik va idoralar yoshlarni o‘qitishda ilg‘or bo‘lishlari uchun interfaol o‘quv tajribasini optimallashtirish maqsadida turli bosqichlarda axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishi dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bunday axborot texnologiyalari yoshlarga yangi axborotlarni qabul qilish ehtiyojini aniqlashga yordam beradi, ma’lumotni topadi, baholaydi, chiqarib tashlaydi, tashkillashtiradi va

ifoda etadi. Bu asosida yoshlar ezgulik g‘oyalarini targ‘ib qilishda foydalanadilar hamda yangi g‘oyalarni yaratib, axborot dunyosidagi o‘zgarishlarga tezkor javob beraoladi.

Virtual texnologiyalarining paydo bo‘lishi va yangilanishi bilan virtual tarmoq madaniyati ham yangi madaniyat sohasiga aylandi. Virtual tarmoq madaniyati internet, uyali aloqa vositalari va boshqa virtual tarmoq mahsulotlarini tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tushuncha ma’lum bir til belgilariga, ovozli belgilarga va vizual belgilarga va hokazolarga asoslanib, g‘oyalar, madaniyat, xalq urf-odatlarini tarqatish, fikr va qarashlarni ifoda etish va hissiy ongni ifoda etish uchun rivojlangan va tezkor axborot uzatish tizimiga tayanadi. Mazkur jarayonda asosiy ommaviy axborot vositalari virtual tarmoqning ekologiyasidan to‘liq foydalanadi, bu milliy ma’naviy madaniyatning yanada rivojlanishiga katta yordam berishi mumkin. Bu holatni aloqa afzalliklaridan foydalanish va ommaviy axborot vositalarini bir nechta platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni translyasiya qilish bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Chunki virtual tarmoq milliy ma’naviy-madaniy qadriyatlarni saqlash va tarqatish funksiyasiga ega. Virtual tarmoq texnologiyasining yangi ishlab chiqarish vositasi sifatida paydo bo‘lishi an’anaviy madaniyatni ishlab chiqarish, aloqa va qabul qilishga ko‘proq ta’sir qiladi, shuningdek, tarmoq o‘zi noyob va boy madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi.

Virtual reallik texnologiyalarning tez va keng tarqalishidan to‘liq foydalanish va an’anaviy ommaviy axborot vositalarini juda ko‘p platformalarda ajoyib madaniy dasturlarni uzatish bilan bog‘lash an’anaviy madaniyatning yoshlar ongiga kirib borishining samarali usullaridan biridir. Internet butun dunyo bo‘ylab universal madaniy tashuvchidir. Internet texnologiyalarining doimiy yangilanishi bilan internet madaniyatining integratsiya funksiyalari rivojlanmoqda. Internetning asosiy platformalari va o‘z-o‘zini media platformalari hisobotning mazmunini kengaytirish uchun matn, rasmlar, fon havolalari va boshqalardan foydalanadi va sharhlarning barcha jihatlarini o‘z vaqtida o‘zlashtirishi va umumlashtirishi mumkin. Bu jarayonda multimediya integratsiyasi aslida uch o‘lchovli reportajni anglatadi. Bu tizimda milliy madaniy meros translyasiyasi uchun yoshlarning turli estetik ehtiyojlarini qondirish uchun qisqa metrajli videofilьmlar, filmlar, mikro-filmlar, reportajlar sseriyyasi, badiiy filьmlar va boshqa platformalar ulanishi mumkin. Yirik onlayn platformalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan keng qamrovli hamkorlik qilish uchun virtual tarmoq platformasidan keng foydalanishi mumkin. Shu boisdan ham aksariyat ommaviy axborot vositalari yangi texnologiyalar, masalan,

aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda va hokazolarda foydalanishga o‘tmoqdalar, bu esa o‘z navbatida yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar kelajakda sun’iy intellektning sezilarli darajada rivojlanishini alohida ta’kidlamoqdalar. To‘g‘ri, bugungi kunda sun’iy intellekt inson ongidan ustun bo‘ladimi yoki yo‘qmi, degan savol tug‘ilgani yo‘q, ammo sun’iy intellekt insonning aql-idrokining ba’zi jihatlaridagi kamchiliklarini to‘ldirishi mumkinligiga olimlar ko‘proq ishonch bildirmoqda. Inson ongi murakkab va noqulay ma’lumotlarni hisoblash va mantiqiy mulohazalarni amalga oshiradi, bunda ijodkorlik, go‘zallik, hissiyot, qiymatni baholash va boshqa jihatlar ustuvor o‘rinni egallaydi. Virtual reallik kompyuter yordamida simulyasiya qilish, eshitish, ko‘rish, teginish, hidlash va hokazo kabi turli xil hislarni simulyasiya qilish orqali uch o‘lchamli virtual dunyoni yaratadi.

Masalan, maxsus qurilmalar orqali tomoshabinlar kosmosdagi narsalarni real vaqt davomida cheklovlarsiz kuzatishi mumkin. Bu esa insonga koinot bilan uyg‘unlik va o‘zaro ta’sir, go‘yo voqea joyida bo‘lganingizda va insonlarga ajoyib vizual ta’sir va ruhiy kechinmalarni beradi. Hatto, 2017 yilda «virtual reallik texnologiyasi» asosida ishlab chiqilgan «kengaytirilgan reallik texnologiyasi» insonlarni virtual va real voqelikning chalkashtirib yuborishiga ham olib keldi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, soha mutaxassislari virtual reallikni real voqelikka aylantirishga harakat qilmoqdalar [3].

Virtual reallik ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi va ta’lim sohasida ham tobora ommalashib bormoqda. Chunki virtual reallik yaxshi va sifatli ta’lim olish va amaliy tajriba orttirish imkoniyatini taklif etmoqda. Bugungi kunda virtual reallik texnologiyalaridan ta’lim sohasida foydalanish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etmoqda:

Virtul sayohatlar: talabalar real hayotda borish imkoniyati bo‘lmagan joylarga virtual tashrif buyurishlari mumkin. Masalan, ular qadimiy arxeologik topilmalar va xarobalarni o‘rganishlari yoki boshqa mamlakatlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Simulyasiyalar: virtual reallik tibbiy operatsiyalar yoki favqulodda vaziyatlar kabi real holatlarni simulyasiya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu talabalarga amaliy tajriba orttirish va ko‘nikmalarni xavfsiz rivojlantirish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar: talabalar fanning turli sohalarida virtual tajribalar o‘tkazish uchun virtual reallik texnologiyalaridan samarali foydalanishlari mumkin.

o‘**rganish:** virtual reallik talabalar virtual belgilar orqali chet tilidagi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashq qilishlari mumkin bo‘lgan immersiv muhitni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish: virtual reallik virtual san’at muhitini yaratish uchun ishlatilishi mumkin, bunda talabalar san’atning turli shakllari va uslublari orqali tajribalar o‘tkazishlari mumkin.

Ta’limda virtual reallikdan foydalanishning afzalliklari talabalarda motivatsiya va qiziqishni oshirish, xotirani kuchaytirish hamda interaktiv va amaliy tajriba muhitini yaratishdir.

Virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Chunki bunday zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan jonli va jonsiz sub’yektlarning 99 foizi haqiqiy prototiplarga ega bo‘lgan bir xil fazilatlarga, xatti-harakatlarga ega. Bundan tashqari, foydalanuvchi fizikaning haqiqiy qonunlariga muvofiq barcha jonli va jonsiz narsalarning ta’sirini ta’minlashi mumkin. Muayyan vaqt oralig‘ida ushbu texnologiya yordamida ular Rim tarixiga sayohat qilishlari, qadimgi Rimga borishlari va Kolizeyni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari ham mumkin.

Virtual texnologiyalar texnologiya va yoshlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Ular virtual reallik texnologiyalaridan samarali foydalangan holda tashkil etilgan darslarga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qarashadi. Virtual reallik texnologiyalariga bunday munosabat ta’limning sifat darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun maktab va kollejlarda virtual reallik texnologiyasidan foydalanish ham o‘z samarasini beradi albatta.

Virtual reallik o‘quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalarga ma’lumotlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga ko‘mak beradigan yangi va innovasion ta’lim usullarini taklif etadi. Virtual reallikning ta’limni rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan bir necha usullari mavjud:

Virtual reallik talabalarga o‘quv materiali va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga imkon beradigan immersiv muhit yaratadi. Bu ularning faolligini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Virtual reallik yordamida talabalar tibbiyot, muhandislik yoki san’at kabi turli sohalarda amaliy tajriba orttirishlari mumkin. Ular tajribalar

o‘tkazishlari, muammolarni hal qilishda mashq qilishlari va ko‘nikmalarni xavfsiz va samarali rivojlantirishlari mumkin.

Virtual reallik har bir talabaning ehtiyojlarini qondiradigan individual o‘quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Bu ularga o‘z tezda o‘zlashtirish va qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash hamda fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

Virtual reallik yordamida talabalar o‘quv materiallariga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishlari mumkin. Ular ta’lim muassasasidan tashqarida ham yangi tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘rganishlari mumkin.

Virtual reallik talabalarga turli hududlarda bo‘lsa ham, bir-biri bilan hamkorlik va muloqot qilish imkonini beradi. Ular loyihalar ustida birgalikda ishlashlari, fikr almashishlari va bir-birlaridan o‘rganishlari mumkin.

Stenford universitetining aloqa sohasi professori Jeremi Beylenson 1990-yillardan beri virtual reallik texnologiyasini o‘rganib kelmoqda. Uning so‘zlariga ko‘ra, virtual reallik texnologiyasi ana’anaviy dars o‘rnini bosa olmaydi, lekin undan ta’limda qo‘shimcha vosita sifatida foydalanish mumkin. Sinfda virtual texnologiyadan foydalanish kundalik ta’limning an’anaviy tizimida bir qancha o‘zgarishlarni talab qiladi. Biroq, virtual olamga sayohat talabalar uchun foydali bo‘lar edi, deydi u. Professorning so‘zlariga ko‘ra, virtual reallik texnologiyasidan ayrim darslarda foydalanib bo‘lmaydi. «Masalan, biz bu texnologiyadan fe’l darsida foydalana olmaymiz. Sinfda doska bo‘lishi kifoya. Va agar boshqa joyga bormasdan ko‘rsatish uchun narsalar mavjud bo‘lmasa, albatta, buning uchun virtual reallik texnologiyasi kerak» deydi professor. Bugungi kunda Stenford universitetida Beylensonning tashabbusi bilan to‘liqligicha virtual reallik formatidan foydalangan holda dars berish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 2003 yildan buyon universitet qoshida inson va kompyuterning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi virtual reallik laboratoriyasi faoliyat yuritib keladi.

Ta’limda simulyatorlar yaratishda virtual reallik texnologiyalaridan ham kengfoydalanilmoqda. Bunda virtual kutubxona va muzeylar yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilib bu buyicha amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo‘ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va ko‘rishi, kerak bo‘lsa, undan nusxa olishi mumkin. Virtual muzey biroz boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan ashyoni tabiiy uch o‘lchamli shaklda ko‘rish imkonini beradi. Biroq, bu ancha yuqori tasvir o‘lchamlari bilan displeylarni talab qiladi.

Natijada, virtual mavjudlik nazariy tadqiqotdan zamonaviy madaniyatning ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar bilan bog‘liq ajralmas qismiga aylandi.

Hozirgi davr virtual tarmoqni rivojlanishi sharoitida turli madaniyatlarning birlashishi va to‘qnashuvi yoshlarga ezgulik g‘oyalari bilanbog‘liq qadriyatlarni qaror toptirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni yaratib berishi bilan bir qatorda, ular oldida bir qancha muammolarni hal etish zaruratini ham keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, zamonaviy yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun samarali virtual vositalardan foydalanish uchun tizimning barcha vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, internet, ommaviy axborot vositalari, ommaviy akkuantlar va boshqalardan to‘liq foydalanish kerak, ko‘proq interfaol aloqalarni o‘rnatish uchun ommaviy axborot vositalarining mintaqaviy xususiyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Masalan, onlayn bilimlar tanlovlari, onlayn treninglar, zamonaviy yoshlarning o‘ziga ishonchini oshirish uchun axborot madaniyatidan samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Bu holatda oldingi o‘qitish usullari yetakchi sifatida ishlatilishi mumkin, ammo virtual tarmoqda amaliy o‘qitishning yordamchi usullari xilma-xil bo‘ladi. Virtual tarmoqda o‘qitish mazmuni jihatidan biz nafaqat oldingi nazariy bilimlarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki yanada ideal effektga erishish uchun ta’lim mazmunini skrining qilish uchun davr xususiyatlari va talablariga bemalol moslashishimiz mumkin bo‘ladi. Zamonaviy yoshlar virtual tarmoq orqali ko‘proq bilimga ega bo‘lishlari, masalan, chet ellik talabalar bilan media interfaol darslarni yo‘lga qo‘yishi, turli nufuzli olimlar va tadbirkorlar bilan mahorat darslarni o‘tishlari mumkin, shuningdek, mamlakatda va xorijda bo‘layotgan yangiliklardan muntazam xabardor bo‘ladilar. Shuning uchun mamlakatimizda «axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish» [4]ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ta’lim berishning bunday usuli nafaqat hayotga yaqin, balki bugungi kun yoshlari tomonidan qabul qilinishi oson. Uchinchidan, virtual tarmoq tizimida o‘qitishni amalga oshirayotganda uning tarkibidagi ma’lumotlarni skrining bo‘lmagan xususiyatini hisobga olgan holda, biz tarmoq nazoratini teng darajada muhim joyga qo‘yib undagi axborotlarni boshqarish uchun javobgarlikni bevosita anglab yetishimiz lozim. To‘rtinchidan, bugungi kun yoshlarida sog‘lom ta’lim va tarbiya tizimini yaratish, o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishning uzoq muddatli mexanizmlarini shakllantirish zarur. Zamonaviy yoshlar axborot olish

yo‘llari va vositalari bilan cheklanib qolmay, asosiy e’tiborni strategik fikrlash va nazorat qilish mexanizmiga qaratishlari lozim.

Bugungi kunda virtual reallik texnologiyasi ta’limning rivojlanishiga yordam beradigan yangi usulga aylandi. An’anaviy ta’lim talabalarga bilimlarni nazariy jihatdan ochib bergan bo‘lsa, endi virtual reallik texnologiyasidan foydalanib ular yorqin va real o‘quv muhitini yaratishlari mumkin. Bu esa yoshlarga virtual passiv instilatsiya haqiqiy his-tuyg‘ular orqali xotirani rivojlantirishga imkon beradi. O‘z-o‘ziga yo‘naltirilgan o‘qishni talabalar qabul qilishi osonroq, shuning uchun virtual reallik texnologiyalari orqali talabalarning bilim olishga qiziqishini uyg‘otish osonroq kechadi. Shundan kelib chiqib «ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli tranformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish bilan bog‘liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi zarur»[5] ligi taqozo etiladi.

Virtual reallikdan samarali foydalanish orqali ko‘plab muvaffaqiyatga erishilganlik haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan: Xitoyda «virtual reallikning akademik faoliyatga ta’siri» mavzusida tadqiqot o‘tkazilgan. Bolalarga bir xil intizom o‘rgatiladi, ammo bir guruhi klassik usul yordamida, ikkinchi guruh esa virtual reallik yordamida o‘qitilgan. Tadqiqot yakuni bo‘yicha test o‘tkazilganda birinchi guruh 73%, ikkinchi guruh esa 93 % muvaffaqiyatga erishadi. Bundan tashqari, virtual reallik qo‘llangan guruh mavzuni chuqurroq tushunib, olingan bilimlarni mustahkamlab olganligi aniqlangan[6]. Ushbu tadqiqot natijasida virtual reallikning samaradorlik ko‘rsatkichi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida ham virtual reallik texnologiyalardan foydalanib, soha mutaxassislari bilan birgalikda tajriba-sinovlar o‘tkazish, natija ijobiy bo‘lsa bosqichma-bosqich barcha ta’lim muassasalarida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim tizimida ta’limning ko‘pgina yo‘nalishlarida virtual reallik texnologiyalaridan foydalanilsa yaxshi samara beradi. Ayniqsa, hozirda tibbiyot sohasini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. 2025 yilga borib virtual reallikka mo‘ljallangan tibbiyot uskunalari bozorining hajmi 5, 1 AQSH dollariga teng bo‘lishi bashorat qilinmoqda[7]. Bunday qurilmalar bemorlarni masofadan turib davolash, tekshirish, tashxis qo‘yishga yordam beradi. Shu bilan birga o‘ta murakkab jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish mumkin. Bundan tashqari, kollej va universitetlarda talabalarga yaxshiroq bilim olishlari uchun virtual reallik texnologiyalaridan

foydalangan holda fanlar bilan bog‘liq virtual laboratoriyalar tashkil etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Virtual reallik texnologiyasining istiqboli nisbatan keng rivojlanayotgan bo‘lsada, tez rivojlanayotgan texnologiya sifatida, asta-sekin o‘z muammolarini ham namoyon etmoqda. Masalan, birinchidan, ba’zi foydalanuvchilarda virtual reallik qurilmalaridan foydalanish ularda jismoniy noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki virtual reallik uskunalari inson ongi talablaridan ancha past darajada shakllantirilgan. Ikkinchidan, virtual reallik texnologiyalarini jamiyat hayotiga keng jabhada joriy qilish ancha murakkab va juda ham katta mablag‘ni talab etadi. Agar foydalanuvchilar yuqori darajadagi vizual lazzatlanishni boshdan kechirishni istasalar, yuqori darajadagi kompyuterlari uchun yuqori narxni to‘lashlari kerak bo‘ladi.

Umuman olganda axborot texnologiyalarini faqat texnika olamiga taalluqli bir narsalar, deb qaralishi noto‘g‘ri, zero ular insonlar hayotiga chuqur kirib borib, uning kundalik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Sifatiga ko‘ra axborot industriyasining keskin o‘zib ketishi, hatto, falsafiy dunyoqarash doirasida yangidan - yangi texnologiyalar tahliliga zarurat tug‘dirmoqda. Bizningcha, bu muammolar postmodernistik falsafa doirasida atroflicha o‘rganilmoqda.

Insonlarning virtual muhitdagi muloqotining tobora kengayishi jamiyatda boshqatendensiya – virtual addiksiyani (virtual reallikdan insonning kimyoviy xossaga ega bo‘lmagan psixologik mutelik) yuzaga keltirmoqda. Additiv voqelik esa dastlab bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalarni: inson atrofidagi real ob’yektlar va virtual dunyoni ekranda birlashtirishdir. Psixologlar mazkur hodisani kasallik deb tan olmoqda. Internetga mutelik jiddiy malakali psixologik yordamga muhtoj aholi qatlami bo‘lgan yoshlar orasida keng doirada rivojlanib bormoqda. Olimlarning bashorat qilishicha, virtual reallik va inson ongi konvergensiyasi biz tasavvur qilgandan ham tezkor va shiddatli amalga oshmoqda. Shu bilan bir qatorda, virtual reallikda inson ongi va ongostini manipulyasiya qilish muammosi hozir hech kimda shubha uyg‘otmaydi[8].

Yirik onlayn platformalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan keng qamrovli hamkorlik qilish uchun virtual tarmoq platformasidan keng foydalanishi mumkin. Shu boisdan, ham aksariyat ommaviy axborot vositalari yangi texnologiyalar, masalan, aqlli robotlar va virtual texnologiyalaridan madaniy aloqalarni tashkil etish, interfaol suhbat, jamoatchilik fikrini ovozli eshittirishda va boshqalarda

foydalanishga oʻtmoqda, bu esa, oʻz navbatida, yoshlar tarbiyasida muhim oʻrin tutadi.

Ta'limni rivojlantirishda virtual reallikning roli yanada interaktiv, samarali va individual oʻquv tajribasini yaratishdir. Bu talabalarga koʻnikmalarni rivojlantirishga, amaliy tajriba orttirishga va ilmiy natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Biroq, virtual reallikning ba'zi cheklovlarini ham hisobga olish lozim, masalan, texnologiyaning yuqori narxi va oʻqituvchilarni ushbu texnologiyadan foydalanishga oʻrgatish zarurati.

Xulosa qilganda, virtual reallik virtual texnologiyalar yordamida yaratilgan reallik va fantastik voqelikni uygʻunligini oʻzida ifoda etadi. Shu boisdan ham virtual reallik ta'lim jarayonini modernizatsiyalashda muhim oʻrin tutadi. Chunki aynan virtual oʻquv muhiti talabalarning bilim tajribalarini boyitishga moʻljallangan platformalar boʻlib, ular ta'limga zamonaviy innovasion texnologiyalarni qoʻllash orqali yorqin namoyon boʻladi. Virtual reallik texnologiyalarni rivojlanishi ta'lim muhitini tubdan oʻzgartiradi. Virtual reallik texnologiyasi yanada murakkab muammolarni hal qilish uchun insonlar toʻgʻridan-toʻgʻri kompyuterlar bilan oʻzaro aloqa qilishlari mumkin boʻlgan vosita hisoblanadi. Umuman olganda, virtual ta'lim uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi va undan foydalanish ta'limning turli sohalarida rivojlanib, tobora kengayib boradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. – B. 191-192.

2. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. *JournalNX*, 897-903.

3. Tulenova, G. , & Sanaqulov, A. (2022). MODERN VIRTUAL TECHNOLOGY AND ITS OPPORTUNITIES. *Academic research in educational sciences*, *3*(9), 100-105.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079 son «Raqamli Oʻzbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmoni. Lex. uz.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. – B. 192.

6. https://infourok. ru/sovremennye-realii-vr-v-obrazovanii-4628309. html

7. https://www. terabayt. uz/post/virtual-reallikni-qanday-kelajak-kutmoqda

8. Sanaqulov, A. (2020). Virtual reallikning ilmiy-falsafiy tahlili. SamDU.

ADDRESSING MODERN TECHNOLOGIES AND APPROACHES IN EFFECTIVE TEACHING

Shirin Ulug'bekovna Bekmuratova

Introduction

The article reviews the latest advancements in educational psychology, emphasizing the significance of understanding cognitive processes, memory retention, and motivation to design effective learning experiences. It also discusses the implications of neuroscientific research on pedagogical practices, offering a bridge between neuroscience and education.

Throughout the article, the authors emphasize the need for educators and psychologists to collaborate, drawing from each other's expertise to create a holistic approach to education. The article concludes by discussing the potential impact of these innovations on educational institutions and society as a whole, highlighting the importance of staying at the forefront of pedagogical and psychological research in an ever-evolving educational landscape.

This article serves as a valuable resource for educators, researchers, and policymakers seeking to stay informed about the latest trends and research findings in pedagogy and psychology, ultimately aiming to enhance the quality of education and promote the holistic development of learners.

Literature Review

While applying this topic to write the article, the researches and achievements of most linguists are examined in order to collect valuable data in this field for the article.

In terms of researchers, Gee (2003) stated more information about using video games in teaching English. His article explains gamification and how it may be used to create creative challenges for formative evaluation. It is suggested that including some gamification technology elements might help spur the creation of creative assessment frameworks. With reflections on the ideas and concepts related to gamification, assessment modalities, formative assessment in the context of gamification, and the end point potential of gamification as an evaluation tool, we demonstrate through a literature search that there is room for these types of game elements on formative assessment. Gamification must be integrated into assessment activities in a complicated manner that takes into account not just the context or incentive elements of the activity but also the quality standards necessary for the particular sort of evaluation that is being designed. When it comes to Goleman (1995), he mentioned his researches about emotional intelligence in his book. The researcher makes the case that our conception of human intellect is overly limited and ignores a variety of essential skills that are extremely important to how we fare in life. Goleman demonstrates the causes at play in why people with high IQs struggle and others with modest IQs perform unexpectedly well by drawing on brain and behavioral studies. These elements combine to provide a particular type of intellect that he refers to as "emotional intelligence. " Self-awareness, impulse control, tenacity, enthusiasm, self-motivation, empathy, and social skill are all examples of emotional intelligence. The human implications of emotional intelligence deficiencies can vary from issues in marriage and parenting to poor physical health, as Goleman illustrates. Incompetence in emotional intelligence may undermine IQ and destroy careers. Children may suffer the greatest toll, since they are more susceptible to depression, eating disorders, unintended pregnancies, aggression, and violent criminality. But the news is encouraging. At birth, emotional intelligence is not predetermined. Goleman's claim is supported by a synthesis of recent

findings, including fresh understandings of the neural circuitry governing emotion and reason. He demonstrates in detail how everyone may develop their emotional intelligence. Besides them investigating more researchers' work assist to write a meaningful article, so Piaget's (1970) and Vygotsky's (1978) researches are addressed in order to illuminate using modern technologies in teaching English in this article. Effective teaching needs a thorough grasp of how students learn and grow cognitively, going beyond the simple transfer of knowledge. This section examines how theories of cognitive development, such as those advanced by those two researchers, have a significant influence on instructional design. We learn how to design curricula that are in line with the cognitive abilities of students at various stages of development by looking at these ideas and their consequences.

Methodology

Education is a dynamic field that continually evolves in response to societal changes, technological advancements, and our deepening understanding of human cognition and development. This article explores the intersection of pedagogy and psychology, focusing on innovative research and practices that have the potential to revolutionize education. By combining the insights of educators and psychologists, we aim to provide a comprehensive overview of the latest trends and findings in this field.

The Impact of Technology on Learning Outcomes: The digital age has ushered in a plethora of technological tools that have reshaped the educational landscape. This section examines how technology impacts learning outcomes, including improved access to information, enhanced engagement through multimedia resources, and the use of artificial intelligence in personalized learning experiences. Empirical evidence is presented to demonstrate how technology can be harnessed to optimize pedagogical strategies. The advent of the digital age has undeniably transformed the way we approach education. In this section, we delve into the profound influence of technology on learning outcomes, shedding light on how it has revolutionized the educational landscape. Through empirical evidence and insightful analysis, we explore the multifaceted ways in which technology has improved education, including enhanced access to information, increased engagement through multimedia resources, and the integration of artificial intelligence (AI) in personalized learning experiences.

Improved Access to Information: One of the most conspicuous benefits of technology in education is the unparalleled access it provides to a

wealth of information. The internet, in particular, has become a vast repository of knowledge, making information readily available to students and educators alike. This democratization of information has transcended geographic boundaries, socioeconomic disparities, and time constraints, empowering learners to explore subjects and topics beyond the confines of traditional classrooms. Online databases, open-access journals, and digital libraries have become invaluable resources for research and self-directed learning. Students can access a multitude of academic materials, from textbooks and scholarly articles to educational videos and interactive simulations, with just a few clicks. This newfound accessibility fosters a culture of continuous learning, enabling students to delve deeper into subjects of interest and broaden their horizons.

Moreover, the digital age has brought forth innovative tools and platforms that facilitate collaborative learning. Virtual classrooms and online discussion forums enable students to engage in meaningful discourse with peers and instructors, transcending physical barriers. This not only enhances the depth of understanding but also cultivates critical thinking, communication skills, and a global perspective.

Enhanced Engagement through Multimedia Resources: Technology has redefined engagement in the learning process by harnessing the power of multimedia resources. Traditional lectures and textbooks, while valuable, often struggle to captivate the diverse learning styles of today's students. In contrast, multimedia elements, such as videos, animations, podcasts, and interactive simulations, offer dynamic and immersive learning experiences. Research has consistently demonstrated the effectiveness of multimedia in education. Visual and auditory cues enhance comprehension and retention, catering to both visual and auditory learners. Moreover, multimedia resources allow for the presentation of complex concepts in a more digestible and engaging manner. For instance, a physics simulation can offer students a tangible understanding of abstract principles, making learning both enjoyable and effective.

Furthermore, multimedia resources promote active learning. Interactive modules and gamified elements challenge students to apply their knowledge, fostering problem-solving skills and creativity. Gamification, in particular, has gained traction as a pedagogical approach that leverages technology to make learning more enjoyable and motivating.

AI in Personalized Learning Experiences: Artificial intelligence (AI) represents a pivotal technological advancement that holds immense

promise in the realm of education. AI-driven personalized learning experiences cater to the individual needs and pace of each student. Machine learning algorithms analyze a student's performance, preferences, and areas of strength and weakness to tailor educational content and assessments accordingly. Personalized learning not only increases student engagement but also enhances learning outcomes. By addressing each student's unique learning profile, AI can identify areas requiring additional attention and provide targeted resources, ultimately improving subject mastery. This adaptability ensures that students are neither held back by the pace of their peers nor rushed through material they find challenging. Moreover, AI-driven assessments can provide timely and detailed feedback, enabling students to track their progress and make informed adjustments to their study habits. This self-regulation empowers students to take ownership of their learning journey, fostering independence and lifelong learning skills.

Scaffolding: Teachers can employ the concept of "scaffolding, " a term popularized by Vygotsky (discussed later), to provide appropriate support as student's progress through Piaget's stages. Scaffolding involves offering guidance and assistance tailored to a student's current level of development, gradually fading support as they become more independent learners.

Active Learning: Piaget's theory emphasizes that children construct knowledge actively through their interactions with the environment. Therefore, teaching methods that encourage active exploration, experimentation, and problem-solving align with this perspective.

Vygotsky's Sociocultural Theory: Lev Vygotsky's sociocultural theory posits that cognitive development is heavily influenced by social interactions and cultural contexts. Vygotsky introduced the idea of the "zone of proximal development" (ZPD), which represents the gap between a student's current ability level and their potential development with the guidance of a more knowledgeable person, typically a teacher or peer. Implications for Teaching: Collaborative Learning: Vygotsky's theory underscores the value of collaborative learning environments, where students work together to solve problems or engage in meaningful discussions. Peer interactions can provide the necessary scaffolding to bridge the gap between a student's current abilities and their ZPD.

Teacher as Facilitator: Educators take on the role of facilitators, guiding students through their ZPD. This involves asking probing questions, providing prompts, and offering support as needed, all while gradually transferring more responsibility to the student as their skills

develop. In order to assess the significance of the role of teachers, the relevance and accessibility of technology labs and individual components, and the impact of using technology on the learning process of a foreign language, Stepp-Greany (2002, p. 165) used survey data from Spanish language classes that used a variety of technological approaches and methods. The results emphasized the significance of regularly scheduled language laboratories and the usage of CD Rom and supported students' opinions of the instructor as the key learning facilitator. Stepp-Greany suggested a follow-up study to evaluate the impacts of pertinent technologies on the process of learning foreign languages. Two approaches to incorporating technology into the classroom were put forth by Warschauer (2000a): a cognitive approach that allows students to meaningfully increase their exposure to language and thereby create their own knowledge; and a social approach that allows students to engage in genuine social interactions as a way to practice the real-life skills they have learned through participation in real activities. Bordbar (2010) looked at the motivations and elements influencing language instructors' usage of technology in the classroom. The study also looked at how teachers used their practical experience and understanding of computer-assisted language learning to offer their own language education, as well as their attitudes about computers and information technology. According to the findings, practically every teacher had a favorable opinion of using computers in the classroom. The findings also highlighted the significance of instructors' general attitudes about technology, technological experience, skill, and competence, as well as the cultural context surrounding the use of IT in classrooms and language institutes and influencing attitudes toward computer technology. The application of multi-media technology in language instruction was examined by Shyamlee (2012) on page 155. The study concluded that because such technology involves students in the actual processes of language learning through conversation with one another, it improves student learning motivation and attentiveness. Multimedia technology should be used in schools, according to Shyamlee, in part because of how well it supports the continued effectiveness of the teacher's job. The research's conclusions show that employing contemporary technology to study English results in students who are more eager and participatory and reinforce the demonstrated ineffectiveness of conventional English teaching techniques. Statistics confirm that a greater proportion of people learning English than using conventional teaching techniques use contemporary media like smart boards, laptops, and displays. The study also shows that employing contemporary methods for teaching English considerably enhances student connection with teachers and

responsiveness in general. In reality, it is evident that professors of English prefer to use contemporary technology over conventional teaching techniques and that pupils are more likely to learn from electronic curriculum. Cultural Relevance: Vygotsky's theory highlights the importance of considering cultural context in education. To optimize learning, instructional materials and activities should be culturally relevant, drawing upon students' backgrounds and experiences.

Both Piaget's and Vygotsky's theories offer valuable insights for curriculum development:

Differentiated Instruction: Recognizing that students may be at different cognitive stages, educators should employ differentiated instruction techniques. This involves tailoring content, resources, and activities to meet the diverse needs of students within a single classroom. Spiral Curriculum: Some educators advocate for a spiral curriculum, where key concepts are revisited and deepened over time. This approach aligns with Piaget's notion that learners build upon prior knowledge and gradually refine their understanding.

Incorporating Scaffolding: Curriculum designers can incorporate scaffolding elements into learning materials, allowing students to access support as needed. Interactive digital resources, for example, can provide hints or additional explanations when students encounter challenges. Cultivating Critical Thinking: Both Piaget's and Vygotsky's theories underscore the importance of fostering critical thinking skills. Curriculum development should prioritize activities that encourage students to question, analyze, and synthesize information.

Results

Effective teaching goes beyond the mere transfer of knowledge; it involves a deep understanding of how students learn and develop cognitively. This section explores the pivotal role of cognitive development theories, including those put forth by Jean Piaget (1970) and Lev Vygotsky (1978), in shaping instructional design. By examining these theories and their implications, we gain insights into how to create curricula that align with the cognitive capacities of students at different stages of development.

Piaget's Theory of Cognitive Development: Jean Piaget's theory of cognitive development is one of the cornerstones of educational psychology. He proposed that cognitive development occurs in distinct stages, each marked by specific cognitive structures and abilities. Piaget identified four major stages: the sensorimotor stage (birth to 2 years), the

preoperational stage (2 to 7 years), the concrete operational stage (7 to 11 years), and the formal operational stage (11 years and beyond). Implications for Teaching: Developmentally Appropriate Instruction: Piaget's theory underscores the importance of tailoring instruction to a student's developmental stage. For instance, in the preoperational stage, where children are still developing concrete operational thinking, educators should use concrete examples and manipulatives to facilitate understanding.

Cognitive development theories, such as those proposed by Piaget and Vygotsky, offer invaluable insights for effective teaching and curriculum design. By tailoring instruction to students' developmental stages, promoting collaborative learning, and considering cultural relevance, educators can create a rich and engaging educational environment that supports students in their cognitive growth and academic success. These theories serve as enduring guides for educators seeking to optimize the learning experience for learners at different stages of cognitive development.

Conclusion

As we look to the future of education, it becomes increasingly evident that the innovations discussed in this article have the potential to bring about transformative changes in educational institutions and society as a whole. This final section conclude the profound impact that these innovations may have, highlighting the necessity of staying at the forefront of pedagogical and psychological research in an ever-evolving educational landscape. The adoption of innovative practices has the potential to not only enhance education but also prepare students for the complex challenges of the future. Transforming Educational Institutions:The integration of technology, cognitive development theories, and socio-emotional learning into educational institutions stands to reshape the very foundations of how we educate our youth. Here are some potential impacts: Personalized Learning Environments: Technology-driven personalized learning will become more prevalent, allowing students to progress at their own pace and explore their interests while receiving tailored support.

The future of education is inherently dynamic, shaped by technological advancements, evolving pedagogical approaches, and an increasingly interconnected world. To thrive in this landscape, educators, researchers, and policymakers must remain adaptable and forward-thinking. The adoption of innovative practices has the potential to transform education into a dynamic, student-centered, and globally

aware endeavor. In conclusion, the innovations in pedagogy and psychology presented in this article hold the promise of creating a more engaging, effective, and inclusive educational system. By embracing these innovations and fostering a culture of continuous learning and research, we can prepare students not only for the challenges of the future but also for the opportunities that await in an ever-evolving educational landscape. Ultimately, the future of education is in our hands, and it is our responsibility to ensure that it remains a beacon of progress and empowerment for generations to come.

References

1. Bordbar, F. (2010). English teachers' attitudes toward computer-assisted language learning. *International Journal of Language Studies, 4,* 179206.

2. Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. *Computers in entertainment (CIE), 1*(1), 20-20.

3. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence.* Bantam.

4. Piaget, J. (1970). *Science of education and the psychology of the child*. Orion Press.

5. Shyamlee, S. D. , & Phil, M. (2012). Use of Technology in English Language Teaching and Learning: An Analysis. In International Conference on Language, *Medias and Culture (Vol. 33*, pp. 150-156).

6. Stepp-Greany, J. (2002) Student Perceptions on Language Learning in a Technological Environment: Implications for the New Millennium. *Language Learning & Technology, 6,* 165-180.

7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes.* Harvard University Press.

CHINGIZ AYTMATOV VA ISAJON SULTONNING SUN'IY ODAM YARATISH BORASIDAGI ADABIY-ESTETIK MUSHOHADALARI

Bahor Bahriddinovna Turaeva

Annotatsiya

Maqolada Chingiz Aytmatov va Isajon Sultonning sun'iy odam yaratish haqidagi badiiy bashorati sistem-struktur metod asosida tahlil qilingan. Tadqiqotning obyekti sifatida Chingiz Aytmatovning "Kassandra tamg'asi" hamda Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanlari tanlangan. Maqolaning predmetini zamonaviy romanchilikda apokalipsis hodisasining qiyosiy tipologiyasi tashkil etadi. "Kassandra tamg'asi"da ikszurriyot va kassandra embrionlarining insoniyat taqdirini izdan chiqarish haqiqati, "Boqiy darbadar"da ham ota-onasi noma'lum, inson va turli jonzotlarning gen o'ramlari asosida yaratilgan sun'iy mavjudotlarning halokati, mukammallikka ega genomning yaratilish sababini izlash yo'lidagi darbadarliklar, uni qo'lga kiritish maqsadidagi gegemon davlatlarning tinimsiz talvasasi orqali bugungi global dunyoda Yaratgan irodasiga qarshi amalga oshirilayotgan ilmiy kashfiyotlarning fojiali oqibatlariga ishora qilingan. Asarlarning mazmun-mohiyati prospektiv xarakterga ega, chunki insoniyat o'z kelajagiga bolta urayotgani, turli urushlar, Yaratganning ishiga aralashish oxir-oqibat halokatga olib kelishi haqida yozuvchilarning falsafiy bongi yanglig' jaranglaydi. Intellektual roman xususiyatlari, mavzu va g'oyasi nuqtai nazardan "Kassandra tamg'asi" va "Boqiy darbadar" romanlari bir-biriga yaqin. Hatto roman voqealarining mantiqiy davomi yanglig' tasavvur hosil qiladi. Ikkala romandagi umumlashma xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi: mifologik tafakkur: "Kassandra tamg'asi" "Kassandra va Appolon", "Boqiy darbadar" "Agasfer" haqidagi mif asosida yaratilgan. Har ikki ijodkor mif mazmunidan badiiy qolip sifatida foydalangan, ya'ni mif roman mazmunining asosini tashkil etgan; ilmiy tafakkur: romanlarda sun'iy embrionlarning yaratilishi borasidagi ilmiy kashfiyotlarning fojiali oqibatlari, ya'ni Filofey kosmosda abadiy o'limga yuzlansa, professor Ziyoni bo'ron mahv etadi. Romanlardagi voqelik zaminu samoda parallel kechadi. Adiblar texnokratlashgan dunyo sinoatlarini aynan gorizontal va vertikal makon paralleligida mohirona tasvirlashgan. "Kassandra tamg'asi" hamda "Boqiy darbadar" romanlaridagi ijtimoiy xronotop hozirgi ilmiy-texnik kashfiyotlar tufayli kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfdan ogoh etuvchi bashoratga o'xshaydi. Romanlardagi ijtimoiy xronotop inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va zamonaviy kashfiyotlar kabi muammolarni, ularning ziddiyatli munosabatlarini o'zida qamraydi. Har ikki romanda diniy va dunyoviy tasavvurlar,

adiblarning Haq va haqiqat haqidagi mushohadalari psixologik va fantastik xronotoplarning paralleligini ta'minlagan. Majoz bag'rida hayot falsafasi, olam va odam munosabatlari o'ziga xos uslubda yaratilgan. "Boqiy darbadar" romanida ilmiy-falsafiy va badiiy qonuniyatlar sintezi uchraydi, ya'ni ilmiy-texnik taraqqiyotning insoniyat taqdiriga ta'siri, dunyoni falsafiy idrok etish muammolari badiiy talqin etilgan.

Kalit so'zlar

xronotop, badiiy zamon, badiiy makon, tashqi makon, ichki makon, mikromakon, makromakon, megamakon, vertikal, gorizontal, parallelizm.

LITERARY-AESTHETIC OBSERVATIONS OF CHINGIZ AITMATOV AND ISAJAN SULTON ON THE CREATION OF ARTIFICIAL MAN

Abstract

The article analyzes Chingiz Aytmatov and Isajon Sultan's artistic predictions about the creation of an artificial human based on the system-structural method. Chingiz Aitmatov's "Cassandra's Brand" and Isajon Sultan's "The Eternal Wanderer" were selected as the object of the research. The subject of the article is the comparative typology of the event of the apocalypse in modern novels. In "Cassandra's Brand" the reality of the x-generation and Cassandra's embryos derailing the destiny of humanity, in "The Eternal Wanderer" the destruction of artificial beings whose parents are unknown, created on the basis of the gene packages of humans and various creatures, efforts to find the reason for the creation of a perfect genome, also the tragic consequences of scientific discoveries that are being carried out against the will of the Creator in today's global world through the relentless struggle of hegemonic countries to acquire it, are pointed out. The content of the novels has a prospective character, because the philosophical tone of the writers about the fact that humanity is axing its future, various wars, interference in the work of the Creator will eventually lead to destruction. From the point of view of features, theme and idea of an intellectual novel, the novels "Cassandra's Brand" and "The Eternal Wanderer" are close to each other. It even creates an imagination as a logical continuation of the events of the novel. The common features of both novels are shown in the following: mythological thinking: it was created on the basis of the myth of "Cassandra's Brand", "Cassandra and Apollon", "The Eternal Wanderer" and "Agaspherus". Both creators used the content of the myth as an artistic template, that is, the myth formed the basis of the content of the novel; scientific thinking:

in the novels, the tragic consequences of scientific discoveries about the creation of artificial embryos, that is, when Philofeus faced eternal death in space, Professor Zia was destroyed by a storm. The reality in the novels runs parallel to the sky and the earth. Writers skillfully described the secrecy of the technocratic world precisely in the parallel of horizontal and vertical space. The social chronotope in the novels "Cassandra's Brand" and "The Eternal Wanderer" is like a prophecy warning of the danger that may occur in the future due to the current scientific and technical discoveries. The social chronotope in the novels includes issues such as man and nature, man and society, man and modern discoveries, and their conflicting relations. In both novels, religious and worldly imaginations, writers' observations about the Truth and reality provided the parallelism of psychological and fantastic chronotopes. The philosophy of life, the world and human relations are created in a unique style. In the novel "The Eternal Wanderer" there is a synthesis of scientific-philosophical and artistic laws, that is, the influence of scientific-technical development on the fate of mankind, the problems of philosophical perception of the world are artistically interpreted.

Keywords

chronotope, literary time, literary space, outer space, inner space, microspace, macrospace, megaspace, vertical, horizontal, parallelism.

“Kassandra tamg’asi” va “Boqiy darbadar” romanlarida diniy va dunyoviy tasavvurlar, adiblarning Haq va haqiqat haqidagi mushohadalari psixologik va fantastik xronotoplarning paralleligini ta’minlagan. Majoz bag’rida hayot falsafasi, olam va odam munosabatlari o’ziga xos uslubda yaratilgan. Romanlarda ilmiy-falsafiy va badiiy qonuniyatlar sintezi uchraydi, ya’ni ilmiy-texnik taraqqiyotning insoniyat taqdiriga ta’siri, dunyoni falsafiy idrok etish muammolari badiiy talqin etilgan. “Kassandra tamg’asi” romanida qahramon o’tmishidagi voqealar kelajakda ro’y berajak halokatlar bilan asarning hozirgi zamonida tutashadi. Bolalar uyiga tashlab ketilgan aslida o’zi ham ikszurriyot, tabiiy holda tug’ilgan bo’lsa ham, nasl-nasabsiz, urug’-aymoqsiz Andrey Kriltsov ikszurriyotlarni yaratadi. «Men Yerga tushsam-u bizning laboratoriyamizda o’tkazilgan tajribalar natijasida dunyoga kelgan go’daklarning ko’zlariga bir boqsam!. . . Nega endi bu haqda yozyapman. Chunki biz qilgan xatoni tuzatib bo’lmaydi. Davlat mulki bo’lib tug’ilgan odamlar nima bo’ladi oxiri?» [Aytmatov Ch. , 2016, B. 344.] Asar bosh qahramoni o’z ilmiy ixtirolari insoniyat boshiga qanchalar kulfat solishini o’ylab, bu o’ylar vahmidan unga hatto koinot ham torlik qiladi: “Vaqti-soati kelib, ikszurriyotlarda insoniyatdan o’ch olish, to’ng’iz qo’pqir dunyosiga o’t qo’yishdek qat’iy istak paydo bo’lmasmikan?” [Aytmatov Ch.

, 2016, B. 344.]. “Kassandra tamg‘asi” asari annotatsiyasida buyuk adib ushbu falsafiy romanida butun sayyora, boringki, kosmos miqyosida keng va uzviy mushohada yuritgani, bugungi shafqatsizlik, yovuzlik, vahshiylik urug‘larining kelajakda qanday dahshatli mevalar berishini kosmik yuksaklikdan bashorat qilgani aytilgan. Roman voqealari zamin va samoda ro‘y beradi, har ikkisini tutashtirgan hodisa – adibning falsafiy bashorati! Futurolog va genetik olimlardan oldin badiiy bashorat kuchi bilan zamin turli kulfatlarga sabab bo‘luvchi embrionlardan xalos qilinmas ekan, qiyomat sari insoniyat jadal odimlashini badiiy tasvirlagan. Asarning mohiyatini antinomiya tashkil etadi, bir vaqtlar Adrey Krilsov Siyosiy byuro a’zosi, KPSS MKning mafkuraviy masalalar va xalqaro kommunistik harakat bo‘yicha sekretari Konyuxanov Vadim Petrovich bilan “ota-onasiz, qon-qarindoshsiz tug‘ilgan zotlar oiladan, har xil qon-qarindoshlik va urug‘-aymoqlik rishtalaridan, patriarxal hamda o‘zga aloqalardan mutlaqo erkin bo‘lib, bu esa eskirgan axloqning asriy yukidan qutqarishi” [Aytmatov Ch. , 2016, B. 312.] haqidagi siyosiy ahamiyatga molik suhbatdan so‘ng hukumat rahnamoligida ikszurriyotlarni yaratgan bo‘lsa, ikkinchi syujet chizig‘ida samoviy rohib Filofey sifatida xalqaro kosmik kemaning ilmiy stansiyasida uch yildan ortiqroq muddatda o‘zining tibbiy-biologik tadqiqotlari natijasida kassandra-embrionlarning flyuidlarini (psixik toklarini) aniqlash uchun zondaj-nurlar seanslarini o‘tkazib, tug‘ilishi insoniyat dunyosiga halokat keltiradigan kassandra-embrionlarini yo‘q qilish uchun Rim papasiga maktub yo‘llaydi. Aslida ota-ona mehrini umuman tuymagan, bolalar uyida o‘sgan bosh qahramon ikszurriyot va kassandra-embrionlari haqida mulohaza yuritishga qodir. Lirik kirish bilan boshlangan asar voqealari jumboqli tugun – samoviy rohibning maktubini “Tribyun” gazetasida chop ettirish muammosi bilan shiddatli tus oladi. Yozuvchi badiiy makon sifatida koinotni tanlagani ayon, chunki bunday ixtirolar koinotdan turib, insoniyatga yetkazilmas ekan, Yerda buning iloji yo‘q. Ma’lum bo‘lishi bilanoq ixtiro yo‘qlikka yuz tutishi aniq (Robert Borkning fojiali o‘limi bunga misol). Bosh qahramon nega bunday kashfiyotga qo‘l urdi? Nega ota-onasiz yaratilgan ikszurriyotlarning ko‘ziga bir marta bo‘lsa ham, boqishni, ularning qalbida kechayotgan tuyg‘ularni ularning ko‘zlari orqali ilg‘ashni xohlaydi? Birinchi ixtirosining tazarrusi sifatida Yerni badbin kimsalardan tozalamoq istadimi? Yozuvchining o‘zi ham aynan qahramoni bilan birga og‘riqli savollarga javob istaydi: «*Bizning jismimizga – genlarimizga yo‘qotib bo‘lmaydigan yovuzliklar urug‘ini ekadigan o‘sha battollar kimlar o‘zi? Qayerdan kelgan? Ularning o‘zlari kimlardan chiqqan? Javobsiz savol. . . »* [Aytmatov Ch. , 2016, B. 43.] Sarhadsiz koinotda turib, amalga oshirgan ixtirosi Yerning turli tomonlaridagi xalqlar tomonidan qat’iyan rad etiladi. Yerda uni qanday

qismat qarshi olishini yaxshi bilgan qahramon fazoda qo‘nim topadi. Har narsaning bahosi o‘zgacha. U o‘z bahosini kosmosda hisob-kitob qildi. Nahotki, u kosmosda ham o‘zining chaqaloqligida bolalar uyining eshigi tomon olib ketayotgan onasining qor ustida bosgan oyoq tovushining g‘ichirlashlarini eshitayotgan bo‘lsa? Nahotki, u kosmosda ham o‘zini oxirgi marta ko‘kragiga bosib ko‘tarib borayotgan onasi yuragining dukillab urayotganini eshitayotgan bo‘lsa?. . [Aytmatov Ch. , 2016, B. 346.] Entoni Yungerning shunday mulohazalari bilan yakunlanadi. Muallif qahramonining koinotga ketish sabablarini Entoni Yungerga yo‘llagan “*Sen bilan va sendan keyin ko‘rgan kechirganlarim*” sarlavhali tazarrusida aniq ifoda qilgan: *“ osmoni falakka ketib qolishimni tushuntirish qiyin – bu o‘zlikka chekinish, kosmos orqali o‘zlikka chekinishdir. Buni ruhiyatning kosmos bilan uyg‘unlashib ketishi desa bo‘lar edi, biroq bu o‘ta balandparvoz tuyulishi mumkin. Lekin kosmosda bo‘lishim butun hayotimning mantiqiy yakuni, taraqqiyotimning eng oliy va so‘nggi nuqtasi bo‘ldi ”* [Aytmatov Ch. , 2016, B. 279.]. Asarda megaxronotop makro va mikroxronotop uzviyligida teranlashadi. «Tavro kassandri», («Iz yeresey XX veka») (1994) romani o‘zbek tiliga Suyun Qorayev tomonidan «Kassandra tamg‘asi» hamda «Oxirzamon nishonalari» tarzida tarjima qilingan. Asar uchun tanlangan sarlavhalar bir-birini to‘ldiradi, ya’ni peshonasida qizil dog‘, ya’ni kassandra tamg‘asi paydo bo‘lgan ayolning homilasi dunyoga kelgach, insoniyatni halokat yoqasiga, oxirzamonga yetaklaydi.

https://www. insamer. com/tr/ozbekistanda-resmi-dil-tartismalari-ve-rusya-faktoru_3494. html

ADABIY TA'LIMDA SCAFFOLDING METODI ORQALI YONDASHUV

Marjona TOSHPULATOVA

Mazkur maqolada ta’limning maktab bosqichida, mumtoz adabiyot namunalarini zamonaviy metodlar asosida o‘rganish haqida so‘z yuritiladi. Xususan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda “Scaffolding” metodi orqali yondashuvning afzalliklari, imkoniyatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar bildiriladi. O‘quvchilarning darajasi va ehtiyojlarini tushungan holda o‘quv-topshiriqlar ishlab chiqish masalalari yoritiladi. Shoir ijodini o‘qitishda o‘quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlarini yanada rivojlantirish maqsadida, bir qancha o‘qitish usullari tavsiya qilingan. Bugungi kunda Alisher Navoiy ijodini o‘qitishda akademik yo‘nalish hamda shoir asarlaridagi g‘oyalarni hozirgi turmush tarziga bog‘lab, hayotiy misollar bilan asoslab tushuntirish juda muhim. Mutafakkir asarlarida umumbashariy dolzarb muammolarga to‘xtalgan. Oradan besh asr o‘tibdiki, uning olam va odam haqidagi qarashlari o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadal rivojlanayotgan dunyoda shoir asarlarini o‘qitish yangi usullarni talab qiladi. Shuning uchun noan’anaviy metodlar, multimedia vositalaridan foydalanish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Hozirgi glaballashuv zamonida inson ma’naviy kamoloti masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni yechishda Navoiyning “Xamsa” dostonlarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish dostonlar mavzusi va mohiyatini to‘g‘ri anglash zarur. “Xamsa”ni o‘rganish, o‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur olami, umuminsoniy sifatlari va ma’naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Kalit so’zlar

metod, tahlil, ko‘nikma, iskala, topshiriq, mahorat, imkoniyat, multimedia, noan’anaviy, akademik, dolzarb, umumbashariy, “Farhod va Shirin”, mumtoz, meta-kognitiv, “Zinama-zina”, miniatura, konsepsiya

SCAFFOLDING APPROACH TO LITERARY EDUCATION

Abstract

This article is about studying classical literature samples at the school stage of education based on modern methods. In particular, in the study of Alisher Navoi's epic "Farhad and Shirin", opinions are expressed about the advantages and possibilities of the approach through the "Scaffolding" method. Understanding the level and needs of students, the issues of developing educational tasks will be covered. In order to further develop the possibilities and interests of students in teaching the poet's work, several teaching methods have been recommended. Today, it is very important to teach the works of Alisher Navoi in an academic direction and to explain the ideas of the poet's works by connecting them to the current lifestyle and justifying them with real life examples. In the works of the thinker, he touched on the current problems of the whole world. Five centuries have passed, and his views on the world and man have not lost their relevance. In the rapidly developing world, teaching the poet's works requires new methods. Therefore, we think that it is appropriate to use non-traditional methods and multimedia tools. In the current era of globalization, the issue of human spiritual maturity is of great importance. In order to solve this problem, it is necessary to correctly understand the essence of the theme and idea of promoting the universal ideals of Navoi's "Khamsa" epics. There is no doubt that learning "Khamsa" serves to form the student's outlook, world of imagination, universal human qualities and spiritual maturity.

Keywords

method, analysis, skill, scaffolding, task, skill, opportunity, multimedia, non-traditional, academic, current, universal, "Farhod and Shirin", classic, meta-cognitive, "Zinama-zina" , miniature, concept.

Kirish

Shoir ijodi bugungi kungacha keng qamrovda o‘rganilgan. Adabiyot darslarida “Xamsa” asarini o‘rganish jarayonida shunchaki syujetni so‘zlash yoki ijodkorning hayoti va ijodi bilan bog‘liq raqamlargagina to‘xtalish, asar qahramonlari(Farhod) ijobiy (Xusrav, Sheruya) salbiyga ajratish bilanNavoiy ijodini o‘rganib bo‘lmaydi.

Birinchidan, Navoiy so‘z san’ati tasvir vositalariga xos xususiyat shoir ijodida badiiy san’atlarningqo‘llanilish sfetsifikasig‘azallaridagi bir so‘zningbir qancha ma’nolarda aks etganligi: ikkinchidan, Navoiy lirikasi aruz bilan bilan bog‘langanligi, aruz nazariyasidan faqat tor doiradagi

mutaxassislargina yetarli bilimga ega bo‘lib, maktab o‘quvchilarida bu masala qator qiyinchiliklarni tug‘dirayotganligi: uchinchidan Navoiy yashagan davrda eski o‘zbek adabiy tilida ko‘plab forsiy va arabiy so‘zlarning mavjudligi va bu adib asrlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunilishida ko‘plab qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi bilan izohlanadi. (Til va adabiyot jurnali. 2020:4)Aslida esa belgilangan soatda mavzuni o‘rganish uchun adabiyot o‘qituvchisi, shoirning ichki olami, hayotda qanday shaxs bo‘lganligi, olam va odam munosabatlarini talqin etishi, nega aynan uning ijodi zamon va makon tanlamasligi, voqealarni bayon etish san’ati, so‘z qo‘llash mahorati, asarlari o‘quvchini ezgulikka yetaklashi kabilarni san’at darajasida o‘quvchiga yetkazishni maqsad qilsa, ko‘zlagan natijaga erishishi va o‘quv rejada ajratilgan soatni qamrab olishi mumkin. Metod eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli ma’lum tarzdatartibga solingan faoliyat. (N. Sayfullayeva, T. 2019)

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiasosiy bo‘g‘inni tashkil etadi. O‘quvchining qobiliyatlarini, qiziqishlarini ro‘yobga chiqarish, mumtoz adabiyot borasidagi bilim va ko‘nikmalarni egallash, hayoti davomida maqsadli foydalanish ustuvor vazifa. Bugungi kunda sir emaski, o‘quchilar adabiyotdan bir qadar uzoqlashishgan. Mumtoz asarlar tugul, zamonaviy asarlarni ham o‘qishga u qadar qiziqishmaydi. O‘qituvchi imkon qadar o‘quvchilarnifanga qiziqtirishga urinadi.

Metodologiya

Adabiyot orqali o‘quvchigaiqtisod, siyosat, tarix, falsafa, aniq fanlarni ham o‘rgatish mumkin. Jamiyatda sodir bo‘layorgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o‘z munosabatini to‘la-to‘kis bildira oladigan avlodni tarbiyalash muhim. M. A. Rubnikovaning yozishicha, metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi. Biz zamonaviy metodlardan foydalanib adabiyot darslarini tashkillashtirsak, o‘z maqsadimiz sari tezroq odimlashimiz mumkin. L. V. Shcherbanning fikriga ko‘ra, har qanday fanni o‘qitish metodikasi fan bo‘lishiga qaramasdan nazariy fan bo‘lmasligi kerak. Mumtoz adabiyotni maktabda o‘qitishdaasosan darsda o‘qituvchi hukmron bo‘ladi. Bugungi kun ta’lim talabi dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchininghamkorligini taqozo etmoqda. Lekin mumtoz matnlardagi so‘zlarning ma’nosi va talaffuzi o‘quvchiga noqulaylik keltirib chiqaradi. Shu kabi muammolar natijasi o‘laroq aksariyat hollarda o‘qituvchining o‘zi matnnio‘qiydi va tahlil qiladi. Darslar ma’ruza kabi taassurot qoldiradi. O‘quvchining diqqati 15 daqiqani tashkil qiladi. Undan keyingijarayon o‘quvchining xotirasida saqlanmaydi. Tabiiyki, 15 daqiqa misralarni ma’ruza shaklidatahlil qilishga yetmaydi. Shuning uchun mumtoz matnlarni tahlil qilishda o‘quvchining o‘zi amaliy faoliyatga

kirishgani afzal o‘qituvchi yordam beradi va yo‘l –yo‘riq ko‘rsatadi. Biz ushbu maqolada mumtoz matnlarni o‘quvchilarga o‘qitishda “Scaffolding” metodi orqali yondashishning ba’zi masalalarini ko‘rib chiqamiz.

Scaffolding nazariyasi birinchi marta1950 - yillarning oxirida kognitiv-psixolog Jerom Brunu tomonidan kiritilgan. “Scaffolding“ so‘zi inglizchadan olingan bo‘lib, qurilishlarda devor yoniga yog‘och yoki metalldan qavat - qavat qilib ishlangan, “narvon”, “iskala” degan ma’noni bildiradi. Gibbonisning (2002) ta’kidlashicha “iskala” - binoni qurish yoki, ta’mirlash vaqtida o‘rnatiladigan vaqtinchalik inshootdir. (P. Gibbons, 2015) Ushbu atama birinchi marta Lev Vegotskiy tomonidan o‘qitish strategiyasi sifatida ishlab chiqilgan. (K. Diniyati) “Scaffolding” o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ishlashga qaratilgan metod. Ushbu metod uchta asosiy funksiyaga ega. 1.O ‘ quvchiga kerakli bilim va ko ‘nikmalarni berish. 2. O ‘quvchilarni bilimini o‘zlashtirish jarayonida vaqtinchalik yordam berish. 3. Ularning makro va mikro ko‘nikmalarini aniqlash. O‘qishdan oldingi topshiriqlar o‘quvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlash. Asarda tasvirlangan voqealar, muhit haqida tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Amerikalik psixolog va kognitivist olimlar Devid Rumelhart va Donald Norman ilgari surgan sxemalar nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi yangi ma’lumotlarni qabul qilayotganda ularni o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan solishtiradi.

Modellashtirish. O‘qituvchi o‘quvchilarga nima qilish kerakligini va berilgan topshiriqlarni qanday bajarish kerakligini bilish va tushunish imkoniyatini beradi. O‘qituvchi batafsil tushuntirish berish yoki o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undash uchun bir qancha savol va topshiriqlar berishi mumkin. Biz “Farhod va Shirin” dostonini , maktabda “Scaffolding” metodini qo‘llab qanday o‘zlashtirish mumkinligi haqida fikr-mulohazalarimizni o‘rtoqlashamiz. Meta-kognitiv qarashlar o‘qish va o‘qilgan matnni tushunishninginteraktivligi tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchi (uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, bilimlari, o‘qiyotgan paytdagi imotsional holati, kontekst, vaziyat) va matn(tovushlar ohangi, alohidaolingan so‘zlar ma’nosi, matnning sintaktik va semantik qurilishi) mutolaa jarayonida bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladi va o‘quvchi matn ustida ishlash jarayonidama’noni o‘zi yaratadi. (Fisher D. & Frey, N. 2008.)

Adabiyotlar sharhi

Alohida olingan so‘zlarni tushunishhamda matnning kengroq kontekstini tushunish matnni tushunishnin gasosidir, ya’ni o‘quvchi matnda ishlatilgan so‘zlarni tushungani bilan kontekstni tushunmasa , ya’ni matnda so‘z ketgan hodisa yoki voqelik haqida yetarli bilimi bo‘lmasa, ma’no chiqara olmaydi. (Biswas. Bangladesh. 2015) O‘qituvchi o‘quvchigamisralarni tushunishga yordam berish uchun o‘quvchining bilimi va hayotiy tajribasiga tayanadi. O‘quvchining hayotiy tajribasidan tashqarida tashkillashtirilgan ta’lim vaqtni bekor o‘tkazish(N. Sayfullayeva, 2019) kutilgan natija bermaydi. O‘quvchilarning adabiyot fanidan uzoqlashib ketgishanining asosiy sababi ham shunda. Umumiyo‘rta ta’lim o‘quvchilarining fanlarga bo‘lgan munosabatini tasdiqlovchi so‘rovnomalarda ular adabiyot fanidan ko‘ra ingliz tili, mehnat, jismoniy tarbiya, matematika yoki psixologiya fanlariga qiziqishi va mazkur fanlardan berilgan uy vazifalarini ishtiyoq bilan bajarishlari aks etgan edi. Sababi, yuqorida qayd etilgan fanlarda o‘rganuvchilarning kundalik hayotdagi amaliy tajribalari ma’lum ma’noda aks etadi. Misra mazmunini yoritishga xizmat qiladigan usullardan foydalanish. Masalan ma’lum bir misra tanlanadi shu asosida rasm chizish topshiriladi. O‘quvchilarning ham imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Butun sinf oldida so‘zlashni yoqtirmaydigan , rasm chizishga iqtidori bor o‘quvchilar o‘z tushunchalarini biror bir baytdagi voqea-hodisani mo‘yqalamda tasvirlashi mumkin. Ushbu misradan kelib chiqadigan ma’noni bugungi jamiyatimizga qo‘llab ko‘ring. Bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshilsa, qanchalik to‘g‘ri? 1. Sizningcha, Xaloyiq har ne qilsa tergamak yo‘q bo‘lsa, qanday bo‘ladi?2. Kim nima ish qilsa yomon ish qilding deyishlik yo‘q bo‘lsa, nima bo‘ladi? 3. Tasavvur qiling, siz xoqonning o‘rnidasiz, xalq uchun qanday islohotlarni amalga oshirganbo‘lardingiz?Har bir baytning tahlili quyidagi tartibda amalga oshirilsa, kutilgan pedagogik natijani beradi: 1) tushunilishi qiyin so‘zlar ma’nosi aniqlab olinadi; 2) o‘quvchilar baytda izofali birikma bor-yo‘qligini aniqlaydilar, agar bo‘lsa ularni izofadan chiqaradilar; 3)o‘quvchilar bayt yoki misralarni odatdagi bayt gap bo‘laklari tartibiga keltirib, matn ma’nosi talabiga ko‘ra, matnni to‘ldiruvchi qo‘shimcha so‘zlarni qo‘yib oladilar; 4)baytda shoir bildirayotgan fikrlarni o‘z so‘zlari bilan tushuntirib beradilar. (V. Qodirov, 2009.)Baytdagi tushunilishi qiyin so‘zladan “mururi” – o‘tish, yurish ma’nolarini anglatadi. Gap bo‘laklarini adatdagi tartibga keltiramiz:

“ Uning Yoshi atigi o‘n yoshga borgan bo‘lsa ham, gavdasi, qaddi-qomati, kuch-quvvati yigirma yosh yigitlarnikiday edi. Misralardagi notanish so‘zlar “ ulum” – ilmlar, “avroqi” – varaqlar, “silohi” – qurol yarog‘ ma’nosini anglatadi. “ “ Uning uchun bilimkitoblari bir-bir

yopilgach, u endi jangavorlikyaroqlarini egallashga mayl qildi. Bayt yanada o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun misra mazmuni haqidaquyidagicha qo‘shimcha ma’lumot berish mumkin. Ya’ni bunda Farhod ilm-fanni egallab, endi jangavorlik jang san’ati sir asrorlarini o‘rganishga mayl bildirgani aytilgan. Maktabda adabiyot darslarida bir soatlik dars mashg‘uloti jarayonida o‘rganilayotgan badiiy asar yordamida o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularga yangi bilim berish, fikrlash doirasini rivojlantirish yetakchi maqsad hisoblanadi. Buning uchun o‘quvchi adabiyot darslarida tahlilga tortilgan asarlar qahramonlarining xatti-harakatlariga o‘z munosabatini bildirar ekan, o‘z fikrlarini yozma tarzda ham ifodalashi kerak. Yozma tahlilda o‘quvchi aqliga, qalbiga tayanib erkin fikrlaydi, qahramonlar bilan xayolan suhbatlashadi. Mashg‘ulotning dastlabki soatlarida o‘quvchilar shoir yaratgan qahramonlar bilan ijodkor fe’l-atvori, dunyoqarashi, maqsadi orasida ma’lum bir bog‘liqlik bor ekanligini his qilishlari kerak. Xamsanavislik an’anasi haqida tushuncha berishda Navoiy “Xamsa”sida keltirilgan Nizomiy, Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylar haqidagi baytlarni tahlilga tortish ma’qul. Shunda o‘quvchilar “Xamsa” yaratish mushkul ish ekanligini, ijodkordan mashaqqatli mehnat, sabr-toqat, fikriy zalvor talab etishini anglab yetadilar. Kotibi Turshiziy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy kabi ijodkorlar to‘lig‘icha “Xamsa” yaratishmagan. Darslikdan tashqari bu kabi ma’lumotlarning berilishi o‘quvchini Alisher Navoiy shaxsining ulug‘vorligini his etishga undaydi. O‘quv rejada dostondan berilgan parchani o‘qib o‘rganishga o‘n soat ajratilgan. O‘quvchi matn bilan tanishar ekan, uni idrok etishni, shoirning so‘z qo‘llash mahorati orqali, badiiy ta’sirchanlikka erishganligini tushunsagina ijodkorning asar yozishdan maqsadi, g‘oyasi nima ekanligini anglab yetadi. Baytlarda uchraydigan notanish so‘zlar izohi darslikda berilgan. Lekin bu so‘zlar matn zamiridagi ma’noni ochib berish uchun yetarli emas, albatta. Shu jarayonda o‘qituvchi ham ancha mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi. Asar zamirida mutafakkirning tasavvufiy qarashlari ham o‘z aksini topgan.

“Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlardan farqli o‘laroq “Farhod va Shirin”da voqealar rivojida o‘zaro chambarchas bog‘liqlik kuzatiladi. Darslikda doston boblarini bir-biriga bog‘lash maqsadida mualliflar tomonidan nasriy bayon keltirilgan. Sir emaski, bugungi kun o‘quvchisi uyga berilgan topshiriqni vaqtida bajarmaydi. Asardan yod olinishi kerak bo‘lgan parchalarni yod olmaydi, hisob. Buning uchun dars mashg‘ulotlarida asarning asosiy mohiyati aks etgan baytlarni tahlilga tortish samara beradi. Darslikda Farhodning dunyoga kelishi, xoqonning xursandchiligi bilan bog‘liq baytlar berilgan. Shu baytlardan asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan ikki yoki uch bayt tanlanadi va o‘quvchilar bilan

birga tahlil qilinadi. O‘quvchilarga bayt mazmuni tushuntirilgach, ulardan dars davomida shu baytlarni yoddan aytib berish talab etiladi. Tajribadan ma’lumki, bu o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bayt mazmunini tushungan o‘quvchi uni tez yod oladi. Dostonni o‘qib o‘rganish uchun o‘n soat vaqt ajratilgan. Shu vaqt oralig‘ida asardan ancha baytni yodlash mumkin.

Asar tahliliga qaratilgan topshiriqlar tuzishda matnning murakkablik darajasi, hajmi, o‘quvchining yosh xususiyati, bilimi, dostonni o‘qitish bo‘yicha ajratilgan o‘quv soati inobatga olinadi. Darsning dastlabki mashg‘ulotlarida shoirning hayoti va ijodi bilan bog‘liq mavzuni o‘rganishda iqtidorli o‘quvchi bilan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchini bir guruhga birlashtirib maxsus topshiriqlarni berish mumkin. Bilish, rivojlanish nazariyasining asoschisi Jan Piaji va uning tarafdorlarining fikricha, bolalar faqat o‘zlari kashf qilgan narsalar to‘g‘risida haqiqiy tushunchaga ega bo‘ladilar. Biz tez-tez o‘rgatishga harakat qilganimizda, ularni narsalarni qayta kashf qilishdan to‘xtatamiz. (Peaje. Z. 1923) Bunday topshiriqlar sirasiga taqdimot tayyorlash, shoirning hayoti bilan bog‘liq xalq orasida paydo bo‘lgan rivoyatlarni o‘rganish, internet ma’lumotlari asosida mustaqil ish yozish, shoir haqida zamondoshlarining asarlarida bildirilgan fikrlarni tahlil qilish, ijodkorning yaratgan obrazlari orqali uning o‘zini kashf qilish kabi bo‘lishi mumkin. Albatta, bu topshiriqlarni bajarishda o‘qituvchi ularni yo‘naltirib turadi. Topshiriqni yaxshi bajarishlari uchun kerakli manbalar bilan ta’minlaydi. O‘quvchini fanga qiziqtirish, izlanuvchanlikka o‘rgatish shunday amalga oshiriladi. Badiiy obraz tahliliga analitik yondashuv o‘quvchilarning asarning yangicha kashf qilinishiga olib keladi. Asarning ich-ichiga kirib borish unga turli yechimlar izlab topish, o‘rinli qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Tahlilning bu yo‘nalishi o‘quvchini mustaqil fikrlashga, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga teran nigoh tashlashga o‘rgatadi. Dostonda ota va o‘g‘il ruhiy kechinmalarining badiiy talqiniga analitik yondashamiz. Asardagi asosiy voqealar Chin xoqonining farzandsizligi bilan boshlanadi. Uning mulki Eron shohi davlatidan yuz ming marta ko‘p. Ammo unga falak farzand ato etmagan. Uning ko‘rgan barcha azoblari farzandsizlikdan. Nihoyat xoqonning yagona muddaosi farzand edi. Duosi ijobat bo‘ldi. Xoqonning muddaosi farzandli bo‘lish. U Ollohdan iltijo qilib merosxo‘rso‘raydi. Nihoyat duolari ijobat bo‘lib, farzandli bo‘ladi. Tun kabi bo‘lganhayoti Farhod tug‘ilishi bilanyorishadi. Shu o‘rinda o‘quvchini xoqonning ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni yaqqol gavdalantirishda mulohazaga undaydigan savollar bilan murojaat qilish mumkin. Xoqonning ham hayoti shabiston (tun) kabi bo‘lishi mumkinmi? Axir uning imkoniyatlari ko‘p bo‘lsa, butun mamlakat oyog‘i ostida yastanib turadi-ku? Bunday savollar o‘quvchini o‘ylashga, hayot

haqida mushohada yuritishga majbur qiladi. Azal taqdir qoshida shoh ham gado ham barobar ekanligini tushuna boradi. Davron xoqonning qo‘liga shunday uzuk taqdiki, bu uzukning ko‘zidan otashin la’l parchasi yonib turgandek edi. Nigin deyilganda, Farhod nazarda tutilgan. Ko‘zida otashin la’l parchasining yonib turishi uning ishq bilan tug‘ilganiga ishora. Farzandli bo‘lganidan sevinchga to‘lgan xoqon o‘g‘liga chiroyli ism qo‘yadi. Farzandining kamoloti uchun neki yaxshi bo‘lsa barchasini bajaradi. Farhod tengdoshlariga nisbatan aqlda tengsiz, favqulodda iste’dod sohibi edi. Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug‘ma ishq ta’sirida doimo g‘amgin alam dard bilan ko‘milgan edi. Xoqon o‘g‘lidan g‘amginlikni ketkazmak niyatida to‘rt qasr qurdiradi va o‘g‘lidan taxtga o‘tirishini so‘raydi. Farhod odob tavoze bilan taxtni rad etadi.

Natijalar

Asarda ota-o‘g‘ilning o‘zaro suhbati keltirilgan baytlarni ko‘zdan kechirilsa ularning mulohazalari teran. Bir so‘zni so‘zlashdan oldin obdon o‘ylab keyin mushohada yurituvchi Farhodda bir qancha ezgu fazilatlar mujassam ekanligini ko‘rish mumkin. Tahlil davomida ota-o‘g‘il munosabatlarida o‘zaro hurmat, andisha ustuvorligiga, ota o‘g‘ilga, o‘g‘il otaga munosib pokiza, iymon e’tiqodli inson ekaniga e’tibor qaratiladi. Farhod suratining yorqin chizgilari – suhbat davomida o‘zini tuta bilishi, hozirjavobligi, ilm-u donishda tengsizligida ko‘rinadi. Xoqon o‘g‘lining ruhiy holatini tushunadigan, suhbatini tinglaydigan, farzandining orzu-istaklarini hurmat qiladigan ota timsoli. Farhod tilsimni yechish uchun Yunonistonga safar qilishga xoqondan ruxsat so‘raydi. Shunda ota o‘g‘liga rozilik berib, u bilan birga borishga qaror qiladi. Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi aktual masalalar yechimini Navoiy shu o‘rinda berib o‘tadi. Ya’ni farzand bilan munosabatlarda otalarga mulohazakor bo‘lishni, farzandning fe’l-atvorini, uning ruhiy holatini hisobga olgan holda suhbatlashish kerakligini xoqon misolida ko‘rsatgan. Darslikda ota va o‘g‘il o‘rtasidagi suhbat to‘laligicha kiritilmagan. O‘qituvchi aynan dostonning shu o‘rnidan tahlil uchunparcha tayyorlashi zarur bo‘ladi. Tayyorlangan parcha o‘quvchilarga suhbat odobi uchun saboq bo‘lishi kerak. Dars davomida o‘quvchi ota-onani qanday hurmat qilishni tushunishi, ota bilan so‘zlashganda o‘ylab gapirish, sharqona odob qoidalariga rioya etish kerakligini anglaydi. Dostonning aynan shu o‘rinlarini tahlilga tortish o‘quvchiga pand-nasihat qilgan bilan barobar bo‘ladi. Bola o‘ziga kerakli xulosani chiqaradi. O‘z-o‘zidan uydagi kattalar bilan munosabatini taftish qila boshlaydi. Badiiy obraz tahliliga analitik yondashuv ko‘proq yuqori sinflarga qo‘l keladi. Chunki 16-17 yosh oralig‘idagi o‘quvchi yon-atrofda bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatini harchand bildirishga harakat qiladi. O‘zligini anglagan mustaqil nazarga ega bo‘lgan odam o‘z taqdirini

boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo‘l qo‘ymaydi. (Q. Xusanboyeva, R. Neyozmetova. T. 2020, 46.)

O‘quv rejada dostontahliliga uch soat ajratilgan. Shuning bir soatida miniatyura san’atidan foydalanish darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishda qo‘l keladi. “Farhod va Shirin” dostoni asosida ishlangan miniatyuralar o‘quvchilarga taqdim qilinadi. O‘quvchilar miniatyuralarni izohlashga kirishadilar. O‘qituvchining yordami zarur bo‘ladi. Chunki miniatyuralarda ifodalangan qahramonlarning liboslari, undagi ranglar, tana a’zolarining tasvirlanishi bilan bog‘liq ramzlar borki, o‘quvchi uchun tushunarsiz. Miniatyura botinida shunday murakkab mazmun yashirinki, uni chuqur tushunish uchun maxsus tayyorgarlik kerak bo‘ladi. Ranglar bilan bog‘liq ramziy tushunchalar haqida maktab darsliklarida nazariy ma’lumotlar kiritilishi kerak. O‘zbek she’riyatida ham ranglar bilan bog‘liq ramziy obrazlardan keng foydalaniladi. Mumtoz lirika, loroepik dostonlarni o‘qitishda, ranglar bilan bog‘liq ramziy obrazlarga ham duch kelinadi. Aftondil Erkinovning yozishicha, “Farhod va Shirin”, “Zoli makkora Farhodga Shirinning o‘limi haqida xabar bermoqda” miniatyurasi (. МадраимовН. Норматов, 1939.) yuqorisida quyidagi ikki bayt berilgan. Bu Farhodning so‘zlari bo‘lib, dostonning 48-bob nihoyasida berilgan. Unda Farhod va yolg‘on xabar olib kelgan kampir tog‘-u tosh fonida tasvirlangan. Farhod egnidagi ko‘k ranglikiyim komil inson timsoli, jigarrang riyozat bosqichini o‘taganligiga ishora, dastor-mutafakkir (tafakkur qiluvchi shaxs), qizil qalpoq-bahri rahmat (inson tafakkurining ezgulik manbai ekanligi)ni anglatadi. Ko‘zining kichikligi yoki qisiqligi esa bu dunyo ishlariga boqmaslik, qo‘lning ochiqligi bu dunyo moli –moddiyatiga beparvoligiga ishoradir. Belidagi kamar o‘z maqsadiga yetishish yo‘lidagi sobitligi va himmat balandligini anglatadi. O‘quvchilarga ham aynan shunday topshiriq beriladi. Miniaturalar ko‘rgazma sifatida tarqatiladi . O‘quvchi miniatyurada aks etgan tasvirga mos baytlarni topishi kerak bo‘ladi. Ko‘z o‘ngida asar voqealari bo‘lgan davr yaqqol namoyon bo‘ladi. Asar yuzasidan tasavvuri kengayadi. O‘tmishdagi insonlar hayoti, insoniyat uchun hamisha qiziqarli bo‘lgan. Tabiatning rang-barang tasviri o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi. Qahramon ruhiyatini ochib berishda, tushunishda yordam beradi. Miniaturadagi tasvirlar, o‘ziga xos uslub, bejirim naqshlar, qahramonlarning liboslari, bir-birini takrorlamaydigan nafis taqinchoqlar o‘quvchigaqiziqarli va sirlidek tuyula boshlaydi.

Xulosa

Darslikda komil inson haqida nazariy ma’lumot berilgan. Ushbu tushunchani Farhodning Yunonistonga safar qilishida mashaqqatli to‘rt manzilni bosib o‘tish jarayoni voqealarini tahlil qilish

davomidao‘quvchiga tushuntirish mumkin. Dars mashg‘ulotlarida nafs tizginini bo‘sh qo‘yib yuborish, hayotni izdan chiqishiga olib kelishi mumkinligi hayotiy misollar, mashhur videofilmlarda aks etgan kadrlar misolida suhbat, bahs-munozaralar tashkil qilinib, tushuntirilsa bo‘ladi. Farhodning ikkinchi manzilda ahraman devni yengishi, katta xazinani (garchand uni qiziqtirmasa ham) qo‘lga kiritishi, undan so‘ng qulfli uy, yop-yorug‘ xona qalbning yomonliklardan, qabohatdan tozalanishidir. Ezguliklarga qodir qalbgina jamiyatdagi kishilarga yaxshilik urug‘ini socha oladi. Shunday ekan, qalbni chang-g‘uborlardan asrash, qabohatdan hamisha yiroq yurish zarurligi o‘quvchiga singdiriladi. Qalbni g‘ubordan tozalash siz uchun nima? Yon-atrofingizda bo‘lgan yomon xotiralarni (shunday xotira bo‘lsa) qalbingizdan chiqara olasizmi? kabi savollar bilan yondashish o‘rinli. Deylik, do‘stlar xiyonat qildi. Ularga nisbatan qalbda kek saqlash, g‘azabga to‘ldirish insonni yemirishi alal oqibat bag‘ritoshga aylanib qolishi ayni haqiqat ekanligi turli didaktik, psixologik o‘yinlar o‘tkazish orqali uqtiriladi. Jom orqali Suqrotning yashab turgan manziliga boriladi. Suqrot barcha ilm sirlaridan xabardor piri komil timsoli. Najmiddin Komilovning yozishicha, usiz Farhodning o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. O‘quvchi uchun piri komil, birinchi ustoz kim? Albatta ota-ona. Qarorlar qabul qilishda, yuksak orzular, oliy maqsadlarni ko‘zlab, biror-biryumushga qo‘l urishda, to‘g‘ri yo‘lni ota-ona ko‘rsatadi. Aql bilan ish yuritishda hamisha rahnamo bo‘lishadi. O‘tish davrida o‘smirlar fe’l-atvorida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bugungi kunda ota-ona va farzandlar o‘rtasida kelishmovchiliklartez-tez uchrayotganligi sir emas. Shunday vaziyatlarda o‘quvchiga o‘zini munosib tutish uqtiriladi. Darsning tarbiyaviy ahamiyati amalga oshiriladi. Farhod to‘siqlarni yengib o‘tib nafsni, qalbni, ruhni tozalaydi. Chinga qaytib oynadan Shirinni ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘quvchiga muhabbat buyuk tuyg‘u, unga munosib bo‘lishga inson ruhan tayyor bo‘lishi kerakligi Farhod obrazi orqali tahlilga tortiladi. Komil inson haqida nazariy tushuncha berishda timsol-u ramzlarni shunday izohlab tushuntirish maqsadli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Mirzayeva Z. Shekspr dan Navoiygacha mutafakkir ijodiga yangicha yondashuv. Til va adabiyot jurnali. 2020:14.

https://tilvaadabiyot. uz.

N. Sayfullayeva Ta’lim metodlari va vositalari. 2019. . http://universal publishings. com

P. Gibbons, “Scaffolding language, sgaffolding learning. 2015 https://www.researchgate.net/publication/327231928 improving _ Students’_Speaking_Ability_through_Scaffolding_Technique.

Diniyati K. Yennining “Muloqot ko ‘nikmalarini o ‘qitishda “scaffolding” usulidan foydalanish” maqolasidan olingan. https://images. app. goo. gl. researchgate. net

Fisher, D. & Frey, N. 2008. Better Learning through Structured Teaching. 2008.

Biswas, Impact of classroom interaction on English language learning and teaching in secondary level of 8. Bangladesh. 2015. https://www. researchgate.net/publication/327231928-
_ improving_Students’_Speaking_Ability_through_Scaffolding_Technique. #fullTextFileContent

N.Sayfullayeva, “Ta’lim metodlari va vositalari” 2019. http://universalpublishings.com

Шарқ миниатюра мактаблари. Мақолалар тўплами. Тўпловчи А. МадраимовН. Норматов. 1939. https://interonconf. org.

Q. Xusanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T. :Innovatsiya - ziyo. 2020. –B. 46. hhtps:e - librariy. namdu. uz.

EXTENDED ABSTRACT

Maktabda mumtoz adabiyotni o‘qitsihda ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar ko‘zlanadi. “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganish uchuno‘quv rejada 10 soat vaqt ajratilgan bo‘lsada, o‘qituvchilarning aksariyati besh yoki to‘rt soatda mashg‘ulotlarni yakunlab qo‘yayotgani ma’lum. Sababi Navoiy asarlari tili bilan hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘rtasida tafovut ancha katta. Shuning uchun o‘quvchining tushinishi qiyin jarayon. Biz bu o‘rinda scaffolding metodidan foydalanishni o‘rinli deb o‘ylaymiz. Bu metodni qo‘llash davomida o‘qituvchi o‘quvchigamatnnitushunishga yordam beradigan strategiyalarni o‘rgatishi kerak. Bu strategiyalar matn turiga bog‘liq bo‘ladi. Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilishi jarayonida o‘quvchilar odam va olam sirlarini o‘rganadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir oqibat navqiron fuqaro o‘zligini anglay boshlaydi. Bunday topshiriqlar sirasiga taqdimot tayyorlash, shoirning hayoti bilan bog‘liq xalq orasida paydo bo‘lgan rivoyatlarni o‘rganish, internet ma’lumotlari asosida mustaqil ish yozish, shoir haqida zamondoshlarining asarlarida bildirilgan fikrlarni tahlil qilish,

ijodkorning yaratgan obrazlari orqali uning o‘zini kashf qilish bo‘lishi mumkin. Topshiriqlarni yaxshi bajarishlari uchun kerakli manbalar bilan ta’minlaydi. Shoir ijodini o‘rganishda, uning asarlariga ishlangan miniatyura va badiiy matn o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tadqiq qilinishi hamda ta’lim bosqichlarida mumtoz adabiyot o‘qitishda joriy qilinishi zarurat. Navoiy portretlari yoki uning kitobat san’atiga munosabati masalalari birmuncha o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin asarlariga ishlangan miniatyuralarning matn talqini, xususan, “Xamsa” syujetlari talqinidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilmagan. Navoiyni tushunish, o‘qitish pedagoglar uchun muammoli masala. Topshiriqlarni yaxshi bajarishlari uchun kerakli manbalar bilan ta’minlaydi. Shoir ijodini o‘rganishda, uning asarlariga ishlangan miniatyuralardan foydalanish muammoli masalaning yechimi bo‘lishi mumkin. O‘quvchi katta hayotga qadam qo‘yar ekan, endi uning hayoti, bolaligidagidek beg‘ubor, tashvishsiz o‘tmasligi; turmush tirikchilik vajidan, noxush vaziyatlarga duch kelinganda o‘zni dadil tutish, o‘qni nishonga to‘g‘ri olgan Farhod misolida analiz qilinadi.

MASHINA TARJIMASI TURLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Adilbek Yusupbayevich Dauletov

Globallashish jarayonining jadallashuvi insonlar orasida til, zamon va makon tushunchalarini anchagina o'zgartirdi va insonlarning o'zaro muloqoti va ma'lumot almashishi uchun imkoniyatlar sarhadi kengaydi. Ammo ayrim insonlarda hali hanuz tillarni tushinishda va ma'lumotlarni o'zlashtirishda ayrim to'siqlar mavjud bo'lib, bu to'siqlarini bartaraf etish uchun eng katta ko'makchi bo'lgan texnik vosita bu mashina tarjimasi vositasi bo'lib u tabiiy tilni qayta ishlashning ko'plab sohalari orasida samarali natijalar ko'rsatgan elektron vosita hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti jarayonida mashina tarjimasi ham o'zining jadal taraqqiyot davrini o'tkazdi va hali hanuz uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Mashina tarjimasi turlari texnologiya, ma'lumotlar, model arxitekturalari, til juftliklari, moslashtirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, foydalanish holatlari va maqsadlari, sifat tezligi, tadqiqot tendentsiyalari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalaridagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda farqlanadi va ushbu maqolada biz qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, misollarga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi va neyron mashina tarjimasi va ularning sifatini yaxshilash uchun qollaniladigan moslashtirish mexanizimi, ularning taraqqiyot bosqichlari va bugungi kunda eng ko'p qo'llanilayotgan mashina tarjimonlarining turlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar

mashina tarjimasi, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi, neuron mashina tarjimasi, statistik modellar, tabiiy tilni qayta ishlash.

Annatotsiya

Globallashish jarayonining jadallashuvi insonlar orasida til, zamon va makon tushunchalarini anchagina o'zgartirdi va insonlarning o'zaro muloqoti va ma'lumot almashishi uchun imkoniyatlar sarhadi kengaydi. Ammo ayrim insonlarda hali hanuz tillarni tushinishda va ma'lumotlarni o'zlashtirishda ayrim to'siqlar mavjud bo'lib, bu to'siqlarini bartaraf etish uchun eng katta ko'makchi bo'lgan texnik vosita bu mashina tarjimasi

vositasi bo‘lib u tabiiy tilni qayta ishlashning ko‘plab sohalari orasida samaralinatijalar ko‘rsatgan elektron vosita hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti jarayonida mashina tarjimasi ham o‘zining jadal taraqqiyot davrini o‘tkazdi va hali hanuz uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Mashina tarjimasi turlari texnologiya, ma’lumotlar, model arxitekturalari, til juftliklari, moslashtirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, foydalanish holatlari va maqsadlari, sifat tezligi, tadqiqot tendentsiyalari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalaridagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda farqlanadi va ushbu maqolada biz qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, misollarga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi va neyron mashina tarjimasi va ularning sifatini yaxshilash uchun qollaniladigan moslashtirish mexanizimi, ularning taraqqiyot bosqichlari va bugungi kunda eng ko‘p qo‘llanilayotgan mashina tarjimonlarining turlarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar

mashina tarjimasi, qoidaga asoslangan mashina tarjimasi, statistik mashina tarjimasi, neuron mashina tarjimasi, statistik modellar, tabiiy tilni qayta ishlash.

Abstract

The acceleration of the globalization process has greatly changed the concepts of language, time and space among people, and the scope of opportunities for human interaction and information exchange has expanded. But some people still have some obstacles in understanding languages and acquiring information and the machine translation is not only one of the technical tool which helps to overcome language barriers among people, but also an electronic tool that has shown effective results among many areas of natural language processing Machine translation types differ based on changes in technology, data, model architectures, language pairs, customization options, available resources, usage cases and goals, quality rate, research trends, and user feedback, and in this article we will discuss rule-based machine translation, example-based machine translation, statistical machine translation, and neural machine translation and the alignment mechanism used to improve their quality, their development stages, and the types of machine translators which are commonly usedtoday.

Keywords

machine translation, rule-based machine translation, statistical machine translation, neural machine translation, statistical models, natural language processing.

Kirish

Bir tildan boshqa tilga matnlarni avtomatik tarjima qilish usuli mashina tarijmasi deb yuritilib ilmiy texnika taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Mashina tarjimasiga bo‘lgan ehtiyoj dunyoning globallashuvi va insonlar orasida o‘zaro bog‘liqligining kuchayishi natijasida paydo bo‘ldi. Turli tillarga mansub odamlar savdo, diplomatiya, fan va texnologiya kabi turli sohalarda tez-tez muloqot qilganligi sababli, til to‘siqlarini bartaraf etishning samarali usullariga talab ortib bordi. Ushbu ehtiyojlar natijasida tadqiqotchilar tarjimalarni mashinalar orqali avtomatlashtirish g‘oyasini o‘rgana boshladilar. Bu 1950-yillarda qoidaga asoslangan yondashuvlar va 1990-yillarda statistik metodlardan foydalanib tarjima qiluvchi dastlabki mashinali tarjima tizimlarining rivojlanishiga olib keldi va bu bugungi kunda bizda mavjud bo‘lgan zamonaviy mashina tarjimasi texnologiyalariga asos soldi.

Bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan mashina tarjimasi(MT) vositalariga Google Translate, Yandex Translate, DeepL, Amazon Translate kabilar bo‘lib ular turli usullardan foydalanib matnlarni tarjima qilish imkoni bilan bir qatorda keng ko‘lamda tillar tanlash imkonini beradi. Ammo MT tarixiga nazar soladigan bo‘lsak tarjima qilingan gapning kontekstual ma’nosini tabiiy tildagidek chiqarish bir muncha murakkab bo‘lgan va asosan qoidalarga asoslanib va mavjud bo‘lgan statistik ma’lumotlardan foydalangan holda berilgan matnlar tarjima qilinigan. Machine Learning hamda Deep Learning mexanizmlarining takomillashuvi zamonaviy tarjima tizimlariga ham katta tasir ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt algoritmlari va neyron tarmoqlari tufayli mashina tarjimasi deyarli insoniy aniqlik darajasiga yetdi.

Adabiyotlar sharhi

Mashina tarjimasi boy tarixga ega bo‘lib, yillar davomida uning rivojlanishiga bir qancha olim va tadqiqotchilar hissa qo‘shgan. Warren Weaver amerikalik olim va matematik 1949-yilda nashr etilgan mashhur memorandumda “mashina tarjimasi” atamasini qo‘llagan ilk olim deb hisoblanadi[1]. “Tarjima” deb nomlangan ushbu memorandumda kompyuterlar yordamida tarjima jarayonini avtomatlashtirishning qiyinchiliklari va imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Amerikalik kompyuter olimi va elektrotexnika muhandisi Piter Zade va Paul Garvin 1954-yilda

Georgetown-IBM eksperimentini [2] o‘tkazdi va ushbu tajriba IBM 701 kompyuteridan foydalangan holda mashina tarjimasi bo‘yicha eng dastlabki urinishlardan biri edi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida IBM tadqiqotchilari guruhi, jumladan Leon Dostert [1], Uilyam N. Lokk va boshqalar turli xil mashina tarjimasi loyihalari ustida ishladilar va dastlabki tizimlar va metodologiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar.

Piter Toma va J. L. Delkroix tomonidan 1968 yillarning boshlarida ishlab chiqilgan SYSTRAN [3] tizimi ilk samarali mashina tarjima tizimlaridan biri edi. Sovuq urush davrida ingliz va rus tillari o‘rtasida tarjimalarni taqdim etish uchun keng qo‘llanilgan. 1990-yillarning o‘rtalarida IBM tadqiqotchilari 1-dan 5-gacha bo‘lgan IBM Modellari deb nomlanuvchi bir qator statistik mashina tarjimasi modellarini taqdim etdilar[4]. Bu modellar, ayniqsa Model 4 va Model 5, katta ahamyatga ega bo‘ldi va statistik MTning keyingi rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Google Translate rasmiy ravishda 2006-yil 28-aprelda ishga tushirilgan[5]. Uasosan Neyron Mashina Tarjimasi(NMT)dan foydalanishga o‘tgan bo‘lsa-da, u ilgari Statistik Mashina Tarjimasi(SMT)dan foydalangan. Google Translate dastlab statistik modellarga tayangan bo‘lsada tarjima sifatini yaxshilash uchun NMT ga o‘tdi. Google Neural Machine Translation (GNMT) — 2016- yilda Google tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or mashina tarjimasi tizimi bo‘lib, tarjima sifati va ravonligini yaxshilash uchun neyron tarmoqlar va Deep Learning usullaridan foydalanadi.

1-rasm Mashina Tarjimasining qisqacha taraqqiyot bosqichi

Metodologiya

Mashina tarjimasi turlari texnologiya, ma’lumotlar, model arxitekturalari, til juftliklari, moslashtirish imkoniyatlari, mavjud resurslar, foydalanish holatlari va maqsadlari, sifat tezligi, tadqiqot tendentsiyalari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalaridagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda farqlanadi. Ushbu farqlar foydalanuvchilarga o‘ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarigamos mashina tarjimasi yondashuvini tanlash imkonini beradi. Mashina yordamida tarjima qilish tizimlarining to‘rt turi mavjud bo‘lib:

- Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi (RBMT)
- Misollarga asoslangan mashina tarjimasi(EBMT)
- Statistik mashina tarjimasi (SMT)
- Neyron mashina tarjimasi (NMT)

Ushbu maqolada biz yuqorida keltirilgan Mashina tarjimalarini va ularning ishlash bosqichlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi (RBMT) son-sanoqsiz o‘rnatilgan lingvistik qoidalarga va har bir til juftligi uchun millionlab ikki tilli lug’atlarga tayanadi. Dastur matnni tahlil qiladi va tarjima qilinadigan tildagi matn yaratiladigan o‘tish davri tasvirini yaratadi. Bu jarayon morfologik, sintaktik va semantik ma’lumotlarga ega bo‘lgan keng leksikalarni va katta qoidalar to‘plamini talab qiladi. Dasturiy ta’minot ushbu murakkab qoidalar to‘plamidan foydalanadi va keyin manba tilning grammatik tuzilishini maqsadli tilga o‘tkazadi. Tarjima qilish jarayoni ulkan lug‘atlar va murakkab til qoidalariga asoslanadi.

Foydalanuvchilar tarjima jarayoniga o‘z atamalarini qo‘shish orqali tarjima sifatini yaxshilashlari mumkin. Ular tizimning standart sozlamalarini bekor qiladigan foydalanuvchi tomonidan belgilangan lug‘atlarni yaratadilar.

2-RasmQoidalarga asoslangan mashina tarjimasi ishlashi uchun talab qilinadigan asosiy vositalar.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasida qoidalar asosan asliyat va tarjima tillarining grammatik tuzilishini tavsiflaydi va atamalarni tarjima qilish uchun lug‘atdan foydalanadi. Analizator grammatik kirish strukturasini tahlil qiladi va kiritilgan matnning oraliq tasvirini yaratadi. Analizator ushbu tasvirni tarjima tilining grammatik tuzilishiga o‘tkazadi.

1. **JadvalQoidalarga asoslangan mashina tarjimasi ishlash bosqichlari**

Bosqichlar ketma ketligi	**Bosqich nomlari**	**Vazifalari**
1. bosqich	Morfologik taxlil	Jumladagi so‘zlarni morfologik taxlil qiladi, kontekst darajasida Grammatik noaniqlik orqali so‘zlarning ma’nosini aniqlaydi.
1. bosqich	Sintaktik taxlil	Gap bo‘laklar va ularning gapdagi o‘rnini taxlil qiladi, POS tagging, gap turlari va ularning orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi
1. bosqich	Gap/Jumla sintezi	Tarjima qilinayotgan tilning Grammatik qoidalariga asoslangan holda tarjima qilingan jumlani shakllantiradi.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi tarjima jarayonida asosan uchta strategiyalarga asoslanadi:

3-rasmQoidalarga asoslangan mashina tarjimasi strategiyalari

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuv - asliyat tilida berilgan matn tarjima tilda so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.
- Transfer yondashuvi - asliyat tili va tarjima til qoidalariga asoslangan holda tarjima tilidagi matn ko‘rinishlarga o‘tkaziladi.
- Interlingual yondashuv - asliyat til kiritish matnning semantik ifodasiga, interlingvaga aylanadi. Interlingua tarjima matnni yaratish uchun asosdir.

Qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi bir muncha qiyin, chunki u vaqt va kuch talab qiladi. Qoidalarga asoslangan tizimlar kengaytirilmaydi, chunki qoidalar qo‘lda yozilishi kerak. Samaradorligi va sifatini yaxshilash uchunko‘proq qoidalar va ko‘proq inson ishtirokini talab qiladi.

Misollarga asoslangan mashina tarjimasi

Misollarga asoslangan mashina tarjimasi(EBMT), bazi hollarda Hotiraga asoslangan mashina tarijamsi deb ham yuritiladi, korpusga asoslangan metodlardan biri bo‘lib ilk bor 1984- yilda Makato Nagao [6]

tomonidan yaratilgan. Misollarga asoslangan mashina tarjimasining asosiy jihati allaqachon tarjima qilingan misollar korpusi ma'lumotlar bazasidan foydalanish va tegishli misollarni olish uchun ushbu ma'lumotlar bazasiga yangi kiritilgan ma'lumotlarni moslashtirish jarayonini o'z ichiga oladi, so'ngra to'g'ri tarjimani aniqlash uchun analogik tarzda qayta birlashtiriladi. Harold Somersning fikriga ko'ra EBMT va misollarga asosan o'rganish (Exemple-Based Learning), hotiraga asosan o'rganish(Memory-Based Reasoning), manba analogiyasi (Derivational Analogy) kabi Machine Learning(ML) texnikalari bilan o'xshash jihatlari ko'p [7]. Chunki ushbu texnikalar ham misollarga asoslangan mashina tarjimasi kabi oldindan mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasiga asoslangan holda yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Misollarga asoslangan mashina tarjimasi bilan deyarli bir vaqtda shakllantirilgan statistik uslublardan foydalangan holda tarjima qilish usulining paydo bo'lishi va uning samadorlik darajasing yuqoriligi Misollarga asoslangan mashina tarjimasiga bo 'lgan qiziqish va izlanishlarga keskin tasir qildi.

Statistik mashina tarjimasi

Statistik mashina tarjimasi - bu statistik modellar yordamida matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish usuli bo'lib qoidalarga asoslangan mashina tarjimasi yondashuvlaridan sezilarli darajada farq qiladi va u asosan 2000-yillarning boshlarida ommalasha boshladi. Statistik mashina tarjimasi statistik modellar va katta hajmdagi ikki tilli korpuslardan olingan ehtimollar asosida ishlaydi. Statistik mashina tarjimasining asosiy vazifasi matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun parallel ma'lumotlardan (asliyat va tarjima tillardagi jumlalar yoki hujjatlar orqali) o'rganilgan statistik ma'lumotlardan foydalanishdir.

4-rasm. *Statistik mashina tarjimasida qo'llaniladigan modellar*

Jarayon parallel ma'lumotlar bo'yicha turli statistik modellarni o'qitishni o'z ichiga oladi, ularga quyidagilar kiradi:

Tarjima modeli: Tarjima modeli parallel ma'lumotlarda kuzatilgan tarjimalar asosida so'zlar, iboralar yoki so'z birliklarini asliyat tildan tarjima tilga qanday tarjima qilishni o'rganadi. U turli xil tarjima variantlariga ehtimollarni belgilaydi, bu tizimga kiritilgan jumlani hisobga olgan holda eng ehtimoliy tarjimani tanlash imkonini beradi.

So'zlarni moslashtirish modeli: So'zlarni moslashtirish modeli parallel ma'lumotlardagi asliyat va tarjima jumlalar o'rtasida alohida so'zlar yoki so'z birliklarini moslashtiradi. Bu tarjima jarayonida foydalaniladigan so'zma-so'z tarjimalarini shakllantirishga yordam beradi.

Til modeli Til modeli asliyat tildagi so‘zlar ketma-ketligi ehtimolini baholaydi. Bu yaratilgan tarjimalarning ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Dekodlash algoritmi: dekodlash algoritmi statistik modellar va so‘zlarni moslashtirish ma’lumotlaridan asliyat tilda berilgan jumlalar uchun moslik ehtimolligi yuqori deb hisoblangan tarjimani yaratish uchun foydalanadi. Dekodlash jarayoni tarjima va til modellari asosida umumiy ehtimollikni maksimal darajada oshiradigan tarjimani qidirishni o‘z ichiga oladi.

Kamchiliklari

Kontekstning etishmasligi: Statistik mashina tarjimasi modellari ko'pincha uzoq muddatli bog'liqliklar va kontekstni qo'lga kiritishda qiynaladi, bu neyron mashina tarjimasi bilan solishtirganda manodorligi kamroq va sifati past bo’lgan kontekstli tarjimalarga olib keladi.

So'z ma'nosini ajratib ko'rsatish: Statistik mashina tarjimasi tizimlari so'z ma'nolarini ajratishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa tarjima xatolariga olib keladi.

Kam ishlatiladigan iboralarni tarimalash: Lug’at ma'lumotlarida mavjud bo'lmagan kamdan-kam yoki ko'rinmas iboralar statistik mashina tarjimasi modellari uchun muammoli bo'lishi mumkin.

Statistik mashina tarjimasi o‘quv ma’lumotlarida kuzatilgan o‘xshash jixatlar yangi, ko‘rilmagan jumlalar uchun mos kelishi mumkin degan taxminga tayanadi. Shuning uchun statistik mashina tarjimasi tizimining sifati va aniqligi ko‘p jihatdan o‘quv ma’lumotlarining hajmi va xilma-xilligiga bog‘liq. Garchi neyron mashina tarjimasi o'zining yuqori ishlashi tufayli so'nggi yillarda asosan statistik mashina tarjimasi o'rnini bosgan bo'lsa-da, statistik mashina tarjimasi asoslarini chuqur o’rganilishi hali juda ham muhim hisoblanadi, chunki u mashina tarjimasi sohasidagi ko'plab yutuqlarga yo'l ochdi.

Neyron Mashina Tarjimasi

Shuni ta’kidlash kerakki, SMT o‘tmishda mashina tarjimasi uchun dominant yondashuv bo‘lgan bo‘lsa-da, neyron mashina tarjimasi yangi texnikalar, yanada murakkab lingvistik bog‘liqliklar va uzoq muddatli kontekstni qo‘lga kiritish qobiliyati tufayli ishlash va mashhurlik bo‘yicha statistik mashina tarjimasidan oshib ketdi. Shunga qaramay, statistik mashina tarjimasi mashina tarjimasi tarixi va rivojlanishining muhim qismi bo‘lib qolmoqda. Statistik mashina tarjimasi neyron mashina tarjimasi rivojlanishidan oldin eng ko‘p o‘rganilgan mashina tarjimasi

usuli edi. Neyron mashina tarjimasi ham, statistik mashina tarjimasi kabi til tarjimasiga ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar sifatida tanilgan. Ya’ni, ular tushunchalarni olish va aniqlik/ish samaradorligini oshirish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarga bog‘liq. Ushbu ma’lumotlar odatda korpus formatida (jumlalar/so‘zlar/iboralar to‘plami) taqdim etiladi.

Neyron mashina tarjimasi bosgqa mashina tarjimasi usullaridan farqli ravisgda matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish uchun sun’iy neyron tarmoqlariga tayanadi. U Deep Learning tamoyillari asosida ishlaydi va tarjimalarni yaratish uchun turli tillardagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar va munosabatlarni o‘rganish uchun neyron tarmoqlardan foydalanadi. Uning tizimining odatiy arxitekturasi encoder-decoder modelidan iborat. Buni 5-rasmda ko‘rib chiqishimiz mumkin.

5-rasm. Neyron mashina tarjimasi ishlash mexanizmi

Umuman olganda, neyron mashina tarjimasi keng ko'lamli til juftliklari va domenlarida aniqroq va ravon tarjimalarni yaratish uchun chuqur o‘rganish usullaridan foydalangan holda mashina tarjimasi sohasida inqilob qildi va shu bilan bir qatorda katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlari va kuchli hisoblash resurslaridan foydalangan holda, neyron mashina tarjimasi modellari turli til juftliklari o‘rtasida tarjima qilishda ajoyib samaradorlikni ko‘rsatdi va mashina tarjimasining eng zamonaviy usuliga aylandi. Uning kontekstual ma’lumotlarni olish va tildagi uzoq muddatli bog‘liqliklarni boshqarish qobiliyati uni tillararo muloqot va kontentni mahalliylashtirish uchun kuchli vositaga aylantiradi.

Moslashtirish mexanizmlarining mashina tarjimasida tutgan o’rni

Moslashtirish (alignment) mexanizmi statistik va neyron mashina tarjimasida hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu modelga asos tildagi so'zlar yoki so'z birliklarini maqsadli tildagi tegishli analoglari bilan mosligini aniqlashni o'rganishga yordam beradi. Neyron mashina tarjimasida moslasgtirishni ikki jihatga bo'lish mumkin: yengil moslashtirish(soft alignment) va chuqur moslashtirish (hard alignment).

Soft alignment

- Diqqat mexanizmi: Diqqat mexanizmi transformator kabi neyron mashina tarjimasi modellarining asosiy komponentidir. Bu modelga maqsad jumladagi har bir so'zni yaratishda asos jumlaning turli qismlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Soft alignment maqsad jumlada yaratilgan har bir so'z uchun asos jumladagi har bir so'zga tayinlangan diqqat ballari orqali erishiladi.

- **Roli** Bu modelga manba va maqsad tillardagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni dinamik ravishda qo'lga kiritishga yordam beradi. Modelga aniq va kontekstga mos tarjimalarni yaratish imkonini beradi.

Hard alignment:

- **So'zlarni moslashtirish modellari** An'anaviy statistik mashina tarjimasitizimlarida hard alignment IBM modellari yoki Hidden Markov modellari (HMMs) kabi usullar yordamida aniq modellashtirilgan. Ushbu modellar har bir token asosida asos va maqsadli so'zlarni moslashtirishni o'rganadilar.

omili siafatida hokimiyatni egallashga intilish va hokimiyat uchun kurash ekanligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, diniy mutaasiblik ijtimoiy madaniy asosining ikkinchi omili sifatida madaniyatning dunyoviy qatlamiga zid bo‘lgan sakral diniy qatlamning rivojlanishi ekanligi falsafiy tomondan ochib berilgan. Ilmiy tadqiqotlarda madaniyatning ikki qatlamining o‘zaro aloqasini tavsiflash uchun «sakralizatsiya» va «desakralizatsiya» atamalari orqali tavsiflab berilgan. Sinfiy jamiyatlar, ayniqsa totalitar rejimlar sharoitida diniy mutaasiblikning ijtimoiy-psixologik asoslari sifatida o‘limdan qo‘rqish hissi va hayot mazmunining tagiga yetish yo‘lidagi izlanishlar amal qilishi tahlil qilingan.

Kalit so’zlar

shamanizm va magiya, «sakralizatsiya» va «desakralizatsiya» atamalari, Fanaticus, «Kosmos» - «Xaos», diniy mutaasiblik, «Shaman» atamasi, sakral diniy qatlam, orgiastik rasm-rusumlar va misteriyalar, dunyoni diniy-mifologik tushunish, ekzistensial qo‘rquv

THE CONCEPT OF RELIGIOUS BIGOTRY AND ITS SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS

Abstract

This article focuses on determining the origins and nature of the concept of religious fanaticism. In particular, the meaning of the concept of "religious feelings", which is widely used in theology, psychology of religion and religious studies, is revealed. The philosophical views of the American philosopher and psychologist W. James that religious feelings are distinguished from other human feelings by their supernatural source are analyzed. Also, it is explained that the religious feelings of a person express feelings imbued with the belief in the existence of a supernatural object. At the same time, the role of religious feelings in social life is based on a number of factors. In particular, aspects related to certain social conditions underlying the emergence of religious feelings, which are considered as "product of society", are philosophically analyzed. That is, it is revealed that religious fanaticism, which is inextricably linked with the world of religious feelings of a person, with a religious-mystical worldview, appears as an indicator of the level of religiosity. Ethnographic and cultural-anthropological studies of the 20th century philosophically interpreted that the code of double contradictions serves as a way of describing reality for most of the existing civilizations. In particular, it is substantiated that pairs of concepts such as "left" - "right", "woman" - "man", "religious" - "secular" form a system of categories that allow describing reality. In addition, it has been scientifically described

from a religious point of view that the first image of religious bigotry (bigotry) is ancient shamanism. In particular, the focus is on the growing interest in studying shamanism and magic among philosophers and theologians. In this, it is comparatively interpreted from the philosophical point of view that philosophers analyze the elements of unscientific thinking and traces of human interests and values in the theory of knowledge of shamanism and magic in order to give it a "human touch", and religionists approach magic as a special type of rationality. It is also proved that the first factor of the socio-cultural basis of religious bigotry is the striving for power and the struggle for power. At the same time, the second factor of the social and cultural basis of religious bigotry is the development of the sacred religious layer, which contradicts the secular layer of culture, from a philosophical point of view. In scientific studies, the terms "sacralization" and "desacralization" are used to describe the relationship between the two layers of culture. It has been analyzed that in the conditions of class societies, especially totalitarian regimes, the fear of death and the search for the meaning of life are the socio-psychological bases of religious bigotry.

Keywords

shamanism and magic, the terms "sacralization" and "desacralization", Fanaticus, "Cosmos" - "Chaos", religious fanaticism, the term "Shaman", sacral religious layer, orgiastic images and mysteries, world religious-mythological understanding, existential fear

Diniy mutaasiblik (Fanus – fanaticus)tabiatiningtahlili eng avvalo uning asoslarini aniqlashni taqozo etadi. Bunga ilohiyot, din psixologiyasi va dinshunoslikda keng foydalaniladigan «diniy tuyg‘ular» tushunchasining mazmunini aniqlash orqali erishish mumkin. Amerikalik faylasuf va psixolog U. Jems diniy tuyg‘ular insonning boshqa tuyg‘ularidan o‘zining g‘ayritabiiy manbai bilan ajralib turadi[1], deb hisoblagan. Bunda u diniy tuyg‘ular deganda insonning diniy tusga ega bo‘lgan *qo‘rquv, muhabbat, hayrat, izzat-ikrom, quvonch* kabi tuyg‘ularini tushungan. Ayni holda bu tuyg‘ular «Xudodan qo‘rqish», «Xudoga muhabbat», «Xudo bilan muloqot quvonchi» va hokazolar sifatida amal qiladi. Insonning diniy tuyg‘ulari g‘ayritabiiy ob’ekt mavjudligiga bo‘lgan ishonch bilan sug‘orilgan tuyg‘ularni o‘zida ifodalaydi. Diniy tuyg‘ularning ijtimoiy roli ayni shu omil bilan belgilanadi. «Jamiyat mahsuli» sanalgan diniy tuyg‘ularning paydo bo‘lishi zamirida muayyan ijtimoiy sharoitlar yotadi. Ular, xuddi din kabi, kishilarga ularning kundalik hayotida o‘z hukmini o‘tkazuvchi g‘ayritabiiy kuchlar dunyosining o‘ziga xos in’ikosi hisoblanadi. Insonning diniy tuyg‘ulari dunyosi bilan, diniy-mistik dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan diniy

mutaasiblik dindorlik darajasining ko‘rsatkichi sifatida maydonga chiqadi.

Fanaticus atamasi (fanum – «muqaddas joy, ibodatxona» so‘zidan) lotin tilida «riyokor», ya’ni o‘zini xudojo‘y qilib ko‘rsatuvchi odam, «munofiq», «ikkiyuzlamachi» so‘zlari bilan o‘xshash ma’noni anglatgan, keyinchalik esa «jazavali», «johilona», «o‘taketgan xurofiy», ba’zan – «ruhlangan» degan ma’nolarda ishlatila boshlagan. Ushbu sifatdan yasalgan «mutaasiblik» oti biron-bir g‘oyaga uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan darajada bo‘ysunishni ifodalay boshlagan. Shunday qilib, diniy mutaasiblik madaniyatning sakral sohasi bilan uzviy bog‘liq.

XX asr etnografik va madaniy-antropologik tadqiqotlari qo‘sh qarama-qarshiliklar kodi mavjud sivilizatsiyalarning ko‘pchiligi uchun voqelikni tavsiflash usuli bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Masalan, «chap» - «o‘ng», «ayol» - «erkak», «diniy» - «dunyoviy» qabilidagi tushunchalarning juftliklari voqelikni tavsiflash imkonini beruvchi kategoriyalar tizimini tashkil qiladi. Bashariyat miqyosida mazkur qarama-qarshiliklar **«**Kosmos» - «Xaos**»** juftligida namoyon bo‘ladi. «Kosmos» - muayyan qoidalarga muvofiq faoliyat ko‘rsatuvchi odamlarning tartibli dunyosi; «Xaos» - tartibsiz yot dunyo. Ko‘pgina vaziyatlarga «Kosmos»ni ikki qarama-qarshi dunyo: odamlar dunyosi va oliy, sakral dunyoga ajratish xosdir. Sakral dunyoda mistik qahramonlar va xudolar yashaydi. Aslini olganda bu insonning dunyo va unga nisbatan xulq-atvorning tegishli usullari haqidagi tasavvurlari yig‘indisidan boshqa narsa emas. U jamoa hayotini muayyan me’yorlar va andozalarga muvofiq tartibga soluvchi ideal model hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, inson hayotini sakral kuchlar boshqaradi. «Sakrallashtirilgan narsalar va hodisalargina muhimdir, - deb ta’kidlaydi V. N. Toporov. – Amalda kosmosning tarkibiy qismi hisoblanadigan, undan kelib chiqadigan, unga daxldor bo‘lgan narsalar va hodisalargina sakrallashtirilgandir»[2]. Bu sakral sivilizatsiyalar odamining xulq-atvori va tafakkuriga xos bo‘lgan xususiyatlarni tushuntiradi.

Sakral sivilizatsiyalarda din vertikal dunyo modeli sifatida amal qilgan. Bu yerda odamlar taqdirini boshqaruvchi kuchlar sirli dunyoda mavjud bo‘lgan va insonga bo‘ysunmagan. Diniy-mifologik (sakral) madaniyatlar zamirida aynan bir taraflama vertikal bog‘lanishlar dunyosi yotadi. Bu dunyoda inson o‘z voqeligi sub’ekti hisoblanmaydi, odamlar yashayotgan voqelik g‘ayritabiiy, ilohiy dunyoga bog‘liq bo‘ladi. Fikrlash, narsalar va hodisalarni tushuntirish usuli va tartibi dunyoning ayni shu tartibi bilan belgilanadi. Diniy-mifologik tafakkur odamlar dunyosidagi narsalar va hodisalarni tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydigan g‘ayritabiiy borliqqa

murojaat etish yo‘li bilan «tushuntiradi». Boshqacha qilib aytganda, turli diniy va mistik ta’limotlarning inson sezgilari dunyosidan ma’naviy voqelikning ustunligi haqidagi fundamental qoidasi mazkur tafakkurning o‘zagi hisoblanadi.

Biz uchun muhimi shundaki, sakral sivilizatsiyalarning ijtimoiy strukturalarida hokimiyat vertikal tarzda va faqat bir yo‘nalishda – yuqoridan pastga qarab tatbiq etilgan. Shu tufayli ham xudoning yerdagi soyasi – podsho saroyidan chiqqan so‘z ijtimoiy ahamiyatga molik so‘z sifatida e’tirof etilgan. Ushbu ilohiy cho‘qqidan tarqaluvchi so‘zlar buyruqlar, hukmlar, farmoyishlar hisoblangan; ular ishlarda gavdalantirilishi shart bo‘lgan, quyi ijtimoiy qatlamlarning so‘zlari esa faqat kam ahamiyatli fikrlarni ifodalagan. Podshodan chiquvchi ilohiy, «buyuk» haqiqatlar tanqiddan xoli bo‘lgan va e’tiqod sifatida idrok etilgan. Diniy mutaasiblik ayni shu «haqiqatlar»dan bahra olgan. Ijtimoiy hayot strukturasida tub o‘zgarishlar yuz berib, yangicha fikrlash uslubi paydo bo‘lgan va «buyuk» haqiqatlarni «kichik» haqiqatlardan keltirib chiqarish asta-sekin odat tusini olgan. Abstrakt tafakkurning diniy aqidalar qobig‘iga o‘ralgan ilohiy kuchiga cheklovlar o‘rnatilgan va u erkin fuqarolarning ijtimoiy nazorati ostiga olingan. Ushbu jarayon qadimgi yunon, demokratik madaniyatining shakllanish bosqichiga xosdir[3]. Mazkur demokratiyalashuv jarayoni intellektual nuqtai nazardan ulkan ahamiyat kasb etadi, zero ilgari harbiy aristokratiya va dindorlar imtiyozi hisoblangan ma’naviy dunyo qadriyatlaridan oddiy xalqning bahramand bo‘lishi asta-sekin ular din hukmi ostidan chiqarilishiga, ya’ni desakralizatsiya jarayoniga olib keldi.

Diniy mutaasiblik (mutaasiblik)ning ilk obrazi qadimgi shamanizmdir. Faylasuflar va dinshunoslar davrasida shamanizm va magiyani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Bunda faylasuf olimlar shamanizm va magiyani bilish nazariyasida noilmiy fikrlash unsurlarini hamda inson qiziqishlari va qadriyatlari izlarini topish orqali unga «insoniy tus» berish maqsadida tahlil qilsalar, dinshunoslar magiyaga oqilonalikning o‘ziga xos bir tipi sifatida yondashadilar. Eng yangi g‘arb falsafasida fan va dunyoqarash noilmiy shakllarining yaqinlashuvi relyativistik yo‘nalishi kuzatiladi. Masalan, ingliz olimi U. Razerfordning «Shamanizm. Magiya asoslari» kitobida shaman harakatlari, uning magik raqslari, ekstaz va trans holatlari tavsiflanadi[4]. Gulxan atrofida to‘plangan qabiladoshlar shamanning ruhi uning tanasini go‘yoki tark etib, arshi a’loga sayr qilgani jo‘nashini «kuzatadilar». Muallif bunday manzarani Afrika shimoliy qabilalarining ayrimlarida hozir ham kuzatish mumkinligini ta’kidlagan. Magiya Mesopotamiya sivilizatsiyasi madaniyatida, daoisizmda, zardushtiylikda, island sagalarida, qadimgi

yunon miflarida, polineziyaliklarning qadimiy rivoyatlarida, Akrtikadan Avstraliyaga qadar cho‘zilgan makonda o‘z izini qoldirgan. Shaman «san’ati», uning tabiblik mahorati va tajribasi mahalliy etnik va geografik sharoitlarga bog‘liq. «Shaman» atamasi etimologik jihatdan indoevropa tillaridagi «bilim» tushunchasini anglatadi: shaman – bu «biladigan odam». Antropologlar shaman «ruhlar hukmdori» degan ma’noni anglatishini ta’kidlaydilar, dinshunoslar esa shamanizmni g‘ayritabiiylik g‘oyasi, animizm va totemizm bilan bog‘laydilar[5].

Ibtidoiy tafakkurgamagik totemizm va diniy fetishizm shakllari xos, ijtimoiy ong ijtimoiylashgan onglarning arifmetik yig‘indisi bilan ayniy emas, u transindividual va jamoadir. Ijtimoiy ongning jamoa tabiati oxir-oqibat individ ruhiyatiga bog‘liq bo‘lmaydi, balki jamiyat moddiy asosining ontologik strukturasi bilan belgilanadi va intellektual omil ijtimoiy ong rivojlanish jarayonining har qanday bosqichida samarali-emotsional harakatlarda mavjud bo‘ladi.

Diniy mutaasiblikning ijtimoiy-madaniy asosi uzoq davom etgan biologik va ijtimoiy evolyusiya jarayonlari o‘zaro ta’sirining mahsuli sifatida madaniyat dunyosining vujudga kelish jarayonidir. Bu yerda ikki muhim omilni qayd etish mumkin:

Birinchi omil – ijtimoiy odamning madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish qobiliyati bo‘lib, ushbu qobiliyat mehnat qurollari evolyusiyasini ham o‘z ichiga oluvchi biologik va ijtimoiy evolyusiyaning o‘zaro aloqasi mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli inson madaniyatni yaratish bilan bir paytda, ushbu jarayonda o‘zi ham kamol topadi;

ikkinchi omil – noinsoniy bosqichdan insoniy bosqichga o‘tish uzoq vaqt mobaynida, asta-sekin yuz berishi bilan bog‘liq, ya’ni, madaniyatning rivojlanish tarixi inson aqli va qobiliyatlarining ob’ektivlashuvi tarixi hisoblanadi, aql va qobiliyatlarning rivojlanish tarixi esa madaniyatning mazkur omillar tarixi sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniyat dunyosi insonparvarlashuv jarayoni bilan, hayvondan insonga o‘tish bilan chambarchas bog‘liq. Hayvon tajriba bilan bog‘liq instinktlarga ega bo‘lib, ular hayvonning xulq-atvorini hayotning har bir lahzasida boshqaradi. Etologiya sohasidagi tadqiqotlar nisbatan barqaror va o‘zgarmas muhitda yashaydigan ayrim hayvonlar xulq-atvori asosan oldindan dasturlashtirilgani va muayyan tartibga bo‘ysunishini, o‘zgaruvchan muhit sharoitida boshqa hayvonlar xulq-atvori esa me’yordan chetga chiqishni va xulq-atvorning bir nechta variantlaridan birini tanlashni talab qilishini ko‘rsatadi[6]. Ayni hol hayvonlarda idrok etish dunyosi va harakatlar (xulq-atvor) dunyosi bir-biri bilan bog‘liq, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Insonda bu ikki dunyo ijtimoiy

tarix bilan bilvosita belgilanadi va shu tufayli ham faqat inson o‘zi nima qilishi lozimligini amalda bilmaydi.

Shunday qilib, insonda ishonchli qaror qabul qilish va ushbu imkoniyatni aniqlashga ehtiyoj paydo bo‘ladi[7]. Moddiy va ma’naviy texnikaning rang-barang omillarini o‘z ichiga olgan madaniyat (mifologiya, din, san’at va h. k.) genezisi zamirida ayni shu ehtiyoj yotadi. Bo‘lajak voqealarni bashorat qilishning turli strategiyalari asosida o‘z kelajagini qurish imkoniyatini insonga faqat madaniyat beradi. Arxaik madaniyatlarda taqlid ana shunday strategiyalardan biri hisoblanadi. Bunda kelajakni bashorat qilish atrof borliqning u yoki bu hodisalari xususiyatlariga taqlid qilish asosida amalga oshiriladi. Magiya va sehrgarlikushbu strategiya bilan uyg‘undir. Bunda bashorat asosida keltirilgan qurbonlik darg‘azab xudolarni qahridan tushiradi va ularni inson yoki qabilaning muayyan iltimosini bajarishga majbur etadi. Mazkur strategiya insonda diniy e’tiqodni paydo qiladi va bevosita qaror qabul qilish vaziyatidan uni xalos etadi. Diniy tasavvurlarni aqida sifatida notanqidiy idrok etish oxir-oqibat diniy mutaasiblikga olib keladi.

Diniy mutaasiblikning ijtimoiy-madaniy asosining birinchi omili hokimiyatni egallashga intilish va hokimiyat uchun kurash hisoblanadi. Har bir inson imkoniyatlarining noaniqligi madaniy evolyusiyaga o‘z hissasini qo‘shadi, zero individning noyobligi uni raqobatga va hayotda o‘z o‘rnini topish uchun kurashga undaydi. Bu esa boshqa individlar xulq-atvori ustidan nazorat muammosi bilan, ya’ni hokimiyatni egallash va o‘z qo‘lida saqlab qolish muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Insoniyat tarixida hukm suruvchi hokimiyatni saqlab qolish shakllaridan biri uni ilohiylashtirish, tajovuzlardan, diniy tabu, ya’ni taqiqlardan uni asrash hisoblanadi.

Diniy mutaasiblik ijtimoiy madaniy asosining ikkinchi omili – bu madaniyatning dunyoviy qatlamiga zid bo‘lgan sakral diniy qatlamning rivojlanishidir. Ilmiy tadqiqotlarda madaniyat ikki qatlamining o‘zaro aloqasiga tavsif berish uchun «sakralizatsiya» va «desakralizatsiya» atamalari ishlatiladi:

sakralizatsiya – din doirasidan tashqaridagi narsalar, hodisalar va shakllarga diniy tus berish, ularni ilohiylashtirish; dindorlar tomonidan davlat hokimiyati, xususiy mulk tamoyili kabi ijtimoiy hodisalarga, o‘z kelib chiqishiga ko‘ra dunyoviy bo‘lgan axloqiy normalarga ilohiy tus berilishi, ularning muqaddaslashtirilishi sakralizatsiyaga misol bo‘lishi mumkin; desakralizatsiya, ya’ni diniy deb hisoblangan hodisalarga ularning dunyoviy xususiyatini qaytarish, ya’ni sakralizatsiyaning ziddi hisoblanadi.

Diniy mutaasiblik askeza yoki tarkidunyochilikda ham namoyon bo‘ladi. O‘ta arxaik jamiyatlarda o‘g‘il bola og‘ir jismoniy sinovlarni o‘z ichiga olgan ta’lim jarayonidan o‘tganidan keyingina an’anaviy marosimlar yo‘li bilan balog‘at yoshiga to‘lgan erkak maqomini olgan. qadimgi Hindistonda quyi tabaqalarning vakillarini askezadan o‘tkazish man etilgan, bu faqat oliy brahmanlar tabaqasining imtiyozi hisoblangan. qadimgi Spartada afsonaviy Likurg tomonidan joriy etilgan nizomlar ham faqat harbiy aristokratiya uchun majburiy sanalgan, erkin aholining qolgan qatlamlari esa, odatdagi hayot bilan yashagan. Askeza va hokimiyatning shunga o‘xshash aloqasi Platonning «Davlat» asarida ham aks ettirilgan. «Murakkablashtirilgan xulq-atvor barcha hollarda atrofdagilardan ustunlikni va ijtimoiy nufuzni namoyish etish vositasiga aylanadi. . . »[8]. Pirovard natijada qadimgi yunon madaniyati doirasida amal qilgan askeza insonning ichki dunyosini o‘zgartirishga, xudo darajasiga erishishga qarab mo‘ljal olgan. Ilohiy holatni anglab yetish va his qilish (ya’ni mistik ekstaz holatiga erishish) uchun uzoq ruhiy-jismoniy tayyorgarlikdan o‘tish talab etiladi. Askeza ayni shunday tayyorgarlikning muqarrar elementi hisoblanadi. Ekstazda mistitsizm muxlisi ma’naviy absolyut bilan uyg‘un birikadi. Bunday holatga erishish usullari doirasi ancha keng (jazavali raqs tushishdan uzlatnishin sharoitda o‘z surishgacha). Ammo har qanday holda ham diniy mutaasiblik zamirida yotuvchi mistik «tajriba»ni asketizm psixotexnikasi yordamisiz o‘zlashtirish mumkin emas. Asketizm psixotexnikasi insonga o‘zining ichki ruhiy va fiziologik holatlarini boshqarish imkonini beradi. Mistik kechinmalar ta’sirida insonda din bilan bog‘liq bo‘lgan savdoyilik holati vujudga keladi. Mazkur holat individ o‘zining dunyoviy tajribasidan va umuman o‘z shaxsiyatidan uzoqlashishi bilan tavsiflanadi. Sinfiy jamiyatlar, ayniqsa totalitar rejimlar sharoitida Diniy mutaasiblik ijtimoiy - psixologik asoslarisifatida o‘limdan qo‘rqish hissi va hayot mazmunining tagiga yetish yo‘lidagi izlanishlar amal qiladi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, inson o‘lim muqarrar ekanligini biladi. Bu bilimni u madaniyat tufayli o‘zlashtirgan. Aynan madaniyat o‘lim haqidagi tasavvurni inson ongida ob’ektivlashtirish orqali yo‘qlik qarshisida ekzistensial qo‘rquv manbai sifatida maydonga chiqadi. Madaniyat ekzistensial qo‘rquvni paydo qilish bilan bir vaqtda, uni neytrallashtirishga ham harakat qiladi. Dunyoni diniy-mifologik tushunish ekzistensial qo‘rquvni neytrallashtirish vositasi hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanish jarayonining yuksakroq bosqichlarida yashirin boshqarish tizimi eng avvalo sakral sivilizatsiyalar, chunonchi: qadimgi Misr, Assiriya, asteklar, inklar sivilizatsiyalari doirasida rivojlanadi va takomillashib boradi. Ulardа kohinlardan iborat bo‘lgan sakral apparat bilan chatishgan davlat hokimiyatining murakkab mexanizmi yaratiladi.

qadimgi kohinlar o‘z hokimiyatini kuchaytirish uchun yashirin bilimlardan faol foydalanadilar, o‘zlari inson va xudolar o‘rtasida vositachi hisoblanishlari, xudolarga ehsonlar keltirish yo‘li bilan ularning iltifotiga sazovor bo‘lish mumkinligi haqidagi fikrni odamlar ongiga singdiradilar. Sharq, Markaziy va Janubiy Amerikaning sakral sivilizatsiyalarida kohinlar qarshisida qo‘rquv odamlarni qurbonlik keltirish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlangan. Xudolarga odamlarni qurbonlik keltirish asteklarda ayniqsa rasm bo‘lgan; ko‘pincha harbiy asirlarni, ba’zan qullarni va hatto o‘z farzandlarini qurbonlik keltirganlar. Xudolarga qurbonlik keltirish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun asteklar qo‘shni qabilalar bilan tez-tez urush qilishga majbur bo‘lganlar. Odatda qurbonlik keltirish odamning ko‘ksidan yuragini sug‘urib olib, xudolarga tuhfa qilishdan iborat bo‘lgan. Biroq ba’zi rasm-rusumlar bundan ham shafqatsizroq bo‘lgan, masalan Kaipe-Totek xudosining sharafiga kohinlar tirik odamdan terisini shilib olganlar va bir necha kun mobaynida unga burkanib yurganlar. 1487 yil ulkan ibodatxonani muqaddaslashtirish marosimi chog‘ida yigirma ming kishi xudolarga qurbonlik keltirilgan. Shu tariqa diniy mutaasiblikga ayniqsa xos bo‘lgan tuyg‘u – «begonalar»ga o‘ta toqatsizlik shakllangan.

Diniy mutaasiblikning yana bir ijtimoiy-psixologik asosining birinchi omili sifatida inson hayot faoliyatining ijtimoiy-madaniy kontekstiga bog‘liqlikka bo‘lgan ishonch hissi amal qilishi mumkin. Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar ishonch hissi, biror narsaga e’tiqod qilish qobiliyati inson miyasi faoliyat dasturining markazlaridan biri hisoblanishini, bilim ishonch, e’tiqodga tayanishini, diniy e’tiqod esa, har qanday ishonch va e’tiqodning ayrim ko‘rinishi hisoblanishini ko‘rsatadi. Bizni diniy mutaasiblikning muqarrar elementi hisoblanuvchi o‘taketgan yovuz, johilona diniy e’tiqod qiziqtiradi. Shu nuqtai nazardan bxayravlar (dahshat uyg‘otuvchilar)ning tantrik amaliyotida, ayniqsa Sumatra va Yavadagi ko‘p sonli ibodatxonalarda o‘tkazilgan Xeruki ilohining ruhiga sig‘inish marosimlarida (XIII–XIV asrlar) meditatsiya va iloh bilan ekstatik birikishga erishish shakllari diqqatga sazovordir.

Ilohlarga, shu jumladan Xerukiga sig‘inish marosimlarini bxayravlar odatda tunda, murdalarni yoqish uchun mo‘ljallangan maydonchalarda o‘tkazganlar. Ilohlarga qurbonlik keltirilgan odamlarning tanalari tutab yotgan bu maydonchalarda marosimning asosiy qismi – navbatdagi odamni qurbonlik keltirish ham amalga oshirilgan. Kuyayotgan odam go‘shtining hidi qancha kuchli bo‘lsa, sig‘inish ob’ektiga u shuncha ma’qul deb hisoblangan. Tabiiyki, tosh devorga o‘yib yozilgan bitiklardan birida bu hid son-sanoqsiz gullarning yangi tug‘ilishlardan xalos qiluvchi atriga qiyoslanadi (qadimgi hindularning ayrim qabilalarida cheksiz

reinkarnatsiya qo‘rquv hissini uyg‘otgan, chunki yangi hayot kasalliklar, azob-uqubatlar va hokazolar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan). Bxayravlarning oyoq-qo‘llari bog‘langan, ko‘ksi va qorni ochilgan qurboni osmonga qarab yotqizilgan. Kohin uning qornini pichoq bilan pastki qovurg‘alarigacha yorgan va talvasada jon taslim qilayotgan tana ustiga o‘tirib, uning yuragini kesib olgan, bosh chanog‘ini qonga to‘ldirgan va uni bir simirishda bo‘shatgan. Oliy, samoviy sharob hisoblangan bu «ichimlik»dan u asta-sekin mast bo‘lgan, gulxan yoqqan va uning atrofida zikr tushib aylangan (meditatsiya bilan shug‘ullangan). Yarim tunga yaqin kohin odatda bxayravning oliy maqsadi – mistik ekstazga erishgan.

Yuqorida tavsiflangan holatda diniy e’tiqod diniy mutaasiblikning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bu yerda u iloh dunyoning ko‘zga ko‘rinmas teran asosini tashkil qilishini nazarda tutuvchi tantrik indu-buddizmning aqidalar tizimi bilan bog‘liq. Moddiylik kishanlaridan muxlisning xalos bo‘lishi va mazkur ma’naviy Absolyut bilan birikishiga askeza hamda o‘zini Koinotda namoyon etuvchi iloh (makrokosm) va uning muxlisi (mikrokosm)ning ayniyligi haqidagi ta’limotga asoslangan yoga amaliyoti orqali erishiladi. Ekstazga ilohning insonda bevosita «mavjudligi» tufayli erishiladi, unga «Men»ningto‘liq singib ketishi yuz beradi va bu bo‘lg‘usi ozodlik belgisi bo‘lib xizmat qiladi.

Diniy mutaasiblikning ijtimoiy-psixologik asosining ikkinchi omiliga turli orgiastik rasm-rusumlar va misteriyalar ham kiradi. Din tarixida mazkur aloqaga ishora qiluvchi misollarga ko‘plab duch kelish mumkin. Masalan, hosildorlik orgiastik rasm-rusumlariga yalang‘och yurish, «aqlsizlik», magiya, sehrgarlikka moyillik va hokazolar xos. Bunga misol tariqasida spartaliklarning har yili ma’buda Diana sharafiga o‘tkaziladigan bayram paytida uning mehrobi qarshisida yosh yigitlarni savalash odatini keltirish mumkin. Shunga o‘xshash odat qadimgi Misrda Buyuk iloha sharafiga bag‘ishlab o‘tkazilgan bayram marosimida ham mavjud bo‘lgan, bu yerda qurbonlik keltirish paytida uning muxlislari bir-birlarini xivchin bilan savalaganlar. Apuleyning «Metamorfozalar» asarida o‘tkir pichoqlar bilan o‘z tanasini tilkalagan va bir-birini xivchin bilan savalagan Suriya ma’budasi kohinlari to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi. Bu yerda mazkur harakatlar va bichilgan kohinlar ekstazi o‘rtasidagi aloqa birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Suriya ma’budasining «xotinchalish» kohinlari gallar bo‘lgan va ular o‘z erkaklik olatlarini ma’budaga qurbonlik sifatida keltirganlar. Ayni hol ularning xulq-atvorida mazoxizm alomatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Bu yerda o‘zini o‘zi yoki bir-birini savalashning ruhiy, ayniqsa seksual ta’sirlanishlar bilan aloqasi diqqatga sazovor. Adabiyotlarda erkaklar savalash taomilisiz jinsiy aloqalarga kirishishga qodir bo‘lmagan hollarga

bir qancha misollar keltiriladi. Ular jismoniy azob-uqubatlarni eng oliy lazzat sifatida idrok etishlari ta'kidlanadi. Ushbu hol «mazoxizm» deb ataladigan seksual buzuqlik mexanizmini tushuntiradi. Aynan mazoxizm (aksariyat hollarda u sadizm bilan bog'liq bo'ladi, zero ikkala holda ham seksual ta'sirlanish azob-uqubatlardan va mutelikdan paydo bo'ladi, farq faqat shunda ko'rinadiki, mazoxist ob'ekt bo'lishni, sadist esa – sub'ekt bo'lishni istaydi) primitiv diniy ekstazga olib keladi yoki unga yo'ldosh bo'ladi. Buni ilk bor nemis din tarixchisi Sh. Meyner o'zining «Allgemeine Britische Geschich-te der Religionen» (1806-1807) asarida qayd etgan. Ushbu muammoni XX asr boshida fransuz yozuvchisi, siyosatchisi va publitsisti B. Konstan ko'tarib chiqadi va rivojlantiradi[9]. O'zining din masalalariga bag'ishlangan asarlarida u bir-birini dialektik to'ldiruvchi sezuvchanlik va tarkidunyochilik, erotizm va jinoyat elementlariga e'tiborni qaratadi.

Diniy mutaasiblikning ijtimoiy-psixologik asosining uchinchi omili gominizatsiya jarayonida paydo bo'lgan «hamma baloga to'g'anoq odam» mexanizmi ham xizmat qilishi mumkin. Ayni holda fransuz mutafakkiri R. Jirarning «Dunyo asosida yashirin ashyolar» kitobida bayon etilgan g'oyalar diqqatga sazovordir[10]. Ushbu kitobda ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-psixologik konfliktlarini hal qilishda «hamma baloga to'g'anoq odam»ni o'ldirishning ahamiyati haqidagi tezis ilgari suriladi. Mazkur alohida tezisning ta'riflanishiga R. Jirar miflar, Tavrot va Injil matnlari, o'rta asrlarda va hozirgi davrda odamlarni ta'qib qilishga doir hujjatlarning qiyosiy tahlili natijasida chiqargan xulosalar zamin yaratadi. Mazkur tahlil ko'rsatilgan manbalarning barchasida gap yo ayrim individga, yo etnik yoki diniy ozchilikka nisbatan kollektiv zo'rlik ishlatishning muayyan formulasi haqida borishini ko'rsatadi. Zo'rlik ishlatilishiga go'yoki ijtimoiy bo'hronlar, yuqumli kasalliklar yoki tabiiy ofatlar yuz berishiga olib kelgan bir qator jinoyatlar va magiyada ayblash sabab bo'ladi. Turli halokatlarning ehtimol tutilgan sababchilari aybdorligiga bo'lgan ishonch ijtimoiy ongdan mustahkam o'rin olgan bo'lib, bu insonning sodir etgan yomon qilmishlari uchun javobgarlikni boshqalarga yuklashga bo'lgan azaliy moyilligidan darak beradi. Bunda u o'z fikrini ikki xil ta'riflashi mumkin: bu qilmishni men emas, balki boshqa birov sodir etgan; buni jamoa orasida nimasi bilandir ajralib turuvchi odam sodir etgan. So'nggi zikr etilgan «o'zgachalik» e'tiqod, mafkura, ijtimoiy maqom, hokimiyat yoki ojizlikning o'zgachaligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Konflikt va uning sabablarini unutmagan jamoa raqobatga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka intilgan. Shu tufayli ham, R. Jirar fikriga ko'ra, ilk taqiqlar imitativ xulq-atvor bilan bog'liq

bo‘lgan. Bundan tashqari, qotil-jamoaning «hamma baloga to‘g‘anoq odam»ni o‘ldirishning barcha holatlari mazkur kollektiv tajovuz aktining ijobiy oqibatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatishiga bo‘lgan qattiq ishonchi doimiy taqiq o‘rnatilishida yoki butun voqea darhol takrorlanishida o‘z aksini topgan. Shunga tayangan holda, R. Jirar kollektiv qotillik nafaqat odamlar yaratgan dinlarning, balki ular ilgari surgan barcha fikr-mulohazalarning asosi hisoblanadi, zero ularning har birida rasm-rusumlar, sakrallik va miflarning izlariga, boshqacha qilib aytganda, kollektiv zo‘ravonlikni yo oqlash, yo xaspo‘shlash hollariga duch kelish mumkin, degan xulosaga keladi.

O‘rta asrlardagi qirg‘inlar va qatag‘onlar haqidagi ma’lumotlar ongi mifik illyuziyalar bilan zaharlangan olomon har qanday jinoyatni sodir etishga qodir ekanligini tasdiqlaydi. Uning ta’sir kuchi pashshaga ozor bermaydigan individlarning ham ko‘zini qonga to‘ldirishi mumkin. Bunga Iso Masihning xochga mixlanishi voqeasi misol bo‘lishi mumkin. Biz tahlil qilayotgan holatda totemizm davrida paydo bo‘lgan «hamma baloga to‘g‘anoq odam»ni izlashning kosmogonik xususiyati[11] birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U o‘zining sakral xususiyati bilan diniy mutaasiblik fenomenining tegirmoniga suv quyadi. Umuman olganda, «hamma baloga to‘g‘anoq odam»ni izlash konkret tarixiy holatlar bilan belgilangan ijtimoiy-psixologik deformatsiya shakllaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish joizki, diniy mutaasiblik fenomeni muayyan diniy tasavvurlarga bo‘lgan ko‘r-ko‘rona ishonchda, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarga va o‘zgacha fikrlovchilarga o‘ta toqatsizlikda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy nuqtai nazar va psixologik-madaniy asoslarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy fenomendir. Shuningdek, diniy mutaasiblikning o‘ziga xos xususiyatlariga muayyan diniy qadriyatlarning mutlaqo haqqoniyligiga sidqidildan ishonishni, mazkur qadriyatlarga o‘ta sodiqlikni, voqelikka emotsiyalar darajasida irratsional munosabatni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar ko‘pincha dogmatik fikrlash uslubi va hayot amaliyotidagi despotizm yoki avtoritarizm asosida vujudga keladi. Bu yerda «diniy mutaasiblik» va «diniy ekstremizm» tushunchalarining mazmuni o‘rtasidagi farqni hisobga olish talab etiladi, zero hozirgi zamon voqeligining o‘zi shuni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Джемс У. Многообразие религиозного опыта. – М. , 1910. – 23–24 б.

Топоров В. Н. О космологических источниках раннеисторических описаний // Труды по знаковым системам. – Тарту, 1973. Т. 6. – 114 б.

Вернан Ж. -П. Происхождение древнегреческой мысли. – М. , 1988.

Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingborough, 1986.

Тайлор Э. Б. Первобытная культура. – Москва: 1989; Токарев С. А. Религия в истории народов мира. – Москва: 1986; Фрэзэр Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984; Элиаде М. Космос и история. – М. , 1987.

Мак-Фарлен Д. Поведение животных. – М. : 1988.

Forbes RJ. Man the Maker. – L. , 1958.

Рабинович Е. Г. «Жизнь Аполлония Тианского» Флавия Филострата // Филострат Флавий. Жизнь Аполлония Тианского. – М. , 1985. – 256 б.

Thompson P. La religion de Benjamin Constant. – Pisa, 1978. – 261 б.

Guard R. Des choses cachees depuis la fondation du monde. – P. , 1978.

Фрейденбег О. М. Миф и литература древности. – М. , 1978. – 74 б.

Джемс У. Многообразие религиозного опыта. – М. , 1910. – 23–24-б.

Топоров В. Н. О космологических источниках раннеисторических описаний // Труды по знаковым системам. – Тарту, 1973. Т. 6. – 114 б.

Вернан Ж. -П. Происхождение древнегреческой мысли. – М. , 1988.

Rutherford W. Shamanism. The foundations of Magic. – Wellingborough, 1986.

Тайлор Э. Б. Первобытная культура. – Москва: 1989; Токарев С. А. Религия в истории народов мира. – Москва: 1986; Фрэзэр Дж. Золотая ветвь. – Москва: 1984; Элиаде М. Космос и история. – М. , 1987.

Мак-Фарлен Д. Поведение животных. – М. : 1988.

Forbes RJ. Man the Maker. – L. , 1958.

Рабинович Е. Г. «Жизнь Аполлония Тианского» Флавия Филострата // Филострат Флавий. Жизнь Аполлония Тианского. – М. , 1985. – 256 б.

Thompson P. La religion de Benjamin Constant. – Pisa, 1978. – 261-б.

Guard R. Des choses cachees depuis la fondation du monde. – P. , 1978.

Фрейденбег О. М. Миф и литература древности. – М. , 1978. – 74-б.

FAMILY HOLDING AS A COMPONENT OF THE INSTITUTION OF THE FAMILY

Uktam Shamsiev

Abstract

In the article, the mother's experience of holding is reflected at the beginning of her pregnancy, since it is at this time that the necessary conditions are created for the development of the first signs of the qualities of holding the mother's experience. The purpose of the article is to highlight the first signs of the holding experience of the studied parent, discuss the development of the signs of the holding experience of the parent and the features of their development system. To understand the development of the first signs, the factors influencing it – the socio-economic status of women, their individual characteristics-were studied. The relationship between the initial character and quality on the parent holding experience is studied. The article also analyzes the development of the qualitative structure of infancy and maternal experience. Other personal characteristics of a woman reflected in the socio-economic environment of life, her relationships in the parental family, her relationships with the close social environment (husband) and in the wider environment, factors of development of characteristics of the dynamics of the quality of maternal holding experience are studied.

Keywords

mother, infant, holding experience, primary qualities, primary signs, basic qualities, emotional response, factors affecting the fetus, infant, perception, susceptibility, subject of training, subject of child care.

INTRODUCTION

The cognitive development of the child, that is, the upbringing of thoughts, the formation of a worldview, the behavior of the mother strongly influences this. According to the observations of European experts, every movement of the mother, facial expressions, treatment that the child does to himself, standing over the child, manipulation are manifested in individual phrases, words that the child gradually absorbs (Winnicott, 2004). Based on our personal observations, it turned out that

the mother's behavior is increasingly becoming silent for the child, logical and illogical actions, gestures, which later, even when the child begins to pronounce individual words, return to the mother's subconscious with facial expressions, pronunciation styles. Thus, with the direct participation and help of the mother, the child learns the world, learns, the scale of his imagination about himself is gradually increasing.

In order to understand the above scientific and linguistic experience of "holding", let's consider the relationship between individuals in typical Uzbek families. When our grandmothers watch the babies of young mothers, we can often observe that they are able to feel in advance that he is thirsty or hungry without crying. It can also be called a manifestation of a skill formed in a specific healthy family environment, which can be called part of one type of holding.

LITERATURE REVIEV

Since the middle of the XX century, psychologists have studied the initial relationship of an infant with people who take care of him, and began to use the term "kindness" in relation to this process. This concept can be explained by strong mutual closeness, two-way intense feelings and emotional ties.

We have observed in our own studies how much kindness a child shows to those who care for the child, and have benefited from the "unfamiliar situation" test, which has been used in several studies. The main purpose of the test is to evaluate the kindness of the mother-child, this test can be called a small performance. During this test, an unfamiliar room with toys will be involved, in which a mother, a one-year-old child and one stranger will take part. During the experiment, the mother leaves the room once or twice. For the first time, a mother leaves her child with a stranger for three minutes, and then she is left alone. Here analyzes the behavior of the child when he is alone and the mother's return to the room, the conclusion is made. The landscape is also diverse in two situations, both are extremely natural. Children who were very kind to their mother were always with their mother. Such children are more inquisitive, sociable, independent and shy than their 2, 3, 4 and 5-year-old peers, their level of development is moderately developed. In the course of research, it was found that 32% of children were not kind to their mother, they were divided into shy and stubborn groups. Over time, such children will have a strong sense of striving for independence. Foreign psychologists have also found that when observing three categories-loving, shy, stubborn children, they radically differ from each

other in their behavior, in the development of the psyche and in communication with peers.

Caring children show that they are ready for joint activities at the age of 18 months, their enthusiasm is high and their perseverance is high. And at the age of two, he will be able to engage in active communication with peers, play toys in order and use his imagination in various games. Five-year-olds also have such differences. And then, in primary school, children who are very kind, who are able to achieve good achievements even in school, enter into active communication with peers and adults.

The analysis of numerous studies links the socio-psychological development of a child with the compassion and insight of his mother. During the study, it was found that the mothers of children who were very kind were extremely observant and attentive to their child's questions. In addition, mothers of one-year-old very kind children are able to respond competently to their every action and adjust the feeding time and the child's play to each other. Other researchers have also noted that mothers of such children can intelligently determine the needs of their children and learn from their facial movements and voices what they need, when, what they need.

Studies again show that children who start walking, that is, children who experience physical exertion, if kindness does not manifest itself, can understand their own "I" in them and cause disturbances in the formation of their speech. If children love someone very much in the first year of life, then the unpleasant effect of an unhealthy relationship made with him at the age of two will be even less.

Methodology

In the relationship of a family person, the significance of the role and embodiment of the mother again lies in the fact that before the child reaches the age of one year, the father and the mother see the personality as an object of the mother and begin to perceive the father as a separate person, starting from the age of one year (Karimova, 2008).

Based on the above analysis as a methodological basis, we considered that the quality system of maternal experience and its characteristics carried out at different stages of child development are adequate for presenting the results of observation.

The study of the first signs of maternal retention experience the initial base is based on cases of manifestation of maternal signs, counting the ideas of pregnant women about the functions of motherhood and its relation to the child (Isenina, 2002). In determining these fantasies,

projective methods can also serve, such as drawings “My child now”, "My child in the future”, as well as associative methods for determining the association with the words "child”, "mother". The use of free assositions and descriptions allows for a meaningful analysis of the particular meanings of the words "child”, "mother" for pregnant women. The general scheme of the associative experiment is such that the stimulus phrase is given to the subject and it is required to give him the first associative that comes to mind. In a free associative experiment, examiners are not subject to restrictions on the choice of associations. Examiners work with meanings in the "order of application”, which allows them to identify some incomprehensible components of meaning (Shamsiev, 9). Many researchers believe that the nature of the association will depend on the age, gender, information, profession of the examiner. This means that the associative technique is reflected as the cognitive structure of the linguistic meaning, the individual characteristics of the subjects, their particular meanings. In some semantic components of the meanings of this stimulus word, we proceeded from the fact that in the meaning of associations and in the description of words there are some values of attributes of the basic maternal experience. The obtained associations and descriptions were analysed from the point of view of the presence of these values in each researcher.

The scientific novelty of the research is as follows: the author reveals the qualities of the holding experience of the mother, influencing the socialization of the child in the family, include such maternal qualities as "acceptance” “care” “subject of learning communication” “subject of learning actions with objects”; the leading socio-psychological factors characterizing the experience of the family holding (family psychological relief, the status of the husband in the family and the attitude to the pregnant woman and mother);

the movement of maternal qualities that form the experience of family holding – affective, cognitive, reflective and operational aspects-is approved. ; for the first time scientifically defined components of social attitudes (affective, cognitive, and operational) on the basis of maternal qualities manifested in the family holding and maternal experience; the quality and characteristics of maternal experience are described, proved on the basis of empirical data and authorship, designed to serve the development and socialization of the child (Shamsiev, 9).

Results

Quantitative data in the analysis of the association and description of the words "child", "mother", reflecting the initial base of maternal experience in the group of pregnant women we observed, are shown.

Which presents the results of the analysis of the word "child", it can be concluded that from the signs of the initial base of the maternal experience of retention in a pregnant woman, the sign of the quality of reception "positive emotional attitude to the child" and the sign of the quality "empathy" were more pronounced. Associations reflecting a positive attitude of a woman to a child ("beautiful", "good", "warm", "love", etc.) were identified.

As mentioned above, the initial base includes empathy towards the future child of the future mother, attention to him, an adequate reaction to his actions, his thoughts about respect for the individuality of the child, "tenderness" from the attributes of the mother's holding experience. The future child of a pregnant woman can be considered as the initial empathy of the child with various ideas about his individual characteristics: appearance, abilities, willpower, age, actions, understanding. For example, "small", "smart", "boy", "capable", "red-faced", "smiling", "crying", "skinny", "cheerful", "understanding" and so on, the empathy of the mother to the child is expressed in understanding her feelings and thoughts after childbirth. An empathic mother communicates with a child, seeing that her previous thoughts about the child do not correspond to her real characteristics, abandons her initial thoughts about him. However, the fact that a pregnant woman has an idea of the various qualities of her unborn child can serve as her initial future empathy.

At this point, it is permissible to emphasize the feature of Sympathy "attention". Many considerations are involved in the word "child" in the association, such as "attention", "care", "taking care of the child". The mother's concern for the child may arise as a result of her thoughts and actions about him, about her calmness, as well as attention to the child. A pregnant woman's concern for her future child can serve as a starting point of "attention to the child". As for the quality of the basis of the "subject of learning", it manifests itself mainly in the associations "upbringing", "responsibility", "maternal duties" as a sign of "subjectivity".

According to our data, a large group of associations with the expression of ideas about motherhood of a pregnant woman as a "subject of child care" has been identified. These are the subjects and conditions that characterize the child's vital activity, as well as associations that make sense of the procedures necessary for his vital activity. For example,

"cradle", "vitamins", "toys", "diapers", as well as "washing", "sewing" «walking", "mother", "feeding".

